TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD SAID O‘RDUBODIY

60

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD SAID O‘RDUBODIY

60

1619323

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
M 23

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Abdulla Ulug‘ov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-7-8
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

TARIXNING TINIQ TASVIRI, TURMUSHNING TERAN TAHLILI

Turkiy xalqlar adabiyoti azal-azaldan jahon adabiyoti manzarasiga o'ziga xos ko'rk, joziba bag'ishlab keladi. Chunki "Alpomish", "Manas", "Qo'rqut Ota kitobi" kabi xalq og'zaki durdonalarisiz jahon adabiyoti xazinasini tasavvur etib bo'lmaydi. Nizomiy Ganjaviy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov asarlarisiz jahon adabiyoti juda g'arib bo'lib qolar edi. XX–XXI asr jahon adabiyoti "maydon" ida ham turkiy shoir va adiblar asarlari alohida bo'y ko'rsatib turadi. Bu davr adabiyoti "sahna"sida, jumladan, ozarbayjon adabiyoti o'ziga xos juda ko'p jihatlari bilan e'tiborni tortadi. Ozarbayjon adabiyoti, avvalo, yangilanishlarga bag'ri hamisha ochiqligi bilan diqqatni jalb etadi. Ikkinchidan, unda Sharq va G'arb so'z san'atidagi eng yaxshi jihatlar mujassamlashgani yaqqol ko'rinib turadi. Uchinchidan, ozarbayjon adabiyoti janrlarga boyligi, xilma-xil uslubiy izlanishlar mavjudligi, jahon adabiyotidagi ilg'or o'zgarishlarni tezda ijodiy o'zlashtirishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. To'rtinchidan, XX asr jahon adabiyotidagi tarixiy romanlar saralansa, unda, albatta, ozarbayjon adiblari asarlari munosib o'rin egallaydi. Muhammad Said O'rdubodiy esa ozarbayjon tarixiy romanchiligi asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Uning tarixiy mavzudagi "Tumanli Tabriz" (1938–1948), "Kurashuvchi shahar" (1938), "Yashirin Boku" (1940), "Qilich va qalam" (1946–1948) romanlari nafaqat ozarbayjon, balki XX asr turkiy xalqlar adabiyotining eng sara asarlari qatorida turadi. Chunki ularda tarixiy voqealar tiniq tasvirlanib, qarama-qarshiliklarga to'la turmush hodisalari teran tahlil qilinadi. Adibning "Ikki bolaning Yevropaga sayohati" (1908), "Qonli sanalar" (1911), "Baxtsiz millioner" (1914) romanlarida ham tarixiy haqiqat yorqin aks etadi.

Muhammad Said O'rdubodiyning asl ismi-sharifi — Mamed Hoji og'a o'g'li. U 1872-yil 24-martda O'rdubodda tug'ilgan. 1950-yili 1-may kuni 78 yoshida Bokuda vafot etgan. Ozarbayjon adabiyotida shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, tarjimon va jamoat arbo-

bi sifatida yorqin iz qoldirgan Muhammad Said O'rdubodiy murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan. U yetti yoshida otasidan ajralib, hayot kechirish uchun turli yumushlar bilan shug'ullangan, o'smirlik chog'idayoq to'qimachilik fabrikasida ishlashga majbur bo'lgan. Musulmon maktabida o'qib, madrasada tahsil olgan. Muhammad O'rdubodiy zehni o'tkirligi va tirishqoqligi bois fors va arab tillarini ham yaxshi bilgan. U to'qimachilik fabrikasida ishlagan paytlarida tunlarni mutolaa qilish bilan o'tkazib, bilimini oshirgan. Muhammad Said O'rdubodiy teran dunyoqarash, chuqur bilimga ega ijodkor ekanligi, u hayot hodisalariga turli tomondan yondashishga intilgani, inson tabiati jumboqlarini, kishilar o'rtasidagi munosabatlar murakkabligini tahlil qilishga uringani uning barcha asarlarida o'z aksini topgan. Asarlaridagi, xususan, "Qilich va qalam", "Tumanli Tabriz", "Kurashuvchi shahar", "Yashirin Boku", "Ikki bolaning Yevropaga sayohati" romanlaridagi personajlar holati, ularning kechinmalari tasviridan Muhammad Said O'rdubodiy hayotning murakkab sinovlarini boshidan kechirib, turmushning katta-katta dardlarini ichiga yutgani, u mehribon va oqibatli, xudbin va shafqatsiz odamlarga ko'p duch kelib, ko'z yoshlarini do'st-dushmanlariga ko'rsatmagan matonatli, donishmand inson bo'lganligi bilinib turadi.

Qator tarixiy romanlari bilan shuhrat qozongan Muhammad Said O'rdubodiy ham aksariyat qalamkashlar singari she'r bitish bilan adabiyot maydoniga qadam qo'ygan. U bolaligidan she'rlar yoza boshlagan. "Tumanli Tabriz" romani muallifining ilk she'ri 1903-yilda Tiflisda chiqadigan "Sharqi-Rus" gazetasida chop etilgan. O'shandan keyin matbuotda uning jaholat girdobiga tushib qolgan odamlar, mutaassib dindorlar, takabbur amaldorlar, poraxo'rlik, tovlamachilik, tamagirlikni kasb qilib olgan muttahamlar keskin tanqid qilingan maqola, she'rlari muntazam bosilib chiqqan. Muhammad Said O'rdubodiyning matbuotdagi chiqishlari ko'proq ijtimoiy-siyosiy xarakterda bo'lib, ularda davrning dolzarb muammolari diqqat markaziga qo'yilgan. Uning dastlabki she'rlar to'plamlari "Beg'amlik" (1906-yil), "Vatan va ozodlik" (1907-yil) deb nomlangan. Millatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari Muhammad Said O'rdubodiy ijodining markazidan "qizil ip" bo'lib o'tgan. Uning dastlabki she'r va maqolalari ham, so'nggi asarlari ham shunday ezgu g'oyalar bilan

sug'orilgan. Millatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari nafaqat Muhammad Said O'rdubodiyning, balki u bilan bir davrda yashagan turk, tatar, o'zbek, turkman, tojik, qozoq, qirg'iz adabiyoti namoyandalari ijodining ham umumiy mundarijasini belgilagan.

"Beg'amlik", "Vatan va ozodlik" she'riy to'plamlari muallifi asarlari o'zining mavzu ko'lami, muammolarga millatparvarlik, islomiy e'tiqod nuqtayi nazaridan yondashilishiga ko'ra Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza kabi o'zbek adiblarining she'r, drama, roman, hikoya, publitsistik maqolalariga monand keladi. O'sha davr aksariyat ijodkorlarining nafaqat asarlari, balki shaxsiy hayoti, ijtimoiy faoliyatida ham juda ko'p o'xshash jihatlar yaqqol ko'rinadi. Birgina dalil — Muhammad O'rdubodiyning "Mulla Nasriddin" hajviy jurnalida, Abdulla Qodiriyning "Mushtum" jurnalida qizg'in faoliyat olib borgani ham ularning dunyoqarashida, ijodiy intilishlarida muayyan yaqinlik bo'lganiga aniq isbot bo'la oladi. Bu ikki ulug' adibning tanqidiy ruhdagi publitsistik maqolalarida ham, tarixiy mavzudagi romanlarida ham talaygina o'xshashliklar ko'zga tashlanadi.

Hech qachon tinch turmaydigan bu dunyoning serg'alva zamonida yashab, muttasil tahlika ostida hayot kechirgan va shunga monand turfa xil taqdir egalari bilan ko'p bor to'qnashgan Muhammad Said O'rdubodiy o'z asarlari sujeti markaziga eng yomon, badnafs kimsalarni hamtovog'iga aylantirib, ularga eng yaxshi odam deb qaraydigan, tarafdori bo'lmaganlarni esa har qancha imon-insofli, vijdonli bo'lmasin, tahqirlab ezg'ilaydigan kishilar obrazini qo'ygan. "Qilich va qalam" romani muallifining asarlari tarixiy voqelikka, ijtimoiy-siyosiy hodisalarga xolisona munosabatni ifodalagani bilan e'tibor qozongan. Adib o'zining romanlari, dramalari, operalarida inson tabiatining o'zgaruvchanligi, shu bois kishilararo munosabatlar hamisha murakkab kechishini yorqin obrazlarda ko'rsatib bergan. Qizg'in ijod qilish barobarida, ijtimoiy hayotga faol aralashgan Muhammad Said O'rdubodiy manfaatparast millatchilar bilan doim to'qnashib, ko'p tazyiqqa uchragan. "Qonli sanalar" romanida armanlar bilan ozarbayjonlar o'rtasidagi mojarolarni haqqoniy ko'rsatib bergani uchun 1915-yilda qamoqqa olinib, Saritsinoga surgun qilingan. Mutaassib dindorlarni, nasl-nasabini pesh qilib, boshqalarni toptay-

digan dvoryanlarni tanqid qilgan satirik asarlari uchun 1914-yilda Samaraga badarg'a qilingan. Lekin bu xildagi nohaqliklar, bunday zulmlar "Beg'amlik", "Vatan va ozodlik" muallifining irodasini buka olmagan. U doim millatdoshlari, dindoshlari manfaatini himoya qilib, adolat va haqiqat tantanasi uchun kurashgan. Muhammad Said O'rdubodiy 1907–1911-yillarda kechgan Eron inqilobida ishtirok etgan. O'sha davr bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy voqealar muallifning "Tumanli Tabriz", "Kurashuvchi shahar", "Yashirin Boku" romanlarining yozilishiga zamin yaratgan. Muhammad Said O'rdubodiyning ko'rib-kechirganlari, tarixiy manbalarni o'qib anglagan haqiqatlari "Qilich va qalam" romani hayotiy joziba kasb etishida muhim omil bo'lgan.

"Qilich va qalam" romani ikki kitobdan iborat bo'lib, unda jahon adabiyotida "xamsa"chilikni boshlab bergan ulug' Sharq mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy (1141–1203)ning hayot yo'li va ijodiy faoliyati, buyuk shoir yashagan tarixiy davr voqealari asos qilib olingan. Muhtasham ushbu asarda Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari ulug' donishmandlar o'zining ustozi sanagan buyuk shoir yashagan serg'alva zamonning ijtimoiy-siyosiy mojarolari ta'sirchan manzaralarda tasvirlangan. Muhammad Said O'rdubodiyning ushbu asari XX asr turkiy xalqlar adabiyotiga bo'lakcha ko'rk, betakror joziba bag'ishlaydi. Chunki "Qilich va qalam" romanida barcha zamonda ham murakkab kechadigan insoniy munosabatlarda hamisha mustahkam o'rin egallaydigan sevgi-muhabbat, havas va hasad hislari, mansab-martaba, shon-shuhratga o'chlik illatlari yorqin bo'yoqlarda chizib beriladi. "Qilich va qalam" romani o'sha davrda va keyingi zamonlarda bitilgan tarixiy mavzudagi asarlardan o'tmish hodisalari kechayotgan zamon va makon manzarasi tiniq tasvirlanishi, sujet tizimidagi voqealar dinamik tarzda rivojlanib borishi, personajlarning dialog va monologlari keskin bahs-munozaraga asoslanishi, ularning ichki kechinmalari butun murakkabligi bilan ochib berilishi, qahramonlarning o'y-fikrlari, o'zaro muloqotida teran falsafiy mushohada barq urib turishi, tarixiy voqealarga umuminsoniy nuqtayi nazardan yondashilishi kabi o'ziga xos qator jihatlari bilan alohida ajralib turadi. "Qilich va qalam" bitilgan bir paytda o'zbek adabiyotida Oybekning "Navoiy" (1944), qozoq adabiyotida Mux-

tor Avezovning Abay Qo'nanboy o'g'li to'g'risidagi to'rt kitobdan iborat ulkan epopeyasi yaratilgani va tarixiy mavzudagi ushbu romanlar uchun milliy adabiyot asoschilari asosiy qahramon qilib olingani irqi, tili, dini bir, tarixi mushtarak xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida, ularning adabiyotida mustahkam ichki bog'liqlik, doimiy o'zaro aloqadorlik mavjudligi hamda bu vobastalik bir-biriga qardosh xalqlar adabiyotini quvvatlantirib, o'zaro yaqinlashtirib turadigan ilohiy qonuniyat hukm surishidan dalolat beradi.

Muhammad Said O'rdubodiyning "Qilich va qalam" romanida solnomalarda qayd qilingan tarixiy voqealar: bosqinchilik urushlari, hokimiyat talashish, toj-taxtni egallash uchun qonli kurash, diniy nizolar, milliy mojarolar butun ziddiyatlari bilan badiiy bo'yoqlarda aks ettiriladi. Asarda yuqori tabaqa vakillari, saroy amaldorlari hayoti dehqonlar, bog'bonlar, hunarmandlar turmushi bilan parallel qo'yilib, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash gavdalantiriladi. Turkiy qavmlarning shonli o'tmishi obyekt qilib olingan mazkur muhtasham asarda musulmonlar dunyoqarashi, hayot tarzidagi o'ziga xos jihatlar, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilib, mutaassib dindorlar, islomdan o'z manfaati yo'lida foydalangan amaldorlarning kirdikorlari, adolatsizlik, yovuzlikdan jabr chekkan mazlumlarning ayanchli ahvoli hayotiy voqealar asosida ochib beriladi.

Tarix voqeligi tiniq tasvirlangan, hayot hodisalari teran tahlil qilingan "Qilich va qalam" romanining har bir sahifasi muallif ayni asarini hayotda katta tajriba orttirib, ijodiy balog'atga yetgan paytida, ilohiy ilhom og'ushida bitganini namoyon etadi. Muhammad Said O'rdubodiyning mazkur asari har jihatdan nafaqat turkiy xalqlar, balki XX asr jahon adabiyotidagi tarixiy mavzu yoritilgan eng yaxshi romanlaridan biri sanaladi. "Qilich va qalam" romanida ulug' Sharq mutafakkiri Shayx Nizomiddin Ganjaviy yashagan murakkab zamon manzarasi Mirxondning ko'p jildli "Rafzat us safo" va boshqa ko'plab tarixiy manbalar, qadimiy qo'lyozmalarga tayanilgan holda chizib beriladi. Albatta, "Qilich va qalam" romanida jahon adabiyotidagi birinchi xamsanavis obrazini gavdalantirishda uning ijodiy merosi asos qilib olinadi. Chunki boshqa shoir, adiblar ijodida ko'ringani singari Nizomiy Ganjaviyning she'rlari va dostonlarida ham uning

shaxsi, tarjimayi holiga tegishli talaygina jihatlar aks etadi. Muhammad Said O'rdubodiy "Qilich va qalam" romanida Nizomiy Ganjaviyni dilbar qalbli inson va ulug' shoir sifatidagi siymosini biri biridan ta'sirchan manzaralarda tasvirlab, taqdim etadi. Romanda Nizomiy Ganjaviy keskin ziddiyatlarga to'la voqealar, murosasiz to'qnashuvlar ichida ko'rinadi. Kuchli qarama-qarshiliklardan iborat bu intrigalar xuddi hayotning o'zidagidek bo'lishi barobarida o'tmishning haqsizlik, adolatsizlik, bosqinchilik, talonchilik, zulm va zo'ravonlik hukm surgan zulmat turmushini tasavvurda jonlantiradi.

Roman bosh qahramonlari Nizomiy Ganjaviy va uning do'sti Faxriddin o'zi yashayotgan zamondan aslo qanoatlanmaydi. Ular hayotda "Faqat kuchlilar yashashga haqli" degan changalzor qonuni hukm surishi, bosqinchilik, talonchilik hukmdorlar va amaldorlarning asosiy ishiga aylanib qolgani, tevarak-atrofdagi ko'pchilik xudbinlik, shuhratparastlik, amalparastlik, takabburlik, riyokorlik kasalligiga chalingani, aksariyat odamlar yaratuvchanlik, bunyodkorlik mehnati bilan mashg'ul emasligi, ular boshqalarga zulm o'tkazish, zo'ravonlik qilishdan xijolat tortmasligini ko'rib azoblanishadi. Ayniqsa, Nizomiy odamlarning ma'naviy o'sish-ulg'ayishga ehtiyoj sezmasligi, shaxsiy manfaati yo'lida o'zgalarni toptashi, boshqalarni majburlab bo'ysundirib ezishdan huzur qilishi, kishilarning haqiqiy inson bo'lib yashashni istamasligi, bu to'g'rida o'ylamasligidan iztirobga tushadi. Romanda Nizomiy Ganjaviy insonning bu hayotda yashashdan asosiy maqsadi va vazifasi nima ekanligi to'g'risida mushohada yuritadigan mutafakkir hamda boshqa ko'pchilik odamlar singari oddiy, kamtarona turmush kechiradigan inson sifatida ko'rinadi. "Qilich va qalam"da ulug' Sharq shoirining shaxsiy-oilaviy hayoti, fe'l-atvori, turli toifadagi odamlar bilan muomala-munosabati, ijod, ilhom og'ushidagi holati, kayfiyati juda ishonarli chizib beriladi. Roman muallifi chinakam ishtiyoq va ilohiy ilhom bilan bitgan ushbu asarida Nizomiy Ganjaviyning boshqa odamlarga o'xshagan banda va benazir donishmand shoir sifatidagi yorqin siymosini gavdalantiradi. "Qilich va qalam" romani bu jihatdan ulug' qozoq adibi Muxtor Avezovning mashhur "Abay", "Abay yo'li" asarlariga monand keladi. Qozoq adibi romanlari qahramoni Abay ham xuddi "Qilich va qalam" qahramoni Nizomiy Ganjaviy singari insonning hayotda yashashdan maqsadi va odam

umrining mazmunini tushunish, anglashga urinadi hamda shu xususda muttasil mushohada yuritadi. Nizomiy Ganjaviyning she'r, dostonlari mazmun-mundarijasini belgilagan bu xususdagi mulohazalar "Qilich va qalam" romanida uning o'y-kechinmalari, boshqa personajlar bilan muloqotidagi bahs-munozaralarda o'z aksini topgan. Nizomiy Ganjaviyning sevgi-muhabbat, o'zaro ishonch, mehr-oqibat, oila, sadoqat, xiyonat, adolat kabi muammolar bilan bog'liq mulohazalari romanga teran falsafiy mazmun bag'ishlagan.

"Qilich va qalam" sahifalarida Muhammad Said O'rdubodiy jahon adabiyotidagi dastlabki "Xamsa" muallifi yashagan davr ijtimoiy voqeligini chuqur o'rgangani, u turli tabaqadagi odamlar turmushini yaxshi bilgani yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda Nizomiy Ganjaviy yashab ijod qilgan zamon ziddiyatlari shu qadar ishonarli va ta'sirchan tasvirlanadiki, o'quvchi ulug' shoirni, u bilan muloqot qilayotgan kishilarni xuddi ro'parasida turganday tasavvur qiladi. Muhammad Said O'rdubodiy ushbu asarida zulm va zo'ravonlikka asoslangan saltanatlar, xudbinlik, manfaatparastlik, shuhratparastlik illati bilan og'rigan xonadonlar o'z-o'zidan ich-ichidan yemirilishiga diqqatni jalb etadi. Ozarbayjon tarixiy romanchiligini boshlab bergan muallif "Tumanli Tabriz", "Yashirin Boku", "Kurashuvchi shahar" romanlaridagi kabi "Qilich va qalam" asarida ham dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, ziyolilarning qashshoqlashishiga sabab bo'ladigan, odamlarni mute qulga aylantirishni istaydigan hukmdorlar, ularning manfaatini ko'zlaydigan mutaassib dindorlar, xatti-harakati munofiqlikka asoslangan, ong-tafakkuri turmush tarziga xudbinlik, mol-dunyoga o'chlik, riyokorlik, zo'ravonlik singib ketgan amaldorlarning kirdikorlarini san'atkorona mahorat bilan ko'rsatib beradi. Uning "Qilich va qalam" romani tarixiy voqelikni, insoniy munosabatlar murakkabligini haqqoniy aks ettirgan asar sifatida kishilarning dunyoqarashi kengayishi, ma'naviyati o'sishiga xizmat qiladi.

"Qilich va qalam" romanining asosiy qahramonlari Nizomiy Ganjaviy va uning do'sti Faxriddin kuchli xarakter va zo'r qobiliyatga ega odam sifatida ko'rinadi. Bunday odamlarning obrazini yaratish esa oson ish emas. Lekin Muhammad Said O'rdubodiy o'zining keng dunyoqarashi, chuqur bilimi, boy tasavvuriga asoslangan holda, bu murakkab ijodiy ishni me'yoriga yetkazib ado etgan. Roman mual-

lifining idealidagi inson timsolini ifodalagan bu ikki obraz o'zining ma'naviy kamolotga erishishga intilishi, halol, pokiza hayot kechirishi, adolatparvarligi, haqiqat uchun kurashdan tolmasligi, jasurligi, bir so'z bilan aytganda, qalbiga eng go'zal his-tuyg'ularni jo etgani, hayot tarzi ezgu amallardan iborat ekanligi bilan o'quvchini maftun etadi. "Qilich va qalam"da asosiy qahramonlar bilan bir qatorda, turli yoshdagi, har xil ijtimoiy tabaqaga mansub boshqa personajlarning ham xatti-harakati, ichki kechinmasi juda ishonarli va ta'sirchan ochib beriladi.

"Qilich va qalam" romani asosiy qahramonlarining hayoti beorom kechadi. Ular hukmdorlarning taxt talashishlari, amaldorlarning manfaatparastligi, saroy ahlining riyokorligidan azob chekishadi, tevarak-atrofda kechayotgan adolatsizliklar, to'xtovsiz ro'y berayotgan bosqinchilik urushlari, xunrezliklar, dehqonlar, hunarmandlar xonavayron bo'layotganidan ruhan iztirobga tushishadi, dinni o'z manfaati uchun dastak qilayotgan ruhoniylardan nafratlanishadi. Muhammad Said O'rdubodiy turli tabaqa vakillari o'rtasidagi, bir oila a'zolari orasidagi, hukmdorlar saroyi ichidagi murosasiz to'qnashuvlarni qalamga olish orqali odam barcha zamonda ham murakkab olam ekanligi, uning ruhiy dunyosida hamisha qarama-qarshiliklarga to'la ziddiyatli jarayon kechishini san'atkorona mahorat bilan tasvirlaydi. Nizomiy Ganjaviyning do'sti Faxriddin, shoira Mahsatiy bilan suhbati, Amir Inonjning suyukli qizi, sohibjamol Qatiba bilan munozarasidan ezgu amallarga intiladigan kishilar boshqalarga yaxshilik qilishga qodir bo'ladi, ular hech qachon qalloblik, riyokorlik qilmaydi, degan ma'no anglashiladi. "Xamsa" muallifi hodisalarni tahlil qilish qobiliyatining kuchliligi, odamlarga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish zarurligini har jihatdan asoslab berishi bilan o'zgalardan ustun turadi. U do'sti Faxriddindan, hukmdorning qizi Qatibadan va boshqalardan muammoga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishi, masalaga turli tomondan turib qarashi bilan ajralib turadi. Nizomiy Ganjaviyning odam va olam to'g'risidagi mulohazalari u ma'naviy dunyosi boy inson ekanidan, ezgulik va go'zallikni yuksak qadrlaydigan ulug' ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

"Qilich va qalam" romanida Nizomiy Ganjaviy mehnatsevar, oliyjanob, har jihatdan ajoyib inson bo'lganini yaqqol namoyon etadigan voqealari tasviriga keng o'rin berilgan. Keskin to'qnashuvlardan

iborat bu hayotiy voqealar tarixiy haqiqatni ochib berish barobarida Nizomiy Ganjaviyning mutafakkir inson va boshqa kishilar singari oddiy bir odam bo'lib yashaganini namoyon etadi. Tarixning teran tahlili, turmushning tiniq tasviridan iborat "Qilich va qalam" romani o'zining mana shu jihati bilan ham barcha uchun birday foydali kitob bo'la oladi. Ozarbayjon tarixiy romanchiligi asoschisining ushbu asari sujeti hayotiy voqealarga asoslanadi, personajlar o'rtasidagi munosabatlar dramatik to'qnashuvlarga to'la ekanligi bilan diqqatni jalb qiladi. Asarda barcha qahramonlarning xatti-harakati, ichki kechinmalari yorqin badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Shu bois mazkur roman maroqlanib mutolaa qilinadi. Nizomiy Ganjaviy, shoira Mahsatiy odamlarni ilm-ma'rifatli qilish, ularga hayot haqiqatini anglatishda adabiyot eng kuchli vosita deb qaraydi, barcha baxt-saodatga erishishi, turmushda adolat, tinchlik, osoyishtalik barqaror bo'lishida boshqa barcha narsalardan ko'ra adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi, adabiyotdan bebahra kishilar qo'pol va johil bo'lib qoladi, deb uqtiradi. "Qilich va qalam"da Nizomiy Ganjaviy ezgulikka, go'zallikka mehr qo'ygan, muttasil mushohada qilishga odatlangan, hayotdagi har bir hodisadan teran mazmun topa biladigan, tabiatdagi har bir o'zgarishda cheksiz hikmat mavjudligini anglay oladigan mutafakkir sifatida ko'rinadi. Unga qarshi bo'lganlar esa boshqalarni poymol qilishga o'rgangan qo'rs, qo'pol, berahm kimsa sifatida nafrat uyg'otadi. Xususan, hukmdorning qizi Qatiba oliyjanoblik tuyg'usidan mahrum, xudbin, makkor, shuhratparast kimsa ekanligi bois ig'vo, mojaro qo'zg'ashga, fisq-fasod qilishga o'ch kimsa sifatida kishini g'azablantiradi. Fe'l-atvori, maqsad va intilishiga ko'ra salbiy qahramon Qatiba roman sujeti markazida turadi. Adib uning timsolida yovuzlik, makkorlikning yorqin ko'rinishini chizib beradi. Qatiba "Qilich va qalam" romanidagi eng ta'sirchan obrazlardan biri sanaladi. Fe'l-atvori, dunyoqarashi turlicha personajlar o'rtasidagi murosasiz to'qnashuvlar tiniq tasvirlangan "Qilich va qalam" romani o'zining ana shu kabi xususiyatlariga ko'ra kishilarning ong-tafakkuriga ta'sir o'tkazib, ularning qalbida ezgu amallarga intilish, go'zallikka mehr bilan qarash hissini kuchaytiradi. Bunday asarlar esa o'z-o'zidan aniqki, kishilarni adolat va haqiqat nima ekanligi to'g'risida o'ylatadi hamda odam va olam to'g'risida to'g'ri tushuncha beradi. Muhammad

Said O'rdubodiyning mazkur asarida Nizomiy Ganjaviy obrazi orqali davrning ilg'or kishilari intilishlari ifodalanadi. "Qilich va qalam" romani Nizomiy Ganjaviy singari ijodkorlar jamiyatning ma'naviy ustozi ekanligi, adabiyot esa kishilar uchun hayot darsligi bo'la olishi to'g'risida tasavvur uyg'otadi hamda so'z san'atining insoniyat hayotidagi ahamiyati avvalo shu bilan belgilanishini isbotlaydi.

"Qilich va qalam" romani voqealar bayonidan iborat, bir marta o'qilgach, tashlab qo'yiladigan, yengil-yelpi, kishini zeriktiradigan asarlardan tamoman farq qiladi. Unda tarixiy voqelikning barcha ziddiyatlari ta'sirchan tasvirlanib, turmushning bir-biriga aloqador hodisalari, kishilar o'rtasidagi munosabatlar murakkablikligi, inson qalbidagi qarama-qarshi kechinmalar jarayoni ishonarli ko'rsatiladi. Muhammad Said O'rdubodiy dastlabki "Xamsa" muallifi obrazini gavdalantirish asosida tarixiy voqelikni, ijtimoiy hodisalar mohiyatini, turli tabaqa vakillari o'rtasidagi munosabatlar murakkabligini teran tahlil qiladi. Ozarbayjon adibi romani voqealar bayoniga asoslangan asarlardan o'zining mana shu xususiyatiga ko'ra ham ajralib turadi. "Qilich va qalam" romanining globallashgan XXI asrdagi ahamiyati tarixiy voqelik ta'sirchan yoritilgani, hayot hodisalari haqqoniy aks ettirilgani, Nizomiy Ganjaviyning yorqin obrazi gavdalantirilgani bilan belgilanadi. Mazkur roman ushbu va yana boshqa xususiyatlari bois ko'ra nafaqat ozarbayjon, balki turkiy xalqlar adabiyotining eng e'tiborli asarlari qatorida mustahkam o'rin tutadi. "Qilich va qalam"da turlicha dunyoqarashdagi kishilarning turmush tarzi, fe'l-atvori, maqsadi yo'lidagi intilishi va o'zaro munosabati ta'sirchan tasvirlab beriladi.

"Qilich va qalam" romanida muallif Nizomiy Ganjaviyning ideallashtirilgan obrazini gavdalantirishni maqsad qilib qo'ymagan. Asarda birinchi "Xamsa" muallifi obrazi u hayotda qanday yashab o'tgan bo'lsa, shu holida ko'rsatilgan. Romanda Nizomiy Ganjaviy duch kelgan to'siqlar tarixiy haqiqatga mos tarzda ishonarli ko'rsatilgan. Nizomiy Ganjaviyning inson tabiati, ijtimoiy-siyosiy muammolar, ma'naviy-axloqiy masalalar xususidagi mulohazalari teran mazmunni mujassamlashtiradi. Ular shu bois kishilarni hayot hodisalari to'g'risida mushohada yuritishga undaydi. Ulug' shoirning o'y-kechinmalari, o'z-o'zi bilan munozarasi, o'zgalar bilan tortishuvi,

bahslari o'quvchilarning dunyoqarashiga ta'sir o'tkazib, fikrini o'stiradi. Chunki romanda personajlarning ruhiy holatlari teran tahlil qilinib, ularning xatti-harakatlari o'quvchilar yaqqol tasavvur qiladigan tarzda gavdalantiriladi.

Muhammad Said O'rdubodiy "Qilich va qalam" romanida fe'l-atvori, dunyoqarashi, maqsad va intilishlari bir-biriga o'xshamagan personajlarni turli vaziyatdagi, har xil kayfiyatdagi holatlarini ko'rsatish orqali ularning hayotiy qiyofasini yaratadi. Shuning uchun Nizomiy Ganjaviy va uning do'sti Faxriddin ham, hukmdorning qizi Qatiba va uning atrofidagi odamlar ham o'ziga xos fe'l-atvor va maqsad bilan yashayotgan inson sifatida taassurot tug'diradi. Muallif dunyoqarashi tamoman teskari personajlar o'rtasidagi murosasiz kurashni qalamga olar ekan, ularning kayfiyati, ruhiy holati, ichki kechinmalaridagi ziddiyatli jarayonni juda zukkolik bilan tahlil qilib, ular turgan, harakatlanayotgan joy ko'rinishi, tabiat manzaralarini nafis va ko'rkam qilib chizib beradi. Romanning ayni sahifalarida adib xuddi Abdulla Qodiriy va Cho'lpon, Muxtor Avezov va Chingiz Aytmatov singari chinakam so'z san'akori ekani yaqqol namoyon bo'ladi.

Albatta, adabiyot tarixida yorqin iz qoldirgan barcha ijodkorlarning asarlarida personajlar ruhiy holati, o'zaro munozara-bahslari, voqealar kechayotgan manzil, makon ko'rinishlari, tabiat manzaralari juda chiroyli tasvirlanadi. Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Abdujamil Nurpeisov kabi qozoq adiblari, Chingiz Aytmatov, To'lagan Qosimbekov singari qirg'iz yozuvchilari, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubovdek o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodi to'g'risida so'z ketganda ham, o'z-o'zidan aniqki, ular asarlarining ayni jihatlariga urg'u beriladi. Muhammad Said O'rdubodiy barcha so'z san'atkorlari singari personajlar dunyoqarashidagi o'zgarishlar jarayonini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi. "Qilich va qalam" romanida bu jihatdan, ayniqsa, hukmdorning qizi Qatibaning Nizomiy va Faxriddin, Husomiddin hamda boshqalar bilan munosabati, o'z-o'zi bilan va o'zgalar bilan bahs-munozarasi darhol diqqatni jalb etadi. Xudbin, manfaatparast, shon-shuhratga o'ch sohibjamol Qatibaning dunyoqarashi ichki qarama-qarshiliklarga to'la saroy muhitida shakllanadi, manfaatparastlikka asoslangan

munosabatlar uning fe'l-atvoriga singib, xarakterini toblaydi. Shu bois u hamma joyda hammaga hukmini o'tkazish, boshqalarni batamom o'ziga bo'ysundirishni istaydi. Romanda Qatibaning tabiatiga aylangan hukmfarmolik va uning ijtimoiy zamini keskin to'qnashuvlarni keltirib chiqargan ziddiyatlarga to'la voqealar asosida ochib beriladi. Qatiba obrazi gavdalantirilgan o'rinlar romanning eng yorqin sahifalari sifatida xayol-tasavvurni yorishtirib, o'quvchining "Qilich va qalam" romaniga qiziqishini kuchaytiradi. O'quvchi Qatibaning o'z maqsadiga erishish yo'lidagi xatti-harakatlaridan o'tmishning fojialari, tarixdagi xunrezliklar ko'p jihatdan hukmdorlar va ularning atrofidagi kishilarning fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari bilan bevosita bog'liq ekani, "Faqat kuchlilar yashashga haqli" degan tushunchani turmushdagi asosiy aqidasiga aylantirgan yirtqichlar to'dasi dunyoni doim mojarolar maydoniga aylantirib kelganini yanada aniqroq anglab yetadi.

"Qilich va qalam" romani sujeti "sahna"sida o'nlab personajlar harakat qiladi. Ularning aksariyatini tarixiy shaxslar obrazi tashkil etadi. Romandagi to'qima qahramonlar ham o'quvchi ko'z o'ngida xuddi Nizomiy Ganjaviy, Qizil Arslon, Husomiddin, To'g'rulbek, Qutlug' Inonj, Qatiba, shoira Mahsatiy singari tarixiy shaxslar obrazidek namoyon bo'ladi. Romandagi kishilar obrazining bunday jonli, ta'sirchan ko'rsatilishi muallif yorqin iste'dodli ijodkor ekanligidan, u hayot hodisalarini teran tahlil qila olganidan kelib chiqadi. Ulug' ozarbayjon adibining bu yuksak ijodiy parvoz o'tmish voqeligi qayd qilingan fors, arab tilida bitilgan tarixiy manbalardan quvvatlangani, Nizomiy Ganjaviy, Mahsatiy kabi shoirlar asarlari "Qilich va qalam" avtorining talantiga kuch bag'ishlab, uning xayol-tasavvuri sarhadlarini yorishtirib turganiga borib bog'lanadi. Romandagi tarixiy shaxslar va to'qima obrazlarning ichki kechinmalari, xatti-harakati tasviri Muhammad Said O'rdubodiy inson tabiatini, uning tuyg'u va hissiyotlarini, qalbidagi ehtiroslar o'yinini chuqur his qilganidan, kishilar o'rtasidagi bahs-munozaralar keyinchalik ularning o'zaro munosabatlariga, albatta, ta'sir ko'rsatishini juda yaxshi bilganidan dalolat beradi. O'tmish voqeligini, personajlar o'rtasidagi to'qnashuvlarni qalamga olganda "Tazyin ul-asvor", "Siyosatnoma", "Tarixi Saljuq" kabi kitoblar, Mirxondning "Ravzat us safo", Qazviniyning "Nuzhat ul-qulub", Lutfalibek Ozarning "Otashkada" singari solnomalari,

Nizomiy Ganjaviy, Mahsatiy kabi shoirlarning doston va she'rlari asos sifatida ko'rsatilgani "Qilich va qalam" romani ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Voqealar kechgan manzillarning hozirgi o'rni to'g'risida: "Isfahon qishlog'i Qorabog' bilan Ganjaning o'rtasidagi katta bir qishloqdir"; "Karkut, Asadobod va Sahna— Hamadon bilan Besutun orasida bo'lgan Kurdiston shaharlaridir"; "Beylaqon Shomoxi shahrining yonidagi Oqsuv qishlog'i o'rnida bo'lgan kichkina bir shahar edi. Zogotolo Beylakani boshqadir" tarzida izoh berilgani muallif qalamga olgan hodisalar hayotiy asosga ega ekanidan darak beradi. Yoki saltanatlar o'rtasidagi urushlar, mamlakat ichidagi xunrezliklarda ko'pincha hukmdorlarning fe'l-atvori, xohish-istaklari, ularning el-yurt hurmatini qozongan kishilarga nisbatan shaxsiy adovati alohida ahamiyat kasb etgani: "453-yil hijriyda saljuqiylar sulolasining asosini qurgan To'g'rulbekning hokimiyati zamonida Ozarbayjonda katta qo'zg'olon ko'tarilgan edi. Xalifaga qarshi bo'lgan bu qo'zg'olonga To'g'rulbek sovuqqonlik bilan qaradi, chunki xalifa Qoyimbiamrilloh o'z qizi Saidani To'g'rulga berishni istamagandi. Lekin 454-yilda Tabrizda nikoh bo'lgani uchun To'g'rulbek darhol qo'zg'olonni qonga botirdi"; "To'g'rul — Eron saljuqiylarining so'nggisi — III To'g'ruldir"; "Husomiddin — Ozarbayjonning siyosiy hayotida juda katta rol o'ynagan shaxs. U Malik To'g'rul va Qizil Arslon davrining siyosiy arboblaridandir"; "Mujiriddin Nizomiyning asrdoshi, beylogonlik bir shoirdir"; "515-yilda saljuqiylardan sulton Mahmud Bag'dod xalifasining amri bilan Ozarbayjon davlatini Marog'a hokimi Oq Sungar Ahmadiyga sotgan edi. Lekin ozarbayjonliklar unga itoat etmadilar. Oq Sungar olib kelgan katta bir qo'shinni Ardabil ostonalarida tor-mor keltirdilar. Nihoyat, xalifa Ozarbayjonni idora etishni turk amirlaridan Jyushbekka topshirdi. Jyushbekning qo'shini Tabriz bo'sag'alarida ozarbayjonliklarning otliq askarlariga duch keldi. Ozarbayjonliklar Jyushbekni asir olib, Tabriz darvozasida dorga osdilar ("Tarixi Saljuq" kitobiga qaralsin)" shaklida ochiqlangani ham "Qilich va qalam" romanida tarixiy voqelik haqqoniy aks ettirilganiga aniq isbot bo'la oladi.

Asarda tarixiy voqealar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash sifatida talqin qilinadi, hayotiy hodisalar mehr-oqibat va shafqatsizlik, sadoqat va xiyonat, imon va kufr, ma'rifat va jaholat orasidagi ziddi-

yat tarzida badiiy aks ettiriladi. Fe'l-atvori, maqsad-muddaosi, odamlar bilan muomala-munosabatiga ko'ra osongina salbiy va ijobiyga ajratiladigan personajlarning ruhiy holati, kechinmalari tasviridan muallif hayotda boshidan ko'p savdolarni o'tkazgani, ijtimoiy-siyosiy jarayonga faol aralashgani, hokimiyat uchun kurashadigan kishilarning fe'l-atvorini yaxshi bilgani, u ozarbayjon xalqi tarixi, Nizomiy Ganjaviy yashagan davr ijtimoiy voqeligini juda chuqur o'rgangani yaqqol bilinib turadi. Muhammad Said O'rdubodiy tarixiy mavzuga bag'ishlangan asarlarida, xususan, "Qilich va qalam" romanida qalamga olingan hayot hodisalariga juda teran qaraydi, ulardagi ziddiyatlar sababini chuqur tahlil qiladi. Ulug' adib shu asosda el-yurt ravnaqi uchun naf keltiradigan ezgu amallarni ardoqlab, xudbinlik, manfaatparastlik, takabburlikning har qanday ko'rinishiga adoqsiz nafrat bilan qaraydi. Bunday kishilar esa boshqa soha, boshqa kasbdagilar emas, hatto, shoir, yozuvchi, adabiyotshunoslar orasida ham juda kam uchraydi. Vaholanki, ular ezgulikni sharaflab, yovuzlikni qoralab, hammadan ko'ra ko'proq gapiradi, bu xususda muttasil yozadi... Ayrim qalamkashlar bosqinchilik urushlarini olib borgan Napaleon, Chingizxon singari hukmdorlarni ijobiy qahramon sifatida ko'rsatmoqchi bo'lishadi...

Keng tarmoqli sujeti tarixiy voqealarga asoslangan "Qilich va qalam" romanida bosqinchilik urushlari, mamlakat ichidagi xunrezliklarni tabiatan takabbur, shuhratparast hukmdorlar boshlashi, barcha adolatsizliklar jabrini esa oddiy odamlar tortishini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu asarda oddiy odamlar, ya'ni dehqonlar, chorvadorlar, bog'bonlar, hunarmandlar hech qachon erkin, ozod bo'lmagani, ular doim hukmdorlar, amaldorlar manfaati uchun mashaqqat tortib mehnat qilgani, saroy ahli, mansabdorlarning maishati, aysh-ishrati uchun soliq to'lagani, bu foniy dunyoning manzarasi azaldan shunday bo'lib kelgani, ming-minglab odamlar azob chekib ishlagani holda, uning huzurini shohlar, sultonlar, xalifalar va ularning atrofidagilar ko'rishini aks ettirishga jiddiy urg'u beriladi. Bu esa chorakam bir asr avval bitilgan "Qilich va qalam" romani bugungi XXI asr uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanini bildiradi. Ulug' ozarbayjon adibining ushbu asari globallashgan hozirgi zamon odamlari uchun zarurligi shundaki, unda g'alvalarga to'la zamonamizda

har qachongidan ko'ra dolzarblashib, ikki kishining o'zaro suhbatidan tortib, davlatlar miqyosida siyosiy muloqotlarda ham asosiy mavzuga aylanib qolgan hamda hamisha jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan inson qadri, uning haq-huquqlari, shaxs va muhit munosabatlari masalasi o'rtaga qo'yiladi. Muallif ijodiy balog'atga erishib, fikr-mulohazalari teranlashib, kamolga yetgan bir paytda bitgan ushbu romandagi personajlarning bahs-munozaralari bugun ham hayotimizda ko'p kuzatilayotgan hodisalarga o'ziga xos javob kabi yangraydi.

Tarix qatlaridagi voqealar ta'sirchan tasvirlangan, turmush bag'rida hamisha barq urib yashaydigan muammolar teran tahlil qilingan mazkur romandagi eng ta'sirchan obrazlardan biri Qatiba "arab, turk va rum qonining bir-biriga qo'shilishidan vujudga kelgan bu ofatijonni birinchi ko'rishidayoq sevmaslik mumkin emas edi. Go'zallikning barcha tashqi xususiyatlarini tamomila o'ziga singdirgan bu qiz o'z asrining ko'rkka boy ayollarining mujassami edi" deb ta'riflanadi. U yosh Ilyos — Nizomiy Ganjaviyni chin dilidan sevadi. Qatiba Ilyosga: "Ochig'ini aytganda, seni har xil qiyofalarda tasavvur qilaverib charchagandim. O'sha ko'rganimdan so'ng bir nav tinchidim. O'sha oqshom qarshimda insonlarga namuna bo'lgan siymoni ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ishon, Ilyos! Onamning joni va bobom xalifaning muqaddas vujudiga ont ichaman" deb maktub yozadi. "Go'zallikning barcha tashqi xususiyatlarini tamomila o'ziga singdirgan, o'z asrining ko'rkka boy ayollarining mujassami" bu qiz Husomiddinga Ilyos to'g'risida: "Senga avval aytganimdek, men favqulodda odamlarni sevaman. U kambag'al bo'lsa ham, unda buyuklik bor. U tufayli kelajakda meni hamma taniy oladi. "Bu falon mashhur shoirning xotinidir!" deya xalq meni qo'lini bigiz qilib ko'rsatadi. Men uning ijodida ishtirok etganim sababli tarixda ham qolishim mumkin" deydi. Adib Qatiba obrazi orqali islom dinida xotin-qizlarning bilim olishi, erkin fikrlashi, o'z haq-huquqlarini himoya qilishiga keng yo'l berilgani, Sharq olamida aqlli, bilimli, zukko, sohibjamol ayollar o'zlarining topqirligi, teran fikrlari, dono maslahati bois hukmdorlar, amaldorlar faoliyatiga, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga ishora qilgan. Qatiba xudbin, shuhratparast ekanligi tufayli juda ko'p mojarolar, xunrezliklarning boshida tura-

di. Lekin u aqlsiz, ahmoq emas. U: "She'r va musiqa mening ruhimning yagona ozuqasidir" deydi. "Bag'dodda tahsil olgan", tashqi ko'rinishida "turklikdan qora sochlar, arablikdan quvnoq ko'zlar va rumlikdan oq-qizil yonoqlar"ni o'zlashtirgan, husn, ko'rk bobida bu nuqsonsiz go'zal "Men faqat Oron o'lkasining qahramonigina emas, balki butun Ozarbayjonga dong'i ketgan va sinalgan qahramonman. Siz o'zingiz bilasiz, Amir hazratlarining hukmronligi faqat mening qilichim soyasidagina mustahkam bo'ladi.... Ozarbayjon faqat mening bobomning qilichi zo'ri bilan xalifa Mutavakkilbillohga itoat etgan" deb maqtanadigan Husomiddinga o'xshagan amaldorlardan ko'ra aqlli ekanligini ko'p marta isbotlaydi. Qatiba o'z prototipiga ega tarixiy shaxs obrazi ekanligi aniq bilinib turadi. U o'ziga bino qo'ygan, takabbur kimsalarning tipik vakillaridan biriga: "Husomiddin, aqlingni boshingga yig'. O'tgan kishilarning qahramonlik ta'rifi qanchalik yuksak va shon-sharaflarga ega bo'lsa ham, lekin ularning arzimaydigan bugungi vorislari uchun u narsa yo'q darajada desa bo'ladi. Men seni fazilatdan mahrum demoqchi emasman. Lekin sendagi bu fazilat bir qalbni maftun etadigan darajada yuksak emasdir. Aqlli qizlar erga tegar ekan, o'tmishni emas, kelgusini nazarda tutishlari lozimdir. Men ham o'shanday qizlardanman! Men u odamda, kelajakda favqulodda istiqbol egasi bo'la olishga qodirligini ko'rmasam, u bilan turmush qurmayman. Senga maslahatim shu, bobolaringning shuhrati bilan yashashni tashla. Chunki tarixda mashhur bo'lgan zotlarning juda ko'p avlodlarini hech narsaga yaroqsiz va qobiliyatsiz bir ahvolga tushirgan narsa ham faqatgina bobolarining shuhrati bilan yashash fikriga tushib qolganliklaridir" deb ta'na qiladi.

Qatibaning boshqa personajlar, jumladan, Nizomiy Ganjaviy bilan bahs-munozaralari ham romanning eng ta'sirchan sahifalari sifatida diqqatni tortadi. Bu bahs-munozaralarda hukmdor qizi zukko, bilimli, ammo behad shuhratparast, takabbur, o'ziga bino qo'ygan ayol sifatida namoyon bo'ladi. Yuz-ko'zi, qaddi-qomatida insonga xos husn, ko'rkning barcha sifat, xususiyatlarini jamlagan bu sohibjamol ayolning teran, chuqur ma'noli fikrlari qancha o'ylantirsa, uning xudbinona maqsadiga erishish yo'lidagi makkorliklari, shafqatsizligi inson behad murakkab mavjudot ekaniga, u hech bir jonzot qilolmaydigan shafqatsizliklarga qodir berahm, yovuz, makkor bo'la olishiga yorqin misol

bo'la oladi. Qatiba bilan Nizomiy Ganjaviy o'rtasidagi munozarada barcha zamonda jiddiy bahslarga sabab bo'ladigan masala — islom shariatida xotin-qizlar begona kishilardan yuzini bekitib yurishi shartligi to'g'risida ham so'z ketadi. Qatiba Ilyosni sevishini ochiqcha aytgani holda, unga: "Bugun baxt menga kulib boqqanligi uchun men ham yuzimni birinchi martaba begona erkakka ko'rsataman. Endi sendan tortinmayman... Qalbimni ochmoq istaganim bir odamdan yuzimni yashirishning qanday ma'nosi bor edi, faqat sen bir narsani bilishing kerakki, men yuzimni senga ham ko'rsatishni harom deb bilaman" deydi. Nizomiy bunday fikr yuritish noto'g'ri ekanligini: "Olamda biror narsa yo'qki, tabiatning o'lchovidan o'tmagan bo'lsin. Agar xotinlar yuzini yashirishi zarur bo'lganida edi, tabiatning o'zi bu zaruratni hech qachon unutmagan va chetda qoldirmagan bo'lardi... Jonli bir insonning yuzini berkitib yurishi insonlarda unga nisbatan qiziqish emas, aksincha shubhalar tug'dirishi mumkin, chunki yuzida biror kasalning nuqsoni bo'lgan yoki biror irgamchik yarasini ko'rsatish bilan kishilarni jirkantirmaslikni o'ylagan xotinlargina yuzlarini yashirishi mumkin. Har qadamda ochiq chehra va go'zal siymolarga tasodifan to'qnashib turish insonlarning ruhini ko'taradi va bahri dilini ochadi. Yana-da aniqrog'i, tabiatning mo'jizalariga ishontiradi. "Yuzini barchaga barobar ko'rsatish xotin-qizlarning qadrini tushiradi" degan fikringiz ham yanglish fikrdir. Yashirin narsaga hech kim baho bermaydi" deb inkor qilishi globallashgan XXI asr odamlarini ham muhokama, munozaraga chorlaydi.

Tarix sahifalariga bitib qoldirilgan qarama-qarshiliklarga to'la voqealar ta'sirchan sujet maydoniga jamlanib, barcha zamonlarda kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ko'pincha turli tushunmovchiliklarga sabab bo'ladigan turmush hodisalari teran tahlil qilingan mazkur romanda Nizomiy Ganjaviy va uning do'sti Faxriddin obrazlarida muallifning ideali ifodalanadi. Asardagi fe'l-atvori, xatti-harakati, maqsadi va intilishiga ko'ra musbat va manfiy obrazlarga ajraladigan qahramonlarning har biri falsafiy mushohada yuritishi bilan e'tiborni tortadi. Masalan, shon-shuhratga o'chligi, boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga ustomonligi, fisq-fasod, makkorlikning uyasi ekanligi bilan diqqatni jalb etadigan Qatiba: "Insonlar baquvvat qo'llari-la qilich va qalqonlarning soyasida o'zlarini qahramon hisob-

lasalar ham, haqiqiy qahramonlik bu emasdir. Qahramonlik kishilarning matonati, aqli va farosati bilan o'lchanadi" deydi. Romanda qalam kishilardagi aql va bilim, did va farosat ramzi, qilich esa kuch-qudrat va hokimiyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Nizomiy Ganjaviy qalam, Faxriddin qilich mujassami sifatida ko'rsatiladi.

"Qilich va qalam" romani sujetidagi voqealar tarixiy asosga ega. Romanda hukmdorlar, xalifalarning shuhratparastligi, aysh-ishratga o'chligi, saroylar fisq-fasod, fitnalar maydoniga aylanib ketgani ishonarli voqealar orqali ta'sirchan tasvirlanadi. Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin boshidan kechirgan voqealardan dastlabki "Xamsa" mualli-fi o'zaro urushlar avj olgan serg'alva davrda yashagani, shon-shuhratga o'ch hukmdorlar o'zining maishati, shaxsiy istak-xohishi yo'lida xalqqa ko'p jabr-zulm o'tkazgani ravshanlashadi. "Qilich va qalam"ing har bir sahifasidan notinch, g'alayonlarga to'la zamon nafasi seziladi. Muhammad Said O'rdubodiy ushbu romanida musulmon dunyosining fojiasi, undagi saltanatlar tanazzuli, hukmdorlarning aysh-ishratga berilishi, saroylar fitna-fasod uyasi bo'lib qolishi, amaldorlar poraxo'r, ta'magirga aylanishi, din ahllari manfaatparast, xudbin bo'lib ketishi, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar turli soliqlar ostida ezilishi va xotin-qizlar ayovsiz xo'rlanishi tufayli kelib chiqqanini fosh etadi.

"Qilich va qalam" asari sujeti markazida ozarbayjon xalqining maishatparast mahalliy hukmdorlar va shuhratparast bosqinchilar zulmi ostida ezilishi, Shimoliy va Janubiy Ozarbayjon xalqlari birdamligiga qarshi turgan kuchlar qabihligini ko'rsatish turadi. Romanda qalamga olingan bu bilan bog'liq voqealar tarixiy haqiqatga asoslanadi. Asardagi asosiy qahramonlar va ularga yaqin personajlar tarixiy voqealar markazida harakat qiladi. Ularning o'zaro munosabatida tarixiy voqealar badiiy to'qima voqealardan ko'ra bo'rtib ko'rinadi. Lekin ta'kidlash kerakki, sujet tizimidagi har ikki turdagi voqealar — tarixiy hodisalar hamda badiiy to'qima voqealar dunyoqarashi, fe'l-atvori, maqsad va intilishi turlicha personajlarning o'zaro munosabatlaridan tabiiy ravishda o'sib chiqadi. Bu esa "Qilich va qalam"da tarixiy voqealar realistik aks ettirilib, personajlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar, ularning ichki kechinmalari teran tahlil etilganidan dalolat beradi. Muhammad Said O'rdubodiyning mazkur asarida xalifalar, hukmdorlarning takabburligi, shon-shuhratga o'chli-

gi, izzattalabligi, hashamat, aysh-ishratga o'chligi xalqlar boshiga ko'p kulfat keltirgani, ularning shaxsiy istak-xohishi, huzur-halovati uchun ko'plab kishilarning hayoti barbod bo'lgani, xotin-qizlarning umri guldek so'lgani hayotiy voqealar asosida ko'rsatiladi. Romanning "Xotinlar va qizlar dunyosi" faslida, jumladan: "Kaniz va joriyalarni sotishda nom chiqargan Fanhos muassasasiga jo'nadilar... O'tgan zamonlarda bu yerda yigirma mingga yaqin kanizlar, cho'rilar va qullar saqlanib, sotish uchun tarbiya qilinar ekan... Qul va kaniz sotuvchilar Turkistonni, Rumni va boshqa mamlakatlarni kezadilar... Ba'zilarini urush paytlarida asir tushirib, olib kelib sotishadi. Ba'zi birlarini esa ota-onalaridan arzongina mablag'ga sotib olinadi. Soliqlar hisobiga sotib olinganlar ham bor..." deyiladi.

"Qilich va qalam" sujetidagi aksariyat voqealar hukmdorlar, saroy ahli va ular bilan yaqin aloqada bo'lgan kishilar bilan bog'liq holda kechadi. Ular hokimiyat, boshqaruvga bevosita tegishli ishlar jarayonida hamda oila davrasida ko'rsatiladi. Muallif o'z manfaati, shaxsiy huzur-halovati uchun davlat tizimini, hokimiyatni, dinni qurol, vosita qilib olganlarning chirkin qiyofasini ochib tashlaydi. Adib ayni asarida buni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Amir Inonj, Ganja xatibi, Husomiddin, Qatiba kabi romandagi manfiy obrazlar ishtirok etgan "sahna" larda muallifning ushbu maqsadi yanada yaqqol seziladi. Yozuvchi hukmdorlar saroyi, xonadonida sodir bo'lgan voqealarni, shahar va qishloqlarda ro'y bergan xunrezliklarni, bosqinchilik urushlarini, jang maydonida kechgan olishuvlarni tarixiy manbalarga asoslangan holda, qalamga oladi. "Qilich va qalam" da, tarixiy mavzudagi aksariyat asarlardan farqli holda, tarixiy voqealar jonli obrazlar harakati orqali aks ettiriladi. Asarda tarixda ro'y bergan barcha bosqinchilik urushlari, turli xunrezliklar hukmdorlarning shuhratparastligi, izzattalabligi, takabburligi tufayli sodir bo'lgani, bu kabi g'ayriinsoniy ishlarda ularga manfaatparast din ahllari yaqindan ko'maklashib kelgani, bundan esa millionlab odamlar aziyat chekkanini ko'rsatish diqqat markaziga qo'yiladi. "Xamsa" dostonlarida ilgari surilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, Nizomiy tilidan: "Saroyda xizmat qiluvchi odamlarning necha xil yuzlari bor. Ular bir-birlarini ta'qib etishni va bilgan sirlarini boshqalarga yetkazishni o'zlariga vazifa hisoblaydilar" deyiladi.

"To'p va chavgon o'yini" fasli "Qilich va qalam"dagi eng ta'sirchan o'rinlardan biri bo'lib, unda halifalarning ko'ngilxushligi uchun o'tkaziladigan chavgon o'yini qanday kechishi tasvirlanadi. Bu o'yinda Faxriddin ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritadi. Xalifa: "Bu g'alaba va bu otga mukofot sifatida mukofot o'laroq, Ozarbayjon qahramoni nima istasa, so'rasin" deganida, Faxriddin unga ta'zim qilib, xalifa Mustarshidbilloh uchun Ozarbayjondan yuborilgan qirq nafar qiz vataniga qaytarilishini iltimos qiladi. Bir necha yillar vatan sog'inchida azob-uqubat chekkan mazlumalarni kutib olish Shimoliy Ozarbayjonda bayram shodiyonasiga aylanib ketadi. Nizomiyning bergan maslahati, ko'rsatgan yo'l-yo'rig'i va Faxriddinning mardligi, matonati tufayli begunoh mazlumalar ozodlikka erishib, oilasi bag'riga qaytib keladi. Bu voqea: "Qilich va qalam soyasida yaratilgan bu ozodlik Shimoliy Ozarbayjonda katta bayram tusini olgan edi. Qizlar, kelinlar va yosh-u yalanglar kecha-kunduz yo'l ustida turib, qahramonlarning kelishini kutar edilar. Asirlikdan qutqarilib olib kelinayotgan qizlarning taxtiravonlari ustida "Yashasin asiralarga najot bergan Ozarbayjon qahramoni!" degan so'zlar ipak bilan yozilgan edi. Dilshod o'tirgan taxtiravon Faxriddinning do'stlari va qarindosh-urug'lari tomonidan o'rab olingan edi. Ganja shahrining kattadan kichigi Ganja soyi bo'yiga yig'ilgan edi" tarzida romantik bo'yoqlarda ifoda qilinadi. Xuddi shu bayram tadbirida Nizomiy Ganjaviyning minglarcha odamlar oldiga chiqib: "Har qanday qullik va asoratlarni yenga oladigan qudratli bir kuch borki, u ham bo'lsa xalqimizning qahramon farzandlaridir. Zulm va haqsizliklar kishilarning milliy g'ururini kamsitsa-da, ayni zamonda qahramonlarning adolat qilichini qayraydi va yovga shafqatsiz bo'lish g'oyalarini tug'diradi. Dunyoda jonli va jonsiz bo'lgan barcha narsa mavh bo'lishga mahkumdir. Lekin har qanday xalqning tarixiy va milliy an'anasi hech qachon buzilmaydigan va yo'qolib ketmaydigan bir javohirdir. Javohir chirimaydi. U tuproq ostida bo'lsa ham, tuproq ustida bo'lsa ham javohirdir. Bosqinchilar qanchalik bizni kamsitmasinlar, bizni Sharq xaritasidan o'chirib tashlashga qanchalik urinmasinlar, biz bundan uncha ajablanmasligimiz kerak. Biz ajnabiylar keltiradigan qullik va asorat nimaligini bilamiz... Lekin bulardan ham razilroq narsa bor. U ham bo'lsa, xalqining ulug'ligini inkor etish va uning ulug'ligiga

loqayd qarashdir. Shunday loqayd qaraydigan odamlarning dushmanligi tashqi dushmanlardan ham ko'ra xavfliroqdir... Qahramonlik har bir xalqning siyosiy va madaniy saviyasining bebaho mahsulidir. Qahramonlar yetishtirmagan biror xalq bo'ynini hech qachon ajnabiylar bo'yinturug'idan xalos qila olmaydi. Bu kun haqorat va haqsizlik quchog'idan, shahvatparast xalifalarning saroyidan qutqarib olingan qizlarning o'z oilalariga qaytib kelishi yana bir qahramon va azamatlik nishonasidir. Men aminmanki, bu kun oldimizda turgan yoshlarning ichidan yuzlarcha Faxriddinlar yetishib chiqadi" deb aytgan so'zlari xuddi globallashgan XXI asr odamlariga qaratilgan nutq, butun insoniyatga qilingan murojaat kabi jaranglaydi. Bu kabi yana boshqa qator jihatlarga ko'ra "Qilich va qalam" romani mazmundor asarlar qatorida mustahkam o'rin egallaydi. Unda tarixiy voqealar barcha zamonda odamlar hayotida kuzatiladigan kundalik turmush hodisalari bilan o'zaro uyg'unlikda ko'rsatiladi.

Sujeti dramatik voqealarga asoslangan ushbu romanda personajlar o'rtasidagi muomala-munosabatlar ularning kayfiyati, maqsad-muddaosiga qarab o'zgarib turadi. Ozarbayjon adibining mazkur asarida qalamga olingan aksariyat voqealar ildizi Nizomiy Ganjaviy yashab ijod qilgan olis o'tmishga borib taqaladi. Asarda o'sha zamondagi musulmon Sharqi hukmdorlari, xalifalarning ijtimoiy, maishiy turmushi tafsilotlari, ular o'rtasidagi munosabatlar murakkabligi tarixiy haqiqatga asoslanib, yorqin badiiy aks ettiriladi. Umuman, ushbu roman turli tabaqa vakillarining dunyoqarashi, hayot tarzi, o'zaro aloqalari realistik detallar asosida gavdalantirilib, ijtimoiy-tarixiy voqealar teran tahlil qilingani bilan e'tiborni tortadi. Roman sahifalaridagi: "Amir Inonj qo'pol va shuursiz bo'lishiga qaramay, Sharqda ro'y berayotgan siyosiy hodisalarning nozikligini bir-biridan farq qila bilardi. Xalqaro vaziyat uning shaxsiy hayotini ham tahlika ostida qoldirgan edi. Sharqda buyuk bir hukumat tashkil etgan Saljuq xonadonining inqirozga yuz tutishi Sharqning siyosiy vaziyatini ostin-ustin qilib, Sharqning jug'rofiy tuzilishida anchagina o'zgarishlar vujudga keltirgan edi. Hukumat saljuqiylardan Eldaniz avlodiga o'tgan mahalda buyuk bir saltanat qurishga muvaffaq bo'la olmagan Xorazm shohi Alouddin Takish saljuqiylar qo'l ostidagi yerlar hisobiga o'z mamlakatini kengaytira boshlagan edi. Shu

mahalgacha saljuqiylar ta'sirida yashab kelgan xalifa endi Xorazm shohlarining nufuzi ta'siriga o'tardi. Amir Inonj o'z saltanatini saqlab qolmoq uchun xalifaning yordamiga suyana olmasdi. Shuning uchun ham u o'z-o'ziga: "Xalifaning menga o'xshash yuzlarcha kuyovlari bor. Xalifaning minglarcha joriyalaridan tug'ilgan qizlar har biri men singari bir odamning xotinidir, kim bilsin, balki xalifa Sofiya ismli qizi borligini tamomila unutgandir. Hozir xalifaning joriyalaridan tug'ilgan qizlari haqida o'ylashga vaqti bormikin? U qizlarini hokimlarga berar ekan, ularga yordam qilish maqsadida emas, balki ulardan yordam olish tomonlarini ko'zda tutadi. Unga biror yordamim tegmagandan so'ng, u nechun mening g'amimni yesin", der edi... Xiyonat ko'lami shu qadar kengayibdiki, hatto, yotoqxonamgacha yetib kelibdi. Dunyoda boshlangan alg'ov-dalg'ovlar xonadonimga ham ta'sir etdi. Qarib qoldim, xotinim esa yosh. Butun vaqtimni hukumat ishlariga sarf etganim uchun, oilamga e'tibor bermadim, ish shu darajaga borib yetibdiki, kotibim ham menga xiyonat qilishga jur'at etibdi. Katta bir mamlakatni idora qilishni o'rgandim-u, lekin o'z uy ichimni o'rgana olmadim... Men o'z xotinimni o'z uyimda erga berishdek nomussizlikka chiday olmayman... Xotinim edi. Xoin bo'lib chiqdi. Uni taloq qilib, uydan haydab chiqarish kerak. Lekin buning iloji yo'q. U — xalifaning qizi. Mening hayot-mamotim esa xalifaning irodasiga bog'liq" kabi o'rinlar o'quvchining qiziqishini kuchaytirib, uni "Qilich va qalam"ga bog'lab qo'yadi. O'quvchi mazkur romanning bu kabi o'rinlarini mutolaa qilayotganida saltanatlarning halokatga uchrashi, xalqlar o'rtasida urushlar kelib chiqishi, obod shahar va qishloqlarning vayron bo'lishi, dehqonlar, bog'bonlar, hunarmandlar, chorvadorlar azob-uqubat ichida turmush kechirishiga, birinchi navbatda, kaltabin, takabbur, ishratparast hukmdorlar, amaldorlar va ularga ko'mak bergan, qo'llab-quvvatlagan manfaatparast, mol-dunyoga o'ch din ahllari aybdor ekanini yanada aniq anglab yetadi.

"Qilich va qalam" romanining teran mazmunga egaligi muallif tarixiy voqelikni va kundalik turmush hodisalarini yaxshi bilishini namoyon etadi. Uning bir-biri bilan mantiqan bog'langan dramatik voqealardan iborat sertarmoq sujetli murakkab kompozitsiyasi esa adib mohir so'z san'atkori ekanini ko'rsatadi. Yozuvchi tarixiy voqealarni qalamga olganda ham, kishilar o'rtasidagi munosabatlarda

hamisha kuzatiladigan hodisalarni ifodalaganda ham hayot haqiqatiga muvofiq keladigan ta'sirchan kartinalar yaratishga erishadi. O'quvchi Nizomiy va Faxriddin atrofidagi kishilar qora kuchlarga tiz cho'kmasdan o'z maqsadiga erishish uchun matonat bilan kurashib yashagani, ma'naviy barkamol bu qahramonlar o'zining sevgi-muhabbatiga, adolat va haqiqatga zarracha xiyonat qilmaganiga, shunday odamlar borligi tufayli hamma zamonda ezgulikning qadri va mavqeyi baland ekaniga, hayot zulm va zo'ravonlik gullashiga to'sqinlik qiladigan kuchlarni hamisha maydonga chiqarishiga ishonadi. Chunki romanda Amir Inonj, Husomiddin, Qatiba singari ezgulik dushmanlarining halokati zarur va qonuniy hodisa sifatida tushuntirib beriladi.

"Qilich va qalam"dagi eng ta'sirchan obrazlardan biri Qatiba bo'lib, uning obrazida takabburlik, shon-shuhratga o'chlik, makkorlik, fitna-fasodning mujassami timsoli gavdalantiriladi. Qatiba Husomiddinga shunday deydi: "Sen bilasanki, To'g'rulda davlatni idora qila oladigan qobiliyat yo'q. Lekin mamlakatning boshida qanday bo'lsa ham bir shaxs turishi lozim. Bu xalq sen yoki o'g'limning taxtga o'tirishiga yo'l qo'ymaydi. Lekin To'g'rul — bu mamlakatning qonuniy sultoni. Biz u orqali har qanday ishni qila olamiz, uning ko'z oldida oila qurishimiz ham mumkin. Husomiddin, senga ont ichaman! Men unga xotin bo'lmayman. U bilan mening oramizda bo'layotgan nikoh haqidagi gap-so'zlarning hammasi nayrangdan iborat. Men uni aldayapman. U ham fursat o'tkazish uchun meni aldab kelmoqda. Aqlli bo'l. To'g'rul taxtga o'tirmasdan turib, tobutga kirishi mumkin emas. Avval uni podsho qilib ko'tarish kerak, qolgan ishni o'zim qilaman. To'g'rulni bu yerda, Abubakirni esa Tabrizda o'ldirtiraman" deydi. Qatibadan bunday gaplarni eshitgan Hussomiddinning holati romanda: "Qatiba shularni gapirar ekan, Husomiddin ham shu kungacha qilib kelgan jinoyatlarini ko'z oldiga keltirar va Qatibaning fitnalari natijasida halok bo'lgan gunohsizlarni o'z ichida sanar edi. Husomiddin ikki hukmdor va oltmishta gunohsiz kishining o'limini o'z bo'yniga olgan edi. Bularning evaziga faqatgina besh martaba Qatibaning lablaridan o'pa olgan edi. Endi u charchagan, umidsizlik uni qamrab olgan edi" deb ifodalanadi. O'sha paytda Qatiba qanday ahvolda ekani, uning ko'nglidan qanday kechinmalar o'tgani esa: "Qatiba uning ko'zlariga qarab qo'rquvdan titrab ketdi. Ichida: "Ikki hukm-

dorni o'ldira olgan odam Qatibani ham o'ldira oladi", deb o'yladi. Men istasam, hozirning o'zida Husomiddinni Qizil Arslonni o'ldirishda ayblab, qatl ettira olaman. Lekin Husomiddin kelgusida yana kerak bo'ladi. U endi vijdonini yutqazgan odam. U o'zini qutqarish uchun jinoyat ustiga-jinoyat qilaveradi. Men uni jinoyatga tortganman. Endi bunaqasini topa olmayman, chunki yoshlik o'tib ketdi, go'zalligim esa tog'ning orqasiga botgan oftobning so'nggi nurlariga o'xshaydi. Bundan so'ng hech bir ahmoq go'zalligi so'ngan bir xotin uchun qo'lini qonga botirmaydi" deb ko'rsatiladi.

Tarixiy sujetli ayni asarda juda ko'p tarixiy voqealar tasvirlanadi. Unda tili, dini, tarixi bir xalqlarning hamkor, hamjihat bo'lib hayot kechirishi, davlatlarning ravnaq topishi, mamlakatlarning gullab-yashnashi, odamlarning tinch, osoyishta, farovon yashashiga to'sqinlik qiladigan kuchlarning qabihliklarini ochib tashlash diqqat markaziga qo'yiladi. Romanda musbat va manfiy obrazlarning ziddiyatli munosabati misolida tarixiy haqiqat yoritilib, fe'l-atvori, maqsad-muddaosi turlicha personajlarning bahs-munozaralari orqali inson tabiati jumboqlari, kishilar o'rtasidagi aloqalar dabdurustdan keskin o'zgarib ketishi yorqin ko'rsatiladi. Masalan, Nizomiy Faxriddin bilan mamlakatdagi notinch vaziyat, hukmdorning zulmi, odamlar o'zaro urushlar, xunrezliklar, og'ir soliqlardan aziyat chekayotgani to'g'risida suhbatlashib o'tirganda: "Men birovning baxtiyorligini boshqasining badbaxtligi ustiga qurishga tarafdor emasman... Befoyda qon to'kish ham jinoyat hamda ahmoqlik bo'ladi. Men Shimol bilan Janubning birligini taklif etaman" deganida do'sti unga: "Siyosat qon va qurbon talab qiladi... Iiyos, xalqning avomligini, tariqat va mavhumotlar ichida qolib ketganligini hech nazarda tutmayapsan. Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonning har bir qishlog'ida yuzlarcha diniy tariqatlar bor. Ular rivoyatlar, mazhablar yaratganlar. Shu qadar qarama-qarshi aqidalarda bo'lgan va bir-birini kofir deb turli nizolar bilan yashayotgan shunday bir xalqni osonlik bilan yarashtirish mumkin bo'larmikan?" deb e'tiroz bildiradi. O'quvchi esa aql va bilim, kuch-qudrat va matonat timsoli bo'lgan bu ikki do'stning bu kabi mulohazalari ayni haqiqat ekanini sezib, bilib turadi. Muallif Nizomiyning Faxriddinga nasihat qilib aytgan: "Sen tarixni unutma. Qoimbiamrilloh o'zining o'n uch yoshli qizi Saidani oltmish besh

yoshli To‘g‘rulga qanday maqsadda bergan bo‘lsa, bizning Amirimiz ham yigirma ikki yoshli go‘zal qizi Qatibani oltmish yoshga kirgan Otabek Muhammadga xuddi shu maqsad bilan bera oladi... Hozir biz, olchoqlik va sharmandaliklar haqiqat ustidan ustun turgan bir davrda yashamoqdamiz...” kabi maslahatlari orqali tarixiy dalillarni roman bag‘riga singdirib yuboradi. Muallifning idealidagi inson obrazini ifodalagan Faxriddinning maydonga yig‘ilgan xalqqa qilgan: “Oron xalqi! Nihoyat, necha yillardan beri ezilganlarning, haqoratlar va iskanjada saqlanganlarning qasos olish navbati keldi. Ana shu dorga osiladigan zot qirq yildan beri minglarcha gunohsiz qon-qardoshlarimizni va aziz vatandoshlarimizni dorga osdi. Din va shariat pardasi ostida ish ko‘rgan bu dinsizlar xalifa, Xudo va payg‘ambarlar nomidan so‘zlab, mol-mulkka, davlat va boylikka, inson mehnatining boy mahsullariga qanoat qilmadilar. Hamma narsaga ega bo‘ldilar. Erlarni dor tagiga, xotin-qizlarimizni esa haramxonalarga olib ketdilar. Shobron, Beylaqon, Barzand, Kashtosib qizlari Bag‘dod xalifalarining saroylariga hadya qilinib yuborildi. Xalqning aziz va go‘zal qizlarini qo‘y galasiday saroylarga haydab keltirib, bir-birlariga in’om qildilar” degan murojaatida ham bosqinchilik urushlari, o‘zaro xunrezliklar avj olgan chirkin zamonda kechgan tarixiy haqiqat ifodalanadi.

“Qilich va qalam” romani adabiyot va san’at milliy hodisa bo‘lishi barobarida, umuminsoniy hodisa ham ekanligi, bir-biriga aloqador bu ikki jihat uning hujayralariga singishib ketganiga yorqin misol bo‘la oladi. Ulug‘ o‘zbek adibi Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida: “Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” deb qayd etganidek, mashhur ozarbayjon yozuvchisi Muhammad Said O‘rdubodiy ham o‘zining ushbu asarida insoniyatga qarata: “Tarixdan saboq olish hammaga hamisha naf keltiradi” deb xitob qiladi. U shu maqsadda, tarixiy manbalarga tayangan holda, ozarbayjon xalqining ulug‘ farzandi Nizomiy Ganjaviy yashagan serg‘alva zamon kartinasini san’atkorona mahorat bilan chizib beradi. Keskin to‘qnashuvlardan iborat voqealarga asoslangan dramatik sujetli ushbu romanda tarixiy haqiqat tiniq tasvirlanib, insoniyat hayotiga chuqur o‘rnashgan turmush hodisalari teran tahlil qilinadi.

Abdulla Ulug‘ov,
professor

QILICH VA QALAM

Roman

BIRINCHI QISM

XAROBOT

Uylarida yashirinib ho‘ng-ho‘ng yig‘layotganlar ko‘cha-ko‘yda xursandchilik qilayotganlardan bir necha marotaba ortiq edi. Sirtdan shod-xurram ko‘rinishga tirishgan ganjaliklar bu shodiyonani o‘zlariga og‘ir musibatday qarshilar edilar.

Ozarbayjon hukmdori Shamsiddin Eldaniz[1] yaqinda o‘lgan edi. Uning o‘rniga o‘g‘li Jahon Pahlavon taxtga o‘tirgandan beri Ozarbayjon xalqining umri ichki urushlarda kechardi. Jahon Pahlavon — Otabek Muhammad taxtga minganda, Ozarbayjonning eng muhim joylari: Marog‘a va Tabriz Oq Sungar Ahmadning qo‘l ostida qolgan edi. Shuning uchun ham Otabek Muhammad ozarbayjonliklarni, xususan, eronliklarni safarbar qilib, Tabriz bilan Marog‘ani qutqarish uchun uzoq muddatli urush boshlab yuborgan edi. Otabek Muhammad Marog‘a va Tabrizni ishg‘ol qilganidan keyin shaharlarga choparlar yuborib, aholiga buyuk g‘olibiyat xabarini e’lon ettirdi.

Shu kuni Otabekning chopari Ganjaga kelgandi. Ayni zamonda, uzoq yillar davomida jang maydonlarida yashagan Oron lashkari ham Oronga qaytar edi. Ganja hokimi Amir Inonj bu g‘alabani zo‘r shod-u xurramlik bilan kutib olinglar, deb Ganja xalqiga qat’iy farmon bergan edi. Xalq urushdan g‘olibona qaytayotgan lashkarni kutib olish uchun ko‘chalarga chiqqandi. Lekin ko‘p kishilar g‘alaba bilan qaytayotgan lashkar safida o‘z o‘g‘illari va aka-ukalarini ko‘rmasdilar. Nayza va qilichdan omon qolganlarining birmunchasi ochlikdan va kasallikdan qirilib ketgan edi. Qayg‘u va motamni soxta g‘alaba pardalari ortiga yashirishga uringanlar o‘lib-tirilib ko‘chalarda jonbozlik ko‘rsatardilar. Na yig‘lashga, na qurbonlar haqida so‘zlashga imkon bor edi.

Bu to‘g‘rida Ganja hokimi qat’iy topshiriq bergan edi. Ganja xalqiga faqat ko‘chaga chiqish va “Yashasin Otabek Muham-

[1] Eldaniz Ildigiz ham deyilar edi.

mad! Yashasin zafar!" deb qichqirishgagina ijozat berilgan edi. Ko'ngillari yig'layotganlarning hammasi yuqoridagi kalimalarni takrorlab qichqirishardi, chunki bu kalimalarni zikr etmaganlar ta'qib qilinar va nomlari qora ro'yxatga olinib, hukumatga topshirilar edi.

Uyidan chiqmaganlar qamchi va tayoq zarbi ostida ko'chaga chiqarilardi. Yirtiq-yamoq kiyimda chiqqanlar uylariga qaytarilib, yangi liboslar topib kiyib chiqishga majbur qilinar edi. Ruhoniylar, ulamolar olomon oldiga tushib, "Qur'on"dagi zafar oyatlarini ketma-ket o'qib borardilar. Kishilar hukumat ma'murlarining yonidan o'tayotganlarida, o'zlarini xursand ko'rsatishga va g'am-u g'ussalarini yashirishga urinishar, ma'murlar va josuslarni ko'rgandagina: "Yashasin zafar!" deb qichqirishar edi. Minglarcha ozarbayjonliklarning murdalari ustiga qurilgan bu g'alaba butun xalqni emas, faqat birgina shaxsning g'alabasi ekanligini kishilarning chehralaridan sezish mumkin edi.

Ko'chaga chiqqanlarning orasida ikki o'spirin — Ilyos bilan Faxriddin ham bor edi. Ganjani titratgan bu sun'iy shodiyonani ko'rib, bu ikki og'aynining yuragida Otabek Muhammadga va Ganja hokimi Amir Inonjga qarshi chuqur bir nafrat uyg'ondi. Yosh Ilyos ko'chalardan selday oqib, Malikshoh maydoniga tomon ketayotgan xalqni Faxriddinga ko'rsatib dedi:

— Sen menga mana shu til uchida yashasin deb qichqirayotgan xalq orasidan birorta xushvaqt odamni va Otabek Muhammadni xushvaqt qilmoqchi bo'lgan odamni ko'rsata olasanmi?

Faxriddin shivirlab javob berdi:

— Ular o'z saltanatlarini mustahkamlash uchun na iroqliklardan va na eronliklardan foydalana olardilar. Shuning uchun ham har bir jangda ozarbayjonliklar ishtirok etishlari va halok bo'lishlari kerak edi. Ilyos atrofni ko'zdan kechirib, sekingina dedi:

— Ozarbayjon xalqi qirilib, kamaygani sari mamlakatimizda arab va forslarning nufuzi ortmoqda.

Ilyos bilan Faxriddin shu haqda suhbatlashib, To'g'rulbek ko'chasidan o'tib, Alp Arslon va Mas'udiya ko'chalariga kirar va Sulton Sanjar jomesining qarshisidagi Malikshoh maydoniga yaqinlashardilar.

Maydonga yig'ilgan xalq Ganja xatibining nutqini kutardi. Ilyos bilan Faxriddin ham masjid darvozasi qarshisidagi hovuz yonida to'xtadilar-da, jamoatga qo'shilib, xatibni kuta boshladilar. Faxriddin xayolchan holda boshini ko'tarib, Ilyosga dedi:

— Ha, vaqt bo'ldi, xatib hozir keladi, Tabriz va Marog'a fathini e'lon qiladi, avval xalifaning so'ngra To'g'rul[1] va Otabek Muhammadning nomiga xutba o'qiydi. Ayni zamonda yangi bir musibatning xabarini ham beradi.

Ilyos Faxriddindan zarda aralash so'radi!

— Qanday musibat?

— Otabek Rey o'lkasiga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Rey hokimi saljuqiylar zamonidan beri Otabeklarga to'lab kelayotgan bojni to'lashdan bosh tortgan. Lekin bu urush juda dahshatli bo'ladi, chunki Rey hokimi o'z tili bilan emas, balki Xorazm shohlarining tili bilan gaplashmoqda. Ular bugun bo'lmasa, ertaga Reyni qo'llariga oladilar.

Ilyos yana unga savol berdi:

— Sen bunga qanday qaraysan?

— Qanday qarardim. Rey Ozarbayjon eri emaski, biz uni mudofaa qilsak!

Ilyos e'tiroz bildirib dedi:

— Men seni o'z inimday ko'rganim uchun iltimos qilaman, bu fikringni boshqa odamlar oldida gapirma. Chunki bu tamomila xato fikrdir.

Faxriddin taajjublanib so'radi:

— Bu fikrning nimasi xato?

— To'g'ri, Rey bizniki emas. Lekin Hamadon-chi, biznikimi yo boshqanikimi?

— Bizniki, Ozarbayjonning qadimiy poytaxti.

— Unday bo'lsa, shuni bilginki, Rey Ozarbayjon otabeklarining qo'lida bo'lmasa Hamadonni ham saqlab qolish mumkin emas, chunki juda ko'p voqealardan reyliklarning Qazvinni zabt etganlarida Tabriz bilan Hamadon orasidagi aloqaga monelik qilganlari aniqlangan. Afsuski, men qilich va nayza ishlatish hunaridan bexabarman. Shuning uchun ham senga bir maslahat bermoqchiman.

[1] **To'g'rul** — Eron saljuqiylarining so'nggisi — III To'g'ruldir.

Qilich va nayza ishlatishga, kamonandozlik bilan mashg'ul bo'lishga havasing bor ekan, shularni yaxshi o'rgan. Men ham qalam tebratishda yuksak martabaga erishmoqqa harakat qilaman. Bularning har ikkalasi ham bizlar uchun zarurdir.

Ilyos bilan Faxriddin so'zlashib turganlarida Ganja xatibi o'z muridlari bilan, Ganja hokimi Amir Inonj ham o'z askar va g'ulomlari bilan birga Malikshoh maydoniga kirib keldi. Lekin ularni xalq uncha tantana bilan kutib olmadi.

Ilyos bilan Faxriddin ham xalq bilan birga Sanjar masjidiga kirishdi. Xatib minbarga chiqib, birinchi navbatda, Otabek Muhammadning Marog'a va Tabriz bo'sag'alaridagi janglarda qozongan g'alabalari to'g'risida xabar berdi. Lekin bu xabar xalqqa uncha ta'sir etmadi, aholi bu xabarni ancha sovuqqonlik bilan qarshi oldi. Xatib xalifa va Otabek Muhammad haqiga duo o'qigan paytda ham xalqning ularga salbiy munosabati ko'zga ancha aniq chalindi. Duo o'qilayotgandagi "omin, omin!" kalimalari samimiy emas edi. "Omin" sadolari shu qadar zaif eshitildiki, jomening marmar ustunlari va gumbaz peshtoqlari ostida yo'qolib ketdi. Chin qalbdan "omin" deguchilar faqat xatibning muridlari va Amir Inonjning navkarlarigina edi, xolos.

Bu vaziyat Ganja xatibiga ham, Amir Inonjga ham juda yomon ta'sir qildi. Amir Inonj xalqning sovuq munosabatini his etar ekan, bo'ynini cho'zib, Ganja xatibining qulog'iga allanimalar deb shivirladi. Shu on Faxriddin ham Ilyosning qulog'iga yaqin kelib:

— Ish yirik! Ishlar joyida! Xalqdagi o'zgarishni payqayapsanmi? Buni haromzoda hokim ham payqab qoldi. Xatibning qulog'iga, shak-shubhasiz, shu haqda shivirladi,— dedi.

Amir Inonj xatibning qulog'iga shivirlagandan so'ng, xatib yangi safarbarlik haqida churq etib og'iz ochmay, xutbasini tugatdi.

Xatib minbardan tushib ulgurmasidan, xalq hokim va xatibning chiqib ketishini kutmay masjiddan chiqa boshladi. Bu ham Amir Inonj va Ganja xatibiga qarshi bir hurmatsizlik namoyishi bo'ldi. Maydonga yig'ilgan xalq o'rtasida shu to'g'rida pichir-pichirlar boshlandi, Masjidning darvozasi oldida Amir va uning a'yon-

lari uchun otlar egarlangan, xatibning muridlari ham oq xachirni tayyorlab kutmoqda edilar. Xatib bilan Amir masjiddan chiqqanlaridan keyin ham shivirlashlarini davom ettirdilar.

Amir xatibga bo'lgan hurmatini maydonga yig'ilgan xalqqa ko'rsatish uchun uzangisidan tutib, xatibni xachirga mindirdi, so'ngra o'zi ham otiga minib, yo'lga tushdi. Amirni otliq navkarlar, a'yonlar, xatibni esa yuzlarcha muridlari piyoda kuzatib borardilar. Ko'chalar: "Yo'l ber! Chetlan! Boshingni eg!" degan ovozlar bilan to'lgan edi.

Amir Inonj Ganja xatibini va Ganja a'yonlarini Otabek Muhammadning zafar bayrami sharafiga berayotgan ziyofatiga da'vat etdi. Tantana bilan borayotgan bu a'yonlar saroyga tez yetish uchun yaqinroq yo'l topishga urinardilar. Ular Xarobat ko'chasining muyulishidan o'tib, Al-Mansur[1] ko'chasi bilan yuqoriga qarab borishlari kerak edi.

A'yonlar to'satdan to'xtab qolishdi. O'tishga yo'l yo'q edi. Pir Usmon[2] ko'chasidan kelayotgan olomon Xarobot mahallasining muyulishida to'xtab, ikki qavatli ko'shkning derazasidan eshitilayotgan musiqa va qo'shiqni tinglar va o'tkinchilarga yo'l bermasdilar.

Amir otini, Ganja xatibi esa, xachirning jilovini tortib to'xtashdi. Minglarcha kishining birortasidan sado chiqmadi. Derazadan eshitilayotgan mayin kuy va taronalar xaloyiqni o'ziga maftun qilgandi. Aytilayotgan ruboiylarning har bir so'zini va chalinayotgan udning nolasini aniq eshitish mumkin edi.

Amir bilan xatib ham to'xtab qoldi. Ular xotin kishi barmoqlari ostida ingrayotgan pardalar, xotin kishi dudoqlaridan uchayotgan misralardan ajralib ketolmas edilar. Ular ham xalqqa qo'shilib o'zlarini unutgan, ular ham derazadan chiqayotgan mayin ovozlarni chuqur his qilmoq va o'z ruhlariga singdirmoq uchun butun vujudlari bilan tinglar edilar.

Amir va xatibning odamlari to'xtagan mahalda ko'shk derazasidan mana bunday satrlar atrofga taralar edi:

---

[1] **Al-Mansur ko'chasi** — xalifa Mansurning nomi qo'yilgan ko'cha.

[2] **Pir Usmon** — mashhur shoira Mahsatiy xonim bilan asrdosh bo'lgan Ganja shoirlaridandir.

Gar mulki Misr, Rum, Chin xohad bud,
Ofoq to'ro zeri nigin xohad bud.
Xush bosh, ki oqibat nasibi manu tu
Yak gaz kafan-u se gaz zamin xohad bud,[1]

Derazadan eshitilayotgan bu ruboiyni ko'chada turganlar zo'r bir maroq bilan qarshi olishdi. Hukumat zulmidan tangga kelgan xalq hukumatga qarshi yozilgan bu ruboiyni yana takrorlanishini talab qila boshladi. Qiy-chuv ko'tarildi. To'planib turgan olomon orasidan: "Yana takror bo'lsin! Yana eshitaylik!" degan so'zlar eshitilardi.

Amir Inonj Husomiddinga[2] savol berdi:

— Bu uy kimning uyi?

Husomiddin ta'zim qilib:

— Bu uy mashhur shoira Mahsatiy xonimnikidir, — dedi.

— Ashula aytayotgan kimdir?

— Ashula aytayotgan ham Mahsatiy xonimning o'zidir. U musiqiy va ashula muallimasidir. Bundan bir oy muqaddam janobi xatib shikoyat etgani axloqsiz xotin shudir. Fuqaroning qizlari bunga kelib, musiqa va ashula darsini o'rganishadi.

Husomiddin bilan Amir Inonjning so'zlari tugamasdanoq, derazadan yana bir yangi ashula eshitildi:

Yak dast ba mus'hafem, yak dast ba chom,
Gah nazdi — halolem, gahe nazdi — harom.
Moyem dar in gunbadi na puxta, na xom,
Na kofiri — mutlaq, na musulmoni tamom.[3]

Bu ruboiy o'qilgandan so'ng ikki kishining ovozini baralla qo'yib:

[1] Misr, Rum va Chin o'lkalariga sohib bo'lsang, butun koinotni o'z uzuging ko'zi tagiga joylasang ham, amin bo'lginki, oxirida sen va mening bu dunyodan olajagimiz qismat bir gaz kafan-u uch gaz yer bo'ladi, xolos.

[2] Husomiddin Ozarbayjonning siyosiy hayotida juda katta rol o'ynagan shaxs. U Malik To'g'rul va Qizil Arslon davrining siyosiy arboblaridandir.

[3] Bir qo'limiz sharobda, bir qo'limiz "Qur'on"dadir. Goh halolga, goh haromga yaqinlashmoqdamiz, chunki biz hozircha tamomila kamolga yetishmagan bir gumbazning ostida yashab, na mutloq bir kofir va na komil bir musulmonmiz.

1619323

— Ofarin! Yuz ofarin! — degani eshitildi. Bularning biri Faxriddin, biri Ilyos edi. To'plangan odamlar orasida ham g'ovur-g'uvur boshlandi. Keti uzilmay "Yasha, yasha!" degan xitoblar eshitilardi.

Xatib xachirining boshini burib, Amir Inonjga yaqinlashib dedi:

— Bu kofir, odobsizdir! Buni Ganja xalqining ko'zidan yo'qotish kerak.

Shu on Mahsatiy xonim ko'chadan eshitilayotgan olqishlarga qulluq qilishi uchun derazadan boshini chiqardi. Keksaygan boshining oqara boshlagan sochlari, uning kulib turgan ko'zlari, minglarcha ruboiyning xazinasi bo'lgan siynasi ko'rinar ekan, hatto, xatibning muridlari ham ko'zlarini derazaga qadab buyuk shoira va muallimaga tikildilar. Xatib bu holatni ko'rgan zahoti muridlariga amr qildi:

— Toshbo'ron qiling! Bu fisq-u fujur uyasini yer bilan yakson qiling!

Deraza berkildi, go'yo oftob bulutlar orqasiga yashiringanday bo'ldi. Ruboiy va musiqiy sadolari o'rnini deraza va devorlarga urilayotgan toshlarning taraqlashi egalladi. Lekin xalq xatibning va Ganja hokimi Amir Inonjning bunday vahshiyligiga qarshi zo'r g'azab va nafratini yashira olmadi. Xatibning muridlariga hujum qilishdi. Ularni kaltaklab, Mahsatiy xonimning eshigidan haydab solishdi. Xatibning muridlaridan bir nechasi o'lgan, yaralangan edi. Xatibning o'zi esa, Amir Inonjning saroyida yashirinib, jonini xalq intiqomidan bazo'r qutqara oldi...

Uch kundan so'ng Ilyos Faxriddin bilan Pir Usmon mahallasida uchrashdilar. Faxriddin birinchi ko'rishganidayoq Ilyosning qo'lini qisar ekan, suyunib dedi:

— Biz o'ylagandek bo'ldi. Xalq Amir Inonjni hurmat qilmas ekan. Endi boshqa bir masala ham bor.

— Qanday masala? — deb so'radi Ilyos.

— Otabekning yangi safarbarlik e'lon qilishiga to'sqinlik qilish.

— Bu faqat ganjaliklarning ishi emas. Bu ishga butun Ozarbayjonni tayyorlash kerak. Sen bormasang ham, Otabek Janubiy Ozarbayjonni safarbar qila oladi.

Faxriddin e'tiroz bildirib dedi:

— Fikringizga qo'shilolmayman. Boshchilik qilish hamisha Shimoliy Ozarbayjon vazifasi bo'lgan. Poytaxt Hamadonda bo'lganligi uchun Otabekning hukmronligi, uning og'ir zulmlari Janubiy Ozarbayjonga tushyapti. Agar biz ularga boshchilik qilsak, ular darhol isyonga qo'shila olishadi. Shuning uchun ham Shimolda boshlangan isyon xabarini Janubiy Ozarbayjonga yoyish kerak. Qo'zg'olon ko'tarish uchun shu kunlardagiday qulay fursatlar kelishi mumkin emas.

Ilyos biroz o'ylab dedi:

— Gaping to'g'ri. Lekin qo'zg'olon asosli va siyosiy bir maqsadga ega bo'lmagunicha va xalqni o'z vaqtida o'sha maqsad yo'lida safarbar qilinmaguncha qo'zg'olon ko'tarish to'g'risida gapirish ortiqcha. Qo'zg'olon ko'tarish uchun qurolli kuch kerak. Shu kuch bo'lmasa, tadbirsiz va tartibsiz olomon bilan hukumatga qarshi chiqish johillik bo'ladi. Xususan, Janubiy Ozarbayjon borasida juda ehtiyot bo'lish kerak, chunki otabeklar Eron va Bag'dod qo'shinlarining yordami bilan Janubiy Ozarbayjonni bir necha kun ichida vayron qilishi mumkin. Endi ayt-chi, ana shunday holat yuz bergan taqdirda senga yordamga keladigan qurolli kuch bormi?

Faxriddin uzoq o'ylagandan keyin chuqur xo'rsinib dedi:

— Afsuski, unday kuchimiz yo'q. Lekin men shunday kuchni tuzaman. Shuning uchun ham butun vaqtimni qurol ishlatishni o'rganishga sarflaganman.

— Shunday bo'lishi kerak. Lekin omiy va siyosiy tushunchasiz odamlar qurol-aslaha bilan ham zafar qozonolmaydilar. Qahramonlik faqat qurol-yarog' emas, bilim ham talab qiladi.

Faxriddin Ilyosdan:

— Sening Tabrizda tanishing bormi? — deb so'radi.

— Bor. Shamsiddin ibn Sulaymon biz bilan hamfikr yigitdir! Men seni u bilan tanishtirib qo'yaman.

* * *

Oftob sulton Sanjar jomesining minorasidagi zangori koshinlarni yorita boshlashi bilan qushlar ham oftobni qarshilash uchun o'zlarining dilrabo qo'shiqlarini kuylashga kirishdilar. Ilyos, odati bo'yicha, xonasidan chiqib chinni gullarni sug'ormoqchi bo'ldi. U qizil gullarning atrofida parvona bo'layotgan bulbullarni cho'chit-

maslik uchun qadamlarini asta-asta tashlar edi. Birdan eshik qattiq taqillab qoldi. Bu taqillatish, Ilyos bezovta bo'lmasin deb avaylayotgan qushlarni uchirib yubordi.

Ilyos qattiq o'ksingan holda eshikka tomon yurdi, eshik oldida Faxriddinni ko'rib:

— Ehtiyotsizliging natijasida sokit bir jamiyatning bezovta bo'lishiga sabab bo'lding. Men shu bugundan e'tiboran eshikning halqasini olib tashlayman. Qushlardan ishq-muhabbatni o'rganmoqda edim, ular esa, mendan ulfatchilik va tinchlik-osoyishtalikni o'rganardilar.

Faxriddin til uchida dedi:

— Ha, shunday. Lekin...

Faxriddin so'zini davom ettirmay, jim qoldi.

— Nima uchun so'zingni tugatmading?

— Eh, Ilyos, ulfatchilik va tinchlik, osoyishtalik faqat sening hayotingdagina emas, butun mamlakatda joriy etilishi kerak. Hozir Otabek Muhammadning jazo dastalari Malikshoh maydonida dor qurishmoqda.

Ilyos ichkariga kirib kiyimini almashtirishga oshiqar ekan:

— Buning ajablanadigan yeri yo'q, — dedi,— bu bo'ladigan ish edi.

— Hamma balo shundaki, Mahsatiy xonim yashagan mahallani vayron qilishmoqda. Mahsatiy xonimni biror yerga qochirish kerak. Butun falokatlar unga qarshi yopirilmoqda.

Ular uydan chiqib, Pir Usmon mahallasiga yo'l olishdi. Xarobot mahallasining muyulishiga yetganda, u yerni hukumat qo'shinlari qurshab olganini ko'rdilar. Ko'chalar bebosh olomon bilan to'la edi. Oldinga siljishning iloji yo'q. Xatibning muridlari butun tashabbusni o'z qo'llariga olishgan edi. Mahsatiy xonimni oxirgi marta ko'rib qolish uchun shaharning hamma she'r, musiqa shinavandalari Xarobot mahallasining muyulishiga jam bo'lgan edi.

Vayron qilinayotgan mahalla tuproqqa ko'milgan, chang-to'zon ichida nimalar bo'layotganini hech kim ko'rolmasdi. Faqat kishilarning yig'isi bilan qamchilarning sharaqlashi eshitilar edi.

Bir necha soatdan so'ng ko'chalarni qoplab olgan chang siyraklashdi. Bir to'da muridlar chang-to'zon orasidan chiqishdi. Ular

sochlari to‘zg‘igan bir ayolni haqoratlab, urib-urib olib kelishardi. Bu ayol Mahsatiy xonim edi. Lekin shoira qaddini rostlab mag‘rur qadam tashlardi. U saf tortib turgan olomon orasidan o‘tarkan, atrofga boqib, do‘stlarini axtarar edi. Shuni aytish kerakki, bir hovuch murid va ruhoniylardan tashqari, Xarobot mahallasi atrofiga yig‘ilgan xalq uning do‘stlari edi. Mahsatiy xonim xalqqa qarab: “Uring, bu olchoq, fosiq zohidlarni!” desa, Ganjada qo‘zg‘olon boshlanar edi, lekin Mahsatiy xonim qon to‘kilishini istamadi. U ko‘z yugurtirib, Amir Inonjni ko‘rgan zahoti qaddini rostlab, unga diqqat bilan boqdi. Amir Inonj ot ustida vayron bo‘layotgan mahallani tomosha qilmoqda edi. Mahsatiy xonim Amir Inonjning qarshisida to‘xtab, mana bu ruboiyni o‘qidi[1]:

Dunyo ba masal chu ko‘zayi zarrin ast,
Gah ob dar talx, gahi shirin ast.
Tu g‘urro mashav, ki umri man chandin ast,
Chun asbi ajal hamesha zeri zin ast[2].

Amir Inonj hech bir javob qilmadi. U xalqning qo‘zg‘olonidan qo‘rqardi. Mahsatiy xonimni shahardan olib chiqib ketishga farmon olgan ma’murlar uni Abubakr kentiga yaqin bir yerga eltib qo‘yib qaytdilar. Mahsatiy xonimning yonida faqat sodiq va samimiy xizmatchisi Ya’qub qolgan edi. Ular juda charchashdi, dam olgani “Chodir bulog‘i” degan chashmaning labida o‘tirdilar. Qosh qoraya boshladi. Mahsatiy xonim yana bir bor Ganja tomonga, kelgan yo‘liga qaradi-da, Ya’qubga:

— Uzoqdan kimningdir qorasi ko‘rinayotganga o‘xshaydi, Amirning odamlari emasmikin?! — dedi.

Ya’qub uzoqda ko‘ringanlarni bir necha daqiqa ko‘zdan kechirdi, qoralar yaqinlashgan sari jonlana bordi. Nihoyat kelayotganlarning Faxriddin bilan Ilyos ekani ma’lum bo‘ldi, Mahsatiy xonim ularning qo‘lini qisib:

---

[1] Mahsatiy Ganjaviy tilidan o‘qilgan ayrim ruboiylar Umar Xayyomda ham uchraydi *(Red)*.

[2] Bu dunyo bir zarrin ko‘zadirki, u suvni goh achchiq, goh shirin saqlaydi. Mening umrim ham bunday bo‘lar deb mag‘rurlanma, chunki ajal oti doim egarlangan holda tayyor turadi.

— Sizning kelishingiz meni vatanimga qaytarganday bo'ldi. Nima qilay? Bu falokatlarga o'zimiz sababchi emasmiz. Bizning asosiy dushmanimiz va ganjaliklarni asoratga solgan xurofotdir. Ular hali ham san'atning qimmatini xatiblarning tarozusi bilan o'lchashadi. Amir ham, uning qo'shini ham bizga hech narsa qilolmasdi. Bizni faqat xalqning avomligi va ongsizligi mag'lub etdi. Lekin ular mening uyimni vayron qilib, she'rlarimni yirtib yondirsalar ham, xalq qalbidagi ruboiylarimni o'chirib, yondirib tashlayolmaydilar. Ular meni quvsalar ham, xalqim qulog'ini vatan qilgan ovozimni bu mamlakatdan quva olmaydilar.

Faxriddin va Ilyos Mahsatiy xonim uchun olib kelishgan kiyim-kechak va oziq-ovqatlarini Ya'qubga topshirganiaridan so'ng xayrlashdilar:

— Maktub yozing, biz ham yozamiz. Biz aminmizki, bu hodisalar sizning ijodiy ishlaringizga bundan ham kengroq rivoj beradi.

Ular vidolashdilar! Mahsatiy xonim Ya'qub bilan yo'lga tushdi. Ilyos ularning ortidan uzoq vaqt qarab qoldi. Ularning qorasi qorong'ilik ichida ko'zdan g'oyib bo'lar ekan:

— Ganjaning g'azalxon bulbuli tindi. Ruboiymizning dohiy san'atkorini bizdan ayirdilar, — deya Ganja tomon burildi.

Kech kirib qolgan edi. Amir Inonj Ganja soyi bo'yidagi baland ko'shkida par yostiqlarga suyanib o'tirardi. U ishva qilayotgan raqqosalarning dirkillab turgan siynalariga tikilganicha marvarid tasbehini o'girar edi.

Sanjar jomesining minorasidan "Allohu akbar" sadosi eshitilishi bilanoq Amir Inonj o'ziga keldi va "Allohu akbar, kabiran, kabir!" dedi.

Musiqa sadolari kesildi. Raqqosalar Amirga ta'zim qilib chiqib ketdilar. Minorada ko'tarilgan "Allohu akbar" go'yo raqqosalarga dam berish ishorasidek bo'lgan edi.

Amir Inonj o'rnidan turib, favvora (fontan)lar otilib turgan hovuz labida tahorat oldi. Xalqning qarzini to'lamaganlar Xudoning qarzini to'lashga tayyorlandilar. Namoz o'qiladigan xonaga kirdilar. Raqqosalar o'ynagan gilamlar ustiga joynamozlar yozildi, namoz o'qiyotganlar go'zal raqqosalarning qadamlari tekkan

yerni o'pmoq uchun sajda qilardilar. Shom va xufton namozi tugadi. Namozdan keyin joynamozlar o'rniga sharob dasturxonlari yozildi. Sajdalarga bosh qo'yib tilaganlari hur-u g'ilmonlar o'rniga go'zal qizlar va o'spirin soqiylar mehmonxonaga kirib keldilar. Cholg'uchilar o'z ishlarini boshlashdi, yana raqqosalar keldilar. Xudoning qarzidan qutulganlar o'z ehtiroslarini qondirmoqqa boshladilar.

Tun yarimdan og'di, sharobxo'rlik tugadi. Amir Inonj suyukli xotini — xalifaning qizi Sofiya xotun va go'zal qizi Qatibaning yonida edi. Xizmatchi kirib:

— Husomiddin janoblari sizni qo'rmoq istaydilar, — dedi.

Amir:

— Kirsin! — dedi-da, yana go'zal Qatibaning sochlarini silay boshladi.

Husomiddin ichkari kirib ta'zim qilarkan:

— Araks daryosidan kechib o'tmoqchi bo'lgan bir qochoqni ushlab kelindi,— dedi.

— Qochoq qayerda?— deb so'radi Amir.

— Shu yerda, Amirim!

— Huzurimga keltiring!

Husomiddin chiqib, birozdan keyin Mahsatiy xonimning xizmatchisi Ya'qub mehmonxonaga kirib keldi. Amir Ya'qubning boshidan oyog'igacha ko'zdan kechirib dedi:

— Qaysi mamlakatning ayg'oqchisisan? Shuni yaxshi bilginki, to'g'ri javob bersang, xalos bo'la olasan.

Ya'qub darrov javob berdi:

— Yolg'on so'zlashimga hech qanaqa sabab yo'q, meni Zanjondan Mahsatiy xonim yubordi. Meni tutmaganlarida ham, o'zim shu yerga kelardim.

— Qanday ish bilan yubordi?

— Mahsatiy xonimning onasiga va Ilyos nomli yosh bir shoirga maktub keltirdim.

— Keltirgan maktublaring qani?

— Maktublarimni Araksdan o'tayotganimda, sizning odamlaringiz olib qo'yishdi.

Husomiddin maktublarni qo'ynidan chiqarib:

— Amirim, mana maktublar, — deb har ikkala maktubni amirga uzatdi.

Amir birinchi maktubni ochib o'qiganidan so'ng baland ovoz bilan:

— Subhanalloh! — dedi,— bir xotin, qanday xotin degin, axloqsiz bir xotin qanday masalalar bilan mashg'ul. — Bu so'zlarni aytgandan so'ng Husomiddinga murojaat qilib: — U xonanda va she'rnavis axloqsiz xotin nimalar yozibdi, eshit, — dedi:

"Aziz do'stim Ilyos!

Juda ko'p mashaqqatlardan so'ng Zanjon shahriga yetdim, ikkinchi kun Axiy Farruxni[1] ko'rgani bordim. Axiy Farrux nihoyatda sevimli, xushfe'l, xushsuhbat bir odamdir, men u bilan ko'rishgan kunimning dastlabki soatlaridayoq Ganja ruhoniylari tarafidan tahqirlanganimni tamomila unutdim. Axiy Farruxning maqsadi xalqlar do'stligini barpo etishdir. Bu maqsad haqida har taraflama ma'lumot to'pladim, buni Shimoliy va Janubiy Ozarbayjonda targ'ib etishga harakat qilish lozim. Bu aqidadagi kishilar bir-birlari bilan do'st-birodardirlar. Shuning uchun ham bular o'zlariga "Axiy" — "birodar" deb nom qo'yishgan. Sening to'g'ringda janobi Axiy Farrux bilan gaplashdim, she'rlaringdan o'qib berdim. U seni kelajakda zakki va mashhur bir shoir bo'lishingga ishondi va senga zo'r umid bildirdi.

Do'stim Ilyos! Mening boshimga tushgan falokat sening matonatingni sindirmasin. Zamona bu holatda uzoq vaqt davom etolmaydi. Yaqin kunlarda Zanjondan Balx shahriga ko'chib boraman, u yerdagi shoirlar bilan ko'rishishni istayman. Qachon yo'ling tushsa, bizning mahallaga o'tib, onamni izlab top, unga tasalli ber. U mening she'rimdan va musiqiy san'atimdan biror lazzat ololmadi: doimo men uchun uni tahqirlardilar. Maktubimning javobini yozib, o'zingning yangi she'rlaring bilan birga Ya'qubga topshir. Yozgan ruboiylarimni senga yubordim, Faxriddinga salom!

Zanjon, Mahsatiy Ganjaviy".

---

[1] **Axiy Farrux** — birodarlik maslakining rahbarlaridan biridir. Nizomiy u bilan yaqin aloqada edi. Shirvon bilan Oron o'lkalarini Axiston, ya'ni birodarlar o'lkasi deb atardilar.

Mahsatiy xonim ikkinchi maktubni onasiga yozgan edi. Amir maktublarni o'qib bo'lib, jahl bilan Husomiddinga dedi:

— Mamlakatni idora qiluvchi odam sizga o'xshash bo'lmaydi! O'lkaning xotin-qizlaridan tortib, o'spirinlarigacha siyosat bilan shug'ullanadilar. Xo'sh, siz nima qilyapsiz?! Bu nima degan gap? "Zamona bu holatda uzoq vaqt davom etolmaydi", buni kim gapirgan?! Shoira va yallachi bir xotin... Bor, zudlik bilan nomiga maktub yozilgan Ilyosni va maktubda nomi zikr etilgan Faxriddinni huzurimga olib kel!

Husomiddin ta'zim qilib chiqib ketdi. Amir yana qizi Qatibani yoniga o'tirg'izib, sochlarini silashda davom etdi. Qatiba Mahsatiy xonim maktub yozgan yosh Ilyosga qiziqib qoldi. U Mahsatiy xonimdek shuhratli bir shoiraning va o'z go'zalligi bilan butun Sharq o'lkalariga mashhur bo'lgan bir ayolning oddiy kishilarga maktub yozmasligiga ishonar edi. Shuning uchun ham go'zal Qatiba Ilyosni turli qiyofada tasavvur qilar va uni muayyan bir qiyofada ko'z oldiga keltirishga urinardi. U Ilyosni goh bir qahramon, goh yuvosh va ojiz bir mullavachchadek tasavvur qilardi, lekin yana bu tasavvurlaridan qaytib o'z-o'zicha: "Shubhasiz, u go'zal yigitdir. Go'zal va ma'rifatli bir yigit bo'lmaganida, Mahsatiy xonim unga maktub yozmagan bo'lardi",— derdi. Bu fikrlaridan so'ng Qatiba yana Ilyosni ko'z oldiga keltirib derdi: "Qahramonlik u qadar noyob bir narsa emasdir. Dunyoda pahlavonlar ko'p bo'ladi. Pahlavonlarda telbalarga xos bir jasurlik bor. Menimcha, qahramonlik tamomila boshqa bir narsa. Insonlar baquvvat qo'llari-la qilich va qalqonlarning soyasida o'zlarini qahramon hisoblasalar ham, haqiqiy qahramonlik bu emasdir. Qahramonlik kishilarning matonati, aqli va farosati bilan o'lchanadi. Erkaklarning xotinlardek go'zal bo'lishlari shart emas. Erkakning xotin kishi singari go'zal bo'lishi befoyda. Erkakdagi go'zallik yerlarga xos bo'lmog'i lozim. Menimcha, aqlli qizlar yigitlarning go'zal bo'lganligi uchun emas, balki erkak bo'lganligi uchun sevishlari kerak".

Qatiba o'ylar edi:

"Hozir Ilyos keladi, u kechirim so'rab, otamning oyoqlariga tashlanib yig'laydi. Agar u yig'lasa, yolvorsa, qahramon emas. Mahsatiydek mashhur bir xotin unga behuda maktub yozgan bo'ladi".

Qatiba bu xayollardan so‘ng, otasiga murojaat etdi:

— Ota, haligi yigitni hozir bu yerga keltirishsa, siz uni o‘ldirasizmi?

Amir qizining boshini silab turib, so‘radi:

— Biror kishi xalifa bobongning hokimiyatiga xiyonat qilsa, sen uni nima qilarding?

Qatiba biroz o‘ylab turib, sekingina dedi:

— Men uni ko‘rmasdan va qanday yigit ekanligini bilmasdan turib hech narsa deyolmayman.

Qatibaning bu so‘zidan Amir bilan Qatibaning onasi Sofiya xotun qah-qah urib kulib yuborishdi. Qatiba esa, biror so‘z deya olmay uyalib boshini quyi soldi. Birozdan keyin Husomiddin kirib, Amirga ta’zim qildi-da:

— Ilyosni topib kelishdi, — dedi.

— Bor, huzurimga keltir! — dedi Amir va xotiniga qarab, — sizlar chiqinglar,— deb ilova qildi.

Sofiya xonim chiqib ketdi. Qatiba Amirning yonida qoldi.

Ilyosni Amirning xonasiga olib kirdilar. U eshik oldida to‘xtab na ta’zim qildi va na salom berdi. Uning bu harakati Amirga ta’sir qildi. U g‘azabi qaynab so‘radi:

— Mamlakatdan badarg‘a qilingan Mahsatiyning fikrlarini Ganjada tarqatib yuruvchi yosh shoir senmisan?

Ilyos boshini ko‘tarib:

— Hozircha men o‘z fikrlarimni tarqatish uchun o‘zimga ko‘makchi izlayapman. Boshqalarning fikrini yoyishga vaqtim yo‘q, — dedi.

— Sen qanday ish bilan mashg‘ulsan?

— Men o‘z she’rimni va o‘z aqidalarimni tarqatish bilan mashg‘ulman.

Amir Inonj zaharxanda bilan kulib dedi:

— Hali erta. Juda yoshsan. G‘oyalarni targ‘ib etish bilan shug‘ullanishingga hali anch vaqt bor.

— G‘oyasiz she’r shoirning siymosini ko‘rsata olmaydi.

— Unday bo‘lsa, nima uchun Mahsatiy xonimning fikrlariga qo‘shilmaysan?

— Mahsatiy xonimning she’r va musiqa sohasidagi fikrlariga tarafdorman.

— Unday bo‘lsa, uning hukumatga qarshi fikrlariga ham tarafdor ekansanda?

— Men Mahsatiyning hukumatga qarshi ekanini hozir eshitib turibman. Lekin Amir shuni yaxshi bilishlari kerakki, Mahsatiy xonimning bunga haqqi bor.

— Uning hukumatga qarshiligini qanday sabablarga asoslanib haqli deysan?

— Mahsatiy xonimning hukumatga qarshilik qilishiga she’r va san’atni axloqsizlik deb ta’bir etganlar aybdordirlar. Hukumat uni nega badarg‘a qildi? Yolg‘iz va ko‘makchisiz bir ayolni kishilarga nafis san’atni o‘rgatgani uchun badarg‘a qilish, unda hukumatga qarshi fikr uyg‘otmaydimi? Fikrlar va aqidalar mana shunday tug‘iladi, Amir hazratlari! Hukumat birgina xatibning haqsiz talabini qondirish bilan buyuk bir shaharning muhabbatidan mahrum qilish, bir mahallaning kulini ko‘kka sovurish, xalqning yuragida hukumatga qarshi nafrat, haqsizlikka qarshi qo‘zg‘olon qilish fikridan boshqa aqidani tug‘dira olmasdi. Men ham shoirman, men ham o‘z xalqimning irodasini ifoda etishga urinaman.

Amir Ilyosning so‘zlarini diqqat bilan tinglagandan so‘ng dedi:

— Agar bu “xalqning irodasi” degan so‘zingni yana takror qilsang, seni ham Mahsatiy ketgan yerga jo‘nataman.

— Meni u yerga ketishga majbur qilishning hojati yo‘q. Hayot shu yo‘sinda davom etsa, siz badarg‘a qilmasangiz ham, xalqning o‘zi tarqalib bitadi. Bir qarang, Oronda kim qoldi, xalqning bir qismi Abxaziyaga, bir qismi Shirvonga, bir qismi esa Armanistonga ko‘chib ketdi. Qolganlarini siz surgun qilyapsiz.

Qatiba qo‘lini otasining yelkasiga qo‘yib juda diqqat bilan Ilyosning so‘zini tinglar edi. U o‘z qarshisida tom ma’nosi bilan o‘lim va iskanjadan qo‘rqmaydigan bir qahramonning turganini his etardi. U o‘z qalbida “qahramonlikka xos fazilatlar bu yosh yigitda mavjuddir. Bunday yigitni kimlar sevmaydi? Hatto, o‘zim ham shunday bir jasur yigitni sevgan bo‘lardim. Bu yigit o‘zini dunyoga tanitishga qodir. Men bu bilan tanishaman. Uni jazolashga yo‘l qo‘ymayman. Otam buni jazolamoqchi bo‘lsa, yig‘laymanyolvoraman va uning g‘azabini yumshataman”, dedi. Amir uzoq xayol surib boshini ko‘tardi, zo‘r taajjub bilan Ilyosdan so‘radi:

— Kimning o‘g‘lisan?

— Bobomning nomi Muhammad, otamning nomi esa Yusufdir.

— Otang nima ish qiladi?

— U go‘dakligimda o‘lib ketgan.

— Demak, onangdan tarbiya olgansan?

— Onam ham yoshligimda o‘lib ketgan.

— Kimning qaramog‘idasan?

— Tog‘alarim bor, lekin hozir o‘z kunimni o‘zim ko‘raman.

— Hozirga qadar kimning qaramog‘ida eding?

— Tog‘alarimning.

— Ular kimlar? Nomlari nima?

— Kurdiston oqsuyaklaridan G‘affor og‘a, Abdull og‘a va Sayfiddin og‘a.

— Ular hozir nima ish qiladilar?

— Ular bu yerda emaslar, Bag‘dodda yashaydilar.

— Nima ish qiladilar?

— Xalifani qo‘riqlaydigan lashkarlarga boshchilik qiladilar.

— Tog‘alaring xalifaning sodiq qullari bo‘lgani holda nechun sen xalifaga qarshi so‘zlaysan?

— Tog‘alarim xalifaning qullari emaslar. Ona ajdodimizda ham, ota ajdodimizda ham hech kim qul bo‘lmagan. Tog‘alarim xalifaning himoyasida emas, aksincha, xalifaning o‘zi tog‘alarimning qilichi himoyasida.

Amir:

— Bu ham bir yangilik! Endi biroz Mahsatiy bilan aloqangdan gapir.

— Aloqa bog‘lashga urinmoqdaman. Taassufki, hozircha bunga erisholganim yo‘q.

— U bilan aloqada bo‘lishni o‘zingga bir iftixor deb bilasanmi?

— Nima uchun faxrlanmay. Mabodo Mahsatiy xonim bo‘lmaganda edi, Sharqda mashhur ruboiy san’atkori Xayyomning nomi yakka qolgan bo‘lardi.

— Hozirga qadar Mahsatiy xonimdan necha maktub olding?

— Hozircha unday baxt mening eshigimni qoqqani yo‘q.

Amir kulib dedi:

— Unday bo'lsa, seni qutlash kerak. Sen aytgan baxt eshigingni qoqa boshladi. Mahsatiy xonim sening nomingga maktub yuboribdir. Mana o'sha maktub mening qo'limda.

— Modomiki, o'lkamizning xalqlari bir-biriga maktub yuborishga haqsiz ekanlar, u holda o'zgalarni hukumatga qarshi deb ayblashning o'zi ham haqsizlikdir.

Shundan so'ng Ilyos ham, Amir ham churq etib og'iz ochmadalir. Qatiba zo'r bir hayajon bilan ishning nima bilan anjomiga etishini kutardi. Ilyos na atrofga qarar, na turgan joyidan jilar edi. U Amirning katta mehmonxonasiga qo'yilgan savlatli haykallar singari butun vazminligi bilan tik turar edi.

Xiyla fursatdan so'ng Amir boshini ko'tarib dedi:

— Seni qatl etmayman, chunki seni qatl etmoq — xalifaning eng yaqin kishilarini tahqir etmoqdir. Kibor oilalar orasida sen singari itoatsiz odamlar juda kam topiladi. Men bugun ularga maktub yuboraman. Sening Oronda yashashing buyuk bir naslning sha'niga isnod keltirishi mumkin. Endi ketaversang bo'ladi. Lekin Orondan boshqa yoqqa chiqishingga ruxsat bermayman.

Keyin Amir Husomiddinga buyurdi:

— Buni nazorat ostida saqlang. Hozir uyiga jo'natib yuboring.

Qatiba suyunib otasining boshini silay boshladi.

Faxriddin birinchi eshikdan ichkariga kirgan vaqtda, Nizomiy ikknichi eshikdan dahlizga chiqdi.

Ilyos Amir saroyidan ko'chaga chiqqanida, kech kirib qolgan edi. Chinor tagida bir soya ko'rinar edi. Ilyos ketib borar ekan:

— Ilyos, sizni bo'shatishdimi? — deb so'radi soya.

Ilyos bu ovozni eshitib to'xtadi. Bu ovoz unga tanish edi, go'yo u Ilyosni kamand tashlab to'xtatganday bo'ldi. Bu ovoz uning sevgilisi Ra'noning ovozi edi. Ilyos bilan soya bir-biriga yaqinlashdi.

U ovoz takror eshitildi:

— Ilyos, sizni bo'shatishdimi?

— Ha, bo'shatishdi, mening sevgili do'stim, bo'shatishdi. Qayg'urma, go'zal Ra'nom!

Ra'no boshini Ilyosning yelkasiga qo'yib yig'ladi. Ilyos esa, uning sochlaridan o'par ekan:

— Ketaylik, Ra'no, qo'rqma, ular menga hech qanday ziyon-zahmat yetkazisha olmaydi, — dedi.

BAHOR

Ganja soyining sho'x to'lqinlari bahor quyoshining zar ko-killarini o'z ko'zgusida aks ettirmoqda edi. Moviy osmonda yengil uchayotgan pag'a-pag'a bahor bulutlari may gullarining qirmizi yonoqlariga pardoz berishga hozirlanardi. Shimoliy Midiyaning yoqimli, latif tabiati bog'chalarning bo'y-bastiga moslab yashil maysalar va alvon chechaklardan bichgan rang-barang liboslarini tayyorlash arafasida edi.

Kapaz tog'idan esayotgan sarin shabboda havoda nozlanib uchib yurgan bulutlarni Xonaqoh qishlog'ining o'rmonlari tomon quvlagan paytlarda, shom daraxtlari ham salobat bilan boshlarini tebratib qo'yardi.

Yomg'ir bir soat avval tingan edi. Bulutlar sug'organ cho'llar, o'rmonlar, bog'-bog'chalar ko'm-ko'k bo'lib yashnar edi.

Yosumanlar to'zg'ib ketgan sochlarini yashil novdalari ustiga yoyib quritar, g'azalxon bulbullar qizil gul yonog'idagi yomg'ir tomchilarini artish uchun gul shoxlarini tebratar, lolalar bo'lsa, pi-yolasini baland ko'tarib bahor sharafiga may tutardi. Nargis guli shodligidan yoshlangan ko'zlarini artar ekan, bahor manzarasini tomosha qilar, binafshalar boshini yelkasiga egib, xayol surar, bastakor kakliklar esa, o'rmon sayriga chiqqan yosh shoirni qarshi olish uchun salom taronasini chalar edilar.

Yosh Ilyos, odati bo'yicha, uydan chiqib soy bo'yiga ketar edi. U har kuni soy atrofidagi bog'-bog'chalarni kezar va shoirlar bilan uchrashar edi. U soy tomonga borayotganida, Ganja aholisi xalifa yuborgan farmonni eshitish uchun masjidga yo'l olgan edi. Xalifa bu farmonida Otabek Muhammadning yangi mansabga tasdiq etilganini Ganja xalqiga ma'lum qilar edi. Ilyos bu xabarga uncha-lik e'tibor bermadi. U odamlar olomonini yorib o'tib, Mas'udiya mahallasiga chiqdi, u yerdan Cho'ponlar qabristoni yonidan o'tib soy bo'yiga tushdi. Shahar xalqi masjidda bo'lgani uchun soy bo'yida sayr qiluvchilar juda kam edi.

Ilyos atrofni ko'zdan kechirarkan, o'z-o'ziga dedi:

— Shunisi yaxshi. Bu yerda erkin fikr qilish mumkin. Bu yer yosh bir shoirning ijodi uchun juda qulaydir.

Har vaqtdagi joyiga, yonboshiga ag'darilgan majnuntol to'nkasiga o'tirdi, daraxtzorning sokinligiga qaramay, Ilyos o'zini behuzur his etardi. Go'yo uni shafqatsiz bir falokat kutib turgandek edi.

Ilyos bugun hamma yerda g'ayritabiiylik his etar, atrofga taralayotgan bulbul nolasida ham bir tashvish, bir hayajon sezar va o'ylardi: bu ovoz suyunch, shodliklar ichidan emas, balki g'amqayg'ular orasidan sizilib chiqayotgan ingrashga o'xshardi.

Ilyos o'z-o'ziga: "Bulbulning ovoziga shoirlargina oshia, hammadan ziyod ular tushunadi", deya o'rnidan turdi, butun diqqatini to'plab, atrofni keza boshladi.

U bulbul parvona bo'lgan qizil gul oldiga bordi, juda ehtiyotlik bilan egilib gul shoxchalarini ko'zdan kechirdi va oromsiz qushni bezovta qilgan sabablarni bilmoqchi bo'ldi. Yosh shoir qizil gul tuplari ostida kulcha bo'lib yotadigan ilonlarni va ular bulbullarning rohatini buzganini bir necha daf'a ko'rgan edi. Bu safar Ilyos qizil gul ostida hech narsa ko'rmadi. Ammo bulbul bezovta bo'lib nolish qilardi.

Shamol shiddat bilan esardi. Qizil gulning shoxlari bir-biriga chirmashar, shamol zarbidan tikanlari qattiq silkinib, qizil gulning nozik yonoqlarini tirnalar edi.

Buni ko'rgach, yosh shoir qo'lini uzatib gul shoxlarini bir-biridan ajratib qaradi. Bulbul tirnalgan gul atrofida nolish qilib yig'lar ekan, shoir ham bir chetda turib bu manzarani tomosha qilar va o'z-o'ziga der edi: "Ajab, shunday bir manzarani ko'rib turib shoir bo'lmaslik mumkinmi, axir?" So'ngra qaytib kelib, yana o'z o'rniga o'tirdi-da, jo'shib oqayotgan soyni tomosha qila boshladi. Ikki kundan buyon davom etgan yomg'ir natijasida Ganja soyi to'lib-toshgan edi. Abubakr, Bozorjuq, Isfahon qishloqlaridan kelganlarning yechinib soy kechishlari shoirning diqqatini o'ziga biroz tortsa-da, ammo uning asosiy fikridan ayira olmadi. Uning shuurida bahor, tabiat, she'r va san'at birinchi o'rinni egallar edi. U bahor mo'jizalarining xazinasiga kirarkan, butun borlig'ini unutib, she'riyat ilohisining quchog'ida nozlanar edi. So'ngra qo'ynidan

daftar olib, qalamdonini yonidagi tosh ustiga qo'ydi, fikrida, zehnida avaylab yashirib yurgan misralarni qog'ozga tushirdi va bahor manzaralariga kuylar bastaladi.

Soy bo'yida kezuvchilarning soni orta bordi. U yerda sayr qilib yuruvchilar shoirga qiziqishar, uning yozayotgan daftariga ba'zan ko'z tashlashardi. Bu, unga xalaqit berar va xayolini o'g'irlar edi. U she'r yozayotgan paytlarida hech kimga asarlarini ko'rsatmas va qarashga ham qo'ymas edi. Hatto, bitgan asarini ham birovga o'qib bermasdi. Shuning uchun ham u daftar-qalamini yig'ishtirib qo'yniga soldi.

Shoir Kamoliddin bilan Zahir uning yoniga kelib salomlashdilar. Ilyosning qo'lini siqib so'rashganlaridan so'ng, Zahir undan:

— Yangi nimalar yozdingiz? — deb so'radi.

— Bir narsa yozmoqdaman, lekin hali bitirganim yo'q. Tamomlanmagan asar haqida gapirishni istamayman, balki asar haqida fikrim o'zgarib qolar.

Zahir Ilyosning bu fikriga qo'shilmadi. O'z fikrida qat'iy turib:

— Biz ham shoirmiz, — dedi, — biz yozgan asarlarimizni kishilarga o'qib beramiz va ulardan maslahat olamiz. Eshitganlar bizga yangi fikrlar, maslahatlar berishadi. Buning natijasida ba'zan she'rlarimizning badiiyligi oshadi va boyiydi. Lekin sen hamisha bu usulga qarshi chiqasan. O'z she'rlaringni bir xazina kabi yashirasan. Bu esa, ikki narsadan biri bo'lishi mumkin: yo xasislik, yo bo'lmasa qo'rqoqliq. Bularning har ikkisi ham shoirga yarashadigan xislatlardan emas. Sen doimo o'zingdan yoshi ulug'roq va san'atda tajribasi ortiqroq bo'lgan kishilarning nasihatiga quloq solishing kerak.

Zahirning bu so'zlarini Kamoliddin ham tasdiqladi. Ular so'zlarini tugatganidan so'ng, Ilyos qalin qoshlarini chimirib javob berdi:

— Oxirgi so'zingizni qaytarib oling. Mening sha'nimga xasis so'zini ishlatish o'rinsizdir. Men shunday bir shoir bo'lishni istaymanki, ijod dasturxonimdan minglarcha shoirlar nasiba ola bilsinlar. Men shunday bir asar yaratishni istaymanki, mendan keyin kelgan shoirlar ergashsinlar. Men qo'rqoq ham emasman. She'rlarimni har yerda o'qib bera olaman, lekin har bir kimsaning yonida o'qiy olmayman, chunki hammaga bir xil narsa darkor

bo'lavermaydi. Men besh misra she'rni ko'chama-ko'cha ko'tarib yurib, o'quvchilardan ta'rif-tavsifni kutgan shoirlardan emasman. She'r o'qir ekanman, faqat o'z ta'bim va o'z didimdan maslahat olaman. Boshqalarning fikri bilan misralar tuzishga qarshiman.

Atrofidagilarga Ilyosning bu so'zi ma'qul tushmadi. Ular yangi yozilgan she'rining o'qilishini talab etishdi, Abulullo bilan Falakiy ham Zahir bilan Kamoliddinlarning fikriga qo'shilishdi. Abulullo jilmayib dedi:

— Garchi sen boshqalarning fikridan o'z she'ringda foydalanishni istamas ekansan, biz bunga qarshi emasmiz, lekin she'ringdan boshqalar foydalanishi kerak. Agar san'ating yaxshi san'at bo'lsa, mayli, sening yo'lingni boshqalar ham davom ettirishsin. She'ring tugallanmagan bo'lsa tugallanmasin, keyin bitirarsan.

Ilyos, nihoyat, o'zidan yoshi ulug' bo'lgan Abulullonning so'zini yerda qoldirmadi, qo'ynidan daftarini olib tugallanmagan she'rini o'qidi:

Bahor

Ko'klam gulining ko'rkka to'la husinga bir boq,
Olam yuzi bir zevari gul rang ila porloq.
Kulganda tabiat, tevarak-borliq yuzi kuldi,
Gul atri samodan uzilib yerga to'kildi.
Minglarcha kelin ishvayi gul tugdi chamanlar,
To'y boshladi ko'klam bulutidan sut emganlar.
Har shox uza bir bulbuli shurida g'azalxon,
Maysa-ko'kat, qo'ziqorin, gul to'la bo'ston.
Shodon bu tabiat yaratib mo'jizalardan,
Og'ushida gullar ochajak nozli sahardan.
Dovud kabi xush ovozi bila qushlar yana sayrar,
Borliq esa gul-gul ochilib shodlik ila yayrar.[1]

Ilyos she'rini tugatib daftarini qo'yniga soldi, yosh Mujiriddin[2] uning peshonasidan o'pdi va shoirlarga qarab dedi:

[1] Romandagi she'rlarni Rustam Komilov tarjima qilgan.

[2] Mujiriddin Nizomiyning asrdoshi, beylogonlik bir shoirdir.

— Ona tilimizni she'riyat tili emas, deb kim ayta oladi, bir qarang, o'z tilimizda yozilgan she'r naqadar go'zal, ohangdor, naqadar o'ynoqi va badiiydir.

Ilyos uning fikrlarini quvvatlab dedi:

— Til qanchalik nafis bo'lsa, asar ham o'shanchalik nafis bo'ladi va shoirning mahorati, san'atkorligi ham shunga bog'liqdir. Mohir san'atkor shoir hamma tilda ham yoza oladi. San'atkor bo'lmagan shoir esa, o'z tilida ham yoza olmaydi. Ajab, fors tilida yozgan shoirlarning hammasi ham san'atkormikin? Yoxud arab shoirlarining hammasi Imralqays, Abu Navos va Abu Latohiyalar kabi san'atkor shoirlarmi?

Ilyosning bu so'zlarini Abululloning o'zi ham tasdiqlab dedi:

— Har bir xalqning ruhiy ifodasini faqat uning o'z tilida bera olish mumkin. Ota-bobolarimiz: "Shoir o'z xalqining tilidir" degan so'zlarni bekorga aytmaganlar. Xalq ichida tug'ilgan shoirning har bir she'ri o'z xalqining irodasini ifoda etishi kerak. Shoirning she'ri yashayotgan xalqning siymosini aks ettiruvchi bir ko'zgu bo'lmog'i lozim. Bir xalqning qadr-qimmatini faqat uning she'r va adabiyotining qadr-qimmati bilan o'lchash mumkin.

Ilyos Abululloning qo'lini o'pdi va quvonib dedi:

— Mening aytmoqchi bo'lganim ham shu edi, keksa shoir! Ikki odamning siymosi bir ko'zguga sig'masa ham, buyuk bir xalqning madaniy qiyofasi bir ruboiyga sig'a oladi.

— O'z tilida she'ri bo'lmagan bir xalqning boshqa nimasi ham bo'la olardi? Xalqning til madaniyatini yaratadigan uning adabiyotidir. Shoir — ham shoirdir, hamda o'z xalqi so'zlaydigan tilning homiysidir. Tilni qo'riqlovchi askardir.

Amir Inonjning saroy shoirlaridan Zahir, Ilyos va Abululloning so'zlariga qat'iy e'tiroz bildirib dedi:

— Men sizlarning fikrlaringizga qo'shilolmayman. Bir karra shuni yaxshi bilish lozimki, she'r va adabiyotda ishlatiladigan til boshqa, oddiy til, ya'ni qora xalq gapiradigan til boshqadir. She'r yuksak va nozik fikrlarning mahsulidir. Shuning uchun ham u oliy tabaqalarning mulki bo'lishi kerak. Yuksak tabaqalarning oila tillari yuksak tildir, ya'ni fors tilidir, chunki fors ham adabiy, ham boy til, hamda davlat tili, rasmiy tildir. Agar shunday bo'lmasa edi,

Ganja tarixini yozish uchun Amir Erondan Kamoliddin janoblarini bu yerga da'vat etmas edilar.

Ilyos bu so'zga qahqaha urib kuldi va javob bera boshladi:

— Bunday fikrlar do'stlarimning boshida pishib yetilgan fikr emas. Avvalo shuni anglamoq lozimdirki, siz aytmoqchi bo'lgan yuksak tilda yozilgan she'rlarni xalqimiz tarjimalar vositasi bilan o'qiy oladi. Lekin men yozgan she'rlarni o'lkaning ziyoli va a'yonlaridan tortib, qishloqilar va cho'ponlargacha hamma o'qib, fikrimni tushuna oladi. Bir shoir uchun shuning o'zi kifoyadir.

Kamoliddin suhbatga aralashib dedi:

— Menimcha, mahalliy tilda ham she'r yozmoq mumkin. Lekin asosiy nuqsoni shundaki, bu tilda yozilgan she'rlar xoqon saroylarining baland devorlaridan oshib ichkari kirolmaydi va saroy ahliga yetmaydi, garchi yetib borganda ham, saroy ahli uni o'qishni istamaydi; bu shoirning she'r ustida chekkan zahmatlarining zoye ketishiga sabab bo'ladi.

Ilyos bu so'zlarga ham qo'shilmadi. U jiddiy bir vaziyatda dedi:

— Shoir deb atalgan kimsa, she'r yozgan mahalida she'ri xoqonlar va podshohlar saroylarining baland devorlaridan osha oladimi-yo'qmi, o'ylab o'tirmaydi, chunki she'rlar faqatgina baland devorlarning ichiga berkinib olgan o'n-o'n besh nafar uchun emas, minglarcha odamlar uchun yoziladi. Forsiy tilda yozish masalasiga kelganda, men faqat shuni ayta olaman: agar xoqonlar va saroydagilar bizning asarlarimizni o'qimoq istasalar, biz turk tilida yozilgan asarlarimizni forsiy tiliga tarjima eta olamiz. Lekin shuni ham bir karra esda tutish kerakki, ozarbayjonliklar har qanday masalada yon bersalar ham, o'z ona tili to'g'risida yon berolmaydilar.

Ilyosning suhbati ancha jiddiy tus oldi. Abulullo bilan Mujiriddin boshqalarga sezdirmasdan sekingina jo'nab qoldilar. Na Zahir va na Kamoliddin Ilyosni o'z fikrlariga moyil qilolmadilar. Shuning uchun suhbatni boshqa yoqqa burib yubordilar:

— Yosh shoirsan, go'zal she'rlar yozasan, qoning qaynoq va jo'shqindir, ilhoming pok va muqaddasdir, lekin biz bilan qilgan suhbatlaringni, haligi she'rlaringni boshqalarning yonida o'qima! Bu bilan o'zingni Amir va xalqning katta ehsonlaridan mahrum

qilib qo'yishing mumkin. Aqlingni yig'! Bunday ravon tab'ing bilan yelkang podshohlarning zarbof to'nlarini kutmoqda. Xususan, Shirvon shohi Abulmuzaffar she'r muxlisidir. Lekin u faqat fors tilida yozilgan nafis she'rlarni sevadi.

Ilyos mumkin qadar vazmin gapirishga urinardi-yu, lekin buni uddasidan chiqolmas edi. U ikkita ajnabiylar namoyandasi mahalliy xalqning, hatto, madaniyatda ulardan bir necha marta yuqori turgan xalqning tilini va adabiyotini tahqir etishiga sovuqqonlik bilan qarab turolmay, javob qildi:

— Zarbof to'nlardan mahrum etilishim aniqdir. Bu to'g'rida mubohasa qilib o'tirishga ehtiyoj yo'q. Zarbof choponlar faqat bukilgan va sajda qilganlargagina nasib bo'ladi. Meni esa, zamonaning dahshatli shamollari, bo'ronlari ham bukishga qodir emas. Yozuvchi va shoir bo'lgan zotning boshi majnuntol emasdirki, ixtiyorini shamollarning qo'liga bera olsin. Zarbof choponlar she'rning qimmatiga qarab emas, izzat va sharafning qimmatiga qarab beriladi. Menda esa zarbof choponlarga sotiladigan izzat va sharaf yo'qdir.

Kamoliddin g'azabidan titrab ketib dedi:

— Bu so'zlarning birortasi shoir og'zidan chiqadigan so'zlar emas. Bular isyonkorlar fikrining mahsulidir.

Ilyos kulimsirab:

— Bu so'zlaringiz to'g'ri,— dedi,— shoir isyonkor bo'lishi kerak. Shoir qo'y emaski, qassob pichog'ini charxlar ekan, boshini quyi solib turaversa. Hamadon va Tabrizda yangi otabeklarga bozorlar, qishloqlar qurish uchun xalq boshiga urilgan qamchilarning ovozi hammadan avval shoirni behuzur etmog'i lozim. Shimoliy Ozarbayjondan Iroq va Hamadonga poda singari haydalgan xalqning faryodlarini faqat mening qulog'im eshitib, mening qalbim his eta oladi. Ajabo, janobi Zahir va Kamoliddin singari odamlar Orondan ishga haydab ketilganlarning o'lik-tirigidan xabardormilar? Agar xabaringiz bo'lmasa, aytay, eshiting! Eldaniz ravotini qurish uchun Orondan olib ketilgan olti ming kishidan faqat mingtasigina qaytibdir. Ularning ko'z yoshlariga qaramay, tepki va qamchilar zarbi bilan o'z vatanlaridan ayirib, majburiy ishga olib borilganligi sizlarga qanday ta'sir etdi? Afsuski, hech qanday ta'sir etmadi, chunki siz ularga begonasiz. Biringiz eronlik, biringiz esa xorazmliksiz.

Bu mavzuda boshlangan suhbat anchaga cho‘zildi. Zahir bilan Kamoliddin xayrlashib ketdilar, Ilyos yana kelib o‘rniga o‘tirdi. Yonboshidagi majnuntol to‘nkasiga suyanib, qo‘ynidan daftarini oldi. She’rini tugatishga urindi. U suv to‘lqinlariga qarab turganida, yonida bukchaygan bir cholni ko‘rib cho‘chib ketib undan so‘radi:

— Nima istaysiz?

Chol kulimsirab javob berdi:

— Sening salomatligingni istayman. Men Amir Inonjning bog‘-boniman, senga maktub keltirdim.

Ilyos cholga taajjublanib qararkan:

— Amir Inonjdan menga maktub! — deb so‘radi.

— Tashvishlanma, maktubni Amirning o‘zi emas, qizi yubordi.

Ilyos zo‘r hayajon bilan so‘radi:

— Amirning qizi?

Bog‘bon:

— Ha, Amirning qizi Qatiba xonim senga maktub yubordi,— dedi va titroq qo‘llari bilan maktubni Ilyosga uzatdi.

Ilyos zo‘r hayajon va taraddud bilan bog‘bonning qo‘lidan maktubni oldi, bog‘bon ta’zim qilib qaytdi, Ilyos maktubni o‘qiy boshladi:

“Qahramon va shoir!

Bu maktubni senga yuborgan qiz Amir Inonjning qizi va xalifayi ro‘yi zaminning nevarasidir. Qalbini senga ochgan bu qiz o‘z yuzini oftobga ham ko‘rsatmagandir. Umrimda birinchi martaba begona kishiga maktub yozmoqdaman. Shuning uchun ham maktubda bo‘lgan nuqsonlarni kechir. Men qalbimni erkaklarga ochmasligimning asosiy sababi ular haqida xilma-xil fikr va xayollarda bo‘lganimdandir.

Sen bizlarning odatimizni bilasan. Bu odatlar qizlarning erkaklar bilan yuzma-yuz o‘tirishiga imkon bermaydi, shunga ko‘ra, sen bilan ko‘rishish saodati menga muyassar bo‘lmadi. Bu ziddiyatlarning boshqacha sabablari ham bordirki, ularning hammasini yozishlikni lozim ko‘rmadim.

Men erkaklarni ba’zan kitoblardan o‘rganishni o‘ylardim, lekin juda tez fursatda bu fikrimdan qaytdim. Chunki inson tabiatini o‘rganishda kitob yozganlarning o‘zlari ham xato qilishlari mum-

kin. Har narsani bevosita o'rganish joiz bo'lsa ham, lekin insonlarni bevosita o'rganish va kimligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Shu fikrlarga asoslanib erkaklarni o'rganishga qaror qildim.

Bag'dodda tahsilni bitirib, Ganjaga kelgan vaqtimda seni qudratli bir shoir ekanligingni eshitgan edim. Abulullonning joriyasi Sabo xonim sening o'n ikki misralik bir g'azalingni menga bergan edi. G'azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

"U go'zal, nozik muhabbatdan shan,
Bir chechakki, tug'ildi shabnamdan".

Bu g'azalni har kuni bir necha martaba o'qiyman. Bu she'rda nafosatdan tashqari, chuqur bir mazmun bor. Bunda go'zal insonni yaratgan bir qatra murdor suv shabnam kalimasi bilan ifoda etilgandir. Badiiy adabiyotda badiiy so'zlar ishlatish lozimligini sen, yosh shoir hammadan avval topa bilibsan. Bu g'azal haqida suhbatlashish uchun seni ko'rishni istardim. Bir marta seni Malikshoh maydonidan o'tib ketayotganingni uzoqda ko'rdim. Bir martaba O'zonlar mahallasiga kirganingda ko'rdim. Ikki martaba Abulullonning uyida bo'lgan vaqtingda gaplashishni xohladim, lekin iloji bo'lmadi. Bu tasodifiy uchrashuvlarning birortasida ham sening kimligingni aniqlab bo'lmadi. So'nggi marta otam seni huzuriga chaqirgan vaqtda keragicha ko'ra oldim va kimligingni aniqlashda ham nihoyat qanoat hosil qildim.

Ochig'ini aytganda, seni har xil qiyofalarda tasavvur qilaverib charchagandim. O'sha ko'rganimdan so'ng bir nav tinchidim. O'sha oqshom qarshimda insonlarga namuna bo'lgan siymoni ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ishon, Ilyos! Onamning joni va bobom xalifaning muqaddas vujudiga ont ichaman, men o'sha oqshom yolg'iz seni muhofaza etish uchun mahkamaxonada o'tirgan edim. Men sening haqingda chiqarilgan har qanday salbiy qarorni o'zgartirmoqchi edim. Sendan iltimos qilaman, maktubning javobini yozib, bog'bonimiz Salimdan berib yubor. U maktub qalbim singari odamlardan yashirin saqlanadi. Maktubimni do'stlaringga ko'rsatma.

Senga doimo do'stlik hurmatini saqlagan Qatiba". Ilyos Qatibaning maktubini o'qigandan so'ng uzoq o'ylab qoldi. Nihoyat,

kulimsirab maktubni cho'ntagiga soldi. Turib ketmoqchi bo'ldi, chunki kech kirib qolgan, sayr qiluvchilar ham o'rmondan chiqib ketmoqda edilar.

Ra'no daraxtlarning orqasidan chiqib, asta-asta Ilyos o'tirgan to'nkaning oldiga kela boshladi, so'ng turgan yerida qotib qoldi. U uyalar, boshini ko'tarib qarolmasdi. Ilyos ketmoqchi bo'lganida, ro'parasida qarab turgan Ra'noni ko'rdi. Qizning go'zal chehrasi qayg'uli bo'lib, ko'zlarida har galgidek Ilyosga ilhom beruvchi tabassum endi yo'q edi. Chehrasi tez-tez o'zgarib turardi. Chehrasidagi alomatlar yomg'irdan so'ng osmonda ko'ringan kamalak singari tovlanardi. U bahor bulutidek to'lib-toshgan bo'lib, tomchilarini to'kishga ozgina qolgan edi. Ilyos unga imkon bermay, tez kelib kifti osha ko'ksiga tushib turgan qora sochlarini silab, bu g'azalni o'qidi:

"Nadir bu g'amli boqish senda, sevgilim, Ra'no,
Dudoqlaringda nadir bul sukuti serma'no?!"

Ra'no Ilyosning bu so'zlaridan so'ng uyalib boshini ko'tardi va yuziga qaradi, lekin shunda ham xafalikning sababini ochiq aytishga tortindi, faqat shu so'zlarni ayta oldi:

— Men anchadan beri daraxt orqasida berkinib sizni tingladim, — dedi, — hatto, yangi yozilgan she'ringizni ham eshitdim.

Ilyos Ra'noning nima demoqchi bo'lgani va nimadan xafa bo'lganini darhol shoirga xos ziyraklik bilan his etdi va uning sochlarini silab:

— Xafa bo'lma, jonim, — dedi, — sening ishqing yashagan qalbga boshqa bir muhabbat yo'l topolmaydi. Buni yaxshi bilib ol!

Nihoyat "bahor" bulutlaridan tomchilar kela boshladi. Ra'no yig'ladi va boshini Ilyosning kiftiga qo'yar ekan, astagina:

— U juda ham badavlat qiz, — deya oldi.

Ra'noning shu so'zlaridan so'ng Ilyos uning boshini quchoqladi, sochlarini silab, qizning ko'zlariga tikildi-da:

— Yig'lamoqqa hech qanday sabab yo'q, — dedi. — U qiz badavlat emas. U sen ega bo'lgan tabiiy davlat qarshisida bir gadocha ham emas. Men sening muhabbating bilan podshohlarning xazinasida ham topilmaydigan nodir gavharlar yarataman.

Ra'no hazin va titroq bir ohangda qo'shimcha qildi:

— Men hech qachon seni badavlat bo'lishingni istamayman.

Ilyos so'radi:

— Nima uchun, go'zalim?!

— Chunki sen badavlat bo'lgan kuning kambag'al qizni tashlaysan. "Saviyamiz har xil", deb badavlat bir qizni axtarasan.

— Yanglishma, Ra'no! Men she'rlarimning qimmatli durdonalarini senga bo'lgan ishq tuyg'ularimning cheksiz dengizlaridan teraman, sening ishqingdan olgan ilhomlarim ta'rifimda misli ko'rilmagan dostonlarning mavzularini bag'ishlaydi. Ra'no, sen shuni bilishing kerakki, asrlar tarixi sunbul sochlaringdan suzilib o'tib katta-katta kitoblarning sahifalariga to'kilgusidir. Amin bo'l, Ra'no. Ganjaning yashil tabiati orasida tepib turgan qalbim faqat sening ishqing bilan she'r dunyosini fath eta oladi. Menga ishon, Ra'no! Bu yosh shoir muhabbat dostonini sen bilan boshlab, sen bilan tugallashga harakat qiladi.

Nihoyat Ra'no Ilyosga savol berdi:

— U holda haligi qanday maktub edi?

— U bir parcha qog'ozdir. Sening ishqingdan olgan ilhomlarim esa, boy bir kutubxonadir.

Ra'noning ko'ngli biroz taskin topdi. Uning boshi Ilyosning ko'ksida ekan, dedi:

— Bugun o'qigan she'ringiz avvalgi she'rlarga nisbatan yanada sermazmunroq.

Ilyos uning sochlarini silashda davom etib dedi:

— Albatta, sen u she'rni sevasan, chunki she'rning mavzuyi senga juda ham tanishdir.

Ilyosning bu so'zidan Ra'no taajjublandi. U Ilyosning yuziga boqib so'radi:

— Ya'ni qanday she'rning mavzuyi menga tanish? Ajab, sen u she'rni mening yonimda bir necha martaba o'qigan edingmi?

— Yo'q, o'qimaganman. Lekin u she'r bahorga bag'ishlangani uchun senga aloqadordir. Chunki sen mening hayotimning bahorida yetilgan ilk chechaksan. Ochig'ini aytgan-da, u she'r Ra'nodir. U she'r mazmunida qarimaydigan bir yoshlik saqlanmoqda.

Bu so'zlardan so'ng Ra'no Ilyosning qo'lidan o'z qo'llarini bo'shatib, shoshilganicha yugurib ketdi. Ilyos uni to'xtatish uchun shuni o'qidi:

Go'zal malagim, to'xta, meni tingla,
Olam yaratarman sening ishqing-la!

Ilyos Ra'no bilan xayrlashdi. Soy bo'yidagi majnuntollarning soyasida ketib borardi. Ilyos tezroq ketmoqchi bo'lardi, chunki uzoqdan xotin-qizlarning ovozlari eshitilar, ovozlar borgan sari yaqinlashar edi. Ko'p o'tmay, Amir Inonjning navkarlari o'rmon tomonda ko'rindilar va ular orqasidan joriyalar va kanizaklarning aytgan qo'shiqlari eshitildi:

Gul-u, chechakli Ganja,
Sho'x kapalakli Ganja,
Rang-barang gul-chechakda
Ko'ksi bezakli Ganja!..

Ilyos bu qo'shiqni eshitirkan, qadamini tezlatdi. Bu qo'shiq Amirning xotini yoki qizining o'rmon sayohatiga chiqqanidan darak berardi. Ilyos bugun o'rmon qo'riqlanayotganidan bexabar edi. Qo'riqlanayotgan o'rmon sayriga chiqish xavfli edi. Soqchi va navkarlar o'rmonni qurshab olib daraxt ostlarini birin-ketin ko'zdan kechirar edilar, chunki mana shunday kunlarda erkaklar Amirning qizi, xotini va go'zal kanizlarini ko'rib qolish uchun o'rmonda va soy bo'yida berkinishar edi. O'rmonda berkinganlar qo'lga tushib qolguday bo'lsa kaltaklanar, qamoqqa olinar yoki navkarlar tomonidan jarima olinib, qo'yib yuborilar edi. Shuning uchun Ilyos o'rmondan nariroq ketishga urinardi. Shu payt o'rmon atrofini tintuv qilmoqda edilar. Ilyos o'rmondan chiqib ketishning ilojini qilolmadi, uning o'rmonda qo'lga tushishi katta shubhalarga sabab bo'lishi mumkin edi. Ayniqsa, Amir Inonj Ilyos Qatibani ko'rmoq uchun o'rmonda yashiringanligini eshitguday bo'lsa, uni qattiq jazolar edi. Bir jihatdan esa, Ilyos Qatibaga ro'para kelishga urinardi. Lekin xalos bo'lishning iloji yo'q edi. Qay tarafga yurmasin, Qatibaning odamlariga to'qnash kelardi. Hech qayerdan chiqib

ketishning ilojini topa olmagandan keyin avvalgi joyiga qaytdi-da, doim o'tiradigan majnuntol to'nkasiga o'tirdi.

Saldan keyin bir to'da kanizlar qo'llarida ud va chang bilan kuylashib o'rmonga kirib kelishdi. Bularning ketidan bir to'da qullar yelkasida taxti ravon ko'tarib kelishdi. Taxti ravon yashil butoqlar va guldastalar bilan bezatilgan edi. Qatiba qimmatbaho toshlar qadalgan tilla toj kiyib taxti ravonda o'tirardi. Alvon rang shohi va har xil zarbof kiyib yasangan Qatiba tovusdek tovlanar edi.

Taxti ravonni yerga qo'ydilar. Go'zal joriyalar Qatibaning qo'lidan ushlab taxti ravondan tushirdilar. Qullar chetga chiqib turishdi, Qatibaning atrofida joriya va kanizaklar qolishdi. Qizlar soz chalishar, raqs tushib, qo'shiq aytishar va xandon urib kulishardi. Ilyos qafasga tushgan qushday hayajonli onlarni kechirardi. Qizlarning qahqahasidan bezovta bo'lgan o'rmon qushlarining tovushlari bu shovqinlarga qo'shilib o'rmon ichida g'ayritabiiy bir vaziyat tug'dirgan edi. Joriyalar Qatibaning yonida kelgan ikkita haram og'asini[1] qitiqlab kulishar va ularning yoqasidan bo'g'ib:

— O'lsam ham, tirik bo'lsam ham, senga tegaman, sening ishqingda devonaman, — deb hazillashar edilar.

Qatibani xursand qilish va kuldirish uchun haram og'alari joriyalarning qo'lida masxaralangan jonli qo'g'irchoq edilar. Joriyalar ularning yig'laguniga qadar kalaka qilar, hatto, Qatibaga borib shikoyat qilish darajasigacha qiynar edilar. Nihoyat, Qatiba haram og'alarini joriyalarning qo'lidan qutqarib yubordi, joriyalar esa, endi kanizlarga yopishib, ular bilan o'ynay boshladilar, Qatibaning Kofur nomli quli uzoqdan baqirdi:

— Begona odam! Begona odam!

Bu ovoz eshitilishi bilanoq, darhol joriyalar va kanizlar orasiga jimlik cho'kdi. Abululloning joriyasi Sabo xonim Qatibaning boshiga mayin ipak niqobni tashladi. Taxti ravon ichidan bir kursi olib keldilar. Qatiba g'azab bilan unga o'tirdi. Amirning qizini ko'rish uchun o'rmonda yashiringan gunohkorni savalash uchun xipchin-

[1] **Haram og'asi** — yoshligida axta qilinib, saroy xizmati uchun tayyorlangan odamlar. (Eron, arab va Sharq zodagonlari, hukmron va a'yonlari haram og'asini haramxonalarda saqlashar edi.)

lar hozirlandi. O'rmonda berkingan nomahramlarni Qatibaning o'zi jazolashi kerak edi. Gunohkorning keltirilishiga amr berdi.

Birozdan so'ng qullar Ilyosni o'rtaga olib keltirishdi. Sabo xonim Ilyosni ko'rishi bilanoq shoshilgancha Qatibaning qulog'iga shivirladi:

— Ilyos, Ilyos! Shoir, mana bu she'rni yozgan shoir:

"U go'zal, nozik muhabbatdan shan,

Bir chechakki, tug'ildi shabnamdan".

Qatibaning butun vujudi titradi. U darhol Ilyosni tanidi va o'z-o'ziga dedi: "Qanday yaxshi va qulay bir tasodif! Endi men yosh shoir bilan istaganimcha gaplashib o'tira olaman!.

Qatiba yuzidagi niqobni ko'tarib, Ilyosga boqdi. U yosh shoirning ko'nglini birinchi qarashdayoq o'g'irlay olishiga ishonar edi, chunki arab, turk va rum qonining bir-biriga qo'shilishidan vujudga kelgan bu ofatijonni birinchi ko'rishidayoq sevmaslik mumkin emas edi. Go'zallikning barcha tashqi xususiyatlarini tamomila o'ziga singdirgan bu qiz o'z asrining ko'rkka boy ayollarining mujassami edi.

Qatiba Ilyosga savol berdi:

— Bugun o'rmonning qo'riqlanganligini bilmas edingmi? Amirning qizini ko'rish uchun o'rmonda berkingan nomahramlarni og'ir jazoga duchor bo'lishligini eshitmagan edingmi?

— Keyingi jumlangizni eshitgan edim, lekin o'rmon qo'riqlanganligini bilmasdim. Inson hamma narsani bilishga qodir emas. Bu to'g'rida na jar solindi va na xabar qilindi. Amir hazratlarining qizlarini ko'rish maqsadida ham o'rmonga kelganim yo'q. Men doim o'rmonda aylanib yuraman. Shunga odatlanganman, chunki tabiatning buyuk mo'jizalari bu yashilliklar bag'rida, yashil tanalardan paydo bo'lgan qizil yoqutlarni tomosha qilish, kelinlar kabi nozlangan qizil gullarning qarshisida ta'zim qilgan sarv daraxtlarini tomosha qilish va chaman qizlariga nag'malar bastalagan xushovoz qushlarni tinglash mening doimiy mashg'ulotimdir.

Qatiba o'zini vazmin tutib, Ilyosga yana savol berdi:

— Demak, sen bu o'rmondagi mo'jizalarni o'rganmoqdasan?

Ilyos Qatiba o'zini gapga solmoqchi bo'lganligini sezib, unga bunday javob berdi:

— Yo‘q, mo‘jizalarni o‘rganish bilan birga mo‘jizalar yaratish uchun ham o‘rmonda sayr qilib yurishni yaxshi ko‘raman.

Bu so‘zlardan keyin Qatiba o‘zini tutolmay kuldi va so‘radi:

— Demak, sen payg‘ambar ekansan-da?

— Yo‘q, payg‘ambarlar yaratilganlar, men esa yarataman.

— Unday bo‘lsa, Xudomisan?

— Ha, men Xudoman. Lekin men o‘zini o‘zgalardan ham yuqori o‘ylagan insonlarni emas, har narsadan ham yuqori turgan she’rni va adabiyotni yarataman.

Bu so‘zlardan so‘ng Qatiba va uning atrofidagilar kah-qah urib kulib yuborishdi. So‘ngra Qatiba Ilyos bilan bo‘lgan suhbatni davom ettirishi uchun jiddiy bir vaziyatda dedi:

— O‘zini xudo bilan teng qiluvchilarni kofir bo‘lishini bilmaysanmi? Kofirlarning jazolanishi senga ma’lum emasmi?

Ilyos bu so‘zlarga kulimsirab turib javob berdi:

— O‘zini Xudo bilan teng qilganlarni jazolash lozim bo‘lsa, unda insonlarning ko‘pini jazolashga to‘g‘ri keladi. Hatto, xonim hazratlarining eng oddiy navkarlari ham bu jazoga loyiqdir. Chunki ularning har biri Ganjada o‘zini xudo deb biladi.

Ilyosning bu so‘zlaridan so‘ng suhbat boshida qah-qah urib kulib turganlarning yuzlari birdan o‘zgarib ketdi. Joriyalar, qullar va kanizlar bu yosh shoirning qo‘rqmas bir odam ekanligini payqashib qolishdi. Qatiba esa, Ilyosning bu javobidan titrab ketdi va kim bilan so‘zlashayotganligini angladi. U xizmatkorlariga dedi:

— Boringlar! O‘rmonni sayr qilinglar. Men bu bilan yolg‘iz o‘zim gaplashaman.

Turganlarning hammasi tarqaldi. Qatiba yuzini Ilyosga o‘girib:

— O‘tir, — deb amr qildi.

Ilyos o‘tirmasdan dedi:

— Mening doimiy o‘tiradigan joyim bor.

— Bu yerdan uzoq emasmi?

— Unchalik uzoq emas.

— Unday bo‘lsa, o‘sha yerga borib o‘tiramiz.

Qatiba Ilyos bilan birga ag‘darilgan majnuntol yoniga borib to‘nkaga o‘tirdi. Ular bir-birlariga juda yaqin o‘tirdilar, chunki boshqa chora yo‘q edi, to‘nka kambar edi. Qatiba Ilyosdan so‘radi:

— Ajab, shundan keng o'rmon ichidan o'zingga qulayroq bir joy topa olmadingmi?

— Shu yerda o'tirganimdagina tabiatning nozik sirlarini ravshanroq ko'raman. Siz, anovi soyga bir qarang, u yerda juda zo'r kurash bor. U ko'pirib oqayotgan to'lqinlarning orzu va umidlarga to'lgan bir qalb singari olg'a tashlanayotganini ko'ryapsizmi? Biri-biridan o'zish o'ynayotgan bu to'lqinlar musobaqasi maqsad yo'lida kurashmoq istagan har bir yosh kishi uchun tajriba darsi emasmi?

Qatiba endi yuzini butunlay ochib, Ilyosga dedi:

— Bugun baxt menga kulib boqqanligi uchun men ham yuzimni birinchi martaba begona erkakka ko'rsataman. Endi sendan tortinmayman.

— Oddiy bir ish uchun tortinishning hojati yo'q. Lekin bu ishda ikkinchi odamning zarar ko'rishini o'ylash kerak. Otangizning yuz ochib yurgan xotinlarni ko'rishga ko'zi yo'qdir. Mahsatiy xonimning boshiga tushgan falokatdan xabaringiz bormi?

— Sen nechun meni Mahsatiy xonimga taqqoslayapsan? Men yuzimni faqat senga ko'rsatdim, u esa, butun shaharga ko'rsatdi, hatto, u yuzini berkitib yurishni qonun va shariatdan tashqari deb bilardi. U hatto, Ganja xatibining o'g'li Amir Ahmadni ham badbaxt qilgandi, holbuki, Amir Ahmad ibodatxonalarda hayot kechirgan odam edi. Xullas, Mahsatiy uni Xarobat mahallasiga yaqinlashtirdi. U ham yuzini ochib yurishlikni Ganja qizlariga tavsiya qildi, natijada, qon to'kilishiga sabab bo'ldilar.

Ilyos qizning o'rinsiz mulohazalariga imkon bermaslik uchun yonidagi gul novdasini tortib, Qatibaga ko'rsatdi:

— Shu novdadagi nima?

Qatiba javobida:

— G'uncha, — dedi.

So'ng Ilyos gulning boshqa shoxini ko'rsatib dedi:

— Xo'sh, bu shoxdagi-chi?

— Bu gul, — dedi Qatiba.

— Endi ayting-chi, sizningcha bularning qaysi biri yaxshi? Gulning g'unchaligicha qolishimi yoki pardadan chiqib, gul bo'lib ochilishimi?

— G‘unchaning gul bo‘lib ochilishi yana ham go‘zalroqdir.

— G‘unchaning gulga aylanishi yaxshi ekan, nima uchun xotin-qizlarning g‘unchalar kabi pardadan chiqishlarini istamaysiz?

— Sen ham yuzning ochiq bo‘lishini sevasanmi?

— Birinchi ko‘rishishdayoq yuzingizni ochib yuborishingiz menga katta bir jasorat berdi.

— Men o‘z fikrlarimni faqat o‘z shaxsiy hayotimgagina tatbiq qila olaman. Lekin shubhasizdirki, bu fikrni umumlashtirsam yoki qonunga yaqinlashtirsam, meni ham Mahsatiy kabi ta’qib qilishadi.

— Siz ham yuz ochishni Mahsatiy xonimdan o‘rgandingizmi?

— Yo‘q, undan o‘rganganim yo‘q.

— Unda nima sababdan yuzingizni ochdingiz?

— Qalbimni ochmoq istaganim bir odamdan yuzimni yashirishning qanday ma’nosi bor edi, faqat sen bir narsani bilishing kerakki, men yuzimni senga ham ko‘rsatishni harom deb bilaman. Mahsatiy esa, buni halol deb bilardi.

Ilyos jim qoldi. Javob bermadi, chunki Qatiba bilan juda ham ochiq so‘zlashishni xohlamas edi. Qatiba biror munosabat bilan bu haqdagi fikrlarni otasiga aytib qo‘yishi mumkin edi. Jimlik biroz davom etdi. Qatiba Ilyosning suhbatni cho‘zmaslikka urinayotganini sezib qoldi va ishontiruvchi bir ohangda dedi:

— Uyalma va ochiq gapirishdan tortinma! Sen shoirsan, buni birinchi uchrashganimizdayoq his etishing kerak edi. Men yuzimdan pardani ko‘targan mahalimda, har to‘g‘rida ro‘yi-rost gapirishga ijozat etganimni bilishing kerak edi. Yuborgan maktubimning javobini berishdan qo‘rqmasliging lozim edi.

— Maktubingiz qo‘rqinchli maktub edi.

— Maktubda senga bo‘lgan ehtiromdan boshqa biror gap bormidi? Xalifaning nevarasi yo‘llagan maktubni ham qo‘rqinchli maktub deb bo‘ladimi?

— Qo‘rqinchning asosiy jihati sizning Amirning qizi va xalifaning nevarasi bo‘lishingizdadir. Men faqir bir shoirman. O‘zingizga ma’lumdirki, otangizning davrida shoirlardan ko‘ra qadrsiz, haqir kishilar yo‘qdir. Menda sizga demoqchi bo‘lgan ko‘pgina masalalar borki, ularni sizning fikringiz tarozusida o‘lchab bo‘lmaydi, chunki ular faqat salbiy natijalar berishi mumkin. Men ayt-

moqchi bo'lgan masalalarning bir qanchasini o'zingiz ham bilasiz. Olamda biror narsa yo'qki, tabiatning o'lchovidan o'tmagan bo'lsin. Agar xotinlarning yuzini yashirish zarur bo'lganda edi, tabiatning o'zi bu zaruratni hech qachon unutmagan va chetda qoldirmagan bo'lardi. Endi o'zingiz o'ylab ko'ring. Siz uchun yuzning yopiq qolishi yaxshimi? Yoki go'zal tabiatni ochiq yuz va ochiq ko'z bilan ko'rish yaxshimi? Shunga vijdonan javob bering.

Qatiba o'ylanmasdan dedi:

— Albatta, ochiq yurish yashirinib yurishdan yaxshiroqdir. Lekin yuzini barchaga barobar ko'rsatish, xotin-qizlarning qadrini tushiradi. Yashiringan narsa odamlarning diqqatini ochiq narsadan ko'ra ko'proq o'ziga tortadi. Bu fikr to'g'ri emasmi?

— Xonim qiz biror buyum haqida bahs etayotgan bo'lganda edi, bu fikr to'g'ri bo'lardi, lekin biz buyumlardan muhimroq narsa — jonli insonlar haqida gapiryapmiz. Jonli bir insonning yuzini berkitib yurishi insonlarda unga nisbatan qiziqish emas, aksincha shubhalar tug'dirishi mumkin, chunki yuzida biror kasalning nuqsoni bo'lgan yoki biror irganch yarasini ko'rsatish bilan kishilarni jirkantirmaslikni o'ylagan xotinlargina yuzlarini yashirishi mumkin. Biroq go'zal bir xotinning yuzini to'sib yurishi tabiatning yaxshi ne'matlaridan kishilarni mahrum etishi demakdir. Holbuki, har qadamda ochiq chehra va go'zal siymolarga tasodifan to'qnashib turish insonlarning ruhini ko'taradi va bahri dilini ochadi. Yana-da aniqrog'i, tabiatning mo'jizalariga ishontiradi. "Yuzini barchaga barobar ko'rsatish xotin-qizlarning qadrini tushiradi" degan fikringiz ham yanglish fikrdir. Yashirin narsaga hech kim baho bermaydi. Shaxsan men o'zim sizni ko'rish orzusida o'rmonda berkinib yuruvchilardan kulardim, ba'zan ularning kaltaklangani yoki jarimaga duchor qilinganligini eshitganimda, ulardan xafa ham bo'lardim. Mana, men yuzingizni ochiq ko'rib turibman, endi sizni haqsiz deb hisoblayman.

Qatiba qoshlarini chimirib:

— Men haqsizmanmi? — deb so'radi.

— Ha. Kechirasiz, eng birinchi haqsiz o'zingizsiz. Chunki siz ochiq bo'lganingizda, sizni ko'rish uchun jabrlangan, haqoratlanganlar bo'lmasdi. Ba'zan kishilarda keksayishlariga qaramay,

yoshlik havaslari va xususiyatlari yashaydi. Ular nafosat olamining turli go'zalliklaridan zavqlanadilar. Qisman sizni ham haqli deya olaman. Chunki yashirgan narsalari bilan maroqlanganlar ham ko'pdir. Lekin go'zallik xastalikni sevmasligi kerak. Tabiat juda ham mohir san'atkordir, shuning uchun men tabiatni sevaman. Tabiat arab, turk va rum qonidan vujudga kelgan bir guldastani bizga taqdim etgandir. Biz bu ne'matlar bilan faxrlanishga haqlimiz.

Qatiba nozlanib javob berdi:

— Shoir ta'rif qilgan guldastasini ko'rish mumkinmi?

— Siz uni har kuni ko'rasiz.

— Qayerda?

— Oynaga qaraganingizda.

— Demak, menda turk, arab qoni bilan birga rum qoni ham bormi?

— Ha, bor. Siz buni bilmasmidingiz?

— Bilmas edim, iltimos qilaman, to'g'risini so'zla. Bu haqiqatmi?

— Haqiqat.

— O'tinaman, izoh et.

— Siz xalifa Mutavakkilning xotini Shaonin xonimning naslidansiz. U she'r yozish va she'r o'qishda katta shuhratga ega.

Qatiba Ilyosning so'zini bo'lib:

— Ishonaman, ishonaman,— dedi,— menda rum qizi Shaonin xonimning qonidan bordir. Mening she'r va musiqaga bo'lgan havasim ham shuning natijasida emish. So'zingni davom ettir!

— Shaonin xonimning otasi Shom mamlakatidagi ibodatxonalardan birining mashhur ruhoniylaridan ekan. Xalifa Mutavakkil Shom sayohatiga chiqqanida shu ruhoniynikida mehmon bo'lgan va Shaonin xonimni o'sha yerda ko'rib sevib qolgan, unga uylangan. Sizning bobongiz xalifa — Mustarshidbilloh Shaonin xonimning nevaralaridan biriga uylangan va sizning onangiz Sofiya xonim o'shandan tug'ilgan. Bu faqat sizning bobongizga xos bo'lmay, butun xalifalar (Mansur va Horundan boshqa) arab qizidan tug'ilgandir[1]. Ilgarilari bo'lganidek, hozir ham xalifa saroylari arman, turk, gurji va rum qizlari bilan to'ladir.

[1] "Tazyinul-asvor" kitobi, birinchi jild.

Ilyosning bu so'zlaridan so'ng Qatiba o'ylay boshladi. Ilyos esa, uni va uning ustidagi zeb-ziynatni tomosha qilishga kirishdi.

Qatiba go'zal edi. Unda turklikdan qora sochlar, arablikdan quvnoq ko'zlar va rumlikdan oq-qizil yonoqlar ko'zga yaqqol tashlanib turadigan belgilar edi. U majnuntol to'nkasida go'zal bir suratdek o'tirardi. Kimxob kamzulining belini olmos va yoqutlar qadalgan kamari bilan siqib bog'lagan edi. Kamzul yoqasidagi zumrad va zabarjad tugmalar, sochlariga taqqan bodom nusxa oltin jig'alar, oq va nozik to'piqlaridagi inju taqinchoqlar va ikki ko'ksi ustiga taqqan olmos ziynatlar uni tovusdek bezagan edi. U nuqsonsiz go'zal edi.

— Bu qanday go'zal mato. Qatiba, ayting, bu qayerda to'qilgan?

Qatiba hayron bo'lib:

— Ganjada, ajab, sen buni bilmasmiding? — deb so'radi.

Ilyos kulib dedi:

— Bilaman, boshqa fikrda so'radim.

— Qanday fikr? — deya takror so'radi Qatiba.

— Men o'ylovdimki, "buni falon mamlakatdan menga tuhfa qilib yuborishgan", deb vataningiz Ganjaning har to'g'rida boy bir xazina ekanini inkor etarsiz deb.

Qatiba javob bermay sukut qildi. Ilyos jimlikni buzib:

— Demak, siz she'r va musiqani sevasiz,— dedi,

Qatiba javobida:

— She'r va musiqa mening ruhimning yagona ozuqasidir,— dedi.

— Xonanda, sozanda va shoirlardan kimlarni ko'proq sevasiz?

— Men Bag'dodda tahsil olgan vaqtlarimda mashhur xonanda, sozanda va shoir xotinlardan Turfa va Zaaf xonimlarni juda yaxshi ko'rardim. Bag'dodning eng mashhur xonanda va go'zal xotinlaridan Durratul-Bag'dodiyni faqat bir martaba ko'rib, eshita oldim.

— Mahsatiy xonimning soz chalib, qo'shiq aytishini bilarmidingiz?

— Shunday deb eshitganman, lekin ko'rish nasib bo'lmadi.

— Siz uning Ganjaga qaytishiga ko'mak berolmaysizmi?

— Sen uni sevmaslikka so'z berasanmi?

Ilyos kulimsirab dedi:

— Men uni hozir ham, kelgusida ham bir san'atkor sifatida sevaman. Go'zal qiz, men juda yoshman, Mahsatiy xonim esa yoshi anchaga borib qolgan ayoldir. Men uni xotin sifatida emas, bir shoira sifatida sevaman.

— Mening jonimga ont icha olasanmi?

— Ont icha olaman, lekin menga bo'lgan ishonchingizning sababini tushunolmayman.

— Menda asos bor. Shoirona qalbga ega bo'lgan odam unga ishongan bir qizni alday olmaydi.

— Fikringizga qo'shilaman. Qani, ayting-chi, Mahsatiy xonimning qaytishiga ko'mak berasizmi?

— Va'da beraman. Ayt-chi, maktubimga nechun javob yozmading?

— Biz ikkimiz ham yoshmiz. Lekin, farqi shundaki, men ozod va erkinlikdaman, siz esa pardalar orqasida yashiringansiz. Shunga ko'ra mening hayotiy tajribam qisman ortiqdir.

Qatiba Ilyosning bu so'ziga javoban:

— Senga yuborgan maktubimni o'zingga haqorat deb bildingmi?— deb so'radi.

— Balki men fikrimni keragicha ifoda eta olmagandirman. Yozgan maktubingizni o'zim uchun haqorat deb emas, sizning tarafingizdan yo'l qo'yilgan bir ehtiyotsizlik deb ta'birlayman. Kechirasiz, bir qadar ochiqroq so'zlashish kerak. Saroyda xizmat qiluvchi odamlarning necha xil yuzlari bor. Ular bir-birlarini ta'qib etishni va bilgan sirlarini boshqalarga yetkazishni o'zlariga vazifa hisoblaydilar. Maktubingizni menga olib kelgan bog'bon chol sizning sirlaringizni boshqalarga ham yetkaza oladi. Kim bilsin, balki hozirga qadar u sirlar bir qanchalarning quloqlariga ham yetgandir. Shuning uchun ham sizning ehtiyotsizligingiz meni haddan tashqari tashvishga soldi. Maktubning javobini kechiktirganimning sababi ham shudir. Bu borada menga inoning.

Qatiba xayolchan boshini ko'tarib:

— Maslahatlaringdan nihoyat mamnun bo'ldim,— dedi,— Mahsatiy xonimni Ganjaga qaytarshidan tashqari, yana qanday tilaging bor bo'lsa ayta olasan.

— Asosiy maqsadim shuki, meni bu qadar ardoqlamasangiz..

— Sen shoirsan, so‘zlaringni yaxshilab o‘yla. Bir qizning qalbidan shunday bir narsani talab qilishing mumkinmi?

— Shusiz ham otangizning menga nisbatan fikri yaxshi emas. Bu uchrashuv mening baxtsizligimga sabab bo‘lishi mumkin. O‘tinaman, menga bo‘lgan munosabatingiz samimiy do‘stlik chegarasidan chetga chiqmasin.

HUSOMIDDIN

Qatiba boshini ikki qo‘li orasiga olib Husomiddinning so‘zlarini tinglardi. Husomiddinning bir soatdan beri o‘rtaga tashlagan masalalari Qatiba tomonidan bir necha martaba eshitilgan qaytariq gaplardan iborat edi. Chunki Husomiddin har vaqt Qatibani ko‘rganida, shu xil suhbatlardan boshlar edi. U yana so‘zini o‘z qahramonligidan boshladi:

— Men faqat Oron o‘lkasining qahramonigina emas, balki butun Ozarbayjonga dong‘i ketgan va sinalgan qahramonman. Siz o‘zingiz bilasiz, Amir hazratlarining hukmronligi faqat mening qilichim soyasidagina mustahkam bo‘ladi. Buzilgan jabhalar, bostirilgan qo‘zg‘olonlar, to‘kilgan qonlar, yuzlarcha qurbonlar buning shohididir. Shu sababdan ham otangiz xizmatlarimni sizning go‘zalligingiz bilan mukofotlashga va’da bergan edi. Otangiz hozir ham o‘z va’dasida turibdi, lekin men sizda bu maylni ko‘rolmayapman. Siz menga oddiy odamlarga qaragandek qarayapsiz va qahramonligimni qadrlamayapsiz. Juda ham ajablanurli hol shundaki, mening sevgimni, saodatimni yo‘qsil bir shoirning qo‘liga topshirmoqni istaysiz.

Qatiba shu yerda Husomiddinning so‘zini bo‘lib dedi:

— Agar otam shunday va’dani bergan bo‘lsalar, yanglishibdilar, bu juda eski gap. Qadim zamonlarda shunday voqealar bo‘lgan emish: ya’ni podshohlar mushkul ahvolga tushib qolganlarida, shunday farmon berishar ekan: “Kimda-kim shu qal’ani zabt etsa, falon qahramonning boshini olib kelsa, qizim o‘shanikidir”. — Husomiddin, sen ham shuni istaysanmi? Avvalo sen o‘z qahramon-

ligingni na Oron, na Ozarbayjonda biror kishiga ko'rsatolganing yo'q. Sen hali juda yoshsan, na janglar ko'rgansan va na qal'alarni zabt etgansan. Sen faqat Mahsatiy xonim masalasida ko'tarilgan qo'zg'olonda qurol-aslahasiz qo'zg'olonchilarning uylariga bostirib kirib childirmalarni, udlarni, g'ijjaklarni sindirib, derazadan uloqtirgansan. Bularning hammasi o'z yo'lida balki bir xizmatdir. Lekin bu xizmatlar go'zal bir qiz — Qatibaning qimmati bo'lolmaydi. Otam meni arzonga sotishni istasalar, men shu bugunoq Bag'dodga qayta olaman. Sening qiliching soyasida mustahkamlangan biror davlatni esa, qanchalik o'ylasam ham ko'z oldimga keltirolmayman. Sen shuni bilishing kerakki, qudratli bir odamga yoxud qudratli bir mamlakatga suyana olmagan qilich kimning qo'lida bo'lmasin, bir parcha temir, xolos. Men yana senga bergan avvalgi nasihatimni qaytaraman. Sen Dilshodni sevishing va unga uylanishing kerak. Men uning Faxriddin bilan ko'rishishi va uni sevishiga qarshiman. U ham go'zal, ham san'atkor, ham oqila bir qiz. Sen bu nasihatimni qabul qilsang, do'stligimiz yana davom eta oladi. Aks holda, sening men bilan tez-tez uchrashib sevgi haqidagi suhbatlaringni takrorlashingga ijozat bermayman.

Husomiddin achchig'lanib, o'zining nasl-nasabi haqida so'zlashga va ota-bobolarining arab xalifalariga katta xizmatlar qilganini sanay boshladi:

— Meni taniysizmi? Men Bug'aning[1] nevarasiman.

Qatiba pinagini buzmasdan dedi:

---

[1] Bug'a hijriyning 234-yillarida Ozarbayjonda xalifalarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon vaqtida xalifa Mutavakkil tarafidan Ozarbayjonni qonlarga botirmoq uchun yuborilgan edi. Bobak qo'zg'olonidan keyingi yangi qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan mashhur Muhammad ibn Bais Somira shahri qamoqxonasidan qochib, Ozarbayjonga kelgan va u yerda bir hukumat tuzishga kirishgan. Xalifa Mutavakkil Baisning qo'zg'olonini bostirish uchun Hamdu ibni Ali (arablar tarixida mashhur bo'lgan Fazl ibni Sa'dning nevarasini) katta qo'shin bilan Ozarbayjonga yuborgan va Ozarbayjon hukumatini unga topshirgan. Mutavakkil Hamdu Uvayh bilan birga Ziyraki Turkiy va ibni Seysal nomli ikki mashhur lashkarboshini ham uning yoniga qo'shib bergan. Ozarbayjonliklar bu qo'shinni Tabriz bilan Marand orasida boplab savalaganlar. Nihoyat, xalifa Mutavakkil turklardan Bug'ani katta qo'shin bilan Ozarbayjonga yuborgan. SHunda ham ozarbayjonliklar ibni Baisni ularga berishmagan. Nihoyat, bir xiyonat natijasida ibni Bais qamoqqa olindi.

— Albatta, taniyman. Sen "Sharobiy" laqabli odamning nevarasisan!

— O'tinaman, bobomni Sharobiy deb haqorat qilmasangiz. Bu laqabni bobomga ozarbayjonliklar qo'yishgan, chunki Ozarbayjon faqat mening bobomning qilichi zo'ri bilan xalifa Mutavakkilbillohga itoat etgan. Abbosiy xalifalari tarafidan hurmat va ehtiromlarga sazovor bo'lgan bu xonadondan nafratlanish uchun birorta asosli dalilingiz bo'lsa, menga ochiqroq aytishingiz kerak.

Qatiba yana pinagini buzmay javob berdi:

— Husomiddin, aqlingni boshingga yig'. O'tgan kishilarning qahramonlik ta'rifi qanchalik yuksak va shon-sharaflarga ega bo'lsa ham, lekin ularning arzimaydigan bugungi vorislari uchun yo'q darajada desa bo'ladi. Men seni fazilatdan mahrum demoqchi emasman. Lekin bu fazilat bir qalbni maftun etadigan darajada yuksak emasdir. Aqlli qizlar erga tegar ekan, o'tmishni emas, kelgusini nazarda tutishlari lozimdir. Men ham o'shanday qizlardanman! Men u odamda, kelajakda favqulodda istiqbol egasi bo'la olishga qodirligini ko'rmasam, u bilan turmush qurmayman. Senga maslahatim shu, bobolaringning shuhrati bilan yashashni tashla. Chunki tarixda mashhur bo'lgan zotlarning juda ko'p avlodlarini hech narsaga yaroqsiz va qobiliyatsiz bir ahvolga tushirgan narsa ham faqatgina bobolarining shuhrati bilan yashash fikriga tushib qolganliklaridir.

Husomiddin o'ziga nisbatan qizda paydo bo'lgan salbiy munosabatlarni Qatibaning Ilyos bilan uchrashuvlarining natijasi deb o'yladi:

— Men siz o'ylagancha yosh bola emasman,— dedi va boshini egib uzoq vaqt jim qoldi.

— Yosh bola emasligingni bilganim uchun ham bu masalaga yengil qaramasligingni tavsiya etdim,— dedi Qatiba, Husomiddinning toqati tugadi va jiddiy bir tusda dedi:

— Qatiba, keling ochiqroq gaplashaylik. Siz ana shu shoir bilan uchrashgan kuningizdan beri menga nisbatan munosabatingizni o'zgartirgansiz. Siz bundan bir oy avvalgi Qatiba emassiz. "Men erlarga xos qahramonlik namunalarini faqat senda ko'rmoqdaman",— degan so'zlaringizni unutdingizmi? Yaqindagina o'zingiz meni otangizga sovchi yuborishimga majbur etar edingiz. Endi

nima bo'ldi. Men tuban bo'lib qoldimmi, yoxud shu ozgina fursat ichida siz yuksalib ketdingizmi?

Qatiba o'rnidan turdi, hovuz bo'yidagi qalampirmunchoq gullardan hidlab turib dedi:

— Na sen tubanlashding va na men yuksaldim. Fikrlar va tushunchalar yuksaladi, saviyalar o'zgaradi. Insonlar kundalik tushunchasi bilan yashaydigan bo'lsa, hayot taraqqiy etmaydi, bugungi insonlar kechagi insonlar emas. Kechagi kun bizga juda olisda, kelajak yuz yildan keyin kelsa ham, u bizga juda yaqindir. Hayot, tirikchilik o'tmish ustiga qurilmaydi, basharti shundan qilinsa, u orqaga qaytish bo'ladi, aqlli odamlar hayotni kelajak ustiga qurishga harakat qiladilar. O'tmishimiz bashariyatning ilk yoshligi tarafidan dafn etilgan bir qabrdir. U yerda o'tirib halok bo'lgan keksa yoshlikka yig'lash gunoh emas, lekin u bilan yashash soddalikdir. Biz kelajakda yashashimiz va uni ta'min qila oladigan aql-idrok bilan qurishimiz kerak. Endi menga javob ber, sening qo'lingda, men talab qilgan kelajakni qurish uchun qanday imkonlar bor?

Husomiddin dadil javob berolmadi, chunki xalifaning nevarasiga sarf etmoq uchun uning qo'lida katta davlati yo'q edi. Shunga qaramay, u Qatibaga savol berdi:

— Orqasida soyadek sudralib yurganingiz anavi yo'qsil shoirning qo'lida qanday imkoniyatlar bor ekan? Siz talab etayotgan xayoliy bir kelajakni u yo'qsil nima bilan ta'min eta olardi? Siniq bir qalamdoni yoki eski bir to'rvasidagi qoralagan bir dasta qog'ozlari bilanmi?

— Sen meni tushunmading,— dedi Qatiba kulib.— Senga avval aytganimdek, men favqulodda odamlarni sevaman. U kambag'al bo'lsa ham, unda buyuklik bor. U tufayli kelajakda meni hamma taniy oladi. "Bu falon mashhur shoirning xotinidir!" deya xalq meni qo'lini bigiz qilib ko'rsatadi. Men uning ijodida ishtirok etganim sababli tarixda ham qolishim mumkin, butun masala shu fikrning ustiga qurilgan. Lekin bularni misol tariqasida aytyapman. Sen meni dunyoga tanitadigan qahramon bo'la olsang, men hech vaqt otamning so'zidan chiqmayman.

Husomiddin javob berishga majoli qolmadi, chunki bog'ga chiqqan joriyalar Qatibani chaqirib:

— Otangiz sizni nonushtaga da'vat etdilar, — deyishdi.

FAXRIDDIN

Mushovirada Ilyos Faxriddin bilan ko'risharkan, birinchi navbatda, xoqonning yuborgan maktubini ko'rsatdi. Shirvon xoqoni Abulmuzaffar maktubida Ilyosni Shirvon saroyiga da'vat qilib bunday deb yozgan:

"So'nggi she'ringizni o'qidim, zo'r, unutilmas taassurot qoldirdi. Xususan, bahorga atab yozgan she'ringiz haqiqatan ham menga haqiqiy bahor nash'asini bag'ishladi. Lekin meni tashvishga solgan xavfli bir masala bor. U ham bo'lsa, Oron mamlakatining og'ir ahvolga tushganidir. Hozir Oron va hatto, Janubiy Ozarbayjon ham jiddiy voqealar uyasiga aylangandir. Oronliklar va umuman ozarbayjonliklar 515-yillardagi ozarbayjonliklar bo'lganlarida edi, bu vaziyat meni hech tashvishlantirmasdi. Hozirgi vaziyatda buyuk shoirning hayotiga qarshi suiqasd qilinmasligiga ishona olmayman. Chunki ozarbayjon xalqining ozodlik tuyg'ulari 515-yillardagidek emas, ulardagi qadimiy ozodlik hislari so'ngandir[1]. Shuning uchun ham buyuk shoirning Shirvon mamlakatiga ko'chishini maslahat beraman. Siz bu yerda shoirlar, adiblar va kiborlar jamiyatida yanada erkinroq ijod etib, ta'bingizni yuksaltira olasiz. Men sizdek nodir, oliynasab zotni qullar hokimiyatining fuqarosi bo'lishligiga loqayd qaray olmayman[2].

Hozirda Oronning barcha erksevarlari o'z najotlari va mamlakatlarining ozodligini o'zlarining kindik qoni to'kilgan yurtlaridan va o'z hukmronlari bo'lgan Shirvon shohligidan izlamoqdalar. O'ylaymanki, bu haqiqat buyuk shoir uchun ham ravshandir. Eng

---

[1] 515-yilda Saljuqiylardan sulton Mahmud Bag'dod xalifasining amri bilan Ozarbayjon davlatining Marog'a hokimi Oq Sungar Ahmadiyga sotgan edi. Lekin ozarbayjonliklar unga itoat etmadilar. Oq Sungar olib kelgan katta bir qo'shinni Ardabil ostonalarida tor-mor keltirdilar. Nihoyat, xalifa Ozarbayjonni idora etishni turk amirlaridan Jyushbekka topshirdi. Jyushbekning qo'shini Tabriz bo'sag'alarida ozarbayjonliklarning otliq askarlariga duch keldi. Ozarbayjonliklar Jyushbekni asir olib Tabriz darvozasida dorga osdilar ("Tarixi Saljuq" kitobiga qaralsin).

[2] 525-yillarda Mahmud Saljuqiy vafot etdi. Uning mamlakati parchalanib ketdi, jumladan, Ozarbayjon ham uning o'g'li Malik Dovudga o'tdi. (527-yillarda) Malik Dovud bilan Malik Mas'ud o'rtasida bo'lgan urushlar

avval siz kabi shoirlar va mo'tabar ziyolilar Ozarbayjonni ajnabiy hukumatlar qo'liga o'tmasligi uchun kurashmoqlari kerak. Siz bilasizki, Xorazm shohlarining maslahatgo'ylari sizning mamlakatingizni Xorazm shohlarining qo'liga topshirishga harakat qilmoqdalar. Siz xalqqa tushuntirishingiz kerakki, ular bizlarga ozodlik emas, asorat va qullik keltiradilar.

Hukmroni Shirvon, Abulmuzaffari xoqon".

Ilyos maktub haqidagi o'z fikrini Faxriddinga aytmadi, avval uning fikrini bilishni istardi. Faxriddin maktubni o'qib Ilyosga qaytarib berdi va uh tortib dedi:

— Ganja hokimi bilan Shirvon shohlar o'rtasida bo'layotgan muzokaralardan xabarimiz bor. Abulmuzaffar Ganja hokimini o'z o'rnida qoldirish sharti bilan mamlakatni birlashtirishga urinyapti. Shubha yo'qki, bunga Ganja hokimi ham rozi bo'la oladi, chunki yangi xonadonning o'ziga qarshi qanday yo'l tutishini bilmaydi. Xalifa esa uzoqda, har holda ozarbayjon ziyolilari birlashmay turib, bu kungi tartibsizlikdan qutulish va umumiy dushmanga qarshi kurash olib borish mumkin bo'lmaydi. Birlashish ham mushkul, chunki birlik uchun kurasha oladigan odamlarning o'zlari ajralib ketishga urinmoqdalar, ularning hammasi xoqon tomonga og'ib ketyapti. Nihoyat, siz ham xoqonning maktubini oldingiz.

Faxriddin shu so'zlarni aytib, savol nazari bilan Ilyosning yuziga qaradi. U Ilyosning Shirvon saroyiga bormoqchi yoki bormoqchi emasligini bilishni istardi. Ilyos qo'lini uning yelkasiga tashlab dedi:

— Avvalo shuni bilishing kerakki, biz Oron masalasini yolg'iz hal eta olmaymiz. Bu masala Ozarbayjonning hamma masalalari bilan birga hal etilishi kerak. Men Oron masalasini ko'tarishda hozircha erta ekanligini ta'kidlab o'tishim kerak. Oron o'lkasining

---

natijasida Ozarbayjon katta bir tartibsizlik davrini boshidan kechirdi. Nihoyat, Mas'udning qo'liga o'tdi. Bir yildan so'ngra yana Malik Dovud Ozarbayjonni xarobazorga aylantirgandan keyin o'z qo'liga oldi. Yana 530-yilda turk amirlaridan Qora Sungar juda ko'p qon to'kkanidan so'ng Ozarbayjonni Malik Dovudning qo'lidan oldi. 535-yilda Qora Sungar vafot etdi. Saljuqning qullaridan Amir Jovli To'g'rul Oron va Ozarbayjon mamlakatini qo'lga oldi. 541-yilda To'g'rul Sulton Mas'udga qarshi urushda to'satdan vafot etdi, mamlakat Otabek Eldanizning ixtiyoriga o'tdi.

tutgan mavqeyi uning yolg‘iz yashashiga imkon bermaydi. Faxriddin, sen Oron mustaqilligi masalasini qo‘yishda yanglishasan. Bu fikr Ozarbayjonni parchalamoq demakdir. Oron mustaqilligi o‘rniga Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonning birlik masalasini qo‘ymoqchi bo‘lganingda, meni ham o‘zing bilan birga deb bil. Yolg‘iz qolsak kuchli qo‘shnilarimiz bizni tezlikda mag‘lub eta oladilar. Kecha sen bir masalani juda o‘rinsiz o‘rtaga tashlading.

Faxriddin shoshilib so‘radi:

— Qaysi masalani?

— Oron mamlakatida qo‘zg‘olon ko‘tarish masalasini... chunki bu fikr juda kulgili bir fikr bo‘lganligi uchun gapirishni istamadim.

— Qo‘zg‘olon haqidagi fikr nechun kulgili bo‘lsin?

— Nima uchun va kimga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish kerak? Bu xil fikrlar boshboshdoqlikni yanada orttiradi, mamlakatni ajnabiylar qo‘liga berib qo‘yadi. Hozir bizga qo‘zg‘olon ko‘tarish emas, aksincha, mustahkam bir tashkilot lozim. Faqat tashkilot vositasi bilan Janub va Shimolning birligini tiklab olib, so‘ngra mustaqillik masalasini maydonga tashlash mumkin. Avvalgi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar biz uchun ibratli saboq bo‘lishi lozim. Bundin keyin u xatolarni takrorlamaslik kerak. Ozarbayjon xalqi erksevar xalq. Bu to‘g‘rida gap bo‘lishi mumkin emas. Lekin tashkiliy birlashmagan har bir qo‘zg‘olon mag‘lubiyatga mahkumdir. Ozarbayjon xalqi To‘g‘rulbek hukumat boshiga o‘tirgan vaqtlarda bu achchiq tajribalarni ko‘rgan edi[1].

Butun Shimoliy Ozarbayjon xalifani tanishni istamagan zamonda xalifa o‘n uch yoshli qizini oltmish besh yoshli To‘g‘rulbekka berish bilan masalani o‘z foydasiga hal qildi. U Janubiy Ozarbayjonda safarbarlik e’lon etdi, chunki shimoliy va janubiy ozarbayjonliklarning do‘stona munosabatlari mustahkam emas edi. Bu achchiq tajribalarni xalqimiz Alp Arslon bilan Malikshoh va Malikshohning o‘g‘illari Muhammad bilan Bo‘rkuyarig‘ning

[1] 453-yil hijriyda saljuqiylar sulolasining asosini qurgan To‘g‘rulbekning hokimiyati zamonida Ozarbayjonda katta qo‘zg‘olon ko‘tarilgan edi. Xalifaga qarshi bo‘lgan bu qo‘zg‘olonga To‘g‘rulbek sovuqqonlik bilan qaradi, chunki xalifa Qoyimbiamrilloh o‘z qizi Saidani To‘g‘rulga berishni istamagandi. Lekin 454-yilda Tabrizda nikoh bo‘lgani uchun To‘g‘rulbek darhol qo‘zg‘olonni qonga botirdi.

o‘rtasida bo‘lgan urushlar zamonida ko‘rganlar. Shuning uchun ham, Faxriddin, senga qat’iy aytamanki, avval birlik bo‘lmog‘i, so‘ngra esa qo‘zg‘olon ko‘tarilmog‘i kerak!

Ilyos tarixiy voqealarni birma-bir sanab chiqqandan so‘ng, Faxriddin e’tiroz qilmasdan dedi:

— Keltirgan dalillaring juda o‘rinli. Lekin bugun qo‘lga kiritgan qulay fursatdan foydalanmaslik katta xato. Hech bo‘lmasa, Ganja hokimini bu yerdan haydab chiqarishimiz kerak.

Ilyos savol berdi:

— Qanday vosita bilan?

Faxriddin qat’iy javob berolmasdan, faqat ikki kalima so‘z bilan kifoyalandi:

— O‘ylab ko‘rish kerak.

Ilyos uning fikrini davom ettirib dedi:

— Amir Inonjni bu yerdan quvish uchun qurol ishlatish kerak. Uning qo‘lida qo‘shin bor. Ortida esa mamlakatning butun xoinlari turibdi, bizning orqamizda kim bor? Hech bo‘lmasa, Amir Inonjning qo‘shinlari orasida ish olib borilganmi? Ular bizning maqsadimizni bilishadimi? Yo‘q! Loaqal Oron xalqining orasida muayyan bir fikrning tarqatilishiga kirishilganmi? Yana yo‘q! Endi Faxriddin aytsin-chi, qanday vosita bilan Amirni quva oladi?

— Amir bilan xalifaning orasini buzish lozim, — dedi Faxriddin.

— Bordi-yu, Amir bilan xalifaning orasini buzding, bu bilan sen Oronning mustaqilligini hal qila olasanmi? Bu Amir ketsa, o‘rniga boshqa Amir keladi. Bundan ko‘ra, Amir bilan xalifaning orasini buzish uchun boshqacha tadbirlar o‘ylash lozim.

— Tadbir bor. Ularning oilasini buzaman.

Ilyos e’tiroz qilib dedi:

— Yo‘q, Faxriddin, bu kurash usuli emas. Men birovning baxtiyorligini boshqasining badbaxtligi ustiga qurishga tarafdor emasman.

Faxriddin Ilyosning so‘ziga kulib:

— Umumiy masalalar ustida ish olib borilar ekan, uch-to‘rt shaxsning baxti haqida o‘ylab o‘tirish kulgilidir. Siyosat qon va qurbon talab qiladi, — dedi.

Ilyos bunga javoban:

Befoyda qon to'kish ham jinoyat hamda ahmoqlik bo'ladi, — dedi. — Men Shimol bilan Janubning birligini taklif etaman.

Faxriddin yana e'tiroz bildirib dedi:

— Ilyos, xalqning avomligini, tariqat va mavhumotlar ichida qolib ketganligini hech nazarda tutmayapsan. Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonning har bir qishlog'ida yuzlarcha diniy tariqatlar bor. Ular rivoyatlar, mazhablar yaratganlar. Shu qadar qarama-qarshi aqidalarda bo'lgan va bir-birini kofir deb turli nizolar bilan yashayotgan shunday bir xalqni osonlik bilan yarashtirish mumkin bo'larmikan?

— Xalifalar xurofotni xalq orasiga qanday maqsad bilan yoygan bo'lsalar, sen ham o'z maqsading yo'lida tariqat va xurofotga qarshi shunday kurash olib borishing kerak.

Ilyosning bu so'zidan so'ng Faxriddin bir uh tortib dedi:

— Nima demoqchi bo'lganingni bilaman, Ilyos. Sening fikringcha, Ozarbayjonda har asrning boshida bittadan Bobak[1] paydo bo'lib tursinmi? Bobak bitta edi, dunyoga bir keldi-yu ketdi.

Ilyos:

— Xato qilasan, tarixning xususiyati takrorlanishdan iborat. Bu o'lkaning xususiyati ham Midiya davridan beri qahramonlar yaratishdir. Gapimga quloq sol, Ozarbayjonning kelajak qahramonligi sening peshonangga yozilgandir.

Kengash tag'in bir qarorga kelolmay tarqaldi. Ilyos bilan Faxriddin tashqariga chiqishar ekan, Faxriddin sekingina uning qulog'iga:

— O'zim ish boshlayman. Men Amirning huzuriga kirish uchun yo'l topa olaman, — deganida, Ilyos:

— Fikringni bilaman, — dedi. — Sen Dilshodning muhabbatini suiiste'mol qilmoqchisan. Menga ayt-chi, sen u qizni sevasanmi?

— Sevaman, telbalarcha sevaman!

— Modomiki sevar ekansan, uni xatarli ishlarga boshlama. Iltimos qilaman, ehtiyot bo'l, u qizdan ajralib qolishing ham mumkin.

---

[1]**Bobak (800–837)** — arab istilochilari va mahalliy feodallarga qarshi kurashgan ozarbayjon xalqining qahramoni *(R. Komilov)*.

DILSHOD

Bu kecha Amir Inonj haddan tashqari ko'p ichgan edi. Havoning issig'i ham uning mastligini oshirib, behush bo'lib qolishiga sabab bo'lgandi. Raqqosalar va soqiylar bu fursatdan foydalanib, o'z yotoqlariga kirib ketgan edilar. Xizmatkor va joriyalar ham ko'pchiligi ko'rinmasdi. Uchib yotgan Amirni ipak sholchaga olib, yotog'iga olib kirish uchun urinayotgan ikki-uch mulozim bilan dasturxonda ortib qolgan sharoblarni ichib tugatayotgan saroy qorovullari va soqchilargina qolgan edilar. Saroy hayoti tamomila to'xtagandi. Xonalarda yonayotgan shamlar o'chirilgan edi. Pilta chiroqlarning piliklari kuyib, yonboshiga qiyshayib qolgandi.

Amirning eshigidagi fonuslar piligidan ko'tarilayotgan olovlar minglarcha parvonani kuydirib, ostonada mudrab o'tirgan posbonning boshiga to'kar edi.

Uzun dahlizlarda hech kim ko'rinmasdi. Faqat haram og'asi Mufid tungi oq kiyimda qabrdan chiqqan o'lik singari sudralib, haramxona eshiklarini poylar edi. Nihoyat, u ham o'z xonasiga kirib ketdi. Bog'cha va saroyning atrofida aylanib yurgan soqchilarning ovozlaridan boshqa ovoz eshitilmas edi.

Tez-tez: "Hoy! Hushyor bo'l! Bu yerdaman! Yaqin kelma! Qulfga qo'lingni urma!" degan ovozlar eshitilar edi.

Hamma uyquda, faqat Dilshodning uyqusi kelmasdi. U bir necha kundan beri Faxriddinni ko'rolmagani uchun notinch edi, chunki Faxriddinga yuborgan maktublari ham javobsiz qolgandi. U bugun Faxriddinni ko'rishgani bog'chaga kelishiga ishonmasa ham, o'ringa yotmagan edi.

U yana hovuz labiga borib, Faxriddin bilan gaplashgan joylarni ko'rishga jazm qildi. O'rnidan turgach, xayol surib biroz o'tirdi, so'ng turib derazadan bog'chaga qara-di, atrofga quloq soldi. Biroz o'ylagandan so'ng, astagina eshikni ochib dahlizga qaradi, haram og'asi Mufidning ham qorasi ko'rinmadi. Bu kecha Faxriddin Dilshodga har galgidan ham ortiqroq kerak edi. Qiz u bilan muhim bir masala to'g'risida so'zlashishni istardi.

U qo'lini peshonasiga tirab, bog'chaga qarab shularni o'ylar edi: "Uning sevgisi vaqtincha, nima uchun ham u menga doimiy

ko‘ngil bog‘lasin? U qahramon, go‘zal va kelishgan bir yigit. Men kimman? Amirning joriyasi, Beylagon qishloqlik oddiy bir qiz... U meni nima uchun sevsin? Go‘zalligim uchunmi?”

Dilshod shu xayol bilan ko‘zguning oldiga bordi, qora ko‘zlariga, parishon sochlariga, baland va nozik qomatiga boqdi, yana o‘zicha dedi: “Men singari go‘zallar ozmi? Susan xonim ham mendan o‘n chandon go‘zal. Faxriddinning kibor oilasi o‘z qahramonlarini bir joriyaga uylanishiga aslo rozi bo‘lolmaslar. Uning o‘zi ham shu to‘g‘rida o‘ylaydi, lekin uning uchun yosh qizga muvaqqat bo‘lsa ham uylanib qo‘yishning nima zarari bor ekan? Bizning toleyimiz bo‘lsa edi, oilamizdan ajralib, saroylarda avaxta hayotini kechirarmidik”.

Dilshod libosini kiya turib yana o‘z-o‘ziga dedi:

“Bu qimmatbaho liboslar men uchun kafandek qo‘rqinchlidir, chunki bu zeb-ziynatlarni nechun bizga kiyintirilganini bilamiz. Bu liboslar sarxushlarning kayf-u safo majlisida soqiylik qilish va ularning ehtiroslarini jo‘sh-junbushga keltirish uchun berilgandir. Albatta, Faxriddin seni olmaydi. U mastlarga soqiylik qilgan bir qizga uylanish haqoratini o‘z qahramonlik sha’niga munosib ko‘ra olarmikin? Yo‘q, u men bilan shunchaki vaqtini xush qilmoqda. Men ko‘rib turibman: u men bilan uchrashgan paytlarda xayol surib qoladi, hatto, peshonamdan o‘pmoqchi bo‘lgan mahalida ham taraddudlanadi. Men ham o‘zimda shunday holat sezaman. Unga bo‘lgan sevgim go‘yo muvaqqat bir hodisa bo‘lganligini menga aytayotganday. U yolg‘onchi emas, lekin muhabbat jo‘sh urgan paytlarda gapirilgan so‘zlar va berilgan va’dalarning u qadar ham ahamiyati yo‘qdir. U meni bu yerdan va qanday vosita bilan qutqara oladi? U qahramon bo‘lsa ham, bir joriyani deb hukumat bilan urush qila olarmidi?

Dilshod Faxriddinning muhabbati va bergan va’dalari haqida bir qadar salbiy fikrda bo‘ldi, umid baxsh etmaydigan chuqur mulohazalar qildi, biroq bularning hech biri uning ko‘nglini bog‘chaga chiqish fikridan qaytara olmadi.

Dilshod Faxriddinning ko‘rishish uchun kelmasligini aniq bilsa ham yana uchrashadigan joylariga borishga shoshildi. Chunki Faxriddinda ham shunday odat bor edi. U ham Dilshodni bog‘chaga

chiqmaydigan kunlarini bila turib, xavf-u xatarlarni pisand qilmay, Amirning bog'chasiga kelaverishdan qaytmasdi. U Dilshod bilan har safargi uchrashadigan joylariga kelib, biroz o'tirar, turar va so'ngra qaytib ketardi. Dilshod ana shu odatning ta'sirida uy eshigini ehtiyotlik bilan ochib, uzun va qorong'i dahlizga chiqdi-da, tosh zinapoyalardan tushib, sekin-sekin qadam tashlab, bog'cha tomon yo'l oldi.

Tun juda ham qorong'i edi, lekin bu qorong'i-zulmat ichida yarqirayotgan yulduzlar uzoqlarda yonayotgan sham chiroqlardek porlar edi. Kechaning qora chodiri ostida qolgan hamma narsa zulmatning sidirg'a rangli libosiga burkangan edi. Dilshod har tomonga ko'z yugurtirib, Sharqning qop-qora barqut rangli kechasidan boshqa hech narsani ko'rmasdi. Ganja qizlarining dudoqlari singari qizil gullar, oq shoyidan harir ko'ylak kiygan nastarin gullar, sochlarini kumush bulutlarning jomida yuvgan yosuman gullar, hatto, shoxdan uzilib hovuzga tushgan qizil yuzli olmalar ham qora pardaga burkangan edi. Hovuzning suvi ham, og'izlaridan hovuzga suv purkab turgan sher haykallari ham, baland favvora (fontan)dan havoga ko'tarilib, marvarid donalari kabi hovuzga to'kilayotgan suv tomchilari ham qora edi. Bog'chada suvlarning shildir-shildiridan boshqa hech qanday tovush eshitilmasdi. Faqat chinor tepasiga qo'nib, goh goh "haq-haq" deb qo'yayotgan "haqqush"ning sayrashi visol kechalarining yangi sahnasi ochilishidan darak berardi. Dilshod daraxtzor oralab hovuz atrofida aylanardi. Lekin Faxriddinni ko'rmasdi, har bir sarv daraxti qorong'ilikda visol tashnaligida turgan yosh yigitning qomatidek tabassum qilardi. Dilshod Faxriddinni ko'rmasa-da, Faxriddin uni ko'rardi, Dilshod ko'zlarini kechaning qop-qora chehrasiga tikib, Faxriddinni qidirgan mahalda, Faxriddin osmondan uzilgan bir yulduzning daraxtlar orasida javlon urib yurgandek tasavvur qilardi. Faxriddin o'n to'rt kechalik oy qorong'ilik bag'rini yorib, bog'chani yoritmoqchi bo'lganini sezganida, Dilshod hovuz labiga yaqinlashdi. Hozir fontandan otilayotgan shabnam singari tomchilar uning go'zal yonoqlariga tushardi. Ganja kechasiga xos hafif shabboda asta-sekin kuchayib, Dilshodning sunbul barglari kabi yozilgan sochlarini u kiftidan bu kiftiga sochardi. Dilshod Faxrid-

dinni qidirishga shoshilgan shu lahzalarda yaproqlar ham fursatdan foydalanib, tez-tez uning nozik yuzlaridan o'par, daraxt novdalari esa, bamisoli raqib singari qo'llarini uzatib visol shavqi ila uchayotgan tun parisining go'zal qomatini qitiqlar edi.

To'satdan Dilshod:

— Bu yerdaman, Dilshod! — degan tovush eshitdi.

Dilshod bu tovushni qalbidan chiqib, o'z qulog'ida aks etganligini sezdi. Bu tovushni necha oylardan beri shu hovuzning labiga kelgan zahoti eshitar edi. Uning quloqlarida kecha-yu kunduz shu kalimalar jaranglardi. Dilshod tovush kelgan tomonga bir-ikki qadam tashladi, nihoyat, dudoqlaridan beixtiyor shu so'zlar uchdi:

— Oh! Bu ham bir tushdir. Odamlar kunduzlari o'ylagan narsalarini kechalari tushlarida ko'rmaydilarmi, axir?

Bu so'zlariga javoban u shu so'zlarni eshitdi:

— Go'zal Dilshod, bu tushing emas, beriroq kel, bu yerdaman.

Dilshod oldinga yurdi. Faxriddin hovuzdan biroz nariroqda, sarv daraxtiga suyanib turardi. Ikki juft ko'zining qorachiqlari bir-biriga ro'baro' kelganini ularning o'zlari ham sezmay qoldilar. Nihoyat, Dilshod lablarini Faxriddinning lablaridan ajratib:

— Bu kecha sizni har kechagidan ham ortiqroq ko'rishni istagan edim, siz menga juda zarur edingiz,— dedi.

— Nima, biror hodisa bo'ldimi?

— O'zingiz o'ylang, saroy hayoti hodisalarsiz bo'ladimi? Bugun men eshitgan xabarni bilsangiz, qanday hayajonga tushardingiz.

Faxriddin uning lablaridan yana o'par ekan, dedi:

— So'yla, mening Dilshodim, so'yla! Balki seni qayg'uga solgan hodisaning oldini ola bilarman.

Dilshod yig'lab turib dedi:

— Bag'dodga yuboriladigan qizlarga qo'shib meni ham jo'natishsa koshki edi. Men vatanimda qolaman, hech bo'lmaganda, Beylagon qishlog'idan o'tib kelgan shamol mening yuzimga tegadi, nafas olgan paytlarimda Vatanimning musaffo havosini yutaman, deb o'ylagan edim. Endilikda esa, bu shamollar zaharga aylanib yurak-bag'rimni ezmoqda. Vatanim va yurtimning havosi bilan uchgan fikr-o'ylarimni jahannam tahlikasi qarshilamoqda.

Meni sevmaganim va ko'rishni ham istamaganim bir odamning quchog'iga otmoqchilar. Meni tiriklayin tuproqqa ko'mmoqchilar.

Faxriddin hayajonlanib so'radi:

— Bu qanday gap, Dilshod, Faxriddin hali o'lgani yo'q-ku? Bu so'zlarni faqat men o'lgandan keyingina gapirish mumkin. Seni kimga berishmoqchi?

— Amirning kotibi menga muhabbat izhor etdi. Bu men uchun o'lim emasmi?

— Qaysi kotib? Nomi yo'qmi?

— Nega yo'q bo'lsin. Muhokim ibn Dovud. Meni jirkantiradigan xasis va chirkin arab.

— Ishongim kelmaydi.

— Haqiqatan shunday. Amirning xotini Sofiya xonim shunday bo'lishini istaydi. U meni saroyda qolishimga aslo rozi emas. U mendan erini qizg'anadi, har qadamda meni haqorat qiladi. Muhokim ibn Dovud bugun menga yondashib: "Sen meniki bo'lasan, men seni sevaman, sen meni sevmasang ham zarari yo'q",— dedi.

Dilshod bu so'zlarni aytib tugata olmay, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Faxriddin sukut qilib o'ylardi. Bu Dilshodning qayg'usiga qayg'u qo'shdi. Faxriddinning bu hodisaga loqayd qaraganligini va sukut qilib o'ylaganini ko'rib, Dilshod ruhsiz bir ohangda dedi:

— Men unga taslim bo'lmayman. Kechalarning birida o'zimni hovuzga tashlab halok qilaman.

Faxriddin o'z fikrini ochiq aytishga qo'rqardi, u qalbida: "Men bu harakatim bilan Dilshodni halok etib qo'yishim mumkin", derdi. Lekin uning bunday sukut saqlab turishi qizning qalbida bo'lgan umidsizlikni yanada orttirar va uni yo'qlik qo'yniga sudrar edi. Shuning uchun Faxriddin ko'nglidagi sirlarni yashira olmadi.

— Bilmadim, senga maxfiyi bir sirni topshirish mumkin bo'larmikin? Bilmadim, sen bu sirni o'z qalbingda saqlay olasanmi?— dedi.

— Meni sir saqlay olmaydigan qiz ekanimga dalilingiz bormi? — dedi Dilshod. — Men shuni yaxshi bilamanki, sizning ham barcha sa'y-harakatlaringiz xalqning saodati uchundir. Sizni bekorga qahramon deyishmaydi. Xalqning sizga bo'lgan hurmati

ham bejiz emas. Menga aytadigan sirlaringizni qonimga va qalbimga yashirib ehtiyotlay olaman. So'ylang, Faxriddin, so'ylang, men unchalik aqlsiz qiz emasman.

Faxriddin uning sochlarini silab:

— Shunday, Dilshod, — dedi, — sening qo'lingga topshiradigan bu sir ikkimizning saodatimiz uchun bo'lishi bilan birga, buyuk xalqimizning ham saodati uchun. Bu sir shundan iborat: sen muvaqqat bir muddatga Muhokim ibn Dovudning muhabbatiga e'tiroz bildirmasliging kerak.

Dilshodning achchig'i chiqib so'radi:

— Bu nima demak? O'zini qahramon deb bilgan yigit sevgan qizini boshqa birovga noz-u karashma qilishini taklif qiladimi?

Faxriddin shoshilib dedi:

— So'zimning oxirigacha quloq solmading. Sen uning qalamdonidagi hukumat muhrini olish uchun imkon tug'ilgan kunga qadar uni o'zingdan itarib tashlamasliging kerak.

— Hukumat muhri bizga nima uchun lozim? U bilan soxta vasiqalar yozarmidik?

— Vasiqalar yozishning keragi yo'q. Sen u muhrni Muhokimning qalamdonidan olishing kerak. Haram og'asi Mufid Amirning xotini Sofiya xonimning xonasiga kirayotganda muhrni uning oyog'i ostiga tashlaysan. Lekin ishni ehtiyotlik bilan qilish kerak. Muhrni sen olib borib tashlaganingni hech kim bilmasligi kerak. Mufid juda shayton odam, u sendan shubhalanmasligi lozim, — Faxriddin shu so'zlarni aytib, yana Dilshodga savol berdi:

— Sen buni o'z zimmangga ola bilasanmi? — Dilshod o'ylanib qoldi. Bu Faxriddinning ko'nglida shubha uyg'onishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham u so'zini davom ettirdi:

— Agar bu fikrni amalga oshirish sen uchun mushkul bo'lsa, ochig'ini aytaver. Shuni bilishing kerakki, men seni buning uchun, ya'ni senga bu xil vazifalarni topshirish niyatida sevgan emasman. Bularsiz ham men uchun eng dildor qizsan.

Dilshod uning ko'ksidan boshini ko'tarib, mehribon ovoz bilan:

— Qalbingizga shubhalar to'lmasin, azizim! — dedi. — Men qo'rqqanimdan emas, sevinganimdan o'ylanib qoldim. Men fikringizni angladim, aytganlaringizni amalga oshiraman.

Ular bir tovuq o'tganga qadar hovuz labida gaplashib o'tirdilar. Oy Xonaqoh qishlog'ining baland tepaliklari orasidan qizg'ish peshonasini ko'rsatganida, ular juftlashgan dudoqlarini sekingina bir-biridan ajratdilar, chunki oy ko'tarilib qolguday bo'lsa, hovuz atrofidagi o'rdaklar, qushlar, hatto, Amir bog'ining ko'rki bo'lgan sersavlat tovuslar ham sahar nag'masini boshlab yuborishlari mumkin edi.

Dilshod xonasining eshigini berkitib, yotog'iga kirganida, haram og'asi Mufid ham o'rnidan turgan va joriyalarning yotoqxonalarini bir-bir ko'zdan kechirib dahlizda kezar edi.

MUHR

Amir Inonj qo'pol va shuursiz bo'lishiga qaramay, Sharqda ro'y berayotgan siyosiy hodisalarning nozikligini bir-biridan farq qila bilardi. Xalqaro vaziyat uning shaxsiy hayotini ham tahlika ostida qoldirgan edi. Sharqda buyuk bir hukumat tashkil etgan Saljuq xonadonining inqirozga yuz tutishi Sharqning siyosiy vaziyatini ostin-ustin qilib, Sharqning jug'rofiy tuzilishida anchagina o'zgarishlar vujudga keltirgan edi. Hukumatning saljuqiylardan Eldaniz avlodiga o'tgan mahalda buyuk bir saltanat qurishga muvaffaq bo'la olmagan Xorazm shohi Alouddin Takish saljuqiylar qo'l ostidagi yerlar hisobiga o'z mamlakatini kengaytira boshlagan edi. Shu mahalgacha saljuqiylar ta'sirida yashab kelgan xalifa endi Xorazm shohlarining nufuzi ta'siriga o'tardi. Amir Inonj o'z saltanatini saqlab qolmoq uchun xalifaning yordamiga suyana olmasdi. Shuning uchun ham u o'z-o'ziga: "Xalifaning menga o'xshash yuzlarcha kuyovlari bor. Xalifaning minglarcha joriyalaridan tug'ilgan qizlar har biri men singari bir odamning xotinidir, kim bilsin, balki xalifa Sofiya ismli qizi borligini tamomila unutgandir. Hozir xalifaning joriyalaridan tug'ilgan qizlari haqida o'ylashga vaqti bormikin? U qizlarini hokimlarga berar ekan, ularga yordam qilish maqsadida emas, balki ulardan yordam olish tomonlarini ko'zda tutadi. Unga biror yordamim tegmagandan so'ng, u nechun mening g'amimni yesin", der edi.

Amir Inonj shunday deb o'ylashda haqli edi, chunki Nuriddin orqali qaynotasi xalifa Mustarshidbillohga yuborgan maktubiga javob ololmagan edi. Amir Inonj uzoq o'ylaganidan so'ng, o'z-o'ziga javob berardi: "Xalifa nima qilsin? Uning ruhoniy ta'siri ham so'na boshladi. O'lkalarning hokimlari o'zlarini podshoh deb e'lon qilmoqdalar. Misrda buyuk bir saltanat qurgan Fotimiylar xonadoni ag'darilishi bilan o'rniga Ayyubiylar xonadoni o'tadi, xalifaning oxirgi nufuzidan ham mahrum etmoq uchun Ayyubiylar Frot va Dajla sohillariga qadar bosib keladilar. Eldanizning o'g'illari Iroq, Fors, Rey va boshqa o'lkalarni zabt etmoqdalar.

Mening xavfim ham Eldanizning avlodlaridan. Ular ish boshiga o'z sodiq navkarlarini qo'ya boshladilar. Amir Inonj xonadonini esa, ular unchalik yoqtirmaydilar, bundan bir necha oy muqaddam ular Rey o'lkasini amakimning o'g'illari qo'lidan tortib oldilar".

Amir oqshomdan beri faqat shu xildagi mavzular haqida o'ylardi. Bu kecha o'z odatiga xilof o'laroq raqqosalarni ham yoniga kiritmadi. "Sharobingiz menga yoqmadi", deb soqiylarni ham huzuridan haydab chiqardi. Shunday vaqtlarda u, mahbub rafiqasi Sofiya va sevikli qizi Qatibani ham o'z yoniga kiritmasdi. U yolg'iz edi. Xizmatkorlar qo'rqqanlaridan sichqonning inini ming tangaga olishga tayyor edilar.

Amirning bu kayfiyati barcha saroy a'yonlariga ham ta'sir etgandi. Yuzlarcha kanizak va joriyalar qahqahasidan larzaga keladigan marmar ustunlar hozir xaroba qabrlar ustidagi toshlardek mung'aygan edi. Har oqshom haramxona va joriyalar yotog'idan eshitiladigan musiqa sadolari o'rnida sukunat hukmron edi. Chunki bunday vaqtlarda kulganlar va shodlik, xursandchilik qilganlar amirning g'azabiga duchor bo'lar, qorong'i zindonlarga tashlanar va jazolanar edi. Amir baxmal to'shakdan turib, uy ichini bir aylanib chiqdi-da, deraza pardani ko'tarib bog'chaga qaray boshladi. Lekin bu qalbini ezib yotgan qayg'usini tarqatolmadi. Kelajak haqidagi fikrlar unga bir ajdarhodek tahdid etar va umidsizlikka sudrar edi.

Haram og'asi Mufid Amirni bezovta qilmaslik uchun eshikni o'g'ri mushuklar kabi sekingina ochib ichkari kirdi. Amir pardani tushirib, deraza oldidan qaytayotgan paytda Mufidni ko'rib savol berdi:

— Nechun kelding? Biror voqeadan xabar berasanmi?

Mufid bo‘ynini egdi va tishlarini irjaytirib:

— Amirga arzim bor, — dedi.

Amirning ensasi qotib, bir nimadan jirkangandek dedi:

— Olib kelgan xabarlaring ko‘plari yolg‘on. Aftidan, rost gap topa olmaganingdan keyin yolg‘onlardan ham foydalanar ekansan.

Mufid qaddini ko‘tarib, Amirning yuziga norozi nazar bilan boqib dedi:

— Amir hazratlariga bir kalima ham yolg‘on gapirgan emasman. Joriyangiz Lolani qulingiz Marjon bilan sevishganini, To‘-boning Suhrob bilan aloqada bo‘lganini, G‘unchaning Abussalt bilan qabohat ishlar qilganini sizga yetkazganimda ham “bunday ishlarning bo‘lishi mumkin emas”, deb ishonmadingiz. Lekin ikki qiz, bir o‘g‘il dunyoga kelgandan keyin aytganlarim haqiqat ekanini o‘zingiz tasdiq etdingiz.

— Qani, ayt, hozir qanday xabar keltirding?

— Bir qoshiq qonimdan kechib, gapirishimga ijozat bering.

— Qoningdan kechdim, ijozat berdim. Tez gapir, ezmalanma!

Mufid so‘zlashga ijozat olgandan so‘ng qo‘ynidan hukumat muhrini olib amirga berdi.

— Bu muhr qanday qilib sening qo‘lingga tushdi?

Mufid qo‘rqa-qo‘rqa javob berdi:

— U yerdan!

— U yerning nomi yo‘qmi? Bu muhrni Muhokim ibn Dovudning qalamdonidan oldingmi?

— Alhamdulillo, Amirning nasli najib, oilasi muqaddas, sha’n-u shavkati quyosh chashmasiday pok va tiniqdir. Lekin bu muhrning qayerdan topilganini so‘zlamoq qulingiz uchun juda og‘irdir. Yana bir bor bir qoshiq qonimdan kecking!

Amir o‘zini yo‘qotib, titroq tovush bilan dedi:

— Yo Alloh! Mening saroyim sirlar uyasiga aylandimi? Bu shayton o‘g‘li shayton yana qanday shum xabarlar keltirdi ekan? Xudo ko‘rsatmasin, qizim Qatibaning to‘g‘risida biror narsa eshitdimi? Yo haramxonamda katta bir xiyonat izini topdimikan?!

Amir bularni o‘z-o‘ziga so‘zlaganidan so‘ng yana Mufidga yuzlanib dedi:

— Nega cho‘zilsan? Hayajonimni orttirib, yuragimni yormoqchimisan?

Mufid ikki bukilib ta’zim qilib:

— Xudo saqlasin, Amir hazratlari! — dedi.

Amir Mufidning yoqasidan bo‘g‘ib silkitdi:

— Gapir! Ayt, bu muhrni qayerdan topding?! Olchoq! Men bilan o‘ynashmoqchi bo‘lyapsanmi?

— Bu muhrni amir hazratlarining muhtarama rafiqalari Sofiya xonimning uylaridan topdim.

Amir bu so‘zlardan so‘ng muhrga yana bir qarab, uni cho‘ntagiga soldi-da, yana savol berdi:

— Saroyda yana qanday gaplar bor?

— Yana Faxriddin masalasi.

— Faxriddinning qanaqa masalasi?

— Xalifa hazratlariga hadya qilib yubormoqchi bo‘lgan qizlaringizdan birini sevadi.

— Faxriddinning muhabbati unchalik muhim xabar emas, qizning sevish-sevmasligini bilish lozim. Qiz ham uni sevadimi?

— Ha, Dilshod ham uni sevadi.

Amir taajjub bilan:

— Dilshod?! — dedi.

— Balli, Dilshod! Uning Faxriddinni sevishini sezganim uchun qizni anchadan beri nazorat ostiga olgan edim. Bir necha kun muqaddam siz tungi istirohat bilan mashg‘ul edingiz. Saroy ahli ham yotgan edi. Men Dilshodning bedorligini sezdim. Tungi libosimni kiyib dahlizga chiqdim. U eshikning tirqishidan meni poylayotganini aniqladim-da, o‘zimni bilmaslikka solib yotog‘imga kirib, eshikni qulfladim. U kalit tovushini eshitib, meni uxladi deb o‘yladi. Men eshikni qulflagan bo‘ldimu aslida uni ochiq qoldirdim. Birozdan so‘ng Dilshod o‘rnidan turib dahlizga chiqdi-da, juda ham ehtiyotlik bilan bog‘chaga kirib, Faxriddinni qidira boshladi. Hovuz labida ularning uchrashganlarini ko‘rdim.

— Sen uning Faxriddin ekanini qayerdan bilding?

— Faxriddinning ovozidan tanidim. U: “Bu yerdaman, Dilshod!” deb qizni chaqirdi.

— Nima to‘g‘risida so‘zlashganlarini bilmadingmi?

Mufid sukut qildi, uning bu turishi Amirning hayajonini yanada oshirdi, u achchig'lanib Mufidni urmoqchi bo'lganida, Mufid ko'z yoshi qilib gapira boshladi:

— U shayton qizi shaytonni to'rt soat davomida poyladim, o'zim ham shirakayf edim. Hovuz bo'yida o'tirib ularning so'ziga quloq solmoqchi edim. Lekin uyg'onib qarasamki, tong otib qolibdi. O'rdaklarning qanotidan yuzimga sachragan suv tomchilaridan seskanib uyg'ondim. U yerda hech kimsani ko'rmadim.

Amir buni eshitganidan so'ng:

— Yo'qol ko'zimdan, ko'rnamak! Bir ishni oxiriga yetkazishni ham eplay olmaysan! — deb undan xafa bo'ldi.

Mufid chiqib ketganidan so'ng Amir yana hukumat muhrini cho'ntagidan olib qarab, o'z-o'zi bilan so'zlasha boshladi:

— Xiyonat ko'lami shu qadar kengayibdiki, hatto, yotoqxonamgacha yetib kelibdi. Dunyoda boshlangan alg'ov-dalg'ovlar xonadonimga ham ta'sir etdi. Qarib qoldim, xotinim esa yosh. Butun vaqtimni hukumat ishlariga sarf etganim uchun, oilamga e'tibor bermadim, ish shu darajaga borib yetibdiki, kotibim ham menga xiyonat qilishga jur'at etibdi. Katta bir mamlakatni idora qilishni o'rgandimu, lekin o'z uy ichimni o'rgana olmadim. Xotinim insofsizlik qildi, u meni o'z kotibimga sotmasligi kerak edi. Xiyonatkor xotin o'ynashi Muhokimni saroyga olib kelish uchun Dilshodni unga berishga harakat qilardi. U endi orzusiga erisha olmaydi. Xotinim erga tegmoqchi bo'lsa, uyimdan chiqib ketsin. Men o'z xotinimni o'z uyimda erga berishdek nomussizlikka chiday olmayman.

Amir uyni bir necha martaba aylanib chiqdi. Fikru xayollar uni jinni qilib qo'yayozgan edi. U yana o'z-o'ziga dedi:

— Xotinim edi. Xoin bo'lib chiqdi. Uni taloq qilib, uydan haydab chiqarish kerak. Lekin buning iloji yo'q. U xalifaning qizi. Mening hayot-mamotim xalifaning irodasiga bog'liq. Amirning xotini, xalifaning qizi o'z uyida fohishalik qila boshlagan. Xalqning bu malomatini eshitgandan ko'ra, o'lim yaxshiroq. Lekin kotibni, o'z og'asiga, xiyonat qilgan haromzodani qatl ettiraman. U arab qizi edi, men esa bir turkman, u yana bir boshqa arabga sotila oladi.

Eshikning pardasi ko'tarildi, keksa bog'bon Salim kirib, boshini quyi solib turdi. Amir unga xayolchan boqib, o'z-o'zicha dedi: "Ehtimol bu ham bir xiyonatning xabarini olib kelgandir". So'ngra bog'bonga qarab:

— Qani, gapir, Salim, gapir! — dedi.

Salim yana bir marta ta'zim bajo keltirgach, gap boshladi:

— Bundan bir necha kun burun bu keksa navkaringiz yaramas bir vazifani bajarishga majbur bo'ldi. Oilangizning nomusli va pokizaligiga shak-shubha yo'q, lekin qizingiz Qatiba xonimning maxfiy maktubini Ganja shoirlaridan Ilyos nomli bir odamga olib bordim.

Amir bog'bonning quloq-chakkasiga bir shapaloq urgach, dedi:

— Haromzoda, maktubni olib borib berganingdan keyin menga xabar olib kelasanmi? Javobni ham keltirib berdingmi?

Salim qaltiray-qaltiray javob berdi:

— Yo'q, javob bermadi.

Javobni bersa, to'ppa-to'g'ri menga olib kel. Xoin, ikkiyuzlamachi haromzodalar! Yo'qol bu yerdan!

Salim chiqib ketdi. Amir uyning o'rtasida turib boshini ikki kafti orasiga oldi. Yana o'z-o'ziga dedi: "Onasi shoxida yursa, bolasi bargida o'ynaydi. Har tarafda xiyonat! Dushman saroyim ichida ishlamoqda. Bir kun meni o'z yotog'imda o'ldirib ketsa, kim xabardor bo'lishi mumkin?"

Birozdan so'ng darvozabonlar, oshpazlar, qorovullar va posbonlar Amirning huzuriga bir-bir kirishib, bilgan va eshitganlaridan xabar berib chiqib ketishdi.

Amir g'azabini bosolmadi, cho'ntagidan muhrni olib o'yga toldi. Muhokimning xiyonatlari uning ko'z oldida jonlana boshladi, u xayolida o'z sevgili xotinini Muhokimning quchog'ida ko'rarkan: "Muhokim! Muhokim!" deb qichqirdi.

Marjon shoshilinch kirib keldi. Amir Marjonni ko'rarkan:

— Tez bor, Muhokim ibn Dovudni mening huzurimga chaqir! — dedi.

Marjon ketdi. Amir yana xotinining xiyonatlarini bir-bir xotirladi: "Behayo xotin!! U menga tekkan vaqtda ham meni sevmas edi. Xalifa uni menga tegishga majbur etdi. U quchog'imda yotib

uyqusiragan paytlarida ham boshqalarning nomini atardi, o'zim ham sezardim, u meni o'pganida, ko'zlarini yumib, boshqa odamni eslardi. Men unga yaqinlashganimda, u o'zini boshqaning quchog'ida his etib nozlanardi. Mana natija... Uni yalinib menga berishgan edi, chunki o'sha vaqtlarda xalifaning mavqeyi bir qilda ilinib turgan edi. Hozir esa, mening mavqeyim bir qilda ilinib qoldi. O'sha qilning uchi mana shu xoin xotinning otasi qo'lidadir".

Amir shu so'zlarni xayolidan kechirgandan so'ng andak tinchlandi. U xotinini haqli chiqarishga urinib, o'z vijdonini qanoatlantirishga shoshilar edi: "Menimcha, asosiy xiyonatchi kotibdir. Rafiqam esa xotin kishi. Xotin toifasining avomligini kim bilmaydi? Erkakki bor ekan, xotin zotini yo'ldan uradi. Uni afv etish lozim. Lekin dasturxonimda o'tirgan va non-namagimni yegan kishi menga xiyonat qilishni o'ziga ep ko'rmasligi kerak edi".

Shu on eshik ochildi. Marjon bilan birga Muhokim ibn Dovud kirib keldi.

Amir unga hech narsa sezdirmasdan:

— Muhokim, o'tir, — dedi, — zarur narsalar bor, shularni yozishing kerak.

Muhokim ibn Dovud qalamdonini olib yozuv taxtasining ustiga qo'ydi, belbog'idan o'ralgan qog'ozni oldi. Qog'ozni qirqib yozishga tayyorlagach, ko'zlarini Amirning og'ziga tikdi.

— Yoz, — dedi Amir, — "Saroy noziri To'xtamish janoblariga amr etaman. Bir hafta ichida xalifaning saroyiga yuboriladigan joriyalarni tayyor qilib jo'natsin. Joriyalardan Dilshod, Susan, Zumrad, Shohin, So'lmaz, Shamoma va Bahorlarni ham jo'natish lozim. Bergan amrim qat'iydir".

Kotib farmonni yozib bo'lgach, Amir unga imzo chekdi va kotibga qaytarib berib dedi:

— Ol, muhringni bosib, imzo chek.

Kotib qo'rqqanidan o'zini yo'qotdi va qo'lini cho'ntagiga tiqib muhrini qidira boshladi, qalamdon ichini bir necha marta qaradi. Nihoyat, yolvoruvchan tovush bilan Amirga murojaat qildi:

— Muhr uyda qolibdi, ijozat bering, borib olib kelay. Amir:

— To'g'ri, muhrni uyda qoldirib kelibsan, lekin o'z uyingda emas, boshqa odamning uyida, — dedi.

Dovud taajjublanib so'radi:

— Ya'ni qanday boshqa odamning uyida?

— Ha, boshqa odamning, o'z valine'matingni, seni shu martabaga ko'targan Amir Inonjning uyida, olchoq, nonko'r kotib. Mening nomusimni rioya qilmading, hech bo'lmasa nomusli bir arab kabi xalifaning nomusini hurmat qilgin edi... Ol, mana muhring. Xotinimning xonasida, nomusimni benomus bir arabga sotgan avom xotinning xonasida tushirib qoldiribsan, ko'rnamak! Men besh nafar arabning buyuk mamlakatda xo'jayinlik qilishiga harakat qilayotgan edim. Shumi mehnatlarimning natijasi! Arablardan olgan mukofotim shu bo'ldi!..

Muhokim ibn Dovud titroq tovush bilan:

— Yo Amir, ijozat bering. Bu nima deganingiz?! Men?..

— Ha, sen!

— Men hech qachon valine'matim oilasiga nisbatan bunday olchoqlikni qilganim yo'q. Bu menga qarshi oshkora bir bo'hton-ku. Bu hodisani tekshirish lozim.

— O'chir ovozingni! Ol muhrni, farmonga muhr bos!

Muhokim ibn Dovud muhrni olib, qo'llari titrab farmonni muhrladi.

Amir yana unga qichqirdi:

— Bu yoqqa ber muhrni! Sen bu muhrni olib yurishga loyiq emassan! — deya Marjonni chaqirdi:

— Marjon! Marjon!

Marjon kirib:

— Farmoningizga hozirman, Amir! — dedi.

— Bor, hozir Haydarni, Po'latni, Safiyni chaqir, ayt, qamchi va tayoqlarni olib kelsinlar.

Marjon ketdi. Muhokim esa, o'zini bu haqsiz jazodan qutqarish uchun yig'lay-yig'lay Amirga yolvorardi:

— Mening bu xiyonatdan aslo xabarim yo'q, kimdir menga tuhmat qilgan. Siz xohlagan vaqtingizda meni jazolay olasiz. Shu ishni tekshirtirsangiz yaxshi bo'lardi.

Amir bu yolvorishlarni eshitmas edi. Uning so'zlariga na "ha" va na "yo'q" derdi. Chunki xotinining uyidan topilgan muhr uning uchun asosli bir dalil hisoblanardi.

Qullar tayoq va qamchilar bilan ichkari kirishdi. Darhol mesh sholchani yerga yozib, Muhokimni uning ustiga ag'dardilar. Uni yechintira boshladilar. Muhokimning egnida ko'ylak va lozimidan boshqa hech narsa qolmadi. Uning boshi va oyoqlarini bosib turdilar. Amir farmon berdi:

— Ikki yuz ellik tayoq!

Muhokimning yolvorishi va qichqirgan tovushi butun saroyni bosdi. Tayoqlar ishlatilgandan so'ng, uning qichqirig'i tindi, u hushidan ketgan edi. Ruhsiz badanni savalashda davom etdilar.

Amirning xotini gunohkorlarni kaltaklayotganlarini eshitganida, uni qutqarmoq uchun to'satdan ichkariga kirdi, shoshilgancha oldinroq borib so'radi:

— Bu kim? Gunohi nima ekan?

Amir Inonj xotiniga jahl bilan boqib dedi:

— Bu hayosiz odam o'z valine'matining nomusiga tajovuz qilgan. Bu odam o'z og'asi xotinining nomusiga to'qingan.

Sofiya xonim bu so'zlarni eshitgach, yanada oldinroq borib qullarga o'shqirdi:

— Qo'llaringizni torting, bechoraning o'lganini sezmayapsizmi?!

Qullar to'xtadilar, lekin Muhokim harakatsiz edi. Sofiya xonim esa uni ko'rib tanidi va qo'llarini tizzalariga urib:

— Oh, bu sho'ring qurg'ur Muhokim-ku,— deyarkan, Amir unga dedi:

— Ha, bu Muhokim. Sening suyuklim Muhokiming. Uni bu jazoga giriftor qilgan sening olchoq muhabbating. Tarbiyasiz, aqli qisqa xotin! Nomusli va kibor bir odamga sotilsang ham menga unchali alam qilmasdi, yana kimga! Olchoq bir arabga sotilding. Sen mening nomusimni yakkash arablarga sotarding, chunki o'zing arabsan-da.

Sofiya xonim bu so'zlardan hayratlandi. Hatto, bularni o'ziga taalluqi yo'qdek so'radi:

— Men sizning gaplaringizga sira tushunmayapman. Bu bilan nima demoqchisiz? Sotilgan kim? Bu yerda arab qonining nima aybi bor? Ochig'ini ayting, bu so'zlarni aytishdan maqsadingiz nima?

Amir istehzo bilan muhrni ko'rsatib dedi:

— Maqsadimni faqat shu muhrdan so'rashing kerak. Bu muhr menga har narsadan ham sodiqdir. Men ana shuning vositasi bilan uzoq yillar davom etgan xiyonat izini topdim. Sofiya, sen Oron o'lkasining hukmdori dasturxoni sarqitini yeb katta bo'lgan bu olchoqqa sotilding. Yo'qol ko'zimdan!

Sofiya xonim hech narsa demadi, qo'llari bilan ko'zlarini yashirib yig'ladi-da, xonadan chiqib ketdi. Kotibning ham hushsiz jasadini tashqariga olib chiqdilar.

Amir uy ichida aylanar, xotiniga nisbatan qilgan harakatini va qullari oldida uni haqorat qilganining o'rinsiz ekanligini o'ylar edi. Lekin bo'lar ish bo'lgan edi.

Amir nima qilishini bilmasdi.

U o'z-o'zicha gapirar edi:

— Hozirgi vaziyat bilan hisoblashmadim. Xotinim xoin, bu to'g'rida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Lekin tadbirsiz ish ko'rdim. Ajabo, biroz sabr qila olmasmi edim? Ularning har ikkisini ham hech kimga bildirmasdan yo'q qilolmasmi edim?

Shu payt Amirning keksa vaziri va hozirgi saroy noziri To'xtamish ichkari kirib, Amirdan so'radi:

— Amir, bu qanday voqea?

Amir voqeani boshidan oxirigacha To'xtamishga so'zladi, To'xtamish esa, ko'zini yumib biroz o'yga toldi, so'ngra boshini ko'tarib dedi:

— Masala siz so'zlaganingizdek emas, bu ishda chetdan uzatilgan bir qo'l ishlamoqda. Juda ustalik bilan tuzoq qo'yishibdi. Jazoni berishdan oldin men bilan kengashganingizda durust bo'lardi. Katta xato qilibsiz. Xonim yo'l tadorikini ko'rishga amr berdilar. Hoziroq Bag'dodga jo'nashga tayyorlanmoqdalar. Siz vaziyatni hisobga olishingiz kerak edi. Basharti shunday bir xiyonat yuz berdi deylik. Xo'sh, hukmdorlar va shohlar saroyining qaysi birida shunga o'xshash hodisalar yuz bermaydi. Sas-sadosiz ta'sir etadigan dori-darmonlarni qo'yib, nega qamchi va tayoqni tanladingiz? Bir kosa bol-sharbati bilan bu rasvogarchilik ustini yashira olmasmi edingiz?

Amirning tili gapga kelmay qoldi, u faqat shu so'zlarni ayta oldi:

— To‘xtamish, endi chora-tadbir topish senga qoldi. Bu xabar Bag‘dodga yetsa, hukmronligim tugadi hisob. Sofiyani yupat, ko‘nglidan chiqar, qo‘y, u meni kechirsin, oilamiz buzilishiga sabab bo‘lmasin.

To‘xtamish o‘ychanlik bilan uning yuziga boqib:

— Men qo‘limdan kelganicha harakat qilaman, — dedi, — lekin bu so‘zlarni uning o‘ziga aytib, uzr so‘rashingiz kerak. Hamisha avval boshdan yaxshilab o‘ylab, keyin harakat qilmoq lozim. Men buni Amir hazratlariga bir martaba emas, bir necha qayta aytganman.

Amir uning qo‘lidan ushlab:

— Ko‘mak ber! — dedi, — hodisalar, fitnalar atrofimni o‘rab olgan. Qizim ham bir yo‘qsil shoir bilan aloqa bog‘labdi. U uyalmay-netmay, nomusimni oyoq ôsti qilib, kambag‘al bir shoirga maktub yuboribdi.

— Qaysi shoirga? — deb so‘radi vazir.

— Nizomiy taxallusi bilan she’r yozadigan Ilyosga. Endi chaqirib uni savalataman.

Vazir yana nasihatomuz dedi:

— Uni savalatishni maslahat ko‘rmayman. Uni ham menga topshiring, o‘zim bu ishni tekshiraman. Har qachon shunday masalalar bo‘lsa, men kichik xonimga nasihat qilaman. Ilyosni savalatish esa, qo‘rqinchli. Ganjada uning obro‘si katta. Tog‘alarini ham yaxshi taniysiz.

TO‘XTAMISH

Bag‘dodning yonginasida jang bo‘lmoqda. Sulton Mahmud bilan sulton Mas’ud o‘rtasida borayotgan bu jang Bag‘dod xalifasi Mustarshidbillohning taqdirini hal qilishda muhim bir hodisadir, chunki bularning har ikkalasi ham xalifaning huquqini chegaralamoq va o‘z qo‘llaridagi o‘lkalarni kengaytirmoqqa harakat qilmoqdalar. Shuning uchun ham qulay fursatdan foydalangan ajnabiylar Ozarbayjon mamlakatini fitnalar va mojarolar uyasiga aylantirmoqdalar.

Bu so‘zlarni Amir Inonjning keksa vaziri To‘xtamish gapirardi. Amir vazirining so‘zlarini qisman rad etib, qisman qabul qilardi. Amir Oron mamlakatini idora etish haqida gapirib bunday derdi:

— Oron mamlakatini qo‘lda saqlamoq uchun Shirvon xoqoni Abulmuzaffarni aldamoq va Oronning Shirvonga tobe ekanini rasman bo‘lmasa-da, har yili muayyan o‘lpon bermoq sharti bilan qabul qilish kerak. Xalifa bilan aloqamiz uzilib qolmasligi uchun esa, Bag‘dodga yildagi boj-u xirojimizni yuborishimiz lozim.

To‘xtamish bunga e’tiroz bildirardi:

— Bu fikr to‘g‘ri emas. Amirning aytganlarini amalga oshirish lozim bo‘lsa, Shimoliy Ozarbayjon bilan birga Oron mamlakatini ham g‘orat qilish kerak bo‘ladi. Urush va zilzilalardan yaqindagina qutulgan mamlakat ham Shirvon shohlari hamda Bag‘dod xalifasini ta’min etishga ojizdir. Bu fikr Shimoliy Ozarbayjonda yangi bir qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga sabab bo‘la oladi. Bulardan tashqari, bu fikrlarning amalga oshirilishi Amirning davlatini kelgusida tahlika ostida qoldirishi mumkin. Siz Eldanizning o‘g‘illarini juda ham layoqatsiz kishilar deb o‘ylamang. Otabek Muhammadning tadbirkor va pahlavonligi ustiga, Qizil Arslon Sharqning eng mashhur siyosiy arboblaridan biridir. Ular hali ham Ozarbayjon otabeklarining o‘lkasiga dushman bo‘lgan Fors mamlakatlarida jang qilmoqdalar. Hozirda ular Kirmonda Bahromshoh bilan qattiq janglar olib bormoqdalar. Shubhasizki, ular g‘olib chiqadilar.

Men bugun Amir Qoraqushdan mufassal bir maktub oldim. Bu maktub Bahromshohning yo mag‘lubiyatga, yoki sulhga rozi bo‘lishidan darak beradi. Eldanizning o‘g‘illari Fors va Iroqni mag‘lub etganlaridan keyin Ozarbayjonga yuz o‘giradilar, ana shunda ular Amir hazratlariga mamlakatni Shirvon shohlariga sotmoqchi degan xiyonat bilan tuhmat qila oladilar.

Amir bu fikrga yana e’tiroz bildirdi:

— Qarisan, ko‘rinib turibdiki, tushunchalaring ham qarimoqda. Otabek Muhammadning Fors o‘lkasidan g‘olib qaytishiga u qadar umid yo‘q. Chunki Bahromshoh qo‘shini Xurosonda dam olyapti va har jihatdan kam-u ko‘stlarini tuzatmoqda.

To‘xtamish Amirga javob qilib dedi:

— To‘g‘ri, men qaridim, lekin fikrim qarigani yo‘q.

Fikr-mulohazalarim ayni kamolga yetgan vaqti. Men Sharqdagi hozirgi vaziyatni kuzatmoqdaman. Ukam Qoraqush Sanjar zamonamizning eng ko'zga ko'ringan va tadbirkor lashkarboshilaridan hisoblanadi. Hozir u Bahromshohning harbiy maslahatchilaridan biridir. Men uning fikriga ishonaman. Oron va butun Shimoliy Ozarbayjonning ahvoli to'g'risida uning fikrini bilmoqchi edim. Maktubimda Shirvon mamlakatiga qo'shilish yoxud mamlakatni otabeklar uchun asrab turish to'g'risida uning maslahatini so'ragan edim. Bugun uning javobini oldim, buni sizga o'qib berishni istardim, chunki Qoraqush vaziyat bilan juda yaxshi tanishdir.

Keksa To'xtamish shularni aytganidan so'ng, maktubni o'qiy boshladi:

"Muhtaram birodarim To'xtamish!

Maktubingizning javobini zudlik bilan yozdim. Bahromshoh Bardisir qamalini yorib o'tish va Otabek Muhammadni mag'lub etishga muvaffaq bo'la olmaydi, chunki Malik Muayyad Xurosondan qo'shin va oziq-ovqat yuborishdan bosh tortmoqda. Endi ular Iroq bilan yovlashishni davom ettirishdan manfaatdor emaslar. Shuning uchun ham maktub yuborib, Bahromshohni sulh tuzish uchun zamin hozirlashiga maslahat bermoqdalar.

Bahromshoh bu og'ir ahvollardan qutulish uchun har kuni Kirmon a'yonlaridan bir nechasini qamoqqa olib, Otabek bilan aloqasi bor degan tuhmat bilan o'ldirmoqda. Olti oydan beri Bardisir qamali davom etyapti, askarlar ochlikdan qirilmoqdalar. Qo'shinning ichida shiddatli g'alayon ko'tarilmoqda, har kun qochoqlarning soni ortib bormoqda. Hatto, lashkar boshliqlari ham qal'a devorlaridan oshib, qochishdan boshqa iloj topolmay qoldilar. Men kecha shu to'g'rida ham Bahromshohga nasihat qilib dedim: "Iroq qo'shinlariga ikki dunyo bir qadam. Biz bir chaksa bug'doyni ming mashaqqatlar bilan topganimiz holda ularning kuzlik va qishlik g'allalari omborlarda uyulib yotibdi. Ular shunday hozirlik ko'rib olti oydan beri davom ettirayotgan qamalni yarim yo'lda qoldirib ketmaydilar. Iroqdan oziq-ovqat va ot-ulov olib kelib qo'shinni ta'minlash kerak bo'lar ekan, ular buni qilishadi. Eldaniz avlodining nihoyatda zo'r sabr-qanoat-

ga ega ekanliklari ham ma'lumdir. Kirmon mamlakatining ikki hukmdorni ta'minlashga qurbi yetadi.

Qo'lingizda kuch va qudrat bo'lgan mahalda siz g'olib chiqqan edingiz. Modomiki, bugun mag'lub bo'lgan ekansiz, behuda qon to'qishning qanday ma'nosi bor".

Bahromshoh bu nasihatlarni qabul qildi, sulh shartnomasi tuzishga tayyorgarlik ko'rilmoqda. Mana shuning uchun ham Ozarbayjon masalasini avvalgicha saqlamoq lozim, chunki ular yaqin kunlarda Ozarbayjonga qaytadilar.

Qoraqush, Kirmon".

To'xtamish maktubni o'qib bo'lganidan so'ng, Amir Inonjga: — Vaziyat shunday ekan, biz boshqa chora o'ylashimiz kerak, — degan edi. Amir:

— Ko'chib ketishdan boshqa choramiz yo'q, — dedi.

To'xtamish javobida:

— Qochish ojizlik alomatidir, — dedi.— Birinchi navbatda xalifadan yordam kutish fikrmni xalqqa oshkor qilmaslik kerak. Xalq xalifaning nomini eshitishni istamaydi. Chunki xalifaning bir shahar hokimichalik salmoqqa ega emasligini hamma biladi. O'zingiz arab emassiz. Shuning uchun ham hozir arablarga emas, yerli xalqning ozodlik orzulariga suyanishingiz mumkin. Ziyolilarni, ishbilarmonlarni qo'lga olish lozim. Shu kundan e'tiboran, arablarning mavqeyi masalasini emas, balki Shimoliy Ozarbayjonning mustaqilligi masalasini o'rtaga tashlang. Bu borada biz Shirvon shohi Abulmuzaffarning tajribasidan foydalanishimiz kerak. Ular Ozarbayjon mustaqilligi shiorlari ostida Oron o'lkasini Shirvonga tobe etishga tirishmoqdalar. Abulullo va boshqa shoirlar bekorga Shirvon saroylariga taklif etilganlari yo'q edi. Shirvonliklar bu maqsadlarini amalga oshirish uchun minglarcha dinor sarf etdilar. Haqoyik taxallusli shoirga xoqon o'z laqabini behudaga taqdim qilib "Xoqoniy" deb yuritmagandir. Amir shuni bilishlari kerakki, Shirvon xoqoni har bir shoirni o'z tomoniga tortar ekan, o'sha shoirning o'quvchilarini ham o'z tarafiga jalb etadi. Ammo biz...

To'xtamish so'zini tugatmagani uchun Amir unga savol berdi:

— Xo'sh, nima, ammo biz?

— Biz esa, bu xil nozik nuqtalarni nazarga olmaymiz. Hatto, bularning aksini qilishga harakat qilamiz. Biz shoirlarni va ishbilarmon odamlarni o'zimizdan uzoqlashtirmoqdamiz, Mahsatiy xonimni tahqirlab surgun qildik. Shu bilan butun ozarbayjon xalqining nafratiga duchor bo'ldik. Bundan tashqari, Amirning o'zlari ham yosh shoir Nizomiyni ta'qib etmoqdalar. Nima uchun? Chunki qizingiz unga maktub yuborgan. Axir, u maktubga javob qaytarmagan, axir, u sizning oilangizni tahqir etgani yo'q. Tarixni o'qing. Ahli siyosat bu xildagi qurbonlarni ozmuncha qilgan emas. Siz yaxshiroq o'ylang, bir zamonlar saljuqiylardan Tug'rulbek kerak bo'lgan vaqtda akasining qizi Arslon xotunni xalifa Qoyimbiamrillohga berdi, yana kerak bo'lib qolganida, o'zi oltmish besh yoshli chol bo'lishiga qaramay, xalifa Qoyimbiamrillohning o'n uch yashar qizi Saidaga uylandi. Amir hazratlari siyosatchilar aksari qiz berib, qiz olish va qarindosh bo'lish vositalari orqali saltanat quribdirlar. Siz saljuqiylar tarixini o'qing, Alp Arslonning vaziri Nizomulmulk yozgan "Siyosatnoma" siga qarab siyosat o'rganing. Alp Arslon Abxaz va Ozarbayjonni qo'l ostida saqlamoq uchun Abxaz hukmroni Bagration Georgiyning qiziga uylandi. Mamlakatning g'arbiy chegaralarini mustahkamlash maqsadida Rum qaysarining qizini oldi. Xorazm va O'rta Osiyoni qo'ldan chiqarmaslik maqsadida Samarqand xoqonining qiziga uylandi. Alp Arslon ayni vaqtda Bag'dod xalifasini qo'lda saqlash fikrida o'z qizini hozirgi kunlarda Bag'dod masjidi darvozasi oldida turib: "Ko'zi ojiz bo'lib qolgan xalifangizga xayr-ehson qiling!" deb tilanchilik qilayotgan xalifaga bergan emasmidi?

To'xtamishning bu so'zlaridan so'ng Amir Inonjning jahli chiqdi, unga o'qrayib qarab savol berdi:

— Sening fikringcha, To'g'rulbek va Alp Arslon singari men ham o'z qizimni duch kelgan odamning quchog'iga otaymi?

To'xtamish Amir Inonjning g'azabini pisand qilmasdan so'zida davom etdi:

— Ajabo, xalifa Mustarshidbilloh o'z qizi Sofiya xotunni sizga berish bilan Oron va Shimoliy Ozarbayjonning muhim hissasini o'z ta'siri ostiga olmadimi? Sizning nomus deb atalgan narsangiz chirik va puch bir kalimadir. U siyosatda ishlatiladigan so'zlardan emas-

dir. Bir qizni u yoki bunisiga berilishi, yoki badavlatning qo'lidan olib kambag'alga berilishida hech qanaqa nomussizlik yo'q. Hech bir ota o'z qiziga o'zi uylanmaydi. Qiz bir kun emas-bir kun bittaga xotin bo'lishi kerak. Sen o'zing berasanmi yoki o'zi tegadimi, buning hech farqi yo'q. Bir o'lkaning taqdiri bir yoki besh kishining nomussizligi bilan hisoblashmaydi. Amir bilishi kerakki, bu xildagi nomusda nomussizlikning ham ishtiroki bo'ladi. Bir qizning iffatiga nisbatan, tahqirlangan bir o'lkaning mag'lubiyati ming marta og'irroqdir. Men siyosat kishilariga rashk va nomus bilan shug'ullanishni maslahat bermayman. Zamon juda nozik. U hammadan zukkolik va hassoslikni talab etadi. Dunyoda nomus so'zi har qancha qimmatga ega bo'lsa ham, g'olibiyat oldida uni boy berish mumkin. Hukmdor bo'lgan zot xalq ruhini o'rganishi kerak[1].

Amir Inonj o'zini xayollar panjasidan qutqarib,To'xtamishga qaradi:

— To'g'ri, keksa vazir, to'g'ri!

To'xtamish Amir Inonjning javobidan quvonib dedi:

— Modomiki, so'zlarimni tasdiqlar ekansiz, qizingizning yosh shoir bilan boshlagan aloqasiga nisbatan munosabatingizni o'zgartiring. Bu hodisalar Amirning obro'siga to'qinsa ham, umumiy siyosatimizga xalal bermaydi, aksincha, Amirning mavqeyini mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Amir yana umidsiz ohangda:

— Ajabo, shu bilan hozirgi vaziyatning mushkulliklaridan qutula olamizmi? — dedi.

— Boshqa tadbirlar ham bor. Biz ikkimiz ham arab emasmiz. Yolg'iz siz bilan men xalifaning obro'sini tiklay olmaymiz. Xalifa o'z ishini bizdan ham yaxshi biladi. Xalifalar endilikda hukmdorlarga amr-u farmon berish o'ringa, o'zlari ulardan amr-u farmon

[1] Saljuqiylar sulolasi hukmdorlari saroylarida Sharqning mashhur shoirlari yashaganlar. Ular tamomila forscha yozishardi. Lekin To'g'rul va Alp Arslon she'rlarni o'z ona tilida yozdirishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, Ozarbayjonda fors tilining tamomila yo'qotilishiga erishildi. Alp Arslon boshqa hukmdorlar kabi o'ziga fors va arab laqablarini, arabcha nomlar qo'yishni istamadi. O'zi ham doimo turkcha so'zlashib, turkcha yozardi. ("Siyosatnoma"ning To'g'rul va Alp Arslon davriga oid qismi.)

kutmoqdalar. Yaqindagina xalifaning panohida o'zlarini baxtiyor hisoblaganlar, bugungi kunning eng badbaxt kishilardirlar. Endi avom xalqni xalifaning muqaddasligi bilan tuzoqqa tushiradigan vaqtlar o'tib ketdi. O'zimiz tashabbus ko'rsatishimiz lozim bo'lib qoldi. Siyosatning vazifasi aldash-u, avomning vazifasi aldanishdir. Ertadan boshlab Ganja ziyolilari va Ganja a'yonlarini chaqirib, Ozarbayjon mustaqilligi masalasini muhokama qilish kerak. Kotib Muhokim ibn Dovud haqidagi mish-mishlarga chek qo'yilishi lozim. Uni arab bo'lganligi uchun mas'ul vazifadan haydalganligiga xalqni ishontirish kerak. Shirvon xalqining Oronni Shirvonga tobe qilishga urinishiga qarshi kurashmoq lozim. Qizingizning yosh shoirga bo'lgan aloqasi yana ham yaqinroq bo'lishi uchun imkoniyatlar tug'diring. Faxriddin bilan Dilshodning munosabatlariga ham sovuqqonlik bilan qarashingiz kerak. Boshqa ishlarni esa, keksa vaziringizga havola qiling. Men Shimoliy Ozarbayjonni sizning qo'l ostingizda ekan, markazlashgan davlatga aylantirishga so'z beraman.

Amir Inonj keksa vazirning hamma aytgan so'zlariga rozilik berdi. Kengash chaqirmoqchi bo'ldilar.

"TOVUS" MEHMONXONASI

Tovus mehmonxonasining favqulodda bir suratda bezatilishi kengashga alohida e'tibor berilganini ko'rsatib turardi[1]. Favquloddalik hamma narsada o'z ifodasini topgandi, joriyalarning liboslarida, qullarning bosh kiyimlarida, xizmatkor va soqiylarning kiyim-kechaklarida ham ko'zga tashlanar edi.

Amir xonaga kirib kelganida, uni kutib turgan a'yonlar darhol oyoqqa turib ta'zim qildilar. Uncha ko'pchilikni tashkil etmaganlari uchun Amirning muxoliflari ham oyoqqa turishga majbur bo'ldilar. Amir kursiga o'tirgach, qisqagina xutba o'qidi. Xutbada xalifaning nomini tilga olmadi. Bu hodisa masalaning ichki mohiyatini tushunmaganlar va avomlar uchun katta xursandchilik

[1] Saroydagi xonalardan biri xilma-xil qilib bo'yalganidan devorlari tovus qanotlariga o'xshardi, shuning uchun uni Tovus mehmonxonasi deb atalardi.

bo'ldi. Ular Amirning umri uzun, davlati farovon bo'lishini tilab duolar yog'dira boshladilar. Amir majlis ruhini qo'liga olib so'zga boshladi:

— Hozirga qadar ozarbayjon xalqi Alloh taoloning marhamati bilan, qolaversa, xalifayi ro'yi zaminning marhamati bilan yashar edi. Lekin bunday buyon ozarbayjonliklar xalifaning himoyasida emas, bevosita Xudovandi olamning himoyasida yashayajaklar, chunki endilikda xalq mustaqillik olishga qodirdir. Shunga ko'ra biz bir necha haftadan beri bu masala bilan chuqurroq mashg'ul bo'lmoqdamiz, mansabdorlarning ba'zilari yerli xalqdan bo'lmaganliklari uchun mas'ul ishlardan bo'shatildi. Shu jumladan, hukumatning muhrdori Muhokim ibn Dovud, Rabiat ibn Qoim, Sodiq ibn Hanbal, Jobir ibn Ato va boshqalar ham vazifalaridan bo'shatildilar. Ularni Ozarbayjondan chiqib ketishlariga amr berdim.

Mehmonxonada yanada shodlik ko'chaydi. Avomlarning:

"Amirning umr-davlatlari ziyola bo'lsin!" degan sadolari mehmonxonaning devor va shiftlarida aks sado berdi.

Amir so'zida davom etdi:

— Endi biz kelgusini yaratish bilan mashg'ul bo'lar ekanmiz, o'tmishdagi xatolarni ham tuzatishga kirishamiz. Ganja xatibi va uning muridlari tarafidan tahqir qilingan buyuk shoiramiz Mahsatiy xonimni Ozarbayjonga qaytarmoq uchun Balx shahriga to'rt kishidan iborat chopar yuborganman. Shoiraning dushmani bo'lmish Ganja xatibini ham Ganjadan badarg'a qildim, muridlaridan bir qanchasi hibsga olindi, qolganlari esa qochib yashiringanlar.

Birinchi navbatda Oron ziyolilari va Oron a'yonlari ajnabiylarni davlat ishlariga aralashtirmaslik uchun hukumatning tashabbusiga qo'shilishlari va xalqqa o'z dushmanlarini tanitishlari kerak. O'ylaymanki, biz o'z mamlakatimizni qo'shnilarimizdan ko'ra yaxshiroq idora qila olamiz.

Amir, mehmonxonasidagilarning: "Yashasin Amir!", "Yashasin mustaqillik!" degan ovozlari ostida kursidan turib chiqib ketdi, vazir To'xtamish esa, mehmonxonadagilarning ba'zilarini Amirning maxsus xonasiga taklif etdi.

To'xtamish bir qancha urinishlardan so'ngra Amir bilan Sofiya xotun o'rtalarida chiqqan ixtilofni bartaraf qildi. Amir Sofiya xotun bilan Muhokim aloqada ekaniga ishonsa ham, shundan mushkul bir zamonda xotin va oila masalalari bilan shug'ullanishni istamas edi. Shuning uchun ham Sofiya xotun bilan yarashdi va qanday bo'lmasin, bu hodisani unutishga harakat qildi. Amir kechki ovqatdan keyin, odati bo'yicha, yana o'z oilasi bilan vaqt o'tkazdi. U yana Qatibaning sochlarini silar, boshidan o'pib, erkalatardi. U qo'lini uzatib kitob orasidan bir narcha qog'oz oldi, Qatibaga ko'rsatib so'radi:

— Go'zal qizim, sen she'riyatni sevasanmi?

— Men faqat boshqalarning she'rlarini o'qish bilan kifoyalanmasdan, o'zim ham she'r yozishni havas qilaman. Bag'dodda o'qib yurgan vaqtimda ikki narsani sevardim. Ulardan biri falsafa, ikkinchisi esa, she'riyat edi. Muallimaning she'r bilan shug'ullanishimga yo'l qo'ymasligiga qaramay, kitoblarimning orasi Maknuna[1]ning she'rlari bilan to'la edi. Turfa xotun[2] she'rlarini mendan ortiq sevguchi yo'q edi. Negadir Ozarbayjonga qaytganidan so'ng, arabcha she'rlarga havasim tamomila susaydi.

Amir uning peshonasidan o'pib dedi:

— Chunki arabcha she'rlar sening ona tilingda yozilmagan.

Sofiya xotun bunga e'tiroz qilib dedi:

— Arabcha uning ona tilidir. Uning turkiy til va adabiyot bilan hech qanday aloqasi yo'q. Diniy kitoblarning arabcha yozilganligi va "Qur'on"ning osmondan arab yozuvida tushganligini ham aytib o'tish kerak. Yer yuzining xalifasi ham arabdir.

Amir Sofiyaning so'zlariga e'tiroz etmadi. Chunki yangidan ixtilof chiqishini istamas edi. Shuning uchun suhbatni she'riyat tomonga burdi:

---

[1] Maknuna Sharqning eng mashhur shoirasidir. Abbosiy xalifalaridan Mahdiyning joriyasidir. U san'atkor bir shoira bo'lishi bilan birga, mashhur musiqa san'atkori ham edi. Ruhoniylar unga musiqa bilan mashg'ul bo'lishni man qilgan bo'lsalar ham, u o'z san'atidan kechmagan.

[2] Turfa xotun Abbosiylar davrining mashhur ayollaridandir. U ham shoira, ham mohir xonanda edi.

— Keyingi vaqtlarda turkiy tilda go‘zal she’rlar yozilmoqda, xususan, yosh shoirlarning tabiat tasviri haqidagi asarlari meni hayratga soldi. Eshit, naqadar nafis, naqadar chuqur va badiiy she’rlar yozadilar.

Amir shu so‘zlarni aytib, she’rni Dilshodga berdi. U she’r o‘qishda saroydagi joriyalar ichida shuhrat qozongan edi. Dilshod o‘rnidan turib she’rni o‘qidi:

Yana yashil to‘niga burkandi keksa olam,
Yashil purlarni emdi yoshlikning shoxlari ham,
Bahor faslida gullar husniga boqqan sari,
Chehrasiga rang olar undan har yosh-u qari.
Qayta boshdan qushchalar chaqchaqlashib yuradi,
Yangi ishq muhabbat la chamanlar qulf uradi.
Navnihol novda go‘zal yoqut gullar ochadi,
Tong yeli koinotga atr-u durlar sochadi.
Qirg‘ovulning patlari rayhonlarga berar rang,
Shu faslda bulbulning navosini eshitsang!
Bulbulni mast aylagan gullarning chehrasidir,
Nola-chi? Kuzni ko‘rgan kakliklarning sasidir.
Dilshod she’rni o‘qib bo‘lgach, yodlash uchun olib qoldi.

Qatiba esa:

— Naqadar nafis va o‘ynoqi she’r! — dedi-da, yonidan bir varaq qog‘oz oldi:

— Menda yanada teranroq mazmunli bir she’r bor, — dedi va she’rni Dilshodga uzatdi.

Dilshod Amirga murojaat qilib:

— Amir hazratlari, o‘qishimga ijozat beradilarmi?— deb so‘radi.

— O‘qi, mening qayg‘ularimni faqat she’r va musiqa yo‘qota oladi.

Dilshod yana o‘rnidan turib she’rni o‘qidi:
Faqirman, baxtiyorman, o‘ylamangkim, qora baxtim bor,
Muhabbat mulkini sultoniman, o‘z toj-u taxtim bor.
Jahonning mol-u mulkidan yumibdirman ko‘zim yaksar,

Faqirman, bahr olur she'rim bog'idan qancha Hotamlar,
Musaffo xotirim, daryo misol fikrim-la bir rangman,
Erurman bahri bepoyon, muhitim-la hamohangman.
Na dardim! Bebaho gavhar erur har bayt, har fardim,
G'azalxon bulbulam men bog'chadan yuz turli gul terdim.
Olar sarmoya shoirlar tuganmas so'z xazinamdan,
Falakdurman, tushar bir kun quyosh olamga siynamdan.
Dengizlar jo bo'lar siynamda so'nmas bir talotum bor,
Menim o'z san'atim, o'z davlatim, o'z koinotim bor.

Amir fikrini bir yerga to'plab, Dilshodning og'ziga tikildi. U she'r o'qilib tugaganidan so'ng, she'rdan bir misrani takrorlab: "Muhabbat mulkining sultoniman, o'z toj-u taxtim bor", dedi va "kimning she'ri ekan?" deya Qatibaga murojaat qildi. Qatiba jim qoldi, javob bermadi, uyaldi, qizarib boshini egdi va tizzasida turgan qo'llariga qaray boshladi. Amir Inonj she'rdan zavqlandi. Chunki yerli shoirlar orasida in'om-ehsonlarni nazar-pisand qilmaydigan biror odam bor bo'lsa, u ham yosh shoir Nizomiy edi. Shuning uchun Amir Qatibaning sochlarini silab turib so'radi:

— Go'zal qizim, bu kimning she'ri?

Qatiba vahima bilan Amirga boqib so'radi:

— She'r egasini aytsam, jahlingiz chiqmaydimi?

Amir taajjublanib so'radi:

— Ajabo, sen meni shu qadar nodon deb o'ylaysanmi?

— Yo'q! Ammo mening shoir bilan tanishligim sizga xush kelmasmikin deb o'ylayman.

— Qizim, mamlakatimning shoir va yozuvchilari bilan tanish ekanidan g'oyatda xursandman. Bu mening ezgu orzularimga mos tushadi.

Qatiba Amirdan bu so'zlarni eshitganidan so'ng:

— Bu Nizomiyning she'ri,— dedi. — Lekin avvalgi she'rni kim yozganini bilolmadim. Otam uni menga aytolmaydilarmi?

— Avvalgi she'r ham Nizomiyniki. Men qizimni qutlayman. Sening shoir bilan tanishganliging bir dushman ustidan qozonilgan g'alaba singari muhim ahamiyatga egadir. Bu aloqani mustahkamlashingni istayman.

Jim o'tirgan Sofiya xonim suhbat shu yerga yetgach, boshini ko'tarib jahl bilan Amirga boqib dedi:

— O'tinib so'rayman sizdan, qizimga bu xil maslahatlarni bermang. Hech vaqt qizimning ishq-muhabbat jinnilariga qo'shilib, she'rbozlik qilishiga yo'l qo'ymayman

— Siyosat shuni talab etadi, — dedi Amir nasihatomuz.

— Nomusni siyosatga almashtirish yaxshi emas.

— Oilaning baxt-saodati shunga bog'liq.

— Baxtni benomuslik ustida ko'rishning o'zi ham badbaxtlikdir. Sizning chirik fikrlaringiz oilangizda yangi bir baxtsizlikka sabab bo'ladi. Xalifaning nevarasini o'rmonlarda she'r to'qib yurganlarga qo'shilishiga yo'l qo'ygan odam nomus va sharafning qadrini qaydan bilsin?! Saropardalar ichida o'tirib iffatini saqlamagan bir qizni qaysi bir kibor oila o'z qasriga kiritadi?

Amir Sofiya xotunning so'zlariga xaxolab kuldi:

— Sodda xotin, sen nomus so'zini tamomila boshqa ma'noda ishlatmoqdasan. Nomus hech qachon xotinlar shaxsigagina bog'liq bo'lgan emas. Nomus va kiborlik hech qachon saropardalarda tug'ilmagan. Asl nomus siyosat maydonida vujudga keladi. Siyosatni yutqizganlar nomus bilan birga, butun borlig'ini ham yo'qotgan bo'ladi. Hozir o'ynalayotgan qimorning bir tomonida nomus bo'lsa, ikkinchi tomonida g'alaba turadi. Nomus g'alabaga bog'liq. G'alabani yutqizgan vaqtda nomusni ham yutqizasan. Xotinim bilishi kerakki, dunyoda benomuslik degan so'z yo'q. Hayotimizning qaysi sohasida mag'lubiyatga uchralsa, ana shu benomuslikdir.

Mag'lub bo'lganlarning saropardada o'tirgan, xalqqa ko'rinmagan va zamonaning ofatijoni hisoblangan go'zal qizlari yashirin bir xazina emas, aksincha, xalqqa ko'rinishga yuragi dov bermagan razillar ekanini bilmog'ing lozim. Mening go'zal rafiqam shuni ham bilib qo'ysinlar, g'alabaning quyoshdan yuz barobar ortiq bo'lgan nurlari shu qadar ko'z qamashtiruvchidirki, g'oliblar xonadonida bo'lgan benomuslikni hech kimsa ko'ra olmaydi. Endi mening fikrimni tushundingizmi?

Sofiya boshini ko'tarib:

— Ha, tushundim, — dedi,— nomusning nimadan iborat ekanligini bilib oldim.

Amir Dilshodni yoniga chaqirib, uning sochini silab:

Sen ham mening oilamni bir qahramon bilan boshlagan muhabbating bilan baxtiyor etishing kerak, — dedi. — Faxriddin aqlli, kibor va yengilmas bir qahramon. Hozircha uni o'rgangin, sinagin. Baxt shunday narsaki, uni darrov sinab bo'lmaydi. Muhabbat bamisoli mevali daraxtning kurtagiga o'xshaydi, gullashi va meva holiga kirib yetilishi lozim. Buni qizim Qatibaga ham, senga ham ta'kidlayman. Tanishmoq — erga tegmoq emas, tanishmoq — bir-birini sinash-o'rganish demakdir.

"BOG'I ERAM"

Bugun Ozarbayjonning mustaqilligi sharafiga berilayotgan ziyofat "Bog'i Eram"da tuzilgan edi. Bu ziyofatga mustaqillikka ishonganlar ham, ishonmaganlar ham da'vat etilgan edilar.

"Taqdirimizni o'z qo'limizga oldik!" — deb sevinayotganlar bilan bir qatorda "Amir saltanatini mustahkamlash uchun qilinayotgan bu mojaro unchalik uzoqqa bormas!" deguvchilar ham bor edi. Ziyofatga kelganlar hovuz atrofidagi qizlarning haykallarini, ularning siynalaridan otilib chiqayotgan fontanlarni, Ozarbayjonning hamma yog'idan keltirilgan joriyalarni, ularning tovus qanotidan ham go'zalroq liboslarini tomosha qilayotganlarida, Nizomiy bilan Faxriddin qalampirmunchoq guli xiyobonini sayr qilib suhbatlashmoqda edilar.

Nizomiy Faxriddinning shubhalarini tarqatish uchun uni bir tomonga tortib ohistagina dedi:

— Bu ziyofat va bu mustaqillik dabdabalarining hammasi bir lo'ttibozlik va bir siyosiy ko'zbo'yamachilikdangina iborat. Ozarbayjondan arablarning haydalishi ham ana shu ko'zbo'yamachilikning bir ko'rinishidir. Xalifa tomonidan Ganjaga yuborilgan xatibning surgun qilinishi ham uydirma gap. Xatibga yo'l yarog'ini berib, Ka'baga ziyoratga jo'natdilar.

Muhokim ibn Dovudning surgun etilishi ham saroydagi fitnalar oqibatidir. Hozirgi kunlarda Amirning o'ynayotgan bu o'yini o'z mundarijasi bilan shu kunlar uchun qulaydir, chunki xalqni Shirvon

shohligiga qo'shilish fikridan faqat shu yo'l bilangina chalg'itish mumkin. Bu o'yin avom xalq uchun naqadar ishontirarli bo'lmasin, baribir juda uquvsizlik bilan yuzaga chiqarilgan bir mojarodir, chunki Ozarbayjon mustaqilligini ozarbayjon xalqi orasida hayotga tatbiq etish lozim. Amir Inonj bu mojaro bilan ham aldaydi, hamda aldanadi. Bunda bizning yutug'imiz shu bo'ladiki, biz Mahsatiy xonimni Ganjaga qaytarib keltirishga muvaffaq bo'lamiz.

Amirning vaziri To'xtamish ziyofatga kelganlarni nazorat qilardi. Uning topshirig'i bilan tayinlangan maxsus kishilar mehmonlar orasiga kirishar va ularning fikrlarini o'rganishardi.

To'xtamish Nizomiy va Faxriddinning hech kimga qo'shilmasdan uzoq bir xiyobonda yurganlarini ko'rgan zamon, darhol Husomiddinni chaqirib topshiriq berdi:

— Aziz mehmonlarga hamroh bo'l. Ularni bog'da aylantir.

Husomiddin Nizomiy bilan Faxriddinga sezdirmaslik uchun darhol qalampirmunchoq gullardan terib, guldasta yasay boshladi. U Nizomiyga yaqinlasharkan, guldastani uzatib dedi:

— Yosh shoirning qalampirmunchoq guliga bo'lgan havasini eshitganim uchun shu guldastani terib, taqdim etishni istadim.

— Tashakkur aytaman, — dedi Nizomiy, — men qalampirmunchoq gulini sevaman, qarisam ham bu ishqim qarimaydi. Chunki qalampirmunchoq gulidan hamisha yoshlik hidi kelib turadi.

Husomiddin ularga hamroh bo'ldi. Lekin hech narsa bilolmadi. Nizomiy uning harakatini sezib, suhbatning mavzusini boshqa tomonga burdi. Ziyofatda Eron shoiri Kamoliddin ham bor edi. U bir she'rida Amirning adolati va saxovatini madh etgan edi. Ziyofatdagilarning hammasi uning atrofiga yig'ilgan, Kamoliddin o'z she'rini tugatgandan so'ng, Amir Nizomiyga murojaat qilib dedi:

— Men yosh shoirimizning she'rlarini boshqalarning she'laridan afzal ko'raman.

Nizomiy tashakkur bildirib dedi:

— Bunday katta ziyofatda o'qishga munosib she'rim yo'q edi. Xususan, keksa va ulug' shoirlar ishtirok etgan majlisda bizning she'r o'qishimiz gustoxlik bo'lar...

Qatiba va Dilshod derazaga tutilgan to'r parda orqasida o'tirib Nizomiyni eshitishni istardilar. Lekin Qatiba Nizomiyning shun-

day bir ziyofatda she'r o'qishiga sira ishonmas edi. Ziyofatdagilar esa Nizomiyga murojaat qilib:

— Iltnios qilamiz! Biror narsa o'qing, — deb takror-takror so'rashar edi.

Faxriddin ham Nizomiyning qulog'iga shivirlab:

— Mening yuz-xotirimni qilib bir she'r o'qib berishing kerak, — dedi. — Sukut qilishingni qo'rqoqlik yoki mag'lubiyatga yo'ymasinlar.

Amirning o'zi ham Nizomiyning she'r o'qishdan bo'yin tovlayotganini ko'rib:

— Men shoir emasman, lekin bunday bir go'zal bahorni ko'rgan mahalda har qanday odamning shoir bo'lib ketgisi keladi. Iltimos qilaman, ziyofatimizga fayz bag'ishla. Nizomiy o'rnidan turib hozirgi holatga doir bir she'r o'qidi:

Men yashar yurtimda aslo qadr etilmas ma'rifat,
Ilm-u urfon ahlining zindonidur bu mamlakat.
Bir mahallar rad etilmish sahnadan arbobi hol,
Bahr oluvchi yo'q ijodimdan, hama der "ket, yo'qol!"
Ketdi butkul ahli olamdan vafo, insof-u or,
Past-razillarning kuni tug'mish, yasharlar baxtiyor.
Mamlakat g'amxonadirkim, qolmagan hamdardlar,
Hukmrondir har tomonda bir guruh nomardlar.
Muhtaramlar beqadr, beqadrlardur muhtaram,
Ehtiros birlanmi yozsin, qonli xoqonni qalam.
Gul emas, yerlarda qondur bul biyobonda chaman,
O'g'li o'lgan bir xotin sochin silaydi yosuman.
Bulbuli faryodi ishqidan emasdur, noladir,
Qonga to'lgan siynalardir, cho'lda dema loladir.
Ming falokat bor yo'lida har muqaddas niyatin,
Kulmadi ruxsori bir on erkni — hurriyatin.

Nizomiyning she'ridan olingan taassurot ziyofatda kutilmagan bir vaziyat tug'dirdi. Amirning idora usuliga qarshi bir dushmandek hujum qilgan shoir o'z qudratini va botirligini ziyofatda bo'lganlarning hammasiga namoyish qildi. Nihoyat, Amir sir boy bermasdan so'z qildi:

— Shoirning tili o‘z xalqi irodasini ifodalaydi. U she’rida mamlakat va xalqning naqadar og‘ir ahvol kechirayotganini tasvir qildi. O‘zim ham bu ziyofatni shoir tomonidan ko‘rsatilgan ahvollarni bartaraf qilish uchun tashkil etganman. Hamma nuqson shundaki, hozirga qadar xalq o‘z mamlakatini o‘zi idora qila olmay keldi. Xalqning taqdiri boshqalarning qo‘lida edi. Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, yana Ozarbayjonning go‘zal tabiatlaridan bahra olamiz deb o‘ylayman. O‘shandagina bog‘larimizning bulbullari xalqimizning motam marsiyasini emas, o‘z muhabbatnomasini tarannum qiladi.

Qatiba ham Nizomiyning keskin she’rini tinglaganidan so‘ngra, Dilshodning qulog‘iga sekingina:

— U qahramon, qo‘rqmas va dovyurak bir yigit, — dedi. — Lekin taassuflar bo‘lsinki, u, otamning do‘sti emas.

Dilshod ham Qatibaning qulog‘iga:

— U qahramon bo‘lmasa, Ganja qahramoni u bilan yaqin do‘st bo‘lmagan bo‘lardi. Faqat shuni aytish kerakki, u otangizning dushmani emas. Uni dushman deyish uchun biror asos bo‘lishi kerak, axir, — deb shivirladi.

Qatiba javob berdi:

— Mening qo‘limdagi asos shundan iboratki, bunaqangi odamlar mening otamga o‘xshash kishilar bilan do‘st bo‘la olmaydilar.

Abulullonning joriyasi Sabo xonim Qatibaning Nizomiy haqidagi so‘zlarini eshitgach, o‘zicha o‘yladi: “Men bu yetim bolani buyuk bir shoir bo‘lib ketishini, uni Qatiba singari oliy nasab xonadon qizlari sevib qolishlarini bilganimda edi, allaqachon qo‘lga olgan, undan foydalangan bo‘lardim. Hali ham kech emas. Modomiki, Qatiba uni sevarkan, mendan uddaburonroq bir vositachi topolmaydi”.

Sabo xonim shu gaplarni xayolidan kechirgach, Qatibaga savol berdi:

— Bu shoir o‘qigan she’r sizga yoqdimi?

Qatiba bu savolni eshitgach, Sabo xonimning yuziga shubha bilan boqib:

— Bu savoldan maqsading nima? She’rning menga yoqib-yoqmaganining senga nima daxli bor? — deb so‘radi.

Sabo xonim o‘zini yo‘qotmay:

— Shunchaki bir so‘radim-da. Men shoirni ko‘pdan beri taniyman, — dedi.

— Qayerdan taniysan?

— Bu yetimchalik vaqtlarida Abululloning uyiga kelib-ketib yurardi. Lekin bir hodisa bo‘lib, u yerdan oyog‘ini tortib ketdi.

Qatiba qiziqib qolib darhol savol berdi:

— Qanday hodisa?

— Abulullo bir qizini Xoqoniyga berganidan keyin kenja qizi Mohtob xonimni mana shu shoirga bermoqchi bo‘ldi. Shoir bu taklifni qabul qilmagani uchun oralari buzilib qoldi.

Shundan so‘ng Qatiba:

— Qabul qilmagani yaxshi bo‘libdi, Mohtob xonim qayerning qizi ekanki, shundan bir bebaho odamga ega bo‘la olsin, — dedi.

Sabo xonim javobida:

— Men ham shunday demoqchi edim, — dedi. — Men bunga sira rozi emasdim. Bunday odamning bitta to‘nini yuzta Mohtob xonimga alishmayman. Xojam shoirga qarshi noo‘rin xatti-harakatda bo‘lganiga qaramay, u yigit bilan aloqamni uzmadim. Hatto, uning uylanishiga ham yordam beraman. Mayli, buning uchun xojam meni jazolasa, jazolay qolsin.

Sabo xonimning bu so‘zlaridan Qatibaning ko‘nglida shirin umidlar paydo bo‘ldi, u Sabo xonimning vositasi bilan Nizomiyni qo‘lga olib, maqsadga erishmoq orzulariga tushdi. U Sabo xonimga yaqinlashmoq maqsadida bir chora o‘ylab, unga dedi:

— Modomiki, sen bu sharafli inson bilan tanishlikni davom ettirmoqchi ekansan, xojangning jazo berishi haqida sira o‘ylama, agarda mening yonimda xizmat qilishga xohishing bo‘lsa, men ertagayoq seni Abulullo oilasidan chaqirib o‘z xizmatimga olaman.

Sabo xonim kelgusida Qatibadan ko‘p manfaatdor bo‘lishini anglab, unga yolvordi:

— Boshim go‘rga kirguncha xonimga sadoqat bilan xizmat qilaman. Meni o‘sha oiladan qutqarilishim — vijdon azobidan qutqarilishim demakdir, chunki hech qachon bu muhtaram shoirni Mohtob xonimning ishqiga rozi qila olmayman, ular bo‘lsa, mendan shuni talab qiladilar.

Qatiba Sabo xonimning oxirgi so‘zlaridan cho‘chib so‘radi:

— Hali ham ular bu muhtaram shoirning ilinjidami?

— Iltimos qilaman, buni hech kim bilmasin, ular meni o‘ldirishadi. Ular o‘z noshud qizlarini bamisoli achchiq doridek bu sog‘lom yigitning bo‘g‘ziga quyishni istaydilar.

Qatiba yana:

— Hali men tirikman. Mohtob xonim kim bo‘libdiki, mening qo‘limdan o‘ljani yulqib olsin? Ertadan keyin sen mening xizmatimda bo‘lasan. Nima ish qilishimiz haqida keyin gaplashamiz, — dedi.

Suhbat shu yerda tugadi. Chunki Eram Bog‘ida berilayotgan ziyofat tugagan edi.

Dilshod Sabo xonimning Qatiba bilan boshlagan yaqinligidan norozi edi, chunki uni Ganjada bo‘lgan joriyalar orasida ig‘vogar va chaqimchiligini bir necha marta eshitgandi. Sabo xonim Qatiba bilan xayrlashib ketmoqchi bo‘lganida, Qatiba xonim ipak dastro‘molchaga tugilgan yuz dinor tillani uning qo‘liga tutqizdi.

Bog‘ bo‘shab qoldi. Amir keksa vazirning qo‘lidan tutib, bog‘da kezib yurgan vaqtida vazir Nizomiyning o‘qigan she’riga ishora qilib:

— Dushman, kuchli dushman, — dedi, — Qo‘rqmas dushman, aqlli dushman.

KENGASH

Amir Inonjning Ozarbayjon mustaqilligi to‘g‘risida chiqargan murojaatnomasini va bu mustaqillikning nimadan iborat ekanligini xalqqa tushuntirilishi uchun bir kengash chaqirilgan edi.

Kengashda bo‘lgan xilma-xil fikrlardan biri Faxriddinning Oron mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifdan iborat edi. U Amir Inonj tarafidan chiqarilgan murojaatnoma masalasiga to‘xtalib dedi:

— Bu murojaatnoma qanday maqsadda chiqarilgani bilan mening ishim yo‘q. Lekin bu kun mamlakatda mustaqillik e’lon etish fursati yetgan. Oron o‘lkasini kattaligi jihatidan Shirvon

shohligidan kichik deb bo'lmaydi. Shirvon shohligida kengayishga imkoni bo'lmasa, bizning bunga imkonimiz bor. Biz o'z chegaramizni Araks — Kura sohillarining narigi tomoniga ham o'tkaza olamiz. Shunday notinch bir zamonda fikrimizga monelik qilishi mumkin bo'lgan davlatlarning ham boshi qotib qolgan. Biz ertaning o'zidayoq Amir Inonjning ham qulog'idan burab bu yerdan chiqarib tashlay olamiz.

Faxriddin uzundan uzoq so'zladi, fikrlari kengashda qatnashgan avomlar va tor mulohazali odamlar tarafidan ma'qullandi. Ular bu mustaqillik munosabati bilan bir-birlarini qutladilar. Lekin bu qutlov va tabriklarga qaramay, Faxriddin o'rtaga tashlagan fikrlari haqida biror qaror chiqarishga taklif qiluvchi yo'q edi. Faxriddin noqulay ahvolda qoldi. Nihoyat u, kengash bo'layotgan xonani bir necha bor aylanib chiqqandan so'ng, Nizomiyga o'girilib so'radi:

— Ilyos, sen so'zlamaysanmi?

Nizomiy o'zini tuzatib, quralay ko'zlarini katta ochib, qalin qoshlarini chimirar ekan, Faxriddinning ko'ziga tikildi-da, bir lahza jim turganidan so'ng dedi:

— Men senga yuz martabalab aytganmanki, inson o'z shaxsiga oid bo'lgan masalalarda har qancha ehtiyotsiz bo'lsa bo'lsin, lekin umumiy masalalarning muhokamasida ehtiyotlik bilan harakat qilishi kerak. Sen taklif qilgan mustaqillik so'zi shunday bir so'zdirki, uni bir daqiqada e'lon qilish mumkin. Biroq amalga oshirish mumkin emas, chunki buning uchun uyushgan bir tashkilot o'n yillar mobaynida tayyorgarlik ko'rishi kerak. Avvalo mustaqillikni himoya qilish uchun mamlakatning dushmanlariga qarshi muntazam va kuchli bir qo'shin kerakdir. Yangi hukumat qurish uchun esa, tajribali siyosatdon davlat arboblari lozim. Faxriddin, o'zing yaxshi bilasanki, hijriyning 541-yillaridan boshlab Sharqni qayta taqsimlash borasida qonli janglar bo'lgan. Ana shu taqsimotda qatnashish uchun qulay fursat kelganda tayyorgarlik ko'rish kerak edi. Basharti Faxriddinlar xalifaning mavqeyidan tushirishni asosiy maqsad qilib olib mustaqillik e'lon qilmoqchi bo'lsalar, tamomila yanglishadilar. Xalifaning yo'qotgan obro'yini boshqalar qozonganlar. Sharqni qaytadan taqsimlash uchun kurashda besh kuchli hukumat qon to'kmoqda. Bu hukumatlar faqat Sharqni emas,

Sharqda mavjud bo'lgan xalifaning sha'n-shavkatini ham taqsim etmoqdalar. Bir tarafdan, sulton Mahmud bilan sulton Mas'ud Rey va Iroq ustida bo'g'ishmoqdalar. Misrda Fotimiylar hukumati ag'darilib, ular o'rniga dahshatli bir hukumat tashkil etgan Ayyubiylar Frot va Dajla daryolari sohillariga qadar bosib kelmoqdalar. Hozir Sharqning taqsimida ishtirok etish uchun urushayotgan besh hukumatning oltinchisi bo'lishga to'g'ri keladi. Bizning qo'limizda shunday bir imkoniyat bo'lsaydi, yolg'iz Oron o'lkasinigina emas, balki umuman, Shimoliy va Janubiy Ozarbayjonni mustaqil e'lon etar edik, Faxriddinning o'zi biladiki, men shoirman, siyosiy arbob emasman. Lekin masala xalqning taqdiri ustida borar ekan, men ham bir siyosiy arbob bo'lishning uddasidan chiqa olamanmi? Biz Faxriddin ko'rsatgan yo'l bilan borsak, fors va arab jahongirlarining o'tmishda va bundan keyin ham olib boradigan xatti-harakatlariga madad bergan bo'lamiz. Shunisi ham borki, mayda davlatlar tashkil etmoq — Ozarbayjonni parchalamoq va kelgusida birlashish haqidagi o'ylarimiz ro'yobga chiqishini yanada orqaroqqa surish demakdir. Bularsiz ham xalqlarimiz turli dinlar, mazhablar va tariqatlarga bo'linib ketganlar. Shuning kabi tarqoqlik yana davom etadigan bo'lsa, dushman har bir parchani bir boshdan bosib yeyishi mumkin. Tabiiydirki, biz ming yillardan beri yuz parchaga bo'linib ketgan mavjud inson qardoshligini qaytadan barpo etolmaymiz, chunki asrlarning tarixiy dahshatlari isonlarning bir-biri bilan uyusha oladigan vositalardan tamomila uzoqlashtirgandir. Balki kelgusining buyuk dohiylari inson va fikrlar birligi masalasini ro'yobga chiqara olarlar. Hozircha bizda unday qudrat, unday uyushqoqlik va tadbirkor tashkilotchilar yo'qdir. Shuning uchun bunday masalalarda o'zimizni ojiz his etsak ham, loaqal janubiy va shimoliy ozarbayjonliklarning birligi masalasini hal qilishga urinsak kifoya. Chunki bunga ularning qon-qardoshligi ham imkon beradi. Oramizda arab va eron madaniyati so'zini tez-tez takror qiluvchilar o'z millati, o'z xalqining qadimiy madaniyat tarixini unutgan kishilardir, Biz bu xil odamlarga yo ongsiz, yoki ajnabiylarga sotilgan odamlar deb qarashimiz kerak. Avvalo Hojib ibn Malikka boqib demoqchimanki, u o'z so'zida "biz arablar bilan qo'lni qo'lga berib ishlashimiz kerak" degandi. U bilishi kerakki, arablar

avvalda ham, hozir ham ozarbayjonliklarning, yanada ochiqroq aytsak, Midiya xalqi qurgan hokimiyatni qura olganlaricha yo'q! Men o'zim ham musulmonman, hatto, haqiqiy musulmonman, lekin shuni aytishim kerakki, arablar bizga faqat din olib keldilar, xolos, madaniyat olib kelganlari yo'q. Eron madaniyati masalasiga kelganda, ular ham hanuz Midiya madaniyati merosi bilan yashamoqdalar. Albatta, o'rtaga tashlangan ba'zi fikrlardagi ziddiyatlarning hammasiga javob berolmayman. Men faqat shuni aytishni istardimki, Shimoliy Ozarbayjon bilan Janubiy Ozarbayjonning birligi hal qilinmasdan, bu ikki mamlakatda ozodlikni orzu qilish to'g'ri bo'lmasa kerak. Demak, birinchi navbatda ozarbayjonliklarning ongiga o'rnashib qolgan turli tariqatlarni va bir-biriga zid bo'lgan aqidalarni yo'qotish kerak. Men shuni aniq ayta olamanki, Midiya davlatining yemirilish sabablarini axtaradigan bo'lsak, uni yana o'sha aqidalar va turli xurofiy tariqatlarni keltirib chiqargan ixtiloflardan topa olamiz. Avval eronliklar, so'ngra arablar ozarbayjon xalqining birligini buzmoq uchun har xil tariqatlar va dini qonunlar yaratdilar. Hozir ham shuning singari turli aqidalarga bog'liq bo'lgan munozaralar jiddiy bir tus olmoqda. Shuning uchun ham Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonni Axiy Farrux Zanjoniy maydonga tashlagan qardoshlik tariqati atrofiga tortishimiz kerak, chunki bu tariqat diniy bir tariqat emasdir, bunda birlik g'oyalari bordir. Shu yo'l bilan biz Janub va Shimolning qardoshligiga asos qo'ya bilamiz. Hozircha Amir Inonjning Shirvon shohligiga qarshi fikrlari borasida betaraf qolishim kerak, chunki bu masalalarning hammasini bir necha kunlik umri bor, xolos. So'zlarimning aksari qismi Faxriddinga oid edi, unga yana ta'kidlab aytamanki, ehtiyotkor bo'lish kerak, aks holda u juda oddiy bir masalada boshiga balo orttirib olishi mumkin. Bizga Oronda hukumat qurish kerak emas, bir karra bilish kerakki, katta davlatlar orasida paydo bo'lgan mayda davlatlar muayyan bir siyosat natijasida tuziladi.

Kengash Nizomiyning fikrlarini ma'qullasa ham, Faxriddin yana o'z fikrida qoldi. Nizomiy Amir Inonjning saroyi atrofiga maxfiy kuzatuvchilar qo'yishni va uni xorijiy davlatlar bilan aloqasini o'rganib borishni taklif etdi. Bu taklif bir og'izdan qabul qilindi. Bu vazifa Faxriddinga topshirildi.

RA'NO

Ilyos soy bo'yidagi majnuntol to'nkasida o'tirib suvga boqardi, chunki Xonaqoh qishlog'idan Ganjaga keluvchilar shu suvdan kechib o'tishlari kerak edi. Soyda suv u qadar ko'p emasdi. Lekin, Ilyosning nazarida, suv shu qadar jo'shar ediki, to'lqinlar burgut singari qanot qoqib bir-birini ta'qib etayotganga o'xshardi. Soy kamsuv va soqit bo'lishiga qaramay, o'sha paytlardagi jo'shqinligini hech qachon unutolmas edi, chunki u o'z sevgilisi Ra'noni shu suvning eng jo'shqin pallalarida ko'rgan va jo'shqin muhabbat bilan sevgan edi. Shuning uchun doim u soy labida o'tirar ekan, o'tmishni eslardi.

Shoir bir necha kunlar mobaynida Ra'noning ko'rishishga kelmaganini o'ylab suvga tikilardi. Xonaqoh qishlog'idan shaharga keluvchilar to'dalashib turib suvdan kechib o'tishni o'ylashardi, suvorilar ulovsiz qishloqilarning buyumlarini bag'rilariga bosib suvdan kechib o'tardilar. Suvga yiqilib shiltayi shalabbo bo'lganlarning ahvoliga kuluvchilar bo'lganidek, yuklarini olib o'tolmasdan o'ksinib yig'lovchilar ham yo'q emasdi. Ko'prik juda uzoqda edi, bozor esa, soyning ko'priksiz tomoniga yaqin. Shuning uchun ham qishloqilarning hammasi narsalarini kechki bozorda sotish uchun suvning sayoz yerlaridan kechib o'tishga shoshilardi.

O'tmish Ilyosning ko'zi oldida mana shunday gavdalandi.

Soydan suvorilar va ulovsizlarning hammasi kechib, sohilda yoshgina bir qiz qolgan edi, u o'z narsalarini suvdan olib o'tishning ilojini topolmay yig'lardi. Qizning bu ayanch ahvoli Ilyosga ta'sir qildi. U darhol soydan kechib o'tib qizga dedi:

— Yig'lama! Men narsalaringni suvdan o'tkazib berish uchun keldim.

Qiz ko'z yoshini artar ekan, Ilyosga:

— Sizga malol kelmasmikan? — dedi.

— Malol keladigan joyi yo'q. Suv kechib yurishni o'zim ham yaxshi ko'raman.

— Menimcha, unchalik emas, sizni bu ishga majbur qilayotgan narsa rahmdilligingiz bo'lsa kerak. Bilmadim, siz hammaga ham shunday marhamatlimikinsiz?

— Marhamatli bo'lish har kimga ham mansub, lekin ko'pgina kishilarda rahmdil qiladigan xislatlar bo'lmaydi.

Qiz Ilyosning so'zini tushunmadi, uning yuziga savol nazari bilan qarar ekan, Ilyos buni darrov payqadi, qishloq qiziga fikrini izohlab dedi:

— Kishilar kishilar bilan insonlarcha muomalada bo'lishlari kerak. Kishilar bir-birlarini sevishlari lozim. Busiz yashab bo'lmaydi. Kishilarga nisbatan mehribon bo'lganlar va kishilar mushkul ahvolga tushib qolganlarida ularga befarq qaray olmaganlar eng yaxshi va shafqatli odamlardir. Demak, shafqatni yaratgan narsa vijdon va insofdir. Kimda vijdon, insof va o'z jinsdoshiga nisbatan muhabbat bo'lsa, u marhamatli kishidir.

Suvdan kechib o'tisharkan, Ilyos shu so'zlarni gapirar edi. Soydan kechib o'tdilar. Qiz suvdan chiqib poyabzalini kiydi, ketishga tayyorlanib narsalarini olar ekan, Ilyosga o'girilib:

— Siz bu yerga tez-tez kelib turasizmi? — deb so'radi.

— Havo ochiq kunlarda har oqshom ana shu chamanzor va o'rmonlarda kezaman,— dedi Ilyos.

Qiz taajjublanib:

— Ajab, har kuni bu yerga kelish sizni charchatmaydimi?— deb so'raganida, Ilyos:

— Yo'q, go'zal qiz, charchatmaydi. Men bu yerga dam olish va hordiq chiqarish uchun kelar ekanman, nega charchayin, — dedi.

— Shaharda og'ir ish bilan shug'ullanasizmi?

— Og'ir ishda emasman, lekin og'ir ish odamni hech qachon charchatmaydi. Odamni boshqa narsalar charchatadi.

— Ular nima ekan, menga aytib berolmaysizmi?

— Nega endi aytib berolmas ekanman. Lekin sen shaharda yashamaganingdan keyin odamlarni charchatadigan narsalar haqida gapirganim bilan tushunmaysan. Kel, yukingni ko'taraylik. Bozorga kuzatib qo'yaman, bizning uy ham o'sha tomonda.

Ilyos so'zini tamomlagach, qizning narsalarini ko'tarib birgalikda yo'lga tushdi. Qiz yana Ilyosga savol bera boshladi:

— Siz shaharda odamlarni charchatadigan narsalar to'g'risida menga so'zlab berishni istamaysizmi?

— Nega istamay. Shahar hayoti insonni juda ham toliqtiradigan. Shaxsiy hayot uchun bo'lgan janjal-suronlar, kun kechirish uchun bo'ladigan to's-to'polonlar, aldoqchilarning shodligi, aldanganlarning ko'z yoshlari, haqini himoya qilmoqchi bo'lganlarning mag'lubiyati, zo'ravonlarning tantanalari, yanada alam qiladigani shuki, mazlumlar ustidan kuluvchilarning achchiq va dahshatli qiyofalari meni tamomila toliqtiradigan hodisalardandir. Shuning uchun ham bu yerlarga tez-tez kelib ko'zlarim, quloqlarim va fikrlarimga dam berishni, orom berishni istayman.

Yosh qiz bu so'zlarni tinglaganidan so'ng, Ilyosga murojaat qildi:

— O'tinaman, biroz damingizni oling, charchadingiz. Sizga o'xshash bunday og'ir yuklarni ko'tarishga odatlanmagan shahar yoshlariga qiyin. Biz qishloqlikmiz, qiyinchilikka o'rganganmiz.

Ilyos o'ylab borar ekan, boshini qimirlatib javob berdi:

— To'g'ri. Shaharga nisbatan qishloqdagi qiyinchiliklar og'ir, albatta. Bularning orasida katta farq bor, lekin shaharning yelkasidagi yuklar ham kam emas. Bu haqda suhbatni cho'zaversak, sen bozoringdan qolasan.

Qiz yana savol berdi:

— Siz ertaga ham shu yerda bo'lasizmi?

— Ha, har kuni bo'laman.

— Ertaga men ham kelaman.

— Kel, senga hamisha yordam berishga tayyorman yana.

— Mening otim Ra'no. Qishlog'imiz bu yerga juda yaqin. Xonaqoh qishlog'idanman. Sizning otingiz nima?

— Mening otim Ilyos.

Qiz qo'lini uzatib xayrlashayotgan onni eslar ekan, Ilyos seskanib ketdi, o'tmishning nash'ali, shirin xotiralaridan ayrildi. Yana suvga tikildi.

Narigi tomonda, uzoqlarda ham endi yo'lovchilar ko'rinmas edi.

Ilyos o'z-o'zicha yana ko'nglida: "U bugun ham kelmadi, — dedi, — ajabo, nima sababdan kelmadiykin? Xonaqoh qishlog'idan bu yergacha bo'lgan besh qadamgina yo'lni bosib kelish qiyin ekanmi? Keyingi uchrashgan kunlarda kasal emasdi-ku. Uning mendan uzoqlashib ketishining boshqa bir sababi bordir. Uni menga

ko'ngil qo'yishga majbur qilganim yo'q edi, aksincha, u va'dalashgan soatlarda mening kechikib kelishimdan nolir edi. Endi nima bo'ldiki, uch kundir men tomonga qiyo ham boqmaydi? Uning bu qadar beparvo qiz ekanligiga ishonolmayman. Har holda bu ishni tekshirishim lozim. Ota-onasi keksayib qolgan. Balki boshlariga biror musibat tushganmikan, nima uchun mening o'zim undan xabar olmayin? Balki qizning ota-onasi bizning tez-tez ko'rishishimizga monelik qilayotgandir, lekin bunga ham ishonolmayman, chunki ular Ra'no bilan ikkalamiz o'rtamizda paydo bo'lgan muhabbatdan xursand edilar, ular har vaqt meni ko'rganlarida: "Mana endi bizning o'g'limiz ham bor", deb suyunishardi. Lekin, endi nima bo'ldiki, Ra'no men bilan ko'rishishni istamay qoldi? Men uni beparvo deyishga haqqim yo'q, chunki o'zim ham beparvoman. Ular ko'makchisiz bir oila-ku. O'g'illari yo'q, ishga yaroqli biror oila a'zolari ham yo'q. Oilaning hamma og'irligi, uy va ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanish yolg'iz o'sha qizning zimmasida.

Ilyos Xonaqoh qishloqlik bir odamni topib Ahmad kishining oilasidan xabar olishni istadi. Shuning uchun u to'ppa-to'g'ri kurdlar qabristonining yoniga bordi. Xonaqoh qishlog'iga qatnovchilarni faqat shu yerdangina uchratish mumkinligini bilardi. Ilyos onasining qabri tepasida bir nafas o'tirdi. Qabr toshiga ko'zi tushgan hamon onasining o'lim oldida qilgan vasiyatlarini esladi. Go'yo onasi uni quchoqlab: "Seni sevmagan qiz dunyoning go'zali bo'lsa ham, unga uylanma, o'g'lim", deyayotganday bo'lardi.

Ilyos yig'ladi. Bir necha qatra ko'z yoshlari qabr toshiga tomdi. Qayg'u ichida o'rnidan turdi, qabristondan chiqib, to'g'ri Xonaqoh qishlog'iga yo'l oldi. U hanuz o'z kechmish xotiralari girdobida qolib vazmin qadam tashlab borar ekan, Ra'noga atab yozgan she'rlarini takrorlar edi.

Nadir bu g'amli boqish senda, sevgilim Ra'no,
Dudoqlaringda erur bir sukuti serma'no!
Nadin qadarlara g'arq bo'ldi chehra serxandang,
Xazonmi his etasan, ey toza gulim, mandan?!

Ilyos bu misralarni qayta-qayta o'qib borar ekan, birdan qizlarning sho'x kulgilarini eshitdi, bir seskandi-yu to'xtadi, boshi-

ni ko'tarib qaraganida, o'zini Xonaqoh qishlog'ining quyisidagi buloq boshida ko'rdi. Buloqdan ko'zalarda suv olib ketayotgan va sigir-buzoqlarini boqib kelayotgan xotin-qizlar Ilyosning yonidan tez-tez o'tib borardilar. Oqshom payti, ufqlar arazlagan qizning qarashidek g'amgin edi. Yo'lovchilarni tanib olish qiyin bo'lib qolgandi. Ilyos birpasgina tolga suyanib turganidan so'ng, o'z-o'ziga dedi: "Bu yerda turishimdan bir ma'no bormi? U meni ko'rishni xohlasa edi, kelib meni topardi. Mening bu yerga kelishimning nima zarurati bor?"

Ilyos shunday xayollar ichida tol daraxtidan ajralib, shahar tomonga o'girildi. Shu payt bir qiz sigir yetaklab o'tib borar edi. Uning qaddi-qomati, yurishi, ko'rinishi Ra'noga o'xshardi. Ilyos birdan to'xtadi va avvalgi fikridan qaytdi, qizga sinchiklab tikildi, boshidagi oq ipak ro'mol oqshom qorong'iligiga qaramay, bu qizning Ra'no ekanligidan darak berardi. Shuning uchun ham beixtiyor Ilyosning og'zidan:

— O'sha, Ra'no! O'zi! — degan so'z chiqdi.

Ilyos shu so'zlarni aytdi-yu, biroq uni chaqirishga botina olmadi. Lekin fursatni qo'ldan bermaslik kerak edi, qiz borgan sari uzoqlashar va oqshom qorong'iligida ko'zdan g'oyib bo'lib borardi. Ilyos qayta uning nomini atashga jur'at etolmadi va ohistagina chaqirdi:

— Senmisan?

Qiz darhol to'xtadi. Shu zumdayoq tovush kelgan tarafga qaradi va loqaydlik bilan javob berdi:

— Ha, menman! Nima ishing bor edi?

Bu ovozni Ilyos qulog'i bilangina emas, balki butun vujudi bilan eshitdi. Qiz turgan tomonga yurdi, unga yaqinlashdi, diqqat bilan tikildi. Tanidi, u Ra'no edi. Lekin bundan bir necha kun avval ko'rgani o'sha Ra'noga o'xshamasdi. Bo'yniga osilib, boshini ko'ksiga qo'yib nozlangan va qo'llaridan ushlagan o'sha avvalgi Ra'no emas edi. U xuddi notanish odam qarshisida turganday javob kutardi. Ikkisi ham bir necha daqiqa so'zsiz turishdi. Nihoyat, Ra'no sigirlarining ketib qolganini ko'rib shoshildi, Ilyosga savol berdi:

— Qani, ayt-chi, bu yerda sening nimang qolgan?

— Ra'no, bu yerda mening qalbim qolganini bilmaysanmi? Bunday savolning nima keragi bor?

— Men hech narsa bilmayman, bilishni ham istamayman.

— Sen meni shu kungacha bilolmadingmi, meni tushunolmadingmi?

— Erkaklarni sinayman degan qizlar, sinash paytida o'zlarining aldanganlarini bilmay qoladilar.

— Bunday gaplaringni qo'y. Menimcha, bunaqa gaplarni cho'zib o'tirishning vaqti o'tib ketgan. Avzoyingdan ko'rinib turibdi. Mensiz biror hodisa ro'y berdimi? Yoki biror so'z eshitdingmi, shundaymi?

Ra'no mensimagan tarzda:

— Odamlar eshitib bilgan narsalarini mening eshitishga haqqim yo'qmi?— dedi.

— Odamlarning bilgan, eshitgan so'zlari juda ko'p, ularga ishonaverish shart emas. Bizning ikkimizga taalluqli bo'lgan so'zlarni faqat mendangina eshit. Bizning kelajagimizga oid bo'lgan har bir masalani yolg'iz ikkimizgina hal eta olamiz. Bir necha kunlar mendan uzoqlashib yurganingning sababini endi tushundim.

— Senga yaqin kishilarning o'zlari bor haqiqatni menga aytib bergan bo'lsa nima deysan? Ishonishga haqqim bormi, yo'qmi?

— Ra'no, nega bunday o'ylaysan? Mening bu yurtda sendan boshqa kimim bor? Ajabo, mening kimligim sen bilan otangga ma'lum emasmidi? Men sening bu xil ikir-chikirlarga e'tibor berishingga ishonmas edim. Agar sen har kimlarning so'ziga ishonib, quloq solaversang, unda men yakka qolishga majbur bo'laman.

— Endi sen yakka emassan, sen Amirning saroyidagi ziyofatlar va aysh-u ishratlarda vaqtingni o'tkazyapsan-ku!

Ilyos so'zlarini tugata olmadi, chunki ular Ra'noning eshigiga yetib qolgan edilar, Ilyos qo'lini Ra'noga cho'zib:

— Unday bo'lsa, salomat bo'l! — dedi.

Ra'no ham uning qo'lidan ushlab:

— Sen ham salomat bo'l, — dedi, lekin uning qo'lini qo'yib yubormadi.

Ular bir-birlariga tikilib qolishdi. Ilyos uyga kirishni istamas edi, chunki Ra'noning ota-onasidan uyalardi.

Sigir eshik oldiga yetar-yetmas kelganini bolasiga ma'lum qilish uchun ma'rab yubordi. Ra'noning onasi sigirni olib kirib bog'lagani darhol uydan chiqdi-yu, Ra'no bilan Ilyosin bir-birlariga tikilib turganlarini ko'rdi. Xotin Ilyosni ko'rib taajjublandi, chunki Ilyosning birinchi martaba kechqurunlari Xonaqoh qishlog'iga kelishi edi.

Ilyos Ra'noning onasini ko'rib:

— Assalomu alaykum! — dedi. Ra'noning onasi:

— Vaalaykum assalom. Nega ko'chada turibsizlar, ichkariga kir, Ahmad-kishi ham seni ko'rmoqchi edi, — dedi.

Ilyos xayolchan holda asta-sekin qadam tashlab hovliga kirdi. Ra'no bo'lsa, darrov yengini shimarib sigir sog'ishga ketdi. Ilyos Ahmad kishining ko'rmoqchi bo'lganidan jiddiy bir gap borligini angladi.

Shubhasiz, Ahmad kishi ham qizi Ra'noning so'zlarini gapiradi. Ilyos ichkari kirganida, Ahmad kishi namoz o'qimoqda edi, shuning uchun Ilyos salom bermasdan tik turib, Ahmad kishining namozini tugashini kutdi. Ahmad kishi namozini o'qib bo'ldi. Ilyos salom berdi. Chol uning salomiga alik olib, yonidan joy ko'rsatib:

— O'g'lim, kel, o'tir, xush kelibsan, — dedi.

Ilyos ham ta'zim qilib, boshini quyi solib o'tirdi. Ahmad kishi xuddi muhim bir masala to'g'risida o'ylayotganday, tez-tez kaftlarini bir-biriga ishqalab, ora-sira soqolini va boshining tepasini silar, asabiylashmaslik uchun tez-tez "subhanalloh" kalimasini takrorlar edi. Nihoyat, Ilyosning yuziga qarab boshini qimirlatib so'z boshladi:

— O'g'lim Ilyos, men o'ylagan edimki, qarigan chog'imda birdan ikki baxtga sazovor bo'laman deb: sen ham kimsasiz, yolg'iz yigitsan, bizning ham o'g'limiz yo'q, ko'zimizning oq-u qorasi yolg'iz qizimiz bor edi, suyungan edik. Uyimiz yolg'iz qolmaydi, sen ham baxtli bo'larsan, deb o'ylagandik. Qarigan chog'imizda tinchgina qo'l-oyog'imizni uzatib ketarmiz, uyimizda chirog'imizni yoqib o'tiradiganlar bor-ku deb xotirjam edik. Ammo hamma orzularimiz puchga chiqdi. Falak biz o'ylagandek o'ylamadi, orzularimizning natijasi chappasiga ketdi. Sen bilan qarindosh

bo'lishdan ilgariroq baxtsizlikka uchradik. Qanday qilaylik, balki qismatimiz shudir, har holda oxiri baxayr bo'lmadi.

Ilyos Ahmad kishining so'zini oxirigacha tinglashga sabr qilolmadi, hayajon bilan so'radi:

— Men sizni bebaxt qilishga sabab bo'ladigan hech ish qilganim yo'q, balki siz asossiz biror so'z eshitgandirsiz. O'tinib so'rayman, masalani ochiqroq tushuntirnig.

Ahmad kishi Ilyosning bu so'zlaridan keyin qo'ynidan maktub chiqardi va dedi:

— Ol, o'qi, ko'r-chi, bu dalillarga ishonishga haqqim bormi?

Ilyos xatni olib o'qidi, xatga Amir Inonjning qizi Qatiba qo'l qo'ygan edi:

"Ahmad-kishi, bu xatni olganingdan so'ng bir hafta o'tgach, Xonaqoh qishlog'idan ko'chib ketishing kerak. Shu muddat ichida ko'chib ketmasang, seni ham, oilangni ham hibsga olib, badarg'a qildiraman. Qizingga yigitlar bilan uchrashish va xalqning axloqini buzishga ixtiyor berilmagan!

Qatiba".

Ilyos maktubni o'qib bo'lib, Ahmad kishiga qaytarib berdi. Lekin nima javob qilishni bilmadi. Hayajonli, titroq ovoz bilan shunday dedi:

— Amin bo'ling. Na men, na Ra'no axloqsiz emasmiz!

Ahmad kishi javob berdi:

— Bilaman, o'g'lim. Bunga shubha bo'lishi mumkin emas. Modomiki, sen Amirdek bir odamning xonadoni bilan bordi-keldi qiladigan bo'lib, uning qizi bilan xat olishib yurganingdan keyin, ikkinchi bir qizga ko'ngil qo'yish haqida fikr yuritishing kerak edi. Avvalo, bu bechora qizimning qalbini umrbod yaralading, ikkinchidan, meni qarigan chog'imda darbadar bo'lishimga sababchi bo'lding. Bir vayrona kulba, bir parcha yer, kichkinagina ro'zg'orim bor edi. Mana endi ikkitagina sigir bilan ikki ojizani yetaklab Alibek qishlog'iga ko'chishim kerak, balki u yerlarda o'zimga boshpana toparman!

Ahmad kishining bu so'zlaridan keyin, go'yo Ilyosning boshiga g'am tog'i ag'darilganday bo'ldi. U Ahmad kishiga savol berdi:

— Qatiba bu maktubni sizga kim orqali yuboribdi?

— O'zining eng yaqin odami orqali Abulullonning kanizagi Sabo xonim orqali.

— Sizni ishontiramanki, bu maktubdan Amir Inonjning qizi Qatibaning aslo xabari yo'q, buni Sabo xonimning o'zi to'qigan.

— Bunday bo'lishi mumkin emas! — dedi Ahmad kishi.

— Bo'lishi mumkin, chunki Abulullonning oilasi bilan mening aloqam buzilib qolgan, Abulullo Shirvon shohlar saroyiga ko'chganidan so'ng bizlar hammamiz undan yuz o'girdik. Ular bu ko'ngilsizliklarning sababini mendan ko'rishyapti, shuning uchun ham mening sha'nimga ig'vo, bo'htonlar to'qiyaptilar. Siz amin bo'lingki, Qatibaning bu maktubdan xabari yo'q. Bu uning qo'li bilan emas, balki Sabo xonimning o'z qo'li bilan yozilgan. Agar maktubni Qatibaning o'zi yozganida edi, u o'z navkarlaridan berib yuborar edi. Siz o'z uyingizda tinchgina yashayvering. Endi u zamonlar o'tib ketdi, Amirning bu xil ishlar bilan shug'ullanishga vaqti ham yo'q. U xalq bilan hisoblashishga majbur. Na ular va na men bir-birimiz bilan qarindosh bo'lishni o'ylagan emasmiz, men ularning dargohiga boshqa bir maqsad bilan borib yuribman. Balki buning sababini kelgusida bilib qolarsiz. Hozircha Amir o'z mavqeyini qo'ldan bermaslik uchun yerli xalqqa xushomad qila boshladi.

Ilyosning bu so'zlaridan so'ng Ahmad kishining ko'ngli biroz taskin topdi, xotinini chaqirib, bo'lgan voqealarni unga tushuntirdi, shundan so'ng har ikkisi ham xotirjam bo'lishdi. Lekin Ra'no ichkariga kirishga uyalar edi, Ahmad-kishi uni ham chaqirdi:

— Ra'no, bu yoqqa kel! Mehmonga hurmatsizlik qilma! — dedi.

Ra'no dasturxon ko'tarib kirdi va kechki ovqatga hozirlik ko'ra boshladi. Ilyosni ham kechki ovqatga olib qolishdi.

SABO XONIM

Qatiba Sabo xonimni Abulullonning xotini Jahon bonudan aynitib olish uchun ko'p ham vaqt sarflamadi, chunki busiz ham keksa shoirning oilasi bu fitnachi, janjalkash joriyadan qanday qilib qutulishning yo'lini axtarardi. Sabo xonimning fitnalari sababli Ganjada

yashovchi juda ko‘p mo‘tabar doiralarning oilalari Abulullonning oilasidan aloqalarini uzgan edilar.

Sabo xonimning fitnachiligi shu darajaga yetgan ediki, hatto, bir necha yigitlardan pul va hadyalar olib, Abulullonning kenja qizi Mohtob xonim bilan ularni tanishtirishni va’da qilgan edi.

Shuning uchun ham Jahon bonu Qatiba yuborgan uch ming dinor kumush pul evaziga Sabo xonimni unga topshirib qo‘ya qoldi. Sabo xonimning Qatibaga ko‘rsatgan birinchi xizmati Nizomiyning sevgilisi Ra’noning otasiga olib borib bergan maktubi bo‘ldi. Bu xizmati bilan u Qatibaning huzurida zo‘r e’tibor qozondi. Bu Qatibani uncha ishontirmadi, shu sababdan Qatiba bu ishni yaxshilab tekshirib, bilib kelish uchun har kuni joriyalaridan birini Nizomiy bilan Ra’no uchrashadigan yerlarga yuborar va ularning uchrashmayotganlaridan xabardor bo‘lib shodlanar edi.

Qatiba uchun Sabo xonimdan ko‘ra yaqinroq va hurmatga sazovorroq joriya yo‘q edi. Qatiba doim Sabo xonim bilan sayrga chiqar, u bilan dardlashar va birga yotib-turardi.

Kechalarning birida Sabo xonim Qatibaning muhabbat va ishq otashi haqidagi sarguzashtlarini tinglar ekan, dedi:

— Men muhtaram Qatiba xonim uchun o‘zimning har qanday orzularimdan voz kechishga tayyorman. Butun borlig‘imni xonimning yo‘liga qurbon qilishga hozirman. Men u buyuk va o‘jar shoirni Ra’nodek arzimas bir qizning muhabbatidan qutqarmoq uchun xonimning sochlarini kamand qilaman. Boshlagan ishimning natijasi ko‘rina boshladi. Nihoyat, Qatiba xonim shoirni o‘z qo‘lida asir ko‘rishga amin bo‘la oladi.

Qatiba hiylakor Saboning bu qadar shirin va’dalaridan shodlandi va o‘rnidan turib uni quchoqlab o‘pdi va bo‘ynidagi qimmatbaho durlarini Sabo xonimning bo‘yniga taqib qo‘ydi. Sabo xonim shodligidan ho‘ngir-ho‘ngir yig‘ladi va Qatibani duo qildi:

— Menda bu hadyalaring uchun arzigudek hech narsa yo‘q, Xudo seni balolardan saqlasin, salomat bo‘lsak, mendan ko‘pgina narsalarni o‘rganasan.

Qatiba Saboni g‘oyibdan kelgan bir ne’mat deb bilardi, chunki uning o‘zi ham mojarolarni yaxshi ko‘rar va janjalkash joriyalarga yoshligidan beri hurmat saqlardi.

Sabo xonim podshoh xonadonida yashashi va Faxriddindan qasos ola bilishi mumkinligini, Qatiba esa bu mojarolar yordamida Ra'noni mahv etib, yosh shoirga ega bo'lishni o'ylardi.

Sabo xonim ko'z yoshlarini artarkan:

— Men Dilshodning bu yerda katta mavqega ega bo'lishidan aslo rozi emasman, — deganida, Qatiba unga javoban:

— U haqda sira o'ylama! Uning saroyda qolishiga ishonma, otam uni ham, Susan xonimni ham xalifa uchun asrab yuribdi, — dedi.

— Ajabo, otang Dilshod Faxriddinga tekkanidan keyin xalifa hazratlariga nazr qiladimi?

Qatiba uni yana bir marta o'pdi-da, so'zini tushuntira boshladi:

— Otamning xalifaga yozgan maktubida Susan bilan Dilshodning nomlarini o'qigandim. Shuning uchun ham Dilshoding Faxriddinga tegolmasligiga butkul aminman.

Sabo xursand bo'lib:

— Shunday bo'lishi lozim. Qalbni yaralaganlarning o'z qalblari ham yaralanishi kerak, — dedi.

Qatiba so'radi:

— Ajabo, Faxriddin sening qalbingni yaralaganmidi?

— U mening yosh umrimni manguga zaharlagan. U ko'p yillardan beri meni sevardi. Mensiz dunyoda yashay olmasligini aytardi. Olamga yolg'iz men uchun kelganini takror-takror gapirar edi. U doimo ko'zlarimdan o'pgan paytlarida, yorug' dunyoni yolg'iz mening ko'zlarim bilan ko'rishini aytardi. Qora sochlarimni silagan vaqtida, shu sochlar menga kuch baxsh etadi deb qasamyod etardi. U meni ko'rgani kelgan vaqtlarida Abululloning ostonasini Ka'batulloning muqaddas ostonasidek o'pishga tayyor edi. Men ham uni sevardim. Men kun bo'yi uni o'ylardim va kechalari tushimda faqat o'shani ko'rardim. Shunday bo'lishi ham kerak, negaki, ishqimizning tarixi juda uzun edi. U meni o'z muhabbatiga ishontirgandi, shuning uchun men ham shoshilmasdim. Men Faxriddinni unchalik shoshiltirmasdim, chunki o'zim ham uning ishqiga ishongan edim. Uning soxta muhabbatiga ishonishimning sababi bor edi, chunki shunday bir qahramon, shunday qaddu qomati kelishgan go'zal bir yigit olamda kamdan kam uchraydi.

Men o'zimni dunyoning eng mashhur xotinlaridan biri deb bilardim va bu orzular qanotida parvoz qilardim. Kelgusida uning mashhur qahramon bo'lishiga hech kim shubha qilmas edi. Hatto, uning muhabbatini deb shu yerdagi o'zimga munosib chiroyli bir yigigni ham qo'ldan chiqardim. Faxriddin esa, arzimagan, omi bir joriyani mendan ortiq ko'rib, ishqimni poymol qildi. Mening orzu-umidlarim tugadi, endilikda birgina umidim — undan o'ch olishdir. Lekin bu ishda menga bir yordamchi kerak.

Qatiba biroz o'ylab turib, ma'yus bir ohangda dedi:

— Sening og'ir ahvolda qolganingni tushunaman. Seni faqat men tushuna olaman. Mening taqdirim ham senikiday bo'lishiga ko'zim yetib turibdi. Senga o'xshab men ham kelajakda o'zimga ko'makchi qidiradiganga o'xshayman.

Sabo xonim dedi:

— Tanimda jonim bor ekan, har qanday buyrug'ingni bajo keltirishga tayyorman. Agar sen birovdan o'ch olmoqchi bo'lsang, yo'lingda o'limga ham hozirman.

— Men ham seni Faxriddindan o'ch olishingga ko'maklashaman, menga ishon.

— Oh, makkor qiz! Faxriddinni sevganing uchun shoirni menga hadya qilgan ekansan-da?

— Shoirlik buyuk bir iste'dod, qahramonlik esa, mo'jizadir. Faxriddin ko'pdan beri mening qalbimga yo'l axtarardi. Endilikda mening qalbim uning muhabbati uchun ochiq.

Qatiba ishontirib dedi:

— Men Dilshodni Bag'dodga jo'natishga so'z beraman, Faxriddin bilan murosaga kelish bo'lsa, bu sening ishing. Buning uddasidan chiqolmayman, chunki Faxriddin bilan uchrashib so'zlashishning iloji yo'q. Men o'zimni rasvo qilib qo'yishim mumkin.

Sabo xonim Qatibaning bo'ynidan quchoqlab o'pdi:

— Sen faqat men bilan raqobat qiladigan Dilshodni yo'qotish chorasini buyningga ol. Keyingi bo'ladigan ishlarning men o'zim uddasidan chiqa olaman.

— Faxriddin bilan uchrashasanmi?

— Yo'q, u men bilan uchrashishga o'zi majbur bo'ladi.

— Qanday majbur qilasan?

— Sen ruxsat bersang, bu yog'i qiyin emas.

— Men qarshi emasman.

— Men Dilshod nomidan unga maktub yuboraman. U maktubda Sabo xonim bilan ko'rishishni tavsiya qilaman.

— Bu fikring ma'qul. Bu vosita bilan ko'rishishing mumkin, lekin uni ishqingga moyil qilolmaysan, chunki u Dilshodin qalbdan sevadi.

— Qalbdan sevishiga ishonaman. Dekin yurak aqlga hokim emas. Yurakni o'z ixtiyoriga qo'yib bo'lmaydi. Dilshod go'zal bo'lsa, men ham go'zalman, ayin vaqtda qalblar bilan o'ynash ham qo'limdan keladi.

— Menga xuddi shunday bir odam kerak edi. Men sen bilan bir umrga do'st tutinaman. Men qayerda bo'lmayin, sen ham men bilan bo'lmog'ing lozim.

Ular uzoq suhbatlashishdi. Sabo xonim qog'oz-qalam olib yozishga o'tirdi. Qatiba uxlab qoldi. U biroz uxlab turgandan so'ng, hali ham yozishda davom etayotgan Sabo xonimdan so'radi:

— Tavba, yozayotgan narsang shunchalik qiyinmi, bu qadar uzoq o'tirmasang?

— Yozish-ku oson, lekin o'ylab yozish juda qiyin. Bir pas sabr qilib turing, keyin maktubni o'qib beraman. Meni naqadar zukko va tadbirkor bir qiz ekanligimni ko'rasiz.

Sabo xonim so'zlarini tugatib, yana yozishda davom qildi, nihoyat, qalamini yerga qo'ydi-da, Qatibaga o'girilib dedi:

— Mana eshiting nimalar yozganimni.

"Bu maktub nomi Dilshod, o'zi noshod bo'lgan bir joriyadan. Ishq va muhabbati ma'lum bo'lmagan bir qahramonga yozilmoqda. Menga vafodor va sadoqatli bo'l deb o'rgatding-u, o'zing bunga amal qilmading. Men izhor qilib yanglishibman. Hijron dardidan bexabar kishilarga ko'ngil darvozasini ochish kerak emas ekan.

Muhabbat durlarini mening qalbimlan terib olib, o'zgalarning boshiga socha boshlading. Biz bir-birimizning visolimizni nigohimiz ko'zgusida ko'rar ekanmiz, sening qalbingni bilib olgan edim. Men bahor fasli lolalari oldida ishq jomini ichmoqchi edim, lekin piyolam to'lmasdanoq bahor o'tib ketdi. Men endi baland-parvoz so'zlarni eshitmaslikka urinaman, ular bir shamoldan o'tib

ketadi. Lekin u shamol qalbimda yongan cho'g'ni yanada lovillatadi. Qalbim poralandi. Aslo so'rama, qanoti singan qushga yana tosh otmoq qahramonlik emas. Men qalbimni senga ochib, muhabbatimni izhor qilib yanglishibman. Hijron dardidan bexabar kishilarga ko'ngil darvozasini ochish kerak emas ekan.

Agar ishq, shundan iborat bo'lsa, dunyoda ishq bilan yashash juda mushkul ekan. Agarda yor sen kabi toshbag'ir bo'lsa, u bilan yashab bo'ladimi?

Senga aytmoqchi bo'lgan asosiy so'zlarim va sening haqingda qiladigan shikoyatlarimni bu maktubda yozishga jur'at eta olmadim. Agar mening nima demoqchi bo'lganimni bilging kelsa, Sabo xonimni topib gaplash va deya olmaganlarimni undan so'ra.

Badbaxt Dilshod".

Sabo xonim maktubni o'qigandan so'ng, buklab cho'ntagiga soldi:

— Uchrashgan kunim unga nimalar haqida so'zlashimni o'ylab olishim kerak. Buni xonimga alohida gapirib beraman.

Ular hali yotishga ulgurganlari ham yo'q edi, haram og'asi Mufid eshikni barmoqlari bilan astagina chertib dedi:

— Xonimlar yotib uxlashlari kerak. Tun allamahal bo'lib qoldi.

XALIFANING MAKTUBI

Domodi muazzam!

Zamona hodisalari xalifayi ro'yi zamin, ya'ni bizning orzularga muvofiq hal bo'ldi. Xalifaning nufuziga qarshi isyon va g'alayon ko'targanlarning hammasi bir-birini qirib, mag'lub etdi. Natijada, ular xalifaning himoyasi ostiga o'tishga majbur bo'ldilar. Kunchiqar mamlakatlarida ro'y bergan ixtiloflar Alloh taoloning inoyati, xalifaning xohishi va farmoni bilan hal etildi.

Amir tarafidan yuborilgan to'rt maktubni oldim. Lekin bir-birini ta'qib etgan hodisalar domodi muazzamning maktubiga ijobiy javob yozishga imkon bermadi.

Bir hafta bundan avval Otabek Muhammad jangda Bahromshohni mag'lub etib, Hamadonga kirgan edi. U bugun xalifaning

oyoqlaridan o'pmoq uchun Dorussalomga[1] keldi. Bugun uning otabekligini va qardoshi Qizil Arslonning Tabriz hukumatiga nomzodligini, Amiri muazzamni esa, Oron o'lkasidagi hukmdorligini tasdiq etdim. Shirvon shohligi bilan qanday munosabatda bo'lishimiz haqida alohida maktub yuboraman. Shirvon shohligining dahlsizligi to'g'risida sulton To'g'rul va uning Otabegi Muhammaddan kafolat olingandir.

Yana bir bor qayd qilib o'tmoq lozimdirki, uzoq yillar davom etgan turli hodisalar natijasida Bag'dod xazinasi tamomila bo'shab qolgandir. Orondan Dorussalomning baytulmoliga[2] yuborilmagan to'rt yillik boj-u xirojlarni yubormog'i lozim. Mamlakatlarga yangidan tayin qilingan otabeklarga, lashkarboshilarga, sultonlarga va hokimlarga hadya qilish uchun oq tanlilarga mansub bo'lgan, ya'ni arab bo'lmagan kanizaklar kerak. Xususan, xos qullarga katta ehtiyoj bordir. Mumkin qadar go'zal kanizaklar va qullar yubor. Avvalgi maktublaringning birida "Amiralmo'minin[3] uchun saroyda Susan va Dilshod nomli ikki go'zal kanizak saqlamoqdaman" deb yozgan eding. Ularni mumkin qadar zudlik bilan jo'nat. Saroydagi kanizaklar keksayib qolganligi sababli xorijiy mamlakatlarning vakillari va elchilari ishtirok etadigan majlislarda xizmat qilishga yaroqsiz bo'lib qoldilar. Bag'dodda go'zal kanizaklar yo'q. Hatto, Fanxosning "Qiz va juvonlar jannati" deb atalgan maxsus xonasida ham xalifaga munosib qizlar va qullar topilmaydi. Avvalo va'da qilgan kanizaklaringni yuborishing kerak. Ularni bu yerda Fanxosning tarbiyaxonasida tayyorlab, so'ngra saroyga olish mumkindir.

Boqiy Allohning marhamati va xalifayi rui zaminning himoyasi domodi muazzamning haqida shomildir.

Dorussalom, xalifayi Amiralmo'minin Mustarshidbilloh!"

Amir Inonj maktubni olgan hamon shodligidan nima qilishini bilmay shoshib qoldi. Darhol vaziri To'xtamishni yoniga chaqirib, maktubni unga o'qib berdi. To'xtamish:

— Amirni muborakbod etaman. Bu xabar Xudovandi olamning buyuk marhamatidir, — dedi. — Lekin Amir bu maktubni hech

---

[1] **Dorussalom** — Bag'dodning nomi.

[2] **Baytulmol** — xazina demakdir.

[3] **Amiralmo'minin** — xalifalarga qo'yilgan laqab.

kimga ko'rsatmasligi va gapirmasligi kerak, chunki maktubning mazmuni Oron o'lkasining mustaqilligi masalasiga ko'lka tashlaydi.

Amir To'xtamishning so'zini ma'qullash bilan birga, maktubga qanday javob yozish haqida undan maslahat so'radi. To'xtamish bu ishga rizolik bermay dedi:

— Javob yozishni maslahat ko'rmayman, chunki hamma yo'llar begonalar qo'lidadir. Xalifaga yuboradigan maktubimiz ularning qo'llariga tushib qolishi mumkin. Unda hamma tadbirlarimiz aks natija beradi.

Amir To'xtamishning maslahatlariga ko'nmadi, unga e'tiroz bildirib dedi:

— Amiralmo'mininning maktubini javobsiz qoldirish u zotning sha'niga haqoratdir.

To'xtamish yana bu fikrga qo'shilmadi:

— Maktublariga javob yozishning paysalga solinishi xalifa uchun tahqir emasdir, chunki xalifaning o'zi ham Ozarbayjonning qanday vaziyatda ekanini biladi. Yana shunisi ham borki, xalifaga quruq maktubning o'zini yuborish ham ma'nosizdir. Xalifaning maktubda ko'rsatgan talablariga javob berish lozim. Mamlakat shunday mushkul vaziyatda qolgani holda xalifaga pul yuborish aqlsizlikdir. Ganjadan Araks daryosi sohillariga qadar bo'lgan yerning har bir qarichi begonalar qo'lida. Otabeklarning qo'shnilari mamlakatni ishg'ol qilganida va yo'llarda osoyishtalik boshlanganidan so'ng kanizaklarni ham, xazinani ham, maktublarni ham yubora olamiz. Maktubingiz ozarbayjonliklarning qo'liga tushsa, sizni Ozarbayjon mustaqilligiga qarshi xiyonatda va butun xalqni aldashda ayblab muttaham qilishlari mumkin. Ana shunda hayotingiz ham tahlika ostida qoladi. Xususan, xalq xalifaning nomini eshitishni ham istamagan bir vaqtda sizning xalifa bilan aloqada bo'lishingiz katta bir xavfga zamin tayyorlashi turgan gap. Hozir fursati emas. Xalifaning mavqeyini "Qur'on" va dinga asoslaganlar o'z-o'zlarini aldaydilar. Hozir mavqeni yolg'iz qo'shin va qilich vositasi bilan saqlamoq mumkin.

Amir To'xtamishning tadbirlariga qo'shilmadi. U xalifaning maktubini javobsiz qoldirishni Amiralmo'mininga qarshi hurmatsizlik deb o'yladi. Nihoyat, maktubni yozdirdi:

"Bugun Dorussalomdan xalifayi ro'yi zamin, Amiralmo'minin hazratlarining muborak maktublarini olib o'qib, ko'zlarimizga surtish sharafiga muyassar bo'ldik. Xudovandi olamga behad shukurlar bo'lsinki, Amiralmo'minin o'z navkarlarini faromush qilmabdilar. Uch yildirki, Dorussalom bilan aloqa uzilgan edi, lekin ruhan va qalban Amiralmo'minin hazratlarining qudrat va irodasi bilan mahkam bog'langan edik. Shimoliy Ozarbayjonning vaziyati g'oyatda mushkullashib ketdi. Xalq endi mahalliy hokimlarni tanishni istamaydi. Amiralmo'minin hazratlariga hammadan avval Shirvon shohligi bilan Oron saltanati orasida mavjud bo'lgan aloqalar haqida yozishni lozim ko'raman.

Shirvon shohligi Oron saltanatidagi xo'jasizlikdan foydalanib, bu o'lkani o'z mamlakatiga qo'shib olmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda Ganjaning obro'li kishilarini o'z tomonlariga ag'darib, katta hadyalar, liboslar, ehsonlar ulashdi, hatto, shoir Abulullo ham shu kunlarda xoqonning saroyida yashaydi. Amiralmo'mininning nochor navkarlari Oron bilan Shirvonning birlashish ishini kelajakda xalifaning mavqeyiga qarshi zararli bir hodisa deb hisoblab, bu intilishga qarshilik ko'rsatdi. Bu tashabbusimizga Orondagi ozarbayjon vatanparvarlari ham yordam berdilar.

Shimoliy Ozarbayjonda hukumatga qarshi jiddiy bir isyon harakati sezilmoqda. Yaqin orada hukumatni mamlakatdan haydamoq, arab namoyandalarini surgun qilmoq va boshqa shunga o'xshash fikrlar kengayib bormoqda edi. Biz bo'lsak, mustaqillik va'da qilib, bunday fikrlarni ularning xayolidan chiqardik. Agar Amiralmo'mininning navkarlari bu tashabbusida xalifaning muqaddas irodasiga qarshi biror sa'y-harakat sezgan bo'lsa, xalifa o'z marhamati bilan navkarlarini kechirsin. Hozir Shimoliy Ozarbayjonda xalqlar qardoshligi masalasi juda katta ko'lamda kengayib bormoqda. Xalq ziyolilari shoir Nizomiy boshliq Axiy Farrux Zanjoniyning qardoshlik aqidalarini xalq orasida tarqatmoqdalar. Ular bu bilan xilma-xil aqida va xilma-xil tariqatlarda bo'lgan xalqni yagona bir aqida atrofiga uyushtirishni o'ylaydilar. Bu juda xavfli masaladir.

Ozarbayjon xalqi din va hokimiyatga qarshi isyon qilishni Bobak zamonasida o'rganganlar. Bu borada Ozarbayjon xalqi eng

xavfli xalqdir. Bular so'nggi yillarda dinga, xurofotga, ulamolarga va ruhoniylarga hukumat ma'murlari deb qaray boshladilar. Ganja xatibiga qarshi zo'r isyon ko'tarilish xavfi bor edi. Uni badarg'a qilish bahonasi bilan Ka'ba ziyoratiga yubordim. Amiralmo'minin hazratlarining xotiri shariflari ranjisa ham, bir masalani yashira olmayman. Ozarbayjon aholisini tinchitish uchun "arablardan o'lkamizni tozalaymiz" deb bir necha arablarni, xo'jako'rsinga, Ozarbayjondan chiqarib yubordim, ularning biri o'z kotibim Muhokim ibn Dovud edi. U xalifayi ro'yi zaminning haqiga qarshi xiyonat qo'lini cho'zib, saroyda xalifa uchun tarbiya qilinayotgan Dilshod nomli qizga sevgi izhor etgan edi, shuning uchun ham unga jazo berib, so'ngra Ozarbayjondan haydab chiqardim. Bu tadbirlarimiz ham juda yaxshi natija berdi...

Baytulmoldan bo'lgan qarzlarimiz haqida shuni aytmoqchiman, moliyamiz masalasi juda og'ir bir ahvolda. Aholi juda beboshdir. Ba'zan qishloq va shaharlarda bo'lgan soliq yig'uvchilarni eng sodda qishloqilar tomonidan kaltaklab haydalgan hodisalar bo'ldi. Odamlarimiz bir necha oylar soliq yig'ishga chiqolmaydilar. Soliq yig'uvchilardan bir qanchasini kaltaklab, boshini yorib, ko'zini chiqarib qaytardilar.

Agar Amiralmo'minning tabarruk maktublarida ko'rsatganlaridek, yaqin fursatlarda ishlar yo'lga qo'yilib ketsa, soliqlarni bir necha oy ichida batamom yig'ib olib, baytulmoldan bo'lgan qarzlarni jo'nata olamiz.

Kanizaklar va qulbachchalar jo'natish borasida ham bir necha so'z aytmoqni istardim. Avvalo, bu yerda saroy uchun qizlarni yig'ish usuli soliq asosida qo'llanilar edi. U vaqtlar Amiralmo'minin hazratlariga munosib qizlarni ro'yxatga olib, otalariga juda og'ir soliqlar solar edik. Ular og'ir soliqlarni to'lay olmaganidan, qizlarini Amiralmo'min hazratlariga kaniz qilib berish sharafiga muyassar bo'lardilar. Lekin, endi nainki og'ir soliqlar, balki yengil soliqlarni ham undirish mushkul bo'lib qoldi.

Hozirning o'zida xalifaga munosib bo'lgan qirq qizning ro'yxati bor. Zamon biroz tinchiganidan so'ng ularni yig'ib Susan va Dilshod bilan birgalikda Amiralmo'min huzurlariga yuborilur. Hozircha Ozarbayjondan chetga qiz chiqarish juda ham tahlikali bir ishdir.

Xususan, Dilshodni shaharning eng mo'tabar kishilaridan Faxriddin sevadi. Men ham yurtning mo'tabar kishilarining maslahatini nazarga olib, unga va'da berganman. Amiralmo'minning himoyasi bilan yaqin fursatlarda boshqalar qatori Faxriddinni ham o'rtadan olib tashlab, Dilshodni huzuringizga yuborurman.

Amiralmo'mininning sodiq qullari Inonj".

Bu maktubning ustini muhrlab Amir Inonjning navkarlaridan Hojibga topshirdilar. Hojib kechasi hech kimga bildirmasdan Qoraboqqa, u yerdan Araks daryosidan kechib o'tib Bag'dodga jo'nashi lozim edi.

XALIFANING CHOPARI

Amir darvozasiga o'rnatilgan fonuslarning pilta chiroqlari hali yonib turardi. Fonuslar nuri shu qadar zaif ediki, hatto, yerga soqchilarning soyalarini tushirishga ham ojizlik qilardi. Bir necha qadam joygina g'ira-shira yorishib turardi, xolos. Xira chiroqlarning zaif shu'lalarini quchmoqchi bo'lgan rashkchi parvonalarning so'nggi to'dalari qo'nib to'kilar va o'z ishqlariga telbalarcha qurbon bo'lardilar.

Nayzasini kiftiga qo'ngan soqchi u yoqdan-bu yoqqa yurib turar va ba'zan turgan yerida nayzasiga suyanib mizg'ib ham olardi. Faxriddin o'z odamlari bilan Amirning soqchilariga sezdirmasdan saroy va saroy bog'chasini o'rab olgan edi. Faxriddinning o'zi bir necha odamlari bilan saroy bog'chasi eshigini nazorat ostiga olgan edi. Chunki kechalari saroy bilan qilinadigan aloqalar faqat bog' eshigi orqali bo'lardi. Negadir bugun kechasi Amir saroyidan birorta ham odam tashqariga chiqmadi.

Tong yorishmoqda edi. Ishvakor xotinlar kabi yuzining bir burchini ko'rsatgan oy ham moviy osmonda suzib yurardi, uning yog'dusi juda ham xira bo'lib, atrofida miltillab turgan mayda yulduzchalarning yorug'ligiga ham g'olib kelolmas edi.

Oy chiqishi bilanoq Mahmudali va Abubakr qishlog'ining itlari osmonga qarab uv tortishga kirishdilar. Amir saroyini qo'riqlayotgan soqchilar "tong otdi!" deb ketishga taraddud qilayotganlarida, saroy soqchilari ham itlar hurishini eshitar ekanlar, xotirjam bo'lib

zinalarda mizg'iy boshladilar. Faxriddin bog' eshigidan uzab ketmagandi. Birozdan so'ng Amirning bog'iga bog'lab qo'yilgan itlarning ham hurigan ovozlari eshitildi. Sal o'tmay bog' eshigi ochilib, eshikdan bir odam chiqib itga yaqinlashdi, it esa uni ko'rishi bilan hurishini bas qilib erkalana boshladi.

It jim bo'lishi bilan eshikdan yana bir odam chiqib, soy labiga tusha boshladi. Itni tinchitgan odam qaytib bog'ga kirdi-da, eshikni yopib oldi.

Faxriddin yonidagi sheriklari bilan bog'chadan chiqib soy tomonga ketgan odamni ta'qib etdi. Noma'lum odam soydan o'tish uchun ko'prikka yaqinlashmadi, u soyning labiga tusha solib oyoq kiyimlarini yechib soydan kechib o'tdi. Bu hol uni ta'qib qilayotganlarning shubhasini yanada oshirdi. Ular ham soydan kechib o'tib ikki tomonga bo'linib ketdilar: bir bo'lagi Musa tegirmonining ustidan o'tib uning yo'lini to'sib chiqish uchun yo'l oldilar, ikkinchi bo'lagi esa, uning ketidan tushdilar.

Noma'lum odamning suvdan o'tish uchun faqat bir yo'li bor edi. U Xonaqoh qishlog'i yo'lidagi qabristonning g'arb tomonidan kechib o'tishga majbur edi.

Faxriddinning odamlari Musa tegirmoni ustidan o'tib, noma'lum odamning yo'lini to'sdilar.

Noma'lum odam yaqinlashdi, unga sinchiklab tikildilar, u saroy a'yoniga o'xshamasdi. Har holda saroydan chiqqan kishini soqchilar to'xtatishi va yonverini tekshirishi kerak edi. Shayx Saloh maqbarasining yonidan o'tib borar ekan, uning boshiga sholcha tashlab, ovoznni chiqarmay, maqbaraning ichiga sudrab kirishdi. Uning orqasidan poylab kelayotganlar ham yetib keldilar, noma'lum odamni yechintirib, yonidagi hamma narsalarini olib yo'lga tushdilar.

Hojib yolg'iz ko'ylak-ishtonda Amirning saroyiga qaytib kelganida, hali tong yorishmagan edi. U bog' eshigiga yaqinlasha olmadi, chunki eshik oldiga bog'lab qo'yilgan qopog'on ko'ppak uni dabdala qilishi mumkin edi, u saroy darvozasiga yaqin borib mudrayotgan soqchini uyg'otdi:

— Tezroq meni ichkariga kirit, odamlar bu holda ko'rmasinlar! — dedi.

Soqchi uni boshdan-oyoq ko'zdan kechirdi. Ko'zlarini ishqalab, diqqat bilan tikildi-da, ozarbayjonchalab so'radi:

— Nima deysan, bu qanday ahvol?

Hojib soqchining arabcha bilmaganligidan qattiq tutaqib ketdi:

— Anal uryon, anal Hojib ibn Tohir! — dedi. Soqchi hech narsa tushunmadi, miq etmay baqrayganicha qarab turaverdi. Bu jimlik bir necha minut davom etdi, nihoyat, soqchi nimadir tushunganday, eshikni qoqib soqchi boshlig'ini chaqirdi, soqchi boshlig'i arab bo'lgani uchun Hojib bilan so'zlashib masalani tushundi va Hojibni ichkariga boshlab kirdi.

Amir hali o'rnidan turmagan edi, u kechagi sarxushlikning ta'siri bilan hamon noz uyquda yotar edi. Go'zal kanizaklar uning yotog'iga kirib har kungi vazifalarini boshlagan edilar. Zarifa bilan Humayra nomli ikki go'zal kanizakning biri Amirning o'ng tomonida, ikkinchisi esa, chap tomonida o'tirib, uning oyoqlarini uqalab, erkalar edilar.

Zarifa bilan Humayra vazifalarini tugatganidan so'ng, Soniha bilan Gulnor nomli kanizaklar Amir yotog'iga kirib unga hammom libosini kiydira boshladilar. Bu uzoqqa cho'zilmadi. Amir dahlizga chiqqanida, uni kutib turgan o'n sakkiz nafar go'zal, yosh kanizaklar uni o'rtaga olib cho'miltirishga olib ketdilar. O'n sakkiz kanizak Amirni bir soat cho'miltirishdi. Yana Soniha bilan Gulnor hammomga kirib, Amirning salla-choponlarini kiydirib, namoz o'qiydigan xonasiga olib bordilar. Amir namoz o'qishga boshlamoqchi bo'lganda, kanizaklar chiqib ketdilar. Ular ketganidan so'ng Hayot xotun nomli kampir ichkari kirib sholcha ustiga joynamoz yozdi. Amir bomdod namozini o'qiy boshladi.

Bomdod namozi yarim soatga cho'zildi, yarim soatdan so'ng Shayx Hodi Alqoriy qo'lida "Qur'on" bilan kirib kelib, Amirga qaratib "Yosin" surasini o'qidi, bir soatlardan so'ng Hayot xotun bilan Nabira xotun ichkariga kirib joynamozni yig'ib oldilar.

Dasturxonchilar kirib Amir o'tirgan ko'rpacha oldiga dasturxon yozdilar. Shu mahal qirq besh go'zal kanizak xonaga kirib kelishdi va anvoyi taomlar qo'yib dasturxon tuzadilar. Bularning ketidan sharob tashuvchilar qo'llarida og'zi zangori ipak matolar bilan

o‘ralgan shisha idishlarni ochib, katta may idishlarini to‘ldira boshladilar.

Amir dasturxonga qo‘l urmay o‘tirardi, u ba’zi mehmonlarni kutardi. Amirning vaziri To‘xtamish va lakarboshilardan Husomiddin ham kirishdi, ular o‘tirishi bilan Amir “bismilloh” deb dasturxonga qo‘l uzatdi, nonushta boshlandi. Sozandalar, ular ketidan raqqosalar xonaga kirib kelishdi, soqiylar kumush patnislarga terilgan zarrin piyolalari bilan katta may idishiga yaqinlashdilar. Soqiy piyolalarni to‘ldirayotganida, sozandalar ham ish boshlab yuborishdi. Amirning o‘nlab raqqosalari bir onda sapchib o‘rinlaridan turib, Amirga ta’zim qildilar-da, raks tusha boshladilar. Raqqosalarning ko‘rsatadigan nozik jilvalari Amirning qo‘lidagi piyola bilan hamohang bo‘lgani ham yo‘q ediki, xizmatchi ichkari kirib:

— Hojib! Hojib! — dedi.

Hamma narsa turgan yerida qolaverdi. Piyolalar, raqqosalar, soqiylar, ovqat tashuvchilar — hamma va hamma narsalar sukutga botgan edi. Faqat keksa vazir To‘xtamish xizmatchiga murojaat qilib:

— Bor, Hojibni bu yerga chaqir! — dedi.

Amir ham kanizaklarga:

— Dasturxonlarni yig‘ishtiring. Hammalaringiz chiqib ketinglar,— deb buyurdi.

Xona bo‘shadi. To‘xtamish Amirga yuzlanib, g‘amgin va nasihatomuz dedi:

— Bu hol biror hodisadan xoli emas. Men Amirga aytgan edimki, maktubga javob yozish maslahat emas deb, har safargidek bu safar ham mening so‘zlarimga quloq solmadingiz. Hozirgi vaziyatning qanchalik xavfli ekanini nazari e’tibordan ko‘chirmaslik kerak edi.

Hojib ichkari kirdi. U yarim yalang‘och edi. Ustiga bittagina abo yopinib olgandi, xolos.

— Bu qanday hodisa? — deb so‘radi Amir.

Hojib titroq ovoz bilan dedi:

— O‘zimni o‘ldirmaganlari uchun ming marta shukur qilaman. Hali shahar yaqinida kichik bir qishloq oyog‘idagi qabristondan

o‘tib, katta bir maqbaraga yaqinlashgan edim, to‘satdan kimlardir boshimga sholcha yopdilarda, maqbaraga ko‘tarib kirdilar.

Amir shoshilinch so‘radi:

— Maktubni olishmadimi?

— Shu ishlarning hammasi maktubni olish uchun bo‘lgan emasmikin?

To‘xtamish bosh qimirlatib o‘z-o‘ziga dedi:

— Butun mamlakat ko‘z-quloq bo‘lib bizni ta’qib etmoqda, biz esa, saroyda biqinib olib o‘ng-u tersini o‘ylamay ish ko‘rmoqdamiz.

Amir taassub bilan ojizona bir tarzda qo‘lini tizzasiga urib dedi:

— Zamonaning zaylini qarang. Bir vaqtlarda mening har bir harakatim Oron mamlakatida katta bir voqeadek har yerda va har kimsaga ta’sir qilardi, hozir bo‘lsa, besh-oltita betayin, noma’lum odamlar har kuni menga qarshi bir fitna qo‘zg‘atib turadilar.

To‘xtamish Amirga dalda berib:

— Bezovta bo‘lishga o‘rni yo‘q, hodisalarga qarshi hodisalar yaratish kerak. Bo‘lar ish bo‘lgan endi, — dedi.

Amir Hojibga savol berdi:

— Sen u odamlarni ovozidan taniy olasanmi?

— Ha, taniy olaman.

— Ular seni gapga solishdimi?

— Yo‘q, gapirgani qo‘yishmadi.

— U holda, ularning ovozini qayerdan eshitding?

— O‘zaro so‘zlashishdi.

— Nimalarni so‘zlashishdi?

— Arabcha so‘zlashishdi. Ba’zilari meni o‘ldirishni taklif qildi, ba’zi birlari esa bo‘lmaydi, buning nima gunohi bor? — deb monelik qilishdi.

— Bu ham bir nayrang bo‘lsa kerak! — dedi To‘xtamish.— Ganjadek yerda arablar kechalari boshlarini eshikdan ham tashqariga chiqara olmaydilar. Ularning shahar bo‘sag‘asida choparni tutib olishiga kim ishona olardi? Bu voqea avvaldan tayyorlangan. Mahalliy kishilarning ishi. Bu yerda arabcha so‘zlashadigan yuzlarcha oronliklar bor. Ular qanday tilda so‘zlashmasinlar, baribir ovozlaridan tanib olish mumkin. Shubhali odamlarni ro‘yxatga olib, ularni boshqa ish bahonasi bilan chaqirib gapirtirish kerak.

Ular so'zlagan vaqtda, Hojibni parda orqasiga yashirib qo'yish lozim.

Amir To'xtamishning fikriga qarshi achchiq bir tabassum bilan dedi:

— Shubhali kishilarni ro'yxatga olish va ularning shubhali kishilar ekanini aniqlash u qadar qiyin emas. Lekin bu bilan biz nima qila olamiz? Kimga kuchimiz yetadi? Balki Nizomiy bilan Faxriddinlar shubhali kishilardir. Hozirgi vaziyatimiz bilan nimaga qurbimiz yetadi?

— Bularni aniqlash hozir kerak bo'lmasa ham, kelgusi uchun lozim, chunki zamon doimo bir qabilda davom eta bermaydi. Bugun kuchimiz yetmasa, ertaga yetar. Hozircha tashqi dushmanlarimiz bilan murosa qilib turishimiz kerak. Lekin ichki dushmanlarni ozodlikda qoldirib bo'lmaydi. Saroydan tashqariga sirlarni olib chiqadiganlar bor. Bu ham bo'lsa, bizning o'z xatolarimizdan biridir. Chunki kanizaklarni Faxriddin va boshqa shunga o'xshash odamlar bilan munosabatda bo'lishiga biz o'zimiz imkon berganmiz.

Amir o'zini tuzatib:

— To'g'ri, — dedi va xoja Mufidni chaqirib farmon berdi: — Bundan so'ng Dilshodni Faxriddin bilan aloqada bo'lganini eshitib qolsam, seni xachirning dumiga bog'latib, Ganja ko'chalarida sudratib o'ldiraman. U bu yerdan jo'natilganiga qadar hech qayerga chiqarilmasin. Eshitdingmi? Uni hibsda saqlagin. Faqat o'z xonasida saqlanishi kerak. Ovqat-u kiyim-kechagiga ham e'tibor qil, uning eti bir misqol kamaysa, go'zalligida zarracha o'zgarish bo'lsa, sen javob berasan. U xalifaga tuhfa qilingan qizdir.

FAXRIDDIN VA SABO

Dilshodning hibsga olinish xabari hammadan ko'proq Sabo xonimni xursand qildi.

Faxriddin Dilshod nomidan Sabo xonimning qo'li bilan yozilgan soxta maktubni olganiga bir necha kun bo'ldi. Maktubda "Sabo xonimni ko'rib tafsilotini undan so'ra" deb yozilgani Faxrid-

dinni hayratga solgan edi. U Dilshodning boshiga tushgan baxtsiz hodisani aniqlaganidan so'ng, Sabo xonim bilan tezroq uchrashishni istardi. Shunga ko'ra, Sabo xonim Faxriddinga ko'rinmaslikka urinar, undagi ko'rishish ishtiyoqini orttirishga harakat qilar edi. Biroq Dilshod hibsga olingandan so'ng Faxriddin bilan uchrashishga qulay fursat kelganini payqadi va shu maqsad bilan hamma zeb-u ziynatini taqib, yasan-tusan bilan kechqurun saroydan chiqdi. Chinorlar soyasida kelayotgan Faxriddin saroy darvozasidan chiqqan Saboni ko'rib qoldi. Sabo xonim parvo qilmaganday yo'lida davom etdi.

Bir necha kunlardan beri Sabo xonimni ko'rishga urinib yurgan Faxriddin uni darhol tanidi. U Sabo xonimni uch-to'rt marta ko'rgan, hatto, uning sevgi mayillarini ham eshitgan edi. Shuning uchun ham u Sabo xonimning ketidan izma-iz yura boshladi. Ular uzundan-uzoq ko'chalardan o'tdilar. Faxriddin bugun juma oqshomi ekanini bilmas edi, shuning uchun ham Saboni shunchalik uzoq yo'llar bilan yurganiga e'tibor bermagandi. Nihoyat, ular kurdlar qabristoniga yetib bordilar. Sabo xonim Shayx Solih maqbarasiga kirib, ziyorat qilib "Qur'on" o'qiy boshladi. Shu mahal Faxriddin ham uning yonginasida turgan edi.

Ziyorat qilib bo'lganidan so'ng Faxriddin Sabo xonimga savol berdi:

— Sabo xonim, bu maqbarani ziyorat qilishga tez-tez kelib turasanmi?

Sabo xonim o'girilib taajjub bilan Faxriddinga qaradi, go'yo uni hozirgina ko'rib qolgandan:

— Faxriddin, sen ko'pdan beri shu yerdamiding? — deb so'radi.

— Sen "Qur'on" o'qishni boshlaganingda kelgan edim. "Qur'on"ni men uchun ham o'qidingmi?

— Men bu yerda sen bilan uchrashishni xohlamayman. Do'stlarning qabristonda uchrashishi baxtsizlik keltirishi mumkin.

— Men sening hamisha baxtiyor bo'lishingni istayman. Senga baxt kulib boqqanini ham eshitdim.

— Qanday baxt kulib boqqanini?

— Amirga kanizak bo'lish sharafiga muyassar bo'lgan bir qiz, o'zini baxtiyor hisoblamaydimi? Sendek bir go'zalni uyidan chiqib ketishiga Jahon bonu[1] qanday rozi bo'lganini aslo tasavvur qilolmayman.

— Tasavvur qila ololmasligingning sababi, Abululloning oilasida ro'y bergan voqealardan bexabar ekaningdadir.

— Qanday voqea ekan?

— Mohtob xonim bilan Nizomiyning uylanishi to'g'risidagi voqeani eshitmaganmisan?

— Eshitdim, Nizomiy Mohtob xonimga uylanmayman demabmidi?

— Shunday degan edi, lekin Abululloning oilasi Nizomiyning Mohtob xonimni sevmasligi sabablarini mendan ko'rishdi. Gumonlari to'g'ri edi, chunki men Nizomiyni oddiy va nodon bir qizga uylanishiga rozi bo'lolmasdim. Amir Inonj xalifaga go'zal kanizaklar hadya qilib yubormoqchi bo'lgani uchun ham meni Abululloning oilasidan juda qimmatga sotib oldilar. Bu bilan men baxtni qo'lga kiritdim: birinchidan, saroyda hayot kechirish sharafiga muyassar bo'ldim. Ikkinchidan, mendan go'zalroqni topmoqchi bo'lganlar endi o'ylab ko'rishsin.

Faxriddin uning nima demoqchi bo'lganini payqadi. Shuning uchun ko'nglini ovlamoq uchun dedi:

— Unday deb o'ylama, Sabo xonim. Sening go'zal va sevimli bir qiz ekaningni hech kim inkor etmaydi. Agar sen go'zal bo'lmasayding, buyuk shoir Abulullo o'z uyida saqlamagan bo'lardi.

Faxriddin u bilan boshqa maqsadda ko'rishmoqchi bo'lganidan, suhbatni sobiq sevgi haqida borishini istamadi. Sabo xonim bo'lsa, o'zini juda ehtiyotkorlik bilan tutar, Dilshod haqida bir kalima ham gapirmasdi. U bu to'g'rida birinchi bo'lib Faxriddinning so'zlashini kutar edi. Shuning uchun ham ketish taraddudiga tushib:

— Meni kechir, men uchun sen bilan vaqt o'tkazmoq hamma narsadan qimmatliroqdir, lekin Amirning qizi bir soat bo'lsa ham saroyda mensiz qolishni istamaydi,— dedi.

Sabo xonim shu so'zlarni aytib, ketmoqchi bo'lganida, Faxriddin uni to'xtatib dedi:

[1] **Jahon bonu** — shoir Abululloning xotini.

— Men Dilshoddan maktub oldim. Maktub juda ham anglab bo'lmaydigan bir tarzda yozilgan. Lekin Dilshod masalani batafsil bilish uchun senga murojaat etishimni tavsiya qilgan.

Sabo xonim muzammat bilan bosh chayqab dedi:

— Men sho'rlikning boshimga solgan savdolarni, u baxtsizning ham boshiga soldingmi?!

Faxriddin hayrat bilan:

— Vo ajabo, men unga qanday yomonlik qildim? — deb so'radi.

Sabo xonim:

— Menga qanday yomonlik qilgan bo'lsang, Dilshodga ham o'shanday yomonlik qilding,— dedi.

— Nima yomonlik qilganimni aytib bermaysan-mi?

— Nega aytib berolmay, yillar bo'yi bir qiz bilan vaqt o'tkazib, keyin uni tashlab ketish yomonlik emasmi?

— Buni kim aytdi? Men uni jonimga teng ko'rganim holda qanday qilib tashlab keta olaman?!

— Qahramonsan-u, lekin xotin-qizlarga nisbatan xulqingning eng rahmsiz va odobsiz odamlarning xulq-atvoridan hech qanday farqi yo'q. Bechora qizga yuborgan maktubing qahramonlik siymongga yarashmaydi.

Faxriddin hayajonlanib so'radi:

— Qaysi maktub?

— Bundan bir necha kun muqaddam Dilshodga yuborgan maktubing. "Dilshod, mendan vafo kutma!" deb yozgan maktubing esingdan chiqdimi? Go'zal Dilshod qarib qoldimi? Yoki senga xiyonat qildimi? Yo'q! Sen har narsa desang ham ishonmayman. Chunki Dilshodning ma'sumligi butun saroydagilarga ma'lumdir.

— Men unga maktub yuborganim yo'q, bu qip-qizil bo'htondir. U bularga ishonmasligi kerak.

— Sen Dilshod bilan ko'rishib unga muhabbat izhor qilib yurgan vaqtlaringda, menga ham "sen yolg'on so'zlarga ishonma" der eding. Oxiri nima bo'ldi? Nega javob bermaysan? Men senga nima yomonlik qildim, men xunukmidim, axloqsizmanmi?

Faxriddin Sabo xonimga javob berishdan ojiz qoldi. Uni tashlab ketish sababini aytib, achchig'ini chiqarishni istamadi. Chunki shunday bir vaziyatda uning yuziga: "Axloqing buzuqligi, fitnachi

va makkora bo'lganing uchun tashlab ketganman", deb ayta olmasdi. U faqat yana avvalgi so'zlarini takrorladi:

— Men unga unaqangi maktub yuborganim yo'q. Basharti yuborgan bo'lsam, o'sha maktubni qaytarib yuborsin.

— Bularning menga hech qanday daxli yo'q, lekin qiz ko'z yoshlarini shashqator oqizib, senga shu gaplarni yetkazishimni so'radi. U aytdiki: "Men hech qanday xiyonat qilmaganim holda, bunday maktub yuborishi o'rinsizdir. O'z qalbini hadya qilgan bir qizga nisbatan bu xil muomalada bo'lish xiyonatdir. Mayli, hechqisi yo'q, bir vaqtlar sevgan edim, endi esa unutishga harakat qilaman".

— Xudoyo tavba, naqadar xiyonat. U maktubni kim yozgan bo'lishi mumkin? Menimcha, unga hech qanaqa maktub yuborilgan emas. U meni tashlab ketmoq uchun maktubni bahona qilmoqda. Agar u shunday fikrda bo'lsa, ochig'ini aytib yozishi kerak edi, — dedi Faxriddin.

Faxriddin bu to'g'rida juda uzoq so'zladi, Sabo xonim esa hech qanday qat'iy bir yo'l ko'rsatmadi. Nihoyat, Faxriddin yolvorib dedi:

— Sabo xonim, o'tgan ishga salavot. Endi sendan bir iltimosim bordir.

Sabo xonim beparvolik bilan so'radi:

— Iltimosing nima ekan?

— Mening maktubimni Dilshodga eltib berasan.

— Men saroyga yaqindagina kelganman, bordi-yu Amir saroyga maktub olib kirishimni sezib qolguday bo'lsa, unda kim mening arz-u dodimga quloq soladi?

— Uzun maktub yozmayman. Bir parcha qog'ozga bir necha kalima yozib beraman, xolos.

— Senga ishona olmayman. Boshqa odamlarga aytib qo'yasan. Undan so'ng Amirning qulog'iga yetadi.

Faxriddin hamma muqaddas narsalarga: sadoqat, vijdonga ont ichganidan so'ng Sabo xonim maktubni olib borib topshirishga rozi bo'ldi. Faxriddin talay minnatdorchilik bildirgandan so'ng, quyidagi maktubni yozib berdi:

"Jonim Dilshod!

Yozgan maktubingni oldim. Topshiriqlaringni ham. Senga yuborilgan maktubga ishonma, u yerda nimalar eshitganingni batafsil yoz!

Men hech qachon seni tashlamayman.

Faxriddin".

Sabo xonim maktubni cho'ntagiga solib qo'yar ekan, o'z ko'nglida dedi: "Buni intiqom deydilar. Men bu maktubni Amirning oldiga qo'yib, Dilshod tomonidan saroy sirlari Faxriddinga xabar qilinib turilganini isbot qilaman".

SEVGI FALSAFASI O'RNIGA HAYOT FALSAFASI

Kengash tamom bo'lishi bilan Nizomiy va Faxriddin ko'chaga chiqdilar. Nizomiy Faxriddinning yana ehtiyotsizlik bilan qiladigan harakatlaridan xavfsirab unga yo'l-yo'riq ko'rsatar edi.

— Xalifaga yuborilgan maktub to'g'risida lom-mim deb og'iz ochish kerak emas. Amirning bir qancha vaqtdan buyon ko'rsatayotgan bu o'yinlaridan xabarimiz bor edi. Otabek hukumatining qiyofasi aniqlanganiga qadar Amir Inonj masalasini orqaga tashlab turmoq kerak.

Faxriddin Nizomiyni uyiga qadar kuzatib bordi, ular eshik oldida haram og'asi xoja Mufidni ko'rdilar. Xoja Mufid darhol bir maktub chiqarib Nizomiyga uzatdi va Nizomiydan javob kutib bosh egib turdi.

Maktub juda qisqa yozilgan edi:

"Muhtaram shoir, yozgan she'rim haqida maslahat va ko'rsatmalar berish uchun bugun peshindan so'ng mening yonimga kelishingizni iltimos qilaman.

Qatiba".

Nizomiy uyiga kirishni istamadi, chunki vaqt peshindan biroz o'tgan edi. U Xoja Mufidga o'tirilib:

— Ketavering, men boraman! — dedi.

Mufid ketdi. Nizomiy maktubni cho'ntagiga solib:

— Bu makkora qizning qo'lidan yoqamni qanday qilib qutqarishimni bilmayman,— dedi.

— Biz saroyga kirishga yo'l axtarib bosh qotirib yursag-u, sen u yerga borishdan bo'yni tovlaysanmi? — dedi Faxriddin. — Bundan bir necha kun muqaddam Dilshodga maktubimni topshirshi uchun Sabo xonimga ikki soat yolvordim. Seni bo'lsa, ularning o'zlari maktub yo'llab chaqirmoqdalar, sen borshini istamaysan.

Nizomiy Faxriddinning bu so'zlarini eshitib achchig'i qistadi va undan:

— Sabo xonimdan maktub yubordingmi? — deb so'radi.

— Deyarli hech narsa yozganim yo'q. Faqat maktubni olganligim to'g'risida xabar qildim, xolos.

— Senga necha martabalab ta'kidlaganmanki, kelgan maktublarga e'tibor berma deb. Men bilardim, u maktub Sabo xonimning nayrangi edi. Sen nima uchun u axloqsiz bilan uchrashding? O'z sirlaringni uning qo'liga topshirding? Shu kunga qadar Sabo xonimni bilmasmiding? Unga sevgi izhor qilib yurgan vaqtlaringda boshingga solgan kulfatlarini unutdingmi? Endi u sening maktubingni olib borib Amirning oldiga qo'yadi, bu bilan Dilshodning saroydan senga maktub yuborib turganini isbotlaydi. Sening tadbirsiz va ehtiyotsizliging natijasida qiz Amirning og'ir jazolariga duchor bo'ladi. Bu harakating xalifaning chopari Hojibning talanishi masalasidagi mas'uliyatni o'z zimmangga olish bilan baravardir.

Faxriddin javob berolmadi, u o'z xatosini angladi, boshini ko'tarib ohista dedi:

— Agar Sabo meni aldagan bo'lsa, men uni o'ldiraman.

— O'ldirish xatoni tuzatish emas,— dedi Nizomiy.

— Faxriddin, sen shuni bilishing kerakki, qahramonlikni takomillashtiradigan xislatlarning eng zaruri tadbir va tushunchadir. Tadbirsiz qahramon tezda o'z boshini yeyishi mumkin. Shunday tadbirsizlik bilan bir xalqning taqdirini o'z qo'lida saqlash o'ta mas'uliyatsizlikdir. Yaxshilab o'ylab ko'r, makr-u hiylalar imtihonidan muvaffaqiyat bilan o'tgan Sabo xonimga kim ishna oladi? Bundan so'ng na umumiy va na xususiy ishlaring haqida mendan maslahat so'rama, chunki sen maslahatning qadriga yetmaysan.

Nizomiy bu so'zlarni aytib ketishga chog'landi. Sal nariroqqa borganidan keyin o'girilib orqasiga qaradi. Faxriddinning turgan yerida o'ylanib qolganligini ko'rib, o'z-o'zini koyib dedi: "Men u

bilan juda qattiq gaplashdim. Holbuki, u mening sadoqatli do‘stim. U sevgani yo‘lida o‘limga boradigan yigitdir. Uni yolg‘iz tashlab ketishim insofdan emas, uning peshonasidan horish-tolishni bilmaydigan, dushmanga orqa o‘girmaydigan bir qahramonlikning mujdasini o‘qimoqdaman. U sherdil yigitni nega xafa qildim? Ba’zan haqiqiy muhabbat oqil va ziyrak odamlarni ham shunday ehtiyotsizlikka tushira oladi”.

Nizomiy Amir Inonjning darvozasiga yetib borgunicha Faxriddin haqida o‘yladi, uning ko‘ngliga qattiq to‘qinganligi uchun pushaymon bo‘lib bordi.

Qatiba xonim shoirni o‘z bog‘ida qabul qildi. Nizomiy hovuz bo‘yiga yetganida, Qatiba ipak gilam ustiga solingan yumshoq ko‘rpachada o‘tirar edi. U qo‘lidagi qog‘ozga allanimalarni yozardi. Nizomiyni ko‘rishi bilan yashil atlas kamzulini yig‘ishtirib o‘rnidan turdi. Oq va mo‘jazgina oyoqlari to‘pig‘iga bog‘langan zumrad ziynatlarning qo‘ng‘iroqchalari shildiray boshladi. Qatiba ko‘rpachani ko‘rsatib:

— O‘tir, muhtaram shoir! — dedi.

Shoir o‘tirdi, Qatiba ham o‘z ko‘rpachasiga o‘tirarkan, ilova qildi:

— Bezovta qilganim uchun uzr. Modomiki, men shoir bilan tanish ekanman, bu tanishlikdan foydalanishim — o‘z she’rlarim haqida maslahat olishim kerak. Men shoir bilan tanishishimdan avval ham she’r yozishni mashq qilib yurar edim, lekin bu tanishish she’r yozishga bo‘lgan havasimni yana o‘n chandon oshirib yubordi. Bir necha kundirki, ruboiylarim ustida ishlamoqdaman. Bugun mana shu asarimni shoirga ko‘rsatmoqchi bo‘ldim. Bugun nonushtani ham birga qilamiz, hamda yozgan she’rlarim bilan tanisharsiz. — Qatiba bu so‘zlarni aytganidan so‘ng shoirning javob qaytarishiga imkon bermadi, darhol gilam ustidan she’rlarini olib:

— Shoir ruxsat bersa, ruboiylarimdan bir nechasini o‘qib beray,— dedi.

Nizomiy esa:

— Marhamat, o‘qing! — dedi.
Osuda dil doshtam-u shod maro,

K-az g'am nafase nayomad yod maro.
Yak ro'z ba bozori qazo biguzoshtam,
Mavoqe in chunin daraftod maro[1].
Ey sarvi xiromon, sarvi somoni kiy?
V-ey qiblayi jon, dilbari jononi kiy?
Olam ba tamoshoyi tu barxostaand,
Oxir tu az in miyona xoqoni kiy?[2]

Nizomiy Qatibaning yozgan ruboiylarini diqqat bilan tinglaganidan so'ng:

— Juda taassub qilamanki, siz ruboiy ustasi bo'lgan Mahsatiy xonimni ko'rmagansiz. Undan juda ko'p narsalarni o'rganishingiz mumkin bo'lardi,— dedi.

Qatiba ham:

— Seni ishontirib aytamanki, Mahsatiy xonim keldi deguncha undan ham she'r, hamda musiqadan dars olaman. Bag'dodda o'qib yurgan vaqtlarda shunday qilishni orzular edim, — deb javob berdi.

— Madaniyatli ayol uchun musiqa ilmini bilish birinchi masaladir. She'r yozish esa bebaho bir ne'matdir. Sizni san'atkor bir shoira, mashhur bir sozanda bo'lishingizni tilayman.

Nizomiy so'zlar ekan, Qatiba ruboiylariga qarab o'ylardi. Nizomiy esa Qatibani o'z she'rlarini ko'rsatish uchun emas, balki boshqa bir maqsadda chaqirganini payqadi. Nihoyat, Qatiba qop-qora jodu ko'zlarini Nizomiyga tikib dedi:

— Mening qalbimni o'qiy olsayding, ana o'shandagina shoirlarni, xususan, Nizomiyni naqadar chuqur va samimiy suratda sevganimni bilarding. Men bu havaslarim bilan har kishini shoir va har bir qizni she'riyatga qiziqishini orzu qilaman. Bu bir sharaf. Lekin bu qadar katta bir sharafga erishmoq mushkuldir.

Shoir uning bu go'zal orzularini tabriklab dedi:

---

[1] Osuda va shod qalbim bor edi. Bir on bo'lsa ham g'am-g'ussa yodimga kelmas edi. Bir kungina qazoning bozoridan o'tishim bilan bu hodisalar boshimga tushdi.

[2] Ey nozli xiromon sarv, ayt-chi, sen kimnikisan? Ey jonning qiblasi, sen kimning dilbari jononisan? Butun xalq sen tomonga tomosha qilgani chiqibdir, qani, ayt-chi, tomoshaga chiqqanlar orasidan kimni tanlayajaksan?

— Dunyo bir musobaqadan iboratdir. Tabiat insonlarni shuning uchun ham hayot sahnasiga chiqargan. Insonlar orasida san'atni sevmagan va ko'ngil orzulari bo'lmagan hech kimsa yo'q. Hatto, telbalar va majnunlar ham yuksakka intilish tushunchalariga egadirlar. Kuch-quvvatga molik bo'lgan pahlavonlar, dovyurak va shijoatli qahramonlar, ozmi-ko'pmi sarmoya orttirgan savdogarlar ham shunday bir tushunchaga, ya'ni ustun bo'lish tushunchasiga egadirlar. Bularning har biri orzu bilan yurishlari va unga erishmoq uchun harakatlari, intilishlari va kurashishlari natijasida bir san'atkor hisoblanadilar. Bu bilan shuni aytmoqchimanki, orzu g'alabaning zaminidir. Agar Qatiba xonim musiqa san'atkori yoxud bir shoira va adiba bo'lish orzusida bo'lsalar, bu g'alabaning boshlanishidir. Biz bu yerda zikr etib o'tganlarimizdan tashqari, yana boshqa odamlar ham bor. Lekin u xildagi shaxslarni tabiat juda oz yaratadi. Bu xil odamlar qo'l kuchi va jasorat ishlatadigan pahlavonlar emaslar. Bular san'at va g'alabalarni tijorat, hunar va kasb-korda emas, balki tafakkur, tushuncha va shuurlar vositasi bilan axtarmoqdalar. Bular mavjud narsalarni, tabiatni va haqiqatni tadqiq etishga harakat qiladilar. Siz qanchalik she'r va musiqani sevsangiz, bilim do'stlari ham narsalarning nimaligini aniqlashni va yashayotgan olamlarini o'rganishni sevadilar. Bu qabildagi insonlar dunyoga ko'zlari yumuq kelgan bo'lsalar-da, lekin ochiq ko'z bilan yashamoq istaydilar. Menimcha, insonlarning eng ziyrak san'atkorlari na shoir, na adib, na qahramon va na savdogarlardir, balki dunyoning eng mashhur odamlari, bizning borlig'imizni har taraflama o'rganuvchilar, insonlarning tushuncha va zehnlarini muhim bo'lmagan bekorchi narsalardan qutqaruvchilar, bashariyatga haqiqiy yo'lni ko'rsatuvchilardir.

Qatiba shoirning so'zlariga juda qiziqdi. U Nizomiyni faqatgina misralarda vazn va qofiyalar yasovchi bir shoirgina emas, yosh bir olim sifatida tan ola boshladi. U o'zini tuzatib, zangori ipak durrachasini yecha turib dedi:

— Men falsafani sevmasdim. Bu so'z savodsiz lafzimga yarashmasa ham aytishim kerak, falsafa ba'zan insonlarni turli xatoliklarga tushira oladi. Insonning shuurida ovoralik tug'diradi. To'g'risini aytsam, men seni bu yerga boshqa bir maqsadda cha-

qirgan edim. Lekin suhbatimiz ilmiy shakl olganligidan avvalgi suhbatimizni keyingi safarga qoldirishimiz mumkin. Menimcha, bunga sen ham e'tiroz bildirmassan.

Nizomiy qizning ilmiy suhbatlarga qiziqishini ko'rib, uning unchalik sodda emasligini angladi:

— Hech qanday e'tirozim yo'q, — dedi u. — Dunyoda shunday odamlar borki, ular faqat ilmiy suhbatlardangina ma'nan oziqlanadilar.

Qatiba suhbatni davom ettirib dedi:

— Bilasanmi, muhtaram shoir, men Bag'dod maktablarida falsafa darslariga juda e'tibor berardim. Lekin falsafadan meni qanoatlantirarli biror narsa ololganim yo'q, chunki faylasuf olimlarning o'zlari ham qat'iy bir fikrga kela olmaganlar. Ba'zilari fikr butunligini hislarda ko'radilar, ba'zilari moddadan boshqa bir haqiqatning mavjud bo'lmaganini maydonga tashlaydilar, ba'zi birlari esa haqiqatga etolmasdan hamma olib borilgan munozaralarni befoyda deb bilishadi, fikran tamoman umidsizlikka tushadilar va tadqiqot vositalaridan iborat bo'lgan tafakkurning kuchini tamomila foydasiz sanaydilar. Shuning uchun ham faylasuflardan bir qanchasi hissiyotga berilib ketib, hissiy ilhomlar tug'yonida Xudo bilan to'g'ridan to'g'ri munosabatda bo'lishga ishonganlar. Shu sabablarga ko'ra, tabiiy narsalarni o'rgana olmaganlar, ilohiy yoxud javhari vohid deb atalgan narsani bilishga va uning nima ekanligini tekshirishga harakat qilganlar. Bunday chalkash fikrlarning botqog'idan chiqolmay bosh qotirgan olimlar, qat'iy bir fikrga kelolmaganlaridan keyin menga o'xshagan ojiz bir talaba nima qila olardi. Mana shunday chigal fikrlarning orasidan tanlab olgan yagona bir fikrim bor, u ham bo'lsa, o'lim va oxirat ishlarining muammo shaklida qolish va qolmasligini aniqlashdan iboratdir. Faylasuflar mening bu fikrimni o'zlari uchun biror haqorat deb hisoblamasinlar. Ular bu hayot deb atagan erkin bir faoliyatni bir lahza bo'lsa ham to'xtashi va harakatdan qolish sabablarini bizga ko'rsatib berolmadilar. Yillar davomida noaniq va hal qilinmagan falsafaning chigal topishmoqlari girdobida suzib yurgan hikmat ahllari shuurni, harakatni, xususan, shaxsiyat va ma'naviyatning bir onda yo'q bo'lib ketish sabablarini ozgina bo'lsa-da, xalqqa

so‘zlab berolmadilar. Vujudimizda paydo bo‘lgan orzular, amallar, sevgilar, hatto, chuqur nafratlar nima sababdan yo‘qolib ketadi? Axir, nima uchun hikmat ahllari, faylasuflar, hayot deganimiz bu borliqning nimaligini sharh qilib berolmadilar?.. Menimcha, tahqiqot va tadqiqot masalalarida tutgan yo‘llari to‘g‘ri emasdi.

Nizomiy bog‘chaga yangi kirgan vaqtida, u yerdan tezroq chiqib ketishga urinar, jannatday bog‘cha uning ko‘ziga jahannamdan beshbattar ko‘ringandi, buning asosiy sabablaridan biri Amirning saroyiga kelib-ketuvchilarga nisbatan xalqning yaxshi nazar bilan qaramasligi edi. Shoirning ta’bini xira qilayotgan jihatlardan yana biri Ra’noning bu ishdan noroziligi edi. Bu saroyda Sabo xonim bor ekan, fisq-fasod va tuhmatlar avj olishi turgan gap. Shuning uchun ham Nizomiy tezroq bog‘chadan chiqib ketishga shoshilardi. Lekin Qatibaning ilm haqidagi suhbati shoirni ushlab qoldi. Arab, turk va rum qonidan vujudga kelgan bu go‘zalning oddiy bir qiz emasligi shoirda chuqur bir havas uyg‘otdi. U suhbatni davom ettirishga intildi.

Nizomiy Qatibani tinglaganidan so‘ng:

— Fikringizning ba’zi birlari bilan kelisha olaman, — dedi, — lekin ba’zi birlari bilan kelisholmayman. Men ulardan qanoatlana olmadim. Avvalo, siz rozi bo‘lmagan, ya’ni siz uchun muammo shaklida qolgan jihatlardan boshlaylik. Siz aytganingizdek, agar hayot yo‘q bo‘lib ketadigan bo‘lsa, bizning orzularimiz, maqsad va tilaklarimiz va ularni ro‘yobga chiqarish uchun urinishlarimiz nima uchundir? Fikringizni horitgan o‘ylar shular emasmi?

— Balli, shulardir. Lekin bulardan boshqa ham hal qilolmagan muammolarim bor, — dedi Qatiba oh chekib.

— Siz o‘ylagan butun muammolarni o‘rganib chiqish uchun qalbingizga kirish lozim bo‘ladi.

Qatiba yana oh chekib dedi:

— Sen mening qalbimga yo‘l topa bilgansan. Lekin falsafiy muammolarni hal qilish uchun emas...

Nizomiy bu gaplarni eshitar ekan, qizning suhbat jilovini qay tomonga burmoqchi bo‘lganini darhol sezib javob berdi:

— Keling, ilmiy suhbatlarni davom ettiraylik.

— Nima ham deya olardim. Marhamat, falsafiy muammolarni hal etishga urinaylik. Balki bu mashg'ulot vositasi bilan mening orzularim muammo shaklidan chiqa olar. Shoir, sen menga ruh degan narsaning zulmatlarini yoritib berolmaysan, biz ikkimiz ham bu masalada savodsizmiz. Menga aytib ber, insoniyat, adolat, haqiqat, tiriklik, ma'naviyat degan narsalarning barchasi yolg'onmi? Menga ayt-chi, muhtaram shoir, dunyoda to'g'ri vujudga kelgan narsa nima? Bizni qo'rqitgan oxirat xayoli, rohat nash'alarini tug'dirgan jannat, insonning jonini olgan jahannam bormikin? Ayt-chi, yosh shoir, ularni kimlar borib ko'rib kelgan? Ularning borligini bizga kimlar xabar qilgan? Bordi-yu, hamma narsa quruq tushunchadan iborat bo'lsa, bu istak, bu orzular qayerdan paydo bo'ladi? Hatto, ruh degan narsamiz ham muammo emasmi?

Qatiba bularni xiyli ma'yus bir ohangda so'radi. Sevgiga umidvor bo'lgan qizning ma'lum xayollar quchog'ida to'lg'anishini shoir juda tez sezdi. Uning "ruh deb atagan narsamiz muammo emasmi?" degan savoliga javob berdi:

— Sizni charchatgan bu muammolar, siz hal qilolmaganingiz jumboqlarning hammasi ruh deb atagan narsangizning zulmatlaridan tug'ilmoqdadir. Faylasuflarni, xususan, Sharq faylasuflarini sarsonlik maydonida horitgan muammolarning asosini ham shu ruh masalasi tashkil etadi. Go'zal qiz falsafaning bu qadar chuqurliklariga sho'ng'imasligi kerak. Umidsizlik, badbinlikni tug'diradigan narsa shu ruh masalasidir.

Qatiba yana savol berdi:

— Seni ham toldirgan shu masalami?

— Yo'q, bu xil masalalar na meni mashg'ul qila oladi, na fikrimni charchata oladi. Meni tinglang. Agar vaqtingiz bo'lsa, bu xil falsafalar to'g'risida men o'z fikrimni ochiq aytay.

Qatiba shoshilinch bir tarzda dedi:

— Iltimos qilaman! Iltimos qilaman. Menga bu kungi uchrashuvimiz bir sevgidan olgan nash'adan ortiqroq zavq berdi. Bilmadim, bu kabi uchrashuvlar davom eta olarmikin?

— Bu vaziyatga bog'liqdir. Men ham go'zal qizning fikrlaridan zavq oldim. Shunga ko'ra ham so'zlashga ham ijozat so'radim. Menimcha, har narsadan avval go'zal Qizning fikrlarini ostin-us-

tin qilgan bir yagona masala bor, u ham bo'lsa, o'lim masalasidir. Shunday emasmi?

— Haqiqatan ham shunday!

— Siz aytdingizki, "Butun yuksakliklarni mahv etuvchi o'limning o'zi nima degan narsa?" Bu savolni sizning oldingizga qo'ygan masala ham sizning o'lim haqidagi o'ylashlaringizdir. Insonlar o'lim to'g'risida o'ylay berib hisobsiz mavzular va chigallashib ketgan hayot falsafasining mundarijasini tuzganlar. To'g'ri, bu borliqda ko'rib turgan narsalarimiz turli-tuman va rango-rangdir. Olamdagi narsalarda ziddiyat bordir, hatto, ashyoning jinsi ham, shakli ham muhtalifdir. Narsalar shu qadar hisobsiz, shu qadar chegarasizdirki, uni sanab tugatib bo'lmaydi, hozirga qadar uni hech kimsa poyoniga yetmagan. Sirtdan qaraganda, bir xil shakl olgan narsalar bir-biriga o'xshamagan bir qancha unsurlardan iborat. Biz bularning hammasiga birma-bir nom qo'ymasdan, bir so'z bilan uni tabiat deymiz. Lekin siz va men singari odamlar unga qaraganlarida, undagi ohang va o'xshashlikni ko'rmaydilar. Lekin ilm va tajribamiz takomillashib borishi bilan bir-biriga o'xshamagan xilma-xillikdan, turli shakldagi narsalarga bir munosabatni bergan shu tabiat deb atagan narsamizdir. Uzoqni ko'ra olmaydiganlarning "hayot yo'qlikdir" deb maydonga tashlagan fikrlari tamomila xatodir, chunki hayot degan narsamiz faqat bir shaxsning hayoti emas, balki og'ushida yashab turganimiz tabiatning hayoti demakdir. Dunyo abadiy deganlar ham yanglishadilar. Nihoyasiz hech narsa yo'qdir. Lekin biz terlab-pishib oxiriga qadar eta olmagan yo'llarga nihoyasiz deb so'z yuritishga odatlanib qolganmiz. Bilmadim, go'zal qiz mening fikrlarimga qo'shila olarmikinlar?

Qatiba norizo nazar bilan Nizomiyga bunday dedi:

— Qisman qo'shilaman. Qisman qo'shilolmayman. Narsalarning orasida biror munosabat borligiga ishonolmadim. Agar hayot tabiatdan iborat bo'lsa, nima uchun tabiatning mahsuli bo'lgan insonlarning hammasida fikr birligi, zavq, intilish birligi, ixtisos va aqida birligi yo'q? Nechun bir-biri bilan munosabatda bo'lgan narsaning ta'sirida yashagan insonlar bir-biriga qarshi salbiy vaziyatda bo'ladilar?

Nizomiy bosh chayqab kuldi:

— Bu muammo shu qadar oson muammodirki, uni biz singari savodsizlar ham hal eta oladi. Bu xususda chuqur bir tushunchaning hojati yo‘q. Tabiat faqat narsalarning shaklini beradi, unga asosiy ma’noni beruvchilar bizlar. Aqida va fikrlarning xilma-xil bo‘lishi masalasiga kelsak, u ham ijtimoiy muhitga, ba’zan hukumat va diniy tuzumga bog‘liqdir. Ixtisos va intilishlarning baravar bo‘lish-bo‘lmasligi ham muhitning tabiiy va iqtisodiy ehtiyojlariga bog‘liq. Tabibga ehtiyoji ko‘p bo‘lgan mamlakatda insonning tabibchilikka bo‘lgan intilishi ham hamma narsadan ko‘proqdir. Shuningdek, temirchilik, binokorlik, tikuvchilik, etikdo‘zliklar ham. Na shoirlik, na adiblik, na hikmat va faylasuflik insonga tabiat tomonidan ulashilgan kasblar bo‘lmay, balki muhitning ehtiyojidan kelib chiqqan bir ixtisosdir. Lekin shuni ham qayd qilib o‘tish kerakki, bir odam bajargan ishni ikkinchi bir odam ham o‘z tirishqoqligi natijasida bajara oladi. Shuningdek, sevgi ham bir tasodifning natijasidir. Bu ishlarda xorijdan bo‘ladigan quvvatning ta’siri yo‘q. Bugun bir tasodifning natijasi o‘laroq sizni sevib qolgan odam, ertaga boshqa bir tasodif natijasida o‘zga bir kishini sevishi mumkin. Endi go‘zal qiz aytsinlarchi, so‘zlarimdan qanoat hosil qildilarmi?

Qatiba mavzuni o‘zgartirib dedi:

— Holbuki, shoir meni go‘zal qiz deb atamoqda, shunday ekan, nega menga u shunchalik yurakni siqadigan maktub yubordi?!

Nizomiy o‘ylanib qoldi, chunki u Qatibaga hech qanday maktub yubormagan edi. U shu ondayoq Sabo xonim tomonidan boshlangan yangi mojarolardan biri ekanligini angladi va sir boy bermay:

— Ba’zan kishilar bir-biriga maktub yozganlarida xilma-xil his-tuyg‘ular ta’sirida bo‘lishlari mumkin. Ba’zan fikrlar mavzularga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. She’rda ham shunday tasodifiy hollar ro‘y beradi. Ko‘pincha chin ko‘ngildan yozilmagan mavzular sevimli mavzularni chetga surib qo‘yadi. Men bundan so‘ng yozadigan har bir maktubimni, yoxud har bir ashrimni bir necha kun saqlagach, yana bir bor o‘qib ko‘rib, so‘ngra yuborishga qaror qildim, — deb javob berdi.

Qatiba hech narsa demadi, faqat qo'lini uzatib, kitob orasidan bir qog'oz olib Nizomiyga berdi:

— Ol, o'qi. Qo'rinib turibdiki, bu maktubni ikkinchi martaba o'qimasdan yuboribsan. Nizomiy maktubni olib o'qidi:

"Go'zal qiz!

Siz meni Ganjaning bebosh yoshlariga taqqoslamang. Men kunda bir yigitni sevgan qizlarni seva olmayman.

Ilyos".

Nizomiyning maktub Sabo xonim tomonidan yozilganiga hech bir shubhasi yo'q edi, U Sabo xonimning mojarosiz yashay olmasligini bilar edi. Shuning uchun ham uni Qatibaning ko'z oldida qoralab dedi:

— Men aslo tasavvur qilolmayman: bu maktub sizga yozilmagani holda nima uchun uni sizga keltirib berishdi ekan. Balki bu bir anglashilmovchilik natijasida sizning qo'lingizga tushgandir.

Qatiba xuddi uyqudan endigina uyg'ongandek o'z-o'ziga:

— Mening toleyimni ko'r. Sanoqsiz hadyalar va sovg'alar berganim kanizak ham ruhimni zaharlamoqqa boshlabdi, — dedi.

Qatiba bu so'zlarni aytar ekan, Nizomiyga yolvorish ohangi bilan dedi:

— O'tinaman, bu maktubni kimga yozganingni ayt! Aytib, meni shubhalardan xalos et.

— Uni siz tanib-bila turib nega mendan so'rayapsiz? Bu sizdan yanada ko'proq oltin undirish uchun qilingan mojarodir.

— Endi tushundim, — deli Qatiba, — bu maktub mening sabr-u qarorimni tamomila qo'limdan olib qo'yayozgandi, chunki men kun sayin bir yigitni sevguchi qizlardan emasdim. Bu masalani aniqlash uchun seni chaqirgan edim. Hozirgacha bo'lgan suhbatlarimizning hammasi shu masalani boshlab olish uchun bir muqaddima edi. Senga gapirish uchun bir talay so'zlarni yodlab olgan edim. Lekin seni ko'rgan hamon hammasini unutdim, chunki aytmoqchi bo'lgan so'zlarimning mavzuyi sening o'zingdan iborat edi.

Qatiba sevgi dostonlarini davom ettirolmadi. Chunki Amir va xotini Sofiya xotun nonushta qilmoq uchun bog'chaga kirib keldilar. Nizomiy ularni ko'rar ekan, o'rnidan turib ketmoqchi bo'ldi.

Lekin Amir bilan Sofiya xotun uning ketishiga ijozat berishmadi. Amir Nizomiyning qo'lidan tutib dedi:

— Qatibaning aziz va muhtaram mehmoni ham biz uchun hamda butun Oron xalqi uchun azizdir. Siz o'lkaning iftixorisiz. She'rlaringizdan olgan nashalarimizni o'zimiz uchun zo'r xushbaxtlik deb hisoblaymiz.

Sofiya xonim ham shoirga yaqin kelib dedi:

— Qatiba sizning juda ajoyib bir she'ringizni har doim menga o'qib berib yuradi. U misralarning har birida sizning ulug'ligingiz ko'rinib turibdi.

Bu go'zal, nozik muhabbatdan shan,
Bir gul erur, tug'ildi shabnamdan.

Naqadar sermazmun, naqadar jozibador bayt!

RASHK

Amir Inonj sipohsolor[1] Husomiddinni yoniga chaqirib dedi:

— Men mamlakatni sizga topshirganimda, ishlarimiz e'timodli odamlar qo'lida bo'lganligidan xotirjam edim. Lekin umidlarim butunlay puchga chiqdi. Bundan ikki hafta muqaddam xalifaga jo'natgan choparimiz yo'lda tunaldi. Lekin siz hech qanday tashabbus ko'rsatmadingiz, Hojibdan tortib olingan maktub kimning qo'liga tushganini aniqlay bilmadingiz. Hozir sizni faoliyatsizlikda ayblashga haqqim bor. Men saroy ichida yolg'iz biqinib qoldim, odamlar esa tashqarida o'z kayf-u safolari bilan ovoralar. Mamlakat batamom isyonchilar qo'lida qolib ketishining tashvishini chekadigan biror kishi yo'q. Sizning beparvoligingiz natijasida Ganjada bir necha qadam nariroqda xalifaning choparini tutib to'naganlar. Xalifaning maktubi dushman qo'liga tushganidan beri yana har tomonlama menga va xalifaga qarshi gap-so'zlar ko'paymoqda. Bu ahvolda mamlakatni idora qilib bo'lmaydi, borib yaxshilab o'ylab ko'ring, Oron shaharlarining hamma yerida o'zboshimchalik hukm surmoqda, hozirning o'zida Kashtasifiy, Mahmudobod, Bojeravon, Barzand shaharlari o'zlarini tamomila mustaqil hisoblashadi. Ajabo, siz shaharlar va qishloqlardan kaltaklanib quvilayotgan

[1] **Sipohsolor** — lashkarboshi, sarkarda.

ma'murlarning yorilgan boshlari, ko'kargan yuzlari, urib sindirilgan qovurg'alarini ko'rib uyalmaysizmi?

Amir Husomiddinni so'kdi, tahqirladi. Nihoyat, Husomiddin ham Amirdan ruxsat so'rab so'zlashga kirishdi:

— Amir aytgan gaplarning hammasi to'g'ri. Mamlakatda beboshlik hukm surmoqda. Shahar-qishloqlardan ma'murlarning do'pposlab haydalishining shohidi bo'lyapmiz. Lekin bularning hammasi uchun bizni ayblamoq qisman haqsizlik, qisman vaziyatdan bexabar qolishdir. Tashqarida bo'layotgan fitnalarning bosh manbai saroy ichida bo'lmaganda edi, biz fitnachilarni allaqachonlar qo'lga olib jazolarini bergan bo'lardik.

Amir g'azab bilan dik etib o'rnidan turib so'radi:

— Fitnalarning bosh manbai saroydami?

— Balli, saroyda. Modomiki, Faxriddin shu kunga qadar aksari vaqtini saroydagi kanizaklar bilan o'tkazar ekan, modomiki, Amir hazratlari Dilshodni Faxriddinga va'da qilib, har kuni o'z huzuriga chaqirar ekanlar, biz fitnachi-yu bosqinchilarni qanday qilib qo'lga tushira olamiz? Amirning shavkatli qizlari Qatiba xonim yo'qsil bir shoir bilan munosabatda bo'lib, unga tegmoqchi bo'lar ekan, Amir hazratlarining o'zlari va muhtarama xonim ham o'sha shoir bilan hamtabaqlikka moyil ekanlar, bizlardek xokisorlarning qo'lidan nima ham kelardi? Biz fitnachilarni tutib hibsga olishni istasak, avvalo Amirning saroyidan boshlashimiz kerak bo'ladi. Xalifaga maktub jo'natilish xabarini saroydan kimdir Faxriddinga xabar bermasa edi, xalifaning chopari bunday falokatga duchor bo'lmasdi.

Amir taajjublanib so'radi:

— Saroydan kimdir Faxriddinga xabar qilgan deb o'ylaysanmi?

— Ha, saroydan Faxriddinga bu haqda maktub yuborganlar.

— Buni isbot qilolmaysan, o'zingni oqlash uchun boshqalarga tuhmat qilyapsan.

— Amir hazratlari o'z xizmatkorlariga ishonishlari kerak.

Husomiddin shu so'zni aytar ekan, qo'ynidan bir qog'oz chiqarib Amirga uzatdi:

— Marhamat, o'qisinlar!

Amir qog'ozni olib ovoz chiqarib o'qidi:

"Mening jonim Dilshod!

Yozgan maktubingni oldim. Topshiriqlaringni ham oldim. Senga yuborilgan maktubga ishonma! U yerda nimalar eshitganingni batafsil yoz! Men hech qachon seni tashlamayman.

Faxriddin".

— Bu maktub sening qo'lingga qanday qilib tushdi?— deb so'radi Amir.

— Uni Qatiba xonimning kanizagi Sabo xonim olib keldi.

— Nega senga topshirdi?

— Sabo xonim Amirga sodiqligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Maktubni sizga topshirishni so'rab menga berdi. Endi Amir hazratlarining o'zlari bizning qanday mushkul vaziyatda ekanimizni bir mulohaza qilib ko'rsinlar. Biz qulvachchalaringiz nima ham qila olamiz? Holbuki, butun fitna-fasodlarning sababchisi Faxriddin bilan uning do'sti Nizomiydir. Ularning o'zlari bir karra ozarbayjon xalqiga murojaat qilib: "Tinchlaning!" desalar edi, mamlakatda biror kishi ham "churq" etib ovoz chiqarishga jur'at eta olmasdi.

Amir Husomiddinning so'zlari orasida boshqa bir narsani aytmoqchi bo'lganini va uning rashk qilayotganini payqab qoldi:

— Aqlingni boshingga yig', erga tegish quruq gap bilan bo'lmaydi. Qizimiz erga berilishidan Bag'dod va xalifa xabardor bo'lishi kerak. Bularning hammasi men yuritayotgan muayyan bir siyosatning natijasi, xolos. Sen bilasanki, Dilshodning ham, Qatibaning ham masalasi hal qilingandir, Dilshod yaqinda xalifaga hadya qilib yuborilajak, Qatiba esa, sen bilan o'z baxtini topadi. Bunga amin bo'laver. Faxriddin endi Dilshodni ko'rolmaydi. Dilshodni bu maktubdan ilgariroq hibsga olganman. O'zing bilasanki, bizga yordam keladigan yer yo'q. Shuning uchun ham qo'shin kuchi va jazo qonunlarini ishlata olmaymiz. Endilikda yagona bir chora bor, u ham bo'lsa, murosa qilish va qulay fursatni kutishdan iborat. Bor, o'z ishlaringga hushyor bo'l, joriyam Sabo xonimni mening yonimga yubor.

Husomiddin ta'zim qilib chiqib ketdi. Amir esa uning orqasidan istehzo bilan kulib dedi:

— Ahmoq va xayolparast odam. Men qizimni senga o'xshagan oddiy bir sarkardaga berish niyatida bo'lganimda edi, Faxriddin

singari bir qahramonga berib o‘z hokimiyatimni uning vositasi bilan mustahkamlay olardim. Lekin men bir mamlakat hukmdoriga loyiq bo‘lgan qizimni qalang‘i-qasang‘ilarga berolmayman.

Sabo xonim tovusdek tovlanib ichkari kirdi. U turli hiylanayranglar bilan topgan qimmatbaho zeb-ziynatlarini taqib olgan edi. Amir Sabo xonimni birinchi martaba ko‘rishi edi. Amir uning oppoq kulcha yuziga, qora va mag‘rur ko‘zlariga, g‘uncha yanglig‘ dudoqlariga, olmoslar orasida tovlangan nozik qo‘llariga, yashil zumradlar bilan bezalgan to‘piqlariga qaragani sayin hirsi jo‘shardi va o‘z-o‘ziga: “Naqadar sohibjamol, taqadar go‘zal”, derdi, o‘rnidan turib o‘zini tuzatdi-da:

— Beriroq kel, go‘zal qiz! — derkan, uning qo‘lidan tutib o‘ziga tortdi.

Zotan, Sabo xonim Amirning huzuriga da’vat etilgani zamon ishning xuddi shunday bo‘lishini orzu qilgan edi, shuning uchun ham yasanib-tusanib, qimmatbaho ziynatlarini taqib kelgan edi. Sabo xonim Amirning bu qadar chuqur muhabbatiga sazovor bo‘lgani, o‘z orzusiga erishgani uchun o‘zini saroy kanizaklari orasida eng baxtiyor hisoblardi, chunki Amir nodir va favqulodda go‘zallikka molik kanizaklar bilan aloqada bo‘lardi. Xoja Mufid obdasta bilan dastsho‘y ko‘tarib kirgan mahalida, kanizaklar Sabo xonimni katta sharafga noil bo‘lgan deb tusmol qilishar, dahlizlarda kezib Sabo xonimni xonayi xosdan chiqishini poylar edilar.

Xoja Mufid vazifasini o‘tab obdasta va dastsho‘yni ko‘tarib tashqari chiqqanida, Amir Inonj yana bir bor Sabo xonimning lablaridan o‘pib dedi:

— Sen kanizaklarimning eng sevimlisi va eng go‘zalisan. Bundan so‘ng shunday hurmatlarimga tez-tez musharraf bo‘lasan. Qo‘lga tushirgan maktubing bilan menga katta xizmat qilding. Ko‘rgan bilganlaringdan har kuni menga ma’lumot berib tur. Sen uchun maxsus bir imorat qurishlarini buyuraman, senga kanizlar, g‘ulomlar va xizmatkorlar in’om qilaman, sen uchun alohida bir saroy quraman.

Amirning bu so‘zlaridan so‘ng Sabo xonim o‘ziga xos bir mahorat bilan ko‘zlarini yashirib ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi va entikib-entikib dedi:

— Amir hazratlari o'z haqir joriyasini boshqa binoga tashlash bilan o'z ziyoratlaridan uzoqlashtirajaklar. Men esa har soat Amirni ko'rish va uning sharafidan bahramand bo'lishni istayman.

Amir yana uning lablaridan o'pib:

— Amin bo'l, shu go'zalliging qancha saqlansa, Amirning huzurida qozonadigan sharafing ham shuncha saqlanadi. Lekin, o'zing bilasanki, saroy hayotida hamma narsadan ko'ra ko'proq hasad, fitna va g'alamisliklar bo'ladi. Seni bulardan omon saqlash uchun boshqa bir binoga joylashtirmoqchiman. O'zim bo'lsam, beqiyos husningni tomosha qilish uchun tez-tez borib turaman, — dedi.

Sabo xonim Amirning so'zlaridan bu safar ham qanoatlanmadi, chunki u mojarosiz, hiyla-nayrangsiz va fitna-fasodlarsiz yashay olmasdi. U nihoyatda go'zal bo'lish bilan baravar, nihoyatda mojarochi, fitnakor, makkora edi. U bir kun bo'lsa ham bo'hton va fitna-fasod to'qimasdan yashay olmasdi.

Amir uni saroyda saqlashni istamasdi, chunki bu sirdan xotini Sofiya xotun voqif bo'lib qolib Amirdan norizo bo'lishi tayin edi. Sabo xonimdan burun Amirning "iltifotlariga" sazovor bo'lgan boshqa kanizaklar ham bor edi. Ular hech qachon Amirning saroyiga kechagina kelgan Sabo xonimni bugun katta obro' qozonishiga sovuqqonlik bilan qarab turolmas edilar. Lekin bunlay fikrlar Sabo xonimni sira qo'rqitmasdi. U qaysi yo'l bilan bo'lmasin, saroyda yashashni va hammadan yuqori turishni o'ylardi. U bilardiki, Amirning saroydan tashqaridagi binolarda yashayotgan kanizaklari qamoqxona hayotini kechirar edilar. U saroydagi gap-so'zlar va mojarolar bilan to'la hayotni xususiy binolar, g'ulomlar, kanizlarga ayirboshlashni istamasdi.

Sabo xonim Abululloning uyida yashagan vaqtlarda fisq-fasodlar, hasad va ig'volar to'la hayotga o'rganib qolgan edi. U Abululloning o'zi, xotini Jahon bonuning xabarlari bo'lmagani holda ularning kenja qizlari Mohtob xonimni bir necha kishiga unashtirib, ularning hammasidan xizmat haqi olgan edi. Ayni zamonda Mohtob xonimning o'zi ham Sabo xonimning bu kirdikorlaridan bexabar edi.

Sabo xonim Amir saroyiga kelgan kuniyoq katta shuhrat va katta davlatga ega bo'lish ko'yiga tushdi. U Amirning qizi Qatibani

ham Abulullonning qizi Mohtob xonim kabi o‘zi istagan odamlarga ko‘rsatib, ko‘ngli xohlagancha xizmat haqi olish fikrida edi. Shuning uchun ham unga saroyda yashash xususiy binoda yashashdan ko‘ra foydaliroq edi. Xususan, Amir tomonidan sevilganligi va “sharafga” sazovor bo‘lganligi sababli unda shuhrat va boylik orttirish orzulari yangi bir g‘ayrat bilan alanga ola boshladi.

Lekin yangi binoga ko‘chirilish masalasi Sabo xonimni juda noqulay ahvolga solib qo‘ydi. Uni bu ahvoldan faqat Qatiba qutqarishi mumkin edi. Lekin unga umid bog‘lay olmasdi, chunki Nizomiyning nomidan Qatibaga yolg‘on maktub keltirib bergan kundan beri Qatibaning nazaridan qolgan edi.

Sabo xonim bu achchiq o‘y-xayollar girdobida ilondek to‘lg‘anardi. Lekin yana o‘z-o‘zicha: “Qatibani aldash unchalik qiyin emas, qalbini sevgiga bag‘ishlagan qizlar o‘z aql-hushlarini ham bag‘ishlab yuboradilar. Aqlsizlarni esa aldamoq osondir”, — derdi.

Sabo xonim Amirga bosh egib xonadan chiqqanda, Amir uning orqasidan qarab qolib o‘z-o‘ziga: “Erkaklar ehtiroslarning, xotinlar esa quruq shuhratning asiridirlar. Men yuzlarcha baxtsizlarning qatoriga yana birini qo‘shdim. Men bilan aloqada bo‘lgan kanizaklar xotinim tomonidan bir jinoyatchi sifatida ta’qib etiladilar”, — dedi.

Sabo xonim Amirning xonasidan uzun va keng dahlizga chiqdi. U qimmatbaho gilamlar ustida mag‘rur yurib ketayotganida qiziq bir manzaraga duch keldi. U faqat dahlizga chiqqanida haram hayotining turli shakllarini ko‘ra boshladi. Haramda va saroyda yashagan kanizaklar boshlarini eshikdan chiqarib Sabo xonimga mo‘ralardilar. U dahlizning har ikki tomonidan o‘ziga tikilgan ko‘zlarning ta’qibi ostida o‘tib borardi.

Kanizaklarning ba’zilari esa, dahlizda aylanib yurar va o‘zaro nimalarnidir so‘zlab kulishardi. Bularning orasida Sabo xonimdan ham ilgariroq Amirning “sharafiga” sazovor bo‘lgan ikki go‘zal kanizak bor edi. Biri arab qizi Zabyan, ikkinchisi esa, Isfahondan keltirilgan Gulpaykar xonim edi.

Sabo xonim dahlizning yarmiga ham yetgani yo‘q, ediki, birdan qattiq kulgi ko‘tarildi. Bu eshikdan mo‘ralab turgan kanizaklarning kulgisi edi. Kuchli qahqaha Sabo xonimga chumoli chaqqancha ham ta’sir qilmadi, chunki bu kulgilarni bir hasad natijasida tug‘il-

ganini bilardi, u bu qahqahani eshitarkan, o'zini g'olib his etar va mag'rurlanib borardi.

Dahlizning o'rtasida Gulpaykar xonim o'ngdan, Zabyan xonim so'ldan Sabo xonimga yaqinlashdilar. Avval Zabyan xonim unga savol berdi:

— Xonim, "sharafga" noyil bo'la oldilarmi?

Sabo xonim javob bermadi, ularning yuziga mag'rurona boqib, o'tib ketmoqchi bo'lganida, Gulpaykar xonim ham savol berdi:

— Buyuk xonim hazrat "sharaf"iga noyil bo'ldimi?

Sabo xonim uning so'zini javobsiz qoldirmasdan:

— Sharafni faqat sharafli bo'lganlargina qozona oladilar,— dedi. Shu onda qizlarning biri Sabo xonimning o'ng qo'lidan, ikkinchisi esa, so'l qo'lidan ushlab bo'sh qo'llari bilan uning nozik yuzlarini yumdalab, zeb-ziyiatlarini uzib yerga uloqtirdi. Bashang kiyim-kechaklarini parchalab tashladilar. Ular Sabo xonimning yuzini timdalab qonatganlarida eshik tirqishlaridan mo'ralab turgan kanizaklar chapak chalishib:

— Tag'in-tag'in! Shunday... ha, shunday! — deyishardi.

Sabo xonimning dod-u faryodini eshitib butun saroy ahli dahlizga yig'ildi. Dod-voyni eshitib Amirning xotini Sofiya xotun bilan qizi Qatiba ham yetib keldilar. Sabo xonimning yuzlari va lablunjlari dabdala bo'lgandi. Uning ko'zlari va ko'z qorachiqlariga ham chang solgan edilar. Bir necha qullar bilan xoja Mufid Sabo xonimni ajratib olib ketayotganlarida ham, ular yana Sabo xonimni do'pposlashda davom etardilar. U hushidan ketgandi, hushiga keltirish va yaralarini bog'lash uchun tabibga olib bordilar. Zabyan xonim bilan Gulpaykar xonimlarni haram hibsxonasiga olib ketdilar. Bunday rasvogarchilik va ur-to'polonlar natijasida Amir xotini Sofiya xotun bilan qizi Qatibaning oldida yana sharmanda bo'ldi. Sofiya xotun Amirning xonasiga kirib g'azab bilan:

— Sen bunday rasvogarchiliklarni qachongacha qilasan? — dedi.

— Avval masalani yaxshilab tushunib olish kerak, — dedi Amir.

— Qanday masalani?

— Nomusli kanizak katta bir xiyonatni fosh qilibdi. Dilshod saroyda bo'lgan hamma sirlarni Faxriddinga yozib yuborgan emish.

Ol, o'qi Faxriddin o'z maktubida unga nimalar yozganini o'qib ko'r.

Amir maktubni Sofiya xonimga uzatib ilova qildi: — Nomusli qiz maktubni menga topshirgani yonimga kelgan edi. U bilan gaplashib, topshiriqlar berdim.

Qatiba bu gaplarni eshitganidan so'ng yig'lab yubordi.

— Bechora, baxtsiz kanizagim, — dedi-da, undan xabar olgani tabibxonaga yugurdi.

HAYAJON

Xalifaga yuborgan maktubini Faxriddin tomonidan qo'lga tushirilib, undan bir necha nusxa ko'chirilib devorlarga yopishtirilganidan so'ng qishlog'-u shaharlarda Amirga qarshi ko'tarilgan yangi qo'zg'olonlar haqida xabarlar kela boshladi.

Amirning boshi qotib qoldi. U vaziri To'xtamishni huzuriga chaqirib:

— Devorlarga yopishtirilgan maktub haqida qanday tadbirlar ko'rding? — deb so'rali.

Vazir Amirning hayajonini bosishga urinib dedi:

— Amir amin bo'lsinlar, tahlikaga qarshi choralar ko'rilgan.

Amir taajjub bilan, ishoninqiramagan bir ohangda so'radi:

— Bu qadar katta tahlikaga qarshi qanday vositalar bilan qarshi turish mumkin? Ko'rinib turibdiki, sen yana menga tashqaridagi hodisalarning aksini gapirmoqdasan. Xalqning menga qarshi yog'dirayotgan la'natlarini duo va sanolar shaklida ko'rsatishga harakat qilmoqdasan.[1]

To'xtamish xalifaning muqaddas nomiga ont ichib, Amirning boshqa xayollarga bormasligini so'radi, Amir esa, tahlikaning oldi

[1] Ochlikdan va ma'murlarning zulmidan jonidan to'ygan ozarbayjon xalqi Amir saroyining qarshisiga kelib, unga la'natlar yog'dirib shovqin-suron ko'targan paytlarida Amir To'xtamishni o'z yoniga chaqirib, tashqarida qanday hodisa ro'y berganini so'raganida, To'xtamish alhamdulilloh, mamlakat osoyishta, arzonchilik va ma'murchilik. Shuning uchun ham xalq Amirning darvozasiga to'planib, uning umr-davlatining ziyoda bo'lishini tilamoqda" deb javob bergan.

qanday vositalar yordamida olinganini surishtirdi. Vazir Amirni xotirjam qilish uchun qo'ynidan bir qog'oz chiqarib unga uzatdi va:

— Oron aholisiga quyidagi mazmunda bir murojaatnoma tarqatildi,— dedi.

Amir murojaatnomani o'qidi:

"Oron aholisiga:

Shu kunlarda Oronda paydo bo'lgan yashirin bir tashkilot tarafidan Ozarbayjon mustaqilligiga qarshi xiyonat sodir bo'lgan. Qo'lga tushirilgan mufassal ma'lumotlarga ko'ra, bu tashkilot ish boshidan haydalgan forslar va arablar tomonidan tuzilgandir. Tashkilotning boshida Amirning sobiq kotibi Muhokim ibn Dovud turar ekan. Ana shu xiyonatkor hatto, hukumatning xususiy muhrini o'g'irlab ketib yashiringan.

Ana shu tashkilot Amir hukumatiga qarshi xalqda nafrat qo'zg'atish maqsadida maxfiy xatlar yozib, o'g'irlangan hukumat muhrini bosib tarqatmoqda.

Shuning uchun ham hukumat Ozarbayjon va xususan Oron aholisiga murojaat qilib, haqiqatni anglatishni o'zining burchi deb hisoblaydi: sha'bon oyinning yigirma beshidan e'tiboran hukumatning imzosi va hukumat muhri bilan chiqarilgan xat-u hujjatlar hech qanday qimmatga ega emas. Bundan tashqari, Amir hamma nomusli fuqarolariga: kimki sobiq kotib Muhokim ibn Dovudning boshini olib kelsa, hukumatdan ming tilla mukofot oladi, deb murojaat qiladi".

Amir murojaatnomani o'qib, kamoli mamnuniyat bilan dedi:

— Ko'nglim qisman tinchidi. Seni bu yerga boshqa bir masala yuzasidan chaqirtirgan edim. Mahsatiy xonimni zo'r tantana bilan shaharga olib kirmog'ing kerak. Shu bilan xalqning olovlangan nafratiga suv sepa olasan. U shu bugun Isfahon qishlog'iga yetib keladi.[1] Buyuraman, xalqning hurmatini qozonmoq uchun uni buyuk izzat-ikrom bilan kutib olish lozim. Hukumatimizning obro'siga munosib taxti ravonlar yasatib, ellik nafar otliqlar bilan unya kutib olishga yuborasan. Qullar-u kanizaklar bayram liboslarida uning istiqboliga chiqishlari kerak. Shaharning eng ko'rkam eridan unga bino hozirlash lozim. Xo'sh, bu shunday bo'lsin... Endi, qani

[1] Isfahon qishlog'i Qorabog' bilan Ganjaning o'rtasidagi katta bir qishloqdir.

ayt-chi, xalifani bu voqeadan xabardor qilamizmi yoki yo'qmi? Mabodo xalifa bu voqealardan xabardor bo'lsa, unga qanday javob beramiz?

To'xtamish boshini liqillatib kuldi-da, dedi:

— Basharti Ozarbayjon aholisiga yozgan murojaatnomamizga ikki kishi ishonguday bo'lsa, ularning birinchisi xalifa bo'loladi. Xalifalar naqadar muqaddas va yuksak mavqega ega bo'lsalar, aql va tushunchada bamisoli bir yosh bola singaridirlar.

Amir ham To'xtamishning bu fikrini tasdiqlab farmon berdi:

— Mening fikrimga yana shunday bir tadbir keldi. Bir farmon yozib shaharlarga yubormoq darkor. Farmonda aholiga xabar berish kerakki, bundan avval mamlakatdan badarg'a qilinganlarning hammasiga afv umumiya beriladi, Har kim o'z vataniga qaytib kelishi mumkin, bundan buyon hech kimsa g'urbatda qolib ketmasligi kerak.

To'xtamish bu fikrga rozilik bermay, dedi:

— Amir hazratlarining bu tadbirlarining natijasida xavfli kishilar yanada ko'payib ketadi.

Amir uning bu so'ziga javob berib shunday dedi:

— Xavfli kishilar shaharning ichida, ko'z oldimizdadir. Surgundagilarning aksariyati esa, yana shu xavfli kishilarni qo'rqitmoq uchun surgun qilingan edilar. Gapimga quloq sol, bu tadbirimiz xalqqa bergan mustaqilligimizga ishonmaganlarning shubhalarini chippakka chiqaradi. Fursati kelganida surgundan qaytganlarni yana qaytadan hibsga ola bilamiz, lekin bu safar surgunga emas, boshqa bir yerga yuboramiz... Endi Dilshod masalasiga kelganda, fikrimcha, Faxriddinni shubhaga solmaslik uchun Dilshodni hibsdan ozod qilishimiz kerak.

Vazir biroz uylab turganidan so'ng boshini ko'tarib shivirlab dedi:

— Dilshod bilan Faxriddinning yozishmalaridan shubham bor. Bu yerda boshqa bir qo'l borligini sezyapman. Bu haqda chuqurroq o'ylab ko'rish kerak. Bu ishda ishlayotgan uchinchi kishi saroyimiz ichidadir. Ana shu kishi keyingi vaqtlarda Amir tomonlaridan hurmatga sazovor qilingan Sabo xonim emasmikan degan gumonim bor. Shu to'g'rida to'plagan ma'lumotlarim bu fikrimni isbotlaydi.

Amir taajjublanib:

— Ishonolmayman, — der ekan, vazir o‘z fikrini yanada ochiqroq qilib bayon etdi:

— Sizga berilgan maktub Faxriddin tomonidan yozilganiga hech qanday shubha yo‘q. Lekin Dilshodning Faxriddinga yuborgan maktubi esa shubha tug‘diradi. Sizga savol, nechun Faxriddin Dilshodga Sabo xonim orqali maktub yubordi? Maktubdagi: “Yozgan maktubingni oldim, topshiriqlaringni ham. Sen batafsil yoz. U yerda nimalar eshitding? Men hech vaqt seni tashlamayman” degan gapdan ma’lum bo‘ladiki, topshiriqlarni xabar qilgan kishi Sabo xonimning o‘zidir. Bu bir, ikkinchisi esa, Faxriddinning Dilshodga yozgan “batafsil yoz, u yerda nimalar eshitding?” so‘zlari ham Dilshodga Faxriddinning tilidan aytilgan bir maktub ekanligining dalilidir. Agar shunday bir maktub yozilgan bo‘lsa, shubhasiz, bu ham Sabo xonim tomonidan yozilgan. Uchinchidan, Sabo xonim bilan Faxriddinning Shayx Saloh maqbarasida bir necha soat gaplashganlarini ko‘rib menga xabar berdilar. To‘rtinchidan, Sabo xonim bilan Faxriddin bir vaqtlarda bir-birlarini sevganlarini ham e’tiborga olish kerak. Butun bu mojaro Sabo xonimni Faxriddindan qasos olish maqsadida tug‘ilgandir. Amir hazratlari keksa vazirining maslahatlarini eshitib Sabo xonimdan voz kechishlari kerak. Agarda u pokiza bo‘lganida edi, bu qadar favqulodda go‘zallikka ega bo‘lgan qizni uch ming dirhamga sotmagan bo‘lardilar.

Amir biroz o‘ylab, so‘ngra:

— U qiz sayqallanmagan bir olmosdir, — dedi.

To‘xtamish Amirga ta’zim qilib chiqib ketganidan so‘ng, Amir xoja Mufidin chaqirib, Dilshodni huzuriga olib kelishni buyurdi. Xoja Mufid Dilshodni olib kirdi-yu, lekin uni Amirning xonasida yolg‘iz qoldirmadi. Chunki Amir ba’zan xalifa uchun ajratilgan kanizaklarning ham nomusini bulg‘ab, “qiz xastalikda o‘ldi” deb xalifaga ma’lumot berardi.

Dilshod juda zaif bo‘lib, chehrasi erta tongda ochilib, oqshomda so‘lishga boshlagan gul yanglig‘ o‘z tabiiy rangini yo‘qotgan edi. Uning tik oyoqqa turishga majoli yo‘q edi. Shuning uchun ham Amir uni tezroq bo‘shatib yuborish uchun qisqa-qisqa savollar berdi:

— Sen Faxriddinga maktub yuborganmiding?

— Hech qachon hech kimga maktub yuborgan emasman.

— U senga maktub yuborganmidi?

— Yuborgani yo‘q.

— Sen unga topshiriq berganmiding?

— Amirning ulug‘ligiga ont ichamanki, na maktub yuborganman va na topshiriq berganman. Agar shunday bir hodisa ro‘y bergan bo‘lsa, bu menga qarshi to‘qilgan bir bo‘htondir.

— Men seni hibsdan ozod etishni buyurdim, ertaga qizim Qatiba bilan birga taxtiravonda shoira Mahsatiy xonimning istiqboliga chiqasan.

Amir shularni aytgach, xoja Mufidga:

— Buning hamma zeb-ziynatlarini o‘ziga qaytarib ber! — dedi.

ISTIQBOL

Mahsatiy xonimni qarshi olishga chiqqan odamlarning bir boshi Isfahon qishlog‘ida bo‘lsa, bir boshi Ganja yaqinidagi Xonaqoh qishlog‘ida edi. Ganja shahri bunday tantanali kutish marosimini faqat 511-yil hijriyda, sulton Sanjar birinchi martaba Ganjaga kelgan kuni ko‘rgan edi.

Mahsatiy xonimning istiqboliga chiqqanlar bir necha guruhga bo‘lingan edilar. Bularning ichida kishilarning diqqatini jalb etadigan guruh, faqat shoirlar, yozuvchilar, xonanda va sozandalar, umuman, adabiyot va san’at xodimlari guruhi edi.

Kutib olish uchun chiqqanlarning hammasi otliq edi. Eng oldinda Nizomiy, uning bolalik va o‘spirinlik vaqtlaridagi do‘sti Faxriddin borar edi. Bayroq va tug‘lar yo‘q edi, lekin qurolli guruhlar safarga chiqqan bir lashkarni eslatardi. Xotin-qizlar guruhi taxtiravonlarda, aravalarda borar edilar va hammaning diqqatini o‘zlariga jalb etardilar.

Xalqning diqqatini jalb etgan eng zavqli guruh Mahsatiy xonimning shogirdlaridan tashkil topgan guruh edi. Bu guruhdagilar musiqa asboblarini olib chiqqan edilar. Ud, kamoncha, doira va boshqa asboblar ko‘targanlar bilan birga Mahsatiy xonimning ruboiylarini

yoddan aytuvchilar ko'p edi. Ot va aravada chiqqanlardan tashqari, piyodalar ham talaygina bor edi. Yo'lning ikki tomonidan boruvchi qiz-juvonlar dalalarni qip-qizil lolazorga aylantirgan edilar.

Istiqbolga chiqqanlar faqat ganjaliklargina bo'lmay, quyi Tiflisdan boshlanib, Shamkir, Yurt, Og'sivonchoy[1], Yam va boshqa qishloqlarning jamoalari ham kutish marosimida ishtirok etardilar. Lekin hukumat tarafidan yuborilgan kutuvchilar o'zlarini qanchalik tantanavor tutishga urinmasinlar boshqalardan keyinda kelardi. Husomiddin atrofida bir guruh davlat arboblari bilan hukumat tomonidan yuborilgan kutuvchilarni idora qilib borar va xalqning Mahsatiy xonimga nisbatan ko'rsatgan ehtiromini hukumatga qarshi bir namoyish deb o'ylar va Mahsatiy xonimni Ganjaga qaytishi uchun hukumatning chiqargan qarorini katta siyosiy xato deb hisoblar edi, chunki bu istiqbolga chiqish xalqni hukumat dushmanlarining atrofiga tortar edi. Ganja shahri deyarli bo'shab qolgandi, shaharda qolganlar faqat ruhoniylar-u ularning muridlari edi. Ganjada qolganlarning aksariyati bir vaqtlar Mahsatiy xonimni Ganjadan haydalishida ishtirok etganlar, unga tosh otganlar va haqoratlagan kishilar edi. Bundaylar bomdod namozini ado etish uchun Sanjar va Saljuq jomelariga borib, tushga qadar masjiddan tashqari chiqmagandilar. Ular kofirlik zulmatiga burkangan dunyoni yorug'likka chiqarish umidida Xudoga yolvorib yig'lar edilar.

Xo'jako'rsinga hukumat tarafidan ta'qib etilgan muridlar esa, uylariga berkinib olib bu tantananing, shovqin-suronini eshitmaslikka harakat qilardilar. Guruhlar olg'a bormoqda edi, har kim ilgariga o'tib olib Faxriddin va Nizomiyni ko'rishga intilardi, suhbatlar faqatgina shu ikki siymoning ustida borardi. Har kimning og'zidan shunday so'zlarni eshitish mumkin edi:

— Birisining o'tkir she'ri, ikkinchisining esa, o'tkir qilichi bor.

— Birisini jang maydonlarida, ikkinchisini esa, shoirlar va olimlar majlisida tomosha qilsang.

— Ganjaning bozorlari bo'm-bo'sh, do'konlari yopilgan, Malikshoh maydonining atrofidagi hujralar, hatto, Mas'udiya karvon saroyidagi savdo-sotiqlar ham to'xtab, hamma kutish marosimiga

[1] **Og'sivonchoy (soy)** — hozirda Og'stafa deb ataladi.

jo‘nagan, chunki bu marosimning boshida xalqning sevgan kishisi Nizomiy va Oron mulkining qahramoni Faxriddin bormoqda.

— Men bular bilan birga o‘limga ham borishga tayyorman, chunki bular o‘zlari uchun emas, xalq uchun jondan kechgan kishilardir.

Saroy a’yonlari va mo’tabar kishilar oilasiga mansub bo‘lgan taxtiravonlar hammadan keyinda, hukumat otliqlarining muhofizasi ostida borar, tannoz xonimlar o‘tirgan taxtiravonlar va aravalarning shoyi pardalari goh ochilib, goh yopilar edi. Xonimlar bu tantana marosimlarini tomosha qilishga intilsalar, yosh-yalanglar esa taxtiravonlarda o‘tirgan qiz-juvonlarni ko‘rishga intilardi. Qatiba o‘tirgan taxtiravonning pardasi ochiq edi. U hamma guruhlarni ko‘ra olardi. Husomiddin Qatibani ko‘rarkan, otini taxtiravon yoniga surib, Qatiba bilan so‘zlashmoqchi bo‘ldi. Qatiba taxtiravon pardasini yopish harakatiga tushganida:

— Bir savolim bor, o‘tinib so‘rayman, pardani yopmang! — dedi. Qatiba to‘xtadi.

— Qani, ayt, qanday savoling bor?

— Siz yana har kuni o‘rmonga boryapsizmi?

— Har kuni emas, lozim bo‘lgan vaqtda.

— Hali ham o‘sha majnuntol to‘nkasida o‘tirishni davom ettiryapsizmi?

Qatiba so‘nggi savoldan kulgan edi, Husomiddinning jahli chiqdi:

— Bu savolda kuladigan nima bor?

— Bu savollarning boshdan-oyog‘i kulgili, sen meni qiziqtirgan narsa o‘sha majnuntol to‘nkasi deb o‘ylaysanmi? Men u to‘nkani emas, uning ustida yaratilgan badiiy bir olamni sevaman. O‘sha olamni yaratgan xalqni sevaman. Ajabo, sog‘lom his etuvchi qalbga ega bo‘lgan har bir inson u badiiy olam bilan maroqlanmaydimi? Undan olgan ma’naviy oziqlarni o‘z qoniga singdirmaydimi?

— Bas, bas, shunday bema’ni fikrlaringiz ulug‘ oila sharafi uchun bir dog‘ emasmi?

— Husomiddin, afsuski, yolg‘iz mengina sevaman. U sevgimga sevgi bilan javob bersaydi, dunyoda hech kimga ma’lum bo‘lmagan

xonadonimizni butun olam tanigan bo'lardi, faqat shundagina bizni najib xonadon deb atash mumkin bo'lar edi.

— Bu tabiiy bir hol. U sizni sevmagani uchun ham siz uni sevasiz. Qizlarda bo'ladigan bu odat bir kasallikdir. Mana shu kasallik natijasida qizlar haqoratlarga bo'yin egadilar, izzati nafs va nomuslarini barbod beradilar.

Qatiba darg'azab bo'lib dedi:

— O'ylaymanki, senga uzil-kesil javob berishimning vaqti kelgan. Bir karra shuni bilishning kerakki, seni hurmatlashim, otam bilan yaqin bo'lganing uchun edi. Vaholanki, sening qo'polliklaringni hech qachon hazm qilolmasdim. Bu hurmat sen bilan turmush qurishga yordam beradi deb o'ylab xomtama bo'lma. Shuni bilginki, qizlar sevganlari uchun dardga mubtalo bo'lmaydilar, salohiyatli va mashhur odamlarni sevmoq yuksaklarga ko'tarilmoq uchun tashlangan birinchi qadam bo'ladi. Haqorat va hurmatsizlik xotinlarning istehzoli kulishlarini sevgan nishonalari deb ta'bir etmoq imkonidan xorij bo'lgan ishlarni qo'lga kiritish va xayolparastlik qilishdan iboratdir. Sen bu shoirni juda haqir hisoblama, u hali yosh. Faqat bizga o'xshagan yoshlardan emas. U yosh-u, lekin bir olim darajasida ulug'. Sen u bilan suhbatlashganing yo'q, uning siymosida sening va mening shuurimiz doirasiga sig'maydigan bir kuch bor. Uning hayotga oid tushunchasi, tabiatga doir nazariyalari, falsafiy qarashlari o'lchab bo'lmaydigan darajada ulkandir. Uning tabiatidagi g'urur, fikridan o'rin olgan mag'lub bo'lmaydigan iroda olamdagi biror qahramon yoxud biror hukmdorda ham bo'lishi amri mahol. U oddiy shoir emas, u hayot tajribalarini tahlil qila bilgan va insonlarning ruhini o'qiy olgan bir ruhiyatchi olim qadar mohirdir. Senga kelsak, oddiy, savodsiz, o'tmishini unutgan, kelajagini o'ylamagan bir odamsan. Sen bir askarsan, faqatgina bir qiliching bor, xolos. Bu qilich esa, bir hukmdorning soyasidagina seni shuhratga ega qila oladi. Aks holda, u oddiy bir temirdir. U zanglaydi, qorayadi, egilib-bukilib ketadi. Hatto, oddiy temirlik qimmatini yo'qota oladi. Lekin sen haqir hisoblagan yosh shoirning yaratgan asarlari xalqning tilida takrorlangani va o'qilgani uchun ham tobora jilolanadi va sayqal topadi. Shuning uchun ham sening u shoirga adovat saqlashing o'rinsizdir, chunki u yigit hech qachon

menga sevgi izhor etmagan. Shuni bilginki, behudaga mening sevgimga monelik qilasan. Shoir meni rad etgani bilan, sen mening sevgim bilan baxtiyor bo'lolmaysan. Hozircha u meni so'z va qarashlari bilan tahqir etgani yo'q. U mening ko'nglimni sindirgani yo'q. Uni jazolash fikrida bo'lishing o'rinsiz, chunki uning orqasida Oron mamlakatining mashhur qahramoni Faxriddin turibdi. Balki bir kun kelib, o'zim u shoirni jazolashga majbur bo'larman. Lekin hozir uni tahqir etish meni tahqir etish bilan barobardir. Senga bir marta aytgan edim, takror aytaman. Qalbing qaysi bir qizni sevsa, mendan yashirma, sevganing qayerda va kimning qo'lida bo'lsa, uni qo'lga olishni o'z zimmamga olaman.

Husomiddin avzoyi o'zgarib dedi:

— Meni bunaqangi so'zlar bilan tahqirlamang, men istehzoli kulishlarga sevgi ma'nosini beradigan odamlardan emasman. Men muhabbat haqidagi ishoralaringiz hamda vazirning va'dalariga ishonib sizga muhabbat izhor etgandim. Men sizning ehtiromingizga ham muhtoj emasman. Sizdan meni uylantirib qo'ying deb ham iltimos qilmayman. Meni Faxriddin bilan ham qo'rqitmay qo'ya qoling. Basharti o'sha shoirni o'ldirmoqchi bo'lsam, Faxriddin menga pisand emas. Esonlik bo'lsa, kimning dongdor qahramon bo'lishini ko'rasiz. Hozircha Ozarbayjon mamlakati Husomiddinni tanigani qadar Faxriddinni tanimaydi.

Qatiba pinagini buzmay Husomiddinga javob berdi:

— Men sening qahramonligingni qo'lingdan olmoqchi emasman va uni inkor ham etmayman. Lekin senga shuni demoqchimanki, qahramon zabt etib bo'lmaydigan bir qal'ani fath etsada, bir qalbni fath eta olmaydi. Xususan, birgina qizning, hatto, seni sevmaydigan bir qizning qalbini... hozircha sening qahramonliging to'g'risida tarix sahifalarida biror qal'ani zabt etdi degan xabar qayd qilingani yo'q. Esingni yig', Sabo xonimning aytishiga ko'ra, shoirning sevgilisi Ra'noni sen ham sevarmishsan. Men Sabo xonimni bu ishga yo'llayman, u qizning qo'lidan hamma ish keladi, qizning ota-onasini ham rozi qila oladi.

Husomiddin e'tiroz bildirib dedi:

— Yo'q, Qatiba, siz menga bunday maslahat bermang. Siz bu xizmatni mening yuz-xotirim uchun emas, shoirni o'z sevgilisi-

dan ayirib, uni o'z sevgingizga bog'lamoq uchun taklif qilyapsiz. Siz inkor etsangiz ham, baribir menda qahramonlikka xos bo'lgan tushunchalar bor. Agar shoir u qizni sevsa, qo'ying, sevsin, men boshqalarning sevgisiga to'siq bo'lishni istamayman. O'z sevgimni boshqa sevgilarga ham almashtirolmayman. Sabo xonimning ishbilarmonligiga kelsak, uning makkorligi menga ma'lumdir. U ilgarilari Abulullonning qizi Mohtob xonimdan menga maktublar keltirib berardi. Nihoyat, maktublarni o'zi tomonidan yozilganini sezib qoldim. Bu nayranglari fosh bo'lgach, uning o'zi menga muhabbat izhor qila boshladi va Mohtob xonimni qoralab olgan hadyalarni o'zimga qaytarmoqchi bo'ldi. Lekin men unga Qatibani sevaman dedim. O'shandan so'ng u sizning to'g'ringizda ham meni umidvor qila boshladi, men ishondim, chunki sizning xatti-harakatlaringiz ham ishonishimga huquq bergandi. U sizning yoningizdan keliboq menga Ra'noni maqtay boshladi, hatto, undan menga maktublar ham keltirdi. Lekin men unga ortiq ishonmasdim, chunki bu keyingi hiylalarni Sabo xonim tarafidan chiqarilganini bilardim. Dilshodning baxtsizligiga ham sababchi Sabo xonimingiz bo'ldi. Faxriddinga maktub yuborib, uni avrab, Dilshodga maktub yozdirib olish mojarolari ham o'shaning ishi edi. Lekin u yigitni qizga, qizni yigitga qo'shishni kasb qilish birga, o'zi ham Amir hazratlari bilan yaqinlik qilib, Amir haramxonasiga kirib oldi.

Qatiba unga g'azab bilan baqirdi:

— O'chir ovozingni! Bu so'zingni takrorlay ko'rma, onam eshitguday bo'lsa, o'zini o'zi o'ldiradi. Otam xalifaning kuyovi. Saboga o'xshagan cho'ri qizlarni o'ziga munosib ko'rmaydi. Sen sevgi to'g'risidagi fikrlaringdan voz kechganingdan so'nggina mening marhamatim va mukofotimga sazovor bo'la olasan. Sen mendan kutganing sevgiga muyassar bo'lolmaysan. Bunday fikrlar bizning do'stligimizni ham mahv eta oladi. Men ona tomondan arabman. Arab qizining so'zi bitta bo'ladi. Senga bir martaba "yo'q" degan edim. Yana aytaman, yo'q!

Husomiddin ham qat'iy suratda dedi:

— Shuni sizga aytib qo'yayki, xalifa bobongizdan, Amir otangizdan qo'rqmayman. Sizni ogohlantirib aytaman, yetti podshohning biridan chiqib, boshqasiga tekkaningizda ham, baxtli bo'li-

shingizga yo'l qo'ymayman. Qatiba, siz bu so'zlarni unutmang, siz meniki bo'lmasangiz, boshqalarniki ham bo'lolmaysiz, sizning baxtli bo'lishingiz menga nasib bo'lmasa, baxtsiz bo'lishingiz mening qo'lim bilan bo'ladi.

Qatiba bunga javoban:

— Meni hech kim olmagan taqdirda ham, senga tegmayman, kel, ikkimiz ham o'z istiqbolimizni sinaylik, — der ekan, Husomiddin ham:

— Aybi yo'q, keling, sinashaylik, — deb otining boshini burdi.

Qatiba ham taxtiravonining shoyi pardasini tushirdi.

* * *

Faxriddin Dilshodning taxtiravonda Mahsatiy xonimning istiqboliga chiqqanini eshitib sevindi. U bilan anchadan beri ko'rishmagandi. Sabo xonimning nayranglarini aniqlash uchun Dilshod bilan o'zi gaplashmoqni istardi. U Nizomiydan ajralib keyinda qoldi, otining boshini taxtiravonlar borayotgan tarafga burib, Dilshodning taxtiravonini axtarardi. Eng oxirda kelayotgan taxtiravonning moviy atlas pardasi ko'tarildi, undan bir qo'l cho'zilib yaqinroqqa kelishini ishora qilishi bilan, Faxriddin uzatilgan qo'lni bilaguzugidan tanidi va otini ilgari surdi.

Dilshod taxtiravon darchasidan qarab, Faxriddinni ko'rar ekan, yig'lab:

— Oh, Faxriddin! Mening boshimga qanday kulfatlarni solmading! — dedi. Unga javoban Faxriddin:

— O'zingni bos, jonim, vaqt oz, masalani oydinlashtirish kerak. Sen shuni bilginki, u maktubni senga men yozganim yo'q.

— Qaysi maktubni?

— Menga yuborgan maktubingga javob maktubini.

— Men hech qachon sendan maktub olganim yo'q. Senga maktub ham yuborganim yo'q.

— Sabo xonim orqali menga topshiriq bergan emasmiding?

— Men Sabo xonimga hech nima deganim yo'q, senga ham hech qanaqangi topshiriq berganim yo'q. Sen unga qanday ishonib maktub topshirding? Maktubingni olib kelib Amirga topshirishdi. Ko'pdan beri zindondaman. U behayo cho'ri meni halok etdi. Sevgisini rad etganing uchun mendan qasdini oldi.

Bu so‘zlardan keyin Faxriddinning qoni qaynab ketdi, ayni fursatda ahmoqona va nodonlarcha ish tutgani uchun uyaldi va o‘z-o‘zidan nafratlana boshladi. U faqatgina qisqa bir jumla bilan:

— Meni kechir, Dilshod, — dedi, — bo‘lar ish bo‘ldi. Endi ortiq g‘am-u g‘ussalar va hijron-judoliklarning nihoyasi yaqindir.

Dilshod oh tortdi:

— Oh, Faxriddin, sen yana aldanyapsan. G‘am-u hijronlar endi boshlanadi. Amir fursati yetgani zamoniyoq meni xalifaga jo‘natadi. Sen bularni tushunib turib meni ham, o‘zingni ham aldayapsan.

— Sen Amirning bundan so‘ng muvaffaqiyat qozonishiga ishonma. Hukumat Eldanizning o‘g‘lonlari qo‘lida bo‘lsa ham, Amir Inonjning hukumat boshida qolishiga ishonmayman. Ular kelajakni ta’minlash uchun hokimiyat boshiga o‘z kishilarini qo‘yishga urinadilar. Saljuq shahzodalari davlatlari inqirozga yuz tutgan bo‘lishiga qaramay, Kirmonda, Iroqda, hatto, Mo‘sulda ham hukumat tuza boshladilar. Shuning uchun ham Eldanizning o‘g‘lonlari ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majburlar. Ular saljuqiylar davridan Ozarbayjonda hukm surgan kishilarni ish boshida qoldirmaydilar. Hozir Sharq o‘lkalarida ro‘y bergan siyosiy hodisalar bizga saodatdan xabar bermoqda.

Dilshod yana Faxriddinning bergan tasallilariga ishona olmadi va:

— Faxriddin, baxtli bo‘lish uchun hodisalarga tayanish soddadillikdir,— dedi.— Meni kutib turgan baxtsizlik juda yaqin. Agar menga najot berish fikrida bo‘lsang, meni saroydan olib qoch, aks holda, kechikkan bo‘lamiz.

— Amin bo‘l, bizni baxtsizlikka yetaklamoqchi bo‘lganlarning o‘zlari ham baxtli bo‘lolmaydilar. Men baxt tantanasini ularning qabri ustida ko‘raman, men seni saroydan bir o‘g‘ri singari bo‘lib emas, balki qahramonlik ko‘rsatib xalos etaman-da, Beylakonga jo‘nataman. Sen o‘z ota-onangni ko‘rib, barcha g‘am-g‘ussalarni unutasan. Dilshod yolg‘iz senigina emas, men saroyning chirkin devorlarini ag‘darib tashlab, yuzlarcha baxtsizlarni qutqaraman. Sen menga ishon, u devorlarni, faqat zulm va sitamlarga to‘lgan hashamatli saroyni vayron-talqon qilib o‘rnini qabristonga aylantirmasam, Faxriddin otimni boshqa qo‘yaman. Senga najot berish

bilan birga, zeb-ziynatlar bilan bezangan yuzlarcha asiralarning bo'yinlaridagi ko'rinmas zanjirlarni ham uzib tashlayman. Lekin bu gaplarni hech kimga aytma. Saroy ahli ko'z ko'rmas sitamlar ostida ezilgan asirlar bo'lsalar-da, baribir qo'rqinchlidirlar, chunki u yerda farog'atda yashamoq uchun boshqalarni rohatdan mahrum qilishga majburdirlar. U yerdagi baxtiyorlik eng jirkanch bir badbaxtlikning ustiga qurilgan.

Dilshod Faxriddinning shu so'zlarini tasdiqlab dedi:

— To'g'ri aytasan, Faxriddin. U yerda rashk, intiqom va fitnalardan boshqa hech narsa yo'q. Xususan, Amir tomonidan sevilgan kanizaklar Amirning bosh xotini Sofiya xotun tomonidan tahqirlanadilar. Sen shuni bilginki, kanizaklarning saroyda eshitgan haqoratlarini dunyoning eng odobsiz va axloqsiz kishilaridan ham eshita olmaysan. Meni kechir, Faxriddin, saroyda fohisha bo'lmaganlar ham fohisha kabi hayot kechirmoqdalar. Ular Amirning ehtirosini qo'zg'atish va iltifotidan bahramand bo'lish uchun turli-tuman ishva-yu nozlar qilishga majburlar. U yerda xushomadsiz yashash mushkul. Xoja Mufiddan tortib, eng oddiy bir xizmatkorga qadar hammaning kanizaklar ustida hukmronligi bor, chunki ularning Amirga yetkazadigan xabarlari faqatgina o'zlari o'ylab to'qigan uydirmalardir. Saroyda gap tashimagan, yolg'onchilik qilmagan, bir-birini sotmaganlarning yashashi mumkin emas. Sofiya xonim meni eridan rashk qilganidan, o'zining xususiy axta quli Zurr'aasni[1] meni kuzatib yurish uchun poyloqchi qilib qo'ygan. U juda jirkanch bir arab, uni har ko'rganimda hushdan ketish darajasiga boraman. Endi o'zing o'ylab ko'r, men naqadar tuban bir odamning irodasiga bog'liqman. Rahming kelib, meni bu jirkanch hayotdan xalos etmasang, o'zimni o'ldirishdan bo'lak choram qolmaydi.

Faxriddin Dilshodga va'da berib, undan uzoqlashdi, chunki orqasidan dabdabalar bilan kelayotgan taxtiravon yaqinlashmoqda edi. Keyin ma'lum bo'lishncha, bu taxtiravonda Sabo xonim bor ekan, uni kuzatib keluvchilar esa, Amirning maxsus otliq kishilari ekanlar, bu manzaradan har kim ham Sabo xonim bilan Amirning o'rtasida mustahkam aloqa mavjudligini payqab olgan bo'lar-

[1] **Zurr'aas** — katta boshli ma'nosidadir.

di. Saroy ahlidan kutish marosimiga kelayotganlarning aksariyati Sabo xonim yana yangi mojarolarga tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lmasin deb o'ylab, undan qo'rqar edilar. Taxtiravonning pardasi ochiq bo'lgani uchun Faxriddin Sabo xonimni darhol tanidi. Sabo xonim unga e'tibor bermaganday bo'lib qaramadi, chunki uni Dilshod bilan uchrashganini ko'rib o'z fisq-u fasodlarining fosh bo'lib qolganini angladi. Shuning uchun Sabo xonim o'z taxtiravonini Dilshodning taxtiravoni orqasidan yurgizib, uni kim bilan gaplashishini kuzatib borardi. Faxriddinning otini ko'riboq qo'rqqanidan a'zoyi badaniga qaltiroq turib ketdi, chunki u oshkora bo'lib qolgan xiyonatini Faxriddin tarafidan kechirilmasligini bilardi. Sabo xonim o'zining loqayd vaziyatini davom ettirolmadi. Otliqlardan birini Faxriddinni chaqirib kelish uchun yubordi, lekin Faxriddin uning da'vatiga quloq solmadi.

Nizomiy boshchiligidagi kutuvchilar guruhi "Ali chashmasi" degan buloq yoqasida Mahsatiy xonim karvoniga duch keldilar. Eng avval Nizomiy bilan Faxriddin otdan tushdilar. Bir nafasda Mahsatiy xonim o'tirgan taxtiravonni yuzlarcha shoirlar, adiblar, xonandalar, she'r va musiqa shinavandalari o'rab oldilar. Taxtiravon Mahsatiy xonimning shogirdlari va muxlislari keltirgan guldastalarga to'lib ketdi. Taxtiravon to'xtaganda xalq uni cholg'u asboblarining orombaxsh taronalari ostida kutib oldi. Faxriddin bilan Nizomiy Mahsatiy xonimning qo'lidan tutib taxtiravondan tushirdilar. Mahsatiy xonim Faxriddin va Nizomiy bilan so'rashar ekan, ularning peshonalaridan o'pdi-da:

— Umrim bino bo'lib shu kundagiday xursand bo'lgan emasman, — dedi-da, hayajonidan tovushi tutilib qoldi. Birozdan so'ng yana so'zini davom ettirib dedi: — Doimo o'lim bilan jang qilib tepamga bostirib kelgan ajalni ostonamdan qaytarardim, chunki men bir on bo'lsa-da, o'z vatanimda erkin nafas olmoq va do'stlarim bilan ko'rishib o'lmoqni istardim. Ana shu orzumga etishdim, endi o'lsam armonim yo'q.

Mujiriddin Mahsatiy xonimga juda diqqat bilan tikilardi, chunki hukumat uni Ganjadan badarg'a qilgan mahalda sochlarining oqi juda siyrak edi, endi bo'lsa, sochlari paxtaday bo'lib ketgandi. Qora ipak kamzulining ustiga yoyilgan oq va pokiza sochlari keksa

shoirani ancha yosh ko'rsatar edi. Shuning uchun ham Mujiriddin unga bag'ishlab yozgan she'rida bundan dedi:

Bu sho'xi navvod solada holat yana qolmish,
Gisuyi safidinda tarovat yana qolmish[1].

Hukumat tomonidan Mahsatiy xonimni kutib olgani yuborilgan bir to'da kishilar ham yetib kelishdi. Husomiddin otdan tushib, Qatibaning taxtiravoniga yaqinlashdi. Qullar darhol taxtiravonga zinapoya qo'ydilar. Husomiddin taxtiravon eshigini ochib, Qatibani tushirarkan, taxtiravon atrofiga to'planganlarga go'yo ipakli matolar va qimmatbaho gilamlar bilan bezatilgan qafasdan go'zal tovus tushirilayotganday tuyuldi. Qatiba taxtiravondan oyog'ini yerga qo'yarkan, uni yuzlarcha kanizak va cho'ri qizlar o'rtaga oldilar. Qatiba Mahsatiy xonim turgan erga ana o'sha qiz-juvonlar qurshovida bordi, bir necha qadam qolganda, yolg'iz o'zi ilgarilab, Mahsatiy xonimga yaqinlashdi. U avval Mahsatiy xonimga bosh egib ta'zim qildi. Keyin qo'lini o'pib, orqasiga tisarildi-da, Ganjaga qaytib kelishi bilan tabriklab dedi:

— Sizni ozod ona yurtingizga qaytishingiz bilan qutlayman. Ota-onalarning nomlaridan sizga samimiy salom yetkazish uchun vakil qilinganman. Ayni zamonda sizning vatanga qaytishingiz bilan barcha Oron xalqini tabrik etaman. Bugun musiqa, she'r va san'at ahlining tarixiy bir bayramidir. O'zim ham qalban va ruhan bu bayramda ishtirok etishim bilan faxrlanaman.

Qatiba bu so'zlarni aytganidan so'ng yana Mahsatiy xonimning qo'lini o'pdi-da, orqasiga tisarilmoqchi bo'lganida, buyuk shoira uning peshonasidan o'pib minnatdorchilik izhor etdi.

Qatiba orqaga qaytib, Faxriddin bilan Nizomiyning yoniga keldi va ularni ham tabriklab dedi:

— Bu bayramni hammadan ko'proq siz olqishlashingiz kerak. Shuning uchun ham men sizni alohida tabriklayman. Bu bayram xalqning madaniyat bayramidir. Bu mamlakatda hamma narsa

[1] *Mazmuni:* "Bu to'qson yoshga kirgan ayol hali ham go'zal, oq sochlari hali ham o'z tarovatini yo'qotmagan". Mahsatiy xonimning hayoti o'ziga asrdosh bo'lgan Sulton Sanjar va Umar Xayyomning hayot tarixi bilan taqqoslanganida, uning yuz yilga yaqin umr ko'rgani taxmin etiladi.

farovon, ma'mur-cha'mur. Lekin noyob kishilarning hisobi hech qachon ehtiyoj va hayotning talab qilgani qadar ko'p bo'lgan emas. Shuning uchun siz va biz butun borlig'imiz bilan harakat qilib buyuk san'atkorning yana uzoq yillar umr ko'rishini ta'min etishimiz lozim.

Nizomiy bilan Faxriddin Qatibaning bu ko'rsatgan iltifotini qanchalik samimiyligiga uncha e'tibor bermay, unga tashakkur izhor qildilar. Buyuk shoira istiqboliga chiqqanlar Ganjaga tomon harakat qilishlari kerak edi. Butun Ganja va Shamkir aholisi yo'llarda turib Mahsatiy xonimni ko'rishni istardi. Mahsatiy xonimning qo'lidan tutib taxtiravonga o'tkazdilar.

Hukumat tomonidan istiqbolga kelgan to'dalarga boshchilik qilgan Husomiddin Mahsatiy xonimni Amir saroyi tomon boshlar ekan, Mahsatiy xonim rozi bo'lmay dedi:

— O'tinib so'rayman sizlardan, meni tug'ilib o'sgan va nash'u namo topgan mahallamga olib boringlar!

Nafis san'at ahllari yashagan mahallaga, Xarobat mahallasiga olib boringlar. Meni mahallada yashash ishtiyoqi quvontira oladi.

Nizomiy Mahsatiy xonimning qulog'iga nimanidir shivirladi. Shu zahoti Mahsatiy yuzida qayg'u alomati paydo bo'ldi. Uning ahvoli ruhiyasi o'zgardi. Nizomiydan eshitgan so'zlari uning qulog'ida yana takrorlandi:

— Ortiq Xarobat mahallasi yo'q, sizni Ganjadan badarg'a qilishgan kuniyoq xatib va Amir Inonjning amri bilan muridlar Xarobat mahallasini vayron qilib, kulini ko'kka sovurganlar.

Mahsatiy xonimning o'zi ham, Nizomiy ham, Faxriddin ham hukumat tayyorlatgan binoda yashash tarafdori emas edilar. Ular hukumatning bu iltifotiga vaqtincha bir o'yindek ma'no berardilar. Shunga ko'ra ular Mahsatiy xonim Nizomiyning uyida istiqomat qilsin degan fikrga keldilar. Oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'yilgandi. Mahsatiy xonimga xizmat qilish uchun Faxriddinning uyidan xizmatchilar ajratilgan edi.

Mahsatiy xonimning istiqboliga chiqqanlar Nizomiyning eshigi oldida to'xtadilar. Faxriddin bilan Nizomiy keksa shoiraning qo'lidan tutib taxtiravondan tushirdilar, shuningdek, Qatibani ham taxtiravonidan tushishiga yordamlashdilar. U xayrlashar ekan, dedi:

— O'ylaymanki, bu ko'rishuvimiz oxirgi ko'rishuv emas. Buyuk san'atkorning ziyoratiga tez-tez noyil bo'la olamiz.

Mahsatiy xonim kuzatuvchilar bilan xayrlashib ichkariga kirgani hamono, hovlida uni xizmatchilar va joriyalar qarshi oldilar.

Nizomiy esa mamnuniyat bilan erkin nafas olarkan, o'z-o'ziga: "Naqadar ulug' bir saodat, — dedi. — Buyuk san'atkorning xizmatida bo'lish va o'lguncha uni o'z tuqqan onamizdek sevish saodati bizga nasib bo'ldi..."

Shunday so'ng Faxriddinning onasi va Nizomiyning yaqin qo'shnilari Mahsatiy xonimni o'rtaga olishib, uning uchun maxsus tayyorlangan xonaga olib kirdilar.

"FARMONI HUMOYUN"

Bahromshoh bilan Otabek Muhammadning o'rtalarida davom etgan janglar tugagan edi. Kirmon shahri bo'sag'asida tuzilgan shartnoma Kirmon mamlakatining katta bir qismi Otabekning mamlakatiga qo'shib, To'g'rulning saltanatini yanada mustahkamlagandi.

Fors o'lkalarida turgan qo'shinlar poytaxtga qaytgan edi va u yerdan esa mamlakat ichkarisida mavjud bo'lgan tartibsizlikni bartaraf etish uchun lozim bo'gan joylarga yuborilgandi.

Shimoliy Ozarbayjonga arab, fors va iroqliklardan tuzilgan qo'shin kelgan edi. Xususan, Oron poytaxti bo'lgan Ganja shahriga Otabek Muhammadning maxsus qo'shnilaridan iborat katta bir kuch kelgandi.

Bu qo'shinning kelishi, uning ish boshlashi, ya'ni Otabek tomonidan chiqarilgan yangi qonunlarning e'lon qilinishi, soliq to'lashdan bosh tortgan qishloqlarga yuborilgan soliq yig'uvchilarning qurollangan jangchilar bilan chiqishi kelajakda qanday hodisalarning ro'y berajagini oldindan ko'rsatib turardi.

Shusiz ham Amir Inonjning qulay fursatdan foydalanish uchun ozarbayjon xalqiga mustaqillik haqidagi bergan va'dalarining mazmuni ma'lum edi, chunki zohirda Shirvon shohi Abulmuzaffarga qarshi qilinayotganday ko'ringan tashviqot-targ'ibot ishlari aslida

Shirvon shohi bilan Amir Inonj orasida tuzilgan bitim asosida qilinayotganini tasdiq etuvchi hujjatlar ham qo'lga tushirilgan edi. Oronga keltirilgan qo'shin dastalaridan bo'lak Shirvon shohining ixtiyoriga ham forslardan iborat alohida katta bir qo'shin dastasi kelgan edi. Otabek Muhammad tomonidan ko'rilgan bu tadbirlarning sabablari ham aniq edi. Shimoliy Ozarbayjon Otabek tomonidan chiqarilgan yangi qonunlarni qabul qilmasa, Shirvon shohligida joylashgan qo'shinlar Shirvonning maxsus qo'shini bilan birgalikda shimoliy ozarbayjonliklar orqasidan zarba berishi kerak edi. Otabek Muhammad bilan Shirvon shohi Abulmuzaffar o'rtasida harbiy ittifoq tuzilgani haqidagi xabarlar ham tarqalmoqda edi.

Nihoyat, mish-mish shaklida tarqalgan xabarlar haqiqat ekani ayon bo'la boshladi. Quyosh endigina chiqib, shahar xalqi uyqudan uyg'onar ekan, Amir jarchilari ko'chama-ko'cha yurib quyidagilarni aytib qichqirishdi:

"Saljuq jomesiga yig'ilinglar! Xalifaning farmoni o'qiladi, heyyy..."

Juma kuni edi. Malikshoh maydoni Ganja aholisi bilan liq to'ldi. Juma bozoriga savdo-sotiq uchun Dehiy, Pisaron[1], Xursanak, Isfahon, Yurt, Rud, Oqsuvon va Yam qishloqlaridan kelganlar ham xalifadan kelgan farmonning nimadan iborat ekanini bilishga qiziqib Malikshoh maydoniga to'planishgandi. Oronga qo'shin yuborilganini ko'rgan soddadillar "mustaqillikni himoya qilish uchun kelibdi, endi xalifa mustaqilligimizni tasdiqlagani farmon yuboribdi-da", deya boshladilar. Masjidda bo'sh o'rin qolmagandi, qirq ustunli katta masjidning xotinlar xonaqohiga ham minglarcha xalq joylashgan edi. Masalaning haqiqatini bilganlar ham, bilmaganlar ham farmonni eshitishga oshiqardilar.

Faxriddin bilan Nizomiy hammadan avval masjidning ziyoli va arboblarga xos xonasida o'tirib Amirni va Ganja qozisini intizorlik bilan kutardilar.

---

[1] Shu yerda anaxronizm bor. Romanda tasvir etilishicha bu qishloqning nomi "Jonpo'lod" bo'lgan, Otabek Muhammad shu qishloqning sohibjamol qizi Go'zalga uylanib, undan ikki farzand ko'rgach, ana o'sha ikki farzandi sharafiga qishloqning nomini "Pisaron" — o'g'illar deb o'zgartiradi. Romanning shu qismining oxiriga qaralsin.

Faxriddin Nizomiyning qulog'iga shivirlab:

— Agar masjidda bizdan fikr olmoqchi bo'lsalar, taklifimiz nima bo'ladi? — deb so'raganida, Nizomiy unga:

— Ko'ramiz. Farmonda nimalar yozilganini bilganimizdan keyingina nimani taklif qilishimiz ma'lum bo'ladi, — dedi.

Amir Inonj va Ganja xatibi, keksa vazir To'xtamish bilan birga masjidga kirib keldilar. Amir va To'xtamish hukumatga xos bo'lgan tomonda o'tirishdi. Xatib esa, xalq o'rtasidan yorib o'tib, minbarga chiqdi. U qisqagina xutba o'qidi. Xutbani xalifa Mustarshidbilloh, Sulton To'g'rul va uning otabegi Jahon Pahlavon Muhammad nomi bilan boshlab, o'shalar nomi bilan tugatdi.

Xatib xutbani tugatganidan so'ng, Husomiddin usti yashil atlas bilan yopilgan kumush barkashni ko'targanicha minbarga yaqinlashdi. Xatib kumush barkash ustidan atlas o'rtikni olib:

— Allohumma salli alo Muhammad va a'la oliy Muhammad! — dedi, unga ergashib masjidda aytilgan salavot Malikshoh maydonida aks-sado bera boshladi.

Maydonga yig'ilgan xalq salavot aytishga kirishdi. Xatib salavotni takrorlaganlarni o'tirishga buyurdi va arabcha yozilgan farmonni o'qiy boshladi, so'ngra Amirning keksa vaziri o'rnidan turib, farmonni qisqagina qilib tarjima qildi:

"Allohi taolo va taborakning buyuk irodasi va payg'ambarimizning himoyasi, dini islom-u musulmon mamlakatlarini himoya qilishni xalifalarga havola etibdir. Shunga ko'ra biz, dini islomning himoyasi, "Qur'on"i sharifning hukmlari butun dunyoda keng tarqalishi, islom o'lkalarining amin-u omonligi, mamlakatlarning obod qilish ishlarini salohiyat egasi bo'lgan sultonlarning zimmasiga havola qilamiz. Dunyo saltanatini Malikshohning nasli bo'lgan Sulton To'g'rulga, uning otabegi Jahon Pahlavon Muhammadga topshirishga qaror qildim. Barcha Iroq, Fors va Ozarbayjon xalqiga havola qilinadiki, Amiralmo'mininning e'timodini qozongan, Sulton To'g'rulga va Eldaniz ishining diyonatli davomchisi bo'lgan Jahon Pahlavon Muhammadga bilvosita bay'at etsin. Hamadon shahri, avvalgidek, To'g'rul davlatining poytaxtidir. Ozarbayjon hukumati Tabriz poytaxt bo'lish sharti bilan, Otabek Muhammadning ukasi Qizil Arslonga topshirildi, Shirvon xoqoni

Abulmuzaffarni Shirvon shohi deb tasdiqlaydi. Oron o'lkasini idora qilish Otabek Muhammadga tobe bo'lish sharti bilan Amir Inonjga havola qilinur".

To'xtamish farmonni o'qiganidan so'ng uni qo'lida baland ko'tarib masjidda o'tirganlarga dedi:

— Farmonni amiralmo'minin xalifayi ro'yi zamin Mustarshidbilloh hazratlarining o'zlari imzolab, xilofat muhri bilan muhrlaganlar.

Vazir bu so'zlarni aytganidan so'ng farmonni yana kumush barkashga qo'ydi-da, ustiga yashil atlasni yopib Amirning oldiga keltirdi. Amir o'rnidan turdi, chunki xalifaning taklifini qabul qilganlar bir-bir kelib farmonni o'pishlari va Amirga bay'at etib o'tishlari kerak edi.

Eng avval xatib va Amir devonxonasining mas'ul kishilari bir-bir kelib farmonni o'pdilar. Lekin masjidga yig'ilgan jamoatning ko'zi Faxriddin, Nizomiy va boshqalarda edi. Hech kim o'rnidan qo'zg'alib farmonni o'pishga va "bay'at etishga" jur'at qilmasdi.

To'xtamish vaziyatning og'irligini darhol tushunib a'yonlarga murojaat qildi:

— Xalq, o'z rahbarlarini xalifaning namoyandalariga bay'atini kutmoqda. Marhamat qilib, og'olar bay'at etsinlar.

Yana hech qayerdan sado chiqmadi.

Faxriddin Nizomiyning qulog'iga shivirlab so'radi?

— Taklifing qanday?

Nizomiy Faxriddinga javob bermasdan, avval To'xtamishga qarab dedi:

— Biz arab bo'lmasak ham, arabchani bir arabdek bilamiz. Biz buni bilishga majbur edik. Xalifa hazratlari yuborgan farmonida bu yerdagi xalqni To'g'rul va Otabek Muhammadga bay'at ettirish kerak degan mazmun yo'q.

Nizomiyning bu so'zidan so'ng masjidda tamomila yangi bir vaziyat paydo bo'ldi. Minglarcha xalq qulog'ini ding qilib, minbar atrofida bo'layotgan suhbatlarni eshitishga shoshilar edi.

To'xtamish Nizomiyning so'ziga javob berib dedi:

— Men yosh shoirning so'zidan taajjublanaman. Uning odamlarning shuurida shubha tug'dirmoq uchun maydonga tashlagan

bu xil asossiz fikrining ma'nosini anglashdan ojizman. Avvalo, farmonda xalqni bay'at ettirish kerak degan so'zlar ochiq-oydin yozilgan. Ikkinchidan, oqsoqollar, yosh va mol-u mulk jihatidan yuksak mavqeni egallagan mo'tabar kishilar o'tirgan yerda hayot maydoniga yangigina kelgan bir o'spirinning ulamo va fuzalolar huzurida mahmadonalik qilishi odobsizlikdir.

To'xtamish bu so'zlarni aytganidan so'ng xalqning ichidan: "To'g'ri, to'g'ri, vazir juda haq gapirdilar!" degan sadolar eshitilar degan umidda edi. Lekin masjidda o'tirganlardan hech qanday sas-sado chiqmadi. Yolg'iz Faxriddin o'rnidan turib dedi:

— Men o'z so'zim bilan na a'yonlarni va na o'zimizdan yoshi ulug' bo'lganlarni tahqir etmoqchi emasman, lekin shuni demoq-chimanki, Ozarbayjonda mavjud bo'lgan bu kungi yuksak madaniyat va butun Sharqqa o'zini tanitgan she'r va musiqa san'ati vazir janoblarining ro'kach qilgan a'yonlaridan emas, hozirgi Ozar-bayjon yoshlaridan minnatdordir. Vazir janoblari u yoq-bu yoqqa ko'z tashlasalar, yosh Nizomiyni, yosh Mujiriddinni, Izziddinni va boshqalarni ko'rgan bo'lardilar. Yoshi ulug'larga va o'zimizdan keksalarga bo'lgan hurmat va ehtiromimizni hech kim inkor et-maydi. Lekin shuni ta'kidlash lozimdirki, ularning fikr mahsu-li bo'lgan bu ijtimoiy hayotning o'zi ham qarigan va chirigandir. Yangi ijtimoiy hayot, yangi madaniy turmush yosh qo'llar bilan yaratilmoqda. Yoshlar keksalardan keyin tug'ilganlari sababli ularning hayot va dunyoqarashlari ham yoshdir. Fikrimcha, o'z o'rnini yosh avlodga topshirgan keksa otalarimiz ham buni tas-diqlay oladilar.

Masjidda g'ovir-g'uvur boshlanib ketdi.

— Yashasin Faxriddin! Yashasin yosh fikrlar!

Amir To'xtamishning qulog'iga allanima deb shivirlaganidan so'ng, u juda ham muloyim bir tarzda:

— Biz hech qachon hozirgi madaniyat yosh nasldan minnat-dor ekanini inkor qilmaymiz. Lekin yoshlarning ham xalqni esdan chiqarishi va xalifaning farmonini buzib ko'rsatishi ham madani-yatsizlik hisoblanadi.

Nizomiy yana o'rnidan turib masjiddagi jamoatga murojaat qilib dedi:

— Men hech qachon haqiqatni buzib ko'rsatgan emasman, balki haqiqatni buzib ko'rsatuvchilarga dushman bo'lganman. Agar vazir janoblari bu so'zlarimni o'zlari uchun tahqir hisoblasalar, u vaqt dadil ayta olamanki, xalifa hazratlarining farmonini buzib ko'rsatayotgan odam janobi vazirning o'zlaridir. Xalifa o'z farmonida nimalar debdi? Yaxshilab quloq soling, bu haqda sizga izoh beraman. Xalifa farmonida hammaga tushunarli bir tarzda deydi: "Butun Iroq, Fors va Ozarbayjon xalqiga xavola qilinadiki, amiralmo'mininning e'timodini qozongan Sulton To'g'rulga va Eldaniz ishining diyonatli davomchisi bo'lgan Jahon pahlavon Muhammadga bilvosita bay'at etsinlar". Bilvosita so'zining ma'nosi nima? Buning ma'nosi shuki, bu ishga boshqalarning vositasi bilan emas, balki ularning o'zlariga bay'at etsinlar.

Bu so'zlardan so'ng Nizomiy xatibga o'girilib ilova qildi:

— Men o'ylaymanki, bu haqiqatni xatib janoblarining o'zlari ham inkor etmaslar.

Xatib noqulay bir vaziyatda qoldi, lekin bunday achchiq bir haqiqatni inkor eta olmasdi. Shuning uchun ham u irg'ib o'rnidan turdi-da, xalqqa qarab baland ovoz bilan:

— Yosh shoirning aytgani to'g'ri — der ekan, xalq to'da-to'da bo'lib masjiddan chiqa boshladi.

Nizomiy va Faxriddin ham o'z hamrohlari bilan birga birga Amir bilan xayrlashib chiqib ketdilar.

* * *

Nizomiy uyda yolg'iz edi. Shuning uchun Faxriddin qo'zg'olon ko'tarish to'g'risidagi fikrini ochiq so'zlashga qulay fursat topdi va Nizomiyga savol berdi:

— Gapning ochig'i, men sening ba'zi harakatlaringdan shubhalanaman. Shunga mening haqqim bormi?

— Avvalo, shubhalaring qaysi masala ustida ekanini ochiq aytishing kerak. So'ngra shubhalanishga haqqing bormi yoki yo'qmi ekanini surishtir.

— Men har vaqt qo'zg'olon ko'tarish to'g'risidagi fikrlarimni o'rtaga tashlaganimda, meni sabr qilishga, soqit bo'lishga da'vat qilasan. Ajabo, bu sabr va chidamning nihoyasi bormi o'zi?

Nizomiy zardasi qaynab Faxriddinga boqdi, Faxriddin Nizomiyning bunday boqishini birinchi marta ko'rgani uchun darhol o'z xatosini tushundi va uni tuzatishga urinib ilova qildi:

— Ilyos, sen o'ylamaginki, men seni faoliyatsizlikda ayblab, qo'zg'olon va ozodlikka qarshisan, deb tuhmat qilmoqchi emasman.

— Men fikringni tushunaman. Uni boshqacha ham tushunmayman, to'g'ri tushunaman. Lekin hamma vaqt sabr-u bardoshga da'vat qilganim kabi bir necha tavsiyalar ham qilganman. Modomiki, o'sha tavsiyalarning birortasi ham bajarilmagan ekan, qo'zg'olon to'g'risidagi fikrlaringning hech qaysisiga qo'shilolmayman.

— Qaysi tavsiyalarni gapiryabsan, hech eslay olmayman, — deb takror savol berdi Faxriddin.

— Qo'zg'olon haqida so'z ochilgan vaqtda men senga ham, boshqalarga ham xalqni qo'zg'olonga hozirlash lozim degan edim. Basharti qo'zg'olonda sen, men va yana besh-o'nta biz bilan hamfikr bo'lgan kishilar qatnashsa, shu kunning o'zidayoq qo'limizga qilich olib qo'zg'olon boshlash mumkin. Lekin bunday qo'zg'olonning oqibati juda yomon bo'ladi va har kim haqli ravishda: "tadbirsizliklari natijasida o'zlari ham halok bo'ldilar, boshqalarni ham o'limga tutib berdilar", deya oladi. Bunday bo'lishini istamayman. Men istardimki, bundan ming yil keyin ham biror kishi Ganja qo'zg'oloni tarixini o'qiganida, "qo'zg'olon juda ham oqilona, ongli va tadbirli bir suratda tashkil etilgandi. Qo'zg'olonda yolg'iz shahar xalqigina emas, balki barcha qishloqlar ham ishtirok etganlar" desin. Mening tavsiyalarim ana shulardan iborat edi. Biz bu ishga hozirlik ko'rishimiz kerak. Shu kunlarda Ganja qishloqlaridan odam yig'ib hasharga jo'natmoqdalar. Qishloq xalqi esa, hech qanday qarshiliksiz bo'yni egib ketmoqdalar. Ular majburiyat ham hayotning bir qonuni bo'lsa kerak deb o'ylaydilar. Lekin biror kimsa ularga tushuntirishni istamaydi, biror kimsa ularga aytmaydiki, hasharga borish faqat jamoat ishlaridagina lozimdir. Xalq faqat xalq uchun ishlashi kerak. Masalan, ko'priklar solish, yo'llar qurish, sel yuvib ketgan ariqlarni tozalash uchun xalqning hasharga borishnning hech qanaqa zarari yo'q. Lekin minglarcha ozarbayjonliklarni qamchi va tayoqlar zarbi bilan safarbar qilib Otabekka yangi qo'rg'onlar, qishloqlar, bozorlar qurish har qanday qonunga

xilofdir, zulm va insofsizlikdir. Buni xalqqa tushuntirmoq lozim. Avvalr, xalqning shuurida qo'zg'olon fikrlarini uyg'otish, so'ngra esa ularni rag'batlantirish va tashkiliy yo'sinda bir uyushma safiga tortish lozim. Faxriddin, meni kerakligicha tushunishing lozim. Men sening jasoratingni, qahramonligingni qadrlayman. Shuning uchun ham kichik va arzimas hodisalar natijasida halok bo'lishingni istamayman. Gapning sirasi shu. Xalq nima uchun qo'zg'olon ko'tarishi va nima sababdan o'limga borishini bilishi kerak. Biz buni avvalgi bir-ikki qo'zg'olonlarda tajribadan o'tkazgan edik. O'sha vaqtda bir dehqondan "nima uchun qo'zg'olon qilyapsan?" deb so'ralganida, "xalq qilyapti, shuning uchun men qilyapman" degan edi. Qo'zg'olonning mazmuni va aniq bir maqsadi bo'lishi kerak. Xalqning ruhiy xususiyatlarini ham nazarga olish kerak. Yangi hukumat e'lon qilingan vaqtida xalqning ruhida mavjud bo'lgan hukumatga xayrxohlik o'z ahamiyatini yo'qota oladi, chunki xalqning odati yangi narsalarga intilishdir. Xalq hali yangi hukumatdan o'z istak, talablarini kutadi, undan yangicha hayot umidida bo'ladi. Hukumat ham o'z navbatida xalqning ruhini erkalaydi va uni aldash yo'llarini topganiga qadar o'zini yaxshi ko'rsatishga urinadi. Biz hukumatga qarshi bo'lgan har turli kayfiyatlarga suyana olmaymiz. Bu noroziliklar faqat eski hukumat xonadoniga qarshi edi. Yangi hukumat ish boshiga kelishi bilan norozilik ko'rsatganlar soni kamaydi. Ozarbayjonda mavjud bo'lgan tartibsizliklarni boshlaganlar xalqning tarafdorlari edilar, chunki xalifalar Saljuq hukmdorlarining ta'sirlaridan qutulishga harakat qilardilar. Xalqni Saljuq xonadoniga qarshi qo'yish bilan ularni mahv etishni istardilar. Endi esa, ular bunga muyassar bo'lganlari uchun tartibsizlikni bostirishga harakat qiladilar. Tartibsizlikning ikkinchi sababi ham Xorazmshohlar va eronliklarning Ozarbayjon ichida olib borgan tashviqot-targ'ibotidir. Otabek Muhammadning Bahromshoh ustidan qozongan g'alabasi va Xorazm chegaralariga yuborgan harbiy kuchlarning bergan natijalari mamlakat ichida bo'lgan xorijiy targ'ibotlarga ham chek qo'yadi. Mayda-cho'yda qo'zg'olonlarning tarafdori emasman, avvalo bu qo'zg'olonlar hukumatni hushyor qilib qo'yadi, uni katta qo'zg'olonlarni bo'g'moq uchun hozirlik ko'rishiga sababchi bo'ladi. Ikkinchidan, nihoyasiz

nizolar Ozarbayjon madaniyatining, qishloq-shaharlarning xarob bo'lishiga sabab bo'ladi. Hozirgi madaniyatni xarob qilish va bu taraqqiyotni to'xtatish biz uchun buyuk bir mag'lubiyatdir. Bu madaniyatga xizmat qilgan va buning dushmanlariga qarshi kurash olib borgan qaysi bir hukumat bo'lsa bo'lsin, bizning o'z hukumatimizdir. Aks holda, biz uning dushmani bo'lib qolamiz.

Faxriddin Nizomiyga e'tiroz bildirib dedi:

— Yana hech narsa tushuna olmadim, chunki qo'zg'olon ko'tarish yoki ko'tarmaslik haqida qat'iy bir so'z aytmading. "Madaniyatimizga xizmat qilgan va uning dushmanlariga qarshi kurash olib borgan, qaysi bir hukumat bo'lsa bo'lsin u bizning hukumatimizdir" so'zlari bilan nima demoqchi ekaningni tushunolmayman.

— Bu yerda anglashilmaydigan, tumanli hech narsa yo'q. Qo'zg'olon uchun qurol-aslaha tayyorlashdan avval xalqning ruhiy qudratini chiniqtirish lozim. Hukumat masalasiga kelganda, bu ham ravshan. Yangi hukumat arab-fors hukmdorligini Ozarbayjondan haydash uchun biz bilan birga bo'lishi kerak, chunki forslar bilan arablar birinchi navbatda bizning tilimizni yo'qotishga harakat qilmoqdalar. Ular juda yaxshi biladilarki, ona tili bo'lmagan biror xalqning milliy madaniyati ham bo'la olmaydi. Yangi hukumat eski hukumatdan meros qolgan josuslarni, laganbardorlarni, o'z xalqiga xiyonat qilganlarni atrofiga to'plab, ularga suyanmasligi kerak. Hukumat faqatgina xalqning orzu va irodasiga tayanishi lozim. Basharti shunday bo'lmasa, agar yangi hukumat eski hukumatdan meros qolgan vositalardan foydalangudek bo'lsa, u vaqtda men uning ziddiga ish ko'raman. Yangi hukumat Ganja hokimini Orondan olib tashlamasa, men butun vujudim bilan harakat qilib unga qarshi xalqni qo'zg'olonga boshlayman.

Faxriddin o'rnidan turib bu so'zlari uchun Nizomiyni o'pdi va:

— Men ertalabdan beri sendan shu so'zlarni kutmoqda edim, — dedi.

Bu suhbatdan so'ng Faxriddin Amir Inonjga qarshi ko'tarmoqchi bo'lgan qo'zg'olonning nimadan iborat bo'lishi va u qanday boshlanishi haqida gapirdi: u hali so'zini tugatmasidan, eshik taqilladi-da, Amir Inonjning sarkardasi Husomiddin to'rt nafar qurolli navkarlari bilan birga uyga kirib:

— Assalomu alaykum! — deb bosh egdi va ilova qildi: — Ijozat bersangiz, siz bilan ba'zi bir masalalar haqida so'zlashmoqchi edim. Lekin shoirni bezovta qilmoqchi bo'lganim uchun oldindan uzr so'rayman.

Shu so'zlarni aytib Husomiddin Faxriddinga qaradi, shubhasizki, shoir bilan xushmuomalada bo'layotganining sababi ham Faxriddining shu yerdaligi edi, Faxriddin esa unga qayrilib ham qaramadi, Lekin Nizomiy unga javob berar ekan, dedi:

— O'tiring, siz mening faqirona uyimga xush kelib, safo keltirdingiz.

Husomiddin o'tirdi-da, navkarlariga:

— Sizlar hovlida meni kutinglar, — dedi.

Husomiddin shoirning uyini, uning faqirligini ko'zdan kechirdi. Amir Inonjning qizi Qatibani o'ziga maftun etgan shoirning boryo'q davlati bir necha eski-tuski palos, bir sidra ko'rpa-to'shak, kitoblar, idish-tovoqlardan iborat edi. Somon suvoq qilingan uylarning birida buyuk shoira Mahsatiy xonim, birisida esa shoirning o'zi yashar edi.

Husomiddin uylarni diqqat bilan ko'zdan kechirganidan so'ng Nizomiyiga o'girilib:

— Siz menga maktub yuborgan edingizmi? — der ekan, Nizomiy taajjub bilan:

— Men sizga hech qanday maktub yuborganim yo'q. Siz bir qo'shin sardori, men esa yo'qsil bir shoir: men qanday qilib sizga maktub yozishim mumkin?

Husomiddin qo'ynidan bir maktub chiqardi:

— Olib o'qing, ana shu maktubni menga yozgan siz emasmisiz?

Nizomiy maktubni olib o'qidi:

"Muhtaram Husomiddin!

Sizni Orondagi shuhrat va shijoatingiz menga ma'lumdir. Lekin sevgi va muhabbat ishlarida na shuhrat va na shijoat ish beradi. Men sizni ogohlantiraman. Amir Inonjning qizi Qatibani o'z holiga qo'ying. Boshqalarning istiqboliga sherik bo'lish qahramonlar va mashhur kishilarga munosib emas. To'g'ri, men yo'qsil bir shoirman, lekin didimga yoqmagan odam bilan kurashishning ham uddasidan chiqa olaman".

Nizomiy maktubni o'qib kuldi-da, Faxriddinga dedi:

— Hech tushunolmayman, Abululloning behayo kanizagi mendan nima istaydi? — So'ngra Husomiddinga javob berib dedi:

— Muhtaram Husomiddin, sizdan uzr so'rayman, Sabo xonim sizni bekorga bezovta qilibdi. Agar shu maktubni sizga yozgan bo'lganimda edi, na qo'rqar edim-u, na uzr so'rardim. U behayo shunday bir maktubni Qatiba xonim tilidan mening bo'lajak rafiqam nomiga ham yuborgan, Endi bir necha kalima Qatiba xonim bilan mening o'rtamda bo'lgan aloqadan gapiraylik. Siz aqlli odamsiz, unchalik yosh ham emassiz, yaxshiroq bir o'ylang, bor davlati kesak devor uydan va shu uydagi narsalardan iborat bo'lgan bir shoir Qatibadek badavlat bir qizga uylanish xayoliga tusha oladimi? U menga nima uchun kerak? Ajabo, siz meni shu qadar nomussiz, shu qadar sharafsiz deb o'ylaysizmi? Men Qatibaga uylanib Amir Inonj dasturxonining to'rida o'tiray? Axir siz, u qizning telba sevgisini bilasiz-ku, ko'rib turibsizki, men undan o'zimni olib qochmoqdaman. Ko'rib turibsizki, u menga tinchlik bermayapti. O'rmonda, bog'da, ko'chada, maydonda — qayerda ko'rsa meni uyiga taklif qiladi. Nima qilay? Men shoirman, bir yosh qizning umidlarini yo'qqa chiqarishni katta gunoh ekanligini tushunaman hamda Sabo xonimdek shaxslarning fitna-fasodlaridan qo'rqaman, chunki Sabo xonimdek saroy kanizaklari bunaqa yumushlarni chiroq yoqib axtaradilar. Ular ana shunday hodisalardan foydalanib pul ishlaydilar. Husomiddin, siz Sabo xonimni tanimaysizmi? U Abululloning qizi Mohtob xonimni bir vaqtda sakkiz kishiga unashtirib, hammasidan xizmat haqi va hadyalar olganini eshitmaganmisiz?

— Bularni hammasini bilaman, — dedi Husomiddin va ilova qildi:

— Demak, mening sevgimga mone bo'lmaysiz?

— Ishoning. Qatiba go'zal, bilimdon va shuhratli qiz. Lekin bularning hech birisining men uchun keragi yo'q. Sizga bir shoir sifatida so'z beraman, men uni sevmayman. Men faqat ikki martaba uning qo'lidan tutdim. Buni ham mendan o'z nazokatim talab etgan edi. Kim biladi, balki tasodif bo'lib qolsa, yana qo'lidan tutishga majbur bo'larman. Lekin bularni sevgi hislari deb tushunmang.

Faxriddin mening bolalikdan do‘stimdir. U o‘zini qanday bilsa, meni ham shunday biladi. U biladiki, Qatibaning sevgisi na qalbimga va na vijdonimga joylasha oladi.

Husomiddin Nizomiyning qo‘lini qisib dedi:

— Men vijdonli bir zotning uyida o‘tirganligim uchun ham vijdonan so‘zlashim kerak. Sizning bu qadar oliyjanobligingizga bir xizmat qilmoqchiman. Siz o‘z sevgili Ra’nongizni tez fursatda uyingizga olib keling, chunki Qatiba sizni uning sevgisidan judo qilish uchun Ra’noni ham Bag‘dodga yuboriladigan kanizaklar qatoriga qo‘shib qo‘ygan. O‘ylaymanki, siz uni uyingizga olib kelganingizdan so‘ng, Amir erga chiqqan bir qizni eridan ajratib Bag‘dodga yuborishga uyalar...

So‘ngra u Faxriddinga o‘girilib:

— Yosh bir qahramon bo‘lganing uchun seni ham sevaman, — dedi. — Amirdan ehtiyot bo‘l, Dilshod ham seniki emas. O‘tinaman, aytilgan gaplar shu yerda qolsin.

Shundan keyin Husomiddin o‘rnidan turdi-da, Nizomiy va Faxriddin bilan xayrlashib chiqib ketdi.

SHOIRNING SO‘NGGI SO‘ZI

Kechki payt edi. Oftobning harorati oqshom shabbodasi qarshisida yengilib, borgan sari ta’sirini yo‘qotardi. Sayohat vaqti o‘tib borardi, sayr etish uchun soy bo‘yiga kelganlar tarqalmoqda edilar. Shoir ham o‘rnidan turib, soy bo‘yidan borib, sharqqa tomon burildi, Musa tegirmonining yonidagi tepalikdan oshib, Sanjar maydoniga tushdi. Bir vaqt uni orqadan birov chaqirdi:

— Muhtaram shoir, biroz to‘xtang.

Shoir o‘girilib qaradi, Qatibaning keksa bog‘boni Salim kelayotganini ko‘rib to‘xtadi. Salim boshini qimirlatib kelar ekan, Nizomiyga yaqinlashib:

— Bezovta qilganim uchun kechirasiz, — dedi. Nizomiy kulimsiradi:

— Siz keksa kishi bo‘lganingiz uchun birovning rohagini buzish gunoh ekanini yaxshi bilasiz.

— Bir odam bor, — dedi Salim boshini quyi solib. — Siz uni taniysiz. Xonim huv anavi yerda turibdi, siz bilan ko'rishmoqchi.

— Qayerda?

— O'sha, avvalgi yerda.

— Ya'ni qanday avvalgi yerda?

— Doim siz o'tirib she'rlar yozadigan o'sha majnuntol to'nkasi yonida.

— Xonimingiz mening o'rmondaligimni qayerdan bildi?

— Xonim har kuni sizni ta'qib etadi, hatto, siz ketgandan keyin ham o'sha yerda o'tirib sizni eslaydi. Kecha ham xonim o'sha yerda o'rtoqlaringiz bilan she'r o'qiyotganingizni tinglagan edi. U Ra'no bilan uchrashganingizni ham ko'rdi. Shuning uchun ham sizni xabardor qilmoqchiman: xonim juda telba to'nini teskari kiyib olgan. Sal ehtiyotroq bo'ling, ko'nglini ovlab, achchig'ini bosishga harakat qiling, u Ra'nongizni halok qilishdan ham toymaydigan shaddod qiz.

Shoir bog'bonning so'zlarini tinglab borar va Qatibaning bu sevgi mojarosidan qanday qilib yoqasini qutqarib qolish to'g'risida o'ylardi. Ra'noga qarshi suiqasd Nizomiyni hamma narsadan ham ko'proq o'ylatardi. Qatiba o'tirgan yerga bir necha qadam qolganida, keksa bog'bon to'xtadi. Nizomiy esa Qatibaning qarshisiga tikka boraverdi. Shoirni ko'rishi bilanoq qizning butun vujudi titray boshladi. Shoir birinchi marta Qatibani shu vaziyatda ko'rardi. Qiz o'rnidan turib bir qadam yurdi, lekin vujudida paydo bo'lgan titroq qadam tashlashiga xalal berdi. U to'xtab qaltiray boshladi.

Qatibaning yurishgagina emas, Nizomiyga salom berishga va so'z qotishga ham yuragi dov bermasdi, chunki u o'z muhabbati chippakka chiqishini aniq bilar eli. U bir tomonlama muhabbat hech qachon muvaffaqiyat qozona olmasligini anglardi. Salom berolmasligi va so'zlashga jur'at eta olmasligiga sabab ham Nizomiydan eshitilishi mumkin bo'lgan "yo'q, sevmayman" kalimasini eshitishdan cho'chishi edi. Lekin u o'zining favqulodda go'zalligiga umid bog'lardi. Nizomiydek shoir bu qadar tengsiz go'zallikni xor qilmasligiga ishonardi. U o'z ko'nglida: arab, turk va rum qonidan vujudga kelgan mo'jiza yosh shoirning qal-

bini asir eta olar. U olamni qalbini tipirchilatgan bu ko'zlar yosh shoirning ham qalbini taka-puka qila oladi, deb o'ylardi. Bamisoli bir juft anorday dirkillab turgan siynalar, gul yaprog'ini xijolatda qoldiradigan dudoqlar, jon olg'ich fusunkor qora ko'zlar va boshqa-boshqa husn-u latofatga ega bo'lganim uchun shoir ham shunday ajoyib ilhom manbayini qo'lidin chiqarmaydi, deb o'ylardi. Shunday xayollar bilan Qatiba yuzidagi pardasini ko'tarib shoirga tomon bir necha qadam yurdi, qimmatbaho zeb-u ziynatlar taqqan va rango-rang ipakli kiyimlar kiygan bu go'zal jonli bir xazina kabi Nizomiyga yaqinlashdi.

Qatiba o'z go'zalligi, viqor va dabdabasi bilan yaqinlashib kelarkan, Nizomiy ham ustiga vahimali zo'r xavf-xatar bostirib kelayotganini sezar va qanday qilib bu balodan qutulish yo'llarini o'ylardi. Lekin bu vahimani 'daf qilishga u qadar qiynalmadi, oradan ko'z ochib yumguncha vaqt o'tmay, go'yo Ra'no kelib u bilan Qatiba o'rtasida turganday bo'ldi, shoirning oldida Qatiba emas, Ra'nosi turardi.

Nizomiy Husomiddin bilan bo'lgan suhbatim Qatibaning qulog'iga yetgan bo'lsa kerak, deb o'ylardi. Qizning butun avzoyidan shu narsa sezilib turardi. Hech shubha yo'qki, Qatiba bugun Nizomiydan qat'iy javob olishga kelgan, bu esa shoir uchun har narsadan og'ir edi.

Nihoyat, Qatiba taraddud bilan qora ko'zlarini shoirga tikdi-da, sekingina:

— Assalomu alaykum! — deb qo'lini uzatdi.

Shoir qizning qo'lini ushlarkan, uning qattiq shamolda qaltirayotgan nozik novda singari titrayotganini his etdi va xijolat chekib, qizning salomiga javob berishga majbur bo'ldi:

— Va alaykum assalom, muhtarama qiz, men bu qo'lning hamisha baxtiyor bo'lishini istayman, — dedi.

Qiz qo'lini Nizomiyning qo'lidan bo'shatib olishni istamas edi. U bu bilan o'z muhabbatini shoirga izhor qilayotganday edi. Ayni vaqtda shoirning "men bu qo'lni doimo baxtli bo'lishini istayman" degan so'ziga munosib javob qidirardi. Lekin bu u qadar oson emasdi, chunki u qarshisida turgan shoirni bir qal'aday zabt eta olmasligini tushunardi. U yuksaklarga parvoz qilishni istar-

di, biroq orzusining qanotlari qayrildi, u o'zini bukilmas irodali va o'z muhabbatida sobit bo'lgan bir yigit qarshisida turganini ko'rdi. Qatiba ana shu yengilmas qal'aga ega bo'lishini istar ekan, o'zida bir ojizlik his etardi, chunki u Nizomiyning ayollar go'zalligiga qul bo'lmaydigan yigit ekanligini bir necha bor sinagan edi. Lekin shunga qaramasdan, u oxirgi kuchini ishga soldi, U go'zal edi va bu go'zallikdan bir qurol sifatida foydalana olardi. Qatiba qo'lini shoirning qo'lidan bo'shatib olishni istamasdi, butun noz-u karashma, sharm-u hayo, rashk, qizarib-bo'zarish, hatto, ko'z yoshlari oqizish, hamma... hammasini tajribadan o'tkazardi. Nihoyat, u o'zini qo'lga olib shoirdan:

— So'yla, shoir, so'yla! Sen ana shu qo'l egasini baxtiyor qilish uchun qat'iy bir so'z ayta olasanmi? — deb so'radi.

Qatiba shu so'zlarni aytgach, uyaldi, boshini quyi solib, xushbichim, go'zal kavushiga tikilib qoldi. U oqshom juda salqin bo'lishiga qaramay, terlagan edi, ikki yonog'iga tushib turgan qora sochlari yomg'irda yuvilgan yosuman gulini eslatardi. Shoirning vaziyati juda og'ir edi. U o'z-o'zicha o'ylar va der edi: "Muhabbat dardiga mubtalo bo'lgan bir qizga "yo'q, sevmayman" deyishdan ham og'irroq bir narsani tasavvur etish mumkinmi? "Sevmayman" so'zi telbalarcha sevgan bir qizga zahar ichirishdan ham qo'rqinchliroq emasmi? Bu so'z qizning qalbida tuzalmas bir jarohat qoldirmaydimi? Bu kalima Qatiba singari mag'rur va go'zalligiga ishonganlar uchun unutib bo'lmaydigan bir haqorat-ku. Ajabo, hayotdagi barcha nozik hislarni o'zida mujassamlashtirgan qalbning qanday bir moddadan tuzilganligini tabiblardan, faylasuflardan ko'ra yaxshiroq o'rgangan shoir, muhabbatini e'lon qilgan bir qizni qaysi vijdon bilan rad eta oladi?"

Shoir o'ylar, aytmoq uchun qizning ko'ngliga tasalli beruvchi javob axtarardi. U javob "yo'q" kalimasi bilan "xo'p" kalimasini ifoda qila oladigan o'rtacha bir kalima bo'lishi kerak edi.

Qatiba ham o'ylar, u ham o'z qalbida Nizomiyning beradigan javobini o'lchab bichar edi. U xayolida goh shoirning ilhomi singari tabassum etar, u bilan mas'ud bir xayol surib yuksaklarga parvoz etar, goh tushkunlikka tushib, tahqir va hasratlar ichida qovurilar edi. Javob berish va javob olish istagida bo'lganlar boshlarini

baland ko'tarmay, bir-birlarining yuzlariga qaradilar, chunki sukut va intizorlik chegaradan tashqari chiqa boshlagan edi.

Shoir qizning ikkinchi marta savol berishiga imkon bermaslik uchun sukutni buzib dedi:

— Muhtaram xonim, muhim bir jihatni unutmasligi kerakki, to'g'ri kelgan har qanday joyda uchrashib so'zlashishlarning o'zigina uzoq bir saodatli hayot ko'rish tadoriki uchun kamlik qiladi. Oila qurish insonlarning hayotida muhim bir hodisadir. Bu hodisa tasodifiy bo'lmay, balki tabiiydir. Bunday muhim hodisalarga nisbatan ongli va ehtiyotli bo'lish lozim. Go'zal qizga shuni ham aytishim kerakki, qizlar ham, yigitlar ham bir-birlarini sevganlarida qalblarini o'z erklari bilan zanjirband qilib, ko'zlari ixtiyoriga topshirib qo'ymasliklari kerak. Sevgini qalbga jo qiladigan narsa ham ko'zdir. Ko'z ba'zan qalbni alday oladi. Biz doimo qalbning, ko'zning va aqlning vazifalarini insof bilan taqsimlash harakatida bo'lishimiz kerak. Inson uch narsaning to'g'ri faoliyati natijasida baxtli bo'la oladi. Shu jihatlar nuqtayi nazaridan, ikkimiz ham bu uch narsaning bir-biriga tajovuziga yo'l bermasligimiz lozim, chunki yoshlikda insonlarning ko'zlari bilan yuraklari birlashib ketib, aqlning oldida haq-hisob berishni istamay, o'zlaricha ishlay boshlaydilar. Shuning uchun ham donolar: "Kishilar yoshlik chog'larida aql bilan hisni farq qilmaydilar", deydilar. Hayot sahnasiga chiqish, dunyoni yana ham yangidan o'rganishga otilish, ijtimoiy muhitning qonunlarini o'zlashtirishda shoshmashosharlik qilish yoshlikning eng sevimli xususiyatlaridan biridir. Oila hayotini ko'rish ishida shoshilish hayot qonunlarini buzish degan gap bo'ladi. Ba'zan yoshlar o'z baxtlarini ko'rish jarayonida insoniy munosabatlarni unutadilar. Ular ayrim hollarda o'z baxtlarini boshqalarning baxtsizligi xisobiga qurmoqchi bo'ladilar. Bu xildagi yoshlar muhabbat bemorlaridir. Ular o'z og'izlarining totli bo'lishi uchun boshqalarga zahar ichirishni istaydilar. Go'zal Qatibadan bir iltimosim bor. Shu haqda biroz o'ylaylik. Yana uchrashaylik, gaplashaylik. Bu dunyoni o'zingiz ko'rib turganday tep-tekis bir sayhondan iborat deb o'ylamang, aksincha, dunyo nihoyatda notekis past-u balandliklardan tashkil toptan. Hayot boshi berk ko'cha, o'tib bo'lmaydigan chuqurlar, dahshatli uchurumlar, chuqurliklar

va o‘nqir-cho‘nqirlar orasiga qurilgan. Bunday tahlikali yo‘llarni bosib o‘tish uchun istab topmoqchi bo‘lgan umr yo‘ldoshimizni keragicha aql-idrok bilan o‘rganishimiz kerak. Nomunosib hayot yo‘ldoshi va hamroh insonni xatarli uchurumlar yoqasida yolg‘iz qoldirib ketishi mumkin, buni qancha odamlarning kechmishida ko‘rganmiz. Bundan tashqari, bizlar o‘rmon tuprog‘idan paydo bo‘lgan kapalaklar emasmiz. Xudo-ku o‘z yo‘lida, lekin hammadan ko‘ra ota-onalarimiz bizning yaratuvchilarimizdir. Ular bilan kengashmoq, ularning maslahatlarini olmoq lozim bo‘ladi.

Qatiba bu so‘zlardan so‘ng boshini ko‘tarib yolvoruvchi bir ohangda dedi:

— Shoir, menga ishon, mening baxtli bo‘lishimga ota-onam mone bo‘lolmaydilar. Ularning bu masaladan xabardor ekanliklarini o‘zing ham bilasan.

Nizomiy Qatibaning muhabbatiga rozi bo‘lsa ham, baribir bundan hech qanday natija chiqmasligini yaxshi anglar edi, chunki Amir Inonj xalqqa boshchilik qilayotgan mo‘tabar zotlarning har qaysisini biror vosita bilan aldashga va shu yo‘llar bilan sobiq mavqeyini qo‘lga kiritishga harakat qilardi.

Amir Inonj Qatibaning Nizomiyga yaqindan rag‘bat ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yish bilan birga, uni Husomiddinga ham berishga va’da qilgan edi. Dilshodni Bag‘dodga jo‘natish tadoriklarini ko‘rgani holda Faxriddinni ham aldar va ularning aloqalariga monelik ko‘rsatmasdi.

Lekin Qatiba otasining bu siyosatlaridan xabarsiz edi, shuning uchun ham ota-onalari tomonidan to‘sqinlik bo‘lmasligiga shoirni ishontirardi.

Qatiba hayajonli titroq tovush bilan:

— Men bugun shoirdan uzil-kesil javob olish uchun bir qarorga kelganman, — derkan, Nizomiy uzoq fikrga cho‘mdi.

— Nimalarni o‘ylaysan? — deb so‘radi Qatiba.

— Bir qalbni davolamoq uchun boshqa bir qalbni jarohatlash mumkin bo‘lish-bo‘lmasligini o‘ylayapman. Tabiat bir qalbning ikkiga taqsimlanishi imkonini yaratganda edi, men ham vijdon azobini tortmas edim.

Qatiba shoirning nima demoqchi ekanini darhol payqab dedi:

— Bir qalbni ikkiga taqsimlanishiga qaysi qiz rozi bo'la oladi?

— Men juda hayronman, ba'zi yoshlarning qalbi o'ziniki bo'lmagani holda, go'zal qizlar ularning qalbini talab qiladilar. Nima qila olasan? Qalb oddiy bir buyum emaski, uni bir kishining qo'lidan olib, boshqa biriga hadya qilsang.

— Ochig'ini ayt, sen qalbingin menga berolmaysanmi?

— Bittasiga rost so'zlash uchun boshqasiga yolg'on gapirishga majbursan. Lekin men buni vijdonimga sig'dirolmayman. Haq gap shu.

— Men seni go'zal, kelishgan bir yigit bo'lishing bilan birga, san'atkor bir shoir bo'lganliging uchun ham sevaman.

— Menimcha, faqir bir shoirga bunchalik katta e'tibor berish o'rinsiz. Menga nisbatan bo'lgan bu qadar hurmat va samimiy ehtiromlar meni yanada noqulayroq ahvolda qoldiradi. O'zingiz ayting, menga shunchalik muhabbat va hurmat saqlagan bir qizni men qanday qilib alday olaman?

Qatiba Nizomiyning qo'lini yana ushlab dedi:

— U nafis she'rlar ilhomi mendan olinishini istayman. Sening ilhom dengizingdan chiqqan nodir injular bir qishloqi qizning bo'yniga emas, malika Qatibaning bo'yniga taqilishi kerak. Yana ham to'g'rirog'i, butun Sharqda qozona oladigan shuhratingga sherik bo'lishni istayman. Yaratgan xazinangning somon suvoqli kesak devor o'ylarda chirib ketishini istamayman. Men seni hujralardan, faqirona kulbadan xalos etib, oliy saroylar, koshonalar, qasrlar, tantana va dabdabalar sohibi qilish xayolidaman. Men istaymanki, butun Sharqqa mashhur bo'lgan najobatli Qatibaning olami sen tufayli yana bir bor sharaflansin. Sen bundan keyin xalifa bobomning, tabarruk Mustarshidbillohning shoiri sifatida Bag'dod she'riyat dunyosini qo'lga olib, tarixning mashhur shoiri Abu Navos va Abu Latatohiya qozongan shuhratini qozonasan. Bundan so'ngra she'rlaringni tilu quloqdan mahrum o'rmonlar emas, bani Abbos xalifalarining muhtasham saroylari tinglaydi.

Qatiba boyliklar, saroylar va koshonalardan gapirar ekan, Nizomiy o'ylab, miyig'ida kulardi. Lekin Qatiba uni tez-tez yo'qsil deb takrorlashi, xususan, uning faqir kulbasidan so'zlashi, hatto, Ra'noning nomini tilga olarkan, "bir qishloqi qiz" deb tahqir etishi

Nizomiyning achchig'ini chiqardi va unga qarshi shu mazmunda bir she'r o'qidi:

Faqirman, baxtiyor shoirman-u zo'rman-zabardastman,
Jahonga kim egadir, mayli, men ozod-sarbastman.
Haqiqat ahliman, har qanday aybdan pok-mubarroman,
Agar dunyo xarob o'lsa netay, men o'zga dunyoman.
Yashashchun odam ahli tiz cho'kib borliqqa yolvorsa,
Parokanda, yonib, ko'z yosh to'kib borliqqa yolvorsa,
Shu vaqt gar bir o'zim o'lsam, ezilsam, ajaga til ochmam,
Ajal ham kelsa kelsin, dovyurakman, orqaga qochmam.

Qatiba darhol shoirning achchig'i qistaganini sezib uni yupatishga urindi:

— Mening so'zlarimga salbiy ma'no berishing o'rinsiz: men seni yuksaklarga ko'tarmoqchi ekanman, tahqirlashni istaganim yo'q edi. Nima qilay? Modomiki, sen meni rad etish uchun bahona axtarar ekansan, unda mening gaplarimni o'zingcha o'zgartira olasan. Shoirsan, ijodkorsan...

Qatiba yarim soatdan ortiqroq so'zladi. Sevgi dostonlarini rang-barang qofiyalar va xilma-xil mazmunlarida sayradi, yig'ladi, kuldi, noz-u karashmalar qildi, g'azablandi, shunda ham shoirdan ijobiy bir javob ololmadi. Nihoyat, qo'lini Nizomiyning qo'lidan bo'shatib olib, ko'z yoshlari bilan ajralarkan, Nizomiydan shu so'zlarni eshitdi:

— Qizlarda ro'y beradigan bu xil holat o'tkinchidir. Shoshilinch ravishda bir onda sevib, kishiga bog'langanlaridek, bir onga ajralib ham keta oladilar.

Nizomiy ketdi, Qatiba esa turgan jonida qaqqayib qoldi. Birozdan so'ng u qaytib borib to'nkaga o'tirib, xayolga cho'mdi, miyasi qiziy boshladi, fikrlari olovlandi. Buyuk bir intiqom hissi bilan yona boshladi. Shu qadar kamsitilgani uchun o'z-o'zidan nafratlanardi.

Husomiddin uzoqda turib Qatiba bilan Nizomiy o'rtasida bo'lgan suhbatga quloq solar edi. U Qatibaning yalinib-yolvorishlarini, Nizomiyning unga bergan javoblarini eshitar va umidlari yangidan jonlanardi. Husomiddin Nizomiyning oila ko'rish

borasidagi fikrlariga alohida baho berarkan, o'zicha: "Shoir to'g'ri aytdi. Bir qalbni biridan olib, ikkinchisiga taqdim qilish mushkul", deb o'ylardi. Lekin bu fikr Husomiddinni tamomila qanoatlantirmas edi.

Har holda Nizomiydan rozi edi. Bundan bir necha kun muqaddam Nizomiy samimiy so'z berganini angladi. U xursand holda Qatibaning oldiga bordi, odati bo'yicha, qizga bosh egib:

— Oqshomingiz xayrli bo'lsin! — dedi.

Qatiba javobida:

— Juda mamnunman! Borib xabar ber, qullar taxtimni shu yerga keltirsinlar, — dedi.

— Bu yerda juda daraxtlar qalin ekan. Daraxtlarning shoxlari taxtni yelkada olib borishga xalaqit beradi. Yaxshisi, bir necha qadam gaplashib borsak.

Qatiba o'rnidan turganida Husomiddin unga dedi:

— Men o'ylaymanki, xonimning bugungi sayohati mana shu majnuntol to'nkasi bilan abadiy xayrlashmoq uchun bo'lsa kerak.

Qatiba tez unga o'girilib:

— Sen o'zingni qahramon hisoblaysan, — dedi,— lekin yaralangan bir odamni qayta yaralamoq mardlik va qahramonlikmi?

— Men sizni yaralashni istamadim, sizning xatoyingiz qanday natijalar berganini o'zingizga tushuntirib qo'ymoqchiman. Shoir juda chiroyli aytdi: tabiat bir qalbning ikkiga taqsimlanish imkonini yaratmagan.

— Menga falsafiy tilda gapirma, tabiatda mumkin bo'lmaydigan narsa yo'q, hamma narsani inson yaratadi.

— Mening o'gitlarimga ishonsangiz, bugungi uchrashuvga kelmagan bo'lardingiz. Shoir ham sizni bu qadar oshkora rad etmagan bo'lar edi. Endi menga ayting-chi, hali ham uni sevasizmi?

— Yo'q, sevmayman, ishon, endi u mening ashaddiy dushmanim. Men uning o'z Ra'nosi bilan baxtli yashashiga yo'l qo'ymayman. Basharti ilojini topa olsam, uni o'ldirtiraman. Lekin uning qabri ustida o'tirib o'lgunimcha yig'layman. Men na sevgini unutaman va na tahqirni. Sen ham meni o'z holimga qo'y. Bobomning muqaddas ridosiga ont ichib aytamanki, hech kimga sevikli xotin bo'lolmayman. U bilan yashay olmadimmi, endi boshqa

hech kim bilan ham yashay olmayman, chunki inson umrida faqat bir marta seva oladi. Men bundan so'ngra kimga qarasam, yolg'iz Nizomiyni ko'raman, qo'llarimni kimning bo'yinga tashlasam, uni quchoqlayapman deb o'ylayman. Kim bilan bo'lsam, go'yo o'sha bilan bo'lgandek xayol qilaman. Endi sen ham mendan uzoqlash, chunki men seniki ham, uniki ham emasman.

Husomiddin Qatibaning bu so'zlaridan istehzolanib kuldi-da:

— Pastdan turib yuksaklikni izlagan odamlar o'zlarini hamma vaqt pastda ekanliklarini unutmasliklari kerak, — dedi.

Qatiba bunga javob berish imkonidan mahrum edi, chunki qullar uning taxtini keltirishgandi. U bundan bir soat avval shu taxtda o'tirib zo'r umidlar bilan o'rmonga kelgani holda, hozir umidsiz, tahqirlanib o'rmondan chiqib ketmoqda edi. Alvon shohilar va zarboflar bilan bezalgan taxtiravon Qatibaning ko'ziga mash'um tobutday ko'rinar edi.

Kanizaklar va cho'ri qizlar taxtiravon oldida qah-qah urib kulayotganlarida, Qatiba qalbidan yig'lar va alamdan to'lg'anardi.

U o'rmondan chiqdi, lekin bu oxirgi chiqishi emas edi. U bundan keyin ham har kuni o'rmonga kelar, yana ana shu majnuntol to'nkasida o'tirib o'ylar, o'tmish kunlarini xotirlar edi.

QIZIL ARSLON

Eldanizning o'g'illari Ozarbayjonni idora qilishga kirishgandilar. Marog'a hokimi Qora Sungarning mag'lubiyatidan so'ng g'arbi janubiy Ozarbayjondagi itoatsizlikka barham berilgan edi. Qizil Arslon Tabrizda Shimoliy Ozarbayjon masalalari bilan shug'ullangan vaqtida mahalliy hokimlar mamlakatning vaziyati to'g'risida hukmdorga bir qancha asossiz maktublar yuborar edilar. Ular o'z mavqelarini saqlab qolish uchun mamlakatda mavjud bo'lgan noroziliklarning sabablarini yashirardilar. Shuning uchun ham Nizomiy Qizil Arslondan she'r va adabiyotga doir maktubni olganida, mamlakatning vaziyatini va noroziliklar sababini qisman oydinlashtirib javob yozgan edi.

Nizomiy o'z maktubida mamlakatda bo'lib turgan qo'zg'olonlar yaroqsiz bo'lib qolgan hukumat usul-idorasi natijasida vujudga

kelgani va mamlakatning islohotga muhtoj ekanligi, xalqning ishonchini yo'qotgan mahalliy hokimlarni esa, almashtirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Maktubda qayd qilingan asosiy masalalardan biri ham milliy madaniyatda tariqat va mazhab mubohisalarining tahlikasi ostida qolgani va madaniy vositalarni yerli hokimlar tarafidan tarqatib yuborilish masalalaridan iborat edi.

Maktubga javob kelmadi. Bir necha kishilar maktub orqali "usul-idora masalasiga tirg'alish kerak emas edi, hukmdorga maslahat berish ehtiyotsizlik bo'ladi" deya, oldida bo'lmasa ham, orqavarotdan Nizomiyni tanqid qilardilar. Maktub yozilayotgan vaqtda Nizomiyga maslahat bergan va yozilgan masalalarga rozilik bildirganlar, endi "bundan bizning aslo xabarimiz yo'q, maktubni yolg'iz o'zi yozgan, o'zi imzo chekkan, qo'ying, endi javobini ham o'zi bersin", deb hamma yerda gapirib yurardilar. Nizomiyning yonida faqat Faxriddin qolgan edi, u doimo Nizomiy bilan suhbatlashgan mahalida:

— Biz bu maktubni yuborib hech qanday xato qilganimiz yo'q, — derdi.— Qizil Arslon mamlakatimizni sevsa, bizni taqdirlashi kerak. Maktubda mamlakat va hokimiyatning baxt-saodatidan boshqa hech narsa talab qilganimiz yo'q. Agar hukmdorlar bundan norizo bo'lsalar, mayli, bo'laversinlar. Biz mamlakat va xalq ahvolini hech qachon yashirmasligimiz kerak. Men maktubda ko'rsatilgan masalalarning hammasiga sherikman. Sen meni bilasan, Faxriddin hech qachon seni yolg'iz qoldirib ketmaydi.

Shu xilda gaplar Nizomiy bilan Faxriddin o'rtasida tez-tez takrorlanib turardi. Nihoyat, kunlarning birida Faxriddin Mahsatiy xonimning hol-ahvolini so'rash uchun Nizomiyning uyiga kelganida, shoirni haddan tashqari xursand ko'rdi. Mahsatiy xonimning kasali ham go'yo tuzalib qolayotganday edi. Ra'no bilan Nizomiy uni toza havo olish uchun hovliga olib chiqishgandi. Mahsatiy xonim Ra'noga yangi yozgan ruboiylarini o'qirdi.

Nizomiy Faxriddinni ko'rgan zamoni:

— Yana ozroq kechiksang, aytib kelgani odam yubormoqchi edim, — dedi.

Faxriddin biror xursandchilik xabar borligini angladi. U avval borib Mahsatiy xonimning qo'lini o'pdi.

Ra'nodan hol-ahvol so'radi, so'ngra Nizomiyga:

— Ko'zlaring zo'r bir xursandchilikdan xabar bermoqda, — dedi.

Nizomiy qo'ynidan katta bir daftar hajmida maktub chiqarib, Faxriddinga uzatdi:

— Ol, o'qi, qo'rqoqlar, muhofizakorlar amin bo'lsinlarki, Nizomiy yozgan maktublardan hech kimsa zarar ko'rmaydi.

Ular maktubni o'qish uchun Mahsatiy xonimni ham qo'ltiqlab uyga olib kirdilar. Faxriddin qo'llari titray-titray maktubni o'qidi:

"Muhtaram shoir!

Maktubingizni olib ko'zlarimga surtdim. Go'yo shoirni ko'rganday va u bilan baqamti o'ltirib suhbatlashganday sevindim. Maktubning javobi kechikdi. Bunga birgina beparvolik sabab deb tushunmang. Har holda maktubning javobi kechikkani to'g'risida o'ylagandirsiz, mamlakatning vaziyatiga va ozarbayjon xalqining ahvoli ruhiyasiga oid yozgan bu maktubingiz davlat qurilishi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir. Tangriga ont ichamanki, maktubingiz butun vujudimni titratib yubordi. Maktubda ko'rsatgan masalalaringizning hammasi xudda ikki qalbning, ikki fikrning mahsulidir. Shoir bilishlari kerakki, bu qadar yetuk, bu qadar madaniy tarzda yozilgan maktubga shoshilinch javob yuborish juda ham mushkul. Sizning hukumat qurilishiga doir fikrlaringizni juda diqqat bilan o'qidim. Zotan, Saljuq hukmdorlari muayyan va mustahkam bir hukumat qura olmadilar. Shu bilan birga ular xalqlarning madaniy va ijtimoiy ahvollari bilan ham hisoblashmadilar. Ozarbayjonliklar Saljuq hukmdorlari oldiga o'z milliy taqdirini o'zi belgilash masalasini qo'ya olmasdilar. Basharti, hukmdorlar bu huquqni ozarbayjon xalqiga berishni xohlaganlarida ham, buning uddasidan chiqa olmagan bo'lur edilar, chunki Saljuq xonadonining asoschisi To'g'rulbek, o'z birodari Ibrohimni Ozarbayjon mamlakatiga hokim qilib tayinlash bilan birga, unga muayyan bir hukumat tuzib, mustaqil ish olib borish haqida biror ko'rsatma bermagan edi. U vaqt Ozarbayjon mamlakatida fors va arablar ta'siridan xalos bo'lish masalasini ham qo'yish mumkin

emas edi, chunki Qoimbiamrulloh To'g'rulbekning hukumatini tasdiqlagan vaqtda (430-yil hijriyda) Hibotulloh degan bir arabni muovin, yanada to'g'rirog'i, nazoratchi sifatida uning yoniga qo'ygan edi. Shuning uchun Ozarbayjonda ham, Xorazmda ham, Iroqda ham, Ajamda ham milliy til, milliy madaniyat va milliy taqdir masalasi qo'yila olmas edi.

To'g'rulbekning Qoimbiamrullohga nisbatan olib borgan murosachilik siyosati mamlakatlarda xalifa fuqarosining yashashda davom etishiga imkoniyat yaratib berdi. O'sha mahalda u birodari Dovudning Arslon xotun ismli qizini Qoimbiamrullohga berib, o'zi esa Qoimbiamrullohning qizi Saidaga uylanib, boshqa o'lkalar bilan birga Ozarbayjonning siyosiy va ijtimoiy ahvolini og'irlashtirmoqda edi. Siz maktubingizda To'g'ruldan keyingi Alp Arslonning Ozarbayjondagi islohot ishlariga ishora qilayotirsiz. To'g'ri, men uning islohot ishlari bilan juda qiziqib tanishdim. Lekin har bir islohot yoki har bir ilg'or tashabbus davlat tuzumiga suyanmog'i kerak. Tuzum madaniyat taraqqiyotiga va islohotga imkoniyat yaratib bermasa, islohot hech qanday ijobiy natija bera olmaydi.

To'g'ruldan keyin katta bir hokimiyat yarata olgan jahongir Alp Arslon ham muayyan va asosli bir davlat usul-idorasini barpo qilolmadi (455-yil hijriy). U Yamandan Uksus (Amudaryo — R. Q.) ga qadar cho'zilgan katta o'lkaning hukmdori bo'lgani holda, mamlakatni o'z oila a'zolari o'rtasida taqsimlashi hamda viloyatlardagi hokimlarning bir markazga tobe bo'lishini istamasligi, Alp Arslon o'ylagan islohotning turmushga tatbiq etilishiga imkon bermasdi. Lekin men boshqacha o'ylayman. Biz umummamlakat miqyosida yagona bir usuli idoraga ega bo'lgan muayyan hukumat qurishga muvaffaq bo'lmasak ham, joylarning siyosiy va ijtimoiy vaziyatiga qarab, har yerning o'z sharoitiga mos keladigan alohida-alohida usuli idora tashkil qilish haqida o'ylashimiz kerak. Men bu borada shoirni ishontiraman. To'g'rul bunga rozilik bermagan taqdirda ham, biz Ozarbayjon otabeklari bo'lganimiz uchun Ozarbayjonda muayyan bir davlat tuzumi tashkil etishimiz lozim. Ozarbayjon xalqi bizni o'z hukumatimiz deb tan olmasa, bizni himoya qilmaydi. Siz maktubingizda Ozarbayjonda mavjud bo'lgan din-tariqat kurash-

lariga ishora qilmoqdasiz. Bu masala meni ham qiziqtiradi. Bizni mushkulotlarga duch keltirgan masalalar ham xuddi ana shundan iborat. Shu kunlarda Isfaxonda boshlangan sunniy-shi'a nizolari ham yuqoridagi muddaoimni tasdiqlaydi. Nizolarga xotima berish uchun ilmiy yo'llardan foydalana olmadim, chunki bu nizolarning boshqa o'lkalarga ta'sir etish ehtimoli meni cho'chitadi. Shunga ko'ra, sunniy-shi'a nizolarini qon to'qib bo'gishga majbur bo'ldim. Lekin sizning maktubingizni olgan vaqtimdayoq, zudlik bilan Bag'dod xalifasi Mustarshidbillohga maktub yuborib, Bobak qo'zg'oloniga doir hujjatlarni so'ratib oldim. Ana shu hujjatlarni qo'lga kiritmasdan va ular bilan yaxshilab tanishib chiqmasdan turib, tariqatlarning yo'q qilinishiga oid fikrimni sizga yoza olmadim.

Hujjatlarini yubordilar, bir necha kundan beri o'shalarni o'qimoqdaman. Bobak qo'zg'olonining mazmuni, uning taraqqiyot yo'llarini va qo'zg'olonning bostirilish sabablarini o'rganmoqdaman. Hujjatlardan menga ma'lum bo'lganlari shular.

Xalifa Ma'munningmi, yoki undan so'nggi xalifa Mo'tasimningmi kotiblari bo'lsin, Bobak qo'zg'olonining jarayoni va uning taraqqiy yo'llarini yozar ekanlar, diniy hissiyotga berilib ketib, haqiqatni tamomila buzib ko'rsatganlar.

Lekin men Bobak qo'zg'olonidan keyin Ozarbayjonda ro'y bergan barcha qo'zg'olonlar tarixini o'qir ekanman, bularning hammasida ham Bobak qo'zg'olonida mavjud bo'lgan unsurlar borligini ko'rmoqdaman.

Xalifaning kutubxonalarida saqlanayotgan bu yozuvlar naqadar buzib berilgan bo'lsa-da, baribir Bobak qo'zg'olonining tub mazmunini butunlay yashirishga muvaffaq bo'lolmaganlar. Yozuvlarning har sahifasida Bobakning asosiy fikrlari porlamoqda. Bobak xalqlar birligini yaratish uchun dinga, tariqat va xurofotga qarshi hujum qilishdan boshqa bir yo'l tanlay olmagan, Bag'doddan olib kelingan hujjatlar ichida juda qimmatli tarixiy hujjatlar ham borki, ular xalifa Ma'mun birinchining yozuvlaridir. Bu qo'lyozmalarning muhim bir qismi Ma'munning Bobak qo'zg'oloniga doir yozgan xulosalaridir. Ma'munning xulosalarida Bobak qo'zg'olonidagi nuqsonlarning sabablari oydinlashtiriladi. Ayni zamonda Mamun Abbosiy xalifalarning xiyonatlarini bir-bir sanab ko'rsatadiki, ular

xalqni ilm-ma'rifat bilan emas, din, mazhab, tariqat va xurofot vositalari bilan chalg'itib, o'zlariga bog'lab olishni istaganlar.

Ma'mun, xalqni sog'lom bir davlat tuzumi bilan birlashtirish o'rniga, din yo'li bilan birlashtirish tashabbusi xalifalarning eng katta xatosi deydi.

Ma'mun yana shunday deydi: "Arab va yahudiy olimlarining islom diniga uyg'unlashtirgan diniy falsafalarini xalifalar butun islom dunyosiga yoyib, keng tarqatishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham islom dunyosida diniy tushunchalar siyosiy va madaniy tushunchalar ustidan g'olib chiqqan".

Ma'mun o'z xulosalarida Bobak isyoniga sabab bo'lgan jihatlarni oydinlashtirib aytadiki: "Yunonistonda bo'lgani kabi islom mamlakatlarida ham milliy madaniyat o'rniga diniy madaniyatni qurish fikri maydonga tashlandi. O'lkalarning mutaassiblik tariqati yo'li bilan Yunon-Iskandariya maktabining mahsuli bo'lgan sufizmning uchurimiga tashladilar".

Abbosiy xalifalarning davlat tuzumlarini tanqid etgan bu hushyor, aqlli xalifasi aytadi: "Xalifalar ilohiyot — islom falsafasini Yunonistondan olib, arab olamiga tarqatganlari singari, uni Eron va Ozarbayjon xalqlariga ham aynan shu shaklda singdirishga harakat qildilar. Ular xalqning ahvoli ruhiyasi bilan hisoblashmadilar, me'dalarini bunday og'ir, ichni buzadigan taomni hazm qila olmasligini o'ylamadilar.

Shu sabablarga ko'ra, Bobak va uning atrofidagi ziyolilar islom dini vujudga keltirgan yuzlarcha tariqatlarni Ozarbayjonda mavjud bo'lgan fikr erkinligiga xalaqit berishiga sovuqqonlik bilan qaray olmadilar. Shak-shubhasizki, ular mazhab ixtiloflari ma'rifat tushunchalariga zid ekanini bizdan ko'ra ilgariroq anglab olgan edilar. Xalifa Ma'mun o'lkalarni tabaqalar va madaniy saviyalar asosida muayyan bo'laklarga ajratgan mahalda Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonning vaziyati haqida quyidagilarni yozadi:

"Xususan, Ozarbayjon mamlakati qadariya, jabriya va mo'taziliya tariqatlari va mazhablarining javlongohiga aylandi.[1] Shuning uchun ham men Bobak qo'zg'olonidan xabardor bo'lgan-

[1] Muhammad Shahristoniyning "Milal va Nihal" nomli asarlaridan va Qozi Ezzidiyning "Mavofiq" nomli asaridan.

ligim uchun qalbimdan sevindim. Lekin tobora rivojlanib borgan bu qo'zg'olonda bobakchilarning yo'l qo'ygan katta xatolari meni o'ylatib qo'ydi. Bobak va uning atrofidagilar kurashni tariqat va mazhab aqidalariga qarshi emas, balki dinga qarshi boshladilar. Holbuki, ular bir tariqatni ikkinchi bir tariqat yordamida yo'qota olardilar. Qo'zg'olon diniy va nazariy munozaralar asosida qurilishi kerak edi. Lekin Bobak buni qilich va qurol kuchi asosida ko'rishni istadi. Bobakchilar har bir tariqat va mazhabning o'ziga xos falsafasi borligi, bu falsafa xalq shuurida chuqur ildiz otib ketganligini nazarga olmadilar. Men bunga qattiq afsuslandim, chunki tariqat va mazhablar bartaraf etilgan din hokimiyat shaklida qolar edi va aqli bo'lgan xalifalar uning madaniyat uchun noqulay bo'lgan taraflarini tadrijiy suratda o'rtadan olib tashlay olardilar. O'sha vaqtlar Bobakning atrofida uning asosiy maqsadini ro'yobga chiqara oladigan, tariqat va mazhablarni ilmiy asosda rad eta oladigan olimlarning yo'qligidan, u g'olibiyatni faqat qurol vositasi bilan axtara boshlagan edi. Shubhasizki, shu xil kurashlarda qurolning yolg'iz o'zi g'olib kela olmas edi, — deb o'ylayman.

Muhtaram shoir, bu qadar achchiq tarixiy tajribalarni nazarga olgan vaqtimizda, islohot deyayotganimiz masalalarda juda ehtiyotli bo'lishimiz kerak. Qarang, Ma'mun o'z xulosalarida Bobakning xatolari haqida: "Bobak qo'zg'olonining mag'lubiyati sabablaridan biri uning dinga qarshi ko'tarilib, siyosiy qo'zg'olon shaklini olishidadir. Basharti, o'sha vaqtda bo'lmasa ham, kelgusida u mag'lubiyatga uchrashi tayin edi. Bobak xalifalar diniy tariqatning o'zinigina himoya etishga harakat qiladi, shuning uchun dinga qarshi qurol ko'tarish bilan birga, xalifa davlatiga qarshi ham qurol ko'tarish kerak deb o'ylardi. Avvaliga bu qo'zg'olonni qutlagan bo'lsam-da, endi u to'g'rida bahslashishga qaror qildim".

Muhtaram shoir, shu sabablarga ko'ra men maktublaringizda ishora qilingan islohot masalasiga yanada chuqurroq kirishishni istayman. Yozgan so'zlaringizning hammasini tarixiy falsafiy tosh bilan o'lchab javob bermoqchi bo'ldim. Shu sabablar bilan Bobak qo'zg'olonining tarixini batamom ko'zdan kechirish lozim keldi. Men xalifa Ma'mun o'z davrining oqil bir islohotchisi bo'lganiga

ishonaman. U xalifalikni ikkinchi martaba qo'lga olgan vaqtda[1] din, tariqat va mazhab masalalarini yana bir bor ko'zdan kechirib, isloh qilmoqchi bo'ldi. O'zingizga ham ma'lumki, Ma'mun "Qur'on"dagi gaplarning islom dunyosi uchun majburiy qonun emasligi masalasini maydonga tashladi. Lekin Ma'munning bu go'zal fikri islom o'lkalarida bir-biriga zid ikki harakatning tug'ilishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri, dindorlarning Ma'munga qarshi adovatli harakatlari bo'lsa, ikkinchisi, ozarbayjon ziyolilarining chuqur bir ifrotga berilib, din va davlatga qarshi qo'zg'olon ko'tarishlaridan iborat edi, bu harakatlarning har ikkisi ham Ma'munning islohot g'oyalarini bo'g'di, masalani oqibatsiz qoldirdi.

Endi Ozarbayjonni yangidan tiklash ishida bu tajribalar bir qo'llanma vazifasini o'tashi kerak. Sizning islohot haqida qilgan takliflaringizni Otabek Muhammadga yozaman. O'ylaymanki, a'lo hazrat sulton To'g'rul ham bunga mone bo'lmaslar.

So'ngra Ganja hokimi Amir Inonjning masalasiga oid yozgan so'zlaringizda: "Men, do'stim (Faxriddin) hamda buyuk shoira Mahsatiy xonimdan iborat uch nafar kishi bir sigirning sutiga qanoatlanib yashaganimiz holda, Amir Inonj butun Oron mamlakatini sigirdek sog'ib ichsa ham yana to'ymaydi", deysiz.

Muhtaram shoir, agar Amir Inonjlar bir sigirning suti bilan kifoyalansalar edi, o'sha zahotiyoq ular Nizomiyga aylangan bo'lardilar. Unda ularni Amir Inonj demas edilar. Maktubingiz bilan birga yuborgan ba'zi asarlaringizni oldim. Unda diqqatimni tortgan parchalardan biri sulton Sanjar bilan kampir hikoyasi bo'ldi. Haqiqatan ham, bu kichkina hikoyangiz yuborgan maktubingizning mazmuniga mosdir. Haqiqatan ham, saljuqiylar Ozarbayjon davlatini kampir xotin aytganidek, og'ir va nochor bir ahvolga solib qo'ydilar. Hozir Ozarbayjonni obod bir o'lkaga aylantirmoq uchun sizdek ziyolilarning jiddiy yordami lozim. Muhtaram shoir, siz aholiga tushuntirishingiz kerakki, hozir davlatga qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq va usuli idorani butkul rad etmoq Ozarbayjon uchun katta bir tahlika tug'dirishi mumkin, chunki mamlakatning qo'shinlari tomonidan davlatimizga qarshi katta bir suiqasd tayyorlanmoqda.

[1] To'qqizinchi asrning 15-yilida

Sizdan yana maktub kutaman. Nasib bo'lsa, ko'rishib qo'lingizni o'pish saodatiga muyassar bo'lurman. Hozircha uzoqdan salom yo'llayman.

Tabriz, Qizil Arslon".

Maktubni o'qib bo'lganidan so'ng Faxriddin quvonib: — Maktub nihoyatda qanotbaxsh, — deb qo'ydi.

Nizomiy esa, o'ychan bir holda maktubni buklab yozuv juzdoniga joylarkan:

— Maktub unchalik samimiy emas, — dedi.

Faxriddin taajjub bilan so'radi:

— Nega unday deysan? Buning qayerida g'ayritabiiylik bor ekan?

— Bu maktub olamdan tamom bexabar kishilarnigina alday olishi mumkin. Qizil Arslon Bobak qo'zg'olonidan gapirganida: "Men Bobak qo'zg'olonidan keyin Ozarbayjonda ro'y bergan barcha qo'zg'olonlar tarixini o'qiganimda, ularning hammasida Bobak qo'zg'olonida mavjud bo'lgan jihatlar borligini ko'rdim",— deydi.

Qizil Arslon bu yerda Bobak qo'zg'olonining qaysi jihatlardan murakkab ekanini bilmaydi yoki Bobakdan keyin Ozarbayjonda ro'y bergan qo'zg'olonlar mazmuni bilan yaxshi tanish emas. Ma'munning xulosalaridan olib bizga maslahat uchun ko'rsatgan parchalari esa yo o'zgartirilgan, yoxud boshqa bir maqsadni tashiyotgan muayyan odamlar fikri bo'lsa kerak, chunki Bobak qo'zg'oloni tub mohiyati bilan islom diniga qarshi boshlangan edi. Xalifalik islom dini asosiga qurilganligi uchun ham, xalifalar bu dinni himoya qila boshladilar.

Qizil Arslonning Ma'mundan olib bizga singdirmoqchi bo'lgan yanglish fikrlarning vaji ham Bobakning islom diniga qarshi emas, balki tariqat va mazhablarga qarshi isyon ko'tarishi lozim bo'lganini isbot qilishdir. Bu g'oyatda kulgili bir xatolik. Bobak tariqatlarga qarshi ilmiy va falsafiy jang boshlagan vaqtida tariqat mubohasalari yana ham alangalangan bo'lardi. Lekin diniy asoslarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon eng to'g'ri tadbir edi. Chunki dunyoda biror tariqat yo'qki, u dinga suyanmagan bo'lsin. Dinning yemirilishi qolgan boshqa barcha tariqatlarning ham yemirilishi demakdir.

Qizil Arslon maktubida Bobak qo'zg'olonini davlat tuzumiga qarshi qaratgani uchun mag'lub bo'lganini aytish bilan bizni qo'rqitmoqchi bo'ladi.

Maktubda meni qanoatlantiradigan bir jihati shundaki, u ham bo'lsa, Qizil Arslonning "ozarbayjonliklar o'z hukumatlari deb tanimasalar, bizni himoya ham etmaydilar", degan eridir. Ular aqlli va siyosatchi odamlar bo'lsalar, faqat yuqoridagi muddaolarini turmushga tatbiq etganlari taqdirdagina Ozarbayjon hukumati hisoblanadilar.

Bizning tabiiy chegaralarimiz tamomila Ozarbayjon otabeklarning qo'lida. Fikrimcha, ular Shirvon shohligi masalasini bekor qila oladilar. Qizil Arslonning milliy madaniyat to'g'risidagi qo'ygan masalasi ham asosiy masala. Muayyan va mustahkam tuzum asosida idora qilinmagan va bir markaz atrofiga to'planmagan kichik-kichik mamlakatlarda islohot o'tkazib bo'lmaydi. Qizil Arslonning saljuqiylarning davlat tuzumlari to'g'risidagi fikrlari tamomila to'g'ri.

Men ikkinchi maktubimda uning ba'zi xatolarini ko'rsatib o'taman. O'ylaymanki, u bundan xafa bo'lmas.

— Butun fikringga qo'shilaman! — dedi Faxriddin.

SULAYMONIY

O'n to'rt kunlik oy bunday jirkanch xiyonatni ko'rishni istamaganidan boshini qora bulutlar ko'rpasiga burkab yashirinmoqchi bo'lardi.

Moviy fazo dengizida cho'milayotgan yulduzlar ham qora choyshabga o'ranib yotog'iga kirar edi. Har mahal derazalarni chertishga odatlangan Ganja shamoli ham shahar aholisini bunday qora hodisadan xabardor qilib qo'ymaslik uchun o'z shiddatini to'xtatgandi. Tun juda ham sokin va osoyishta edi. Hamma narsada sukunat hukmron. Go'yo butun tabiat Amir Inonjdan sukut farmonini olgandek. Saroy ham uyquda, hovlisida ham, dahlizlarida ham "tiq" etgan tovush eshitilmasdi. Kanizaklar yotoqxonalarning chiroqlarini o'chirgan edilar. Uzun, keng dahlizning to'rida yonib turgan pilta chiroq ham so'nmoqda edi. Lekin xoja Mufid odaticha

o‘g‘ri mushuk kabi pusib saroy ahli yotgan uylarning eshiklarini hidlab yurardi. U Dilshodning yotoqxonasi eshigi oldida to‘xtadi. Qo‘lidagi kalitlar ichidan uning eshigiga tushadigan kalitni axtarar ekan, Dilshod uyg‘onib ketib, terakning bargiday qaltiray boshladi, chunki kechasi bemahalda Mufid hech vaqt xushxabar keltirmasdi. Bunday vaqtlarda kanizaklarni so‘roq qilish yoki jazolash, yoinki Amir mastlik vaqtida uning ko‘nglini yozish uchun olib borardilar.

Xoja Mufid ichkariga kirar ekan, Dilshod hurkak ohu singari cho‘chib xonaning burchagiga qisildi, u qorong‘i xonada qalt-qalt titrab xoja Mufidning nima uchun kelganini bilishga shoshilardi.

Xoja Mufid sham yoqib Dilshodning burchakka qisilib turganini ko‘rarkan, odati bo‘yicha kuldi. U go‘zal kanizaklarning shunday holatga tushishlaridan lazzatlanardi, hatto, kanizaklar jazolangan paytlarida to‘kkan ko‘z yoshlari ham unga rohat baxsh etardi. Shuning uchun ham xohlagan vaqtida ko‘ngli tilagan kanizakni begunoh va haqsiz ravishda jazolanishiga sabab bo‘lar va bundan ruhiy bir lazzat olardi. Dilshodni qo‘rqitgan narsa ham xuddi ana shu edi. Xoja Mufid yaqin kelib Dilshodning sochini silamoqchi bo‘lar ekan, qizning butun vujudi titradi. Xoja Mufidning bunday erkalash va kulishlari Dilshodning hayajonini zarracha pasaytirmadi. Chunki xoja Mufid kanizak va cho‘rilarni kaltaklash va jazolashga ham shunday kulib olib borardi. Hozir Dilshod uning bu soxta erkalashlarini ko‘rarkan, jazolash uchun olib borilishiga shubha qilmas edi. Xoja Mufid nima qilishidan qat’i nazar, Dilshod uning og‘ziga boqib, amriga intizor edi. U qo‘rqqanidan suratdek qotib devorga qapishib qolgan edi.

Lekin xoja Mufid qizning hayajon va iztirob bilan boqishlariga e’tibor bermay, juda ham loqaydlik bilan harakatlanardi, bunday vaqtlarda kanizaklarni intizor qilishning o‘zi ham bir jazo edi.

Xoja Mufid sham ushlaganicha biror narsani yo‘qotgan kishi singari Dilshodning xonasini aylandi, qizning kiyim-kechaklari, zeb-ziynatlarini ko‘zdan kechirdi, narsalarning o‘z joyida bor-yo‘qligini qarab chiqdi. Odat bo‘yicha, go‘zal kanizaklarga berilgan qimmatbaho kiyimlarni va zeb-ziynatlarni tez-tez tekshirib turardilar. Narsalarning hammasi joy-joyida edi. Xoja Mufid hamma narsani Dilshodning to‘shagi yonidagi turgan kursiga qo‘yib,

qizga qaradi-da, kulimsirashda davom etib, uning sochini siypalay boshladi. Dilshodning o'takasi yorilish darajasiga yetgandi, uning dod solib yig'lagisi kelardi. Nihoyat, xoja Mufidning lablari harakatga keldi. U juda ohista, zo'r-bazo'r eshitiladigan tovushda dedi:

— Qo'rqma, manavini ol-da, men nima desam shuni yoz!

Dilshod xoja Mufid tilidan birinchi bor "qo'rqma" degan so'zni eshitar edi. Shuning uchun xoja Mufidning bu so'zi uning hayajonini emas, taajjub va hayratini orttirdi. Xoja Mufid umr bo'yi biror kishining iztirobini bosib taskin topishiga imkon bermas edi. U hamisha kanizaklarni vahima va iztirobda yashashini sevardi. U go'zal kanizaklarning yurak o'ynog'ida yashashlarini his qilarkan, ruhan va qalban shodlanar edi. Xususan u, kanizaklarning eng sohibjamollarini sevmasdi. Uning g'azabiga duchor bo'lganlarning hammasi sohibjamol kanizaklar edi. Uning o'zi axta bo'lgani, ya'ni bichilganligi uchun ham xotin-qizlardan nafratlanardi. Xotin-qizlar uning eng ashaddiy dushmanlari edilar. U olamning ba'zi bir lazzatlaridan mahrum etilgani uchun boshqalar ham shunday bo'lishini istardi. Dilshodni Mufidning "qo'rqma" degan so'zi emas, balki vaqt yarim kechadan o'tib hanuzgacha Amir huzuriga sudrab olib borilmagani yuragiga dalda berdi, chunki Amirning ayshi uchun kanizak olib kirish soati o'tib qolgan edi. Amir ham, barcha saroy ahli ham kayf-u safoni tamomlab yotoqlariga kirib ketgan edilar. Amir mehmonxonasining chilchiroqlari ham o'chirilgandi. Binobarin, Dilshod aysh-u ishratga da'vat etilmagani uchun xursand edi, chunki Amir kanizaklarni jazolagan paytlarda raqqosalar ishva-noz qilar, soqiylar sharob uzatar, xonanda qizlar qo'shiq boshlashar edi, gunohkor kanizak esa, Amir o'tirgan kursi oyoqlari ostida kaltaklanar edi. Shunday paytlarda cholg'u tarannumlariga hamohang bo'lib eshitilgan faryodlar, yalinib-yolvorishlar Amirning shavq-zavqnni oshirardi. Bugun Dilshodni undan boshqa bir kulfat ham kutar edi.

Xoja Mufid yana Dilshodning yoniga kelib uning sochlarini silab:

— O'tir, o'tir, aqlsiz yovvoyi ohu, — dedi. — Qanchalar go'zal bo'lsang, shunchalik aqlsizsan, bu ham tabiiy bir hol. Tabiatda to'kis-tugal narsa yo'q. Tabiat insonga biror narsani ko'proq

berib, boshqa bir parsani kamroq beradi. Lekin insonda go'zallikdan aql ortiqroq bo'lsa edi, boshi seniki yanglig' balolarga giriftor bo'lmas edi. Aqlingning kamligi bir necha achchiq tajribalardan keyin ham ko'zingning ochilishiga imkon bermadi. Bu ham tabiiydir, chunki go'zal qizlar o'z zohiriy go'zalliklariga mahliyo bo'lib, aql-u farosatlari go'zal bo'lishiga e'tibor bermaydilar. Sen ham shundaylardansan, sening gunohing husningga qaraganda bir necha bor ortiq. Chunki o'z valine'matingga xiyonat qilding. Sen bu harakating bilan o'zingni eng yaramas bir qiz ekaningni namoyish etding. Xalifaning qizi Sofiya xotunning nomusiga dog' tushirishmoqchi va uni Amir nazaridan qoldirmoqchi bo'lding. Sen Faxriddinning yo'l-yo'rig'i bilan Amirning kotibi Muhokim ibn Dovudning muhrini o'g'irlab o'z xoniming Sofiya xotunning yotog'iga tashlading. Bu sening ishing edi. Sen bu xiyonating ila xalifa bilan Amir hazratlari oralarida ixtilof chiqarishni istading. Amirni ham, uning xotinini ham bebaxt qilmoqchi bo'lding. Sen erkaklarning "sevaman" degan gaplariga aldanma. Ular o'zlarining jinday manfaatlari uchun boshqalarning butun borligini sota oladilar. Faxriddinning so'nggi harakati shuni ko'rsatdi. Qani, endi aytchi, bu gunohlaringning jazosi nima bo'ladi? Sen bilasanki, shunday gunohlari uchun Tarxon xonimni qopga joylab, hovuzga tashlab g'arq qildilar. Sening o'z ko'zing oldida Lomia xonimdek go'zal bir qizni Marjon nomli jirkanch bir qora qulning quchog'iga tashladilar. Holbuki, sening gunohing ularning gunohidan o'n chandon ortiqroq. Gulandom singari go'zal bir joriyaning yuzlariga tamg'a bosilganini yodingdan chiqarmasliging kerak edi. Lekin sen qanchalik o'z baxting ziddiga harakat qilsang, baxt ham shunchalik o'jarlik qilib sening yoningdan jilmayapti. Baxting seni kechirib bo'lmaydigan gunohlaringdan har safar ozod etmoqda.

Xoja Mufid ko'p gapirib charchadi, nihoyat, o'ng qo'lini beliga tirab, bir kursiga o'tirdi. Dilshod esa oraga tushgan andak sukunatdan foydalanib so'zladi:

— Men jazoga tortilib hibsga olingan vaqtimda ham aytgan edim, hozir yana takror aytaman. Bu ishlarning birortasidan ham xabarim yo'q. Buning uchun men bilan Faxriddinni aybdor qilishlaringiz o'rinsiz.

Xoja Mufid boshini quyi solib Dilshodga dedi:

— Hoy shaytonbachcha! Saroydagilarning hammasini besh barmog'imdek bilishimdan xabaring yo'qmi? Kanizaklarning boshlaridagi soch tolalari qanchaligini ham bilaman. Bularning hammasi o'tib ketgan gaplar. Sen Zubayra va Tohirlar singari muz bosgan hovuzga pishilib kaltaklanmading, chunki baxtli eding. Hozir ham baxtlisan. Amir seni Faxriddinga berishga rozi bo'ldi. Men ham shu masala haqida so'zlashgani bemahalda yoningga keldim.

Dilshod sevinchidan qichqirib yuborayozdi, ho'ngir-ho'ngir yig'ladi. Xoja Mufid esa:

— O'tir, aytganlarimni yoz. Tun og'ib qoldi. Xonalarni aylanib ko'zdan kechirishim kerak, — dedi.

— Nima yozay?

— Amir sizlarning nikohingizga rozilik bergani haqida Faxriddinga xabar qilishing kerak.

— Bu maktubni yozish boshimga yana boshqa biror falokat keltirmasmikan?

— Buni senga xoja Mufid aytyapti. Bunda na tahlika bor, na falokat. Ol, yoz!

— Qalam-qog'oz yo'q.

— Mana, marhamat, men olib kelganman.

Xoja Mufid cho'ntagidan qog'oz bilan qalam chiqarib berdi. Dilshod xoja Mufidning aytganlarini yozib tugatdi. Xoja Mufid esa:

— Qani, o'qi-chi, nimalar yozding? — dedi.

Dilshod o'qidi:

"Aziz va muhtaram Faxriddin!

Bilar-bilmas yo'l qo'ygan xatolarimga qaramasdan Amir hazratlari baxtimga to'g'anoq bo'lishni istamadi. Amir ham, uning muhtarama rafiqasi Sofiya xotun ham najib va muqaddas qalblari bilan gunohimni kechirdilar. Amirning bergan farmoniga binoan, ramazon oyi tugashi bilanoq bizning xayrli ishimiz ro'yobga chiqadi. Bu maktubni tayyorgarlik ko'rib turishing uchun yozdim. Demak, yigirma kunlardan keyin biz birga hayot quramiz. Seni qutlayman. Sen ham meni qutlashing mumkin.

Dilshoding".

Xoja Mufid maktubni olib bukladi va kula-kula cho'ntagiga soldi. Dilshod azob-uqubatlar tugadi, deb o'ylardi. U sevinib xoja Mufidning qo'llarini o'par va oyoqlari ostiga o'zini tashlamoqchi bo'lardi. Lekin bu shodlikning umri bir necha daqiqadan nariga o'tmadi. Xoja Mufid o'rnidan turgan vaqtida:

— Tun og'ib qoldi, endi tayyorgarlik ko'rish lozim, — der ekan, Dilshod taajjub bilan so'radi:

— Nega hozirdanoq tayyorgarlik ko'rish kerak? Bizga yigirma kunlik muddat ozlik qiladimi?

— Bu butunlay boshqa tayyorgarlik. Endi senga boshqa bir xushxabar aytaman.

— Qanday xushxabar?

— Amir hazratlari seni o'z qaynotalari Mustarshidbillohga hadya qilmoqchilar. Sening jazodan xalos etilganingning sababi ham shunda. Tur, tayyorlan, jo'nashingga juda oz fursat qoldi.

Dilshod bu xabardan qaltirab ketdi-da:

— Bu xabar menga beriladigan jazolardan yana ham dahshatliroq. O'tinaman, menga rahm qilinglar, meni halok qilmanglar, bu safarni biroz kechiktiringlar, kechiktiringlar, — deb ho'ng-ho'ng yig'ladi.

— Aslo mumkin emas, Bag'dodga yolg'iz sen jo'natilmaysan, Susan ham, yana qirqta kanizak ham jo'natilyapti. Tayyorlan. Amir bu masalaning paysalga solinishiga yo'l qo'ymaydi.

— Shunday ekan, maktubni nega yozdirding? Vijdonsiz, shayton, haromi...

Xoja Mufid bu so'kishlarga iljayib dedi:

— Bu dunyo shunday. Maloikalar va payg'ambarlarga o'xshab yashash yerdagilarga nasib bo'lmaydi. Yerda faqat bizga o'xshaganlar yashay oladi. Biroq shayton bo'lmay turib baxtli yashash hozircha yer ahliga nasib bo'lgan emas. Meni vijdonsiz deb so'kishga haqlisan, faqat shuni bilginki, vijdon ham, ruh ham, qon ham — hammasi o'sha Yaratganning xizmatidir. Vijdonning buyrug'i bilan yashashni istagan odam Xudo darajasida qudratga ega bo'lishi kerak. Tobe odamlar uchun vijdonli bo'lish qiyin. Lekin mening vijdonim boshqalarga yomonlik qilsa ham, senga nisbatan yaxshilik qiladi. Negaki, sening pokiza botiningdan hayot-

ga olamni idora qila oladigan xalifalar keladi. O'sha damlarda meni naqadar senga mehribonchilik ko'rsatganimni anglaysan va mening haqimga duoyi xayrlar qilasan. Amiralmo'minin xalifa hazratlari sening bu anordek mammalaringni o'ynayotganlarida, xoja Mufidni eslarsan. Chunki bular mening parvarishim bilan yetilgan. Men sening g'uncha lablaringni qora qullarning lablarida majruh bo'lishiga yo'l qo'ymadim, bu lablaringni xalifaning lablarida ko'rganingda men faqirning haqiga duo qilasan. Seni g'uncha holingda uzmoqchi bo'ldilar. Guldek ochilgan vaqtingda Amir hazratlarining o'zi seni sharafga musharraf qilishni istadi. Men mone bo'ldim, chunki sening gulingni oddiy odamlar tera olmas edilar, bu qimmatli gulni xalifa hazratlarigina o'z tojiga taqishi kerak edi. Nega xursand bo'lmayapsan?! Hozirning o'zidayoq iqboling o'z najot qo'lini cho'zib, seni g'am-u g'ussalar va jazolar panjasidan xalos etib, muqaddas hayot quchog'iga va xalifayi ro'yi zaminning muborak og'ushlariga boshlab bormoqda, u muborak og'ushda ham bu dunyo hamda oxiratning baxt-saodati mavjud-ku. Endi ko'p gapga o'rin yo'q, tur, tayyorlan. Men zudlik bilan qaytib kelaman. Kerakli narsalaringni bir yerga to'pla. Ortiq xayolga cho'mishning o'rni emas. Inson hodisalarning xizmatkori, hodisalar esa qazo-u qadardir, undan qochib qutulib bo'lmaydi. Sen hali hayotni tushunmaysan, birinchi daf'a xalifa haramiga qadam qo'ygach, haqiqiy hayoting boshlanadi. Xalifaning tabarruk vujudidan bahramand bo'lib, xotinlik davriga qadam qo'yib, sadafdan pokiza botiningga inson shabnami tushganidan so'ng, dunyoga noyob durlar, injular baxsh etgan vaqtingda keksa xojaning o'git-nasihatlarining qadriga etasan. Sevgi yolg'on gap. U yoshlik davridagi jinnilikning ibtidoiy bir shakli, xolos.

Xoja Mufid ketganidan so'ng Dilshod bu dahshatdan jinni bo'lib qolish darajasiga yetdi. Bu hodisalarni Faxriddinga qanday yetkazishni o'ylab, biror chora topolmasdi. Dilshod yig'lar ekan, qalbida Faxriddindan koyib der edi: "Sen meni haqiqatan sevsang edi, allaqachon bu yerdan olib ketarding. Ko'rinib turibdi, xoja Mufidning aytganlari tamomila to'g'ri. Sen meni sevganingda edi, men shu kechadagi hodisalarning qarshisida yaproqdek qaltiramasdim".

Dilshod shularni o'ylar ekan, xoja Mufid bo'xcha ko'tarib kirdi, uni kursining ustiga qo'yib dedi:

— Bular yo'lda kiyadigan liboslaring. Bu gavharlar bilan manavi olmoslarni ham xalifaning huzuriga yetgan vaqtingda taqib olishing kerak.

Xoja Mufid Dilshodga yechinib, yangi kiyimlarni kiyib olishiga yo'l qo'ydi, eshikni yopib, dahlizga chiqib turdi. Dilshod yechinib yo'l kiyimlarini kiyayotgan daqiqalarda yana Faxriddinni xabardor qilish haqida o'yladi. U kiyindi. Faxriddin yodgorlik uchun bergan marjonni bir ro'molchaga tugib, qo'yniga tiqib qo'ydi.

Xoja Mufid kirib uning narsalarini tugib ko'tardi va dedi:

— Endi ketimdan yur, bu yerda o'zingni yaxshi tutolmagan bo'lsang ham, xalifa saroyida o'zingni mahkam ushla. Bag'dodni Ganja deb o'ylama, u yerdagi hayot butkul boshqa. U yerda go'zallik naqadar qadrlansa, fahm-farosat undan ko'ra ortiqroq qadrlanadi. Rassomlar sendan ko'ra go'zal suratlarni chiza oladilar. Bordi-yu sen xalifaning qalbini qo'lga ololsang, butun Bag'dodni qo'lga olgan bo'lasan. Lekin birovlarning so'ziga kirsang, yengiltak bo'lsang, xalifaga atalgan javohirni boshqalarga bag'ishlamoqchi bo'lsang, baxt-saodatingni bir umrga yo'qotasan.

Mufid dahlizga chiqdi. U saroydan ko'cha darvozasiga borib yetguncha Dilshodga shu nasihatlarni berardi. Ko'chaga chiqqanlarida Dilshod darvoza yonida bir necha taxtiravonlar turganini ko'rdi. Taxtiravonlarni qurol-aslahali otliqlar va qullar o'rab olgandilar, chunki Amir Inonj Faxriddin Dilshodni olib qochishga tayyorgarlik ko'rganini eshitgan edi.

Xoja Mufid Dilshodning bo'xchalarini birinchi taxtiravonga joyladi, so'ngra qizning qo'lidan tutib taxtiravon zinasidan chiqarib qo'ydi. Taxtiravon shohi pardalar va nafis gilamlar bilan bezatilgan edi. Dilshod u yerga yonma-yon ikki ko'rpa-to'shak tashlanganini ko'rib Mufidga savol berdi:

— Bu yerda yana kim ketadi?

— Bu yerda sen, yana senga xizmat qilish uchun mashshota ketadi[1].

---

[1] **Mashshota** — xotin-qizlarni pardoz-andoz qiladigan xotin. Sharqning kibor, oqsuyak oilalarida xotin-qizlarni bezatish uchun mashshota saqlash odat edi.

Birozdan so‘ng mashshota ham taxtiravonga chiqdi. Xoja Mufid mashshotaga toshpiriq berdi:

— Amir hazratlari bu qizni senga topshiradi. Bunga alohida e’tibor berishing kerak. Buning yemoq-ichmoqlari, hamma ehtiyojlari o‘z vaqtida bajarilishi kerak.

Mufid shu so‘zlarni aytib taxtiravondan tushdi.

Taxtiravonlar yo‘lga chiqdilar. Butun shahar uyquda, oy esa Kapaz tog‘i ortiga botib borardi. Ko‘cha qorovullari burchak-burchaklarda biqinib mudrashardi. Har ehtimolga qarshi taxtiravonlarning pardalari tushirilgan edi. Lekin Dilshod taxtiravonlarning atrofida ketayotgan otliqlarga sezdirmasdan, pardaning bir burchagini ko‘tarib, qaysi ko‘chalardan o‘tib borayotganlarini bilishga harakat qilardi.

Taxtiravonlar karvoni Mas’udiya deb ataladigan xaroba karvon saroyning yonidan o‘tmoqda edi. Ganja faqirlari, shahar tilanchilari qator tizilishib devorlar ostida yotmoqda edilar. Dilshod shu yerdan o‘tarkan, Faxriddinning yodgorligi Sulaymoniyni[1] ro‘molchasi bilan tilanchilar oldiga tashladi. Ko‘ngli sal tinchidi, chunki qimmatbaho buyumlar taqsimlanish paytida tilanchilar o‘rtasidan janjal chiqishi va bu qimmatli narsa qay tarzda tilanchilar qo‘liga tushgani elga ma’lum bo‘lishi mumkin edi.

Sulaymoniyning ustiga:

“Faxriddindan sevgili Dilshodga yodgor” degan so‘zlar yozilgan edi.

ORON[2]

Ganja shahri zo‘r hayajonda edi. Ozarbayjonda mavjud bo‘lgan hukumatga qarshi itoatsizlikni tugatish uchun keltirilgan iroq va fors qo‘shinlaridan besh mingi Oron o‘lkasida joylashtirilgan edi.

---

[1] Sharq afsonalarida, Sulaymon payg‘ambarning Sabo malikasi Bilqisga hadya qilib yuborgan qimmatbaho marjoniga “Sulaymoniy” deb nom berilgan.

[2] Mashhur geografiya olimi Qazvinni “Muzhatul-qulub” nomli asarida yozadi: “Ozarbayjonda Oron degan mamlakat Sharqda ikkinchi Bannalbahrayn (ikki dengiz (daryo) oralig‘i)dir. Ozarbayjonda Araks daryosi bilan Qura daryosi orasidagi shaharlar Orondir. Uning markazi Ganja shahridir”.

Otabek Muhammad tarafidan yuborilgan bu qo'shinlar Amir Inonjning buyrug'i bilan harakat qilar, soliq to'lashdan bosh tortgan dehqonlarni jazolar va talardi. Zindonga tashlangan va badarg'a qilinganlarning son-sanog'i yo'q edi. Xalifa To'g'rul va Otabek Muhammad nomiga o'qilayotgan xutbalarga qarshi chiqqan qo'zg'olonchilarni qirib tashlashga buyurilgandi. Lekin Ganja shahridagi itoatsizlikni bostirish mumkin emasdi, chunki mahalliy hukumat tomonidan aldanganini bilib qolgan Ganja ziyolilari bilan xalq rahbarlari kamoli g'azabdan itoatsizlik qila boshlagan edilar.

"Bir vaqtlar badarg'a qilindi" deb ovoza qilingan Ganja xatibi ham Makkadan qaytib kelgandi. Xalqning g'azabidan qo'rqib Shirvon shohlari soyasida panoh topgan muridlar esa, Ganjaga to'planishar ekan, qo'llariga tayoqlar ushlab ko'chalarda izg'ishar va duch kelgan kishilarni kaltaklab tahqirlashar edi. Olimlar, shoirlar, san'atkorlar xaloyiq to'planadigan joylarga va istirohatgohlarga borishdan mahrum edilar. Ruhoniylar Mahsatiy xonimni Ganjadan quvg'in qilinishini talab etib Amir Inonjga yana murojaat qila boshladilar. Lekin Amir Inonj Ozarbayjon hukmroni Qizil Arslonning she'r va adabiyotni qadrlashini, Mahsatiy va Nizomiyga nisbatan yaxshi munosabatda ekanini eshitib xatibga masalani tushuntirdi, muridlarning esa aholiga nisbatan olib borayotgan tajovuzkorona harakatlardan tiyib qo'yishni uqtirdi. Xatibning Ganjaga qaytib kelishi xalqning hukumatga qarshi nafrat olovini yanada alangalantirib yuborgan edi. Amir Ganjada yangidan qo'zg'olon ko'tarilishiga imkon bermaslik va o'ziga bay'at ettirmoq uchun Ganja xalqiga rahbarlik qilganlarni masjidga chaqirtirgandi. Bu bilan u xalqni qo'rqitish va yangi hukumatga itoat ettirish to'g'risida nasihatlar, o'gitlar qilishni ko'zda tutgan edi. Masjidga Faxriddin ham taklif qilingan edi. Dilshodning unga yuborgan maktubi Amirga qarshi bo'lgan uning salbiy shubhalarini susaytirgandi. U maktubni Dilshod yozganiga ishonardi. Maktub Dilshodning o'z qo'li bilan yozilgan edi. Faxriddin Amir chaqirtirgan kengashiga ishtirok etsa, Amirga qarshi so'zlamasligi kerak bo'lardi. Uning so'zga chiqishi har holda Dilshodning vaziyatini qiyinlashtirishi mumkin edi, balki Amir ularning nikohlariga bergan rizoligidan qaytib qolishi ham mumkin edi. Faxriddin shular haqida bosh qotirardi.

Uning Dilshodga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari naqadar taqozo etmasin va Amir Inonjning bu muhabbat tuyg'ulariga nisbatan ko'rsatgan xayrixohligi qanchalik qimmatga molik bo'lmasin, baribir Amir Inonjning va uning otabegi Muhammadning Ozarbayjondagi xatti-harakatlari bilan kelisha olmasdi. U xalq ozodligi arab nayzalari, fors va iroq qilichlari ostida mahv etilishiga befarq qaray olmas edi. U mana shu bir-biriga zid vaziyatlar qarshisida ojizlashgan edi. Qahramon bo'lishiga qaramay, hayotining bor imkoniyatlarini qo'ldan bergan nochor kishilardek nima qilishini bilmay boshi qotgan edi. Amirga qarshi harakat boshlashga jazm qilgan paytlarda, uning ko'z oldiga Dilshod kelib: "Faxriddin, o'zingni bos, Amir so'zidan qaytgudek bo'l-sa, men halok bo'laman" deyayotganday. Biroq xayolida Dilshodning sochlarini silar ekan: "Dilshod, menga ishon, sening muhabbating menga har narsadan afzal" derkan, gado holiga tushib qolgan minglarcha xonadonlarning xotin, bola-chaqalari Faxriddinning ko'z oldida gavdalanar va xalqning yelkasiga urilayotgan qamchi ovozlari Dilshodning iltijo qilib yolvorgan tovushini bosib ketardi.

Nizomiy masjidga Faxriddin bilan birga chiqish maqsadida uning yoniga bordi. U Faxriddinni tashvishli ko'rib so'radi:

— Avzoying boshqacharoq ko'rinadi.

— To'g'ri, o'ylab o'yimga yetmayapman.

— Nimalarni o'ylayapsan?

— Baxtimiz ochiladiganga o'xshaydi.

— Qanday baxtingiz?

— Dilshod bilan mening baxtimiz.

— Nikoh masalasini aytyapsanmi?

— Ha, o'shani aytyapman. Xo'sh, seningcha, u shunchaki oddiy bir baxtmi?

— Basharti ro'yobga chiqsa, juda ham zo'r xushbaxtlik.

— Bunga men ham ishonmas edim, lekin endi ishonaman.

— Yangi xabar bormi?

— Bor, juda yaxshi xabar!

— Hushyor bo'l, bu xabar ham Sabo xonim keltirgan xabarlardan bo'lmasin.

— Yo‘q, bu xabar emas, Dilshodning o‘zi yozgan maktubdir. Yashiradigan joyi yo‘q, o‘zing o‘qib ko‘rishing mumkin.

Faxriddin cho‘ntagidan Dilshodning maktubini olib Nizomiyga uzatdi. Nizomiy maktubni juda diqqat bilam o‘qib chiqdi. Maktubni ushlab turib qoshlarini chimirdi-da, biroz fikr qilganidan so‘ng:

— Maktub Dilshod nomidan yozilgan, bunga shubha yo‘q. Lekin bu maktub sababsiz yozilmagan bo‘lsa kerak.

— Sababi shuki, Amir bu bilan meni xabardor qilmoqchi bo‘lgan, ya’ni to‘yga tayyorgarlik ko‘rgin degan.

— Yo‘q, Faxriddin, bu gapga ishonolmayman. Men seni bu qadar soddasan deb o‘ylamagandim. Amir Inonjni taniysanmi? Uning xalifaga yozgan maktubini o‘qimaganmiding? Fursatdan foydalanish uchun senga Dilshodni va’da qilganini tushunmayapsanmi? Nahotki, Amir Inonj tasarrufida hisobsiz qo‘shinlari bilan tazyiqsiz o‘z mavqeyini mustahkamlayotgan kunlarda senga maktub yozib, Dilshodin va’da qilsa? Men buni bir nayrang deb bilaman. Menga ishon, bu maktub katta bir hodisa bilan bog‘liq. Men do‘stimning qilich chopish va nayza urishdagina qahramon bo‘lmay, tadbir va aql-idrokda ham qahramon bo‘lishini istardim! O‘zingni qo‘lga ol, mening o‘ylashimcha, Dilshod Ganjada emas, maktub esa seni chalg‘itish uchun yozilgan.

— Dilshod meni chalg‘itmoqchi bo‘ladimi? Bunga kim ishonadi?!

— Dilshod seni chalg‘itishni istamaydi. Aksincha, uning o‘zini chalg‘itib, ana shu maktubni yozdirishgan.

Faxriddin xayolga cho‘mdi, bu mulohazalarning ta’siri bilan og‘zidan shu so‘zlar chiqdi:

— Boraman-da, ko‘nglimda bor gapni to‘kib solaman.

Nizomiy darhol uning nima haqda o‘ylaganini tushundi va kulib dedi:

— Xalq tinchigan bir vaqtda sening bu so‘zlaring tinchlikni buzadi, xalqni harakatga keltiradi. Sukut qilgan xalq rahbarlari qarshisida dushmanning haqli bo‘lib chiqqanligiga qanoat hosil qilgan xaloyiq rahbarlarini halok qilishi ham mumkin. Urushda qilich, majlisda esa go‘zal va ta’sirli nutqqa molik bo‘lganlar qahramon bo‘la oladilar. Bizga xalqning kelajagi va taqdiri qanchalik g‘arib

va umri qashshoqlikda kechsa-da, badavlat bir shaxsning taqdiridan qimmatliroqdir. Holbuki, shunday majlislarda butun Sharq dunyosida eng yuksak madaniyatga ega bo'lgan Ozarbayjon xalqining taqdiri hal qilinadi. Bizning madaniyatimizni so'nik va orqada qolib ketgan fors va arab madaniyati bilan tarozining bir pallasiga qo'ymoqchi bo'lganlar bilan ochiq gaplashish kerak. Madaniyatda biz oldindamiz. Bizni yana orqaga qaytarib, arab madaniyatini oldinga o'tkazmoqchi bo'lganlar xato qiladilar. Buni ularga tushuntirib qo'yish kerak. Bu gaplarni ochiq gapirish mumkin. Arablar bizga din olib keldilar. Qabul qildik, tariqatlar olib keldilar, qabul qildik. Lekin tillarini, madaniyatlarini qabul qilmaymiz, chunki bizning madaniyatimiz o'z tilimiz asosiga qurilgan. Bu tariqatlarni va ularning tug'dirgan tugalmas xurofotlarini faqat madaniyatimiz vositalari bilan daf qilishimiz mumkin. Dushmanlarimiz bizlarni eronliklar bilan taqqoslamasliklari kerak. Ular bosqinchi Iskandarni payg'ambar deb osmon-u falakka ko'targanlari holda bizlar, aksincha, to'rt yuz yildan beri arablarga qarshi jang qilmoqdamiz va kurashimiz haligacha davom etmoqda. Men aminmanki, oxirida g'olib chiqamiz. Tur o'rningdan, vaqt bo'ldi, masjidga borish kerak. Bu tun Oron o'lkasining ko'zi bizning og'zimizdadir. Tur deyapman, tur!

Nizomiyning nasihati Faxriddinning qonini shu qadar jo'shga keltirib yubordiki, hech qachon bunday jo'shmagan edi. Ular xursand bo'lib masjidga jo'nadilar.

Masjid liq to'la edi. Oron shaharlarining hammasidan vakil kelgan edi. Nizomiy bilan Faxriddin masjidga kirganlarida hamma o'rnidan turdi. Shoir bilan qahramonga nisbatan bo'lgan bu izzat-ikrom hukumatga qarshi ochiqdan ochiq bir namoyish tusini oldi. Ganja qozisi Amir Inonjning buyrug'i bilan minbarga chiqdi. Xalifaning To'g'rul va Otabek Muhammadning nomiga uzun xutba o'qidi. So'ngra xalqni xalifaga, To'g'rulga va Otabek Muhammadga itoat qilishga da'vat etdi. Xutbasida hukmdorning adolatidan, otabek mamlakatlarining obodonligidan gapirganidan keyin qo'zg'olon ustida to'xtalib, dedi:

— Ba'zi qaroqchilar, yo'lto'sarlar va bosqinchilar hukumatga qarshi adovatlari Allohi taolo bandalarining rohatini buzadi. "Yan-

gi qonun chiqaring"lar, deb baqirganlar o'z fikrlarini ochiq-oshkora aytishdan qo'rqadilar. Barcha Oron xalqiga ma'lumdirki, qonunlarimizni "Qur'on"i sharif chiqargan, payg'ambar alayhissalom tatbiq etgan qonunlardir. Lekin avom xalq "yangi qonun" talab qiluvchilar nima demoqchi ekanlarini anglamaydilar. Agar anglasalar, ularning so'zlariga e'tibor bermagan bo'lardilar, ularni o'lgiday do'pposlab rasvoyi raddi ma'raka qilardilar. Mayli, endi nima bo'lsa ham bo'lib o'tdi. Endi xalifaning va Otabek Muhammadning marhamati Oron xalqiga ayondir. Xalifa hammaning gunohini kechirdi va shaharlarda tinchlik barpo etish uchun o'z qo'shinlarini yubordi.

Qozidan keyin Amirning o'zi ham, vaziri To'xtamish ham so'zladi. So'zlagan so'zlari mavzu va mundarija nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qilmas edi.

Rasmiy kishilarning so'zlari tugaganidan so'ng Amir yana Oron namoyandalariga murojaat qilib, sulton To'g'rul bilan Otabek Muhammadga bay'at etish masalasini qo'ydi. Lekin bay'at etish uchun na o'rnidan qo'zg'algan bo'ldi-yu va na so'zlashni istagan.

Faxriddin so'zlamoq uchun ijozat so'raganida Amir kamoli mamnuniyat bilan so'z berdi, chunki Amir Dilshod tomonidan yuborgan maktub Faxriddinni hukumatga qarshi fikrlarini o'zgartirgan bo'lsa kerak, deb o'ylar edi.

Faxriddin o'rnidan turib minbar oldiga kelib so'zlay boshladi:

— Bu yerda qo'yilgan masalalarning hammasiga ayrim-ayrim javob berish shart emas, chunki qator notiqlar aynan bitta masala ustida gapirishdi. Men o'ylaymanki, so'zga chiqqanlarning hammasi ham ilhomni bir manbadan olganga o'xshaydi. Shuning uchun men notiqlarning muammo bo'lgan fikrlarini qisman izohlashga harakat qilaman. Fikrimcha, bu izohotdan so'ng yangi hukumatga bay'at etish masalasi va buni qanday shartlar bilan qabul etish o'z-o'zidan hal qilinadi. Avvalo, shuni aytmoqchimanki, xalifaning farmoni yuborilgan vaqtda bizning bay'atdan bosh tortganimizning sababi bor edi. Chunki g'oyibona bay'at etish to'g'ri bo'lmasdi. Xalifa kimga bay'at etishimiz kerakligini bilishi kerak edi. Hozir esa masala oydinlashdi. Hukmdorning o'zini ko'rmasak ham, bay'at masalasini muzokara qila olamiz. Chunki yangi huku-

mat shu bir necha oy mobaynida o'zini ko'rsatdi. Men Oronning hamma tarafidan kelgan namoyandalarga savol beraman: bizga qanday hukmdor va qanday idora usuli kerak?! — Faxriddinning bu savoliga hech kim javob bermadi. Faxriddin o'z nutqini davom ettirib dedi: — Hech kim javob bermasa, bu savolning javobini o'zim berishim mumkin. Bizga qanday hokimiyat va qanday idora usuli kerak?! Ozarbayjon xalqi o'z tarixini bilmaydigan darajada avom va savodsiz emas. Madaniyatimiz va tariximizning taraqqiyot davriga oid hujjatlar, bosqinchi arablar va jahongir eronliklarning bergan zarbalariga qaramasdan, butunlay yo'qolib ketgani yo'q. Jahongirlar qilich, nayzalari bilan bo'ysundirolmagan bu o'lkalar, xorijiy mamlakatlarni o'z sanoat mahsulotlari bilan to'ydirgan va dunyoning har tarafidan savdogarlarni jalb eta olgan madaniy davlat edi. Ozarbayjon shaharlari bir vaqtlarda dunyo savdo-sotiqlarining bitmas-tuganmas bir ombori vazifasini o'taganlar. Bojeravon, Kashtosibiy, Mahmudobod, Barzand kabi katta bozorlar jahongirlarning ot tuyoqlari ostida toptalib yer bilan yakson bo'ldi. G'arb o'lkalarida Qora dengiz orqali Qorabog', Ganja va Shamohiyga kelguvchi savdogarlarning o'rniga janubdan qilich ko'targan arablar, forslar kela boshladilar. Biz ozarbayjonliklar o'z uyimizda rohatda yashash o'rniga to'rt asrdan beri arablar, forslar, saljuqiylar va boshqalar bilan hayot-mamot jangini olib bormoqdamiz. Hozir bizga shunday bir hukumat kerakki, Ozarbayjon xalqining orzularini ro'yobga chiqarsin va xalqni o'z vatanida osoyishta yashashi uchun imkoniyatlar yaratsin. Hozirgi hukumat ish boshiga o'tgan kunlardan buyon xalqning orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun hech qanday tashabbus ko'rsata olmadi. Aksincha, qishloq-shaharlarga yana jazo dastalari yuborganini ko'rdik, yana o'sha qamchilar va o'sha kaltaklar tovushini eshitdik. Hozir qozi janoblari Ozarbayjon qo'zg'olonchilarini qaroqchilar, bosqinchilar, yo'lto'sarlar deb atadi. U yo'lto'sarlar va qaroqchilarga qarshi jang qilgan qo'zg'olonchilar deyish o'rniga yo'lto'sar, qaroqchi qo'zg'olonchilar dedi. Men o'ylaymanki, yangi hukumat Ozarbayjon xalqining qanday maqsadda kurash olib borayotganini va xalqqa maqbul bo'lmagan hokimlarni Ozarbayjondan qaytarganidan so'ng bay'at masalasini Ozarbayjon xalqi oldiga qo'ya oladi. Biz katta

bir madaniyatni saqlamoq, Ozarbayjonni qaytadan ozod qilmoq, san'at, adabiyotni bo'g'ishga yo'l qo'ymaslik uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilishimiz kerak. Men o'ylaymanki, xalqning istaklarini markaziy hukumatga to'g'rilikcha yetkazsalar yana qilichlarimizni yalang'ochlashga hojat qolmas edi.

Faxriddin so'zini tugatganidan so'ng Nizomiy Amir Inonjga murojaat qilib so'z so'radi. Amir Inonj uning nimalar deyishini yaxshi bilardi, u hukumatni yoqlab biror kalima ham gapirmasligini tushunardi. Lekin so'z bermaslikka jasorat qilolmadi, chunki busiz ham Faxriddinning so'zga chiqishi xalqni hukumatga qarshi qilib qo'ygan edi. Shuning uchun ham Amir istar-istamas Nizomiyga so'z berdi. Nizomiy so'zini shu misralar bilan boshladi:

Gar malik in ast dar in ro'zg'or,
Man ba tu vayrona diham sad hazor[1].

Olamni sel bosgan. Oqil kishilar sel kelgan mahalda uyidan chiqmaydi. Men shu xildagi hodisalarni ko'rganimda eshigimni qattiq yopib, biror yoqqa chiqishni istachayman. Lekin men buni qilolmayman, chunki mening inigim hamma uchun ochiq bo'lishi kerak. Biroq bo'ron juda ham qattiqdir[2]. Hukumat yoki podshoh xonadoni o'zgarishi bilan aholi ma'lum bir holatdagina kelisha oladi. U sharoit idora usulining almashinishidan iborat. Qamchini birining qo'lidan olib, boshqasining qo'liga topshirish bilan xalq turmushiga yangilik kiritib bo'lmaydi. Basharti o'zlarini hukmdor hisoblaganlar bizga yuksak bir madaniyat baxsh eta olmasalar, hech bo'lmasa, o'z madaniyatimizga daxl qilmasliklari kerak. Men juda hayronman, bugun yana xalqni bay'at ettirish masalasi maydonga tashlandi. Biz kimga qo'l cho'zishimiz kerak?! Qaysi qo'lni o'pib, bay'at etishimiz kerak?! Biz hech qachon qardoshlarimiz qoniga bo'yalmoqchi emasmiz, chunki bay'at uchun o'piladigan qo'llar Ozarbayjon xalqining qoniga bo'yalgandir. U qo'llardagi qon arimaydi, chunki u qo'llar har kuni qon to'kadi. Bu qon to'kishlarni to'xtatish va bu kungi xiyonatlarni unutish uchun birinchi galda

---

[1] Agar zamona podshohi shu kishi bo'lsa, men senga yuz minglarcha xaroba bera olaman.

[2] "Iskandarnoma" dostonidan.

xiyonatning boshida turganlarni jazolash lozim. Xalqning ruhi, nufuzi, madaniyati va yuksalishiga uyg'un bir usuli idora yaratmay turib, xalqning e'tiborini qozonib bo'lmaydi.

Nizomiy uzoq so'zlagach o'tirdi. Amir Faxriddin bilan Nizomiyga javob bermoqchi bo'ldi-yu, lekin qulay fursat topolmadi, chunki bay'at etishni xohlamaganlarning ko'p qismi masjidni tashlab, Malikshoh maydoniga chiqib ketar edilar.

SHARAFLI OILA

Mahsatiy xonim bemor edi. Necha kundan beri dasturxonga kela olmasdi. Nonushta payti edi, Ra'no dasturxon yozib, Nizomiyni choyga chaqirdi. Nizomiy ehtiyot bilan qalam-qog'ozlarini yig'ishtirib oldidagi tokchaga qo'ydi-da, zinapoyadan ko'tarilib dasturxon boshiga keldi. Dasturxon juda faqirona, unda sut bilan arpa nondan boshqa hech narsa yo'q edi. Nizomiy o'tirib ovqatlana boshlaganida, Ra'no unga savol berdi:

— Men ko'pdan beri sendan bir narsani so'ramoqchi bo'lib yurardim-u, lekin botinolmasdim. Bilmadim, sen bu savolga javob berishni xohlarmikinsan?

— Nega botinolmasding? Mening sendan bo'lak birorta sirdoshim bormi? So'zla, uyalma, bilmagan narsalaringning hammasini so'rayver.

Ra'no Nizomiyning so'zidan dadillanib gap boshladi:

— Men hamma yerda Nizomiy Ganja shoirlarining hammasidan zabardast san'atkor deb eshitdim-u, lekin nima uchundir sen ularning hammasidan kambag'al va faqirona kun kechirasan. Abulullonning davlatiga, shon-shavkatiga qara, eshigidagi qullar, cho'rilar va xizmatkorlarning son-sanog'i yo'q. Uning xotini Jahonbonu, qizi Mohtob xonim ko'chaga chiqqanlarida xalq Amirning xotini Sofiya xotun kelyapti, deb o'ylaydi. Shoir Falakiy to'g'risida gapirmasam ham bo'ladi. Uning ham davlatining hisobi yo'q. Ularning otxonalariga mamlakatning eng zotli otlari bog'langan. Xaqoyiq taxallusli shoirni shu qadar ko'kka ko'tarib maqtadilarki, natijada Shirvon xoqoni unga o'z nomini beribdi. Hozir xalq hamma yerda Xoqoniyning izzat-hurmati hamda davlati haqida gapira-

di. O'sha shoirlarning hammasi mol-u yilqilarga ega bo'lgani holda sening bir oriq sigirdan ortiqqa qurbing yetmaydi. Ular qo'rg'onlar, bog'-rog'larga va muhtasham qasrlarga egalar. Bizning esa somon suvoq bir kulbamiz bor, xolos. Men ana shularning sababini bilishni istardim. Lekin sendan o'tinib so'rayman, mening bu savolarimdan boshqacha ma'no axtarma, Ra'no faqirona turmushdan shikoyat qilyapti deb o'ylama! Men bu xonadonga kelmasimdan burun ham bu uyni va uning sohibini yaxshi bilardim. Aytgan narsalarimdan hech birining menga keragi yo'q. Otamning uyida ham shunday turmush kechirar edim.

Nizomiy hali ovqatlanishga boshlamagandi, u Ra'noning so'zlarini diqqat bilan eshitardi, chunki Ra'no bu uyga kelganidan buyon u bilan bunday jiddiy so'zlasholmagan edi. U Ra'noning ko'zi ustiga tushib turgan sochlarini barmoqlari bilan ko'tarib dedi:

— Mening jonim va sevinchim Ra'no, bergan savollaringning javobi oppa-oson. Shohlar, hukmdorlar hadyalarni kimlarga berishini juda ko'p o'ylaydilar. Sen hukmdor oldida bosh egib turmasang, to'n kiygizmaydilar. Endi menga javob ber-chi, Ra'no, har bir qotil, olchoq hukmdorlar qarshisida bosh egishimga rizolik bera olasanmi?

Ra'no yig'lab yubordi, ko'z yoshlari oldida turgan qoq arpa nonni ivita boshladi, u hazin bir tovushda dedi:

— Tangriga ont ichamanki, men bosh egishingga rozi emasman. Sening egilishni bilmaydigan mag'rur boshing yagona sajdagohimdir.

Nizomiy uning ko'z yoshlarini artib, peshonasidan o'pdi va so'zida davom etdi:

— U to'nlarning ranglari juda ko'p kishilarni aldaydi, lekin u to'nlarning kaklik ovlagan ovchilarning dolvoylaridan[1] farqsizdir. Shohlar, xoqonlar mansab va shuhrat kasaliga mubtalo bo'lganlarni ana shu tunlar vositasi bilan ovlaydilar. Bunday to'nlar vijdon va or-nomusni dafn etmak uchun kafan vazifasini o'taydi. Shoirlar qo'llaridagi davlatlar, bog'-u rog'lar, qul-u cho'rilar pul

[1] **Dolvoy** — rango-rang qiyqimlardan quroq qilib tikilgan parda. Ovchilar kaklik oviga chiqqanlarida uni yog'ochga osib, o'zlari orqasida o'tiradilar. Kakliklar uning tevaragiga to'plangach, ov qilishga boshlaydilar.

vositasi bilan keltirilgan. Amirlar, shohlar, hatto, xalifalarning o'zlari ham mazkur narsalarni sharaf, izzati nafs, vijdon va nomus evaziga beradilar. Layoqatsiz ochko'z hukmdorlarni madh etgan shoirlar saroylarning naqshinkor ustunlari ostida qo'l cho'zib turuvchi gadolardir. Ular o'z madhiyalari bilan avom xalq shuurini aldab xoqon-u xalifalar changaliga topshiradilar Ular yozgan madhiyalar Ozarbayjon qishloqlarini g'orat qiladigan qurollar qatorida ishlatiladi. Talon-tarojlarda, xiyonat va jinoyatlarda ham ularning qalamlari ishtirok etadi. Mening sevimli go'zal Ra'nom, hozirgi asrimiz shunday asrki, faqat hukmdorlar qarshisida ikki bukilib ta'zim qiladigan xushomadgo'ylargina qul-u cho'ri va bog'-rog'larga ega bo'la odadilar. Lekin sharafli va oqil boshlar xalq xoinlari va xalq dushmanlari qarshisida egilmaydi. U boshlar faqat xalqning orzu-umidlari hamda mamlakat aholisi irodasi qarshisida egila oladi. Men bu boshni o'sha kunga saqlaganman. Haqoyiq taxallusli Afzaliddin xoqondan Xoqoniy degan taxallusni olganiga quvonmasligi kerak. Bundan so'ng u Haqoniy taxallusi bilan asar yozib yurgan vaqtlariga qaytishni istasa-da, uddasidan chiqolmaydi, chunki saroydan xalq ichiga yorug' yuz bilan qaytish juda mushkul. Saroyning bir eshigi zindonga ochiladi. Go'zal Ra'nom, qara, Abulullo va Xoqoniy bir birlarini naqadar razilona hajv qiladilar. Xoqoniyning qaynotasi Abulullo o'zining yosh kuyovini haqoratli so'zlar bilan so'kadi, chunki Xoqoniy yaqinda saroyga kirgan, Abulullo esa saroydan haydalgandir. Go'zal Ra'no, kel, shu arpa noni bilan bir kosa sutga qanoat qilaylik-da, shu qadar chirkin, jirkanch botqoqqa botmaylik. San'atim xoqonlar-u sultonlar xizmatida xarob bo'lishiga rizolik berma.

Nizomiyning so'nggi so'zlarini eshitar ekan, Ra'no ho'ngrab yig'lab:

— Menga ishon, Ilyos! Men hech qachon sening tubanlashishingga rozi bo'lmayman, — der ekan, Mahsatiy xonim ham o'z xonasidan chiqib dasturxonga keldi. U Ra'noning ko'z yoshlarini ko'rib hayron bo'ldi va Nizomiydan:

— O'zi nima gap, Ilyos? — deb so'radi.— Sen shunchalik oz fursatda Ra'noni yig'latadigan harakatda bo'lasan deb sira o'ylamagan edim.

Mahsatiy xonim kelishi bilanoq Nizomiy bilan Ra'no o'rinlaridan turgan edilar. Mahsatiy xonim Ra'noning boshini bag'riga bosib:

— Zarari yo'q, oilaviy hayotda har turli shubha-gumonlar hamda gap-so'zlar bo'lishi mumkin, har ikkingizning ham arzingizni tinglayman, bordi-yu biror janjalli masala bo'lsa, hal qilaman, — dedi.

— Bir zamonlar men ham juda ko'p yig'laganman. Ba'zan sababsiz, ba'zan shubhalar natijasida yig'lagan vaqtlarim bo'lgan. Bir kuni yozgan ikki ruboiyim shu qadar ham yaxshi chiqdiki, o'shanga ham sevinib yig'laganman. Yosh erim Amir Ahmad uyga kirib yig'layotganimni ko'rarkan, o'zini tutolmay u ham ho'ngir-ho'ngir yig'ladi. Lekin hozir hayronmanki, Ra'nodek yosh juvon yig'lagani holda, Ilyos kabi bir shoir nega yig'lamaydi?! — Mahsatiy xonim Ra'no bilan Nizomiyning peshonasidan o'pib: — O'tiringlar, ba'zan g'am-g'ussalarni yuvmoq uchun ko'z yoshlari ham kerak bo'ladi, — dedi.

Ra'no bu gapga javoban:

— Men bundan buyon shu taxlitdagi savollarni bermaslikka ont ichaman, — der ekan, Nizomiy Ra'noning yig'lash sabablarini Mahsatiy xonimga boshdan-oyoq gapirib berdi, keyin ilova qildi:

— Ra'noning shu xildagi savollariga mening o'zim qiziqaman, chunki u shunday vositalar bilan mening kambag'alligimning sabablarini bila oladi.

Mahsatiy xonim Nizomiyga nasihat qilib dedi:

— Sen kambag'al emassan, chunki vijdon jihatidan kambag'al bo'lishdan ko'ra, maishiy jihatdan kambag'al bo'lish yaxshiroqdir.

Faxriddin kirib keldi. Salomdan so'ng Mahsatiy xonimning qo'lini o'pib o'tirdi. Ra'no o'rnidan turib unga ham ovqat keltirdi. Lekin Faxriddin ovqatga qayrilib ham qaramadi. Ra'no uning bu ishidan ranjib:

— Nega yemaysiz, sababi ma'lum, dasturxonimiz faqirona bo'lgani uchun, — der ekan, Faxriddin:

— Ra'no xonim, vijdonimga qasamki, yemayotganim sababi dasturxoningiz faqironaligidan emas, balki bir dasturxon atrofida ikki buyuk olim o'tirganidandir. Faxriddin kim bo'libdi-

ki, bu dasturxonni kamsitsin. Xudo haqqi, kecha ertalabdan beri tomog'imdan bir qultum suv ham o'tmay qoldi.

— Safardamiding? — deb so'radi Nizomiy.

— Yo'q, safarga chiqqanim yo'q, safarga chiqqan kishim haqida o'yladim. Baxt sira menga kulib boqmadi. Iqbolim meni aldagani aldagan va nihoyat hushyor tortganimda, yana bir umidsizlikka duch keldim.

Mahsatiy xonim uning nima demoqchi bo'lganini darhol payqab:

— Dilshod haqida biror narsa eshitdingmi? — deb so'radi.

Faxriddin g'amgin bir vaziyatda:

— Ha, Dilshodning daragini topdim, lekin u ortiq yo'q. Faqat tilimda nomi qoldi, xolos. Bilmayman, uni unuta olarmikinman? Bu men uchun aslo unutilmas qayg'u bo'ldi.

Nizomiy unga boqib taajjub bilan so'radi:

— Ajabo, uni bu yerdan olib ketishlarini bilmasmiding? Bu haqda senga Husomiddin gapirmabmidi? Dilshodning nomidan maktub kelganida, uning zamirida bir jinoyat yashirinib yotganini takror-takror aytmabmi edim?

— Qayerga olib ketishganini bilmayman.

— Bag'doddan boshqa qayerga olib borishardi. Xalifaga jo'natilgan maktub o'z qo'lingda emasmi?

— Shubhasiz, qiz bu yerda emas. Bu yerda bo'lganida uning qimmatbaho marjoni ko'r gadoylar qo'liga tushmasdi.

— Qanaqa marjon?

Faxriddin shu so'zlarni aytarkan, cho'ntagidan bir shoda marjon chiqarib Nizomiyning oldiga qo'ydi-da:

— Mana, nomim ham yozilgan. Bundan bir necha kun muqaddam Mas'udiya karvon saroyining oldidan taxtiravonlar o'tib borayotganda, ulardan mana shu marjonni dastro'molchaga tugib ko'r gadoylarning ustiga tashlaganlar. Gadoylar marjonni bo'lib olishmoqchi bo'lganida o'rtalarida janjal chiqibdi. Nihoyat, sotish uchun Quvomiddin zargarning oldiga olib borganlarida, u marjonni tanib qoladi, chunki men buni uning o'ziga buyurtirgandim.

Ra'no bilan Mahsatiy xonim bu xabardan xafa bo'ldilar. Nizomiy esa tasalli berdi:

— Avvalo, inson xato qilmaslikka urinishi kerak. Lekin xatoga yo'l qo'yganidan keyin, o'zini yo'qotmasligi lozim, chunki sarosimaga tushish ikkinchi xatoga sabab bo'la oladi. Sen doim yor-u do'st, qavm-qarindoshlar maslahatiga quloq solmaysan. Shunday nuqsonlar sababli ko'pincha mag'lubiyatga uchrab yurasan. Odamlar yolg'iz hech qachon g'olib chiqolmaganlar. Dunyoda o'zini hoqimi mutlaq hisoblagan podshohlar ham yolg'iz o'zlari ish olib borolmaganlar, ular o'z vazirlarining maslahatiga quloq osganlar. Senga yuz martabalab aytdimki, u qizning ishtiroki bilan qo'rqinchli tashabbuslarni boshlama. Qilgan ishlaring faqat ana shunday natijalar bera oladi. Uni sevmas ekansan, uni o'zingning soxta sevging bilan aldab Amir Inonjga qarshi olib borgan kurashingda qurol qilishni istagan ekansan, endi xafa bo'lishingga hech qanaqa ehtiyoj yo'q, lekin sen uni sevganing holda bu xatarli ishlarga tortganing uchun o'kinishing kerak. Chunki sen uni kaltaklanishiga, zindonda yotishiga, har xil jazolarga duchor bo'lishiga, nihoyat, bu yerdan uni zudlik bilan olib ketilishiga sabab bo'lding. Bu harakatingdan qanday manfaat ko'rding? Muhokim ibn Dovudning kaltaklanishidan boshqa nimaga erisha olding? Sen bu bilan hech qanday gunohi bo'lmagan bir qalbni tahqir etding. Deylik, Amirning xotini bo'lsin, u bizga nima yomonlik qilgan edi. Bularning hammasi o'tib ketdi. Bu masalalar yuzasidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish mumkin emas. Endi kelajak haqida o'ylash kerak.

Bu o'gitlarga javoban Faxriddin:

— To'g'ri, Ilyos, mening xatolarim juda ham katta. Endi nima qilishim kerak? Dilshodni qutqarish uchun qanday tadbir ko'rish kerak? Bag'dodga boraymi? Borganimda nima qilaman? U yer Ganja emaski, minglarcha tanishlarim bo'lsa, — derkan, Nizomiy:

— Sabr qilish kerak. Olamning ishi xilma-xil hodisalarni vujudga keltirishdir, — dedi. — Ko'rib turibsanki, vaziyat tez-tez o'zgarmoqda. Xususan, bizning vatanimiz hech qachon hodisalarsiz yashamagan, bundan keyin ham hodisalarsiz yasholmaydi, chunki qismatimiz shunday. Hech qayerga borishingga maslahat bermayman. Menga quloq sol! O'zingni bos! Bu hodisa seni yanada sabot-matonatliroq qilmog'i kerak. Hodisalar olovidan kechib

o'tgan kishilargina har ishda g'olib bo'lib yashay oladi. Sen bu hodisalar natijasida o'zing uchun muayyan yashash yo'llarini topib ola bilasan. Dilshodni bu yerdan olib ketilishi, u mangu yo'qoldi degan gap emas. U bu yerdaligida ham sening qo'lingda emas edi, hozir ham. Hech narsa o'zgargani yo'q. Ba'zi-ba'zida ko'rishib turishga imkon berishlari muayyan bir siyosiy tadbir edi. Endi siyosiy vaziyat tamomila Amir foydasiga hal bo'ldi. Endi uning qizi yoki kanizaklaridan foydalanishiga ehtiyoji qolmadi. Biroq bu doimiy emas, biz uni yana tiz cho'ktiramiz. Lekin senga takror aytaman, Amir Inonjga nisbatan munosabatingni o'zgartirmasliging kerak. Bizning mayda-chuyda tadbirlarimiz, uning bizga qarshi kattaroq tadbirlar ko'rishiga sabab bo'ladi. Uni hushyor qilib qo'yadi. Dilshodni qutqarish to'g'risida chuqurroq o'ylash, foydasi tegadigan tadbirlar ko'rish kerak. Endi kel, Ra'noni ranjitma, marhamat, biz bilan nonushta qil.

Faxriddin dasturxonga qo'l uzatarkan:

— Qanday sharafli oila bu, — dedi.

YAGONA OZARBAYJON

Qizil Arslon Shimoliy Ozarbayjonning ba'zi joylarini aylanib chiqqanidan so'ng mamlakatning vaziyati haqida Otabek Muhammadga uzun bir maktub jo'natgan edi, Maktubda bundan deyilgandi: "Ko'tarilayotgan qo'zg'olonlarning asosiy sabablari usuli idoraning eskirgani va qonunlarning qo'polligidandir. Mamlakat xalqi ikkiga ajralgan. Zaiflar, ezilganlar musofir yurtida, bilagida kuchi, yuragida o'ti borlar isyonchilar tarafidalar. Saljuqiylar Ozarbayjonda o'z hokimiyatlarini o'rnatganlariga yuz yil bo'lgan bo'lsa, shu muddat ichida islom paydo bo'lganidan beri arablarning tuzgan usuli idoralaridan foydalanib kelganlar. Hozirgi vaziyatda hunarmandlarni shaharga, qishloq xalqini esa dehqonchilik ishlariga tortishning iloji yo'q. Saljuqiylar davrida ham, hozirgi hukumat ish boshiga kelgan dastlabki davrda ham yerli hokimlarga xalqning ishonchi butkul yo'qolgan. Hokimlar yer egalariga o'z ixtiyori bilan harakat qilish huquqini berganlar Ular xalifa Us-

mon zamonasidan qullanib kelgan ushur[1] qonuni bilan kifoyalanib qolmay, qishloq xalqidan xohlaganlaricha soliq talab qiladilar. Shuning uchun ham dehqonlar ekin ekishdan manfaat ko'rmaydilar. Ularning bir qismi shaharlarga qochdi, bir qismi esa isyonchilarga qo'shildi.

Mamlakatda muayyan yer-suv qonuni bo'lmagani sababli har bir zamindorning o'ziga xos yer-suv qonuni mavjud.

Shahar hunarmandlaridan olinadigan soliqlarning son-u sanog'i yo'q, Chunki hunarmandlardan olingan soliqlar hukumat xazinasiga aloqasi bo'lmagan soliqlar qatoriga kiritilgan. Soliqlarning miqdorini yerli hokimlarning o'zlari belgilaydilar. Shuning yuzasidan hunarmandlardan olinadigan soliqlarning miqdori yerli hokimlarning yillik daromadiga mo'ljallangan.

Isrofgar, maishatparast hokimlar hunarmandlardan olinadigan soliqlarni yilda bir marta emas, bir necha martaba undiradilar. Ba'zan yerli hokimlarning maishiy xarajatlarini ta'minlashga butun boshli shaharning sanoat solig'i ham kifoya qilmaydi,

Shu xilda shilib olishlar natijasida shahar sanoati barbod bo'ladi, hunarmandlar do'kon-dastgohlarini yig'ishtirishga majbur bo'ladilar.

Men Janubiy Ozarbayjonning tog'liq erlarini aylangan vaqtimda aholidan bir qancha arizalar oldim. Ulardan ahamiyatga ega bo'lganlarini ajratib, Otabek hazratlariga yubordim. Ayni zamonda juda achinarli, davlat tuzumi nuqtayi nazaridan, juda ham qo'rqinchli masalalarga duch keldim. Bu masalalar: aholini markaziy hukumat bilan aloqa bog'laydigan bo'lmasligi va hukumat suyana oladigan vositalarning yo'qligidir.

Fuqaro yerli hokimdan boshqa biror hukumatni tanimaydi, chunki idora etilayotgan o'lkaning butun ixtiyori o'shalarning qo'lida, ostirish, kestirish, badarg'a qilish va boshqa huquqlarning hammasi o'shalarga berib qo'yilgan. Soliq ishlarini ko'zdan kechirganimda, soliq ishlari saljuqiylar davrida bundan ko'ra durustroq yo'lga qo'yilgan edi, degan fikrga keldim, chunki u davrda fuqaro birdaniga uch xazinaga soliq to'lash majburiyatidan xalos edi.

[1] Ushur, ya'ni o'ndan bir. Dehqon o'n pud hosil olsa, shunday bir pud soliq to'lashi kerak edi.

Sulton Sanjar o'lganidan beri Ozarbayjon yuz marta qo'ldan qo'lga o'tdi. Fuqaro butkul soliq to'lash quvvatini yo'qotgan. Binobarin, Otabek hazratlari mening bu samimiy maktubimni e'tiborga olib, Ozarbayjonni bir necha yil soliqlardan darxon (ozod) qilinishiga farmon berarlar, degan umiddaman.

Soliqlar darxon qilinganidan so'ng markaziy hukumat ham ma'lum muddat ichida soliq ishlarini bir vositalarning tartibga solish va uni markazlashtirish uchun tayyorgarlik ko'rishi kerak. O'rni kelganida shuni ham aytib qo'yayki, Otabek hazratlarining buyrug'i bilan qo'lga kiritilgan ma'lumotni ham yubormoqdaman.

Biz insonparvarlik nuqtayi nazaridan bu xalqni tashkiliy yo'sinda jalb qila olsak, bunday kuchni har qanday zo'r dushmanga qarshi qo'ya olamiz. Ozarbayjonning mavqeyi va xalqning jangovarligi Otabek hukumatining mustahkamlanishi uchun asosiy vositalardan biri bo'la oladi. Binobarin, men mustaqil Ozarbayjon hukumatini tuzish haqidagi taklifni maydonga tashlashga o'zimni haqli deb bilaman. Mamlakatni o'z xalqining qo'liga topshirishi lozim. Bu yerda davlatni idora qila oladigan kishilar oz emas. Lekin qaysi bir viloyatning hukumat boshliqlarini so'rasangiz, "Abu falonchi, Abu pismadonchi" deb javob beradilar. Yerli xalqlar ularga bir hokimdek emas, balki bir talovchi sifatida qaraydilar.

Ozarbayjon xalqining madaniy saviyasi arab va forslarga nisbatan ancha yuqori. Ularni arab, fors hokimlariga itoat qilishga majbur etish, arablar davridan qolgan tor doiradagi ibtidoiy qonunlarni saqlab qolish demakdir. Ozarbayjon xalqining tarixi ajnabiylar hokimiyatiga qarshi isyonlar asosiga qurilgan. Shularni nazarga olganda, biz Ozarbayjon xalqiga ularning o'z hukumatidek, hatto, tug'ma bo'lib ko'ringan bir hukumat tuzish va otabeklarning o'lkalari uchun yangi qonunlar chiqariladigan vaqtda Ozarbayjonning xususiyatlarini e'tiborga olinishi kerak. Eron va Iroq uchun tuzilgan qonunlarni Ozarbayjon hayotiga tatbiq etish mumkin emas. Chunki bir xalq uchun qonun chiqarganda o'sha xalqning mavqeyini, tarixini, aholisining ahvoli ruhiyasini e'tiborga olish zarur.

Asosiy nuqsonlardan biri saljuqiylar davridar: qolgan hokimlarni hali ham ish boshida qolib kelishidir. Eski amaldorlarning

hokimiyat tepasida qolishi yangi ishlarni hayotga tatbiq qilishda mushkullik tug'diradi. Soliq qonunlari o'zgartirilgan vaqtida daromadning markazlashtirilishi va shu bilan birga mansabga tayinlanadigan kishilarga davlat xazinasidan maosh to'lashni nazarda tutish kerak. Shunday bo'lgan taqdirdagina, mahalliy hokimlar davlat xazinasiga soliq to'plash bahonasi bilan fuqaroni shilish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Faqat shu yo'l bilan mamlakatda yagona soliq usulini amalga oshirish mumkin. Men bir necha oydan buyon mahalliy hokimlar tarafidan qishloq va joylarda g'ayriqonuniy ravishda soliq solib yig'ilgan mablag'lar bilan tanishmoqdaman. Bu mablag'larning miqdori hokimlar davlat xazinasiga yuborgan soliq pullari miqdoridan to'qqiz baravar ortiqdir. Demak, hokimlar xalqdan undirgan soliqlarning o'n foizini hukumatga, to'qson foizini esa o'z cho'ntaklariga solganlar.

Ozarbayjon saljuqiylar davrida boshqa barcha mamlakatlarga qaraganda ko'proq soliq to'lashga qurbi yetadigan o'lka edi. Holbuki, bugun hukumat xazinasiga tushgan bu soliqlar fuqarodan olingan soliqlarning o'ndan biriga to'g'ri keladi. Jarimalar, poralar bunga kirmaydi, chunki bular hokimlarning xususiy ishlari bo'lganligi uchun ularni hisobga olishimiz mumkin emas. Pora va talonchilikning bu qadar kengayib ketishiga sabab umumiy jazo qonunlari va hukumat mahkamalarining bo'lmaganligidir. Mahalliy hokimlar jarimalarni ma'lum miqdorda undirish uchun biror joydan buyruq olmaydi, jarima undirish va jazo chorasini hokimning o'zi belgilaydi. Shariat mahkamalari hokimlarning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan. Hokimlarning daromad manbalaridan biri arablar zamonidan qolgan xun to'lash masalasidir, ya'ni odam o'ldirganlar jazoga tortilmaydi, negaki, qotillar xun puli to'lab jazodan qutuladilar. Buni ham hokimlar va mahalliy ruhoniylar ma'qullaydilar, chunki qotildan olib, o'ldirilgan kishi oilasiga beriladigan xun pulidan hokimlar va shariat peshvolari ham muayyan daromad oladilar. Odam o'ldirishning oldini olmoq uchun qotillarni jazolash bilan birga, xun puli to'lashni qonundan tashqari deb hisoblash kerak. Aksariyat o'lganlarning vorislariga to'lanishi uchun qotildan undirilgan xun pullari mahalliy hokimlar va u bilan og'iz-burun o'pishgan ruhoniylarning cho'ntagiga tushadi. Ruhoniylarning

hukumat ishlariga aralashuvi hukumat ishlarining izdan chiqib ketishining asosiy sabablaridandir. Arablar davridan to shu kunga qadar islom o'lkalarida hukumat ma'murlari bilan ruhoniylarning vazifalari bir-biridan ajratilmagan. Bu tartib islom o'lkalarida yuqumli bir kasal singari tobora keng tarqalib bormoqda. Hozircha ruhoniylar hukumat ishlarini tamomila qo'lga olganlaricha yo'q, lekin bu kasallikning oldini olish lozim. Men, albatta, ruhoniylarni butkul hukumatdan ajratilishini taklif qilmayman. Chunki "Qur'on"ni asosiy qonun deb qabul qilgan mamlakatlarda ruhoniylarni hukumatning idora ishlaridan chetlatish mumkin emas. Biroq hukumat mahkamalariga ruhoniylardan vakil yuborish o'rniga ruhoniylardan tashkil topgan mahkamalarga hukumatdan vakil chaqiradilar. Otabek hazratlarining ruxsatlari bo'lsa edi, ruhoniylarning vazifalarini belgilashga kirishar edim.

Oldimizda turgan mushkul masalalardan biri tariqatlarga qarshi olib boriladigan kurash masalasidir. Ozarbayjonni yangidan qurish, xalqning shuurini yangidan maorif, ma'rifatga jalb etish uchun avvalo tariqatlarni ildizi bilan qo'porib tashlash lozim. Shuni ta'kidlashim kerakki, butun tariqat va taqvolarning uyasi Shirvon shohligida. Ozarbayjonga tariqat haqida bahslar, mazhab nizolari bevosita Shirvondan o'tib kelmoqda.

Arablar va forslar yerli xalqning madaniy va siyosiy mafkurasini chiritish maqsadida ularga tariqat va mazhabparastlik marazlarini tarqatganlar. Tariqat, dinlar, mazhablar hamda turli aqidalar Ozarbayjonda ma'rifat qonunlariga g'ov bo'lib oilalarning buzilishiga olib keladi. Xotinlar orasida tatbiq qilingan siyg'a[1] va mutelik qonunlari kelgusida sog'lom oilalarning hayoti uchun katta xatardir. Gruziyaga qilingan yurish to'g'risida a'lo hazrat To'g'rulning fikriga qo'shilolmayman. Gruziyada jips birlashgan xalq yashamoqda. U xalq bilan do'stona aloqa bog'lash mamlakatlarini istilo qilishdan ko'ra foydaliroqdir. Birlashgan xalqni

[1] Shia mazhabidagi musulmonlarda, xususan, Eronda shariat qonuniga binoan vaqtincha nikohlab olinadigan xotin. Nikoh muddati (bir, ikki, uch, besh, o'n oy), odatda, uylanuvchi kishining xohishiga bog'liq, muddat tugagandan keyin uylangan odam xotinini qo'yib yuborishi yoki nikoh muddatini uzaytirishi mumkin.

asoratda saqlash va istilochilarga itoatda saqlash juda mushkul. Biz Gruziyani otabeklar hokimiyatiga tobe qilishimiz bilan ikki qo'shni mamlakat o'rtasida tarixiy bir ixtilofga sababchi bo'lamiz. Bundan tashqari, Gruziyaga qilinajak yurishning muvaffaqiyatli chiqishi uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emas. Gruzin xalqi o'rtasida nizo chiqarish va yot hokimiyat mavqeyini mustahkamlash uchun ham biror vosita yo'q. Gruzinlar mustaqil bir mamlakat sifatida bizning do'stimiz bo'la oladilar, aks holda, dushman sifatida qarshimizga chiqish ham qo'llaridan keladi. Gruzinlarning ham ozarbayjonliklar singari milliy ozodlik his-tuyg'ulari asriy hodisalar olovida toblanib keladi. Har holda biz yuzimizni O'rta Osiyoga o'girishimiz kerak, u yerda bizning g'alabalarimizni ta'min qila oladigan unsurlar ko'p. Xorazmshohdek raqibimizni o'z erkiga qo'yib, raqib bo'lmagan o'lkalarga qarshi borish hukmdorlik nuqtayi nazaridan to'g'ri kelmaydigan bir tadbirdir. Ozarbayjon qirq yil mobaynida raqib nima ekanini sezmagani holda saljuqiylar qo'li ostida qoldi, ular esa bir qancha masjidi jome'lar, maydonlar va ko'chalarga o'z nomlarini qo'yishdan boshqa ish qilmadilar. Biz bunday bo'lmasligimiz kerak. Agar Qora dengiz gruzinlar qo'lida bo'lsa, Xazar (Kaspiy) dengizi bizning qo'limizda. Biz Xazar dengizini Gruziya savdogarlariga ochiq deb e'lon qilsak, ular ham bizning savdo-sotiq ishlarimizga Qora dengizning yo'lini ochib qo'yadilar.

Hozircha shu bas. Ulug' va muhtaram og'am a'lo hazrat Otabekka sihat-salomatlik va g'olibiyat tilayman".

OTABEK MUHAMMAD[1]

Otabek Muhammad Qizil Arslonning maktubini Kirmondan Hamadonga qaytganining ikkinchi kuni oldi. U mamlakatdagi vaziyatning unchalik durust emasligini sezardi. Bag'doddan kelayotgan xabarlar xalifaning qandaydir yangi bir kuchga ishona boshlaganidan darak berardi. Misrda buyuk saltanat tuzgan Fotimiylarning Ayyubiylardan mag'lub bo'lishi xalifani ruhlantirib

[1] Shu bobni *Rustam Komilov* tarjima qilgan.

yuborgandi. U xalifalikni turklar ta'siridan xalos etib, Ayyubiylarga topshirmoqchi bo'lardi.

Xalifaning Otabek o'lkalaridagi maxfiy tashviqotchilari Ayyubiylarni maqtab, keng ko'lamda tashviqot olib borishardi. Mo'sulda, Xorazm shohlarning chegaraga yaqin shaharlarida otabeklarga qarshi suiqasd hozirlanardi. Otabek Muhammad ana shunday vaqtda Qizil Arslondan maktub oldi. Maktubda qo'yilgan masalalardan ma'lumotlarni o'qib Otabekning tepa sochi tikka bo'lib ketib, darhol qisqagina bir maktub yozdi-da, shoshilinch ravishda Tabrizga jo'natdi.

"Aziz va muhtaram hukmdor!

Maktubni oldim. Ko'rsatilgan masala yuzasidan baqamti o'tirib gaplashish kerak. Maktubni olishing bilan bir necha kunga Hamadonga kelishing lozim.

Otabek Muhammad".

Qizil Arslon maktubni olgan zahoti Hamadonga jo'nadi. U Otabek Muhammad o'zining maktubi bilan kelisha olmasligini bilardi. Lekin u o'zining aqidasida mustahkam turishi, Ozarbayjonda zaruriy islohotni o'tkazish masalasini yana bir bor qattiq turib Otabek Muhammaddan talab etishga jazm qilgandi.

Otabek Muhammad Qizil Arslonni o'zi yangigina qurdirgan "Otabek Muhammad qo'rg'oni" deb atalgan mulkida qabul qildi. Qizil Arslon sharafiga berilgan tantanali ziyofat tugagach, Otabek Muhammad Qizil Arslonni o'zining xonayi xosiga chaqirib:

— O'tir, qardoshim! — dedi va kulib so'zini davom ettirdi.— Maktubing shu qadar vahimaliki, uni turmushga tatbiq etish u yoqda tursin, hatto, qo'lga olib o'qishga ham odamning yuragi dov bermaydi. Bir iloj qilib maktubni avvaldan oxirigacha o'qib chiqdim. Yozganlaringni amalga oshirish mumkin bo'lsaydi, men ham bunga rozi bo'lardim. Lekin hozirgi vaziyat va hozirgi sharoitda bunday mushkul orzularni ro'yobga chiqarish to'g'risida o'ylash bamisoli bu dunyoda jannat haqida xayol surganday bir gap. Aziz ukam, mamlakatimiz chegaralarida yuz berayotgan voqealar bizning ichki islohotlar haqida bosh qotirishimizga imkon bermaydi. Bilamanki, sen hozirgi kunda mamlakatimiz tushib qolgan og'ir vaziyatga sovuqqonlik bilan boqa olmaysan. Lekin

shuni ham bilib qo'yishing kerakki, maktubingda islohot deb keltirganing eng mayda bir masalani amalga oshirishga harakat qilmoqchi bo'lsang, vaziyat yanada og'irlashib ketadi. O'zingga ma'lumki, xalifa o'z siyosiy va ma'naviy nufuzini yo'qotgan. Yanada to'g'riroq qilib aytsak, xalifalik o'z umrini yashab tugatgan. Bir mahallarda uning mamlakatlarga tayin qilgan eng oddiy hokimlari ham o'zlariga taxt-u toj yasatgan edilar. Xalifa hozirda faqat ana o'sha hokimlarni bir-biriga qarshi qo'yish bilan ovora bo'lib yotibdi. Lekin mamlakatga ega bo'lish uchun bir-biri bilan g'ajishib yotgan hukmdorlar Bag'dod degan sassiq o'raga tushib, xalifa nomli jiyib ketgan murdani yo'qotishga jur'at eta olmaydilar yoki shunday qilishni istamaydilar, chunki har bir hukmdor bir-biridan tortib oladigan o'lkaning vasiqasini xalifaning muhri bilan rasmiylashtirmoqchi bo'ladi. Xalifalarning o'zlari uchun esa bu nizo va oldi-sotdilar ayni muddao. Ular shahvatparast va mayxo'r odamlar. O'z manfaatlari yo'lida hech qanday harom-harish ishdan toymaydilar. Qo'lga tushirgan ma'lumotimga qaraganda, xalifa ancha vaqtdan beri Salohiddin Ayyubiy bilan maxfiy muzokara olib borayotgan ekan. Xalifa mashhur bo'lsa ham, Salohiddinning Kurdistonda katta nufuzga ega ekanining fahmiga yetadi. U bu kun Iroqda, Mo'sulda va boshqa erlarda kurash boshlasa, butun Kurdistonni bizga qarshi oyoqlantira oladi, shunday bir vaziyatda xalifa huquqini chegaralash, tariqat masalalarini barham berish haqida so'z yuritish mamlakatni bir yo'la dahshatli isyonlar quchog'iga otmoq demakdir. Mamlakatda yangi soliq yig'ish usulini qo'llash uchun yuz minglarcha tekinxo'rlarga maosh to'lamoq, ularga moliya idoralari qurib bermoq lozim bo'ladi. Hozirgi usulda har bir hokimdan ma'lum miqdorda boj olish bilan ham davlatni idora qila olamiz. Yer-suv qonunlari ham xuddi shunga o'xshaydi. Yer-suv qonunini o'zgartirsak zamindorlar bizga qarshi isyon boshlashlari mumkin. Davlat idoralarida ruhoniylar nufuzini pasaytirish to'g'risidagi fikrni tamomila xayolingdan chiqarib tashla. Bu shu qadar xatarli yo'lki, Ma'mun kabi iqtidorli xalifa ham bu ishni chala qoldirib qochishga majbur bo'ldi. Sen maktubingda ko'rsatgan qaysi bir masalani amalga oshirsang, dushmanlarimiz darhol o'shandan foydalanadilar. Sen Sharqda kofir deb e'lon qilinish

malomatining naqadar og'ir ekanini yaxshi bilmaysan. Ruhoniylar bilan xalifa bizni bir bor dindan qaytgan deb qo'yguday bo'lsa, hech qanday kuch mavqeyimizni saqlab qola olmaydi. Ozarbayjon xalqini bir necha yillik soliqdan ozod qilish masalasiga hech qanday e'tirozim yo'q. Qulay fursat kelganda, bu tadbirni amalga oshiramiz. Eski hokimlarni almashtirish masalasiga kelganda, bu borada ehtiyotkorlik va sabr-toqat talab qilinadi. Ulardan har birining yuzlarcha e'timodli tarafdorlari bor. Gruziya masalasi ham u qadar murakkab masala emas. O'sha masala hal bo'lishi bilanoq, Shirvon masalasi ham o'z-o'zidan hal bo'lib ketadi, chunki Gruziya bizga tobe bo'lganidan keyin Shirvon shohlarining ishonchli tayanchi qolmaydi. O'rta Osiyodan xavfimiz yo'q, chunki O'rta Osiyo hukmronlari o'rtasidagi nizolar bizga buyuk g'alabadan darak beradi. Sening maktubingni o'qiganimdan keyin Ozarbayjonni kezib chiqish va uni yaxshilab o'rganishim kerak ekan, degan qarorga keldim. Balki sayohatdan qaytganimdan keyin maktubingdagi ayrim masalalarni qaytadan muhokama qilarmiz. Lekin senga takror aytamanki, xalifa qanday bo'lishidan qat'i nazar, uni roziligini olish lozim. Unga yuborilgan kanizaklarni olib kelishning keragi yo'q edi, ularni jo'natib yuborib yaxshi ish qilgansan. Shirvon shohligi bilan murosayi madora qilish kerak. O'zing xabardorsan, xalifa Shirvon shohligini bekor qilish masalasini rad etdi. Forslar va arablarni davlat idoralaridan asta-sekin bo'shatish lozim, ularni ommaviy ravishda quvg'in qilish Bag'dodda yomon fikr tug'dirib qo'yishi mumkin. Eronlar va arablar bir mahallarda hokim bo'lganlari uchun tillari ham hokim til bo'lib qolgan. Hozir bo'lsa, mamlakatda hokim sensan, sening tiling hokim til bo'lmog'i kerak. Senga uqtirib qo'yay, kimxob to'nlarni ozarbayjon tilida gaplashadiganlarga kiygizilishi lozim. Sen maktubingda muhim bir masalani qayd etishni unutibsan. U ham bo'lsa, forslar va arablarning qo'lidagi bepoyon yer-suvlar va mulklar masalasidir. Ular o'lkalarni zabt etgan mahallarida sersuv, serhosil yerlarni o'zaro bo'lishib olishdi. Bir qancha qishloqlar va katta-katta mulklar, qo'rg'onlar va bozorlarni o'zlashtirdilar. Bu joylarni asta-sekin "xolisona"[1]ga aylantirishing lozim. Bu tadbirni arab va forslar

[1] Davlatga taalluqli yer-suv.

qo'lidagi mulklarning yonida yashaydigan qo'shni zamindorlar vositasi bilan amalga oshirishing mumkin. Kelgindi zamindorlar yo yer-suvlardan yaxshi foydalana olmagani uchun sotishga majbur bo'ladilar va arzimagan pulga sotib ketishga majbur bo'ladilar. Maktubingda yozilgan boshqa masalalar haqida batafsil gapirib o'tirishni istamayman. Shuning uchun qat'iy ravishda buyuraman: qaysi qonun "Qur'on"dan olingan bo'lsa, o'sha qonunga tegma. "Xun puli" ham shular jumlasidandir.

IYDI RAMAZON

Ganja hokimining ko'ngli ikki turli hisdan bezovta edi, birinchisi, sevinchdan bo'lsa, ikkinchisi qo'rquvdan. Bag'dod xalifasi yuborilgan qizlarning yetib borgani to'g'risida maktub yozib Amirga minnatdorchilik bildirgan edi. Xalifa o'z xatida xususan, Dilshodning go'zalligidan kamoli xursand bo'lganini ta'kidlagan edi.

Lekin Amirni vahimaga solayotgan hodisa ikkinchi xabar edi. Otabek Muhammadning Ozarbayjon safariga chiqish xabari eshitilganidan buyon Amir o'z taqdirini qanday hal bo'lishi haqida o'ylardi. Otabek Shimoliy Ozarbayjon chegarasiga qadam qo'yishi bilanoq minglab arzilar yog'ilishini va xalqning o'ziga qarshi hozirlik ko'rayotganini juda yaxshi bilardi.

Amirning o'zi ham hozirlik ko'ra boshladi. U o'ziga himoyachilar to'plash maqsadida oltin hamyonlari og'zini katta ochib pullar sarflamoqda edi. Muhammadga tushadigan shikoyat arizalariga qarshi, uni maqtab, unga minnatdorchilik izhor etgan maktublar tayyorlash hozirligini ko'rardi. Maddohlarga istaganicha pul, sarpolar berilardi. Umrida shoirlik qilmagan odamlar Amirning huzuriga chaqirilib madhiyalar yozish buyurilar, qay vaqt va qayerlarda o'qishi haqida vaqtlar belgilanar edi.

Xatiblar, qozilarga muayyan vazifalar topshirilar, Amirga qarshi harakatda bo'lganlar ro'yxatga olinardi.

Amirning keksa vaziri tun-u kun shug'ullanib tuhmat, bo'htonlar va fitna-fasodlar qo'zg'ash uchun katta bir guruh tashkil etgan edi.

Otabekka peshvoz chiqish uchun tayinlangan bir guruh odamlarning hammasi Amir tarafidan qo'llanmalar olgan edilar. Xonaqoh qishlog'idan Amirning saroyigacha bo'lgan yo'lning har ikki yoqasi qo'shinlar bilan o'rab olinib, iloji boricha, birorta odamni ham Otabekka yaqin kelishiga imkon berilmasligi kerak edi.

Shahardagi gadoylar qamoqqa olinib, uzoq qishloqlarga surgun qilingan edi. Shaharning vayrona joylari tozalanib, vayronaliklarni Otabekka ko'rsatmaslik uchun uni obod ko'chalardan saroyga olib kelish ko'zda tutilgan edi. Shu kunlarda Faxriddin ham Otabekning Ozarbayjon bo'ylab qiladigan safaridan umidvor edi. Uning fikricha, Otabek Shimoliy Ozarbayjonda, xususan, Oron mamlakatida bo'lgan xarobalarni ko'rarkan, islohot ishlarini boshlab yuborar va aybdorlarni jazoga tortar deb o'ylardi. Shu mulohaza bilan Faxriddin xalq o'rtasida tashviqot-targ'ibot ishlarini boshlab yubordi. U qizlari kanizaklikka olingan, mol-u mulki Amir tomonidan musodara qilingan kishilardan iborat katta bir guruhni Otabekni kutib olishga tayyorlamoqda edi. Faxriddin alamzada dehqonlarni va Amir odamlari tomonidan mollari tortib olingan savdogarlarning hammasini Ganjaga chaqirgan edi.

Faxriddin bu harakatlari haqida ma'lumot berarkan, Nizomiy dedi:

— Men bularning hech biriga qarshi emasman. Lekin bir parcha qog'ozga yozilgan ariza bilan mushkul ahvolga tushib qolgan o'lkamizning vaziyatini u dunyo-yu bu dunyo tuzata olmaymiz. Mazlum xalqni arizabozlik bilan og'ir ahvoldan xalos etish tarixda hech qachon ijobiy natija bermaganidek, hozir ham ijobiy natija bermaydi. Hukmdorlarni tiz cho'kishga majbur qiladigan yagona kuch bor bo'lsa, u ham faqat xalqning birligidir. Shu kundan boshlab barcha xalqni birlashtirishga urin. Xalqqa o'z shaxsiy mulkini talab qilishni emas, mamlakatning huquqini talab qilishni o'rgat. Baxt-saodat ham, erkinlik ham faqat shu yo'l bilan qo'lga kiritiladi. Lekin, boya aytganimdek, yana takror aytaman: mayda-chuyda harakatlar tarafdori emasman. Bo'lajak qo'zg'olonimiz hukumatni qo'rqitish emas, balki butunlay yo'qotib yuborishga xizmat qilsin. Mayda-chuyda harakatlar esa, dushmanning hushyor tortishiga sabab bo'ladi. Kutaylik, Otabek Muhammad Ganjaga

kelsin. Shubhasiz, bu yerda u bir necha kun emas, haftalab qoladi. U Amirning uyida yashayajagi ham shubhasiz. Chunki hozir u erda tayyorgarchilik avjida. Ma'lumki, Otabekning bu safari, xususan, Ganjani ziyorat qilish mayllari Amirga ma'lum qilingan. Otabek Muhammadning bittagina xotini bor, ammo Otabekning haramxonasi uchun bir-ikki xotin kifoya qilmaydi, Amirning qizi esa, ham go'zal, hamda xalifaning nevarasi.

Faxriddin kulib:

— Ha, tushundim, — dedi.

Nizomiy so'zida davom etdi:

— Fikrimniki anglagan ekansan, nasihatimni ham unutma. Hozirdanoq sen Amirga qarshi oshkora tashviqot yurgizyapsan. Amir bu harakatingga boshqacha bir tus berib, seni zindonga solishi mumkin. Seni "Otabek hazratlariga suiqasd tayyorladi", deb ayblashi ham mumkin. Shuning uchun bu masalada biroz hushyor bo'lishing kerak.

Faxriddin Nizomiyning bu fikriga ham qo'shildi. Ehtiyot bo'lishga va Amir odamlariga ko'rinmaslikka so'z berdi.

* * *

Ramazon oyining yigirma to'qqizinchi kuni edi. Iftordan so'ng Amir shaharda va boshqa joylardagi nazorat ostida bo'lgan muayyan kishilarni ta'qib etib yurgan xufiyalarni qabul qildi. Keltirilgan xabarlarning eng asosini Faxriddinning Amirga qarshi xatti-harakati tashkil qilardi. Amir juda bezovta edi. Marjonga buyurib To'xtamishni chaqirtirdi. Xufiyalar o'zlari keltirgan xabarlarni To'xtamishga ham batafsil so'zlab berdilar. U biroz xayolga cho'mdi. So'ngra dedi:

— Hibs etishning iloji yo'q, chunki u yolg'iz emas, ayni zamonda uni erkin qo'yib ham bo'lmaydi, ular Otabekning pinjiga kira oladilar. Bugun ramazon oyining yigirma to'qqizinchi kuni. U yuborgan maktubimizni olmagan deyolmaymiz, shubhasiz, u Dilshodning Bag'dodga jo'natilgan biladi. Agar uni saroyga chaqirtirishning iloji bo'lsa edi, unga tuhmat to'nkab, hech kimga bildirmasdan saroyning o'zida hibsga olardik.

Bu tadbirni ma'qullagan Amir ilova qildi:

— Dilshod Bag'dodga jo'natilganini bilsa edi, biror tadbir ko'rgan bo'lardi. Menimcha, u ramazon oyi tugashini kutyapti. Chunki unga nikohni ro'zaning tugashi bilan o'qilishiga va'da bergan edik. Shuning uchun nikoh masalasida kengashib olish bahonasi bilan uni saroyga taklif qilish kerak.

To'xtamish boshini chayqab:

— Bilmadim, u bizga ishonib saroyga kelarmikan? — derkan, Amir:

— Bu to'g'rida balki Sabo xonim biror qimmatli fikr ayta olar? — dedi.

Marjonni Sabo xonimni chaqirib kelishga yuborishdi. Sabo xonim har vaqt kechaning shunday paytlarida "sharafga" musharraf qilish uchun Amirning huzuriga taklif qilinardi. U Marjon kelganidan sevinib:

— Ketaver, hozir boraman,— dedi.

Marjon ketganidan so'ng, Sabo xonim apir-shapir cho'mildi, oq dastro'molini atirga botirib badanini artdi. Olmos va zumradlar qadalgan siynabandlarini taqdi, mayin shohidan tikilgan tungi ko'ylak ustidan marosim kiyimlarini kiydi. Hamma qimmatbaho zeb-ziynatlarini taqib oyna oldiga bordi. Oynaga bir necha bor suzilib boqib, qaddi-qomatini tekshirdi. Qoshlarini uchirib, karashma bilan to'lg'anib o'zini imtihon qildi. Keyin Amir oldida gapirmoqchi bo'lgan, qonni jo'shga keltiradigan so'zlarini takrorladi. Shu payt dahlizda u yoqdan-bu yoqqa yurib turgan xoja Mufid Sabo xonim uyidan chiqayotgan tovushlarni eshitib, ichkarida er kishi bor deb o'yladi. Daf'atan eshikni ochib ichkari kirdi, Sabo xonimning ko'zgu oldida o'z-o'zi bilan so'zlashib, noz-u karashmalar qilayotganini ko'rarkan, kulib deli:

— Siz erkaklarning ofatisiz. Ularni avraysiz, ular bo'lsa ko'ra bila turib aldanadilar.

Sabo xonim uyalinqirab kuldi-da:

— Shuning uchun ham men avrashni, avraganda ham boplab avrashni mashq qilyapman, — dedi, keyin xoja Mufidning oldiga tushib noz-u karashmalar bilan uzun dahlizdan yurib ketdi. Eshikni ochib Amirning xonasiga kirdi. U yerda kutganining aksini ko'rishi bilan salom berib eshik oldida to'xtadi va kanizaklarga xos bir vazi-

yatda haykalday qotib turdi. Ichkariga kirarkan, u xonada Amirni tanho uchratib, shu zahotiyoq uning quchog'iga otilmoqchi edi.

Hozir esa u soqit holda tik turardi. Amir bosh ko'tarib Sabo xonimga dedi:

— Keksa vazir ijozat beradi. Kel, bu yerga o'tir, senga vazirning ba'zi bir topshiriqlari bor.

Sabo xonim o'tirdi, xonada bo'lgan boshqa kishilarning hammasiga chiqib ketishga ruxsat berildi. Xonada Amir, keksa vazir va Sabo xonim qoldi. To'xtamish Sabo xonimga murojaat qilib sekin gap boshladi:

— Xotin kishiga go'zallikning o'zigina kifoya deb o'ylama. Go'zallikka jon baxsh etuvchi omil — uning xatti-harakatidir. Ana shu narsa bo'lmasa, rassomlar sizlardan ko'ra go'zalroq xotinlar suratini yarata olardilar. Xotin-qizlarning aqlli erkaklarga yoqadigan jihatlari ularning go'zalligigina emas, balki o'zlarini sevdira olishning uddalay bilishlaridadir. Sen buni eplay olasan, agar eplay olmasang edi, Amir hazratlarining iltifotlariga musharraf bo'lolmasding. Mening bu haqqoniy so'zlarimni Amir hazratlaridan so'rasang, u kishi ham: "Sabo xonim qanchalik go'zal bo'lsa, shunchalik o'zini sevdira olishga ham qodir. Amirning aqlini oldi", deydilar. Amir hazratlari hozir ham o'zla sharafini qadrlay olgani uchun katta sirlarni orosh qirining go'zal kanizaklariga yangi va muqaddas bir vazifani topshirmoqchilar. Bu vazifa Faxriddinga taalluqlidir.

Sabo xonim Faxriddinning nomini eshitishi bilanoq o'tmish kunlarini bir zum esladi. U fikran o'zini Faxriddinning quchog'ida ko'rarkan, lablarini uning lablariga yopishtirib: "Sening quchog'ingda bo'lishim bilan dunyoda eng baxtiyor xotinman", — der edi.

Sabo xonim o'ylar, visolni eslaganda tabassum qilar, hijronni eslaganda ko'zlari yoshlanardi. Faxriddinning barmoqlarini o'zining sochlarini silaganini eslarkan, quvonch bilan nafas olardi. Lekin birdaniga Faxriddinning so'nggi aytgan: "Jo'nab qol, Sabo, bundan so'ng menga yaqinlashma, men har kuni bir yigitni sevib yuradigan qizlarni yomon ko'raman!" — jumlalarini eslarkan, seskanib ketar va qalbida yashiringan intiqom tuyg'ulari jo'shardi. Sabo xonim shu xayollar ta'siri ostida boshini ko'tarib:

— Qanday vazifa topshirsangiz ham, bajarishga tayyorman, — dedi.

To'xtamish bu so'zlardan keyin maqsadni ochiq aytdi:

— Bizga Faxriddin kerak. Uni shu yerga, saroyga olib kelishning uddasidan chiqa olasanmi?

Sabo xonim To'xtamishga shunday bir savol berdi:

— Faxriddin kunduzi kelishi kerakmi yoki kechasi?

— Uning saroyga kelganini hech kim bilmasligi shart. Shunday bo'lganidan keyin kechasi olib kelinishi lozim.

Sabo xonim bir xo'rsinib qo'yib:

— U Dilshod jo'natilganligini bilmaganida edi, bu vazifani bajarish u qadar qiyin bo'lmasdi,— dedi.

Amir ham To'xtamish ham ont ichib:

— Bu masala maxfiy saqlanmoqda, bundan hech kimning xabari yo'q, — deyishganida, Sabo xonim kulimsirab dedi:

— To'g'ri, lekin Dilshodning marjoni tilanchilar qo'liga tushgani, uni zargar orqali Faxriddinga yetkazilgani Dilshodning jo'natilganligini isbotlaydigan katta bir dalil-ku. Faxriddin yosh bolamiki, shuni tushunmasa.

Sabo xonimning bu so'zidan keyin Amir hayajonlanib so'radi:

— Sen buni kimdan eshitding?

— Nizomiyning uyida eshitdim.

— Sen Nizomiyning uyiga borib-kelib turasanmi?

— Yo'q. O'zim borolmayman. Nizomiy bunga yo'l qo'ymaydi. Ikkita gadoy xotin bor. O'shalarga katta in'om-ehsonlar berib turaman. Ularni Nizomiyning uyiga xayr-sadaqa so'rashga yuboraman. Bu xabarni menga o'shalar yetkazishdi. Kelgusida ular orqali bundan ham kattaroq ishlar qilaman.

To'xtamish bilan Amir baravariga:

— Ofarin, Sabo xonim, — deb yuborishdi.

Sabo so'zida davom etib:

— Iydi ramazonda,— dedi, — Jahonbonuning uyida katta ziyofat bo'ladi. Garchi Nizomiy bilan Ra'nolar u yerda bo'lolmasalar-da, Faxriddinning u yerda bo'lishi shubhasiz. Men Abululloning iydi ramazon munosabati bilan chaqirilgan ziyofatida yana bir toleyimni sinayman. Balki ishim o'ngidan kelar. Har holda bu mush-

kul masala, chunki Faxriddin mendan bir necha marta pand egan. Ne chora. Amir hazratlarining farmonlarini jonimdan kechib bo'lsa ham bajarishim kerak. Agar u qahramon bo'lsa, men Sabo xonimman. Men uni shu yerda, Amirning oldida tiz cho'kib yolvorishga majbur qilaman.

To'xtamish Sabo xonimning jasoratidan mamnun bo'ldi, uni duo qilib chiqib ketdi. Xoja Mufid eshik orqasida Amirning xonasidan Sabo xonimning chiqishiga muntazir bo'lib turar edi. Nihoyat, saharga yaqin Sabo xonim Amirning xonasidan chiqdi. Xoja Mufid uni ko'rarkan:

— Go'zal xonimni "sharafga" noil bo'lish bilan qutlayman! — dedi-da, oldiga tushirib xonasiga kuzatib qo'ydi. Birozdan so'ng kanizaklar-u joriyalar tugunchalar ko'tarib hammomga Amirni olib borishdi. Amir ertaga, ya'ni ramazonning so'nggi kunida ro'za tutmoqchi edi.

Ramazon oyining o'ttizinchi kuni oqshom paytida uch kishidan iborat guvohlar xatibning huzuriga kelishib shavvol oyini ko'rdik, deb guvohlik berishdi. Oyning dastlabki kuni kunduz soat ikkida, Amirning darvozasi oldida turgan taxtiravon saroydan mo'tabar bir ayolning chiqishidan darak berardi. Endigina ro'za oyini tugatgan kishilar Amir saroyidan chiqadigan "nomahram" ayolni ko'rishdan unchalik tortinmasdilar. Ko'pchilik "taxtiravonda Amirning qizi Qatiba xonim chiqadi", deb uni ko'rib qolish uchun o'zlariga qulayroq joyni egallashga shoshilardilar, chunki Qatiba haramdagi boshqa qizlar singari yuzini yashirmas, ko'cha odamlariga ko'rinishdan tortinmas edi, u taxtiravonda ketayotganida ham pardani tushirishga ruxsat bermasdi.

Hali taxtiravon yo'lga chiqqanicha yo'q, ko'cha-ko'ylar, tepaliklarga odamlar sig'ishmasdi. Lekin bunday marosimlarga odatlanib ketgan kishilar bugungi taxtiravonga unchalik e'tibor bermasdilar. Chunki taxtiravonlarda Amirning xotini yoki qizi olib chiqiladigan kunlarda ko'chalar muhofaza qilinib, odamlar qatnovi to'xtatilardi.

Xoja Mufid saroy darvozasidan chiqdi. Uning ketidan ikki kanizak bilan ikkita qora qul bir ayolni kuzatib chiqishdi. U zeb-u ziynatlar ustidan yupqagina ipakli qora chodra yopingan

bo'lib, o'zini xaloyiqqa tanitmaslik uchun yuzini yashirishga urinardi, chunki xaloyiq uning kanizakligini sezib qolguday bo'lsa, taxtiravon ketidan ergashmasligi tayin edi. Lekin kanizaklardan qaysi biri Amirning "iltifotiga musharraf bo'lgan bo'lsa", unga taxtiravonda yurishga ijozat berilishini ko'pchilik bilar edi. Taxtiravonning oldiga narvon qo'ydilar. Xoja Mufid Sabo xonimning qo'lidan tutib taxtiravonga chiqardi. So'ng kanizlar ham taxtiravonga chiqdilar, qullar esa narvonni olib taxtiravonning orqasiga bog'ladilar. Keyin qullarning har biri bittadan otni yetakladi. Ko'chadagi odamlar taxtiravon orqasidan ergashib borishardi. Taxtiravonning pardalari sira ochilmadi. Odamlar Sabo xonimning taxtiravonini Abululloning darvozasigacha kuzatib bordilar.

Sabo xonim bugun o'zining eşki xojasi Abululloning uyiga bir cho'ri qiz sifatida emas, balki oliy martabali xonim sifatida kirib bordi. Chunki Abululloning oilasi uni Amir tomonidan "sharafga sazovor etilgani" va haram nomzodlaridan biri bo'lib qolganini bilar edi. Xususan, Abululloning kenja qizi Mohtob xonim Sabo xonimga boshqalardan ko'ra ko'proq iltifot ko'rsatardi, chunki u faqat Sabo xonim vositasi bilangina badavlat va mashhur odamga erga chiqishni o'ylardi.

Abululloning ziyofatida Falakin, Mujiriddin hamda bir qancha boshqa shoirlar va adiblar ishtirok qilmoqda edilar. Nizomiy bilan Ra'no esa Mahsatiy xonim betob bo'lgani sababdan, uni yolg'iz tashlab kelolmagan edilar.

Faxriddin hammadan keyin keldi. U Sabo xonimning bu ziyofatda bo'lishidan bexabar edi. Bilganida ziyofatga kelmagan bo'lardi. Lekin u ichkariga kirarkan, Sabo xonimni ko'rib Dilshodni esladi va undan Dilshod haqida biror xabar bilishni o'yladi. Shu zahoti gap boshlashga qaror qildi, chunki Dilshod bilan o'zining nomidan yozilgan soxta, uydirma maktublarning Amirga yetkazilishi natijasida Dilshodni hibsga olinib, jazo berilganligi Faxriddinning esidan bir daqiqa ham chiqmas edi.

Lekin Faxriddin o'zini tiya olmasdi. Sabo xonimni ko'rdi deguncha gaplashgisi kelaverardi. Chunki Sabo xonimning doimo "men toshni ham tilga kirgiza olaman" deyishi bejiz emas edi.

Faxriddin Saboning noz-u karashmalaridan o'zini olib qochishiga urinib, Mujiriddin boshlagan suhbatni davom ettirishga harakat qilardi. Sabo xonim, Mohtob xonim va bir qancha boshqa qiz-juvonlar Mujiriddin bilan Faxriddinning atrofidan tez-tez aylanib o'tishib ishq-muhabbatomuz gap otishardi, chunki ziyofat qatnashchilari orasida faqatgina Faxriddin bilan Mujiriddingina bo'ydoq edilar.

Sabo xonim Faxriddinning yonidan o'ta turib dedi:

— Men bir mahbubning xumoriman, sharob bering. Meni o'tga tashlang-u, lekin bu yonib turgan yuragimga suv bering. Shikoyat qilsam ham, arazlasam ham, mening ishim o'sha bilan. Ayting, javob bersin.

Qizlar Mujiriddin bilan Faxriddinga qarab kuldilar. Mujiriddin Faxriddinning kiftiga qoqib:

— Ana, Faxriddin, qochib qol, Sabo xonim sen to'g'ringda gapirayotgan ekan-ku,— dedi.

Faxriddin Sabo xonimga e'tibor bermadi. Nihoyat, Sabo xonim qizlar bilan yana aylanib kelib Faxriddinlar o'tirgan kursining yonida turib suhbatga boshladi. U go'yo Mohtob xonimga kinoyalanib so'zlardi:

— Men shunchalar soddamanmiki, josuslarga sir berdim, ular esa sirimdan o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar,— der ekan, Faxriddin bir irg'ib tushdi, nima deyishini bilmay qoldi, chunki u Sabo xonim aytayotgan so'zlarning ma'nosini anglardi. U bir necha bor og'iz rostlab Sabo xonimni gapga solmoqchi bo'ldi-yu, lekin bundan keyin u bilan gaplashmaslik haqida ont ichgani uchun indamadi. Mujiriddin bu holni payqab:

— Bir nafas birga sayr etishning nima zarari bor? Shayton bo'lganda ham kishini o'ziga maftun etadigan shayton ekan. Chaqirib biroz gapga solsak, nima qilibdi? — deganida, Faxriddin ham:

— Shaytondan ham jirkanchroq biror nom topilsa edi, uni bu yerga ana o'sha nom bilan chaqirib olardik. Balki shoir bo'lmaganimdan go'zallarni sizchalik his eta olish qobiliyatiga ega emasdirman. Lekin bu xotin to'g'risida olgan taassurot men uchun har narsadan ortiq. Bu har taraflama go'zal, yagona aybi shaytonligidir. Men buni hech qachon qo'ldan chiqarmagan bo'lardim. Uch

ming dirham u qadar katta pul emas. O'sha pulni to'laganimda edi, Jahonbonu buni menga bergan bo'lardi. Lekin bu dunyo go'zalining narxini tushirgan narsa uning shaytonligidir. Bundan ko'rgan yomonliklarimning birgina foizini boshqa odamdan ko'rganimda edi, shu kungacha uni o'ldirib yuborgan bo'lardim. Buni bir necha bor o'ldirishga urindim, qulay fursat ham kelgan edi, lekin tabiatning bu go'zal mash'alini so'ndirishni xohlamadim, chunki buning go'zalligini ko'rib shaytonligidan bexabar kishilar menga la'nat o'qigan bo'lardi. Uning bugunga qadar tirik yurishining sababi ham ana shunda.

Sabo xonim uchinchi marta Faxriddin oldidan o'tarkan, o'z go'zalligini ta'riflay boshladi:

— Gul tikanlar ichida ko'karadi deydilar. Modomiki, shunday ekan, nechun gullar majlisiga tikanlarni ham kiritdilar? Men aytmoqchi bo'lgan odamning siymosi doim ko'z o'ngimda. Mening qadrimni bilmagan, chiroyimni tan olmaganlar ham haqli bo'lsalar kerak, chunki mening musiqadan nash'aliroq ovozim, dardmandlar qulog'iga boyqushning ovozidan ham g'amginroq eshitiladi. Qayg'u-hasrat sharbatini ichgan odamlar og'ziga shakarning ta'mi ham ilonning zahridek tuyuladi. Mening boqishlarim tong shamolidan musafforoq bo'lsa-da, yaralangan majruhlar uchun ilonning nishidan ham zaharlidir. G'am-alam chekkan odamlarning qo'liga eng qimmatbaho gavhar oddiy toshdan ham qadrsiz ko'rinadi, bu tabiiy narsa. Lekin bunda na tong shamoli, na shakar lazzati, na mening nash'ali mayin ovozim va na chaqnab turgan yulduzdek qora ko'zlarimning zarracha aybi bor. Mening shirin so'zlarim o'zini yo'qotgan odamlarning oyog'i ostida zaharli tikanlarga o'xshab ko'rinadi. Mening soyam sog'lom fikrli odamlarga qaytadan jon bag'ishlasa-da, xasta odamlar uchun og'ir bir yukdan iboratdir. Shunday vaqtlar ham bo'lganki, uning hajrida yig'lab-yig'lab uxlab qolganimda, tushimda meni suv oqizib ketardi. Ne chora, ishq-ishq deb bir kishining nomini takrorlardim. Lekin ishqqa mubtalo bo'lgach, uning nimaligini tushundim, "yorim-yorim" deb sevinar ekanman, uning kim ekaniga aqlim yetdi. Agar ishq deganlari shu bo'lsa, uning kimga keragi bor? Lekin bu dunyoda murodiga yetmaganlar bir mengina emasman. Ko'pdan ko'p odam-

lar aql bovar qilmaydigan darajada yuksak olamlarga uchmoqchi bo'lganlaru, lekin qanotlarida quvvat topolmaganlaridan parvoz etishdan ojiz qolganlar.

Faxriddin Sabo xonimning bu so'zlaridan keyin sukut qila olmadi. Chunki Sabo xonimning so'nggi so'zlari Faxriddin bilan Dilshodning sevgi va orzulariga etisha olmaganlariga ishora edi. Shuning uchun Faxriddin chidab turolmay unga javob berdi:

— Qanotlarimda kuch-quvvat bor. Istagan yuksaklikni fath etishga qurbim yetadi, lekin o'sha yuksak yo'llarda qora qanotlarini kerib, parvozimga to'sik bo'ladigan iblislarga duch kelaman.

Sabo xonim yaqinroq keldi. Faxriddin bilan so'zlashishga bahona topdi va jahl bilan gapira boshladi:

— Faxriddin, sening menga va Dilshodga qilgan haqsizliklaring uchun koyishim va muzammat qilishim kerak. Ajabo, sen qaysi gunohlarimdan xafa bo'lding?

Faxriddin bu suhbatni mehmonlar oldida davom tirishni istamadi, ikkalasi bog'chaga chiqishdi.

— O'zing tahqirga loyiq bo'lganing holda, boshqalarni tahqirlashga nima haqqing bor! — dedi Faxriddin.— Sen men bilan Dilshodga qanday yomonliklar qilmading? Bizning baxtimizni qaro qilgan sen emasmisan?

— Qizning baxti qaro bo'lgani yo'q. Baxtingning qaro bo'lishiga esa o'z fe'li atvoring sabab... Jannatdan hurni, samodan malakni keltirib qo'lingga topshirgan taqdirlarida ham sen yashashni eplay olmaysan. Chunki senda qizlar ko'nglini maftun etadigan zabon yo'q. Qizlar sendan talab qiladigan narsalarni sen qizlardan talab qilasan. Hayronman, so'nggi kunlarda mendan arazlashingning sababi nima edi?

— Sen qanday maqsad bilan Dilshoddan menga yolg'on xabar keltirding? Nima uchun mendan olgan maktubni Amirga topshirib, qizning jazolanishiga sabab bo'lding?

— O'sha maktub uchun o'zim ozmuncha jafo chekdimmi? Modomiki, asosiy masala nimadan iborat ekanini bilmas ekansan, o'rinsiz so'roq savollarni yig'ishtir. Bu ishlardan na Dilshod xabardor va na men. Avvalo, sening tilingdan maktub yozib Dilshodga bergan odam Marjon, unga o'rgatgan kishi esa Susan ekan. Xo'sh, bu ish-

da mening nima gunohim bor? Sen duch kelgan qizga muhabbat izhor qilganingdan keyin, albatta, ular o'rtasida rashk boshlanadi-da. Shuning uchun Susan sening nomingdan yozilgan maktubni Dilshodga berib, uning ko'nglini sendan sovutmoqchi bo'lgan. Dilshoddan senga maktub olib kelishim masalasiga kelsak, buni men o'zim qilganman. Undan Dilshod bexabar edi. Men o'sha xabar tufayli sendan maktub olib unga yetkazishni va Susan yozgan maktubning saroyda yozilganligini Dilshodga isbotlamoqchi bo'lgan edim. Ochiqrog'i, Dilshodni xotirjam qilishni o'ylagandim. Ajabo, shunday qilish, seningcha, xiyonat hisoblanadimi? Mendan Dilshodga berib yuborgan maktubing Amirning qo'liga tushib qolgani rost. Lekin maktub qanday qilib Amirning qo'liga tushganini bilishing kerak.

Faxriddin achchig'i chiqib:

— Men qaydan bilay! Axir, saroyda yashamayman-ku, — deganida, Sabo xonim darhol javob berdi:

— Modomiki, bilmas ekansan, o'shanda meni chaqirib olib nega menga xiyonat qilding, deb so'rashing kerak edi. U vaqtda men ham voqeani bir boshdan batafsil gapirib berardim. Sendan maktubni olib Dilshodga eltib borgan kunim, Susanning topshirig'i bilan Marjon meni ta'qib etgan ekan, men sen bilan Shayx Solih maqbarasida uzoq gaplashganimizda Marjon gapimizni eshitgan ekan. Men sendan maktubni olib saroyga kirib borar ekanman, meni to'ppa-to'g'ri xoja Mufidning xonasiga olib bordilar. Tintuv qilib yonimdan sening maktubingni topib olishdi. Undan keyin boshimga qanday kulfatlar tushganini aslo so'rama. Loaqal ko'z-qovoqlarim va tomog'imning ko'karib ketganini hozir ham ko'rishing mumkin. — Sabo xonim so'zlab turib shoyi ro'molini echib, bo'ynidagi ko'kargan joylarini ko'rsatdi. Sabo xonim Faxriddin so'zlariga qisman bo'lsa ham ishonayotganini sezgach, so'zini davom ettirdi: — Men bu yaxshilikni sen bilan Dilshodning yuz xotiri uchun qilganim yo'q. Mening fe'limni yaxshi bilasan, men hech qachon tinch turolmayman. Susanning bu ishlarini fosh qilaman, deb o'zim baloga qoldim. Bechora Dilshod ham ko'p aziyat chekdi. Zarari yo'q, hammasi unutilib ketadi. Dilshod ham sog'-salomat, sen ham.

Murod-u maqsadga yetishlaringizga oz qoldi. Bitta shirinlik yuzlab achchig'liklarni unuttirib yubora oladi.

Faxriddin Sabo xonimning bu so'zlaridan zardasi qaynab:

— Mening ustimdan kulyapsanmi? — dedi.

— Ustingdan kulishga haqqim bor. Nega Dilshodga bergan sovg'angni qaytarib olding?

— Qaysi sovg'amni?

Sabo xonim mazax qilib so'radi.

— Oh, Faxriddin, butun Ganjada duv-duv gap bo'lib ketgan masalani nega mendan yashirasan?

— Qanaqa masalani?

— Marjon masalasini, Susan orqali Dilshoddan o'g'irlab olinib Mas'udiyaning oldidagi tilanchilar orasiga tashlangan marjon masalasini... Uni nega qizning o'ziga qaytarib bermaysan? Arzimagan bir marjon Dilshoddan aziz bo'ptimi?

Faxriddin xayolga cho'mdi. U Bag'dodga jo'natishdi deb o'ylagani Dilshodning saroyda yashayotganidan xabardor bo'lib Sabo xonimga dedi:

— Bu xabar shubhalanib yurganim o'rinsiz ekanini ko'rsatdi. Endi menga ayt-chi, Dilshod mening haqimda nima o'ylaydi?

— Sen nimani kutayotgan bo'lsang, Dilshod ham o'shani kutyapti. Ramazon oyi tugadi. Amir ham o'z so'zida turibdi. Bu haqda Dilshoding xabardor qilingan. Shu masala yuzasidan seni ham saroyga chaqirishmoqchi. Balki ertagayoq taklifnoma olarsan, o'shanda saroyga borasan. Amir nikoh shartlarini aytadi, to'yga tayyorgarlik ko'rasizlar. Qani, ayt-chi, endi mendan rozimisan?

— Mingdan mingga roziman. Men sho'rlik Dilshod Bag'dodga jo'natilgan deb o'ylardim.

— Sen Amirga qarshi harakatingda haddingdan oshma, u yomon odam emas, senga bergan so'zining ustidan chiqadi. Ishonmasang yur, shu bugun kechasi saroyga boramiz. Dilshodni ko'rgach, so'zlarimga ishonasan.

— Yo'q, so'zingga ishonaman, Amirning ijozatisiz saroyga bormayman.

— Bu ham yaxshi fikr. Xo'p, bo'lmasa ertaga Amirning o'z qo'li bilan yozilgan maktub olib kelaman. Qayerda ko'rishsak yaxshi bularkin?

— Bilmadim, sen uchun qayer qulay?

— Shunday joy bo'lsinki, uchrashganimizni hech kim ko'rmasin.

— Unda qosh qoraygandan keyin uchrashamiz. Soy bo'yiga bor. O'sha yerda biroz turib, keyin Musa tegirmonining yonidagi tolzorda kut.

Bunga Sabo xonim rozi bo'ldi, xayrlashib ajraldilar.

"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI

Shirvon xoqoni tomonidan Ganjaga vakillar kelgan edi. Otabek Muhammadning Ganja safarini eshitgan Shirvon xoqoni Otabekni kutib olish marosimida ishtirok etishga taklif qilingandi. Shuning uchun hali Otabek Tabrizdan Shimoliy Ozarbayjonga yo'lga chiqmasidan burun Shirvon xoqoni Ganjaga Najmiddin boshliq ko'p kishilik vakillar hay'ati yuborgan edi, bu bilan xoqon Otabekka bo'lgan do'stlik tuyg'ularini namoyish qilmoqchi edi. Vakillar hay'atining raisi Najmiddin Ganjaga kelganining ikkinchi kuni Nizomiyga shunday bir maktub yubordi:

"Muhtaram, san'atkor shoir!

Shirvondan Ganjaga qilgan qisqa muddatli bu safarimizda ikki ulug' zotning ziyoratiga musharraf bo'lsak, o'zimizni baxtiyor hisoblaymiz. Ulardan birisi, Otabek Muhammad hazratlarining ziyorati, ikkinchisi esa, muhtaram shoirning ziyoratidir. Muhtaram shoir ijozat bersa, xoqonning topshiriqlarini bajo keltirish maqsadi bilan ko'rishib, saodatga musharraf bo'lardik.

Shirvon xoqoni tomonidan kelgan vakillar hay'ati raisi Najmiddin".

Nizomiy maktubni olishi bilan ularni qabul qilish haqida muayyan vaqt tayinladi. Ayni fursatda Ra'noga uylarni yig'ishtirib, hozirlik ko'rishni buyurdi. Vakillarni kutish masalasida ishtirok qilishlari uchun ba'zi do'stlariga xabar yubordi. Bularning ichida Faxriddin ham bor edi.

Faxriddin tayinlangan muddatdan bir necha soat oldin kelib mehmon kutish uchun qilinayotgan tayyorgarlikka ko'maklashdi. Yetishmagan narsalarni o'z uyidan oldirib keldi. Bozordan olinadigan narsalarni ham o'zi xarid qildirib tayyorladi. Ra'no bilan Nizomiy Faxriddinning bu yordamlaridan haddan ziyoda mamnun bo'lishdi.

Bugun ular Faxriddinda qandaydir o'tgan g'am-g'ussalardan zarracha ham asar ko'rmaganlari uchun unga diqqat bilan boqar edilar. Faxriddin Dilshod ketganidan beri biror marta bo'lsa ham, ularga ochiq chehra bilan boqmagan edi. Bugun esa jilmayar, shodlanib so'zlar edi, Nizomiy bunda biror hodisa borligini sezib:

— Bu xursandlikning sababini aytsang, do'stlaring ham shodlanar edi,— dedi.

Faxriddin quvonch bilan Nizomiyning qo'lini siqdi:

— Bu shodlik kelgusidagi saodatli kunlarning boshlanishi. Kechagina menga Dilshod Bag'dodga jo'natilmagani, saroyda ekani ma'lum bo'ldi.

Nizomiy taajjublanib:

— Bu xabarni senga kim keltirdi? — deb so'radi.

Faxriddin Abululloning ziyofatida bo'lgani, u yerda Sabo xonim bilan ko'rishgani va o'rtada o'tgan suhbatni Nizomiyga batafsil gapirib bergach:

— Bugun kechasi u Amirdan maktub olib keladi va men u bilan birga saroyga boraman, — derkan. Nizomiy:

— U bilan saroyga emas, yo o'limga yoinki zindonga borasan, — deb javob berdi. — Yana aldanibsan. Lekin masalani ilgariroq kelib aytmaganing meni tashvishga solib qo'ydi. Sen hozir zamonning qandayligini bilasanmi? Amir Otabekning kelishi munosabati bilan o'z mavqeyining mustahkamligiga ishonmay qo'ydi. U Otabekka shikoyat qiluvchilarning tashkiliy ishlarida tashabbus ko'rsatgan kishilarni qanday yo'llar bilan bo'lmasin yo'qotib yubormoqchi. Ulardan biri mening qahramonim, lekin soddadil do'stim Faxriddindir. Saboning so'nggi makri saroyda seni halok qilish. Dilshod esa ko'pdan beri Bag'dodda.

— Unday bo'lishi mumkin emas.

— Bo'lishi mumkin. Sen menga ishon. Sabo xonim nihoyatda dahshatli yangi bir xiyonat tayyorlamoqda. Bunga ishonmasang, ol, manavi maktubni o'qi. Qizil Arslon menga yuborgan maktubida asirlikka jo'natilgan qizlarning nomlarini va turar joylarini qayd qilib o'tgan.

Faxriddin maktubni olib o'qidi-da, Nizomiyning so'zlarini tasdiqladi:

— Men u behayoni o'ldiraman. U tirik ekan, gazandaligini to'xtatmaydi, — deganida, Nizomiy:

— Sal ehtiyotroq bo'lishing kerak, — dedi.

Gap shu bilan tugadi, chunki vakillar kelganidan xabar berdilar. Faxriddin va boshqalar mehmonlarni hovlida kutib oldilar. Nizomiyning o'zi esa vakillarni uyning eshigi oldida kutib olib:

— Shoirning bu faqirona kulbasiga baxt va saodat olib keldingiz, xush kelibsizlar, safo keltiribsizlar, — dedi-da, o'tirishni taklif qildi. Najmiddin va hamrohlari o'tirdilar. Nizomiy so'z boshladi:

— Otabek hazratlarining Ganjaga kelishi xabari bizga, xoqon hazratlarining namoyandalari bilan ko'rishish sharafiga noil bo'lish imkonini tug'dirdi, — deganida, Najmiddin ham:

— Otabek hazratlarining Ganjaga kelishlari xabarini eshitmasimizdan avval ham xoqon hazratlari sizning huzuringizga vakil yuborishni o'ylagan edilar, — dedi, — bu safarimizdan xoqon hazratlari Ganjadan qimmatli bir javohir olib ketishimizni buyurganlar.

Nizomiy qisqagina javob berdi:

— Xoqon hazratlarining shoirga bu qadar katta e'tibor berganlari uchun rahmat.

— Xoqon hazratlari o'zlarining samimiy iltimosini yetkazish uchun bizni muhtaram shoirning huzuriga yubordilar. Xoqonning muborak istaklari shundan iboratki, muhtaram shoir Layli bilan Majnun muhabbatini doston qilib yozsalar.

— Xoqon hazratlarining istaklarini bajo keltirishga tayyorman.

— Lekin xoqon hazratlarining istaklari shundayki, muhtaram shoir yozadigan dostonini ozarbayjon tilida emas, uni oliy nasab tabaqaga mansub tilda, fors tilida yozsin, chunki xoqon hazratlari ozarbayjon tili bilan tanish emaslar, faqat fors tilidagina o'qib, so'zlasha oladilar. Shubhasizdirki, siz xoqon hazratlarini qanday

til va qanday she'rga qiziqishlarini bizdan ko'ra yaxshiroq bilasiz.

Nizomiy majlisda bo'lgan ozarbayjonliklarning iztirobini sezarkan, janjal chiqib ketishiga fursat bermay dedi:

— Men xoqonning fikrlarini juda yaxshi tushunaman. Shubhasizki, xoqon fors tilini oliy nasab tabaqaga mansub bir til ekanini qayd etishga haqlidirlar. U kishi fors tili oliy nasab tabaqaga mansub til der ekanlar, saroy a'yonlarini nazarda tutganlar. Xoqonning o'zlari ham saroy a'yoni bo'lganlari uchun a'yonlarni oliy nasab tabaqaga mansub hisoblaydilar. Bu mutlaqo to'g'ri. Saroy a'yonlari boshqa tabaqa-yu, saroydan tashqaridagilar esa tamomila boshqa tabaqadirlar. Hammamizga ham ma'lumdirki, Shirvon saroyidagilar ham, xoqon hazratlarining o'zlari ham ozarbayjon tilida so'zlashni bilmaydilar. Balki shunday bo'lishi to'g'ridir. Shunday talablarga binoan men "Layli va Majnun" dostonini boshqa bir nuqtayi nazardan fors tilida yozishga qiziqaman, Chunki bu kunga qadar fors tili doston shaklida hech qanday adabiyotga ega emas. Firdavsiyning asari katta doston bo'lishidan qat'i nazar, tarixiy asar hisoblanadi. Undagi muhabbat qissalari badiiy bo'lsalar-da, lekin chinakamiga muhabbatni tasvir etish qudratiga ega emaslar, mening bilishimcha, xoqon hazratlari fors tilida yozayotgan shoirlarga yo'l ko'rsatib, rahbar bo'lishlari bilan fors tilida doston yozishni birinchi bo'lib menga havola qilibdilar.

Majlisda bo'lgan ozarbayjonliklarning yuzlaridagi tajanglik alomatining so'nishi shubhalar bartaraf bo'lganidan darak berardi. Buni Najmiddin ham sezardi, bu siforish ozarbayjonliklarning milliy g'ururiga qattiq teginishini yaxshi bilardi. Lekin u Nizomiyning bergan izohidan keyin shubha-yu nafratlar bartaraf bo'lganini sezgach, quvonib shoirga xoqonning ikkinchi iltimosini bayon qildi:

— Xoqon hazratlari sizdek zo'r mahoratga molik bo'lgan zotning faqirona kulbada yashashini munosib ko'rmay, sizni Shirvon saroyiga ko'chirishni buyurdi. Shoirni u yerda baxt-saodat, mol-mulk va qimmatbaho in'omlar kutmoqda. Sizning ravon tab'ingiz u yerda yanada ravshan bo'ladi, siz faqat o'sha yerda olamshumul shoir darajasiga ko'tarila olasiz. Faqat saroyda yozgan asarlaringiz bilan dunyoga o'z oftob nurlaringizni tarata olasiz. Saroyda barcha

ehtiyojlardan xalos bo'lib, nodir fikringizni ijodiy ishga bag'ishlay olasiz. Ulug' shoirning azob-uqubatlar ichida kechgan kunlari bundan buyon mo'jizalar makoni bo'lgan osoyishta bir hayotning quchog'ida she'rlar ijod qilishga sarflanadi. Menimcha, she'rlar baxtu saodat quchog'ida tug'ilishi kerak. Shoir xalq ichida umrini siyosiy hodisalar bilan o'tkazmasligi lozim.

Majlisda o'tirganlardan bir necha kishi Nizomiy xoqonning bu taklifini qabul qilib, Ganjadan Shirvon shohining saroyiga ko'char deb o'ylardi. Majlisdagilar sabrsiz bir intizorlik bilan shoirning Najmiddinga beradigan javobini kutdilar. Nihoyat, Nizomiy tabassum bilan javob berdi:

— Shubhasizki, xoqon hazratlari meni ulug'lash maqsadida o'z saroylariga da'vat qilmoqdalar. Buning uchun tashakkur etish va xoqon hazratlariga uzoq umr va tugalmas davlatlar tilash burchimdir. Avvalo, janobi Najmiddin uyimning faqironaligiga ishora qilib: "Xoqon hazratlari sizdek zo'r mahoratga molik bo'lgan zotning faqirona kulbada yashashini munosib ko'rmay, Shirvon saroyiga ko'chirishni buyurdi", dedi. Agarda mendek faqir bir shoirda shunchalik iste'dod bor ekan, bu iste'dod mana shu faqirona kulbada vujudga kelgandir. Bu somon zo'r mahorat egasining beshigidir. Meni shu suvoq devorlar, mana shu beshik ulg'aytib, dunyoga tanitmagunicha ushbu kulbadan ajralmayman. Haqiqatan ham menda iste'dod namoyon bo'lgan bo'lsa, u meniki emas, balki ozarbayjon xalqinikidir, chunki men shu mamlakatning o'g'liman. To'g'ri, meni xoqonning saroyida in'omlar kutmoqda. Bu aytilgan in'om-ehsonlar havas qiluvchilar uchun juda qimmatli. Lekin bularning birortasi shoir me'dasida hazm bo'ladigan narsalar emas. Siz "tab'ingiz Shirvon saroyida yanada ravshan bo'ladi", dedingiz. Lekin xalqdan ajralib saroyning baland devorlari ichiga yashirilgan tab'ning yanada ravshanroq bo'lishiga ishona olmayman. Shoir o'z ilhom manbai bo'lgan xalq hayotidan ayrilib, to'rt devor ichida nozlanib mudrar ekan, uning shoirona iste'dodi qanday vositalar bilan rivojlana olsin? U qayerdan ilhom oladi? Olamshumul shoir bo'lmoq uchun olamning hodisalari ichida suzib yurmoq lozim. Shoirning tab'i qanchalik ravshan bo'lmasin, saroy ichida turib olamga nur socholmaydi. Ba'zan saroyda tug'ilgan oftoblar nur

taratish qobiliyatidan mahrum bo'ladilar. Chunki xalq o'z orasida tug'ilgan oftobni sevadi. Cho'ponlar quyoshni gullab yashnagan dalalar va yashil o'rmonlar atrofidan axtaradilar, kemachilar quyoshni bir-birini ta'qib etuvchi to'lqinlarning orqasidan qidiradilar, qishloq xalqi esa, oftobni ko'm-ko'k dalalar va chamanzorlarning tepasida yuksalarkan, ko'radilar va shodlanadilar. Binobarin, saroy devorlari ortidan chiqqan quyosh bizning xalqni hech mahal isita olmaydi. Janobi Najmiddin: "Saroyda barcha ehtiyojlardan xalos bo'lib, nodir fikringizni ijodiy ishga bag'ishlay olasiz", dedilar. Lekin bilolmadim, xalqning ehtiyojlarini ko'rmay, o'sha ehtiyojlar bilan tug'ilgan dardlarni, ular bilan birga torta olmay, ehtiyojlar qozonida xalq bilan birga qaynamay turib ijodim uchun mavzu va ilhomni qayerdan olaman? Shoirlarning saroydan tashqarida bo'lishi xoqonlar uchun yanada foydaliroqdir. Chunki shoir saroyda ko'rganlarini yozib, uni xalq orasiga tarqatsa, bu xoqonlarning obro'si tushishiga sabab bo'la oladi. Lekin xalq orasida yashash bilan umumiy dardlarni yozib xoqonga bildirish ham xalq uchun, ham xoqon mamlakati obodligi uchun foydali bo'ladi. To'g'ri, saroyda rohat-farog'atda yashab mo'jizalar, noyob asarlar yaratish mumkin. Lekin shu noyob va mo'jiza deb ataganingiz she'rlar xoqonning farmonidek oliy nasab tabaqaning ruhini erkalata oladi. Menimcha, saroydan tashqarida bo'lgan ozodlik saroydagi bo'lgan ozodlikdan afzalroqdir. Bundan tashqari, men xozirgi turmushimga bolaligimdan o'rganganman. Men uchun saroy hayoti, erkinligini yo'qotgan bir qushchaning oltin kafasdan olgan nash'asidan ortiq bo'lmaydi. Xoqon hazratlariga salomimni yetkazsangiz, mening nomimdan shu arzimni ham aytib qo'ying, agar Shirvon xoqoni ozarbayjon tilini o'rganishga xohishlari yo'q ekan, biz, aksincha, forscha gapira olamiz, hamda forscha she'r yozishni ham eplay olamiz, salomatlik bo'lsa, "Layli va Majnun" dostonini yozib bitirishim bilan yana ko'risharmiz.

Uzoq soatlar davom etgan bu suhbatlar asnosida muzdek, xushbo'y sharbat ichilar edi.

Najmiddin, vakillar bu samimiy suhbatlar va mehmondorchilikdan mamnun bo'lib xayrlashdilar.

Faxriddin o'rnidan turib Nizomiyning yuzidan o'par ekan, dedi:

— Sening tiling, sening ifodalaring mening qilichimdan ham o'tkirdir.

Kech kirib, Faxriddin Sabo xonimdan Amirning maktubini olish va saroyga borish uchun va'dalashgan soatlari yaqinlashdi. U o'rnidan turib jo'namoqchi bo'lganida, Nizomiy yana unga ta'kidlab dedi:

— Ehtiyot bo'l! U juda makkor xotin. Kim biladi, balki seni Musa tegirmoni oldida o'ldirtirar.

Faxriddin unga:

— Bunday ish ularning qo'llaridan kelmaydi,— deb xayrlashib ketdi.

* * *

Amir nonushtadan so'ng shirakayf edi. U Sabo xonimni qabul qilish, Faxriddinga yuboriladigan maktubni yozib, Sabo xonimga topshiriq berish uchun raqqosalarni tezda chiqarib yubordi.

Sabo xonim kechki payt xoja Mufid orqali Amirning xonasiga taklif qilindi. U yangi tiktirgan liboslarini: yonlariga inju, zumrad toshlar qadalgan ko'ylagini va olmos jig'a taqilgan qizil do'ppisini kiydi. Yoqut, zabarjadlar qadalib yasalgan soch to'g'nag'ichlarini taqdi, dur-marvaridlarini bo'yniga osib, oq nozik to'piqlari ustiga zumrad qadalgan oyoq ziynatlarini bog'lab, viqor bilan Amirning xonasiga kirib bordi. Chilchiroq shamdonning shu'lasi Sabo xonimning libosidagi qimmatbaho toshlarga tushganida, xuddi Amir qarshisida bahor osmonining rang-barang kamalagidek tovlanib bir kelinchak turardi.

Amir hech qachon Sabo xonimni bunday latofatda ko'rmagan edi. U o'rnidan turib Sabo xonimni quchoqlab o'pdi-da, dedi:

— Naqadar go'zalsan! Sendan ilhom olgan qalbning she'r manbai bo'lmasligi mumkinmi?

Sabo xonim Amirning quchog'ida nozlanarkan:

— Shunday, podshohim, shunday, mening borlig'imning hokimi, shunday, — dedi. — Keksa shoir Abulullo meni bekorga yigirma ming dirham tillaga olmagan edi-da. U doimo biror she'rning mavzuyi ustida ishlar ekan, meni yoniga chaqirib o'tqazar, menga tikilganicha o'ylar, keyin yozar edi. U meni yangi sotib olgan kun-

larining birida yozgan she'rining mazmuni xotirimda. Naqadar go'zal she'r yozgan edi u. Shunday degandi: "Sabo, sen shuni bilginki, men seni ko'zlarimga ko'z qarog'idek yashiraman. Seni nomahramlarga ko'rsatmayman. Seni ko'z yoshlarim bilan ulg'aytiraman. Sening mavzun qomating sarvga o'xshasa ham, gullar va chechaklar bilan bezanadi.

Lekin qo'rqamanki, bir kun ko'z yoshlari yanglig' ko'zlarimdan chiqib ketasan".

Amir bu so'zlarni eshitgach, Sabo xonimni quchoqlab:

— Sen uning ko'z qorachig'idan qochib chiqib mening quchog'imga tushding. Endi men seni asrayman. Qarib qolgan shoir sening qadr-qimmatingni bilmas edi,— dedi.

Sabo xonimning Faxriddin bilan uchrashuviga biroz vaqt qolgan edi. Shuning uchun ham xoja Mufid dastsho'ydagi suvni to'kib kelish uchun xonaga kirganida, Amir unga:

— Dahlizdagilar dastsho'yni ko'rishmasin. Uni pardaning orqasiga yashirib qo'ygin-da, borib To'xtamishni chaqir, — dedi.

Xoja Mufid ketganidan so'ng Sabo xonim ham o'rnidan qo'zg'alib sochlarini va ust-boshlarini tuzata boshladi, zeb-u ziynatlarini taqish bilan shug'ullandi. Lekin Amir mast bo'lganidan Sabo xonimning kiyinib olishiga to'sqinlik qilardi. Yarim soatchadan beri To'xtamish eshik orqasida turib kirishga ruxsat kutmoqda edi. Nihoyat, xoja Mufid ichkariga kirib To'xtamishni eshik orqasida kutib turganini aytganida, Amir Sabo xonimning dudoqlarini bo'shatdi.

To'xtamish ichkari kirib Sabo xonimga topshiriq bera boshladi.

— Sening aqlli qiz ekanligingga ishonaman. Har qachon senga topshirilgan vazifani biz xohlagandek ijro etishingga shubham yo'q. Lekin meni ikki narsa cho'chitadi, ulardan birinchisi, go'zalliging, ikkinchisi esa, ilgari uni sevganligingdir.

Sabo xonim To'xtamishning bu fikrini rad etib javob berdi:

— Yana boshqa ikki jihatni nazarga olganda, janob vazirning cho'chimasliklari kerak. Bularning bittasi, Faxriddindan o'ch olish istagi, ikkinchisi esa, Amir hazratlarining iltifotlariga musharraf bo'lishdir. Men hech vaqt bu sharafni oddiy bir shaxsning sevgisiga alishtirmayman.

To‘xtamish bosh silkib kulib dedi:

— Biz siz xotinlarni juda yaxshi bilamiz. Xotin kishining badaniga erkakning qo‘li, xususan, yosh yigitning qo‘li tekkudek bo‘lsa, u hamma narsani unutadi.

— Bu xizmatni Amirim meni sharafga sazovor etganlari uchun qilaman, so‘zimga sodiqman. Amir hazratlarining boshlariga ont ichaman. Ko‘p xotinlarni uchratganga o‘xshaysiz, lekin Sabo xonim siz uchrashgan xotinlarning hammasidan farq qiladi. Siz Faxriddinni Amir hazratlarining oyoqlari ostida ko‘rasiz, uni Amir hazratlarining qullari qamchilay boshlaganlarida men bir chekkada turib tomosha qilaman va orzularim ushalgani uchun shodlanaman.

Sabo xonim Amirning va xalifaning muqaddas nomiga ont ichganidan keyin To‘xtamish xotirjam bo‘ldi, Faxriddinga mana shu mazmunda maktub yozishdi:

“Muhtaram Faxriddin!

Xonadoningizning najibligi, o‘zingizning aslzoda va qahramon bo‘lishingiz sizni ikkinchi bir sharafga muyassar qiladi. Bundan bir oy muqaddam sizga yozgan maktubimizda bergan va’damizning muddati tugadi. Shunga binoan, nikoh masalasini kengashib olish uchun saroyga kelishingiz lozim. Otabek hazratlari Ganjaga tashrif buyurmaslaridan burun to‘y masalasini bartaraf qilishimiz kerak, chunki Otabek hazratlari Ganjaga qadam ranjida qilganlaridan keyin boshqa ishlar bilan band bo‘lib qolamiz. Maktubni sizga Sabo xonim topshiradi, unga ishonishingiz mumkin.

Amir Inonj”.

Maktubni muhrladilar. Amir imzosining ostiga muhr bosdi. Sabo xonim maktubni olib Amirning xonasidan chiqdi. Hech kimga bildirmaslik uchun bog‘ning eshigidan soy bo‘yiga tushdi. To‘xtamish ta’kidlaganidek, Amir ishonchli xizmatkorlaridan to‘rt kishini huzuriga chaqirdi-da, topshiriq berdi:

— Bog‘ning eshigiga yaqin joyda yashirinib turishingiz kerak. Bu kecha Sabo xonim bilan birga yoki Sabo xonimsiz bir kishi saroyga kelishi kerak. Bog‘ning eshigida turgan qorovul uni bog‘ga kiritadi, siz unga ko‘rinmasligingiz kerak, faqat dahlizga kirgan paytida chaqqonlik bilan boshiga sholcha tashlaysiz va darhol zindonga olib borasiz. Ovoz chiqarishiga yo‘l qo‘ymang,

saroydagilarning xabardor bo'lib qolishidan ehtiyot bo'ling. Sholchani boshidan olmasdan burun uni qurolsizlantiringlar. Men uni kaltaklatgani kelgan vaqtimda qo'llarini bog'lab qo'yinglar. U xavfli va zo'r odam. Shuning uchun ham zindonga olib kirgach, yaxshilab uringlar, chunki uni chalajon qilinmasa, yoniga hech kimsani yo'latmaydi. Endi boring, bog'chada turinglar! Ehtiyotsizlik qilsalaringiz boshingiz bilan javob berasiz.

Xizmatkorlar ketishdi. Amir bu tarixiy kechaning sharafiga ziyofat hozirligi ko'rilsin, deb farmon berdi: keksa vazir ham Amirning bu fikrini quvvatladi. Soqiylar, raqqosalar, go'zal kanizaklar, qaddi-qomati kelishgan yosh qullar ishga tushdilar. Ziyofat kechasi soat ikkiga qadar davom etdi Lekin Sabo xonim bilan Faxriddindan o'sha vaqtgacha ham biror darak bo'lmadi. Bu hol Amir va To'xtamishni bezovta qildi. Amir sharob kosasini bo'shatib yerga qo'yarkan, To'xtamishga:

— Darvoqe, vazirning gaplari to'g'ri chiqqanga o'xshaydi, — dedi.

To'xtamish sharob icharkan, aft-basharasini burishtirib javob berdi:

— Olamdagi maxluqlarning hammasi aqli komil. Ular bir ishni qilaman desalar qiladilar, qilmayman desalar qilmaydilar. Bu xususiyat odamlarda, hayvonlarda, hatto, mayda hasharotlarda ham bor. Lekin bu xususiyat xotinlardagina yo'q. Xotinlarning ixtiyori qo'lida bo'lmaydi, ular erkaklarni, xususan, sevgan odamlarini ko'rganlarida o'zlariga xos har bir huquq va erklarini o'shalar qo'liga topshiradilar. U birinchi kecha sevganining quchog'iga shoshilgan kelindek yasanib Faxriddinning huzuriga bordi. Faxriddin esa yosh. Sabo xonim Dilshoddan qolishmaydi, ular go'zallikda bir-birlariga nechun tan bermas ekanlar?

To'xtamish o'ylardi. Amir esa qadahni qadahga ulashtirib ichar edi.

Intizorlik fursatlari kechasi soat uchga qadar davom etdi. Na Sabo xonimdan va na Faxriddindan darak bo'ldi. Bog'chadan eshitilgan har bir tovush Amir bilan To'xtamishning qulog'ida bayram mujdasidek jaranglar edi. Amir faqat Faxriddinning kelmayotgani haqida o'ylardi. Uning fikrida, Sabo xonimning kechikib qolishi

ham muhim bir o'rin olgan edi. U Sabo xonimning begona kishilarning qo'liga tushib, nomiga isnod keltirib qo'yishidan qo'rqardi. U o'z-o'ziga: "Dunyo go'zalini o'z qo'lim bilan yasantirib jo'natdim. Bu ahmoqlik, soddalik emasmi?" derdi.

To'xtamish ham xayolga cho'mgan holda ming'illab shunday derdi:

— Bizning soddaligimiz shundaki, shunday muhim bir ishni oddiy kanizakka topshirdik. Osmondagi yulduzlarning hisobini bilish naqadar qiyin bo'lsa, xotinlarning xulqini o'rganish ham shu qadar mushkuldir. U bizni shu qadar intizorlikda bezovtalanayotganimizni tasavvur qila olarmikin? Uning uchun yosh yigit bilan o'tirib hingirlashish Amirdan ham, Amir baxsh etgan sharafdan ham qimmatlidir.

Amir To'xtamishga dalda berib dedi:

— Sen Sabo xonimga ishonishing kerak, u bekorga ont ichmas edi. Agar sening aytganlaring to'g'ri bo'lib chiqsa, men uni shu kechaning o'zidayoq sochlaridan ostiraman.

Soat uchga qadar To'xtamish Amirning fikriga qo'shila olmadi. To'xtamishning aytganlariga esa, Amir e'tiroz qildi, chunki Amir Sabo xonimning o'ziga nisbatan bo'lgan muhabbatiga hamma narsadan ko'proq ishonar edi.

Birdan dahlizda qadam tovushlari eshitildi. Amir va To'xtamish xursandchilikdan aqldan ozish darajasiga yetdilar. Birozdan so'ng xoja Mufid eshikni ochib kirib keldi, bosh egib dedi:

— Sabo xonim xizmatkorlar bilan birga keldi.

— Xizmatkorlar tura tursin, Sabo xonimning o'zini bu yoqqa kirit,— deb buyurdi Amir.

Amir ham, To'xtamish ham Sabo xonimning muvaffaqiyat bilan qaytishiga ishongan edilar. Lekin Sabo xonim ichkariga kirganidan so'ng Amir va To'xtamishning avzolari tamomila o'zgardi, chunki Sabo xonim faqat birgina lozim va ko'ylakda kirib keldi. U Amirni ko'rishi bilan dod solib yig'lab hushidan ketdi. Xoja Mufid suv keltirdi, yarim soatdan keyin Sabo xonim o'ziga kelib, tepasida To'xtamish bilan Amirning turganini ko'rarkan, yana hushidan ketdi. Nihoyat, tungi soat beshlar chamasida hushiga keltirdilar. Amir unga savol berdi:

— Nima gap o‘zi? Shu vaqtgacha qayerda eding?

Sabo xonim yig‘lab-siqtab gap boshlab, boshiga tushganlarni gapirib berdi:

— Men andak kechikdim. O‘zim ham Faxriddinning meni Muso tegirmonining yonidagi terakzorda shunchalik kutishiga ishonmasdim. Soy bo‘ylab jadallik bilan yuqoriga chiqdim. Tolzor juda qorong‘i edi. Hech kimni ko‘rib bo‘lmasdi. Bir necha daqiqa o‘sha yerda turdim. Hech kimsa ko‘rinmadi. Ilgari borish xavfli edi. Qo‘rqib orqaga qaytmoqchi bo‘ldim. Qaytdim, xarsanglarning orasidan soy labiga tushmoqchi edim. Tolzordan uncha uzoqlashmagandim. Lekin shuni ham aytmoqchiman, borgan yo‘limdan adashdim. Harqalay u yo‘l bilan soy labiga tushish mumkin edi. Suv ikkiga ayriladigan yerdagi yolg‘iz oyoq yo‘ldan o‘tgan vaqtimda “Tayyiba xonim keldilar” degan bir ovoz eshitdim. Bu ovozdan keyin meni bir qancha notanish odamlar o‘rab olishdi. Meni ko‘tarib oldilar-da, bir kishining oldida yerga tushirdilar. U kishi bo‘ynimdan quchoqlab o‘par ekan, so‘radi:

— Go‘zal Tayyibam, qayerda qolding? Bir soat oldin kelaman deb va’da bermabmiding?

Men qo‘rqib ketdim, a’zoyi badanim titradi, qo‘rqa-pisa ont ichib dedim:

— Men Tayyiba emasman, menga yaqinlashmanglar, men Sabo xonimman. Faxriddining sevgilisiman. U bilan uchrashgani keluvdim. Ulardan biri:

— Unday bo‘lsa xush kelib, safo keltiribsiz. Bugun kechasi Faxriddinning hurmati uchun bizga mehmon bo‘lasiz,— derkan, qo‘lini cho‘zib boshimdan choyshabni oldi. Ular qimmatbaho narsalarimni ko‘risharkan, ustimga qumursqadek yopirilishdi. Yosh bolalar gul uzganday bir-birlariga navbat bermay ziynatlarimni yulqib olishardi. Javohirlarni olganlaridan keyin men yana ularga yig‘lab yolvordim, Lekin qo‘yib yubormadilar. Kechasi soat ikkiga qadar yonlarida tutdilar. Hamma kiyim-kechaklarimni yechib olganlaridan keyin qo‘yib yuborishdi.

Amir darg‘azab bo‘lib dedi.

— Olchoq cho‘ri, seni sochlaringdan ostiraman,— derkan, Sabo xonim yig‘ladi, ro‘molini otib tashlab, boshini ko‘rsatdi.

— Amir hazratlarining xizmatlarida hatto, sochlarimni ham qurbon qildim. Sochlarimni bezagan zumrad, marvaridlarni qorong'ida yechib olishga ulgurolmaganlaridan keyin sochim bilan birga qirqib oldilar, keta turib: "Bor, Faxriddinga aytginki, agar qahramon bo'lsa, nomusing uchun kelib bizdan o'ch olsin", dedilar.

Amir yana savol berdi:

— Olib borgan maktubing qani?

— Maktubni ham, hatto, Amir hazratlarining Nizomiyni zaharlash uchun bergan zaharni ham topib olishdi.

Amir o'rnidan turib Sabo xonimning quloq-chakkasiga bir shapaloq tushirdi:

— Xo'sh, mening obro'yim-chi?

Sabo xonim bu so'zga javob berolmadi, chunki u besh soat mutlaqo noma'lum kishilar orasida tunagan edi.

Nihoyat, To'xtamish masalaga aralashib dedi:

— Agar bu jinoyatning ijrochilari Faxriddin tomonidan tayinlangan odamlar bo'lsa edi, u vaqt bunday hodisadan qo'rqishimiz lozim bo'lardi. Agar Sabo xonim ularni tamomila begona va Faxriddinga dushman odamlar ekanligiga ishona olsa, unda hech qanday xavf yo'q: talangan qimmatbaho narsalar Amirning xazinasida mo'l-ko'l, bir oy mobaynida soch ham o'sib asl holiga qaytadi. Vaqtincha ulama taqib ham yurish mumkin. Nomus masalasiga kelsak, bu ham kulgili bir ish, chunki ular Sabo xonimga siz baxsh etgan nomusga emas, balki Faxriddinning nomusiga dog' tushirdilar. Bordi-yu, ular Sabo xonimni Amirning hurmatiga sazovor ekanligini sezsalar, bu jinoyatni qilmagan bo'lardilar.

Amir jahlidan tushdi. Vazirning so'zlari unga tasalli berdi. Xoja Mufidni chaqirib dedi:

— Sabo xonimning kiyimlarini keltir, uning qanday xohishi bo'lsa hech kimga bildirmay bajargin.

Xoja Mufid chiqib ketdi. To'xtamish Sabo xonimning iztirobini bostirish uchun dedi:

— Hayotda bunday hodisalar ko'plab bo'lishi mumkin. Lekin inson hech qachon o'z matonatini yo'qotmasligi kerak. Sen ertadan boshlab Faxriddinni ko'rish uchun harakat qilasan. Uning nima uchun kutmaganligini bilishing kerak. Agar bu jinoyat uning

o‘zi tomonidan sodir bo‘lmagan bo‘lsa, uni saroyga olib kelishga harakat qil. Nizomiy masalasiga kelganda, gadoylaringni qo‘ldan chiqarma. Zaharni olib qo‘yishgan bo‘lsa, qo‘ya ber, olishaversin. Amir hazratlarida zahar ko‘p. Shu kunlarda Nizomiy oilasi ishini saranjom qilishing kerak. Uning o‘zi ham, Ra’nosi ham, uning himoyasida yashayotgan shoira Mahsatiy xonim ham shu yaqin kunda yo‘qotilishi kerak.

Sabo xonim suyunganidan yig‘lab yuborib:

— Butun borlig‘im bilan bu vazifalarni bajo keltiraman, — dedi.

HIYLA

Otabek Muhammadni kutish marosimi juda katta tantanaga aylandi, Otabekni ko‘rish, unga arzi hol qilish, hatto, ariza tutgan qo‘llarni yuqori ko‘tarib ko‘rsatishga ham ilój bo‘lmadi. Qorabog‘dan Ganjaga qadar yo‘l bo‘ylab tizilib turib yangi hukmdorni ziyorat qilish orzusida bo‘lgan minglarcha aholi Otabek o‘tib ketmasidan o‘z uylariga, o‘z qishloqlariga qaytishga majbur bo‘ldilar, chunki Qorabog‘dan Ganjagacha bo‘lgan yo‘l yoqasidagi dehqonlarning bir qanchasi hibsga olingan edi.

“Otabekka suiqasd qilish uchun yashirin bir jamiyat bor emish” deb hamma yoqqa ovoza tarqatilgandi. Bu ovoza natijasida “yashirin jamiyatning a’zosi” deya yuzlarcha odamlarni hibsga olinishi butun Oron xalqini vahimaga solgan edi.

Pisaron, Bozorchiq, Barda, Xursanak, Isfahon va Xonaqoh tomonlarda yashagan xalqning hammasi eshikdan bosh chiqarmay, Otabekning kelishini kutar, ta’qib ostida qolishdan qo‘rqib tashqariga chiqolmas edi.

Bir vaqtlar Amirning ustidan shikoyat qilib ariza bermoqchi bo‘lganlar, endi qo‘rqqanlaridan berkinib olib arizalarini kuydirib tashlagan edilar.

Amir bu muvaffaqiyatga qaramay, yanada kengroq ko‘lamda ehtiyot choralarini ko‘rgan edi. U Otabekning keladigan yo‘llarini qurollangan qo‘shinning po‘lat devoriga aylantirgandi.

Otabek shaharga kirib kelar ekan, yo'lda birorta ham inson qorasini uchratolmagach, taajjublanib, Amirning vaziri To'xtamishga savol berdi:

— O'tib kelayotganimiz shunday obod yerlarda hech kim yashamaydimi? Men Qorabog'dan Ganjaga qadar bosgan o'ttiz to'rt chaqirim yo'limizda birorta ham odam qorasini ko'rmadim. Ajabo, buning sababi nima?

To'xtamish keksalikdan egilgan boshini yanada quyiroq egib:

— Shunday, a'lo hazrat, shunday,— dedi,— lekin ularni yo'l ustida ko'rinmaganidan kamina navkaringizning ko'ngli qisman xotirjam bo'ldi. Chunki bir necha kun bundan muqaddam a'lo hazrat hayotiga suiqasd qilmoqchi bo'lgan bir yashirni jamiyat fosh qilnidi. Ollohi taologa hazor bor shukurlar bo'lsinki, Amir hazratlarining ziyrakligi natijasida a'lo hazratni dushmanlarning suiqasdidan saqlab qoldik.

To'xtamishning bu so'zlari Otabek Muhammadni hamma narsadan ham ko'proq o'ylantirib qo'ydi, chunki birodari Qizil Arslon ozarbayjon xalqining otabeklarga ehtirom saqlashi haqida bir necha martaba unga yozgan edi.

To'xtamish Otabekning fikr daryosiga g'arq bo'lganligini sezarkan, uning ozarbayjon xalqiga nisbatan bo'lgan shubhalarini yanada chuqurlashtirishni mo'ljallab dedi:

— Isyonkor qishloqlarning hammasiga jazo askarlari o'rnatilgan. Buni Otabek hazratlarining muborak xotiralariga yetkazish uchun emas, a'lo hazratni o'z mamlakati vaziyatidan xabardor qilish uchun ham arz etmoqdaman. Otabek hazratlari Oron mamlakatiga qadam ranjida qilgan kuni katta isyon boshlanishi kerak edi. Amir janoblari jadallik bilan bu hodisaning oldini oldilar. Bularning hammasi Amir janoblarining yangi xonadonga bo'lgan samimiyat va sadoqati mahsulidir.

Otabek fikrga cho'mgan bo'lsa ham, To'xtamishning ozarbayjonliklar haqida bergan ma'lumotiga ishona olmasdi.

Otabekning a'yonlari Ganja shahriga kirib kelgan zahoti Otabek taxtiravonni to'xtatib ot so'radi. Amir bosh egib dedi:

— A'lo hazratning amrlari navkarlari uchun qonundir. Biroq a'lo hazratning otda shaharga kirib borishlari xatarli.

Otabek bu fikrga qo'shilmay:

— Ot keltiring! — dedi.

Darhol ot keltirdilar. Otabek taxtiravondan tushib otga mindi. U Ganjani ko'rmagandi. Shaharni ko'rishga ishtiyoqi baland edi. Lekin Otabek qayerga qaramasin, Iroq otliqlaridan boshqa hech kimni ko'rmas edi. Faqat saroyga yaqinlashganida kutib olish uchun chiqqan bir guruh maxsus kishilarni ko'rdi. Bular mulkdorlar, ruhoniylar, hukumat ma'murlari va boshqalardan iborat edi. Otabek a'yonlarining orqa-o'ngida ikki mingga yaqin fors otliqlari kelmoqda edi. Otabeklar turk mamlakatlariga safarga chiqqanlarida doimo forslarni olib yurar, fors mamlakatlariga safar qilganlarida esa, muhofiza qo'shinlarini turklardan tuzardilar.

Amir va uning vaziri shunday tadbir ko'rgan edilar. Otabekning shubhalanmasligi uchun unga ariza beruvchilar yaqin ko'chalarda turib qo'llarini yuqori ko'tarar, arizalarini ko'rsatardilar, Otabekning odamlari arizalarni yig'ib sandiqchaga solishar edi.

Otabekka berilgan arizalarning mazmuni Amirning adolati, uning mamlakat aholisiga ko'rsatgan muruvvati, isyonchilarni yo'qotib mamlakatda osoyishtalik barpo etish va Amirni Oron hukumati boshida saqlab qolish orzularidan iborat edi.

Arizalarning aksariyatini Ozarbayjonda katta qishloqlarga va viloyatlarga ega bo'lgan arab, forslarning turklarga qarshi yozgan shikoyatnomalari tashkil qilardi. Faxriddin va boshqalar qanchalik urinmasinlar oldinga o'tib birgina bo'lsa ham ariza topshirish imkoniga ega bo'lolmadilar.

Otabek shunday vaziyatda saroy darvozasiga yetib keldi va otdan tushib saroyga kirdi.

U uch kungacha hech kimni qabul qilmadi. Ertadan kechgacha tushgan arizalarni o'qitib mamlakatning vaziyatini o'rganishni istadi. Lekin hamma arizalarda Amirning adolatidan, ulug'ligidan boshqa hech qanday ma'lumot berilmagan edi.

Oqshomlar esa Otabek Amirning ziyofatida, aysh-ishratda, soqiylar, xonandalar, sozandalar, raqqosalar, go'zal kanizaklar, nadimlar, askiyabozlar va masxarabozlar bilan vaqtini xushlar edi.

Otabek na Ganja a'yonlarini va na qo'shni davlatlardan kelgan vakillarni qabul qildi. U eng avval vaziyatni puxta o'rganib, so'ngra

xalq namoyandalarini va qo'shni mamlakatlardan kelgan vakillarni qabul qilmoqchi edi. Lekin bu mumkin emasdi, chunki Amir uni saroy ichida saqlab, darvozalarni berkitib, tashqi muhitdan ajratib qo'ygan edi.

TASODIF

Sira ruhdan tushma, bu hodisani mag'lubiyat deb bo'lmaydi, chunki kurash hali tugagani yo'q. So'nggi g'alaba kimga nasib bo'lishi hali ma'lum emas. Ikki jang qiluvchi kuch g'alabani galma-gal qo'lga kirita oladi. Lekin jang oxirida kim g'olib chiqib, g'alabani saqlab qola olsa, ana o'sha haqiqiy g'olibdir. Amir esa, qo'lga kiritgan g'alabasini hozircha mustahkamlay olmadi. Mening fikrimcha, uning g'alabasi oqibat natijada o'zining fosh etilib, mag'lubiyatga uchrashi bilan yakunlanadi.

Nizomiy Faxriddinga shunday derdi. Lekin Faxriddin qaytadan g'alabani qo'lga kiritishiga ishona olmas edi. Otabek mamlakatning ahvolini o'rganmasdan, xalqning hayoti bilan tanishmasdan Orondan jo'nab ketsa kerak, deb o'ylardi. Shuning uchun ham u o'z shubhalarini Nizomiyga aytmoqchi bo'ldi.

— Endi Amir bizdan juda osonlikcha o'ch olishi mumkin. Modomiki, Otabek uch kundan buyon hech kimni qabul qilmagan, xalq vakillarini chaqirtirmagan ekan, demak, biz bundan yaxshi natija kutolmaymiz.

— Sen xalqning qo'lida qolgan arizalarni yig'ib olib saqla, qo'rqqanlaridan yoqib tashlangan arizalarni esa qaytadan yozdirishga harakat qil. Shubhasiz, Otabekka berilgan arizalarning hammasi bizga qarshi bo'lmasa-da, Amirning foydasiga yozilgan bo'ladi. Otabek, albatta, meni o'z huzuriga chaqiradi. Men senga so'z beraman, menga ishon, qo'lingga yig'ilgan arizalarni Otabekning shaxsan o'z qo'liga topshiraman. Amir meni hech narsa qilolmaydi, meni yo'qotish qo'lidan kelsa edi, Otabekning bu yerga kelishini kutib o'tirmasdi. Bugun bo'lmasa ertaga men Amir bilan yuzma-yuz to'qnashishga majburman. Hozir juda ham qulay fursat. Uning jinoyatlarini yuziga solmoq kerak. Sen menga ishon. Ota-

bekning Amirga nisbagan bo'lgan ijobiy fikrlarini tamomila fosh qilaman. Lekin faqat bir narsadan qo'rqaman.

Nizomiy gapini tugatib jim qoldi. Faxriddin uning keyingi jumlasidan shubhalanib so'radi:

— Seni qo'rqitadigan narsalarni menga aytolmaysanmi?

Nizomiy Faxriddinning bu savolidan so'ng o'rnidan turdi, uyda u yoqdan-bu yoqqa yurib dedi:

— Dushmanimizning har qanday olchoqliklarga bora olishi kurashimizni mushkullashtiradi. Asrimizda bunday odamlar juda ko'p: ular xoin, layoqatsiz, noshud bo'lganlari sababli yuksak martabalarga ko'tarilish uchun olchoq vositalardangina foydalanadilar. Bizga qarshi kurashayotgan Amir ham xuddi shu qabila odamlardan. U bugun To'xtamishning tadbirlari natijasida yoqasini shikoyatchilar qo'lidan qutqardi, lekin bu vaqtincha qozonilgan g'alaba. Uni Ozarbayjonda poydor yashashiga yordam beradigan hech qanday kuch yo'q. Uni bu yerda saqlab turgan bir vosita bor, u ham bo'lsa, yosh va go'zal qizi Qatibadir.

Faxriddin bunga e'tiroz bildirib dedi:

— Bo'lishi mumkin emas. Qiz juda yosh, Otabek esa yoshi qaytib qolgan kishi.

— Sen tarixni unutma. Qoimbiamrilloh o'zining o'n uch yoshli qizi Saidani oltmish besh yoshli To'g'rulga qanday maqsadda bergan bo'lsa, bizning Amirimiz ham yigirma ikki yoshli go'zal qizi Qatibani oltmish yoshga kirgan Otabek Muhammadga xuddi shu maqsad bilan bera oladi. Endi gapimga tushundingmi? Meni qo'rqitadigan jihat ana shundan iborat. Hozir biz, olchoqlik va sharmandaliklar haqiqat ustidan ustun turgan bir davrda yashamoqdamiz. Nima qila olasan? Qanday bo'lmasin, biz bunday behayolik va tubanliklarga qarshi haqiqatni bayroq qilib chiqa olamiz. Bugun mag'lub bo'lsak ham, kelajakda g'olib chiqamiz. Senga nasihatim shuki, hech qachon "boravering, qo'rqmang, orqangizdan bormoqdamiz" deganlarga ishonma. Bundaylar biror mushkulot duch kelganda yo orqasiga qarab qochadi, yoinki dushmanga sotilib, seni orqadan otadi. Bunday jinoyatlarni faqat yuqori tabaqadagilardangina kutish mumkin. Pastki tabaqani tekinxo'rlarga qarshi olib borilayotgan kurashlarning oldingi safida

ko'rasan. Ular o'z huquqlari va o'z rahbarlarining yo'lida jon fido qilishdan tap tortmaydilar, chunki ular yashayotgan hayotda har kun bir necha bor o'lib, bir necha bor tiriladilar. Ular uchun o'lim unchalik qo'rqinchli bo'lib ko'rinmaydi.

Faxriddin Nizomiyning qo'lini siqar ekan:

— Shunday, buyuk shoir! — dedi.— Lekin biz suyangan yo'qsillar ham o'zlarining avomligi natijasida tekinxo'rlarga tez-tez aldanib turadilar. Amir esa, har kuni menga qarshi yangidan yangi mojarolar tayyorlab turadi, Sabodek bir axloqsizni mening payimni qirqish uchun qo'ygan.

Nizomiy hayrat bilan qoshlarini chimirib so'radi:

— Saboning harakatlarini sen oddiy mojaro deb tushunasanmi?

— U meni saroyga olib bormoqchi bo'lgani xatarli bir hodisa emasmi?

— Taajjub, u seni saroyga da'vat etdi, sen esa bosh tortding. Bunda qanday hodisa yuz berishi mumkin?

— Katta hodisa yuz berdi. O'sha kecha men u bilan uchrashishga bormadim. U bilan uchrashish uchun bir necha odam yubordim. Ular Sabo xonimni yechintirib, qimmatbaho narsalarini olishib, o'zini tahqirlab, hatto, sochini ham qirqib kelishgan.

— Sen qaysi aqling bilan bu ishni qilding? Xotin kishini tahqirlash, xotin kishining sochini qirqib olish yarashadigan ishmi? Buni o'zini qahramon deb yurgan odamning vijdoni qanday qabul qiladi? Faxriddin, jahling chiqmasin, ko'rib turibmanki, biz yoshlik va o'spirinlik davrimizning mumtoz-xotiralariga qaramay, do'stlikdan kechib ketishga majbur bo'laman. Men xotin kishiga nisbatan qilingan bu xildagi rahmsizlik bilan kelisha olmayman.

Faxriddin har safargidek jim turolmadi, dadil javob berdi:

— Senga bir savol beraman: u behayoning meni aldab saroyga olib borishdan maqsadi nima edi? U ziyofatga olib borarmidi? Ajabo, saroyga kirishim bilan o'ldirilmasmidim? Xo'sh, qani, ayt-chi, jonimga qasd qilgan bir xoinga qanday jazo beray? Uni o'ldirishim kerak edi, lekin sochini qirqish bilan bu safarcha uni ogohlantirdim, xolos.

— Gaping to'g'ri. U yerda seni o'ldirishardi, bormay juda aqlli ish qilding. Lekin sen Sabo xonimning Amirdan keltirgan maktu-

bini olgach, unga dashnom berib: "Men sening bu qilgan xoinona ishing uchun o'ldirishim kerak edi-yu, lekin o'ldirmadim, bu qilmishing seni umrbod baxti qaro bo'lib qolishingga sabab bo'ladi", deyishing lozim edi. Menimcha, shunda Sabo xonim sen tomondan qilingan oliyjanoblik qarshisida pushaymon bo'lar va hech qachon bunday xiyonatga jur'at qilolmasdi.

— Yo'q, u odamgarchiligini yo'qotgan. Endi hech qanday nasihat, hech qanaqa jazo uni to'g'ri yo'lga sola olmaydi. Shaxsan menga qarshi adovatining sababi ma'lum. Amir ham shundan foydalanib unga bu vazifalarni topshirmoqda. U esa, Amirning topshiriqlarini bajarishga majbur. Shunday bo'lganidan so'ng men o'zimni himoya qilishga, dushmanning ko'zini moshday ochib qo'yishga haqqim yo'qmi?

Nizomiy ortiq gapirmadi. Sabo xonimni bu xildagi tahqirlanishi uning achchig'ini qistatgan edi. Faxriddin esa parishonlik bilan derazadan hovliga qarardi. U qattiq xijolatga tushib iztirob chekardi. Qilib qo'ygan xatosi natijasida Nizomiydek samimiy do'stidan ajralib qolishdan qo'rqardi.

Lekin Faxriddinga tasalli beradigan bir jihat ham bor edi, u ham bo'lsa, Nizomiy arazlashni va kek saqlashni bilmaydigan odam edi. U bir necha marta Faxriddinga jahl qilgan, bir-ikki kun u bilan gaplashmagan bo'lsa ham, lekin yana o'zi chaqirib kelib yarashgan edi. Ammo uning bu keyingi xatosi Nizomiyni juda qattiq g'azablantirdi. U soch qirqish masalasini bir daqiqa ham esidan chiqara olmasdi. Tez-tez uyning u boshidan-bu boshiga yurib, derdi:

— Bema'nilikni qarang-a, xotin kishini tahqir etishning o'zi kamlik qilgandan, buning ustiga-ustak uning sochlarini ham qirqib olish kerak ekan.

Faxriddin churq etib og'iz ochmas, hovliga qarab o'ylar edi.

Shu vaqt hovliga bir tilanchi xotin kirdi. Hovlida hech kim yo'q edi. Xotin o'choq boshiga tomon yurdi, u yoq-bu yoqqa qaraganidan keyin qo'ynidan allanima chiqardi-da, shosha-pisha uni qaynab turgan qozonga soldi.

Tilanchi xotin qaytib ketmoqchi bo'lganida, Faxriddin telbalardek o'rnidan sakrab turib:

— To‘xta, haromzoda! — deb baqirdi-da, hovliga tashlanib, tilanchi xotinning qo‘lidan tutib uyga sudradi.

U tilanchi xotin qo‘rqqanidan dir-dir titrardi. Faxriddin uni yerga yotqizib, xanjarini sug‘urdi:

— Qani, ayt, qozonga nima solding?

Tilanchi xotin yolvora boshladi:

— Rahm qil! O‘ldirma, bu ishni o‘z ixtiyorim bilan qilganim yo‘q.

Faxriddin g‘azab bilan takrorlar edi:

— Ayt, ayt, qozonga nima solding?

Nizomiy tilanchi xotin bilan Faxriddinning so‘zlaridan hayron bo‘lib qolgan edi. U masala nimada ekani, nima to‘g‘rida bahs borayotganidan bexabar edi. U Faxriddinga qarab baqirdi:

— Bu nima degan gap? Mening uyimda sho‘rlik tilanchi xotinni nega xafa qilyapsan?

Faxriddin unga javob bermasdan tilanchiga o‘shqirdi:

— To‘g‘risini aytmasang, hech qanday yolvorishingga quloq solmay, o‘ldiraman qo‘yaman.

Tilanchi bu safar Nizomiyga yolvora boshladi:

— Meni o‘ldirmasin, bor gapni ipidan-ignasigacha aytib beraman. Xudoyo xudovando o‘sha qiz xonavayron bo‘lsin, bu tashvishlarning menga nima keragi bor edi?

Nizomiy so‘radi:

— Qaysi qizni aytyapsan?

— Otini bilmayman. Lekin o‘zini taniyman. Abulullonning uyida turgan vaqtida menga juda katta ehsonlar bergandi. Hozir ham omadi yurishgan. Har juma oqshomi qabristonda menga duch kelganida bir hovuch pul berarkan, hol-ahvolimni so‘rar edi. Bugun u yana meni qabristonda uchratib bir hovuch pul berdi-da: “Senga bir ish topshirmoqchiman, agar o‘rniga qo‘ysang, tilanchilikdan xalos etaman”, dedi. Qanday ish topshirishini so‘radim: “Men bir siqim tuproqqa dam soldirdim, uni olib borib falonchining ovqatiga solasan”, dedi. Mening bor-yo‘q gunohim shu, vassalom.

Nizomiy Faxriddindan:

— Sen buning qozonga biror narsa tashlaganini ko‘rdingmi? — deb so‘radi.

— Ha, ko'rdim, qozonga tashlangan narsa dam solingan tuproq emas, balki sizlarni o'ldirish uchun tayyorlangan zahar. Hozir zaharmi, yo'qmi ekanini bilasan.

Faxriddin cho'ntagidan qog'ozga o'rog'liq zahar chiqarib tilanchi xotinga ochib ko'rsatdi:

— Qozonga tashlagan tuprog'ing shu tuproqdanmidi? Tilanchi xotin yig'lab, dedi:

— Ha, shu tuproqdan edi.

Faxriddin Nizomiyga o'girildi:

— Bu zahar Sabo xonimning cho'ntagidan olingan narsalarning orasida edi. U seni ham, Ra'noni ham, Mahsatiy xonimni ham o'ldirmoqchi edi. Endi aytgin-chi, men uni o'ldirmasdan xato qildimmi?

— Ha, bu uning shaxsiy tashabbusi. Uni hech bir kimsa bu ishga majbur etmagan.

QABUL MAROSIMI

Otabek Muhammadning Ganjaga kelganining uchinchi kuni jarchilar Ganja bozorlarida shu so'zlarni aytib qichqirar edilar:

"Har kuni erta bilan soat to'qqizdan tushga qadar a'lo hazrat Otabek Muhammad tomonidan tayinlangan hukumat ma'murlari aholidan tushadigan arizalarni qabul qiladi. Kimda ariza bo'lsa, shu bir hafta ichida olib borib topshirishi lozim. Berilgan arizalarni shaxsan Otabek hazratlarining o'zlari tekshiradilar".

Qabul marosimi erta soat to'qqizdan boshlangan edi, ayni zamonda Otabekning ma'murlari saroy darvozasidan biroz nariroqda kursi qo'yib o'tirishardi. Olib kelingan arizalarni og'zi muhrlangan qutichaning teshigiga tashlashardi.

Amirning katta mehmonxonasi yasatilgan edi. Otabek Muhammad bir necha kun davomida qo'shni davlatlardan — Shirvon, Gruziya, Abxaziya, Armanistondan kelgan vakillarni qabul qildi. Keltirilgan hadyalarni, gilamlar va go'zal otlarni oldi.

Ikkinchi kun Ganja xatibi, Ganja ruhoniylari Otabekning huzurida qabul qilindi. Shoirlardan faqat Abulullo bashang kiyinib, ya-

sanib-tusanib keldi-da, Otabekka bag'ishlab yozgan madhiyasini o'qidi.

Abulullonning madhiyasidan Otabek u qadar mamnun bo'lmadi, bir kalima bo'lsa ham gapirmadi va shoirga mukofot ham bermadi. Faqat majlisni ko'zdan kechirib, Amirga murojaat qildi:

— Ganjaning san'atkor shoiri Nizomiy qani? Uning she'rlari Xorazm shohlar, Shirvon shohlar, Qizil Arslonlar saroylarida o'qilgani holda, orasi ikki qadamgina bo'lgan Amirning saroyida eshitilmaydi. Men Tabrizda, Qizil Arslon saroyida mehmon bo'lgan kunim, u dasturxon ustida san'atkor shoirdan ikki misra o'qidi. Naqadar mazmunli, naqadar shirin edi.

Faqirman, baxtiyorman, o'ylamangkim qora baxtim bor,
Muhabbat mulkining sultoniman, o'z toj-u taxtim bor.

Xo'sh, sulton Sanjar xazinasining qimmatli javohirlarini yaratgan Mahsatiy xonim qani? Ozarbayjon mulkining Xayyomi qani? U ham bu yerda yo'q. Qizil Arslon Mahsatiy xonimdan bir necha ruboiy o'qiganidan so'ng men shunday bir fikrga keldimki, "Mahsatiyni o'qigan, Xayyomni: Xayyomni o'qiganlar esa, Mahsatiyni o'qigandek bo'lar ekanlar". Men Shimoliy Ozarbayjonga safar qilgan vaqtimda hammadan oldin Xoqoniy, Nizomiy va Mahsatiy xonim bilan ko'rishishga jazm qilgan edim. Negadir mening orzularimga qarshi o'laroq san'atkor shoirlarning birortasi ham majlisga da'vat etilmagan. Shoirlar bo'lmagan majlisda xalq ham bo'lmaydi. Bu yerdagilar esa, menimcha, doimo Amir saroyida vaqt o'tkazuvchilardir. Menimcha, Amir bu xatosini zudlik bilan to'g'rilashi lozim. Madaniyatni yaratgan, mamlakatning nuqsonlarini hammadan oldin xalqning orzu irodasini badiiy shakllarda ifoda qiladiganlar faqat shoirlardir.

Amir o'rnidan turib bosh egdi, so'zlashga ruxsat so'radi:

— Otabek hazratlarining aytganlari to'g'ri. Lekin she'r dunyosining tojdori Abulullo bo'lgan majlisda yosh Nizomiy va yosh Xoqoniy she'r o'qishga jur'at etolmaydilar. Mahsatiy xonim esa, ancha keksayib qolgan va qattik betob.

Otabek Amirning so'zini bo'lib, dedi:

— Siz o'ylamangki, mening vaqtim Fors, Iroq va Arabistonda bo'lgan janglarda band bo'lgani uchun Ozarbayjondan bexabar deb. Olgan ma'lumotlarimga qaraganda, keksa shoir Abulullo o'zidan keyin she'r olamiga yo'l ochgan yosh Nizomiyni va yosh Xoqoniyni ko'rolmas ekan. Shuning uchun ham men Amirning so'zini bir jihatdan ma'qullab, ha, Abulullo bo'lgan majlisga Xoqoniy ham, Nizomiy ham kelishni istamadi! — degan bo'lardim. Bunga aybdor kishilar yana shu viloyat hokimlaridir. Keksalar o'tmishlari, yoshlar kelajaklari uchun qadrlansalar, har kim o'z mehnatiga yarasha mukofot olsa edi, bugun minglarcha chaqirim yo'ldan Ganjani ziyorat qilgani kelgan Otabek o'z mamlakatidagi kelajagi porloq siymolarni shu majlisda ko'rish saodatidan mahrum qilinmasdi. Amir hazratlari o'ylamasinlarki, hukmdorlar faqat qilich bilangina shug'ullanadilar deb. Men Ashrafi Soniy Samarqandiy bilan ko'rishganimda, keksa faylasuf darhol mendan yosh Nizomiyni so'radi. Said Hasan Ashraf G'aznaviy juda keksayib qolgan shoir bo'lishiga qaramay, Nizomiy bilan Xoqoniylarga g'oyibona muxlisdir. Mening saroyimda oylab mehmon bo'lgan hakim Suzaniy Samarqandiy, Jamoliddin, Ablurazzoq Isfahoniy, hakim Muxtoriy, Shahobiddin Muhammad ibn Rashid G'aznaviy, Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Shoh Sanjon, Xoja Jalol Darakoniy va boshqalarning tilidan faqat Nizomiy va Xoqoninning zo'r iste'dodga molik bo'lgan san'atkor shoirlar ekanlari haqida maqtovlar eshitdim. Lekin Ozarbayjonda buning aksinigina ko'ryapman. Bu yerda madaniyatni qurish ishlarida qoloq va xato fikrlar hali ham davom etmoqda. Keksalar o'z xatolarini ko'rish va yosh kuchlarga o'rni bo'shatishni istamaydilar. Shaxsan men bir hukmdor sifatida o'z fikrimni aytyapman. Men hajvgo'ylarni ham, madhgo'ylarni ham yoqtirmayman.

Otabek Abulullogа qarab so'zini davom ettirdi:

— Bizning mamlakatimizda Ozarbayjon eng madaniyatli va ilg'or o'lkadir. Siz olimsiz, tarixni yaxshi bilasiz. Sharqqa, xususan, Eron kabi katta bir mamlakatga islomdan oldin ilm va madaniyatni tarqatgan shu yerlarda yashagan bobolarimiz bo'lgan. Shubhasizki, tarixda o'qiganingiz u yuksak madaniyatni o'lkangizga xorijdan keltirilmagan. Bu madaniyat, bu ilm-fan yurtimizda yashagan

olimlar va faylasuflar fikrida tug'ilgan qimmatbaho mahsuldir. Abul Abbos laqabi bilan mashhur faylasuf Ahmad ibn Muhammad ana shu elning farzandidir. U Abubakr Tohiriy va Abumuhammad Mo'rtaish kabi olimlarga ilm bergan Barda olimidir. Ozarbayjon xalqining tabiatidagi qahramonlik, ozarbayjon faylasufi Ahmad ibn Muhammadning yozgan falsafiy asarlarida aks ettirilgan. Uning qo'lida bo'lgan asarlardan sizga bir necha kalimasini yoddan o'qib bermoqchiman. U: "Jazolanishidan qo'rqib sukut saqlab yurgan odamdan kengash so'rama" va "Ko'zi ma'qul bo'lmagan odamni so'zi ham ma'qul bo'lmaydi", deydi. Lekin men keksa shoir Abululloning yosh shoirga, hatto, o'z kuyovi Xoqoniyga qarshi yozgan hajviyalarini ko'rganimda xafa bo'lib ketdim. Abululloning Abul abboslar yurtida yashashga noloyiq ekanini angladim. Sizning Xoqoniyga qarshi yozgan hajviyangizga o'xshash hajviyani Xoqoniy sizga qarshi yozgan bo'lsa, "hali yosh, xato qilgandir, kechirish mumkin", degan bo'lardik. Lekin keksa shoir o'z kuyoviga, o'z farzandiga qarshi shunday rasvo narsalar yozib yursa, bunga qanday baho berish mumkin? Menimcha, bundan shoir madaniyatli Ozarbayjonning shoiri bo'lish sharafiga munosib emas. Keksa shoir mendan ranjimasin. U menga bag'ishlab yozgan madhiyasini o'qiganida seskanib ketdim. O'zim-o'zimga dedimki: "Ajabo, kishini shu qadar ham kamsitish bo'larmikan? Chunki insonlarga xos bo'lmagan sifatlarni berib ta'rif qilish uni tahqir etish demakdir", Shoir shuni bilishi kerakki, madhiyalarni ahmoqlargina sevishi mumkin. Sen mening qilgan ishlarimni tasvir etsang, buni mamlakat uchun foydali yoki zararli bo'lishini qayd qilsang edi, she'ringga ijtimoiy baho berish mumkin bo'lar edi. Sen bilimdon shoirsan. O'zingga ochiq-oydindirki, xalifa nufuzi hukmdor bo'lgan o'lkalar ichida Ozarbayjon hammasidan ko'proq diqqatni jalb etadi. Bu o'lkada bo'lgan siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy hayot ham boshqa mamlakatlardan farq qiladi. Bu o'lkaning isyonchilari ham, qahramonlari ham boshqa o'lkalardagiga qaraganda madaniy, oqil va ishchanlar. Yurtimizning Bobagi, yanada ilgariroq o'tgan Ostiyoqi va Farhodi Sharq olamini titratgan tarixiy siymolardirlar. Ularning nasllarini hajviyalar va madhiyalar bilan tahqirlashni istagan shoirlar, menimcha, in'om olishga emas, balki

jazolanishga sazovor kishilardir. — Shundan keyin Otabek Amirga va xatibga o'girilib dedi: — Hozirgi kunda qo'l ostimda bo'lgan barcha o'lkalarni besh barmog'imdek bilaman. O'sha o'lkalarning birortasida Mahsatiy xonimdek olamshumul shuhratga ega bo'lgan ayolni uchratmadim. Lekin siz uni qanday taqdirladingiz? Uni axloqsiz, deb uyini toshbo'ron qildingiz, obro'sini to'kdingiz, oq sochlaridan uyalmay, yuziga tupurdingiz. Tarixiy madaniyatimizga yuvib bo'lmas bir dog' soldingiz. Men hukmronlik qilgan bir mamlakatda bu xil rasvogarchilikning ro'y berishi xonadonimiz tarixida dog' bo'lib qoladi.

Otabek Muhammad so'zini tugatdi. Amir yana o'rnidan turdi, ijozat olib gapirdi:

— Otabek hazratlari xalqning avomligini bilmaslar deyolmayman. Mahsatiyni qora xalq surgun qilgan edi, qora xalqning o'zi borib yana tantana bilan Ganjaga olib keldi.

Otabek Amirning so'zidan qanoatlanmadi, qat'iy amr berdi:

— Xatolarni tuzatish kerak. Mamlakat tepasida turgan odamlar har kimga o'ziga yarasha baho berishi kerak. Raqqoslik, xonandalik, rassomlik, naqqoshlik, shoirlik va boshqalarning hammasi bitta madaniyatning mahsulidir. Lekin shoir mehnatining qimmatini raqqosaga berish she'r madaniyati qarshisiga devor tiklash bo'ladi. Bunday hollarda yozuvchi va shoir kulgili bir ahvolda qolgani uchun o'z-o'ziga "yozuvchilikni, she'r yozishin tashlab raqqos bo'lsam edi, baxtliroq bo'lardim" deb o'ylagan bo'lar edi. Men kecha kechqurun Amirning raqqosalarining bo'ynidagi durjavohirlar, zebi gardonlarni ko'rganimda Nizomiy bilan Mahsatiy xonimning bir oriq sigir suti bilan kun kechirishlarini tasavvur qilib, tepa sochim tikka bo'lib ketdi. Tabiiydirki, Nizomiy va Mahsatiylar ehson uchun she'r yozadiganlardan emaslar. Lekin bizdan g'amxo'rlik talab qilinadi, madaniyat taraqqiyoti buni har bir hukmdordan talab qiladi. Shoirga berilgan qimmat uning och bo'lgani uchun emas, san'at-mahorati uchun beriladi. Amir janoblari shu soatning o'zidayoq odamlaringizni yuboring, Nizomiy va Mahsatiy xonimni o'z do'stlari va yaqinlari bilan birga bu yerga taklif etsinlar. Oliy tabiatli zotlarni ko'rish naqadar maroqli bo'lsa, ularning suhbatdoshlarini ko'rish ham shu qadar maroqlidir.

Shu so'zlardan keyin Otabek Shirvon shohi tomonidan yuborilgan vakillar boshlig'i Najmiddinga dedi:

— Mening samimiy salomlarimni Abulmuzaffar hazratlariga yetkazib aytginki, ikki mamlakat orasida bo'lgan samimiy do'stlik aloqasi tarixiy asoslar yuzasida yana ham rivojlanadi. Men Shimoliy Ozarbayjonga kelgan kunimdayoq ukam Qizil Arslon maxsus topshiriq bergan edi, u ham bo'lsa, Nizomiy, Xoqoniy va Mahsatiy xonimga samimiy salom yetkazishdan iborat edi. Shirvonga jo'nagan vaqtingizda Qizil Arslonning salomini yosh shoir Xoqoniyga yetkazing.

MUG'ON

Haftaning to'rtinchi kuni Otabek Muhammad Nizomiy bilan Mahsatiy xonimni va Ozarbayjonning boshqa haqiqiy namoyandalarini qabul qilishi kerak edi. Otabek berilgan arizalar bilan shug'ullangani uchun rasmiy qabul marosimi ikki soatga kechiktirilgandi. Bu haqda namoyandalarga xabar qilingan edi. Soat o'n birda Otabek qabulxonaga kirdi, to'plangan kishilarni ko'zdan kechirib salomlashdi va Amirga:

— Yer-suv masalasida shikoyat qiluvchilar bu yerda hozir bo'lmasalar, buyuring, hozir bo'lsinlar, — dedi.

— Hammasi shu yerda, a'lo hazrat, — dedi Amir, ikki bukilib ta'zim qilib.

Otabek so'zida davom qilib so'radi:

— Avvalgi berilgan arizalarning hammasi yer egalaridan edi. Menimcha, u yerlarda ishlovchilarning ham arzini eshitish kerak edi. Kecha tushgan arizalar orasida yer egalari tomonidan berilgan arizalarga javob bera oladigan hujjatlar bor. Lekin men bu bilan qanoatlanmayman, peshona terini to'qib ishlaydigan haqiqiy dehqonlarning arzini eshitish yanada foydaliroq bo'ladi.

Husomiddin qabulxonaga kirib, ta'zim qilib:

— Nizomiy va Mahsatiy xonim keldilar, — dedi.

Mehmonxonada bezovtalik boshlandi. Shoir Abulullo Ganja xatibi bilan yonma-yon o'tirgan edi. Ular mehmonxonada o'tirgan kishilarni ko'zdan kechirib, ularning qanday vaziyatda ekan-

liklarini kuzatishdi. Hammaning yuzida shodlik alomatlarini ko'rdilar. Yolg'iz Amirgina o'zlaridek g'amgin, norozi ko'rindi. Amir ham ularning vaziyatini sezib, yelkasi bilan ishora qildi. Bu ishora "nima qila olardik, majburmiz" degan ma'noni ifoda qilardi.

Xizmatkorlar mehmonxona eshigining shohi pardasini ko'tardilar. Ikki buyuk siymo ichkariga kirdi. Ularning biri yosh shoir Nizomiy, biri esa shoira Mahsatiy xonim edi. Birining soch-soqoli qop-qora, birisining sochlari esa yorib kelayotgan tong paytidagi shu'lalardek yarqirar edi. Otabek ularga boqarkan, ikki buyuk olam taxtim tomon ilgarilab kelyapti deb o'ylardi.

Mahsatiy xonim ham keksalik, hamda bemorlikdan juda ham zaiflanib qolgan edi. Uning bir qo'lidan Nizomiy, ikkinchi qo'lidan esa Faxriddin tutgan edi.

Otabek taxtda o'tirishni o'ziga ep bilmay, dik etib o'rnidan turgach, kim o'tirishga jur'at qila olardi?

Amir ham darhol o'rnidan turdi, qo'shni davlatlarning vakillari, Ganjaning ruhoniy va a'yonlari, hatto, Abulullo, Ganja xatibi ham oyoqqa turdilar. Otabek Nizomiy bilan Mahsatiy xonimning yanada yaqinroq kelib bosh egishlari yoxud salom berishlariga imkon bermay, darhol ilgari yurib avval Mahsatiy xonimning qo'lini o'pdi, so'ngra Nizomiyning qo'lini siqib ko'rishdi. Faxriddin tomonga o'girilib Nizomiydan so'radi:

— Bu janobni tanimayman.

Nizomiy javob berdi:

— Bu janob Oron aslzodalaridan, Oronda o'z qilichi bilan shuhrat qozongan Sultonli naslidan. Ismi Faxriddin. Oron xalqining vakili sifatida a'lo hazratga o'z sadoqatini izhor etmak uchun kelgan. Mening maktabdoshim va yoshlikdan sirdoshimdir.

Otabek Faxriddinning qo'lini siqib:

— Ziyoratnigizdan mamnun bo'ldim, — dedi, so'ngra Nizomiy va Mahsatiy tomon o'girilib ilova qildi:

— Meni kechiringlar! Ukam Qizil Arslonning salomini yetkazish uchun o'zim sizlarning huzuringizga bormoqchi edim. Lekin sizlarni bu tarixiy majlisda ko'rib ukamning salomini yetkazishni istadim. Qizil Arslon sizning osoyishtaligingizni ta'min etishni menga qayta-qayta tayinladi. U ikki san'atkorning bir sigir suti

bilan kun kechirayotganlarini taassuf bilan so‘zladi. Ayni zamonda hech kimdan mukofot va hadya qabul qilmaganingizni ham ilova qildi. Lekin haddim sig‘ib aytamanki, faqirlik va ehtiyoj shoirning ijodiy quvvatini zaiflashtirishi ham mumkin. O‘tirishlaringizni so‘rayman.

Otabek shu so‘zlarni aytganidan so‘ng Nizomiyni o‘ng yoniga, Mahsatiy xonimni esa so‘l yoniga o‘tkazdi.

Otabek Muhammad suhbat orasida Nizomiyga yuzlanib:

— Mek Hamadondan Shimoliy Ozarbayjon sayohatiga chiqqanimda, sizning yozgan she’ringizni o‘z og‘zingizdan eshitish ishtiyoqida edim. Bu kun shu orzuyimga erisha olarmikanman?— deb so‘radi.

— Umrim bino bo‘lib madhiya yozgan emasman. Sizning ham madhiyani yomon ko‘rishingizni bilaman. Ukangizning maktublaridan ham buni payqagan edim, — dedi Nizomiy.

— Men orzu qilardimki, siz bir she’ringizni menga o‘qib bersangiz.

— Qaysi she’rimni?

— “Faqirman, baxtiyorman” degan she’ringizni.

— Xo‘p bo‘ladi.

Nizomiy o‘rnidan turdi. Hamma vakillar quloq solib shoirning ovozini eshitish, uning san’atining ulug‘ligini ko‘rishni istardilar. Nihoyat, shoir she’r o‘qishga boshladi:

Faqirman, baxtiyorman, o‘ylamangkim qora baxtim bor,
Muhabbat mulkining sultoniman, o‘z toj-u taxtim bor.
Jahonning mol-u mulkidan yumibdurman ko‘zim yaksar,
Faqirman, bahr olar she’rim bog‘idan qancha Hotamlar.
Musaffo xotiram, daryo misol fikrimda bir rangman,
Erurman bahri bepoyon, muhitim-la hamohangman.
Na dardim! Bebaho gavhar erur har bayt, har fardim,
G‘azalxon bulbulam, har bog‘chadan yuz turli gul terdim.
Sulaymonlar kelib sarmoya olsin so‘z xazinamdan,
Falakdurman tushar bir kun quyosh olamga siynamdan.
Emas farzona lutf-ehson tama’ida egilgan bosh,
Erurman tog‘, bag‘rimda hisobsiz tojga ziynat tosh.

Dengizlar jo bo'lur siynamga, qo'rqmam sel-u to'fondan,
Faqirman, baxtiyorman, mag'lub o'lmas koinotdurman.

Nizomiy she'rni o'qib bo'lib o'tirdi. Otabek esa boshini qimirlatib o'ylanarkan:

— Faqirman, baxtiyorman, mag'lub o'lmas koinotdurman, — dedi-da, yana takrorladi. So'ngra Nizomiyning qo'lini siqdi va Mahsatiy xonimga qarab dedi:

— Endi o'lkaning faxri bo'lgan oliy maqom xonimning ovozlarini eshitishni istardim.

Mahsatiy xonim o'rnidan turib, majlis ahliga boqib, shu ruboiyni o'qidi:

Mo mardi mayem-u dar xarobat muqiym,
Na mardi sajjodayem-u, na mardi gilem.
Qozi naxo'rad may, ki az on dorad biym,
Durdiyi xarobat beh az moli yatim[1].

Mahsatiy xonim bu ruboiy bilan yetimlar haqini yeb, hozir ham Otabekning majlisida tasbeh o'girib o'tirgan Ganja qozisiga shama qilganidan so'ng, bir vaqtlarda o'zini Ganjadan surgun qildirgan xatibga o'girildi. Xatibning nihoyat darajada xijolat chekayotganini ko'rib, bu ruboiyni o'qidi:

Chun mov-u shumo muqobili yak digarem,
Beh z-on nabuvad, ki pardaye ham nadorem.
Ey xoja, tu aybi man mago', to man niz
Aybi tu nago'yam, ki yak az yak batarem[2].

Mahsatiy xonimning bu ruboiysidan Otabek Muhammad ham, qozi ham, xatibning o'zi ham kulib bir og'izdan ofarin o'qishdi. Otabek o'rnidan turib Mahsatiy xonimning qo'lini yana bir martaba o'pdi.

---

[1] Bizning o'zimiz mayxo'rlarmiz, joyimiz ham xarobatdadir: na joynamoz ustida va na gilam ustida o'tirib ibodat qilamiz. Qozi gunohkor bo'lishdan ko'rqib may ichmaydi. Lekin yetim haqini yegandan ko'ra xarobatda o'tirib may quyqasini ichgan yaxshi.

[2] Biz va birimizga qarama-qarshi turganimiz uchun bir-pardamizni yirtmasak yaxshi bo'lardi. Sen mening aybimni ochma, men ham sening aybingni ochmayin, chunki ikkimiz ham bir-birimizdan battarmiz.

Mahsatiy xonim xasta bo'lgani uchun Otabek Muhammad unga va qo'shni davlat vakillariga ketishga ijozat berdi. So'ngra kotibiga:

— Senga topshirilgan yer janjallari haqidagi arizalarni keltir,— deb buyurdi.

Kotib darhol o'rnidan turib arizalarni olib keldi. Otabek arizalarni majlis ahllariga ko'rsatib dedi:

— Bu arizalarning mazmunidan, oronliklar Mug'ondagi uch qishloqning boshlig'iga soliq to'lashni istamas ekanlar. Bu to'g'rida Shimoliy ozarbayjonliklarning qanday qonuniy haqlari bo'lishi mumkin? Men shu yerda ekanman, yer-suv masalalari bilan o'zim shug'ullanishni istayman. Bu yerdan jo'nab ketganimdan so'ng yer-suv masalasida Qizil Arslon bilan yana maslahatlashaman.

Majlisdagilar ichida bu savolga javob qiluvchi kishi bo'lmadi. Nizomiy Faxriddinga qaradi. Faxriddin bu qarashdan darhol so'zlash kerakligini payqab, o'rnidan turib Otabekka savol berdi:

— Otabek hazratlari lutfan o'sha qishloqlarning nomlarini aytib berolmaydilarmi?

Otabek qishloqlarning nomlarini bir boshdan ayta boshladi:

— "Arabli", "Arab shohverdi", "Arab bon o'g'lon" qishloqlaridir,— deb ilova qildi: — Arizalarda ko'rsatilganidek, mulkdorlar yuz minglarcha dirham sarflab shu qishloqlarni obod qilganlar. Bu qishloqlarni sug'orish uchun yana bir necha ming dirham xarajat qilib katta ariq qazdirganlar.

Faxriddin yana savol berdi:

— Iltimos qilaman, ariza berganlar aytsinlar-chi, Mug'onga ular qaysi ariqni qazdirish uchun necha ming tilla sarflabdilar?

Otabek ariza egalariga so'zlash uchun ijozat berdi. Ular Mug'onga "Govur arig'i"ni qazdirganlarini so'zladilar. Bularga javob yuzasidan so'z Faxriddinga berildi, Faxriddin o'rnidan turib dedi:

— Avvalo, shuni aytmoqchimanki, bu og'alarning da'vo qilayotgan qishloqlarining tarixi arab istilosidan ancha ilgaridan boshlanadi. Bu qishloqlar skiflar, balki midiyaliklar davridan Mug'onda mavjud bo'lgan qishloqlardir. Chunki u yerdagi mozorlar, qabrlar va maqbaralar buni isbot qiladi. Arizada ko'rsatilgan "Arabli", "Arab shohverdi", "Arab bon o'g'lon" qishloqlari Oron xalqiga

ota-bobolaridan meros qolgan qishloqlardir. Otabekka ma'lum bo'lishicha, fotihlar istilo qilgan barcha sersuv-serhosil yerlarni o'zlari hamda sarkardalari o'rtasida taqsimlaganlar. U qishloqlarni bu og'alarning pullari bilan obod etilishi masalasiga kelsak, bu qishloqlarning qadimiy nomlari ular arablar tomonidan bino qilnimaganini ko'rsatadi. Ular arabli deb atashayotgan qishloqning eski nomi Oronkanddir. U yerdagi hujjatlar va kitoblar ham buni isbot qiladi. Lekin arablar u yerda oronliklarni ko'chirib, arablarni o'rnashtirganlaridan so'ng qishloqning nomini o'zgartirib "Arabli" qo'yganlar. "Arab shohverdi" qishlog'i ilgari "Shohverdi" qishlog'i deb atalardi. Arablar tub joyliklarni badarg'a qilib, qishloqni o'z odamlariga berdilar. O'sha zamondan boshlab qishloqning nomi "Arab shohverdi" bo'lib qoldi. "Arab bon o'g'lon" qishlog'i ham xuddi shunday. U yerga ham arablar joylashganidan keyin "Arab bon o'g'lon" deb atala boshladi. Aslida esa "Bon o'g'lon" qishlog'idir. Otabek hazratlariga arz qilamanki, bugun ozarbayjon mulkdorlarining[1] qo'lida ota-bobolaridan qolgan ming yillik vasiqalari bor. Bordi-yu haqiqatan ham bu og'alar o'zlari da'vo qilayotgan qishloqlarini boshqa bir odamdan olganlarida edi, ularning qo'llarida vasiqalar bo'lishi kerak edi. Yoinki, qishloqlarni o'zlari qurib obod qilgan bo'lsalar, unda ham qurilgan qishloqning zamini biror odamdan sotib olinishi kerak edi. Faqat shu uch qishloqqina emas, balki bir qancha qishloqlar borki, u yerlarning xalqini haydab, o'rniga arab, fors istilochilari joylashtirilgan. Avvalo, bu yerda a'lo hazratning huzurida Mug'on masalasi qo'yilishi lozim. Men bu cho'zilib kelayotgan masala to'g'risida og'alarning Mug'onga "Govur arig'i" qazdirganlari da'volari ustida to'xtalib o'taman. "Govur arig'i" ning tarixi hammaga ma'lum. Mug'on birinchi martaba arab fotihlari zamonida vayron qilingan emas, undan avval ham fotihlar bu barakali o'lkani parchalab yuborganlar. Og'alar da'vo qilayotgan bu ariq, miloddan uch yuz yigirma yil avval, ya'ni Iskandari Zulqarnayn zamonida yangitdan barpo qilingan. Bu faktlarni bir yoqqa qo'yib turaylik. Agar "Govur arig'i" mana bu og'alarning o'zlari, bobolari bo'lmish arab fotihlari tomonidan qazilgan bo'lsa edi, unga "Govur arig'i" deb nom berolmas edilar.

[1] Kavkaz ocherki, Peterburg nashriyoti, V, P. Pogojev asari, 323-bet.

Bu nomning o'zi ko'rsatib turibdiki, bu ariq islomdan avval boboyi bobo kalonlarimiz tomonidan qazilgandir, chunki arablar bizning bobolarimizni "kofir" deb atar edilar.

— Ofarin! — deb Faxriddinni taqdirladi Otabek Muhammad.

Faxriddin Otabekdan Mug'on masalasiga oid bo'lgan so'zni davom ettirishga ijozat so'radi:

— Yosh notiq, seni juda mamnuniyat bilan tinglamoqdaman, — deb unga ijozat berdi Otabek.

— A'lo hazrat Mug'onning tarixini o'qiganlar, albatta. Mug'on Ozarbayjon dehqonlarining ixtiyorida bo'lmaganda edi, uning iqtisodiy hayotini yaxshi yo'lga qo'ya olmagan bo'lardilar. Hozir Mug'onning katta bir qismi Shirvon shohligining qo'lida. Qolgan yarmisini esa to'rt-besh nafar arab fotihlarining nevaralari o'zlashtirib olganlar. A'lo hazrat Mug'onni Shirvon shohligi qo'l ostida bo'lgan qismi haqidagi masalani ham bartaraf qilsalar.

Otabek kulimsirab dedi:

— Shirvonning Mug'ondan foydalanishga haqqi bor. Tarixan bu yerlardan foydalanib kelgan ekanlar, bundan keyin ham foydalanadilar. Shirvonning hissasiga tushgan Mug'on hech qachon oronliklarning qo'lida bo'lgan emas.

— A'lo hazrat ruxsat bering! — deb so'zini davom ettirdi Faxriddin. — Men hozirgi rasmiylashtirilgan Shirvon haqida gapirayotganim yo'q.

— Shunday ekan, nima haqda gapiryapsiz? — deb taajjublanib so'radi Otabek.

— Men shunday o'ylaymanki, ozarbayjon xalqining shikoyati faqatgina yer masalasi ustida. Mulkdorlarning ishtahasi hech qanaqa qonunni tan olmaydi. Mahalliy hukumatga kelsak, ular mulkdorlarning tarafdoridirlar. Qishloq xalqining og'ir ahvollaridan gapirganlar isyonchi deb ataladi. Amir tarafidan ta'qib ostiga olinadi. Adib va shoirlar o'lim va zahar bilan qo'rqitiladi.

Otabek boshini quyi solib eshitardi. U Faxriddin so'zini tugatganidan so'ng kotibga dedi:

— O'ylaymanki, berilgan arizalar haqida gapirish o'rinsiz, chunki arizalarning hammasining mazmuni janob Faxriddinning aytganlaridan iborat. Mug'onda bo'lgan ixtilofchi mulkdorlar ha-

qida qayd qilib o'ting, bu haqda Qizil Arslonga topshiriq beraman. Amirning nojo'ya harakatlari, adib va shoirlarni ta'qib etilishi to'g'risida esa, jiddiy tekshiruv olib borish lozim.

SO'NGGI CHORA

Amirning so'nggi chorasi oldindan o'ylab qo'yilgan masaladan iborat edi. U ma'lum qilingan edi. U hukumat hokimiyat tepasida qolishi uchun qancha o'ylasa-da, o'zida ijobiy tomonlarni topa olmadi. Uning aholining shikoyatlariga yo'l qo'ymaslik uchun ko'rgan tadbirlari, Otabek sha'niga madhiyalar yozdirishi tamomila teskari natija berganidan so'ng xotinini yoniga chaqirib juda g'amgin bir holda so'zladi:

— Ota-bobolarimizning: "Yaxshi molim — yomon kunim" degan hikmatlari juda to'g'ri. Sen qizingga ham uqtir, bunday qulay fursat har kimga ham nasib bo'lavermaydi. Xalifa otang ham ancha qarib qoldi. Uning ham boshi toshdan emas, olam turguncha yashay olmaydi. Shuning uchun biz ham orqa-o'ngimizni mustahkamlab olishimiz, o'zimizga mustahkam suyanchiq topishimiz kerak. Hokimiyatni qo'lga olgan va yangi saltanat qurgan Eldaniz xonadonining halokati bugun va yo ertaning ishi emas, ular hali uzoq vaqt yashashlari mumkin. Fursat g'animat, biz muhim bir jihatini nazarga olishimiz kerak. Qizimiz Qatibaning taqdiri haqida o'ylashimiz lozim. Hali xalifa hayot ekan, u obro'li va mo'tabar bir qizdek yashaydi. Xalifa o'lganidan so'ng ishlar butunlay o'zgaradi. Go'zallik, qudratli oliy nasab zotga bog'liq bo'lmas ekan, hech narsaga arzimaydi. O'zing bilasanki, Bag'dod xalifalarining minglarcha kanizaklardan minglarcha qizlari va nevaralari bor. Ularning hammasi ham o'z davrida xalifa nevarasi bo'lib shuhrat qozonganlar. Lekin xalifalar o'lganlaridan so'ng qullar, otboqarlar va shunga o'xshash odamlar bilan yashashga majbur bo'lganlar. Fursatni qo'ldan bersak, bizning qizimiz ham o'sha qizlarning biriga o'xshab qolishi mumkin.

Sofiya xotun erining uzundan uzoq bu so'zlarini eshitgach, unga shunday savol berdi:

— Qani, ayt, nima istaysan? Nega ochiq gapirmaysan? Balki aytgan gaplaringda jon bordir. Men nima qila olaman?

Amir unga taajjublanib boqdi-da, dedi:

— Men nima qila olaman deganing nimasi? Sen ona emasmisan, axir? Qizingni yasatib Otabekka ko'rsatmaysanmi?

— Men qizni Otabekka qanday ko'rsata olaman? Shunday qilish o'ng'aysiz bo'lmasmikin?

Amir o'z-o'zicha ming'illadi, keyin Sofiya xotunga o'girilib dedi:

— Sira o'ng'aysiz bo'lmaydi, seni Bag'dod saroyida menga qanday ko'rsatgan bo'lsalar, sen ham Qatibani Ganja saroyida Otabekka o'shanday ko'rsatasan.

— Bu ishning mushkulligi shundaki, qizingiz bilan er qilish haqida gaplashib ko'ring-chi, u dunyoni boshiga ko'taradi.

— Bilmayman, nima qilsang o'zing qil, u sening ishing. Lekin qizni, albatta, Otabekka ko'rsat. Qizning dod-u faryodiga kelsak, u hamma qizlarning odati. Seni ham menga bermoqchi bo'lganlarida Bag'dodni ostin-ustin qilaman deb aytgan eding, vaholonki, bir zeki uyning g'ishtini ham joyidan qo'zg'atolmading.

— Qizingiz shoirdan umidini uzganidan beri, barcha erkaklardan nafratlanadi, ularning yuzini ko'rishga toqati yo'q.

— Aqlli bo'l, erkaklarning hammasi bir xil. Otabekday ulug' bir zot haqiqatan ham unga uylanmoqchi ekanini bilsa, erkaklarga nafrati xayoliga ham kelmaydi. Qiz bolalar ayyor mushukka o'xshaydilar. Qo'lga tushirolmagan narsalarini yomon ko'radilar. Qo'lga tushirgan narsalarini esa, hech kimga bermaydilar. Uzun gapning qisqasi, bularning hammasi sening qizga qanday ta'sir qilishingga bog'liq. Qizni ishontirishing kerak. Bizning butun taqdirimiz uning Otabek Muhammad bilan uchrashishga rozilik berishiga bog'liq. Bu ishda taxt-u toj masalasi ham bor. Agar qizim tadbirli bo'lsa, Ozarbayjon taxt-u saltanatini qo'lidan bermasligi kerak. Bir necha yildan so'ng men o'z nevaramni haqiqiy voris deb Ozarbayjon taxtiga o'tqazish qo'limdan keladi. Otabek Eldaniz kim edi? Oddiy bir qul edi. Bugun esa uning o'g'illari bepoyon bir mamlakatning hukmdori bo'lib o'tiribdilar. Mening nevaram esa, bir tomondan, xalifa chevarasi, ikkinchi tomondan, mening, Amirning nevarasi bo'la-

di. Mening ham boshim toshdan emas. Men ham bugun bo'lmasa, ertaga o'lishim haq. Lekin orzuga yetgandan so'ng xotirjam bo'lib o'lish mumkin. Aytganim ro'yobga chiqsa, xotirjam bo'lib o'laman, bilamanki, mening naslimning istiqboli ta'min etilgan.

Amir so'zini tugatishi bilanoq Qatiba kirib keldi. Amir Inonj, odati bo'yicha, uni yoniga chaqirdi:

— Kel, o'tir, sevimli Qatibam, kel, o'tir!

Qatiba o'tirdi, Amir uning peshonasidan o'pib, sochlarini silab dedi:

— Otabekning sharafiga berilgan ziyofatdan u qadar umidbaxsh taassurot ololmadim. Otabek har so'zida Nizomiy bilan Qizil Arslon o'rtasidagi do'stlik haqida gapirdi. Shubhasizki, bu do'stlikning zamirida menga qarshi bir adovat bor. Mahalliy aholining ustimizdan Qizil Arslonga shikoyat qilishi Shimoliy Ozarbayjonda mening obro'yim to'kilishi demakdir. Biz har holda bu suiqasdning hozirdanoq oldini olishimiz kerak. Otabekni Abulullоga qarshi chiqishi va shoir Xoqoniyni himoya etishi ham aslida menga qarshi bir harakatdir, chunki men Abulullоga joma kiydirib taqdirlagan edim. Bu hodisalarning hammasi hukmronligimning so'nggi kunlarini yaqinlashtirmoqda, ko'rinib turibdi-ki, Otabek bu yerdan ijobiy fikr bilan ketmoqchi emas. Otabek hozirgi kayfiyati bilan Tabrizga qaytsa, bir oydan so'ng Qizil Arslon mening o'rnimga boshqa hokim yuboradi. Otabekning qabul marosimidagi so'zlari ham menga yaxshi umid bag'ishlamadi. Xususan, yer-suv va qishloqlar masalasida bizning kishilarimiz sukut qilishga majbur bo'lishlari, bularga qarshi Faxriddinning so'zga chiqishi mening hayotim uchun tahlikali qadamlardir. Otabekni bu yerdan jo'nab ketishidan oldin qo'lga ololmasak, Ganjada dushmanlarimiz hokimiyat tepasiga chiqib oladilar. Bu to'g'rida onang ham, sen ham o'ylab ko'rishlaring kerak. Kelajagimiz to'g'risida g'am yemasak, hozirgi hodisalar bizni halok etadi.

Qatiba otasining yelkasidan boshini ko'tarib so'radi:

— Aytaylik, gaplaringning hammasi to'g'ri. Lekin mening qo'limdan nima ish keladi?

— Sening qo'lingdan hamma ish keladi. Bu ishlarni men xohlagandek borishi uchun sening zimmangda katta vazifa bor. Sen

Sharqning birinchi go'zali, Amirning qizi, xalifaning nevarasisan. Hali onangga aytgan edim. Bu go'zallik, bu shuhrat mening va xalifaning obro'siga bog'liq. Lekin xalifa bilan men o'lganimizdan keyin sening bu husning oddiy bir go'zallikka aylanib qoladi. Shuning uchun sen kelgusini mustahkam asoslar ustiga qurishing kerak. Otabek yomon nomzod emas, bundan keyin nima qilishni o'zing bilasan, buni otalar qizlariga o'rgatmaydilar. Aqlli qizlarning o'zlari uni ado etishlari kerak.

Qatiba nihoyat otasining nima demoqchi ekanini angladi va jiddiy suratda dedi:

— Men qizlar o'zlarini erga berish uchun sovchi bo'lib borishlarini birinchi marta eshityapman. Men hech qachon buni qilolmayman, Men borib "kel, menga uylan" deb Otabekka aytolmayman. Bu taklif mening ham, oilamizning ham sharmandasini chiqaradi.

Amir kulib uning sochlarini siladi va:

— Aqlsiz qizim! — dedi — Bu yerda hech qanday sharmandalik yo'q. Ba'zan sharaflar sharmandalik ichidan sizib chiqadi. Endi bu xususda borib taklif qila olmasliging haqida menga gapirma, qizlar istagan vaqtlarida shunday taklifni qilish uchun yo'l topa oladilar. Sening bunga qodir bo'la olishingni shoir bilan bo'lgan yozishmalaringda ko'rsatding.

Bu suhbatlar asosida xoja Mufid kirib Otabekning kelayotganidan xabar berdi. Sofiya xotun bilan Qatiba shoshib qolib, qaysi tomondan chiqib ketishlarini bilolmadilar. Lekin Amir o'zini juda loqayd tutdi, chunki Amirning topshirig'i bilan xoja Mufid Otabekni qo'qqisdan boshlab kelishi kerak edi.

Qatiba bilan Sofiya xotun endi ketmoqchi bo'lib turganlarida Otabek kirib keldi: lekin u ichkarida ayollar borligini ko'rarkan, orqasiga qaytmoqchi bo'ldi, Amir esa, uni qarshi olib:

— Marhamat qiling, a'lo hazrat! — dedi-da, ta'zim bajo keltirdi, — bu yerda begona kishi yo'q, xalifaning qizlari bilan nevaralari bor, xolos. Amiralmo'mininning qizlari bilan nevaralari a'lo hazratni ziyorat qilish orzusidalar.

Otabek Amir Inonjning bu so'zlarini eshitgach, bir lahza o'ylanib qoldi, keyin ilgari yurib xalifaning qizining qo'lini o'pdi va:

— Biz ham Amiralmo'minnining avlodimiz, — dedi,— xalifa hazratlari bizning otamiz bo'lishlari bilan baravar butun islom dunyosining ham ma'naviy otasidirlar.

Amir darhol ilova qildi:

— Mening ham baxtiyorligim xalifa oilasining a'zolaridan hisoblanishimdir. Chunki xalifaning eng uzoq qarindoshi ham payg'ambar avlodiga yaqin bo'lish sharafiga muyassardir. Bu dunyoda ham, oxiratda ham men ana shu sharafga sazovor bo'lganim uchun baxtiyorman.

Shu suhbat asiosida Sofiya xotun bilan Qatiba Otabek bilan xayrlashib chiqib ketdilar. Otabek esa zohirda Amir Inonjning gapiga quloq solardi-yu, botinda esa, bundan bir necha daqiqa avval ko'rgani ofatijon go'zal haqida o'ylardi. Uning vujudini o'ziga ma'lum bo'lmagan allaqanday bir tuyg'u qiynar, rohatini buzardi. Amir Inonj ko'z qiri bilan uni kuzatardi. Otabekni g'ayritabiiy holatda ko'rarkan, otgan o'qini mo'ljalga tekkanligini sezib quvonardi.

Otabek kechki ziyofat chog'ida ham qizni o'ylardi. Uni bir zumlik uchrashuvda ko'rgani uchun qiyofasini unutar, fikr va hissini bir yerga to'plab, Qatibanning chehrasini muayyan bir shaklda xayolida gavdalantirardi.

Otabek yeb-ichganini ham, qanday ovqatga qo'l uzatayotganini ham bimasdi. U piyolani ko'ziga yaqin keltirib choyni ichmoqchi bo'lganida, piyolada Qatibaning siymosini ko'rib titrab ketar va u ko'zdan g'oyib bo'lmasin, deb choyni ichib yuborishga jur'at qila olmas edi. Har piyolani ichib bo'shatgunicha uzoq vaqt o'tardi. Unda-bunda dasturxondan bir-ikki luqma ovqat olardi.

Amir dasturxon tepasidagi Otabekning bu vaziyatidan zavqlanar va o'z-o'zicha: "Endi men maqsadimga yaqinlashmoqdaman. Menga qarshi chiquvchilarning hammasini sovun ko'pigidek puflab uchirib yuboraman. Dunyoda ayollar jozibasi bo'lmaganida edi, erkaklarning o'jarligini hech qanday kuch bilan yengib bo'lmasdi", deb o'ylardi.

Otabek dasturxondan qo'l tortdi. Kanizak va xizmatkorlar dasturxonlarni yig'ishtirdilar. Otabek Amir bilan xayrlashib o'z yotoqxonasiga ketdi. Kanizak va cho'rilar Otabekni hammomga

eltib cho'miltirdilar. Uni yotoqxonasiga olib kirib o'rniga yotqizdilar. Lekin uxlayolmadi, nihoyat u:

— Xoja Mufiddan boshqa hamma chiqib ketsin, — deb buyurdi.

Yotoq bo'shab qoldi. Xoja Mufid qaqqayib turar va Otabekning nimadan so'z boshlashini intizorlik bilan kutardi, chunki uning qo'yniga bir ilon kirib qolganini bilardi.

Nihoyat, Otabek tinchimayotgan ko'ngliga taskin berib o'zini bosdi, xoja Mufidni chaqirib:

— O'tir, xoja Mufid, o'tir! Ko'rinib turibdiki, bu kecha seni ham behuzur qiladiganga o'xshayman, chunki uyqum kelmayapti, — dedi.

Xoja Mufid o'zini bilib bilmaslikka urib:

— Balki a'lo hazratning salomatliklaridan xabar olish uchun tabib chaqirish kerak bo'larmikan? — deb so'radi.

Otabek bunga javoban dedi:

— Sen o'sha tabibni huzurimga chaqirishga qodir bo'lganingda edi, menga unutilmas bir yaxshilik qilgan bo'larding. Lekin o'ylaymanki, hozircha u tabibni bu yerga chaqirish o'ng'aysiz. Balki hali ertadir. O'tir, xoja Mufid, o'tir!

Xoja Mufid uning nima demoqchi bo'lganini yaxshi angladi. U tabib deganida Qatibani nazarda tutayotganini yaxshi bilardi. Xoja Mufid qo'lini ko'ksiga qo'yib bosh egdi va chetda turgan bir kursiga o'tirdi.

— Sen ko'pdan beri Amirning haramida xizmat qilasanmi? — deb so'radi Otabek.

— Men Amir saroyiga xalifaning qizi bilan birga kelganman, aniqrog'i, xalifa qiziga qo'shgan buyumlari qatorida meni ham yuborgan. Sofiya xotunni ham, uning go'zal qizi Qatibani ham o'zim katta qilganman,

— Sen arabmisan?

— Yo'q, arab emasman. Farg'ona shahridan keltirilganman. Biz ikki aka-uka edik. Juda sog'lom, baquvvat, go'zal va nodir tabiatli yigitlar edik. Bizni Turkiston amiri olib xalifa Mustarshidbillohning otasi Ahmad ibni Muqtadiy Almuztazharubillohga hadya qilib yubordi. Biz juda ham go'zal yigitlar bo'lganligimiz uchun xalifaning saroyida yuzlarcha mahram va kanizaklar o'z ix-

tiyorlariga olishga va o‘z xizmatlarida saqlashga urinardilar. Bizga nisbatan bo‘lgan bu rag‘batlarning natijasi biz uchun zo‘r fojiaga aylandi. Rahmatli xalifa xotinlari va kanizaklaridan rashk qilib bizni bichtirib axta qildi. Tabiblar va jarrohlarni chaqirdilar. Tabiblar bu ishni go‘daklikdagina qilish mumkin. Hozir axta qilish bu sho‘rliklarni halok etish bo‘ladi, dedilar. Xalifaning yaqin odamlari ham bu ishni maslahat ko‘rmadilar, bularni haramxonadan olib, boshqa biror ishga qo‘yish lozim, dedilar. Lekin xalifa ko‘nmadi. Bu gapni eshitganidan so‘ng ukam o‘zini o‘zi o‘ldirdi. Lekin men badbaxt bunga jur’at qilolmadim. Axta qilishgandan so‘ng bir necha oy yotib tuzaldim. O‘shandan beri umrim haramxonalarda o‘tdi. Amirning xotinini va qizini katta qildim, lekin kim qadrimga yetardi?

Otabek soxta bir oh tortib dedi:

— Tushunaman, bechora Mufid, dunyoning azoblaridan sening zimmangga ham katta bir hissasi tushgan ekan. Endi menga ayt-chi, Amirning qizi biron kishiga unashilganmi?

— Yo‘q, a’lo hazrat, u hech kimga unashilmagan.

— Katta in’om olish evaziga mening xohishimni u go‘zal qizga yetkaza olmaysanmi?

Mufid yelkasini qisib kulib dedi:

— Hech qanday in’omga ehtiyojim yo‘q. Mening baxtim in’omlarni sarflash manbalaridan mahrum etilgan. Lekin a’lo hazrat, bu xohishni Amirning vaziriga topshirsa yanada o‘rinliroq bo‘lardi. Vazirni a’lo hazratning huzuriga chaqirish esa, mening vazifamdir.

— Unday bo‘lsa, borib To‘xtamishni huzurimga chaqir.

Mufid o‘rnidan turdi, boshini liqillatib chiqib ketdi. Otabek esa o‘z yotog‘ida cho‘zilib yotib Amir Inonj bilan qarindosh bo‘lishning kelgusidagi natijalari haqida o‘ylar edi. Avvalo u, xalifaning nevarasiga uylanganidan keyin xalifaning kuyovi hisoblanadi. Bunday sharaf bilan u, xalifaning obro‘li bayrog‘i ostida hukm surganlardan ustun chiqa oladi, balki shu munosabat bilan o‘z mamlakatini kengaytiradi. Ikkinchidan, qaynotasining Oronda hokim bo‘lib turishi mamlakatning shimoliy chegaralari xavfsizligini ta’minlay oladi. Uchinchidan esa, Qatiba Sharqning eng mashhur go‘zali.

Bunday qizning go'zalligi, nasl-nasabi va nazokati bo'lganligi uchun ham har qanday hukmdor uylanishga qiziqadi.

Xoja Mufid kelib, To'xtamishning kirishga ijozat so'rayotganini aytdi. Otabek ijozat berdi. Boshi qaltirab To'xtamish kirib keldi-da, ikki bukilib ta'zim qildi.

Otabek alik olarkan:

— O'tiring, dono keksa vazir! — dedi.

To'xtamish o'tirdi, lekin uning yuzida sezilar-sezilmas bir shodlik alomati bor edi. Otabek Mufidin vazirning qulog'iga shipshigani va chaqirilishining sababini unga aytganini anglab, vazirga savol berdi:

— Xoja Mufid sizga ba'zi so'zlarni shipshitganga o'xshaydi-a? — dedi. Mufid tishnning oqini ko'rsatib kuldi, To'xtamish esa:

— Taajjublanadigan yeri yo'q. Hayotning qonuni shunday, — dedi, — oy nurni oftobdan olishi kerak, yulduzlar esa oy atrofida kezishi lozim. Amir janoblari oftobdan nur oluvchi oy bo'lsalar, biz navkarlar oy atrofida kezuvchi yulduzlarmiz. Xudovandi olam bizdek zaif bo'lgan yulduzlarni o'z oy-u quyoshimizdan judo qilmasin. Endi hamma masala a'lo hazratga ravshan bo'lgandir? Agar a'lo hazratning biror farmonlari bo'lsa, kamina bu haqda Amir bilan, u kishining rafiqalari Sofiya xotun bilan gaplashaman! Endi Amirning karimalariga oid masalalarni esa, Mufidga topshirganman, hamma topshiriqlaringizni unga buyura olasiz.

OTABEK BILAN BIRINCHI UCHRASHUV

Otabek yarim soatdan beri tanho o'tirib Qatibani kutardi. Birinchi uchrashuvning intizorligi Otabek uchun jangda g'olib chiqishdan ham og'ir edi. Qatiba Otabek bilan uchrashuvga haddan ziyoda kechikib keldi.

Nihoyat, Qatiba go'zal kanizlar-u cho'ri qizlarning kuzatishida ichkariga kirib, katta mehmonxonaning o'rtasida to'xtadi. Otabek bu to'xtashning ma'nosini darhol tushundi. U fahmladi, go'zal qiz mamlakatning katta hukmdorini o'ziga peshvoz chiqishini istardi.

Otabek shu fikr bilan oyoqqa turarkan, bir zum qizga qarab o'ylab qoldi. So'ngra o'z-o'ziga:

— U shunga loyiq! — dedi-da, ilgari borib qiz bilan salomlashdi.

Qatiba boshini quyi solib turardi. U hozir ikkinchi bir erkak bilan uchrashayotgani haqida fikr yuritardi. Birinchi uchrashgani bilan baxtli bo'lmaganidek, ikkinchisi bilan ham baxtli bo'lolmasligini o'ylardi.

Kanizak va cho'ri qizlar shu payt bamisoli bir xayoldek ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Xonada Otabek bilan Qatibadan bo'lak odam qolmadi. Uchinchi bir odam esa, Qatibani hali yolg'iz qoldirib bo'lmasligini Otabekka bildirish uchun bir parda orqasidan chiqib, boshqa bir parda orqasiga yashirinardi. Bu odam shunga o'xshash minglarcha manzaralarning tomoshabini bo'lgan xoja Mufid edi.

Otabek sukutni buzish uchun bir necha qadam ilgari kelib Qatibaga dedi:

— Go'zal qiz ijozat bersa baxtiyor qo'llarini qo'limga olardim.— Siz bu qo'lning baxtiyor ekanini qayerdan bilasiz?

— Bu qo'lning sohibi baxtli bo'lmaganida edi, buyuk bir mamlakat o'rnidan qo'zg'alib unga peshvoz chiqmasdi.

— Bu qo'l sizga nima uchun kerak?

— Men o'z qalbimni shu qo'lga topshirmoqchiman.

— Men a'lo hazratning nechta qalblari bor ekanini bilmoq istardim. Bilishimcha, a'lo hazrat hozirga qadar qalblarini ikki xotinga topshirganlar. Men uchinchisi bo'lishim kerak. Ajabo, bir odam uch qalbga ega bo'la oladimi?

— Yo'q, go'zal qiz, mening bitta qalbim bor. Uni ham birgina odamga beraman. Xalifaning muqaddas sallasiga ont ichaman, qalbim boshqaga berilgan bo'lsa, endi qaytarib olindi. Endi u go'zal qizning ixtiyorida.

— Menimcha, hali bunga vaqt erta. Xususan, ulug' hukmdorlar har bir ishni qiladigan paytlarida o'ylab, vazminlik bilan qiladilar.

— Baxtga erishish paytlarda sabr qilmoq — iqbolni boy berish demakdir. Men o'z iqbolimga ishonaman. Notanish bir qizning qo'lini emas, Amirning qizini, xalifaning nevarasini, butun borligidan bir najib va nazokat barq urib turgan Qatibaning qo'lini so'ramoqdaman.

Qatiba biroz o'ylab savol berdi:

— Men bir masalani aniqlab olishni istardim. A'lo hazrat uchun faqat xotinmi yoinki mamlakatni boshqarish masalalarida birga bo'la oladigan sherik ham kerakmi?

— Sizga ont ichib aytamanki, Qatibani o'z taxt-u tojimning sherigidek bilaman. Go'zal qiz mening tojimning bebaho javohirlarini tashkil etadi. Men uning irodasidan tashqari hech bir ish qilmayman. Siz qalbingizni mendan ayamang, men ham sizdan hech narsani ayamayman.

— Siz bobomning tarafdorlari qo'lidan olingan mulklarini qaytarilishi haqida biror qat'iy gap aytmadingiz. Shuning uchun ham men qalbimni sizga bag'ishlashga jur'at etolmayman. Chunki erkaklar doim qizlarga baqamti turgan paytlaridagina jonlari, boshlari va bor-u yo'qlarini fido qilib ont ichadilar, lekin bu qasamlar erkaklarning aql va e'tiqodlaridan emas, muvaqqat hissiyotidangina tug'iladi. Lekin men a'lo hazratni bu toifa erkaklarning qatoriga qo'shmoqchi emasman. Ayni zamonda, o'z qalbimning qadr-qimmatini ham a'lo hazratga aytishdan tortinmayman. Men qalbimni a'lo hazratga yetti shart bilan bag'ishlay olaman. Ular mana shulardan iboratdir: birinchidan, Otabek salomat ekanlar, otam Shimoliy Ozarbayjon hokimiyatini idora qiladi.

Otabek qo'lini ko'ksiga qo'yib dedi:

— Go'zal qiz, bunday taklifga qanday e'tirozim bo'lishi mumkin? Men o'z mamlakatimni, o'z muhtaram qaynotamga topshirishdan bosh torta olarmidim? Ikkinchi shartingiz nima, mening oliy maqom malikam?

— Ikkinchi shartim shundan iborat: meni rashk o'tida kuydirmaysiz.

— Bu bilan nima demoqchisiz, izoh qiling?

— Ustimga bir necha xotin olmaysiz, demoqchiman.

— Sizning go'zalligingizga ont ichaman, qalbimni hech kimga bermayman.

— Uchinchi shartim shuki: Shimoliy Ozarbayjon Tabrizga emas, bevosita a'lo hazratning o'ziga, ya'ni Hamadonga tobe bo'lishi kerak.

— Taajjub, Qizil Arslon sizning otangizga qarshi biror hurmatsizlik qildimi? U bilan oramizga sovuqchilik tushirishdan

maqsadingiz nima? Agar siz Qizil Arslonning qanchalik oqil, tadbirli olim, marhamatli va qo'li ochiq bir hukmdor ekanligini bilsangiz edi, albatta, bu shartni o'rtaga qo'ymasdingiz. Endi Shimoliy Ozarbayjonning bevosita Hamadonga tobe bo'lish masalasiga kelsak, busiz ham butun mamlakatlar poytaxtimizga tobe bo'lishi lozim. Go'zal Qatiba bunga amin bo'la oladi.

— To'rtinchi shartim: shoir Nizomiyga bo'lgan hurmatingizga xotima berishingizdan iborat. Chunki bu shoir mening bobom Amiralmo'mininga do'st emas.

— Men u bilan bir martaba uchrashdim, fikrimcha, endi uchrashmasam kerak.

— Beshinchi shartim: otamning shoiri Abululloni mukofotlash. Lekin Nizomiyning o'zi ham mukofot berilayotgan marosimda ishtirok etishi shart.

— Hech qanday e'tirozim yo'q.

— Oltinchi shartim: istagan vaqtimda Ganjada yashash huquqiga ega bo'lish.

— Buni ham qabul qildim.

— Yettinchi shartim: Shimoliy Ozarbayjon masalalari ko'riladigan vaqtlarda men ham ishtirok etaman. Bu shartlar Otabek tomonidan qabul qilina olsa, men qo'limni ham, qalbimni ham a'lo hazratning ixtiyoriga topshirishga tayyorman.

Otabek qizning qo'ygan shartlarining birortasini ham rad qila olmadi, chunki u o'z qarshisida faqatgina sodda bir go'zalni emas, balki nodir bir mo'jiza turganini his etardi.

Qatibaning porloq peshonasiga tushib turgan sakinaviy[1] kokillar va peshonasiga taqilgan gavhardan oy-yulduz[2] mehmonxonada yonayotgan yuzlarcha sham-chiroqlar shu'lasini go'zal qizning chehrasiga jam etgan edi.

Qatiba o'zini tuzatib butun go'zalligini Otabekka namoyish qildi. Otabek o'zini yo'qotib qo'yib, beixtiyor shunday dedi:

— Hammasini qabul qildim! E'tirozim yo'q, malagim!

---

[1] Sakinaviy kokillarni Husayining qizi, Iroq-Arab hukmdori Mas'ab ibni Zubayrning xotini Sakina ixtiro qilgan. "Abulfado", I jild.

[2] Xalifa nasliga mansub bo'lgan xotin-qizlar sochlariga brilliantdan yasalgan oy va yulduz taqar edilar.

Qatiba qo'lini Otabekka uzatarkan, Otabekning titrab turgan lablari Qatibaning lablari tomon cho'zildi.

Xoja Mufid pardaning orqasidan yo'tala-yo'tala chiqayotganida, Otabekning lablari Qatibaning lablaridan uzildi.

Yarim soatdan so'ng Ganja qozisi bilan Ganja xatibining mehmonxonaga kirib kelishi, ular o'z vaqtida xayrli ishni boshlash uchun saroyga da'vat yetilganliklari ma'lum bo'ldi. Kechasi soat o'n ikki yarimda unashish rasmi tugadi. Qatibaning barmog'iga Sharqning eng qimmatli javohiri o'rnatilgan uzuk taqildi, nikoh o'qildi, so'ngra dasturxon atrofiga o'tirdilar.

TO'Y

Otabekning Qatibaga uylanish xabari mamlakatning hamma tarafiga e'lon qilingan edi. Shuning uchun bu shodiyonani qutlash va to'y marosimida qatnashgani chor-atrofdan namoyandalar kelgan edi. Birinchi vakil sulton To'g'rul tomonidan keldi. Otabekning o'zi esa Qizil Arslonning vakillarini kutardi. Qizil Arslon tabrik maktubi ham, biror vakil ham yubormaganidan tashvish chekar va o'ylardi. U Qizil Arslonning bu nikohdan norozi bo'lib qolishi va to'yga qarshi chiqishidan qo'rqardi, chunki Qizil Arslon mamlakatni boshqarish ishida To'g'ruldek loqayd emas edi. U qaysi mamlakatni idora etmasin, u yerda osoyishtalik va tartib bo'lishi kerak edi.

Qizil Arslonning bunday beparvoligidan Otabek Muhammad naqadar xafa bo'lsa, uning yosh malikasi Qatiba shu qadar sevinar edi, chunki Qatiba Nizomiy bilan do'stona munosabatda bo'lgan bu hukmdorni ko'rishni istamasdi. Qatiba bu ziddiyat natijasida Qizil Arslonning Ozarbayjon hokimiyati tepasidan olib tashlanishini va shu bilan birga otasining Shimoliy Ozarbayjon hukmdori bo'lib qolajagini o'ylardi. Shuning uchun Qatiba hamma vaqt Otabek Muhammadni ko'rganida:

— Qaynim mening bu xushbaxtligimga quvonmadi. Yoki men Eldaniz xonadoni obro'siga bir dog' bo'lib tushdimmikin? — derdi.

Qatibaning bu so'zlariga Otabek Muhammad har safar taskin beruvchi javoblar berardi. Lekin u Qizil Arslonning bu ishidan norozi ekanligini qalban sezardi. Chunki Otabek uylanishi haqida ukasiga jo'natgan maktubiga ham javob olmagan edi. U maktubida bu nikohning siyosiy ahamiyatini qayd qilgan bo'lsa ham, lekin Qizil Arslon buning ahamiyatiga tamomila salbiy qarardi. Uning bilishicha, Otabekning bu uylanishi Shimoliy Ozarbayjonni qaytadan qurish ishiga va xalifaning ta'sirini oradan ko'tarib tashlash masalasiga to'siq bo'lardi. Qizil Arslon uchun xalifalik aqidalari o'z mohiyatini yo'qotgan bir zamonda, xalifa bilan qarindosh bo'lishning hech qanday siyosiy ahamiyati yo'q edi. Lekin Otabek Muhammad aka bo'lganligi uchun Qizil Arslon uni nikohdan qaytarishga jur'at qilolmadi. Fursat qo'ldan boy berilgan edi, chunki bu to'yning xabari nikoh o'qilganidan so'ng Qizil Arslonga xabar qilingandi.

Otabek Muhammad Qizil Arslonga bu uylanishning siyosiy ahamiyati haqida maktub jo'natgan kunlarda Nizomiy ham Qizil Arslonga yo'llagan maktubida bu nikohning siyosiy ahamiyatga emas, siyosiy bir ziddiyatga sabab bo'lishini ta'kidlagan edi. Nizomiy maktubida Ozarbayjon uchun yangi bir baxtsizlik yuz berishini ta'kidlab, Qizil Arslonning ehtiyot bo'lishini maslahat ko'rgan edi.

Nizomiyning do'stona nasihatlarini nazarga olib, Qizil Arslon akasiga qutluq maktubi bilan birga, yangi malika uchun qush tuxumiday bir juft zumrad isirg'ani to'yona qilib yubordi.

Qizil Arslon to'yni tabriklash uchun vakillarini hadyalar bilan birga jo'natgan kuni, Nizomiyga ham bir maktub yozib undan vakillarga boshchilik qilishni va o'zining nomidan Otabek Muhammad bilan malikani tabriklashni iltimos qildi.

Lekin to'satdan Ozarbayjonda shiddatli yomg'irlar boshlandi va naxchivonlik Ziyodulmulk[1] tomonidan qurilgan ko'prikning suv ostida qolishi natijasida Qizil Arslon jo'natgan vakillar o'z vaqtida Ganjaga yetib kelolmadilar.

To'y boshlangan edi. Gruziya va Shirvon o'lkalari, Xorazm shoh, Qozonxon, Qoraxiton mamlakatlari tarafidan yuborilgan

[1] Hamdulloh Qazviniyning "Nuzhatul-qulub" nomli asaridan, 1 jild.

namoyandalarning hammasi o‘z vaqtida yetib kelib, tayinlangan maxsus manzillarga joylashdilar. Lekin Otabekning o‘ng tomoniga qo‘yilgan kursilar bo‘sh edi. Ular Otabekni Qizil Arslondan aynitish uchun Amirning buyrug‘i bilan bo‘sh qoldirilgan edi. O‘ng tomondagi bo‘sh o‘rinlar Otabek Muhammadning o‘ng qo‘li bo‘lmish Qizil Arslonning e’tiborsizligini namoyish qilish demak edi. Bo‘sh turgan kursilarning orqasiga qoqilgan gilamning tepasiga “Ozarbayjon vakillari” deb yozilgan edi. Otabek Muhammad Ozarbayjon namoyandalariga qo‘yilgan kursilarning bo‘sh qolganini ko‘rgach, Qizil Arslondan qattiq g‘azablandi, yuragi tars yorilish darajasiga keldi. Sozanda va xonandalarning xonishi ostida o‘ynayotgan zarif andomli raqqosalar uning g‘azabini yanada oshirardi. Otabek o‘z-o‘ziga derdi: “Yo‘q, endi ukam bilan hamkorlik qilishning imkoni qolmadi. To‘y tugashi bilanoq Iroq, Rey va Fors qo‘shinlarini olib Ozarbayjon ustiga yurish qilaman. Ozarbayjondagi hokimiyatni o‘zgartirmasam, ko‘nglim o‘rniga tushmaydi”.

Amir Otabekni ta’qib etardi. U maqsadi yuzaga chiqayotganini ko‘rarkan, qalbi boshqa bir o‘yining nash’alari bilan tepardi. Ayni zamonda qizi Qatiba ham Ozarbayjon vakillarining kelgan-kelmaganini bilish uchun o‘z odamlarini chiqarib to‘yxonadan tez-tez xabar oldirib turardi. U ham o‘zining g‘olib chiqqanligini sezgach, mashshotaning qo‘lidan xalos bo‘lar ekan, onasini o‘pdi.

To‘ydagi vaziyat birdan o‘zgardi. Xizmatkor mehmonxonaga kirib:

— Janubiy va Shimoliy Ozarbayjondan yuborilgan vakillar kelishdi, — deb arz qildi.

Otabek kamoli xursandchilikdan o‘tirgan taxtidan turib ketdi. Boshini g‘ovlatgan mash’um xayollar va yuragini ezgan og‘ir tuyg‘ular bir lahzada g‘oyib bo‘ldi. Vakillar kelishi Otabek uchun ikkinchi bayram shodiyonasi bo‘ldi.

Otabekning ham, Amir Inonjning ham kutmagan hodisalari yuz berdi, oldinda ulug‘ shoir Nizomiy, uning orqasidan Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin vakillar bilan birga to‘y majlisiga kirib keldilar. Shamsiddin ilgari chiqib bosh egdi va Qizil Arslonning maktubini taqdim etdi. Otabek maktubda Janubiy va Shimoliy

Ozarbayjondan tabrik uchun yuborilgan vakillarning ro'yxatini o'qiganidan so'ng xursand bir chehra bilan Nizomiyga qarab dedi:

— Muhtaram rais, marhamat qilib o'z o'rningizni egallang?

Nizomiy va Shamsiddin Otabek Muhammadning o'ng tomonidagi, vakillar hay'ati a'zolari esa so'l tomonidagi kursilardan o'rin oldilar. Otabek Muhammad vakillarga murojaat qilib:

— Mening bu baxtli kunimni qutlash uchun xush kelibsiz, safo keltiribsiz, — degach, majlis ahliga yuzlanib ilova qildi: — Inim Qizil Arslon mening bu saodatli kunimni qutlash uchun yuborgan vakillariga ulug' shoir Nizomiyni rais qilib jo'natgan. Bu hodisa men uchun uchinchi bir baxtiyorlik kashf etadi. Bu vazifani iltifot bilan zimmasiga olgan shoirga tashakkur izhor qilaman.

Bu xabar to'ydagilarni naqadar xursand qilgan bo'lsa, ziynat xonadagilar uchun shu qadar hayajon va hayratga sabab bo'ldi. Qatiba bu xabarni eshitgan zahoti sochlarini mashshotalarning changalidan qutqarib, ikki qo'llab to'zg'itishga, zeb-ziynatlarini yulqib, yerga uloqtirishga boshladi. Oldidagi qimmatbaho toshlar, jig'alar, zebi gardonlar, shoda-shoda marvarid-marjonlarni kumush patnisdan olib gilamga sochib tashladi, mashshotalarning qo'llaridagi atir shishalarni tortib olib unning oynavand devorlariga urib chilparchin qildi. Sochiga qadalgan olmos jig'ani bir tomonga otdi, mashshota xotinlarni har tomonga itarib tashlab, yotoqxonasiga qochdi, o'rniga muk tushib yotib yig'lay boshladi. Vaqt o'tmoqda edi. Bir soatdan so'ng yangalar uni Otabekning xonasiga olib borishlari kerak edi. Xoja Mufid to'y majlisiga kirib Amirning qulog'iga allanimalar deb shivirlardi. Amir mehmonlarga bildirmasdan o'rnidan turib chiqib ketdi.

Bir tomondan Amir, bir tomondan Sofiya xotun Qatibani yupatib deyishardi:

— Birinchi kundan boshlab bu xilda jangarilik qiladigan bo'lsang, eringning hurmatiga sazovor bo'lolmay qolishing mumkin. Avval uni o'rganishing kerak, u nima istasa, o'shanga qarab ish tutishing lozim, bir turli erlar borki, o'jar xotinlarni yoqtirmaydilar, ba'zi erlar esa xotinning o'jarligidan zavqlanadilar. Hozircha Otabekni sinamasdan turib o'jarlik qilsang, ko'ngilsizlikka sabab

bo'lasan. Modomiki, Otabek seni "malikam" deb atar ekan, sen istaklaringni hamma vaqt amalga oshira olasan.

Qatibani yupatib o'rnidan turg'izishdi. Ota-ona unga nasihat qila-qila mashshotalar qo'liga topshirishdi. To'yda shodiyona davom qilardi. Otabek Muhammad Qizil Arslon yuborgan maktubni o'qish uchun o'z kotibi Po'lodga berdi. Po'lod o'rnidan turib maktubni o'qimoqchi bo'lganida, Qatibaga xabar berdilar. Qiz yana mashshotalar qo'lidan chiqib, mehmonxonadagi pardalarning orqasiga yugurdi va maktubga quloq sola boshladi. Po'lod maktubni o'qidi:

"A'lo hazratning uylanish xabari Janubiy Ozarbayjon xalqining milliy bayrami tusini oldi. Shahar va qishloqlarda musiqa chalib, ashulalar aytib bayram qilinmoqda. Bozorlar, chorsular yasatilib, charog'onlik natijasida qorong'i kechalar kunduzga aylandi. Eldaniz xonadonining oliyjanob naslining davomiga zamin qurgan nikoh bir tomondan bizni Amiralmo'minin oilasi bilan bog'lanishga musharraf qiladi. Yetti kecha-yu yetti kunduz barcha Tabriz xalqi bayram qilmoqda, hamma masjidlarda Tabriz faqirlariga in'om-ehson ulashilmoqda. Xalq a'lo hazrat Otabekni va uning oliy maqom malikasining umr-u davlatlariga baraka tilab duo qilmoqda. Juda taassub qilamanki, shaxsan Otabek va uning malikasini bu buyuk shodiyona munosabati bilan bevosita tabriklash saodatiga muyassar bo'lolmadim. Shuning uchun ham samimiy hislarimni malika hazratlariga va a'lo hazratga topshirmoq vakolatini ulug' shoirimiz Nizomiyga havola qildim va yuborgan kichkina hadyamizni o'z qo'li bilan yosh malikaga taqdim etishni buyurdim.

Ukangiz Qizil Arslon".

Otabek Muhammad maktubning mazmunidan juda mamnun bo'ldi, yer-u ko'kka sig'may ketdi. U bir soat avval Qizil Arslon haqida o'ylaganlarining aksini o'ylar va o'z-o'ziga derdi: "U ham tadbirli, ilm-u odobli, siyosatdon hukmdor, hamda mehribon ukadir".

Qatiba ham parda ortida turib, maktubni eshitardi. U endi Qizil Arslonga nisbatan bo'lgan nafratining bo'shashayotganini his qilsa-da, lekin Nizomiyni vakillarga rais qilib tayinlaganidan norozi edi.

Endi Qatibaga tasalli beradigan narsa shu ediki, uning buyrug'iga ko'ra Otabek Muhammad Nizomiyning oldida Abulullogа qimmatbaho mukofotlar berar va o'tgan ziyofatda xatibni tahqirlagan Mahsatiy xonim bu ziyofatda o'zi tahqir etilardi. Qatiba parda orqasida turarkan, ana shu xursandchilikka qanoatlanib yuksaklarga parvoz qilardi.

Lekin to'satdan Qatibaning yuksaklarga parvoz qilgan qanotlari harakatsiz qoldi. Mahsatiy xonim ziyofatga kirib kelishi bilan avvaldan o'ylab qo'yilgan tadbirlar tamomila boshqacha bir tus oldi. Amir va Otabekning topshirigi bilan Mahsatiy xonim ziyofatga kirib kelgan vaqtida, unga hurmat ko'rsatilmasligi va joy ko'rsatilmasligi kerak edi. Lekin Mahsatiy xonim eshikdan kirib kelishi bilanoq, Nizomiy darhol o'rnidan turib unga peshvoz chiqdi. Nizomiyning ketidan Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin, Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon vakillari ham o'rinlaridan turdilar. Bularga hurmat yuzasidan barcha qo'shni davlatlardan kelgan vakillar ham oyoqqa turdilar, hammasi bir og'izdan san'atkor shoirani olqishladilar. Shubha tug'dirmaslik uchun Abulullo bilan Ganja xatibi ham o'rinlaridan qo'zg'alishga majbur bo'ldilar.

Shu qadar katta ehtiromlar menga qarshi namoyish tusini olmasin deya, Otabek ham o'rnidan turib, Mahsatiy xonim tomon yura boshladi va uning qo'lini o'pganidan so'ng qo'ltig'idan ushlab o'zining so'l tomoniga o'tqazdi.

Qatiba parda orqasidan qararkan, yana Otabekning bir tomonida Nizomiy, bir tomonida Mahsatiy xonimni ko'rib boyagi qiliqlarini boshladi. Injiq va mag'rur qiz yana zumrad-zabarjadlar, yoqut, injular, gavhar va olmoslarga zahrasini sochdi. Bo'ynidan yulqib olib otib yuborgan marvaridlari yomg'ir tomchilaridek uyning shiftidan kanizaklarning boshlariga yog'ilardi.

Yuzlarcha shamchiroqlar shu'lasida yaltirab shiftga tegib, yerga tushayotgan dur-u gavharlar gilamdan qapchib chiqib yulduzchalarday chaqnardi. Bo'ynidan uzib tashlagan qizil yoqutlar yangi kelinning g'azab va hirs bilan qizargan chehrasidan rang olardi. Mehmonxonada hammaning diqqatini jalb etgan narsa qozi, xatib va Abulullonning hali ham tik turishlari edi. Mehmonxona xuddi muhim bir hodisa qarshisida turganidek, to'y tantananing butun

marosimlari bo‘lib o‘tgandek edi. Endigi qilinadigan ishlardan biri malikani to‘y majlisiga chiqib, Otabek bilan birgalikda atroflardan kelgan vakillarni qabul qilishidan iborat edi. Lekin malikaning chiqishi juda kechikib ketdi, chunki hali ham uni o‘ziga keltirish amri mahol edi. Allamahaldan keyin malika yuzlarcha go‘zal kanizaklarning kuzatishi va musiqa taronalari ostida mehmonxonaga kirib keldi. Otabek o‘rnidan turib malikaga yaqinlashdi. Uning qo‘lidan o‘pib, bilagidan ushladi va yoniga qo‘yilgan kursiga o‘tqazdi, Bir tomonda Sabo xonim, bir tomonda joriyalardan To‘bo xonim yosh malikaning bosh tomonida turib yelpig‘ich bilan yelpishar edi.

Vakillarning boshliqlari birin-ketin o‘rinlaridan turib Otabek bilan malikani tabrik etar edilar. Nihoyat, Abulullo o‘rnidan turib to‘yga bag‘ishlagan she’rini o‘qimoqchi bo‘lgan edi, Otabek qo‘li bilan ishora qilib to‘xtatdi. Holbuki, Otabekning o‘zi uning she’r o‘qishiga va hadyalar olishiga rozilik bergan edi. Qatibaning kayfiyati o‘zgardi va shu daqiqadan boshlab yangi oilaning istiqbolida ro‘y beradigan katta fojialarga zamin qo‘yildi. Qatiba Otabekda ko‘ringan bu ters harakatdan g‘azablandi va shu marosim paytidayoq undan o‘ch olishga ont ichdi. Bu shodiyona kechada Eldaniz xonadonining inqiroziga zamin qurildi va hukmdorlarga qarshi bo‘ladigan suiqasdning muqaddimasi boshlandi.

Tabriklar davom etardi. Qatibaning ko‘zi esa Nizomiyda edi. Qizning ko‘z o‘ngida boshqa bir olam tabassum qilardi. Goh o‘rmondagi daraxtlar orqasiga berkinib shoirning she’rlarini tinglar, goh ag‘anab yotgan majnuntol to‘nkasida o‘tirib ishq-muhabbat dostonlarini yodlardi. So‘ngra, birdan u, shoirning so‘nggi so‘zlarini eslar va qalbiga g‘azab o‘ti tutashardi: “Bir qalbni tuzish uchun boshqa bir qalbni buzish lozim...” O‘sha vaqtda Qatiba Nizomiyni qanday qiyin azoblar bilan o‘ldirish haqida o‘ylarga tolardi. Goh uni dorga ostirib, o‘zi dor tagida zor-zor yig‘lar, goh bag‘rini pora-pora qilib, yana uning boshini tizzasiga olar va qora sochlarini uning jarohatli ko‘ksiga bosardi, goh uning yuragini o‘tkir o‘q bilan teshtirib: “Mening muhabbatim uchun urib turmagan yurakning harakatlanishga haqqi yo‘q. Men yashamagan qalblarda boshqalar ham yashamaydi”, derdi.

Lekin Qatiba bu fikrlaridan tez qaytarkan, o'z-o'ziga la'natlar o'qib derdi: "Ajabo, sen o'z muhabbating uchun hayotga ziyo sochib turgan she'rlar va badiiy zavqlarga to'lgan bir qalbni mahv etish huquqiga egamisan?" Malika bilan Otabekni tabrik qilish navbati Ganja xatibiga keldi. U arab tilida juda g'aliz nutq so'zlab bu to'yni oy bilan quyoshning qo'shilishiga o'xshatdi va bu nikohning yaxshi natijalar berishini qayd qilib o'tdi.

Xatibning nutqidan Otabek u qadar qanoatlanmadi. Avvalo dasturxon tepasida o'tirganlarning aksariyati turk bo'lgani uchun bu yerda arabcha nutq so'zlanishi mahalliy tilni mensimaganlikni va bu yerda arab hukmronligining mavqeyini go'yo davom yetayotganligini pisanda qilish edi. Otabek shuning uchun ham xatibga ortiqcha iltifot ko'rsatmadi.

Tabrik navbati Ozarbayjon vakiliga yetganida Nizomiy o'rnidan turdi, shoirning tabrik nutqiga hammadan ham ko'proq Qatiba maroqlanar edi, chunki u bu ovozni so'nggi marta eshitar edi. U yillar bo'yi hasratida qo'ygan yosh shoir bilan bundan so'ng bir majlisda o'tirish imkoniga eta bo'lolmasdi.

Otabek bilan malika ham, Amir va uning hiylakor vaziri To'xtamish ham, Abulullo va Ganja ruhoniylari ham, umuman, barcha mehmonlar ham Nizomiyni nima demoqchi ekanligiga qiziqishar edi. Shoir nutqini bunday boshladi:

— Hijrat asrining oltinchisining ikkinchi yarmida, Sharq ufqida ikki hodisa ro'y berdi. Butun Yaqin Sharq mamlakatlariga nur sochuvchi ulkan bir yulduz uzildi. Uning o'rnida boshqa bir yorug' yulduz porlay boshladi. Tarix azamat saljuqiylar xonadoniga atab ochgan sahifalarini yopdi. Nizomulmulk "Siyosatnoma"sini[1] so'nggi sahifalarini yozib bitirganidan keyin, sizning qarshingizda turgan Nizomiy tarixning yangi sahifasini yoza boshladi. Yuqorida aytganim hodisalar, saljuqiylarning inqirozi, ularning o'rniga yosh Eldaniz xonadonining siyosat maydonida bosh ko'tarish hodisalaridan iborat edi. Men bugungi nikohni oy bilan

[1] **Nizomulmulk** — sulton Sanjar va Malikshoh davrining siyosiy arboblaridan biri, sultonlarning bosh vaziri bo'lgan zot. U Saljuq hukmdorlarining usuli idorasi haqida "Siyosatnoma" nomli asar yozgan. U ham Xayyom bilan birgalikda yangi taqvim yaratgan.

quyoshning bir-biriga qovushishidan kelib chiqadigan natijaning tarafdori emasman. Bu naqadar tantanali bir o'xshatish bo'lsa ham, lekin natijasi ro'shnolik keltirmaydi, chunki oy bilan quyoshning to'qnashuvi ulardan birining yemirilishi bilan natijalanadi.

Shu so'zlardan so'ng Otabek o'rnidan turib: "Ofarin shoirga!" deb yana o'rniga o'tirdi. Nizomiy esa so'zini davom ettirdi:

— Shuning uchun ham men oy bilan kunning yaqinlashishini tamomila boshqa bir ma'noda tushunaman: oyning oftobdan nur olishi natijasida Ozarbayjonning yillar mobaynida soyada qolib kelgan ufqlari yana yorishadi va ikki qalbning oila qurishi natijasida Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon xalqi bir oila kabi yangidan tashkil topadi. Bugun barcha Sharq xalqlari oy bilan quyoshning bir oilaviy do'stligi tufayli Sharqda yashagan hamma millatlarning do'st va birodar bo'lishini ko'zlaydi. Biz buyuk va tarixiy bu ziyofatda ulyo hazrat oliy maqom malika hamda a'lo hazrat Yaqin Sharq xalqlarining bu istaklariga yordam berish uchun va'da beradilar, deb umid qilamiz. Faqatgina shu yo'sinda ish birligi, so'z birligi va fikr birligi yaratilishi mumkin. O'lkalarning baxtiyor bo'lishi uchun, oliy maqom malika bilan a'lo hazratning bu kungi shodiyonasini qutlayman. Ozarbayjon voliysi Qizil Arslon hazratlarining bu qimmatli tabrigini oliy maqom malika va a'lo hazratga taqdim etish saodatiga loyiq bo'lganim uchun o'zimni baxtiyor hisoblayman.

Nizomiy so'zini tugatganidan so'ng, Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin tilla lagan ko'tarib o'rnidan turdi. Nizomiy lagandan zumrad ko'zli isirg'alarni olib Qatibaga yaqinlashib, dedi:

— Qizil Arslon hazratlari oliy maqom yosh malikaga bir juft isirg'a hadya qildi. Isirg'a yuborishdan yagona maqsadi shunday iboratki, bu isirg'alar oliy maqom malikaning quloqlarida bo'lar ekan, Ozarbayjon aholisining istak va orzulari ham uning quloqlarida doimo jaranglab turishi lozim.

Nizomiyning nutqi o'tirganlar tomonidan tahsin-ofarin sadolari bilan kutib olindi. Nizomiy isirg'alarni Qatibaning qo'liga topshirarkan, Qatiba o'rnidan turdi va Nizomiyga o'girilib dedi:

— Ozarbayjon xalqi tomonidan hadya qilingan bu isirg'alarni qabul etishim bilan so'z beraman, Ozarbayjon xalqining istak va

orzularini shu isirg'alardek qulog'imda tutaman va ularga o'z ehtiromimni saqlayman. Muhtaram shoir, sendan iltimos qilamanki, mening samimiy salomimni Qizil Arslonga yetkazgaysan. Ovozing mangu qulog'imda qolajak va men bu bilan faxrlanaman!

Qatiba bu so'zlarni aytib turib qattiq yig'lab yubordi. Bu hol mehmonxonadagilarning hammasini hayratga soldi, chunki ular bu yig'i sababini bilmasdilar. Buning sababini bilganlar, yolg'iz Amirning o'zi hamda Qatibaning sirlariga mahram bo'lgan Sabo xonim bilan xoja Mufid edi.

Ko'pchilik Qatiba Otabek Muhammadni sevgani uchun yig'lamoqda, deb o'ylardi. "Qiz xursandligidan yig'layapti", deb o'ylaganlar ham bor edi. Lekin bularning hammasi asossiz edi. Qatiba o'z baxtini unutilmas bir umidsizlikning ustiga qurilganiga yig'lardi.

Kechasi soat bir edi, yangalar bilan xoja Mufid Otabek va Qatibaning yotog'i atrofida aylanar ekanlar, Amirning xotini Sofiya xotunga xushxabar olib bormoqchi edilar.

SEVGI MAKTUBLARI

Qatibaning ko'ngli eski xushtori Husomiddindan xotirjam emasdi. Chunki Amir Husomiddinga yillar bo'yi so'z berib: "Qatiba seniki" deb kelardi. Endi Qatiba Otabek Muhammadga berilganidan so'ng, Husomiddin aldanganini payqab, Amir Inonjga qarshi adovat saqlardi. U bir necha kundan beri hatto, saroyda ham ko'rinmasdi. Qatiba bu kayfiyatning natijasi biror intiqomsiz hal bo'lmasligiga ishona olmas edi. Chunki Husomiddinning qaysarligini bilar va uning so'nggi kunlarda aytgan "meniki bo'lmasang, boshqaniki ham bo'lmaysan!" so'zlarini yodidan chiqarmagan edi. Shuning uchun ham u Husomiddinni ko'rmoqchi, uning ko'nglini olmoqchi va aldab-suldamoqchi bo'lardi. U Saboni chaqirib:

— Senga bir ish buyuraman,— dedi, — shu ishni o'rniga qo'ya olasanmi?

Sabo xonim Qatibaning so'zidan xursand bo'ldi, chunki u mojarolarsiz yashay olmasdi, sochlari qirqilgan kundan beri unga hech qanday vazifa topshirilmagandi. Shuning uchun u sevinganidan:

— Qanday vazifa topshirmoqchisiz? — deb so'radi. Qatiba unga yuragini ocharkan, dedi:

— Endi mening naqadar katta martabaga erishganimni bilasan. Sen uchun hamma narsani qilshi qo'limdan keladi. Seni ko'klarga ko'tarishga ham, go'rga tiqishga ham qodirman. Sen mening otamga katta xiyonat qilding, otamning mastligidan foydalanib uning hurmatiga ega bo'lding. O'zing bilasanki, men bu yerdan Hamadonga jo'naganimdan so'ng sening saroyda yashashing mumkin bo'lmay qoladi. Agar shu bir necha kun ichida o'zingni oqlasang, topshirilgan vazifalarni bajo keltira olsang, seni o'zim bilan birga Hamadonga olib ketib o'z qoshimda saqlayman.

Sabo xonim shodligidan yig'ladi. Qatibaning qo'lini o'pib dedi:

— Men qachon oliy nasab malikaning so'zlaridan chiqqan edimki, endi jur'at etib topshiriqlariga befarq qarayin?

— Uddaburonligingni bilaman, lekin sening asosiy nuqsoning shundaki, topshirilgan vazifalarga o'z manfaatingni ham qo'shib yurasan. Bundan keyin bu haqda menga ont ichishing kerak, o'z manfaatlaringni tamoman yodingdan chiqarib, men topshirgan vazifalar bilan shug'ullanasan. Sen Faxriddin bilan boshlagan o'yiningda o'z maqsadingni ilgari qo'ymaganingda edi, allaqachon Faxriddin saroy qamoqxonasida mahv etilgan bo'lardi. Mayli, bularning hammasi o'tib ketdi. Endi ochig'ini ayt-chi, sen Husomiddin bilan uchrashganmisan?

— Ha, uchrashganman, lekin ma'shuqa sifatida emas. Uni Abulullonning qizi Mohtob bilan tanishtirish paytida uchrashib turganman.

— Buni Mohtobning o'zi bilarmidi?

— Mohtob bu haqda hech narsa bilmasdi. Uni Husomiddin sevardi. Men undan sevgi maktublari olardim, ularni yashirib qo'yib, o'zim Mohtobning nomidan javob yozib unga berardim. Yolg'iz Husomiddingina emas, unga o'xshagan yana bir necha erkaklar ham qo'limda qo'g'irchoq edi.

— Bunday ishlarni nima uchun qilar eding?

— Avvalo, men erkaklarni aldashdan zavqlanardim, ularning sevgi maktublarini o'qish menga hamma narsalardan ortiq nash'a

berardi. Ikkinchidan, bu o'yinni tekinga o'ynamas edim. Mohtob xonimning nomiga olgan hadyalarim mening xizmat haqqim edi.

Qatiba kuldi:

— Senga yaxshi laqab qo'yganman. Bu dunyoning shaytonisan. Seni bu yerda yetim qilib tashlab ketmayman. Faqat shartim shuki, meni Husomiddin bilan uchrashtirishing kerak. Chunki u mendan xafa. Otabek bilan bo'lgan nikoh to'yimiz uning izzat-nafsiga tegdi. Uni ko'rishim va ko'nglini olishim lozim. O'zingga ma'lumki, otam meni unga va'da qilgan edi, shunga ko'ra u, otamga qarshi kek saqlab yurgan bo'lishi mumkin. Gapimni tushundingmi?

Sabo xonim sevinib, dedi:

— Juda ham yaxshi tushundim. Bu to'g'rida xotinimni tabriklayman. Chunki oliy maqom malikam menga topshirmoqchi bo'lgan vazifalarini men bundan o'n kun muqaddam boshlagan edim.

Qatiba taajjublanib so'radi:

— Bundan o'n kun muqaddam deysanmi?

— Ha, bundan roppa-rosa o'n kun muqaddam.

— Ajabo, bu vazifani senga kim topshirgan edi?

— Mening ishqiy sarguzashtlarga bo'lgan rag'bat va istaklarim...

— Oh, shayton qiz, buning senga nima keragi bor edi?

— Bu menga ham ruhiy, ham moddiy jihatdan foyda keltiradi. Men bundan foydalanmasdan yashay olarmidim? Faqir bir shoirni sevgan va davlatli bir sarkarda tarafidan sevilgan qizni mamlakatning hukmdoriga erga chiqishi eng maroqli bir hodisa-ku. Ajabo, men shu qadar qulay tasodifga sovuqqonlik bilan qaray olarmidim? Bu ishni boshlashimning ham sababi shu. Albatta, oliy maqom malika uchun Husomiddindan qimmatbaho narsalar so'ray olmasdi. Lekin maktub keltirib, maktub olib borib berib turishim esa, Husomiddin kabi kishilarga ham arzonga tushmaydi. Har bir maktubni olib kelib, javobini olib borish uchun o'n tilla lozim.

— Shu kungacha Husomiddindan necha tilla olding?

— Yuz tilla.

— Demak, o'n martaba maktub olib kelib, javob eltgansan. Javobini kim yozdi?

— Ulyo hazrat yozmagan bo'lsalar, u kishining haqir kanizaklari Sabo yozgan. Uncha yomon yozmaganman. Maktublar va ularning javoblarini ko'rsatishim mumkin.

— Hozir bu yozishmalar qay holda?

— Yozishmalarning borishi marrasiga yetay deb qoldi. Hozir muzokaralar siz bilan Husomiddinning uchrashuvi to'g'risida ketyapti. Bilmadim, oliy maqom malikam bunga rozilik berarmikanlar?

— Men o'zim senga ana shu vazifani topshirmoqchi edim. Sen bu ishni boshlagan ekansan, undan olib kelgan maktublaringni va yozgan javoblaringni menga berishing kerak, chunki men ular bilan tanishmog'im lozim. So'ngra Husomiddinning Mohtob xonimga yuborgan sevgi maktublarini ham menga olib kel, chunki u menga muhabbat e'lon qilib yurgan vaqtlarda Mohtob xonimga ham ishqiy maktublar yozar ekan. Bu ajoyib bir vosita. Men faqat shu bilan Husomiddinni xotirjam qila olaman.

Sabo xonim chapak chalib kuldi-da, dedi:

— Shubhasizki, oliy maqom malika mening bu xizmatlarimni mukofotsiz qoldirmaydilar.

Qatiba uning nima demoqchi ekanini angladi va yonidagi sandiqqa qo'l solib yuz so'mlik oltin dirhamni Saboning oldiga qo'ydi:

— Sening katta xizmatlaring katta mukofotlar bilan taqdirlanadi. Hozircha shu tillalarni olib, so'ragan maktublarimni menga tezda keltirib ber.

Sabo xonim o'rnidan turib sevina-sevina chiqib ketdi. Qatiba esa o'tirib o'ylar edi: "Kim biladi bu shaytonvachcha kanizak meni qancha odamlar orasida bozorga solib pul ishlagan ekan? Mayli, mening saroyimga shunday epchil bir kanizak suv bilan havoday zarur. Hukmdorga erga chiqish oddiy bir odamga erga chiqish emas ekanini endi tushundim. Sen uning ham xotini, ham fuqarosisan. Mana shu qimmatbaho toshlar hamma uchun zeb-ziynat bo'lsa, sen uchun og'ir yuk, xolos. Men endi bildimki, hukmdorlarning muhabbatin doimiy muhabbat emas. U dastlabki kunlarda lablarini lablarimdan uzmasdi, hozir oradan ikki hafta o'tmay turib, peshonamdan ham o'pmay qo'ydi. Hukmdorlar uchun xotin

faqat bir kechagagina kerak, xolos, u ham bo'lsa, farzand ko'rish maqsadida. Ko'rinib turibdiki, bunday yashash uzoqqa cho'zilmaydi. Shuning uchun men atrofimga kerakli va qo'lidan ish keladigan odamlarni yig'ishim kerak. Husomiddin va Sabo xonim Hamadonda menga kerak bo'ladilar".

Qatiba shu to'g'rilarda o'ylar ekan, Sabo xonim qo'lida bir tuguncha ko'tarib kirdi, tugunchani ochib ikkita qog'oz oldi. Ulardan birini Mohtob xonim Husomiddinga, birini esa, Husomiddin Mohtob xonimga yozgan edi.

Sabo xonim Mohtobning tilidan Husomiddinga quyidagilarni yozar edi:

"Muhtaram Husomiddin!

Bir qizni sen kabi bir qahramon bilan tanishishdan ko'ra kattaroq orzusi bo'la oladimi? Men anchadan beri shu orzudaman. Lekin sen bilan bevosita ko'rishishni istayman. Nihoyat, cho'rim orqali senga maktub yuborishga jur'at etdim. Agar Mohtobning bu orzulariga rag'bat ko'rsatsang, maktubning javobini yozib, Sabo xonimdan berib yubor. Seni joni bilan, vijdoni bilan sevgan Mohtob".

Qatiba boshini chayqab dedi:

— Menga kerak bo'lgani Husomiddinning Mohtobga yuborgan maktubi. O'shani o'qib ber!

Sabo xonim Husomiddinning Mohtobga yuborgan maktubini o'qidi:

"Sevimli va sevguvchi Mohtob!

Men umrim bino bo'lib bunchalik xursand bo'lmagandim. Sening maktubingni o'qish meni behad quvontirdi, bayram shodligini baxsh etdi. O'zing tasavvur et, go'zal Mohtob, sevib va ketidan yillar bo'yi sudralib yurganim qizdan maktub olish eng sharafli va unutilmas bir bayram emasmi? Ayt-chi, dalalarda, bayram sayrlarida, masjidlarda, o'rmon va bog'larda ketingdan ergashib yurgan Husomiddinni ko'rmaganmisan? Lekin men senga yaqin borib salom berishga yuragim dov bermasdi, bu jur'atsizligimning sababi ham Amir qizi Qatibani menga va'da qilib qo'ygani edi. Chunki Amir bir necha martaba "Qatiba seniki", deb qizini mening gardanimga yuklagandi. Lekin u qiz hech vaqt mening qalbim mul-

kida sultonlik qila olmaydi, chunki qalbimning po'latdan mustahkam bo'lgan qal'asining darvozalari uning yuziga yopiqdir. Yana shuni ham bilishing kerakki, u hech qachon go'zallikda Mohtob bilan tenglasha olmaydi. Sening sevging sutday sof, chechakday musaffo. Ruxsat bersang edi, rozilik olish uchun otangning oldiga o'z odamlarimni yuborar edim.

Sening Husomiddining".

Qatiba maktubini Sabo xonimdan olib cho'ntagiga solib, dedi:

— Bu maktub men bilan Husomiddin o'rtasida boshlangan ziddiyatni bartaraf etish uchun birdan bir vosita bo'la oladi. Modomiki, u o'ziga biror sevgili yor istar ekan, mening ham shoirdan umidim uzilgandan keyin boshqasiga chiqishga haqqim bor. Uni topib mening yonimga olib kela olasanmi?

Sabo xonim bir qadar noz-u karashmadan so'ng:

— Boshqa ilojim bormi? — dedi, — malika buyurganidan keyin osmonda bo'lsa oyog'idan, yerda bo'lsa qulog'idan tortib keltirishim kerak.

— Unday bo'lsa, hayallama, Otabek Shirvondan qaytmasdan burun uni saroyga — mening huzurimga chaqirasan.

— Otabek hazratlari qachon qaytadilar?

— Balki ertaga yoki birisi kuni.

— Erta-indin nima ekan, bir soatda Husomiddin shu yerda bo'ladi.

— Darrov uni qayerdan topa olasan?

— Qidirishning hojati yo'q, u mening yolg'on xabarlarimni olish uchun bugun Egarchilar maydonidagi chinor tagida kutadi.

Sabo xonim chiqib ketdi, Qatiba esa mashshotalarni chaqirib o'ziga oro berishga boshladi. Yasan-tusan ikki soatdan ko'proq davom etdi. Nihoyat, Sabo xonim kirib, Husomiddin dahlizda kutib turganini aytdi.

Qatiba o'rnidan turdi-da:

— Otabek yo'q, hozircha shu kifoya bo'lsa kerak, — deb mashshotalarni chiqarib yubordi.

Husomiddin kirib salom berdi. Qatiba esa o'zini bilmaslikka solib:

— Vaalaykum assalom, muhtaram Husomiddin, kel, o'tir! — dedi.

Husomiddin bir chekkaga borib o'tirdi. Qatiba esa uning Sabo xonimdan berib yuborgan maktubni ko'rsatib nasihatomuz tarzda dedi:

— Bu qog'ozni Sabo xonimga bergan edingmi?

— Ha, berganman.

— Bunday maktubni faqatgina oddiy qizlarga yozish mumkin. Buni bir mamlakatning malikasiga yozish hurmatsizlik va mensimaslik bo'ladi.

— Yillar bo'yi qilgan e'tibor va hurmatlarim evaziga qanday mukofot oldim?

— Doim aldab kelgan qizingdan qanday mukofot kutarding?

— Men kimni aldabman?

— Amir Inonjning qizi Qatibani, qarshingda o'tirgan qizni, hozirgi malikani.

Husomiddin e'tiroz bildirib dedi:

— Hali ham tuhmat va bo'htonlarni to'xtatganing yo'qmi?

— Men tuhmat va bo'htonlarni yomon ko'raman. Lekin qo'limda dalil bo'lganidan keyin har kimning basharasiga haqiqatni aytishdan tortinmayman.

— Qo'lingda qanday dalil bo'lishi mumkin?

— Kel, o'tgan ishga salavot, chunki sen mening oldimda gunohkorsan, seni bu yerga izza qilish uchun emas, sen bilan yarashishga chaqirdim. Men avvalgi do'stligimizni davom ettirish maqsadida sen bilan gaplashmoqchiman. O'zing ham yaxshi tushunasanki, bu nikoh muhabbat nikohi emas, balki siyosatdir. Qo'limdan nima ham kelardi? Men kimlarga suyanib bu nikohdan bo'yin tovlay olardim? Shoir muhabbatimning qadriga yetmadi. Sen bo'lsang boshqacha o'yin ko'rsatding.

— Men qanaqa o'yni ko'rsatibman?

— Sening tiling menga sevgi izhor qilardi-yu, qalbing esa Mohtob xonimga bag'ishlangan edi.

— Qalbing Mohtob xonimga bag'ishlangan edi, deysanmi?

— Ha, Mohtob xonimga bag'ishlangandi! Sen Mohtob xonimga yozgan maktublaringni Jahonbonu menga yubormasdi deb o'ylaysanmi?

Shundan so‘ng Qatiba uning Mohtob xonimga yozgan maktubini sandiqchadan olib ko‘rsatdi.

— Ana shu maktub sening o‘z qo‘ling bilan yozilmagan-mi? Manavi imzo seniki emasmi? Sen bu maktubni yozgan vaqtingda hali Otabek Ganjaga kelmagan, shoir esa menga rad javobi bergan edi. Seni yonimga chaqirib yuragimni ochmoqchi bo‘lganimda Mohtobga yozgan maktubing qo‘limga tushdi. Endi o‘zing tanangga o‘yla, men tomondan senga qarshi biror nohaq ish qildimmi? Qani, ayt-chi, men senga orqa qilib Otabekning taklifini rad eta olarmidim? Mening o‘rnimda bo‘lganingda, meni yoningga chaqirib kengashishni xohlarmiding?

Husomiddin jim bo‘ldi, ortiq so‘zlamadi, chunki Mohtob xonimga yozgan maktubi uning gunohlarini isbot qiladigan katta dalil edi. Hozir Husomiddin qalbida Sabo xonimni la’natlab derdi: “Uying kuygur, mening baxtimni qo‘limdan tortib oldi, men bilan Mohtobxonim o‘rtasida sevgi aloqasini bog‘lagan o‘sha cho‘ri qiz bo‘ldi”.

Husomiddin xijolatdan boshini ko‘tarib Qatibaning yuziga boqa olmasdi. Nihoyat, Qatiba uning oldiga kelib qo‘lidan ushladi-da, sovuqqina qilib, dedi:

— Aziz do‘stim, men avvalgi gunohlaring uchun malomat qilgani chaqirganim yo‘q. Kelajagimiz to‘g‘risida biror tadbir ko‘rish uchun chaqirganman. Endi gapimga quloq solasanmi? Ochiq gapir, menga bo‘lgan muhabbatingdan qalbingda zarracha bo‘lsa ham qolgandir?

Husomiddin Qatibaning qo‘lini ko‘ksiga bosib so‘zladi:

— Qatiba, ont ichib aytaman, o‘sha muhabbat hozir ham bor, u o‘lgunimcha so‘nmaydi.

— Men buni bilardim, shuning uchun ham seni chaqirtirishga jur’at etdim. Ikkalamiz ham yoshmiz. Umidning eshigi esa ochiq. Kel, qo‘lni qo‘lga berib harakat qilaylik. Imkonimiz juda keng. Biz endi faqatgina Ganja miqyosida emas, butun Otabek mamlakatlarining doirasida ish ko‘ra olamiz. Shuni bilib qo‘y, men seni Hamadonga olib ketish uchun Otabekdan ijozat olaman.

— Meni Hamadonga mahbus sifatida olib ketmoqchimisan?

— Yo‘q, bir mahbus sifatida emas, bir mo‘tabar sarkarda sifatida olib ketmoqchiman. U yerda men yolg‘iz seni deyman va senga suyanaman. Otam masalasiga kelsak, sening u haqda o‘ylashing tamomila o‘rinsiz. Men o‘zim rozi bo‘lmaganimda, u meni hech kimga berolmas edi. O‘z aybing bilan yuz bergan hodisaning o‘chini birovlardan olishga haqqing yo‘q. Mohtobga yozgan maktubing qo‘limga tushmaganida, Otabek emas, Bag‘dod xalifasi kelganida ham u ish bo‘lishi mumkin emas edi. Qani, ayt-chi, endi menga ishondingmi?

Husomiddin biroz o‘ylaganidan so‘ng:

— Ha, ishondim! — dedi.

Qatiba bu javobdan qanoat hosil qilib so‘radi:

— Senga bir hadya bersam qabul qilasanmi?

— Bu iltifot go‘zal qizning o‘ziga bog‘liq.

Qatiba Husomiddinga lablarini cho‘zdi. Husomiddin uni bo‘shatgisi kelmasa ham, Qatiba orqasiga tisarilib:

— Qolgani keyinroq! — dedi.

QUTLUG‘ INONJ

Qatiba xotun o‘g‘il tug‘di, go‘dak bir oylik bo‘lgan kuni Otabek Muhammad poytaxtida katta shodiyona boshlandi. Hamadon shahri boshdan oyoq gullar va alvon chechaklar bilan bezalgan edi. Kuleyn qal’asining devorlariga osilgan minglarcha fonus va mash’alalar o‘n sakkiz chaqirimlik masofani egallagan shaharning past-balandliklarini kunduzdek yoritgan edi. Shaharning o‘rtasidagi Bobo Tohir maqbarasidan shaharga qaraganda inson xayoli uzoq tarixlarga qaytar edi. O‘t ichida porlab turgan shahar Kayxisrav II Midiya shahanshohi Ostiyaqning poytaxtiga kirib tarixda mashhur bo‘lgan Ekbetanani yondirganini eslatardi. Alvand tog‘ining etaklarida yongan mash’alalarning shu’lasi ikki farsang[1] masofadan imomzoda Husaynning maqbarasini yoritar va temir panjarali derazalaridan ichkariga kirib, marmar ustunlar orasida yotgan tungi qushlarning rohatini buzardi. Shaharning u boshidan-

[1] **Farsang (farsax)** — uzunlik ulchovi, taxminan yetti-sakkiz kilometrga teng *(red.)*.

bu boshiga tortilgan arqonning bir uchi Dajjona maqbarasiga, ikkinchi uchi esa shaharning janubidagi Ismoil maqbarasi minorasi peshtoqiga bog'langan edi. Arqonga osib qo'yilgan rang-barang fonuslar bamisoli ko'kdagi yulduzlarni yerga sochib yuborganga o'xshab ko'rinardi.

Qatiba Otabek saroyining baland ko'shkida o'tirib, o'g'lining tug'ilgan kuni sharafiga o'tkazilayotgan charog'on oqshomni tomosha qilardi. Lekin u bu tantanalardan ham, o'g'lining tug'ilishidan ham xursand emas edi, chunki o'zining ham, o'g'lining ham kelajagiga ishonolmasdi. Ayni zamonda Qatiba Qizil Arslon bilan Otabek Muhammad orasida mavjud bo'lgan munosabatlardan norizo edi, chunki Qatiba Qizil Arslondan Otabekka kelgan maktublarni yashirincha olib o'qir ekan, Qizil Arslonning Otabek Muhammadga murojaatlarini eslardi: "El og'ziga elak tutib bo'lmaydi, qaynotangizning xatti-harakatlari natijasida Shimoliy Ozarbayjonda dahshatli isyonlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Kishilarning og'zida Otabek Muhammadning emas, Qatiba xotunning mamlakatda hukmronlik qilayotgani haqida ovozalar yuribdi. Yaxshi bo'lardi, qish kirmasdan yana Ozarbayjon tomonlarga safar qilsangiz, hozir mamlakatda islohot o'tkazish uchun qulay sharoit tug'ilgan. Lekin Janubiy Ozarbayjon bilan Shimoliy Ozarbayjon o'rtasidagi sovuq munosabatlarni hech qanday yo'l bilan bartaraf qilib bo'lmaydi. Chunki Qatiba xotunning otasi bu ishga imkon bermaydi".

Qatiba ham otasining hamda o'zining kelajagidan qo'rqar edi. U Qizil Arslonning Otabekka yozgan tanqidlaridan norozi edi. Otabek Muhammadning bunday tanqidlar qarshisida sovuqqonlik bilan harakat qilishi va bulardan g'azablanmasligi ham Qatibaning qalbida har xil shubhalar tug'ilishiga sabab bo'lardi.

Ba'zan Otabek Qatibaning ta'kid va talablari yuzasidan Qizil Arslonga farmonlar jo'natsa ham, lekin bular Qizil Arslon tarafidan amalga oshirilmasdi. Shuning uchun Qatiba Otabek Muhammad bilan Qizil Arslon o'rtasidagi maxfiy kelishuv yo'qmikin, bu tanqid va ta'kidlarni Otabekning shaxsan topshirig'i bilan yozilmayotganmikin, deb shubhalanardi. Qatiba juda g'amgin edi. Ixtiyorida bo'lgan imkoniyatlar uni qanoatlantirolmasdi. U avvalo tug'ishini

kutdi. O‘g‘il ko‘rganidan so‘ng Otabekning oldiga o‘zining talablarini qat’iy va jiddiy bir yo‘sinda qo‘yishga qaror qilgan edi.

Bu kecha Qatiba nima qilib bo‘lsa ham yuragida yig‘ilib yotgan gaplarini Otabek Muhammad oldida to‘qib solmoqchi bo‘ldi. Lekin talablari benihoya katta edi. Bu talablar Otabek tomonidan qabul etilishiga o‘zi ham ishonolmas edi.

Yarim kechadan og‘di. Qatiba xotun shahar charog‘onligi tomoshasidan to‘yib, o‘rnidan turdi-da, Otabek saroyining oynavand xonasiga bordi. Kanizaklar darhol uni o‘rtaga olib kiyinish xonasiga boshlab kirdilar.

Otabek esa xonada aylanib yurib, Hamadon qozisi bilan shahar a’yonlari kelishini kutardi. Ular Otabekning o‘g‘liga nom qo‘yish uchun saroyga da’vat etilgan edilar. Birozdan so‘ng oldinda qozi, uning ketidan shahar a’yonlari va katta rutbali hukumat ma’murlari, vazirlar mehmonxonaga kirib keldilar.

Otabekning o‘g‘lini keltirish uchun enaganing xonasiga odam yuborildi. Birozdan so‘ng yuz kishidan iborat bir guruh kanizak va cho‘ri qizlar mehmonxonaga kirib kelishdi. Lekin chaqaloq enagani emas, Sabo xonimning quchog‘ida edi, chunki bundan bir necha soat muqaddam Qatiba enagaga beriladigan hadyani Sabo xonimga berish to‘g‘risida Otabek bilan kelishib olgandi.

Hamma oyoqqa turdi. Sabo xonim kelib chaqaloqni qoziga tutdi. Qozi duo o‘qib chaqaloqning peshonasiga qo‘lini tegizdi-da, chaqaloqni tabriklarkan, ilgari yurib, bolani Otabekka topshirdi. Shunda Otabek dedi:

— Men chaqaloqqa Qutlug‘ deb ot qo‘ydim. Malika ham o‘z ajdodlarining nasl-nasabi yuritib kelgan Inonj nomini qo‘shdi. Agar qozi janoblari ijozat bersalar, go‘dakni bundan keyin Qutlug‘ Inonj deb atasak.

Qozi yana fotiha berdi:

— A’lo hazratning baxtiga xudovandi olam Qutlug‘ Inonjga uzoq umr bersin, Eldaniz xonadonining umr, davlatini barqaror qilsin va tug‘ilgan chaqaloqni o‘z hifzi panohida asrasin!

Qozi bu duolarni o‘qiyotganida Otabek diqqat bilan go‘dakning yuziga tikilardi. Go‘dak juda tajang va qosh-qovog‘i soliq edi. Otabek go‘dakning chehrasidan olgan taassurotini yaxshilikka

yo'yolmadi, o'z-o'zicha: "Onasining yo'lidan borishi tayin. Bexosiyat basharasi bor", dedi.

Otabek go'dakni qaytarib Sabo xonimga uzatarkan unga bir qog'oz ham berdi.

Qog'ozda: "Sabo xonimga xazinadan besh yuz tilla berilsin", deb yozilgan edi. Otabekning buyrug'i bilan qoziga bitta zarbof to'n kiygizildi. Keyin unga ming dirham solingan hamyon berdilar.

Otabek bundan tashqari, Hamadon faqirlariga o'n besh ming tilla ehson qilishni buyurdi va yangi mehmon sharafiga bir necha masjidi jome' hamda maqbaralarni qayta qurish uchun vaziriga farmon berdi. Ularga: Abudajjon Naysoriyning, Musan Qozimning o'g'li Ismoilning, Aliyyannag'iyning o'g'li Hasanning, Bobo Tohirning, Shayx Said Ali va Xoja Abulya'qubning maqbaralarini tuzatish, qaytadan ko'rishni topshirdi.

Mehmonxona bo'shab qoldi, Sabo xonim chaqaloqni ko'tarib kanizak va cho'ri qizlar kuzatishida yotoqxonasiga olib bordi, Qatiba xotun darhol Sabo xonimni qarshi olib uning qulog'iga shivirladi:

— Otabek bolani o'pdimi?

Sabo xonim sekingina javob berdi:

— Bolani o'pmadi, lekin yuziga bir necha daqiqa diqqat va taajjub bilan tikildi.

Sabo xonimning bergan bu xabari Qatibaning Otabek Muhammadga nisbatan saqlagan shubhalarini yana qo'zg'adi. Yemakxonaga kirishi kerak edi, chunki Otabek uni kutardi. Kanizaklar va cho'ri qizlar uni yemakxonaga kuzatib borganlarida, Otabek Qatibani kutib turgan edi. Otabek Qatibani ko'rgan zahoti oldiga borib qo'lini o'pdi-da:

— Malikani tabrik qilaman. O'g'il tug'ib berganing uchun otamizdan qolgan mashhur qo'rg'onni senga sovg'a qilaman. Eldaniz qo'rg'oni Hamadon bilan Sultoniya o'rtasida eng go'zal, eng safobaxsh joyga qurilgan. Rahmatli otam Eldaniz mazkur qo'rg'onni sho'rlik onamiz uchun qurgan edi. Endi esa otamizning naslini davom ettirishda bizni xursand qilgan Qutlug' Inonjning go'zal va najib onasiga hadya qilaman. Ukam Qizil Arslon o'g'il ko'rganimizni eshitgach, bir maktub yuboribdi. Mana, qaragin, qanday go'zal yozibdi:

"Eldaniz xonadoniga yangi bir gul taqdim etgan oliy maqom malikaga butun Ozarbayjonga gul-u gulzorlari bilan mashhur bo'lgan Sayidobod qishlog'ini hadya qilaman. Bu qishloq xush-havoligi bilan mashhurdir. Bu qishloq Ujon yaylovidan to'rt tosh narida joylashgan".

Otabek bu so'zlarni o'qiganidan so'ng ikkita vasiqa chiqarib Qatiba xotunning oldiga qo'ydi. Bittasi Eldaniz qo'rg'onining, ikkinchisi bo'lsa, Qizil Arslon hadya qilgan Sayidobodning vasiqasi edi.

Qatiba xotun vasiqalarni olib bir tomonga tashlab yubordi-da, hech narsa demasdan dasturxon yoniga o'tdi.

Qatiba xotunning bu narsaga mensimasdan qarashi Otabekning achchig'ini chiqardi. Lekin unga dasturxon tepasida hech narsa demadi. Faqat Qatibaning tumtaygan yuziga qaragan zahotiyoq bundan bir soat avval go'dakning chehrasida ko'rgan o'jarlik ifodasini ko'z oldiga keltirdi. Ovqat yeb bo'lindi. Qatiba o'rnidan turib ketayotganida, hadya qilingan vasiqalarga qayrilib ham qaramadi. Nihoyat, Otabek Qatibaga murojaat qilib:

— Malika ikki hukmdor tarafidan berilgan hadyalarni o'ziga munosib ko'rmadimi? — deb so'radi.

Qatiba yanada battarroq chimirilib javob berdi:

— Men bularni kichik hadyalar demoqchi emasman. Juda ham katta hadyalar. Lekin ular menga qilingan hadyalardir. Yangi tug'ilgan go'dakka munosib emas. Modomiki, go'dak Eldaniz xonadonining davomchisi bo'lishga haqli ekan, o'shanga yarasha go'dakka ham sovg'a berish lozim edi.

Otabek Muhammad o'ylanib qoldi. Bu xotin bilan yashash mumkin emasligini o'yladi, chunki u bu xilda yashashga rozi bo'lolmas edi. U o'ziga ko'rsatilgan bunday hurmatlardan qanoatlanmasdi. Otabek Qatibaga uylanganini katta bir siyosiy xato, deb tushundi. U ko'nglida bu xotin va uning o'g'li tufayli katta baxtsizlikka uchrashini o'ylar va o'z-o'ziga lanatlar o'qir edi.

Otabek xayoldan bosh ko'tarmay Qatibadan so'radi:

— Bir oylik go'dakka bundan ziyoda nima kerak? Seningcha, Hamadon faqirlariga beriladigan ehsonlar, muqaddas maqbaralar tuzatilishi va hokazolar go'dakning izzatini bajo keltirish emasmi?

— Sen bularni bola uchun emas, o‘z shuhrating uchun qilding.

— Bola uchun nima qilishim kerak edi?

— Bolaning labidan o‘pib, “valiahdimni ol”, deb Sabo xonimga qaytarib berishing kerak edi.

— Bu masalani ko‘tarishga hali vaqt erta. Valiahd tayinlash ishi To‘g‘rulga bog‘liq. Chunki mamlakatning qonuniy hukmdori To‘g‘ruldir. Mening farzandim valiahd bo‘lish huquqiga ega emas. O‘tinaman, malika bu masalani hozircha qo‘yib tursin. Endi, bolani o‘pish masalasiga kelsak, qozi va ruhoniylar huzurida chaqaloqni o‘pishim nazokatdan bo‘lmas edi. Shu arzimagan narsalarga behuda xafa bo‘lyapsan.

— Chaqaloqni o‘pmaslik men va o‘g‘lingga nisbatan hurmatsizlikdir.

— Shubhalar va har xil tushunchalar asiri bo‘lgan mening malikamgina shunday o‘ylashi mumkin.

— Mening o‘g‘lim valiahd bo‘lmaganidek, o‘zim ham malika emasman. Men malika emasligimni ko‘pdan beri bilaman. Chunki mening tilaklarim va iltimoslarimning birortasi ham amalga oshmayapti. Lekin sen so‘z bergan eding, bu bizning nikoh shartlarimizdan biri edi.

— Sen Shimoliy Ozarbayjon xalqining saodati va mamlakatning obodonligi uchun nimanki istasang, amalga oshirilishi mumkin. Yaxshi niyat bilan shunday bir taklif kiritgan vaqting bo‘lganmi?

— Men bir qancha takliflar qilgan edim. Sen ham ularni Qizil Arslonga yozgan eding, lekin Qizil Arslon ularning birortasiga ham amal qilmadi. Sen bilasanki, Faxriddin bilan Nizomiy mening otamning Ozarbayjonda hukmronlik qilishiga xalal bermoqdalar. Sen bir necha marta shu to‘g‘rida Qizil Arslonga topshiriqlar berding. Lekin hali ham ularning otamga qarshi adovatlari davom etmoqda. Qizil Arslon istaganida edi, ularning tanoblarini tortib qo‘ygan bo‘lardi.

— Ajabo, hozir qanaqa taklifing bor?

— Men taklifimni senga ko‘pdan aytib kelaman. Bu taklif xalifadan senga keltirgan maktubimda ham qayd qilingan edi. Sen hatto, xalifaning maktubiga ham e’tibor bermading.

— Nima demoqchi ekaningni anglamadim. Bilasanmi, Qatiba, dunyoda talaygina xotinlar podshohlik qilganlar. Lekin ular ham sen tutmoqchi bo'lgan yo'ldan borganlarida edi, bir yil ham hukmronlik qilolmagan bo'lar edilar. Sen otam osoyishta yashasin, deb bir o'lkani vayron qilmoqchi bo'lasan. Agar Nizomiy singari bir shoir bugun Ozarbayjondan chiqib Xorazm shohi Alouddin Takishning huzuriga ketmoqchi bo'lib qolguday bo'lsa, uning oyog'i ostiga tilla sochar va ipak gilamlardan poyandoz qilar edi. Lekin sening otang hukmronlik qilgan bir o'lkada ikki olamshumul shoir bir oriq sigirning suti bilan tirikchilik qilmoqda. Faxriddin kim? Agar u Shimoliy Ozarbayjon xalqiga: "Qurollaning!" deb buyurgudek bo'lsa, yuz minglarcha yigit otga minib, shaylanib turadi. Shimoliy ozarbayjonliklar Bo'rkiyoruq bilan akasi Muhammad o'rtasida bo'lgan janglarda o'zlarini ko'rsatganlar. Faxriddin singari qahramonlar kelgusida, hatto, yaqin kelajakda bizning o'lkalarimiz uchun kerak bo'ladi. Agar Qizil Arslon Nizomiy bilan Faxriddinni qatl etmagan ekan, men senga aytayotganim ana shu xildagi mulohazalarga borib bu ishni qilmagan. Malika bilishi kerakki, Faxriddin bilan otang o'rtasida mavjud bo'lgan ixtilof duch kelgan har qanday chora bilan hal qilinadigan ixtiloflardan emas.

Qatiba jahl bilan Otabekdan so'radi:

— Otam unga nima yomonlik qilibdi? Uning o'zi kim ediki, otamning yuziga tik boqadi, eshigimizda Faxriddin singari minglarcha navkarlar yo'qmi?

— Otang unga qattiq jabr qilgan, qalbiga tuzalmas jarohat urgan. Uning qallig'ini saroyda saqlab, xalifaga hadya qilib jo'natgan. Otang nega odamlarning unashtirilgan qizlarini uylaridan olib keladi? Basharti otangning boshiga biror falokat tushgudek bo'lsa, u ham shunday sabablar natijasidagina bo'ladi. Endi sening xalifadan olib kelgan maktubing masalasida to'xtaylik. Xalifa Qizil Arslonni hukumat tepasidan olib tashlansin, deb taklif qilmoqda. Avvalo, senga maslahat beramanki, har oy boshida Bag'dodga borib xalifadan menga maktub tashish o'rniga, Ozarbayjonga borib otangga tilaklarimni yetkaz. Mendan salom aytib, deginki, uning xatti-harakatlari Shimoliy Ozarbayjon xalqining isyoniga va oilangizning inqiroziga sabab bo'la oladi. Otang Qizil Arslon tomonidan

bu mamlakatda islohot o'tkazishga monelik qilmasin. Qizil Arslondek aqlli, tadbirkor, oliyjanob va marhamatli hukmdor hozircha Sharq mamlakatlarining birortasida ham uchramagan. U hukmdor bo'lishi bilan birga, qahramon ham. Ayni zamonda, olim va shoir ham. U hech qachon Faxriddindek qahramonni, Nizomiydek buyuk shoirni o'ldirishni istamaydi. Qizil Arslonning yaxshilik tomoni ham shundaki, u o'zi yashagan mamlakatni besh barmog'idek biladi, xalqning ahvoli ruhiyasini ko'z o'ngida tutadi, qo'l ostidagi fuqarosining hurmatiga sazovor bo'lishning uddasidan chiqadi. Lekin mening qaynotam, birga yashab turgan xalqning ishonchini yo'qotgan. Bir kun Shimoliy Ozarbayjon xalqiga: "Qo'lingizga qurol olinglar" deydigan bo'lsa, beshtagina navkar va o'ntagina mulkdordan boshqa hech kimni orqasidan ergashtirolmaydi. Ikkinchisi shuki, xalifaning Qizil Arslonni taxtdan olib tashlash to'g'risidagi farmoni biz uchun qonun emas. Xalifa o'z imkoniyatlaridan tashqari ish qilmasligi kerak. Bundan buyon menga xalifaning obro'sini tushiradigan maktublarni olib kelma. Hukmdorlarga amr qilish, ularni ishga tayinlash va amaldan chetlatish, ularning ishlariga aralashish singari huquqlari xalifalardan allaqachonlar olib tashlangan. Aksincha, endi Bag'dod xalifalarining o'zlarini hukmdorlar ishga tayin qiladilar. Hukmdorlar ular istagan vaqtlarida taxtidan tushirib, ko'zlariga bigiz tiqib, Bag'dod ko'chalariga uloqtirib yubora oladilar. Uchinchidan esa, malikam bilishi kerakki, Qizil Arslonni Ozarbayjon hukumati tepasiga na men va na Bag'dod xalifasi tayinlagan. Uni bu mavqega ko'targan o'zining tadbirkorligi bo'ldi, shuning uchun rahmatli otam Eldaniz uni Ozarbayjon hukmdori qilib tayinladi. To'rtinchidan, eng muhim bir masalani malikaga anglatishim kerak. Qizil Arslon ojiz va qo'rqoq odam emas. U Ozarbayjon xalqidan ko'mak so'raguday bo'lsa, Ozarbayjon xalqining kattadan kichigini ot ustida ko'rasan. Beshinchidan, u mening ko'z nurim, kenja ukam bo'ladi. Kichik, lekin katta ishlarni amalga oshirishda ulkan odam. Men ham, sening otang ham hukmronlik borasida undan ko'p narsalarni o'rganishimiz kerak.

Qatiba bularni eshitganidan so'ng:

— Men ham ko'pdan beri sendan shu so'zlarni eshitishga mushtoq edim, — deb o'rnidan turib ketdi.

ELDANIZ QO‘RG‘ONI

Yozning issiq kunlari boshlangani sababli Otabekning oilasi Eldaniz qo‘rg‘oniga ko‘chgan edi. Malika qo‘rg‘onga ko‘chgan kuniyoq Otabek Muhammad soqchilar dastasiga Husomiddinni boshliq qilib tayinlagan edi.

Otabek o‘g‘lining hayotini va yosh xotinining nomusini faqat Husomiddingagina ishonardi. Chunki Qatibaning o‘zi Otabekka Husomiddinni nomusli, sadoqatli bir shaxs ekanligini va u Amir Inonjning ne’matlari bilan o‘sib ulg‘ayganligini bir necha bor gapirib bergan edi. Lekin Qatibaning o‘zi shaxsan Husomiddinga ishona olmasdi. Qalban Husomiddinning o‘ch olishidan qo‘rqardi. Xususan, Qatiba qo‘rg‘onda yashagan vaqtlarida Husomiddin ko‘nglida tugib yurgan xusumatlarni osonlikcha amalga oshira oladi, deb o‘ylardi. Shuning uchun ham kechalarning birida Qatiba Sabo xonim orqali Husomiddinni o‘z xonasiga chaqirtirgan edi. Qatiba hamma vaqt biror masalani bahona qilib Sabo xonimni uning chodiriga yuborardi, chunki Husomiddin o‘z sirlarini faqat Sabo xonimga aytardi. Sabo xonim esa, Qatibaning buyrug‘i bilan Husomiddinning izhor qiladigan ishqiy hislariga ijobiy javob berar, g‘ayriqonuniy bo‘lsa ham u bilan yashardi. Husomiddin Qatibaning bu ishlardan xabari bo‘lsa kerak, deb o‘ylardi, chunki Sabo xonim har qachon u bilan tunab qolganida yalinib-yolvorar va Qatibaga aytib qo‘ymasligini iltimos qilar edi.

Sabo xonim chodirning pardasini ko‘tarib ichkari kirdi va chodirda Husomiddindan bo‘lak hech kimni ko‘rmagach, uning quchog‘iga tashlanib yig‘ladi.

Husomiddin uning lablaridan o‘pib so‘radi:

— Xo‘sh jonim, nega yig‘laysan? Husomiddinning ko‘z yoshlaringni ko‘rishga toqati bormi?

Sabo xonim uning buynidan quchoqlab dedi:

— Mening ko‘z yoshlarimga sababchi o‘zing emasmisan?

— Yo rabbiy, men shunday bo‘lishiga yo‘l qo‘ya olaman-mi? Gapir, sababi bormi o‘zi, biror hodisa ro‘y beradigan bo‘lsa, qilich bilan bartaraf qilaman.

Sabo xonim ho‘ngrab yig‘lab, dedi:

— Yo‘q, qo‘lingdan kelmaydi, chunki uni sevasan.

Husomiddin kulib boshini qimirlatdi:

— Sen meni Qatibadan rashk qilyapsanmi? Bilasan-ki, u menga xiyonat qildi. O‘zing bilasanki, men uni yo‘qotish payida yuribman. Ajabo, meni sevmagan bir odamni seva olarmidim? U meni aldab erga tekkanligi kamlik qilganidek, buning ustiga yana aldab Hamadonga ham olib keldi. Otabekni sevmasligiga qayta-qayta ont ichib ishontirdi. Lekin undan o‘g‘il ham tug‘ib oldi. Endi mendan nima istaydi?

— Bilmayman, kechki ovqat bahonasi bilan seni o‘z xonasiga taklif etdi. U seni yonida olib qolmoqchi. Men bunga chiday olmayman. Bu kecha o‘zimni hovuzga tashlab g‘arq qilaman.

Sabo xonim shu so‘zlarni aytib, yana ho‘ngir-ho‘ngir yig‘ladi. Husomiddin uning muhabbatiga ishonar edi. Chunki u, soxta muhabbat bilan yashagan bir xotinning ko‘zlaridan bunchalik yosh to‘kilishiga ishonmasdi. Lekin Husomiddin Sabo xonimning bunday ishlarga mohir ekanligidan bexabar edi. U doim Sabo xonimga yolvorib derdi:

— Sening har tola sochingni olamdagi yuzlab malikaga alishmayman. Uning soyasida yillarcha sarson bo‘ldim. U go‘zal, lekin biror martaba bo‘lsa ham, yuzim kulmadi. Men shunday bir fikrga keldimki, u bilan hech kimsaning baxti kulmaydi. Mening baxtim faqat sen bilangina kuladi. Shuning uchun ham seni bu zaharli xotinning changalidan qutqarib, bir malika taqlid yashaydigan qilmoqchi bo‘ldim.

Qatiba Sabo xonimning hayallab ketganidan xafa bo‘lmasdi, chunki u Sabo xonimni o‘zi bergan topshiriqlar bilan kechikkanini bilardi.

Sabo bir soatdan keyin qaytdi-da, xoxolab kula boshladi. Bu kulgidan Qatiba Saboni nima demoqchiligini tushundi, Sabo xonim esa Husomiddin bilan bo‘lgan suhbatning hammasini ipidan-ignasigacha oqizmay-tomizmay Qatibaga aytib berdi. Qatiba bosh silkib, dedi:

— Butun ishlar Husomiddin singari kishilar qo‘lida bo‘lganida edi, hamma ishni bir soat ichida saranjom qilardim.

Husomiddin Qatibaning manziliga yaqinlashganida, Qatiba qora bulutlar quchog'ida qolgan o'n to'rt kechalik oyni tomosha qilardi.

Bir tomonda Sultoniya chamanzoridan ko'tarilgan tungi shabada Alvand tog'ining latif, xushbo'y yellari bilan aralashib Qatibaning qora sochlarini to'zg'itar va oydan ham yorug' bo'lgan peshonasidan o'par edi.

Qatiba bu kecha o'ziga oro berishning barcha vositalaridan foydalangan edi. U Husomiddinni ko'riboq yuziga tushib turgan sochlarini tuzatdi. Husomiddin esa bu ofatijonning go'zalligini va o'zini tunga xos libosda, oy shu'lasida namoyish qilishini ko'rarkan, uning vujudi, hissi, fikr-zikri tamomila o'tmish kunlariga qaytdi va o'z-o'ziga dedi: Subhonollo! Bir oy bulutlar ortiga yashirinmoqda, ikkinchi oy esa, qora sochlar orasidan chiqib, xonani charog'on qilmoqda".

Qatiba ko'z qirida boqib Husomiddinning nigohidagi ma'noni o'qirdi. Uning aqliga g'olib kelgan ehtiros shalolasini eshitganday bo'ldi. Lekin Qatibaning o'zi g'amgin va norizo ko'rinardi. Husomiddin salom berib kirganida Qatiba ishq-u rashk qo'lida o'yinchoq bo'lgan bir qizdek shikoyat qila boshladi:

— Endi men u olchoq kanizakni, har qadamda menga xiyonat qiladigan Saboni sening yoningga yubormayman. Endi bunday haqoratlar chidab bo'lmaydigan darajaga yetdi. Bilaman, sen uni sevasan, bo'lmasa ikki qadamgina joydan seni aytib kelish uchun soatlarcha vaqt kerak bo'larmidi?.. Sen shunday ishlarni meni haqorat etish uchun qilyapsanmi?

Qatiba shunday deb ho'ngrab yig'lab yubordi. Husomiddin dong qotib qoldi. Uning yig'isi chinmi yoki yolg'on yig'imi, deb diqqat bilan tikilar edi. Husomiddin Qatibaning Sabo xonimdan ham qattiqroq yig'layotganini ko'rib o'z-o'zicha shunday o'ylardi: "Naqadar baxtliman, Eldaniz qo'rg'onining musaffo havosida nafas olyapman, o'zim esa Otabekning ishongan sardori, yosh va badavlat odamman, bu mustahkam, metin vujudim esa, Sharqning ikki mashhur go'zalini o'ziga maftun etgan. Haqiqatan ham bu ko'z yoshlar yurakdan jo'shayotgan muhabbat selining tomchilaridir. Sabo xonim ham, malika ham mening ishqimda aqldan

ozib telba bo'lib qolganlar. Sabo! Uning sochlarini hidlar ekanman, tong nasimi dimog'imga gullarning orombaxsh hidlarini olib kelganday bo'ladi. Lablari lablarimga tegarkan, baxt nash'asi qonimda jo'sh uradi. Uni quchog'imda ko'rganimda o'zimni butun olamni zabt etgan fotihdan ham yuksakroq his qilaman. Bunisi esa malika, men buning qarshisida turarkanman, muqaddas kitoblarda o'qiganim mo'jizalar ko'z oldimda jilvalana boshlaydi, o'zim-o'zimga: "Ajabo, qarshimda turgan malikami, mening ishqimda butun borlig'i bilan yig'lagan shu mag'rur Qatibami?" deb savol beraman". Husomiddin shularni o'ylagan onlarida sevgi qanotlariga suvor bo'lib ahmoqlikning uchchiga chiqardi. U faqat Sabo bilan Qatibani o'ylardi, lekin ularning nimalar haqida o'ylayotganlarini bilishga qodir emasdi.

Nihoyat, Qatiba dedi:

— Kel, o'tir! Lekin menga so'z berishing kerak, bundan so'ng Sabo xonim bilan oshiqona aloqada bo'lmaysan. Meni tahqirlamaslik va xorlamaslik haqida ont ichishing kerak.

Husomiddin nima qilishini, xursand bo'lib ketganidan nima deyishini bilmasdi:

— O'zi nima gap, go'zal malika, — deya oldi. — Ajabo, men Sabo xonimni sevadigan darajada tubanlashdimmi? Bir cho'ri qizni-ya? Nahotki, malika mening qanday izzati nafsga ega ekanligimni unutgan bo'lsa?

— Qatibani bilmasliging mumkin emas. Sen bilasanki, sevgan vaqtlarimda jinni bo'lib ketaman. Nima qilay? Sen ham, men ham, har ikkalamiz ham haqlimiz. Kibor oilalarda yashagan qizlar, hech qachon o'z qalbiga, o'z muhabbatiga o'zi ega bo'lolmaydi. Ont ichib aytamanki, men Nizomiydan umid uzganimdan so'ng, seni o'ylardim. Lekin saltanat ehtiyoji-yu oilamizning istiqboli meni bu oltin qafasga tushishga, zindonda yashashga majbur etdi. Bunga bir qadar sen ham sabab bo'lding, chunki men seni Mohtobga ilinib qolganingni ko'rganimdan keyin umidimni uzdim. Lekin bu yerda yolg'iz qolmaslik uchun eski sevgisini hozir ham yuragimda saqlangan odamlarimni o'z yonimga tortishga urindim. Bilmadim, sen buni sezasanmi? Menga ishon, Husomiddin, har safar seni kanizagim Sabo xonim bilan aloqangni ko'rarkanman, o'zimni

tahqirlangan his qilaman. Qani, ayt-chi, meni bunchalik kamsitishlaringga xotima berasanmi? Biz ikkalamiz ham baxtdan bebahra bo'ldik. Men seni baxtsiz qildim, toleyim o'z baxtimni qo'limdan oldi. Lekin seni unutganim yo'q. Malikalik mening qizlikdagi hislarimni qo'limdan ololmaydi.

Husomiddinning ham xayollari Ganjaga va yoshlik chog'lariga ketgan edi. U oqshom paytlari suv bo'yidagi majnuntol to'nkasida o'tirgan qizni xotirladi va beixtiyor oh tortib:

— Oh, vatan! — dedi.

Qatiba boshini qimirlatib:

— Ha, vatanni qo'msaysan, kishi, — dedi. — Aziz do'stim, kulgili bo'lmasaydi, o'sha ustida o'tiradiganim majnuntol to'nkasini Hamadonga keltirardim, chunki unda g'am-g'ussa nima ekanini bilmagan hayotimning laziz onlari o'tgan. Qani, ayt-chi, o'sha to'nka ustida o'tirgan zot o'z Ra'nosi bilan baxtiyor yashay oladimi?

— Ha, yashayapti. Muhammad ismli bir o'g'illari ham bor.

Qatiba yig'lab yubordi-da:

— Qalbimni yaralading, — dedi.

Qatiba ichkari kirdi. Husomiddin ham uning ruxsati bilan ketidan kirdi. U yerda yonib turgan yuzlarcha oltin shamlarning yorug'i Qatibaning husniga husn qo'shardi. Husomiddinning nazarida Qatibaning yuzida qizligidagi ma'sum termilishlar hali ham bordek edi. Bu qarashlar uni o'ch olish fikridan qaytarganidek, o'tmish sevgi hislarini yanada yangilardi. Qatiba Husomiddinning fikrini darhol ko'zlaridan o'qirkan, dedi:

— Shunday, aziz do'stim: "Sen meniki bo'lmasang, boshqaniki ham bo'lolmaysan", degan so'zlaring doim quloqlarimda jaranglaydi. Gaping juda to'g'ri. Men uni hech qachon bir erdek sevmayman, bu haqda senga so'z beraman. Lekin muayyan bir vaqtga qadar hayotimiz shu tarzda davom etadi. Ammo sen ham o'rtadagi moneliklarni yo'qotish uchun menga yordam berishing kerak...

Husomiddin unga qizg'in bir holatda javob berdi:

— Malikam, senga va otamning arvohiga qasamyod etib aytamanki, o'lgunimcha ixtiyoringdaman. Sen mening qanchalik sodiq va mustahkam irodali odam ekanimni yaxshi bilasan.

— Lekin sen duch kelgan kanizakning orzusini bajo keltirish bilan meni tahqirlamasliging kerak, chunki bu xildagi harakatlaring sevgimizga raxna solishi mumkin.

Husomiddin malikaga ont ichib, uni ishontira boshladi:

— Malikam, qasam ichaman, Saboga qo'limning uchini ham tekkizgan emasman. Men malika uchungina yashayman, moneliklar bartaraf qilinganiga qadar kutaman. Men uchun sening bir kalima "sevaman" deyishingning o'zi kifoya.

Husomiddin Qatiba bilan kechki ovqatni baham ko'rish uchun o'tirdi. Ular xayrlashib, ajralar chog'larida Qatiba yana bir bor:

— Husomiddin, menga ishon, seni sevaman, — dedi-da, labini uning labidan ajratar ekan:

— Qolgani keyin,— deb ilova qildi.

Husomiddin chiqib ketdi, Sabo xonim chodirga kirarkan, Qatiba kulardi. Sabo xonim bu kulgining ma'nosini darrov tushunib, dedi:

— Shunday, malika, erkaklar ont icha-icha gunoh qilishga o'rganib qolganlar. Ularning ko'ngillari ko'zlariga qaram. Ko'z oldilarida ko'rganlarini sevaveradilar.

Qatiba Sabo xonimga o'z buyrug'ini yana takrorladi:

— Sen uni o'zing bilan mashg'ul qilishing kerak, aks holda, u bu yerni tark etib, Ganjaga ketib qolishi mumkin. U bu yerda menga kerak.

"LAYLI VA MAJNUN"

Mamlakatdagi ba'zi noroziliklardan tashvishlangan Shirvon xoqoni saroyining san'atkor shoiri bo'lgan Xoqoniydan ham shubhalanib, uning ustidan yashirincha ta'qib etishga farmon berdi.

Xoqon tomonidan shoirning ta'qib etilishi bundan bir necha kun muqaddam Shirvondan Ganjaga qochib kelganlar tarafidan xabar qilingandi.

Bu xabarni Xoqoniyga yetkazish, jadallik bilan Shirvondan qochishi kerakligini bildirish uchun yuborilgan chopar shoir Xoqoniyning qaynonasi Jahonbonu tomonidan quyidagi mazmunda bir maktub olib borgan edi.

"Mohtob og'ir betob. Ganjaga kelishing lozimdir.
Jahonbonu".

Xoqoniy maktubni olishi bilanoq yarim kechada bir xizmatkori bilan uyidan chiqib Beylaqon[1] tarafiga yo'lga tushdi. Lekin u, Shirvon chegarasidan o'tishga muvaffaq bo'lolmadi. Uni xoqonning amri bilan hibs qildilar.

Xoqoniy hibsga olinganiga bir necha hafta bo'ldi. Nizomiy Shirvon xoqonining topshirig'i bilan "Layli va Majnun" dostonini yozib tugatdi. Nizomiy dostonni xoqonga olib borib berishni va evaziga avaxtada yotgan shoirni xalos etishni o'ylar edi. Shu maqsad bilan Nizomiy o'zining yosh o'g'ilchasi Muhammadni ham yoniga olib xoqonning poytaxti Shomoxi shahriga yo'lga tushdi.

Shirvon shoirlari va ziyolilari Nizomiyning Shomoxiga kelishini eshitib, uni shahar bo'sag'asida tantana bilan kutib oldilar. Ular bunday xatarli zamonda Nizomiyning Shomoxiga qanday jur'at bilan kelgani haqida o'ylardilar.

Nizomiy bir kun dam olganidan so'ng hammomga tushdi. Xoqon saroyiga borish taraddudida yangi liboslar kiyib, o'g'li bilan birga xoqonning huzuriga bordi.

Lekin saroy ahli uning o'ziga munosib tantana bilan qarshi olmadilar. U xoqonning ayvonida bir soatcha kutib o'tirdi. Chunki xoqon nonushtadan keyingi dam olish uyqusidan hali turganicha yo'q edi. Nizomiy bu ahvolni ko'rganidan so'ng Shirvonga kelganidan pushaymon bo'ldi. Bir vaqtlar elchilar yuborib Shirvonga da'vat etgan xoqon endilikda uni soatlarcha ayvonda kutib o'tirishga majbur qilmoqda edi.

Nizomiy "Layli va Majnun" dostonini qo'ltiqlab yana biroz kutib o'tirganidan so'ng xoqon huzuriga chaqirildi.

Shoir kirgan vaqtida xoqon vazir-u vuzarolari va saroy a'yonlari bilan o'tirgan edi. Nizomiy salom berdi, xoqon uning salomiga o'tirgan yerida javob berdi va birinchi so'zi shundan iborat bo'ldi:

— Xush kelib, safo keltirding, muhtaram shoir! — deb soxta bir tabassum bilan so'zida davom qildi: — Nechun Shirvon xoqonidan

[1] Beylaqon Shomoxi shahrining yonidagi Oqsuv qishlog'i o'rnida bo'lgan kichkina bir shahar edi. Zogotolo Beylokani boshqadir.

qo'rqmang shunday xatarli bir vaqtda chegaramizdan o'tding? Aybi yo'q, o'tir.

Shoir ta'zim qilib o'tirdi. Xoqon Nizomiyga savol berdi:

— Buyurganim, "Layli va Majnun" dostonini yozib tugatdingmi?

— Ha, tugatdim, xoqonning huzurlariga olib keldim. Agar xoqon hazratlariga ma'qul bo'lsa, men buyuk bir faxr bilan qaytaman.

Nizomiy shu so'zlarni aytarkan, shohi tugunchadan "Layli va Majnun" dostonini olib xoqonga topshirdi. Xoqon dostonni ochib, muqaddimasini ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Lekin quyidagi to'rt misrani o'qib:

Turkiy sifati vafoi man nest,
Turkona sifat sazoyi man nest.
Chun halqayi shoh yoft go'sham,
Az dil ba dimog' raft jo'sham.

Jahl bilan so'radi:

— Bu nima demak... Elchilar orqali yuborgan farmonimni nega dostoningga kiritding? Shunday qilishdan maqsading nima? Sen bu misralarni kitobga ilova qilish bilan meni turk tilining va turk xalqining dushmani qilib ko'rsatishni istadingmi? Demakki, yuborgan farmonimni eshitib, menga qarshi ko'nglingdagi adovating ongingga ham ta'sir qildimi? Chunki sen fors tilida she'r yozishdan jirkanasan, shundaymi?

Nizomiy xoqonning so'zini javobsiz qoldirmadi:

— Men o'zimdan hech narsa qo'shganim yo'q. Hozir xoqon hazratlari nima sababdan achchiqlangan bo'lsalar, men ham u zotning farmonlarini eshitgan vaqtimda xuddi shu sababdan achchiqlangan edim. Chunki har kim uchun o'z tili, o'z xalqi va o'z adabiyoti muqaddasdir.

Xoqon Nizomiyning yuziga taajjub bilan boqib:

— Seni ham tanib oldim. Sening qoningni ham siyosiy fikrlar zaharlabdi. Ol kitobingni, bu yerdan jo'na! Bu xildagi asarlar mening tomonimdan hech qanday mukofot bilan taqdirlanmaydi. Bekorga ovora bo'libsan, — derkan, Nizomiy o'rnidan turib kitobini oldi-da, dedi:

— Men bu asarimni mukofot olish maqsadida yozgan emasman. Kitobimni fors tilida yozishdan maqsadim, xoqon hazratlari haqir deb o'ylagan Ozarbayjon xalqining qanchalik madaniy, qanchalik iqtidorli va san'atkor ekanini yana bir bor bilib qo'ysinlar va ishonch hosil qilsinlarki, shunday bir xalq hech qachon ajnabiylarning bo'yinturug'i ostida yashashni istamaydi.

Nizomiy shu so'zlarni aytganidan keyin yana bir ta'zim bajo keltirib saroydan chiqib ketdi.

* * *

Shirvon xoqoni Abulmuzaffarning valiahdi Bag'doddan qaytarkan, Shirvonga o'tish uchun Tabrizga kelishi kerak edi. Xuddi shu kunlarda Qizil Arslon Nizomiy yozgan maktubni oldi. Nizomiy maktubida shunday yozgan edi:

"Buyuk hukmdor!

Oron o'lkasining davlat markazi bilan aloqasi kesilgani va Hamadon bilan Bag'dod esa Shimoliy Ozarbayjondan uzoqligi o'lkadagi nohaqliklarni yanada ko'chaytirib yubordi. Bu holat Shirvon xoqonining ham o'zboshimchalik bilan hukm surishiga imkon yaratib berdi. Shu soatlarda minglarcha gunohsiz ozarbayjonliklar uning zindonida yotibdi. Shu kunlarda shoir Xoqoniy avaxtada. Uni qutqarish niyatida Shirvonga bordim. Xoqonning topshirigi bilan yozilgan "Layli va Majnun" dostonini ham o'zim bilan olib borgandim. Asarning muqaddimasi xoqonga ma'qul tushmagani uchun meni tahqir etdi. Xoqoniyni qutqarishning iloji bo'lmadi. Xoqon o'ziga qarshi tashkil qilingan suiqasdda shoir Xoqoniyning ham ishtiroki bor, deb o'yladi.

Amir Inonj Shimoliy ozarbayjonliklarning Qizil Arslon tarafdori ekanliklarini ro'kach qilib oronliklarning huquqini himoya qilishdan bosh tortmoqda".

Qizil Arslon bu maktubni olganidan ikki kun keyin, Shirvon xoqonining valiahdi Tabrizga kirib keldi. Qizil Arslon Shirvon xoqoni valiahdiga Ozarbayjonning qurolli kuchlarini ko'rsatish uchun Janubiy Ozarbayjon qo'shinlarining Yaniq, Sardoriy va Tabriz oralig'ida to'planishiga amr berdi.

Tabrizdan Yaniqqa qadar valiahdning bosib o'tadigan yo'liga qimmatbaho gilamlar to'shalgan edi.

Valiahdga ziyofat — nonushta berish uchun Yaniq chashmasining atrofiga yuzlarcha chodirlar qurilgan edi. Valihadga maxsus qizil shohi chodir qurilib, uning tepasiga tilladan ishlangan katta bir qubba o'rnatilgan edi. Oltin kamarli yuzlarcha qullar kiftlarida tilla gurzi ko'tarib chodirning ikki tarafida saf tortib turardilar.

Urmiya, Xoy, Marand, Qoratog' va Xamsa viloyatlaridan to'plangan yuz ming nafar yosh otliqlar Shirvon valiahdini Go'vgon shahridan boshlab Yaniqqacha kuzatib bordilar. Yaniqda Shirvon xoqoni valiahdini Qizil Arslonining vaziri Shamsiddin qarshi olib unga Qizil Arslonning salomini topshirdi.

Valiahd chodirida bir-ikki soat istirohat qilganidan so'ng nonushta qilish uchun katta chodirga kirdi, rang-barang shohi libos kiygan yuzlarcha kanizlar valiahdning xizmatida edi. Nonushta tugagach, Tabrizga jo'nash taraddudi boshlandi. Valiahd Tabriz atrofini sayr qilish uchun taxtiravonda emas, otliq kezishni xohladi. Darhol unga bitta Qorabog' otini taqdim etdilar. Valiahd bilan uning atrofidagilar mingan otlarga ipak yopuqlar yopilgan edi.

Qizil Arslon valiahdin Tabrizga kiraverishda kutib olib, peshonasidan o'pdi va o'z saroyiga olib ketdi.

Qizil Arslon valiahdni mehmon tariqasida saroyida o'n besh kun olib turmoqchi bo'ldi. Qizil Arslon Shirvon xoqoni Abulmuzaffarga shu mazmunda maktub yubordi:

"A'lo hazrat!

Amir Inonjning xiyonati tufayli Shimoliy Ozarbayjonning idora qilish ishlarida jiddiy ziddiyatlar ro'y bergani sababli a'lo hazrat xoqon ham bir qancha oronliklarni hibsga oldirganlar. Men shu kundan e'tiboran Amir Inonjning o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymaslik uchun Oron ishlarini o'z qo'limga olishga va siz bilan Oron xalqi o'rtasida ro'y bergan ixtilofni bartaraf qilishga qaror berdim. Sizga ma'lumdirki, Ozarbayjonning rasmiy hukumat markazi Tabrizdir. Agar a'lo hazrat Amir Inonjga murojaat qilmay, har qanday janjalli masala haqida to'g'ridan to'g'ri Tabrizga murojaat qilganida edi, ikki hukumat o'rtasida bu qadar katda ixtilof chiqmasdi, ikki o'lkaning xalqi ham bu qadar ozurda bo'lmasdi. O'ylaymanki, a'lo

hazrat har ikki hukumatning manfaatlarini nazarda tutib, quyida qayd etilgan bir necha masalalarni hal qilish uchun sa'yi harakat ko'rsatar.

Avvalo, a'lo hazrat, valiahd Tabrizda mehmon ekan, janjalli masalalarni hal qilish uchun vakolatnoma bilan bir vakil yuborsangiz.

A'lo hazrat valiahd ham masalalarni ko'rishda ishtirok eta olsin. Ikkinchidan, Shirvon bilan Ozarbayjon o'rtasida mavjud bo'lgan yer va chegara masalalarini muhokama qilish uchun yuboriladigan vakilga aniq vakolatnoma bersangiz.

Uchinchidan, hibsga olinganlarni ozod qilishga farmon berish bilan bir qatorda ularning gunohlarini va ularga yetkazilgan zararlarni aniqlash uchun yuboriladigan vakillarga topshiriq ham bersangiz.

To'rtinchidan, a'lo hazrat lutfan shoir Xoqonning safarga tayyorgarligini va istirohatini ta'minlab, Tabrizga jo'nashiga ruxsat bersangiz".

Abulmuzaffar bu maktubni olishi bilan Qizil Arslonning nima demoqchi ekanini darhol angladi. U o'g'lini mehmon emas, balki garovga ushlab turilganini tushundi. U hech kim bilan maslahatlashmay, zudlik bilan ozarbayjonliklarni hibsdan ozod qilishga farmon berdi. Xoqoniyni esa hibsdan bo'shatib, to'n kiygizdi va safarga chiqishga hozirlab, zo'r tantana bilan Qizil Arslonning huzuriga jo'natdi.

Sulh masalalarini gaplashib, chegara ishlarini tartibga solish uchun Tabrizga o'n kishidan iborat vakillar hay'ati yubordi.

Vakillar Shirvondan chiqmasdan burun valiahdning chopari Abulmuzaffarga shu mazmunda maktub olib bordi:

"A'lo hazrat!

To'rt kundan beri Tabrizdaman. Menga ko'rsatilayotgan izzat-hurmat va kutib olish tantanalari Sharq tarixida misli ko'rilmagan darajada shukuhlidir. Aytish mumkinki, Ozarbayjon otabekligining asosini Hamadon shahri emas, Tabriz tashkil etar ekan. Bu yerda men ko'rganim singari arkoni davlat-u, muntazam qo'shin-u, tantana-yu ulug'vorlikni Hamadonda sira ko'rgan emasman. Hozir oltin kamar bog'lagan yuzlarcha qullar, rang-barang

liboslarga burkangan va olmos marjon taqqan yuzlab kanizaklar xizmatimni qilmoqdalar. Men Tabrizga kelgan kunim a'lo hazratning va mening haqqimga duo qilish uchun Qizil Arslon xazina og'zini ochdirib, Tabriz faqirlariga behaddu hisob mablag' ulashdi. Birorta ham ehson olmagan kambag'al qolmadi. Tabrizga kelganimning ikkinchi kuni mashhur shoir va olim Zahir ibn Tohir, ibn Muhammad Foryobiy Qizil Arslonni ziyorat etish uchun Tabrizga kelishdi. Ularni muhtaram bir hukmdor singari kutib olib saroyga eltdilar. Bugun nonushtani Mujiriddin Beylaqoniy, Hoji Jalol Darakoniy, hakim So'zaniy Samarqandiy, Xoja Mahmud Shohsanjon, Rashiddin Vatvot va boshqa olimlar, faylasuflar, shoirlar bilan birgalikda ovqat tanovul qildik. Qizil Arslon majlisining bir tomonida siyosatshunoslar, bir tomonida faylasuflar, yana bir tomonida olimlar va shoirlar o'tirar edi. A'lo hazrat ijozat berganida edi, bir necha kun qolib, Qizil Arslonning saroyidagi bu ma'naviy hayotdan bahramand bo'lardim. Men olamda Qizil Arslon bilan bir soat bo'lsa ham birga bo'lishni orzu qilmagan biror kishini uchratmadim desam yanglishmayman. U meni o'z o'g'lidek ardoqlayapti, huzur-halovatim uchun qilinayotgan barcha sa'yi harakatlarni shaxsan hukmdorning o'zi kuzatib turibdi. A'lo hazratga samimiy salom yozishni menga bir necha daf'a o'zi ta'kidladi".

Abulmuzaffar valiahdning maktubini olganidan keyin Qizil Arslon bilan aloqani tamomila o'zgartishga qaror berdi. Hatto, Nizomiyni mukofotlash uchun Shirvonga taklif etib "Layli va Majnun" dostonini olib borishini so'radi. Bu taklifga javoban Nizomiy "xastaman, yo'lga chiqolmayman", deb dostonni o'g'li Muhammad orqali Shirvonga jo'natdi.

QATIBA VA QIZIL ARSLON

Shirvon hibsxonasidan bo'shatilganlar Ganja va Oron o'lkasining har tomoniga tarqalib, Qizil Arslonning talabi bilan ozod qilinganliklarini qishloq va shaharlarga xabar qildilar. Hamma yerda Qizil Arslonning umr-davlatiga baraka tilab duo o'qilganda, Amir Inonjning sha'niga la'natlar yog'di. Ganja ko'chalarida, Amir Inonjning qulog'i tagida unga qarshi nafrat ovozlari yuksaldi.

Amir Inonjni hammadan ko'proq bezovta qilgan narsa Shirvon shohi Abulmuzaffarning Tabrizga vakil yuborishi edi.

Amir Inonjning boshqa chorasi qolmadi, u yana Hamadonga murojaat qilishga, qiziga maktub yuborishga qaror qildi. Qiziga yuborgan maktubining muqaddimasida "Aziz qizim, Qatiba" so'zi o'rniga "oliy maqom malika", deb yozdi.

"Maktubni olishing bilanoq a'lo hazrat Otabekka Shimoliy Ozarbayjonning boshiga tushgan yangi falokatlar haqida gapir. Qizil Arslon ishlashimga imkon bermayapti. Islohot o'tkazish mumkin emas. Shirvon bilan Oron mamlakatlari o'rtasida bo'lgan ixtilofni bartaraf qilish uchun Tabrizda kengash chaqirtiribdi. Shu kunlarda Shirvondan Tabrizga vakillar kelyapti.

Qizil Arslonning tadbirlari ma'qullanar ekan, Ozarbayjonda yashashimning iloji bo'lmay qoladi. Agar a'lo hazrat Otabek bu masalaga e'tibor bermasa, zudlik bilan Bag'dodga borib amiralmo'minin hazratlariga xabar ber.

A'lo hazrat Otabekka tushuntirginki, Qizil Arslonning farmoni bilan Shirvon hibsxonalaridan bo'shatilganlarning hammasi Ozarbayjon otabeklarining dushmanlaridirlar. A'lo hazrat ijozat bersalar, Shirvon hibsxonasidan ozod qilinganlarni biz bu yerda darhol tutib zinidonga qamar edik, chunki ularning hammasi isyonchi va xoinlardir.

Mening bu yozganlarimni Otabek hazratlariga topshirganingdan keyin u kishining qanday javob berishlari haqida menga zudlik bilan xabar yozib yubor".

Otabek Muhammad nonushtadan keyin xiyla sarxush edi. U yana har galgi odatini qo'ymas edi. Qatibaning siynasiga boshini qo'yib yotardi. Sabo xonim kirib Amir Inonjdan kelgan maktubni Qatibaga uzatdi-da, yana oyoq uchida asta-sekin orqasiga tisarilib chiqib ketdi.

Qatiba maktubni ochib o'qidi. Qizil Arslon na Bag'dod va na Hamadon bilan hisoblashmay, Ozarbayjonni o'z bilganicha idora qilayotganligi to'g'risidagi so'zlarni o'qib ho'ng-ho'ng yig'ladi, dodlab yuborish darajasiga bordi. Yuragi yorilar darajada o'ynardi. Yuragining g'ayritabiiy tepishi oppoq, chiroyli siynasiga bosh qo'yib yotgan Otabekning farog'atini buzmadi.

Anchadan keyin Otabek uyg'onib sarxush ko'zlari bilan Qatibaga boqdi. Uning hirsi qo'zg'aldi, go'zal malikaning ehtirosini qo'zg'atish uchun yosh bola singari Qatibaning siynasiga lablarini bosdi, keyin turib kerishdi, ko'zlarini ishqalab uyqusini qochirdi-da, uning yuziga boqib:

— Go'zal Qatiba, bu qanday bemahal yig'i? — deb so'radi.

Qatiba piq-piq yig'lab Otabekka:

— Sen to shu kungacha bir haqiqatni mendan yashirib yurgan ekansan, — dedi.

— Qanday haqiqatni?

— Bilmaymanki... bu mamlakatning hukmdori senmi, yoki Qizil Arslonmi?

Otabek Qatibaning bu savolidan nima demoqchi ekanini darhol angladi. Qatiba xato qilgan edi, chunki mastlik — behudlik daqiqalarida hukmdorga bu xil savol berish katta jasorat edi. Otabek Shimoliy Ozarbayjonning ahvolidan xabarsiz emasdi, Qizil Arslon vaziyatni o'z vaqtida unga xabar qilgan edi. U Shirvon shohi bilan Qizil Arslon o'rtasida boshlangan muzokaralarning asosidan xabardor edi.

Shirvon xoqoni valiahdining Tabrizda mehmon nomi bilan garovga saqlanganini ham bilar edi. Qizil Arslon Shirvondan hibs qilinganlar ro'yxatini allaqachonlar qo'lga tushirib Otabekka yuborgan edi.

Qizil Arslon bu masalada Amir Inonj naqadar munofiqona siyosat olib borayotgani va o'z mavqeyini saqlash uchun mamlakat va xalq manfaatiga xiyonat qilayotganini Otabekka yozib yuborgan edi. Shuning uchun ham Otabek Qatibaning savoliga javob berib, dedi:

— Qatiba bilishi kerakki, bu mamlakatning egalari Eldaniz farzandlaridir. Ular mamlakatning barcha past-u balandini biladi, har qanday mushkul ish bo'lsa, hal qila oladi. Boshqalar esa, bularning qo'l ostidagi ma'murlar va fuqarolardir.

Qatiba u yoq-bu yog'ini tuzatib:

— U holda men kimman? — deb so'radi.

— Xotinimsan, muhtaramamsan, seni sevib olganman, lekin senga uylanib, butun bir mamlakatni senga bera olmayman. Mamlakatning sherigisan, xalqimning, mamlakatimning baxt-saodati

yo‘lida ko‘rsatadigan tadbirlaringni men ham, Qizil Arslon ham taqdirlaymiz.

Ayni zamonda shuni bilishing kerakki, Ozarbayjonda yagona bir xonadon bor, u ham bo‘lsa, Eldaniz xonadonidir. Sening o‘g‘ling ham shu xonadonning farzandi. Lekin bu mamlakatda Amir Inonj xonadoni nomida birorta ham hukmdor yo‘q. Mening tasarrufimdagi mamlakatda sening otang singari minglarcha hokimlar bor. Amir Inonjning mo‘tabarligi — Qatibaning otasi bo‘lganidadir. Agar u ham otabeklik da’vo qilguday bo‘lsa, uni ham Rey hokimi Inonjdek mahv etaman. Yana qanday savoling bor?

Qatiba bosh qimirlatib aldangan xotinlardek dedi:

— Bu ko‘yga tushgan yolg‘iz men emasman. Baxtsiz xotinlarning hammasi ham o‘z taqdirida aldanadi, chunki bizlar erkaklarning botiniga emas, zohiriga qaraymiz. Erkaklar esa ikkinchi yuzlarini uylanganlaridan keyin ko‘rsatishadi. Basharti men mamlakatning sherigi bo‘lsam, Otabekka ukangning Ozarbayjonda tutgan siyosati to‘g‘ri siyosat emas, degan bo‘lardim. O‘sha Shirvon shohi bilan boshlagan o‘yini Ozarbayjonning kelajagi uchun xatarlidir. Qizil Arslon tomonidan ozod qilingan odamlar faqat Shirvon va Ozarbayjon hukmdorlarigagina emas, balki umuman barcha hukmdorlarga qarshi kurashayotgan kishilardir.

Otabek Qatibaga yana e’tiroz bildirib, dedi:

— Qizil Arslon juda oqilona ish ko‘rgan. Qizil Arslon ko‘rgan tadbirlarning dushmanlari, mening fuqarolarimning ham dushmanlaridir. Lekin, Qatiba, sen minnatdor bo‘lishing kerakki. Qizil Arslon shu kunga qadar otangning bu qadar oshkora xiyonatlariga e’tibor bermasdan, davlat boshida saqlab kelmoqda. Sen aqlingni boshingga yig‘, yaxshi o‘yla, shunday gunohlar uchun Qizil Arslon otangni tutib dorga ostirsa, unga e’tiroz bildirishga kimning haddi sig‘adi? Buning uchun kim Qizil Arslonni jazolay oladi? Sen o‘zingni bu mamlakatning qonuniy malikasi deb hisoblasang, otangning nomini og‘izga olishdan uyalishing kerak, chunki uning mamlakatda qilgan xiyonatlari boshqa hech kimning qo‘lidan kelmaydi. Sening otang Ozarbayjon xalqining terisini shildi. Lekin shularga qaramay, Qizil Arslon hurmatingni qilib uni o‘rnidan qo‘zg‘atgani yo‘q. Lekin bu ham bizning tomondan xalqqa nisbatan xiyonatdir,

chunki biz millionlarcha xalqni bir shaxsning kayf-u safosi uchun topshirib qo'yganmiz. Men, yoinki Qizil Arslon bir haftagina otangni himoya qilmasak, ozarbayjonliklar uni go'rga tiqardilar. Menimcha, shuning o'zi kifoya. U juda keksayib qoldi, hayotda o'z vazifasini tugatdi, unga endi tinchlik kerak. Mamlakatning go'zal bir yeridan unga mulk ajrataman. Ta'min qila oladigan katta maosh tayin qilaman. Agar Bag'dodda yashashni xohlasa, uning uchun shohona saroy qurishga farmon beraman.

Qatiba otasining Ganja hokimligidan olinishini eshitishi bilan hamma narsani unutdi. Otasining maktubini eslab yig'ladi va Otabekning qo'lidan tutib, yolvorib dedi:

— Iltimos qilaman, keksa otamning qalbini yaralama, qo'y, hozirgi vazifasini bajaraversin, agar otamning o'zi vazifasidan bo'shashni xohlasa, unda o'rniga boshqasini qo'yarsizlar.

— Uning harakatlari o'ziga qarshi katta baxtsizlikni tayyorladi, shuni bilasanmi?

Otabek Qatibadan xafa bo'lgan edi. O'rnidan turib asabiylik bilan uyda kezardi. Qatiba esa, otasining ahvolini o'ylarkan, yum-yum yig'lardi. Qatiba qanchalik yolvormasin, otasini o'rnida qoldirishga urinmasin, Otabek ro'yxush bermadi.

Sabo xonim bu mojarolarning hammasini eshik orqasida eshitib turardi. U vaziyatni payqar, ziddiyatga qarshi chora izlar ekan, darhol Qatibaning o'g'li Qutlug'ning xonasiga yugurdi. Chunki har doim Qatiba bilan Otabek aytishib qolgan vaqtlarida Sabo xonim Qutlug'ni ularning oldiga kiritib yuborardi. Chunki Otabek o'g'lini sevishini bilar edi.

Qutlug' ichkari kirdi. Kirishi bilanoq, yugurib Otabekning bo'ynidan quchoqlab o'par ekan, Otabek Qatibaga o'girilib:

— Mayli, roziman, Qatiba, — dedi.

QO'ZG'OLON

Xalifa Mustarshidbillohning vafoti to'g'risidagi xabarni yashirdilar. Oron o'lkasida qo'zg'olon ko'tarilmasligi uchun xalifaning o'limini xalqdan yashirib sir tutish haqida Amir Inonj tadbirlar

ko‘rgan ediki, bu topshiriqlarni ham Qatiba Hamadondan otasiga yuborgan edi. Lekin buni yashirish uzoqqa cho‘zilmadi. Chunki Shirvon hibsxonasidan xalos bo‘lib Ganjaga qaytgan kishilar Shirvon shohlar saroyida marhum xalifaga motam tutilayotganini Ozarbayjonning hamma tarafiga tarqatgan edilar, Amir Inonjning dushmanlari har tarafdan yig‘ilib kelib Ganjaga to‘plana boshladilar. Bundan qo‘rqqan Amir Inonj atrofdagi otliq qo‘shinlarini Ganjaga chaqirdi. Yaqin kunlar ichida Amir Inonjning ustiga hujum bo‘lib qolishi haqidagi ovozalar hamma yoqqa tarqalardi. Bu xil xabarlarni Amir Inonjning o‘z kishilari tarqatardilar. Shahardan ko‘p kishilarni hibsga olish maqsadida Amir Inonj ana shu ovozalardan bahona axtarardi.

Sekin-sekin hibsga olish boshlandi. Bu hodisalar Ganjada katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Xaloyiq qo‘zg‘olon ko‘tarish va Amirni Ganjadan haydash haqida ko‘chalar va bozorlarda ochiqdan ochiq gapira boshladi. Faxriddin do‘stlari bilan birga Amir Inonjga qarshi xalqni qo‘zg‘atmoqchi bo‘lganini eshitar ekan, Nizomiy ularni chaqirib olib nasihat qildi:

— Masala, Amir Inonjni bu yerdan haydab chiqarishdangina iborat bo‘lsa, buning uchun hech qanday qo‘zg‘olon ko‘tarishning hojati yo‘q. Biz xalq tarafidan Qizil Arslonning huzuriga vakil yuborib unga xalq talabini bayon qilamiz. Men bilamanki, Qizil Arslonning o‘zi ham Amirning bu yerda qolishidan norozi. Bordi-yu, Qizil Arslon bu taklifni rad qilsa, unda qo‘zg‘olon ko‘tarishga haqli bo‘lamiz.

Faxriddin bu fikrga qo‘shila olmay dedi:

— Biz yuborgan vakil Ganjadan Tabrizga borib qaytguncha Amir Inonj Oron xalqining yarmisini, hatto, sen bilan meni ham zindonga tashlaydi.

— U holda biz Tabrizga vakil yuborish bilan birga Amir Inonjga ham maktub yuborib hibsga olishlarni to‘xtatishini taklif qilamiz.

— U shunga ishonarmikin?

— Ishonmasa biz unga hech qanday hujum qilinmasligi haqida va’da beramiz.

Hamma Nizomiyning bu fikriga qo‘shildi. Amir Inonjga yuboriladigan maktub yozildi.

"Buyuk Amir!

Xalifaning vafoti munosabati bilan Oron o'lkasida tarqalgan ovozalar tamomila asossizdir. Ganja xalqining hech qachon Amir saroyiga hujum qilish fikri bo'lgani yo'q. Qo'zg'olon qatnashchilari degan bahona bilan hibs qilinganlarning birortasi ham gunohkor emas.

Ixtilofni keskinlashtirmaslik uchun hibsga olishlarni to'xtatishingizni va hibs qilinganlarni ozod etishingizni so'raymiz. Ganjaga to'plangan kishilarning talablarini bajo keltirish buyuk Amirning obro'siga putur yetkazmaydi. Siz besh-o'nta mulkdorlarning bosib olgan yerlarini egalariga qaytarib berish bilan minglarcha kishilarni o'zingizga yaqinlashtirgan bo'lasiz.

Zolim va talonchi hokimlarni amalidan olib tashlab, ularning o'rniga insofli, fuqaroparvar kishilardan ta'min qilish sha'nshavkatingizni kamsitmaydi. Siz, a'lo hazrat, Otabekning qaynotasi bo'lganingiz uchun ham yurtda qo'zg'olon ko'tarilishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak. Sizning har tarafdan Ganjaga qo'shni to'plashingiz xalqda jiddiy shubhalar tug'dirdi bunday shubhalar qo'zg'olon bilangina tugallanishi mumkin. Shuning uchun ham buyuk Amirdan iltimos qilamizki, Ganjaga to'plangan qo'shinlarni o'z joylariga qaytishi haqida farmon bersalar, buning evaziga biz Amirning qarindosh-urug'lari, mol-mulki va saroyiga daxl qilinmasligi uchun kafil bo'lamiz.

Quyida imzo chekuvchilar o'z kafolatlari uchun boshlari bilan javobgardirlar".

Maktubga yigirma kishi muhr bosib, imzo chekdi va bir vakil bilan Amir Inonjga jo'natildi. Yuborilgan bu kafolatga tavajjuh qilgan kishilar Amirning bu jinoiy yo'ldan qaytishiga ishonar edilar.

Lekin butun umidlar puchga chiqdi. Maktubni olib borgan vakil saroyda hibsga olinib, boshi kesilgani haqida xabar keldi. Hatto, maktubga qo'l qo'yganlardan ham bir nechasi hibsga olindi. Aksincha, maktub yozilganidan boshlab Amir o'z adovat va g'azabini yanada oshirib yubordi, qo'liga tushganning, kim bo'lishidan qat'i nazar, saroyda boshini kestirib, saroy zindonlarida bo'g'ib o'ldira boshladi. Qo'shinlar kelishi davom etardi. Aholi katta xavf ostida

qoldi. Faxriddin yo'ldoshlari bilan birga Ganjadan chiqib, Oqsivon daryosi bilan Yam o'rtasida bo'lgan so'qmoq yo'llarni nazorat ostiga olib, Tiflisdan Ganjaga yordam kelishiga yo'l qo'ymaslik chorasini ko'rardi.

Faxriddinning boshqa bir guruh odamlari Sayid Alouddin rahbarligi ostida Shirvon chegaralarini kesib, Amir Inonjga yordamga keluvchilarning saddi rohini to'sish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda edi.

Faxriddinning Shimoliy Ozarbayjon shaharlariga yuborgan xabarlaridan o'n kun o'tgandan so'ng Bozorjuk va Xo'rsunang qishloqlari orasida minglarcha qurollangan otliqlar yig'ilgan edi. Ganja bilan Shirvon va Gruziyaning aloqasi kesilgandan keyin Amir Inonj vaziyat og'ir ekanligini angladi-da, vaziri To'xtamishning maslahati bilan Ganjaning arboblari va ziyolilarini garov sifatida ushlab turishga qaror qilib Faxriddinga:

"Ganjaga hujum qilishing bilan garovla bo'lgan odamlarning hammasini o'ldirtiraman", degan mazmunda maktub yubordi.

Lekin bu maktubni jo'natish mumkin bo'lmadi. Yarim kechadan o'tganda Faxriddinning qo'shinlari uch tomondan shaharga hujum qildi.

Tong otgunga qadar Ganja shahri bo'sag'asida qonli jang davom etdi. Quyosh Xonaqoh qishlog'ining bog'lari ortidan yuzini ko'rsatganida, g'alaba qo'zg'olonchi guruhlarga kulib boqdi.

Faxriddinning g'olib qo'shinlari shaharga kirgan vaqtida ularning boshlariga Ganja xotin-qizlari tomlardan gullar sochardilar. Otlar gullarning ustida o'ynoqlar va Amir Inonj askarlarining o'liklari ustidan sakrab o'tib olg'a tomon otilardilar.

Ko'chalarda davom etayotgan jang qosh qorayguncha to'xtamadi. Qorong'i tushgandan keyin bir guruh odamlar Amir saroyini qamal qildilar. Lekin saroy ichiga kirish mushkul edi, chunki Amir bir oydan buyon saroyni mustahkamlab, zabt etib bo'lmaydigan qal'aga aylantirgan edi. Amirning odamlari qo'zg'olonning uchinchi kuni ham kechgacha jang qildilar. Saroydan otilayotgan o'qlardan bir necha kishi o'ldi. Nihoyat, qorong'i tushganda, Amir chetdan yordam kelmasligini bilgach, g'alabadan umidini uzdi. Lekin vaziri To'xtamish:

— Hozircha saroyda bir necha haftaga yetarli oziq-ovqat bor, nima uchun taslim bo'lasiz? Barzand, Bojeravon va boshqa shaharlarga xabar berish kerak. Shubhasiz, bizga ko'mak yuboradilar, — deb Amirni qarshilik ko'rsatishga majbur qildi.

Amir yana ikki kun qarshilik ko'rsatdi. Oltinchi kuni qo'zg'olonchilar Amir bog'ining devorlaridan bir tarafini yiqitib ichkari kirdilar. Jang bog' ichiga ko'chdi. Vaziyat juda ham jiddiy tus olgan kunlarda Nizomiy Faxriddinga topshiriq berdi:

"Iltimos qilaman, odamlaringni tartibga chaqir, xotin-qizlarga tegishmasin, davlat xazinasiga qo'l urishmasin, taslim bo'lganlarni o'ldirishmasin. Qarshilik ko'rsatmaganlarga omonlik berilsin. Qullar, kanizlar, cho'rilarga shafqat qilishsin. Amirning o'zi va oilasini hibsga olish bilan chegaralarning, qo'zg'olonni mumkin qadar talonchilikka olib bormaslikka harakat qiling. Ba'zi birlarni o'ch olish fikridan qaytaring. Amirning saroyiga yig'ilgan xalq moli ayrim kishing emas, umumxalqning qo'liga tegishi uchun tadbirlar ko'ring. Muhokamasiz biror kishining burnini ham qonatmanglar, qo'yib bering, saroy a'yonlarini xalqning o'zi yig'ilib sud qilsin. Amirning xotini bilan kichik qizini muhofiza qiling, o'zboshimchalik va rasvogarchilikka yo'l qo'ymanglar".

Faxriddin Nizomiydan olingan topshiriqni tamomila ma'qulladi va odamlariga tushuntirdi. Lekin bu topshiriqni amalga oshirish, ayniqsa, saroyning hozirgi sharoitida ancha qiyinlashdi. Faxriddin qo'lida qilichi bilan haramxona dahliziga kirgan vaqtida, xoja Mufidning burchakka tiqilib, boshini qisib turganini ko'rdi. Xoja Mufid Faxriddinni ko'rishi bilan salom berdi. U qo'rqqanidan qalt-qalt titrardi.

— Nega qo'rqasan?.. Qani, ayt-chi, hibsga olinganlar qayerda? — deb so'radi Faxriddin.

Xoja Mufid oldinga tushib Faxriddinni zindonga boshlab borib:

— Mahbuslar shu yerda, o'g'lim, — derkan, Faxriddin eshikni ochib ichkariga kirdi. Murdalar hidi kishini hushdan ketkizadigan darajada edi.

Zindonda bitta ham tirik jon yo'q edi, hibs qilinganlarning hammasi o'ldirilgandi.

Faxriddin qaytdi, o‘zi bilan o‘n kishini olib yana dahlizga kirdi, eshik tagiga qorovul qo‘yib hech kimni ichkariga kiritmaslikni tayinladi. Xoja Mufid oldinda borardi. U kichkina bir eshik oldiga yetgach:

— Vazir shu yerda,— dedi, Faxriddin ikki kishi bilan To‘xtamishning giribonidan bo‘g‘ib olib chiqdi, o‘z odamlariga topshirib:

— Zindonga tashlansin! — deb buyurdi.

Xoja Mufid boshqa bir uyni ko‘rsatib:

— Amirning o‘zi shu uyda, — deb boshini quyi soldi. Birozdan keyin Amir o‘z odamlari bilan birga qo‘llari bog‘langan holda zindonga jo‘natildi.

Haramxonaga hech kim kirmadi. Faxriddinning amri bilan xoja Mufid ichkariga kirib, Amirning xotini Sofiya xotunga bosh egdi-da:

— Xonim, Faxriddin dahlizda kutmoqda, — dedi va birozdan so‘ng Sofiya xotun qo‘lida bir qizchani ko‘tarib dahlizga chiqdi. Xotin qo‘rqqanidan titrab, ho‘ng-ho‘ng yig‘lardi. Faxriddin uning vahimasini bosish uchun:

— Qo‘rqmang, nima qila olardik, bu hodisalarga eringizning o‘zi sabab bo‘ldi, — dedi.

Sofiya xotun yolvorib:

— Iltimos qilaman, bizni Nizomiyning ixtiyoriga topshiring, u marhamatli odam, u bizni o‘limdan va tajovuzdan saqlab qoladi, — dedi. Faxriddin ularni muhofiza qilish uchun yaqin odamlariga topshirib,— bularni Nizomiyning uyiga olib boring, — deb buyurdi.

Qo‘zg‘algan xalqni tinchitishning iloji yo‘q edi. Mol-mulki tortib olingan, o‘g‘li, aka-ukalari o‘ldirilgan va qizlari Bag‘dodga jo‘natilgan kishilar bir og‘izdan yovuzlarni jazolashni talab qilar edilar. Amirning saroyidagi besh yuzga yaqin cho‘rilar, kanizlar va xizmatkorlarni bir yerga yig‘ib, masjidga kiritildi. Hukumatga tegishli hujjatlar va boshqa narsalarni o‘z vaqtida saroydan olib chiqildi. Kanizak va xizmatkorlar qo‘liga ozodlik qog‘ozlari berilib, qo‘yib yuborildi. Kanizaklarning hammasini uylariga, oilalari oldiga qaytishlari uchun yo‘l xarajatlari berib kuzatib qo‘ydilar.

Bir haftadan keyin vazir To‘xtamishni qatl etish uchun Ma-

likshoh maydoniga dor qurildi. Minglarcha xalqning ko'zi oldida To'xtamishni dor ostiga olib bordilar. Faxriddin zinaga chiqib, maydonga yig'ilgan xalqqa murojaat qilib, dedi:

— Oron xalqi! Nihoyat, necha yillardan beri ezilganlarning, haqoratlar va iskanjada saqlanganlarning qasos olish navbati keldi. Ana shu dorga osiladigan zot qirq yildan beri minglarcha gunohsiz qon-qardoshlarimizni va aziz vatandoshlarimizni dorga osdi. Din va shariat pardasi ostida ish ko'rgan bu dinsizlar xalifa, Xudo va payg'ambarlar nomidan so'zlab, mol-mulkka, davlat va boylikka, inson mehnatining boy mahsullariga qanoat qilmadilar. Hamma narsaga ega bo'ldilar. Erlarni dor tagiga, xotin-qizlarimizni esa haramxonalarga olib ketdilar. Shobron, Beylaqon, Barzand, Kashtosib qizlari Bag'dod xalifalarining saroylariga hadya qilinib yuborildi. Xalqning aziz va go'zal qizlarini qo'y galasiday saroylarga haydab keltirib, bir-birlariga in'om qildilar. Bugun Amirning saroyida bo'lgan minglarcha qizlar, kanizlar, cho'rilar va qullar ozod qilindi. Hozirning o'zida Amir Inonjning yoqasi bizning qo'limizda, undan Bag'dodga yuborilgan qizlarni talab qilmoqdamiz. Bugun zolimlardan hisob-kitob qilishga haqqimiz bor. Biz hech kimdan qo'rqmaymiz, bu intiqom uchun bizni jazolamoqchi bo'lgan otabeklar ham qo'shini bilan ustimizga kelaversin. Biz ozarbayjonliklar chet el bosqinchilariga qarshi olib borgan janglarimizda dushmanni yanchib tashlaganmiz, o'shanday jang va qo'zg'olonlar davom etadi. Ozarbayjonliklar, qani, endi ishga boshlanglar.

Faxriddinning bu so'zlaridan keyin To'xtamishni osdilar, lekin xalq tinchimadi. Ular "Amir, Amir", deb qichqirardi. Hayajonga kelgan xalqning oldini olish mumkin emasdi. Ular zindonga hujum qildilar. Yarim soatdan so'ng Amir ham To'xtamishning yoniga osilgan edi.

Ganja xatibi bilan Ganja qozisining uylari tintuv qilinganda, uylaridan har xil musiqa asboblari, sharob to'la xumlar, qadahlar va may kosalari chiqdi. Xalq bularni ko'rarkan, bir vaqtlar shoira Mahsatiy xonimning musiqa chalib, ashula aytgani uchun Ganjadan badarg'a qildirgan qozi va xatibga la'natlar o'qidi. Hujjatlarni tekshirilganda, bir qancha muhim maxfiy maktublar bilan birga

xalifaning Amir Inonjga yuborgan maktublarini ochib ko'rildi. Ozarbayjonning sharoitiga doir bo'lgan maktublarning birida xalifa Amir Inonjga bunday yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan edi:

"Xalqi arab bo'lmagan mamlakatlarda xalifaning obro'sini ko'tarish uchun qurol ishlatish vaqti o'tgan. Bunday mamlakatlarda dinning obro'sini ko'tarish — xalifaning obro'sini himoya qilish demakdir. Siz xalifani nazardan tushib qolishi sabablarini faqat diniy e'tiqodlarning susayganidan deb o'ylaysiz.

Shuning uchun ham harakat qilingki, ozarbayjonliklar arablar qabul qildirgan dinni rad qilmasin va diniy aqidalardan bosh tortmasin. Tarixdan olgan tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, islom dini hozircha Ozarbayjon xalqining milliy odatlariga barham bera olmagan. Bobakning va boshqalarning isyonlari ko'rsatadiki, ozarbayjonliklar islom dini qonunlarini hazm qila olmaydilar. Harakat qiling, xalq bu dinga yotsirab majburiy din singari qaramasin. Siz Ozarbayjonda arablarning yakka-yakka yashay olmasligi haqida behudaga ixtilof chiqarmoqdasiz. Bu juda oddiy va befoyda bir kurashdir. Shuni bilingki, dinni butunligicha saqlash — barcha arablarni saqlash demakdir. Maktubda Mahsatiy xonim kabi shoirani badarg'a qilinganini yozibsan. Bu kurash emas, sizlar mahsatiylarni yaratgan muhitni va sharoitni zaharlab yo'qotishingiz kerak.

Yozgan maktublaring shuni ko'rsatadiki, din, tariqat ishlariga xalq unchalik qiziqmaydi. Shuning uchun ham o'z vaqtlarini she'r, musiqa va milliy madaniyat ishlariga sarf qiladilar. Shuning uchun men oldingi maktublarimda sizga maslahat bergandim. Atrofdan din va tariqat olimlarini chaqirib xalq orasida diniy bahslar o'tkazinglar. Mo'jizalar va g'ayritabiiy hodisalar yaratishga harakat qilinglar.

Bilmadim, nima uchun Shimoliy Ozarbayjonning tog'li viloyatlarida bo'lgan muridchilikni kengaytirmaysizlar... muridchilik faqat xalqning shuurini din atrofiga to'plash bilangina chegaralanmaydi. Muridlardan tuzilgan guruhlarni kerak bo'lganida, qurolli kuch o'rnida ishlatish ham mumkin".

Qo'lga tushirilgan hujjatlar orasida boshqa maktublar ham bor edi. U maktublarning birida xalifa moddiy yordam talab qilar, shohi, atlas, ipakli gazlamalar, gilamlar yuborishni buyurardi.

Maktublardan birida: "Senga o'n nafar qora qul yubordim, evaziga oq badan kanizaklar yuborishing kerak. Hozircha nazr qilish uchun Bag'dodda go'zal kanizaklar juda oz", — deyilgan edi. Maktublarning birida, Qatibaning Qizil Arslon bilan olib borgan kurashi va Qatibaning unga suiqasd tayyorlaganiga doir qisqacha ma'lumot bor edi.

Maktubda Otabek Muhammadning Shimoliy Ozarbayjonda islohot o'tkazishiga qarshi yo'l-yo'riqlar ham berilgan edi.

Qo'zg'olon tugaganidan so'ng Amir zindonlarida yotgan murdalarni olib chiqib, ularning kimliklari aniqlandi. Murdalarning orasida besh-oltita qo'zg'olonchi, qolganlarining hammasi qo'zg'olonga hech qanday aloqasi bo'lmagan odamlar edi. Chunki Amirning qo'liga kimki tushgan bo'lsa, "oronlik, o'ldirilishi kerak", deb qatl qilingandi. O'lganlar orasida savdogardan tortib saroyga yuk ko'tarib kelgan hammollarga qadar bor edi.

Bulardan boshqa saroy zindonlarida qirq yildan beri qayerdanligi noma'lum bo'lgan bir qancha qo'zg'olonchilar, Amir yoqtirmagan odamlarning suyaklari, nishonalari topildi. Qabriston shaklini olgan zindonlarda ko'milganlarning kim ekanligini xoja Mufid bir-bir aniqlar edi.

Zindonlarni tekshirish ishi bir oydan ko'proq davom etdi. Xabar topgan odamlar Oronning hamma joylaridan kelib, o'z kishilarining suyaklarini axtarar edilar. Xoja Mufid shu vazifani bajargani sababli o'limdan qutuldi.

MOTAM

Ganjadagi qo'zg'olon xabari va Amir bilan To'xtamishning dorga osilish hodisasi Hamadon saroyida katta motamga sabab bo'ldi. Qatibaning saroyida qora — motam liboslaridan boshqa narsani ko'rish mumkin emasdi. Otasiga va uning qari vaziriga xatm qilindi. Qatiba bu hodisada Qizil Arslonni aybdor hisoblar va Otabek Muhammaddan aybdorlarga jazo berilishini talab qilib, derdi:

— Qizil Arslon xohlaganida edi, Ganjada qo'zg'olon ko'tarilmas va ota-onamning boshiga bundan falokatlar tushmas edi.

Otabek bunga e'tiroz bildirib, derdi:

— Yanglishasan, bu fojianing asosiy sababchisi otangning o'zi. Buni men ko'pdan beri senga aytib yurardim. Bu hodisaning ro'y berishi aniq edi. Oron bilan Shimoliy Ozarbayjon xalqida isyonkorlik kayfiyati qadimdan mavjud, men bunga bir yo'la chek qo'yaman, gunohkorlarni jazolayman, bunga amin bo'l. Nima qilish mumkin? Katta odamlar atrofida ro'y beradigan voqealar ham ularning o'z ulug'liklariga yarasha bo'ladi.

Qatiba Otabekning so'zlariga sira qanoat hosil qilolmasdi. U Qizil Arslondan intiqom olish va Faxriddin bilan Nizomiyni o'ldirtirish to'g'risida kecha-kunduz o'ylardi.

Sofiya xotun bilan uning kenja qizi Talia Hamadonga kelganidan so'ng qo'zg'olonning qanday boshlangani, unda kimlar qatnashgani masalalari butkul oydinlashdi.

Sofiya xotun bu hodisada eri bilan Qizil Arslonni aybdor sanardi. U derdi:

— Agar Qizil Arslon xohlasa, isyonning oldini olish qo'lidan kelardi. Chunki isyonning zamini xalifa o'lgan kunida hozirlangan edi. Shu qadar katta isyon bir kunning ichida paydo bo'lgani yo'q. Bir yarim oy davomida isyonchilar Ganjaga to'plandilar. Faxriddin Oronning hamma tomonlariga odamlar yuborar va o'z atrofiga kuch yig'moqda edi. Qizil Arslon bu ishlardan voqif edi. U xohlaganida, bir hafta ichida Janubiy Ozarbayjondan Araks daryosini kechib o'tib isyonni bostira olardi.

— Amir bu vaziyat to'g'risida Qizil Arslonga xabar qildimi? — deb so'radi Otabek Sofiya xotundan.

— Yo'q, biz sira Tabriz bilan aloqa qilganimiz yo'q. Faqat ikki elchini shoshilinch maktub bilan Hamadonga jo'natdik. Ularning har ikkalasini ham yo'lda ushlab qo'llaridan maktublarni tortib olganlar.

— Fojiaga mana shu sabab bo'lgan. Men bilardim. Sizning rahmatli eringizga Tabriz bilan aloqa o'rnating, deb bir necha bor maslahat bergandim. Sofiya xotun bilan mana bu go'dak o'limdan xalos bo'lganlarining o'zi katta baxt.

— Biz bu masalada Nizomiydan minnatdormiz. Bizni asragan, uyida yedirib-ichirgan o'sha shoir bo'ldi. Buni o'zimiz Faxrid-

dindan iltimos qildik, u ham rozi bo'ldi. Uning shu qadar oliyjanob odam ekanini bilmasdim. Uning xotini mana bu yetim qizni o'z o'g'li Muhammad bilan baravar sevardi. Amirning gunohi juda katta edi. Isyon ko'tarilishiga yaqin isyonchilar Amirga maktub yuborgan edilar. Ular hibsga olinganlarni bo'shatish sharti bilan saroyga va saroy ahliga omonlik berilishini bildirgan edilar, Shubhasizki, bu ham Nizomiyning tashabbusi bilan qilingan edi. Agar shu taklifni qabul qilinganda, hammamiz Ganjadan sog'-salomat ko'chib, xohlagan narsalarimizni olib chiqa olgan bo'lardik.

Otabek shoshilib:

— Nima uchun u taklifni qabul qilmadingiz? — deb so'radi.

— Iloji yo'q edi, chunki bir oy maboynida hibsdagilarning hammasini qatl qilingandi. Zindonlar murdalar bilan to'la edi.

Otabek "attangga" deganday bosh chayqadi:

— Naqadar katta xato. Mamlakatni shu tariqa idora qilib bo'larmidi? Men ularni jazolayman, lekin isyonchi bo'lganlari uchun emas, hukumatga itoatsizlik qilganlari uchun.

Otabek darhol Iroq va Fors o'lkalariga farmonlar yuborib, qo'shin to'plashga buyruq berdi va shu onda Qizil Arslonga ham maktub yozdi:

"Aziz birodarim!

Men shunday o'ylaymanki, oronliklar bilan Amir Inonj orasida bo'lgan janjalni qon to'kmasdan, isyon ko'tarmasdan ham hal qila olardik. Lekin endi fursat o'tdi, mamlakatni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bosh ko'targanlarning hovurini bosib qo'yish kerak. Iroq, Fors va Rey qo'shinlari har tomondan yopirilib Hamadonga kelmoqda, sen ham Janubiy Ozarbayjon qo'shinlarini tayyorlashing kerak. Shu kunlarda Shimoliy Ozarbayjon va Oron o'lkasining quloqlarini burab qo'yish uchun Hamadondan katta qo'shin tortib boraman".

Qizil Arslon Otabek Muhammadning bu mulohazasiz maktubini olarkan, xafa bo'ldi. Mamlakatda o'rinsiz qon to'kilishini o'yladi. Shunga ko'ra Otabekka tezlik bilan maktub yozdi:

"A'lo hazrat!

Yuborgan maktubingiz a'lo hazratga samimiy ukalik muhabbatini saqlagan kaminangizni qanoatlantirmadi. O'ylaymanki,

Amir Inonj bilan oronliklar o'rtasida paydo bo'lgan adovatning mohiyatini bilgan kishi meni ayblamasa kerak. Vaziyat kelishib bo'lmaydigan tus olgan edi. Menimcha, vaziyatning bunchalik keskinlashganiga qaramay, bu hodisaning oldini olish mumkin edi. Lekin Amir Inonjning mendan maslahat so'ramasligi, Tabriz hukumatini tan olmasligi, ayniqsa, Hamadon shahrining uzoqda bo'lishi fojianing oldini olishga imkon bermadi. Lekin a'lo hazratga arz qilmoqchimanki, Oronda ko'tarilgan isyon markaziy hukumatga qarshi isyon emas, u faqat Amir Inonjning o'ziga va hech qanday qonunni tan olmaydigan uning zolim namoyandalariga qarshi ko'tarilgan edi. Shimoliy ozarbayjonliklarning qulog'ini burab qo'yish uchun a'lo hazratning qo'shin tortib borishi tamomila o'rinsizdir. Bunday safar har ikki tomondan ko'p qonlar to'kilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shaxsan men Ozarbayjon hukmdori sifatida bu harbiy safarga ishtirok etmayman. Nima uchun va kimlarning odobini beramiz? Kim uchun? Ajabo, bu isyonning sababini xalqdan ko'rishga haqqimiz bormi? Shu maktub bilan birga Ganja xalqi nomidan yuborilgan maktubni ham axborot uchun a'lo hazratga jo'natmoqdaman".

Otabek Qizil Arslonning maktubini olib achchig'landi, uni isyonchilar tarafdori deb o'yladi va Shimoliy Ozarbayjon xalqi tomonidan Qizil Arslonga yuborilgan maktubni o'qidi:

"A'lo hazrat!

Ganjada ro'y bergan hodisalar natijasida tug'ilgan shubhalarga barham berish maqsadida Ganja xalqi a'lo hazratga ma'lum qiladi: Ganjada va Oronning boshqa shaharlarida boshlangan qo'zg'olon markaziy hukumatga qarshi ko'tarilgani yo'q. Oron xalqi Amir Inonjning qilgan xiyonatlari haqida a'lo hazratga bir necha bor murojaat qilgandi. Lekin berilgan arizalarning hammasi oqibatsiz qoldi. Nihoyat, sabr kosasi to'lgan xalqimiz o'z kuchi bilan zolimlarni bartaraf qilishga qaror qildi. Hozir Oron o'lkasida tamomila tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda. Butun xalq intizorlik bilan a'lo hazrat Qizil Arslon tomonidan mamlakatga odil bir hukmdor yuborilishini kutmoqda. Amir Inonjning saroyi ishg'ol qilinganida hukumatga taalluqli hujjatlar va qimmatli buyumlarning birortasiga ham qo'l urilgani yo'q. Shuning o'zi

ham ko'rsatadiki, qo'zg'olon markaziy hukumatga qarshi bo'lmay, ayrim zolimlarga qarshi ko'tarilgan edi. Har holda a'lo hazratning farmonlarini kutamiz".

Otabek bu maktub bilan ham qanoatlanmadi. U maktubni oronliklar tarafidan Qizil Arslonning maslahati bilan yozilgan deb o'yladi va o'z-o'ziga: "Isyon ko'tarib, ketidan uzr so'ragan aholi mahv etilishi lozim, mahalliy hukumatga qarshi isyon ko'targanlar markaziy hukumatga qarshi ham isyon ko'tara oladi", derdi.

Har tarafdan Hamadonga qo'shinlar daryoday oqib kelardi. Saroyda Otabek Muhammad uchun safarga tayyorgarlik ko'rilmoqda edi. Yaqin fursatda qo'shin Ozarbayjon tomon yurish boshlardi.

SUIQASD

Qatiba Otabek bilan Qizil Arslonning bir-biriga yozishmalaridan va Qizil Arslonning Ozarbayjonga qilinadigan harbiy safarga noroziligidan xabardor bo'lib turardi. Qatiba og'a-inilar o'rtasiga nizo chiqarish uchun bundan ko'ra qulayroq vaj topa olmasdi.

Ozarbayjon ustiga yurish qilishga oz fursat qolgan edi. Otabek hamma qo'shinlarini ko'zdan kechirish va ularning kayfiyatini tekshirish uchun Karkut, Asadobod va Sahna[1] tomonlarga jo'nagan edi. Qatiba Sabo xonimni chaqirib Husomiddinni aytib kelishni buyurarkan, unga tayinladi:

— Seni faqat Husomiddinni chaqirib kelish uchun yuboryapman. U bilan tan mahram bo'lishingga ruxsat bermayman. Sen bugundan boshlab bekachining yuz-xotiri uchun uning xotin kishiga bo'lgan ehtirosini susaytirmaysan. Aksincha, bugun uning hirsini qo'zg'atasan, qonini ko'pirtirasan. Lekin yaqinlik qilmaysan. Bu kungi vazifang shu. Buning uchun katta mukofot olasan. Agar buyrug'imga amal qilmasdan, u bilan yaqinlik qilgudek bo'lsang, o'g'limning joniga ont ichamanki, shu bugunning o'zidayoq seni o'ldiraman.

Sabo xonim uchun Qatiba aytgan gaplar hech qanday ahamiyatga ega emasdi. U sira qo'rqmasdi. Chunki u Qatibani bir emas, yuz martalab aldagan edi. Unga xush yoqqan narsa faqat Qatibaning:

[1] Hamadon bilan Besutun orasida bo'lgan Kurdiston shaharlari.

"Bugun Husomiddinning xotin kishiga bo'lgan ehtirosini susaytirmaysan, aksincha, uning hirsini qo'zg'atasan, qonini ko'pirtirasan. Buning uchun katta mukofot olasan", degan so'zlari edi. Bu so'zlar uning qulog'ida jaranglar ekan, unga rohat baxsh etdi. U odati bo'yicha Qatibani ishontirib kamoli sadoqat bilan dedi:

— Xonim juda yaxshi biladiki, men uchun onamning qabri har qanday muqaddas narsalardan ham muqaddasroqdir. Shu onamning qabriga ont ichib aytamanki, dunyoda erkak zotidan faqat bittagina Husomiddin qolgan taqdirda ham, xonimning ruxsatisiz uning yuziga boqmayman. Men shu qadar tuban xotinmanmiki, Husomiddin singari odamlar istagan vaqtlarida mendan foydalana olsalar? Men xonim uchun hamisha o'z hayotimni bag'ishlaganim holda, nahotki o'z nafsimni unga bag'ishlay olmasam? Men besh daqiqalik bir nash'a uchun abadiy baxtini, nomusini yo'qotadigan ahmoqlardan emasman. Malikam bir karra shuni yaxshi bilishlari kerak, men ana shunday qizman.

Qatiba uning yuzidan o'pib, yuz tilla hadya qilib, dedi:

— Men shunday bir reja tuzganmanki, sen bilan men do'stlarimiz ham mislsiz davlat egasi bo'lib qolamiz. Endi bor, Husomiddinni chaqirib kel.

Sabo xonim Husomiddinni chaqirish uchun shoshilib borar ekan, sevinchidan qanday qadam tashlaganini bilmasdi. Chunki u Qatibaning juda katta bir mojaroga tayyorlanayotganligini fahmlardi.

Sabo Husomiddinning eshigi oldida turgan qorovulga ko'rinishi bilanoq, qorovul uni darhol tanib yo'l berdi. U ayvondan o'tib Husomiddinning yozuvxonasi eshigini asta taqillatdi. Birozdan keyin Husomiddin eshikni ochib, Sabo xonimni ko'rib, uni ichkariga kiritishi bilanoq:

— Xush kelding, jonim, — deb bo'yniga qo'l solmoqchi bo'lganida, Sabo xonim nomusli xotinlar kabi tortinib, orqasiga tisarilib, dedi:

— Sabr qil, qarshingda turgan qiz malikaning e'tiqodli kanizagi bo'ladi, allaqanday bozoriy xotin emas.

Husomiddin orqasiga chekinib, kulib yubordi. Yana oldinga intilib, Saboning kiftiga qo'lini qo'yib turib, dedi:

— Ajabo, sen doim jonim deb bo‘ynimdan quchoqlaydigan o‘sha Sabo xonim emasmisan?

— Ha, men o‘sha Sabo xonimman. Lekin shuni bilginki, yosh qizlarning ko‘ngli doim bir nuqtada turmaydi, kecha bo‘yningdan quchoqlagan bir qiz bugun seni ko‘rishni istamasa, buning ajablanarli yeri yo‘q. Go‘zallarning yagona xususiyati ham shundaki, erlarni sevgi iplari bilan bog‘lab olganlaridan so‘ng yalintiradilar, tashlab ketadilar va qochib yuradilar.

— Vo ajabo, bir-birimiz bilan bir tan-u bir jondek bo‘lib ketgan vaqtlarimizda shu xilda falsafalar to‘qimasmidik?

— Gap-so‘zsiz qovushishning o‘zi ham bir falsafa. Qo‘y, bu jumboqlarni, mizojimizning o‘zi yechsin. O‘rinsiz falsafalar bilan bosh qotirib o‘tirishga vaqtim yo‘q. Shu xil tushunchalar ostida husnimni bevaqt xazon qilishni istamayman. Malika sizni o‘z huzuriga da’vat etayotganini aytgani keldim.

Sabo xonim shunday deb xonadan chiqib ketmoqchi bo‘lganida Husomiddin taajjublanib uni chaqirdi:

— Hoy qiz, to‘xta, gapimga quloq sol!

Sabo xonim kifti ustidan unga boqib, javob berdi.

— Oqila qizlar har bir shahvatparast erkakning gapiga emas, o‘z qalbiga quloq solishi lozim. Bugun hech kimning gapini tinglashga vaqtim yo‘q. Qulog‘im yangi so‘z eshitishni, ko‘zim esa yangi basharani ko‘rishni istaydi.

Husomiddin Sabo xonimdagi bu singari tez o‘zgarishlarga hech qanday sabab topolmadi va bexosdan uni quchoqlab o‘pmoqchi bo‘lgandi, Sabo xonim qo‘ynidan zahar solingan kichkinagina shisha chiqarib:

— Men irodamdan xorijda bo‘lgan har qanday ishga ajaldek qarayman. Mening tirik qolishimni istasang o‘zingni bos. Mening nafratimga taqiladigan bunday tuban ishlardan kech, — dedi.

Husomiddin shoshilib qolib yolvordi:

— Xudo xayringni bersin, o‘tinaman, zaharni yoningga solib qo‘y. Sen o‘zingni zaharlashing bilan meni ham halok qilgan bo‘lasan. Qani, ayt-chi, men seni tahqirladimmi? Yoki og‘zimdan nojo‘ya gap chiqdimi? Shu kunga qadar: “Men yolg‘iz sen uchun yashayman, dunyoda erkak zotidan faqat seni deyman”, derding.

Endi nima bo'ldi senga? Kel, o'tir, jonim, balki seni boshqalar xafa qilgandir, boshqalarning alamini mendan olma. Bilasanki, men Hamadonda yolg'iz sening ishqing bilangina yashamoqdaman. Meni musofir yurtida band qilib saqlab turgan sening sochlaring emasmi? Nega sen mening qatlimga fatvo beryapsan? Mening Sabosiz yashay olmasligimni bilasan-ku...

Sabo xonim zaharni yonchig'iga solib qo'yarkan, jilmayib:

— Bor, bunday bayt-u g'azallaringni erkaklar nimaligini bilmaydigan, yuz-ko'zi endi ochilayotgan nodon qizlarga o'qi, meni aldayolmaysan. Endi bas, chunki qizlar hayot maktabini aldanib-suldanib tugatadilar. Men u maktabni allaqachonlar bitirganman, — deganida, Husomiddin:

— Qani, ayt-chi, bu bir lahzalik chekinishning sababi nima? — deb so'radi.

— Senga o'xshash har bir xotinbozga qalbimning kalitini beraversam, Sabo xonim bo'la olmasdim. Shuni bilginki, dunyoda birorta ham sababsiz ish yo'q. Lekin sabablar haqida bir-biriga izoh berishga hech kim majbur emas.

— Sabo xonim, menga hech narsa kerak emas, faqat ana shu g'uncha lablaringdan bir bo'sa ber...

— Lablarim qalbimning eshigi. Hozircha u eshik sening yuzingga yopilgan. Bildingmi?.. Ortiq qololmayman, hozircha xayr!

Sabo xonim eshikni yopib chiqib ketdi. Husomiddin nima qilishini bilmasdi, bu o'zgarishga muhim bir voqea sabab bo'lganin o'ylab bezovta bo'lardi. Haqiqatan ham u Saboni sevib qolgandi. Uni Hamadonda ushlab turgan sabablardan birisi ham Sabo xonimga bo'lgan muhabbati edi.

Sabo xonim shod-u xurramlik bilan Qatibaning xonasiga kirib bordi-da:

— Malikaning topshirig'ini ado etdim. Hozir u huzuringizga keladi. Men uning eshigini yopib tashqariga chiqar ekanman, u boshiga mushtlab kursiga o'tirib qoldi. U meni bugun kutmoqchi edi, qorong'i tushgach, oldiga borishga va'da bergandim, u katta tayyorgarlik ko'rgan edi, lekin u mendagi bir lahzalik o'zgarishni ko'rganida jinni bo'layozdi...

Bir kanizak kirib Husomiddin kelganidan xabar berdi. Sabo xonim Qatibaga ta'zim qilib chiqib ketdi.

Husomiddin ichkari kirib salom berarkan, Qatiba unga diqqat bilan boqib sadoqatini tekshirdi. Husomiddinning bo'yin tomirlari tez-tez urib turardi. A'zoyi badanidagi barcha qonlar xuddi chakka tomirlariga to'lgandek edi.

Ko'ziga qon to'lgan, ko'z qorachig'i esa, xiralashganga o'xshab ko'rinardi. U qanchalik o'zini bosishga urinsa ham, vujudini qamrab olgan ehtiros alangasidan xalos bo'lishdan ojiz edi.

Qatiba mahzun bir ohangda:

— O'tir, mening samimiy do'stim, — dedi.

Husomiddin o'tirdi. Qatiba hol-ahvol so'rab, dedi:

— Bugun senga nima bo'ldi? Butun vujuding qayg'u-hasrat va iztirob pardasiga o'ralgani yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Husomiddin judolik oldida ojiz qolgan kishilardek ma'yus bo'lib gapirdi:

— Oh, oliy maqom malikam, qaysi kunimga xursand bo'lay? Kechagina o'ynab-kulib, shod-xurram yurgan go'zal malika bugun boshdan-oyoq qora libosga burkangan bo'lsa, men qanday xursand bo'lay? Malikam, Amirning boshiga tushgan fojialar Husomiddinning esidan chiqdi deb o'ylaydimi? Malikamning ko'ziga boqar ekanman, qalbidagi motam hislarini ko'rmayapmanmi?

Qatiba jiddiy tarzda dedi:

— So'zlaringga ishonaman, do'stim, endi ortiq bir-birimizga bog'liq ekanimiz aniq. Bu fikr hech qachon o'zgarmaydi, chunki bu fikr bizning yillar bo'yi davom etayotgan do'stligimiz mahsulidir. Rahmatli otamning xatolari bizning uzoq judolik alamini tortishimizga sabab bo'ldi. Endi otam yo'q, onam bo'lsa aql-u hushidan judo bo'lgan bir alamzadadirki, yakka-yolg'izlikni istaydi. Endi bu saroyda ikkimizgina qoldik, saroydagilar ham, hatto, saroyning egasi ham bizga begona. Endi bir-birimizga g'amxo'r bo'lishimiz kerak. Sen nima deb o'ylaysan, shu betayin hayot girdobida yosh umring xazon bo'lib ketayotganini ko'rmayapmanmi? Lekin qo'limdan nima keladi... Qatiba o'z sevgan kishisi bilan qovushib, apoq-chapoq yashashni istamaydi, deb o'ylaysan-

mi? Otabekni ko'rish va uni er deb bilish men uchun jahannam azobini chekishdan og'irroq, emasmi? Seningcha, men sevgan kishining quchog'ida nozlanishni, hayotning ma'naviy lazzatlarini totib yashashni istamaymanmi? Lekin nima qilay, bir vaqtda ikki kishining xotini bo'lish benomuslikdir. Sening o'zing ham buni hazm qilolmaysan. Agar men oddiy xotin bo'lganimda edi, balki shunday xatoga yo'l qo'ya olardim. Holbuki, men bir mamlakatning malikasiman. Bir tomondan, xalqning ta'na-malomati bo'lsa, ikkinchidan, Otabekdan qo'rqaman. Hozircha Qizil Arslon Otabekning irodasiga hokim ekan, bizning baxtli bo'lishimizga ishonma. Qizil Arslon bilan Otabek o'rtasida nizo chiqmasa, u Ozarbayjon hukumatining boshidan olib tashlanmasa, bizning qovushishimizga umid bog'lama. Sen Qatibaga ega bo'lishni istasang, bu to'g'rida o'ylab ko'r. Hayotga mening xohishimcha qaray olmasang, kutganimiz go'zal dunyoga qayta olmaysan. Senga qalbdan so'z beraman, Qatiba boshqa kishini sevmaydi, seni Sabodan rashk qilishim ham shuning uchun. Sen malikaga ega bo'lishni istasang, o'sha kanizakdan o'zingni olisroq olib yur. Chunki bunday harakatlar meni tahqir etish bo'ladi. Shunday xatti-harakating bilan mendan ajrab qolishing turgan gap.

Husomiddin yana muqaddas narsalarga ont icharkan, dedi:

— Qalbimda malikaning muhabbati tug'ilganidan buyon, malikani tahqirlaydigan hech qanday nojo'ya harakat qilganim yo'q. Malikaning har bir amri men uchun qonundir. Lekin Qizil Arslon bilan Otabek o'rtasida nizo chiqarish haqida yanada chuqurroq o'ylash kerak. Chunki har qanday mayda-chuyda ziddiyatlar orqali Qizil Arslon singari bir hukmdorni Ozarbayjon hukumatidan olib tashlashning uddasidan chiqa olish mumkin emas.

— Shunday, aytganlaring to'g'ri, — dedi Qatiba. — Chuqurroq o'ylash kerak. Lekin hozirgi qulay fursatni ham qo'ldan bermaslik lozim. Chunki Otabekning Ozarbayjonga qarshi yurish qilishi ikki yo uch kunga boradi, xolos.

Qatiba jim qolib, Husomiddinning javobini kutdi.

Husomiddin o'ylar, Qatibani qanoatlantiradigan javob topolmasdi. Nihoyat, Qatiba sukutni buzib uni noqulay holatdan qutqarish uchun dedi:

— Men sening qiynalayotganingni ko'ryapman. Shunga ko'ra senga topshirmoqchi bo'lganim vazifalar haqida izoh berishni xohlayman. Otabek Muhammad o'z qo'shini bilan Shimoliy Ozarbayjonga jo'naydi. O'zing ham bilasanki, Qizil Arslon bu yurishdan norozi, bu yurishda ishtirok etishni istamaydi. Mana shu kichik kelishmovchilikni kattaroq qila olsak, hamma maqsadlarimiz qo'lga kirgan bo'lardi. Nizoni ko'chaytirib, kelishib bo'lmaydgan darajaga yetkazish uchun yagona bir chora bor, u ham bo'lsa, Qizil Arslon tomonidan Otabekka qarshi suiqasd tayyorlashdir.

Husomiddin bu so'zin eshitarkan, qo'rqqanidan sapchib o'rnidan to'rib ketdi.

— Ajabo, biz Otabekni o'ldirishimiz kerakmi? — deb so'rarkan, Qatiba javobida dedi:

— Bunda qo'rqadigan hech narsa yo'q, vaqti kelsa, bunday o'lim haqida ham o'ylashimiz kerak. Lekin hozircha suiqasdga tayyorgarlik ko'rishimiz va buni ham Qizil Arslonning nomiga tirkashimiz kerak. Ana shu suiqasdni ustalik bilan o'rniga qo'ysak, Otabek o'z ukasining dushmanligiga ishonishi mumkin. Shuning uchun ham Otabek seni o'zi bilan birga Ozarbayjonga olib ketishiga zamin tayyorlaganman. Qo'rqma, safar vaqtida, xususan, jang vaqtida topshirilgan vazifamni bajarish hech qanday mushkullik tug'dirmaydi. Ikkinchi vazifa, otamning qotillariga jazo berishdan iborat. Sen Faxriddinning boshini keltirib menga topshirganingdan so'ng Otabekning tirik qolishidan qat'i nazar, Qatibani quchog'ingga olasan. Chunki men otamning qotili boshini ko'rganimdan so'nggina azadorlikdan qutula olaman.

Husomiddin shodligidan titradi. U telbalarcha gapira boshladi:

— Malika shunga ont ichishi kerak, — derkan, Qatiba:

— O'g'lim Qutlug'ning joniga ont ichaman, ishondingmi? — dedi.

— Ishondim, jonim! Ishondim, malikaning aytganlarini jondan kechib bo'lsa ham, bajo keltiraman. Men qahramonlikda Faxriddindan qolishmayman. Ko'pdan beri u bilan yuzma-yuz kelishni istardim.

Qatiba o'rnidan turib Husomiddinning yoniga bordi va qo'lini uzatib:

— Demak, kelishdik,— dedi.

Husomiddinning vujudi "dir-dir" titrardi, ehtiros uni o'zini yo'qotish darajasigacha olib borgan edi. Qatiba o'z fikrlarini uning qalbiga muhrlash va uning hayvoniy hirslarini uzoqroq cho'zib borish maqsadida Husomiddinga lablarini tutdi. Husomiddin uning lablarini zo'r-bazo'r bo'shatgan vaqtda shu so'zlarni eshitdi:

— Mening sevimli do'stim, qolgani keyinchalik bo'ladi.

HUJUM

Otabek Muhammadning katta qo'shin bilan Shimoliy Ozarbayjonga hujum qilishi xabari hamma yoqni vahima ostida qoldirgan edi. Gruziya va Shirvon mamlakatlari bu hujum pardasi ortida ikki qo'shni davlatga qarshi siyosiy bir maqsad yashiringan degan xayolda jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshlashdi. Ular o'z chegaralariga kuchli qo'shin to'plardilar. Bu xabar Oronda va Shimoliy Ozarbayjonning boshqa taraflarida ham tashvish va bezovtalikka sabab bo'ldi.

Xususan, oronliklar fors va arab qo'shinlarining Ozarbayjonga keltirilganini eshitishi bilanoq, Qizil Arslonga maktub yo'lladilar va o'zlarini ularga taslim bo'lmasliklari haqida xabar berishni ham lozim topdilar.

Oronliklar tomonidan Qizil Arslonga yozilgan uzun maktubning qisqa mazmuni shundan iborat edi:

"Buyuk hukmdor!

Otabek Muhammadning Shimoliy Ozarbayjonga katta qo'shin tortib kelishi xalqning bezovtaligiga sabab bo'ldi. Shimoliy ozarbayjonliklar a'lo hazratga takror bildiradiki, hozir mamlakatda hukumatga qarshi hech qanday harakat yo'q. A'lo hazratlari bizga odil va ishbilarmon biror hukmdor yuborsalar, mamlakatning markaz bilan bo'lgan aloqasi avvalgidan ko'ra ham mustahkamroq bo'lardi. O'lkamizga katta qo'shin tortib kelish, xususan, yig'im-terim vaqtida dehqonlar yerini payhonlash mamlakatda katta ocharchilikka sabab bo'lishi mumkin. Har ikkala a'lo hazratga ma'lumdirki, Ozarbayjon xalqining tabiati tamoman bashqachadir. Ular har qanday mushkulotga qolgan taqdirlarida ham taslim bo'lishni

istamaydilar. Shunga ko'ra a'lo hazratlar Ozarbayjonda qon to'kilishiga yo'l qo'ymasinlar".

Qizil Arslon bu maktubni olgan kunlarida Otabekning qo'shinlari Tabrizdan sakkiz chaqirim masofada bo'lgan Ujon va Saidobodda joylashgan edi. Otabek qo'shinlarining Ujon va Saidobod taraflarida joylashishi Qizil Arslon poytaxtini orqadan kelib qamal qilib olish demak edi. Shuning uchun ham Qizil Arslon "Tabriz issiq", deb Ozarbayjon qo'shinlarini Otabekning Shimoliy Ozarbayjonga kirmoqchi bo'lgan ikki yo'lning atrofiga joylashtirgan edi.

Qizil Arslonning otliq o'n ming qo'shini Sahand togi, Qora tog'ning atrofida va Marand bilan Xon shaharlari orasida joylashgan edi. Bu qo'shin Otabekning Ziyoulmulk ko'prigi orqali Araks daryosidan kechib Jo'lfa va Naxçivon shaharlarini qo'lga kiritishiga to'sqinlik qilardi.

O'n ming kishidan iborat boshqa bir qo'shin esa, Otabek qo'shinlarining orqasiga o'tib qaytadigan yo'llarini kesib qo'yish uchun Dexorgon va Marog'a atroflarida joylashgan edi.

Qizil Arslonning katta bir qo'shini Otabekning Shimoliy Ozarbayjon va Qorabog' o'lkasiga kiradigan yo'llarning ortida bo'lib, bu yo'l orasi daryo ustidagi Xudofarin ko'prigiga boradigan yo'llardan iborat edi.

Qizil Arslonning yana bir qo'shini Kaleybar va Ahar shaharlarida to'xtagan edi. Bular xohlagan vaqtida ko'prikni to'sib, Otabek qo'shinlarining u yerdan o'tishiga monelik qilardi.

Qizil Arslonning bu qadar katta tayyorgarchiligiga sabab Otabekka ishonmasligi edi. Avvalo u, Otabekning Qatibaning ta'siriga tushib qolishidan shubhalandi. Ikkinchidan, Otabek Ganja isyoni sabablarini Qizil Arslonning e'tiborsizligidan ko'rdi. Otabek qulay fursat topganida ukasi bo'lishiga qaramasdan, uni Ozarbayjon hokimiyati tepasidan olib tashlar, balki uning ko'zlariga mil torttira olardi.

Qizil Arslon tayyorgarchiligini ko'rib, o'zini ta'min qilganidan so'ng to'rt yuz otliq qo'shin bilan Otabekni Go'vgonda kutib olib, Tabrizga olib kelish uchun yo'lga tushdi.

Lekin Otabek Qizil Arslonning Shimoliy Ozarbayjon haqidagi fikrlari bilan yana hisoblashmadi, hatto, Qizil Arslon oronlik-

larning keyingi maktubini unga ko'rsatgan vaqtida ham Otabek kulib, dedi:

— Husomiddinni ming otliq bilan jo'nataman. Shimoliy Ozarbayjonni ostin-ustin qiladi. Sen ozarbayjonliklardan qo'rqasan, yoinki meni qo'rqitmoqchi bo'lasan. Takror aytaman, senda xohish bo'lganida edi, oronliklar bunday ishga jur'at qilolmas edilar. Amir Inonjning kimligini biz bilamiz. Lekin u mening qaynotam hamda xalifaning kuyovi edi. Sen uchun Ganja uzoqmidi? Uch kun ichida Qorabog' o'lkasida o'n ming otliq to'ka olarding. Ko'rinib turibdiki, ukam men bilan birgalikda ish olib borishdan bosh tortmoqchi. Shuning uchun ham Shimoliy Ozarbayjonga turkiy tilda so'zlanadigan birorta ham qo'shin olib bormayman, bu yurishda sen ham ishtirok etmaysan. Men mag'rur xalqni yomon ko'raman. Mayli Shimoliy ozarbayjonliklar o'zlarining Faxriddin va Alouddinlariga suyanaversinlar. Har birining qarshisiga minglarcha Faxriddin va Alouddinlar chiqaraman. Ikki kundan keyin Araks daryosining shimoliy sohili o't-olov, tugun, chang-to'zonlar ichida qoladi.

Qizil Arslon e'tiroz bildirib, dedi:

— Bunday qilish yaramaydi, a'lo hazrat! Ozarbayjon xalqini g'orat qilish, kuydirish va o'ldirish uchun fors va arablarni to'plab borish sening odil saltanatingga yarashmaydi. Axir, ular har jihatdan ham o'zimiznikidir. Biz shularga ishonib hukmronlik qila olamiz. Men shimoliy ozarbayjonliklar yonini olayotganim yo'q. Lekin isyon ko'targan har qanday mamlakatga avvalo isyonchilarning keltiradigan zararlarini zimmalariga yuklash va boshqa-boshqa talablarni qo'yish kerak. Agar ular bu talablarni rad etadigan bo'lsalar, unda Otabek qo'shin vositasi bilan ish ko'rishga haqli. Ammo men hech qachon kelgusida idora qiladigan mamlakatimni patarot topishiga yo'l qo'yolmayman.

Qizil Arslon keyingi taklifiga akasini ko'ndira oldi, u bu taklifni shimoliy ozarbayjonliklar tomonidan qabul etilmasligi, ularning ko'nmasligini bilardi. Lekin uning bu tashabbusi shimoliy ozarbayjonliklarga vaqtni cho'zish uchun zarur edi.

Otabek mirzasini chaqirib quyidagi mazmunda bir maktub yozdirdi:

"Ozarbayjonliklar!

Xonadonimizning ne'mat va marhamatini, saltanatimizning xalqparvarligini nazarga olmasdan bizga qarshi isyon ko'targanlarni jazolash uchun kelgan qo'shin har ikki tomondan Araks daryosiga yaqinlashib qoldi. Shuning uchun sizga quyidagi talablarni qo'yaman:

Birinchidan — isyonchilarning boshliqlarini yuborilgan ro'yxat bo'yicha hibsga olib huzurimga jo'natasiz.

Ikkinchidan — talon-taroj qilingan mol-mulklarni biror narsa qoldirmay, yig'ib yuborasiz.

Uchinchidan — isyon vaqtida o'lganlarning xunini to'lashingiz zarur.

To'rtinchidan — Amirning saroyidan olingan boyliklarni qaytarishingiz lozim.

Beshinchidan — olib kelgan qo'shinimning hamma xarajatlarini zimmangizga olasiz.

Bu shartlar qabul qilinmagan taqdirda, qo'shinim Shimoliy Ozarbayjonni yer bilan yakson qiladi. Bu shartlarga javob uchun sizga o'n kun muhlat beraman".

Otabekning oronliklar oldiga qo'ygan talablariga ijobiy javob berilmadi, maktubni olib borgan chopar javobni ham olib keldi. Javobda bunday yozilgan:

"Avvalo, isyon boshliqlarini topshirish mumkin emas. Aks holda, butun Shimoliy Ozarbayjon xalqini hibsga olib, Otabek huzuriga jo'natishga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan — Amirning saroyidan olingan mollar Amirning shaxsiy mulki bo'lmay, xalqdan zo'rlik yo'li bilan talab olingan mollar edi.

Uchinchidan — qo'zg'olonda o'lganlar xunini qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'lgan kishilar to'lashi kerak.

To'rtinchidan — Amirning saroyidan olingan va davlatga taalluqli sarmoyalarga qo'l tekkizilgani yo'q. Ularni istagan vaqtingizda Otabek huzuriga yuborishimiz mumkin.

Beshinchidan — olib kelgan qo'shinlaringizning xarajatlarini sizning marhum qaynotangiz bo'lgan Amirning mulkini sotib undirib olasiz. Nega desangiz, qo'shinlaringizni Amirning o'chini olish uchun keltirgansiz. Sizga bundan boshqa javob bo'lishi mum-

kin emas. Otabek hazratlari qanday maqsad bilan Ozarbayjonga kelayotgan bo'lsalar, biz ham xuddi shu maqsad bilan a'lo hazratni qarshi olishga tayyormiz".

Shimoliy Ozarbayjon xalqidan kelgan bu javobni o'qir ekan, Otabekning tepa sochi tikka bo'lib ketdi. U endi shimoliy ozarbayjonliklar qilich kuchi bilan taslim bo'lmoqchi emas ekanini angladi. U tez-tez Qizil Arslonning yuziga tikilib: "Otabek hazratlari qanday maqsad bilan Shimoliy Ozarbayjonga kelayotgan bo'lsalar, biz ham xuddi shu maqsad bilan a'lo hazratni qarshi olishga tayyormiz", der edi.

Maktubni olgan kunining oqshomida Otabek Muhammad Husomiddin va Ibnuddorlarni huzuriga chaqirib buyruq berdi:

— Ertadan boshlab qo'shin tortish tayyorgarligini ko'ringlar. Eng avvali, to'rt ming suvori bilan Husomiddin Xudofarin ko'prigidan o'tib, bir lahza ham to'xtamasdan Qorabog'ga yurish qilishi kerak.

Ibnuddor o'n mingdan iborat otliq qo'shini bilan Sofiyn va Marand shaharlaridan o'tib Ziyoulmulk ko'prigi orqali Naxchivon va Julfa shaharlarini ishg'ol qilishi kerak. Qurol bilan qarshilik ko'rsatganlarni qirib tashlab, oilalarini Eronga jo'natasizlar. Ularning yerlariga boshqa o'lka aholilarini ko'chiraman. Non-u namakning yuz-xotiri qilinmasligi kerak. Yonayotgan qishloqlar va tutuni buruqsab turgan imoratlar orasidan o'tib Ganjaga kirib borasizlar. Isyonda ishtiroq etmagan shahar va qishloqlarga tegilmasin. Taslim bo'lgan joylarga hokimlar tayinlanganidan keyin, yana ichkariga tomon harakat qilasiz.

Otabek hamma topshiriqlarni berdi. Bu topshiriqlar yuzasidan qo'shin ikki tomondan Araks daryosnni kechib o'tishga harakat qildi. Qorabog' va Ganjaga hujum qilishi kerak bo'lgan qo'shin Xudofarin ko'prigidan o'tganidan so'ng, bir lahza to'xtamadi. Oronning birinchi shahari bo'lgan Bojeravon shahriga tomon ot surdi. Qo'shin charchab qoldi. Oronda qattiq qurg'oqchilik bo'lgani uchun hamma narsa taqchil edi. Issiqdan o'ru qirlar yonardi. Mug'ondan esgan issiq garmsel Otabekning o'ch va g'alaba umidida hujumga borayotgan qo'shinlarini qarshi olar edi. Husomiddinning qo'shinlari sun'iy do'zax yaratardi. Araks daryosi

bo‘ylaridan boshlab Bojeravon shahargacha barcha bog‘-u rog‘, ekinzorlari egasiz qolgan qishloqlarda xirmonlarga, ekinlarga, uy-joylarga o‘t qo‘yilardi.

Husomiddinning otliqlari Araks qirg‘og‘idan Bojeravon shahariga qadar o‘t-alangalar, chang-to‘zonlar ichida ilgarilab borardi.

Qo‘shin charchagan edi. Husomiddin Bojeravon shahri bo‘sag‘asida qo‘shinga bir necha kun dam berib, so‘ngra to‘ppa-to‘g‘ri Oronga kirish haqida buyruq berdi.

Qo‘shnining chodirlari kichik bir soy bo‘yiga tikilgan edi. Yuzlarcha qo‘y-qo‘zilar bo‘g‘izlanib qo‘shinlarga ziyofat berilardi. Husomiddin o‘z chodirida o‘tirib, ikki kundan so‘ng katta g‘alaba bilan Ganjaga kirishni o‘ylardi. Uning orzulari ichish uchun qo‘lga olgan piyolasida tabassum etardi. U piyolasidagi mayga boqib xayolida Faxriddin bilan olishdi va kamand tashlab, uni otidan qulatdi, qo‘llarini bog‘lab Qatibaning huzuriga keltirdi, bu g‘alaba mukofoti uchun Qatiba quchoq ochib kutib oldi, Husomiddin Qatibaning yoqut lablarini tishlamoqchi bo‘ldi, shunda sarxush sarkarda tishlari piyolani tishlab sindirib, lablari qonab ketdi.

Husomiddinning qo‘shini ikki kun dam oldi. Forslar, arablar va iroqliklar sabrsizlik bilan hujumni kutardilar. Ular boy va obod shaharlarni bosib olishga shoshilardilar. Ularning o‘lja ortish uchun yetaklab kelgan ot-aravalari bo‘m-bo‘sh turardi. Chunki ko‘chib ketgan qishloqlardan o‘lja topolmagan edilar.

Shuning uchun lashkarboshilar qo‘shni nomidan Husomiddinga vakil yuborib hujumga buyruq berilishini iltimos qildilar. Husomiddin rozi bo‘ldi. Qo‘shin ertangi kuni yo‘lga chiqishi kerak edi.

G‘ALABA

Otabek Muhammadni Ganja qo‘zg‘olonchilarini jazolash maqsadida Tabrizdan Qorabog‘ga yurish boshlashi haqidagi ovozalar Ganjaga tarqalishi bilan Oron shaharlarining hammasiga qurollanib turishlari uchun xabar berildi. Bir hafta ichida urush tajribasiga ega bo‘lgan olti ming otliq yigitlar Faxriddin bilan Sayid Alouddinning huzuriga to‘planishdi. Bulardan to‘rt mingi Said Alouddin boshchiligida Naxchivon qal’asini ishg‘ol qilib, Otabekning sarkarda-

si Ibnuddorni Ziyoulmulk ko'prigidan Shimoliy Ozarbayjonga o'tishiga to'siq bo'lishi kerak edi. Qolgan ikki ming askar esa, Faxriddin boshchiligida Qura daryosi sohillarida turib Otabekning asosiy qurolli kuchlarini Ganjaga kirishiga yo'l qo'ymasligi lozim edi.

Faxriddinga tobe bo'lgan bu askarlar ilgari Otabek boshchiligida Xorazm, Rey, Iroq janglarida urushib tajriba orttirgan kishilardan tashkil topgan edi.

Otabek bilan kelgan qo'shinning qo'mondonligi ilgari Oron qo'shinining sarkardasi bo'lgan Husomiddinga topshirilgan edi. Shundan qilib, o'n mingdan iborat fors va arab otliqlari Araks daryosidan Xudofarin ko'prigi orqali o'tib Qorabog' va Bojeravon tomon ilgarilamoqda edilar.

Faxriddin Otabek va Husomiddin qo'l ostidagi askarlarining vaziyatini bilganidan keyin Alibek qishlog'i bilan Abubakr[1] qishloqlari o'rtasidagi yalanglikdan dushmanga qarshi jang maydoni tanladi. Shuning uchun Xudofarin ko'prigidan boshlab hamma aholini qishloq va shaharlarni bo'shatib, Bojeravonga chekinib borishga buyruq berildi.

Husomiddinning qo'shinlari Araks daryosidan o'tgan kuni Faxriddinning qo'shinlari ham urush maydonlariga tomon yo'l olishdi. Qo'shin Ganjadan to Isfahon qishlog'igacha bo'lgan o'n ikki tosh yo'lni aholining shodliklari, olqishlari va karnay-surnaylari sadolari ostida bosib o'tdi. Qo'shinni jangga kuzatish uchun Oron shaharlarining hamma tomonlaridan yo'lga chiqqan xaloyiq Ganjaga yaqin kelib qolgan edi.

Xalqda paydo bo'lgan bu ko'tarinki ruh askarlarning ma'naviy kuch-qudratini yanada orttirar va dushman bilan yuzma-yuz jang qilishga undar edi. Uzluksiz kelib turgan to'p-to'p suvorilar Faxriddin qo'shiniga qo'shilib, otliq qo'shinlarning sonini orttirar edi.

Isfahon qishlog'ida sanalganda askarlar soni uch ming otliqdan iborat ekani ma'lum bo'ldi.

---

[1] Abubakr qishlog'i Otabek Muhammadning o'g'li Abubakr tomonidan qurilgan. (Qazviyniyning "Nuzhatul-qulub" nomli asaridan.)

Ilova: bu yerda ham anaxronizm bor. Otabek Muhammadning o'g'li Abubakr shu tasvirlanayotgan voqeadan bir necha yil keyin tug'iladi *(R. Komilov).*

Cho‘zilib ketgan yo‘lning ikki tomonidan to‘da-to‘da xotin-qizlar gullar, chechaklar va turli-tuman shirinliklar ko‘tarishib jang maydoniga ketayotgan qahramonlarni qarshi olardilar. Ularga har xil tilaklar: “Sizga oq yo‘l, g‘alaba, zafar tilaymiz, sizlarni zafar bilan qaytganingizda gullar-chechaklar tutib, o‘pib-quchoqlab qarshi olamiz”, der edilar.

Qo‘shinni kuzatish uchun Ganjaning a’yonlari, ziyolilari Isfahon qishlog‘iga ham yig‘ilgan edi. Bu yerdan jangga ketuvchi qo‘shinlar sharafiga katta ziyofat berilmoqchi edi. Hamma yoq tom-u toshlar, o‘r va qirlar qo‘shinni tomosha qilgani chiqqan, rang-barang kiyingan qiz-juvonlar bilan to‘la edi. Soy bo‘ylarida yuzlarcha kabob qo‘ralari qatorlashgan. Qishloqlardan qahramon Faxriddinning oti oyoqlari ostida qurbonlik qilish uchun olib kelingan qo‘yu qo‘chqorlar so‘yilmoqda, nimtalangan go‘shtlarni yog‘ochlarga o‘tkazilib kabob pishirilmoqda edi.

Yuzlarcha baxshilar rubob chalib xonish qilishar, minglarcha qiz-juvonlar raqsga tushib yalla aytishardi.

Yeb-ichdilar, o‘ynadilar. Nihoyat, kun botar paytda xayr-xo‘shlashib tarqala boshladilar. Qizlar qalliqlari bilan, juvonlar navjuvon erlari bilan vidolashar ekanlar:

— Qani, ko‘ramiz, yuzimni yerga qaratmaslik uchun qanday ishlar qilasan!

— Faqat g‘alaba bilan qaytganingdagina seni quchoqlab o‘paman!

— Nayzangda dushman boshini ko‘rmasam, istiqbolingga chiqmayman!

— Menga beradigan dastlabki hadyang g‘alaba bo‘lishi kerak. Dushmanni chegaradan ichkari o‘tkazsang, uyga qaytib kelma! — deyishardi.

Nizomiy Faxriddin bilan o‘pishib xayrlasharkan, unga shunday nasihat qildi:

— Jang paytlarida o‘zingni qo‘shinning orqasiga olma, chunki turnalar o‘z boshligini oldda ko‘rmasa ucholmaydi. Mingan oting har qanday otdan oldinda va ildam yurishi kerak. Hujumga o‘tgan vaqtingda ketingdagi qo‘shindan ancha ilgari ketishing kerak, chunki dushman o‘q uzganda yakka otliqqa emas, balki to‘dani

nishonga oladi. Dushmanning mashhur pahlavonlariga qarshi tajribasiz, nomi chiqmagan odamlarni chiqarma. Dushman sening o'zingni jangga da'vat etgan vaqtida maydonga chiqishdan bo'yin tovlama, chunki qo'rqoq sarkardaning askarlari og'ir janglarda ojizlik qilib qoladi. Dushmanni Araks daryosigacha quvib borganingdan keyin Janubga hujum qilma. Qo'shinni uzoq yurgizib charchatma, negaki, bir kun Otabekning kuchli qo'shini bilan yuzma-yuz kelishga majbursan.

Shundan so'ng Faxriddin otining biqiniga niqtab yo'lga tushdi.

* * *

... Tong otar payt, oy tog' tepasidan notanish ayolga boqqan nomahram erkaklardek, Husomiddinning qo'shini joylashgan qarorgohga tomon bo'ynini cho'zib mo'ralar edi. Alibeyli qishlog'i bilan Abubakr qishlog'i o'rtasidagi yalanglikka qurilgan chodirlar keng yaylovlarga xuddi oppoq kapalaklar qo'nib turgandek ko'rinardi.

Turli tillarda so'zlashgan askarlar otlarini kichik soy qirg'og'ida qashlar, cho'miltirardi, har qaysisi o'z tilida xirgoyi qilardi. Uzoqdagi chodirlar qarshisida bir-biriga tirab qo'yilgan nayzalarga qarasang, Alibeyli qishlog'ining ro'parasida yosh bir o'rmon qad ko'targandek tuyular edi.

Chodirlar atrofida yurgan soqchilar Alibeyli qishlog'ining shimolidagi tog' zanjiralari ostidan qarorgoh tomon bosib kelayotgan kuchli to'fonni ko'rib qoldi. Bu kuchli to'fon Husomiddin qo'shinlari ustiga hujum qilib kelayotgan tig'iz lashkarlar edi.

Posbonlar darhol Husomiddinning chodiriga yugurdilar. Chodir eshigi oldidagi qorovul uni ichkariga qo'ymadi:

— Sardor uxlamoqda. Uyg'otishga ruxsat bermaydi, — deb uni qaytardi.

Posbon fors edi. U tahlikaning yaqinlashib kelayotganini ko'rib qichqirdi:

— Bobo, chi vaqti xobidan ast, dushman meoyad, ba zudiy padari moro bedor kun, hey!.[1]

[1] Otaxon, hozir yotadigan vaqtmi? Dushman kelyapti, zudlik bilan bizning otamizni uyg'ot!

Fors qorovul qo'rqqanidan shu qadar baqirdiki, Husomiddin mast uyqudan uyg'onib ketdi-da, kimxob to'nini yelkasiga solib chodirdan chiqdi.

U qo'lini soyabon qilib ko'tarilib kelayotgan chang-to'zonni ko'rarkan, qo'lini qo'liga urib:

— Dushman kelmoqda, — deb pichirladi va fors qorovulidan ham balandroq ovoz bilan:

— Qo'shin, tayyor bo'l! — deb qichqirganida, yuzlarcha karnay ovozlari birdan eshitildi. Soy bo'yidagilar yalang'och otlarga minib chodirlariga tomon yugurdilar. Bu holni ko'rgach, chodirdagilar ham shoshilinch ravishda qurollanib otlandilar. Husomiddin otga mindi. Chang-to'zonga qarshi ikki yuz otliq bilan hujumga tashlandi.

Yuzlarcha otlar og'zini ochib bir-birlariga yaqinlashardi. Chopib kelayotgan otlarning keng ochilgan burun kataklaridan chiqqan pishqiriqlar chang-to'zonlarni yorib, qilich-qalqon o'ynatmoq uchun fazoni tozalar edi.

Bir lahzada "hoy-huv" ovozlari tog'-u toshlarni tutib ketdi. Qahramonlarning hayqiriqlari Qorabog' va Oronning tog' cho'qqilarida aks-sado berarkan: "Oq yolli ot, o'ngga buril!", "Jiyron ot, orqaga tashlan!", "Saman ot, olg'a bos!", "Chavkar, ilgariga yur!" degan sadolar eshitilardi.

Qilichbozlik jangi borardi. Qilichlar uzib yuborgan qalqon parchalari havoda chirpirak bo'lib otlarning tuyoqlari ostiga tushardi. Quyosh ancha ko'tarilib qolgannga qaramay, dahshatli qirg'in davom etayotgan Alibeyli yalangligini yoritishga ojiz edi. Bir-birini qarshi olgan yetti ming qilichdan havoda o'tib bo'lmas bir devor barpo bo'lgan edi.

Husomiddin qo'shinlarining vaziyati og'irlashdi: Faxriddin qo'shinlarining ham bir qismi Abubakr qishlog'ining sharq tomonidan uning orqasiga hujum boshladi.

Husomiddin qo'shinning qurshovda qolganini payqab, najot yo'lini qidira boshladi. Shuning uchun ham o'lar-tirilariga qaramay jang qilardi.

Faxriddin qo'lida qilich ushlagan bir otliqning oldida paydo bo'ldi va Husomiddinni so'radi:

— Qani, bu qo'shinning qahramoni? Qani, Husomiddin? — der ekan, Husomiddin otiga qamchi bosib, Faxriddinga tashlandi.

Yalanglik va tepaliklar egarlari og'ib ketgan, jilovlari oldingi oyoqlariga o'ralishib qolgan, qilichdan yaralangan otlar va majruh jangchilarga to'la edi.

Husomiddinning qo'shinlarini qurshovga olgan Oron otliqlari dushmanning abjag'ini chiqargan edilar. Tepalik va yalangliklardan fors va arab otliqlarining "Voy, modar!", "Vavaylo!"laridan boshqa hech qanday sas-sado eshitilmas edi.

Qurshovni yorib o'tishning uddasidan chiqolmaganlar najotni qilichdan va qalqondan axtarardilar.

Husomiddinning oti jang qilayotgan to'daning ichidan quturgan sherday otilib chiqdi. U ko'z oldida hech narsani ko'rmas, o'z ko'nglidagi orzu-umidlarinigina ko'rardi, xolos. Uning qalbida Qatibaning dudoqlari so'zlar va undan Faxriddinning boshini talab qilardi. Shuning uchun qahramon Faxriddinga ro'para kelishi u qadar mushkul emas edi. U hamisha qalbida Qatibaning ovozini eshitardi. U ovoz Husomiddinni baxtli hayotga tortar, u to'rt minglab qo'shin yo'qotgani va o'zining mag'lub bo'lganlar qatorida turganini nazar-pisand qilmasdan, g'olib pahlavonlardek otini olg'a surardi. Nihoyat, u, Faxriddin turgan yerga yaqinlasharkan, boshini ko'tarib, qarshisida Faxriddin turganini ko'rib, otining jilovnni tortdi, ular bir necha daqiqa bir-birlariga diqqat bilan tikilib turdilar. Nihoyat, Faxriddin so'z boshlab, Husomiddinni mazammat qila boshladi:

— Qo'shnining boshlig'i sifatida seni o'ldirish men uchun eng zo'r ishlardan biri, lekin senga qilich urishdan nomus qilaman, chunki qilichimni nomussiz va hayosiz odamning qoniga belanishini o'zim uchun haqorat deb bilaman. Olchoqsan, chunki to'rt mingdan iborat fors va arab qo'shinlarini orqangdan ergashtirib kelib, o'z vataningni talon-taroj qilmoqchi, vatandoshlaringning qonini to'kmoqchi bo'lding. Shimoliy Ozarbayjonni talash va yo'q qilish uchun kelgan qo'shining ichida sendan boshqa birorta ozarbayjonlik bo'lsa edi, seni olchoq deyishga tilim bormagan bo'lardi. Qani, ayt-chi, Nizomiyning uyida bergan va'dangin unutdingmi? Ozarbayjon xalqining rahbarlariga qarshi dushmanlik harakatida

bo'lmaslikka so'z bermaganmiding? Qani, ayt-chi, Araks daryosidan shu yerga qadar yondirilgan qishloqlar aholisining gunohi nima edi? Endi o'z jazongni olishga tayyorlan!..

Husomiddinning javob qilishga majoli bo'lmadi, chunki Faxriddin otini niqtab uning atrofida aylanardi. Husomiddin qilichini sug'urib Faxriddinga ot surgan paytida, Faxriddin kamand tashlab qilich ushlagan qo'lini band qildi. Faxriddin otini tislatib Husomiddinni egardan qulatib tushirdi. Husomiddinning asir tushganini ko'rgan iroqliklar uni qutqarish uchun hujumga o'tdilar. Qonli jang boshlandi. Nihoyat, Husomiddinni asirlikdan qutqarib oldilar.

Jang kun botguncha davom etdi. Otabek qo'shinlarining yarmidan ko'pi qirib tashlandi va minglab kishilarning jasadlari ot tuyoqlari ostida toptaldi. Qorong'i tusha boshlaganda Husomiddin sog' qolganlar, yaradorlar va charchagan iroqliklar bilan birga Araks daryosi tomon qochdi. Qarorgoh Oron qo'shini qo'liga o'tdi, o'ljalarning son-sanog'i yo'q edi.

SHAXMAT

Oqshom edi, sarin va latif shabada o'z osmoni chehrasiga tushgan dog'larni artib tozalar edi. Ujon va Sovolon tog'laridan ko'tarilgan shamollar Qizil Arslon saroyning bog'iga taralarkan, xushbo'y yosumanlarning mayda yaproqlarini endigina noz uyqudan turgan kelinchakning sochlari singari parishon qilardi.

Keksa bog'bon yozning issig'idan o'zini saqlash uchun yaproqlar chodiri ostiga kirib yotgan gullarning chehrasiga suv purkar edi.

Suv va shabadaning ozuqasidan jonlanayotgan g'unchalar pardasini ochib tashlab, yangi hayotga hozirlik ko'rardilar.

Arazlagan qizlar kabi kipriklarini bir-biriga qo'ndirgan nargis guli ham shahlo ko'zlarini ochib, qizil gulning yuzlariga boqardi.

Yetim qizlardek bir go'shada unutilib qolgan gunafsha bo'ynini egib, boshini yaproq gilamchasi ustiga qo'yganicha mung'ayib o'tirardi.

Hovuz lablarida oq choyshabga burkangan o'rdaklar quyoshning Sardrud tepaligi orqasiga yashiringanini ko'rib oqshom nag'masini boshlagan edilar.

Otabek Muhammad bilan Qizil Arslon uydan chiqib, ayvondagi kursilar atrofida aylanib suhbatlashardilar. Otabek Qorabog‘ orqali Ganjani ishg‘ol qilish uchun yuborilgan qo‘shinning ahvolidan bexabar edi.

Marand orqali Naxchivonni ishg‘ol etmoqchi bo‘lgan Ibnuddorning qo‘shnindan ham umidbaxsh xabarlar kelmagan edi. Ularni Alouddinning otliqlari Ziyoulmulk ko‘prigidan quvib o‘tib, Araks daryosining janubiy sohiliga uloqtirgan edilar.

Otabekning butun umidi Husomiddin boshchiligida jo‘natilgan qo‘shinda edi. Chunki Otabek Husomiddinni Shimoliy Ozarbayjonda ma’lum va sinalgan bir sarkarda ekaniga ishonardi.

Otabek Husomiddinni g‘alaba qozonishi yoki qozonmasligiga fol ochib ko‘rish uchun shaxmat taxtasiga yaqinlashib Qizil Arslonga: “Kel, o‘tir, bir qo‘l shaxmat o‘ynaylik”, derkan, Qizil Arslon o‘tirdi. Lom-mim demay jimgina o‘tirib shaxmat taxtasiga donalarni tikdilar. Otabek o‘yinni otlarni ilgari surishdan boshladi. Qizil Arslon Otabekni tushundi. Uning surgan otini Ganja ustiga yurish qilgan Husomiddinning otliqlariga qiyos qilmoqchi ekanini angladi.

Qizil Arslon o‘ylab yurardi. U yuzma-yuz turgan otlarni taqqoslar edi. U Faxriddinning Husomiddin ustidan g‘alaba qozonishiga shubha qilmasdi. Shuning uchun ham Faxriddin to‘g‘risida fol ocharkan, ko‘proq otlarni o‘yinga solardi.

Uyin uzoqqa cho‘zilmadi, hukmdorning amri bilan oldinga surilgan otlar ortiq shaxmat taxtasining ustida ko‘rinmas edi.

Shoh mot bo‘lishiga yaqin Otabek bir oh tortib shaxmat taxtasi yonidan turdi, yana Qizil Arslon bilan ayvonda keza boshladilar.

Qizil Arslon o‘ylagan foli ijobiy natija berganidan ko‘nglida sevinardi. Qizil Arslon ozarbayjonliklarning mag‘lubiyatini Eldaniz xonadonining mag‘lubiyati deb hisoblar edi. U Ozarbayjon madaniyatini, adabiyot va san’atini butun yaqin Sharq o‘lkalariga nur sochadi deb ishonardi.

Xizmatkor kirib bosh egdi va Otabekka murojaat qilib:

— Dongdor Husomiddin keldi, huzuringizga kirishni istaydi, — der ekan, Otabek shu zahotiyoq shaxmatda yutqazgan otini o‘ladi-da, istar-istamas:

— Mayli, kirsin, — dedi.

Husomiddin ayvonga kirib bosh egdi. Qizil Arslon bilan Otabek uning basharasiga qarashlari bilanoq g'olib sarkardaga o'xshamasligini payqadilar. Otabek unga savol berdi:

— Qo'shinning vaziyati qay ahvolda? Nega qo'shinni tashlab kelding? Qo'shin qayerga borib yetdi?

Husomiddin tez javob bermadi, chunki u ahvolning qandayligini Otabekka aytib berishdan qo'rqardi. Otabek javob kutardi, nihoyat, Husomiddin boshini sal ko'tarib javob berdi:

— A'lo hazratning buyruqlari bajo keltirildi. Biz Araks daryosini kechib o'tib Bojeravon shahri yaqiniga qadar yo'l ustida va yo'ldan chetda bo'lgan barcha qishloqlarning hammasini yondirdik. Hamma qishloqlar ekin maydonlari, bog'-rog'lari ot tuyoqlari ostida toptalib payhon bo'ldi. Xudofarindan tortib to Alibeyli va Abubakr qishloqlarigacha bo'lgan yashil daraxtlardan asar ham qolmadi. Lekin ko'prikdan boshlab Bojeravon etaklarigacha bo'lgan yerlarda biror kimsa ko'rinmadi. Aholi qishloq va uy-joylarini tashlab ko'chib ketgan ekan.

Husomiddin so'zini shu yerda to'xtatdi. Otabek esa shoshilinch va hayajon bilan savol berdi:

— So'ngra?

— Nihoyat, Abubakr qishlog'i bilan Alibeyli qishlog'i o'rtasida bo'lgan jang maydonida taxminan dushmanning uch ming otlig'iga duch keldik. Ular bizga hech kutilmagan tomondan hujum qildilar.

— Keyin nima bo'ldi?

— Keyin tong qorong'isidan to kun botgunga qadar qilichbozlik jangi davom etdi. Har ikki taraf katta talafot ko'rdi.

Otabekning sabri tugadi. U a'zoyi badanini titroq bosib, so'radi:

— Qarorgoh kimning qo'lida qoldi?

— Qarorgohda askarlarning murdalaridan bo'lak nima ham bor deysiz. Yana shuni ham nazari e'tibordan qochirmaslik kerakki, shunchalik kam askar bilan jangga kirishning iloji yo'q edi. Shuning uchun durustroq yordamchi kuch olib ketmoq maqsadida a'lo hazratning huzurlariga keldim.

Otabekning zardasi qaynab ketdi:

— Qani, ayt-chi, hozir qo'shining qayerda?

— Jang qila-qila chekindik. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Hozirda qo'shinning salomat qolgan qismi va yengil yarador bo'lganlari Araks daryosining janubiy sohilida.

— Demak, oronliklar sizlarni Araks daryosigacha do'pposlab, keyin berigi sohilga uloqtiribdi-da?

— Ha, jang qila-qila chekindik,

Otabek o'z-o'zicha: "Ha, jang qila-qila chekindik" degach, Husomiddinga qarab:

— Yo'qol ko'zimdan, jo'na, buyrug'imni kut! — deb baqirdi.

Husomiddin ta'zim qilib, orqasi bilan yurib zinapoyadan tushdi, Otabekning: "yo'qol ko'zimdan", deb baqirishi Qatiba topshirgan maxfiy vazifani eslatdi. Endi u Otabek Muhammadga yolg'ondakam emas, balki chinakamiga suiqasd hozirlamoq qaroriga keldi.

GO'ZAL

Kuz fasli edi. Yashil yaproqlarning rangi o'limga kulib boqayotgan va so'nggi daqiqalarini kechirayotgan bir bechoraning yonoqlaridek sarg'ayardi. Qizil gullarning toj kiyib, bahor taxtiga o'tirgan yashil butoqlarida tikanlardan boshqa hech narsa ko'rinmas edi.

Doim gul barglarining soyasida nozlangan insiz bulbullar kuzgi izg'irin sovuqni his etib, loqaydlik bilan hayotning zaharlarini ichishga, tanholikdan nola qilishga boshlagandi. Shoxidan uzilgan yaproqlar, o'z taqdirini xazon shamoliga topshirib, to'g'ri yo'qlikka tomon uchardi.

Chechaklarning zarif yaproqlari hayvonlarning tuyoqlari ostida payhonlanardi.

Chinordan gir-gir aylanib oyoq ostiga tushgan yaproqlar go'yo tilanchining qo'li kabi panjasini ochib yolvorardi.

Kuzning bu g'amgin kunlarida Otabek Muhammadning katta qo'shini Araks daryosini kechib o'tib, Shimoliy Ozarbayjonga yo'l olgan edi.

Jahon Pahlavon deb ataluvchi bu hukmdorning dahshatli qo'shini bilan Tabrizdan harakat boshlab soyni kechib o'tishi, Shimoliy Ozarbayjonga jiddiy ta'sir etgandi.

Oronliklar Otabekni Kura daryosi sohillarida qarshi olib jang boshlashga qaror qilishdi.

Otabek qadam qo'ygan har bir qarich yerini o'rganib, juda ehtiyotlik bilan harakatlanardi.

Kuzning shiddatli yomg'irlari Otabek qo'shinlarining sur'at bilan harakat qilishiga yo'l qo'ymasdi. Qo'shin Qorabog'dan chiqib o'n ikki toshlik masofada bo'lgan Jonpo'lod qishlog'ining atrofiga qarorgoh kurdi. Shiddatli yog'ingarchilik Otabekning chodirda yashashini qiyinlashtirib qo'ydi. Shuning uchun Otabekka Jonpo'lod qishlog'ida ikki qavatli ko'rkam bir binodan joy tayyorladilar.

Otabek Jonpo'lod qishlog'iga kelishi bilanoq taajjublandi, chunki Qorabog'dan Oronga ketgan yo'lning Sharq tomonida joylashgan bu qishloq Otabek hukmronlik qilgan o'lkalarda boshqa qishloqlarga o'xshamaydigan yagona qishloq edi.

Qishloqning kishi diqqatini jalb etadigan tomonlaridan biri butun binolarning ikki qavatli va bir andozada qurilgani edi. Ko'chalar juda ozoda, tosh terilgan, ikki tomonidagi oqar suvlarning usti berkitilgan, ikki qator qilib o'tkazilgan daraxtlarning bo'yi bir tekisda edi. Otabek qishloqqa kirgan vaqtida uning dimog'iga gul va rayhon isi urildi, hatto, uni kutib olish uchun chiqqan dehqonlar ham boshqa qishloqlarda uchratgan odamlariga o'xshamasdi. Xotinlarning kishidan qochmasligi va ularning hammasi bir-biriga o'xshash kiyinishi ham Otabekning diqqatini o'ziga tortdi.

Qo'shinning katta bir qismi Jonpo'lod qishlog'idan o'tib, Bozorjuq va Barda tomonlariga yetguncha, Otabekning o'zi Jonpo'lod qishlog'ida istirohatga mashg'ul bo'lib, Ganjaga yurish uchun yomg'ir tinishini kutardi.

Yigirma kundan beri Otabek Jonpo'lodning uyida edi, u har kun o'z xizmatida yangi-yangi odamlarni ko'rar, har kuni yangi qiz va yangi juvonlar dasturxon tayyorlar edilar. Bularning hammasi go'zal, ozoda, odobli, bir bichimda va bir xil libosda edilar.

Otabekning fikricha, unga tortilgan taomlarni har kuni bir uydan chiqarilardi. Hatto, bir xil rang va bichimdagi liboslar Otabekka xizmat qiladigan xotin-qizlar uchun maxsus tiktirilgandek.

Otabek nahor va shom paytlarida har xil odamlarni ko'rganidan yigirma kundan beri kimning uyida yashayotganligini bilmasdi.

Qishloqda Otabekning diqqatini jalb qilgan bu madaniyat, qishloqni talon-taroj qilinishdan saqlab qolishga sabab bo'lgandi. Otabekning buyrug'i bilan qo'shinning qishloqqa kirishi man etilgandi. Otabek turgan uyda Jonpo'lod nomli keksa kishi, bir qiz va bir xotin yashar edi.

Uch kishidan iborat bo'lgan bu oila Otabek turgan uyning qarshisidagi bog'cha etagiga qurilgan uch xonali uyda yashardilar. Shuningdek, bu muammoli qishloqning odaticha kishi boshiga bittadan xona bo'lishi kerak edi.

Otabek tez-tez o'zi yashab turgan hovlining bog'chasida kezib yurardi, hovlidagi qator-qator daraxtlarning hammasi kuzgi mevalar edi.

Bu yerdagi olma, nok, behi va boshqa mevalar o'zining serhosilligi bilan Otabekin hayron qoldirardi. Har kuni nonushtaga tortiladigan uzumlar hovli oldidagi toklardan uzib keltirilardi.

Otabek turgan hovlida insonning ehtiyoji uchun nimaiki kerak bo'lsa, hammasi bor edi.

Bu yerning aholisi badavlat bo'lmasa ham, ozoda, madaniyatli odamlar edilar.

Otabek kimning uyida va qanday sharoitda yashayotganiga qiziqardi, chunki yigirma kundan beri o'zi va odamlari shu yerda yeb-ichib istiqomat qilishardi. Shuning uchun ham kimni mukofotlash lozimligini bilib olish lozim edi.

...Kechasi uy egasining qizi tosh yotqizilgan yo'lkadan kelib o'tinxonadan o'tin olmoqchi bo'ldi. Hamma uyquda. Atrof jimjit. Bog'chada birgina tovush eshitilardi, xolos, u ham bo'lsa, yomg'ir tomchilarining yaproqlarga urilib chiqarayotgan g'amgin musiqa singari tovushi edi. Onda-sonda yomg'ir suvini ko'tarolmay uzilgan yaproqlar qizning boshiga tusharkan, sochlarini ho'l qilardi.

Bog'da, Otabek yotgan uyning hovlisida hech kim ko'rinmasdi. Otabekning soqchilari ham yomg'irdan qochib o'z xonalariga kirib mudrar edilar.

Qiz Otabek yotgan xonani soqchisiz ko'rib hayron bo'ldi, o'z-o'ziga: "Naqadar ehtiyotsizlik! Ajabo, katta bir qo'shin bilan buyuk bir xalq jangiga ketayotgan hukmdorni soqchisiz qo'yib bo'ladimi?" dedi. Bu holat qizni o'ylatib qo'ydi. U tut ostida turib

hovliga qaradi. Qiz avval Otabek ko'chib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladi va orqasiga qaytib otasiga xabar bermoqchi bo'ldi. Biroq oyoq tovushini eshitib darrov tut orqasiga yashirindi. Qorovulxonadan bir kishi qilich ko'tarib chiqib, bir necha marta u yoq-bu yoqqa borib keldi. Hech kimni ko'rmaganidan keyin: yana qaytib qorovulxonaga kirmoqchi bo'ldi. U o'tinxona oldidan o'tarkan, o'tinxonadan uch kishi chiqib soqchining ustiga sholcha tashlab, ichkariga tortdi.

Ular soqchini o'tinxonaga olib kirganidan so'ng bittasi tashqariga chiqib, qorovulxona eshigini tashqaridan berkitib, yana o'tinxonaga qaytdi. Qiz bu hodisani ko'rarkan, hang-u mang bo'lib qoldi, vujudini sovuq ter bosib ketdi. U shu daqiqada biror hodisa ro'y berishini sezdi va bir zum o'ylanib qoldi. Lekin o'zini yo'qotmadi, o'ziga: "Nimadan qo'rqasan?" derkan, qo'lidagi o'tkir bolta bilan shoshilib kelib o'tinxona eshigini qulfladi va Otabek yotgan xonaning eshigini jinni bo'lgan odamlardek qoqa boshladi.

Otabekning xonasida chiroq yondi, lekin Otabek eshikka yaqin kelishga botinolmadi, nega deganda, eshikni oddiy bir yo'sinda taqillatayotganlari yo'q edi. Otabek to'xtab o'yladi. Dushman tunda hujum qilar deb xayoliga ham keltirmasdi, chunki Xudofarin ko'prigidan boshlab Bardagacha bo'lgan yerlar o'zining qo'shinlari qo'lida edi.

Eshik yana dahshatli qoqildi. Otabek qilichini sug'urib, eshik yoinga kelib so'radi:

— Eshikni qoqayotgan kim?

— Hukmdor, eshikni oching.

— Kimsan o'zing?

— Uy egasining qiziman.

— Nega kelding?

— Hukmdor, sizni falokat kutmoqda, qo'rqmang, eshikni oching.

— Qanday falokat?

— Tushuntirib o'tirishga vaqt yo'q, nimadan qo'rqasiz? Men oddiy bir qiz bolaman. Oching eshikni, fursat o'tyapti, falokat yaqinlashib kelmoqda.

Otabek qo'lida qilich tutgan holda hayajon bilan eshikni ochdi. Eshik oldida baland bo'yli bir qiz bolta ko'tarib turardi. Bu holni

ko'rarkan, Otabek qiz o'ldirgani kelgandir degan xayolda qilichini baland ko'tarib urmoqchi bo'ldi. Qiz boltasini qilichga ko'ndalang tutib, g'urur bilan dedi:

— Shoshilmang, hukmdor, yaxshilikka yomonlik ulug' odamlar uchun nuqson-ku, men sizni o'ldirish uchun emas, o'limdan qutqarish uchun keldim.

Otabek qo'lini tushirib, taajjub bilan so'radi:

— Meni o'limdan qutqazish uchun?

— Ha, o'limdan qutqazish uchun. Gapni cho'zishga vaqt yo'q. Soqchining boshiga sholcha tashlab o'tinxonaga olib kirib ketdilar, o'tinxona eshigini tashqaridan qulfladim, jinoyatchilar omborda, soqchilar turgan xona eshigini tashqaridan qulflab qo'yishdi.

Otabek shunda ham tashqari chiqishga shoshilmadi. Nihoyat, qiz achchig'lanib:

— Nega ketimdan bormaysiz? Uy egasi o'z mehmoniga xiyonat qiladi deb o'ylamang, — dedi.

Otabek tashqariga chiqishga botinmasdi. Uning fikricha, qiz uni hovliga aldab chaqirib, poylab turgan dushman qo'liga tushirib beradiganga o'xshardi. Otabek bu oronliklar tomonidan qilinadigan suiqasd uchun tayyorlangan tuzoq deb o'ylardi. Soqchi hovlida ko'rinmay, qorovulxonada yashirinib yotganlaridan shubhalangan Otabek, bu ishni muayyan bir topshiriq bilan bog'liq deb hisoblardi. Shu xayol bilan ichkariga qaytib, eshikni ichdan mahkamlamoqchi bo'ldi.

Qizning sabri tugadi-da:

— Nega o'z hayotingizni tahlikadan qutqarishga harakat qilmaysiz? Hozir ular ombor eshigini sindirib hovliga chiqishadi va sizni halok etishadi, — derkan, Otabek unga:

— Sen bor, qorovullarga xabar qil, — dedi.

Qiz uning so'zlariga istehzo bilan dedi:

— Jahon Pahlavon!.. Bilmadim, qaysi jasoratingiz uchun Jahon Pahlavon degan unvonni ko'tarib yuribsiz?

Qiz bu so'zlarni aytib ketar ekan, Otabek uyalib u bilan birga tashqariga chiqdi. Ular avval qorovulxona eshigini ochib, soqchilarni uyg'otdilar. Soqchilar Otabekni ko'rgan hamon o'zlarini yo'qotib qo'ydilar, Otabek esa:

— Tez bo'linglar, o'tinxonani qurshab olinglar, u yerda kim bo'lishiga qaramay, hibsga olib menga xabar beringlar, — deb o'z xonasiga qaytdi.

Otabek bu hodisada uy egasi bilan qizning ishtiroki borligini va bu xildagi nayranglar bilan uni hovlilardan ko'chirish niyatida ekanlarini gumon qilardi. Shu xayol bilan soqchilar boshlig'iga buyurdi:

— Qizni ham, ota-onasini ham hibsga olib, ertaga ombordan ushlanganlar bilan birga huzurimga olib kelinglar.

Soqchilar qizni o'rab oldilar. Qiz hibsga ketarkan, Otabekka o'girilib, achitib dedi:

— Qalbimni podshoh qalbi bilan o'lchashingizni bilganimda, sizni bu o'limdan qutqarmagan bo'lardim, — deya soqchilarning oldiga tushib ketdi. Otabek yosh qizda ko'rgan bu jasoratdan hayratda qoldi, bitta qishloqi qizning: "Bilmadim, qaysi jasoratingiz uchun Jahon Pahlavon degan unvonni ko'tarib yuribsiz?.." deyishini hukmdor umrida birinchi marta eshitishi edi. Yana qizning: "Qalbimni podshoh qalbi bilan o'lchashingizni bilganimda, sizni bu o'limdan qutqarmagan bulardim", degan so'zlari hukmdorni o'ylatib qo'ydi. Hukmdor u qizning nomi birgina qiz emas, qahramon qiz ekanini o'z-o'ziga ta'kidladi. Lekin Otabek uni qorong'ida ko'rgan edi. Qizning faqatgina ovozi va bo'y-bastinigina eslab qoldi, xolos. U qalbida "bu qiz qahramonligi bilan birga go'zalikka ham ega bo'lganda edi, qishloqi qiz bo'lishiga qaramay, unga uylangan bo'lardim", derdi. Yarim soatdan kenin soqchilarning boshlig'i Otabekka bo'lgan voqea to'g'risida ma'lumot berib dedi:

— O'tinxonadagilar sakkiz kishi ekan, soqchini omborga olib kirishlari bilanoq o'ldirganlar. Avval taslim bo'lishni istamadilar. Qorong'ida qonli jang boshlandi. Natijada, ulardan besh kishi o'ldi. Bizdan esa yetti kishi o'lib, besh kishi yaralandi. Ulardan tirik qolgan uch kishi hibsga olindi.

— Ularni huzurimga keltiring, — deb buyurdi Otabek.

Besh minutlardan so'ng uch kishini olib keldilar, ulardan biri qo'lidan, ikkinchisi bo'ynidan, uchinchisi boshidan yaralangan edi. Otabek ularni shu ahvolda ko'rarkan, soqchilarga amr berdi:

— Bularning yaralarini bog‘lash kerak. Olib borib yaralarini bog‘lang, kiyimlarini almashtirib, keyin so‘roqqa, huzurimga keltiring.

Yaradorlarni olib chiqib ketdilar. Otabek fikrini o‘zgartdi va bu suiqasdni o‘z-o‘zicha tahlil etarkan, buni faqat ozarbayjonliklar qila oladi, agar Oronga kira olsam, mamlakatning kulini ko‘kka sovuraman, der edi. Qo‘lga tushganlarni olib keldilar, Otabek ularga savol berdi:

— Qayerliksizlar?

Ulardan ikkitasi gapirolmas edi, chunki yaralari juda og‘ir edi. Shuning uchun ularga o‘tirishga ruxsat berdi, qo‘lidan yaralangangina Otabekning savoliga javob berdi:

— Bizlarning har uchalamiz ham Nahovand viloyatining Bedoviston shahrining Oq-Qal’a qishlog‘idanmiz.

— Qaysi dastadan?

— Nahovandliklar dastasidan.

— Otliqmisiz yoki piyoda?

— Uchalamiz ham otliqmiz.

— O‘lgan beshta sheriklaringizni taniysizlarmi?

— O‘lgan besh kishining uchtasi Nahovand viloyatidan, lekin ikki kishi qayerdan ekanligini bilmaymiz.

— Bu yerga nima uchun kelgan edingiz?

— Dastamiz boshlig‘i bizni o‘lgan sheriklarimizdan birining ixtiyoriga topshirgan edi.

— Boshliqlaringiz sizlarga qanday vazifa topshirgan edi?

— Shu odam sizlarga qanday buyruq bersa, quloq qoqmay bajaring, degan edi.

— U sizlarga hech narsa demadimi?

— Otabekning dushmanlarini o‘ldirgani boramiz, dedi.

— Otabek kim?

— Qizil Arslon.

— Har biringizga qanchadan pul berdilar?

— Hech narsa berganlari yo‘q, Qizil Arslon har biringizga bittadan qishloq beradi, deyishdi.

Otabek darhol otliq yuborib Nahovand dastasining boshlig‘ini chaqirib kelishga buyruq berdi. Lekin Nahovand dastasi qayerda

ekani ma'lum emasdi. Otabek darhol Husomiddinni oldiga chaqirib, Nahovand dastasi qayerda joylashganini so'radi. Husomiddin dasta Qorabog'dan uch tosh naridagi "Mir" qishlog'ida joylashganini aytdi. Otliqlar jadallik bilan "Mir" qishlog'iga jo'nadilar.

Otabek gunohkorlar bilan so'zlashgandan so'ng qizni va oilasini bu hodisada gunohsiz ekanini aniqladi, ularni hibsga olgani uchun uyaldi va soqchilar boshlig'idan so'radi:

— Qiz bilan ota-onasi qayerda?

— O'z uylarida, eshik tagiga odam qo'yib, tashqariga chiqarmaslikka buyurdim.

— Ularni ozod qiling, gunohkorlarni saqlang. Yaradorlarni tirik saqlashga harakat qiling, bo'lmasa xiyonatning izini yo'qotib qo'yishingiz mumkin.

Xona bo'shab qoldi, Otabek o'ringa yotdi, lekin u haligi jasoratli qizni, uning aytgan gaplarini sira unutolmas edi. Xususan, u, qorong'ilikda qizning yuzini ko'rolmagani uchun uni har xil qiyofalarda tasavvur qilardi, lekin shunday bo'lsa ham, qat'iy bir qarorga kelolmas edi. "U chiroylimikan? Xunukmikan?" deb o'ylardi, lekin qizning ovozi doim uning quloqlarida jaranglar, dambadam: "Bilmadim, qaysi bir jasoratingiz uchun Jahon Pahlavon degan unvonni ko'tarib yuribsiz", der edi. Otabek bu o'ylardan keyin yana o'z-o'ziga: "Agar ozarbayjonliklarni shuningdek qahramon onalar tuqqan bo'lsa, men ularga g'olib kelolmayman", der edi.

Yarim kechadan tong otguncha Otabek shu xayollar bilan yotdi, har tomonga ag'darildi va tez-tez derazaga qarab tong otishini kutdi. U qizni yana bir ko'rish ishtiyoqida edi. Lekin bundan umidi yo'q edi, chunki qizning yaxshiligi evaziga yomonlik qilgan edi.

Odatdagicha, vaqtida o'rnidan turdi. Yuz-qo'lini yuvib bo'lishi bilanoq, eshik ochildi, Otabek uchun nonushta keltirildi. Qiz yana odati bo'yicha, Otabekka xizmat qila boshladi. Otabek ko'z qiri bilan qizni sinchiqlab kuzatar edi. Otabek qizning jahli chiqmayotganiga qanoat hosil qilgach, unga savol berdi:

— Sening otingni so'rash mumkinmi?

Qiz boshini ko'tarib, Otabekning yuziga boqib javob berdi:

— Agar hukmdor mamlakatdagi hamma qizlarning otini bilishga urinsa, boshqa ishlarga vaqti yetishmay qoladi.

— Seni boshqalarga o'xshatib bo'lmaydi. Avvalo, men bu yerda yigirma kundan beri yashayman, sizlar tomondan cheksiz hurmat ko'ryapman. Ikkinchisi shuki, sen meni o'limdan qutqarding.

— Ismim bilan jismim o'rtasida katta farq bor. Ismim jismimga monand bo'lmagani uchun otimni aytishga uyalaman.

— Demak, isming xunuk ekan, o'zing esa juda go'zalsan.

Qiz devor tomonga o'girilib, qizarib-bo'zarib dedi: — Otim Go'zal.

Otabek yana qizga diqqat bilan qarab sekingina:

— Haqiqatan ham go'zalsan,— dedi.

Go'zal nonushtani dasturxonga qo'yib, Otabekning xizmatida qo'l bog'lab turdi. Otabek taomdan qo'l tortib:

— Sen anavi kursiga o'tirmasang, ovqatlana olmayman, — dedi. Go'zal darhol chetda turgan kursiga o'tirdi.

Otabek mumkin qadar ovqatlanishni cho'zishga harakat qildi. Nega deganda, nonushta tugashi bilan qiz dasturxonni yig'ishtirib chiqib ketar edi. U qizni faqat nonushta vaqtidagina ko'ra olardi. Shuning uchun ham qizni o'z huzurida ko'proq tutib turishga harakat qilardi. Qiz ham buni tushundi, chunki Otabekning ko'zi qizda bo'lib, na yeyishining va na ichishining tayini bor edi. U churq etmay taomlarga qo'l uzataman deb goh tuzdonga, goh qalampir idishiga qo'l urib qo'yganini sezmay qolardi, Go'zal esa Otabekning bu vaziyatini ko'rib jilmayib qo'yardi. Otabek butun kuchini ko'ziga berib, qizni kuzatardi. Goh qizning baland bo'yiga, nozik va mutanosib andomiga, anor guli yaprog'idan ham nozik qirmizi dudoqlariga, shahlo ko'zlariga, oq-u qizili ajralib turgan to'la yonoqlariga, mushki anbar taratgan qora sochlariga, kichik ammo tiqmachoqday qo'llariga boqarkan, borlig'ini unuta boshladi.

— Sen kechasi xatarli paytda bu hovlida nima qilayotgan eding? — deb so'radi Otabek.

— O'tinxonaga o'tin olish uchun kelgan edim, otam betob edilar, uyga olov qilish lozim edi.

— Endi qalay? Otangning salomatligi durustmi?

— Otabekning davlatlari soyasida hibsga olingan soatdan beri sog'ayib qoldi.

— Olam hodis. Men sendan juda minnatdorman. Meni o'lim changalidan qutqarding.

— Buning uchun minnatdorchilikning keragi yo'q. Bu mening burchim edi. Bu burchning podshohlikka sira aloqasi yo'q. Buning elimiz odatlariga aloqasi bor, chunki odatimizga ko'ra, mehmonning xavfsizligini saqlash uy xo'jasining vazifasi. Agar boshqa uyda bo'lganingizda balki sizni himoya qilmagan bo'lardim.

— Nima uchun, sizlar hukmdorni sevmaysizlarmi?

— Chunki hukmdor ham bizni sevmaydi.

— Buni senga kim aytdi?

— Buni menga vayron-talqon bo'lgan qishloqlar, yondirilgan uylar, tutuni buruqsagan xonumonlar, talon-taroj bo'lgan shaharlar, payhon etilgan ekinzorlar aytdi: bularning hammasi hukmdorning ozarbayjonliklarni sevmasligidan darak beradi. Men sizni o'limdan qutqarganim uchun men bilan otam-onam hibs qilindik.

Otabek qizning ko'nglini ko'tarib dedi:

— Xafa bo'lishning hojati yo'q, hukmdor har kimga ham ishonavermaydi. Bir qiz vositasi bilan meni hovliga chaqirib o'ldirishlari mumkin edi. Hayotda hushyorlik lozim. Buni senga ham maslahat beraman, qilgan yaxshiliging evaziga ko'rsatgan nojo'ya harakatlarimni unut. Otangni ham, onangni ham chaqirib uzr so'rayman. Uyingizdan olganim go'zal taassurotlar mening hayotim tarixida unutilmas bir sahifadir, xususan, men go'zal qizni aslo unuta olmayman. Shu qadar go'zal qizdan va ajoyib manzaradan ayrilmoq men uchun toj-u taxtdan ayrilgandek og'ir bo'ladi.

Qiz indamasdi, hukmdor so'zlarini xuddi devordagi pardalarga gapirayotganga o'xshardi. Shuning uchun hukmdor qizga savol berdi:

— Ajabo, katta mukofot va'da etishim seni rozi qiladimi, yo'qmi? Olamning mashhur bir xonimi bo'lishni istaysanmi?

Qiz dasturxonni yig'ishtirar ekan, beparvolik bilan dedi:

— Har kim o'z tomining tagida xonimlik qilish bilan baxtiyor bo'la oladi. Har kim o'z xizmatiga yarasha mukofotlansa yanada yaxshiroq.

— Sen bu mukofotga sazovorsan.

— Men mukofotga sazovor bo'lsam-da, lekin siz menga bermoqchi bo'lgan mukofotingizni mehnat qilib topgan emassiz. Hukmdor bilishi kerakki, mukofot olish mumkin, lekin har kimdan emas. Bundan biroz oldin xoin, qotil deb o'ylaganingiz qiz, qaysi bir vijdon bilan sizning mukofotingizni qabul qila oladi? Qarshingizda turgan qiz yomon niyat bilan eshigingizni qoqguday bo'lsa, sizni hovliga sudrashning hojati yo'q edi. Siz eshikni ochishingiz bilanoq o'ldira olardi. Hech kim bilmas ham edi.

— Sen kecha menga aytgan so'zlaringdan endi pushaymon bo'lyapsanmi?

— Odam o'ylab gapirgan so'zidan pushaymon bo'lmaydi.

— Senga Go'zal nomini kim qo'ygan? Bu nom sen uchun juda ham uyg'un, go'dakligingda sening bu qadar go'zal bo'lishingni ular qanday bilishdi ekan?

— Ota-onam qo'ygan, bu yerda hech qanday jumboq bo'lmasa kerak. Qishloq xalqi nima ekib, nima o'rishlarini yaxshi biladi.

— Sen juda go'zalsan, xulqing undan ham go'zal. Ayt, senga qanday mukofot beray? Nega endi o'z hukmdoringni xursand qilishni istamaysan?

— Hukmdor men o'ylagan mukofotni berishga qodir emas, deb o'ylayman. Chunki mening istagim hukmdorlikning asosiy xohishlariga ziddir.

— Mening har bir narsaga qurbim yetadi, istagan narsangni talab qil, men hatto, o'z orzularimni ham senga qurbon qila olaman.

— Men istardimki, hukmdor o'z yeriga qaytib ketsin, qish yaqinlashib kelyapti, xalqni tinch qo'ysin. Bu bilan ikkinchi martaba qo'shinlaringiz mamlakatni vayron qilyapti. Bu xalqqa qilingan shafqat xalq uchun ham men uchun ham katta mukofot bo'lur edi. Hukmdor shunday qilishga qodirmi?

— Men xalqqa osoyishtalik berish maqsadida tinchlikni buzuvchilarni jazolashga ketyapman.

— U holda hukmdor yomon odamlarni o'zi bilan birga olib kelmasligi kerak. Siz yomon odamlarga ham shunchalik erk bergansizki, ular o'zingizni ham o'ldirishga jur'at etganlar. Hukmdorini o'ldirmoqchi bo'lganlar uning fuqarosi bilan murosa qila olarmikan?

Qizning so'zlari Otabekni o'ylantirib qo'ydi, o'zini qanday el ichida ekanligi va qanday muhitning odamlari bilan yuzma-yuz turganini angladi. Uzoq sukutga ketdi. Nihoyat, Otabek qizga murojaat qilib:

— Sendan uzr so'rash uchun yonimga chaqirgan edim, chunki seni va ota-onangni bezovta qildim, ayni zamonda, sening bu qadar go'zalligingni bilmas edim.

Go'zal ko'z qiri bilan unga boqib kulimsirab:

— Shunday, hukmdor, hamma narsani bilgandan ko'ra, bilmagan yaxshiroqdir. — derkan, Otabek ham:

— Bilmaganingda shodlanasan, bilgandan so'ng qayg'urasan, — dedi.

— Bir qiz uchun tashvish chekkandan ko'ra, hukmdor o'z mamlakati tashvishini chekkani yaxshi. Yolg'iz birgina qizning go'zalligi bilan mamlakatni obod qilib bo'lmaydi. A'lo hazrat, siz go'zallik muxlisisiz, go'zal tabiatga ega bo'lgan Ozarbayjonni yakson qilish go'zallikka qarshi jinoyat emasmi? Araks daryosi bilan Kura daryosi oralig'idagi jannatni ot tuyoqlari bilan toptagan bir hukmdor go'zallik muxlisi ekaniga o'zi ishonadimi?

— Men otangni chaqirib masalani unga aytishim mumkinmi?

— Qanday masalani? Ozarbayjonni vayron qilish masalasinimi?

— Yo'q, go'zal qiz masalasini.

— Menga taalluqli bo'lgan masalani otam bilan hal etishning qanday ma'nosi bor? Ajabo, hukmdor faqat mening masalam uchun bu yerga qo'shin tortib keldimi?

— Bu masalani shaxsan o'zing hal etish uchun ixtiyoring bormikin?

— Odamlarning hammasi ham o'z masalasini o'zi hal eta olishga haqli, ba'zan bu ixtiyorni inson erkiga zid tuzilgan qonunlargina insonlardan olib qo'yadi.

— Kimdan tarbiya olgansan?

— Onamdan.

— Onangni ilmi bormi?

— Ha, ilmli hamda tarbiyali.

— Onang qanday oiladan?

— Bilmadim, sizga nima desam ekan, kimlarni aytsam ekan? Siz Ozarbayjonda qanday oilani taniysiz? Shoir, adib, ziyolilar yoki mashhur qahramonlardan taniganlaringiz bormi?

— Men Ozarbayjonda mo'tabar shoirlardan Nizomiyni, Xoqoniyni, Abululloni taniyman, ruhoniylardan Ganja xatibini, a'yonlardan Sulaymon ibn Barakani, qahramonlardan esa Faxriddinni taniyman.

Go'zal: "Eng oxirida nomini tilga olgan odamingiz mening tug'ishgan tog'am bo'ladi", demoqchi edi-yu, lekin bu fikridan qaytib so'radi:

— Hukmdor meni nima bilan baxtli qila oladi?

— Qayqubod va Faridunlar tojidan ham qimmatli bo'lgan tojim bilan.

Qiz kulimsirab dedi:

— Balki hukmdor tojni juda qimmatbaho deb hisoblar, lekin, menimcha, uning boshga tushadigan og'irligi qimmatidan ko'ra ham og'irroqdir.

— Seni Jamshid taxtidan ham balandroq taxtim bilan sarafroz qilaman.

— Buyuk shoir Nizomiyning shohlarga bag'ishlagan she'ri a'lo hazratning nazari e'tiborlariga yetgani yo'qmi?

Otabek taajjub bilan so'radi:

— Qaysi she'ri?

— Nizomiy podshohlarni g'aflat uyqusidan uyg'otish uchun yozgan she'rida aytadiki: "Ey hukmdor, juda ham taxt-u baxtim bor deb kerilma, ajalning oti doimo egarlog'lik, turadi. Har bir taxtning soyasida bir tobut bor".

— Seni dunyoni o'z kaftida ko'tarib turishga qodir bo'lgan hukmdor sevsa, faxrlanmaysanmi?

— Qanday faxrlanay? Dunyoni kaftida ko'tarib turishga qodir kuch elning kuchi bo'lmasdan, o'z shaxsiy kuching bo'lsa edi, faxrlanardim, lekin xalqning qoni va joni bilan qo'lga kiritilgan g'alaba bilan ayrim kishilarning faxrlanashi to'g'ri emas, hukmdor xalq kuchiga suyanadi.

— Men o'zim ham pahlavonman. Shu kunga qadar hech kimsa men bilan yuzma-yuz kelib olishgan kishini ko'rgani yo'q. Seni

sevgan zot ustidan hech kimsa g'alaba qilolgan emas. Men bir o'lka yoki bir mamlakat pahlavoni emas, balki Jahon Pahlavoniman.

— Mening sevgi shartlarim uchun yolg'iz pahlavonlikning o'zi kifoya qilmaydi.

— Qanday shart? Go'zal qiz, shartingni ayt, hukmdor bu husn-u jamol uchun qurbon bo'lishga ham tayyor.

— Meni sevgan kishi xalqimni ham sevishi kerak. Meni sevgan zot xalqimga dushmanchilik qilmasligi kerak, chunki men shu diyorda, ana shu xalq ichida tug'ilganman. Hukmdor bilishi kerakki, elimiz odatiga ko'ra, ont ichib ontini buzgan odamdan ko'ra yomonroq odam bo'lmaydi. Agar ontni buzsangiz, unda qanday bo'ladi?

— Unda meni jazolashga haqqing bor. Endi ayt-chi, otangni chaqirib gaplashaymi?

Otabekning bu taklifiga Go'zal hech narsa demadi, bu sukut — rizolik alomati edi. Go'zal o'z ko'nglida Otabekning bu muhabbatidan foydalanib Oron xalqini o'lim va talon-tarojdan qutqazib baxtiyor bo'lishni o'ylardi. Shuning uchun Otabekning taklifini rad etmadi, idish-tovoq va dasturxonni yig'ishtirib chiqib ketdi.

Otabek kotibi Kichik Bug'oni chaqirib dedi:

— Hibsga olingan jinoyatchilarni mahkam saqlanglar. Men bu suiqasdni Qizil Arslon tarafidan qilinganiga ishona olmayman. Bu yerda boshqa qo'llar ish ko'rgani ehtimoldan uzoq emas. Hayotimni tahlikadan qutqazgan qizning xizmatini eng yuksak mukofot bilan taqdirlamoqchiman. U ham go'zal, hamda dovyurakdir. Uning butun turish-turmushi hukmdorlarga munosib bir qiz ekanidan dalolat berib turibdi, qahramon vujudga kelmog'i uchun shunday bir rafiqa lozim.

Kichik Bug'o bu so'zlarni eshitgach, kulimsirab hukmdordan:

— Malika-chi? — deb so'radi.

— Malika malikaligicha qolaveradi. Bu qiz malika bo'lishga zor qizlardan emas. Fikrimcha, men oila baxtini faqat shu qizdan topa olaman. Ro'y-rost gapiradigan bu xildagi qizlar bilan kelishish unchalik qiyin bo'lmaydi. Mening malikam esa, shubhali xotin, istaklarini bilib bo'lmaydi. To'g'risi, men malikadan qo'rqaman.

U men uchun bir xatardir. Endi, borib qizning otasini huzurimga chaqir.

Kichik Bug'o chiqib ketdi. Otabek qiz haqidagi fikrlarini muhokama qila boshladi. "To'g'ri, u qishloqi qiz, lekin odob va ma'rifatda yuzlarcha Qatibalardan ustun turadi. Mening taxt-u tojim bo'lsa, u yuzlarcha taxtning ziynati. Agar men jahonning mashhur pahlavoni bo'lsam, u ham jahonning mashhur go'zali. Agar men olamga kamand tashlay olsam, u ham jahonga kamand tashlashga qurbi yetadigan bir pahlavonni asir qila oladigan darajada mohirdir. Mening o'qimdan jonni asrab qolish mumkin-u, lekin uning g'amza o'qidan xalos bo'lishning iloji yo'q. Mening qilich urishim butun Iroq-u Arabda shuhrat qozongan bo'lsa, uning qilichi tosh yuraklarni teshadi. Uning kamon qoshlari va o'qdan ko'ra o'tkirroq kipriklari bor. Men dunyo qonini to'ktirgan bo'lsam, u o'z go'zalligi bilan ko'plarning qonlarini to'kilishidan saqlab qoladi. Uning tishlari yanglig' marvarid va dudoqlari singari yoqutlar qaysi bir podshohning xazinasida topiladi? Uning oqi oqqa, qizili qizilga ajralib turgan chehrasi kabi shirin olmalar qaysi bog'da pishadi.

Hukmdor bu haqda juda ko'p o'yladi va nihoyat: "Kim bilsin, balki bu tasodif biror g'alabaning boshlanishidir", degan qarorga keldi-da, o'rnidan turib uyda aylana boshladi.

Kichik Bug'o bilan Go'zalning otasi Jonpo'lod uyga kirib, bosh egib turishdi.

Otabek uning salomiga alik olib:

— O'tir, qariya,— dedi.

Jonpo'lod ostonada o'tirmoqchi bo'larkan, Otabek uning qo'lidan ushlab yuqoriga — boya Go'zal o'tirgan kursiga o'tqazdi.

Kichik Bug'o chiqib ketdi. Otabek so'z boshladi:

— Men sizni ikki masala yuzasidan huzurimga chaqirdim, bulardan biri rozilik berish, ikkinchisi esa, uzrni qabul qilish. Qizingiz mening hayotimni tahlikadan qutqardi. Buning uchun tashakkur aytaman. Oilangizdan minnatdorman. Ayni zamonda, bu hodisa munosabati bilan sizni hibsga oldirganim uchun uzr so'rayman. Siz dunyo ko'rgan odamsiz, yaxshi-yomonni ajratish tajribasiga egasiz. Bilasizki, insonga bir falokat yuz bergan vaqtda, muhokama quvvatini yo'qotadi, do'stni dushmandan ajrata olmay qoladi. Kecha-

si ro‘y bergan bu hodisa meni dovdiratib qo‘ydi. Nima qilishimni bilmay qoldim.

Jonpo‘lod hukmdorning so‘zlarini ma’qullab, dedi:

— Podshoh to‘g‘ri aytadilar, lekin bu uzr so‘rashga arzimaydi. Balki bizning hibs etilishimiz podshohga og‘ir kelar, chunki u hibsxona nimaligini bilmaydi. Lekin biz qishloq xalqi bunga o‘rganib qolganmiz, nega deganda, hukmdorning tayinlagan ma’murlari bizlarni har oyning boshida hibsxonaga yuboradi. Endi, muhtaram mehmonimizning hayotini xatardan qutqarib qolish masalasiga kelsak, bu ham bizning ota-bobolardan qolgan bir vazifa, podshoh hazratlari. Xalqimizning yaxshi bir odati bor. Kimning mehmoni boshiga biror falokat tushsa, o‘sha mezbon izzat-hurmatini yo‘qotadi. Unday kishining eshigi tepasiga tikan osib qo‘yish kerak. Nega desangiz, tikan osilgan eshikka mehmon kirmaydi. Mehmonsiz odam qishloqda vatandoshlik huquqini yo‘qotadi, uni omma ichiga kirishdan mahrum qiladilar, jamoat o‘rtasida obro‘sini yo‘qotadi.

Otabek bu so‘zlardan keyin o‘z maqsadi uchun yo‘l ochilganini bilib Jonpo‘lodga dedi:

— Men bir necha kundan beri sizlarning shu qadar oliyjanob va najib bir xalq ekanligingizga ishonch hosil qildim. Men sizlardek mehmondo‘st odamlarni mamlakatimizning hech bir yerida ko‘rmagandim. Shu ko‘rsatgan hurmatlaringiz evaziga qizingizni Eldaniz xonadoniga olib kirib baxtiyor qilishni istardim.

Jonpo‘lod Otabekning nima demoqchi ekanini angladi va Otabekni Jonpo‘lod qishlog‘ining ba’zi odatlari bilan tanishtirarkan, uning bu niyatidan qaytarishni o‘yladi:

— Ulug‘ hukmdor! Mol-jonimizning ixtiyori sizda. Bu navkaringizning jur’ati bormi, sizning amringizdan chiqa olsin, lekin men qiz haqida biror narsa deyishning vakolatini zimmamga ololmayman.

Otabek taajjub bilan savol berdi:

— Nima uchun? Sen uning otasi emasmisan?

— Mol-u jonimizning sohibi, farzandlarimiz balog‘atga yetgunicha ularni tarbiyalash bizlarning zimmamizda. Lekin balog‘atga yetganidan keyin uning vakolati jamoa ixtiyoriga o‘tadi.

— Qanaqa jamoa?

— Qishlog‘imizda to‘rt kishidan iborat oqsoqollarimiz bor. Hammamizning ixtiyorimiz o‘shalarning qo‘lida.

— Oqsoqollar hukumat tomonidan belgilanganmi?

— Yo‘q, ularni jamoaning o‘zi saylagan.

— Ajabo, sizlarning hukumatingiz yo‘qmi?

— Hukumat soliqlarini ham shu oqsoqollar belgilaydi.

— Sud va jazo ishlari kimning qo‘lida?

— Haqsizlik, o‘g‘irlik, yolg‘on, tajovuz, odam o‘ldirish, bir-birovini xafa qilish bo‘lmaganidan keyin kimga jazo berish mumkin?

— Bir-birining mulki yoxud yer-suvini o‘ziga qaratib olsa, uni jazolash vazifasi kimning zimmasiga tushadi?

— Bu yerda xususiy mulk degan gapning o‘zi yo‘q, yer-suv ham, boyliklar ham — nimanki bo‘lsa — butun xalq mulkidir.

— Ya’ni qanday xalq mulki?

— Ha, xalqniki, chunki bu yerda bog‘-bog‘chalarning chegara-devorlari yo‘q. Hamma bir yerda ishlashi kerak.

— Axir, hosilini kim oladi?

— Hosil xalqniki. Hamma bir ombordan yeydi, bir cho‘ntakdan xarajat qiladi, bir bichim, bir o‘lchovdagi imoratlarda yashaydi, mening unim ham, ko‘rib turgan narsalaringiz ham, hammada bor.

— Bu men yashab turgan uylar kimga tegishli?

— Xalqniki, ayni zamonda meniki. Oilalarda qancha odam bo‘lsa, jon boshiga bittadan xonasi bo‘lishi kerak. Biz uch jon-miz, uchta xonamiz bor. Ayni zamonda, har bir oilada mehmon uchun ikki uy ajratib berilgan. Bu yerdan olis ellarga qiz berish ta-qiqlangan. Qishlog‘imiz qizlari qishlog‘imizning yigitlariga tegishi kerak. Agar qiz yigitdan ortiqroq bo‘lsa, yoinki, qiz boshqa qishloq yigitini sevib qolsa, u holda yigit bizning qishloq odatini qabul qi-lishi bilan birga qishlog‘imizning fuqaroligiga o‘tishi kerak. Lekin bu osonlik bilan bo‘lmaydi. Oqsoqollar yigitning nasl-nasabini keragicha surishtirishi kerak. Agar yashab turgan yerida kuyov bo‘lmishning o‘zi yoxud qarindosh-urug‘laridan biror yomon-lik sodir bo‘lmagan taqdirdagina oqsoqollar uni bu qishloqning qiziga uylanishi va qishlog‘imizning fuqarosi bo‘la olishiga ijozat beradilar. Yigitlarimiz ham xuddi shunday. Shuning uchun men elimizning odatini buzib qizimni a’lo hazratga va’da qilolmayman.

Aks holda, hamqishloqlik huquqini yo'qotgan bo'laman. Men o'ylaymanki, a'lo hazrat umrimning so'nggi kunlarida badbaxt bo'lishimga rozi bo'lmaslar.

Otabek chuqur o'yga toldi. U ko'rib eshitayotganlarini hozirgi yashayotgan olamda emas, ko'zlardan pinhon boshqa bir olamda bo'lgandek sezardi. U bu xalqni o'rganish orzusi bilan so'radi:

— Sizning farzandlaringiz tahsilni kimdan oladilar? Qishlog'ingizda qancha ruhoniy bor?

— Bizning qishlog'imizda ruhoniy topilmaydi, chunki ularga ehtiyoj yo'q. Ularning aytadigan so'zini qadim zamonlarda bobolarimiz bizga aytganlar. Bizda gunoh qiluvchilar yo'qki, ularni jahannam azobidan qutqarish kerak bo'lsa. Agar, haqiqatan ham, jannat bor bo'lsa, bizlar undan ham mahrum bo'lmaymiz. Nega deganda, oramizda gunohkor odamlar juda oz topiladi.

Otabek bularning musulmon ekanliklaridan shubhalandi. Shuning uchun savol berdi:

— Diniy masalalarda qaysi mazhabdasizlzr?

— Biz diniy aqidalar jihatidan faqat birodarlikni bilamiz. Bu haqda tarbiyamizni Axiy Farrux Zanjoniy[1] hazratlaridan olamiz.

— Sizlar musulmon emasmisizlar?

— Bizda dinning o'ringa xalqimizning urf-odatlari va odob-axloq haqidagi tushunchalari qabul qilingan. Axloq darsining asosi esa Axiy Farrux ko'rsatgan birodarlik yo'lidan iborat. Bizning butun mashg'ulotimiz hayotda san'at, musiqa, adabiyot, pokizalik, to'g'rilik kabi ishlar eng mo'tabar yumushlarimizdandir.

Otabek bularning na din va na biror aqidalarda bo'lgan bo'lmaganliklarini yana aniqlay olmadi. Lekin bu jihatlari uning maqsadiga monelik qiladigan jihatlar emas edi. Shuning uchun ham u suhbatni yana Go'zal masalasiga burib, dedi:

— Bularning hech qaysisi sizning oilangizni sharafli qilish maqsadlariga to'sqinlik qila olmaydi. Men sizlarning o'zlaringizga

[1] Axiy Farrux buyuk shoir Nizomiy Ganjaviy bilan asrdoshlar. U mashhur bir tariqat (diniy yo'l) rahbari. Uning boshqa nomi ham bor. Axiy so'zi birodar demakdir. Farrux esa, u yuritgan tariqati-yangi nomi. Bobak yo'lini davom ettirganlarga "Farruxiya tariqatining davomchilari" deyiladi. Chunki Bobakning laqabi Bobak Farrux edi. Nizomiy Axiy Farrux Zanjoniy bilan juda yaqin aloqada bo'lgan. (Lutfalibek Ozarning "Otashkada" nomli asaridan.)

doir gaplarga qiziqaman. Shuning uchun ham ijozat bering, men ham bu hayotda sizlar bilan birga qatnashay.

Jonpo'lod Otabekning orzularini yana susaytirish maqsadida:

— Men o'ylaymanki, a'lo hazrat qizning fe'l-atvori bilan tanishsalar, balki fikrlaridan qaytarlar, to'g'ri, qiz go'zal, lekin u bilan bir oila bo'lib yashashning iloji yo'q, u hech qachon erkakka bo'ysunmaydi. To'g'ri, u qiz bola, lekin yigitlik da'vosida mashg'uloti ot minish, qilichbozlik, nayzabozlik, kamonandozlikdan iborat. Negadir, jamoamiz undan xotin kishilarga taalluqli yumushlarni talab qilmaydi. O'ylashimcha, qizning bu yerdan ketishiga qishloq xalqi ham rozi bo'lmas, chunki bu qiz aqlini taniganidan beri qishloqqa birorta ham o'g'ri oralagani yo'q. Bu jasur qiz tufayli yaylovlarimizdan birorta qo'y-qo'zini yetaklab ketadigan kishi topilmaydi. Shuning uchun ham a'lo hazrat meni hibsga olgan vaqtida, u menga: hovlimizga ozarbayjonlik kirmagan, kelgan kishilar begona odamlar", dedi.

Otabekning qiziqishi yana ortdi va dilidan o'tkazib: "Bunday qizni qo'lga kiritish badavlat bir mamlakatni qo'lga kiritishdan ham ortiqroqdir", — dedi.

Jonpo'lod ham, Otabek ham xayol surib o'tirishardi.

Otabek ko'nglida derdi: "Eldanizning chirigan xalifa bilan qarindosh bo'lganidan ko'ra, go'zal, jasur, so'zamol, ma'rifatli bir qishloq qiziga uylanishi yaxshiroq". Otabek uzoq o'ylaganidan so'ng yana Jonpo'lodga murojaat qilib dedi:

— Men urf-odatlaringizni qalbdan sevib qoldim. Sizning qizingizni baxtli qilishga ont ichaman.

— Mening qizim busiz ham baxtli. Kimki bizning xalqimiz bilan do'stlik va birodarlik yuzasidan chinakam ont ichsa, biz uni jamoamizga qabul qila olamiz. Bilmadim, Go'zalning o'zi hukmdordan shu shartni talab qildimikan?

— Xa, Go'zal shu shartni mendan talab qildi. Men ham ont ichdim.

— Ajabo, ulug' saltanat podshohi, bu kichkinagina qishloqda istiqomat qilishga va bu yerning fuqaroligini qabul qilishga rozi bo'la olarmikin?

— Men bu qishloqning fuqarosi bo'lganimdan keyin qishloq tamomila boshqacha tus oladi. Men qayerda bo'lmayin, yana shu yerga qaytaman. Go'zalni bu yerdan olib ketmaslikka so'z beraman va uning joniga ont ichaman.

— Mening e'tirozim yo'q, masalani qizning o'zi va oqsoqollar hal qilishi kerak.

— Unday bo'lsa, siz oqsoqollarni mening huzurimga chaqiring. Ular bilan so'zlashaman, qizni ham chaqirsinlar. Qiz rozi bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

— Bilmadim, bizning odatlarimizni qabul qila olarmikansiz?

— Qabul qilaman.

— Qabul qilganingiz bilan, amal qila olarmikansiz? Agar siz biror qishloqi yoki biror sodda fuqaro bo'lganingizda edi, balki bu shart-sharoitlarimizni o'rniga qo'ya olardingiz, shartlarimiz shundan iborat: bu yerdan uylanish uchun chetdan, qishloqning fuqaroligini qabul qilishga kelgan odam bizning muqaddas merosga shunday ont ichishi kerak. "Ont ichaman, tanimda jonim bor ekan, bu yerda hech kimsa qo'limdan ham, tilimdan ham, fikrimdan ham ozor chekmaydi". Bilmadim, hukmdor shunday shartlarga amal qila olarmikan?

Otabek o'ylamasdan:

— Amal qilaman. Men o'z naslimni shu naslga payvand qilish uchun har qanday qiyinchilikka roziman, — derkan, Jonpo'lod ham:

— Naslimiz Otabekka munosib nasl emas, agar siz o'tmishimiz bilan tanishganingizda edi, bizga nafrat bilan qarardingiz, — dedi.

— Ajabo, shu qadar najib, oliyjanob odamlarning nasliga nafrat bilan qarashga kim jur'at eta oladi? Gapiring, tortnimang. Kim bo'lmasin, qaysi dinda bo'lishidan qat'i nazar, ular baribir mening fuqarom hisoblanadi.

Jonpo'lod qo'rqa-qo'rqa o'z qishlog'i va ajdodlarining o'tmishlari haqida so'zlay boshladi:

— Bilmadim, bu qishloqning sharq tomonidagi tog' bilan a'lo hazrat qiziqqanmikanlar? O'sha tog'ni qadim zamondan Cho'ponqoya deb ataydilar, Bu tog' suvlari, chamanzorlari, o'tloqlari va buloqlari bilan mashhurdir. Beylaqondan Qorabog'ga boradigan

karvonlar mana shu tog'dan oshib o'tishi kerak. Yaqin qishloqlarning qora mollari yozda shu yerda boqiladi. Bir mahalda ana shu tog'larda Qoya ismli bir cho'pon qo'y boqar ekan. Kunlardan bir kuni Qoya qo'ylarini sug'organi "Nasib" chashmasiga olib borganida, buloqning yaqinidan yig'i ovozi eshitilgan. O'sha ovoz Qoyaning diqqatini o'ziga tortgan, qo'ylarni tashlab ovoz kelgan tomonni axtargan va uning fahmicha bu ovoz go'dak ovoziga o'xshar ekan. Cho'pon bu xil hodisalarni tez-tez uchratib turar ekan, chunki elatlar ko'chgan vaqtlarida aravadan yosh bolalarning tushib qolish hodisalari yuz berib turarkan. Qoya ancha vaqt axtarganidan so'ng toshlar orasida ozoda yo'rgakka o'ralgan bir chaqaloq yotganini ko'rgan. Cho'pon chaqaloqni ko'targach hamma narsani unutgan. Qo'ylarini buloq boshida qoldirib, karvon ketidan yetib borib bolani topshirishga shoshilgan. U tog'dan oshib, xuddi shu qishloqning o'rnida bo'lgan to'rt xonali hovliga kirgan-da, bolani xotiniga ko'rsatgan. Xotini yo'rgakni echishi bilan bolaning bilagiga bog'langan qizil shoyi ro'molni ko'rgan, ro'molni ochsa, ichida ozroq tilla va bir qancha qimmatbaho toshlar bor ekan. Qoya cho'pon tilla bilan qimmatbaho toshlarni ko'rganidan keyin bolani karvonga yetkazish fikridan qaytgan. U tilla, qimmatbaho tosh lar va ro'molchada bo'lgan bir parcha qog'ozga yozilgan xatni ro'molchaga tugib kichkina qutichaga yashirib qo'ygan. Ular bu sirni hech kimga bildirmaslik fikriga tushib, yozuvni ham birorta odamga o'qitishni istamaganlar. Ular go'dakning nomini Jonpo'lod qo'yganlar. Bola o'n sakkiz yoshga kirgan. Unga Go'zal nomli qizlarini berganlar. Uzoq yillar yigit bilan qiz keksayib qolgan cho'ponning o'rnida tog'-toshlarda qo'y boqishgan. Ular bir necha farzand ko'rganlar. Qoya cho'ponning yashagan kichik kulbasi kengayib borib, qishloq shaklini olgan. Qoya vafot etgan. Jonpo'lod Go'zal bilan inoq yashaganlar. Kunlardan bir kuni, kechki paytlarda Jonpo'lodning eshigi taqillagan. Jonpo'lod eshikni ochganida, beli bukchaygan, soch-soqoli oqargan bir chol kirib kelgan. "Mehmonni qabul qilasizlarmi?" deb so'ragan chol. Jonpo'lod bilan Go'zal uni izzat-ikrom bilan qarshi olganlar. Chol ularning uyida ancha vaqt istiqomat qilgan. Jonpo'lod bilan uning yosh xotini cholni o'z otalaridek sevib qolganlar. Nihoyat, kechalarning

birida chol ularning ota-onalari va qanday tiriklik o'tkazishlarini so'ragan. Shunda Jonpo'lod:

— Mening otam Qoya cho'pon nomli bir podachi edi. U meni asrab olib tarbiyalagan. Lekin haqiqiy otamni bilmayman. Qoya cho'pon meni tog'dan topib olib katta qilgan ekan. Xotinim Go'zal shu Qoya cho'ponning qizi", — degan.

Noma'lum chol bu so'zlardan keyin biroz o'ylanib:

— Sen o'z otangning kimligini bilishni xohlarmiding? — deganida, Jonpo'lod cholning yuziga tikilib boqqan: "Xuddi shu chol mening otam bo'lsa kerak", deb hayajonga tushgan va choldan:

— So'yla, chol, sen mening otammisan? — deb so'ragan.

— Yo'q otang emasman, lekin otangning kimligini bilaman. Faqat cho'pondan sizlarga qolgan merosni keltirsang, otangning kimligini senga aytib beraman.

— Merosdan bexabarman.

— Axtarish kerak.

Noma'lum cholning so'zidan keyin Jonpo'lod hamma yoqni qidira boshlagan. Nihoyat, o'tinlar ostidan bir qutichani topib kelgan. Chol qutichani ochib, dastavval yozuvni Jonpo'lodga o'qib bergan, keyin qimmatbaho buyumlarni berib, bularni ehtiyot qilinglar, bular kelajak uchun muqaddas bir merosdir, degan. Bu voqeadan so'ng, chol bir necha oy shu yerda qolib, Go'zal va Jonpo'lodga yozuv-chizuvlarni o'rgatgan, ularga otasining tutgan yo'llari va tuzgan qonunlarini tushuntirgan. Chol bu vazifalarni o'taganidan keyin Jonpo'lod bilan xotini uyida yo'qligida to'satdan g'oib bo'lgan, qayoqqa ketgani ma'lum bo'lmagan.

Jonpo'lod bu hikoyani Otabek Muhammadga aytganidan so'ng, ilova qildi:

— Mana shu meros nasldan naslga, otadan o'g'ilga qolib, nihoyat, mening otamga tekkan. Hozir siz tanlagan Go'zalga o'sha cho'pon qizi Go'zalning nomi berilgan. Huzuringizda o'tirgan kamina Jonpo'lod esa, Qoya cho'pon tog'dan topib olgan o'sha Jonpo'lodning nevarasi bo'laman.

Otabek bu so'zlarni eshitarkan, sehrli ertak eshitganday huzur qildi va uning so'zlarining rost-yolg'onligini aniqlash uchun so'radi:

— Hozir o‘sha muqaddas meros qayerda?

— Qishlog‘imizda.

— Menga ko‘rsata olasizlarmi?

— Mening ixtiyorimda emas.

— Kimning ixtiyorida?

— Qishloq oqsoqollarining ixtiyorida, chunki bu narsalar qishloqda yashagan xalqning bobolariga taalluqli. Shuning uchun oqsoqollar ixtiyorida bo‘lishi kerak.

— Borib oqsoqollarni mening huzurimga chaqiring, ular o‘sha merosni menga ko‘rsatishsin. Ularga qizingiz Go‘zal masalasini ham ayting. Modomiki, ixtiyor oqsoqollarda ekan, keling, ular bu masalani ham hal qilishsin.

Jonpo‘lod ta’zim qilib chiqib ketdi. Otabek esa hamma narsani unutib, faqatgina shular to‘g‘risida o‘ylardi. U Ganjaga hujum qilishdek xatarli va mushkul masalani tamomila xotiridan chiqargan edi. U ko‘nglida bu hodisani tarixiy bir kashfiyot sanab, oxiriga yetkazish va o‘sha yozuvni o‘qib ko‘rishni istardi. Yarim soatdan so‘ng Jonpo‘lod ichkari kirdi:

— A’lo hazrat, oqsoqollar huzuringizga kelishdi,— der ekan, Otabek sevinib:

— Ichkariga marhamat qilishsin,— dedi.

Otabekning tasavvuricha oqsoqollar favqulodda qiyofadagi shaxslar edi, lekin birozdan so‘ng qishloqcha kiyingan to‘rt chol ichkari kirdi-da, salom berib qo‘l bog‘lab turdi. Otabek ularning salomlariga alik olib, o‘tirishga joy ko‘rsatdi.

— O‘tiringlar, muhtaram oqsoqollar,— dedi. Chollar o‘tirishdi va shoyi ro‘molchaga o‘rog‘lik qutini Otabekning oldiga qo‘yishdi. Katta oqsoqol shoyi tugunchani yechib, qutini olarkan:

— Quticha Qoya cho‘ponning o‘z qo‘li bilan yasalgan ekan,— dedi-da, qutichani ochib, undagi tilla va qimmatbaho toshlarni ko‘rsatdi. So‘ngra teriga yozilgan maktubni Otabekka uzatdi.

Otabek teridagi yozuvni o‘qiy boshladi:

— “Ey, bu go‘dakka sohiblik qiluvchi inson, xalifa bu go‘dakning otasini va butun urug‘-aymoqlarini qirib tashladi. Hozir bo‘lsa xalifaning odamlari qatl qilish uchun so‘nggi toifani Bag‘dodga haydamoqda.

Kattakon bir xonadon naslining davom etishi uchun shu go'dakni tog'ga tashlab ketdik. Yirtqichlarning qo'lidan qutqarmoqchi bo'ldik. Shubhasizki, go'dak yo yirtqich hayvonlarga yem bo'ladi, yoki biror kishi topib olib uni tarbiyalaydi. Go'dakning yoniga qo'yilgan tilla va javohirlarni xarajat qilib uni parvarish qilinglar. Bu go'dak Bobakning so'nggi yodgori, so'nggi farzandidir".

Otabek xatni o'qiganidan keyin tilla va qimmatbaho toshlarga nazar tashladi, tilla pullarning xalifa Ma'mun va xalifa Mu'tasimning davrida zarb qilingan tangalar ekani ma'lum bo'ldi.

Otabek yozuvli terini, tilla va javohirlarni shoyi ro'molga tugib, oqsoqollarga qaytarib:

— Ehtiyot qilinglar, qimmatli va tarixiy yodgorlik ekan,— dedi. Oqsoqol narsalarni qutiga solganidan keyin Otabek asosiy maqsadga ko'chdi: — Men sizlarni bir maqsad bilan chaqirgan edim. Bu maqsad mening shu najib va shu tarixiy oila bilan qarindosh bo'lishdan iborat. Men bu haqda qizning o'zi va otasi bilan so'zlashdim. Mahalliy odatlarga ko'ra, bu nikohning ruxsati siz oqsoqollarga bog'liq ekan, — derkan, oqsoqollardan biri o'rnidan turib bosh egib, dedi:

— Hukmdor moli jonimizning sohibidir. Lekin u bizning yuz yillardan beri davom etib kelayotgan ota-bobolar odatiga daxl qilmasligi kerak. Biz boshqa yerdan qiz olishga haqqimiz bor, shu bilan birga boshqalarning ham kelib yerlik fuqaromiz bo'lishga ishonganimizdan keyingina qiz bera olamiz. Qishlog'imiz ahli hech qachon Go'zalning bu yerdan chiqib ketishiga rozi bo'lolmaydi. Buning iloji yo'q.

Otabek Jonpo'lodga aytgan so'zlarini takrorlab dedi:

— Men Go'zalning joniga ont ichaman. Bu ontni hech qachon buzmayman. Go'zalni qishloqdan olib ketmayman. Bu haqda unga so'z beraman. Nikoh qog'ozida ham shuni qayd qila olasiz.

Oqsoqol kulimsirab Otabekka javob berdi:

— Otabekka ma'lum bo'lsinki, bizlarda nikoh qonuni yo'q. Turmush quruvchilardan qiz shu "muqaddas meros"ga, yigit esa qizning joniga ont ichishlari kifoya. Berilgan so'zni buzish esa

qo'ydi-chiqdi demakdir. Agar bu shartlar qiz va yigit tomonidan qayd qilingan bo'lsa, oqsoqollar e'tiroz qilmaydi. Endi qizning bu yerga chaqirilishi va otasi rozilik berishi lozim.

Jonpo'lod rozilik berdi, qizni olib kelish uchun odam yuborildi. Yigirma daqiqadan keyin boshdan oyoq oq shoyiga burkangan qiz eshikdan bosh egib kirib keldi-da, ta'zim qilib uyning burchagida o'tirdi.

Oqsoqol Go'zalga murojaat qilib:

— Sen bu musofirni Jonpo'lod qishlog'ining fuqarosi bo'lishiga rozimisan? — der ekan, Go'zal boshini ko'tarib javob berdi:

— Xalqimiz odatini saqlash sharti bilan roziman.

Oqsoqol Otabekka dedi:

— Malol kelmasa a'lo hazrat Otabek qizning yoniga o'tsalar.

Otabek o'rnidan turib Go'zalning yoniga o'tib turdi. Oqsoqolning bergan ta'limi bo'yicha ont ichdi:

— Mahalliy odatlarga xiyonat qilmayman! Go'zalga bergan va'dalarimga vafo qilaman! Shuning uchun ham Go'zalning joniga ont ichaman!

Otabek ont ichganidan so'ng Go'zal ham tarixiy meros saqlangan quti boshiga kelib o'tirib:

— Erim menga bergan ontini buzmaguncha undan yuz o'girmaslikka va unga xiyonat qilmaslikka buyuk meros qarshisida ont ichaman! — dedi va o'rnidan turib orqasiga tisarildi. Otabekning yonida turib oqsoqolning javobini kutdi. Oqsoqol tarixiy meros saqlangan qutichadan bir kitob olib bir sahifasiga qizning, boshqa bir sahifasiga Otabekning ichgan qasamini yozarkan, dedi:

— Nikohingizni shu tarixiy sahifalarga yozdim. Harakat qiling, bu tarixning ostiga ajralish tarixi yozilmasin.

Go'zal:

— Ontimni buzmaslikka so'z beraman! — deganida, Otabek ham shu so'zlari takrorladi. Oqsoqollarning to'rtovi birdan:

— Muborak bo'lsin, — deyisharkan, Go'zal Otabekka qo'lini uzatdi. Otabek uning qo'lini ushlab turdi, nima bo'lishidan xabarsiz edi. Faqat Go'zal uning labidan o'pganidan keyingina elning shunday bir odati borligiga tushundi.

Oqsoqollar o'rnidan turib ketmoqchi bo'lganlarida, Otabek kotibni chaqirib, har qaysisiga yuz tilladan berilishiga amr qildi. Oqsoqollar esa bu mukofotga tashakkur bildirib:

— A'lo hazratning umri uzun bo'lsin, lekin bizda pul olish odati yo'q,— dedilar.

Otabek kotibga to'y tayyorgarligini ko'rish uchun buyruq berarkan, Jonpo'lod:

— A'lo hazrat, hamma marosimlar shu bilan tugadi. Bizda to'y qilish odati yo'q,— deb xonadan chiqib ketdi.

ONT

Otabek bir oy-u besh kun Jonpo'lod qishlog'ida istiqomat qildi, kuz yomg'irlari tingan edi. Otabek bir kun oqshom payti yana oronliklardan maktub oldi.

Maktubda oronliklar Otabekni Hamadonga qaytishini va Oronga hokim tayinlashini, nohaq qon to'kilishlarga yo'l qo'ymasligini so'rar edilar. Go'zal bu takliflardan xursand bo'ldi. U Otabekning oronliklarga qarshi urush ochmasligiga ishondi.

Otabek haqiqatan ham oronliklarga qarshi urush ochmadi. Oronliklar bilan do'stlik, qardoshlik aloqasini yaxshilash va sulh tuzish uchun qo'shinlarni saroylarga joylashtirib, ozroq qo'shin bilan Nizomiyning huzuriga jo'naydigan bo'ldi.

Otabek Ganjaga jo'nab ketishi oldidan Go'zalning lablaridan o'pib xayrlasharkan, Go'zal unga ichgan ontini eslatib, dedi:

— Sen ontingni unutma. Modomiki, oronliklar sulh istar ekan, ularga e'tiroz bildirma.

Otabek uning sochlarini silab:

— Men urushga ketayotganim yo'q. O'rtamizda sulh va osoyishtalik yaratish uchun ketyapman, — dedi.

Go'zal esa bunga javoban:

— Men bunga ishonaman, — dedi. — Ammo shu bilan birga, men senga yana bir narsani eslatib o'taman. Oronliklar yuborgan maktubning so'nggi jumlalarini esla! Ular: "Otabek Oron ustiga qo'shin va qilich bilan keladigan bo'lsa, biz ham uni qo'shin va qilich bilan qarshi olamiz", deb yozgan edilar.

— Men ular bunga jur'at qilolmaydilar deb o'ylayman.

— Men ham Faxriddin va uning do'stlari oyoq-qo'llarini uzatib o'tirib: "Kel, bizni o'ldir, deyishmaydi", deb o'ylayman. Otabek, yaxshilab o'yla! Agar sen ularni taslim etaman deb ketayotgan bo'lsang, ular senga qarshi qilich va nayzalar ishlatishadi. Ular yolg'iz emas, ularning orqasida butun Shimoliy Ozarbayjon xalqi turibdi.

Otabek Go'zalni ishontirib yo'lga tushdi.

Otabek Ganjada Nizomiyni huzuriga chaqirtirib, oronliklar bilan abadiy sulh va qardoshlik aloqalarini barpo etish tadbirlarini aytdi. Ishlar to'g'ri bo'lganidan so'ng, o'lkada osoyishtalik o'rnatildi. Qo'shinlarni orqaga qaytishi uchun buyruq berilgach, butun o'lka bo'ylab sayohat qilishga jo'nadi.

* * *

...Otabek Qizil Arslonning yuborgan maktubiga ko'ra, Hamadonga yo'lga chiqishi kerak edi. U xotini Go'zalning egizak tuqqanini eshitgan edi. Shuning uchun ham yo'l ustida Jonpo'lod qishlog'iga o'tib bolalarini ko'rish, sevimli Go'zalining qo'llarini o'pishga shoshilardi.

Kun choshgohdan oshganda Otabekning bir to'da askarlari Jonpo'lod qishlog'i oldidan o'tib borardi. Otabek o'zining odamlari bilan birga to'dadan ajralib, otining boshini qishloqqa burdi. Qishloq yigitlari, qiz-juvonlari Otabekni ko'rishlari bilanoq, qichqirishib Jonpo'lod otaning uyi tomon yugurdilar.

— Podshoh keldi! Podshoh keldi!

Ovozlarga Jonpo'lod va uning qo'shnilari ko'chaga yugurishdi. Shu vaqt Otabek o'z odamlari bilan Jonpo'lodning eshigi oldida to'xtadi. Darhol Go'zal hovliga chiqdi, hovliga to'plangan odamlar otning jilovidan tutdilar.

Hovlida boshqa otlar ham bor edi. Otabek bu otlar kimlarniki ekaniga e'tibor bermasdan, to'g'ri mehmonxonaga kirdi. Go'zal va qishloq oqsoqollari o'z ontiga sodiq qolgani uchun Otabekni olqishladilar. Olqishlardan so'ng dasturxon yozildi. Dasturxonga muzdek sharbatlar, qovurilgan tovuqlar, shirin-shakar mevalar va har xil taomlar qo'yildi.

Dasturxon yig‘ishtirilgandan keyin bir xotin bilan bir er kishi kirib keldi. Ularning quchog‘ida bittadan bola bor edi. Go‘daklarning ikkisi ham bir-biriga o‘xshardi. Ikkisi ham o‘g‘il edi. Go‘daklarni olib kelganlarning biri Go‘zalning onasi, biri esa Go‘zalning tog‘asi Faxriddin edi.

Otabek bu oilaga Faxriddinning qanday aloqasi borligini va qanday munosabat bilan bu yerga kelganini bilish fikrida taajjub bilan oqsoqollardan so‘radi:

— Muhtaram oqsoqollarning ruxsati bilan Faxriddinning bu oilaga qanday aloqasi borligini bilishni istardim, — dedi. Oqsoqollardan biri ta’zim qilib javob berdi:

— A’lo hazratning tashrif buyurishlari munosabati bilan go‘daklarga nom qo‘yiladi. Shuning uchun Go‘zalning tog‘asi Faxriddin shu tantanada ishtirok etish uchun kelgan.

Otabek “Go‘zalning tog‘asi” so‘zlarini eshitishi bilan taajjublanib so‘radi:

— Vo ajabo, Faxriddin Go‘zalning tog‘asi bo‘ladimi?

— Ha. A’lo hazrat, tog‘asidir, — deb javob berdi haligi oqsoqol. Shundan so‘ng Otabek Faxriddinni quchoqlab dedi:

— Go‘zalning tog‘asi bo‘lishingiz munosabati bilan men ham o‘zimni mas’ud va baxtli bir odam deb bilaman.

Faxriddin bola ko‘tarib turgani uchun Otabekni quchoqlay olmadi, lekin javobida:

— Sizdek bir zotning jiyanimga uylanishingiz munosabati bilan men ham o‘zimni mas’ud va xushbaxt hisoblayman, — dedi.

Shundan keyin egizaklardan birinchi tug‘ilgan go‘dakni Go‘zal Faxriddindan olib otasiga berdi-da:

— Agar o‘z nasling ekaniga ishonsang, lablaridan o‘pib nom qo‘y, — dedi.

Otabek go‘dakni bag‘riga bosib o‘pdi.

— Bu mening sevimli o‘g‘lim Abubakrdir[1], — dedi.

Shu so‘zdan keyin Go‘zal bolani olib oqsoqollarning biriga berdi. So‘ng Otabek:

---

[1] Abubakr ibn Muhammad, Qizil Arslondan keyin Ozarbayjonda hukmdor bo‘lgan. Nizomiy Ganjaviy “Iskandarnoma”ni Abubakr ibn Muhammadga bag‘ishlagan *(Qazviniy)*.

— Bu mening vorisim va valiahdimdir, — dedi.

So‘ngra Go‘zal ikkinchi go‘dakni Otabekka berdi. Yana avvalgi so‘zlarni takrorladi.

Otabek go‘dakni bag‘riga bosib, lablaridan o‘pdi. Katta oqsoqolning qo‘lidagi muqaddas meros solingan qutichadan olgan ro‘molchani go‘dakning beliga bog‘lar ekan:

— Bu mening sevimli o‘g‘lim O‘zbakdir, — dedi.

Katta oqsoqol ro‘molni ochib Otabekka uzatdi. Shu bilan ism qo‘yish marosimi tugadi.

Otabek bir necha kun Jonpo‘lodning uyida mehmon bo‘lib turganidan keyin xayrlashmoqchi bo‘ldi. Go‘zal go‘daklarni olib kirdi. Otabek go‘daklarni olib o‘pdi va onasiga qaytardi.

Faxriddin Otabekning uzangisini tutib otga mindirgan vaqtida:

— Men Otabek Muhammad bo‘lmay, Faxriddin bo‘lganimda edi, faxrlanar edim, o‘ylaymanki, bu tanishligimiz ham doimiy hamda do‘stona bo‘ladi.

Faxriddin Otabekka javoban:

— Hamda bu do‘stlik xalqimizning mustaqilligini doimiy o‘laroq himoya qiladi va xalqimizning milliy madaniyatini yaratishga asos soladi.

Otabek esa, Jonpo‘lodga murojaat qilib buyruq berdi:

— Men bu qishloqning nomini o‘g‘illarim xotirasi uchun Pisaron[1] qo‘yaman, — deb otining jilovini bo‘sh qo‘yib yuborib qishloqdan uzoqlashdi.

---

[1] Hozirda Pisaron qishlog‘i Ag‘don bilan Barda qishloqlarining orasida bir necha xonadondan iboratdir.

IKKINCHI QISM

Romanda Ozarbayjon xalqining o'z mustaqilligi uchun Bag'dod xalifalari, Xorazm shohlariga qarshi olib borgan kurashi, ajnabiy dushmanlarga qarshi kurashda Shimoliy va Janubiy Ozarbayjon xalqlarining birdamligi juda yorqin bo'yoqlar bilan tasvirlanadi.

OTABEK MUHAMMAD VA SABO XONIM

Otabek Muhammad Shimoliy Ozarbayjondan Hamadonga qaytganda, Otabekning mamlakatlarini xavf ostida qoldirgan mish-mishlar bosila yozgan edi: chunki Otabek mamlakatlariga zo'r xavf solib turgan Salohiddin Ayyubiy salbchilarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'ra boshlagandi va shu sababdan Bag'dod xalifasining da'vatini rad etishga majbur bo'lib qolgandi. Umidsizlikka tushib qolgan yangi xalifa Nasiruliddinilloh yana otabeklar yordamini kutishga majbur bo'lgan edi. Bag'dod bilan Otabek o'rtasidagi aloqa shunday vaziyatda ekan, Otabek Hamadonda boshqa bir fitna uyasi borligini sezar va bu fitna tashkilotchilarini fosh qilish uchun hech qanday ish qila olmas va xiyonatning iziga tusha bilmasdi.

Husomiddinning tez-tez Qatiba bilan ko'rishib turishi, sulton To'g'rul[1] bilan Husomiddinning samimiy munosabati, ayni zamonda Zahir Balxiy bilan shoir Kamoliddinning To'g'rul saroyida katta mukofotlar olayotganlari Hamadonda otabeklikka qarshi yangi bir xiyonatga hozirlik ko'rilayotganligiga asos bo'la olardi.

Otabek Zahir Balxiyning ajnabiy mamlakat vakili va Xorazmshohlar bilan aloqada ekanini, Kamoliddinning esa Fors va Kirmonning mustaqillik olishi yo'lida urinib yurganini bilmasligi mumkin emasdi.

---

[1] To'g'rul Arslonning o'g'li, Otabek Muhammad va Qizil Arslonning o'gay ukasi edi. Mamlakat podshosi To'g'rul edi. Otabek esa o'gay ukasining otabegi unvoni bilan mamlakatni idora qiladi. Haqiqatda esa, mamlakat Otabek Muhammad va Qizil Arslon qo'lida edi.

Lekin Otabek To‘g‘rulning ular bilan aloqada bo‘lishiga aniq bir ma’no berolmas edi. Qatibaning tez-tez Bag‘dodga borib kelishi va Husomiddinni ham o‘zi bilan birga olib yurishi Otabekni yana ham chuqurroq o‘ylantirardi. U Qatibaning yana yangi bir fitna qo‘zg‘ashiga ishonardi. Otabek Muhammad Hamadonda boshlangan bu fitnaning Jonpo‘lod qishlog‘idagi ro‘y bergan suiqasd bilan bog‘liq ekaniga shubha qilmasdi. Lekin ishni qayerdan boshlash kerakligi, avval kimning ustida tekshirish olib borish lozimligi haqida bir qarorga kelolmasdi.

Nihoyat, Otabek ishini o‘z saroyidan boshlashga qaror qildi-da, Qatibaga yaqin bo‘lgan joriyalarni o‘rgana, saroydagi sir-sinoatlarni so‘rab-surishtira boshladi. Boshlab Sabo xonimni nazarda tutardi: chunki u Qatibaga eng yaqin kanizaklardan edi. Ayni zamonda Sabo xonimning o‘zi ham Otabek bilan tez-tez ko‘rishib turishni, hatto, kerak bo‘lmagan vaqtda ham biror yumushni bahona qilib, Otabekning xonasiga suqulishni sevardi. Buni Otabekning o‘zi ham sezardi.

Oqshom soat sakkizlar chamasida Sabo xonim, odaticha, Otabekning o‘g‘lini otasiga ko‘rsatishga olib keldi. Lekin Sabo xonimning bunday bemahal kelishida Otabekning diqqatini haddan tashqari jalb etadigan favqulodda bir holat bor edi. Otabek Sabo xonimda ko‘rilgan bugungi favquloddalikni Qatibada ko‘rmagandi.

Otabek Sabo xonimning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar, xususan, Saboning ovozida va muomilasidagi nazokat uning go‘zal xotini Qatibada yo‘q edi.

Sabo xonim makr-hiylalar va fisq-u fasodlar uyasi bo‘lishiga qaramay, uning tashqi go‘zalligi tabiat mo‘jizalaridan biri edi. Tashqi qiyofasidagi xususiyatlardan biri uning soxta sharm-hayosi va uyatchanligi edi. Inson qalbini aldash va go‘zalligi bilan kishini o‘ziga maftun etish san’atida Sabo xonimdan o‘tadigan ustasi yo‘q edi.

Otabek Muhammad Sabo xonimga tikilar ekan, ko‘nglida: “Falakning gardishini qarang, cho‘rilikka munosib bo‘lmaganlar farishtayu, cho‘rilikka munosib bo‘lganlar esa malikadirlar”, der edi. Otabek ko‘pdan beri go‘zal kanizakni “sharafga noyil” qilishni istardi. Lekin kanizak Otabekka emas, Qatibaga mansub bo‘lgani

uchun o‘z orzusini amalga oshira olmasdi. Lekin Qatibaning Bag‘dod safarida ekani Otabekka qo‘l keldi. U Sabo xonimning kechki ovqatga ishtirok etishini buyurdi. Sabo xonim Otabekning o‘g‘lini o‘z xonasiga yotqizib, kech soat o‘nlarda kamon-g‘ijjak-chasini ko‘tarib Otabekning xonasiga kirdi.

Otabek shirakayf edi. U Sabo xonimning qo‘lida cholg‘uni ko‘rarkan: “O‘tir, go‘zal kanizak, o‘tir, ovozingni eshitishni istayman”, dedi.

Sabo o‘tirdi, kamoncha torlarini sozlar ekan, ko‘zlari Otabekka tikilgan edi. Otabekni o‘ziga maftun bo‘lganini ko‘rarkan, ko‘nglida shodlanar va Otabekdan talay manfaatdor bo‘lishiga ishonardi.

Sabo xonim o‘qigan g‘azal o‘zi bilan Otabek haqida edi:

Bu lablari ko‘z tikkan bag‘rini kabob istar,
Na dilda sabr-toqat, na ko‘ziga xob istar.
Poylabon ko‘z-u kiprik, qoshlarim ila zulfim
Birgalikda to‘rttovi fitna — inqilob istar.
Qoshlarin tutib kiprik uzra egri shamshirin
Misli podshohdirki, lashkarga hisob istar.
Gul yuzida shanbamdan terlarimni ko‘rgan el
Na shabnamli gul istar, na qultum gulob istar.

Sabo xonim kuylar, Otabek esa paydar-pay may ichar edi. Sabo xonim Otabekning ko‘zlariga tikilib o‘ylardi. Otabek uni “sharafga noyil” qilish tayyorgarligini ko‘rardi. Lekin Sabo xonim birinchi suhbatdayoq Otabekka taslim bo‘lmaslik uchun o‘zining oddiy bir kanizak emasligini ko‘rsatishni istardi.

Otabek uning qo‘lidan tutib quchog‘iga tortar ekan, Sabo xonim:

— Hukmdor, o‘zingizni bosing, huzuringizga buning uchun kelganim yo‘q, men boshqa kishiga mansubman, Otabekning o‘z go‘zal kanizaklari ko‘p. Malika meni Abulullodan olar ekan, gulimni birovga uzdirmasligimni qat’iy buyurgan.

Otabek Sabo xonimdan:

— Malika seni boshqa biror odamga asrayaptimi? — deb so‘radi.

Sabo xonim sekingina uyalinqirab dedi:

— Balki.

— Sen faqat hukmdorga loyiqsan, faqat hukmdorga.

— Bu to‘g‘ri, hukmdor! Bir hukmdorni xursand qilish uchun bir malikaga xiyonat qilishga to‘g‘ri keladi. Men esa buni istamayman. Bu chegaradan o‘tishga xonim menga ruxsat bergan emas. Men hukmdor oilasida yashaganim uchun ham nomusli va sadoqatli bo‘lishim kerak. O‘tinaman, a’lo hazrat meni xonim nazdida sharmisor bo‘lishimga majbur etmasin.

— Sen chindan ham xonimni sevasanmi yoinki undan qo‘rqasanmi?

— Har ikkisi ham, avvalo, u meni pul evaziga olgan. Ikkinchidan esa, u o‘zining katta ehson va hadyalari bilan bu sevgiga sazovor bo‘lgan.

— Mening ehsonlarim undan ko‘ra ko‘proq, mukofotlarim esa yanada ortiqroq bo‘ladi.

— Men haqir bir joriyaman, o‘zimni faqat shu bilan baxtiyor hisoblayman.

— Ko‘zlaring uchun ikki yuz tilla.

— Inson faqat ko‘zlardangina iboratmi?

— Qizil yuzlaring uchun yana ikki yuz tilla.

— Ajabo, Otabek tomonidan shu qadar qizg‘in sevilgan joriya faqat sevimli ko‘z va qizil yuzgagina ega ekanmi?

— Chunki men qancha o‘ylasam ham, anor gulning bargidan ham qizilroq va tabiat yaratgan barcha shirinliklardan lazzatli bo‘lgan dudoqlaringga baho bera olmadim.

Sabo xonim kulimsirab so‘radi:

— Ajabo, hukmdor ta’riflayotgan bu lablarning shunchalik lazzatli ekanini qayerdan biladi? Balki a’lo hazrat o‘z taqqoslarida yanglishar.

— Beriroq kel, fikrim to‘g‘riligini sinab ko‘ray.

Otabek shu so‘zlarni aytarkan, u Sabo xonimning qo‘lidan ushlab, o‘ziga tortdi-da, lablaridan o‘pdi, quchoqlamoqchi bo‘lganida, Sabo xonim o‘zini olib qochib:

— Shuning o‘zi bas. Bu ham sizning sinab ko‘rishingiz uchun edi, — dedi.

Otabek esa uni yana o‘pib:

— Shu dudoqlaring uchun ham besh yuz tilla! — dedi.

Sabo xonim lom-mim demay o'tirardi: u Otabekning hirsi qo'zg'alganini, ehtirosi qanchalar jo'shishini sinab ko'rmoqchi bo'lardi. Sabo xonim Otabek bilan baylashishni tugatishga uringani uchun kamonchani qo'liga olib bir g'azal o'qidi:

Kamola yetdi bu pariro'da husni zebolig',
Qoshimda g'amzalar o'ynar, ko'zlarimda shahlolig'.
Qiyomat o'lgusi kirsam basharti gulistonga,
Inonma sarv-u sanavbarda bor deb bu ra'nolig'.
Labimga g'uncha boqib pardadin chiqargay yuz,
Ochar boshini, etar gulshan ichra rasvolig'.
Hadisi Layli-yu Majnunni ayladim barbod,
Na unda bordi junun, na menda laylolig'.
Ne haddi bor mohi Kan'on menga qul bo'lmoq uchun
Ne obro'-la Zulayho qilur Zulayxolig'.

Sabo xonim kamonchani yerga qo'ygan mahalda Otabek yana uning lablaridan o'pib:

— Bu g'azaling uchun ham ikki yuz tilla, — deb, uning ko'kragiga qo'l solmoqchi bo'lganida, Sabo xonim ijirg'anib:

— Bog'bonning ruxsatisiz anor uzish va bog'ning rejasini buzish yaramaydi, — dedi.

Otabek javobida:

— Bog'bon eshigini ochish uchun yana besh yuz tilla, — deb ko'ylagining tilla tugmalarini yecha boshladi.

Sabo xonim Otabekning barmoqlarining titrayotganini ko'rib oxirgi talabini aytib qolish fursati yetganini sezdi va noz-u istig'no bilan so'radi:

— A'lo hazrat haqir joriyasining o'ziga ham baho bera olarmikan? Axir, qiz degan narsa faqat qosh, ko'z, dudoq va mammadangina iboratmi?

Otabek uni quchoqlab bag'riga bosar ekan:

— Qosimobod qishlog'ini ham senga bag'ishladim, — dedi.

Otabek Sabo xonimni bo'shatmadi, uni tong otguncha o'z yonida olib qoldi. U birinchi maqsadiga yetganidan keyin, ikkinchi asosiy maqsadiga o'tarkan, dedi:

— Men go'zal qizni malikadan o'z ixtiyorimga o'tkaza olardim, lekin men sevimli kanizakni malikaning yonida bo'lishini istayman. Sen faqat o'sha yerda qolib menga xizmat qila olasan.

Sabo xonim sochlarini tartibga solib, ust-boshini tuzatar ekan, so'radi:

— Men a'lo hazratga qanday xizmat qilishim kerak?

— Oilam to'g'risida ko'rgan-bilganlaringdan meni xabardor qilib turasan.

— O'tgan voqealarnimi yoki kelajakdagilarnimi?

— Har ikkalasini ham.

Sabo xonim biroz o'ylanib qoldi. U Otabekni qo'lda saqlashni, shu bilan birga, malikani ham qo'ldan chiqarmaslikni istardi. Ayni zamonda malikaning qasoskorligidan ham qo'rqar edi. U ana shularni o'ylab sukutga ketgan edi.

Otabek Sabo xonimni nima haqda o'ylayotganini darhol sezdi va unga va'da qilgan tillalarni keltirishga buyruq berdi. Tilla solingan hamyon oldiga qo'yilar ekan, Sabo xonim qo'rquv va tashvishlarni unutdi-da, Otabekning bo'ynidan quchoqlab dedi:

— A'lo hazrat, dunyoning ishlari shunaqa, kishi vaqti kelib birovni sevadi, yalinadi-yolvoradi, lekin uni sevmaydilar. Shunday vaqtlar ham bo'ladiki, kishi sevmaydi, yalinish-yolvorishlar, hadyalar va mukofotlarni ham nazariga ilmasdan "sevmayman" deydi-da, oshiqlarini tahqirlaydi. Har kimsaning va har bir qizning hayotida bu hodisani uchratish mumkin. Sizning malikangiz ham o'z hayotida shu maktabni o'tgan. U hayotining go'zal chog'larini bir shoirning ishqida kechirdi. Lekin shoir "sevmayman" deb uni rad qildi, uning yosh qalbini yaraladi. Nihoyat, uni bir qahramon sevdi, uning ishqida na kunduzi va na kechani bildi. Malikaning otasi ham u yosh yigitning muhabbatini yerga urmadi. Malikani unatmoqchi bo'lishdi. Faqat taqdirgina bu sevgiga kulib boqmadi. Otabekning Ganjaga qiladigan safari bir sevgi ustiga umidsizlikning g'amgin chiziqlarini tortdi.

Otabek Sabo xonimning so'zini diqqat bilan eshitib bo'lgach, so'radi:

— Keyingi sevgi kim tomonidan izhor qilinganini bilolmadim.

— Keyingi sevgi Husomiddinning sevgisi edi. Husomiddin uni telbalarcha sevardi, Malikaning ota-onasi ham bunga rozi edi. Unashtirgan ham edilar, lekin qizning shoirni sevishi nikoh o'qilishiga to'siq bo'ldi. Baxti — toleyi shunday bir yo'l ochgan edi. Qiz shoirni sevmagan taqdirda, malika a'lo hazratga emas, Husomiddingagina nasib bo'lardi.

— Menga to'g'risini ayt, malikam hali ham shoirni sevadimi?

— Yo'q, sevmaydi: sizni ishontirib aytamanki, hozir malika shoirdan o'ch olish uchun fursat poylamoqda.

— U hozir ham Husomiddinni sevadimi?

— U Husomiddinni ilgari ham sevgan emas, hozir ham sevmaydi.

— Husomiddin hali ham uni sevadimi? Sabo xonim jim qoldi. Otabek unga o'girilib hayajon ichida so'radi:

— Nega jim qolding? Meni qiziqtirgan narsa faqat shu masala edi.

— Men bu haqda nima deya olardim? Qalblarni o'qish juda qiyin. Malika ham, Husomiddin ham oddiy kishilar emas. Ajabo, bir-birini sevgan hukmdorning malikasi yoxud uning sarkardasi sevgilarini o'z kanizagiga sezdirarlik darajada soddadil bo'ladilarmi? Lekin sevgi qalbdan o'chirib tashlaydigan bir narsa emas. Dunyoda hamma narsani yuvib tashlash mumkin, lekin ishqni yurakdan yulib tashlab bo'lmaydi.

Shu so'zlardan so'ng Sabo xonim Otabekning barmog'idagi aqiq toshli uzugining yozuvini ko'rsatib dedi:

— A'lo hazratning uzugi ko'zidagi yozuvni yuvib tashlash mumkinmi?

— Yo'q, mumkin emas, yozuvni yo'qotish uchun uzukning o'zini sindirib tashlash kerak.

— A'lo hazrat, yurakdagi muhabbat ham shunday. Uni yo'qotish uchun odamni o'ldirish va yuragini parchalab tashlash kerak bo'ladi.

— Demak, Husomiddin malikamni hozir ham sevadi, shundaymi?

— Men bu borada hech narsa deyolmayman. Husomiddinning malika bilan aloqasi haqida aniq bir fikrga kelolganim yo'q. Chunki a'lo hazrat bu to'g'rida o'z kaniziga hech qanaqa buyruq bermagan.

— Men endi senga ana shu topshiriqni beraman.

— Bu topshiriqni bajarsam, meni o'lim jazosi kutmaydimi? Malika bu ishdan xabardor bo'lib qolsa, mening boshimni kesdirsa, kim unga qarshilik ko'rsata oladi? Avvalo, u malika, ikkinchidan, men uning buyumiman, agar meni mahv etsa, o'z buyumini yo'qotgan bo'ladi, xolos.

— O'g'lim Qutlug'ning joniga qasamki, seni himoya qilaman. Malika senga hech qanday shikast yetkaza olmaydi. Seni Qosimoboddagi mulkimga ko'chirib olib boraman, bamisoli, malikaday yashaysan. Endi malikaning kimlar bilan aloqada bo'lgani va saroyga kimlar kelib-ketishi haqida gapir.

— Malika uch kishi bilan aloqada. Ularning biri Zahiriddin Balxiy, ikkinchisi shoir Kamoliddindir.

Sabo xonim jim bo'lib qoldi, uchinchi kishining nomini aytishni istamadi. Otabek undan so'radi:

— Men yana ikki narsani bilmoqchiman. Shularni menga gapirib bera olasanmi?

— Bilganimcha.

— Avvalo, bilmoqchi bo'lganim shuki, malikaning Zahiriddin va Kamoliddin bilan aloqada ekanini nima bilan isbotlash mumkin?

— Ular Hamadon va Bag'dodda bo'lgan vaqtlarida barcha xarajatlarini malika yuborib turadi. A'lo hazrat Ozarbayjon safarida bo'lgan vaqtlarida ham ular bir necha bor malikaning saroyiga keldilar. Malika Abudajjonaning qabrini ziyorat qilish uchun uch marta Moshon qishlog'iga borganida ham mazkur kishilar unga hamroh edilar.

Otabek bu so'zlardan so'ng chuqur o'yga toldi, iztirob va hayajondan o'zini unutish darajasiga yetdi. U bu suhbat natijasida Hamadonda boshlangan maxfiy fitnalarning chigalini yechishga urinar ekan, asabiylikdan titrardi. U Sabo xonimga yana bir savol berdi:

— Endi menga uchinchi kishi kim ekanini ayt.

— Qo'rqaman, a'lo hazrat, bunga jur'at etolmayman.

— Bu haqda men senga ont ichdim-ku?

Sabo xonim o'zini bosib jasorat bilan javob berdi|

— Malika bilan aloqada bo'lgan uchinchi kishi sizning o'gay ukangiz sulton To'g'rul.

— To‘g‘rul?!

— Ha, To‘g‘rul!

— Bunga ishonolmayman, agar boshqa xabarlaring ham shu taxlitda bo‘lsa, ularga ham ishonolmayman.

Sabo xonim pinagini buzmadi, kamonchani olib dastasiga o‘rnatilgan sadaf tugmani burab ochdi-da, uning ichidan kichkina bir maktub olib, Otabekka uzatib so‘radi:

— A’lo hazrat bu xatga ishona oladilarmi?

Otabek qog‘ozni ochib o‘qidi:

“Muhtaram malika, o‘g‘lim Malikshohning o‘rniga sizning o‘g‘lingiz Qutlug‘ning valiahd e’lon qilinishiga so‘z beraman. Bu va’dalar muhtaram malikaning orzulariga javob bo‘la oladimi?

To‘g‘rul”.

Otabek Sabo xonimga savol berdi:

— Bu maktubni nega saqlab yurgan eding?

— Otabek hazratlariga topshirish uchun, chunki shu xonadonning ne’matlaridan bahramand bo‘lmoqdaman.

— Minnatdorman, go‘zal qiz. Faqat shu xizmating uchun mukofot olgan vaqtingda seni naqadar sevganligimga ishonasan, — dedi Otabek va maktubni cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

O‘rtaga sukut cho‘kdi. Ikkalalari ham sukut qilar edilar, Otabekka hamma narsa oydinlashgandek tuyulardi. U Jonpo‘lod qishlog‘idagi suiqasd sababini ham shu, bugungi suhbatdan topdi: u suiqasdda ozarbayjonliklarni ham, Qizil Arslonning ham ishtiroki yo‘qligini aniqladi va xayoldan bosh ko‘tarib Sabo xonimga savol berdi:

— Sen shu xizmatingni davom ettirishni istaysanmi?

— Modomiki, boshlagan ekanman, oxiriga ham yetkazishim kerak.

— Ularning hammasi Bag‘dodda. To‘g‘rul ham Bag‘dodga jo‘nagan. Sen ham ertaga Bag‘dodga jo‘naysan.

— Malika mening nima uchun borganimni so‘ramaydimi?

— Qutlug‘ onasiz turishni istamadi. A’lo hazrat bolani Bag‘dodga jo‘natishga buyruq berdi, deysan.

Sabo xonim rozi bo‘ldi, Otabekning xonasidan chiqar ekan yana bir savol berdi:

— Otabek hazratlari Ozarbayjondagi o'g'illarini sevadilarmi?

— Butun vujudim bilan sevaman.

— Modomiki, shunday ekan, ulardan boxabar bo'ling, malikangiz ularni qatl ettirish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda, — deb chiqib ketdi Sabo xonim.

Sabo xonim chiqib ketganidan so'ng, Otabek uzoq o'tirib o'yladi va yo'l qo'ygan xatolariga o'z-o'zidan uyaldi. Xususan, u ozarbayjonliklar ustiga qilgan yurishi nihoyatda katta xato ekanini tushunib o'z-o'zidan nafratlanar edi.

Otabek Qizil Arslonning xatti-harakatlarining qanchalik to'g'ri ekanini qayta-qayta tasdiqlar ekan, unga nisbatan bo'lgan yanglish fikrlarining hammasini ko'nglidan chiqarib tashladi. Darhol mirzasini chaqirib, Qizil Arslonga maktub yo'lladi va o'zi yozgan kichik bir maktubni chopar orqali jadallik bilan Pisaron qishlog'iga — Go'zalga yubordi:

"Sohibjamol Go'zalim! Go'daklarga ehtiyot bo'l, ularga qarshi suiqasd hozirlanayotgan emish!

Otabek Muhammad".

BAG'DOD

Ganja hokimi Qizil Arslondan olgan maktubini buyuk shoir Nizomiyga ko'rsatib dedi:

— A'lo hazratning xohishi shuki, xalifa Nasiruliddinillohning taxtga o'tirish kunini qutlash uchun Shimoliy Ozarbayjondan Bag'dodga boruvchi vakillarga boshchilik qilishni o'z zimmangizga olsangiz.

Nizomiy bu taklifni qabul qilmadi, chunki bunga bir necha sabablar bor edi.

Avvalo, u, Bag'dodga borarkan, xalifaning taxtga o'tirish kunida qatnashish bilan birga, shoir sifatida xalifani madh etishi lozim edi. Shoir bunday qilishga qarshi edi.

Ikkinchisi esa, Nizomiy Bag'dodga borishi oldidan Otabek Muhammadga ko'rinishi kerak edi. Ganja voqeasidan keyin Nizomiy uning yuziga boqishni ham istamasdi.

Uchinchi sabab esa, Xoqoniy bilan birgalikda Hijoz va Iroq safariga tayyorgarlik ko'rishi kerak edi.

Mana shu yuqorida aytilgan sabablarga ko'ra, Nizomiy Qizil Arslonga yo'llagan maktubida: "Qattiq betobman, xalifaning taxtga o'tirish kunida ishtirok etolmayman", deb o'zini tortdi. Vakillar tanlanganidan so'ng Faxriddin vakillar hay'atiga boshchi qilib tayinlandi.

Nizomiy Shimoliy Ozarbayjondan jo'natiladigan vakillar ro'yxatini ko'zdan kechirar ekan, Shimoliy Ozarbayjonning bir vaqtda qo'zg'olonda ishtirok etgan kishilarning hammasining nomlarini ko'rib shubhaga tushdi. U Faxriddinni o'z yoniga chaqirib, masalani unga tushuntirishga urinarkan dedi:

— Bag'dodga jo'natilayotgan vakillarning ko'pchiligi Ozarbayjon qo'zg'olonida qatnashganlarga rahbarlik qilgan kishilar. Otabek Muhammad shu bahona bilan Shimoliy Ozarbayjondan vakil bo'lib borganlarni hibsga oldirib, yo'qotib yubormasa deb qo'rqaman. Shuning uchun ham Tabrizga Qizil Arslonga tezda maktub bilan chopar jo'natish kerak. Bilaman, sen Dilshodingni topish uchun Bag'dodga shoshilyapsan. Lekin ishni pishiq qilish lozim.

Anchagina bahslashgandan keyin, nihoyat, maktub yuborishga qaror qildilar. Maktub jo'natildi. Sakkiz kundan so'ng javob olindi. Qizil Arslon o'z javobida yozgan edi:

"Maktubingizdagi ba'zi shubhalaringiz o'rinsiz. Chunki Otabek Muhammadning aytishiga ko'ra, taxtga o'tirish kunini qutlashga boradigan vakillar bir vaqtlar xalifaga qarshi isyon ko'targan kishilardan iborat bo'lishi kerak. Otabek bu bilan yangi xalifaga o'lkalarda unga qarshi hech qanday dushmanlik harakati yo'q ekanini ko'rsatmoqchi. Hatto, bir vaqtlar isyonga boshchilik qilganlarning hammasi bugun yangi xalifaning taxtga o'tirish kunini qutlash uchun Bag'dodga yig'iladilar. Shimoliy Ozarbayjondan Bag'dodga jo'nayotganlar Bag'dodga Hamadon orqali bormasliklarini maslahat berardim. Bu uzoq yo'l bilan o'z vaqtida Bag'dodga yetib borolmaydilar. Shuning uchun ham Tabrizga kelib Kurdiston yo'li bilan Besutun va u yerdan Kirmonshoh orqali Bag'dodga borishlari kerak. Ular o'zlari bilan

yaxshi chopqir otlar olib borsinlar. Yangi xalifa yaxshi otlarga ishqibozdir".

Maktub kelgach, Faxriddin xursand bo'ldi. U sobiq xalifa Mustarshidbillohning saroyiga jo'natilgan qizlarni Bag'doddan topishga va Dilshodning taqdiri haqida biror narsa bilishga ishonch hosil qildi.

Vakillar jadallik bilan Bag'dod safariga otlanishdi, Faxriddin kecha-kunduz orom olmasdan otini surar, mumkin qadar tezroq Bag'dodga yetib borishga shoshilardi. Ikki manzilin bir kunda bosardilar. Shu yo'sinda Tabrizdan chiqqanlarining to'qqiznchi kuni Dajla daryosi sohiliga yaqinlashdilar.

Musa ibn Ja'far maqbarasini ziyorat qilish uchun Dajla daryosi sohilida to'xtaganlarida, xalifa tomonidan istiqbollariga chiqarilgan kishilar ularni qarshi olishdi.

Ozarbayjonlik vakillarni zo'r bir tantana bilan Horun ar Rashid o'z o'g'li Amin uchun qurdirgan Amin qasriga olib bordilar.

Amin qasrida xalifa tarafidan tayinlangan tilla kamarli qullar, qimmatbaho zeb-ziynatlar taqqan cho'rilar va kimxob-baxmal liboslar kiygan kanizlar Ozarbayjon vakillari xizmatida qo'l bog'lab turishardi.

Xalifaning taxtga o'tirish kuni tantanasida qatnashishga har tomondan vakillar kelgan edi. Bag'dod shahri bezovta qilingan ari uyasidek qaynardi. Taxtga o'tirish kunida qatnashish uchun xalifaning qo'l ostida bo'lgan o'lkalarning hukmdorlari ham o'zlarining muhofaza qo'shinlari bilan birga Bag'dodga kelgandilar. Shuning uchun ham Bag'dod shahri buyuk bir lashkar qarorgohiga aylangan edi.

Lekin yangi xalifa Bag'dodga kelgan mehmonlarning hammasidan ham ko'proq Ozarbayjon vakillariga e'tibor berar, ularning osoyishtaligi uchun nimanki kerak bo'lsa, o'z vaqtida hozirlab berilardi. Darhaqiqat, xalifa shunday hurmat-ehtiromni ko'rsatishga majbur edi: chunki o'n ikkinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ozarbayjon otabeklari xalifaning siyosiy mavqeyini o'z qo'llariga olgan va xalifani o'z xohishlariga qaratib bir qo'g'irchoqday o'ynatar edilar. Ozarbayjon otabeklari o'zlarining talablarini tap tortmasdan xalifaga qabul qildira olardilar.

Ozarbayjon vakillari ikkinchi kuni nonushta qilib bo'lgan vaqtlarida saroy xodimlaridan Osaf degan kishi Amin qasriga kelib, vakillardan hol-ahvol so'radi va ularga xalifaning salomini topshirdi. Osaf vakillar boshlig'i Faxriddinga murojaat qilib:

— Xalifaning buyrug'iga binoan, Ozarbayjon vakillari Bag'dodda ekanlar, ularga xizmat qilish mening zimmamga yuklatildi. Bag'dodni tomosha qildirish, xalifaning qasrlarini ko'rsatish va boshqalar hammasi mening vazifam, — dedi.

Osafning bu so'zlari hammadan ham Faxriddinga ma'qul tushdi. U hammadan avval Bag'dod shahrini kezish, Ozarbayjondan keltirilgan qizlardan birortasini uchratib, Dilshod haqida biror narsa bilishni istardi.

Ozarbayjon vakillari shaharni otliq kezardilar: chunki o'sha zamonda olamning eng katta poytaxtlaridan bo'lgan Bag'dodni piyoda aylanishning imkoni yo'q edi.

Osaf eng avval ularni Bag'dodning Mansur deb ataladigan bo'lagiga olib bordi. Xalifa Mansur tomonidan birinchi bo'lib bunyod qilingan bu joy doira shaklida edi. Xalifa shaharning bu bo'lagini bunyod etgandan keyin shahar o'rtasiga o'zi uchun katta bir saroy qurib nomini "Oltin Qasr"[1] qo'ydi. Osaf vakillarga qarab:

— Hozir qarshimizda turgan qasr ana o'sha Oltin Qasrdir, — dedi. — Endi otlardan tushib, qasr ichini tomosha qilishingiz mumkin.

Vakillar otdan tushdilar. Zinapoyalardan yuqoriga chiqib, million-million tillalar sarflangan qasrni tomosha qildilar. Faxriddin aql bovar qilmaydigan darajada mohirlik bilan yaratilgan bu qasrni tomosha qilganida, qimmatbaho nodir toshlar, oltin va kumush suvlari yuritilgan o'ymakorliklar, marmar ustunlar va boshqalarni ko'rarkan, o'z-o'ziga: "Nihoyat, endi bildim, arablar bizga olib kelgan din va tariqatlar evaziga bizlardan nimalar olib ketgan ekanlar", deb ko'nglidan kechirdi.

Osaf taajjub va hayratda qolgan vakillarni Oltin Qasrdan olib chiqdi. Ular otlariga minib doira qal'adan chiqdilar. Osaf boshqa bir qasr qarshisida otining jilovini tortib dedi:

— Xalifa Mansur o'z mavqeyini mustahkamlaganidan keyin bunda hozirgina ko'rib kelganingiz Oltin Qasrda istiqomat qilolma-

[1] Oltin saroyning arabcha nomi "Qasruz-zahab" edi.

di. U qal'adan tashqariga chiqmoqqa qaror qilib, mana shu ko'rib turganingiz qasrni qurdirdi. Bu qasr Bag'dodda qurilgan qasrlarning hammasidan katta bo'lishi bilan birga, nihoyatda boydir. Xalifa Mansur qasrning nomini Qasrul-xuld, ya'ni "Jannat qasri" qo'ygan. Abbosiy xalifalarning hammasi navbat bilan shu qasrda yashaganlar. Hozir biz turgan mahalla Bag'dodning eng mashhur Rasofa mahallasidir. Ko'rgan masjidingiz ham xalifa Mansur tomonidan qurdirilgan olamning eng buyuk va boy masjididir. Mana bu Qasrul-xuld marhum xalifamiz amiralmo'minin Mustarshidbillohning yashagan qasri. Xalifa shu qasrda vafot etdi, oilasi hozir ham shu yerda yashaydi. Taassubki, bu go'zal qasrga kirish mumkin emas. Har holda qasrning tashqi ko'rinishi va ichki boyliklari insonga katta bir ruhiy oziq beradi.

Faxriddin Mustarshidbillohning oilasi yashayotgan Qasrul-xuldni ko'rarkan, Dilshodni ko'rgandek sevindi. Xayolida Dilshodni xuddi shu qasrda ko'ra oladigandek, Faxriddin qanday bo'lmasin, kechqurun shu qasrning atrofiga kelishga va saroyga kirib chiquvchilar bilan tanishishga qaror qildi.

Otlarga minib qasrdan uzoqlashdilar. Biroz sayr qilgandan keyin Osaf otini to'xtatib dedi:

— Bu yerda uchta mashhur qasrni ziyorat qilamiz. Ko'z oldingizdagi qasrni xalifa Horun ar Rashid xotini Zubayda xotun uchun qurdirgan. Qasrning nomi "Qasruz Zubayda"dir. Bu qasr Bag'dod qasrlari ichida eng kichigi, lekin hashamat va boylik jihatidan eng buyugidir.

Osaf otini niqtab katta bir qasr oldiga borib to'xtadi-da, uni maqtay ketdi:

— Bu Horun ar Rashidning vaziri Ja'farning qasri. Horun ar Rashid davrida sharqda barmakiy nasliga mansub bo'lgan bu vazirdan obro'li, badavlat va xushro'y odam yo'q edi. Sizlar xuddi shu qasrda beriladigan ziyofatga taklif etilgansizlar. Bu yerning ham tarixiy yozuv va tarixiy yodgorliklarini tomosha qilinglar, ziyofatdan keyin esa istirohat etishlaringiz mumkin.

Osaf bilan birga Ozarbayjon vakillari ham Ja'far qasri oldida otlaridan tushdilar. Ular ipak gilamlar solingan oynali zinalardan

yuqoriga ko'tarilib, rang-barang qahrabolar va tilla naqshlar bilan bezatilgan katta mehmonxonaga kirdilar.

Osaf ularni mehmonxonadan olib o'tib kichik bir xonaga olib kirdi, atrofi zumradlar bilan bezalgan ikki deraza qarshisida turib so'zladi:

— Dajla daryosining narigi sohilida ko'rinib turgan ziynatli saroy Horun ar Rashid xalifaning singlisi mashhur Abbosaning qasridir. Agar qiziqsangiz, shu ikki qasr tarixi haqida gapirib beray.

Ozarbayjon vakillari bir og'izdan gapirib berishini iltimos qildilar. Osaf hikoya qildi:

— Xalifa Horun ar Rashid ikki kishini sevardi. Bulardan biri vazir Ja'far, ikkinchisi esa, singlisi Abbosa edi. Abbosa o'z zamonasida Sharqning eng mashhur go'zallaridan edi. Horun ar Rashid uni erga berishga shoshilar edi. Kunlardan birida Horun ar Rashid Ja'farni yoniga chaqirib dedi: "Men istardimki, yaxshi ko'rgan kishilarimning har ikkalasi birgalikda yonimda bo'lsinlar. Shuning uchun singlim Abbosani senga nikohlab bermoqchiman. Lekin sen u bilan yaqinlik qilmaslik haqida mening boshimga ont ichasan".

Ja'far Horun ar Rashidning shartini qabul qilib, Abbosaga uylandi. Uylanganidan so'ng shu qasrni qurdirdi, u mudom mana shu deraza oldida turib Abbosa bilan suhbatlashar va visol haqida va'dalashardilar. Nihoyat, kunlardan bir kuni Horun ar Rashid singlisining vazir Ja'fardan ikki o'g'il ko'rganidan xabardor bo'lib qoldi. Shuning uchun u Masrur degan qulini yuborib xufton namozini o'qiyotgan chog'ida Ja'farning boshini kesdirdi, murdasini o'tga yoqdi. Endi bu yoqqa qarang, chap tomoningizdagi xatni o'qing!

Shundan so'ng vakillar o'girilib Osaf ko'rsatgan devorga qaradilar u yerda teriga bitilgan yozuvni ko'rdilar, xat kufiy yozuvda bo'lgani uchun yozuvni Osafning o'zi o'qib berdi:

"Horun ar Rashidning kutubxonasidagi hisob-kitob daftarini axtarilganda shunday bir hujjat topilgan: xalifa tomonidan rajab oyining to'rtida berilgan farmonga ko'ra hashamatli vazir Ja'farga to'rt yuz ming dinorlik kiyim-kechak berilgan. Oqibatda esa vazir Ja'farning murdasini kuydirish uchun bir dinorlik o'tin sarf qilindi, xolos".

Osaf Ozarbayjon vakillarini boshqa bir xonaga taklif qildi. Xonada qonli bir gilam bor edi. Gilam ustida joynamoz yozilgan. Osaf gilamni vakillarga ko'rsatib, devordagi yozuvni o'qidi:

"Ja'far xufton namozini o'qiyotgan vaqtida Horun ar Rashidning quli Masrur xalifaning farmoni bilan mana shu gilamning ustida vazirning boshini kesgan".

Ziyofat tugagach, hammalari yana otlanishib Amin qasriga qaytdilar, har kim o'z xonasiga kirib istirohat bilan mashg'ul bo'ldi, lekin Faxriddinning ko'ziga uyqu kelmas edi. U Dilshodni so'roqlab xalifa Mustarshidbillohning oilasi yashayotgan Xuld qasriga bormoqchi bo'ldi.

DURRATUL-BAG'DOD

Faxriddin Xuld qasriga borish uchun Amin qasridan tushdi. Qosh qoraygan bo'lib, Faxriddin qay tomonga yurishini bilolmasdi. Bag'dodga kelganiga endigina ikki kun bo'lgani uchun, hech qayerni bilmas edi. Qasrning g'arb tomonidagi maydonchada yuzlarcha eshaklar turganini ko'rdi. Har bir eshak yonida bittadan qora qul bor edi. Kim qayoqqa boradigan bo'lsa, ana shu eshaklardan bittasini kira qilib minib ketaverardi.

Faxriddin qora qullardan birining oldiga borib:

— Yigitcha, meni Xuld qasri oldiga eltib qo'ya olasanmi? — deb so'radi.

Yosh qora qul arabchalab allanimalar degan edi, Faxriddin hech narsa tushunmadi. Uylanib turib qoldi, nihoyat, qora qul musofirning arabcha bilmasligini anglab, forschalab gapirdi:

— Agar hazrati og'a Bag'dod ko'chalarini sayr qilishni istasalar, eshak minib kezishga to'g'ri keladi: chunki bu yerdan Xuld qasriga borish uchun Rasofa, Mahram va Shamsiya mahallalarini aylanib o'tish lozim. Bu og'a uchun uzoq bo'ladi hamda qimmatga tushadi. Agar og'a Xuld qasriga borishni istasa, xuddi shu yerdan sharqqa tomon burilib to'ppa-to'g'ri tosh yo'l bilan Dajla daryosi bo'yiga tushishi kerak. U yerda qayiqchalar bor. O'shanga o'tirib ham Dajlaning oqshom manzaralarini sayr qilasiz hamda Dajlaning chap sohilidagi Xuld qasri oldiga chiqasiz.

Faxriddin qora qulga minnatdorlik bildirib, daryo bo'yiga tusha boshladi. Dajla bo'yiga tushganida suv yuzidagi minglarcha sayohatchi qayiqlarni ko'rib hayratda qoldi va o'zining hamisha o'qib yuradigan she'rini yana bir bor takrorladi:

Allassaboh Nishobur, zuhr dar Bag'dod,
Namozi xufton Marv-u namozi shom Hirot[1].

Qarshisida turgan kemachi qayig'ini ilgari surdi, o'tirg'ichni ko'tarib Faxriddinni qayiqqa taklif qildi. Qayiqning xurmo yaprog'idan to'qib qoramoy surtib mahkamlangan doira shaklidagi yelkani bor edi. Yelkanning to'rt tomonidagi nozik tirgovuchlarga yorug' fonuslar osilgandi. Qayiqning o'rtasiga doira shaklida xontaxta qo'yilgan. Xontaxta atrofida esa yetti-sakkizta yigitlar va bir necha sozanda va xonanda qizlar o'tirardi. Xontaxta ustida har xil sharob, piyolalar va taomlar bor edi.

Faxriddin atrofida suzib yurgan qayiqlarga qarar ekan, ularda ham o'zi tushgan qayiqda ko'rganlarini ko'rardi. Qayiqdagilardan ba'zilari arab, ba'zilari fors tilida so'zlashardilar. Ulardan bittasi piyolani to'ldirib.

Faxriddinga dedi:

— Birodar aziz, hamrohiy kun[2].

Jo'raboshi shunday deganidan so'ng qo'lidagi sharobni Faxriddinning oldiga qo'ydi. Xonanda qizlar ham oldilaridagi piyolalarni qo'llariga olib Faxriddingz ko'z-ko'z qilib ichganlaridan so'ng, Faxriddin ham piyolani labiga tekkizib xontaxtaga qo'ydi.

Qayiqdagilardan biri xonanda qizlarga fors tilida:

— Hayotxonim! Sharob majlisi bayt-u g'azal va musiqiy talab qiladi,— deb quyidagi she'rni o'qidi:

Asbe ki safirash nazaniy namexo'rad ob
Odam na kam az asbu na may kamtar az obast[3].

---

[1] Sahar chog'i Nishopurda, peshin vaqti Bag'dodda, xufton namozi paytida Marvda, shom namozi vaqtida Hirotda bo'lish nash'alidir.

[2] Aziz birodar, davramizga qo'shil.

[3] Ot suv icharkan, hushtak chalib turilishi lozim, busiz ot suv ichmaydi. Ajabo, odam otdan ham tubanmi yoxud sharob suvdan ham beqadrmi?

Hayotxonim goh forscha, goh arabcha ashula aytar edi, chunki qayiqda arablardan tashqari forslar ham bor edi.

Qayiq suv oqimiga qarshi suzgani sababli sur'atini tezlatolmasdi: chunki Iroq kechalarining hafif shabadasi yelkanni olg'a surishga ojizlik qilardi. Daryoning har ikki tarafida bahaybat binolar, baland saroylar, muhtasham qasrlar qad ko'targani uchun bularning orasidan suzib borayotgan qayiq bamisoli bir xiyobondan ketayotganga o'xshardi.

Saroylar va qasrlarning derazalaridan Dajla daryosiga tushgan nurlar Sharq kechasining tim qora libosini teshib o'tolmasdi.

Daryoga qaraganda suv yuzida hayron qolarlik bir manzara namoyon bo'lardi. Iroq kechasining zulmatiga burkangan moviy suvda yulduzlarning charaqlashini ko'rgan har kimsa suvning yuziga oq gul solib to'kilgan gilam to'shalgan deb o'ylardi.

Qayiq yuqoriga tomon suzishda davom etarkan, Faxriddin ulardan:

— Qayerga keldik? Xuld qasriga yaqin qoldimi? — deb so'radi.

Qayiqdagilar esa:

— Yo'q, aziz qardosh, hali olis, eng kamida bir-ikki soat suzishga to'g'ri keladi,— deb javob berishdi.

Qayiqdagilardan biri xonanda qizga murojaat qildi:

— Azizim Hayot, arabcha g'azallaringdan juda zavqlandim. O'tinaman, meni xursand qil, bir vaqtlar Bag'dodni ostin-ustun qilgan Dilshod haqida ham kuyla!

Faxriddin bu so'zlarni eshitarkan, o'z quloqlariga ishonolmadi. U o'zini g'aflat olamida ko'rganday edi, seskanib ketdi va o'z-o'zicha: "Balki Dilshod yo'ldan ozgandir, balki shahvatparast xalifalar Bag'dodi uning axloqini buzgan, shuning uchun ham uning nomi sharobxo'rlik ustida tilga olinayotgandir", deb o'yladi. So'ngra u: "Balki bular Ozarbayjondan Dilshodni axtarib kelganimni payqab mendan kulishayotgandir yoki bular xalifaning ayg'oqchilaridir yoki meni Amin qasridan bu yergacha ta'qib etib kelayotgan kishilarmikan?" deb ko'nglidan kechirdi.

Faxriddin shu xildagi chigal xayollarning ta'sirida qiynalib turganida xonanda qiz Dilshodga bag'ishlangan g'azallarni kuylay boshladi:

Osmon gar zi girebon qamar ovarda berun,
Az gireboni tu xurshid sar ovarda berun,
Ba tamoshoyi xat-u orazi Dilshod kunun
Dilam ravzanayi dida sar ovarda berun[1].

Qizlar kuyladilar, yana sharob piyolalari to'ldirildi. Bu safar Faxriddin hech qanday taklifni kutmasdan piyolani qo'liga olarkan, davradagilarga qarab: — Sizlarning sog'ligingizga ichaman, — dedi-da, piyoladagi sharobni sipqardi, ular ham ichdilar.

Suhbat qizib ketganida Faxriddin xonanda qizga savol berdi:

— O'qigan she'ringizda nomi zikr etilgan Dilshod kim?

— Dilshod qirqta go'zal qizlarning ichida yakka-yu yagonasi. Uni Ozarbayjondan xalifaga hadya qilib yuborishgan. U Bag'dodga kelgan vaqtida xalifa betob edi, shuning uchun uni o'z o'g'liga hadya qildi.

— Hozir Dilshod tirikmi?

Bu savoldan so'ng kemadagilardan biri:

— Xudoning go'zal malagiga o'limni ravo ko'rish to'g'ri bo'larmikan? — dedi.

Biroz suzib borilganidan so'ng qayiq bir ko'prik oldida to'xtadi, qayiqchi hurmat bilan:

— Bizning og'amiz shu yerda tushishlari kerak. Mana bu zinalardan yuqoriga ko'tarilsangiz, Xuld qasrining ro'parasidan chiqasiz, — deyarkan, Faxriddin undan so'radi:

— Qayiqning kirasi qancha bo'ladi?

— Qirq dinor.

— Sharobning bahosi qancha?

— Sharob ham, xonandalarning haqi ham shuning ichida.

— Siz meni shu yerda kuta olasizmi?

— Ikki soat kuta olaman.

— Ehtimol, men tez qaytarman. Boshqa odam olmang.

Faxriddin shunday deb zinalardan yuqoriga chiqdi. Atrofni ko'zdan kechirgandan so'ng, Xuld qasri oldidagi maydonni tanidi

---

[1] Agap osmon o'z yoqasidan oyni chiqarib ko'rsata olsa, sening yoqangdan oftob bosh chiqarib olamga boqadi. Dilshodning jamolini tomosha qilish uchun qalbim ko'zimning derazasidan tashqarira chiqibdi.

va ikki tomonida ikkita qurolli qora qul turgan yer qasrning darvozasi ekanini aniqladi.

Faxriddinning darvozaga yaqinlashish uchun biror bahonasi yo'q edi. U qora qullardan Dilshodni shu yerda bor-yo'qligini bilishni ko'nglidan o'tkazardi. Lekin bunga yuragi dov bermasdi, chunki bu yer xalifaning darvozasi edi, qora qullarga yondashish va Dilshoddan darak axtarish ba'zi shubhalarga sabab bo'la olardi. Shuning uchun ham Faxriddin ko'zlarini qasr darvozasiga qadab, u yerdan chiqqanlarni kuzatardi.

Vaqt o'tmoqda, qayiqchi ham uni kutmasdan ketib qolishi ehtimoli bor: agar qayiq ketib qolguday bo'lsa u Amin qasriga qayta olmay qolishi mumkin. Xususan, u hayallab qolgudek bo'lsam, Ozarbayjon vakillari xavotirlanib meni axtarib qolishlari mumkin deb tashvishlanardi.

U ko'zini saroy darvozasidan uzmasdi, nihoyat, darvoza oldidagi qora qullarni shubhalantirmaslik uchun u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Uning xayolida, go'yo Dilshod darvozadan chiqib kelayotgandek, yoxud biror yoqqa ketgan bo'lsa, qaytib kelayotgandek, yoinki maydonga ochiladigan derazalardan ko'rib qolib kelib o'zini quchog'iga tashlayotgandek bo'lardi. Lekin kecha juda qorong'i edi, Dilshod derazadan qaragan taqdirda ham uni taniyolmasdi: chunki Iroq kechasi irqiy tafovutlardan qat'i nazar, hammaga barobar qora qullar libosini kiydirgan edi. Lekin Faxriddin, saroydan kim chiqsa ham uning ketidan borib Dilshod to'g'risida biror xabar eshitishga qaror qildi. Anchadan keyin saroy darvozasi ochildi, ichkaridan ikki xotin chiqib, uchinchi bir xotinni kuzatib qo'ydilar-da, keyin darvozani yopib kirib ketdilar.

Uchinchi xotin Faxridinning butun vujudini titratib yubordi va darhol ko'nglidan o'tkazib: "Ajabo, bu mening sevgilim Dilshod emasmikan?" deb o'z-o'ziga savol berdi. O'z savoliga xayolida: "yo'q, u emas, Dilshodning bo'yi bundan biroz balandroq, qaddi-qomati yanada xushbichimroq edi", deb javob berdi.

Ayol saroy maydoniga terilgan qizil toshlarning ustidan ketar ekan, to'pig'iga taqilgan tilla qo'ng'iroqchalari shildirar edi. Faxriddin uning ketidan boqib qayoqqa borishini kuzatardi. Nihoyat, xotin to'satdan yo'lini o'zgartirib, pastga — Dajla daryosi sohi-

li tomon yura boshladi. Faxriddin buni ko'rib haddan tashqari sevindi.

Xotin g'urur bilan beparvo bir yo'sinda yo'lida davom etardi, o'zini ta'qib etib borayotgan Faxriddinga e'tibor qilmas edi.

Ayol daryo bo'yiga tushdi, u yerda turgan qayiqni ko'rib, qayiqchiga:

— Meni Harbiya mahallasiga olib borib qo'ya olasanmi? — degan edi, kemachi:

— Yo'q, boshqa odamni kutmoqdaman, — deb javob berdi.

— Men ko'proq to'layman,— dedi ayol.

— Kutayotgan odamim serpul odam. Boshqa odamni ololmayman. Hozir o'shani kutib o'tiribman.

Shu suhbat paytida Faxriddin kemachiga yaqinlashdi, kemachi uni ko'rarkan, uni ayolga ko'rsatib ilova qildi:

— Mana, og'aning o'zlari ham keldilar.

Ayol Faxriddinni ko'rishi bilanoq unga yaqin borib so'radi:

— Muhtaram janob, meni Harbiya mahallasigacha birga borishimga ijozat berasizmi?

— Mening hech qanday e'tirozim yo'q.

Qayiqchi Faxriddinning so'zini eshitib dedi:

— Ko'rib turibsizki, mening muhtaram og'am Bag'dodga yangi kelganlar. Biz xonimni birga olib ketolmaymiz, chunki xonim turadigan Harbiya mahallasi bilan og'aning boradigan joyining orasi bir necha soatlik yo'l. Siz bormoqchi bo'lgan Amin qasri, shaharning sharq tomonida, xonim boradigan Harbiya mahallasi esa, yuqorida — shaharning g'arbiy qismida, "Suqul-abd"[1] bozorining o'rtasida. Shuning uchun xonimni birga olib ketishning iloji yo'q.

Ayol jimgina o'ylab turardi, chunki bu yerda boshqa qayiq yo'q edi, Faxriddin esa bu xotinni qo'ldan chiqarmasligi kerak, unga katta umid bog'lagan edi. Shuning uchun ham kemachini rozi qilishi kerak bo'lardi. Faxriddin kemachiga bunday maslahat berdi:

— Agar sizga malol kelmasa, xonimni Harbiya mahallasiga eltib qo'yganingizdan keyin Amin qasriga boramiz. Xonimni bu

[1] **"Suqul-abd"** — qul, kaniz, cho'rilar sotiladigan bozor.

yerda yolg'iz qoldirish nazokatsizlik bo'ladi. Kira haqi qancha bo'lsa ham mening ortiqrog'i bilan to'lashga qurbim yetadi.

Shundan so'ng qayiqchi:

— Modomiki, og'a e'tiroz qilmas ekanlar, men nima deya olardim? — deb qayiq bilan qirg'oq orasiga taxtadan yasalgan ko'prikcha tashladi. Faxriddin ayolga qarab:

— Xonim, marhamat qilsinlar, — dedi-da, uning qo'lidan tutib qayiqqa chiqardi. Qayiqda sozanda va xonandalardan boshqa hech kim yo'q, sharob dasturxoni odatdagicha yasatilgan edi. Sharobga kerak bo'lgan turli lazzatli taomlar dasturxonda bor edi.

Qayiq shaharning g'arbiga qarab suzar, suv yuzida bitta ham qayiq ko'rinmasdi, chunki shaharning bu tomoni olis bo'lganidan sayohatchilar markazdan uzoqlashmas edilar.

Sozanda va xonandalar asta-sekin ud va kamonchalarini sozlab chala boshladilar. Biroz arabcha ashula aytdilar, lekin Faxriddin fikrlarini na musiqa va na ashulalar yo'qota olardi. U faqat Dilshodni o'ylardi.

Faxriddin ashula aytayotgan qizga o'girilib unga xushomad qilganday dedi:

— Bundan bir-ikki soat avval aytgan g'azalingiz menga juda ma'qul bo'lgan edi, juda ham zavqlangan edim. Men Bag'dod kechalaridan va Dajla sayohatidan olgan taassurotlarimni xotirlar ekanman, baytlaringiz bilan ko'z oldimda turasiz.

Ashulachi qiz xursand bo'ldi va Faxriddinga tashakkur aytib dedi:

— Menga bergan bahosi og'aning o'z oliyjanobligi bilan o'lchanadi. Lekin sizga yoqqan g'azal qaysi biri ekanligini eslay olmadim.

— Siz bir qiz haqida kuylagan edingiz.

— Karanfil to'g'risidami?

— Yo'q.

— Tohira haqidami?

— Yo'q, u ham emas.

Suhbatga qayiqchi aralashdi:

— Balki og'amiz Dilshod haqidagi she'rni yoqtirgandir, — deyarkan, Faxriddin:

— Ha, men xuddi o'sha she'rni aytmoqchi edim,— deb javob berdi. Qizlar yana qo'shiq ayta boshladilar. Faxriddin kuzatib borayotgan noma'lum ayol yuzini ochdi va Faxriddinga savol berdi:

— Muhtaram og'amiz Dilshodning kimligini biladilarmi?

Faxriddin uni tanimagandek yelkasini qisib dedi:

— Qayerdan tanirdim? Ikki soat bundan oldin nomini eshitdim, zavqlandim, go'zal va najib bo'lganligiga ishondim. Chunki xotin kishining go'zalligini hammadan oldin shoirlar his qiladilar. U diqqatga sazovor bir ayol bo'lmasa edi, Bag'dodday bir shahri azimda og'izga tushmagan bo'lardi.

Ayol kulib javob berdi:

— Tabiatni shoirning zavqi bilan o'lchab bo'lmaydi. Odam och qolganida arpa nonini halvo va asal o'rnida ko'radi.

Faxriddin ayolning bu so'ziga e'tiroz qilmadi. Ayol bir zum bo'lsa ham undan ko'zini uzmasdi. U tanish bir odamga tikilgandek tikilar edi, xuddi Faxriddinni tanishga o'xshatardi. Bu qarashlardan Faxriddin shubhalanmasdi, u ko'nglida: "Bu Bag'dod ayoli, iymanmaydigan, ochiq, aysh-ishratlarda o'sgan bir ayol. Go'zalligi va libosining hashami, quloqlaridagi qimmatbaho isirg'alar, to'piqlaridagi zumrad ko'zli tilla qo'ng'iroqlar, barmoqlaridagi qimmatbaho toshli uzuklar uning kibor oiladan ekanidan dalolat beradi. Xalifa qasridan chiqqanini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Xalifaning qasriga kirib-chiqadigan kishilar xalifaga mansub oiladan bo'lishi kerak", deb o'ylar edi.

Faxriddin shu xayol bilan sharobni olib piyolalarni to'ldirdi-da, notanish xonimga:

— Aziz va muhtaram xonim, men musofirning oqshomini xushvaqt qilish uchun shuni ichadilarmi? — dedi.

Ayol hafif bir yo'sinda tabassum bilan so'radi:

— Ajabo, siz musofirmisiz?

— Ha, musofirman.

— Qayerdansiz?

— Farg'onalikman.

— Bu yerda uzoq turasizmi?

— Aytolmayman, nasibaga bog'liq, agar imkoni bo'lsa, umrbod shu yerda qolarman.

— Men ham musofirlarni sevaman. Hatto, yurakdan sevaman, chunki g'ariblarning totgan achchiqlarini mening o'zim ham totib ko'rganman, muhtaram og'amizning holiga tushunaman. Tunlar g'ariblar uchun juda ham mushkuldir. G'urbat mashaqqati ko'proq kechalari bilinadi. Bularning hammasini nazarga olib, muhtaram og'amiz bilan bo'lgan bu qisqa musofirchilik onlarida uning vaqtini xushlashga harakat qilaman.

Ayol shu so'zlarni aytgach, piyolani olib lablariga tekkizmoqchi bo'lganida yana qaytib xontaxta ustiga qo'ydida, uzr so'ramoqchi bo'lgan kishilardek:

— Biz piyolalarni ko'tarishdan avval zarur bo'lgan bir narsani unutdik. Tanishmasdan turib piyolalarni urishtirish ham odobsizlik hamda nazokatsizlik bo'ladi. Bu bag'dodlik bir ayol sha'niga to'g'ri kelmaydi. Endi keling, tanishaylik,— dedi.

Ayol shu so'zlarni aytarkan, qo'lini Faxriddinga uzatib "Duratul-Bag'dod" dedi, Faxriddin uning qo'lini olarkan, "Umarxon Farg'onaviy" dedi.

Ular piyolalardagi sharobni sipqardilar. Ayol bilan Faxriddin xonanda qizlarga musiqa chalib, qo'shiq aytishlarini so'radilar.

Faxriddin ayolga zo'r diqqat bilan tikilardi. Uning sochlari Bag'dod tunlaridek qora, jamoli esa Iroqning tong shafaqlari singari qirmizi. Uning go'zal siymosidan yog'ib turgan nur miltillab yonayotgan shamchiroqlarning shu'lasini bosib ketardi. U go'zal edi. Yoshi o'ttiz besh-qirqlar o'rtasida. U boshidagi chodrasini olib qo'ygandi. Kechaning hazilmand shabadasi uning sochlarini bamisoli sunbulga o'xshatib har tomonga parishon qilardi. Qayiqchi ham bu sayyohlarga qiziqib boqar, maqsad va manzilga kechroq yetib borish uchun qayiqni juda sekin haydar edi. Qayiq xalifalar va shahzodalar qasrining ro'parasidan o'tib borar, atrof jimjit edi. Faqat qayiqning tumshuq tomoni Dajla ko'ksini o'pmoq orzusida moviy suvlarni yorar ekan, shapillagan tovush chiqarardi. Ichilgan mayning ta'siridanmi, yoxud o'z dardi haqida turli xayollarning bosib kelishi natijasidanmi, ayol seskanib ketib qoshlari ustiga tushib turgan qop-qora soch tolalarini orqaga surib qo'yarkan, Dajlaga boqib:

— Buni qarang, naqadar go'zal bir kecha! Yulduzlarning shu'lalari Dajla daryosida cho'milyapti. Og'amizning qayig'i esa samoviy parilarning qo'llarida bormoqda.

Faxriddin ham o'z javobida dedi:

— Qarang, kechamiz naqadar sharafli. Yulduzlar qayiqda borayotgan oy yuzli ayolni ko'rib, uni qutlash uchun qayig'imiz atrofida oqib bormoqdalar, — derkan, Faxriddinning o'xshatishlaridan mamnun bo'lgan ayol yana parishon sochlarini tuzata turib:

— Busiz kechalarimiz qorong'idir. Shamol esa qora bulutlarini o'ynatib, surib oy ko'ziga parda tutmoqchi bo'ladi,— dedi.

Kemadagi xursandchilikning nash'asini hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmasdi. Sozanda va xonandalar bugunga qadar uchratgan musofirlar ichida shu kechadagi xushfe'l, dilkash va odobli musofirni uchratmaganliklarini aytar ekanlar, qayiqchi ham:

— Og'a ijozat bersalar edi, u kishi Bag'dodda qancha vaqt istiqomat qilsalar, kemani ixtiyorlariga topshirib, mamnuniyat bilan xizmat qilardim, — dedi.

Shaharning bu qismi juda ham charog'on edi. Derazalardan tushib turgan shu'lalar Faxriddinning Durratul-Bag'dodga istagancha qarashiga imkon berardi. Ayol Faxriddinga sezdirmasdan boqar va buni sezdirmaslikka urinardi.

Kema ko'prikka yaqinlashdi. Derazalardan tushgan yorug'lik va sarv daraxtlarning tepasidan qayiq ustiga tushayotgan on yog'-dusidan sharob to'ldirilgan piyolalarda alvon rangli yaproqlarning shakli jilva qilar va sharob rangiga yangi bir rang qo'shardi.

Kema muhtasham saroylarning gulzorlari oldidan o'tgan vaqtda xushbo'y islar Dajla daryosida sayr qilib yurgan sayyohlarning dimog'iga urilardi. Kema ko'prik tagidan o'tib, shaharning "Madinatul Mansur" deb atalgan qismiga yaqinlasha boshladi. Ayol ham endi chodrasini qo'liga olib sochlarini tartibga solardi.

Faxriddin ayoldan o'z maqsadlari haqida so'rab-surishtirib ololmagani uchun xafa bo'lardi. Ayni zamonda bu go'zal, munis ayol bilan vaqt o'tkazish naqadar g'animat ekanini ham qayd etardi. Faxriddin o'z-o'ziga: "Bag'dodda ekanman bu ayol bilan tez-tez ko'rishib turishim kerak", der va o'z orzularini ayolga bildirish uchun butun jasoratini tiliga to'plashga urinardi.

Nihoyat, ayolga qarab dedi:

— Muhtaram xonim, lutfan shu kechadagi Dajla sayrini takrorlashga va'da bera oladilarmi? Men yana shu saodatga erishishga umid bog'lay olamanmi?

Ayol nozik bir tabassum bilan javob berdi:

— Bu sayohatda ishtirok etishim bilan muhtaram og'amizni mamnun qildimmi?

— Unutilmas bir taassurot qoldirdingiz.

— Unday bo'lsa e'tirozim yo'q.

Aziz va go'zal xonim bilan birga Bag'dod oqshomlarida Dajla sayriga chiqishdan nash'ali bir hayot bormikin?

— Unday bo'lsa, ertaga peshinda meni Rasofa jomesi oldida kuting.

Ayol shu so'zlardan so'ng xayrlashib qayiqdan qirg'oqqa chiqdi.

TILANCHI XALIFALAR

Peshin namozi yaqinlashib qolgan edi. Faxriddin Rasofa jomesining darvozasi oldida turardi. Bag'dod xalqi peshin namoziga tayyorlanib Rasofa jomesi sahniga joylashar ekan, jomening eshigini ko'rlar va tilanchilar o'rab oldi. Devorlarning osti, yo'llar va hovuz bo'ylari tilanchilar, ko'rlar bilan to'lgan edi. Ko'r va tilanchilar bir-birini turtib-itarishib olg'a tashlanardilar. Ular jomening darvozasiga yaqin turish uchun bir-birlari bilan yoqa bo'g'ishib mushtlashardilar.

Faxriddin hamma narsani unutib, shu tomosha bilan ovora edi. Tilanchilardan biri juda ham zaif ko'ringan bir ko'rni urib yerga yiqitganini ko'rishi bilan g'azablandi, oldiga borib, ko'rni tilanchining panjasidan qutqarib, qo'liga biroz tanga berdi, ko'r barmoqlari bilan piypaslab tangalarning qimmatini bilganidan so'ng duo qilib:

— Ey mo'min, sobiq xalifang Muttaqibillohni xotirlagan ekansan, xudovandi olam seni ko'zdan judo qilib, xor-u zor etmasin, — dedi.

Ko'rning bu duosini eshitganida Faxriddinning butun vujudi titrab ketdi, ko'rga yana bir qarab, o'z-o'ziga: "Yo Alloh, bu nima

degan gap? Ya'ni qanday sobiq xalifa Muttaqibilloh! Ajabo, bu ko'r tilanchi xalifalar ustidan kulyaptimi? Yoxud, nomi zikr etilgan xalifa zolim bo'lganligidan, uning nomini ko'r tilanchiga qo'yib masxara qilishyaptimi?" deb o'yladi.

Xaloyiq sekin-asta masjidga yig'ila boshladi. Odamlar boshqa tilanchilarga u qadar e'tibor bermay, faqatgina uchta ko'r tilanchiga haddan tashqari ko'p sadaqa berardilar.

Ular esa yana duo o'qib:

— Ey mo'min, ko'hna xalifangni unutmagan ekansan, Xudovandi olam seni bu dunyoda-yu oxiratda unutmasin! — deb duo qilardilar.

Faxriddin endi hamma narsani unutib, shu ko'r tilanchilarga boqardi. Ko'rlar kimdan pul olmasinlar uni paypaslab ko'rib tangasini bir cho'ntakka, chaqalarini ikkinchi cho'ntakka solishardi.

Faxriddinning qulog'iga tanish bir ovoz eshitildi:

— Mening og'am, taajjublanma! O'z davrida minglarcha muhtojlarga ehson ulashgan, bir zamonlar butun Sharq o'lkalarining muqaddas va iqtidorli xalifalari bo'lgan shaxslar bugun Rasofa jomesi eshigi oldida tilanchilik qilishlari ham mumkin.

Bu ovoz Faxriddinning ruhini qitiqlagandek bo'ldi. U shartta o'girilib, ovoz kelgan tarafga qarab kechagi ayolni, Durratul-Bag'dodni ko'rarkan:

— Assalomu alaykum, muhtarama xonim, — deb ta'zim qildi.

Ayol uning salomiga alik olib so'radi:

— Og'amning bu yerga kelganiga ko'p bo'ldimi?

— Peshindan sal ertaroq kelgan edim.

— Ko'rib turibmanki, sening diqqatingni bu baxtsiz xalifalarning ayanchli ahvollari o'ziga jalb etibdi.

— Xuddi shunday, hurmatli xonim, xalifalarning masjid eshigi oldida tilanib turishlariga ishonish mumkinmi? Nahotki butun islom olamining boyligini o'ziga to'plagan Bag'dod uchtagina ko'r bo'lib qolgan xalifani boqa olmasa? Ajab, dunyoda xalifalar shu qadar sha'n-u shavkatga ega bo'lganlari holda, xalifa nomiga dog' tushiradigan bu ahvolning oldini ololmaydilar?

Ayol bir uh tortib dedi:

— Dunyo shunaqa, mening og'am! O'ng tomoningda tosh ustida o'tirgan ko'r xalifa Qohirubilloh bo'ladi. Undan biroz pastroqda o'tirgan gado esa baxtsiz xalifa Mustaqibillohdir. Jomening eshigi tagida o'tirgan keksa va zaif bebaxt esa, Sharqning eng sevimli xalifasi Muttaqibilloh bo'ladi. Mening og'am! Bag'dod xalqi haddan tashqari vafosiz. Ular uchtagina xalifaning ham ko'p ko'rishiga qo'ymaydilar. Bu baxtsizlar o'z o'g'illari, aka-ukalari va tog'a-jiyanlari tomonidan ko'zlariga mil chekib, saroylaridan, mol-mulklaridan judo qilinib, tashqariga chiqarib tashlangan xalifalar bo'ladilar. Boshingni ko'tarib Xuld qasri va Oltin Qasrga qarab fikr qil, sen ko'rib turgan bu ko'rlar bir vaqtlar xuddi mana shu qasrda yashaganlar va dunyo ishlarini hal qilganlar. Endi esa jomening darvozasi oldida turib tilanmoqdalar[1].

Shu so'zlarni aytgach, u ho'ngrab yig'lab yubordi. Bu xotinning bunchalik oliyjanobligi Faxriddinni hayratda qoldirdi.

Ayol masjidning zinasi yaqinida o'tirgan Muttahibillohning yoniga borib uning oldida tiz cho'ktida, qo'lini o'pdi, olib kelgan sadaqalarini uning tizzasiga qo'ydi.

Ko'r xalifa uni duo qilib:

— Durra, ilohim, sen hayotning achchig'ini totmagin, o'z sobiq og'angni unutmagan ekansan, seni ham Xudo har ikki olamda unutmasin, — dedi.

Ayol yana bir marta uning qo'lini o'pdi, so'ngra ikki nafar ko'r xalifalarga ham ehson berib, yig'lay-yig'lay uzoqlashdi va Faxriddinning yoniga kelib uzr so'ragan bir tarzda dedi:

— Muhtaram og'a, meni afv etsin, sizni kecha kechqurun xayrlashayotganimizda uyimga taklif qilishim lozim edi, lekin bu kun juma bo'lgani uchun xalifa hazratlarini ziyorat qilish maqsadida Rasofa jomega kelishni, sizni ham shu yerdan birga olib ketib mehmon qilishni o'ylagan edim. Endi esa kechagi tanishligimizni yana ham mustahkamlash uchun non-namak tanovul etishga bizning uyga marhamat.

Faxriddin bu iltifotga qalbdan sevinsa ham, zohirida uzr so'rab:

---

[1] Abdulfidoning bergan ma'lumotiga qaraganda, Bag'dod masjidlari oldida turib gadoychilik qilgan xalifalar juda katta davlat to'plaganlar.

— Muhtaram va aziz xonimni urintirib qo'yishni istamayman, — derkan, ayol:

— Meni tahqir etmassiz deb o'ylayman, men o'tkinchi bir ayol emasman, sharobingizni totgandan so'ng unutib ketish nazokatsizlik bo'ladi. Birga sharobxo'rlik qilgan kishi bilan yo'lda hamroh bo'lgan kishini unutish yaramaydi. O'tinaman, hech qanday vaj ko'rsatmay, oldimga tushib yo'l boshlang, — dedi.

Ular Dajla daryosi bo'yiga tushdilar. Faxriddin bu sirdosh bo'lmagan ayol bilan birga ketayotgani va ixtiyorini uning qo'liga topshirganidan pushaymon bo'larkan, o'z-o'zini koyib: "Men o'z xatti-harakatim bilan Nizomiyning nasihatlariga qarshi boryapman. Men Bag'dodga yo'lga chiqqanimda bu shaharning sehrjodular, fisq-u fasodlar va hiyla-nayranglar shahri ekanligini aytgan edi. Men esa kechagina tanishgan bir xotinning oldiga tushib ko'rmagan-bilmagan joyga ketyapman", derdi.

Ayol Faxriddinning qadam tashlashidagi beqarorlikni ko'rarkan, Faxriddinning yuziga boqdi:

— Siz o'z ixtiyoringizni vijdonimga topshira olasizmi? Men tanish-bilish, do'stlashish va g'ariblar bilan suhbat qilishni sevadigan xotinman. Mening har bir ishimda samimiyat bor. Bunga ishonishingiz mumkin.

Ular Dajla bo'yiga tushdilar. Ayol qayiqqa minarkan:

— Harbiya mahallasiga olib bor! — dedi.

Ayol chodrasini qo'liga oldi. Faxriddin qarshisida tabiatning bashang kelinini ko'rarkan, hamma narsani unutdi. U ko'zlariga ishonmasdi. Faxriddin har safar ayolning husniga boqmoqchi bo'lganida, uning ham tikilib turganini ko'rardi: chunki ayol Faxriddindan ko'z uzmasdi.

Shu holatning o'zi ham Faxriddinni shubhalar girdobiga tortardi, chunki Bag'dodda beva xotinlar va erlaridan o'ch olishning payiga tushgan kibor xonimlar, ularning makrlari va yoqtirgan odamlarini uylariga taklif etishlari haqida Faxriddin Ganjada ekani vaqtidayoq eshitgan edi.

Go'zal xotinlar puldor kishilarni uylariga olib borib, boryo'g'ini shilib olgach, o'ldirib yuborishlari singari hodisalar ham Bag'dodda tez-tez uchrab turadigan hodisalardan edi.

Faxriddin hech narsa qila olmas edi. Qayiqni to'xtatib tushib qolish yana o'ng'aysiz. U biror falokatni his qilsa ham, qo'rqoqlikni o'z sha'niga ep ko'rmas edi. U ko'nglida o'z-o'ziga: "Nima bo'lsa bo'lar, hayotimda birinchi marta uchratganim bu mo'jizani bir tomosha qilay. Bag'dod butun islom dunyosining boyligini o'zida to'plagan ekan, bu boylikni kemirish uchun butun dunyoning janjallari shu shaharga yig'ilgan ekan, ayni zamonda dunyoning eng mashhur go'zallari ham shu boylikning atrofiga yig'ilibdi, — derdi. — Qarshimda o'tirgan bu ayol bilan bir soat suhbatlashish hayotda yuz yil yashagandan afzalroqdir. Bu bir tasodif, bunday tasodiflarning o'chmas xotiralari insonlarda bir umr sahlanib qoladi. Bu xonimning munis va muloyim bir xotin bo'lishining o'zi ham insonning muhabbatini jo'sh urdiradi. Ko'zlaridan biror shubha alomati sezilsa ham, lekin chehrasidan hech qanaqa xiyonat izlarini ko'rolmayman".

Faxriddin turli xayollar girdobida suzayotgan onlarda xotin ham uning boshidan oyog'igacha, oyog'idan boshig'acha diqqat bilan ko'zdan kechirardi. U ilgari ko'rib yurgan odamini unutib qo'yib, endi uni eslashga harakat qilayotganga o'xshardi.

Namozga kelgan minglarcha musulmonlar ko'r xalifalarga e'tibor bermagani holda ayolning ular oldida tiz cho'kib qo'llarini o'pishi uning ko'pgina sirlar xazinasi ekanidan dalolat berardi.

Ayol Faxriddin xuddi mana shu mavzu haqida o'ylayotganini sezgandek:

— Mening hurmatli og'am, siz haqlisiz. Rasofa masjidining oldida ko'rgan manzarangizdan hayron qolmaslik mumkin emas, — dedi.

Ayol Harbiya mahallasiga yetguncha xalifalar hayotidan va Bag'dod aholisining bevafoligidan so'zladi.

Ular qayiqdan sohilga chiqqanlaridan so'ng qizil g'isht yotqizilgan keng zinalardan yurib Harbiya mahallasiga kirib, hashamatli baland bir qasr oldida to'xtadilar. Ayol darvozaning halqasini avval qattiqroq, keyin sekinroq taqillatdi. Yosh, go'zal bir cho'ri qiz darvozani ocharkan, bosh egib ta'zim qildi. Faxriddin bilan ayol zinalardan ko'tarilib qasr yo'lagiga kirdilar.

Faxriddin yo'lakdan o'tib hovliga kirganida, o'zini xuddi bir boshqa olamga kirib qolgandan his qildi.

Hovlining o'rtasida doira shaklida toshdan qurilgan bir imorat ko'rdi. Imoratning to'rt tomoni marmar ayvonlar bilan o'ralgan, ayvonning naqshlari qahrabodan, shiftlari esa turli qandil va sham-chiroqlar bilan bezatilgan edi.

Bu binoning atrofidagi yo'llarga shaxmat taxtasi shaklida qizil tusdagi haqiq toshlar yotqizilgan. Atrofi katta gulzor. Gulzor ortida doira shaklida katta ko'l, bino shu ko'l o'rtasida bo'lib, bir orol shaklini olgandi. Bu katta ko'lda suzish uchun qayiqchalar turardi. Ko'l atrofidagi favvoralardan otilib chiqqan suv zarralari Bag'dod kunduzlarining issiq havosini kesib, hovliga bahor tongi salqinini berardi.

Ko'lning narigi tomonida esa bir tekisda limon, apelsin va anor daraxtlari o'tkazilgan, Faxriddin hovlida kezarkan, dimog'iga rang-barang gullarning xushbo'y hidlari bilan birga limon va apelsin hidlari ham urilardi.

Limon daraxtlari orqasida Bag'dod osmoniga cho'zilgan sarv daraxtlari bo'ysunmas qahramonlarga o'xshab mag'rur saf tortganlar. Bular hovli sahnini salqin qilish vazifasini o'tardilar.

Faxriddin go'yo tush ko'rgandek edi. U ayol bilan birga kezar ekan, o'ylardi: "Bu ayol Bag'dod a'yonlari yoki xalifazodalardan birortasining kanizagi bo'lsa kerak. Yo'qsa, oddiy bir ayol shu qadar katta va shohona qasrga ega bo'lolmas edi. Bilmadim, ayol o'z xo'jasidan ruxsatsiz menday bir begonani bu yerga taklif qilishga qanday jur'at qila oldi?"

Faxriddin Bag'dodning xususiyatlari haqida eshitganlaridan yana birini eslab o'z-o'ziga der edi: "Nima balo, men bir beva xotinning nafsiga orom bo'lish uchun aldanib bu yerga keldimmi? Axir men Bag'dodning jirkanch xususiyatlarini bila turib nega endi bu xotinning tuzog'iga ilindim? Ajabo, bu joriya meni er topolmagan beva xonimi bilan tanishtirishga olib keldimi? Men hech qachon bu tubanlikni hazm qilolmayman".

Faxriddin shu xayollar ichida qo'lini sher haykali kallasiga tirab to'xtadi-da, ayolga dedi:

— Xonim ruxsat bersalar, endi men ketay. Yor-u do'stlarim mening bu yerdaligimdan bexabarlar.

Faxriddinning bu so'zidan taajjubga tushgan ayol uning yuziga boqib dedi:

— Mening og'am, bu nima demak? Bizda non-u namak tanovul qilishingiz shundangina iboratmi? Bir ma'sumaning uyiga kelib bir piyola sharbat totmasdan chiqib ketish unga qanchalik haqorat ekanini o'ylaysizmi?

Faxriddin yana o'jarlik qilib dedi:

— Juda ham yaqin tanish bo'lmagan kishilar bir-birovlarini ortiqcha tashvishlantirib o'tirishlari unchalik o'rinli bo'lmasa kerak deb o'ylayman.

Ayol e'tiroz bildirib:

— Mening og'am, mulohazalaringiz to'g'ri emas, har qanday yaqinlik avval shunday boshlanadi, — derkan, Faxriddin unga:

— Menga ko'rsatgan iltifotingizdan mamnunman, bundan ortig'iga loyiq emasman, — deb turganida ayolning ko'zidan tomgan bir tomchi yosh Faxriddinning uchqun olayotgan shubhalarini so'ndirdi va u ayolning ko'ngliga taskin berish uchun:

— Men ketishga shoshilishim bilan xonimni ranjitarman, deb o'ylamagandim. Mening taraddudim sizni ortiqcha urintirmaslik uchun edi, — dedi.

Ular hovlini aylanib, ayvonga chiqqanlarida joriyalar dasturxon tuzamoqda edilar. Ayvonning atrofiga harir shohi pardalar tutilgan edi. Ikki tomonda turgan xizmatkorlar ayvonning devorida osig'liq turgan katta yelpug'ichlarni harakatga keltirib bahor shabadasi yaratardilar. Go'zal joriyalar muzga qo'yilgan qip-qizil sharoblarni xontaxta ustiga terishardi. Uch-to'rt go'zal kanizlar esa xilma-xil ovqatlar keltirib ayolga va Faxriddinga uzatardilar.

Bu dabdabalar Faxriddinni yana o'ylantirib qo'ydi, o'zini oddiy kishilar uyida emasligini tushundi. Faxriddin: "Demak, ayolning menga nisbatan bo'lgan bu iltifotida, albatta, chuqur samimiyat bor. Men bu samimiyatga nima bilan javob bera olaman? Mol-dunyoga, oltin-kumush va qimmatbaho narsalarga ehtiyoji bo'lmagan bir ayolning ko'nglini qanday mukofot bilan xursand qilish mumkin..." deb ko'nglidan o'tkazdi va so'ngra

shundan bir qarorga keldi: "Erta bilan Bag'dod bozorini kezib bu xonim uchun bir antiqa hadya topish kerak. Agar ayolning menga nisbatan bo'lgan bu hurmatlari biror muhabbat taqozosida bo'lsa, u holda menga kerakli bo'lgan yordamni bera oladi. Bu yerda Dilshodni shu xotin vositasi bilangina topib ko'risha olaman".

Ayol Faxriddinning dasturxon ustida ham xayolga ketganini ko'rib, bir chekkada hurmat bilan qo'l qovushgirib turgan bir joriyani chaqirib:

— Tayyiba, bor, Muallo sen ham u bilan birga borgin-da, ud, kamoncha va doiralarni olib kelinglar, — dedi.

Oradan sal vaqt o'tgandan keyin qizlar cholg'u asboblarini olib keldilar. Ayolning o'zi udni qo'liga olib sozladi-da, Faxriddinga qarab:

— Kecha kechqurun kemadagi qiz Dilshod haqidagi ashulani biz uchun aytdi. Harqalay yaxshi aytdi. Men Hayotni taniyman. U Bag'doddagi xonandalarning eng yaxshilaridan biri. Endi men ham og'a uchun Dilshod haqida ashula aytib beraman, — dedi va udning ipak torlarini titratdi:

Bubinam ar nafase on jamoli zeboro,
Digar nazar nakushoyam behishti uqboro:
Chu tor chang zi changi g'amat shudam log'ar,
Az on kasham chu kamoncha xuro'shi bejoro.
Chu pay fig'on binamoyam, chu ud nola kunam,
Ba yod ovaram on tal'ati dilororo.[1]

Faxriddin Ozarbayjondaligida va Dilshodga, unashtirilgan vaqtlarda ham uning shu qadar mashhur go'zal ekanligi, hatto, Sharq go'zallarining markazi hisoblangan Bag'dod shahrining diqqatini o'ziga jalb eta olishini bilmasdi. Dilshodning go'zalligiga yuzlarcha g'azallar va ruboiylar bag'ishlanganini eshitarkan,

[1] U go'zalning jamolini bir lahza ko'ra olsam, ikkinchi marta jannatga qaramayman. Sening g'amingdan torning qillari singari ozib ketdim, shuning uchun ham kamonchadek o'rinsiz fig'onlar qilaman. Sening go'zal yuzingni eslarkanman, nay kabi fig'on qilib, ud singari ingrayman.

yana ham yuragi ezildi: shunday bir bebaho gavharning hech mahal qaytib kelmasligini anglagach, chuqur oh tortdi.

Ovqatdan so'ng Faxriddin o'rnidan turib ketmoqchi bo'lganida ayol e'tiroz bildirib:

— Yo'q, mening og'am, Bag'dodda kunning issiq pallasida tashqariga chiqib bo'lmaydi, oqshom salqini tushguncha shu yerda istirohat qilasiz,— dedi.

Joriyalardan biri Faxriddinni yasatilgan bir xonaga boshlab kirdi. Lekin Faxriddin uxlab orom oladigan holatda emasdi. U xonaning bezaklariga qarab o'ylar va bu sirli ayolning kimligi to'g'risida fikr yuritardi.

Faxriddinning shubhasiga sabab bo'lgan eng birinchi narsa ayolning ko'z uzmay tikilishi va tikilganda ham g'amgin-g'amgin tikilishi edi.

Faxriddin shu tushunchalar ichida o'z-o'ziga: "Haqiqatan ham u meni birovga o'xshatyapti", — dedi.

SOXTA DILSHOD

Ozarbayjon vakillari ertalab Amin qasrida nonushta qilishganidan so'ng, Bag'dod shahrini tomosha qilishga otlanmoqda edilar. Xizmatkorlardan biri Faxriddinga ta'zim qilib:

— Bizning muhtaram og'amizni bir ayol darvoza oldida kutyapti,— dedi.

Qul chiqib ketdi. Faxriddin shoshilib kiyindi. Uning fikricha, chaqirtirgan xotin o'sha tanish ayol bo'lishi kerak edi. Lekin Faxriddin darvoza oldiga chiqqanida Sabo xonim turganini ko'rib, ajablandi. Sabo xonim salom berarkan, yig'lab yubordi.

Faxriddin salomiga alik olgach, undan:

— Nega yig'laysan? Biror musibat yuz berdimi? — deb so'radi.

— Ikki kundan beri seni axtarib topolmadim. Hozir topganimga suyunganimdan yig'lab yubordim.

— Bag'dodga nega kelding?

— Malika bir necha kundan beri Bag'dodda, valiahd Hamadonda mening oldimda qolgan edi. Onasiz turolmadi. Otabekning buyrug'i

bilan uni Bag'dodga olib keldim. Shu kunlarda men ham, malika ham Hamadonga qaytishga tayyorlanyapmiz.

— Malika yangi xalifaning taxtga o'tirish kunida qatnashmaydimi?

— Qatnashgisi kelsa ham a'lo hazrat qaytishni buyurgan: chunki Otabekning o'zi yangi xalifaning taxtga o'tirish kunida qatnashmoq uchun Bag'dodga kelishi kerak. Axboring uchun, men shularni aytish uchungina oldingga kelganim yo'q. Maqsadim seni ko'rish edi, eski qadrdonligimiz xotirasi buni mendan talab qilardi. Ayni zamonda senga bir xizmat ham qilmoqchiman. Agar Dilshodga nisbatan bo'lgan muhabbating chin bo'lsa, men ko'rishishlaringga yordam berishim mumkin.

Faxriddin Sabo xonimning qanchalar makkora va yolg'onchiligini yaxshi bilsa ham, Dilshodning nomini eshitishi bilan hamma narsani unutib, Sabo xonimning qo'lini siqib: — Go'zal Sabo! — dedi, — bu xizmating bilan sen meni olam-olam minnatdor qilasan. Ayt, Sabo, ayt, hozir Dilshod qayerda?

Sabo xonim u yoq-bu yoqqa qarab olib sekingina dedi: — O'zing o'ylab ko'r-chi, qayerda bo'lishi mumkin? Marhum xalifaning qasrida.

— Sabo xonim! Sen naqadar marhamatli qizsan. Necha kundirki, kecha-yu kunduz Xuld qasri darvozasi oldida kezaman, lekin u yerda Dilshoddan nom-u nishon topolmadim. Ajabo, u bir soatga bo'lsa ham qasrdan tashqariga chiqmaydimi?

— Albatta, chiqadi, axir, u mahbus emas-ku. Dilshod xohlagan g'aqtida xohlagan yeriga bora oladi. Lekin malika sening Bag'dodda ekaningni eshitishi bilanoq, qizni qasrdan tashqari chiqarmaslikka qat'iy buyruq berdi.

— Endi nima bo'ladi?

— Dunyoda imkonsiz hech narsa yo'q, men qanday bo'lsa ham, sizlarning uchrashishingizga yo'l topaman. Sen Dilshodga maktub yozib menga berishing kerak, nega deganingda, maktub bo'lmasa, Dilshod seni Bag'dodga kelganligingga ishonmasligi mumkin. Maktubni olib borib berganimdan so'ng bir vaqtni tayinlaymiz. Malika qasrda yo'q vaqtida Dilshodni oldingga boshlab kelaman. Ammo senga oldindan shuni aytib qo'yayki, Dilshodni ko'rsang tanimaysan. U shu qadar go'zallashib ketganki, hozir Bag'dod

go‘zallarining ichida yagonasi shu hisoblanadi. Bechora qiz mening Bag‘dodga kelganimni ko‘rib juda ham suyundi. Tasavvur qilolmayman. Kecha-kunduz bir xonadamiz, tong otguncha dardlashamiz, nega deganda, ikkimiz ham baxtsizmiz. Qizning xayoli, fikri va zikri faqat Faxriddin.

Faxriddin qizning mushkul ahvolda qolganligini eshitib, nima qilishini va qizga qanday najot berishini bilmas edi. U hayajonli bir holatda qo‘lini bir-biriga urib dedi:

— Bilmayman, u hayosiz Qatiba baxtsiz qizdan nima istaydi? Go‘ringda to‘ng‘iz qo‘pgur otasi qizning saodatini qo‘lidan tortib olgani ozmidi? Qizni vatanidan, elidan ajratib, Bag‘dod qasriga jo‘natgani kamlik qilgan ekanmi? Ajabo, bechora qizni asirlikda ham tinch qo‘ymaydilar. Bilmayman, men o‘z intiqomimni u hayosiz xotindan qanday yo‘l bilan olsam bo‘larkin?

Sabo xonim uni yupatdi:

— Hozir bunday gaplarning vaqti emas, sen bu so‘zlarni birovning oldida gapira ko‘rma. Bilasanki, dushmaning ko‘p. Xususan, Husomiddin kabi dushmanlaringni unutmasliging kerak. Bu yerni Bag‘dod deydilar. Bu yerda har xil ayg‘oqchilar bo‘lishi mumkin. Sendan o‘tinib so‘rayman, tanimagan, bilmagan joylarga borma. Men bir narsani bilmasam gapirmayman. Bu yerda go‘zal xotinlar, minglarcha dinorga sotib olingan husn-jamolda misli ko‘rilmagan joriyalar bor. Ular seni aldab shaharning xilvat joylariga olib borib o‘ldirib yuborishlari mumkin.

Sabo xonim Faxriddinni o‘zining kamoli sadoqatli ekaniga ishontirdi. Shuning uchun ham Faxriddin Dilshodga maktub yozib, Bag‘dodda ekanligini bildirishga jazm qildi. Sabo xonim maktubni Amin qasri darvozasi oldida kutardi. Faxriddin maktubni juda qisqa yozdi. Chunki Sabo xonimning o‘zi qisqa yozishni ta’kidlagan edi.

Maktub quyidagi mazmunda edi:

“Jonim Dilshod!

Bag‘doddaman, sen bilan yaqin orada ko‘rishaman.

Faxriddin”.

Sabo xonim maktubni olib yo‘lga tusharkan, Faxriddindan:

— Sen qay vaqtda bu yerda bo‘lasan? — deb so‘radi.

— Erta bilan, nonushtadan keyin.

— Balki ertaga kechqurun sizlarni uchrashtirgani olib borarman.

Faxriddin Sabo xonimga tashakkur aytib, uning qo'liga yigirma tilla tutqizdi. Sabo xonim pulni olib cho'ntagiga solganidan so'ng:

— Nima, men bu xizmatni faqat pul uchun qilarmidim? — deb jo'nab ketdi.

Qatiba Xuld qasrida o'tirib Sabo xonimning qaytishini kutardi. U o'zicha: "Otamning qotilini shu yerda yo'q qilmasam, boshqa yerda qilolmayman. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun Bag'doddan qulayroq joy topolmayman. Uni bu shaharga ajal haydab kelgan", derdi.

Qatiba shu xayollar bilan u yoqdan-bu yoqqa yurar va tez-tez Sabo xonimning kelgan kelmaganligini so'rardi. Nihoyat, kanizaklardan biri Sabo xonimning kelganini aytdi. Qatiba uni darhol chaqirib kelishni buyurdi.

Sabo xonim ichkari kirganida, uning ko'zlarida zo'r bir g'alaba shodligi bor edi. Qatiba Sabo xonimning gapirishiga ham imkon bermay so'radi:

— Qani, ayt-chi, Sabo, qanday xabar keltirding?

Sabo xonim javob berdi:

— Xonim o'ylaganlarini dushmanlari ham o'ylagan ekan.

— Qani ayt, u nimalarni o'ylabdi?

— U necha kundurki Xuld qasrining atrofida yurib malikaning tashqariga chiqishini poylar ekan.

— Uning menda nima ishi bor ekan?

— U malikani o'g'irlab ketib o'ldirmoqchi ekan. U kecha kechasi qasrning darvozasi oldida ekan. Bugun kechasi ham o'sha yerda bo'ladi.

— Uning o'zi shu maqsadini senga aytdimi?

— Uning aytishicha, siz Bag'dodga kelishingiz bilanoq Dilshodni hibsga oldirgan emishsiz. Shuning o'chun ham u sizdan o'ch olmoqchi bo'lyapti.

Qatiba biroz o'ylaganidan keyin sekingina dedi:

— Ko'ramiz, kim kimdan o'ch ola olar ekan.

Sabo xonim Qatibaning qo'liga qarardi. U bu xizmati evaziga Qatibadan mukofot kutardi. Qatiba o'yga tolgan bo'lib, mukofotni xayoliga ham keltirmasdi. Shuning uchun Sabo xonim:

— Mening bor-u yo‘g‘im malikaga qurbon bo‘lsin. Bu xizmatni yolg‘iz malikaning hurmatlari uchun qildim. Faxriddinning qahramonligiga qaramay olib kelib tuzoqqa ilintirib beraman.

Qatiba boshini ko‘tarib Saboning yuziga tikilarkan, jilmayib dedi:

— Ey... tamagar shayton, nima demoqchi ekaningni bilaman. Sen pulsiz, mukofotsiz payg‘ambarga ham salavot aytmaysan. Ol, senga biroz mukofot. Katta mukofotni esa, maqsad amalga oshganidan keyin olasan.

Qatiba shunday deb Sabo xonimga yuz tilla berdi. Sabo xonim esa tillalarni cho‘ntagiga solarkan, ko‘nglida: “Bu savdo-sotig‘im yomon bo‘lmadi” derkan, Qatibaga murojaat qilib:

— Endi bir-ikki kalimadan iborat maktub yozishingiz kerak, — dedi.

— Qanaqa maktub?

— Dilshod tilidan Faxriddinga bunday mazmunda xat yozing: “Mening jonim, Bag‘dodda ekansan, ishqingda butun borlig‘ini qurbon etishga tayyor bo‘lgan asirangni unutma, uchrashgani tez-tez kelib tur”.

Qatiba qalamni olib Sabo xonimning aytganlarini yozdi-da, imzo chekib, Sabo xonimga topshirdi, keyin Husomiddin bilan uchrashib, masaladan uni xabardor qilish uchun ikkinchi xonaga o‘tdi. Sabo xonim esa Qatibadan olgan xatning imzo qilingan joyini qirqib oldi-da, xaxolab kulib dedi:

— Bu vasiqa ham yomon bo‘lmadi. Bu maktubni Qatiba nomidan Husomiddinga yozilganligiga kim ishonmaydi. Ajabo, Otabek o‘z xotinining xatini tanimaydimi? Yomon bo‘lmadi, bu savdo-sotiqdan katta manfaat topadigan bo‘ldim. Qatibaning Husomiddin bilan aloqasini isbotlash uchun bundan kuchliroq dalil bo‘larmidi?

Sabo xonim chiqib ketdi. Birozdan so‘ng Qatiba bilan Husomiddin xonaga kirib kelishdi. Qatiba deraza oldiga o‘tirib juda ehtiyotkorlik bilan sekingina dedi:

— U ham biz o‘ylagan narsani o‘ylagan ekan.

Husomiddin taajjub bilan so‘radi:

— Biz o‘ylagan narsani o‘ylagani nimasi?..

— Sabo xonim hozir uning oldidan keldi. U ikki kechadan beri meni o'ldirish qasdida Xuld qasrining atrofida aylanib yurgan ekan.

— Bu ish uning qo'lidan kelmaydi, bu yerni Bag'dod deydilar. Lekin buni biz uddalaymiz.

— Sabo xonim uni tayinlangan qasr darvozasi oldiga olib keladi. Uning yomon niyatiga bir yo'la chek qo'yish kerak.

Husomiddin xayolga toldi. Uzoq o'yladi. U Qatibaning taklifini birvarakayiga hal qilishdan ojiz edi. Xuld qasri oldida Faxriddinni tutib o'ldirishning iloji yo'q edi, shuning uchun u Qatibaga bunday maslahat berdi:

— Xuld qasri oldida Faxriddindek odamni o'ldirib bo'lmaydi, avvalo, u uch-to'rt odamga bo'sh keladiganlardan emas. Ikkinchidan esa, u Ozarbayjon vakillarining boshlig'i, uni bu yerda, qasrning oldida o'ldirish yangi xalifaga ham xush kelmaydi. Mening fikrimcha, tamomila boshqa bir chora topishimiz kerak. Bu yer Bag'dodku. Bu yerda xilma-xil fitnachilar bor. Minglarcha xilvat joylar, mayxona va islovotxonalar bor. Faxriddinni o'sha joylarning biriga olib borib zaharlab o'ldirish lozim. Bu yerda mening tanishlarim ko'p. Shunday bir joy topa olaman. Sabo xonim esa uni aldab o'sha joyga boshlab borishi kerak.

Qatiba gulday ochilib ketdi va xandon chehra bilan:

— Shunday qilish mumkin, — dedi, — U Dilshod bilan uchrashish uchun har qanday joyga boradi. Sabo xonim shu ishni bajarish uchun mening jonimga ont ichdi.

— Men bu haqda malikaga so'z beraman. Lekin sabrning ham chegarasi bor. Malikaga yolvoraman. Bag'doddamiz, hammasiga imkoniyat bor. O'tinaman, malika mening xursandlik soatlarimni kechiktirmasin.

— Men seni g'am-g'ussa va motamdan adoyi tamom bo'lgan bir xotinga emas, balki shod-xurram va boy-badavlat bir xotinga ega bo'lishingni istayman. Men hayotimizni qayg'u-hasratlar bilan emas, shodiyona bayramlar bilan boshlanishini xohlayman. Sen sovuq bir motamzada haykalni emas, qalbingga harorat, hayotingga bezak beradigan bir quvnoq dilbarni bag'ringga bosishingni istayman.

Qatiba shunday deb, birinchi martaba quchoq yozib Husomiddinning bo'yniga tashlandi va lablarini unga tutdi, lablarini uning lablaridan zo'rg'a ajratib olganidan so'ng:

— Qolgani keyin, — dedi. — Sen mendan Faxriddinning boshini olib kelishga qarzdorsan.

— Bu vazifani yaqin o'rtada bajo keltiraman.

— Sen menga Go'zalning o'g'illarini o'ldirishni ham va'da qilgan eding.

— Malika Hamadonga qaytguncha bu vazifa ham bajarilgan bo'ladi. Bu ishning ortidan Ozarbayjonga ishonchli kishilarni yuborganman.

Qatiba uning lablaridan yana o'pdi-da, ehtiyot bilan dedi:

— Yana bir muhim masala — Sabo masalasi.

— Saboning qanaqa masalasi?

— Men o'ylaymanki, uning Bag'dodga kelishi sababsiz emas. To'g'rul, Zahir Balxiy va Kamoliddinlar bu yerda mening huzurimda bo'lganlarida, Sabo parda orqasiga berkinib bizning so'zlarimizni eshitdi deyishdi.

Husomiddin e'tiroz bildirib:

— Bo'lmagan gap, — der ekan, Qatiba:

— Buni menga xolam Oliyayi Ulyoxonim aytdi. To'g'rul bilan mening o'rtamizda bo'lgan gaplarni Otabekka yetkazguday bo'lsa, biz qanday vaj ko'rsata olamiz... Men ko'pdan beri Sabodan shubhalanib yurardim, To'g'rulning menga yozgan maktubini yo'qotganimdan beri bu qizdan hech ko'nglim suv ichmaydigan bo'lib qoldi, har holda buni yo'q qilish kerak. Ko'p sirlardan voqif bo'lgan yuraklar harakatini to'xtatmoq lozim.

Husomiddin Qatibaning so'ziga qat'iy javob bermadi, chunki u, Sabo xonimni o'z joni bilan baravar ko'rardi. U har qanday sabab bilan Sabo xonimning o'limiga rozi bo'lolmas edi. Shuning uchun ham Husomiddin Qatibani ko'ndirmoqchi bo'lib dedi:

— Malika bu ishni menga topshirishi kerak, unga o'xshagan xotinlarning sir-u asrorini men hammadan ko'proq bila olaman. Malika shuni yaxshi bilishi kerakki, Sabo xonim hech qachon meni sotmaydi. U meni qalbidan sevadi, agar malika rashk qilmasa, men Sabo xonimning og'zini bog'lash uchun unga yaqinroq bo'la olaman.

Qatiba soxta e'tirozli boqish bilan:

— Sen meni yana kuydirishni xohlaysanmi? — der ekan, Husomiddin:

— Xudo ko'rsatmasin, men malikani bu xatarlardan xalos etish uchungina bu razil xotinga yaqinlashish azobini bo'ynimga olmoqdaman, — dedi.

Qatiba yig'lamoqchi bo'ldi, soxta bir ovoz bilan sekingina:

— Yaqinlash, lekin... ijozat bermayman, — dedi.

* * *

Faxriddin Sabo xonimning jon kuydirib bergan topshiriqlarini unutishni istardi, shu bilan birga, qayiqda tanishgan ayol bilan uchrashishga borish fikridan ham qaytmoqchi bo'ldi. Kechagina mehmon bo'lgan, hatto, uyida qolib istirohat qilgan kibor va katta obro'ga ega bo'lgan ayolni unutishni o'z vijdoniga sig'dirolmadi. O'z shubhalarini yengish uchun ko'nglida: "U menga biror yomonlik sog'inganida, birinchi kunning o'zidayoq qilgan bo'lardi. U ayolning harakatlarida ham, ko'z qarashlarida ham biror xiyonatdan asar yo'q edi", deb o'ylardi.

Faxriddin yana: "Mening bunday xotinlarga qanday ehtiyojim bo'lishi mumkin? Bir amallab Dilshodning turgan joyini bilib oldim. Sabo xonim ham bizni uchrashtirish vazifasini zimmasiga oldi, endi u ayolda nima ishim bor? Men Bag'dodga sayohat uchun kelganim yo'q-ku", — derdi.

Baribir Faxriddin yana o'sha ayolning marhamatlarini, izzat-hurmatlarini, samimiy ko'z qarashlarini unuta olmasdi. Uning yoqimli, hafif ovozi quloqlarida tobora aniqroq jaranglardi. Bu, unda o'sha ayol huzuriga borish orzusini uyg'otardi.

Faxriddin Amin qasridan chiqar ekan, darvoza oldida biroz to'xtab, ikkilangan kishilardek nima qilishini bilmay o'yga toldi, so'ngra ayolga hadya va sovg'alar olib borish fikriga keldi. U Bag'dodning eng ko'rkam do'konlarini, tim ostidagi rastalar va bozorlarni aylandi. Karvon saroylarning birida tasodifan bir yahudiy savdogarga duch kelib, undan qimmatli bir gilamcha oldi. Gilamcha Farg'ona ustalari qo'lidan chiqqan bo'lib, juda zarif va nafis ipakdan to'qilgan edi. Gilamga Durratul-Bag'dodning muhtaram

kishisi bo'lgan Rasofa masjidi oldida tilanchilik qilib o'tirgan ko'r xalifa Muttaqibillohning surati zo'r mahorat bilan ishlangan edi. Gilamchaga qaraganingizda, xalifaning joynamozda o'tirib namoz o'qiyotgan va qo'llarini ko'tarib, ko'kka boqib, Xudoga iltijo qilayotgani tasvirlangan edi. Xuddi tirik odamlarday ishlangan bu surat Faxriddinining diqqatini jalb etdi. U o'z-o'ziga: "Durratul-Bag'dod uchun bundan ko'ra qimmatliroq hadya bo'lmasa kerak", deb gilamchani katta pulga sotib oldi. Faxriddin sholchani olganidan keyin savdogar unga bir ayollar kamzulini ham ko'rsatdi. Kamzul Xitoyda tikilgan eng qimmatbaho kamzullardan bo'lib, savdogarning da'vosiga ko'ra, shu kunga qadar Bag'dodda hech bir ayolda bunday nafis kamzul bo'lmagan ekan.

Faxriddin kamzulni ko'rganida: "Qanchalik qimmat bo'lsa ham o'sha muhtarama ayolga sovg'a qilib olishim kerak", dedi. Faxriddin kamzuldagi yozuvlarni o'qitib eshitarkan xursandchiligidan titradi. Uni kamzulning faqat nafis va go'zal bo'lishigina emas, uning tarixiy bir meros bo'lganligi qiziqtirdi.

Qamzulning ko'kraklarida ipak bilan tikilgan yozuv bor edi:

"Xitoy malikasidan birinchi xalifaning rafiqasi hashamatli malika Ummirumonga tuhfa".

Lekin kamzulni juda ehtiyotlik bilan saqlanganligi ko'rinib turardi, u juda yangi edi.

Faxriddin islom tarixi uchun shu qadar muhim bo'lgan merosni va nafis gilamchani olib ketmoqchi bo'lganida savdogar unga go'zal bir guldon ham taklif qildi. Faxriddin e'tiroz bildirmadi. Yahudiy savdogar kichik bir sandiqchani ochib, ehtiyot bilan paxtaga o'ralgan bir guldonni oldi. Guldonning ustiga Bag'dod hayotining turli manzaralari ishlangan edi. Xususan, guldonda mashhur xalifa Horun ar Rashidning rafiqasi Zubayda xotunga oshiq bo'lib qolgan davridagi ajoyib bir manzara tasvirlangan, unda chiroyli bir bog', katta sarv daraxtlari orasidagi hovuzdan yuqoriga otilib turgan favvoralar bor edi, xalifaning sevib olmoqchi bo'lgani Zubayda hovuzda cho'milar, Horun ar Rashid esa, daraxt shoxlari orasidan yashirinib uni tomosha qilardi.

Faxriddin guldonni ham kamoli mamnuniyat bilan oldi. Savdo bitganidan so'ng Bag'dod savdogarlari xabardor bo'lishib, har taraf-

dan karvon saroyga yopirildilar, narsalarni ko'zdan kechirarkanlar, Faxriddinga foyda bermoqchi bo'lib olgan narsalarini sotishni taklif qildilar. Lekin Faxriddin "sotish uchun olganim yo'q", deb ularning takliflarini rad etdi va bitta hammol chaqirib narsalarni qayiqda Harbiya mahallasiga olib bordi. Tushki ovqat vaqti yaqinlashmoqda edi. Faxriddin ichkari kirishga iymaydi. U ko'nglida: "Tushki ovqat vaqtini mo'ljallaganday kelishim qanday bo'ldi? Ayol mendan kulsa-ya, bu ayni tushki ovqat vaqtiga yetib keldi desa-ya? Ehtimol, tayyorgarligi yo'qdir, to'satdan kelgan mehmon uy egasining xijolat tortishiga sabab bo'ladi".

U qaytib ham ketolmasdi, hammol ham qo'lidagi narsalarni ko'targanicha kutib turardi. Faxriddin nochor hashamatli darvozaning sher boshi shaklida yasalgan bronza halqasini taqillatdi. Birozdan so'ng ayolning joriyasi Tayyiba eshikni ochib Faxriddinni ko'rgan zahoti:

— Mening og'am, hozir, — dedi-da, zinapoyadan yuqori chiqdi.

Bir daqiqa ham o'tmasdan ayolning o'zi ochiq chehra bilan Faxriddinni kutib oldi:

— Hozirgina sizni o'ylab turgandim. Hamma orzularimga shu kundagidek osonlik bilan erisha olsaydim, hech qanday armonim qolmas edi, — deb Faxriddin qo'lidan tutib zinalardan olib chiqdi. Joriyalar hammol olib kelgan sovg'alarni olib, ular ketidan yo'lakka kirdilar. Faxriddin esa hadyalarni xonimga ko'rsatib:

— Muhtaram xonimdan o'tinib so'rayman, mening bu arzimas hadyalarimni qabul qilsin, — dedi. Tayyiba avval guldon o'ralgan qog'ozni ochdi. Ayol guldonni ko'rib hayratda qoldi, shu qadar qimmatbaho va zarif bir guldonni unga sovg'a qilinganiga ishonmadi. Xonim taxminan yarim soatcha guldonni tomosha qildi, undagi manzaralar nimaligi va kimligini tekshirdi.

Ayol Faxriddinga tashakkur bildirib dedi:

— Shunday nodir bir buyum Bag'dod saroylarining hech birida yo'q. Bilmadim, og'am keltirgan shu qadar bebaho sovg'ani qabul qilishga haddim sig'armikan?

Faxriddin ayolga javoban:

— Xonimning martabasi bundan ham baland. Menga nisbatan ko'rsatilgan izzat-hurmatlarining qimmati yuzlarcha bunday

sovg'adan yuksakroqdir. Do'stligimiz davom etarkan, bunday katta iltifotlarning muzdini, albatta, chiqaraman, — dedi.

Bu so'zlardan keyin joriyalardan Mualloxonim gilamin yozib ko'rsatdi. Ayol gilamchaga ishlangan xalifa Muttaqibillohning suratini ko'rarkan, qaltirab ketdi va:

— Oh, mening og'am! — deb gilamchani quchoqladi va ho'ngrab yig'lab yubordi. Faxriddin uni yupatib:

— Sizga gilamchaning bu qadar yomon ta'sir qilishini bilganimda, uni sizga ko'rsatmagan bo'lardim, — deganida ayol ikki qo'li bilan Faxriddinning qo'llarini ushladi:

— Aslo, mening og'am, aslo! Siz meni bu gilamcha bilan yoshlik davrlarimga qaytardingiz. Mening ko'z oldimda doimo xalifa jonlanadigan bo'ldi. Sizning hadyangiz bilan men yana bir marta Bag'dodning mashhur ayoli bo'la olaman. Mening uyim bebaxt xalifa tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylanadi.

Shu suhbatlardan so'ng Tayyiba Xitoy kamzulini xonimga ko'rsatdi. Xonim esa sevinganidan:

— Men ko'pdan buyon shu xil nafis kamzulni orzu qilib yurardim, — deb uni olib o'z xonasiga kirib ketdi. Birozdan keyin kamzulni kiyib ayvonga chiqdi, Faxriddinga yaqinlashib qo'lini uning yelkasiga qo'yarkan, dedi:

— Xuddi menga o'lchab tikilgandek. Siz meni shunchalar qadrlashingizni bilmasdim. Sizning bu yerdan ketishingiz men uchun zo'r bir tashvish bo'ladigan bo'ldi, — deyarkan, Faxriddin:

— Men hali bu yerda uzoq vaqt bo'lishim kerak, ketganimdan keyin ham istagan vaqtingizda huzuringizga yetib kelishga va'da beraman, — dedi. Shunda ayol sovuq bir oq tortib:

— Erkaklarning bir aybi shuki, xotinlardan uzoqlashgan vaqtlarida o'z ko'ngillarini ham o'zlari bilan birga olib ketadilar: chunki ular yuraklarini boshqa bir xotinga tezgina hadya qilishga odatlanganlar, — deb kuldi.

Fahriddin ham kulib:

— Agar yuraklari bilan birga xotin kishilarni ham olib ketaversalar, unda qanday bo'lardi? — deganida ayol:

— Unda har bir erkak o'ziga yuz xotin joylashadigan haramxona qurib olishi kerak bo'lardi, — deb javob berdi.

— Undaylar ozmi?

Ayol biroz o‘ylab turib dedi:

— Bag‘dodning ma’naviy hayotiga dog‘ bo‘lib tushgan va xalifalarning axloqnni buzgan mashg‘ulot ham shu emasmi? Butun dunyoning go‘zal xotin-qizlari Bag‘dodga keltirildi, butun dunyoning oltin va boyliklari Bag‘dodga oqib keldi, bularning hammasi qiz-juvonlarga, haramlarga, aysh-u ishratlarga sarf qilindi, natijada xalifalik taxtiga o‘tirganlarning hukmronlik davri shu qadar qisqardiki, bir xotin kishining homilador bo‘lib tug‘ishigacha o‘tgan davridan ham qisqa. Xalifa Mustaqibilloh xalifalikdan tushganidan so‘ng uning yigirma sakkizta xotinining hammasi bir yil mobaynida tug‘di... Kel, bu musibatlarni bir tomonga qo‘yib, biroz bo‘lsa ham dunyo ishlarini unutaylik, — deb Tayyibani chaqirdi va dedi: — Tayyiba, dasturxon yozinglar, sharob keltiringlar, sen ham, Muallo ham o‘tiringlar, aziz mehmonni xursand qilinglar, chunki men suhbatim bilan xafa qilib qo‘ydim.

Ziyofat qosh qoraygunga qadar davom etdi. Bag‘dod kechasining qora sochli qizi qop-qora shoyi libosini ustiga tashlaganida ayol ham peshonasiga tushgan qora sochlarini surib qo‘yib Faxriddinga tikildi. Uning oldida yigirma besh yoshlardagi, er kishiga xos bo‘lgan fazilatlarning hammasini o‘zida mujassamlashtirgan go‘zal, xushbichim, odobli bir yigit o‘tirardi.

Bag‘dod muhitida o‘sgan, asrning nafis san’ati sohasida eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilgan bir shoir qalbi singari tuyg‘un va hassos bu ayol Faxriddindek purviqor, badavlat bir yigitni sevmay kimni sevardi? Ayniqsa, Bag‘dodda tengi bo‘lmagan bu go‘zal ayolga Faxriddinning yomon nazar bilan qaramagani uning Faxriddinga bo‘lgan havasini yana oshirib yubordi. Chunki Faxriddin o‘z orzusini qo‘ldan bermaslik uchun ayolga ehtiyotlik bilan muomala qilardi. Agar Faxriddin sevgi izhor etguday bo‘lsa, ayol unl boshqalardan rashk qila boshlashi va Dilshodni axtarish masalasiga to‘siq bo‘lib qolishi mumkin.

Durratul-Bag‘dod joriyasi Tayyibani chaqirdi:

— Tayyiba, sen ham, Muallo ham, Bashorat ham tayyorlaninglar. Men bu kechani og‘aning xizmatida Dajlada sayr qilishga bag‘ishlayman, — dedi.

Hamma yoqni qorong'ilik qoplagan edi. Faxriddin bilan ayol va uchta joriya Dajla sohiliga tushib, eng yaxshi qayiqlardan birini tanladilar. Qayiqchiga ayol:

— Bizdan boshqa hech kimni olmaysan, — derkan, arab:

— Xo'p bo'ladi, — deb ko'prikcha tashladi.

Joriyalar olib kelgan taomlarni qayiqdagi xontaxtaga yozdilar, ayol boshidagi chodrasini olib joriyasiga berganidan keyin sayohat uchun zarur bo'lgan narsalarni joylashtira boshladi va Faxriddinga qarab:

— Mening og'am, Xudoga ont ichib aytamanki, o'n besh yil mobaynida sayr-u tomosha uchun biror marta ham qayiqqa tushmagan edim. Hayotimdagi baxtsizligimga ham o'n besh yil bo'ldi, hozircha u ko'ngilsiz tariximni sizga so'zlamayman, chunki har qanday bag'ritosh odam bo'lmasin mening baxtsiz hayotim tarixini eshitganida ko'ngli buziladi. Agar do'stligimiz davom etsa, bir kun o'zim sizga gapirib beraman. Hozircha Bag'dod oqshomiga va Dajla sayriga nimanki kerak bo'lsa o'rniga qo'yishim kerak. O'n besh yildan beri Durratul-Bag'dodning ovozini eshitmagan Bag'dod shahri bu kecha aziz mehmonimizning sharofati bilan eshitadi.

Dajla suvi derazalardan tushib turgan rang-barang shamchiroqlarning shu'lasida baliqday tovlanardi. Turli ranglarda tovlanayotgan to'lqinlar ustida suzib yurgan qayiq oq qanotli kapalak kabi milt-milt etib suzib borardi. Har qayiqdan bir ovoz, har kemadan bir nag'ma eshitilardi. Ayol piyolalarni to'ldirib tabassum bilan Faxriddinga murojaat qilib dedi:

— Ud sozlangan. Endi bo'lsa dillarning pardasini sozlash kerak, chunki barmoqlar faqat ko'ngilning sevgi sirlarinigina tilga kirita oladi. Mening og'am! Men musiqidan dars olganman. Boshqa sozandalarni bilmayman, men o'z fikrim va o'z tushunchalarimni so'zlayman. Bu aytadiganlarimni maktabda o'tganim yo'q, lekin shuni bilamanki, udni sayratadigan ipak torlarning bir uchi sozandaning qalbidadir. Qalbim bilan uning orasidagi nozik torlar uzilguday bo'lsa, udning tovushlari yangramaydi, tilga kirsa ham, ingrasa ham, tinglovchiga zavq berolmaydi.

Bir necha piyola ichilganidan so'ng ayol udni sayratib kuylay boshladi:

Ba rohi Dajla shabam ro'zi ravshan ast imshab,
Zi rangi boda murodam muzayyan ast imshab[1].

Bir lahzada Dajladagi qayiqlardan taralayotgan cholg'u ovozlari tindi. Qayiqlarning ko'pchiligi Durratul-Bag'dod tushgan qayiqning o'ng-u so'lidan va orqasidan ergashdi. Qayiqlarning burun tomoniga urilib o'tayotgan suvning shovqinidan boshqa hech qanday sas-sado eshitilmasdi. Saroy-u qasrlarning derazalaridan minglarcha kishilar Dajlaga boqishardi.

Ayol yana sharob piyolasini to'ldirib Faxriddinga uzatdi-da:

— Ol ich, mening og'am! Bir necha kalima arablar uchun ham kuylayman, kim bilsin, balki shu kechadagi Dajla sayohati so'ngi sayohatimdir, — dedi. Udni chalib arabcha qo'shiq ayta boshladi.

Ayol qo'shig'ini tugatib, udni yerga qo'yganidan so'ng, keksa qayiqchi ayolga o'girilib:

— Ka'batulloga ont ichib aytamanki, sizning ovozingizning malohati faqat Durratul-Bag'doddagina bo'la oladi. Zolimlar Bag'dod xalqini undan mahrum qildilar, — dedi va o'pkasi to'lib nafasi bo'g'ildi.

Faxriddin qayiqchiga savol berdi:

— Nima uchun Bag'dod xalqini undan mahrum qildilar?

Qayiqchi o'g'lini eshkakka qo'yib xontaxta yoniga keldi-da, so'zini davom ettirdi:

— Ular Rey viloyatidan xalifa Muttaqibillohga hadya qilinib yuborilgan bir necha qiz edi. Ularning ichida Durra nomli qizcha ham bor ekan. U juda odobli, barkamol va go'zal qiz ekan. Xalifa qizning ajoyib qobiliyatini ko'rganidan so'ng Bag'dodda mashhur qul, kaniz va cho'rilar bilan savdo qiladigan Fanhosning o'g'liga murojaat qilib, qizning qobiliyatini sinab ko'rishni buyurdi, Fanhosning o'g'illaridan Horun bu sohada juda mohir edi. U qizning xulq-atvori va qobiliyati bilan tanishganidan so'ng xalifaga: "Bu qiz ashula bilan musiqada katta iste'dodli ekan, hozirda Bag'dod ashulachilarining orasida buning ovoziga teng keladigani yo'q", depti. Shundan so'ng xalifa sozanda va xonandalikni o'rgatish

[1] Dajlada kechirgan bu kecham kunduzday ravshan, may rangidan murod-u maqsadnm ziynatlangandir.

uchun qizni Fanhosning tarbiyaxonasiga topshirgan. Shu vaqtda qiz o'n to'rt yoshlarda ekan. O'n sakkiz yoshida u Bag'dodda eng mashhur sozanda va xonanda bo'ladi. U juda go'zal ekan, husnini ko'rgan kishi undan ko'zini uzolmas ekan. Boshingizni qotirib o'tirmayman. Horun qizga qimmatbaho zeb-ziynatlar taqib va bashang liboslar kiydirib xalifa saroyiga olib boradi. Saroydagi kanizak va joriyalar qizni ko'rgach shivirlashib: "Esizgina qiz, sho'rlik uvol, bu kecha keksa xalifaning qo'ynida bo'ladi. Xalifa shunday husnga ega bo'lgan qizni hech qachon qo'ldan chiqarmaydi", deyishibdi. Qizni xalifa huzuriga olib kelingan kuni fitr bayrami ekan. Xalifd Bag'dod shahzodalari va a'yonlari uchun katta bayram ziyofati berar ekan. Ziyofatga Bag'dodning mashhur xonanda-yu sozandalaridan ko'pchiligi aytilgan ekan. Xalifaning shaxsiy suhbatdoshi Abuddor maktabni tugatgan qizlardan birini keltirilganini xabar qiladi. Xalifa qizni chaqirishga buyruq beradi. Ziyofat qatnashchilari xonanda qizlarning ovozlarini ham unutib, o'sha qizning husniga mahliyo bo'lib qolganlar. Majlis ahli bir-biriga qarab: "Hozirga qadar Bag'dod shahri bunday go'zalni ko'rmagan edi", — deb pichirlashibdilar. Xalifa qizni ko'rishi bilan: "Subhonollo, bu qanday go'zal vujud, — debdi va qizdan so'rabdi: — Sening isming nima?"

Qiz ismim Durra debdi. Xalifa uning yoniga borib: "O'z ismingni yarimta qilma! Sening isming Durratul Bag'doddir", debdi. Xalifaning ruxsati bilan qiz o'tiribdi. So'ngra xalifa o'rgangan narsalaringni namoyish qil deb buyuribdi. Qiz shunday chalib ashula aytibdiki, xalifa va uning ziyofatidagilar o'zlarini unutib qo'yibdilar. Xalifa o'rnidan turib uning peshonasidan o'pib: "Seni cho'rilikdan ozod qildim,— depti. — Sen cho'ri emas musiqa muallimasi bo'lishing kerak, sen bu sohada hammadan ko'ra ko'proq foyda keltira olasan". Shundan so'ng xalifa unga mol-u davlat va katta bir qasr bag'ishlagan. Xalifa unga hamisha: "Qizim, men uchun bir ashula aytib ber!" der ekan. Xalifa qilgan hadyalarning ko'pligidan u Bag'dodning eng badavlat qizlaridan biriga aylangan. Bag'dodda uning ovozini eshitish uchun minglarcha tillalar sarflaganlar ham bo'lgan. Lekin uni baxtini qora qilishdi. U go'zal bir yosh yigitga unashtirilgan edi. Yigit g'oyatda mard

va badavlat edi. Butun Bag'dod yoshlari unga hasad qilishardi. Nihoyat, xalifa Qohirubillohning jiyanining buyrug'i bilan yigitni aldashib Madoyin shahri xarobalarini tomosha qildirish uchun sayohatga olib borib o'sha yerda uni o'ldirib Dajlaga tashlaganlar, murdasi ham topilmaydi. O'sha zamondan beri u qizning ovozini ham hech kim eshitmaydi. Bu kecha xonim qo'shiq aytganida, men o'sha baxtsiz qizning ovozini esladim. Eh, Bag'dod, yana bir martaba o'shanday xonandani ko'ra olarmikan!..

Qayiqchi so'zini tugatarkan, Faxriddin ayolga savol berdi:

— Cholning aytganlari to'g'rimi?

— Tamomila to'g'ri. Ilovaga hojat yo'q. Bu dostonni Bag'dodda hamma eshitgan.

— Ajabo, o'sha Durratul-Bag'dod sizmisiz?

— Ha, o'sha baxtsiz hozir qarshingda o'tiribdi. Sen meni shodligidan kuyladi deb o'ylama. Shu kechadagi Dajla sayohatini baxtsiz erimning xotirasi uchun o'tkazyapman, chunki aziz mehmon mening halok bo'lgan erimga juda-juda o'xshab ketadi. Shu sababdan men bir necha soatgina bo'lsa ham o'tmishimga qaytishni istadim.

— Eringiz arab edimi?

— Yo'q, arab ham, fors ham emasdi. U Oron degan yurtdan Bag'dodga harbiy xizmatga kelgan edi.

— Ismi nima edi?

— Baxtsizning ismi Sadriddin edi.

Faxriddin yig'lab yuborib, ayolning peshonasidan o'pdi-da:

— U mening akam ekan. U mening akam qahramon Sadriddin ekan,— dedi. Ayol hayratda uning yuzita harab:

— Ajabo, sen farg'onalik Umarxon emasmisan?

— Yo'q, men ozarbayjonlik Faxriddinman.

Ayol hayajon bilan:

— Faxriddin? — deb so'radi.

— Ha, Faxriddin.

— U menga onasining nomi Sanobar ekani va Faxriddin degan ukasi borligini aytgan edi.

Faxriddin yig'lab:

— Ha, bechora onam hali ham uning yo'liga ko'z tutmoqda, — dedi.

Birgalikda uyga qaytdilar. Faxriddin unga o'z dardini ochdi va nima uchun kelganligini aytdi.

Ayol esa biroz o'ylaganidan so'ng:

— Susanxonim xalifaning uyida. Men unga dars beraman. Dilshod esa boshqa qizlar bilan birga Fanhosning tarbiyaxonasida. Susan bilan ko'rishish mumkin. Lekin Dilshod turgan joyga borish uchun yangi xalifaning ruxsati bo'lishi lozim, chunki u yerdagi joriyalarning hammasi xalifalar va shahzodalarga tobedir.

Faxriddin xayolga cho'mdi. U sukut qilardi. Nihoyat, ayol sukutni buzib sekingina dedi:

— Sen sal ehtiyotroq bo'lishing kerak. Bundan ikki kun muqaddam xalifa saroyida eshitgan gaplarimning ma'nosiga endi tushundim. Sen Dilshodni axtarib Xuld qasri oldiga borganmiding?

— Ha, borgan edim.

— Sen bilan marhum xalifaning nabirasi Qatiba xotunning oralaringda biror gap o'tganmidi?

— Mening u bilan hech qanaqa ishim yo'q.

— Sendan boshqa ham biror ozarbayjonlik Bag'dodga kelganmidi?

— Katta bir vakillar hay'ati kelgan. Men ularga boshchiman.

— Endi masala oydinlashdi. Men saroydaligimda xalifaning kichik qizi Oliyayi Ulyo menga Ozarbayjon vakillarining boshlig'i Xuld qasri atrofida aylanib yurganga o'xshaydi. U Otabek Muhammadning rafiqasi Qatiba xotunni o'ldirmoqchi emish, dedi. Shuning uchun sendan o'tinaman, u tomonlarga borma. Qani, ayt-chi, ular sening oldingga kimni yuborishdi?

— Qatiba xotunning joriyasi kelib, meni Dilshod bilan uchrashtirish uchun harakat qilayotganini aytdi.

— Sen amin bo'lginki, ular seni halok etishmoqchi. Bu sirni hech kimga aytma, chunki meni saroyning sirlarini oshkor etishda ayblab badnom qilishlari mumkin. Lekin yoningga kelgan xotindan qo'rq, u aytgan joylariga qadam bosma, ular nima desalar hammasi yolg'on. Dilshod saroyda emas.

Shu so'zlardan so'ng Faxriddin Sabo xonimning yana aldaganini angladi va ayolga tashakkur aytdi.

Faxriddin Amin qasri zinapoyalaridan tushib, ko'chaga chiqqan paytida, eshik oldida Sabo xonimni u yoqdan-bu yoqqa zir yugurib turganini va tez-tez Amin qasri darvozasiga qarab-qarab qo'yayotganini ko'rdi.

U Sabo xonimning nima uchun kelganini darhol anglab, ochiq chehra bilan unga yaqinlashib:

— Sevimli do'stim, albatta, quvonchli xabar keltirgan bo'lsa kerak, — deganida Sabo xonim ham:

— Men umrimda biror kimsaga ko'ngilsiz va qayg'uli xabar keltirishni istagan emasman. Shukurki, ko'p qiyinchiliklardan so'ng seni maqsadingga yetkazadigan bo'ldim. Bu kecha Dilshodni Dajla daryosida sayohat qildirish bahonasi bilan saroydan olib chiqaman, sen Xuld qasrining oldida meni kutishing kerak, Dilshodni Muxtola xotunning uyiga olib borib qo'yganimdan keyin, bu yerga kelaman-da, seni olib ketaman, — dedi.

— Muxtola deganing kim?

— Muxtola dallollik bilan shug'ullanadigan bir xotin. Uyi ham uncha uzoq emas. Shamsiya mahallasida. U bizdan ko'p haq talab qilmaydi. Muxtola xotunga yigirma tilla berishimiz lozim, saroyning darvozabonlariga ham yigirma tilla berib ularning og'zini yopish kerak bo'ladi. Dilshod bilan quruq dasturxon ustida uchrashmaslik uchun ham ba'zi narsalar olishga to'g'ri keladi. Bunga ham hech bo'lmaganda yigirma tilla berishing kerak. O'zim bo'lsam senga xolisonlilloh xizmat qilaman. Sendan hech narsa tama qilmayman.

Faxriddin Durratul-Bag'dodning aytganlarini esladi. Sabo xonim uni jallodlar qo'liga topshirish uchun tayyorgarlik ko'rayotganini payqadi-da, sir boy bermaslik uchun kulib turib undan mamnun bo'lgan kishidek dedi:

— Men senday samimiy bir do'st orttirganim uchun o'zimni haddan ziyoda baxtiyor hisoblayman. Bilasanmi, Sabo xonim, hozir ham men sening go'zalliging, uddaburonliging va nazokatingni Dilshodda bo'lgan fazilatlar bilan taqqoslamoqdaman. Ko'rib turibman, Dilshod singari qizlar sening tirnog'ingga ham arzimaydi. Men bugun Dilshodni ko'nglimdan chiqarib tashlab, qalbimni

sening qo'lingga topshiraman. Men endi muhabbatni davom ettirishga qiziqmayman. O'zing bilarding-ku, bir vaqtlar men senga oshiqi shaydo edim.

Sabo o'ylanibroq dedi:

— Nega bilmas ekanman?

— Endi-chi, qalbingda o'sha sevgidan ozgina bo'lsa ham qolganmi?

— Sening samimiy muhabbatingga ishona olsaydim, men yolg'iz seniki bo'lardim.

— Mendan biror vafosizlik ko'rdingmi?

— Sen bir vaqtlar meni tamomila unutib yuborganding.

— Bunga o'zing sabab bo'lgansan. Endi bo'lsa nima deysan, deb sendan so'rayapman.

Sabo xonim Faxriddin o'zini shunday muhabbat bilan qarshi olishiga sira ishonmasdi. Uning uchun bu taklif juda qulay edi, chunki u Otabek Muhammad bilan Qatiba orasida tug'dirgan fitnalaridan muvaffaqiyat bilan qutulib chiqa olishiga ishonolmas edi. U Qatibaning hamma sirlarini Otabekka yetkazib bo'lgan edi. Hatto, Qatibani aldab Dilshod tilidan Faxriddinga yozilgan: "Mening jonim! Bag'dodda ekansan ishqing yo'lida butun vujudini qurbon qilishga tayyor bo'lgan asirangni unutma: tez-tez ko'rishgani kelib tur!" mazmunidagi maktubni ham Otabekka jo'natib, maktubni Qatiba tomonidan To'g'rulga yozilgan deb xabar qilgan edi. Sabo xonim o'zi boshlagan bu xavfli o'yinning ijobiy natija berishiga umid bog'layolmasdi. U qanday bo'lmasin, biror obro'li kishiga bog'lanib poytaxtdan qochish fikriga tushib qolgan edi. Sabo xonim agar Faxriddin uni muhofaza qiladigan bo'lsa, Ozarbayjonda erkin yashay olishini yaxshi bilardi, unga na Qatiba va na boshqalar daxl qila olardi.

Sabo xonim endi Faxriddinni halok etish haqida emas, balki uni omon saqlash haqida o'ylardi. U shunday fikrlar ta'sirida qolib Faxriddin yuziga qaradi-da, uyala-uyala dedi:

— So'zim so'z. Mening aziz do'stim, so'zlaringdan butun yoshligim xotiralari jonlandi. Lekin sendan bir iltimosim bor. Qatibadan ehtiyot bo'l. U seni o'ldirmoqchi. U otasi o'limini sendan va Nizomiydan ko'ryapti. Husomiddinga bu haqda Qatiba far-

moyish bergan. Husomiddin seni ham, Otabekning ikki o'g'lini ham, Nizomiyni ham o'ldirishni zimmasiga olgan. Bilishimcha, Nizomiyni o'ldirish uchun bundan ikki kun oldingi mushovira-kengashda qaror qilingan.

— Qaysi mushovirada? Mushovira qayerga chaqirilgan edi?

— Mushovirani Qatiba xotun Mustarshidbillohning saroyida o'tkazgan edi.

— Mushovnrada kimlar ishtirok etdi?

— Mushovirada Zahir Balxiy, shoir Kamoliddin va Sulton To'g'rul ishtirok etdilar. U yerda sen bilan Nizomiyni qatl ettirishga hukm chiqarildi. Seni bu yerda, Nizomiyni esa, Ganjada qatl ettirmoqchi bo'ldilar.

— Qanday qatl ettirishmoqchi bo'lganlarini bilmadingmi?

— To'g'rul uch kishini Ganjaga jo'natadi. Shoirga To'g'rulning maktubini olib borib undan "Xisrav va Shirin" degan doston yozishni iltimos qilinadi. Ularning yo'l-yo'riqlari bo'yicha tayinlangan kishilar Nizomiyni o'z uyida o'ldirishmoqchi.

— Ganjaga maktub olib boruvchilarning otini bilasanmi?

— Bilaman.

— Kimlar?

— To'g'rulning maktubini olib boruvchularning biri uning shaxsiy kotibi Abulqodir, ikkinchisi uning xos qullaridan Jamod, uchinchisi esa Mulhimdir.

— Ular yo'lga chiqdilarmi?

— Yo'q, hozircha shu yerdalar. Ertaga yo'lga chiqish ehtimollari bor. To'g'rul nomidan maktub yozish Zahir Balxiy bilan Kamoliddinga topshirilgan. Hozircha o'zingning ehtiyotingni qila bilsang edi, keyin Qatibaning intiqomidan qutula olarding. Qatiba Otabek huzurida avvalgi mavqeyidan mahrum bo'lgan. U halokat yoqasida. Xotirjam bo'laver, uning hayotini zaharlashga o'zim kirishganman. Axir sen, mening qudratimni bilasan-ku. Lekin biror hodisa ro'y bergudek bo'lsa, meni muhofiza qilishga so'z berishing kerak.

— Amin bo'l. Ozarbayjonda hech kimsa sening harom tukingni ham shilolmaydi. Lekin sen men bilan samimiy va yaqin munosabatda bo'lishing kerak, u makkor xotinga aldanmaslik

kerak. U qilayotgan ishlarning hammasi vatanimizga zarar yetkazadi.

Uzoq so'zlashganidan so'ng Sabo xonim mahzun bir holatda Faxriddinning qo'lini siqib:

— Afsuski, biz ertaga erta bilan soat sakkizda Bag'doddan jo'nab ketamiz, chunki Otabek bir kun oldin Hamadondan Bag'dodga jo'nagani haqida xabar keldi.

— Zahir Balxiy bilan To'g'rullar ham jo'nashadimi?

— Bu yerda faqat Husomiddin qoladi. Sen undan ehtiyot bo'l. U sening boshingni kesib Qatibaga olib borganidagina Qatibaga ega bo'la oladi.

Faxriddin suiqasd haqida maxsus chopar orqali tezlik bilan Ganjaga xabar berish uchun Sabo xonim bilan xayrlashib uzoqlasharkan:

— Amin bo'l, seni Ozarbayjonga olib ketaman,— dedi.

Faxriddin Amin qasriga qaytib kelib, o'zi turgan xona eshigini ichdan berkitib maktub yoza boshladi:

"Muhtaram va aziz do'stim, buyuk shoirim! Bugun besh kundirki, Bag'doddaman. Men hozirgi Bag'dodni ko'rarkanman, uning farovonlik davrida bu yerda qanday qiyomatlar bo'lganini tasavvur etdim. Men bu yerdagi qasrlar, saroylar va koshonalarni ko'rarkanman, islom dunyosining yo'qsil va tilanchilar holiga tushib qolganining sabablarini aniqladim va bizga din olib borgan xalifalar poytaxtida buyuk bir dinsizlik hukm surganiga ishonch hosil qildim. Xalifalar faqat o'zlari uchun emas, sevimli kanizaklari uchun ham shohona saroylar, qasrlar qurdirganlar.

Senga yozib yuboradigan shu qadar ko'p masalalar borki, erinmay o'tirib yozilsa, bir kitob bo'ladi. Hali Otabek Muhammadning o'zi Bag'dodga yetib kelgancha yo'q. Malikasi shu yerda. Malika Zahir Balxiy, Kamoliddin va Husomiddinlarni atrofiga yig'ib bir necha suiqasdlar tayyorlabdi. Bu guruh badbaxt To'g'rulni ham o'z quroliga aylantiribdi. Men sening nasihatlaringni unutib qo'yib yana o'sha olchoq Sabo xonimga ishondim. U meni Dilshod bilan uchrashtirish bahonasida o'limga olib bormoqchi ekan, lekin tole meni u axloqsizning panjasidan qutqardi. Natijada men uni aldadim. U menga katta bir suiqasd sirini ochib berdi. Meni o'ldirishni Husomiddin bilan Sabo xonimga topshirgan ekanlar.

Seni o'ldirishni esa To'g'rulning kotibi Abulqodirga, uning shaxsiy quli Jamod bilan Mulhimga topshirgan ekanlar. Ular senga To'g'rulning maktubini olib borishadi. Maktubda To'g'rul sendan "Xisrav va Shirin" dostonini yozishni iltimos qilgan bo'ladi. Ular seni o'ldirish uchun boshqa odamlarini ham olib borishadi. Iltimos qilaman, beparvo bo'lma. Alouddinga ham maktub yubordim.

Bag'dod, Faxriddin".

XALIFANING QIZLARI

Bugun Durratul-Bag'dod qayninisi Faxriddinning sharafiga katta bir ziyofat bermoqda edi. Ziyofatda o'lgan xalifa Mustarshid-billohning qizlari, kanizaklar, Bag'dodning musiqa va nafis san'at xodimlari va boshqalar bor edi.

Peshin namozidan bir soat keyin Durratul-Bag'dod qasri oldida xalifa Mustarshidbillohning qizlari bilan joriyalarini olib kelgan shoyi pardali taxtiravonlar kelib to'xtadi.

Yashil atlasdan kamzul kiygan, peshonalariga yashil shoyidan durrachalar o'ragan go'zal qizlar tovus singari gulzor xiyobonlarini tomosha qilarkanlar, o'zaro allanimalarni gaplashib qah-qah urib kulishardi. Ganjadan qirq bitta qiz bilan birga amir Inonj tomonidan xalifaga hadya qilib yuborilgan Susan ham xalifaning qizlari bilan birga Durratul-Bag'dodning ziyofatiga kelgan edi. Unga vaqti g'animatda Faxriddin ziyofatga kelgan mahalda, tanish ekanini bildirib qo'ymasligi lozimligi aytilgan edi, chunki xalifaning qizlari Faxriddin Dilshodni izlab kelganligini bilmasliklari kerak edi.

Xalifaning qizi Oliyayi Ulyo Durratul-Bag'dodga murojaat qilib:

— Muallima bizni o'z qaynisi bilan tanishtirishni istamaydimi? — derkan, u qizlarni qo'llaridan ushlab yuqori qavatga boshlab chiqdi. Faxriddin muallimlar va san'atkorlar bilan shirin suhbatda edi va Bag'dod xalqining odat va rasm-rusumlari haqida ma'lumot to'plardi.

Faxriddin yashil shoni libos kiygan qizlarni ko'rgan zahoti ular xalifaning qizlari ekanlarini angladi: chunki rasmiy ziyofatlarda

Abbosiy xalifalarning erkaklari qora, xotin-qizlari esa yashil libos kiyishni rasm qilgan edilar.

Durratul-Bag'dod Faxriddinning qo'lidan tutib qizlarga:

— Muhtaram qaynim Faxriddin bilan tanishinglar, — dedi.

Xalifaning qizi Oliyayn Ulyo Faxriddin bilan tanishganidan so'ng Durratul-Bag'dodga qarab:

— Qaynim keldi demaganingda, men og'ani ko'rishim bilanoq rahmatli Sadriddin qaytib kelibdi deb o'ylagan bo'lardim, — dedi.

Durratul-Bag'dod ham o'z javobida:

— Mening o'zim ham muhtaram qaynimni ko'rishim bilanoq shunday deb o'ylagandim. Hozir ham muhtaram Faxriddinning kelishi bilan o'zimni Bag'dodning eng baxtiyor ayollaridan hisoblayman, hatto, qaynonam ham sihat-salomat ekanlar, — dedi va xalifaning qizlarining qo'lidan ushlab ilova qildi, — endi kelinglar, sizlarga qaynim menga atab olib kelgan sovg'alarini ko'rsatay.

Mehmonlarni, xalifaning qizlarini sovg'alar qo'yilgan xonaga olib kirdi. Xalifaning qizi Oliyayi Ulyo ichkariga kirishi bilan darhol qaytib chiqib uy egasiga dedi:

— Tura turaylik, anavi chol namozini o'qib tugatsin, uni bezovta qilmaylik!

Ayol kulimsirab javob berdi:

— Ichkarida hech kim namoz o'qiyotgani yo'q. Ko'rganingiz Muttaqibillohning surati ishlangan gilamcha. Bu so'zdan hamma mehmonlar hayron bo'lishib, ichkariga kirishga shoshilishdi. Bir lahzada hammalari gilamcha atrofiga to'planishdi. Gilamchani tomosha qilisharkan, har qaysisi har xil baho berardilar.

Nihoyat, Durratul-Bag'dodning o'zi gilamchaning qimmati haqida dedi:

— Gilamchani qaynim menga atab olib kelishi uning haqiqat qimmatidir.

Bu so'zni meqmonlarning hammasi bir og'izdan ma'qulladilar.

Undan so'ng chinni guldon qo'yilgan katta xonaga kirdilar. Guldonni tomosha qilgan mehmonlar: "O'tmishdagi Bag'dod qasrlarining uchala tomonini ham shu antiqa guldondagi manzaradan tomosha qilsa bo'ladi", dedilar. So'ngra Durratul-Bag'dod xotinlarni boshqa bir xonaga olib kirib Abubakirning rafiqasi Um-

mirumon uchun Xitoyda to‘qilgan va Xitoy malikasi tomonidan hadya qilib yuborilgan kamzulni ko‘rsatgach, uni egniga kiydi.

Xalifaning qizi bu ajoyib kamzulning ko‘kragidagi yozuvlarni o‘qigandan so‘ng Durratul-Bag‘dodning yuzidan o‘pdi:

— Shu kunda ham mening ustozim islom dunyosining eng badavlat ayollaridan biridir. Gilamcha bilan guldon naqadar nafis va naqadar qimmatli bo‘lsa-da, xitoy kamzuli islom tarixi uchun muqaddas bir meros bo‘lib, taqqoslab bo‘lmaydigan darajada bir qimmatga molikdir.

Mehmonlarning hammasi bu antiqa buyumlar atrofidan ketisha olmasdi. Ularning har qaysisi guldon haqida o‘z fikrlarini bayon qilardilar, Faxriddin orqada turib mehmonlarning so‘zlarini eshitardi. Shu paytda Susan Faxriddinning yoniga kelib asta so‘radi:

— Bag‘dodning hashamatli qafasidan bizni qutqara olasanmi? Bilmadim, Dilshodni ko‘ra olasanmi, yo‘qmi? Chunki uning yoniga kirish juda mushkul. U kecha-yu kunduz yig‘lagani yig‘lagan.

Faxriddin sekin dedi:

— Susan, amin bo‘l! Sizlarni xalos etmay turib Ozarbayjonga qaytmayman. Lekin mening bu niyatimni hech kimsaga bildirma.

Oliyayi Ulyo hadyalarni juda diqqat bilan ko‘rganidan keyin Faxriddinning yoniga kelib Durratul-Bag‘dodga ko‘rsatgan iltifoti uchun tahsin aytdi va hadyalarni maqtadi.

Xalifaning qizlari ko‘zlarini Faxriddindan uzmasdilar. Lekin Faxriddin arabchani yaxshi bilmagani sababli bular bilan tarjimon orqali gaplashishga majbur edi. Ammo xalifaning kenja qizi Mutarroxonim Faxriddin bilan fors tilida juda erkin gaplasha boshlab:

— Durrani olib ketgani keldingizmi? — deganida Faxriddin ham:

— Bu xonimning o‘z xohishiga bog‘liq, — dedi. Durratul-Bag‘dod esa:

— Mening xohishim qaynilarim bilan qaynonamni Bag‘dodga olib kelish, agar bunga erisholmasam, o‘zim ularni ziyorat qilgani boraman,— dedi.

Sozanda va xonandalar soz chertib ashula aytishga boshladilar, hamma ayvonga qaytdi. Dasturxon ustida qovurilgan parrandalar, baliqlar, guruchdan pishirilgan xilma-xil ovqatlar, Bag‘dodga xos

shirinliklar, holvalar va hokazolar bor edi. Ichiga muz solingan sharbat va eskanjabil mehmonlarning sevimli ichimliklaridan edi.

Xalifaning qizlari Oliyayi Ulyo bilan Mutarroxonimlar Durratul-Bag'dodga:

— Iltimos qilamiz, muhtaram og'amizni olib birgalikda Xuld qasriga boring! — deb iltimos qildilar.

Hammadan keyin Mutarroxonim Faxriddinga yaqinlashib so'radi:

— Qani ayting-chi, yangi xalifaning taxtga o'tirishi munosabati bilan tashkil qilinadigan to'p va chavgon musobaqasida qatnashasizmi?

Faxriddin:

— Men bunday musobaqalar bilan unchalik tanish emasman. Kim bilsin, balki qatnashib ham qolarman, — degan edi, qiz:

— Marhum akangiz to'p va chavgonda g'olib chiqqani uchun Durratul-Bag'dod uni sevgandi. Durratul-Bag'dod qahramonlarni sevgani uchun akangizga tekkan edi, — dedi.

Xalifaning qizi shu so'zlarni aytgach, ko'zlarini yerga tikib uyalinqirab ilova qildi:

— Bilmadim, siz ham g'olib chiqa olarmikansiz? Chunki men ham qahramonlarni sevaman.

— Aybi yo'q... Basharti xalifa ijozat bersa, men ham to'p va chavgon o'yiniga qatnashib ko'raman.

Xalifaning katta qizi Oliyayi Ulyo suhbatga aralashib dedi:

— Lekin ehtiyot bo'lishingiz kerak. Turkistonliklar bu o'yinda boshqa xalqlardan mohirroq. Bu ishda Turkiston otlarining ham ahamiyati katta.

Durratul-Bag'dod suhbatga aralashib:

— Rahmatli Sadriddin o'zi olib kelgan otida ikki yil surunkasiga chavgonbozlikda g'olib chiqqan. Negadir rahmatlining vafotidan so'ng oti kasal bo'lib o'ldi.

Faxriddin javobida:

— O'sha otdan ham yaxshiroq bir otni o'zim bilan olib kelganman,— dedi.

Xonanda va sozandalarga unchalik e'tibor bermas edilar, chunki hammalari ham bugun Durratul-Bag'dodning ashula aytajagiga

ishonardilar. U qayninisi Faxriddinning sharafiga berayotgan ziyofatida ashula aytishi kerak edi.

Durra cholg'uchi qizlarini chaqirib o'zi ashula ayta boshladi. Susan esa fursatdan foydalanib, Faxriddinning yoniga o'tirdi. Faxriddin unga sekingina dedi:

— Ertaga yoinki birisi kuni sayohat bahonasi bilan Dilshodning turgan joyiga boraman. Natijani senga Durratul-Bag'doddan bildiraman. Aytadigan ganing bo'lsa unga yetkaza olaman. Lekin biror kimsaga bildirmasdan tayyorgarlik ko'rishing kerak, nima bo'lsa bo'lsin, sizlarga ko'maklashaman.

Susan bu so'zlarni eshitar ekan, bir oh chekib:

— Amir Inonj u yerda bizni tinch qo'yarmikan? — degan edi, Faxriddin unga:

— Amir Inonjni ham, uning vaziri To'xtamishni ham dorga osdik. Qizlarning, kanizlarning zindoni bo'lgan saroyni ham vayron qilib kulini ko'kka sovurdik, — dedi.

XOTINLAR VA QIZLAR DUNYOSI

Erta bilan soat yettida xalifaning namoyandasi Osaf ozarbayjonlik vakillar bilan birga kaniz va joriyalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi va ayni zamonda kaniz va joriyalarni sotishda nom chiqargan Fanhos muassasasiga jo'nadilar. Fanhos muassasasi "Suqul-abd"— qul bozorining sharq tarafiga o'rnashgan kichik bir shaharchaday joy edi.

Osaf darvozani taqillatdi. Keksa xizmatkor Hayyan eshikni ochdi. Osaf xalifaning farmonini ko'rsatib, sayohatchilarning kelganini aytdi. Fanhosning nevarasi Marhash kamzulining etagini yerga sudrab tashqari chiqdi-da, farmonga va farmonni keltirganlarga bosh egib mehmonlarni ichkariga kiritdi.

Mehmonlar keng va rango-rang gullar ekilgan hovlining narigi boshiga borganlaridan keyin, qasrdagi katta bir eshikdan ichkariga kirdilar. Bu yer qul va cho'rilarning namoyish qilinadigan ko'rgazma joyi edi.

Bu yer keng doira shaklida bo'lib, usti yopiq bir maydonchaga o'xshardi. Bu binoning hamma tarafi kichik xonalardan iborat

bo‘lib, bularning son-sanog‘i yo‘q edi. Fanhos muassasasining mudiri vakillarga bu maydoncha va atrofidagi xonalar to‘g‘risida ma’lumot berib dedi:

— Bu yerni xalifa Rashidning davrida rahmatli Fanhos qurdirgan edi. O‘sha vaqtda bu yerning nomini “Xotinlar va qizlar dunyosi” deb atashar ekan. O‘tgan zamonlarda bu yerda yigirma mingga yaqin kanizlar, cho‘rilar va qullar saqlanib sotish uchun tarbiya qilinar ekan. Hozir esa kaniz, joriya va qullarning soni yetti-sakkiz mingdan oshmaydi. Endi marhamat qilib xonalar va joriyalarni tomosha qilishingiz mumkin, — dedi va vakillarning oldiga tushib yo‘l boshladi.

Maydonchaning atrofida cho‘rilar, kaniz va bolaligidan sotib olingan qullarga har turli hunar o‘rgatish uchun muassasadan maosh oladigan uch yuzga yaqin turli kasb mutaxassislari qator turishib vakillarni kutib oldilar.

Maydonning oxiriga yetganlaridan so‘ng birinchi hujraga kirdilar. Bu yerda bir guruh oq tanli qizlar bo‘lib, ular juda ham yosh edilar: eng kattasi o‘n yoshdan oshmasdi. Bu qizlar deyarli shiryalang‘och edilar. Ularning tutib olgan bir parcha xom suri lungilaridan boshqa kiyimlari yo‘q edi.

Vakillardan qo‘rqib vahimaga tushishlariga qaraganda, ularning sahroyi xalqlardan ekanliklari anglashilib turardi.

Qo‘ng‘ir sochlarining paxmanib ketgani sochlariga ko‘pdan beri taroq tegmaganidan darak berardi. Lekin bu qizlarning chehrasida tabiiy bir go‘zallik bor edi. Yuzlarining oq-u qizili va xushbichim qaddi-qomatlari bu baxtsiz yoshlarning tamomila sog‘lomligini bildirardi. Lekin ko‘zlari turli rangda edi. Ba’zisi qora, ba’zisi moviy, ba’zilari esa qo‘yko‘z edilar. Sochlari ham ko‘zlariga hamrang edi.

Eshik ochilishi bilan, ular vakillarni ko‘rdilar-u yovvoyi qushlar ovchini ko‘rgan singari xurka boshladilar. Ularning javdiragan ko‘zlarida qo‘rquv namoyon edi. Ular qochishga joy qidirardilar. Nihoyat, vakillarning ko‘zlariga ko‘rinmaslik uchun bir-birining orqasiga berkinishga harakat qildilar. Ba’zilari esa ularning tikilib turganlarini ko‘rmay degandek ko‘zlarini yumib oldilar.

Faxriddin bu manzarani ko'rib taajjub qildi. U muassasa mudirining yuziga ma'noli bir boqib qo'ydi, mudir uning ko'z qarashidagi ma'noni darhol angladi va dedi:

— Mening og'am, bu vahshiylarni ko'rib taajjublanmang. Siz xalifa saroylarida uchratganingiz go'zal qizlar, kanizlar, ashulachilar va xalifalarning diqqatini o'ziga tortgan nodir va go'zal joriyalar, yoqimli ovozlari bilan Bag'dod xalqini hang-mang qilganlarining hammasi, avval shu hujralarda ko'rganingiz vahshiylarga o'xshardilar. Ularning hammasi avvalo mana shu hujralarga kirishga majbur edilar. Men sizlarni atayin shu hujralarga olib kirdimki, Bag'dodda ko'rganingiz go'zallar, xonanda va sozandalarni tarbiyalab chiqarishda qanchalik mashaqqat chekilganiga o'zingiz shohid bo'larsiz deb. Siz bu manzarani ko'rganingizdan so'ng butun Sharqda shuhrat qozongan go'zallarning ibtidoiy hayoti bilan tanishasiz. Bularning ichida shunday qobiliyatli go'zal qizlar borki, ular Bag'dod bozorida o'n ming tillaga sotiladi. Xuddi shundaylarning orasida bir vaqtlar marhum Fanhos Farida kabi dunyo go'zallarini Bag'dod saroylariga tarbiyalab bergan[1]. Farida ham avvallari mana shularga o'xshash vahshiy bo'lgan edi. Sizning fikringizcha, bir vaqtlar butun Bag'dodni o'ziga maftun qilgan Durratul-Bag'dod ham onasining qornidan qobiliyat egasi bo'lib tushganmidi?

Faxriddin muassasaning mudiriga savol berdi:

— Bularni qanday yo'llar bilan qo'lga kiritgansizlar?

— Qul va kaniz sotuvchilar Turkistonni, Rumni va boshqa mamlakatlarni kezadilar. Ko'p mashaqqatlar bilan, hatto, o'limga yuzma-yuz kelib kurashadilar va nihoyat, bularni qo'lga kiritadilar.

— Bularni qanday qilib oilalaridan ajratib olishadi?

— Ba'zilarini urush paytlarida asir tushirib olib kelib sotishadi. Ba'zi birlarini esa ota-onalaridan arzongina mablag'ga sotib olinadi. Soliqlar hisobiga olinganlar ham bor.

Faxriddin nafrat bilan yana savol berdi:

---

[1] Farida Horun ar Rashid zamonidagi vazirlardan Fazlning sevikli kanizagi bo'lgan.

— Nahotki bularni ota-onalaridan ajratishni gunoh deb tushunmasalar? Bularni go'daklik chog'laridan g'arib qilib uzoq o'lkalarga olib ketishdan uyalmaydilarmi?

Muassasa mudiri bu savolga kulib javob berdi:

— Mening og'am, nega endi uyalisharkan. Axir, bularga baxt-u saodatli kelajak yaratib berish uchun urinadilar-ku, nega uyalishsin: chunki bu baxtsizlarni kulfat va aziyatlardan qutqarib shaharga olib kelishadi, madaniyatli kishilar safiga qo'shishadi. Ular bu yerda odam bo'ladilar, rohat va farog'at topadilar. Ba'zan ular erishgan baxt-saodatlarga Bag'dodning shahzodalari va kiborlari ham erisholmaydilar. Agar ularning go'zalliklari bilan baravar ajoyib nodir ovozlari bo'lsa, baxtning eng yuksak cho'qqisiga chiqa oladilar. Bundaylari faqatgina yuzdan bitta bo'la oladi, Bastakor, shoir, xonanda va boshqalari ham mana shu yovvoyi deb atayotgan qizlarimiz orasidan chiqadi. Bu yerda qizlarning iste'dod va qobiliyatlari imtihon qilinadi. Qobiliyat va intilishlariga qarab ixtisoslarning biriga tayinlanadi. Endi bularning orasidan tarbiyalayotgan qizlarimizni ko'rasizlar.

Mudirning tushuntirishlaridan so'ng, Faxriddin chuqur o'yga botdi va o'z-o'ziga: "Ey Xudo, ko'ryapsanmi bizlar qanday zamonda yashayapmiz, baxtsiz kishilar baxt olamiga azob-u uqubatlar chekib, tubanlik bilan asirlik panjasida erishadilar", derdi.

Muassasa mudiri vakillarni boshqa hujra oldiga keltirib eshigini ochdi. Bu yerda qora tanli, qo'ng'ir sochli va lablari qalin go'daklar bor edi. Bular Afrika zanjilaridan iborat edi. Bular avvalgi hujralardagi bolalarga nisbatan ham yovvoyiroq edilar. Mudir vakillarning bu yerdan tezroq chiqib ketmoqchi bo'layotganlarini darhol sezdi-da, dedi:

— Bularni qulfurushlar ancha arzonga olishadi. Biz bularni qora ishlarga o'rgatamiz. Dehqonchilik, hovli supurish, otboqarlik, og'ilxona tozalash va oq tanli kanizlarga xizmat qilish kabi ishlarni o'rgatganimizdan keyin sotamiz.

Mudir vakillarni uchinchi xonaga olib kirdi:

— Bu xonadagilar barbariylardir. Bularni qulfurushlar Afrikadan olib keladilar. Bularning aksariyati soliq, jarima evaziga olingan va urushlarda o'lja qilingan qizlardir: chunki qabilalar

bir-birini mag'lub qilgan paytlarida qo'lga tushgan qiz-yigitlarni sotishadi.

Boshqa hujrada Kichik Osiyodan keltirilgan qizlar bor edi. Faxriddin bularni ko'rishni istamagani uchun bu yerdan tez chiqib, boshqa hujra oldida to'xtadi.

Mudir ularni umumiy bir xonaga olib kirib dedi:

— Bular murabbiyalik, oshpazlik, tikuvchilik, pardoz-andozchilik hunarlarini o'rgangan qizlar. Ayrim bag'dodliklar bu yerdagi qizlarni xotinlikka oladilar. Bular juda ham tarbiyali va nomusli qizlardir.

Boshqa bir xonaga kirdilar, mudir izoh berib dedi:

— Bular qiziqchilik va masxarabozlikni o'rgangan qizlar. Bag'dod kiborlarining haramxonalarida qiziqchi va masxaraboz qizlardan bo'lishi shart. Bularning bahosi ham juda yuqori turadi.

Faxriddin ularning yuzida hajv va qiziqchilikka xos xususiyatlarni ko'rardi. Osaf vakillarning charchashganini sezib:

— Yosh va go'zal kanizaklar turadigan xonani ko'rsatsangiz, — dedi.

Shundan so'ng mudir bir necha xonalardan o'tib borib, bir xonaning eshigini ochib:

— Marhamat, — dedi.

Vakillar ichkari kirdilar. Bu hujradagilar o'n beshdan yigirma yoshgacha bo'lgan yetilgan qizlar edi. Lekin bular avvalgi xonalardagi qizlardek qo'rqoq emasdilar. Bular o'zlarini shod va masrur tutishga harakat qilardilar.

Bularning bo'yinlarida qimmatbaho taqinchoqlar, quloqlarida zumrad isirg'alar bor edi, bular vakillarning diqqat-e'tiborini o'zlariga tortdilar.

Faxriddin qanchalik ko'z yugurtsa ham bular orasida Dilshodni topolmadi va xonadan tezroq chiqishga shoshildi. Qizlarning vakillardan uyalib turishlari ham ularning husniga husn bo'lib tushardi. Faxriddinning diqqatini go'zal va sho'x bir qiz jalb etdi, bu qizning fusunkor ko'zlari bor edi. Bu qiz hamma vakillarning qalbini o'ziga maftun etdi.

Faxriddin qizni fors tilida chaqirdi, lekin qiz javob bermadi, uyalib qo'li bilan yuzini to'sdi. Mudir esa izoh berib dedi:

— Bu qizlar sotish uchun emas, xalifa uchun keltirilgan. Bularga shu yerda tarbiya beryapmiz. Anavi siz chaqirgan qiz na arab va na fors tilini biladi, sekin-sekin o'rgatmoqdamiz: chunki qiz ozarbayjonlikdir.

Faxriddin indamay qo'ya qoldi, ko'nglidagi tilak va maqsadlarining yaqin ekanini o'yladi. Mudir vakillarga murojaat qilib:

— Endi sizlarga shunday go'zallarni ko'rsataman-ki, avvalgi ko'rganlaringizni butkul unutasizlar, — dedi-da, bir eshikni ochib, ularni ichkari kiritdi:

— Bular Basra, Kufa va Shomdan keltirilgan kanizlardir. Bularning shirin lahjalari, latif so'zlari, kelishgan qomatlari va fusunkor, xumor ko'zlari bor.

Faxriddinning qarshisida jannat eshigi ochilganday bo'ldi. Ba'zi qizlar past bo'yli, ba'zilari xipcha, ba'zilari to'la edi. Hammasi ham o'ziga xos go'zallikka ega va sevimli edi. Qizlar Shom va Bag'dodning eng nafis shoyilaridan libos kiygan edilar.

Mudir bularni vakillarga ta'riflab dedi:

— Sizga shunday go'zal va semiz bir kanizni ko'rsatayki, boshidan bir ko'za suv quysangiz gavdasining bir tomoni ham ho'l bo'lmaydi. Bu qiz go'zallikda Talxaning qizi Oyshani semizlikda ham, go'zallikda ham keyinda qoldiradi.

Mudir vakillarni Bumi degan yurtdan keltirilgan kanizlarning xonasiga olib kirdi:

— Ko'rinib turibdiki, og'alarni charchatib qo'ydim,endi biroz hordiq chiqarish uchun she'rxon va sozanda kanizlar yashaydigan xonaga marhamat qilinglar, — dedi va gilamlar solingan katta bir xonaning eshigini ochtirdi. Uyning atrofiga to'shak to'shalib, yumshoq bolishlar qo'yilgan edi. Ularda sochlari qop-qora tusday go'zal qizlar o'tirardilar.

Qizlar boshlariga zar tikilgan yashil popukli durrachalar o'rashgan, durrachalariga qip-qizil yoqutlar qadalgan. Ular badanlariga Sharqning eng qimmatbaho atirlarini sepib olgan edilar.

Bularning ichida eng go'zali quralay qora ko'zli bir qiz edi. U yuzini o'girganida iyagining tagi oftobday tovlanardi. U qizning yonida yana ikki qiz ham o'tirardi. Bularning hammasining liboslari bir xil, bir andoza va bir bichimda edi. Mudir o'rtada o'tirgan qizga:

— O‘rningdan tur, xalifaning mehmonlariga salom ber, — deganida, qiz o‘rnidan turdi, lekin semiz bo‘lgani uchun juda qiyinchilik bilan qo‘zg‘aldi. Turgan vaqtida yashil shoyi ko‘ylagining etaklari oyog‘iga o‘ralib qoldi.

Mudir Faxriddinga murojaat qilib dedi:

— Aziz mehmon, bu qizni gapga soling, juda lafzi shirin qiz.

Faxriddin unga tavoze ko‘rsatganida qiz ham unga salom berdi.

Faxriddin qizning qayerlik ekanini so‘raganida, mudir unga javob qilib:

— Basrada katta bo‘lgan, lekin asli Gurjistondan, — dedi.— Buni bolaligida olib kelganmiz. Avvalgi hujralarda ko‘rganingiz go‘daklar singari. Lekin hushyor, qobiliyatli qiz ekanligini payqaganimizdan so‘ng Basraga jo‘natdik. U yerda “Qur’on”, adabiyot va she’r yozishni o‘rgandi, keyin uni mening huzurimga keltirdilar. Yoqimli ovozi va shirin lahjasidan hayratlandik. Hozir uning musiqa sohasidagi mahorati butun Bag‘dod xonandalari o‘rtasida mashhurdir.

Faxriddin mudirga yana savol berdi:

— Uning o‘zi yozgan she’rlari bilan tanishish mumkinmi?

— Ha, mumkin. Uning peshonasiga tushirib olgan shoyi sallachaga zar bilan tikilgan yozuvlar uning o‘z she’ridan.

Qizning sallachasida arabcha yozilgan mana shu she’rni o‘qidilar”

Laysa husnul xazob, zaynan likafiy,
Husni kafo zaynan likyulli xazobin[1].

Faxriddin bu she’rdan haddan ziyoda zavqlandi va mudirga dedi:

— Ofarin, bu sallachani ixtiro etib, bu she’rni ixtiro etgan qizga.

Mudir dedi:

— Sallacha qizning ixtirosi emas. Buni xalifa Horun ar Rashidning singlisi Oliyaxonim ixtiro etgan[2]. Ziynat esa olamda yolg‘iz xotin-qizlardangina minnatdordir.

[1] Agar xina qo‘limni chiroyli qiladigan bo‘lsa, tabiatda bo‘lgan barcha go‘zalliklar mening jamolimdan husn oladi.

[2] Xalifaning singlisining peshonasi juda keng edi. Bu uning husnini juda xunuk qilib ko‘rsatardi. Shuning uchun u o‘ziga xos bir shaklda sallacha o‘rardi.

Qizlar shu vaqtda devor tagiga borib, o'z husnlarini oynada tomosha qilmoqda edilar.

Mudir qizlarni ta'riflab dedi:

— Bir zamonlar Amiralmo'minin xalifa Horun ar Rashid bunday qizlarning har bittasini yuz ming dinorga olar ekan.

Mudir ba'zi xonalarning eshigini ochmasdan ular haqida ma'lumotgina berib o'tib ketardi. Faxriddin esa bu gaplarga quloq solmasdi. U faqat Dilshodni axtarardi, nihoyat, mudir dedi:

— Yaqin kunlarda Bag'dod olamiga mashhur xonanda, ayni zamonda misli ko'rilmagan bir go'zal qadam qo'ydi. U qiz Mustarshidbillohning tarbiya berish uchun bu yerga yuborgani Dilshod nomli bir qizidir.

Faxriddin Dilshodga ro'para kelishni istamadi, chunki u Dilshodning o'zini yo'qotib qo'yib, yig'i-sig'i qilib sirni oshkor qilib qo'yishini bilardi. Shuning uchun ham Dilshod bilan uchrashishdan voz kechdi.

Muassasa mudiri go'zal bir bog'da vakillar uchun dasturxon tayyorlatgan edi, chunki nonushta vaqti o'tib bormoqda. Amin qasriga qaytib borish esa juda uzoq edi. Vakillar muassasa mudiri tomonidan berilgan ziyofatdan juda mamnun bo'ldilar, chunki ular vaqtlarini go'zal kanizlar, xonanda va sozandalar bilan o'tkazdilar.

TAXTGA O'TIRISH KUNI

Faxriddin yangi xalifaning taxtga o'tirish marosimi munosabati bilan chaqirilgan ziyofatga kirib borganida, hukmdorlar o'tirishgan kursilarni bir necha daf'a ko'zdan kechirsa ham, ular qatorida To'g'rulni uchratmadi. To'g'rul Otabekning Bag'dodga yetib kelishidan ilgariroq xalifaning taxtga o'tirish kuni marosimini kutmasdan Bag'doddan jo'nab ketgan edi.

Ziyofat katta va uzun bir ayvonda o'tmoqda edi. Ayvonning kattaligini bir jumla bilan tasvirlash uchun "dasturxonning berigi boshida o'tirgan kishilar narigi boshida o'tirganlarning kimligini taniyolmas edilar" deyilsa mubolag'a bo'lmasdi.

Ayvonning to'rida ozgina bo'sh joy qolgan bo'lib, u yerni harim[1] deyiladi. Ayvon to'ridagi hashamat va u yerga solingan noyob gilamlar ustidagi oltin va fil suyagidan yasalgan taxt xalifa uchun tayyorlangani anglashilib turardi.

Taxt baland emasdi, unga ikki zinapoya bilan chiqib o'tirsa bo'lardi.

Taxtning atrofiga eng ko'rkam, qimmatbaho kursilar qo'yilgan. Kursilarning suyanchiqlari yumshoq, duxoba bolishlardan bo'lib, tartib bilan terilgan edi. Ayvondagi gilamlar ustiga juda ham uzun bir dasturxon yozilgandi.

Dasturxonning narigi tomonida ipakdan to'qilgan boshqa bir dasturxon ham bor edi. Dasturxonning ustida billur va tilla idishlar, muzdek sharbatlar bilan to'ldirilgan qadahlar terib qo'yilgan. Dasturxondagi turli-tuman holvalar, murabbolar ta'rif qilib bo'lmaydigan darajada ko'p. Ayvonning havosini atir hidli sharbatlarning va za'far solingan xilma-xil taomlarning hidlari tutib ketgan edi.

Bir qancha hukmdorlar o'rtasida xalifa ayvonga kirib keldi. Ayvonda o'tirgan besh ming kishi bab-baravar ta'zimga bosh egdi.

Hukmdorlar xalifani taxt oldigacha kuzatib bordilar. Uning bir qo'ltig'idan Otabek Muhammad, ikkinchi qo'ltig'idan Salohiddin Ayyubiy ushlab taxtga chiqardilar.

Xalifa taxtga o'tirarkan, ayvonni ko'zdan kechirdi. Xalifalik bayrog'i ostida bo'lgan Sharq mamlakatlarini idora qilayotgan yigirma sakkiz hukmdorning qo'llarini ko'ksilariga qo'yib ta'zim qilib turganlarini ko'rdi.

Bir necha daqiqadan so'ng xalifa o'ng-u so'lga ishora qildi. Mehmonlar o'tirdilar, so'ngra xalifa taxtning ikki tomonida turganlarga ishora qilib, "o'tiringlar", derkan, o'n to'rt hukmron taxtning o'ng tomoniga, o'n to'rt hukmdor esa, chap tomoniga qo'yilgan hashamatli kursilarga o'tirdilar.

Avval ajnabiy mamlakatlardan kelgan hukmdorlar, keyin Gurjiston, Armaniston podshohlari xalifaning taxtga o'tirish kunini

[1] Ulug' kishilar o'tiradigan joyning atrofini bo'sh qoldirish lozim edi. Bu joylarga faqat xalifaning yoxud hukmdorlarning iltifot ko'rsatgan odamlari taklif etilardi.

tabrikladilar. Xalifa ularga baxt-saodat tilab duo qildi. Qisqa bir xutba o'qilganidan so'ng g'ayrimusulmon vakillar o'rinlaridan qo'zg'aldilar-da, o'zlari uchun hozirlangan mehmonxonalarga chiqdilar, chunki payg'ambar xalifalarga qoldirgan muqaddas merosini topshirish majlisida g'ayrimusulmon vakillarning o'tirishlari mumkin emasdi. Birozdan so'ng oldinda Bag'dod qozisi, uning ketidan esa ruhoniylar kirib keldilar. Hamma mehmonlar, hukmdorlar, hatto, xalifaning o'zi ham oyoqqa turdilar. Taxtga o'tirish marosimi boshlandi. Bag'dod qozisi oq shoyi tugunchani taxt oldiga yozilgan gilamcha ustiga qo'yib ochdi.

Qozi avval payg'ambarning sallasini olib xalifaning boshiga kiygizdi. Ziyofat majlisidagilar bir ovozdan payg'ambarga salavot aytdilar. Qozi qo'lini tugunchaga uzatib, oddiy bir qilichni oldi-da, xalifaning beliga taqdi va majlis ahliga o'girilib:

— Inno fatahno laka fathan mubina,— dedi. Majlis ahli payg'ambarga yana bir bor salavot aytdilar.

Qozi tugundan payg'ambarning abosini olib xalifaning yelkasiga tashladi. Yana salavot ovozlari ko'tarildi. Qozi Muhammad (s.a.v.)ning haqiq uzugini olib xalifaning barmog'iga taqdi va so'ngra kichkina bir qutidan payg'ambarning tasbehini olib o'pdida, xalifaga uzatdi.

Xalifa qo'llarini ko'tarib fotiha o'qidi va Allohi taologa shukri sanolar aytdi, so'ngra payg'ambarga salavot aytarkan, yer yuzining xalifaligini qabul etib musulmon xalqini tinchlik-omonlik va farog'atda yashatish va shariat qonunlari doirasidan chiqmay ish ko'rishga ont ichdi. Shu mahal yigirma sakkiz hukmdorning boshlari bab-baravar xalifaning qarshisida egildi, ular ham xalifaning ko'rsatgan yo'li bilan harakat qilib, islom mamlakatlarini shariati islom qoidalari asosida idora qilishga ont ichdilar.

Xalifa taxtdan turib ketmoqchi bo'larkan, hukmdorlar ham uni kuzatgani o'rinlaridan turdilar. Mehmonlar o'tirdilar. Hukmdorlar ziyofatni davom ettirish uchun ayvonga qaytib chiqdilar, majlisdagilardan biri ovozini barala qo'yib: "Bismilloh!" deyishi bilan minglab boshlar bab-baravar yana dasturxonga egildilar. Yuzlarcha go'zal kanizaklar taomlar to'la barkashlarni ko'tarib kirdilar. Turli-turli taomlar keti uzilmay kelib turardi.

Shu manzarani ko'rganidan keyingina Faxriddin Ozarbayjon xalqining nima sabablardan och-yalang'och qolganligini angladi, yigirma sakkiz davlatning faqatgina bitta odamni ta'minlash uchun g'orat bo'lganligini aniqladi. Yeb-ichdilar, yana dasturxon tepasida bir kishi "alhamdulilloh!" deyarkan, mehmonlar halloslashib dasturxondan boshlarini ko'tardilar. Mis laganlar olib chiqib ketildi, yuzlarcha qizlar tilla oftoba va dastsho'ylar ko'tarib keldilar. Ovqatga fotiha o'qildi, qo'llar yuvildi, shundan so'ng tafrihxonaga[1] o'tildi.

Musulmon va g'ayridin mehmonlar ham bu yerda ishtirok qilardilar. Xonaning to'rida taxt va uning yoniga kursilar qo'yilganidan xalifaning o'zi ham hukmdorlarning bu majlisida ishtirok etishi aniq edi.

Xalifa bilan hukmdorlar kirib keldilar. Bu safar xalifani Xorazm shohi bilan Hindiston elchisi taxtga o'tqazdilar. Bir necha daqiqadan so'ng mehmonxonaga Faxriddin hozirga qadar ko'rmagan ikki go'zal qiz kirib keldi. Qizlarning ikkovi bir-biriga o'xshardi. Qizlarning qayrilma qoshi va jodu ko'zlari tim qora, qo'llarida tuyaqush qanotidan ipak bilan ishlangan yelpig'ich ko'tarib xalifaning taxti tomon o'tdilar. Ular taxtning orqasiga qo'yilgan pastak kursichalar ustiga chiqib xalifani yelpiy boshladilar. Ular har zamon qo'llaridagi shoyi dastro'mollari bilan xalifaning yuzidagi terlarni artib qo'yardilar. Xalifaning tez-tez terlayotganidan sharob ichgani sezilib turardi.

Mehmonlarning hammasi bu qizlarning husniga hayron edilar. Bu go'zallarning har ikkisi ham xalifaning ma'shuqalari edi.

Saldan keyin majlisga bir necha go'zal qizlar kirib vakillar va hukmdorlarning terlarini artib yelpiy boshladilar.

Faxriddin xayol daryosiga g'arq bo'lgan edi. U shu qadar shahvatparast va xotinboz xalifaning panjasidan qizlarni qanday qilib qutqarib olish haqida o'ylar edi. Har holda u xalifaga bu haqdagi o'z mulohazalarini aytishdan qo'rqar, hamda xijolat tortardi. Xususan, Otabek Muhammad ham shu yerda bo'lganidan Faxriddin bu masalani ko'tarishga jur'at qilolmasdi.

[1] Bag'dod xalifalarining saroylaridagi tafrihxona masxarabozlar va o'yinchilar uchun qurilgan sahna demakdir.

Yuzlarcha za'far rang libos kiygan raqqos bolalar har xil o'yinlar qilib mehmonlarni kuldirsa ham bu o'yinlar Faxriddinni zarracha qiziqtirmasdi. Nihoyat, qiziqchilik tugadi. Ozarbayjon vakillari o'rinlaridan turib ketmoqchi bo'lganlarida Otabekning shaxsiy soqchisi kelib, Otabek vakillarni o'z huzuriga chaqirganini aytdi.

Otabek uchun xalifaning qasrida joy hozirlangan edi. Otabek vakillarni katta hurmat bilan kutib oldi. Xususan, Faxriddinning qo'lini siqib dedi:

— Modomiki, zahmat chekib Ozarbayjondan Bag'dodga kelgan ekansizlar, bu yerdan yaxshi nom chiqarib ketishingizga maslahat berardim. Ertaga nom chiqaradigan kun. Xalifa huzurida chavgon, ya'ni to'p o'yini musobaqasi o'tkaziladi. Ozarbayjonliklar ham bu o'yinda ishtirok etishlari kerak.

Vakillar baqrayib qoldilar, lekin Faxriddin shunday qulay fursatni ko'pdan beri kutardi. U faqat shunday vositalar bilangina xalifaga manzur bo'lishga umid bog'lardi. Faxriddin Durratul-Bag'dodning ziyofatida xalifa Mustarshidbillohning qizlari Mutarro va Oliyayi Ulyoxonimlarga chavgonbozlik o'yinida qatnashishga so'z bergan edi.

Shuning uchun Faxriddin Otabek Muhammadga ta'zim qilib:

— Basharti Otabek hazratlari ijozat bersalar, men ishtirok etaman, — dedi.

Otabek Muhammad Faxriddinning bu so'zidan mamnun bo'ldi va:

— Unday bo'lsa men seni ro'yxatga yozib qo'yaman. Ammo bilmadim, sinashta bo'lmagan ot bilan o'yinga qatnasha olarmikansan? — deganida Faxriddin:

— Go'zal Qorabog' otlaridan olib kelganman, men o'z otimda ishtirok etaman, — dedi. Otabekka bosh egib xonadan chiqib ketmoqchi bo'lganida, Otabek undan so'radi:

— Oting o'sha Kura daryosi bo'yidagi janglarda ko'rganimmi?

— Ha, o'sha ot.

— Lekin shuni bilishing kerakki, yangi xalifa ot ishqibozlaridan. Yoqtirib qolsa, otingni olib qo'yishi mumkin.

TO‘P VA CHAVGON O‘YINI

Maydon Bag‘dod xalqini sig‘dirarlik darajada katta edi. Birinchi qatorda amirlar, vazirlar, a’yonlar va kibor xonadonlari o‘tirardi.

Vakillar uchun alohida joy hozirlangan edi. Xalifa uchun baland yerga o‘rnatilgan taxt atrofiga hukmdorlar uchun kursilar qo‘yilgan edi.

Maydonning atrofini o‘rab turgan arqonlarni qo‘riqlash va tomoshabinlarni maydonga kiritmaslik uchun xalifaning maxsus askarlari qo‘llarida qilich ushlab turardilar.

Maydonning bir tomonida musobaqada qatnashuvchilar otlarini jilovlab turardilar. Faxriddin ham shularning orasida edi. Hamma xalifaning kelishini kutardi.

Xalifa maydonning bir tomoniga qurilgan yashil shoyi chodirdan hukmdorlar bilan birga chiqib o‘ziga tayyorlab qo‘yilgan taxtga yaqinlashdi, hukmdorlar ham o‘z joylariga kelib o‘tirdilar.

Nihoyat, xalifaning ishorasi bilan katta maydonning to‘rt tomonidan karnay ovozlari yangradi.

Bu karnay ovozlari chavgon o‘yini musobaqasining boshlanishidan darak berardi. Shu paytda ikki yuz pahlavon birdan otlandilar. Eng avval xalifaning maxsus soqchilari sarkardasi Ubayd binni Hamro chaqmoqday otilib maydonga kirdi. U egniga tor va kalta kiyim kiygandi. Uning kiyimi yashil rangda bo‘lishi chavgonbozlik musobaqasining boshlanish belgisi edi. Ubayd mingan arab otining tuyoqlari yerga tegib-tegmaganini payqab olish qiyin edi. Ubayd katta maydonni bir lahzada aylanib chiqdi, so‘ngra maydonning o‘rtasiga kelib to‘pni osmonga otdi va chavgon bilan bir necha martaba to‘pni aylantirib turgan paytida Erondan kelgan pahlavon Devband maydonga ot soldi va bir zarb bilan to‘pni Ubayd qo‘lidan tortib o‘z chavgonida aylantira boshladi. Shu vaqt to‘pga ega bo‘lish taraddudida turgan pahlavonlarning hammasi birdaniga maydonga ot soldilar. Osmonga ko‘tarilgan chang-to‘zon tarqalib ketganidan keyin o‘yin maydonida go‘yo bir o‘rmon paydo bo‘lgandek tuyuldi.

Bir lahzada bu o‘rmon ko‘zdan yo‘qolar va qaytadan paydo bo‘lar, yuzlarcha ot tuyoqlari ostidan ko‘tarilgan chang-to‘zon-

lar orasida keskin musobaqa davom etardi. To'pni bir-birining qo'lidan yulqib olish uchun yuzlarcha pahlavonlarning hayqiriqlari maydonni boshlariga ko'tarar edi.

Qora libos kiygan bir otliq arab to'pni ilib olib hamma otliqlardan o'zib ketib maydonda javlon ura boshladi. To'pni uning qo'lidan olishga qurbi yetadigan kishi bo'lmadi. Maydondagi otliqlar qaysi tomonga burilmasinlar, bari birozg'in otga mingan qora libosli arabning oldinda borayotganini ko'rardilar.

Havoda uchib turgan to'pni ilib olish orzusida bo'lgan yuzlarcha chavandozlarning otlari og'zini ochib o'ng, so'lga chopsalar ham, arab to'pni chavgonning uchida aylantirar va hech kimga bermas edi.

Faxriddin chetda turib kuzatar, o'rnidan qo'zg'almas edi. Uning bir joyda qo'zg'almay turishi Otabek Muhammadni haddan tashqari asabiylashtirardi. Uning fikricha, Faxriddin bunday katta dahshatli hangomani birinchi marta ko'rib qo'rqib turganga o'xshardi. Shuning uchun ham o'yinda qatnashishga jur'at etolmagandek ko'rinardi.

Nihoyat, uzoq olishuvdan so'ng bir eron chavandozi to'pni arabning qo'lidan olib osmonda o'ynatib aylantira boshladi va har tomonga ot surib, maydonaro chopa boshladi.

Arab charchadi, bir chetga chiqib tomosha qilib turdi. Maydon o'n daqiqagacha eronlik pahlavon ixtiyorida bo'ldi. Xususan, uning otining mahorat bilan tarbiyalanganligi musobaqada ishtirok etganlarning hammasini hayron qoldirdi.

Otlarga qarab bo'lmasdi, ular qanday rangda bo'lmasin, oppoq narsaga burkangandek ko'rinardilar. Bir necha martaba to'p va chavgon o'yinlarida qatnashgan otliqlarning ko'zlari esa havodagi to'pni kuzatar va to'p otilgan tomonga yugurardilar.

Tez-tez otlarini almashtirib turganlar ham bor edi. Har qaysi pahlavonning quli maydon chekkasida og'asi uchun yangi otlar tayyorlab turardi. Lekin eronlik pahlavonning oti charchashni bilmasdi. Ot egasi chavgon bilan otning burniga urarkan, u ajdahodek og'zini ochib nishonga to'g'ri borardi.

Xalifa eronlik mingan otning jasoratini ko'rarkan o'z-o'ziga: "Bu ot xalifaga loyiqdir", derdi.

G‘alaba muhri eronlik pahlavonning peshonasiga bosilishi arafasida turarkan, bir hindistonlik ozg‘in otiga qamchi bosib oldinga chiqdi. Bir zumda to‘pni eronlik pahlavon qo‘lidan olib chavgonning uchiga qo‘ndirib xalifaning o‘tirgan taxti oldigacha olib keldi. Maydondan “Ofarin-ofarin!” degan ovozlar eshitila boshladi. To‘daning oldida faqatgina hindistoilikning otini ko‘rish mumkin edi. To‘p havoda qaysi tomonga uchmasin yana uning chavgonini o‘pishga majbur edi.

Otabek Muhammad vaziyatni shu ahvolda ko‘rarkan, Faxriddindan g‘azablanib der edi: “Qo‘rqoqlar, ojizlar, faqat o‘z uylaridagina isyon qilishga yaraydilar. Shunday bir kunda o‘zlarini ko‘rsatib dong chiqarishning uddasidan chiqmaydilar. Shu qadar ham tushkunlik, haqorat va rasvogarchilik bo‘ladimi? Xalifaning taxtga o‘tirish marosimi tantanasida Jahon Pahlavon Otabek Muhammad so‘ragan o‘lkadan birorta odam chiqib o‘zini ko‘rsata olmasa?”

Faxriddin ham o‘z-o‘zicha der edi: “Agar turonliklar o‘yinda ishtirok etmas ekanlar, men ham o‘rnimdan jilmayman. Men xalifaning qizi Oliyayi Ulyoxonimga dunyoda Turon degan tushunchaning yolg‘onligini isbotlab beraman. Turon nomli biror mamlakat bor bo‘lsa, u ham Ozarbayjondir. Xalifaning qizi Mutarroxonim bilib qo‘ysinki, turonliklar chavgon o‘yinlarini mendan o‘rganishlari kerak”.

Turonliklar ham xuddi shunday o‘ylardilar. Ular ham o‘yin turonliklarning g‘alabasi bilan tamomlanishi kerak, deb o‘ylashardi. Shuning uchun ham o‘yinning oxirida o‘yinga aralashishga qaror qilgan edilar.

Hindiston pahlavoni xorazmliklarni, sistonliklarni, Xuroson va Balxdan kelganlarni tamomila charchatib maydonni tashlab chiqib ketishga majbur qildi.

Turonliklar qo‘zg‘alib seldek yopirildilar. Ular bir zumda maydonni hindistonliklarning qo‘lidan tortib oldilar. Har tomondan “Marhabo, turonliklar! Ofarin, turonliklar!” degan ovozlar maydonni to‘ldirib yubordi. Otabek Muhammad esa Faxriddinning ishtirok etishidan butkul umidini uzgan edi. Xususan, ozarbayjonliklarning musobaqada qatnashmasligi xalifaning ko‘nglida shubha tug‘dirishi mumkin edi. Otabek Muhammad shuning uchun ham

bezovta bo'lar va o'tirgan joyida ilondek to'lg'anar edi. Butun maydon xuddi uning boshida aylanayotganga o'xshardi.

Faxriddinning akasini xotini Durratul-Bag'dod ham xalifaning qizlari bilan birga o'z qaynisining g'alabasini kutardi. U Faxriddinning ishtirok etmayotganini ko'rib, uyalganidan xalifaning qizlarining yuziga qaray olmasdi. Chunki necha kundan buyon: "Ozarbayjonliklarning jasorat va qahramonligi butun Sharqda mashhur. Ularning Otabeklariga Jahon Pahlavon laqabi bejiz berilgan emas", deb ularga maqtagan edi.

Lekin Faxriddinning haykalday qotib turganini ko'rarkan, u uyalganidan ho'ngir-ho'ng'ir yig'lardi.

Turonliklar g'olib keldilar, maydonning changini ko'kka chiqardilar. To'p quyuq chang-to'zon ichida aylanar edi. Shunday zo'r bir mahoratni ko'rayotgan tomoshabinlar yana "Ofarin, turonliklar!" xitoblari bilan maydonni to'ldirdilar. Otabek Muhammad esa g'udurlar ekan: "Hukmdor bo'lsang ojiz, qo'lidan ish kelmaydiganlarning emas, qahramon xalqlarning hukmdori bo'lishing kerak!" deb Faxriddinga la'natlar o'qir edi.

Xalifa o'yinni g'oyatda qiziqib tomosha qilardi. Umuman, xalifalar bu o'yinga juda ishqiboz edilar. Bu o'yinda mahorat ko'rsatganlar xalifalarning juda katta sovrinlariga ega bo'lardilar. Shuning uchun ham xalifa turonliklarning bu qahramonligini ko'rarkan, ularga beriladigan sovrinlarning miqdori haqida o'ylardi.

Maydonning atrofida tomoshabinlar turonliklarning qahramonligiga ofarinlar aytardilar, shu payt minglarcha odamlarning diqqatini qo'qqisdan maydonga otilib chiqqan bir otliq o'ziga jalb etdi.

Faxriddin mingan chavkar Qorabog' oti avval ilondek bir joyga biqinib turib, so'ngra yashin tezligida qo'l-oyog'ini yozib yuborib butun maydonni o'ziga qaratdi. Tomoshabin xaloyiq jussasi uncha ham katta bo'lmagan otning egarida yigirma besh yoshlarga kirgan, baland bo'yli, go'zal bir yigitni ko'rarkan, butun diqqatlarini bir nuqtaga tikib unga qarashar edi.

Otabek Muhammad chavkar otni maydonda ko'rarkan, butun qayg'usini unutdi va Faxriddin haqidagi fikrlarini xayolidan chiqarib yubordi. Bir lahzada xayoli bundan ikki yil muqaddam

Kura daryosi sohilida kechasi bo'lib o'tgan jangga qaytdi. O'sha vaqtda unutilmas bir mardlik ko'rsatgan qahramon Faxriddinni Bag'dodning kurash maydonida ko'rdi.

Otabek faqatgina Faxriddinning qo'lidagi chavgonga va osmonda o'ynayotgan to'pga tikilardi. To'pni hech qanday yo'l bilan ham Faxriddining chavgonidan olishning iloji yo'q edi. Turonliklar butun kuch-qudratlarini maydonga tashlasa ham, Qorabog' otidan o'zib o'tishga ojizlik qilardilar.

Goho Faxriddinning ovozi eshitilardi. U Qorabog otiga: "Chavkar, o'ngga buril!", "Chavkar, so'lga buril", "Chavkar, ketga tisaril!", "Chavkar, oldinga tashlan!" — derdi.

Chavkar ot maydon bo'ylab to'p bilan birgalikda aylanardi. Faxriddin bilan turonliklarning kurashi bir soatdan ortiqroq davom etdi. Otlarning hammasi charchagan, tinka-madori qurigan edi. Qorabog' oti raqqosa kabi charx urib xalifaning diqqatini o'ziga tortar, u, hali hech kuch-quvvatini yo'qotmagan edi.

Otabek Muhammad atrofida o'tirgan hukmdorlarga qarab, tez-tez der edi:

— Bu ozarbayjonlik. Mening o'lkam qahramonlaridan biri. Bular zo'r shon-shuhratli tarixga egalar. Bular Midiya qahramonlari nasliga mansubdirlar.

Ikkinchi tomonda esa, Durratul-Bag'dod o'z qaynisining bunday ajoyib mahoratini ko'rarkan, sevinar va ho'ng-ho'ng yig'lardi.

Xalifa Mustarshidbillohning qizlari esa yonida o'tirgan kibor xonimlarga qarab: "Bu bizning eng yaqin tanishimiz. U bilan bir dasturxondan taom yeganmiz" deb, tez-tez takrorlar edilar.

Hech kim to'pni Faxriddinning chavgonidan ololmadi. Turonliklar horib-charchab maydondan chiqib ketdilar. Faxriddin esa to'pni baland ko'tarib raqiblarining yaqin kelishini kutardi. Otning pishqirishi go'yo temirchilar damiga o'xshardi.

Hal qiluvchi kurash boshlanmoqda edi. Chavgon o'yinining qoidasiga ko'ra, o'yinning oxirida maydonda umumiy hujum boshlanishi kerak edi. Bu hujumda to'p kimning qo'lida qolsa g'alaba o'shaning nomiga yozilardi.

Faxriddin hujum boshlanganini ko'rarkan, to'pni osmonga otib chavkarini qamchiladi. Yuzlarcha otlar og'izlarini ochib pishqira-

pishqira chavkarga tashlandilar. Bu kurash jarayonida ko'tarilgan chang-to'zonlar orasida nimalar bo'layotganidan hech kimning xabari yo'q edi. Faqat har zamonda Otabek Muhammadning va Durratul-Bag'dodning ovozlari eshitilardi: "Chavkar, so'lga! Chavkar, oldinga!"

So'nggi g'alabani qo'lga kiritish uchun boshlangan kurash yarim soatdan ortiqroq davom etdi. Otabek Muhammad o'z-o'ziga: "Qiziq, chang-to'zon ichida kurashayotgan ozarbayjonlik qahramon nima ishda ekan?" deb savol berardi.

Xuddi shunday so'zlarni xalifaning qizlari va Faxriddinning yangasi ham takrorlar edi. To'rt tomondan karnay ovozlari eshitila boshladi, o'yin tugadi. Lekin ko'tarilgan chang-to'zon hamon qanday bo'lsa shundayligicha turardi. Hamma to'p kimning qo'lida qolganini ko'rishga intizor edi.

Otliqlar maydonni tark etdilar. Maydonda osoyishtalik boshlanishi bilan Faxriddin, odat bo'yicha, chavkar otini xalifa o'tirgan taxtning ro'parasiga olib bordi, qo'lidagi to'pni xalifa taxtining oyog'i ostiga qo'yib, ta'zim qilishga shoshildi.

Otabek Muhammad to'pni Faxriddinning qo'lida ko'rishi bilanoq beixtiyor og'zidan: "Dunyoda Turon yo'q, faqat birgina Ozarbayjon bor!" degan so'zlar chiqdi.

Faxriddin yigirma yetti hukmdorning hasad-u hasratlariga sabab bo'lgan to'pni xalifaga taqdim yetish uchun otdan tushdi. To'p bilan chavgonni xalifaning taxti oyog'i ostiga qo'yib ta'zim qildi.

Xalifa esa:

— O'zingga ham, otingga ham ofarin! — deganida Faxriddin otining jilovidan tutib oldinga tortdi-da:

— Otni Ozarbayjondan xalifaga hadya qilish uchun keltirganmiz. Otni imtihon qilish uchun chavgon o'yinida qatnashdim,— dedi.

Xalifa xursand bo'lib:

— Bu g'alaba va bu otga mukofot o'laroq, Ozarbayjon qahramoni nima istasa so'rasin, — deganida, Faxriddin yana bir marta ta'zim qilib dedi:

— Ozarbayjonlik navkaringiz Ozarbayjondan keltirilgan qizlarni vatanlariga qaytarilishini iltimos qiladi.

Xalifa taajjub bilan so'radi:

— Ular qanday qizlar?

— Xalifa Mustarshidbilloh uchun yuborilgan qirq nafar qizlar.

Xalifa Osafni chaqirib amr berdi:

— Shu kunning o'zidayoq Ozarbayjondan keltirilgan qizlar Ozarbayjondan kelgan vakillar ixtiyoriga topshirilsin.

Faxriddin xalifaga takror bosh egib o'z o'rniga qaytganida Otabek Muhammad uning oldiga borib peshonasidan o'pdi va: "Men Faxriddin bilan faxrlanaman!" deb unga biroz tikildi, yana Faxriddinning yuzida Go'zalning chehrasidagi nishonalarni ko'rib xayoli Jonpo'lod qishlog'iga, Pisaron qishlog'iga ketdi.

Faxriddin Durratul-Bag'dod va xalifaning qizlari bilan birgalikda kemaga tushib Harbiya mahallasiga jo'nash uchun Dajla daryosi sohili tomon yo'l olganlarida har tomondan Faxriddinning oyoqlari ostiga guldastalar tashlar edilar.

Bag'dod xalqi ko'chalarga to'planib Ozarbayjon qahramonini ko'rishga shoshilardi. Xalq Dajla sohiliga qadar Faxriddinni gullar va olqishlar bilan kuzatdi. Ular xalifaga xos kemaga o'tirib ko'zdan g'oyib bo'lgunlaricha qizlar va yigitlar Faxriddinni olqishlayverdilar.

Shu voqeadan uch soat ham o'tmay Faxriddin bir necha yillardan beri ko'rmagan, yo'lida ko'z ko'rib quloq eshitmagan azob-uqubatlarga bardosh bergani Dilshod bilan birga Durratul-Bag'dodning ayvonida o'tirardi. Ular Bag'dod oqshomlariga xos salqin havoda erkin nafas olar va Iroqning mayin shabadasi Dilshodning qora zulflarini Faxriddinning kiftiga sochardi.

Quyosh bu yerni xilvatgohga aylantirish uchun yuzini Madoyin xarobalari tomon o'girib Kisro qasrining ortiga yashirinishini mo'ljallab ketib borardi.

Dilshod quchoq ochib Faxriddinning bo'yniga chirmashgan vaqtida, uning dudoqlari bir otashinlik his etdi. Faxriddin esa uning dudoqlaridan shu so'zlarni eshitdi:

— Dunyoda ozodlikdan ham ulug'roq bir, ne'mat bormi?

QILICH VA QALAM

Shimoliy Ozarbayjon xalqining tarixi bugungidek bayram shodiyonasini juda oz ko'rgan edi. Qahramon Faxriddin Bag'dod safaridan g'alaba bilan qaytib kelmoqda edi.

U Bag'dodga jo'nagan kunlarda yigirma kishi bilan ketgan bo'lsa, Ganjaga qaytishida uni minglarcha otliqlar kuzatib kelardi.

Faxriddinning hamrohlari Araks daryosidan o'tib, Shimoliy Ozarbayjonga qadam qo'yganlarida otlarining oyoqlari ostida yuzlarcha qo'ylar so'yildi. Otlarning yollari va egarining qoshlari har xil gullar bilan bezalgan edi. Asirlikdan xalos bo'lib kelayotgan qizlarning oilalari Faxriddinning hamrohlari bilan birga kutib olish uchun Araks sohiliga kelgan edilar.

Qilich va qalam soyasida yaratilgan bu ozodlik Shimoliy Ozarbayjonda katta bayram tusini olgan edi. Qizlar, kelinlar va yosh-u yalanglar kecha-kunduz yo'l ustida turib qahramonning yetib kelishini kutardilar.

Asirlikdan qutqarilib olib kelinayotgan qizlarning taxtiravonlari ustida "Yashasin asiralarga najot bergan Ozarbayjon qahramoni!" degan so'zlar ipak bilan yozilgan edi. Dilshod o'tirgan taxtiravon Faxriddinning do'stlari va qarindosh-urug'lari tomonidan o'rab olingan edi.

Ganja shahri aholisining kattadan kichigi Ganjasoyi bo'yiga yig'ilgan edi. Nizomiy, Mahsatiy xonim, Ra'no va Muhammadlar soy bo'yiga qurilgan chodirda o'tirib vakillarni kutardilar. Vakillar guruhi soydan kechib o'tdi. Faxriddin Nizomiy bilan Mahsatiy xonimni ko'rishi bilanoq otdan tushib ularning istiqboliga shoshildi. Eng avval Mahsatiy xonimning qo'lini o'pdi, so'ngra Nizomiyning o'g'li Muhammadni o'pdi, Ra'noning qo'lini siqdi va Nizomiy bilan quchoqlashib o'pisharkan, Mahsatiy xonim quvonch bilan "Qilich bilan qalam o'pishdi! — dedi. — Men yana yosharib ketdim, bu g'alaba bayrami menga yangi kuch, quvvat va yangi hayot bag'ishladi, men yana yashayman, yana she'r yozaman. Xalqini g'olib ko'rgan bir shoirning she'r yozmasligi mumkinmi?"

Har tarafdan musiqa va "Yashasin g'olib Faxriddin!" degan ovozlar eshitildi. Musiqa va "Yashasin!" sadolar birdan tindi.

Hammaning ko'zi Nizomiyga tomon qaragan edi. Xaloyiq uning bu g'olib qahramon bilan Faxriddin to'g'risida nima deyishini sabrsizlik kutardi.

Nizomiy baland bir tosh ustida turardi. U minglarcha kishilarga dedi:

— Ozarbayjon xalqi! Har qanday qullik va asoratlarni yenga oladigan qudratli bir kuch borki, u ham bo'lsa, xalqimizning qahramon farzandlaridir. Zulm va haqsizliklar kishilarning milliy g'ururini kamsitsa-da, ayni zamonda qahramonlarning adolat qilichini qayraydi va yovga qarshi shafqatsiz bo'lish g'oyalarini tug'diradi. Dunyoda jonli va jonsiz bo'lgan barcha narsalar mahv bo'lishga mahkumdir. Lekin har qanday xalqning tarixiy va milliy an'anasi hech qachon buzilmaydigan va yo'qolib ketmaydigan bir javohirdir. Javohir chirimaydi.·U tuproq ostida bo'lsa ham, tuproq ustida bo'lsa ham javohirdir. Bosqinchilar qanchalik bizni kamsitmasinlar, bizni Sharqning xaritasidan o'chirib tashlashga qanchalik urinmasinlar, biz bundan uncha ajablanmasligimiz kerak. Biz ajnabiylar keltiradigan qullik va asorat nimaligini bilamiz... Lekin bulardan ham razilroq narsa bor, u ham bo'lsa, xalqining ulug'ligini inkor etish va uning ulug'ligiga loqayd qarashdir. Shunday loqayd qaraydigan odamlarning dushmanligi tashqi dushmanlardan ko'ra ham xavfliroqdir. Ozarbayjon xalqi o'tgan bir necha isyonlarda g'olib keldi, ba'zida mag'lub ham bo'ldi. Lekin bu kurashlarning birontasida ham g'olibiyat umidlari so'nmadi. Ozarbayjonliklar arablar istilosidan ancha burunoq erksevar xalq edi, o'zining ozodligi yo'lida uchragan har qanday to'siqlarni parchalab o'tdi. Ozarbayjon xalqi o'z milliy madaniyati tarixini hech qanday bosqinchining toptashiga yo'l qo'ymagan va endilikda ham yo'l qo'ymaydi. Bugungi shodiyonada bizning kelajakka bo'lgan ishonchimiz yana ham mustahkamdir. Bugungi g'alabaning ilhomi menga yangidan yangi mavzular bag'ishladi. Men xalqlarning qahramonligi tarixini she'rlarimda yaratish uchun bugun poytaxtimizga qaytib kelgan g'olib qahramonimizdan yangi madad, yangi mundarijalar oldim. Qahramonlik har bir xalqning siyosiy va madaniy saviyasining bebaho mahsulidir. Qahramonlar yetishtirmagan biror xalq bo'ynini hech qachon ajnabiylar bo'yinturug'idan xalos qila

olmaydi. Bugun haqorat va haqsizlik quchog'idan, shahvatparast xalifalarning saroyidan qutqarib olingan qizlarning o'z oilalariga qaytib kelishi yana bir qahramon va azamatlik nishonasidir. Men aminmanki, bugun oldimizda turgan yoshlarning ichidan kelgusida yuzlarcha Faxriddinlar etishib chiqadi.

Mahsatiy xonim Dilshod o'tirgan taxtiravonga o'tirdi. Nizomiy bilan Faxriddin esa otda g'oliblar to'dasi oldida shaharga kirib keldilar. Vakillar oldin Ganja xatibining vayron bo'lgan uyi oldidan o'tib, Malikshoh maydoniga kirdilar, u yerdan o'tgach, Amir Inonjning sobiq saroyi oldida to'xtadilar.

Dilshod boshini taxtiravondan chiqarib Amir saroyiga qararkan, saroy o'rnida kuygan ustunlar, bir birining ustiga qalashib yotgan, is bosib qorayib ketgan tosh va g'ishtlardan boshqa hech narsa ko'rmadi. U yig'ladi va boshini Mahsatiy xonimning kiftiga qo'yib:

— Faqat endigina ozod bo'lganimga ishondim, — derkan, Mahsatiy xonim ham Ganja soyi sohilida aytgan so'zini yana bir bor takrorladi:

— Qilich va qalam!

KO'SHKI BOG'I MUAZZAM[1]

Qatibaning Bag'dodda qanday ishlar bilan shug'ullanganligi, Zahir Balxiy va Kamoliddinlar bilan qanday jinoiy rejalar tuzganlarini Otabek Muhammad Sabo xonim vositasi bilan bilib olgan edi. Qatibaning Faxriddinga qarshi tayyorlagan suiqasdi va Go'zalning o'g'illarini o'ldirish uchun qilgan harakatlari Otabek Muhammadga avvaldan ma'lum edi.

Ayniqsa, Nizomiyni o'ldirish qasdida Bag'doddan odamlar jo'natilishi Otabek Muhammadni qattiq g'azablantirgan edi. Chunki Nizomiydek bir shoirning o'ldirilishi, Shimoliy Ozarbayjonda ikkinchi bir isyonning ko'tarilishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun ham Otabek Hamadondan xalifaning taxtga o'tirish kunida qatnashish uchun Bag'dodga jo'nash oldidan Qati-

[1] **Ko'shki Bog'i Muazzam** — Hamadondan ikki yog'och (15 km) uzoqlikdagi Farivar vodiysidadur. Hamadon Ekbotan deb ataladigan vaqtda bu bog' Midiya hukmdorlari tomonidan qurilgan.

baga yuborgan maktubida: "Bag'doddan qaytishingda Hamadonga tushmasligingni maslahat beraman, shahardan ikki tosh narida bo'lgan Ko'shki Bog'i Muazzamda qolishing kerak. U yerning havosi o'g'ling uchun ham qulaydir", deb buyruq bergan edi.

Otabekning buyrug'iga binoan Qatiba xotun majburiy holda Ko'shki Bog'i Muazzamda qoldi. U Otabek Bag'doddan qaytayotganida Ko'shki Bog'i Muazzamga kelib men bilan ko'rishar deb o'ylagandi. Lekin Otabekning Bag'doddan qaytishida to'ppa-to'g'ri Hamadonga o'tib ketishidan masalani jiddiy ekanini anglagach, Qatibaning hayajoni nihoyasiga yetdi.

Qatiba poytaxt ahvolidan bexabar edi. U bu hodisalar natijasidan qo'rqardi. U Otabek Muhammadning qanday ishlar bilan mashg'ulligi va nimalar haqida o'ylayotganligini bilishni istardi, shunga ko'ra Sabo xonimni Hamadonga jo'natishni o'ylardi.

U bu ishlarning sababchisi Sabo xonim ekanini bilmasdi. U hamon Sabo xonimning uddaburonligiga ishonar va hali ham undan foydalanishni o'ylardi.

Sabo xonimni yoniga chaqirib malika sifatida emas sevikli bir opa-singil tarzida dedi:

— Mening munisim, sen zudlik bilan Hamadonga jo'nashing kerak.

— Nima uchun?

— Otabekning nima ishlar qilayotganidan bexabarman.

— Otabek nima sababdan Hamadonga qaytib borganimni so'ramasmikan?

— Sen yolg'iz bormaysan. Qutlug'ni o'zing bilan birga olib ketasan. "Bola sizni sog'indi", deb bahona qilasan.

— Bilmadim, bu vazifani bajara olarmikinman?

— Ajabo, hozirgacha bajargan vazifalaring bundan osonroqmidi?

Sabo xonim sukut qilib o'tirdi. Hech narsa demadi. Lekin Qatiba uning nimalar o'ylashini yaxshi bilardi. U mukofotsiz bu ishni bajarishni istamasdi. Qatiba kichik qutichadan bir shoda yirik donali marvarid olib Sabo xonimning bo'yniga taqarkan:

— Buni Bag'dodda senga atab olgan edim, — dedi. Sabo xonim xiyla norozi bir tarzda:

— Xudo meni malikaning soyasidan judo qilmasin, — dedi.

Qatiba uning norozi boqishlarini ko'rib:

— Senga yuz tilla beraman. Agar Hamadondan yaxshi xabarlar olib qaytsang, besh yuz tilla olasan, — dedi va yuz tillani Saboning qo'liga tutqizdi.

Sabo xonim odaticha mushkul bir vazifani bajaradigan odamlardek bo'ynini qisib:

— Ilojim qancha... Nahotki men malikaga faqat mukofot uchun xizmat qilsam? Xudo saqlasin, men shunday qizmanmi?.. Ajabo, hozirga qadar malika mening sadoqatimga ishonmasmidi?

Qatiba xayolga cho'mgan edi, jahlidan tishi tishiga tegmasdi, Sabodan g'azablanarkan, ko'nglida "Sen fohisha, doim ishim mushkullikka tushgan paytlardan foydalanib, meni talaysan. Hali to'xtab tur, biroz tinchib olay, sening teringga somon tiqmasam, Amir Inonjning qizi Qatiba emasman. Tadbirkor, ishbilarmonman deb o'ylama, hali yuzlarcha senga o'xshash firibgarlarga dars beraman. Sening mendan ustun tomoning bo'lsa, u ham fohishaligingdir. Nima qilay, bu mening qo'limdan kelmaydi", der edi.

Sabo xonim ham boshini quyi solib, ichida Qatibadan kulib der edi: "Senga shunday tuzoq qurganmanki, mening qo'limdan qochib qutula olmaysan. Sening uying xonavayron bo'lganligi shundaki, uch ming dirham kumush pul to'lab meni Abulullonning xotinidan sotib olgansan. O'z qo'ling bilan boshingga balo sotib olgansan. Senchalik ko'r va senchalik ahmoq topiladimi? Hamma sirlaringni menga izhor qilganingdan keyin yana nimang qoldi? Men boy va kibor oilalardan chiqqan qizlarning birortasini ham aqlli sanay olmayman. Podshoh qizlari podachi va kallarni sevishiga kim ishonmaydi? Shu bosh, shu ko'zlar bilan yana o'zini aqlli deb ham o'ylaydi. Sendagi bu zeb-u ziynatlarning hammasini shilib olmasam, men Sabo xonim emasman! Otangni xonavayron qildim, endi o'zingni talayman, ering Otabekni ham qo'lingdan tortib oldim, endi u meniki".

Qatiba o'y-xayollar ta'sirida boshini ko'tarib, beixtiyor jahl bilan:

— Xo'p, sen aytganingcha bo'lsin! — dedi.

Sabo xonim ham uning fikrini darhol tushungandek:

— Shunday bo'lishi kerak! — deb javob qildi.

... Ertalab barvaqt Ko'shki Bog'i Muazzamning darvozasi oldida Taxtiravon tayyor turardi. Sabo xonim bilan Qutlug'ni poytaxtga olib ketish uchun bir necha otliqlar darvoza oldida Qatibaning amrini kutmoqda edilar. Nihoyat, Qatiba xonim o'g'li bilan birga bog'dan chiqdi, o'g'lining yuzidan o'pib, taxtiravonga o'tqazdi. Sabo xonim ham taxtiravonga o'tirib, Hamadonga yo'lga tushdi.

Sabo xonimning taxtiravoni kechqurun kunbotar paytda Otabekning saroy darvozasi oldida to'xtaganida, Sabo xonim u yerda katta marosimni uchratdi va qandaydir bir hodisa yuz berganini angladi. Birozdan so'ng saroydan Otabekning qullari ikki kishini kuzatib chiqdilar. Sabo xonim sinchiklab qaragach, ularning Zahir Balxiy bilan Kamoliddin ekanliklarini payqadi. Sabo bundan sevindi. U Bag'doddan Otabekka yuborilgan yashirin maktublarning o'z vaqtida yetib kelganligi va Otabek bu maktublarga ishonganligiga qanoat hosil qildi.

Sabo xonim ayni vaqtida Hamadonga yetib borganligiga quvondi. U maktubda yoza olmagan so'zlarini endi o'z tili bilan aytib berish imkoni tug'ilganligiga ishondi.

Zahir Balxiy bilan Komoliddinning hibsga olinishi bilan Husomiddinning hayoti katta tahlika ostida qolgani ma'lum bo'ldi. Lekin Sabo xonim har holda Husomiddinni Otabekning pichog'i ostiga topshirishni istamasdi, chunki u o'zini Faxriddin tomonidan aldangani va Faxriddinning Bag'doddan Dilshod bilan birga Ozarbayjonga qaytganini eshitgan edi.

U Bag'dodda Faxriddin bilan uchrashgan vaqtida uning Dilshodni unutgani va Sabo xonimga ko'ngil qo'ygani, unga uylanish niyatida ekanini o'z og'zidan eshitgan edi. Shuning uchun ham u Husomiddinni ko'ngildan chiqarib tashlashga sira ko'nmas edi. Lekin Faxriddinning unga firib bergani va uning sirlarini bilib olib aldab ketganidan so'ng, Sabo xonimning umidi yana Husomiddinga qaytgan edi.

U Otabek bilan birinchi uchrashuvidayoq Husomiddinni himoya qilishga zamin tayyorlash fikriga tushdi.

Kechqurun chiroqlar yoqilgan paytda Otabekning maxsus quli kelib Sabo xonimni Otabek huzuriga taklif qildi.

Sabo xonim saroyga kirishi bilanoq, xonaning eshigini ochib, ikki soat mobaynida pardoz-andoz qildi. Otabekni o'ziga maftun qilish uchun qanchalik zeb-ziynati bo'lsa, hammasini taqdi. U shu qadar yasanib-tusangan ediki, ko'zgu oldida turganida ziynatlarning jilosidan o'zining ham ko'zlari qamashar darajada edi. Bag'doddan olib kelgan eng qimmatbaho atirlarni badaniga sepdi. U kiyinib bo'lgach, ko'zguga qarab turli-tuman noz-u karashmalar qilib ko'rdi va qaysi biri ko'proq dilrabo ko'rinishini tekshirdi.

Nihoyat, u yana bir martaba o'z qaddi-bastiga nazar tashlab dedi: "Juda ko'p go'zallar borki, yuziga boqqaningda diqqatingni o'ziga jalb etish o'rniga o'zidan itaradi va erlarning xotin kishiga bo'lgan ehtiroslarini so'ndiradi. Lekin men unday emasman, men go'zal hamda jozibador qizman. Mening qarshimda shikor qocholmaydi. Men ham go'zal hamda nozik bir qizman va erlar dardini darhol bilib oladigan hoziq tabibman. Men qaysi bir erkakning qanday xotinni seva olishini va xotindan nimalar istashini bilaman. Men xotin kishi faqat o'z go'zalligi bilangina erlarning qalbiga hokim bo'lolmasligini bilaman. Xotinlarning o'zlariga xos xulq-atvorlari bo'lganidek, erlarning ham bir-biriga o'xshamaydigan o'zlariga xos muhabbatlari bor. Ajabo, go'zal va qahramon erlarning ba'zan xunuk xotinlarga uylanishi hamon o'zlariga xos xususiyatlarning natijasi emasmi? Men go'zal xotin bo'lishim bilan birga savdogar hamman. Uddaburon savdogar, bilag'on, tadbirkor, aqlli bir olib sotarman. Men oddiy savdogar emasman. Xaridorni qanday mato qiziqtirishini ko'zidan uqib oladigan bir ruhiyatchiman. Men bilamanki, hamma uchun bir xil narsa kerak bo'lavermaydi. Agar shoirlar xotin kishidagi tabiiy go'zallikni sevsalar, zeb-ziynatlarga ehtiyoji bo'lmagan o'sha tabiiy go'zallik faqat mendadir. Xotinlarga duch kelgan vaqtida o'z bilimdonligini namoyish qilishni istagan aqmoq erkaklar falsafadan bahs ochishni istasalar, men ham o'zimni bir faylasuf singari namoyish qila olaman. Ro'paramdan qizlarga jilpanglab nozlanishni xohlagan noshud yoshlar duch kelib qolgudek bo'l-sa, men ham shilqim qizlar singari ularning yengiltak ruhlarini asir qilishning uddasidan chiqaman. Xotinlarning ziynat va liboslariga aldangan erlar uchun hech qanday xotinga muyassar bo'lmagan ko'rkam liboslarim va qimmatbaho toshlarim

va qoshlarim bor. Otabek esa eng go'zal hamda badavlat xotinlarni yoqtiradi. U bilan qanday muomala qilishni uning malikasi eplay olmasa, men eplay olaman. Podshohlar saroylarida kanizaklar bo'lmasa edi, ular bir kun ham o'z malikalari bilan yashay olmas edilar. Haqiqiy xotin menman, malika esa bir qo'g'irchoqdir".

Sabo xonim o'z-o'zi bilan so'zlashib bo'lgach, Qutlug' Inonjni Otabekning huzuriga olib kirdi. Otabek Sabo xonim bilan o'g'lini ko'rarkan, biroz o'ylanib qoldi, chunki o'g'li uni tashvishlantirardi. U bolani ko'rishi bilanoq yana Qatibaning o'jar, pismiq va badjahl qiyofasi uning ko'z oldida namoyon bo'ldi, bolaning yuzira qancha qarasa ham, unda o'zidan biror nishona ko'rolmadi va o'z-o'ziga: "U bu bolani ham badbaxt qildi, bolani sevmoqchi edim, yana onasi kelib ko'z oldimda turib qoldi", dedi-da, zo'r-bazo'r qo'lini uzatib bolaning bo'ynidan quchoqlamoqchi bo'larkan, go'dak uning beparvoligini sezib o'zini orqaga tashladi.

Otabek bolaning bunchalik o'jarligini ko'rgach, yana o'z-o'ziga: "Bu mening chirog'imni yoqolmaydi, Uning qo'lida mamlakat falokatlarga duchor bo'ladi", deb Sabo xonimga murojaat qildi:

— Olib bor, o'g'lim istirohat qilsin, uning charchagani ko'rinib turibdi, o'zing esa huzurimga qaytib kel, — dedi.

Sabo xonim qaytib Otabekning xonasiga kirganda daf'atan unga savol berdi:

— Sen menga ont ichib haqiqatni ayta olasanmi?

— Ont ichmasdan ham ayta olaman. Tabiat mening tilimda yolg'on gapirish qobiliyatini yaratmagan. Shuning uchun ham men baxtsizman, chunki hozir ham ko'pgina odamlar yolg'on gapirib kun kechirmoqdalar.

— To'g'ri so'zliging uchun kanizaklar ichida faqat seni tanladim. Sen ham go'zal hamda haqiqatni sevguchi va Otabekning qadr-qimmatiga yetadigan bir joriyasan. Shuning uchun ham mening iltifot va muhabbatim faqat sengagina muyassar bo'ldi. Endi maqsadga o'taylik. Men bir qancha masalalarni aniqlash uchun seni Hamadonga chaqirmoqchi edim, lekin qanday bahona bilan chaqirib olish haqida o'ylardim.

— Men o'zim ham a'lo hazratni ziyorat qilishni o'ylagan edim. Nihoyat, o'g'lingizni ko'rsatish bahonasi bilan malikani rozi qila oldim. Nima uchundir malika meni yuborgisi kelmadi. — Sabo xonim shu so'zlarni aytarkan ko'ziga yosh oldi va yig'lab turib: — Bilmadim, a'lo hazrat Ko'shki Bog'i Muazzamda meni ham asiralikda ushlab turishning boisi nima ekan? — deganida Otabek uning sochlarini silab, — bularning hammasi vaqtinchalik bir narsa. Sen yaqin kunlarda mening saroyimning porlab turgan bebaho bir qandili yanglig' shuhrat qozonasan, — dedi va ilova qildi, — Bag'doddan yuborgan maktubing haqiqatan ham Qatibaning To'g'rulga yozgan maktubi edimi?

— Ha, To'g'rulga yozgan maktubi edi.

— Yaxshi o'yla, balki Husomiddinga yozgandir?

— Malika o'z qalbini Husomiddinga maktub vositasi bilan bildirishga hech qanday ehtiyoj sezmaydi, chunki o'sha kunlarda Husomiddin ham, malika ham Xuld qasrida edilar. U malikani har soatda ko'ra olar va har soatda suhbatlasha bilardi. Lekin men Otabek hazratlariga aytmoqchi edimki, u o'z malikasini bu qadar ayblashi yaxshi emas. To'g'ri, Husomiddin malikani qizlik vaqtidan sevardi, lekin malikaning na qizlik davrida va na so'nggi kunlarda Husomiddinni sevishiga ishona olmayman. Shuni ham aytayki, Husomiddin qayog'da? To'g'rul esa hukmdor o'g'li. Balki malika o'z o'g'lining kelajagini ko'zlab To'g'rulni aldayotgandir. Bunga men ishonaman. To'g'ri, sizga yuborilgan maktubni malikaning o'z qo'li bilan yozganini ko'rganman. Lekin malikani To'g'rul bilan bir joyda bo'lganini va a'lo hazratning sha'niga dog' tushiradigan harakatini ko'rganim yo'q. Chunki, malika Hamadonda bo'lgani kabi Bag'dodda bo'lgan vaqtida ham mening ko'zimdan nari ketgani yo'q edi. U doimo mening yonimda edi.

— Sen malikadan olgan maktubni To'g'rulga ko'rsatganing yo'qmi?

— Ko'rsatib yana qaytarib oldim, xonim shunday buyruq berganlar dedim.

— Sen malikaning maktubini To'g'rulga ko'rsatganingda uning yuzlarida qanday o'zgarishlar ko'rding?

— Rangi oqarib ketdi va xayolga cho'mdi.

— Javob yozib bermadimi?

— Bu haqda hech narsa demadi.

— Ularning yig'ilishlarida nimalar eshitding, nimalar ko'rding? To'g'rul nimalar so'zladi?

— To'g'rul bir og'iz ham gapirmadi, uning uchun ham faqat Zahir Balxiy va Kamoliddinlar so'zlar edilar.

— Nizomiyni o'ldirish masalasini kim oldin o'rtaga tashladi?

— Buni birinchi o'rtaga tashlagan ham Zahir Balxiy edi. Maktubni ham o'shalar yozishdi, To'g'rul esa faqat imzo chekdi. Sizning Ozarbayjondagi o'g'illaringizni o'ldirish uchun yuborilgan odamlar haqida ham surishtirib bildim. Ularni jo'natganlar ham Zahir Balxiy bilan Kamoliddindir. Husomiddinning bu jinoyatlardan xabari yo'q. Lekin uning To'g'rulga nisbatan hurmat saqlashini bilaman.

— Bu jinoyatlarning tashkil qilinishidan malikaning xabari yo'qmikin?

— Bundan "malikaning xabari yo'q" desam, menga kim ishona oladi? Malika bir ayol, buning ustiga u bir amirning qizi. Bir qishloqi xotindan tug'ilgan o'g'illarning toj-u taxtga sherik bo'lishiga sovuqqonlik bilan qaray olarmikan? Vaholonki, a'lo hazrat unga uylanayotganida boshqa xotin olmaslikka so'z bergan edi. Bu to'g'rida a'lo hazrat ijozat bersa, malikaning haqli ekanligiga qo'shilaman.

— Sen ikki kun shu yerda qolasan. Lekin yana Ko'shki Bog'i Muazzamga qaytasan, malikaning kimlar bilan aloqada bo'lishidan menga xabar berib turasan.

Sabo xonim bularni tinglaganidan so'ng uyatchan bir tarzda dedi:

— A'lo hazrat o'z joriyasini sevgi sharafidan mahrum etishni istaydimi?

— Men bir martaba aytdim, yana takror aytamanki, mening sharafimga faqatgina sen loyiqsan.

Sahar payti Sabo xonim Otabekning xonasidan chiqqan vaqtida olgan mukofotlari va barmog'iga taqib olgan qimmatbaho uzugiga diqqat bilan boqib sevinar edi.

* * *

Otabek Sabo xonimga "Hamadonda ikki kun qolishing kerak" dedi-yu, lekin uni kecha-yu kunduz yonidan jildirmasdan olib qolib vaqtini o'tkazdi. Nihoyat Sabo xonim navbatdagi o'ljalardan hisoblangan qimmatli vasiqalarni qo'lga kiritganidan so'ng, malikaning yoniga borishga, bu vasiqalar bilan birga eshitgan yangi xabarlarini malikaga sotishga shoshilardi.

Hamadon shahri bezalgan edi. Go'zal o'z o'g'illari bilan birga tantanali ravishda poytaxtga kirib keldi.

Bu xabarni Qatibaga yetkazish uchun Sabo xonim saharda barvaqt turib Qutlug' bilan Ko'shki Bog'i Muazzamga yo'lga tushdi. Qatiba ularning Hamadonda bu qadar hayallab qolib ketishidan shubhalanardi, chunki Saboning labziga ishonmas edi. Qatibaning fikricha, Sabo xonim Otabek bilan birinchi uchrashgan kuniyoq o'zini ham ko'nglidagi sirlarni ham sota olardi.

Sabo xonimning taxtiravoni bog'ning darvozasi oldida to'xtaganida, Qatiba o'g'liga ham qaramasdan:

— Sabo xonim, o'zimni juda yomon his etyapman, Qutlug'ni enagasiga topshir. Mening xonamga kir, — dedi-da, xonasiga kirib ketdi.

Sabo xonim Qatibaning hayajon va tashvishini ko'rgani zahoti ko'nglida: "Onamning arvohiga qasamki, bu safar qo'limdagi o'ljalarni senga arzonga sotmayman. Sen mening asiramsan, endi men istagan vaqtimda seni mahv eta olaman", dedi.

Qatibaning hayajon va iztiroblari haddan oshgandi. Sabo xonimning hayallaganini ko'rib unga ikkinchi martaba odam yubordi.

Sabo xonim Qatibaning yoniga kelgan vaqtida boshini qo'llari orasiga olib o'tirdi. Uning bu vaziyati Qatibaning ko'nglidagi vahimalarni yana orttirdi. Qatiba sabrsizlik bilan unga savol berdi:

— Nega gapirmaysan? Yuragim yorilib o'lishimni istaysanmi? Men seni nima uchun poytaxtga yuborgan edim?

Qatibaning bu savolidan keyin Sabo xonim boshini ko'tarib so'zlay boshladi:

— O'tinaman, menga rahm qiling, men uchun to'lagan pullaringizni uch baravar ortig'i bilan qaytarib oling-u, meni ozod qiling.

Qo'ying, men ketay, ko'chalarda gadoylik qilay. Bir bechora qizman, mening ham yashagim keladi.

Qatibaning iztirob va hayajoni yanada ortdi. Sabo xonimning avzoyidan mudhish bir xabar borligini sezib titrab so'radi:

— Mening jonim, mening sirdoshim, qanday falokat yuz berdi?

— Nima bo'lardi? Men boshimdan oyog'imgacha falokatlar girdobida emasmanmi?

— Aytsang-chi, axir, qanday falokat yuz berdi?

— Nima qilay? Ikki o't orasidaman. Bir tomondan malikaga yuragim achiydi, ikkinchi tomondan, Otabekning g'azabidan qo'rqaman. U bugun meni qopga solib hovuzga tashlamoqchi bo'lsa, kim uning qo'lidan qutqara oladi? Yolvoraman, meni ozod qiling!

Qatiba iltijo qilib unga dedi:

— Ajabo, sen ham meni g'urbat ellarda yolg'iz tashlab ketmoqchimisan?

— Ne chora? Otabek ular Bag'dodda qanday ishlar bilan mashg'ul edilar deb so'raydi. Agar to'g'risini aytsam malikani halok etgan bo'laman, yolg'on gapirsam, bir mamlakatning hukmdorini aldagan bo'laman. Yolg'onning oqibatini malikaning o'zi yaxshi biladi. Endi o'zingiz ayting, qo'limdan nima keladi? Shuning uchun aytyapmanki meni ozod qiling, biror yoqqa boshimni olib ketay. Otabekning ko'zi meni ko'rmasin.

Qatibaning qip-qizil yonoqlari qo'rquvdan bo'zday oqarib ketdi. Mag'rur Qatiba Saboning qarshisida eng ojiz bir mushukka o'xshab yalinib-yolvora boshladi:

— O'zingga ayonki, sen bo'lmasang bu baxtsiz Qatiba halok bo'ladi. Nega endi boshlagan ishingni oxiriga yetkazishni istamaysan? Sen o'ylaysanki, bu yaxshiliklaring mening esimdan chiqib ketadi deb?..

— Bundan so'ng malika men bilan bir o'rtoq va bir do'st singari muomalada bo'lishini istayman. Ana shunda men ham o'z ko'mak va muruvvatimni ayamayman. Hozir esa siz malika, men esa sizning cho'ringizman. Mayli, buyuring, qanday xizmatingiz bo'lsa bajo keltiray. Lekin o'z oyog'im bilan o'limga borishni istamayman.

— O‘ylaysanki, seni ozod qilishni istamasligim dunyo moli uchunmi? Sen uchun to‘lagan bir ming dirham ustiga yana uch ming dirham qo‘shib seni ozod qilaman. Lekin sensiz yashashim mumkin emas, sen meni tashlab ketmaslikka so‘z bersang, seni shu soatdayoq ozod qilaman.

— Sizning boshingizga ont ichaman. O‘ldirsalar ham muhtaram malikadan ayrilmayman.

Qatiba shu so‘zlardan keyin qalamdondan qalam oldi-da, bir parcha qog‘ozga: “Men Qatiba Amir Inonj qizi o‘z joriyam Sabo xonimning menga qilgan samimiy xizmatlari evaziga mukofot tariqasida cho‘rilikdan ozod qilaman”, deb yozdi, uni Sabo xonimga berib, yuzidan o‘pdi-da, so‘radi:

— Qani, endi ayt-chi, Otabekning maqsadi nima?

— Otabekning maqsadi qo‘rqinchli maqsad. Men ishonamanki, To‘g‘rulning yonida Otabekning odami bor.

— Qayerdan bilding?

— Malikaning Bag‘dodda To‘g‘rulga yozgan xati va mening vositam bilan yuborilgan maktub Otabekning qo‘liga tushgan.

Qatiba bu so‘zlarni eshitarkan, qo‘lini tizzasiga urib:

— Halok bo‘ldim, — dedi, — xo‘sh, o‘sha maktubni o‘zing ko‘rdingmi?

— Albatta, ko‘rdim! Otabek maktubni ko‘rsatarkan meni so‘kdi va xoin joriya deya, Bag‘dodga mening xotinimdan To‘g‘rulga maktub olib borganmiding? — dedi.

— Sen nima deb javob berding?

— O‘zingiz tushuning, qanday javob bera olardim.

— Menga rahming kelsin, Sabo! Otabekning boshidan bu shubhalarni chiqarib tashlash uchun tadbir ko‘rishing kerak. Nima istasang so‘ra, meni bu sharmandalikdan xalos et!

— Men nima qila olaman? Malikaning o‘z qo‘li bilan yozilgan maktubi Otabekning qo‘lida-ku!

— Sen uddasidan chiqa olasan. Zimmangga olgan vazifani o‘rniga qo‘yish qobiliyatiga egasan, nima istasang tila!

— O‘zim uchun bir imorat qurmoqchiman, yetim qizman, mening ham bir chiroq yoqadigan joyim bo‘lsin deyman.

— Senga ming tilla beraman. Qanoatlandingmi?

— Juda yaxshi, buni siz o'zingiz berasiz. Unda To'g'rul nima beradi? Siz Otabek uning ko'zlariga mil quymaydi deb o'ylaysizmi?

Qatiba yana tizzasiga urib:

— Ey Xudoyim-ey, bu qanday falokat! — dedi va ilova qildi, — agar shu ishni eplay olsang, men To'g'rul uchun ham ming tilla to'lashga so'z beraman.

Sabo xonim ortiq so'zlamadi. Jim qoldi, Qatiba uning rozi bo'lganini sezarkan, o'rnidan turdi va sandiqni ochib ming tillani Saboga sanab berib, dedi:

— To'g'rul senga ming tilla bermasa, uni ham men o'zim beraman. Menga ishonasanmi?

— Ishonaman.

— Demak, ishonsang, qani ayt-chi, maktub masalasini qanday hal qilasan?

Sabo xonim tillalarni o'z xonasiga olib chiqib qo'ydi va qaytib kelib o'tirganidan so'ng dedi:

— Shubhasizki, malika bir umrga Ko'shki Bog'i Muazzamda qolib ketmaydi. Sizning bu yerda ko'proq turib qolishingizning muayyan bir sababi bor.

Qatiba shoshilib so'radi:

— Qanday sababi bo'lishi mumkin? Mening bu yerda qolishim hibsga olinganligimdan boshqa bir ma'noni bermaydi.

— Siz hibsda emassiz. Bu yerda qolishingizning sababini eshiting! Go'zal o'z o'g'illari bilan poytaxtga kelishi kerak. Otabek esa, sizni Go'zal bilan yuzma-yuz kelishingizni xohlamaydi, vassalom. Sizni bu yerda saqlanib turishingizning sababi shu.

— Sen Go'zalni ko'rdingmi?

— Nega ko'rmay?

— Uni Go'zal deb atashlari haqiqatan ham go'zalligidanmi?

— Olamda ismi jismiga monand kelgan inson bo'lganmi?

— O'g'illarini ham ko'rdingmi?

— Ko'rdim, yosh bo'lishlariga qaramay juda katta ko'rinadilar.

— O'tirgan taxtiravonlari serhashammi?

— Ular taxtiravonda kelishmadi. Go'zal ham, o'g'illari ham ot minib keldilar.

— Otabek saroyiga tushdilarmi?

— Yo‘q, uning Otabek bilan ko‘rishmaganiga ancha bo‘lgan. Shuning uchun boshqa joyga qo‘ndi.

— Otabek uning istiqboliga chiqdimi?

— Chiqdi.

— U o‘g‘illarini o‘pdimi?

— O‘pdi, lekin bolalar uni tanimadilar.

— Ma’lum bo‘ldiki, u xotin aqlli xotin. Otabek mening haqimda nimalar dedi?

— Qo‘lida shunday bir xatingiz turgani holda sizning haqingizda nimalar deyishi mumkin?

— Bilmadim, sen menga yordam bera olasanmi?

— Bera olaman. Shubhasiz, a’lo hazrat sizni Hamadonga chaqiradi. O‘sha maktubni sizga ko‘rsatib uni siz yozgan, yozmaganligingizni surishtiradi. O‘shanda, ha, men yozganman, lekin To‘g‘rulga emas, balki Faxriddinga yozgan edim. Maqsadim shu xat bahonasi bilan uni saroyga oldirib kelib o‘ldirtirish edi deysiz. Shunday vaj ko‘rsata olasizmi?

— Ha. Lekin maktubni To‘g‘rulning qo‘liga qanday vosita bilan tushganini Otabek so‘rab qolsa unda nima deyman?

— Unda, Sabo xonim Faxriddinga beriladigan maktubni yanglishib To‘g‘rulga berib qo‘ygan ekan, deysiz. Qolganini menga qo‘yib beravering. Lekin shuni aytib qo‘yayki, Husomiddin ham meni mukofotlashi kerak, chunki u haqidagi shubhalarni tekislab qo‘yganman. Buni ham malikaning hurmati uchun qildim. Otabek haddan tashqari rashk qilib yurgan ekan.

Qatiba bu so‘zlardan keyin o‘rnidan turib uning og‘zidan o‘pdi va so‘radi:

— Zahir Balxiy va Kamoliddinlarni ko‘rganingda, ularga mening topshiriqlarimni yetkazdingmi?

— Ularni ko‘rdim-u, lekin topshiriqlaringizni yetkaza olmadim, chunki men saroy darvozasiga yetganimda, ularni Otabekning yonidan olib chiqib, hibsxonaga olib bormoqda edilar.

— Hibsxonaga?!

— Ha, ularni hibsga oldilar.

Qatiba biroz o‘ylab qolib, yana:

— Hammasi barbod bo‘ldi! — dedi va o‘yga toldi.

Tun og'ib qolgan edi, Sabo xonim "Kechangiz xayrli bo'lsin!" deb o'z xonasiga kirib ketdi. Qatiba esa o'z yotog'iga kirarkan, Hamadonda Go'zalning o'g'illari sharafiga berilgan ziyofatning qanday o'tganligini o'ylab qovurilar va uning ichini yashirin bir rashk alami timdalardi. Uning uyqusi bir tikan bo'lib ko'z qorachig'larini teshardi. Atlas par to'shak bir harsang tosh kabi uning badaniga botar, bosh tomonida yonib turga shamlarning cho'zilgan shu'lalari ilon shakliga kirib uning ko'rpasiga o'rmalab kelayotgandek tuyulardi.

Qatiba uxlay olmadi, o'rnidan turib ko'ylagini kiydi va uyning oldidagi gullarning tagiga o'tirdi. Lekin bu ham unga taskin bermadi.

Atrofidagi qizil gullarga boqarkan, bir yosh yigitning qabriga qo'yilgan gulchambarning g'amgin manzarasini eslatardi. Alvon chechakli xiyobonlar xarob bo'lgan bir shahardan esdalik qolgan ko'hna qabristonlardan ham mudhishroq edi. G'azabidan qizargan ko'zlari favvoralardan otilib chiqib hovuzga sochilayotgan qatralarga boqar ekan, xuddi ko'kdan qonli yomg'irlar yog'ayotgandek his qilardi. Yulduzlar aksini hovuzning ko'zgusida ko'rar ekan, go'yo parchalangan yer kurrasining zarralari suv yuziga sochilib ketgandek tasavvur qilar edi. Fazoning darchasidan boshini chiqarib kelayotgan o'n to'rt kunlik oy ham Qatibani yutish uchun og'zini ochib turgan bir ajdahoga o'xshardi. O'qtin-o'qtin chinor daraxtida sayrayotgan haqqushning "haqq, haqq" degani ham uning diqqatini o'ziga jalb etar edi. U "haqq, haqq" degan ovozni eshitib, o'z-o'zicha der edi: "Dunyoda haq yo'q, haqiqat yo'q. Bularning o'rnida aldashlar, shakarga botirilgan zaharlar bor. Insonga haqiqiy nash'ani bag'ishlaydigan, yuraklarning doimiy tipirchilashini to'xtatadigan, hayotdan charchab umidsizlik sezgan qalblardan, yillar, asrlarning kinli g'uborlarini sidirib tashlab, orzularni ro'yobga chiqaradigan narsa, faqatgina intiqomdir. Mening zo'r dushmanim o'z baxtimdir. Dushmanning bittasidan ham intiqom ololmaganim holda, taqdirim yana bir boshqa dushmanni tayyorlab qo'ydi. Lekin avvalgi dushman, so'nggi dushmanimdan yana ham kuchliroqdir, chunki birinchisini sevardim, ikkinchisi esa meni sevadi. Ikkinchisini mahv etish birinchisini mahv etishdan osonroq. Erlarning ham-

masi yolg'onchi, sevgida ham haqiqat yo'q. U meni sevardi, ont ichgan edi, so'z bergan edi, mendan boshqasiga uylanmoqchi emas edi. Chunki u, yosh jihatidan mendan ancha katta edi. Muhabbatni qandaydir bir javhar va ma'lum bo'lmagan bir modda ekanligini bir falsafiy aqida qilib qizlarning shuuriga singdirmoqchi bo'lgan olimlar naqadar olchoqlar... "Dunyoda sababsiz biror narsa yo'q" deganlar esa naqadar haqqoniy, naqadar oliyjanob shaxslar ekan. U go'zallikka sig'inganida edi, kambag'allar orasidan mendan ham go'zalroqlarini topa olardi. Lekin u xalifa bilan qarindosh bo'lish va shu vosita bilan mamlakatini kengaytirishni istagan edi. Men esa uning maqsadlarining faqatgina vositasi bo'lishim kerak ekan. U menga uylanishi bilan, bir tomondan, o'lkalarning egasi bo'ldi, ikkinchi tomondan kelgusidan baxt istiqbol orzu qilgan bir qizni o'z nafsiga qurbon qildi. Xalifa o'ldi, uning menga bo'lgan muhabbati ham so'ndi. Endi esa unga yangi-yangi qurbonlar lozim, qurbon bo'lganida ham arzon qurbonlar. Lekin men u o'ylagandek arzon emasman. U mening hayotimni qo'limdan oldi, buning uchun o'z hayoti bilan javob berishi kerak. U meni mahv etdi, men esa butun Eldaniz xonadonini mahv etaman. Uning naslini qoldirmaslikka harakat qilaman. Men uchun qimmatli bo'lgani faqat o'g'limdir, chunki uning bir bo'lagi mening qonimdandir. Ona muhabbatini qalbdan siqib chiqaradigan biror dori topilsa edi. Men bu rasvo, aldoqchi xonadondan nafas olib turgan bitta ham tirik jonni omon chiqarmas edim. Lekin go'dak menga o'xshaydi, u meniki, meniki bo'lgani uchun ham ota muhabbatidan mahrum. Bir zamonlar lablarimdan o'par ekan, "bu dudoqlar mening hayot bulog'imdir" degan aldamchi lablar bir marta bo'lsa ham o'g'lining lablaridan o'pmadi. Xiyonat bilan mening lablarimga to'qnashgan lablarning boshqa lablar bilan to'qnashganini ko'rganimda yana yalinib-yolvorish va haqiqatlarga sig'inishni ham lozim ko'rmayman. Bu mushkul ishlarning iloji faqat intiqomdir. Xotin kishi badanini boshqa bir erkakka sotilishi bilan diyonat, nomus va muhabbatning sotilishi kabi deb qarovchi kishilar insoniyatning eng ongsiz, orqada qolib ketgan qismidir, chunki sotilgan narsa bir parchagina etdan iborat bo'lmay, har narsadan pok bo'lgan oilaviy vijdondan iborat. Pok sevgining o'zi ham shu vijdondan suzib olingan javhardan

iborat. Olamda diyonat, nomus va sharaf deb nomlangan narsalar bo'lsa, ular ham faqat shu javhardir. Demakki, pok sevgi meni sotgan kishida yo'q edi. U savdogar, baqqol. Eng avval, u meni sotdi, men uchun ham yo'l ochib berdi. Ajabo, uning rashk qilishga qanday haqqi bor? Men boshqaning quchog'iga kirib yotganim yo'q-ku. Uning xotini bo'lganim uchun boshqa erkakka boqmadim. Boshqa birovdan o'g'il ham tug'madim, uning meni xiyonatkor deyishga haqqi bormidi? U boshqa xotinga uylandi hamda otamning qotillarini himoya qildi. Xalifaning oldida Faxriddinning peshonasidan o'pdi. Mening qalbimni yaraladi... Mening otamga qarshi isyonlar ko'targan Nizomiyni o'ldirmadi. U hozir o'z o'g'li va o'z xotini bilan o'tirib she'r yozmoqda. Holbuki Otabek mening qo'limni tutgan vaqtida Nizomiyni o'ldirishga so'z bergan edi".

Qatiba shularni o'ylar ekan, birin-ketin bosib kelayotgan xayollari yana uni kechmishiga olib ketdi. Uning ko'z oldida Otabek bilan birinchi martaba uchrashgan kunlar va ayniqsa to'y kechasining asosiy daqiqalari jonlandi. Uni rashk o'tining issiq terlari cho'miltira boshladi va birdan seskanib ketdi. Xuddi uning qarshisida navqiron Otabek turgandek, u birinchi martaba Qatibaning lablarini lablariga yaqinlashtirayotgandek bo'ldi.

Qatiba shu xayollar og'ushida: "Otabek, sen bu lablarga ont ichishing kerak, anovi shoir mahv etilishi lozim", degan edi.

Qatiba shu so'zlarni takrorlar ekan, quloqlari ham xuddi shu so'zlarni eshitardi: "Qatiba, shu dudoqlarga ont ichaman, men o'sha shoirni mahv etaman". Qatiba bunday xayollar bilan o'tgan kunlarning quchog'ida edi: Qatiba Otabekning qo'ynida nozlanardi, Otabek esa bir kosa nodir marvaridlarni uning siynasiga sochib: "Badaningning oqligi nodir marvaridlarning jilosini ham mag'lub etadi", derdi.

Qatiba shunday shirin xayollar ta'siri ostida qo'llarini uzatib, yosh Otabekin bag'riga bosmoqchi bo'larkan, o'z siynasini quchoqladi va seskanib ketib o'ziga keldi: "yo'q, — dedi, — endi u meniki emas. Uning qo'llari endi boshqa xotinning bo'ynida, dur-gavharlar endi boshqa xotinning ko'ksiga sochilmoqda, ayni zamonda uning lablari ham boshqa lablarga yaqinlashib, berayotgan va'dalariga ont ichayotgandir, chunki erkaklarning odati va'da

berib, ont ichish va ontni buzishdan iborat. Xotin kishilar esa qayg'u-alamlar ichida qovurilar, xiyonatkor erlarni insofga keltirish uchun urinar, cholishar, umidsizliklar quchog'ida sil bo'lar va nihoyat sabr-toqatdan boshqa hech narsa qilolmasdilar. Lekin men sabr-qanoat qilmayman, chunki men ojiz xotinlardan emasman, sabr-toqat ojizlar uchundir. U meni sotdi, bu bilan meni ruhan va ma'naviy tomondan o'ldirdi. Men endi u ma'naviyatni boshqa bir erkakdan ololmayman. Men endi unga bo'lgan muhabbatimni unga qarshi intiqom tuyg'ulari bilan almashtirdim".

Qatiba o'rnidan turganida o'zini juda og'ir his etdi. U butun umrida birinchi martaba shunday bir og'irlikni his etar edi. Vujudi titradi. "Ajabo, men qaridimmi?" dedi-da, yotog'iga kirdi. Ko'zguning oldiga borib aksiga diqqat bilan tikildi va o'z-o'ziga: "Ko'zlarim hali ham qop-qora, uning sitamkor boqishlari saqlangan. Sochlarim ham o'sha, qoshlarim ham, lekin mana, qovoqlarim atrofidagi manavi moviy halqachadar nima bo'lsa ekan? Yosh ekanman, bu nishonalar ko'zlarimning atrofida yo'q edi. Unda bular nimadan?"

Qatiba bu so'zlariga o'zi javob bera boshladi: "Bu nishonalar kechalari uyqusizlikdan, tong otguncha derazadan osmonga tikilib yulduz sanashdan. Men bir yilning ichida ko'kda suzgan yulduzlarning hammasi bilan tanishib chiqdim. Mening qovoqlarim ko'karmay, kimniki ko'karsin? Bu ko'zlar tong otguncha minglarcha yulduzlarni o'z qarorgohiga kuzatish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu ko'zlar uch yuz kechadirki, oyni kutib olib Alvand tog'ining orqasiga kuzatadi. Bu ko'zlar bir yildirki, kechalari banotunna'sh[1] yulduzlari bilan birga halok bo'lgan yoshlikning bebaho, noyob kunlarida yig'laydi".

Qatiba bir uh tortib, o'z qiyofasiga yana bir nazar tashladi: "Qaddi-qomatim o'z o'rnida, hozircha qarilikka bo'yin egganim yo'q", deb joriyasini chaqirdi va:

---

[1] **"Banotunna'sh"** — arabcha lug'aviy ma'nosi murda atrofida turib yig'lagan qizlarga aytiladi. Arablar shimol bilan sharq oralig'ida cho'zilib yotgan bir turkum yulduzlar atrofida saf tortgan yulduzlarga "Banotunna'sh": ya'ni murda atrofida yig'layotgan qizlar nomini berganlar: Ozarbayjonda va o'zbeklarda bu yulduzlarni yetti og'ayni yulduzlari deyiladi.

— Dasturxonni yozinglar-da, Husomiddinni huzurimga chaqiringlar! — dedi.

Qatibaning kechki dasturxoni Mashanrud soyi tomonga qaragan bir boloxonada tuzalgan edi. Damovand bilan Alvand tog'laridan ko'tarilgan shamol Farivar vodiysining muattar hidlarini Qatiba o'tirgan boloxonagacha olib kelmoqda edi. Qatiba parishon sochlarini yelkasiga tashlab, o'tirib, Husomiddinni kutmoqda edi. Husomiddin kirib keldi, salom berdi. Qatibaning sochlaridan anqiyotgan atir hidlari Husomiddinda Qatibaga nisbatan yangi bir ishtiyoq uyg'otmoqda edi. U hozirga qadar uni bunday libosda, bunday go'zallikda ko'rmagan edi.

Qatibaning egnidagi harir shoyi ko'ylagi yoqasidan siynasining yarmi ko'rinib turar va shamlarning shu'lasida marmarday yaraqlardi. U oppoq, nozik qo'llari bilan tizzasini quchoqlab o'tirar, barmoqlaridagi uzuklar, ko'ksidagi brilliant tumorlar ko'proq Husomiddinning diqqatini jalb etar edi. Qatiba unga yonidan joy ko'rsatdi va:

— Bu yerga o'tir, Husomiddin! — dedi. — Sir-u asrorlarni so'zlash uchun sendan boshqa hech kim qolmadi. Bu oqshomni qanday bir oqshom ekanligini bilasanmi? Bu oqshom Otabek o'z xotini va o'z o'g'illari bilan saroyda ziyofat qurgan oqshom. Biz ham bu kecha muhim bir hodisa poydevorini qurishimiz lozim. Lekin sen shuni bilginki, Otabek hamma sirlarimizdan voqif bo'libdi. U bizdan badgumon. Undagi shubha va rashklar haddidan oshgan. Lekin sen ortiq tashvishlanma. Bizning Otabekka qarshi adovatimiz bilan biz minglarcha hamfikrlar topamiz. Otabek Zahir Balxiy bilan Kamoliddinni Hamadonda hibsga oldiribdi. Bu voqealarning hammasi uning bizga qarshi boshlamoqchi bo'lgan xurujlarining muqaddimasi. Biz ham o'z vaqtida amalga oshirmoqchi bo'lgan rejalarimizga zamin hozirlashimiz kerak.

Husomiddin Qatibaning nima demoqchiligini darhol tushundi, busiz ham u Qatibaning Otabek Muhammaddan qasos olish fikrlariga har vaqt rozi edi.

Husomiddin bilan Qatiba bir-biriga yaqinlashishdi. Shabada Qatibaning sochlarini uchirib Husomiddinning kiftiga yopgan

zumlarda, Husomiddin uning quloqlaridagi isirg'aga bitilgan "O bilan M"[1] harflarini o'qidi.

Husomiddin uning oppoq, nozik quloqlaridan o'par ekan, sekingina pichirlab:

— Malikaning butun fikrlariga sherikman. Unga butun borlig'im bilan ko'mak beraman, — dedi.

Qatiba unga javoban:

— Bu lablar o'g'lim To'g'rulga valiahd qilib tayin etilishiga va Otabekdan intiqom olinishiga qasamyod etishi kerak, — derkan, Husomiddin ham uning qulog'iga emas, lablariga yaqinlashib:

— Shu lablarga ont ichaman! — dedi. Qatiba lablarini uning lablaridan uzib, quchog'idan sirg'alib chiqqach:

— Men bu og'ushga Otabek qo'lidan batamom ozod bo'lganimdan keyingina erkin kira olaman, — dedi. So'ngra bir oh tortib. — Oh, erkaklarning ahd-u paymonlari xotinlarning quchog'idan chiqqunga qadar, xolos, — dedi.

Husomiddin qat'iy javob berdi:

— Otabek mahv etiladi. Sizga so'z beraman!

XII ASRNING YARMISIDA OZARBAYJON

XII asrning ikkinchi yarmida xalifaning bayrog'i ostidagi hukmdorlarning eng qudratlisi Ozarbayjon Otabeklari edi. Ozarbayjon hukumati uchun yagona raqib Xorazm shohlari edi. Alouddin Tekesh taxtga chiqqach, kurash yana ham keskin tus oldi. Sulton Tekesh nima qilib bo'lsa ham, xalifaga ta'sir etish uchun Bag'dodga yo'l ochishi kerak edi. Lekin Ozarbayjon Otabeklarining jug'rofiy mavqeyi Sulton Tekeshning bu orzulariga g'ov bo'lib turardi. Harbiy va jug'rofiy vaziyati qulay bo'lgan Ozarbayjon Rey va Iroqning Otabeklar qo'lida bo'lishi Bag'dodni doim o'z ta'sirlari ostida saqlashga yordam berardi.

Ozarbayjon Otabeklari istagan vaqtlarida Bag'dodni ishg'ol qila bilar va aytganlarini xalifaga qildira olardilar. Ozarbayjon Otabeklari shu vajdan istagan vaqtlarida xalifani taxtidan tushirib,

[1] Otabek Muhammad sharqning eng katta zumradlaridan yasalgan isirg'ani yodgorlik uchun Qatibaga bergan edi.

o‘rniga boshqasini tayin qila olish qudratiga ega edilar. Salohiddin Ayyub ahli salib muhorabasi bilan mashg‘ul bo‘lganidan, xalifaning ixtiyori tamomila Ozarbayjon Otabeklarining qo‘liga o‘tgan edi.

Xalifa uchun ham Ozarbayjon Otabeklarining kuchiga sig‘inish qulayroq edi. Shuning uchun Ozarbayjon Otabeklari Iroqdagi siyosiy fitnalarga qaramay, poytaxtni Hamadondan Tabrizga ko‘chirishni istamas edilar, chunki poytaxtni Hamadondan ko‘chirilishi Bag‘dodning darvozasini qo‘shni hukumatlarga ochib berish, demak edi.

Ozarbayjon Otabeklarining mamlakatlari shimol, janub, g‘arb va O‘rta Osiyo mamlakatlarini idora qilib turgan hukmdorlarning Bag‘dod va Hindiston bilan aloqa bog‘lashlariga monelik tug‘dirardi. Otabeklar Sharqning iqtisodiy kalitlarini o‘z qo‘llarida saqlab turar edilar. Ular xohlagan mamlakatlarning savdo yo‘llarini berkita olar va iqtisodiy qiyinchiliklar tug‘dira olardilar.

Ozarbayjon Otabeklari saljuqiylarning tutgan siyosatini davom ettirar edi. Saljuqiylarning tutgan siyosiy xatti-harakati, xuddi eski midiyaliklarning xatti-harakatiga o‘xshar edi. Midiya hukmdorlari osuriylar va galdoniylarni shimol va sharq mamlakatlariga kiritmaslik uchun Hamadonni qo‘llarida mahkam tutganlaridek, saljuqiylar ham shimol-sharq hukmdorlarini janubga o‘tkazmaslik uchun Bag‘dodning darvozasi hisoblangan Hamadonni poytaxt qilishga qaror qilgan edilar. Bir zamonlarda Midiya hukmdori Astyagin galdoniylar, osuriylarga qarshi kurashda qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, Qoraxitoy, Turkiston, Xorazm va boshqa mamlakatlarga qarshi kurashda Ozarbayjon Otabeklari ham shunday rol o‘ynamoqdalar. Ana shundan sabablar Otabek poytaxtini Tabrizga ko‘chirishga majbur qilgan edi.

Hamadon va Ozarbayjon Otabeklarining qo‘lidan olish uchun boshlangan qonli janglar, ozarbayjonliklarning qahramonligi natijasida Otabeklarning g‘alabasi bilan tugagan edi.

O‘rta Osiyo va Xorazm hukmdorlari ittifoq tuzib, Ozarbayjon Otabeklarini o‘z tuprog‘ida tor-mor qilishga qaror qilgan edilar, lekin ozarbayjon xalqining qattiq qarshiligiga duch kelib, qaytib ketishga majbur bo‘ldilar.

Saljuq shahzodalarining ajnabiylar qo'lida qurol bo'lishi natijasida, Ozarbayjon ichida siyosiy fitnalar va siyosiy g'alayonlar ko'tarilib turardi.

Nizomiy davrida ajnabiy josuslar Ozarbayjonda ko'paygan edi. Bular davlat idoralari va podshoh saroylarini o'z qo'llariga olib, milliy madaniyatni chiritishga, mahalliy til va adabiyotning ajnabiylar tiliga va madaniyatiga tobe qilishga urindilar.

Qatibaning o'z eriga qarshi tayyorlagan suiqasdlari shu xildagi besaranjom, tahlikali davrda yuz bergan edi. Otabek mamlakatlari urush arafasida edi. Iroqda mustaqillik uchun kurashga intilish borgan sari kuchayib borardi. Eronda Eldaniz xonadoniga qarshi ko'tarilgan harakat boshqa bir xonadonning yuzaga chiqishiga zamin yaratar edi.

Eronliklar bilan iroqliklar Qizil Arslon va Otabek Muhammadlarning saltanatlariga qarshi o'zlarining ojiz ekanliklarini his etar edilar. Shuning uchun ham mamlakatda To'g'rulni taxtga o'tqazish masalasi ko'tarilgan edi. Iroq va Eron ziyolilari shu maqsadda ajnabiylarning atrofiga yig'ilgan edilar. Xususan, Xorazm shohining josusi Zahir Balxiy To'g'rulni taxtga o'tirg'izish uchun qo'lidan kelganicha urinar va Sulton Tekeshdan pul olib, uning tarafdorlariga mukofot va sovg'alar ulashar edi.

Zahir Balxiy bilan Kamoliddin hibsga olinganidan so'ng Otabek Muhammad To'g'rulni Ganjadan Hamadonga chaqirib olib ko'zlariga qo'rg'oshin quydirmoqchi bo'ldi, buni bilib qolgan Qatiba zudlik bilan Ganjaga chopar yuborib To'g'rulga ahvolni tushuntirdi.

To'g'rul ikki-uch ishongan kishisi bilan kechasi Ganjadan maxfiy suratda chiqib, Xorazm mamlakatiga qochdi.

To'g'rulning Ganjadan qochishi uning ajnabiylar ta'sirida ekanligini, Ozarbayjonni Iroq, Xorazm va Eron o'rtasida taqsim qilmoqchi bo'lganlarning tarafdori ekanligini fosh qilib qo'ydi.

Lekin To'g'rul Ganjadan qochishi bilan tinchimadi, u Iroq vatanparvarlari bilan xat orqali aloqada bo'lib, Otabek Muhammadning hokimiyatiga qarshi fitna uyushtirishni davom ettirdi.

Hamadonda bir majlis chaqirildi. Otabekning o'g'illarini o'ldirish uchun yuborilgan ikki kishi va Nizomiyni o'ldirish uchun kelgan uch kishi taftish uchun hibsxonadan majlis xonasiga keltirildi.

Zahir Balxiy bilan Kamoliddin zindondan qochirilgan edi. Shuning uchun Hamadon qozisi boshchiligida o'tkazilgan taftishda hamma gunoh Zahir Balxiy bilan Kamoliddinning bo'yniga yuklandi. Nizomiyga suiqasd qilish va Otabekning o'g'illarini o'ldirish uchun yuborilgan kishilar hamma gunohni Qatiba bilan Zahir Balxiyning ustiga qo'yib bir og'izdan: "Bizlarni Balxiy yollagan, Otabekning malikasi esa pul va'da qilgan edi..." deb turib oldilar.

Majlisning qaroriga ko'ra jinoyatni ijro qilish uchun kelgan kishilar qatl qilinishi kerak edi. Lekin Nizomiyning Otabekka yuborgan maktubi o'qilganidan so'ng, uchta gunohkorni Otabek mamlakatidan chiqarib yuborishga hukm qilindi. Nizomiy maktubida shunday yozgan edi:

"Hukmdori muazzam!

Mening hayotimga suiqasd qilmoqchi bo'lgan aybdorlarni ozod qilishni so'rayman. Ularning menga qarshi hech qanday dushmanliklari yo'q. Men ularni tanimaganim singari ular ham meni tanimaydilar. Otabek hazratlari adolatli ish qilishni istar ekanlar, ularni bu jinoyatga boshlaganlarni jazolasinlar!

Ilyos Ganja"

Otabek Muhammadning so'nggi qarori, Qatibani poytaxtdan uzoqlashtirish va To'g'rulni Xorazmdan Ozarbayjonga chaqirib olib, ajnabiylarning fitnasiga xotima berishdan iborat edi.

Qatibani poytaxtdan uzoqlashtirish uchun uning o'g'li Qutlug' Inonjni Rey hokimi qilib tayinlash va uni onasi bilan birga Rey mamlakatiga jo'natmoqchi bo'ldilar. Qatiba avval bu qarorga rozi bo'ldi, lekin o'g'li ko'chib ketganidan so'ng: "Poytaxtni tashlab ketmayman", deb avvalgi so'zidan qaytdi.

Otabek Muhammad To'g'rulni Xorazmdan chaqirib olishni Qizil Arslonga topshirgan edi, chunki To'g'rul Qizil Arslonning so'ziga ishonar edi.

Qizil Arslon To'g'rulga yuborgan maktubida shunday yozgan edi:

"Aziz qardoshim!

Senga ma'lumki, hozirgi saltanatimiz otamiz Eldanizning qilich va rahmatli onamiz Turkon xotunning tadbirlari soyasida vujudga kelgan edi. Shunday bir mashaqqatlar bilan barpo bo'lgan saltanatni ajnabiylarning oyog'i ostiga tashlash, Ozarbayjon tarixida bir dog' bo'lib qolishi mumkin. Sening Zahir Balxiy va boshqa shunga o'xshash ajnabiylar bilan munosabatda bo'lishing o'z vataningga qarshi kechirilmas bir xatodir. Sening ajnabiy mamlakatlarga panoh izlab borishingga hech qanday vaj yo'q. Sen bilan Otabek Muhammad o'rtasida bo'lgan ixtilofning manbai bizning uchalamiz uchun ham ma'lumdir. Buni Otabek hazratlari yetarli darajada aniqlab olganlar. Shuning uchun ham maktubni olishing bilanoq Tabrizga qaytishing lozim. Yaxshi bilasanki, rahmatli onang Turkon xotun meni sizlarning hammangizdan ham ortiq sevardi. Men seni himoya qilish uchun uning qabri ustida ont ichaman. Tabrizga kel, men bilan birga poytaxtga borasan. U yerda sen Otabekka sodiqligingga ont ichasan, Otabek ham sening gunohlaringni kechiradi.

Aziz, sevimli qadrdoning Qizil Arslon".

Maktub yuborilganidan yigirma kun o'tgach, To'g'rul Tabrizga yetib keldi. Bir necha kun dam olganidan so'ng Qizil Arslon bilan birga Hamadonga yo'lga tushdi. Otabek Muhammad qardoshlarini tantana bilan kutib oldi. To'g'rul o'z saroyiga bormasdan Qizil Arslon bilan birga Otabekning saroyida istiqomat qildilar. Qatiba Qizil Arslonning To'g'rul uchun qilgan g'amxo'rligiga ichidan sevinar edi, chunki To'g'rul mahv etilgan taqdirda, uning maqsadlari amalga oshmay qolishi mumkin edi. Qatiba Otabek Muhammadni mahv etganidan so'ng, To'g'rulni Ozarbayjon taxtiga chiqarish bilan o'z o'g'lini valiahd qilishni istar edi. Lekin Qizil Arslon hech qachon Qatibaning o'g'lini valiahd bo'lib qolishiga yo'l qo'ymas edi, chunki u Otabekning o'g'li Abubakirni Tabriz saroyiga olib kelib hukumat ishlari bilan tanishtirar va kelajak uchun tayyorlar edi.

Qatibani bezovta qilgan narsa ham shu edi. Uning butun umidlari To'g'rulda edi. Chunki To'g'rul bilan har qanday masalada kelisha olish mumkin edi.

Oila bir dasturxon atrofiga yig'ilgan edilar.Ular Qatibani kutardilar. Qatiba xonaga kirib kelishi bilan To'g'rul va Qizil Arslon o'rnidan turib ta'zim qildilar. Otabek Muhammad ham ularga ergashib o'rnidan turdi, o'n yildan beri o'rniga qo'ymagan vazifasini bajo keltirdi. Dasturxon atrofiga o'tirdilar, taomdan avval suhbat boshlandi.

Qizil Arslon so'zni bunday boshladi:

— Katta-katta mamlakatlarning yuz minglarcha xalqlari o'z taqdirlarini shu dasturxonning boshida o'tirganlarning qo'liga topshirib qo'yganlar. Mamlakatlararo chiqqan har qanday nizolarni faqat shu dasturxon tepasida o'tirganlar hal etishi lozim. Biroq, shu dasturxon atrofida o'tirganlar ichida ixtilof chiqquday bo'lsa, buni kim hal eta oladi? Mamlakat atrofidagi dushmanlarmi? Oramizda shunchalik ziddiyat bormiki, boshqalarning aralashishiga ehtiyoj bor bo'lsa. Eng avval qardoshim To'g'ruldan boshlaylik. Uning noroziligi nimadan iborat? Podshohligi qo'lidan ketganmi? Nima bilan buni isbot qila oladi? Ajabo, qardoshimizning o'zi Otabek Muhammad unga kafil bo'lgan emasmidi? Kafil bo'lgan edi. Bordi-yu, Otabek Muhammad mamlakatni vayron qilib qo'ldan berib qo'ygan taqdirda ham Eldaniz avlodlari hozirgiday shu dasturxonning atrofiga yig'ilib: "Qardosh Muhammad, mamlakatni idora qilolmading, endi ish boshidan ket", derdi. Agar bu taklifni qabul qilmasa, biz ketishga majbur qila olardik. Lekin Otabek Muhammad sen tomondan vakolat olgan kundan beri, mamlakat chegaralarini Kirmonga qadar kengaytirdi. Ko'r soyidan boshlab Dajla va Frot daryolarining sohillarigacha bizning tasarrufimizga o'tdi. Bag'dod xalifalari bizning ta'sirimiz ostiga tushgan va ozarbayjon xalqidek buyuk bir xalq Eldaniz o'g'lonlarini o'z hukmdorlari deb hisoblagan bir paytda, qardoshimiz To'g'rul nimadan norozi? Men sening qardoshing emasmanmi? Istasang kel, Tabrizda qol, men borib Ganjada turaman. Yoxud sen borib Ganjada yasha. Katta akamiz Otabek Muhammad ham saroy ikir-chikirlari va joriyalarning mojarolariga ahamiyat bermasligi kerak. Atrofdagi dushmanlar bizni hech narsa qilolmaydilar. Ular mamlakatimizning ichidan yemirishga harakat qilmoqdalar. Shuning uchun ham biz

shaxsiy manfaatlarni bir tomonga yig'ishtirib qo'yib, butun mamlakatimizning g'amini yeyishimiz kerak.

Qizil Arslon To'g'rul haqida gapirganidan so'ng so'zni Qatiba ustiga ko'chirdi.

— Akam Otabekning ozarbayjonlik qizga uylanishi masalasiga men butunlay boshqa bir ko'z bilan qarayman. Bu nikohning siyosiy bir mazmuni bor. Na men, na ukam va na malika hech birimiz ozarbayjonlik emasmiz. Akamning Go'zal nomli qizga uylanishi naslimizni Ozarbayjon nasli bilan qo'shilishi demakdir. Xalq bizning avlodimizni o'z tug'ishgan vatandoshi va o'z tug'ishgan hukmdorlaridek taniy boshlaydi. Lekin bu Go'zal xonim ham malikaga ko'rsatilgan hurmat va ehtiromlarga sazovor demak emas. Malika hamma vaqt o'z malikaligida qoladi. Go'zal xonimning o'g'lonlari ham Go'zalning o'g'lonlari bo'lib qoladi. Avlodimiz qanchalik ko'paysa, mamlakatimiz ham shunchalik ishonchli odamlarga ega bo'ladi. Mamlakatlarimizda begonalarni ish boshiga qo'ygandan ko'ra, avlodlarimizni hukmdor qilib tayinlasak yaxshi bo'lmaydimi? Men shunday o'ylaymanki, bularning hammasi umumiy vazifalarimizni tushunmaslik natijasida tug'ilgan anglashilmovchiliklardir. Biz dasturxon ustida ont ichishimiz kerak. Mamlakatning hozirgi vaziyati ish birligi va fikr birligini talab qiladi.

Eng avval Otabek Muhammad ont ichib dedi:

— Men Eldanizning va Turkon xotunning arvohini shafe keltirib ont ichaman: "Men hech qachon o'z qardoshlarimga xiyonat qilmayman. Men o'z vazifamni qardoshlarning maslahati va yordamlari vositasi bilan bajaraman".

Otabek Muhammaddan so'ng To'g'rul qo'lini dasturxonga qo'yib turib ont ichdi:

— Men Eldaniz va Turkon xotunning arvohini shafe keltirib ont ichaman. Men hech qachon mamlakatga va qardoshlarimga xiyonat qilmayman, hech qachon ajnabiylarning davlatimiz ishlariga aralashishiga yo'l qo'ymayman. Hech qachon aka-ukalarim nomusiga dog' tushirmayman.

Bulardan so'ng Qatiba ham qo'lini dasturxonga qo'yib ont ichdi:

— Men Eldaniz xonadonining uzoq yillar hukm surishiga qo'limdan kelgancha yordam qilaman. Eldaniz avlodidan tarqagan naslini o'z naslim va o'z avlodim kabi sevaman. Men bu xonadonning sharaf va nomusiga dog' tushiradigan har qanday harakatga qo'shilmayman.

Hammadan keyin Qizil Arslon qo'lini dasturxonga qo'yib:

— Mamlakatning qudratini mustahkamlash, chegaralarini kengaytirish uchun jon-tanim bilan harakat qilishga ont ichaman, — dedi.

Qasamyod etish tugaganidan so'ng joriyalar kirib kelib dasturxonga turli taomlar qo'ydilar.

O'LIM HUKMI

Otabek Bag'dodga chaqirilgan edi. Qatiba bu fursatdan foydalanib kechasi To'g'rulni o'z huzuriga chaqirtirdi va Otabek Muhammadning nojo'ya harakatlaridan shikoyat qilib, dedi

— Siz mening qarindosh-urug'larga qanchalik mehribon ekanligimni bilsangiz kerak. Lekin akangiz mening o'g'limdan Go'zalning o'g'lini yaxshi ko'radi. Uning bir qishloqi qiziga uylanishi mening uchun tahqir bo'lib tushdi. Nihoyat, o'g'limni mendan ajratib Reyga hokim qilib yubordi, bu bilan meni poytaxtdan uzoqlashtirmoqchi. Shu bugunoq men o'z boshimni olib bu yerdan ketishim mumkin, lekin sizning hayotingizni uning qo'liga topshirib ketishga jur'at etolmayman, uning dasturxon ustida ichgan qasamiga ishonmang. U o'z nafsi uchun butun Eldaniz xonadonini yo'q qila olishi mumkin. Xususan, u keyingi vaqtlarda juda ham asabiylashgan. Qon to'kish, ko'z chiqarish uchun biror bahona axtarmoqda. Juda ham mushkul bir vaziyatda qoldim. Uni sevaman lekin mamlakatni, xonadonimizning shuhratini undan ko'proq sevish lozim. U taxtidan o'z ixtiyori bilan voz kechsa edi, men ham malikalikdan kechib, sodda va oddiy bir xotin singari yashashga rozi bo'lardim. Mamlakat yana bir qancha vaqtgacha uning qo'l ostida qolsa, xarob bo'lishi shubhasizdir. Uning qo'shni hukumatlarga munosabati ham juda yomon. Hozirning o'zida Otabek mamlakatlarining na birorta do'sti va na ittifoqchisi bor. Atrofimizni

dushmanlar o'rab olgan. O't halqasi ichida yashamoqdamiz. Otabek esa o'z qaysarligini qo'ymaydi. Lekin biz bunga sovuqqonlik bilan qaray olmaymiz. Shuning uchun sizni huzurimga chaqirgan edim. Siz o'z xavfsizligingiz to'g'risida o'ylashingiz kerak. Bag'doddan sizga yozgan maktubim uning qo'liga tushibdi. U bizning hamma tashabbuslarimizdan voqif bo'lib qolgan. Nizomiyni halok etish va Go'zalning o'g'illarini o'ldirmoqchi bo'lganimizni bilib qolibdi.

Qatibaning fikrlari o'lim tahlikasi ostida yashagan To'g'rulning xohishlariga uyg'un kelar edi. Uzoq sukutdan so'ng Qatibaning qo'lini olib o'pdi-da:

— To'g'ri aytasan aqlli, najib malikam,— dedi. Qatiba ham bir xo'rsinib:

— Oh, bu qo'l sizdek odil, axloqli, oliyjanob bir hukmdorning qo'lida bo'lsa edi!— dedi.

To'g'rul yana bir martaba uning qo'lini o'pib: "Bu najib malikaning o'ziga bog'liq!" dedi.

— Yo'q, u menga bog'liq emas. Otabek Muhammad tirik ekan, sizning orzularingiz quruq bir xayol bo'lib qoladi.

— Mening orzularimni haqiqatga aylantirish malikaning o'ziga bog'liq. Lekin bilmayman, malikaga ishonsa bo'ladimi?

Shu so'zdan keyin Qatiba lablarini To'g'rulga tutib:

— Bu dudoqlarimni o'z sadoqatimda mustahkam turishim uchun garovga qo'yaman, — deganida To'g'rul uning dudoqlaridan o'pdi va quchog'iga tortmoqchi bo'larkan, Qatiba uni rad qilib:

— Hozircha shuning o'zi bas. Qolgani esa va'dalarga vafo qilinganidan so'ng, — dedi.

To'g'rul endi Qatibaga ishondi, unga yuragini ochib gapirishga qaror qildi:

— Go'zal malika, sizning dono fikrlaringizni amalga oshirish uchun ko'pdan beri zamin tayyorlangan. Iroqliklar bu fikrimizni qo'llab-quvvatlaydilar. Xorazm shohi Tekesh ham malikaga o'z qo'shinlari bilan yordamga keladi. Sizning o'g'lingiz masalasiga kelsak, u ham sizning xohishingizga qarab hal qilinadi. Sizning o'g'lingiz Sulton To'g'rulning valiahdi bo'ladi. Bunga rozimisiz?

— Bu ozlik qiladi. Nizomiy bilan Faxriddin mahv etilishi kerak. Otamning o'ldirishda qatnashganlarning hammasi qatl etili-

shi, shuningdek, Go'zalning o'g'illari Abubakir bilan O'zbak ham o'ldirilishi lozim. Keyin Husomiddinga Amirul umarolik mansabini berish kerak.

— Bilmadim, Husomiddinga ishonish mumkinmikin?

— Husomiddin bizning kishimiz. U Sulton To'g'rulga sadoqat bilan xizmat qilishga tayyor.

— Sizga ishonaman, malika, lekin biroz ehtiyotkor bo'lishingiz kerak.

— Sulton To'g'rul eng qiyin ishlarni malikaga topshira oladi. Lekin Sulton taxtga o'tirganidan keyin malikalik unvoni faqat Qatibaga tegishli bo'lishi kerak. Sulton bunga o'z vijdoni oldida so'z beraoladimi?

Suhbat shu yerda kesildi, chunki uning huzuriga Husomiddin kirmoq bo'lganidan darak berdilar. To'g'rul bir eshikdan chiqar ekan, ikkinchi eshikdan Husomiddin kirib keldi.

Husomiddinning qosh-qovog'i osilgan edi. U Qatiba bilan To'g'rulning munosabatidan shubhalanib rashk qilar edi.

Qatiba buni darhol sezdi va nozlanib dedi:

— Azaldan shundoq. Erkak kishi bir xotinning o'ziga muhabbat qo'yganini sezib qolsa, tez-tez arazlab, injiqlik qila boshlaydi. Bilmadim, mening do'stim qachon aqlini boshiga yig'ib, o'zini mustaqil bir erkakdek tuta boshlaydi? Men bu yerda xonadon masalasini hal qilmoqdaman. Sen uchun yangi hayot, yangi mansab olib berish harakatidaman. Sen esa faqat shubhalar bilan o'zingni ovora qilasan. Husomiddin boshini ko'tarib ma'yus dedi:

— Men malikaning To'g'rul bilan bo'lgan munosabatidan bexabar bo'lganimda edi, unga ishona olardim.

— Mening u bilan qanday aloqam bo'lishi mumkin?

— Uni malikaning o'zi yaxshi biladi.

Husomiddin shu so'zlardan keyin indamay qo'ya qoldi. U Qatiba bilan To'g'rul o'rtasidagi munosabatni bilar edi. Chunki uning Bag'doddan turib To'g'rulga yozgan va Sabo xonim orqali yuborgan sevgi maktublarini Sabo xonim birinchi navbatda Husomiddinga ko'rsatib, undan in'om keyin To'g'rulga berib undan mukofot olgan eng oxiri Hamadonda Otabekka ko'rsatib Qosimobod kentining vasiqasini qo'lga kiritgan edi.

Lekin Husomiddinning rashki Qatibani tashvishga solmadi, chunki u, erkaklarning nimaligini erkaklarning o'zlaridan ham yaxshiroq bilar edi. Erkaklar naqadar rashkchi va g'azabnok bo'lishlariga qaramasdan, ularni ikkita osongina narsa bilan tinchita olardi. Ulardan biri xotinlarning ko'z yoshlari, ikkinchisi esa dudoqlari edi.

Husomiddin Qatibaning yuziga qarab, uning ko'zlaridan oqqan ikki qatra yosh shoyi kamzulining ko'ksiga tomganini ko'rdi. Bir qatra ko'z yoshi Husomiddinning yuragidagi g'azab o'tini birpasda o'chirdi. U ikki qo'lini Qatibaga uzatdi va yolvoruvchi bir ohangda dedi:

— Malika, o'tinaman, o'zingizni qo'lga oling, men sizni bunday bemahal paytda yig'latish uchun kelmagan edim. Menga rahmingiz kelsin, men sizni bu ahvolda ko'rib chiday olmayman.

Qatiba ma'sum bir ohangda dedi:

— Sening bu qiliqlaring meni halok etadi. Menga yordam berish o'rniga, qalbimni pora-pora etasan. Sen meni To'g'ruldek bir ahmoqqa sotiladigan bir razil ayol deb o'ylaysanmi? Ajabo, sen meni unga nima maqsadda yaqinlashganimni bilasanmi? Kel, o'tir. Bu kecha boshqa mavzudan gap ochmoqchiman.

Husomiddin o'tirdi. Qatiba qo'lini uning yelkasiga tashlab:

— Sening boshing uchun ont ichaman. To'g'rul bizning muhabbatimizning tantanasi yo'lidagi bir o'yinchoqdir, — dedi va lablarini Husomiddinga tutib so'radi:

— Bu lablarga ega bo'lishni istaysanmi?

Husomiddin:

— E malika, bu yoshligimning ilk orzularidan biridir, — deb javob berdi va uni quchoqlamoqchi bo'lganda:

— Otabek o'ldirilganidan keyin! — degan so'zlarni eshitdi.

OTABEK MUHAMMADNING O'LDIRILISHI

Xorazmshoh bilan bo'lgan munosabat bora-bora keskin tus oldi. Xorazmshohning qo'shni qabilalar bilan aloqa bog'lab, Otabek mamlakatlarining atrofida kuch to'plashi Otabekni tashvishga solib

qo'ydi. To'rt oydan beri u Qoraxitoy, Xorazm va Xuroson atroflarini kezib, mamlakatning ahvoli bilan tanishib chiqmoqda edi.

Qish juda sovuq keldi. Otabek safardan qaytganida o'zini yomon his qila boshladi. Tabiblarning aytishiga ko'ra uning o'pkasi shamollagan edi. Qasali ikkinchi hafta davom etmoqda, uning ahvoli yomon edi. Otabekning bergan amriga ko'ra uning kasalligini hammadan yashirar edilar. Chunki uning betobligi haqidagi gaplar mamlakatga tarqaganda, mamlakatda to'polon, isyonlar chiqar edi. Xususan, uning betobligi to'g'risida xabar tarqalganda qo'shni mamlakatlar qo'lga qurol olar edilar.

Otabek Muhammad Kichik Bug'oni huzuriga chaqirib dedi:

— Ko'rinib turibdiki, bu xastaligim xiyla uzoqqa cho'ziladiganga o'xshaydi. Mening saltanat ishlariga qaray olmasligimni ko'rib, To'g'rulning niyati buzilishi mumkin. Bunga ehtiyot bo'lishing kerak. Zudlik bilan Tabrizga chopar yuborib, qardoshim Qizil Arslonni Hamadonga chaqirishing lozim. Chunki men iroqliklarning maqsadini yaxshi bilmayman. Vazirlarni mening huzurimga chaqir, xalifa bilan bo'ladigan munosabatlar masalasini aniqlab olish kerak. Senga shu kundan e'tiboran qat'iy amr beraman, mamlakatimizni bosib o'tib Bag'dodga yo'l olishni istagan birorta ham Xorazm savdogarlarini yurtimizga qo'ymanglar, chunki ularning ko'pchiligi savdogar libosini kiygan josuslardir.

Otabek Bug'aga bir qancha buyruqlar berdi. Lekin ularning amalga oshirilishi mumkin emas edi. Chunki Qatiba bilan Husomiddin Hamadonning chegaralariga maxsus odamlar qo'ygan edilar. Hamadondan Bag'dod va Tabrizga boruvchilarning hammasi tintuv qilinar va hibsga olinar edi. Bug'a tomonidan Tabrizga Qizil Arslonga maktub olib borayotgan chopar yo'lda ushlanib, Husomiddinning odamlari tomonidan o'ldirildi. Otabek vazirlarni chaqirtirsa, Qatiba "Bemorni behuzur qilmang!" deb, ularni saroyga qo'ymas edi.

Otabekning tabibi kelib kasalini ko'rdi-da, zudlik bilan qon olishga buyruq berdi. Qatiba Otabekning yotog'i oldida edi. Sartarosh kelib qon oldi. Qon olinganidan ikki soat o'tgach, yig'lay-yig'lay Otabekning xonasidan chiqdi. Vazirlar, a'yonlar Otabekning

sog'ligini bilish uchun katta mehmonxonaga to'plangan edilar. Qatiba ularga murojaat qilib:

— Qizil Arslon o'z ishini qildi. Otabegimiz o'ldi, — deganida tabib taajjublanib, shoshganicha ichkari kirdi. Chunki u, ikki soat avval Otabekning tomir urishi yaxshi ekanini ko'rgan edi, unda o'lim nishonalari yo'q edi. Tabib murdani tekshirganida uning ko'karib ketganligini ko'rdi-yu, vazirlarga dedi:

— Tezda sartaroshni topib bu yerga keltirilsin! Zaharlangan asbob bilan Otabekdan qon olgan!

Lekin tabib sartaroshni so'roq qilishi u yoqda tursin, uning yuzini ham ko'rolmadi, chunki Qatibaning buyrug'i bilan sartarosh saroy eshigi oldiga yetib kelmasdanoq o'ldirilgan edi.

Qizil Arslon Otabekning o'limidan hali bexabar edi. Lekin iroqliklar va Otabekning poytaxti atrofida yig'ilgan Xorazm shohning josuslari ishga tushib, o'z nomzodlari bo'lgan To'g'rulni taxtga o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Ular darhol Nasiruliddinilloh xalifaning huzuriga bir guruh vakillarni jo'natdilar. Otabek Muhammadning o'limidan uni xabardor qilish bilan birga ayni zamonda To'g'rulni taxtga o'tkazishni iltimos qildilar.

Otabek Muhammadning o'limi xabari Bag'dod saroyida xursandchilik tug'dirdi. Xalifa Otabek Muhammadning panjasidan yoqasini qutqargani uchun faqirlarga ehsonlar ulashdi. Nihoyat, To'g'rulga bir chopon yuborish bilan uning shohligini tasdiqladi..

Janoza o'qilganidan keyin besh kunga qadar, Hamadondan tashqariga bir qush ham uchib o'tolmadi. Nihoyat, Hamadonga to'plangan ajnabiy josuslar To'g'rulni taxtga chiqarib boshiga toj kiygizdilar.

Qatiba esa To'g'rul bilan Husomiddinni yoniga chaqirib, Bag'dod va Xorazm qo'shinlarini olib Ozarbayjonga qo'shin tortishni va Qizil Arslonni hibsga olib, o'rniga boshqa odamni tayin etishni taklif qildi.

Bu taklifga birinchi bo'lib To'g'rul e'tiroz bildirdi:

— Bu ish yaramaydi, — dedi. — Qizil Arslonni hibsga olish uchun butun Shimoliy Ozarbayjonni hibsga olish kerak, chunki Otabekning tirikligida ham Shimoliy Ozarbayjon xalqi faqat Qizil Arslonni tan olar edi.

Qatiba o‘z so‘zida qattiq turib oldi.

— Qizil Arslon sog‘ ekan, Tabrizda hukmdorlik qilar ekan, Shimoliy Ozarbayjon markazni tan olmaydi. Har nima bo‘lsa ham Shimoliy Ozarbayjondan qirq-ellik kishi hibsga olinishi va jazolanishi shart. Chunki Nizomiy bilan Faxriddin tirik ekan, biz Shimoliy Ozarbayjonni o‘zimizga itoat qildira olishimiz amri mahol, — dedi.

To‘g‘rul yana e’tiroz qilib dedi:

— Nizomiy bilan Faxriddin doim Otabek Muhammadning siyosatiga qarshi kurashar edilar. Men o‘ylaymanki, biz mamlakatni adolat va qonun-qoidalardan chetga chiqmay idora qila olsak, Shimoliy Ozarbayjon xalqi hech qachon o‘z hukumatiga qarshi chiqmaydi, Faxriddinga kelsak, u xildagi odamlar bir kun kelib bizga suv bilan havo kabi kerak bo‘lib qoladi.

To‘g‘rulning fikrini Husomiddin ham tasdiqlab, Qatibaga dedi:

— Faxriddin bilan Nizomiyga bo‘lgan adovatingiz endilikda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan. Ba’zan siyosat zehniy epchillikni talab qiladi. Sizning marhum otangizning qotili faqat Faxriddin emas, butun Shimoliy Ozarbayjon xalqidir, bu birinchi, ikkinchisi shuki, biz Otabekdan keyin Shimoliy Ozarbayjon xalqiga va uning suyukli hukmdori Qizil Arslonga qarshi dushmanlik siyosatini olib borsak, eringiz to‘g‘risida tarqalgan mish-mishlarni tasdiqlagan bo‘lamiz. Har bir narsa o‘z vaqtida qilinishi kerak, har narsaning o‘z fursati bor. Siz bundan bir oy muqaddam a’lo hazrat To‘g‘rulning taxtga ega bo‘la olishini xayolingizga ham keltira olmas edingiz. Lekin fursat keldi-yu, a’lo hazrat To‘g‘rulni Ozarbayjon va Iroq taxtida o‘tirganini ko‘rdik. Endi Nizomiyga kelganda, men uni yoshligidan taniyman. U hech qachon mamlakatning dushmanlari tomonini olmagan. Siz bilan uning orasida mavjud bo‘lgan dushmanlik faqat muhabbat natijasida vujudga kelgan. Bu masalada Nizomiy haqli edi, chunki Nizomiy emas, balki siz sevgi izhor qilgan edingiz. Bu taklifni qabul qilish yoki qilmaslik ixtiyori uning o‘zida edi. Bular o‘tib ketdi, hozir Qizil Arslonga bir maktub jo‘natib qardoshining o‘limini unga bildiraylik. Uni Hamadonga chaqirib a’lo hazrat To‘g‘rulning toj-u taxtiga sodiq ekanligi to‘g‘risida so‘zini olaylik.

Husomidinning taklifi qabul qilindi. Qizil Arslonga maktub yo‘llashni marhum Otabekning xotini sifatida Qatibaga topshirildi.

Qatiba maktubni yozganidan keyin To'g'rul bilan Husomiddinga o'qib berdi:

"Hashamat Maob![1]

Oilamizda yuz bergan dahshatli, zo'r fojiadan sizni xabardor qilishga majburman. Dushmanlar katta akangiz Otabek Muhammadni mahv etdilar. U betob edi, kasali u qadar ham og'ir emas edi. Tabib qon olishni maslahat berdi. Sartaroshni chaqirib bemordan qon olishni buyurdik. Lekin dushmanning zimdan ishlashi bizga ma'lum emas edi. Qon olinganidan so'ng ikki soat o'tar-o'tmas bemor aynib qoldi, tildan qoldi. Faqat To'g'rulning taxtga o'tirishini va sizning o'z o'rningizda mustahkam va barqaror turishingizni vasiyat qilib dunyodan ko'z yumdi.

Tabiblarning aniqlashi natijasida sartaroshning qon oladigan asbobi zaharlangan emish. Shuning uchun ham qotil darhol qatl etildi. Akangizning boshiga tushgan falokat butun avlodimizning boshiga kelgan bir musibatdir. Alloh taolodan sizga sabr-toqat tilamoqdaman. Albatta, siz dunyo ko'rgan, barkamol odamsiz. O'lim hammaning boshida bor. Lekin Otabek hayotiga qilingan bu suiqasd bir shaxsning emas, butun mamlakatga qarshi qilingan suiqasd edi. Shu munosabat bilan mamlakatning muhim bir qismini idora qilib turgan sizdek zot, nihoyatda ehtiyot bo'lishingiz kerak. Hashamat maob, shuni eslatib o'tmoqchimanki, xalq orasida ba'zi bir mish-mish gaplar yurmoqda. Dushmanlar bu jinoyat izini xaspo'shlash uchun sizdan ham shubha qilmoqdalar. Shuning uchun ham sizning Hamadonga tashrif buyurishingiz va a'lo hazrat To'g'rul bilan uchrashib, kelajakda uning saltanatiga sadoqatli ekanligingiz to'g'risida so'z berishingiz lozim. Faqat aka-uka bir-biriga sadoqatli bo'lgan taqdirdagina, jinoyatchilarni fosh qilish mumkin bo'ladi. Xalifadan kelgan farmon va Iroq xalqining hokimi a'lo hazrat To'g'rulni Ozarbayjon taxtiga o'tqazdi. Siz ham Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon xalqini bundan xabardor etishingiz va a'lo hazratga itoatkorliklarini ta'minlashingiz lozim. A'lo hazratning taxtga o'tirishi marosimida ishtirok qilish uchun Ozarbayjondan vakillar yuborishga lutfan e'tibor bersangiz.

Hamadon. Qatiba xotun".

---

[1] Sharqda hukmron xonadon a'zolarining unvoni.

Husomiddin bilan To‘g‘rul maktubni o‘qib ma’qulladilar. Maktubni olib borish va Qizil Arslonga ta’ziya bildirish uchun bir necha kishidan iborat vakillar jo‘natdilar. Lekin bu maktub jo‘natilganidan keyin ham Qizil Arslonga qarshi tuhmatlar va mish-mishlar tugamadi. Qatibaning talabiga ko‘ra To‘g‘rul Hamadonda mas’ul ishlarda bo‘lgan ozarbayjonliklarni Otabekni o‘ldirishda qo‘li bo‘lgan deb hibsga oldira boshladi va Qizil Arslonni kelajakda toj-u taxtdan mahrum etish uchun zamin tayyorladi.

Qizil Arslon Qatibaning maktubini olmasdan burunroq Otabek to‘satdan o‘lib qoldi degan xabarni eshitgan edi. Voqeaning mohiyati Qizil Arslon uchun oydin edi. Shuning uchun ham Hamadonga borish uchun shoshilmadi va Qatibaning maktubiga bunday deb javob yozib yubordi:

“Muhtaram malika!

Xonadonimizda yuz bergan musibatning og‘irligini malika qanday his etsa, men ham shunday his etaman. Bu to‘g‘rida sizga shaxsan bayoni ta’ziya etishim lozim edi, biroq, marhum Otabekning o‘limi to‘g‘risidagi xabar munosabati bilan tarqalgan ba’zi mish-mishlar Hamadonga borishimga imkon bermadi. Hozircha Tabrizdan chiqolmayman. Mening Tabrizdan chiqishim a’lo hazratning saltanatiga halal berishi mumkin. Buni To‘g‘rul hazratlariga aytishingizni o‘tinaman.

Qizil Arslon. Tabriz”.

Qizil Arslon To‘g‘rulning taxtga chiqish marosimini tabriklash uchun Ozarbayjondan biror kishini ham yubormadi. Chunki Ozarbayjonda To‘g‘rulni ajnabiylarning bir namoyandasi bo‘lib qolganligi haqida gap-so‘z yurar edi. Qizil Arslon Hamadondagi nayrangbozlikning ustalari Xorazmda ekanligini besh barmog‘idek bilar edi. Binobarin, mamlakatni ehtiyot qilish uchun Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonda jiddiy tayyorgarlik ko‘ra boshladilar.

Qizil Arslon bu bilan poytaxtga ta’sir qilish va To‘g‘rulni qo‘rqitib, uni ajnabiylarning ta’siridan chiqarib olish niyatida edi. Xususan, unga qarshi tarqatilgan gap-so‘zlar, Hamadondagi ozarbayjonliklarni Tabriz tarafdorlari deb qamoqqa olinishi Qizil Arslonning izzat-nafsiga tekkan edi.

Eng avval Qizil Arslon Janubiy va Shimoliy Ozarbayjonning aloqasini markazdan uzdi. Bundan keyin Ozarbayjon poytaxti deb Tabriz shahrini va hukmdor deb Qizil Arslonni taniy boshladilar. To'g'rul bu vaziyatni ko'rib tashvishga tushdi, chunki Ozarbayjonsiz Ozarbayjon Otabeklari nomi bilan tiklangan bu saltanat uncha-lik uzoq yashay olmas edi.

Lekin To'g'rul Qizil Arslon bilan kelishish o'rniga, Ozarbayjondagi bir-ikki obro'li odamlar bilan kelishib va ular bilan aloqa bog'lashni afzal ko'rdi. Shu mulohazalar bilan avvalo Faxriddinga bunday maktub yubordi:

"Muhtaram Faxriddin!

Xudovandi karimning marhamati, xalifayi-ro'yi zaminning muborak irodasi bilan Ozarbayjon saltanati o'zining haqiqiy vorisi qo'liga o'tdi. Hozir Ozarbayjonda yashab turgan hamma sodiq tabaqalarning zimmasiga muqaddas bir vazifa yuklandiki, u ham bo'lsa, hukmdor bilan birlikda qo'lni qo'lga berib mamlakatimiz xalqining saodati yo'lida harakat qilishdan iboratdir. Sizning naslingiz o'zining qahramonligi va hukumat qonunlariga sodiqligi bilan mashhurdir. Shuning uchun ham sizga o'z huzurimda mas'uliyatli bir lavozim berish va siz bilan birlikda xalqning saodati uchun ishlashga qaror qildim. Sizning hayotingizning xavfsizligi uchun bir hukmdor sifatida so'z beraman. Maktubni olib borgan kishidan javob xat yuboring.

To'g'rul".

To'g'rul buyuk shoir Nizomiyga ham yuborgan maktubida shunday yozgan edi:

"Muhtaram shoir!

Sizga samimiy salom yuborish bilan o'zimni baxtiyor hisoblayman. Hamma shod-u masrur daqiqalarimni sizni eslash va sizning falsafiy asarlaringizni o'qish bilan o'tkazaman. Xudovandi olam shohiddirki, Shirvon xoqoni Abul Muzaffar siz yozgan "Layli va Majnun" dostoningizga ahamiyat bermagani, sizni taqdirlamagani mening xoqonga nisbatan bo'lgan muhabbatimning sovushiga sabab bo'ldi. Buyuk shoir buning uchun o'ksinmasligi kerak, chunki hukmdorlarning ahvoli ruhiyasi hamma vaqt bir xilda bo'lmaydi. Hukmdorlarning fe'l atvorlari mamlakatning

vaziyatiga hamda voqealarning borishiga bog'liq. Yozgan qimmatli asaringizni taqdim etgan vaqtingizda, ehtimol, xoqonning biror ko'ngilsiz hodisadan g'azablanib turgan paytiga to'g'ri kelgandir.

Men ulug' shoir men uchun "Farhod va Shirin" dostonini nazmga solsalar deb orzu etaman. Dostonlarda Sharq xalqlarining qahramonligini haqqoniy tasvirlab berish faqatgina sizning qo'lingizdan keladi.

Ulug' shoirning tasavvuriga ham sig'maydigan darajada oliy mukofot bilan taqdirlashga tayyorman.

To'g'rul".

Nizomiy To'g'rulning maktubini olgandan bir necha kun keyin Qizil Arslondan ham bir maktub oldi. Shoir haddan ziyoda xursand bo'ldi, chunki Qizil Arslonning yozgan maktublari, hech qachon shaxsiy va oddiy masalalar haqida bo'lmas edi. U ilmiy va siyosiy ishlar to'g'risida shoir bilan yozishib turardi. Qizil Arslon maktubida shunday degan edi:

"Ko'pdan beri ulug' shoir bilan maktublashishdan mahrum bo'ldim. Siz bilasizki, men xotinlar to'g'risida tamomila boshqa bir fikrda edim. Agar xotiringizdan ko'tarilmagan bo'lsa, o'tgan kuzda yuborgan maktublarimning birida shoir Firdavsiyning "Zan-u ajdaho har dugar xok beh: jahon pok az in har du nopok beh"[1] degan she'riga e'tiroz bildirgan edim, o'sha vaqtlarda xotinlarning aqlini mukammal deb topmasam-da, unday she'rlarni hazm qilolmas edim. Shuning uchun ham siz o'sha maktubga javoban: "Men sizning fikringizga qarshiman. Asarlarimda qahramon davlat arbobi, qobiliyatli va iste'dodli xotinlar siymolarini yaratmoqdaman", deb yozgan edingiz. O'shanda men siz bilan bu haqda katta mubohasa ochishni istamadim. Men o'shanda, bir shoir va yozuvchiga boshqa bir kimsaning fikrini zo'rlik bilan qabul ettirish xomxayol bo'lar deb o'ylagan edim.

Lekin Otabek Muhammadning o'limi masalasi meni yana o'sha avvalgi fikrimga qaytardi. O'ylaymanki, bu qatlning tashkil qilinishini mukammal o'rganganingizdan keyin tamomila mening fikrimga qo'shilasiz.

[1] Xotin bilan ajdahoning har ikkisi tuproq ostida bo'lishi va bu dunyoning o'sha har ikki nopokdan tozalanishi yaxshidir.

Qatibani qaysi birimiz tanimas edik? Hatto, mening baxtsiz qardoshim Otabek Muhammad ham uylangan kunidan uning kimligini bildi.

Biz erlar, doimo xotinlarning ishq va go'zallik pardasi ostida yashiringan tuzog'iga ilinamiz. Hatto, ko'ra bila turib ham ba'zan aldanamiz. Men haqqoniy so'z uchun shoirlarning jahli chiqmasa kerak deb o'ylayman. Nazarimda, Qatiba xotun yosh paytlarida shoirga muhabbat izhor qilgan damlarda shoir ham boshqasining tuzog'iga ilinmagan bo'lsa, albatta, Otabek Muhammad tushgan tuzoqqa ilinib qolardi. O'zingiz tasavvur qiling, erkaklarning tabiatida xotinlarning zohiriy ko'rinishidan haqiqatni axtarish xususiyati yo'qmi?

Muhtaram shoir! Yaxshilab bir o'ylang, siz qahramon va davlat arbobi bo'lgan xotinlar siymosini yaratdingiz, haqiqatda boshqacha bo'lib chiqdi-ku. Malika bizning boshimizga qanday falokatlar keltirdi!

Qatiba o'zining faqat shaxsiy manfaatinigina ko'zlab bir xonadonni tamomila halok qilishni o'ylay boshladi. U bir tomondan Bag'dod bilan birgalikda Otabek Muhammadga qarshi fitna uyushtirdi, ikkinchi tomondan Xorazmshoh bilan ittifoq tuzdi. U To'g'rul bilan kelishib, Otabek Muhammadni o'ldirish va To'g'rulni taxtga chiqarishni o'z zimmasiga oldi. Bu xizmatning evaziga To'g'rul ham unga uylanmoqchi, Rey hokimi bo'lgan Qutlug' Inonjni valiahd deb e'lon qilmoqchi bo'ldi. Qatiba mamlakatni taqsimlash maqsadida Iroq vatanparvarlari bilan ham aloqa tuzib, poytaxtni Hamadondan ko'chirilishiga sharoit yaratdi.

Muhtaram shoirga ma'lum bo'lishi kerakki, bu xotin kelajakda Ozarbayjon uchun juda xavflidir. To'g'rul bir vaqtlar Otabek Muhammadga butun hukmronligini berib qo'ygan bo'lsa, endilikda uni Qatibaga bermoqchi.

Bu falokatlar natijasida hozir Ozarbayjon eng dahshatli kunlarni boshidan kechirmoqda. Ular darvozalarni ochib qo'yib dushmanlarni mamlakatning ichkarisiga kiritishni istaydilar. Yaqin kunlarda poytaxtga boraman, biroq To'g'rulning qo'lini o'pish uchun emas, balki Qatibani poytaxtdan uzoqlashtirish uchun boraman. Agar biroz hayallasam, mamlakat xorazmliklar bilan

iroqliklar o'rtasida taqsimlanib ketadi. Sizga ikkinchi maktubimni Hamadondan yozaman. Menga Hamadondan xabar berishlariga qaraganda, To'g'rul sizga maktub yuborib, "Farhod va Shirin" dostonini yozishni taklif qilgan emish. Lekin u, yuborgan maktubi vositasi-la ozarbayjonliklar bilan aloqa bog'lab olishni ko'zda tutgan. Unda "Farhod va Shirin" dostoniga baho bera oladigan darajada badiiy saviya yo'q. Lekin undan qat'i nazar, o'sha asarni yozishingizni tavsiya qilaman. U asar sizning eng nodir asarlaringizdan biri bo'ladi, chunki sizning tabiatingizda ishq va axloq mavzulari uchun inkor qilib bo'lmaydigan bir qudrat bordir.

Hozir shu qadar bandmanki, ilmiy va badiiy masalalar bilan shug'ullanishga vaqt topolmayman. Lekin To'g'rulning taklif qilgani "Farhod va Shirin" dostoni haqida bir-ikki og'iz so'z demoqchiman. Fikrimcha, dostonning sarlavhasini "Farhod va Shirin" emas, "Xisrav-Shirin" deb qo'yilsa yaxshi bo'lardi, chunki Farhod Shirin mavzuyi u qadar ham keng bir mavzu emas. Mening fikrimcha Xisrav-Shirin mavzuyi tafakkur uchun shu qadar kengdirki, shoir bu maydonda istagancha ot o'ynata oladi. Shaxsan siz boshqa dostonlaringizda shuni ko'rsata olgansiz.

"Xisrav va Shirin" dostonida vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalarini tarannum eta olasiz. Unda hukmdorlarning zulmi va zulmlarning oqibatlari va hokazolarni, ayni zamonda Xisrav emas, baxtsiz Farhod chindan sevishga qodir ekanini ko'rsatasiz. Shak-shubhasiz, bular mening o'z fikrlarim. Shoirga hech qanday yo'l-yo'riq ko'rsatish niyatida emasman.

Shoir juda yaxshi biladilarki, men hech qachon shaxsiy iltimoslarim bilan sizga zahmat yetkazgan emasman. Lekin bu maktubimda mamlakat, vatan taqdirini nazarda tutib sizni bezovta qilyapman. Hamadonga qiladigan safarimda ozarbayjonliklarning ishtirok etishlari kerak. Aks holda iroqliklar va xorazmliklar bizni Bag'dod darvozasi bo'lgan Ozarbayjonning tarixiy poytaxtidan quvib chiqarishlari mumkin. Siz bilasizki, biz Iroq bilan Hamadonni yo'qotsak, Ozarbayjonni saqlay olmaymiz. Bu biz uchun siyosiy va iqtisodiy o'lim demakdir. Bu o'lka xalqlari bizning tilda gaplashadilar. Ikkinchidan, biz Bag'dod darvozasidan uzoqlashsak, unda Ozarbayjon Shimol va Janub savdosining markazi degan

ahamiyatini yo'qotadi. Men Hamadonga Ozarbayjon askarlari bilan borishim kerak. Bu kuch-qudrat qanotimda bo'lsa muvaffaqiyat qozona olaman, aks holda ular meni hibsga olishlari, yo'q qilishlari, hatto, ko'r qilishlari mumkin. Iltimos qilaman, siz buni Faxriddinga ham tushuntiring!

Tabriz, Qizil Arslon".

ALDANISH

Ittifoqchilar muvaffaqiyat qozonganlaridan so'ng bir-birlari bilan kelisholmadilar. Qatiba Husomiddinga, To'g'rul esa Qatibaga bergan va'dalariga amal qilmadilar. To'g'rul o'z saroyiga kirib davlat ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Qatiba u bilan ko'rishishga imkon topolmas edi. To'g'rul mumkin qadar Qatibaning ko'ziga ko'rinmaslik va davlat ishlarini uning ta'siridan qutqarishga harakat qilardi. U hech ham Qatibaning maslahatlarini eshitishni va uning so'zlariga amal qilishni istamas edi.

To'g'rul qanchalik mayxo'r va beparvo hukmdor bo'lsada, ayni vaqtda mamlakatiga qilgan xiyonatini chuqurlashtirgisi kelmas edi.

U o'z oilasini Hamadonga ko'chirib keldi, o'g'li Malikshohni valiahd qilib tayinlar ekan, Qatibaga uylanish oldidan uning o'g'li Qutlug'ni valiahd deb e'lon qilish haqida bergan va'dasini butkul unutgan edi.

Qatiba qancha urinsa ham, To'g'rulni xoli bir yerda uchratib so'zlarini aytolmadi. Nihoyat, betob bo'lib qoldim, degan bahona bilan To'g'rulga bunday bir maktub yubordi:

"A'lo hazrat! Og'ir yotib qoldim. Ba'zi ishlar yuzasidan siz janobni ko'rishni istardim.

Qatiba xotun".

To'g'rul haqiqatan ham uni kasal deb o'ylab, Otabek saroyiga keldi. Lekin saroyga kelganidan so'ng, uning kasal emasligini, ayyorlik qilayotganini ko'rdi.

Qatiba To'g'rulni ko'rishi bilanoq qattiq yig'lab yubordi, lekin uning ko'z yoshlarining ta'sir etmaganini, To'g'ruldan taskin va tasalli beradigan so'zlar eshitmasligini payqab yig'isini to'xtat-

di. Ko'z yoshlari bir qurol sifatida To'g'rulga ta'sir etmaganidan keyin butun kin va g'azabini ko'zlariga to'plab, To'g'rulga tikildi:

— Mening ko'zlarimga yaxshi qara, — dedi, — ko'rinib turibdiki, sen meni hali ham bilmaysan, bir ayol seni taxtga o'tqaza olgan ekan, taxtdan tushira oladi. Sen bu so'zlarni doim qulog'ingda tut. Men bo'lmaganimda, sen hozir ham Otabek Muhammadning qo'liga qaram bo'larding, seni a'lo hazrat martabasiga ko'targan men bo'ldim. Bunga qadar sen yana o'sha badmast va safil bir shaxs eding. Nonko'r! Sen mana bu dudoqlarga ont ichgan eding-ku? Sen mening malikaligimni tasdiq qilgan eding-ku? Sen mening o'g'limni valiahd deb e'lon qilishga va'da bermaganmiding? Sen uchun nimalar qilmadim? Men bo'lmaganimda seni xalifa Nasiruliddinillohning eshigidan ichkari qo'yarmidilar? Men bo'lmasam, Otabek Muhammad sening ko'zlaringga qo'rg'oshin quydirardi-ku! Bu ko'zlar mendan minnatdor bo'lishi kerak. Sen hech ham uyalmasdan mening ko'zlarimga qaraysan-a? Mukofot uchun qo'lim ochiq, lekin mukofotni qaytarib olishda berahmman. Sen Bahromshoh, Xorazmshoh va iroqliklar bilan tuzgan bitimimizga amal qilishing kerak. Ularga berilgan va'dalarning ustidan chiqishing kerak. Qasamyodingga amal qilishingni talab qilaman.

To'g'rul qah-qah urib, Qatibaga javob berdi:

— Mastlikda berilgan va'dalarga ishonish kulgilidir. Bir martabagina o'pishdik. Go'zal xotin otashin ehtiros va qirmizi sharobning ta'sirida berilgan va'dalarning qanday e'tibori bo'lsin? Ilgari men safil edim, endi esa a'lo hazratman. Ilgari sen muhtarama malika eding, endi esa aldangan va erini o'ldirgan bir xotinsan. Sen esla, seni oxirgi marta o'pgan vaqtimda nimalar degan eding?

— Hech narsa deganim yo'q.

— Ajabo, sen o'z va'dalaringni esingdan chiqarganing holda, men bergan va'dalarimni unutishga haqli emasmanmi?

— Men bergan va'dalarimni hech qachon unutmayman.

— Sen mening quchog'imdan sug'urilib chiqqan vaqtingda qolgani keyin demaganmiding?

— Degan edim.

— O'sha "keyin"ning vaqti kelmadimi?

— Yo‘q, hozircha vaqti kelgani yo‘q. Ajabo, o‘z erimni o‘ldirib, seni taxtga chiqarishim kifoya qilmadimi?

— Taxtga chiqarish kifoya emas, taxtin mustahkamlash kerak. Qizil Arslon hozir ham tirik. Bugun men sen bilan nikoh qilsam va o‘g‘lingni Ozarbayjon valiahdi deb e’lon etsam, ertaga xaloyiq meni Otabek Muhammadning qotili sifatida mamlakatdan badarg‘a qilmaydimi? U holda sening menga bergan taxt-u tojingning umri juda qisqa bo‘ladi-ku. Senga bir savolim bor: biz darhol uylansak va shoshilinch ravishda o‘g‘lingni valiahd qilsak, Qizil Arslon bunga qanday qarar ekan? Bizning uylanishimiz Qizil Arslonga qarshi tuzilgan bir bitim singari ta’sir etmasmikin? Shoshilsang, rasvoyi jahon bo‘lasan. Sen menga minnat qilaverma. Agar men taxt-u tojga ega bo‘lgan bo‘lsam, o‘zimning qonuniy merosimga ega bo‘ldim. Sen: “To‘g‘rulga taxt-u toj berdim”, deb mag‘rurlanma. Sen bir xonadonning boshlig‘ini mahv etding. Men mamlakatning dushmanlariga bergan va’dalaringga qo‘shilolmayman. Aytaylik, Fors va Kirmonni Bahromshohga berdik, sening so‘zingga kirib Xuroson va Marvni Xorazmshohga taqdim qildik, Mo‘sul, Hamadonni iroqliklarga bag‘ishladik. Xo‘sh, u holda bu taxt-u tojni qayerga o‘rnatishimiz kerak?

Qatiba o‘ylamay-netmay:

— Ozarbayjonga! — dedi.

— Ozarbayjon bizniki emas. U yerda Qizil Arslondek hukmdor bor. U bir og‘iz: “Otlaning!” desa, Ozarbayjondan yuz ming suvori safarga chiqadi. Men inkor etmayman. Sen qardoshimni o‘ldirding. Uning taxtiga To‘g‘rulning o‘tirishiga sababchi bo‘lding. Lekin shuni bilginki, To‘g‘rul hech qachon Otabek Muhammad bo‘lolmaydi. Unga o‘z o‘rnimni bergan vaqtimda, uning mamlakat uchun munosib bir hukmdor ekanligini nazarga olgan edim. Lekin ikki narsa mening u bilan do‘stona yashashimga yo‘l qo‘ymadi: biri hasad, ikkinchisi esa shu mamlakatning dushmanlari. Endi o‘zing yaxshilab mulohaza qil, sen o‘zing o‘sha dushmanlarning ichida emasmisan? Sening mamlakatga bergan zarbangni na iroqliklar va na xorazmliklar bera olardi. Men sendan o‘tinib so‘rayman, menga taxt-u tojni qaytarib berishda qilgan yordamingni eslatgan paytlarda

qardoshimni o'ldirganingni tilga olaverma. Bu oramizning buzilishiga sabab bo'la oladi, chunki u mening aziz qardoshim va onamning o'g'li edi. Biz bu mamlakatni uning qilichi soyasida qo'lga kiritganmiz.

Qatiba To'g'rulning aytganlariga jiddiy e'tibor berib, quloq soldi, bu so'zlar tahdid ekanini tushundi. To'g'rul uni qardoshining qotili sifatida halok ettirishini ham bilar edi.

Lekin Qatiba uning: "Qardoshimni o'ldirganingni hadeb tilga olaverma. Bu oramizning buzilishiga sabab bo'la oladi, chunki u mening qardoshim va onamning o'g'li edi", degan so'zlarini javobsiz qoldirolmadi va istehzo bilan:

— A'lo hazrat zaharlangan asbob bilan sartaroshni yuborgan vaqtida Otabekning qardoshi va onasining o'g'li ekanligini o'ylashi kerak edi, — dedi.

Qatibaning bu so'zlarini eshitishi bilan To'g'rulning so'z ohangi o'zgardi.

— Avvalo, bu jinoyat kim tomondan sodir bo'lmasin, katta jinoyatdir. Chunki biz bu bilan na shaxsiy va na umumiy vaziyatni o'zgartira oldik. Lekin xiyonat ro'y berganidan keyin bir-birimizni qoralashimiz har ikkimizni ham halok bo'lishimizga sabab bo'la oladi.

Qatiba uning so'zini bo'lib:

— Buning uchun va'dalarga vafo qilish lozim, — deganida, To'g'rul:

— Bu faqat vaziyat tamomila mustahkamlangandan keyingina mumkin bo'ladi, — dedi.

— Ajabo, sening a'lo hazratlik martabasiga chiqishliging vaziyatni mustahkamlanishi emasmi?

— Yo'q, chunki hozircha Qizil Arslonning nimalar o'ylayotganligi ma'lum emas. Hamma ishlar shu vaziyat aniqlanganidan keyin ravshan bo'ladi. Va'dalarim va'da, ularni amalga oshirish uchun qulay fursatni kutishimiz kerak. Bu lablarga ont ichganman, yana ichaman.

To'g'rul shuni deb lablarini Qatibaning lablari ustiga qo'ydi, lekin har ikki lab bir-birini aldayotganini sezardi. U lablar pichirlab shunday der edi: "Sen salomat ekansan, men tirik qololmayman".

* * *

Qatiba To‘g‘rul bilan bo‘lgan munosabatni aniqlaganidan keyin o‘zining tamomila aldanganligini va katta xatoga yo‘l qo‘yganligini tushundi. U boshqalarni o‘z maqsadlari uchun qurol qilishni istagani holda o‘zini arzon bir qurol bo‘lib qolganligini sezib, ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi, lekin vaqt o‘tgan, u endi Otabek Muhammadni tiriltira olmas edi. U endi bir martaba bo‘lsa ham katta bir podshohlikning malikasi degan sharafga ega bo‘lolmas edi. Endi suyanadigan hech kimi qolmagan edi. U ikki kishidan umid kutar, ulardan biri Husomiddin, ikkinchisi esa bo‘shatib yuborgan joriyasi Sabo xonim edi. Lekin Husomiddin undan arazlagan, Sabo xonim esa Otabek Muhammad hadya qilgan “Qosimobod” mulkida o‘tirib, o‘zi uchun saroy qurdirish bilan ovora edi. Husomiddin butunlay To‘g‘rul tomoniga o‘tib olgan. To‘g‘rulning qurolli kuchlari tamomila Husomiddinning qo‘lida edi. Qatibaning unga qayta-qayta: “Faqat Otabek o‘ldirilganidan so‘ng meni o‘z quchog‘ingda ko‘ra olasan”, deb bergan va’dalari yolg‘onga chiqqan edi. Husomiddin uning To‘g‘rulga erga chiqmoqchi bo‘lganini bilganidan beri Qatibadan uzoqlashgan va undan qasos olish niyatida edi.

Qatiba ahvolni tushunganidan keyin, Husomiddinga nisbatan bo‘lgan beparvoligini o‘zining ikkinchi bir katta xatosi deb hisoblay boshladi. Shuni o‘ylar ekan, qizlik vaqtlarida Husomiddinning aytgan so‘zini xotirladi: “Sen faqat meniki bo‘lishing kerak, boshqaniki bo‘lolmaysan!” Bu so‘zlar Qatibaning qulog‘ida yana bir bor jarangladi va Husomiddin bilan ko‘rishishga qulay fursat qidira boshladi. Lekin Husomiddin To‘g‘rulda shubha uyg‘otmaslik uchun Qatiba bilan ko‘rishish va uning taklifini qabul qilishdan bo‘yin tovlab yurdi.

Kunlardan bir kuni Qatiba tomonidan qo‘yilgan poyloqchi joriya Husomiddinning Otabek bog‘ida sayr qilib yurganidan xabar berdi. Qatiba darhol kiyinib bog‘ga kirdi. Husomiddin keksa bog‘bon bilan so‘zlashib o‘tirib, undan so‘radi:

— Malika bog‘ sayriga tez-tez chiqib turadimi?

— Otabek o‘lgan kundan beri uni bog‘da ko‘rganim yo‘q. Unda bog‘ sayri uchun biror xursandchilik qolibdimi?

Shu payt Qatiba kelib hovuz labida turar, suvda suzib yurgan rang-barang baliqlarni tomosha qilardi. Husomiddin orqasiga o'girilgudek bo'lsa, albatta, Qatibaga yuzma-yuz kelib qolishi mumkin edi, chunki bog'dan chiqib ketish yo'li Qatiba turgan joydan o'tardi.

Husomiddin keksa bog'bonga bir necha tanga berib qo'z-g'almoqchi bo'lganida, Qatibani joriyalar qurshovida ko'rib, bosh egib salom berdi.

Qatiba g'amgin bir holatda boshini ko'tarib Husomiddinga qaradi va:

— Vaalaykum assalom, — dedi, — lekin shuni bilginki, yashiringaning bilan vijdoningdagi dog'lar tozalanmaydi. Dog'larni yuva oladigan birgina davo bor, u ham bo'lsa, sadoqat bilan va'daga vafo qilishdir.

Qatiba hamrohligida kelgan joriyalar tarqaldilar. Qatiba esa so'zini davom ettirdi:

— Bir qahramonning vijdoniga ega bo'lolmaganingga ko'ra, loaqal bir xotin kishining vijdoniga ega bo'lgin edi. Sen ham, podshohing ham qilgan jinoyatingiz mas'uliyatini birgina xotinning bo'yniga qo'yishni istaysizlarmi? Istasam, men bugun-ertaning o'zidayoq bu qilichni sening belingdan yechtirib ola bilaman. Sen nima bo'lishingni o'zing ham bilmaysan. To'g'rulni podshoh qilgan, seni lashkarboshi qilgan mana shu ro'parangdagi ayoldir. Bu ayol u qadar ham ojiz emaski, sen hamda To'g'rulga o'xshagan zaif kishilar o'z baxtini uning baxtsizligi ustida qura olsinlar. Erimning qotillari!

Qatiba yuzini o'girib ketmoqchi bo'lganida Husomiddin uni titroq bir ovoz bilan chaqirdi:

— Malika, o'tinaman, to'xtang!

Qatiba to'xtadi.

— Meni malikalik unvonidan mahrum etganingiz ozlik qildimi? Endi mendan nima istaysizlar? Biring podshoh, biring sarkarda, bu sizga ozmi? Otabek Muhammad o'lib ketdi, ammo Qizil Arslon tirik-ku!

Husomiddin yana yolvoruvchi bir ohangda gapirdi:

— Mening go'zal va ma'rifatli malikam, bu qadar g'azablanganingizning sababi nima? Husomiddin qachon malikaning chizgan chizig'idan chiqqan edi? Men malikaning buyruqlarini o'zim uchun qonun deb hisoblamasmidim?

— Agar so'zlaring to'g'ri bo'lsa, nima uchun dargohimdan qadamingni uzib qo'yding? Ajabo, sen qo'limni o'pish uchun kecha-kunduz yalinib-yolvorib yurgan o'sha Husomiddin emasmisan?

— Modomiki, malika To'g'rulga erga chiqish uchun hozirlik ko'rayotgan ekan, mening malikaga yaqinlashuvim podshohning nomus va sharafiga tajovuz qilishim bo'lmasmikin?

Ikkisi yonma-yon so'zlashib borib saroy tomonga burilar ekan, Qatiba eshigi oldida to'xtab Husomiddinga dedi:

— Ichkariga buyursinlar, muhtaram sarkarda, sizda biroz ishim bor.

Ular ketma-ket zinapoyadan yuqori ko'tarildilar. Qatiba uni mehmonxonada qoldirib, o'zi yotog'iga kirdi. Husomiddin mehmonxonada u yoqdan-bu yoqqa yurib o'ylar va o'z-o'ziga der edi: "Yoshi qirqqa borib qoldi. Hayoti esa yigirma yildan beri turli hodisalar, fisq-fasodlar va mojarolar ichida o'tmoqda. Butun fikr-xayoli jinoyatlardan bo'shamagan bu xotin hali ham o'zgarmabdi, siymosida yoshlik nishonalari kamaymabdi. Mag'rur qarashlari hali so'nganicha yo'q. Har gal unga boqib ovozini eshitgan paytlarimda aqlimni yo'qotaman. Erkak kishi ilk sevgisini hech qachon unutolmaydi. Sabo xonim esa bundan ham dilbar hamda go'zalroqdir, lekin uni quchoqlagan onlarda ham baribir og'ushimda Qatibani tasavvur qilaman. Chunki ilk daf'a mening qonimni qaynatgan va yuragimni o'ynatgan uning muhabbatidir".

Qatiba liboslarini alishtirib mehmonxonaga kirib keldi. U birinchi martaba shu libosda Husomiddinga ko'ringan edi. Shuning uchun ham Husomiddin har choq Qatibani eslaganida shu libosda tasavvur qilardi. Qatiba kelib o'tirdi va Husomiddinga buyurib:

— Kel, o'tir, — dedi, — nahotki meni To'g'rulga tegadi, deb o'ylasang! Ajabo, sen meni yaxshi bilganing holda, To'g'ruldek bir safilga erga chiqishimga ishonasanmi? Sen nega endi avvalgi fikringdan qaytding?.. Qizligimda menga aytgan so'zlaring esingdan chiqdimi?

— Men malikaga juda ko'p so'zlar aytganman. Ularning hammasini esda tutish qiyin. Bizning ishqnomamiz yozilgan bo'lganida edi, katta bir kitob bo'lardi.

— Ganjada menga jahl bilan aytgan so'zlaring esingdami?

Husomiddin biroz o'ylab:

— Qayerda, qachon? — dedi.

— Men Mahsatiy xonimning istiqboliga taxtiravonda bormoqda edim. Sen ham otingni mening yonimda yurgizib borarding, esladingmi?

— Ha, esladim, lekin nima deganimni eslayolmayapman.

— Men o'sha kun sening sevgingni rad qildim. Sen esa achchiqlanib: "Sen meniki bo'lmasang, boshqaniki ham bo'lolmaysan!" deding.

Husomiddin o'sha vaqtni eslab kuldi va o'yga toldi.

Yoshlikning o'tmishdagi jozibali va sehrli sahifalari Husomiddinning ko'z oldida yana jonlana boshladi.

...Ganja soyidan Xonaqoh kentiga qadar hamma yo'llar bashang kiyingan odamlar va shoyi pardalar tashlangan taxtiravonlar bilan to'lgan edi. Qatibaning jamoli moviy rang shoyi pardaning ostidan oftob singari porlar edi, Husomiddin otini haydab taxtiravonga yaqinlashdi. Qatiba esa nozlanib so'radi:

— Muhtaram Husomiddin, mening fikrimni bilish uchun keldingmi?

Husomiddin yigirma yil bundan muqaddam eshitgani bu tovush yana bir martaba yoqimli ohangi bilan uning qulog'ida yangradi. Yana Qatiba uning ko'zlariga qarar ekan, hali ham uning o'zgarmaganini, so'lmaganini va muhabbati o'sha yigirma yil avvalgi jo'shqin muhabbatg ekanligini payqadi. Husomiddin qalbini bu hiylakor, makkor xotinning qo'lidan tortib olish uchun juda ko'p urindi, lekin yurak yana o'z qaysarligini qo'ymadi. Aqli bilan qalbini kelishtira olmadi, yana qo'llarini yozib, Qatibaga tomon cho'zdi va ixtiyorsiz ravishda og'zidan shu so'zlar chiqdi:

— Boshqa yo'l yo'q. Qalbim itoat qilmayapti, go'yo u, boshqa birovning irodasi bilan yashaydi. Men endi bildimki, sevgi bilan ozodlik bir joyda yashay olmas ekan.

Husomiddin shunday deb, Qatibaga o'girildi-da, ma'yus bir holda:

— Ha, shunday, go'zal malika, o'sha gaplarimni esladim,— dedi.

Qatiba uning lablaridan o'pib:

— Endi esa men sening o'sha vaqtda aytganlaringni o'zgartirib boshqacha shaklda takrorlamoqchiman, ijozat berasanmi? — deganida Husomiddin ham uni o'pib:

— Ixtiyor sevimli malikaning o'zida, — deb javob berdi.

Odatdagidek, Qatibaning ko'zlarida bir-ikki tomchi yosh ko'rindi, u ont ichib dedi:

— Husomiddin, men sening va o'g'limning boshi uchun ont ichaman. Men hech kimniki bo'lmayman, faqat seniki bo'laman va sening uchun yashayman.

Qatiba shuni deb Husomiddinning bo'ynidan quchoqlab o'pdi. Lekin bu bilan ko'ngli taskin topmadi, uni biroz qo'rqitmoqchi bo'ldi:

— Bilasanmi, mening azizim, — dedi, — To'g'rulni toj-u taxtga ega qilish uchun ko'rgan zahmatlarimiz ijobiy natija bermadi. Bu hozirdanoq bizga xiyonat qila boshladi. U xohlasa hozirning o'zidayoq ikkimizni ham mahv eta oladi. Shunga ko'ra ehtiyot shart, fursatni qo'ldan berish yaramaydi. Otabekning qatliga uning o'zi sabab bo'lganligini joyi kelganda biz uning o'ziga eslatib turishimiz kerak. U fil tabiatli bir odam. Biror odam uning bo'yniga o'tirib olib boshiga to'qmoq bilan urib turmasa, o'zining yo'lini yo'qotib qo'yadi. Qo'shin orasida unga qarshi fitna uyushtirishimiz kerak. Biz qo'shin oldida uning obro'sini to'kishimiz lozim. Obro'li kishini tiz cho'ktirish qiyin bo'ladi. Biz bir necha daqiqada baxtli bo'lishimiz mumkin. Lekin bu baxt mangu bo'lishi lozim. Sen shuni bilginki, mening Otabek Muhammadga hadya qilgan narsalarim ichida qalbim yo'q edi. Uni saqlab qolganman, uni senga hadya etaman, unga sendan boshqa kishini loyiq ko'rmayman. Aziz do'stim, hayotda birdan sakrash qo'rqinchli bir narsadir. Martabalar tadrijiy ravishda qozoniladi. Men o'z hayotimda bu haqiqatni endi tushuna boshladim. Yuksaklikka chiqishga shoshilma, jarga qulaysan. Senga yana bir karra ta'kidlayman, biz To'g'ruldan

burunroq harakat qilib qolishimiz kerak. Uni o'zimizga bo'ysundirishimiz kerak.

Husomiddin qisqa bo'lsa ham qat'iy qilib:

— Malikaning butun so'zlari men uchun qonundir, — dedi...

QAYTISH

Otabek Muhammad vafot etganidan so'ng Ozarbayjonning saltanati katta xavf ostida qoldi. Qatibaning Xorazm shohi bilan tuzgan shartlariga ko'ra Rey mamlakati Xorazm davlatiga, Iroq mamlakati esa iroqliklar qo'liga o'tishi kerak edi. Rey topshirilganidan so'ng Iroq masalasi ustida bahslashib o'tirishga hojat qolmadi, chunki Rey xorazmliklar tomonidan olinganidan keyin Janubiy Ozarbayjonning muhim bir qismi ham Hamadon bilan birga Ozarbayjon Otabekligidan ajralib qolar edi. Qizil Arslon saltanatning parchalanib ketishidan tashvishga tushib, Shimoliy ozarbayjonliklarga murojaat qilib yordam so'radi.

Faxriddin boshqacha fikrda edi. U Araksni Shimoliy Ozarbayjonning janubdagi chegarasi deb bilar, Qizil Arslon va boshqalarni Shimoliy Ozarbayjon tuprog'iga qadam qo'yishini istamas edi. Shimoliy Ozarbayjon yoshlari va ziyolilaridan bir qanchasi uning fikriga qo'shilar edilar.

Vaziyat tobora keskinlashib borardi. Siyosiy ahvoldan xabardor bo'lgan kishilar Shimoliy Ozarbayjonning yakkalanib qolishiga siyosiy va tarixiy bir jinoyatdek qarardilar.

Xaloyiq Saljuq jomenga to'plangan edi. Ko'pchilik: "Qizil Arslonga ko'mak bermaymiz, Araks soyi chegaramiz. Uni qonimiz, jonimiz bilan mudofaa qilamiz", der edi. Faxriddin masjidda tik turib olib bu fikrga qarshi chiqqanlarni ko'zdan kechirar va o'zining fikrini amalga oshirish uchun imkon tug'dirishga urinardi.

Faxriddinning bu fikrini tanqid ostiga olganlarning boshida uning o'z safdoshi Alouddin turardi. Shuning uchun bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni himoya qilayotgan do'stlar orasida qonli janjal yuz berishi ehtimoldan uzoq emasdi. Chunki har ikki guruhning qurolli kuchlari Malikshoh maydoniga to'planib, o'z rahbarlarining buyrug'ini kutmoqda edilar.

Faxriddin xursand edi, chunki Nizomiy bemorligi tufayli masjidga kelmagan edi. Avvalo masjiddagilarning aksariyati Nizomiyni hurmat qilishini, uning fikriga hech kim qarshi chiqmasligini bilar edi. Ikkinchidan esa, Faxriddinning shaxsan o'zi Nizomiyning maslahatidan chetga chiqolmasligi hamma uchun ravshan edi.

Faxriddinning guruhi g'olib chiqish arafasida edi. U mumkin qadar tezroq qaror chiqarilsaydi deb oshiqar, chunki u, Nizomiyni xalqning irodasiga qarshi bora olmasligini bilardi.

Porloq bir mash'alning yog'dusi tun qorong'isini yorib o'tgandek, xalq olomoni ham masjidga kirib kelgan muhtaram bir zotni ko'rib ikkiga ajraldi. Hamma Nizomiyning kirib kelishini ko'rib sevindi. Nizomiyni bir qo'ltig'idan o'g'li Muhammad, ikkinchi qo'ltig'idan Alouddin suyab minbar yoniga keltirdilar. Nizomiyni ko'rgan hamono Faxriddinning butun umidlari puchga chiqdi, chunki Nizomiyning Janubiy Ozarbayjondan ajralib chiqish haqidagi fikrlarga mutloq qarshi ekanligini yaxshi bilardi. Qizil Arslondan maktub olgan kundan beri Nizomiy har qanday o'zboshimchaliklarga qarshi turardi. U Otabek hokimiyatini qanday bo'lmasin o'z o'rnida qolishini istar edi. Nizomiy biroz o'tirib dam oldi, qiy-chuv, shovqin ko'targan izdihomga tovushsiz qarab turardi. Nihoyat, Nizomiy damini rostlab olganidan so'ng o'rnidan turdi. Minglarcha ko'z unga tikildi. Shoir so'zini bunday boshladi:

— Men betob edim, sizlarning bu yig'inlaringiz tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega ekanligini o'ylab, betobligimni unutdim. Mamlakat va xalqlarning taqdirini hal qilish shatranj o'yini kabi chuqur mulohaza va tafakkurni talab qiladi. Shatranj bir muhorabdir. Yanglishib bir nuqtani dushmanga berib qo'ygudek bo'lsang, yolg'iz bir jabhani emas, butun bir mamlakatni yutqizding demak. Shuning uchun ham men xastalik to'shagimdan qo'zg'alib, sizlarning bu yig'iningizga kelishga majbur bo'ldim. Men bir shoir bo'lishimga qaramay, shatranj o'yinini ozmi-ko'pmi tushunaman. Faxriddin mening maktabdoshim hamda bolalik va o'spirinlik chog'imdagi do'stimdir. Men uni qanchalik sevsam, u ham meni shunchalik sevadi. Men ham, u ham bir-birimizga sadoqatimizni amalda ko'rsatganmiz. To'g'ri, biz boshqa-boshqa yo'lni tanladik: u qilich, men esa qalam ushladim. Lekin mening do'stim,

Nizomiyni qilich va siyosat ishlaridan bexabar deb o'ylamasin. Janubdan ajralish va o'zboshimchalik o'lim va falokat keltiradi. Bugun biz Shimoliy Ozarbayjonni Janubdan ajratishni istasak, dushmanlarimiz bizga rahmat o'qiydilar. Ularning maqsadi ham shu. Ajabo, vaziyat shunday og'ir bo'lgan paytda mening do'stim Faxriddin nimaga suyanib shu ishni qilmoqchi? Men uning fikrini bilishni istardim.

Nizomiy shularni aytib, indamay Faxriddindan javob kutardi. Xalqning ko'zi Faxriddinning og'zida edi. Faxriddin o'rnidan turib gapirdi:

— Bosqinchilar nomlarini Ozarbayjon Otabeklari deb qo'ysalar ham, baribir, bosqinchilardir, — dedi.

Masjidning bir tomonidan "to'g'ri" degan ovozlar eshitildi. Nizomiy miyig'ida kuldi:

— Biz mamlakatni Qizil Arslon uchun ham, To'g'rul uchun ham mudofaa qilayotganimiz yo'q. Biz uni Ozarbayjonning butunligi va daxlsizligi uchun mudofaa qilishimiz kerak. Qizil Arslonning ajnabiylar bosqin-chiligiga qarshi boshlagan kurashlari yuqoridagi fikrlarimga tamomila muvofiqdir. Bizning ko'magimiz bo'lmasa Qizil Arslon Ozarbayjon davlatini amir Inonjning qizi Qatibaning fitnalaridan xalos etolmaydi. Bizning ko'z oldimizda mamlakatimizni parchalab, ajnabiylarga sotmoqdalar. Faxriddin bilishi kerakki, mamlakatning faqat bir parchasini emas, balki butunligicha sotmoqchilar.

Faxriddin yana Nizomiyga e'tiroz bildirdi:

— Bugungi kunlarda Otabeklar zaiflashgan. Biz ularning katta qo'shin bilan Ozarbayjonga hujum qilganlarini ko'rganmiz. Mening muhtaram do'stimning o'ziqam yaxshi biladi, bizning xalqimiz Otabekka qarshi bo'lgan janglarda ozmuncha qon to'kmadi. Otabek tomonidan yondirilgan qishloqlarimizning kullarini shamollar hali ham fazoda to'zg'itib yurmoqda. Ularning boshini yanchish uchun bundan ham qulayroq fursat bo'lmaydi. Fursatdan foydalanib ular yana kuch to'plagudek bo'lsalar, bizlarga haqiqiy yuzlarini ko'rsatadilar. Ilonning til chiqarishini yalinish alomati deb bo'lmaydi. Ilon odamlarni chalg'itish uchun o'zini ojiz qilib ko'rsatadi. Biz Eldaniz o'g'lonlarining o'zaro

janjallariga aralashmasligimiz kerak. Qo'ying, ular bir-birlarini do'pposlayversinlar, orada birortasi halok bo'lsa, ikkinchisini biz do'pposlab siyosat olamidan hayday olamiz. Undan keyin hukumat boshiga kimki chiqsa, chiqaversin, har holda zulmda Eldaniz o'g'lonlari oldiga tusholmaydi.

Faxriddinning so'zlari masjiddagilarga qattiq ta'sir qildi, hatto, Alouddinning guruhi orasidan ham "shunday, to'g'ri aytyapti" degan ovozlar eshitildi.

Nizomiy vaziyatning jiddiy tus olganini, masjiddagilarning fikrini burib yuborish mushkul ekanligini sezdi va yuzini xalqqa o'girib dedi:

— Bizning mamlakatimizga keladigan bosqinchilarning Eldaniz o'g'lonlari bilan hech qanday shaxsiy adovati yo'q. Men sizlarni ishontirib aytamanki, ular mamlakatimizni ishg'ol qilib, Eldaniz o'g'lonlarini asir olsalar ham, ularni izzat-ikrom qiladilar. Chunki ajnabiylarning maqsadlari bizning boy-badavlat o'lkamizni ishg'ol etmoqdir. Agar Eldaniz o'g'lonlari bir-birini mahv etsa, bizning mamlakatimiz daxlsiz qolishiga ishonchim komil bo'lsa edi, u vaqtda Faxriddinning fikrini birinchi navbatda o'zim qo'llab-quvvatlagan bo'lardim. Lekin bunga ishonmayman. Dushmanlar o'zaro ichki urushlardan foydalanib, mamlakatni o'z o'rtalarida taqsimlab oladilar.

Faxriddin yana xalqqa murojaat qilib dedi:

— Men sizga so'z beramanki, dushman Shimoliy Ozarbayjon tuprog'iga oyoq bosolmaydi. Bizning qilich tutgan qo'llarimiz shol bo'lgani yo'q.

Nizomiy pinagini buzmasdan unga javob berdi:

— Men Faxriddinga Shimoliy va Janubiy Ozarbayjon so'zini bir yo'la boshidan chiqarib tashlashni maslahat berardim. Bizda faqat bitta Ozarbayjon bor. Ular hech qachon boshqa-boshqa yashay olmaydilar. Nima bo'lsa ham, kimning qo'li ostida bo'lishiga qaramay, biz Ozarbayjonning milliy chegaralarini qo'limizdan chiqarmasligimiz kerak. Agar vatanimiz muboraza talab qilsa, men ham qalamimni bir yoqqa tashlab qo'limga qilich olaman. Balki mening do'stim qilich ko'tarishdan charchagandir. Mayli, u Ganjada qolib biroz dam olsin. Kavkaz tog'laridan Hamandonga va

Qoplon ko'higacha bo'lgan yerlar ota-bobolarimiz midiyaliklarning suyaklaridan iborat. Biz shu tuproqda tug'ilganmiz. Biz hech qachon midiyaliklarning suyaklari ustida dushman otlarining chopib borishiga yo'l qo'ymaymiz. Bir mamlakatni ikki nom bilan ataganlar mamlakatimizning do'sti emaslar. Yo janub bilan birlikda yashashimiz yoki ular bilan birgalikda o'lishimiz kerak. Xalqlari bir-biriga ittifoq bo'lgan bir mamlakatni hech qanday dushman yenga olmaydi. Bugun Qizil Arslon bilan birga Hamadon va Iroq chegaralariga jo'naydigan qo'shinlarimiz Qizil Arslonga yordam uchun emas, Janubiy Ozarbayjonning chegaralarini dushmandan himoya qilish uchun boradilar.

Masjidga yig'ilganlarning fikrlari o'zgardi. Xalq bir-biri bilan shivirlasha boshladi va: "Shoir haq gapni aytyapti", degan so'zlar quloqqa chalindi.

Faxriddin vaziyat o'zgarganini ko'rib Nizomiyga yana bir savol berdi:

— Qizil Arslonning To'g'rul ustidan qozonadigan g'alabasidan bizga nima manfaat bor?

Nizomiy Faxriddinning tushunchalari ojizligini sezib, o'z fikrini izohlab berdi:

— Otabek Muhammadning o'ldirilishi Sharqda katta bir voqea bo'ldi. Bu voqeadan har qaysi davlat o'z manfaati uchun foydalanishga urinadi. Iroqliklarning manfaati boshqa, reyliklarniki boshqa. Ayni zamonda ularning orzulari Ozarbayjon davlatining manfaatiga zid, chunki hozir ham Yaqin Sharqda Ozarbayjon Otabekligi katta bir mavqeni egallab turibdi. Bu voqeaga xorazmliklar ham zo'r e'tibor berib, mamlakatimizning tuprog'idan katta bir bo'lagini yulib olishga urinmoqdalar. Ular bizning saltanatimiz murdasi ustidan o'tib Bag'dodga yo'l ochmoqchi bo'ladilar. Ular Janubning savdo bozorlarini, Hindistonga boradigan yo'llarni bizning qo'limizdan olishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham Shimoliy ozarbayjonliklar Janubiy Ozarbayjondagi qardoshlari bilan mustahkam ittifoqda bo'lib, Bag'dod darvozalarini va Hindiston yo'llarini o'z tasarruflarida saqlashga harakat qilishlari kerak. Qizil Arslonning g'olib kelishi natijasida qo'lga kiritiladigan manfaat shundan iborat. Bizning maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish uchun kimki

yordam bersa, biz ham uni qo'llashimiz lozim. Ozarbayjon xalqining milliy g'ururi ham shuni talab etadi. Men Ozarbayjon yurtini Araks soyi bilan Ko'rsoy oralig'idagi torgina bir qolipga solmoqchi bo'lganlarni hech qachon vatanparvar deya olmayman. Otabeklar xalqparvar emaslar, lekin mamlakatni ajnabiylar qo'liga topshirib qo'yish bilan ularni jazolash ahmoqlikdir. Keling, masalaga aql va siyosat nuqtayi nazaridan yondashaylik. Har holda forslarning qo'l ostida qolib asoratda kun kechirishdan ko'ra, Otabeklarning hukmronligida mustaqil yashash yaxshiroq, chunki ular ham, biz ham bir tilda so'zlashamiz. Shuning uchun ham Qizil Arslonning chaqirig'iga birinchi bo'lib men ovoz beraman. Mayli, mening do'stim Faxriddin o'z tarafdorlari bilan birga Ganjada o'tiraversin.

Nizomiy so'zini tamom qilib o'tirdi, masjidda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Faxriddin o'rnidan turdi.

— To'xtanglar! Men uzoq vaqtlar adashib yurgan ekanman. Biroq Faxriddin o'z xatosidan qaytmaydi, deb o'ylamanglar.

Faxriddin shu gapni aytib, qilichini qinidan sug'urib oldi-da:

— Safarbarlikka tayyorlaninglar! — dedi.

Nizomiy masjiddan tashqariga chiqqan vaqtda Malikshoh maydonidagilar bir-birini o'par, quchoqlashar va safarbarlik e'lon qilinishi munosbati bilan xursandchilik izhor qilar edilar.

XAVF

Bir tomondan Qizil Arslonning itoatsizligi, uning Hamadonga kelishni istamaganligi, ikkinchi tomondan esa Qatibaning boshlagan yangi nayranglari, To'g'rulni qattiq tashvishga solib qo'ygan edi.

Sizdah[1] kuni Hamadonda bo'lgan qo'shin To'g'rul saroyi oldiga kelib, a'lo hazratni tabriklashi, ko'rikdan so'ng To'g'rulning saroyida katta bir ziyofat berilishi kerak edi.

Erta bilan soat o'n birlarda a'yonlar, vazirlar a'lo hazrat bilan birga saroyning maydonga qarab turgan baland ayvoniga chiqib

[1] **Sizdah** — o'n uch demak. Ozarbayjon Otabeklarining odati bo'yicha Navro'z bayramidan o'n uch kun o'tganida mamlakatning a'yonlari vazirlari bilan birlikda qo'shinlarni ko'rikdan o'tkazadilar.

qo‘shinlarning ko‘rikdan o‘tkazishni istagan edilar. Lekin maydonda qo‘shin yo‘q edi, u yerda faqat a’lo hazratning g‘ulomlari va supurgi ushlagan xizmatkorlar yurardi, xolos. Soat o‘n ikki bo‘ldi, qo‘shindan darak bo‘lmadi. To‘g‘rulning g‘azabi keldi, keyin uni qo‘rquv bosdi.

U bu voqeaning tasodifiy emasligini darhol sezdi, ko‘nglida Qatibani qatl ettirish va Husomiddinni qo‘shin sarkardaligidan uzoqlashtirishga jazm qildi. To‘g‘rul o‘zining maxsus g‘ulomini Husomiddinning huzuriga yuborib, tezda yetib kelsin, deb buyurdi. Lekin Husomiddin buyruqni pisand qilmadi. Faqat bir kichkinagina maktub bilan kelolmaganining sababini yozib yubordi. “Hozircha qo‘shin ichidan tashqariga chiqishim a’lo hazratning obro‘yiga katta xalal yetkazishi mumkin, shuning uchun bora olmadim. Garchi, bu ishim nojo‘ya bo‘lsa ham, a’lo hazrat o‘z navkarlarini afv etsinlar”. Ko‘rik marosimiga kelgan mehmonlar ayvondan tushib To‘g‘rulning ziyofatxonasiga to‘plandilar. Lekin ziyofat To‘g‘rulsiz o‘tdi, u o‘zining uyiga kirib olib bir haftagacha tashqariga chiqmadi.

Nihoyat, To‘g‘rul iroqliklardan iborat bir guruh qo‘shin tuzish va Husomiddinning qo‘l ostida bo‘lgan qo‘shinlarni qurolsizlantirish qaroriga keldi. Lekin To‘g‘rulning bu tadbirlariga Xorazm shohining josusi Zahir Balxiy qarshilik ko‘rsatdi.

— A’lo hazrat shunday bir tadbir ko‘rishi kerakki, u tadbir ham Qizil Arslonni hamda Husomiddinning boshlagan fitnalariga javob bo‘lsin, — dedi. — Bu ikki fitnani enga oladigan kuch iroqliklarda yo‘q. Yaxshi bo‘lardiki, a’lo hazrat Sulton Tekeshga murojaat qilib undan madad so‘rasa.

— Aytganlaringizning hammasi to‘g‘ri. Lekin Xorazm qo‘shinlarini mamlakat ichkarisiga kiritish mening vaziyatimni yana ham mushkullashtiradi. Hozir menga Otabek qotili deb tuhmat qilmoqdalar. Ajnabiylarning himoyasiga o‘tishim bilan meni mamlakat xoini deyishlari mumkin. Bordi-yu, bugun xorijiy hukumatning qo‘shini tuprog‘imizga oyoq bosadigan bo‘lsa, hamma ayb mening gardanimga tushadi. Agar janobi Zahir Qatiba bilan so‘zlashsa yaxshi bo‘lardi. Qatiba istasa, bu mojarolar o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketardi.

Zahir Balxiy bunga e'tiroz bildirmadi, chunki u Qatibani Xorazm shohi tarafdori ekanini yaxshi tushunardi.

Qatiba bilan Xorazm shohi o'rtasida tuzilgan bitimga ko'ra, Rey Otabek mamlakatlaridan ajratilib, Xorazmshoh ixtiyoriga o'tishi, Qutlug' Inonj u yerda Amirul Umarolik nomi bilan hukm surishi kerak edi. Shuning uchun ham Zahir Balxiy Qatiba bilan To'g'rulni yarashtirishga e'tiroz qilmadi. Qatiba Hamadonda emas edi. U o'zini fitnalardan chetda turgandek ko'rsatish uchun bir necha kundan beri Eldaniz raboti nomli qasrga ko'chgan edi.

U ko'chib ketganidan so'ng qo'shinlar: "Otabekning qotilini bizga bering", deb To'g'ruldan talab qila boshladilar. Zahir Balxiy hamma tadbirlarga rozi bo'lsa ham qo'shinning To'g'rulga qarshi isyon qilishiga rozi emas edi, chunki bu isyon uning rejasiga to'g'ri kelmas edi. Uning asosiy maqsadi To'g'rulning mavqeyini mustahkamlashdan iborat edi. Lekin Zahir Balxiy Qatiba bilan To'g'rul orasida ro'y bergan kelishmovchilikning asosiy sababini bilmasdi. Unga barcha ishlar ma'lum bo'lsa ham, To'g'rul bilan Qatiba orasida tuzilgan yashirin shartnoma noma'lum edi. To'g'rulning Qatibaga uylanishga so'z berishi va uning o'g'lini valiahd qilib tayinlash masalasini faqat Qatiba bilan To'g'rulgina bilar edilar. Lekin Qatiba To'g'ruldan umidini uzganidan so'ng xorazmliklar bilan bitim tuzib, Rey mamlakatini ularga berishni va o'g'lining "amirlar amiri" degan nom bilan hukm surishi to'g'risida kelishib qo'ygan edi. Bulardan Husomiddinning ham xabari yo'q edi.

Zahir Balxiy Qatibaga bunday bir maktub yozdi:

"Muhtarama malika!

Shunday bir muhim paytda malikaning poytaxtdan uzoqda turishi fitnalarning yana avj olib ketishiga sabab bo'lmoqda. Qo'shinning a'lo hazratga itoat qilmayotganligi uning mavqeyiga putur yetkazmoqda. Holubki malika bilan a'lo hazratning saltanatini mustahkamlash to'g'risida bir qarorga kelgan edik.

Qo'shinning isyoni bizning rejamizda yo'q edi. Bu o'zboshimchaliklar muhtarama malikaning barcha tadbirlarini puchga chiqardi. A'lo hazrat isyon ko'targan qo'shinni bostirishi va ularni qurolsizlantirish uchun iroqliklardan bir qo'shin tuzishga buyruq bergan. Lekin bunday qo'shin biz uchun yaxshi natijalar keltirmay-

di. Avvalo, bu qo'shinning isyonchi qo'shinlardan g'olib kela olishi ham shubhali bir masala, so'ngra ikki qo'shin o'rtasida jang ko'tarilib qolsa, Qizil Arslon fursatdan foydalanadi. U aralashgudek bo'lsa o'g'lingizning kelajagi haqida siz bilan tuzilgan bitim ham o'z kuchini yo'qotadi.

Bularni nazarga olib malika hazratlari zudlik bilan poytaxtga ko'chib kelishlari kerak, chunki Ulyo hazratning Hamadondan ko'chib ketishi Otabek qatlining mas'uliyatini a'lo hazratning zimmasiga yuklaydi. Sizning ketib qolishingiz natijasida Hamadon xalqi Otabekning qotili a'lo hazrat ekan, deb gumon qilyapti, holubki, bu hodisalarda sizning o'zingiz ham yaqindan qatnashgansiz".

Maktubni Zahir Balxiyning eng ishonchli g'ulomlaridan Basirga topshirdilar. Basir kechasi Hamadondan Eldaniz rabotiga jo'nadi. Lekin yo'lda Husomiddinning odamlari uni ushlab tintuv qildilar va maktubni olib qolib, o'zini qo'yib yubordilar. Husomiddin bu maktubdan oldin To'g'rulning Qatibaga yuborgan maktubini ham qo'lga tushirgan edi.

To'g'rul Qatibaga yozgan maktubida bunday degan edi: "Aziz va muhtarama malika poytaxtdan qanchalik uzoqda bo'lsa ham baribir men uning lablarini o'z lablarimda his etmoqdaman va shu nash'a bilan yashamoqdaman. Lekin taassufki, Husomiddinning xoinona harakati bizning malika bilan bo'ladigan nikohimizning orqaga surilishiga sabab bo'lmoqda.

Muhtarama malikam poytaxtga qaytsa, Husomiddin to'g'risida qat'iy bir qarorga kelar edik".

Bu maktub qo'lga olinganidan so'ng Qatibaning ham, To'g'rul ham Husomiddin bilan o'ynayotgani ma'lum bo'ldi. Qatibaning unga uzatgan lablarini va unga nikoh to'g'risida bergan va'dasini To'g'rulga ham berganligini Husomiddin angladi.

Qatibaning Rey mamlakatini Sulton Tekeshga hadya qilganligi uni taajjublantirmadi, chunki ajnabiylarning ko'magi bilan hukumatda to'ntarish yasash uchun shunday qurbonlar talab qilinishi shubhasiz edi.

To'g'rul Qatibaga yuborgan maktubidan javob olmaganidan keyin Zahir Balxiyni yana huzuriga chaqirib o'z fikrini unga bildirdi:

— Qatiba na sizning va na mening maktubimga javob yozib yubordi. Shuning uchun men uning haqida ikki xil fikrga keldim. Yo unga uylanib o'g'lini valiahd qilib tayinlashim kerak yoxud kechalarning birida uni qatl ettirishim kerak.

Zahir Balxiy birinchi fikrga e'tiroz bildirib dedi:

— Unga uylanishni a'lo hazrat uchun nihoyatda zararli deb bilaman. Unga uylangan taqdirda butun mamlakat aholisi: "A'lo hazrat To'g'rul Qatibaga uylanish maqsadida o'z akasi Otabek Muhammadni o'ldiribdi", deyishlari mumkin. Uning o'zini qatl ettirish esa uylanishdan ko'ra foydaliroq. Lekin bu ham qo'shin orasida boshlangan isyonni ko'chaytirishi mumkin. Eng qulay chora, hozircha u bilan vaqtincha bo'lsa ham yarashishdan iboratdir. Yarashish uning hayotini umrbod saqlab qoladi, degan ma'noni bermaydi, chunki uning tabiatida yaxshlikka yaxshilik qaytarish xislati yo'q. U o'limga sazovor, lekin hozircha tirikligi o'limidan afzalroq.

To'g'rul Zahir Balxiyga yana bir savol berdi:

— Husomiddin to'g'risida nima deya olasiz?

— Qo'shinning isyoni Husomiddin tomonidan uyushtirilgan bo'lsa ham lekin bu uning o'z tashabbusi emas, yaxshilab tekshirsak, isyon ipining uchini Qatibadan topgan bo'lamiz. Shuning uchun ham Qatiba bilan yarashish afzalroh. Husomiddin kabi odamlar uning rejalarini amalga oshiruvchilardir.

— Bilmadim, u yarasharmikan? U saltanatning valiahdligini o'g'liga, malikalik unvonini esa o'zi uchun saqlab qolmoqchi.

Zahir Balxiy kuldi.

— Xotin kishi aldashga usta bo'lsa ham, o'zi tez aldanadi. Siz ularni haq gaplarga emas, balki quruq va'dalarga uchishlarini bilasizmi? Xotin kishining ko'ngli va'dalarni, chiroyli so'zlarni sevadi. Lekin va'dalar ishontiruvchi bo'lishi kerak. Chunki ular qolipga solingan yolg'on-yashiqlarga tezroq ishonadilar. Yana shuni ham bilib qo'yish kerakki, xaloyiq haqiqatni eshitishga odatlanmagani uchun, haqiqatni eshitganida kuladi va buni shuuriga sig'dira olmaydi. Lekin ularning quloqlari yolg'on gaplarni har soat, har daqiqa eshitib turadi va shunga o'rganib qolganlar. Biz Otabek qatl qilinganidan keyin yolg'on-yashiq gaplarni tarqatgani-

mizda ko'rdik-ku! Shuning uchun ham sizning Qatibaga nisbatan munosabatingiz aqlli bir hukmdorning ishiga o'xshamas edi. Qizil Arslon bilan munosabatlaringiz aniqlanmasdan Qatibani poytaxtdan ketishiga imkon bermasligingiz kerak edi. U juda ham fitnachi xotin. U bu yerdan ketishi bilan xaloyiqqa sizning harakatlaringizdan noroziligini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Ayni zamonda qo'shinning isyoni u poytaxtda bo'lmagan kunlarda boshlandi. Qatiba bu mojarolarni xalqning ahvol-ruhiyasini nazarda tutib turib boshlagan. Xaloyiq orasida: "Malika poytaxtda yashay olmadi. U o'z erining qotilini Ozarbayjon taxtida ko'rishga toqati bo'lmadi. Uni To'g'rul o'ldirmoqchi edi, shuning uchun ham u Eldaniz rabotiga qochib ketdi", degan gap-so'zlar yuribdi. Lekin bularning birortasi ham meni qo'rqitmaydi. Meni qo'rqitgan narsa Qatibaga yuborilgan maktublarning boshqalar qo'liga tushib qolishidir. Agar jo'natilgan maktubni uning qo'liga tekkanligi va uning bunga beparvolik qilib javob qaytarmaganligini bilsam, ko'nglim tinch bo'lar edi. Lekin maktubni boshqa qo'lga tushib qolishi juda ham xatarli bir hodisa. Unda biz Qatibani aldaay olmaymiz.

Zahir Balxiyning gapi to'g'ri chiqdi. Maktubni olib ketayotgan Basir qaytib kelib, Qatibaga yuborilgan maktubni noma'lum odamlar tomonidan qo'lga tushirilganligini xabar qildi.

ERKAKLAR

Qatibaning masaladan xabari yo'q edi. U qo'shin ichida isyon uyushtirib, To'g'rulni qo'rqitmoqchi bo'lsa ham, o'ylagan rejalarini amalga oshirolmadi. To'g'ruldan biror xabar bo'lmaganligi uni asabiylashtirdi. U ba'zan Husomiddindan shubha qilar, uni To'g'rul tarafiga o'tib ketgan, deb o'ylab xunob bo'lardi.

Qatibaning fikricha, qo'shin isyon ko'tarishi bilanoq To'g'rul darhol unga maktub yo'llab poytaxtga chaqirishi, yoxud uni poytaxtga olib kelish uchun Eldaniz rabotiga vakillar yuborishi kerak edi.

Bir necha martaba o'zi hozirlik ko'rib poytaxtga jo'namoqchi bo'ldi-yu, lekin jur'at etolmadi. Ehtiyotlik bilan harakat qilish kerak

edi, chunki qo'shin ichida ko'tarilgan isyon to'xtatilib, Husomiddin To'g'rul tarafiga o'tib ketsa, Qatibaning poytaxtga kirishi bilanoq hibsga olinishi ham ehtimoldan uzoq emasdi.

Qatiba kecha-yu kunduz shu tashvishlar ichida qovurilib ko'-ziga uyqu kelmayotgan bir paytda Husomiddinning maktubini oldi, maktub uncha samimiy emas, sovuq edi. Bunda Husomiddinning avvalgi maktublarida uchraydigan sevgi va muhabbat so'zlari yo'q edi. Hatto, maktubda Qatibani umidlantiradigan jumlalar ham yo'q edi. Xullas, bu xat xotinidan jahli chiqqan bir er tomonidan yozilgan xatga o'xshar edi. Maktubni jahl bilan tashlab yana olib o'qidi. U maktubning Husomiddin tomonidan yozilganiga hech ham ishonmas edi. Maktubni olib kelgan otliqni yoniga chaqirib so'radi:

— Bu maktubni senga Husomiddinning o'zi berdimi?

— Ha, hashamatli malika! Shaxsan Husomiddin hazratlarining o'zlari menga berdilar va o'z qo'lingizga topshirishimni ta'kidladilar.

— Javob yozishimni so'ramadimi?

— Yo'q, boshqa hech narsa deganlari yo'q.

— Qaytishing mumkin.

Otliq chiqib ketganidan so'ng, Qatiba maktubni yana bir martaba o'qidi:

"Muhtarama malika!

Menimcha, Eldaniz rabotida o'tirib olib poytaxtdan maktublar, vakillar kutishingiz foydasizdir. Endi Hamadonga ko'chib kelishingizga maslahat beraman. Aks holda men chora ko'rishga majbur bo'laman. Haqiqatni ko'rib turib unga ishonmaslik — aqlsizlik, har qadamda o'z-o'zini aldash ahmoqlikdir. Men bo'lsam shu kunga qadar ham ahmoqona ish tutib keldim. Ba'zan inson siyosiy mulohazalar bilan o'zini idroksiz va ahmoq ko'rsatishi kerak bo'lsa ham, lekin bu usulni doim ishlatishi jinnilikdir. Bitta yolg'on gapni bir butun mamlakat xalqiga sotish mumkin, lekin bitta narsani ikki odamga sotish mumkin emas. Bu narsaga malika qodir bo'lsa, u holda ikkala xaridor olchoq, sotuvchi esa axloqsizdir".

Qatiba diqqat bilan maktubni o'qiganidan so'ng Husomiddinning nima demoqchi bo'lganligini tushundi. To'g'rulga tegmoqchi bo'lganligini Husomiddin fahmlab qolganini, uning rashk qilayot-

mizda ko'rdik-ku! Shuning uchun ham sizning Qatibaga nisbatan munosabatingiz aqlli bir hukmdorning ishiga o'xshamas edi. Qizil Arslon bilan munosabatlaringiz aniqlanmasdan Qatibani poytaxtdan ketishiga imkon bermasligingiz kerak edi. U juda ham fitnachi xotin. U bu yerdan ketishi bilan xaloyiqqa sizning harakatlaringizdan noroziligini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Ayni zamonda qo'shinning isyoni u poytaxtda bo'lmagan kunlarda boshlandi. Qatiba bu mojarolarni xalqning ahvol-ruhiyasini nazarda tutib turib boshlagan. Xaloyiq orasida: "Malika poytaxtda yashay olmadi. U o'z erining qotilini Ozarbayjon taxtida ko'rishga toqati bo'lmadi. Uni To'g'rul o'ldirmoqchi edi, shuning uchun ham u Eldaniz rabotiga qochib ketdi", degan gap-so'zlar yuribdi. Lekin bularning birortasi ham meni qo'rqitmaydi. Meni qo'rqitgan narsa Qatibaga yuborilgan maktublarning boshqalar qo'liga tushib qolishidir. Agar jo'natilgan maktubni uning qo'liga tekkanligi va uning bunga beparvolik qilib javob qaytarmaganligini bilsam, ko'nglim tinch bo'lar edi. Lekin maktubni boshqa qo'lga tushib qolishi juda ham xatarli bir hodisa. Unda biz Qatibani aldaymiz.

Zahir Balxiyning gapi to'g'ri chiqdi. Maktubni olib ketayotgan Basir qaytib kelib, Qatibaga yuborilgan maktubni noma'lum odamlar tomonidan qo'lga tushirilganligini xabar qildi.

ERKAKLAR

Qatibaning masaladan xabari yo'q edi. U qo'shin ichida isyon uyushtirib, To'g'rulni qo'rqitmoqchi bo'lsa ham, o'ylagan rejalarini amalga oshirolmadi. To'g'ruldan biror xabar bo'lmaganligi uni asabiylashtirdi. U ba'zan Husomiddindan shubha qilar, uni To'g'rul tarafiga o'tib ketgan, deb o'ylab xunob bo'lardi.

Qatibaning fikricha, qo'shin isyon ko'tarishi bilanoq To'g'rul darhol unga maktub yo'llab poytaxtga chaqirishi, yoxud uni poytaxtga olib kelish uchun Eldaniz rabotiga vakillar yuborishi kerak edi.

Bir necha martaba o'zi hozirlik ko'rib poytaxtga jo'namoqchi bo'ldi-yu, lekin jur'at etolmadi. Ehtiyotlik bilan harakat qilish kerak

edi, chunki qo'shin ichida ko'tarilgan isyon to'xtatilib, Husomiddin To'g'rul tarafiga o'tib ketsa, Qatibaning poytaxtga kirishi bilanoq hibsga olinishi ham ehtimoldan uzoq emasdi.

Qatiba kecha-yu kunduz shu tashvishlar ichida qovurilib ko'-ziga uyqu kelmayotgan bir paytda Husomiddinning maktubini oldi, maktub uncha samimiy emas, sovuq edi. Bunda Husomiddinning avvalgi maktublarida uchraydigan sevgi va muhabbat so'zlari yo'q edi. Hatto, maktubda Qatibani umidlantiradigan jumlalar ham yo'q edi. Xullas, bu xat xotinidan jahli chiqqan bir er tomonidan yozilgan xatga o'xshar edi. Maktubni jahl bilan tashlab yana olib o'qidi. U maktubning Husomiddin tomonidan yozilganiga hech ham ishonmas edi. Maktubni olib kelgan otliqni yoniga chaqirib so'radi:

— Bu maktubni senga Husomiddinning o'zi berdimi?

— Ha, hashamatli malika! Shaxsan Husomiddin hazratlarining o'zlari menga berdilar va o'z qo'lingizga topshirishimni ta'kidladilar.

— Javob yozishimni so'ramadimi?

— Yo'q, boshqa hech narsa deganlari yo'q.

— Qaytishing mumkin.

Otliq chiqib ketganidan so'ng, Qatiba maktubni yana bir martaba o'qidi:

"Muhtarama malika!

Menimcha, Eldaniz rabotida o'tirib olib poytaxtdan maktublar, vakillar kutishingiz foydasizdir. Endi Hamadonga ko'chib kelishingizga maslahat beraman. Aks holda men chora ko'rishga majbur bo'laman. Haqiqatni ko'rib turib unga ishonmaslik — aqlsizlik, har qadamda o'z-o'zini aldash ahmoqlikdir. Men bo'lsam shu kunga qadar ham ahmoqona ish tutib keldim. Ba'zan inson siyosiy mulohazalar bilan o'zini idroksiz va ahmoq ko'rsatishi kerak bo'lsa ham, lekin bu usulni doim ishlatishi jinnilikdir. Bitta yolg'on gapni bir butun mamlakat xalqiga sotish mumkin, lekin bitta narsani ikki odamga sotish mumkin emas. Bu narsaga malika qodir bo'lsa, u holda ikkala xaridor olchoq, sotuvchi esa axloqsizdir".

Qatiba diqqat bilan maktubni o'qiganidan so'ng Husomiddinning nima demoqchi bo'lganligini tushundi. To'g'rulga tegmoqchi bo'lganligini Husomiddin fahmlab qolganini, uning rashk qilayot-

ganligini angladi va maktubning so'nggi jumlasini yana o'qidi: "Lekin bitta narsani ikki odamga sotish mumkin emas. Bu narsaga malika qodir bo'lsa, har ikkala xaridor olchoq, sotuvchi esa axloqsizdir". Qatiba qah-qah urib kulib dedi: "Bizning faylasufimiz dunyoda hech kimning qulog'i eshitmagan bir haqiqatni topibdi, deb o'ylash mumkin. U bir mamlakat xalqiga bir yolg'on gapni sotganlar, bir narsani ikki odamga sotgan xotindan ham olchoqroq va axloqsizroq ekanini bilarmikan? Bir narsani ikki odamga sotuvchilar o'z tanasini sotadi, lekin butun bir shaharga yolg'on gapni sotganlar esa o'z xalqini sotadi. Husomiddin bu kunga qadar bizni tushunmabdi. Men hech kimga o'zimni sotgan emasman. Lekin uning o'zi bir xotinning va'dalariga uchib, o'zining hayvoniy nafsi uchun bir mamlakatni sotib yuborish arafasida turganini bilarmikan? Men sen kabi Husomiddinlarni, oddiy kishilarni emas, balki mamlakatni boshqarib turgan arboblarni bir shaxs sifatida o'rganib bilib oldim. Sizdeklarning aqlini g'alvirdan o'tkazdim. Sizlar o'z hayvoniy nafslaringizni qondirish va besh daqiqalik nash'angiz uchun mamlakatni bitta fohishaning qo'liga topshirib qo'yishga ham qodirsiz. Erkaklar, erkaklar, sizlar faylasuf bo'lsalaringiz ham, sizlar bir mashhur olim, hatto, bir payg'ambar bo'lsangiz ham, siz butun xalqni tarbiyalash uchun muqaddas kitoblar yozsangiz ham, baribir u kitoblarni o'zingiz uchun yozmagansiz. Sizlar ko'rsatmoqchi bo'lgan adolatli, fazilatli erkaklar hozircha kitob sahifalaridagina yashaydilar, hozircha, u samoviy erkaklar tug'ilgani yo'q. Hozircha, sizlar Husomiddinlarsiz. Kunda bittasini sevib, har kuni bittasini ko'klarga ko'taruvchi, har kun bittasining boshiga o'lkalarning tojini kiydiruvchi erkaklar, yuzlarcha xotinlarni sevishga tayyorsiz-u, lekin xotin kishi bir erkakka qarasa, rashk qilasizlar, boshqasiga ko'ngil bergan xotinga fohisha deb nom berasizlar, boshidan tojini, qo'lidan amalini tortib olib, yana unga haqoratomuz so'zlar yozasizlar. Lekin bir haqiqatni yashirasizlar, balki erkaklikka xos bo'lgan mag'rurlik o'sha haqiqatni ochishga yo'l qo'ymas. Xotin kishini axloqsiz qilgan kim ekanligini hech o'ylamaysiz, ular xotinlarmi, erkaklarmi? Lekin men unchalik ojiz emasman, men o'sha toshyurak shoirni alday olmagan bo'lsam, bu mening ojizligimni bildirmaydi, chunki shoir yuqorida

qayd qilib o'tganim samoviy va namuna bo'la oladigan mumtoz erkaklardandir. Boshqalari esa Husomiddinlardir".

Qatiba shularni deb qah-qah urib kuldi va maktubni bir tomonga uloqtirib tashlab ilova qildi: "Bormayman, Hamadonga qaytmayman, sen Husomiddin ham, sen To'g'rul ham mening huzurimga kelib uzr so'raysizlar, sizlarni ikki narsa majbur qilib mening qarshimda tiz cho'ktiradi. Ulardan biri amal va tamagirlik, ikkinchisi esa hayvoniy nafsingiz — xotinparastligingizdir".

Qatiba shularni ko'nglidan o'tkazganidan so'ng joriyalarga amr qildi:

— Bugun kechki ovqat dasturxonini hovuzning labiga yozasizlar!

* * *

Husomiddin Qatibaga ta'zim qilib dedi:

— Men sizni poytaxtga olib ketish uchun o'z ixtiyorim bilan kelgan emasman.

Qatiba Husomiddinning nima demoqchi ekanini angladi va biroz keskinroq javob qilish bilan uning jasoratini sinamoqchi bo'ldi:

— Sen o'z ixtiyoring bilan kelib ketish huquqiga ega emassan. Men hali ixtiyorimni senga topshirganimcha yo'q, — deganida, Husomiddin:

— Malikani poytaxtga olib ketish uchun meni a'lo hazrat To'g'rul yuborgan, chunki bu haqda uning yozgan maktubiga siz javob yozmagan edingiz, — dedi.

Qatiba To'g'rul tomonidan yozilgan maktub Husomiddinning qo'liga tushib qolganligini darhol anglab:

— Men undan maktub olganim yo'q, — dedi, — va unga maktub yozish uchun ham ruxsat berganim yo'q.

— Menimcha, ruxsat berganingiz uchun ham maktub mening qo'limga tushgan edi.

Husomiddin shuni deb maktubni Qatibaga uzatdi. Qatiba esa maktubni o'qib turib zaharxanda qildi va uni yerga tashlab dedi:

— To'g'rul bu maktubni menga deb yozganida, shunday bir kishi bilan jo'natar ediki, bu hech qachon sening qo'lingga tushmasdi.

U bu maktubning ataylab sening qo'lingga tushib qolishini ko'zda tutib yozgan. Sen bu maktubni olganingdan keyin qo'shin ichida ko'tarilgan isyonni bartaraf qildingmi?

— Nima uchun so'rayapsiz?

— Chunki To'g'rul bu maktubni bizning o'rtamizni buzishi bilan birga qo'shin ichidagi isyonni bostirish uchun ataylab yozgan. U bu bilan o'z maqsadiga erishdi. Men Husomiddin singari avom, sodda odamlar bilan ish qilayotganimga juda taassuf qilaman. Odam faqat birgina qilichning o'tkirligi bilan qahramon bo'lolmaydi. Qahramonlik uchun o'tkir aql egasi bo'lish ham kerak.

Qatiba shu so'zlardan keyin o'zining yozib yuborgan maktubini ko'rsatib dedi:

— Sen bu maktubni menga yozgan vaqtingda vijdoning bilan kelishmadingmi? Aqling bilan maslahatlashmadingmi? Kim bilsin, balki u xislatlar senda hech ham yo'qdir. Sen shuni bilginki, To'g'rul olchoq bo'lmaganida edi bunday ablahlikni qilmagan bo'lur edi. Bu kurash usuli emas. Lekin sen olchoq emassan, senga olchoqsan deyishga uyalaman, chunki sen bir askarsan, ammo ahmoqsan. Haqiqatni anglamay turib o'z do'stiga shunday bir maktub yozgan odamni faqat shunday deb atash mumkin. Xotinlarning aybi ularning shoshqaloqliklaridadir. Men sen bilan do'stlashishga shoshildim. Shuning uchun ham mukofot tariqasida sendan shunday maktublar olmoqdaman. Senga ishim yo'q. Lekin u olchoqning jazosini beraman. Uning shohligi bir yoqda tursin, hatto, bir chibin bo'lsa hamki mening libosimga qo'nolmaydi. Xalifaning nevarasi shunchalik tanazzulga tushganmidiki, har mayxo'rning labi uning lablariga tegsa. Seni sevganligim uchun meni axloqsiz deyishing nazokatsizlik emasmi?!

Qatiba yengini ko'ziga bosib yig'ladi va Husomiddinni xonada qoldirib boshqa xonaga kirib ketdi.

Husomiddin tik turib qolganicha o'ylar, Qatibaga yozgan maktubidan pushaymon bo'lardi. U To'g'rulning qasddan maktub yozib uning qo'liga tushirganligiga ishona boshladi. Malikadan qanday kechirim so'rash va qanday qilib uning ko'nglini ovlash to'g'risida bosh qotirardi. Malikaning g'ulom va joriyalari kelib

Husomiddinni hammomga olib ketdilar. U hammomdan chiqib istirohat qilganidan so'ng, joriyalar kelib ta'zim qildilar.

— Malika kechki ovqatga buyurishingizni iltimos qildilar, — dedilar. Husomiddin o'rnidan qo'zg'alishga va Qatibaning ko'ziga ko'rinishga jur'at qilolmas edi. Nihoyat, "odobsizlik bo'lmasin" deb dasturxon yozilgan xonaga o'tdi. Qatiba hali kirganicha yo'q edi. U malikani hayajon bilan kutdi. Qatiba kirib kelishi bilan Husomiddin o'rnidan turib bosh egdi. Qatiba o'tirganidan so'ng Husomiddinga murojaat etib:

— Sardor, o'tiring, — dedi.

Dasturxon ustida gap-so'z bo'lmadi, chunki Qatiba dasturxon tepasida so'zlashmas edi. Ovqatdan so'ng boqchaga chiqdilar, ularning ketida joriya va g'ulomlar borishardi, Qatiba o'zini ehtiyotli ko'rsatish uchun yot erkaklar bilan suhbatlashganida yoki bog'ni sayr qilgan paytlarda joriya va g'ulomlarni o'zi bilan birga olib yurardi. Joriya va g'ulomlar ham bunga odatlanganliklari tufayli Qatibani begona erkaklar bilan ko'rganlarida hech qachon uning yonidan uzoqlashmas edilar.

Qatiba joriya va g'ulomlarga murojaat qilib:

— Sharbatxonaga joy hozirlanglar. Meni sardor bilan xoli qo'yinglar, birozdan keyin sharbatxonaga kiramiz, — deganida hammalari ta'zim qilib ketishdi.

Ular yolg'iz qolganlarida, Qatibaning birinchi so'zi shu bo'ldi:

— U Zahir Balxiyning maslahati bilan bu xiyonatga jur'at qilgan. Aks holda To'g'rul o'z akasining xotiniga bu xil maktub yuborishga botina olmas edi. Sen shohid bo'l, so'zlarimni esingda tut. To'g'rul Zahir Balxiyning maslahatlari tufayli halok bo'ladi.

Husomiddin Qatibaning qo'lidan ushlab dedi:

— Malika, menga inoning! Ont ichaman, men sizni hech qachon To'g'rulning yozgan maktubi bilan o'lchaganim yo'q. Men sizning nomus va vijdoningizga ishonaman. Yozgan maktubim esa har bir erkakda bo'lganidek, rashkning natijasi.

Qatiba Husomiddinning so'zini eshitib, undagi rashk o'tlarining so'nmaganligini, hirs va hayvoniy tuyg'ularning vijdoniy hissiyotlardan g'olib kelganini ko'rib, asosiy masalaga o'tdi:

— Men shuni aytishga jur'at etamanki, juda oz erkaklardagina qahramonlik xususiyati mavjud bo'ladi. Lekin ularning aksariyati o'zlarida bo'lgan tabiiy qahramonlik xususiyatlarini juda tez qo'ldan berib qo'yadilar. O'zlarini ojiz qilib qo'ygan sabablarni ba'zan ko'rolmaydilar, chunki rashk ularni ko'r qilib, aqllarini olib qo'yadi. Erkak kishining qahramon bo'lishi uchun rashk qilmasligi, har qanaqa gapga darrov ishonmasligi va oshiqmasligi kerak. Sen Husomiddin rashkchi va har narsaga ishonuvchi laqma bo'lmaganingda, seni seva boshlagan Qatiba singari bir ayolga bunday xatni yozmagan bo'larding. Hozir sen yoshlik davrimda qahramonliklar ko'rsatgan Husomiddinga o'xshamaysan. Endi o'zing bir tasavvur qil, shu fe'l-atvoring bilan sen bir mamlakatni o'zgartirish va mamlakatning hukmdorini taxtdan tushirish vazifasini uddalay olasanmi? Men senga ishonib Eldaniz xonadoni bilan boshlagan bu kurashda yutib chiqa olarmikanman? Balki sen mening Eldanizlarga qarshi olib borayotgan kurashimning ma'nosiga hali tushunmagandirsan. Bir hukmdor qizimi yoki oddiy bir fuqaroning qizimi, baribir, kim bo'lmasin, u qizda noyob bir javohir bordirki, u ham bo'lsa, qizlik nomusidir. Qizlar buni muayyan bir vaqtga qadar ko'z qorachig'idek asraydilar, uni hech qanday xazinaga ham sotmaydilar. Uni faqat vafo, sadoqat, samimiyat va oila muhabbati bahosiga sota oladilar. Men ham Otabek Muhammadga erga tegayotgan vaqtimda o'zimning qizlik sharafimni yuqorida zikr etganim to'rt javohir bahosiga bergan edim. Sening o'zingga ma'lum, Otabek men taqdim etganim javohirning qimmatini qadrlamadi, meni aldadi, va'dalariga vafo qilmadi. Men undan muhabbat, vafo va samimiyat ko'rmadim. Nihoyat u qalbini ikkiga bo'lib boshqa bir xotinga uylandi. Men bebaho qizlik javohirimni oltin bahosiga sotilganligini ko'rib, undan intiqom olishga haqli edim. Men arzon sotiladigan qizlardan emasman. "Sharaf va nomusim badaliga istagan narsamni ber yoinki hayoting bilan javob ber!" Men shunday qarorga keldim. Uning hayotini qo'lidan oldim, chunki u mening qizligimdan hamda meni sevgan Husomiddinimdan ajratgan edi. Endi tushundingmi? Sen hamkor bo'lishing kerak edi, chunki Otabek bo'lmaganida, Qatiba Husomiddin bilan bir oila qurib baxtiyor yashagan bo'lardi.

O‘shanday baxtni ikkimizning ham qo‘limizdan tortib olishdi. Biz ham buning evaziga undan qasos oldik. Lekin hali ish bitgani yo‘q. Shu payt biz qo‘limizni qovushtirib o‘tiradigan bo‘lsak, bir kun kelib eldanizliklar bizning yoqamizdan tutadilar va Otabekning xunini talab qiladilar. Shuning uchun ham ularning boshini aylantirish, kezi kelganda ularni mahv etish asosiy vazifamiz bo‘lishi kerak. Endi masala Husomiddin janoblariga oydinlashgan bo‘lsa kerak.

Husomiddin uning qo‘lini o‘parkan:

— Masala oydinlashdi, sevimli malika! Husomiddinning tanida bir qatra qon qolguncha bu maqsad yo‘lida kurashadi, — dedi.

— To‘g‘rul kabi irodasiz, zaif va sarxush bir hukmdorning saltanat tepasida qolishi biz uchun qulayroq. Ba’zan uni qo‘rqitib, ko‘zlagan tadbirlarimizni amalga oshirishimiz kerak, — dedi Qatiba va lablarini Husomiddinga tutdi.

— Ont ichaman, malikaning hamma topshiriqlariga amal qilaman! — dedi o‘zini behad baxtiyor sezgan Husomiddin.

* * *

Husomiddin Qatibaning buyrug‘iga binoan Eldaniz rabotidan qaytishi bilanoq, To‘g‘rulning huzuriga kirdi va unga ta’zim qilib safari haqida ma’lumot berdi:

— A’lo hazratga ma’lum qilamanki, Qatiba xotun betob bo‘lganligi sababli poytaxtga kela olmas emish.

To‘g‘rul Zahir Balxiyning ko‘ziga qattiq tikilib uning fikrini bilishni istadi. Zahir Balxiy esa:

— Qatiba xotunning Eldaniz rabotida bunchalik uzoq turib qolishi, albatta, sababsiz emas, — dedi, — modomiki, Ulyo hazrat xastalangan ekan, u holda a’lo hazratning o‘zlari yo‘qlab borishlariga to‘g‘ri keladi, — dedi.

To‘g‘rul Husomiddinning ketishiga ijozat berdi. Zahiriddin esa To‘g‘rulga sekingina dedi:

— Bizning katta nuqsonlarimizdan biri Husomiddin bilan yaqin munosabatda bo‘lishimizdir. Biz Otabekni o‘ldirishda Husomiddinni ishtirok ettirmasligimiz kerak edi. Hozirgi isyonda uning Qatiba bilan birgalikda ish olib borayotganligi shubhasiz, ular bu

xatti-harakatlari bilan sizni yon berishga majbur qilmoqchilar. Shularni nazarda tutib, Husomiddinni qo'rqitib qo'lga olish kerak, Qatibani esa aldab-suldab tinchitib qo'yish lozim. Bu tadbirlarning ikkisini ham bajara olsangiz, unda o'z xavfsizligingizni asosan ta'min etgan bo'lasiz.

— Husomiddinni huzurimga chaqirtirib gaplashib ko'raman, ertaga ertalab esa Eldaniz rabotiga yo'lga chiqaman, — dedi To'g'rul.

Zahir Balxiy xayrlashib chiqib ketdi. To'g'rul esa Husomiddinni chaqirishga buyruq berdi. To'g'rul xona ichida kezar va Husomiddin bilan gaplashganda aytadigan so'zlarni xotira iplariga chizardi.

Husomiddin hali safar libosini ya aslahalarini yechishga ulgurmay yana To'g'rulning huzuriga kirib taajjub bilan uning yuziga tikildi:

— O'tir, sardor. Hayotning har bir kuni uchini topib bo'lmaydigan chigal tugunlar singari chatishib ketgan. Inson o'sha chigal tugunlarni yechishning uddasidan chiqa olgan vaqtidagina yaxshi kun ko'ra oladi. Sen ikkimizning hayotimizning o'zini olib ko'r. Hozirning o'zida bizning hayotimiz juda ham tahlikali va chalkashib ketgan tugunlardan iborat. Yonma-yon tizilib ketgan bu tugunchalarni tez fursatlarda yechib ololmasak, hayotimizni bir izga sololmasak, ikkimiz ham halok bo'lamiz. Sen Qatibaning xastaligidan xabar keltirgan vaqtingda Zahir Balxiy bu yerda bo'lgani uchun ba'zi gaplarni senga aytolmadim, shuning uchun ham seni qayta yonimga chaqirdim. To'g'ri, biz u bilan sirdoshmiz, u bilan birgalikda biz ikkimiz ulug'ligi bilan Sharqda mashhur bo'lgan, qudrati va jasorati bilan Jahon Pahlavon deb atalgan bir kishini o'ldirdik. Har holda Zahir singari kishilar bizga yot-begona odam, xavf-xatar yaqinlashgan paytlarda bunday shaxslar o'z vatanlariga qochib ketadilar. Lekin sen bilan men qochishga joy topa olmaymiz, chunki bu yer bizning vatanimizdir. Nihoyat, bu jinoyatning mas'uliyati ikkimizning bo'ynimizga tushadi, shuning uchun ham hayotning chalkashib ketgan kalavasini yana qaytadan to'zg'itish to'g'ri yo'l emas. Negadir sen Husomiddin, keyingi vaqtlarda o'zingni bu

jinoiy ishlardan chetda turgan odamdek ko'rsatyapsan. Lekin ovora bo'lma. Fojianing sabablari tekshirilgan vaqtda sen aybsizligingni isbot qilolmaysan, o'z hissangga tushgan jinoyatga iqror bo'lishga majbur bo'lasan. Axir nima uchun ishning shu darajaga yetishiga yo'l qo'yish kerak, nima uchun ham yashash mumkin bo'lgan bir boshni dor sirtmog'iga tutib berish kerak? Sendan so'rayman, shu paytda qo'shinning isyonidan Qatiba bilan senga nima manfaat bor? Garchi, sizlarning bu harakatingiz maqsadingizga muvofiq natija bersa, u vaqtda siz To'g'rulga azob berish yoxud qatl ettirishdan qochmaysizlar. Lekin sen ham, Qatiba ham mening orqamdan, albatta, dor ostiga kelasizlar. Sen nima uchun bularni Qatibaga tushuntirmaysan?

Husomiddin To'g'rulga bosh egib dedi:

— A'lo hazratning hamma so'zlari haqiqat. Lekin men Qatiba xotunga bu so'zlarni aytishga qanday jur'at etaman. Men kimman? Otabekning qatl qilinishi masalasiga kelganda, men sizning va Qatiba xotunning buyrug'ini bajo keltirganman, chunki men bir askarman. Shunga qaramay yana o'zimni boshimga tushgan mas'uliyatdan chetga tortishni istamayman. Endi dorga osilish masalasiga kelsak, u juda ham qo'rqinchli emas. Chunki juda ko'p kishilarni dorga osganmiz. Qo'shinning isyoni xalq ichida yurgan mish-mishlarning mahsulidir. Bunga na men va na Qatiba xotun javobgar!

Husomiddin shu so'zlarni aytganidan so'ng sovuqqonlik bilan To'g'rulga bu gap qanday ta'sir qilganini kuzatdi. To'g'rul Husomiddindan ijobiy bir javob olmagach, ko'zlariga mo'ltirab qarar edi. U o'zini yo'qotib qo'ygani sezilib turardi. Shu yerda Husomiddin Qatibaning Eldaniz rabotida aytgan so'zlarini esladi. U: "To'g'rul singari irodasiz, zaif va sarxush bir hukmdorning davlat tepasida qolishi biz uchun qulaydir", degan edi.

Husomiddin shularni eslar ekan, To'g'rulga yana bir martaba bosh egib:

— A'lo hazratning saltanatini biz bir qatra qonimiz qolgunga qadar himoya qilamiz, — deganida, To'g'rul sevinganidan yig'lab yubordi, Husomiddin esa uning ruxsati bilan xonadan chiqib ketdi.

A'lo hazrat Qatiba xotunni ziyorat qilish uchun Eldaniz rabotiga kelganida, Qatiba uni favqulodda bir tayyorgarlik bilan kutib olmadi.

A'lo hazrat Eldaniz rabotiga kirib kelishi bilan qishloqliklar uni guldastalar bilan qarshi olib, otining jilovidan ushladilar, joriyalar To'g'rulni saroyga olib kirdilar. Hammomni isitib, maxsus xodimlar uni cho'miltirdilar. Undan so'ng To'g'rulning liboslarini almashtirib, mehmonxonagacha kuzatib qo'ydilar.

Birozdan so'ng Qatiba xotun ham bir guruh joriyalarning o'rtasida mehmonxonaga kirib keldi, To'g'rul unga ta'zim qildi.

— A'lo hazrat xush kelibdirlar, malikaning kulbai ahzonini o'z muborak qadamlari bilan muzayyan qildilar. O'tirsinlar, a'lo hazrat! — dedi Qatiba. To'g'rul yana qo'lini ko'ksiga qo'yib Qatiba xotunga bosh egdi va dasturxon yoniga o'tirdi.

To'g'rul gap boshlab dedi:

— Xudoga shukur, malikaning salomatligi joyida ekan. Xastalanganligingizni Husomiddindan eshitib, juda xafa bo'ldim. Poytaxtdan uzoqlashish payti bo'lmasa ham, sizning ziyoratingizni har narsadan afzal ko'rdim.

— Ajabo, poytaxtda biror hodisa ro'y berdimi? — deb so'radi Qatiba.

— Qo'shin itoat qilmayapti. Askarlarni ko'rikdan o'tkazish kuni katta bir rasvogarchilik ro'y berdi.

— Xo'sh, Husomiddin nima qildi? Ajabo, o'z qo'l ostida bo'lgan qo'shinni itoat qildirolmadimi? U holda nima uchun o'rnini boshqalarga bo'shatib bermaydi?

— Uning xatti-harakati juda ham shubhali. Fikrimcha, malika Hamadonda bo'lganda bu hodisalar ro'y bermas edi.

— To'g'ri, lekin men Hamadonda qololmadim, chunki men g'iybat va bo'htonlarni yomon ko'raman. Poytaxtimiz esa fitnalar, fisq-u fasodlar uyasi bo'lib qoldi, a'lo hazratning o'zi ham meni Hamadondan Eldaniz rabotiga ko'chishimga sabab bo'ldi. Yozning issig'i boshlanmasdan Tabrizga ko'chish fikridaman. U yer Ona Vatanimga yaqin. Oronda ham yashashim mumkin. Qizil Arslon bilan o'rtamizda unchalik zidlik ham yo'qki, men uchun Ozarbayjonda yashash ko'ngilsiz bo'lsa.

To‘g‘rul qisqagina qilib:

— Hammasi Ulyo hazrat malikaning xohishi bilan hal qilinadi, — dedi.

Qatiba xotun To‘g‘rulning so‘ziga na ha va na yo‘q deb javob qildi, chunki joriyalar dasturxon atrofida aylanishib turardi. Dasturxon ustidan turilganidan so‘ng Qatiba bilan To‘g‘rul xayrlashib, har qaysisi o‘z yotog‘iga kirib ketdi. Biroq Qatiba xotunning qat’iy bir javob bermaganligi, To‘g‘rulning tinchini buzar, ko‘zidan uyqusini qochirardi. To‘g‘rulning bu behuzurligi oqshomgacha, ya’ni Qatiba xotun uyqusidan uyg‘onguncha davom etdi. Asosiy, jiddiy suhbatlar oqshom sharbatini ichgan vaqtda boshlanishi kerak edi.

Qatiba To‘g‘rulga jahl bilan qarab:

— Siz o‘zingizni bir hukmdorgina emas, bir oila boshlig‘i kabi ham tutolmadingiz, — dedi, — oila boshlig‘i ham o‘zicha bir hukmdordir. Uning o‘zi ham yashashi va oilani ham yaxshi yashatishi kerak. Sizdan so‘ramoqchiman, podshohlik taxtiga o‘tirganingizdan beri mamlakat uchun nima yaxshilik qildingiz? Hamma vaqt Qatiba, Husomiddin va Zahir Balxiylarga orqa qilib yashay olmaysiz, o‘zingizda ham tashabbuskorlik va davlat boshlig‘iga xos xislatlar bo‘lishi kerak. Xususan, sizda bo‘lgan yolg‘onchilik, do‘stlarga nisbatan aldamchilik taxt-u tojingizga zavol yetkazadi. Shaxsan men nimaga ishonib sizni yoqlay olaman?.. Men sizga taxt-u toj berdim, evaziga nima ko‘rdim? Quruq va’dadan boshqa narsa ko‘rmadim. Mening o‘rnimda har qanday xotin ham a’lo hazrat bilan ko‘rishishni ham, so‘zlashishni ham istamas edi. Esingizda tursin: sizni taxtga chiqargan men bo‘laman, istasam yana taxtdan tushira olaman, faqat siz emas, hukmdorlarning hammasi ham shunday. Ularni ma’lum kishilar taxtga o‘tqazadi va ma’lum odamlar qo‘lidan tortib, taxtdan tushiradi. Sizning hukmdorligingiz bir qil ustida turibdi. Ertaning o‘zidayoq bir guruh qo‘shin bosib keladi-da, saroyingizni ishg‘ol qiladi, o‘zingizni hibsga oladi va Otabekning o‘ldirilgan yeriga dor tikib, ostiradi. Siz kim bo‘lsangiz ham, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lsangiz ham, shuni esda tutingki, men Otabekning o‘ldirilishida qatnashganimga qaramay yana o‘sha to‘kilgan qonning sohibiman. Siz erining xu-

nini talab qiluvchi bir xotin qarshisida o'tiribsiz. Qon ham oddiy odamning qoni emas, Otabekning qoni.

To'g'rulning tomog'i quridi, nima deyishini bilmay:

— Nima qilay? Agar malika hazratlarining o'zlari yordam bermasa, men Hamadonga qaytib borishim bilanoq taxtdan voz kechishim mumkin, — dedi. — Men bu ahvolda mamlakatni idora qilolmayman. Ko'rinib turibdi, men o'z do'stlarim bilan kelisha olmayman.

— Taxtdan voz kechar emishlar! A'lo hazrat bir karra bilishi kerakki, uni iste'fo berish uchun emas, hukmronlik uchun taxtga chiqarganlar. Lekin qanday shartlar bilan taxtga o'tirgan bo'lsangiz, o'sha shartlarni o'rniga qo'yishingiz kerak. Yo shartlarga amal qilish yoinki Otabekning o'g'li valiahd, xotini esa mamlakatning malikasi bo'lishi kerak.

— Men bergan va'dalarimdan qaytmayman, lekin Ulyo hazrat vaziyatni ham nazarda tutishi kerak. Men xotinimga taloq berib, o'g'lim Malikshohni o'ldirtira olaman. Lekin bu, axir rasvogarchilik emasmi? Bunga Qizil Arslon qanday qaraydi?

— Na xotinni qo'yish kerak va na gunohsiz Malikshohni o'ldirtirish! Bularni a'lo hazratdan hech kim talab qilayotgani yo'q. Lekin o'g'lim Qutlug' Inonj bu taxt-u tojning haqiqiy vorisi. Otabek hayot bo'lganida edi, valiahdlik mening o'g'limga tegardi. Otasini o'ldirding, valiahdlikni o'g'liga berishing kerak. Buning uchun Otabek mamlakatida yashagan lak-lak odamlar seni tabriklaydilar. Xotining masalasiga kelganda, uning yashashi uchun yaxshi sharoit yaratib berishing kerak. Malikalik meniki bo'lishi shart. Valiahd kim bo'lsa, uning onasi malika bo'ladi. Shu bilan gap tamom. Endi sening yozgan maktubing masalasiga o'tamiz. Ajabo, a'lo hazrat malikaga yuborgan maktubining boshqalar qo'liga tushib qolmasligi uchun ishonchli bir odam bilan yuborsa bo'lmasmidi?

To'g'rul savol berdi:

— Ajabo, maktub malikaning qo'liga yetib borgani yo'qmi?

— Yetib borgan, faqat boshqalar vositasi bilan.

— Mana shu hodisa, mening qay ahvolda yashayotganimni ko'rsatadi. Mening hukmronligim o'z saroyim doirasidan chetga

chiqmaydi. Atrofimni dushmanlar o'rab olgan. Taxtga o'tirganimga bir necha oy bo'ldi. Mamlakatning biror tomonidan tabrik maktubi olganim yo'q. Bu ham mavqeyimning mustahkam emasligini ko'rsatadi. Shubhasiz, mening taqdirim Qizil Arslonning bir ishorasiga bog'liq.

Qatiba To'g'rulning bu so'zlaridan kulib:

— Ko'rinib turibdiki, a'lo hazrat, hali ham Qatibani bilmas ekan. Men shu kunning o'zidayoq Otabekning o'ldirilishi to'g'risidagi mas'uliyatni Qizil Arslonning bo'yniga qo'ya olaman. A'lo hazratning o'zi uning oldimda tiz cho'kishini ko'radi. U kunlar uzoq emas, — dedi.

— Men Ulyo hazrat malikani bilmaganimda, u bilan birlikda shunday bir mas'uliyatli ishda qatnashmagan bo'lardim. Malikaga qat'iy so'z beraman, u poytaxtga kelganidan so'ng hamma istaklar ro'yobga chiqadi.

ZIYOFAT

Faxriddin Ozarbayjon qo'shinlari bilan birgalikda Janubiy Ozarbayjonga safarga chiqadigan kun yaqinlashmoqda edi. Shu munosabat bilan Ganjada shohona bir ziyofat berildi. Bag'doddan Faxriddinning onasini ko'rishga kelgan Durratul-Bag'dodning ziyofatda ishtirok qilishi kerak edi.

Ziyofatga Duratul-Bag'doddan ta'lim olgan Susan va Fanhosning tarbiyaxonasida Ibrohim Musel[1] tomonidan yozilgan darslikdan musiqa bilimini o'rgangan Dilshod xonim kelishi kerak edi.

Ziyofatga shoir va adiblar, safarga ketadiganlar va ularning oilalari taklif etilgandi. Faxriddinning qo'shinini hamda o'zini kuzatib borish uchun Bag'dod asirligidan qutqazilgan qizlarning hammasi Ganjaga kelishgan va ziyofatga chaqirilgan edilar.

---

[1] Ibrohim Musel Horun ar-Rashid davrida Sharqning eng buyuk musiqiy olimlaridan biri edi. Basrada katta bir musiqiy maktabini ochgan edi. Bag'dodga keltirilgan va xalifa saroyiga sotilgan joriyalarning eng go'zali Ibrohimning maktabida o'qir edilar *(Jomi'ul Aqoniy)*.

Ziyofat hali boshlanmagan, hurmatli mehmonlarning kelishiga muntazir edilar. Qiz-u juvonlar qo'llarida guldastalar bilan mehmonlarni kutardilar.

Mehmonxonaning to'riga uchta kursi qo'yilgan. Ularni ziyofatga kelganlar ko'zdan kechirar, chunki bu kursilarning tarixi bor edi. Ular Amir Inonj va uning xotini Sofiyaxonim, qizi Qatibaning ziyofat kunlari o'tiradigan kursilari edi.

Mehmonxonaning ikki qavatli katta eshigi birdan ochilib, mehmonlar kirib keldilar. Ulardan biri Nizomiy, biri shoirning xotini Ra'no va yana biri buyuk san'atkor Mahsatiy xonim edi.

Shoirlarni kutib olish uchun qizlar, kelinlar saf tortgan edilar. Eng oldinda Durratul-Bag'dod turardi. U ko'proq Nizomiy bilan Mahsatiy xonimga maroqlanib boqar edi.

Faxriddin oldinga chiqib shoirlarga Durratul-Bag'dodni tanishtirib dedi:

— Rahmatli akamning xotini onamizni ziyorat qilgani kelgan.

Durratul-Bag'dod oldinga chiqib avval Mahsatiy xonimning, so'ngra esa Nizomiyning qo'llarini o'par ekan, Faxriddin Ra'noni ham tanishtirib:

— Bu xonim buyuk shoirning bir umrlik yo'ldoshi, — dedi.

Ular ko'rishdilar, so'rashdilar, "xush kelibsizlar, safo keltiribsizlar"dan keyin mehmonlar kursilarga o'tirdilar. Ziyofatdagilar ko'proq Mahsatiy xonimga boqardilar. Uning paxtadek oppoq toza sochlarida, keksalikda ham porlab turgan peshonasining chiziqlarida va ko'z qorachig'larida ko'rinib turgan g'am-hasrat ifodasini tomosha qilardilar. Uning o'ng tomonida Nizomiy, chap tomonida esa Ra'no o'tirardi. Mahsatiy xonim keksaligi ustiga yana xasta ham edi. Lekin u bu ziyofatga kelmasdan iloji yo'q edi, chunki uyda qolsa, Nizomiy bilan Ra'no uni yolg'iz tashlab hech qayerga chiqolmas edilar.

Ziyofat boshlandi. Birinchi navbatda Susan udni qo'liga olib kuylay boshladi:

Quyoshdan nur emgan, guldan rang olgan,
Bahor chechagidek yashnagan qizlar.
Qoshlarin o'ynatib, ko'zlarin suzgan,

Bir qiyo boqish-la jon olgan qizlar.
Bir jayron qochibdi Oron tog'idan,
Bir yaproq uzilmish o'z butog'idan.
Hayot suvi tomar bol dudog'idan
Uzun kipriklari o'qsimon qizlar.
Qomati shamshoddek, ingichka beli,
Zulflarin taraydi bahorning yeli,
Sochlariga oshiqdir bu Oron eli,
Oftobni xira qilgan jonajon qizlar,
Gul bargidan nozik, suvdan ham toza,
Bahor shabnamidan tug'ilgan qizlar.
Bu qadar go'zallik yo'q yer yuzida,
Tog'dagi ohudek go'zal, shan qizlar.

Susan ashulasini aytganidan keyin o'girilib Dilshod tomonga qaradi-da, yana ashula boshladi:

Udingni tilga kirit kuylasin bulbul,
Chiqsin g'unchalarning quchog'idan gul.
Iqbol bizga kular, ey qiz, sen ham kul,
Ovozingni tinglasin vafoli qizlar!

Mahsatiy xonim jilmayib Susanning san'atini taqdirladi va o'girilib Dilshodning yuziga qaradi. U Dilshodning tovushini, uning musiqi chalishini juda sevardi. U hamma vaqt Dilshodni yoniga chaqirib ashula ayttirar va ud chaldirardi. Dilshod Mahsatiy xonimning qarashidan nima demoqchi ekanini darhol payqab, savol nazar bilan Faxriddinning ko'ziga boqdi, Faxriddin Dilshodga ruxsat berib:

— Ayt, ayt, Dilshod, bizning xursandchilik kunimiz,— dedi.

Dilshod udni olib sozladi va ashula boshlamoqchi bo'lib turganida Mahsatiy xonim unga ishora qilib:

— Qizim, haligi g'azalni ayt,— dedi. Dilshod udni chertib ashulasini boshladi:

Sochganda sharar ishq o'ti bemor tanimdan,
Kim o'tsa alanga bo'ladur yaqinimdan,

Men shuncha falokatzada bir bulbuli zoram,
Sharmanda bo'lar kechganda sabo chamanimdan.
Bir sham kabi so'nganimi olam bilar albat,
Parvona uchib ketganini baytulhazinimdan.
Bir shoir-u beqadri erurman, faqat o'lsam,
Yuzlarcha kitob yozadurlar kafanimdan.

Dilshod ashulani itmomiga yetkazgach, Nizomiy Mahsatiy xonimning qo'lini o'pib dedi:

— Bir xalqni yo'q qilib yuborishni istasang uning qo'lidan uchta narsasini ol: tilini, she'rini va musiqisini. Dushmanlarimiz bizga qarshi boshlagan urushni shu uch narsadan boshladilar. Lekin xalqimiz zo'r kurashlarda yashashga qobil ekanini tajribada ko'rsatdi. Shuning uchun ham mening onam va ustozim o'rnida bo'lgan Mahsatiy xonim kishilar qalbida mangu yashashidan amin bo'lsin, chunki siz kabi insonlarning yaratgan javohirlari o'z qadrini yo'qotmaydi. Bir zamon keladiki, o'shanda Mahsatiy xonim singari odamlarga nafrat saqlagan kishilarning nevaralari o'z bobolariga nafrat o'qiydilar. Odatda eng laziz va shirin mevalar ham pishiqchilikda qadrsiz bo'ladi.

Nizomiy Mahsatiy xonimga tasalli va dalda berish uchun uzundan-uzoq nutq so'zladi. Nihoyat, Durratul-Bag'dodga murojaat qilib:

— Siz ham bir-ikki og'iz she'r ayting,— dedi, ziyfatdagilarning hammasi shuni iltimos qilayotganday Durratul-Bag'dodga tomon qaradilar. U hech bir e'tiroz etmay kuylay boshladi:

Hazor martaba raftam zi Misr to Kan'on
Ba g'ayri chashmi Zulayxo kas baroh nabud![1]

Durratul-Bag'dod ashula aytib bo'lganidan so'ng Mahsatiy xonim Susanni chaqirib:

— Susan, udni bu yerga olib kel! — dedi.

Ziyofatdagilarning hammasi qo'llarini dasturxondan tortib Mahsatiy xonimga tikildilar.

---

[1] Ming karra Misrdan Kan'onga safar qildim. Yo'llarda Zulayxoning ko'zidan boshqa hech bir kimsani ko'rmadim.

Mahsatiy xonim udni qo'liga olib dedi!

— Ovozimni so'nggi martaba eshitasizlar. Siz bilan vidolashmoqdaman. Amin bo'linglarki, hayotim bu kungidek yaxshi o't-ganida edi, na keksalik va na xastalik menga g'olib kela olardi.

Mahsatiy shu so'zlarni aytib turib ko'z yoshlarini artdi va shu ruboiyni o'qidi:

Talx ast hamisha ayshi arbobi hunar,
Z-in ro'y namezanad kasbi obi hunar.
Az otashi jahli xoksoron go'yo
Barbod shudast dar jahon bobi hunar[1].

Dunyoni o'z ovozi va musiqisi bilan hayajonga solgan buyuk san'atkorning qo'llari titramoqda edi. U bir necha ruboiy o'qidi. Durratul-Bag'dod o'rnidan turib:

— Buyuk ustoz! — deb Mahsatiy xonimning qo'lidan o'pdi.

Mahsatiy xonim charchagan edi, boshini Ra'noning yelkasiga qo'ydi.

Buyuk shoir Nizomiy ziyofat majlisiga nazar tashlab chiqib aytdi:

— Men bir haqiqatni yana takrorlashni lozim ko'raman. Men bugun yana bir martaba xotin kishini nafis san'at bobida erkaklardan qolishmasligini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bu yerda o'z hunarlarini namoyish qilgan xotinlar san'atning eng yuqori cho'qqisini egallabdilar. Bunga ortiq taajjublanmasligimiz kerak, chunki xotinlarning o'zlari ham tabiatning ko'pgina mo'jizalari ichida nafis san'at mahsulidirlar. Shuning uchun ham men hurmat saqlaganim buyuk Eron shoiri Firdavsiy bilan xotinlar masalasida kelisha olmadim. Buyuk Firdavsiy shu majlisda bo'lsa edi, xotinlarni yerga urgan she'rlarini yirtib tashlagan bo'lar edi. U o'zining she'rlarida tarbiyaning kuchiga ishonmay nasliy xususiyatlarning ustunligini da'vo etib der ediki: "Olchoq va tarbiyasiz oiladan chiqqan bir qizni najib va kibor oilada tarbiya qilingan bo'lsa ham, u ulg'a-

[1] Hunar ahllari achchiq kun kechiradi. Bu dunyoda hech kim hunar suvi bilan qo'lini yuvgan emas. Yaramas damlarning jaholat o'tidan, hunarning eshigi yonib bitgandir.

yib xotin bo'lgandan so'ng, baribir, o'z onasining yo'lidan ketadi". Firdavsiy yana shunday degan edi: "Qora qarg'aning tuxumini jannatdagi tovusga ochirsang, uni jannat anjirlari bilan boqsang ham, baribir u yana katta bo'lganida qora qarg'a bolasi bo'lib qolaveradi". Firdavsiy boshqa bir yerda yozadiki: "Agar aslida achchiq mevasi bo'lgan daraxtni olib kelib Eram Bog'iga eksang, uni jannatning kavsar suvi bulog'idan sug'orsang ham, baribir, mevalari achchiq bo'ladi". Biroq hozir bizning ro'paramizda turgan xotinlar u fikrlarning hammasini puchga chiqardi. Bu yerda o'tirganlarning birortasi ham badavlat kibor va Firdavsiy aytgan najib oilalardan chiqqan qizlar emas. Hammasi qishloqi, cho'pon va faqir odamlarning qizlaridir. Bularni faqat tarbiya va iste'dod san'atning shu qadar oliy darajasiga ko'targan. .

Nizomiy so'zini tugatganidan so'ng qizlar yana ud chalib ashula ayta boshladilar. Shu payt eshik ochildi. O'g'illari Abubakir va O'zbak bilan Go'zal ichkariga kirib keldi. Faxriddin darhol o'rnidan turdi, Go'zalni tanigan tanimaganlar ham taajjublanib o'rinlaridan qo'zg'aldilar. Go'zal mehmonxonaga o'ychan nazar tashlab, asta yurib keldi-da, Nizomiy bilan Mahsatiy xonimning qarshisida boshini egdi, ularning qo'lidan o'pdi, so'ngra o'g'illarining qo'lidan ushlab majlisdagilarga tanishtirdi:

— Mamlakat chegaralarini qo'riqlash uchun ketayotgan qahramon qo'shiningiz safiga mening ham o'g'illarimni qabul eting. Bular ham haqiqiy ozarbayjonliklardir. Bular ham Ozarbayjon qahramoni Bobakning avlodlaridir.

Go'zal shularni aytganida, Nizomiy oyoqqa turib o'g'illarni o'pdi, Faxriddin o'z opasining qizi va uning o'g'illarini ziyofatdagilarga tanishtirdi.

Mahsatiy xonim o'rnidan turib, yuzini ziyofatdagilarga o'girdi-da:

— Vatanning har bir siqim tuprog'i, har bitta toshi ham azizdir, — dedi.— Biz yoshligimizdan vatanimizni sevdik, lekin o'z sevgimiz bilan hur yashash imkoniga ega bo'lolmadik. Qo'shinimiz sevimli vatanni himoya qilmoq, erkin nafas olishimizni ta'minlamoq uchun Janubga ketmoqda. Sog'-salomat borib zafar bilan qaytishingizni orzu qilaman. Oq yo'l!

BAG'DOD VA HAMADONGA YURISH

Ziyofatdan o'n kun keyin, Oronning hamma yog'idan Ganjaga to'plangan qo'shinlar safarga chiqishi kerak edi. Ellik mingdan iborat qo'shin ikkiga bo'linib, bir guruhi Naxchivonga, ikkinchi guruhi esa Xudofasin ko'prigi orqali Oroz (Araks) soyi bo'ylab Tabrizga jo'nashi lozim edi.

Said Alouddin yigirma besh ming kishi bilan Naxchivonga borib, u yerda to'plangan otliqlarni o'zi bilan birga olib ketish uchun ikki kun oldin Orondan jo'nab ketgan edi. Faxriddin esa yigirma minglik lashkar bilan Qorabog' qo'shinlarini olib, Qoratog'-Ahar yo'li bilan Tabrizga kirib borishi kerak edi.

Qo'shnini safarga kuzatib qo'yish uchun butun Oron xalqi ko'chalarda saf tortdilar. Qo'llarida guldastalar tutgan minglarcha qiz-juvonlar Faxriddinning kelishini kutib turardilar. Qo'shin "Piron" qabristonining yonida to'xtadi. Faxriddin otdan tushib, Go'zalning o'g'illari bilan birga hali tuprog'i qurimagan bir qabrga yaqinlashishdi. Nizomiy bilan bir guruh ziyolilar ham yetib keldi. Ular ham otlaridan tushib qabrga yaqinlashdilar. Yigirma ming qo'shinning bayroqlari qabr ustiga egildi, minglarcha qiz-juvonlarning olib kelgan guldastalari qabrning ustini qopladi. Faxriddin qo'shinlarga qarab dedi:

— Biz bundan bir hafta avval hech bir xalqqa muyassar bo'lmagan bir javohirni, shoira Mahsatiy xonimni shu yerga dafn etdik. Bizga katta bir madaniy meros qoldirgan, dunyo tarixida nomi qolishga loyiq bo'lgan bu mozorning sohibasi umrida bir kun bo'lsa ham erkin hayot kechira olmadi. O'zining musiqiy san'ati va go'zal ruboiylari bilan minglarcha odamlarning zavq-u shavqiga sabab bo'lgan bu tarixiy siymo o'z mehnati uchun g'am-u g'ussadan boshqa biror mukofotga ega bo'lolmadi. Bugun biz buyuk Mahsatiyning mozori ustida turib ont ichamiz: sening hayotingni zaharlagan va ozod kun ko'rishingga yo'l qo'ymaganlar bilan bir qatra qonimiz qolguncha jang olib boramiz. Seni surgun qilganlarni faqat Ozarbayjondagina emas, bu dunyodan surgun qilamiz! Sening dushmanlaringdan olmoqchi bo'lgan intiqomimiz bizni g'alabaga olib borajak. Ont ichamizki, shu katta g'alabadan

so‘ng qabringni yana tavof qilamiz. Bizga ishon, qabring yonida tiz cho‘kib ont ichamiz!

Nizomiy bilan birga hamma ziyolilar Mahsatiy xonimning qabri oldida tiz cho‘kdilar, bayroqlar yana bir martaba egildi. So‘ngra Nizomiy bilan Faxriddin o‘pishib xayrlashishdi. Qo‘shin harakat qildi.

Faxriddin go‘ristondan chiqib ketayotganda qabrga qayrilib boqdi, nazarida so‘nggi martaba ziyofatda eshitgan ovozni go‘yo qabrdan yana eshitgandek bo‘ldi.

Talx ast hamisha ayshi arbobi hunar,
Z-in ro‘y namezanad kasbi obi hunar.
Az otashi jahli xoksoron go‘yo
Barbod shudast dar jahon bobi hunar.

Shimoliy Ozarbayjondan Tabrizga jo‘nagan qo‘shinning qarshi olish uchun Qizil Arslon Tabriz a’yonlari bilan birga Achchi soyi bo‘yigacha kelgan edi. Qo‘shin ikki tomondan Achchi soyga yaqinlashmoqda edi. Naxchivon yo‘li bilan kelgan ellik ming qo‘shin So‘fiyondan, Qoratog‘-Ahar yo‘li bilan kelgan yigirma ming qo‘shin esa Tabrizning sharqi tomonidan kelib soyga yaqinlashmoqda edi. Qizil Arslon shoyi chodirning eshigi oldiga qo‘yilgan tilla kursida o‘tirib Alouddin bilan Faxriddin qo‘l ostida kelayotgan qo‘shinlarni ko‘zdan kechirar ekan, vaziri Shamsiddinga o‘girilib:

— Qizil Arslonni mag‘lub etib bo‘lmaydi! Biz so‘rab turgan mamlakatimizning xalqlari mag‘lub bo‘lmaydigan, yengilmas bir xalqdir! — dedi.

Ganja va Shomoxi ipaklaridan tikilgan bayroqlar yaqinlashdi... Qizil Arslon shodligidan o‘rnidan turib ketdi. U sarkardaning bayroqlar ostida kelayotganini ko‘rib qarshi olishga shoshildi. U Otabek olib borgan urushlarda Faxriddinning ko‘rsatgan qahramonliklarini eshitgan. U bilan maktub orqali tanishgan edi, lekin bugun uni birinchi martaba o‘z ko‘zi bilan ko‘radi.

Qo‘shinlar qizil shoyi chodirning tepasidagi oltin qubbani ko‘rib, bu hukmdorning chodiri ekanligini angladilar. Qizil Arslonning hurmatiga bayroqlarni egdilar. Bayroqdorlarning ketidan kelayotgan karnaychilar karnay chalib borardi, etmish ming qilich

bab-baravar qindan sug'urildi. Oftob shu'lasida yashindek chaqnab ketdi.

Qizil Arslon Faxriddin bilan ko'rishar ekan, Abubakir bilan O'zbak ham otlaridan tushib hukmdor qarshisida tiz cho'kib yer o'pdilar. Faxriddin ularni taqdim qilib:

— Marhum Otabekning o'g'illari Abubakir va O'zbak, — deyishi bilanoq Qizil Arslon ularni quchoqlab bag'riga bosdi, ho'ng-ho'ng yig'lab, so'ng vaziriga o'girildi:

— Akam tirik, o'lgani yo'q! — dedi.

Qo'shin o'tib ketdi. Butun shahar aholisi do'konlarni berkitib ko'chalarga chiqqan edilar. Aka-ukalarni Tabriz aholisi samimiylik bilan kutib oldi. Hamma xursand bo'lib, guldasta tutar, ba'zilar hatto, sevinchidan yig'lar edi.

Qo'shinning ko'pligidan ularni saroylar, xonadonlar va karvon saroylar va yaqin qishloqlarga joylashtirishga to'g'ri keldi. Xalq siqilib qolgani uchun Qizil Arslon qo'shinni jadallik bilan bu yerdan olib chiqib, Hamadon tomonga ko'chirishga qaror qildi.

Qizil Arslon Tabrizdan qo'zg'almasdan oldin katta bir kengash majlisini chaqirtirdi. Kengashda Shimoliy Ozarbayjondan Alouddin bilan Faxriddin ishtirok qilmoqda edilar. Qizil Arslon hozirgi vaziyat haqida ma'lumot berib dedi:

— Hozir bizga ikki jabha bo'ylab kurash olib borishga to'g'ri keladi: biz mamlakatimizning tashqi va ichki dushmanlari bilan jang qilishimiz kerak. Ichki dushmanlar To'g'rulni tamomila o'z qo'liga olgan. Poytaxtimiz tamoman dushmanning qo'liga o'tgan deyish mumkin. Hozirning o'zida mamlakatni ham, mamlakatning hukmdori To'g'rulning ishlarini ham ajnabiy josuslar idora qilmoqda. Bir tomondan Qatiba xotun, boshqa tomondan esa Zahir Balxiy To'g'rulning pinjiga kirib olib mamlakatimizni parchalab tashlashni ko'zlaydilar. Shuning uchun ham ichki dushmanlarga qarshi kurash boshlashdan avval chegaralarimizni mustahkamlash lozim. Chegaralardagi eski qo'shinlarni qaytarib, o'rniga yangi va ishonchli qo'shinlarni joylashtirishimiz kerak. Ajnabiylarning tashviqoti natijasida eski chegara qo'shinlarining kayfiyati o'zgargan. Mening maslahatim shu, Xorazm va Iroq chegaralariga Ozarbayjon qo'shinlarini jo'natish kerak, biz faqat o'zimizgagina ishona

olamiz. Tez fursatda kuchli bir qo'shin bilan Hamadonga kirib borib poytaxtni ajnabiy unsurlardan tozalash lozim.

Faxriddin Qizil Arslonning so'zlarini diqqat bilan tinglamoqda edi. Lekin Qizil Arslon Faxriddin kutgan asosiy masalaga o'tmasdan, To'g'rulning taqdiri haqida bir kalima bo'lsa ham gapirmadi. Shuning uchun ham Faxriddin Qizil Arslonga savol berdi:

— A'lo hazrat, To'g'rulning taqdiri haqida fikringiz qanday?

— Menimcha, To'g'rulni o'z taxtida qoldirib uning oldiga qat'iy talablar qo'yish, o'z shartlarimizga uni ko'ndirish lozim. O'zingiz yaxshi bilasizki, mamlakatni boshqarish ishlarida podshohning zimmasiga juda oz vazifalar tushadi. Biz eng avval mamlakatni idora qilish uchun belgilangan amaldorlarning basharasini va ishga qobiliyatlimi, yo'qmiligini bilishimiz kerak. To'g'rulning o'zi mustahkam iroda egasi bo'lgan bir hukmdor bo'lganida edi, uning atrofidagi kishilarning irodasizligi meni hech ham tashvishlantirmas edi. Umuman, Sharq hukmdorlarining qo'lidagi xizmatchilarning qobiliyatsizligi hukmdorning o'z qobiliyatsizligidan kelib chiqadi. Ba'zan To'g'ruldek qobiliyatsiz hukmdorlar qobiliyatli amaldorlarni saqlab turishi qiyin ekanligini sezishi bilanoq, o'z atrofiga qobiliyatsiz, salohiyatsiz kishilarni to'playdilar. Ba'zan hukmdorlarning qobiliyatsizligi qobiliyatli vazirlarni ham qobiliyatsiz qilib qo'yadi. Men olamda hamma narsadan ko'proq laganbardor odamlardan jirkanaman, chunki ular qobiliyatsiz hukmdorlarni aldaydilar. Ular To'g'rul kabi johil va irodasiz hukmdorlarni maqtay-maqtay o'zlarining iste'dodli ekanligiga ishontiradilar, natijada hukmdor haqiqatan ham o'zini favqulodda bir shaxs ekanligiga qanoat hosil qiladi. Modomiki, hukmdorning o'zi laganbardorlarni axtarar ekan, unda laganbardorlarni ayblashga ham haqqimiz yo'q! Mamlakatning eng xavfli dushmanlari podshohni ko'tar-ko'tar qilib, ularda manmanlik hissini uyg'otgan odamlardir.

Laganbardorlarni yetishtiradiganlar hukmdorlarning o'zlari va saroylaridir. Ular o'z mahoratlarini faqat saroylardagina kamolga yetkazadilar. Laganbardorlar hukmdorlarning og'zidan chiqqan har bir oddiy so'zni go'yo "Qur'on" oyati, yoki hadis deb biladilar. Ajnabiy dushmanlar podshohning o'zini emas, uning atrofidagilarni

qo'lga olishga harakat qiladilar. Bizning baxtsizligimiz ham shundaki, To'g'rulning atrofidagilarning hammasi dushman tomonidan qo'yilgan. Shuning uchun ham saroyni ulardan tozalash unchalik mushkul emas.

Alouddin Qizil Arslonga savol berdi.

— Qutlug' Inonjning Rey viloyatida qolish va qolmaslik masalasiga doir sizning fikringiz, qanday?

— Hozir uni ishdan olib tashlash el orasida tarqatilayotgan gap-so'zlarning yana ham ko'payib, ketishiga sabab bo'la oladi, endilikda unga Qatibaning so'ziga kirib xorazmliklar bilan aloqa bog'lashiga yo'l qo'ymaymiz.

Kengash tugadi. Ertasiga qo'shin ikkiga bo'linib Hamadon va Iroqqa tomon yo'l oldi. Qo'shinning bir qismi Tabriz-Qazvin yo'li bilan Hamadonga, ikkinchisi esa Kurdiston yo'li bilan Bistunga qarab yurishi kerak edi.

Ikki tomondan hujum qiladigan qo'shinlar Bistunda qo'shilishib, Kirmonshoh va Sarpo'l tomondan Bag'dodni qurshab olishi kerak, chunki Bag'dod xalifasi Nasiruliddinilloh ham Iroq qo'shinlarini yig'ib Hamadonga jo'natish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

* * *

Qizil Arslon qo'shinlardan yigirma mingini ajratib olib, Hamadon shaharini ishg'ol etish uchun yo'l oldi. To'g'rul Qizil Arslonning Hamadonga yaqinlashganini bilib, unga elchilar yubordi, unga qo'shin bilan Hamadonga kirmaslikni buyurdi: u maktubida shunday deb yozgan edi:

"Poytaxtning vaziyati senga noma'lum. Ko'pdan beri qo'shin ichida isyon davom etmoqda. Ozarbayjon qo'shinlari poytaxtga yaqinlashishi bilan ikki qo'shin o'rtasida to'qnashuv yuz berishi ehtimoldan uzoq emas.

Sen mening iroqliklar bilan tuzgan bitimimdan bexabarsan. Xalifaning maslahati bilan tuzilgan bitimga muvofiq Iroq va Hamadonda faqat Iroq qo'shinlari qolishi shart. Shuning uchun ham men Ozarbayjon qo'shinlarini Kurdiston orqali Bag'dodga va arab Iroqiga tomon yurishga ijozat bermayman.

Poytaxtdan ruxsat olmay buncha qo'shinni safarbar qilib bu tomonlarga olib kelishing kerak emas edi. Sening bu harakating qo'shni hukumatlar bilan bo'lgan do'stlik aloqalarimizga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktubni olishing bilan qo'shinlarni orqaga qaytarib, Ozarbayjondagi ishlar haqida ma'lumot bergani huzurimga kelarsan. Qat'iy farmonim shu. Kurdiston orqali yuborgan qo'shinlaring Bistundan nariga o'tmasligi kerak.

Xalifa Nasirulliddinillohdan olgan ko'rsatmalarimizga binoan Kirmonshoh, Xonikin, Mahidasht, Sharibon va Qizil Rabot tomonlar Dorussalom[1] doirasiga kiradi. Bu yerlar xalifaning o'z qo'l ostida bo'lganligi uchun daxlsizdir".

Qizil Arslon To'g'rulning yuborgan maktubiga ahamiyat bermadi, o'qib chiqqach, qah-qah urib kuldi va vazir Shamsiddinga murojaat qilib:

— A'lo hazrat ijozat bermayaptilar, — dedi va qo'shinning yurishiga farmon berdi. Ozarbayjon askarlari shaharni qurshab, bir haftaga qadar chodirlar ichida o'tirishdi. Nihoyat, Qizil Arslon Kurdiston yo'li bilan borayotgan qo'shinning Bistunga yetganligi, Iroq bilan Hamadon o'rtasidagi aloqa kesib qo'yilganligidan xabar topishi bilan o'z sarkarda va vazirlari bilan Hamadonga kirib bordi.

Qatibaning motam libosi kiygan mulozimlari Qizil Arslonni shahar bo'sag'asida qarshi olishdi va Qatibaning yuborgan maktubini topshirishdi. Maktubda shular yozilgan edi:

"Marhum akangiz o'lgandan keyin bir hukmdorga loyiq bo'lgan ta'ziya marosimi o'tkazishga imkon topmagan edim. Hukmdorning kelayotganini eshitib marhumning ta'ziyasini yangidan ochdim. Shuning uchun ham Otabek saroyiga tashrif buyurib marosimda ishtirok etuvchilarning ta'ziyalarini qabul qilsangiz".

Otabek saroyiga olib boradigan ko'chalarning ham ikki tomonida Ozarbayjon qo'shinlari saf tortib turar edi. To'g'rulning buyrug'iga binoan Hamadonning a'yon va ziyolilarining biror-tasi ham Qizil Arslonni kutib olish uchun unga peshvoz chiqmadi. Hatto, qo'shin va qo'shin boshliqlari ham kutib oluvchilar orasida

[1] **Dorussalom** — Bag'dodning nomidir

yo‘q edi. Qizil Arslonni kutib oluvchilar samimiy vatanparvarlar va mamlakatni najot etuvchi — Qizil Arslon deb biluvchilar edi. Ko‘chalardan: “Yashasin Qizil Arslon!”, “Yashasin Ozarbayjon!” degan ovozlardan. Boshqa hech narsa eshitilmas edi. Saroyning oldiga yig‘ilganlar ishdan haydalganlar, mol-u mulki musodara qilinganlar, do‘konlari Iroq qo‘shinlari tomonidan talangan ozarbayjonliklardan iborat edi.

Otabek maydoniga to‘plangan xaloyiq Qizil Arslonni ko‘rishi bilanoq birdaniga: “Yashasin Ozarbayjon hukmdori”, deb qichqirishdi. Qizil Arslon bilan Otabek Muhammadning o‘g‘li yosh Abubakir otidan tushib saroyga kirdi. Ularni yuzlarcha g‘ulom va joriyalar kutib olib katta mehmonxonaga olib kirdilar. Boshidan oyog‘igacha motam libosiga burkanib olgan Qatiba xotun Qizil Arslonni qarshi oldi va: “Xush kelibsiz, safo keltiribsiz, hukmdor!” deb ko‘z yoshi qildi. Qizil Arslon esa uning qo‘lini o‘pib:

— Malikadan uzr so‘rayman. Otabekning fojiali o‘limi to‘g‘risida maktub olgan kunlar ta’ziya marosimi-da ishtirok qilolmadim, chunki uning fojiali o‘limi to‘g‘risidagi xabar mamlakat ichida shov-shuvga sabab bo‘lgan edi. Men endi malikaga ta’ziya bildirish va uning sihat-salomatligini bilish uchun keldim.

Bu gapdan keyin Otabek Muhammadning o‘g‘li Abubakir yaqin kelib o‘gay onasining qo‘lini o‘par ekan, Qatiba ko‘zlari oldida go‘yo Otabek turgandek seskanib ketdi. Qizil Arslon uni Qatibaga tanishtirib:

— Bu sizning o‘g‘lingiz, onasiga bayoni ta’ziya uchun kelgan, — deganida Qatiba ham “o‘g‘lim!” deb uni bag‘riga bosib o‘pdi va yig‘ladi. G‘ulom va joriyalar yordamida Qizil Arslon bilan Abubakir yuvinib-taranib, istirohat qildilar. Nihoyat, ular Qatiba xotun tomonidan berilgan kechki ziyofatga da’vat qilindilar. Qatibaning o‘zi ziyofatda ishtirok etmadi, chunki erkaklar bilan xotinlarning dasturxon ustida birga o‘tirishlari odatga xilof edi.

Qizil Arslon dasturxon tepasidan turmoqchi bo‘lganida Faxriddin kirib kelib shaharning vaziyati haqida ma’lumot berdi:

— Husomiddin hibsga olindi. Sultonning qo‘shini butkul qurolsizlantirildi. A’lo hazrat To‘g‘rulning vazirlari hammasi o‘z uylarida hibsga olindilar. A’lo hazratning saroy qorovullari qu-

rolsizlantirilib, ularning o'rniga Ozarbayjon qo'shinlaridan qo'yildi. Chodirlarga sig'may qolgan lashkarlarni shaharga olib kelib karvon saroylarga, xonadonlarga joylashtirildi. Qo'shinga oziq-ovqat sotish uchun maxsus do'konlar ochildi. Shaharning tinchligini ta'minlash uchun soqchi askarlar ko'chama-ko'cha yuribdi. Zahir Balxiy bilan Kamoliddinni hozircha qo'lga olishning iloji bo'lmadi. Ularni bundan bir hafta oldin Hamadondan qochib ketganliklarini aytishdi.

Faxriddinning so'zidan keyin Qizil Arslon qo'shimcha farmonlar berib dedi:

— Aytganlarimni xotiringdan chiqmasligi uchun daftaringga yoz! Hozirning o'zidayoq Hamadon shaharining qozisi bilan xatibini hibsga ol. Ozarbayjon qo'shinini kutib olishga chiqmagan a'yonlar va shahar ulamolarning ro'yxatini olib, hammasi hibs etilsin! Hamadon qal'a darvozasini Ozarbayjon qo'shinlariga ochishni istamagan qal'a begini darvozaning oldida ostir va gunohini yozib ko'kragiga yopishtirib qo'y. Do'konlarini ochishdan bosh tortib shaharda qahatchilik tug'dirmoqchi bo'lgan savdogarlarning hammasi hibsga olinsin va mol-u mulklari musodara qilinsin. Hamadon shaharidan bitta ham odam tashqariga chiqarilmasin. Ertadan boshlab hukumat mahkamalarida mas'ul ishlarda bo'lganlarning ro'yxatini olib, kimligini aniqlash kerak. Aytganlarimning hammasini amalga oshirganingdan so'ng yozma ravishda a'lo hazrat To'g'rulga ham axborot berasizlar:

"A'lo hazratning hokimiyatini himoya qilish, uning saltanatini mustahkamlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirdik. A'lo hazratning bu borada qo'shimcha farmonlarini kutmoqdamiz. Hamadon shahar boshlig'i Faxriddin".

Faxriddin bosh egib chiqib ketmoqchi bo'lganida Qizil Arslon uni to'xtatib, yana dedi:

— Butun shaharga e'lon qildirgin, ko'chalarga jarchi soldirib aholiga bildirgin. Juma kunidan boshlab marhum Otabekka motam tutiladi. O'n kun mobaynida shaharning hamma faqir fuqarolariga ehsonlar ulashiladi. Bularning hammasini amalga oshirish yuzasidan qilinadigan ishlar to'g'risida ertaga kechqurun ma'ruzangni eshitaman.

Faxriddin bosh egib chiqib ketdi, Qizil Arslon esa yolg'iz o'tirib Nizomiyga maktub yoza boshladi:

"Muhtaram shoir!

Tabrizdan chiqqanimga yigirma bir kun bo'ldi. O'n to'rt kun yo'l yurdik, havoning issiqligi qo'shinning harakatiga qiyinchilik tug'dirdi. Bo'lmaganda biz, Tabrizdan Hamadonga to'qqiz kunda kelishimiz kerak edi. Men o'zim rajab oyining yettisida Hamadonga yetib keldim. Bir hafta shahar tashqarisida turib, shaharga kirgan Ozarbayjon qo'shini bilan shahar xalqi o'rtasidagi munosabatni o'rgandim. Hamadon ulamolari va ruhoniylarning Ozarbayjon qo'shiniga nisbatan dushmanlik kayfiyatda ekanini bilib hayratda qoldim.

Men shaharni ishg'ol qilgan qo'shinga, ulamo va ruhoniylarga qatilmaslikni, aksincha, ularga ehtirom ko'rsatilishi haqida maxsus buyruq bergan edim. Lekin shaharning vaziyati to'g'risida bir hafta mobaynida qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan ravshan bo'ldiki, masjidlarda ruhoniylar bizga qarshi tashviqot yurgizmoqdalar. Xususan, qozi bilan xatibning minbardan turib: "Balo dengizi to'lqinlari kelmoqda", deb aholini qo'rquvga solishlari meni o'ylatib qo'ydi. Shuning uchun ham siz tavsiya qilgan "Ma'munning xulosalari" nomli asarni ochib o'qiy boshladim. Haqiqatan ham Sharqda (islom sharqida) vujudga kelgan ixtiloflarning asosiy manbai din qonunlari bilan hukumat qonunlarining bir-biriga chambarchas bog'liqligidadir. Shuning uchun ham ruhoniylar hukumat qonunlarini joriy etishda qatnashadilar va hatto, hukumat ishlariga o'z ta'sirlarini o'tkazishga muvaffaq bo'ladilar. "Ma'mun xulosalari"ning asosiy mag'zi ham shundan iborat.

Lekin hozir biz ulamolarni jilovlab qo'ya olmaganimiz kabi Ma'mun ham o'z xulosalarida fikrini ochiq ayta olmagan. Men shunday bir xulosaga keldimki, Ma'mun o'z mulohazalarida "Qur'on"ni nishonga olgan. U aytmoqchi bo'ladiki, hukumatni zamona talabiga javob beradigan, ya'ni hayotiy tajribalarga suyangan qonunlar bilan idora qilish kerak. Faqat shuni asos qilib olish bilan "Qur'on" va ruhoniylarning hukmronligini masjidlar devori bilan chegaralab qo'yish mumkin. Hamadon ruhoniylari-

ning menga qarshi ko'rsatayotgan qarshiligi ham shuni ko'rsatadi, mamlakatning ulamo va ruhoniylariga barkamol, irodali hukmdorlar yoqmaydi, aksincha, ular uchun ongsiz, zaif hukmdorlar kerak, toki ular hukumat idoralariga osongina yo'llar bilan suqulib kira olsinlar.

Bilmadim, Ma'munning ajoyib xulosalaridagi diqqatga loyiq bir masalaga — "Qur'on"ni Sharq tillariga tarjima qilinishiga doir fikrlariga e'tibor qildingizmi, yo'qmi? Ma'munning "Qur'on" va turli kitoblar tarjimasini tahlil qilib, bir-biriga taqqoslashdan maqsadi, ruhoniylarning "Qur'on"ni o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab ta'birlashlarini fosh qilishdan iboratdir. Menimcha, biz uning bu fikrlarini xalqqa yetkaza bilsak, katta bir ish qilgan bo'lardik. Shunda biz "Qur'on" vositasi bilan hukumatni emas, faqat dinni idora qilish mumkinligini isbot qila olgan bo'lar edik. Ruhoniylarning avom xalqni o'z tomonlariga og'dirishlari va ularni "Qur'on"ga e'tiqod qilishlarining sabablaridan biri payg'ambarlarning mo'jizalariga ishonishdan iboratdir. Men hali Tabrizda ekanman, payg'ambarning me'roji haqida yozgan she'ringizni oldim. Uni yo'lda diqqat bilan o'qidim. Badiiy jihati ma'qul. So'ngra asar bilan birga yuborgan maktublaringizda menga: "Hukmdor, menga yozib yuboring, bu me'rojnomani yozishda qanday bir maqsadni ko'zda tutganman?" deb savol tashlabsiz. Albatta, asosiy maqsadingiz unchalik ham aniq emas. Lekin bundan ham aniqroq yozishingizni maslahat ko'rmas edim, chunki hali erta. Endi me'rojnomani yozishdan asosiy maqsadingizga o'taylik. Siz juda ham badiiy mahorat bilan yozgan bu asaringizda Muhammad (s.a.v)ning me'roji, ya'ni osmonga chiqqanini inkor qilgansiz, unda Muhammad (s.a.v.) osmonga chiqqan emas, Muhammad (s.a.v)ning aql-zakovati shu qadar tez va o'tkir ediki, u tafakkur oti bilan o'tirgan joyida yuqori olamlarni sayr eta olardi, demoqchisiz. Haqiqatan ham, bu fikr payg'ambarga nisbat berilgan g'ayriinsoniy sifatlarni inkor etadi.

Faqat shu yo'l bilan haqiqatga yaqinlashish mumkin. Ruhoniylar "Qur'on"ning hayotiy masalalari haqida yuritgan ibtidoiy tushunchalarini chigallashtirib, ularni anglab bo'lmaydigan bir shaklga solishga va ularga yuksak ma'no berishga harakat qilgan-

lar. Sizga aytmoqchi edimki, Sharq ruhoniylari bu qurolni o'z qo'llaridan osonlik bilan chiqarmaydilar. To'g'risini aytganda, bu narsa islom dunyosi boshiga turli falokatlar keltirishidan qo'rqaman. Hozircha Hamadon ruhoniylarini hibsga oldirdim. Siz yaxshi bilasizki, bu yer xurofot makoni bo'lgan Bag'dod xalifaligining burni ostidadir. U xalifa bu ishga aralashadi. Lekin men o'z ishimni o'zim bilib qilaman, qurolli kuchlarim ham xiyla qudratga egadir.

Natijalarni sizga yozarman.

Hamadon, yettinchi rajab oyi, Qizil Arslon".

Qizil Arslon saroyga borib To'g'rulning qo'lini o'pishni istamadi. Bunga ehtiyoj ham yo'q edi, chunki Otabekka e'lon qilingan motam marosimiga To'g'rulning kelishi va o'sha yerda Qizil Arslon bilan ko'rishishi kerak edi.

Ta'ziyaning birinchi kunisi To'g'rul o'g'li Malikshoh bilan birga ta'ziyaga kelishini xabar qildi. U kirib kelganida Qizil Arslon ham marosimda qatnashayotganlar bilan birga oyoqqa turdi. To'g'rul unga qo'lini o'ptirish uchun tayyorlanganida Qizil Arslon o'zini bilmaslikka solib, uning o'g'li Malikshohni quchoqlab o'pdi va o'z yoniga o'tqazdi.

To'g'rul kamsitilganligini hech kimga sezdirmay borib to'rga chiqib o'tirdi va Otabekning o'g'li Abubakirni yoniga chaqirib o'pdi va undan hol-ahvol so'radi.

To'g'rul motam marosimida uzoq o'tirolmadi. U ranjigan edi, ikkinchidan, bu marosimda o'ziga loyiq kishilarni ko'rmadi. Marosimdagilarning deyarli hammasi Ozarbayjon qo'shinlarining sarkardalari va Hamadonda yashovchi ozarbayjonliklar edi. Shuning uchun ham o'rnidan turib chiqib ketdi[1].

Bu voqea Qizil Arslon bilan To'g'rul o'rtasidagi adovatni yana ham keskinlashtirdi.

Marhum Otabek Muhammadga tutilgan motam tugamasdanoq Qizil Arslon ishni boshlab yubordi. Birinchi navbatda Bag'dod xatibi bilan Bag'dod qozisini va qozixona a'zolarini Hamadondan Bag'dodga surgun qildi. Ularning o'rniga boshqa odamlarni qo'ydi.

[1] *Ravzatusafo.*

Yangi tayinlangan qozilarga faqatgina din va masjid ishlari bilan shug'ullanishlarini, hukumat ishlariga aralashmasliklarini buyurdi.

Ikkinchi masala, To'g'rulning talonchi vazirlarini mas'uliyatga tortishdan iborat edi. Ularning hamma davlatlari, mol-mulklari va uy-ro'zg'orlari xazina foydasiga tortib olindi, o'zlari esa hibsga olinib, Shimoliy Ozarbayjondagi Alanjiq qal'asiga jo'natildi.

Uchinchi masala, xazinani taftish qilishdan iborat edi. Taftish vaqtida To'g'rul xazinani talon-taroj qilganligi va davlat mablag'larini o'ziniki qilib olganligi aniqlandi. Qizil Arslonning farmoni bilan xazinadan olingan oltin va javohirlar joyiga qo'yildi.

To'rtinchi masala, hukumat idoralarini tekshirish edi. Tekshirish natijasida idora xodimlarining aksariyati arablar va forslardan iborat ekanligi aniqlandi. Bularning hammasi Bag'dod va Fors o'lkalariga surgun qilinib, ularning o'rniga ozarbayjonliklardan tayinlandi.

Beshinchi masala, To'g'rul uchun yangi vazirlar tayinlash edi, yangi vazirlarga hukumat ishlarini qanday olib borish haqida dasturilamal berildi.

Oltinchi masala, valiahdlik masalasi edi. Qizil Arslon Otabek Muhammadning o'g'li Abubakirga bir guruh qo'shin berib tayinladi:

— Sen mening yordamchim hamda valiahdimsan. Sen bu qo'shin bilan Tabrizga borib, Ozarbayjonni idora qilasan. Shamsiddin mening vazirim. Uning maslahatlariga har vaqt quloq ber. Yoshlarda g'ayrat, qarilarda esa tadbir va turmush tajribasi bor. Ish ko'rsatgan kishilarnigina qadrla: jazolagan vaqtingda ham insoniy munosabatni unutma. Tarozining bir pallasiga gunohini, jazosini esa boshqa pallasiga qo'yib o'lcha, ortiq, kamiga diqqat qil. Birovning manfaati deb birovga jabr qilma. Odam o'ldirganlardan xun talab qilishga yo'l qo'yma, ularning gunohlariga yarasha jazola. Xaloyiq faqat hukumatnigina bilishi kerak. Ruhoniylar va qozilarni faqat masjidda va qozixonalarda ko'rsinlar. Din va mazhabga qarshi chiqqanlarning ishi muhokama qilinadigan bo'lib qolsa qozixonalarda hukumatning namoyandalari bo'lishi kerak. Qo'lingdan kelsa dehqonlarning xirmonidan hatto, qushlarning ham don

o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘yma. Mulkdorlar tomonidan ushur qonunlarining buzilishiga yo‘l qo‘yma. O‘zingni shu qadar odil ko‘rsatginki, hatto, ichidagi dardini beva xotinlar ham sendan yashira olmasin. Hech qachon xalqdan yashirinma, chunki hukmdor xalqning ichida bo‘lganidagina obro‘ qozona oladi. Fuqaroning badavlati ham, kambag‘ali ham fuqaro, hammaga bir ko‘z bilan qara. Shoirlar, adiblar va olimlarning suhbatini g‘animat bil. Umumiy yig‘ilishlarda keraksiz so‘zlarni gapirma, chunki hukmdorning gapirgan so‘zi qonundir. Tarix kitoblarini o‘qi, o‘tgan shoir va adiblarning asarlaridan imkoni boricha foydalan. Chunki ularning so‘zlarida xalqning orzulari ifodalangan. Seni madh etganlarni mukofotlama. Kishilarni kayf-safoga rag‘batlantiruvchilarni emas, nasihat va tanqid qiluvchilarni mukofotla. Qo‘lingdan kelgan qadar jamiyat ishlari bilan mashg‘ul bo‘l, oxirat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lganlarga to‘sqinlik qilma, chunki bunday qilsang seni dinsiz deb aytishlari mumkin.

Qizil Arslon Abubakirga o‘z nasihatlarini o‘qigandan so‘ng, uni Tabrizga jo‘natdi.

QATIBANING SURGUN QILINISHI

Qizil Arslonning ko‘rgan tadbirlariga birinchi bo‘lib Qatiba e’tiroz bildirdi. To‘g‘rul esa hech narsa deya olmas edi, chunki uning sodiq odamlari saroydan, Hamadondan uzoqlashtirilgan edi.

Qizil Arslonning chiqargan farmoniga ko‘ra Faxriddin poytaxt mudofaa qo‘shinlarining boshlig‘i qilib tayinlandi. Faxriddinning Hamadonda turib qolishini eshitib, Qatibaning jahli chiqdi va Qizil Arslonga quyidagi maktubni yozib yubordi:

“Muhtaram hukmdor!

Faxriddin mening otamning qotili ekanligi sizga ma’lumdir. Uning Hamadonda turib qolishi mening uchun juda og‘ir. O‘ylaymanki, hukmdor uni ko‘rarga ko‘zim yo‘qligini nazarda tutib, tezda bir chora ko‘rar”.

Qizil Arslon Qatibaning bu qisqa maktubiga juda uzun bir javob yozdi:

"Hurmatli malika!

Mamlakatni idora qilishda bir-ikki shaxsning orzu-istaklari hech qachon hisobga olinmaydi. Agar muhtarama malika uchun otasining qotilini ko'rish og'ir bo'lsa, men uchun ham akamning qatlida ishtirok etganlarni ko'rish og'irdir. Lekin mamlakatning boshiga tushgan bugungi og'ir ahvollar shaxsiy xusumatlarni unutishga sizni ham, meni ham majbur qiladi. Sizga ma'lumki, o'n besh kun bundan muqaddam Hamadonda Eldaniz xonadonining hukmronligidan asar ham yo'q edi. Hukumat arab, fors namoyandalarining va Xorazmshoh josuslarining qo'lida edi. Bugun men hukumatni begonalarning qo'lidan olib, o'zining haqiqiy vorislari qo'liga topshirdim. Bu tadbirlarga qarshi bo'lganlar mamlakatimizning dushmanidir. Men dushmanlar bilan kurash olib borish uchun bu yerga kelganman. Muhtarama malikaning shaxsiy hayoti masalasiga kelsak, bu borada bir qarorga kelib qo'yganman. O'g'lingiz Qutlug' Inonjni hukumat ishlaridagi tajribasizligi sizdek aqlli va tadbirkor bir xotinning yordamini talab qiladi. Siz unga yaqindan yordam berishingiz kerak. Ko'rib turibsizki, o'g'lingiz idora etayotgan Rey mamlakatining dushmanlari o'lguncha haris va makkordir, siz o'z tajribalaringiz bilan o'g'lingizga ko'maklashing. Shularni nazarda tutib rajab oyining yigirma to'qqizida Rey mamlakatiga o'n besh ming kishidan iborat qo'shin jo'natmoqdaman. Malikaning o'zi ham tayyorgarlik ko'rib qo'shin bilan birga Hamadondan Reyga jo'nashi lozim".

Qizil Arslon tomonidan yuborilgan bu maktub Qatibaning hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. U o'zini Hamadondan surgun qilinishiga hech qachon ishonmas edi. Qochmoq uchun chora, yordam uchun odam topolmadi. Husomiddin hibsxonada, Zahir Balxiy va Kamoliddinlar qochib ketishgan, To'g'rul esa haramxonasiga kirib berkinib olgan. Uning huzuriga kirish man qilingan, eshigi oldiga qo'yilgan soqchi, qorovullarning hammasi ozarbayjonliklar. To'g'rulning o'zi esa uchrashish uchun Qatiba oldiga kelolmaydi, chunki Qizil Arslonning o'zi Otabek saroyida istiqomat qiladi.

Nihoyat, Qatiba yana eski do‘sti Sabo xonimni esladi. U tezlik bilan Qosimobod qishlog‘iga odam yuborib, Sabo xonimni saroyga chaqirtirdi. Sabo xonim saroyga qaytish uchun biror vosita qidirar edi, ertasiga yetib keldi.

Qatiba uni ko‘rib nihoyatda sevindi, o‘z dardlarini unga ochib soldi. Uning mushkul ahvolga tushgani Sabo xonimni haddan tashqari o‘ylatib qo‘ydi. Sabo xonimning butun umidlari puchga chiqdi, chunki Qatiba Hamadondan ko‘chib ketgudek bo‘lsa, u o‘zining daromad manbalaridan tamoman mahrum bo‘lardi. Holbuki uning bu darbmadlarga ehtiyoji zo‘r edi. Qo‘lida bor hamma sarmoyasini Qosimobod kentida qurdirayotgan saroyiga xarjlab qo‘ygan, ammo saroyni haligacha qurib bitkazolmagan edi.

Husomiddin, To‘g‘rul va Qatibalardan kutgan mukofotlar hisobiga saroyini qurdirib olish umidida edi. Endi bo‘lsa bir tomondan Qatiba jo‘nab ketyapti, ikkinchi tomondan Faxriddin Hamadon shaharining mudofaa qo‘shinlarining boshlig‘i qilib tayinlangan. Saboning Hamadonda qolib yashashi uchun u aslo yo‘l qo‘ymas. Sabo xonim boshini ko‘tarib Qatibaga dedi:

— Malikaga ham rahmim keladi, o‘zim ham Faxriddin bilan uchrashishdan qo‘rqaman, chunki u meni sog‘ qo‘ymaydi. Bu ishlardan o‘lim hidi kelmoqda. Sizga yordam qo‘lini cho‘zolmayman. O‘tinib so‘rayman, meni baloga ro‘baro‘ qilmang.

Qatiba yolvorib:

— Yaxshi kunlarimda yordam qilgansan, yomon kunimda ham yordaming tegsin, — dedi.

— Qo‘rqaman. Hozir qanday zamon ekanligini bilasizmi? Men hatto, Qosimobod kentidan chiqib boshqa tomonlarga qochib ketishni istayman. Siz mening Faxriddin bilan qanday munosabatda ekanligimni yaxshi bilasiz. Men uni Bag‘dodda o‘limga ro‘baro‘ qilmoqchi bo‘lgan edim. U bularning hammasini biladi.

— Hech bo‘lmasam mening birgina maktubimni To‘g‘rulga topshirib, javobini keltir. Bunda hech qanday qo‘rqinchli narsa yo‘q. Yuzing berkitilgan bo‘ladi, kim seni To‘g‘rul saroyiga kirishingga mone bo‘la oladi?

Sabo xonim Qatibaga ochiq javob bermadi, faqat:

— Zarari yo'q, mayli, biroz o'ylab, malikaga keyinroq javob qilarman, — dedi.

— Bu ishni ertaga qoldirolmayman, kech bo'ladi. Qo'shin Rey tomonga yurish arafasida turibdi,— dedi Qatiba.

Sabo xonim besh yuz tilla olib bu vazifani bajarishga rozi bo'ldi.

Qatiba maktubni yozdi:

"A'lo hazrat!

Necha kundirki, a'lo hazratning sihat-salomatligi to'g'risida biror ma'lumotga ega emasman. Lekin har holda mamlakatdagi umumiy vaziyat men uchun ayondir. Sizga bir narsani bildirishni istardim. Hashamatli Qizil Arslonning farmoni va maslahatiga binoan men shu kunlarda Rey mamlakatiga jo'nashim kerak. Bu to'g'rida janobingizning fikringizni bilmoqchiman. A'lo hazrat istasa, mening bu safarimni orqaga sura olardi, chunki mening poytaxtdan uzoqlashishim o'zim uchun ham, a'lo hazrat uchun ham zararlidir. Agar a'lo hazrat shu to'g'rida biror chora ko'ra olsalar, men bu mushkul ahvoldan qutulgan bo'lardim".

Qatiba maktubning javobini oshiqib kutardi. Kechqurun qorong'i tushgan paytda Sabo xonim maktubning javobini olib keldi. Lekin javob kelmasdan ilgari, Qizil Arslonning odami Qatiba xotunning huzuriga kelib, Ozarbayjon askarlarining Reyga bir necha kundan so'ng jo'nashini xabar qildi. Umidlari puchga chiqqaniga qaramasdan, Qatiba maktubni ochib o'qidi. To'g'rul shularni yozgan edi:

"Muhtarama malika!

Hashamatli hukmdor Qizil Arslonning malika to'g'risida chiqargan qarori, malikaning o'zi uchun ham, mamlakat uchun ham, hatto, o'g'lingiz Qutlug' Inonjning kelajagi uchun ham yaxshidir. Siz o'zingiz bilasizki, shu ahvolda sizning Hamadonda qolishingiz imkoniyatdan xorijdir. Bu safarda malika uchun baxt-saodat yor bo'lishini va sihat-salomat bo'lishini tilayman".

Qatiba maktubni o'qib g'azab bilan dedi:

— Tfu! Ablah, yaramas, men Rey mamlakatiga ketgan vaqtimda yoqang mening qo'limdan xalos bo'ladi deb o'ylaysanmi? Sizlarning nasllaringizni mendan boshqa hech bir kuch yer yuzidan supurib tashlay olmaydi.

HUSOMIDDINNING HIBSXONADAN QOCHISHI

— Ishlar hammasi boshqacha bo'lib ketadi. Sen bilasanki, bu davron doimo bir kishining orzu-istagi bilan aylanmaydi. Bugun to'y bo'lgan uy ertasiga motamxonaga aylanadi. Sen bilasanki, bu dunyo bir to'pdir. U bugun bir hukmdorning chavgoniga tushadi, ertaga boshqasining. Falakning charxi aylanib turadi. U insonlarni bir ko'tarib, keyin yerga tashlaydi. Bu ko'rinib turgan olam — bir oyna. Bunda har bir shaxs navbat bilan o'z aksini ko'rish uchun navbat kutadi. Qizil Arslon hozircha falakning to'pini chavgonning uchiga olib o'ynamoqda. Hozircha u tantana qilmoqda. Falakning charxi uni yuqori martabalarga ko'targan, u, dunyo oynasida faqat o'zinigina ko'rmoqda. Lekin men senga ishontirib aytamanki, u, bir kun bu qimorda yutqizadi. Uning boshlagan o'yini juda qo'rqinchli o'yin. Bu o'yinni undan zo'rlari ham oxiriga yetkazolmagan. U Ma'mun xalifadan ortiq emas. Ruhoniylarni, qozilarni, ulamolarni hamda vazirlarni hibsga olmoqda, surgun qilmoqda. Xalifa tomonidan tasdiq qilingan podshohni xonanishin hildi. U jazosiz qolaman desa, katta xato qilgan bo'ladi, bu gunohlarini xalifa kechirmaydi.

Sabo xonim boshini quyi solib Qatibaning so'zlariga quloq solardi. Qatiba so'zdan to'xtab savol berdi:

— Ajabo, aytganlarimning hammasi to'g'ri emasmi?

Sabo xonim qoshini o'ynatib, yelkasini qisib qo'ydi:

— To'g'ri bo'lishiga to'g'ri-ya, lekin bu to'g'ri gaplar bizni mushkul ahvoldan qutqara olarmikin? — dedi.

— Eng muhimi shuki, sen bu so'zlarning to'g'riligiga ishongin, insonlarning kimligi faqat og'ir va qo'rqinchli kunlardagina bilinadi. Og'ir bolg'alarning zarbasiga faqatgina temir chiday oladi. Faqatgina chirigan va tuban odamlar ezilib mahv bo'ladi. Hozir Qizil Arslon hibsga olinganlarni jazolashga, qatl ettirishga boshlagan. Husomiddinni sen Qizil Arslonning qo'lidan osongina qutula oladi deb o'ylama. Uni o'lim jazosi kutmoqda. Uni qatl etadilar. Men judayam qayg'urayotganim yo'q, lekin sen Husomiddinni bilasan, unda mustahkam iroda yo'q, uni ozroq qiynasalar, bizning butun

sirlarimizni Qizil Arslonga aytib beradi. Biz hammamiz zanjir halqalaridek bir-birimizga bog'liqmiz. Nima deyayotganimni tushun! Husomiddin o'zi bilan birga hammamizni oyog'imizdan tortib keta oladi. Zahir Balxiy bilan Kamoliddin qochib qutuldi. Ulardan xavfim yo'q. Lekin Husomiddinni hibsxonada qoldirish biz uchun tahlikalidir. Meni Rey mamlakatiga yuborish bilan Qizil Arslon tinchimaydi. U Reydan meni chiqarib yuboradi. Xullas, Husomiddinning taftishi boshlanmasdan uni hibsxonadan qutqarish kerak. Undan keyingi ishlar hammasi mening zimmamga tushadi.

Qatibaning bu so'zlaridan Sabo xonim kuldi. Qatiba esa:

— Nima bo'ldi? So'zlarim miyangga borib yetmadimi? — deya so'radi.

— Bilmadim, biz Husomiddinni qanday vositalar bilan hibsdan qutqara olar ekanmiz...

— Hibsxona darvozasi oldida turganlar erkaklarmi?

— Ha, erkaklar.

— Ular erkaklar, sen esa go'zal bir ayolsan. Sen o'z ishingga puxtasan, har qanday ishni bajara olasan. Gapning qisqasi shu. Xavf-u xatarni bir tarafga qo'yib qo'yaylik, biz ozod bo'la turib Husomiddinning bo'ynini Faxriddinning sovun surtilgan dor arqoniga tutib bersak — bu katta bir xiyonat. Bu dog' umrbod bizning qalbimizda qoladi. Bor, yaxshilab o'yla, men bilan sen Husomiddinni qochirishimiz kerak. Seni ham o'zim bilan birga Rey mamlakatiga olib ketaman, ko'p o'tmasdan sen bilan birga Hamadonga qaytamiz. Bu xizmating mening ham, Husomiddinning ham esidan chiqmaydi. Biz Husomiddinni qutqarib olish bilan Faxriddinga yaxshi bir tarsaki bergan bo'lamiz. Qizil Arslon uning ehtiyotsiz va layoqatsizligini ko'rganida o'rniga boshqasini tayinlashi turgan gap. Endi seni taqdirlash masalasiga kelsak, bu to'g'rida xavotir olma, men saxiy ayolman.

Juma oqshomi bo'lgani uchun hibsxona eshigi oldida xotinlar to'plangan edi. Sharqda har juma oqshomi mahbuslarga xayri ehson olib kelish odati bor.

Hamma ketgandan keyin qora chodraga o'ralgan bir ayol darvoza oldida turgan qorovulga yaqinlashib, olib kelgan ehson-

larini mahbuslarga berilishini iltimos qildi. Qorovul narsalarni olib ichkarida turgan soqchilarni chaqirdi. Ular ayol keltirgan ehsonlarni mahbuslarga ulashish uchun olib ketdilar.

Ayol ovqat olib kelgan idish-tovoqlarni qaytarib olish uchun qorovulning yonida kutib turardi. Qo'lidagi nayzasi bilan u yon-bu yonga yurib turgan qorovul ayolga yaqinlashgan vaqtida ayol unga savol berdi:

— Har kun xayri ehson keltirsam mumkinmi?

— Nega endi mumkin bo'lmasin? Bu ehson keltiruvchining himmatiga bog'liq.

Qorovul bilan so'zlashar ekan, ayol yuzining bir tomonini ochib qo'ydi. Qorovul uning go'zalligini ko'rib yaqinlashishi bilan ayol yuzini tezgina yopib oldi. Qorovul endi yurmas edi, nayzasiga suyanganicha qarab turardi. Ayol ikkinchi safar yuzini ko'rsatmadi. Ichkaridan idish-tovoqlari qaytgungacha qorovul bir joyda turib olib diqqat bilan ayolga tikilardi. Idishlarni olib chiqdilar. Ayol idishlarini dasturxonga o'rab ketmoqchi bo'lganida qorovul unga savol berdi:

— Marhamatli xonim yana keladilarmi?

— Balki kelarman.

— Iloji bo'lsa tez-tez olib kelib turing, bu yerda hech kimsasi yo'q fosiqlar bor. Ular faqatgina xayri ehsonlar bilan yashaydilar.

— Mahbuslaringiz ko'pmi?

— Ko'p, lekin asta-sekin kamayayapti.

— Nima, ularni ozod qilishyaptimi?

— Yo'q, bu yerdagilar ozod qilinadigan mahbuslar emas, ularning bir qismi surgun qilinadi, bir qismi esa qatl etiladi.

Ayol biroz o'ylanib turganidan so'ng:

— Albatta, bundaylarga xayri ehson qilish savob. Men yana ertaga xuddi shu paytda kelaman. Ajabo, mahbuslarga olib kelgan ehsonlarni faqat siz janob olishingiz kerakmi?

— Yo'q, har kim ham qabul qilishi mumkin. Lekin xonim olib kelgan ehsonning savobiga men ham sherik bo'lishni istardim.

— Ey Xudoyim, qarang-a, qanday oliyjanob odamlar bor, har kim ham sizchalik oliyjanob bo'lsa edi, hibsxonalarga ehtiyoj ham qolmas edi.

— Shunday, muhtarama xonim. Bu yerda shunaqanggi yigitlar yotibdiki, nomlarini tilga olib yo'qlaydigan odam yo'q. Qo'llariga kimki tushgan bo'lsa hibsga olaverishgan. Hibsxona xizmatchilarining vazifasi arqonni sovunlab, gunohsiz kishilarning bo'yniga sirtmoq solishdan iborat.

Ularga rahmlaring kelmaydimi?

— Nega endi kelmas ekan. Lekin nima ham qila olamiz?

— Sizning qo'lingizdan ko'p ish keladi.

Ayol keta turib qorovulning kaftiga bir tilla qistirib, xayr-manzur qilib jo'nadi.

Xayri ehson olib kelishni ayol davom ettiraverdi. U ba'zan bir kunda ikki martaba, erta-yu kech kelardi. Qorovullar esa uni ko'chada shamol-yomg'irlar ostida ushlab turmaslik uchun ichkari kirishga ruxsat berardilar. Ba'zan mahbuslar hovliga chiqqan vaqtlarida qorovullar ayolni ularga ko'rsatib:

— Sizlarning g'amxo'ringiz, sizga ovqatlar keltiruvchi mana shu muhtarama xonimdir, — der edilar.

Ayol esa o'z navbatida mahbuslarni ko'rarkan, duo qilar va ularga najot tilab Xudoga iltijo qilardi.

Ayol faqat mahbuslar uchun emas, ba'zan uchta qorovul uchun ham ovqat keltirardi. Har safar hibsxonaga kelgan vaqtida ovqatdan tashqari ularga bir tilladan pul hadya qilardi. Shuning uchun ham u hibsxona mudirining xonasigacha yo'l topa olgan edi. Endi u ehson olib kelganida hibsxona mudirining uychasida kutib o'tiradigan bo'ldi.

Mudir ehson olib keluvchi saxovatli ayolga juda ham qiziqardi. U ham go'zal hamda badavlat edi. Oqshomlarning birida mudir ayolga bunday bir savol berdi:

— Nima uchun har safar o'zingiz ehson keltirasiz? Uyingizda bu vazifani bajaruvchi biror erkak yo'qmi?

— Avvalo uyimizda erkak toifasi yo'q, ikkinchidan, xayri ehsondan keladigan savobni shaxsan o'zim olishni istayman.

— Ajabo, eringiz yo'qmi?

— Erim bor edi. U Bag'dodda katta bir vazifada— harbiy xizmatda edi, nihoyat, xalifa uni millatchilikda ayblab hibsga oldirdi. Hibsxonada kasal bo'lib o'lganligini aytdilar. Lekin olingan

ma'lumotga ko'ra u yerda uni zaharlagan ekanlar. Endi hech kimim qolmadi. Birgina qaynonam bor, u ham juda qarigan, o'lar holatda. Mening mahbuslarga ehson qilishimning asosiy sababi yosh va baxtsiz erimning hibsxonada o'lganligidir. U katta bir boylik qoldirib ketgan edi. Shu boylikni mahbuslarga sarf qilishga ahd qilganman.

Ayol shu so'zlarni gapirib yig'ladi va ro'molchasini olib ko'z yoshini artar ekan, yuzining bir tomonini yana mudirga ko'rsatib qo'ydi.

Mudir haqiqatan ham uning bir ofatijon dilrabo ekanligiga tamomila ishondi va o'z-o'ziga: "Eri yo'q, go'zal hamda badavlat ekan, shunday muhtarama, saxovatli, aqlli bir ayolga uylanish naqadar baxt", dedi. Ayol har safar turib ketmoqchi bo'lganida, mudir unga yana boshqa savollar berib to'xtatar edi. Nihoyat, ayol:

— Qorong'i tushib qoldi. Qaynonam kutib o'tirgandir. U mendan xavotir oladi. Yana shunisi ham borki, hibsxona mudirining xonasida ko'p o'tirishning noqulay bir tomoni bor. Balki bu yerda sizdan ham kattaroq vazifada o'tirganlar bordir. Mening kasrimga qolib gap-so'zga qolishingiz va tanbeh olishingizni istamayman,— dedi. Mudir esa ayolning bu so'ziga e'tiroz bildirib:

— Bu to'g'rida o'ylamang, bu yerda mendan yuqori vazifada turgan odam yo'q. Hibsxona mening ixtiyorimda, yuqori vazifada turganlarning o'zlari bu yerga kelmaydilar, faqat ularning odamlarigina bizga farmonlarini yetkazadilar, — dedi.

— Qanaqa farmonlar?

— Surgunga jo'natiladiganlar va qatl qilinadiganlar to'g'risidagi farmonlarni.

— Farmon beruvchilar kim?

— Hamadon shaharining muhofaza qo'shinlari raisi Faxriddin ismli bir odam.

— Unda rahm-shafqat yo'qmi?

— Yo'q, boshqalarni, masalan, arablar, forslarni qatl qilsa qilaversin, mayli, lekin o'z vatandoshlarini ham mahv etmoqda. U shunday qahramonlarni o'ldirmoqdaki, yana bir martaba mamlakatimiz bunaqangi kishilarni yetkazolmaydi.

— Siz qaysi mamlakatdansiz?

— Biz Ozarbayjon tomondan kelganmiz.

— Demak, siz ham men kabi musofirmisiz?

— Ajabo, siz bu yerlik emasmisiz?

— Yo'q, bu yerlik emasman. Men ham musofirman, erimni axtarib topish uchun, qaynonam bilan birga Bag'dodga borgan edim, o'lganini eshitdim. Endi esa qaynonamni bu yerda qoldirib, akamni axtarish uchun ketmoqchiman.

— Akangiz qayerda?

— Reyda deb xabar bergan edilar. Ba'zilarining aytishicha, u Xorazm chegarasida emish. Shu yaqin kunlarda olingan xabarga ko'ra u Salohiddin Ayyubning qo'shini bilan birga Quddusiy shahri ostonalarida jang qilmoqda emish. Har holda qaysi bir tomonga borishimni o'zim ham bilmayman.

— Akangizning ismi nima?

— Akamning ismi Husomiddin.

Mudir Husomiddinning nomini eshitishi bilanoq, biroz o'ylanib qoldi, ayolning yuziga taajjub bilan boqdi, chuqur o'yga tolib, o'z-o'ziga:

— Tavba, tasodifni ko'ring-a! — dedi.

Ayol yig'ladi, go'yo hayajonlanganidan yuzini ochib yuborganini o'zi ham bilmay qolgandek edi. Mudir uning go'zal va fusunkor jamolini ko'rishi bilanoq har qanday tahlika va xavf-xatarni xayolidan chiqardi. U ayolga yaxshilik qilib uning muhabbatiga sazovor bo'lishni umid qildi. Mudir o'ychan boshini ko'tarib ayolga qaradi va uning azob chekayotganini ko'rib dedi:

— Sizning ahvolingizni tushunaman, go'zal va muhtarama xonim. Xotin kishining akaga bo'lgan muhabbati eriga bo'lgan muhabbatidan qadrliroq, qimmatliroqdir, o'zimning ham singlim bor. Singillar akalari uchun har qanday fidokorlikka tayyordirlar.

Ayol ko'zlarini artib:

— Shunday, to'g'ri aytasiz, men birgina martaba Husomiddinni ko'rish uchun o'zimni fido qilishga tayyorman. Men erimdan keyin hech qachon erga chiqmaslik uchun ont ichgan edim. Lekin akamning xabarsiz ketganini eshitganimdan so'ng fikrim o'zgardi.

Ayol shu so'zlarni aytganidan so'ng uyalib boshini quyi soldi. Mudir esa unga savol berdi:

— Muhtarama xonim, nima uchun fikringiz o'zgardi. Buni menga ayta olasizmi?

— Nima uchun ayta olmas ekanman? Kimki bo'lmasin akamni topib bersa, men o'shanikiman.

Mudir xayolga cho'mdi. U Husomiddinni ozod etolmas edi. Ayni zamonda ayolga akasining hibsxonada ekanligini aytishdan qo'rqardi. Singil uchun bunday mudhish xabarni eshitishning naqadar og'irligini sezardi. Shuning uchun ham ayolni bu musibatning og'irligiga ko'niktirish va unga tasalli berish uchun dedi:

— Hozir dunyo shu qadar ostin-ustin bo'lib ketganki, voqealar hech qachon aka-singillar o'rtasida bo'lgan mehr-muhabbat bilan hisoblashmaydi, kim bilsin, akangizni qayerdandir toparsiz! Balki u biror shifoxanada, balki surgunda yoxud biror hibsxonaning burchagida yotgandir. Nima ham qila olardingiz? Tahdirga tadbir yo'q. Qazo-yu qadarning achchiq-chuchugini biz chekmasak kim chekadi? Menimcha, bu masalani hal qilish tadorikini taqdirning o'z ixtiyoriga havola qilib qo'yish yana ham yaxshiroq.

— Nima bo'lsa bo'lsin, bir martaba bo'lsa ham yuzini ko'rish va salomatligini aniqlash men uchun kifoya.

— Agar men akangizni ko'rsatsam, o'z ahdingizda turasizmi?

— Albatta, turaman. Nahotki akamni ko'rsata olsangiz!

— Ha. Shuni aytib qo'yayki, mening bola-chaqam yo'q, o'zim ham juda oliyjanob oiladanman.

— Sizning fe'li atvoringiz oliyjanob oiladan ekanligingizni ko'rsatib turipti.

— Siz ahdimda turaman, deb ont icha olasizmi?

— Ha, ont ichaman!

— Lekin sizdan bir iltimosim bor, akangizni ko'rgan vaqtingizda o'zingizni tutishingiz, qichqirmasligingiz kerak! Agar bu sir o'rtamizda qolsa, har kun kechqurun shu paytda akangizni ko'rishingiz mumkin.

— Men bilan hazil qilyapsizmi?

— Jiddiy aytyapman, Husomidid shu yerda.

— Uning ba'zi nishonalaridan birortasini aytib bera olasizmi?

— Yuzida katta bir xoli bor.

Ayol yig'ladi:

— O‘sha, sevimli akam.

Mudir:

— O‘tinaman, o‘zingizni qo‘lga oling,— dedi-da, ayolni xonada qoldirib o‘zi chiqib ketdi. Besh minut ham o‘tar-o‘tmas eshik ochilib, Husomiddin xonaga kirib keldi, ayol unga tashlanib bo‘ynidan quchoqlab oldi va:

— Aziz akajonim! — deb uning yuzidan o‘pmoqchi bo‘lgan bo‘lib qulog‘iga nimalardir shivirladi: — Mudirni bo‘g‘ib, liboslarini kiyib olishing kerak! — dedi. Mudir qaytib ichkariga kirdi-yu, ayolga murojaat qilib:

— Akangiz shu janob bo‘ladilarmi? — deb so‘radi. Ayol entikib-entikib:

— Shu, mening baxtsiz akam shu bo‘ladi! — deb turganida Husomiddin mudirga yaqinlashib:

— Singlim bilan men uchun qilgan bu oliyjanobligingizga tashakkur bildiraman, — dedi va uning qo‘lini siqdi, ikkinchi qo‘li bilan mudirning bo‘g‘zidan oldi. Ayol mudirning qarshilik ko‘rsatayotganini ko‘rib yordamga keldi, Husomiddin tezlik bilan uni bo‘g‘ib o‘ldirib, uning kiyimlarini kiydi, eshikni qulflab kalitni oldi. Ayol bilan ko‘chaga chiqqanda qorovulga yuzini ko‘rsatmay turib sekingina:

— Men bu xonimni kuzatib qo‘yaman. Kun og‘ib qoldi. Xonim Dajjola mahallasida turar ekan, yolg‘iz o‘zi ketgani qo‘rqadi, — dedi.

Oy Ismoiliya maqbarasi ustidagi minoraning orqasiga o‘tganda Husomiddin Sabo xonimning tayyorlab qo‘ygan otiga minib Xorazmga qarab qochdi.

Qatiba xotun Husomiddinning hibsxonadan qochirilishnni o‘zining g‘alabasi deb hisoblar edi. Haqiqatan ham bu voqea Faxriddinning Hamadondagi obro‘siga katta zarba berdi. Bu ishi uchun Qatiba xotun Sabo xonimga istagandan ortiq in’omlar berdi. Faxriddin esa Qizil Arslondan yengilgina tanbeh olganidan so‘ng Husomiddini qochirgan xotinni qidira boshladi. U hibsxona qorovullarini chaqirib so‘roq qildi:

— Ayol haqida nima deya olasizlar? O‘sha kuni tashqarida bo‘lgan qorovul kim edi?

Qorovulning kimligini aniqladilar. Qorovul bergan ma'lumotlar quyidagilardan iborat edi:

— Bo'yi barvasta bir xotin edi, har kuni bir martaba, ba'zan kunda ikki martaba mahbuslarga xayri ehson keltirar, tilidan Xudo va avliyolarning nomi tushmas edi. O'zi juda go'zal edi. Yuzini bir martaba ko'rib qoldim, lekin juda tez berkinib oldi. Qo'lini cho'zib ehson ulashgan vaqtida barmoqlarida uchta qimmatbaho uzuklar borligini ko'rdim, boshida shoyi chodrasi bor, chodrasining chetida yashil ipak bilan tikilgan hoshiyalari bor, kavushining betiga kumush hal bilan gul tushirilgan, ovozi juda mayin, yoqimli bo'lib, ko'zidan yosh arimas edi. Saxovatda unga teng keladigan odamni hali ko'rganim yo'q. Har kuni yo'qsillarga pul ulashishni odat qilgan edi.

Faxriddin biroz o'ylab turib, yonidagi odamga murojaat qildi:

— Ayolning qiyofalarini yozib ol, shu xil belgi va nishonalarni qanday bir xotinda uchratadigan bo'lsang ushlab keltiraver! — dedi.

Faxriddin tasvir qilingan ayolning Sabo xonim ekanligiga hech shubha qilmas edi, lekin uni Qatiba xotunning saroyidan chiqarib hibsga oldirish mumkin emasdi. Bunga Qizil Arslon ham rozilik berolmas edi, chunki bu jinoyatni Saboning bo'yniga qo'yish, Qatiba xotunning ham bu jinoyatda qatnashganligini fosh qilish demak edi. Shuning uchun ham Qizil Arslon, Sabo xonimni saroydan tashqariga chiqqan vaqtida hech kimga bildirmasdan qamab va qatl etilishini tayinladi.

Kuni bilan Faxriddinning ayg'oqchilari saroy atrofida izg'ib, sirtqi belgilari ma'lum ayolni sabrsizlik bilan kutar edilar. Sabo xonim bularning hammasini bilardi. Shuning uchun ham u, o'z hunarini Faxriddin bilan Qizil Arslonga yana bir martaba ko'rsatib qo'yishga ahd qildi. Otabek saroyining atrofiga qo'yilgan ayg'oqchilar hech ish chiqarolmadilar. Saroydan tashqariga chiqqan kaniz va joriyalarning birortasida Sabo xonimning nishonalarini topa olmadilar. Lekin Sabo xonim ham saroy ichida berkinib o'tirgani yo'q edi, u har kun saroydan tashqariga chiqib, Faxriddin istiqomat qilib turgan uy atrofida aylanar va uyga kirish uchun yo'l izlar edi. U Hamadondan Rey mamlakatiga ko'chib ketishiga qadar malikaning

dushmani bo'lgan Faxriddinga yana bir zarba berib uning evaziga katta bir mukofot olishni istardi.

Peshin payti Ismoiliya maqbarasining naqshli minorasidan so'fining tovushi eshitilgan vaqtda Sabo xonim Faxriddinning eshigidan qora chodraga o'ralgan bir xotinning, "Allohu akbar kabiran kabir!" deb chiqib ketayotganini ko'rdi. Ayolning qo'lida katta bir tuguni bor edi. Sabo xonim xiyla diqqat bilan qarab, uning qo'lidagi tugun yuvdirish uchun berilgan kimningdir kirlari ekanini payqadi. Shubhasiz, bu Faxriddinning kirlari edi. Saboxoim ayolga yaqinlashib borib salom berdi va so'radi:

— Vaqtingiz bo'lsa, sizni o'z xonimimning huzuriga olib borsam, xonim anchadan beri yaxshi bir kirchi xotin axtarardilar.

Ayol Sabo xonimga javoban:

— Bugun-erta vaqtim yo'q, chunki janob Faxriddin kiyimlarini tezroq yuvib berishimni ta'kidlagan, — dedi.

— Uning kiyimlarini qachon olib kelishingiz kerak?

— Tayinli bir vaqtni aytgani yo'q. Indinga yoki birisi kuniga.

— Unda men sizni qayerda ko'raman?

— Siz qayerda desangiz o'sha yerda sizni kutaman.

— Birisi kun juma oqshomi-ku, siz Abudodjon mozorining ziyoratiga kelasizmi?

— Kunning qaysi pallasida?

— Men zuhur namozini o'sha yerda o'qiyman.

— Unday bo'lsa o'sha yerda uchrashamiz.

Bu voqeadan ikki-uch kun o'tgan edi. Faxriddin deraza oldida o'tirib aslahaxona oldidagi maydonchaga qarab o'z-o'ziga der edi: "Hukumat bilan qo'shin o'z qo'limda bo'lsinu, bir axloqsiz xotin hibsxonaga kirsin, mudirni o'ldirsin, Husomiddin kabi bir xoinni qochirsin. Nima deb men Faxriddin nomini ko'tarib yuribman!" Qo'lini iyagiga tirab aslahaxona maydonidan o'tib turgan yo'lovchilarni kuzatardi. U yerdan Sabo xonimning o'tib ketayotganini ko'rdi, hibsxona qorovullari aytgan nishonalarining hammasi uning zohiriy ko'rinishida mavjud edi. Sevinganidan sakrab o'rnidan turib, eshik tomon yugurdi. Darvoza oldida turgan qorovullarga:

— Orqamdan yuringlar, — dedi. Shu payt kirchi xotin eshikka yaqinlashib:

— Muhtaram og'am, kirlarni keltirdim, — dedi, Faxriddin qisqa qilib:

— Xonaga olib kir, hozir qaytaman! — dedi-yu, qorovullar ketidan borib Sabo xonimni quvib ketdi.

Sabo xonim juda tez ketib borar edi. Bu Faxriddinga juda qo'l kelar edi, chunki uni shaharning markazida ushlashni noqulay deb bilardi.

Ayol Dariyaxona darasi mahallasiga burilarkan, Faxriddin uni chaqirdi:

— To'xta, fohisha! — ayol taajjub bilan qayrilib Faxriddinga qaradi va so'kinib o'z yo'lida davom etdi. Faxriddin yana:

— Seni chaqiryapman, axloqsiz, endi mening qo'limdan qutulolmaysan! — dedi.

Ayol yerdan tosh olib unga otmoqchi bo'lganida Faxriddin uning qo'liga qaradi, haqiqatan ham hibsxona qorovuli aytgandek, barmoqlarida uch dona qimmatbaho uzuk borligini ko'rdi va qorovullarga buyruq berib:

— Ushlang, xuddi o'zi! — dedi. Qorovullar ayolni ushladilar. Ayol esa silkinib ularning qo'lidan o'zini qutqarishni istarkan, chodrasi boshidan tushib ketdi. Faxriddin diqqat bilan unga qarab turib rangi o'chdi, ayol Sabo xonim emas edi. U taxminan qirq-qirq besh yoshlardagi cho'tir va ko'zi ko'r xotin edi.

Faxriddin yolvoruvchi bir ohangda ayolga murojaat qilib dedi:

— Meni kechiring, o'tinib so'rayman, buni bir tajovuz deb tushunmang. Axtarayotganimiz odamda bo'lgan nishonalarning hammasi sizning tashqi ko'rinishingizda bor ekan.

Ayol ho'ng-ho'ng yig'lab der edi:

— Taxting tobutga aylansin, senday podshohning! Sening poytaxtingda kuppa-kunduz kuni xotinlarni haqorat qiladilar, fohisha deb ataydilar. Sizlarni qo'yib yubormayman, hozir, shu soatda qozining oldiga borasizlar, mening fohishaligimni bo'ynimga qo'yib berasizlar.

Faxriddin qayta-qayta yolvordi, uzr so'radi, nihoyat, ayol ularga la'natlar o'qib jo'nab ketdi.

Faxriddin terlarini arta-arta uyiga qaytdi. Uyida qiziq bir hodisani uchratdi. Kiyim-kechaklari sochilgan, qulflog'liq sandiq ochilgan, qimmatbaho narsalar yo'qolgan. Butun kerakli vasiqalar o'g'irlangan deraza tokchasidagi tugunchaga ko'zi tushdi, shoshib-pishib tugunni ochdi-yu, bir sidra xotin kishining liboslarini ko'rdi. Hamma yog'ini ter bosdi, uyiga kirgan ayolning kirchi xotin emasligini fahmladi.

U qorovullarga baqirdi:

— Darhol haligi xotinni tutib mening oldimga keltiring. U bizni aldab uydan uzoqlashtirish uchun Sabo xonimning libosini kiyib chodrasini yopinib olgan ekan.

Qorovullar ayolni axtarib ketdilar. Lekin uni topa olmadilar. Qora chodraga o'ralgan yuzlarcha xotinlarga duch keldilar-u, yarim soat muqaddam ko'rgan ayolning nishonalarini hech bir xotinda ko'rmadilar.

Faxriddin yana bir marta haligi xotin kishi liboslariga qaradi, orasida bir maktub borligini ko'rib o'qiy boshladi:

"Hamma oziq-ovqatlaringni zaharlab seni o'ldira olardim. Lekin senga o'xshash begunoh insonlarni mahv etish tarafdori emasman. Bu sen uchun bir ogohlantirishdir, agar Hamadondan chiqib ketmasang, seni o'lim bilan jazolayman. Nahotki, bir ozarbayjonlik Bag'dodning yaqinida Hamadonda hukmronlik qilsa!"

Faxriddin maktubni o'qib chuqur o'yga toldi. Umri bino bo'lib, bunday haqoratlanmagan edi. U o'z-o'ziga: "Bu xotin kishining hiylasi. Iroqliklar mening qarshimga qilich bilan chiqqan bo'lar edilar.

Ular hech qachon mening uyimdan kiyimlarimni olib o'rniga xotin libosini qo'ymas edilar. Iroqliklar meni juda yaxshi biladilar. Ular meni jang maydonlarida ko'rganlar va mening bunday libosga loyiq emasligimni juda yaxshi biladilar. Bu Qatiba bilan Sabo xonimning ishi", dedi va qorovullarni oldiga chaqirib:

— Bu hodisani hech yerda gapirmanglar, bu tamomila yashirin qolishi kerak, — deb tayinladi.

ISLOHOT VA UNING NATIJALARI

Qizil Arslon islohotni birinchi bo'lib poytaxtdan boshladi. U hukumat qonunlarini ko'zdan kechira boshladi, chunki hamma balo idora usullarining kamchiligidan kelib chiqqanligini bilardi. U qo'lidan kelganicha farmonlarning ijro etilishini, taftish qilishni qozixonalardan olib hukumat idoralariga topshirishga harakat qildi. Hukumat mahkamalarini qaytadan tuzishga kirishganda ruhoniylar orasida katta bir shov-shuv boshlandi.

Qizil Arslon yer solig'i ishlarini butkul o'zgartirish uchun katta bir taftishchilar guruhini tuzdi: chunki soliq ishlari juda ham ibtidoiy darajada edi. Bu qonunlar arablar davridan qolgan bo'lib, buning kasofatida qishloqlilarning yil o'n ikki oy qarzdan boshlari chiqmas edi. Natijada dehqonlar mulklarini tashlab shaharlarga qochishar edi[1].

Qizil Arslon, dehqonlar mulkdorlarga emas, balki hukumatga tobe bo'lishlari kerak. "Har holda bu tashabbus qishloqilarning erkinroq nafas olishiga va qishloq mahsuldorligining oshishiga sabab bo'la oladi", der edi.

Qizil Arslonning yuborgan farmonida shu so'zlar bor edi:

"Bundan keyin soliqlar qishloqlilarning ixtiyorida bo'lgan yerlar miqdori emas, uning yerdan olinadigan hosilning miqdori bilan o'lchanishi lozim".

Qizil Arslonning boshini qotirgan masalalardan biri jazo va jarima qonunlari edi. U bu haqda shunday farmon chiqardi.

"Bundan keyin jazo va jarima hukumat mahkamasi tomonidan belgilanishi kerak. Mulk va siyosat ishlari hukumatga taalluqli masalalar bo'lganligidan qozixonalar bu ishlardan chetlashtirilsin. Diniy ishlar yuzasidan janjalli masalalarning hammasi qozixona namoyandalarining ishtiroki bilan hukumat mahkamasi tomonidan ko'rilib, hukm chiqarilishi, aybdorlarga jazo va jarima solinishi lozim".

---

[1] Eron va Turkiyada shu kunlargacha yer solig'i qonunlari arablar tuzgan qonunlari bo'yicha olinadi. Bu qonunlar mulkdorlar uchun manfaatlidir.

Qizil Arslonning bu farmoni ruhoniylar va qozilarni zo'r tashvishga solib qo'ydi, chunki bu bilan hukumat ruhoniylarning daromadini qirqib qo'yardi.

Qizil Arslon tariqat va mazhab ishlariga doir chiqargan farmonida bunday degan edi:

"Qur'on"ni tariqat va mazhab, urf-odatlar quroli qilib olganlarni siyosiy aybdorlar qatori jazolash lozim. Tariqatlarning kengayishi uchun "Qur'on"dan dalil qidiruvchilarni islomning dushmani deb topiladi. Shia-sunniy janjallari ko'tarilgan vaqtlarda yangi jazo qonunlari tatbiq etiladi[1].

Minbarlardan turib mazhab va tariqatlar o'rtasidagi keskinlikni kuchaytiruvchi xatiblar hukumatning ichki dushmani hisoblanib qatl etilishi kerak, chunki islomning birligini buzish va mamlakatning osoyishtaligiga zarar yetkazish maqsadida xorijdan kelgan hamma maxfiy josuslar, fitnachilar mazhabga va tariqat mojarolariga suyanadilar va "Qur'on"dan o'z manfaatlari uchun rivoyatlar ham qidiradilar".

Lekin Qizil Arslon bu islohotni amalga oshirishda to'qqizinchi asrning birinchi yarmida xalifa Ma'mun duch kelgan qiyinchiliklarga uchradi va shuning uchun ham vaziri Shamsiddinga yuborgan maktubida bunday deb yozgan edi:

"Sharq mamlakatlarini madaniy bir mamlakat holiga keltirish uchun kuchli bir hokimiyatning mavjudligi kifoya qilmaydi. Mamlakatda baquvvat tadbirkor islohotchilarning bo'lishi ham kerak. Islohot masalalari faqat qurol kuchi bilangina hal qilinmasligi lozim. "Qur'on"ning hukumat qonunlari bilan birga yashay olmasligini xalqqa ilmiy yo'llar bilan tushuntirish kerak bo'ladi. Biz islohotni boshlab yuborganimizda har qadamda "Qur'on" bilan qarama-qarshi kelmoqdamiz.

Soliqlar, yer islohotini amalga oshirish, xun to'lash ishlarini bekor qilish masalalarini hal qilishda, ruhoniylarning jiddiy qarshiligiga duch keldik, chunki islohot ruhoniylarning zarariga bo'lib, ularning huquqini kamaytiradi. Xususan, davlat mahkamalari tuzil-

[1] Qizil Arslon Isfaxonda ro'y bergan shia-sunniy janjallarini qilich kuchi bilan bostirgan edi.

ishiga ular rozi bo'lolmaydilar, chunki bu bilan ular pora olishdan mahrum bo'ladilar.

Hozir ham Bag'dod va Hamadon ruhoniylari mening farmonlarimni qoralash uchun "Qur'on"dan qurol sifatida foydalanmoqdalar.

Bizning baxtsizligimiz ham shundaki, avom xalq hozirgi falokatlar din, "Qur'on" va tariqatlardan kelib chiqqanini bilmaydi. Shuning uchun ham ular bizning islohot ishlarimizga dinga qarshi bir isyon deb qaraydilar. Ruhoniylar bunga suyanib xalq orasiga qutqu solmoqdalar, hatto, qo'shin orasida ham shunday targ'ibotlarni kengaytirib yubormoqdalar".

Qizil Arslon islohotga kirishgan kundan boshlab butun shaharlardagi ruhoniylar, qozilar, Bag'dod xalifasiga ariza berib, bu islohot "Qur'on", xalifa va arablarning obro'yiga putur yetkazadi, deb jar soldilar.

Qizil Arslon bularga e'tibor bermadi. U "Qur'on"ning tarjimalarini yig'dirib olib, ularni bir-biriga taqqoslar va bu bilan islomiyatda tariqat va tushunmovchiliklarni "Qur'on"dan tarqalganligini isbot etishga harakat qilardi. Lekin Qizil Arslon muvaffaqiyat qozonolmadi, chunki ruhoniylardan biror kishi ham uning tomonida emas edi. Ularning hammasi bu islohotlar eng avval ruhoniylarga qarshi qo'yilganligini bilar edilar.

Xalq orasida bu islohotga ijobiy bir hodisa deb qarovchilar kam edi. Nodon odamlar bu ishlarga dinsizlikning boshlanishi deb qarar edilar.

Qizil Arslonning asosiy xatosi ham shoshilishi edi. O'zining islohotga doir fikrlarini tadrijiy ravishda amalga oshirish o'rniga ming yillik qonunlarni birdaniga bekor qilishni istar edi. U din bilan birga qabul qilingan odatlarni bir farmon bilan yo'qotib bo'lmasligini hisobga olmagan edi. U bu go'zal va yangi tashabbuslarni sekin-asta amalga oshirishni istaganida edi, balki bunga muvaffaq bo'la olardi.

Uning katta xatolaridan biri islohotni xalifa Ma'munning boshlagan yo'li bilan amalga oshirishni istaganligi edi. U eng avval "Qur'on"ni hozirgi davrga to'g'ri kelmasligi masalasini o'rtaga

tashladi. Bu fikra sosan to'g'ri edi, chunki butun xurofot haqiqatan ham "Qur'on"ga asoslanar va unda o'zi uchun yordam topardi. Lekin Qizil Arslon yashab turgan asrdagi avom me'dasi hech qachon bu pishmagan xom oshni hazm qila olmas edi. Qizil Arslon eng avval "Qur'on"ga suyangan ayrim bid'atlar va urf-odatlarga qarshi kurash olib borganida edi, u vaqt bir-biriga zid bo'lgan tariqat boshliqlarining ichidan o'ziga ko'makchilar topa olardi. Ish shu yo'l bilan borilganida "Qur'on" ham o'z-o'zidan, tadrijiy ravishda o'z mavqeyini yo'qotar edi, chunki "Qur'on" hech qachon bid'atsiz va xurofotsiz yashay olmagan.

"Qur'on"ning yashab kelishiga sabab shuki ulamolar unga turlicha ma'nolar berib, uni tushunib bo'lmaydigan bir shaklga solish bilan osmoni libos kiydirar edilar.

Islom ruhoniylari "Qur'on"ni bir tarix singari, yoxud bir xalqning turmush dostoni singari qabul qilinmasligini bilishar va madaniy bir xalqning hayoti uchun asosiy qonun bo'la olmasligi ham ravshan edi. Chunki "Qur'on" ibtidoiy xalqlar uchun muvaqqat bir qonunnomadan iborat edi.

Bunday ibtidoiy qonunning yashashi uchun uni tushunib bo'lmaydigan bir holga keltirish va shu bilan uni go'yo ma'no va mundarija jihatidan boyligini ko'rsatish kerak edi. Bid'at, xurofot va islomdagi tafriqa, tariqatlar, hatto, mazhablar kurashi ham shundan kelib chiqar edi.

Qizil Arslon bu masalada islohotni quyidan boshlab, asta-sekin xalqni o'z tomoniga tortganda balki maqsadiga erisha olardi. Lekin u daf'atan zarba bermoqchi bo'lib muvaffaqiyat qozonolmadi. Qizil Arslonning islohotiga qarshi chiqqan ruhoniylarning xalifaga yuborgan maktublarida: "Ozarbayjon Sharqqa dinsizlik tarqatmoqda", deb yozilmoqda edi.

Nihoyat, islohotchilarga kofir deb qaray boshladilar. Bundan Qizil Arslonning dushmanlari foydalana boshladilar. Ruhoniylar qo'shni mamlakatlarga qochib borib u yerda Qizil Arslonga qarshi siyosiy guruhlar tuzdilar. Qo'shni hukumatlar Otabeklar o'lkasining ishlariga aralashish uchun "din homiylariga" moddiy va ma'naviy yordamda bo'ldilar.

Qizil Arslonning islohotlariga qarshi diniy kitoblar yozildi. "Qur'on"dan hozirga qadar eshitilmagan rivoyat topildi, yangi tafsirlar yozildi.

Qizil Arslon boshlagan islohotning muvaffaqiyat qozona olmasligining asosiy sabablaridan biri hukumat idora usulining eskicha qolishidan iborat edi. Bobakning xatolaridan qat'i nazar uning tutgan yo'li eng to'g'ri yo'l ekanini ma'qullash kerak, chunki islom dini hukmron bo'lgan va mutloq idora usuli bilan boshqarilgan Sharq mamlakatlarining har birida islohot boshlashga to'g'ri kelganida, faqatgina Bobakning yo'li bilan muvaffaqiyat qozonish mumkin. Shubhasizki, Bobak din bilan mutloq idora usuli ajralmas bir aka-uka ekanligini aniqlagandan keyin ham din hamda hukumatga qarshi qurol ko'targan edi. Bobak juda yaxshi bilardiki, hukumatning eski idora usulini yo'qotmay turib, dinni yengish mumkin emas. Lekin Qizil Arslon qo'liga qilich olib o'z oyog'iga urishni istamas edi. U to'g'ri yo'l bilan borishni istaganida edi, davlat tuzumini ildizi bilan qo'porib tashlashi kerak edi. Buni to'qqizinchi asrning islohotchisi Ma'mun xalifa qila olmaganidek o'n ikkinchi asrning Qizil Arsloni ham bajara olmas edi.

Xalifa Nasiruliddinilloh Qizil Arslonning boshlagan islohotini beparvolik bilan qarshi ololmadi. U Qizil Arslonga shu mazmunda bir maktub yuborgan edi:

"Muhtaram hukmdor!

A'lo hazrat To'g'rul Ozarbayjon, Iroq, Fors va Rey mamlakatlari hukmdori deb tasdiqlangan. Bu mamlakatlarda har xil tashabbus va islohotlar o'tkazish uchun unga Amiralmo'minin huquq bergan.

Sizning Hamadon va Arab Iroqi chegaralariga qo'shin olib kelishingiz va boshlagan islohotingizni dinga va xalifaga qarshi boshlagan bir isyon deb tushunamiz. Bu xiyonatingiz natijasida siz Eldaniz xonadoni ega bo'lgan vorislik huquqidan mahrum bo'lishingiz mumkin. Hamadon va boshqa yerlarning qozixona ishlariga o'zgarish kiritish va o'zingiz xohlagan kishilaringizni qozilikka tayinlash sizning va hukumatning vazifasi emas. Bu harakatingizga ko'ra sizni islom dinidan chiqqan deb e'lon qilib, islom mam-

lakatlaridan chiqib ketib g'ayridinlar o'lkalarida yashashingizga buyruq beraman.

Hamadon a'yonlari va ruhoniylarning mol-u mulklarini musodara qilganligingizni eshitdim. Islom dini musulmonlarning halol molini musodara etilishiga yo'l qo'ymaydi. Bu maktubni olishingiz bilanoq mo'min-musulmonlarning mollarini o'zlariga qaytarib berishingiz lozim.

Buyruq beraman: Hibsga olinganlar ozod etilsin, surgun qilinganlar vatanlariga qaytarilsin!

O'z diniga, o'z vataniga, o'z podshohlariga sodiq bo'lganlari uchun siz tomondan dorga osilganlarning xunlarini vorislariga to'lashingiz kerak. Xazina ishlariga aralashish baytulmolga qarshi bir xiyonatdir. Xalifa xazinani muhofaza qilish ishlarini eng odil, mo'min odamlarga, ya'ni mamlakatning podshohiga topshirgan. Podshoh xalifaning, xalifa esa payg'ambarning va yagona Allohning soyasidir. Bu maktubni olgandan so'ng bir hafta ichida o'zingizning qo'shinlaringizni podshohga topshirib, islom mamlakatlaridan chiqib ketishingiz kerak. Bu farmonni bajarmasangiz, Bag'dod qo'shinlarini Hamadon ustiga yuborib seni va tarafdorlaringni hibsga oldiraman va bir din dushmani sifatida qatl ettiraman.

Xalifa Nasiruliddinilloh, Bag'dod, 10 Sha'bon".

Xalifaning maktubini o'n kishidan iborat vakillar hay'ati olib kelgan edi. Qizil Arslon maktubni o'qib bo'lib yerga qo'yganidan so'ng Faxriddinga murojaat qilib dedi:

— Mening bilishimcha, bu mojaroda To'g'rulning ishtiroki yo'q. Bunda din ulamolari, Qatiba va mamlakatni bo'lib olish niyatida bo'lgan ajnabiy hukumat namoyandalarining qo'li borligi ehtimoldan uzoq emas. Xalifa bu qabih maktubni yubormaganida edi, balki men Bag'dodni ishg'ol qilish fikridan voz kechgan bo'lardim. Lekin bu maktub e'tiborsiz qoldirilsa xalifaning surbetligi oshib ketishi mumkin, endi xalifaga o'z mavqeyini ko'rsatib qo'yay. Hozircha u o'z davrining o'tganini bilmaydi. U bilmaydiki, men har kuni xalifani to'rt marta amalidan tushirib o'rniga boshqasini tayinlay olaman. Uning maktubiga javob berishga shoshilmaslik, biroz o'ylab ish qilish kerak, hozir maktub keltirgan vakillarga tantanali

bir ziyofat beraylik. Hamadon va Nohiyalarda turgan qo'shinlarni ko'rikdan o'tkazish kerak, mamlakatning qurolli kuchlari naqadar qudratli ekanini ko'rib qo'ysinlar.

Qizil Arslonning buyrug'i bilan shahar tashqarisidagi Otabek bog'ida tantanali bir ziyofat tashkil etildi. Xalifaning maktubini olib kelgan vakillarni ziyofatga taklif qilish uchun Faxriddin boshchiligida Ozarbayjon qo'shinlaridan bir qismi ajratilgan edi. Hamadondan Otabek bog'iga qadar boradigan yo'lning har ikki tarafida Ozarbayjon qo'shinlari saf tortib turar edilar.

Vakillar temir va po'lat aslaha bilan qurollangan jonli devor orasidan o'tib, Otabek bog'iga bormoqda edilar. Ular umrlarida birinchi martaba bunday muntazam qo'shinlarni ko'rishlari edi. Bu lashkarni ko'rganda bir-birovlarining quloqlariga shivirlashib: "Bu qo'shin xalifaning poytaxtini qisqa bir muddat ichida ishg'ol qila oladi, hoynahoy xalifaning bundan xabari bo'lmasa kerak", der edilar.

Ziyofatdan so'ng, ertasi kuni vakillarni sayr qilishga olib chiqib Midiya davridan qolgan osori atiqalarni va hukumat binolarini ko'rsatdilar. Uchinchi kun ularning hammasiga qimmatbaho in'omlar berib Bag'dodga kuzatib qo'ydilar.

Qizil Arslonning elchilari Bag'dodga yaqinlashganda ularni Iroqning hisobsiz otliq askarlari kutib oldilar. Elchilar Xuld qasriga yetib kelganlarida u yerda po'lat sovut kiygan qo'shin turganini ko'rdilar.

Xalifa Qizil Arslon tomonidan yuborilgan elchilarga o'z kuchi va qudratini namoyish qilishni istardi.

Elchilar Xuld qasrining darvozasidan o'tib, oq marmar zinapoyalardan yuqoriga ko'tarildilar, darvozabon ilgariroq borib hojibni ogohlantirdi. Biroz o'tgach hojib chiqib, elchilarni qarshi oldi. Oldinda Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin, uning ketidan hamma elchilar qasrga kirib bordilar. Elchilar kirgan birinchi dahlizning sahniga tilla bilan bir-biriga payvand qilingan qizil marmar yotqizilgan edi.

Dahlizning to'rida bo'yinlariga tilla zanjir bog'langan uchta dahshatli itga ko'zlari tushdi. Itlarning har birini uchta zanji qul ushlab turardilar.

Elchilar itlarning yonidan o'tib, bir dahlizga kirdilar, bir necha pog'ona yuqori chiqib o'zlarini sakkiz eshikli xonada — hashtiyada ko'rdilar. Hashtiyaning to'rt tomonida saf tortib turgan g'ulomlar o'rinlaridan turib elchilarga ta'zim qildilar. Hashtiyadan katta bir mehmonxonaga kirildi. Mehmonxonaga eng nafis va noyob gilamlar to'shalgan. Gilamlarning ustiga yo'lbars, sher, qoplon va boshqa yirtqich hayvonlarning terilari tashlangan edi.

Elchilar bu mehmonxonada bir necha daqiqa turib uning devorlariga yozilgan g'azallarni va shiftdagi naqshlarni tomosha qildilar. Xalifaning shaxsiy mulozimi — hojib kelib katta zardo'zi pardani bir qo'li bilan ochdi. Bosh egib: "Buyuring!"— dedi.

Elchilar bir katta ayvonga kirdilar. Ayvonning devorlariga tilla suvi bilan o'rmon va dengiz hayvonlarining suratlari solingan. Suratlarning orasiga ibratli g'azallar yozilgan.

Ayvonning sahniga sariq ipak gilam to'shalgan. Gilamning sirtidagi naqshlar, qushlar, baliqlar va hayvonlarning shakllari ipak va zar bilan tikilgan edi. Ular gilamlarning ustida yurib borarkanlar, o'zlarini xiyobonlar, oqar soylar va buloqlar oralab borayotgandek his etar edilar. Ayvonning shifti uch katta gumbazdan iborat bo'lib, bularning har biri besh ustunga qo'ndirilgan edi.

Ayvonning o'rtasiga Xitoy ipagidan bir parda tutilgan edi. Parda oldiga juda ham nodir kursilar qator qilib qo'yilgan. Kimlar o'tirishi kerakligi kursilarning orqasiga yozilgan. A'yonlar, elchilar uchun alohida kursilar qo'yilgan edi. Yoniga bolish qo'yilgan kursilar esa amir va sarkardalarning o'rinlari edi.

Parda oldidagi kursilarda o'tirgan bir necha amirva sarkardalar suhbat qilmoqda edilar, Ozarbayjon elchilari kirib kelib ko'rsatilgan kursilarga o'tirdilar. Amir, sarkardalar esa ularga ahamiyat bermasdan o'z suhbatlarini davom ettira berdilar. Elchilar xalifaning qabul vaqtini intizorlik bilan kutardilar. Nihoyat, hojib pardani ko'tarib, Qizil Arslon elchilarini xalifaning huzuriga taklif qildi.

Xalifa yumshoq bolishlar qo'yilgan ziynatli bir taxt ustida chordana qurib o'tirardi. Taxtning ikki tomonida xalifaning ikki sevimli kanizi tik turib yelpir, bularning orqasida esa, yelkalarida qilich tutgan ikki soqchi askar turar edi.

Xalifa odati bo'yicha elchilarni qabul qilish vaqtlarida maxsus kiyim kiyardi. Boshida juda nafis, atrofiga qunduz tikilgan yashil rangli shoyi telpak, uning peshonasiga qadalgan gavhar, yoqut va injular porlab turardi. Xalifaga qaragan kishiga, uning boshida bir tovus qushi o'tirgandek tuyular edi. Ustiga qora abo kiygan, lekin qarashlari haddan tashqari qahrli bo'lib, afti angorini ko'rgan kishi o'lim jazosini berish haqida o'ylayotir, deb gumon qilar edi.

Elchilarning boshlig'i Shamsiddin bosh egdi.

— Xalifayi ro'yi zamin va Amiralmo'mininratlariga assalom alaykum!

Xalifa esa:

— Vaalaykum assalom. Sizga Alloh taoloning rahmati yog'sin,— deb javob berdi, keyin o'tirish uchun ruxsat qildi. Elchilar yana bosh egib o'tirdilar. Shamsiddin yana o'rnidan turib bosh egdi va Qizil Arslonning maktubini xalifaga taqdim etdi:

"Ozarbayjon hukmdori, Eldaniz Shamsiddinning o'g'li Qizil Arslon tomonidan xalifayi ro'yi zamin Nasiruliddinilloh hazratlariga yetib ma'lum bo'lg'ayki, xalifa hazratlarining maktublarini olib mazmuni bilan tanishib chiqdim. Arz qilamanki, na To'g'rul, na Otabek Muhammad va na bizning otamiz Shamsiddin Eldanizni saltanat boshiga xalifalar qo'ygan emaslar. Eldanizni avlodining o'z qilichlari va bugunga qadar yashab kelayotgan Ozarbayjon xalqining qahramonligi ularni davlat boshiga o'tqazdi. Shuning uchun biz qo'limizda bo'lgan mamlakatimizni xohlaganimizcha idora qilish quvvatiga egamiz. Biz Ozarbayjon xalqining turmushi nimani talab qilsa, uni bajo keltirish uchun hech kimdan ruxsat so'ramaymiz.

Xalifadan ruxsatsiz Hamadonga qo'shinlarimni keltirishim esa Ozarbayjon xalqining talabidir. Ozarbayjonliklar hech qachon o'z tarixiy poytaxtlarini To'g'rulning besh-o'n kishidan iborat ajnabiy davlat namoyandalari qo'lida qo'g'irchoq bo'lishiga sovuqqonlik bilan qaray olmaydi. Qo'shinlar Ozarbayjonning tarixiy va milliy chegaralarini qo'riqlash maqsadida Oron va Ko'r soylarini kechib o'tib kelganlar. Siz maktubingizda mening hukmronlik huquqimdan mahrum etilganligimni yozibsiz. Lekin xalifa hazratlari bilish-

lari kerakki, hukmdorlikni ul kishining qo'llaridan olganim yo'q. Xalqimning irodasi va o'z aql-idrokim tufayli hukmdor bo'ldim. Bugun farmon bergudek bo'lsam, xalifa hazratlari buyuk bir mamlakatning xalqini ot ustida ko'radi. Hozir ham orqamda yuz mingdan ortiq bahodir qo'shin turibdi.

Agar men istasam bugun Sharqda yangi bir xilofat ta'sis etib, o'zim xohlagan biror kishini xalifa tayin qila olaman.

Hamadon qozisini surgun qilishga haqliman, chunki bir mamlakatda ikki podsho bo'lmaydi. Men Eldaniz avlodi hukm surib turgan mamlakatda qozilar va ruhoniylarning ikkinchi bir hukumat tashkil etishiga, hukumat ishlariga aralashishlariga yo'l qo'ymayman. Mening siyosatim shunday. Mamlakatning, xalqning taqdiriga men javobgarman. Biz hukumat ishlari bilan, qozilar, din ulamolari esa masjid-madrasalarning ishlari bilan mashg'ul bo'lishlari lozim.

Xalifa hazratlari o'z maktublarida, meni dindan chiqqan deb e'lon qilib, islom bo'lmagan mamlakatlarga ketishimga farmon berganlar. Bunga javoban Amiralmo'minin hazratlariga yozyapman: islom bo'lmagan, islom dinini toptayotgan, dinni o'z manfaati uchun qurol qilib olgan, islom dinida bo'lgan xalqning izzat-nomusiga tajovuz qilgan bir mamlakatni axtaradigan bo'lsam, o'shanda yana xalifa hazratlari o'tirgan Bag'dod shahrini tanlashga majbur bo'laman, chunki islom dinidagi mamlakatlarni halokatga sudrayotgan maraz xalifa poytaxtidan tarqalayotganini aniqlaganman.

Xalifa hazratlari Hamadonning din ulamolaridan musodara qilingan mollarni egalariga qaytarib berilishiga buyruq bergan, go'yo islom dini musulmonlarning molini musodara qilinishiga hech qachon ruxsat bermagandek, Amiralmo'minni hazratlari axborotiga shu narsani yetkazishni istardimki, men ulardan musodara qilganim mollar, ularning musulmon xalqidan talab olgan va har turli hiylalar bilan qo'lga kiritgan mollaridir. Millionlarcha musulmonlarning mol-u mulkini besh-oltitagina ruhoniyning cho'ntagida to'planishi insofdanmi? Agar xalifa hazratlari talonchilarni himoya qiladigan bo'lsa, unda xalifaning bizni kofir deyishiga hech ham haqqi yo'q!

Qatl qilingan odamlarning xunlarini to'la, deb farmon beribsiz. Xalqni talaganlarni, mamlakatni ajnabiylarga sotganlarni mahv etish asosiy vazifamdir. Bunday odamlar, ularni himoya qilayotgan xalifaning poytaxtiga qochgan va Amiralmo'minin taxti ostiga berkingan taqdirda ham, shaxsan o'zim Bag'dodga borib, ularni dorga ostiraman. Shuning uchun ham men Amiralmo'minin hazratlaridan iltimos qilaman, To'g'rulning jinoyatkor vaziri Miftohiddinni, xazinachi Abdulloni va boshqa yana o'n sakkizta mamlakat xoinlarini tezlik bilan Hamadonga jo'natib yuboringiz. Aks holda men o'z qo'shinlarim bilan Bag'dodga kirib ularni Xuld qasrining oldidagi dorga ostiraman.

Mening xazina ishlariga aralashganligimni baytulmolga qarshi bir xiyonat deb hisoblamoqdasiz. Men o'ylaymanki, baytulmolga xiyonat qilish va isrofgarchilik yana o'sha xalifaning markazida avjiga chiqqan.

Alovuddavlaning Bag'dodga kirib xalifa Tobibullohni isrofgarchilikda ayblab kaltaklatganini xalifa hazratlari esdan chiqarmasligi kerak edi. Agar bugun Qizil Arslon ham Bag'dodga kirib baytulmolni ko'zdan kechiradigan bo'lsa, xalifa Nasiruliddinilloh ham o'zini qamchi ostida ko'rar edi.

Amiralmo'minin hazratlari "Podshohga berilgan huquq daxlsiz" deb, yozadilar, lekin xalqning huquqini va xalqning izzat-nomusining daxlsizligini tilga olmaydilar.

Xalifa "Podshoh xalifaning, xalifa esa payg'ambar Allohning himoyasida" deb yozadilar, unday bo'lsa, mamlakat xalqi va mamlakatning o'zi kimning himoyasida?

Shuning bilan birga xalifaga ma'lum qilamanki, mening katta qo'shin bilan Hamadon shahriga kelishimdan maqsadim qardoshim To'g'rulning saltanatini qo'lidan tortib olish emas, aksincha, men uning saltanatini xorijiy dushmanlardan himoya qilish va uning atrofidagi xiyonatkorlarni yo'qotish va uni bir mustaqil hukmdor holiga keltirish edi.

Xalifa hazratlari maktubning oxirida, bir haftaning ichida o'z qo'shinlaringni mamlakat podshohiga topshirib poytaxtni tashlab chiqib ketmasang Bag'doddan qo'shin yuborib seni va tarafdorlaringni hibsga oldirishga majburman, deb yozibdilar.

Bu to'g'rida xalifa hazratlarini ishontirib aytamanki, Bag'dod qo'shinlarini Hamadonga yuborishning hojati yo'q, chunki men o'zim qo'shinlarim bilan Bag'dodga boraman. U yerda xalifa bilan mamlakatimizga oid ba'zi masalalarni hal etamiz. Bundan tashqari vatan xoinlarini tutib jazolattiraman.

Qizil Arslon".

Xalifa maktubni o'qiganidan so'ng, hojibni yoniga chaqirib amr qildi:

— Qizil Arslon tomonidan maktub keltirgan elchilarni hibsga oling.

Elchilar bu so'zni eshitib o'rinlaridan turdilar. Shamsiddin xalifaga bosh egib:

— Qizil Arslon xalifa hazratlarining maktubini olib borgan elchilarga to'nlar va qimmatbaho sovg'alar berib jo'natgan edi, — dedi va hojibning oldiga tushib xalifaning huzuridan chiqib ketdi, sheriklari unga ergashdilar.

Elchilar chiqib ketganidan so'ng xalifa amir va sarkardalarini chaqirib buyruq berdi:

— Hamadon ustiga yurish kerak. Qo'shinni zudlik bilan safarga chiqishiga buyruq beraman.

Xalifa bu farmon bilan go'yo g'alabani ta'min etdim deb o'ylardi, chunki iroqliklar, reyliklar va Xorazm shohlar Qizil Arslonga qarshi bosh ko'tarish uchun xalifaga so'z bergan edilar.

DAJLA SOHILIDA

Qizil Arslon, yuborgan elchilarning xalifani huzuridan qaytishini kutmadi. Chunki elchilarning musbat bir natija bilan qaytmasliklarini avvaldan bilar edi. U birinchi navbatda mamlakatning chegaralarini mustahkamladi. Hatto, mamlakatning shimolida bo'lgan Shirvon chegaralarini mustahkamlash uchun ham Oron hokimiga aniq qo'rsatmalar yubordi. Hamma vaqt mamlakatda biror hodisa ro'y bergan paytlarda Shirvon chegaralarida notinchlik yuz berardi.

Ramazon oyi o'tganidan so'ng qo'shin Hamadondan to'g'ri Bag'dodga yo'l oldi. Yo'quba, Shahribon, Qizil Rabot shaharlarida

bo'lib o'tgan kichik janglarni hisobga olmaganda, Ozarbayjon otliqlari o'zlarining harakatlarini bir kun ham to'xtatmadilar. Ozarbayjon qo'shinlari Musayiba shahridan chiqib Frot sohillarida xalifaning asosiy qo'shini bilan to'qnashdilar. Arab va iroqliklardan tuzilgan bu temir sovutli lashkar to'rt kun mobaynida Ozarbayjon qo'shinlarining yo'lini to'sib ilgariga harakat qilishiga imkon bermadi. Ularga na qilich va na nayza ta'sir qilardi. Nihoyat, beshinchi kuni Faxriddin boshchiligidagi Shimoliy Ozarbayjon qo'shinlari yetib keldi. Temir sovutli qo'shinga qarshi jang qilayotgan ozarbayjonliklar og'ir va uzun amudlar[1] bilan qurollangan edilar.

Jang kun chiqmasdan boshlandi. Amud jangi xuddi minglarcha qo'chqorlarning kallalarini bir-biriga gursillatib urishlarini eslatardi.

Taraqa-turuq ichida arab va iroqliklarning ingrashlari ham eshitilib qolar, qilich va nayzalarsir qilmaydigan temir sovut, po'lat qalqonlar amud zarbasi ostida pachaqlanib badanlarga botar edi. Besh soat davom etgan jang natijasida Bag'dod qo'shinining katta bir qismi yanchib tashlandi. Tirik qolganlari qocha boshladilar. Ular Frot ustiga qurilgan ko'prikning narigi tomoniga o'tib olishga harakat qilar edilar. Lekin ko'prikni ilgariroq Ozarbayjon qo'shini buzib tashlagan edi. Bag'dod qo'shini o'zini Frot soyiga tashlab jonini qutqarishga shoshilar, og'ir temir sovutlari bilan suvdan suzib o'tolmay Frot daryosiga cho'kib ketardi.

Ozarbayjon qo'shini ikki kun Musayibada dam olib, Bag'dod ustiga yurish boshladi.

Ozarbayjon qo'shinlari Musul tomonidan hujum qilayotgan ikkinchi qo'shin bilan birlashib Bag'dodga yurish qilgan vaqtlarida Dujjayl shahari bo'sag'asida xalifaning asosiy kuchlari bilan to'qnashdilar. Turklardan tashkil etilgan janglarda sinalgan bu qo'shinning asosiy maqsadi Ozarbayjon qo'shinlarini Bag'dodning sharqidagi xarobalargacha o'tkazib yuborib Dujjayl atrofidagi keng sahroda tor-mor etib yuborishdan iborat edi.

---

[1] **Amud** — temir gurzilar. Amud og'ir bo'lganidan uni eng baquvvat pahlavonlargina ko'tarib yura olganlar.

Shuningdek, xalifa qo'shin sarkardalariga avvalo Somiriya shahari oldidagi Dajla ko'prigini buzib tashlash va Qizil Arslon qo'shinlarining yo'lini to'sib qo'yishni buyurgan edi. Dajla soyining ustiga qurilgan Somiriya ko'prigini qo'lga kiritish uchun boshlangan qonli janglar ikki kun davom etdi.

Bag'dod qo'shinlari ko'prikni mudofaa qilish bilan mashg'ul bo'lganlarida, Ozarbayjon otliqlari dushmanning janub tomonidan chetlab o'tib otlarini to'ppa-to'g'ri Qozimayn shaharchasiga surdilar.

Bag'dod qo'shini Qozimayn bilan Bag'dod o'rtasidagi kichkina va tor bir joyda qisilib qoldi. Jang dahshatli bir vaziyat olgan edi. Iroqliklar va turklardan iborat bo'lgan xalifaning qo'shinlari Ozarbayjon qo'shinlarini shaharga kiritmaslik uchun o'lgan-tirilganlariga qaramay jang olib bordilar.

To'rtinchi kun xalifaning qo'shinlari shaharning g'arbiy tomonini ozarbayjonliklarga bo'shatib berib, Dajla daryosining sharq tomoniga chekindi. Somiriyadan Dajlaning sharqiy sohillari bo'ylab sur'at bilan ilgari yurayotgan qo'shin Bag'dodga chekinayotgan xalifa qo'shinlarining ko'priklarni buzib ketishlariga fursat bermadi.

Rasofa jomenning so'fisi shom namozi uchun azon ayta boshlaganida Ozarbayjon lashkarining ot tuyoqlari Bag'dod ko'chalarining toshlari ustidan uchqunlar sachratar edi.

Shom azoni tugab qorong'ilik tushganida ellik mingdan iborat Ozarbayjon qo'shinlarining otlari tumshuqlarini Dajlaga tiqib suv ichardi.

Bag'dod olinganidan so'ng besh kun o'tgach, xalifa qo'shinlarini qurolsizlantirish ishi tugadi. Xalifaning qo'shinlaridan qo'lga tushirilgan o'ljalar: yigirma ming ot, qirq ming tuya, o'n ming chodir, juda ko'p yarog'-aslaha va hokazolar Ozarbayjonga jo'natila boshladi. Xalifa Qizil Arslonning Bag'dodga kelayotganini eshitgan kuni uni kutib olish uchun bir guruh vakillarini Yo'quba shahariga jo'natdi. Qizil Arslon esa Yo'quba shahriga kelishi bilan uni qarshi olgan namoyandalarning boshlig'iga bunday dedi:

— Bu sayohatdan maqsadim Dajla daryosini sayr qilish va Karbalo Husaynning, Kufada esa Alining maqbarasini ziyorat qi-

lish. Qaytishimda balki Madoyin xarobalarini ham tomosha qilish uchun Bag'dodga kirarman. Xalifaning issiq kutib olganidan juda ham mamnun bo'ldim.

Qizil Arslon Iroqdagi maqbaralarni ziyorat qilganidan so'ng Bag'dodga kelib, qadimiy Bag'dodning G'arb tomonidagi maydonga qurilgan chodiriga qo'ndi. Bag'dod xalqi g'olib hukmdorni ko'rish ishtiyoqida butun vaqtlarini Dajla bo'ylarida o'tkazar edi.

Xalifa ikki martaba o'z odamlarini yuborib, Qizil Arslonni Xuld qasriga ko'chib o'tishini iltimos qildi.

Qizil Arslon bu safar xalifaga bergan javobida:"Xalifaning poytaxtiga bir dushman sifatida kirishim xalifaning shaxsiga hurmatsizlikdir. Men Bag'dodga faqat sulh shartnomalari qabul qilinganidan keyin kirib, bir do'st singari xalifayi ro'yi zaminning qo'lini o'paman", degan edi.

Qizil Arslonning bu javobidan so'ng xalifa o'zining namoyandalarini yuborib Qizil Arslonning qanday shartlar bilan sulh tuzishini so'ratdi.

Vazir Shamsiddin Qizil Arslonning sulh haqidagi takliflarini yozma suratda xalifaning namoyandalariga taqdim etarkan, dedi:

— Bu takliflar shuning uchun ham yozma suratda berilmoqdaki, xalifa hazratlari tomonidan takliflarga hech narsa qo'shish, olib tashlash va o'zgartirish mumkin emas. Bu takliflar qabul qilinmagan taqdirda xalifa Bag'doddan Hamadonga ko'chiriladi.

Namoyandalar sulh takliflarini xalifaga olib bordilar. Bir kun o'tgandan so'ng xalifa tomonidan imzo chekilgan sulh shartnomasini olib kelib Qizil Arslonga topshirdilar.

Sulh shartnomasi quyidagidan iborat edi:

"Birinchi. Xalifa Ozarbayjon qo'shinlarining xarajatlarini baytulmoldan emas, o'z shaxsiy mablag'idan to'lashi kerak. Xarajatlarni aniqlash uchun xalifa bilan Qizil Arslonning odamlaridan iborat bir taftish hay'ati tuzilishi lozim.

Ikkinchi. Xalifaning qo'shinlari bilan bo'lgan janglarda o'ldirilgan ozarbayjonliklarning oilalari ta'min etilishi kerak. Olinadigan mablag'lar miqdorini Qizil Arslonning harbiy namoyandalari tayinlaydi.

Uchinchi. Xalifa saroyni qo'riqlash va shaharda tartib saqlash uchun besh mingdan ortiq bo'lmaslik sharti bilan qo'shin saqlashi mumkin. Mabodo, biror mamlakat tarafidan xalifaga tahdid tug'ilib qolsa Ozarbayjon hukmdori uni bor kuchi bilan mudofaa qilishni o'z ustiga oladi.

To'rtinchi. Xalifa Ozarbayjon mamlakatini har qanday soliqlardan ozod etadi.

Beshinchi. Ajnabiy davlatlar hujumidan xalifalikni himoya etish uchun xalifa har yil Qizil Arslonga ikki yuz ming dinor to'lab turishni zimmasiga oladi.

Oltinchi. Xalifa Otabek mamlakatlariga qozilar, xatiblar va boshqa din namoyandalarini yuborish huquqidan mahrum etiladi.

Yettinchi. Xalifa qo'shinlarining Ozarbayjon mamlakatlariga qilgan hujumlari natijasida Bag'dodga olib ketilgan osori atiqa va tarixiy kitoblar Ozarbayjonga qaytarilib berilishi kerak.

Sakkizinchi. Keyingi oylarda Bag'doddan surgun qilingan ozarbayjonliklar uy-joylariga qaytarilishi va ko'rgan zararlari to'lanishi lozim.

To'qqizinchi. Xalifa mamlakatlarida yashab turgan ozarbayjonliklar yerli xalqlar bilan teng huquqli bo'lishlari ta'min etilishi lozim.

O'ninchi. Ozarbayjonda asrlar bo'yi bani Abbos shahzodalari, qo'shin sarkardalari, amirlar va hokimlarning qo'l ostida bo'lgan yer-suvlar, mol-u mulklar Ozarbayjon xalqiga tamomila qaytarilishi kerak. Bu moddaga arab istilosi davridan buyon vorislardan vorislarga o'tib kelayotgan arab yerlari, qishloqlar va boshqalar ham kiradi.

O'n birinchi. Xalifa boshqa mamlakatlarning ishlariga aralashgani singari — Ozarbayjon hukumat ishlariga aralashmasligi kerak.

O'n ikkinchi. Ozarbayjonda joriy etiladigan har qanday qonun Ozarbayjon hukumatining o'ziga oid masala bo'lishi kerak.

O'n uchinchi. Xalifa shimoliy Ozarbayjon hukumatiga qarshi tashviqot ishlarini to'xtatib, xufiyalarini chaqirib olishi shart.

O'n to'rtinchi. Shirvon shohlari bilan Ozarbayjon o'rtasida nizo chiqqudek bo'lsa xalifa betaraf qolishi kerak.

O‘n beshinchi. Xalifa, Ozarbayjondan qochib Bag‘dodga kelib yashayotgan o‘n sakkizta xiyonatchini tezlik bilan hibsga olib, Qizil Arslonga topshirishi kerak.

O‘n oltinchi. Turli hodisalar bilan Bag‘dodga asir va hadya qilib yuborilgan erkaklar va xotin-qizlar bitta ham qoldirmasdan Ozarbayjonga qaytarilishi kerak.

O‘n yettinchi. Bularning evaziga xalifaning nomiga xutbalarda o‘qittirishni va xalifaning nomiga mavqeyini ko‘tarishni Qizil Arslon o‘z zimmasiga oladi.

O‘n sakkizinchi. Bu shartnomaga To‘g‘rul bilan xalifa imzo chekishi kerak”.

Shartnomaga imzo chekishi uchun uni Hamadon shahriga jo‘natdilar. Qizil Arslonning farmoni bilan xalifa yashab turgan Xuld qasrining oldida o‘n sakkizta dor qurildi. Qizil Arslonning huzuridan qochib xalifaning panohiga kelgan o‘n sakkiz xiyonatchi va fitnachilar dorga tortildilar.

Go‘yo bugun xalifalar poytaxti Bag‘dod o‘zining asriy uyqusidan uyg‘ongandek edi. Keyingi hodisalar xalifaning tushkunlikka uchragani va zaiflashganligidan dalolat berardi. Endi Xuld qasrining qarshisida qurilgan dorlarni ko‘rayotgan Bag‘dod o‘z o‘tmishiga motam tuta boshladi. Hokim arablarning mahkum qilinganlar tomonidan dorga tortilishi Bag‘dodning arab aholisi yuragiga unutilmas bir dog‘ soldi. Xuld qasri atrofidagi ko‘chalarga minglab odamlar to‘lib ketgan edi. Lekin Ozarbayjon qo‘shini hamma tomonlarini o‘rab olib maydonga hech kimni qo‘ymadi. Qariyalar xalifa Mansur va Xorun ar Rashid saroylari qarshisida tiz cho‘kib yig‘lashib: “Yo Ollo, qaytar bizning eski davrimizni!” der edilar. Lekin qasrlarning birortasidan ham bu sadolarga javob yo‘q edi. Arab xalifaligining dunyoni o‘z ta’siriga olgan qudrati, Abbos xalifalarning shuhrati go‘zal joriyalar, asiralar bilan o‘tkazilgan aysh-u ishrat va kayfu safo tunlarning nash’ali quchog‘ida yo‘q bo‘lib ketgan edi.

Qizil Arslonning oliy farmoni bilan xiyonatchilar dorga osilayotgan paytda minglarcha Ozarbayjon otliqlari bab-baravar qilichlarini qinidan chiqardi. Xalifa qasridagilar boshlariga tushgan bu falokatning mudhish manzarasini ko‘rmaslik uchun qasr

derazalarining shoyi pardalarini tushirdilar. Xalifalar davrining so'nggi sahifalari yopilgan shu kunlarda Qizil Arslon xalifadan kichik bir maktub oldi:

"Hukmdordan iltimos qilaman, jinoyatchilarning murdalari dor yog'ochida uzoq osilib turmasa. Bu manzara uy ichidagilarga yomon ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, Bag'dod aholisining ko'z oldida murdalarning kun sayin dorda osilib turishi arab taassubining yana bir martaba jo'shib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Xalqning bunday kayfiyati bizning do'stlik aloqalarimizga yana xalal keltirishi mumkin. Iltimos qilaman, tezroq chora ko'ring".

Qizil Arslon xalifaning maktubini olishi bilan dor yog'ochlarini olib tashlashga buyruq berdi. Xuld qasrining deraza pardalari ham shu kuni ko'tarildi.

To'g'rul imzo chekkan shartnoma Hamadondan keltirildi. Qizil Arslon bilan xalifaning yordamchilari shartnomani amalga oshirish yuzasidan ko'riladigan choralar haqida uch kun muzokara olib borib, bir bitimga keldilar. Qizil Arslon xalifadan yana bir maktub oldi.

"Hukmdor, bizni sarafroz etish uchun shaharga tashrif buyuring. Amin qasri hukmdor uchun tayyorlangan".

Qizil Arslon bu maktubni olganidan keyin bir kun o'tgach, dabdaba bilan Bag'dodga kelib Amin qasriga tushdi. Xuddi shu kunlarda Qizil Arslon Nizomiy bilan Xohoniyning Hijoz va Iroh sayohatidan haytib Bag'dodga kelayotganlarini eshitdi. Bu xabar Qizil Arslon uchun ikkinchi bir g'alabadek tuyuldi.

MADOYIN XAROBALARIDA

Buyuk shoirlarni tantana bilan kutib olish to'g'risida Qizil Arslon maxsus farmon chiqargan edi. Faxriddin bu farmonni olishi bilanoq, Ozarbayjon otliqlaridan yuz kishini olib Sar-sar manziliga jo'nadi.

Shoirlarni zo'r ehtirom bilan kutib olib, Bag'doddagi Qizil Arslon istiqomat qilib turgan Amin qasriga tushirdilar. Saroyda shoirlarning sharafiga katta ziyofat berildi, ziyofatda Qizil Arslon,

vazirlari, qo'shin sarkardalari va Bag'dodda bo'lgan ozarbayjonliklar ishtirok etdilar.

Ertasiga shoirlar Qizil Arslon bilan birga qadimiy yodgorliklar, kutubxonalar va xalifaning qasrlarini tomosha qildilar. Oradan o'n bir kun o'tgach, Qizil Arslon bilan shoirlar xalifaning kemasiga tushib Kisro qasriga, Madoyin xarobalarini ko'rish uchun yo'lga chiqdilar. Qizil Arslon Kisro qasrini diqqat bilan kuzatar ekan, uh tortib qo'ygan Nizomiyga o'girildi va bu she'rni o'qidi:

G'azoyi xayri amal bin ki ro'zg'or hanuz
Xarob namekunad borgohi Kisroro[1].

Qizil Arslon she'rdan so'ng ilova qilib dedi:

— Men arab xalqiga dushman emasman. Lekin ularning boshqa xalqlarning madaniyatlariga yetkazgan zararlari menda shu xalqning rahbarlariga qarshi so'nmas bir nafrat qo'zg'atgan. Ular o'zga xalqlarning madaniyatini barbod etib, evaziga esa ularga din va mazhablar taqdim qildilar.

Nizomiy kulimsirab dedi:

— Ularning din va mazhabdan boshqa nimalari ham bor edi?

Qizil Arslon bilan Nizomiy suhbat bilan ovora bo'lib Xoqoniyni yo'qotib qo'ydilar. Ular Madoyin qasriga qaytib kelganlarida o'sha yerda Xoqoniyni uchratdilar. U qalamdonini qasrning siniq g'ishtlari ustiga qo'yib, Madoyin xarobalarini diqqat bilan ko'zdan kechirar va o'ylar edi.

Nizomiy Qizil Arslonni to'xtatib:

— To'xtang hukmdor! U kishiga xalaqit bermaylik, shoir yozarkan uning fikrlari boshqa olamda kezadi. Shunday paytlarda shoirga yaqinlashish bilan uning ilhomlarini qochirib yuborishimiz mumkin.

Ular orqalariga qaytib yana keza boshladilar. Xoqoniy esa o'tirgan yerida har bitta toshga, qadimiy hukmdorlarga asrdosh bo'lgan xarobalarga tikilardi. U bir soatdan mo'lroq o'tirdi, yozgan she'rini bir necha martaba tuzatdi. O'rnidan turib to'nining

[1] Dunyoda yaxshi ishning mukofoti o'laroq hozirgacha ro'zg'or Kisroning qasrlarini xarob qilmaydi.

etaklarini ko'hna qasrning changlaridan tozalab turganida Qizil Arslonning xizmatchisi kelib uni chaqirdi. Tushlik payti edi. Qizil Arslon uchun Madoyin xarobalarida nonushta tayyorlagan edilar. Nonushta qilib bo'lib, yana bir martaba Madoyin xarobalarini aylandilar, so'ngra Bag'dodga qaytish uchun kemaga o'tirdilar.

Kema yo'lga chiqqan paytda Nizomiy Xoqoniyga murojaat qilib dedi:

— Afzaliddin, yozayotgan narsangni tamomladingmi?

— Balli, tamomladim.

— O'qib bera olasanmi?

Qizil Arslon ham qiziqdi va:

— So'rayman. O'sha she'ringizni birinchi bo'lib bizga o'qib bering! — dedi. — Keling tarixda "Xoqoniy Madoyin xarobalariga atab yozgan she'rini birinchi bo'lib Qizil Arslonga o'qigan edi", deb yozsinlar, chunki men ham nomimni tarixda qoldiradigan bir ish qilolmadim. Dushmanlarim tarixda nom qoldirish uchun menga imkon bermadilar. Orzu qilib yurganlarimning yuzdan birini ham ro'yobga chiqara olsam, o'zimni dunyoning eng baxtli bir kishisi deb hisoblardim. Hozircha ikki buyuk zotga do'st bo'lish baxtiga muyassar bo'ldim, balki shu munosabat bilan mening nomimni ham tarixda tilga olishar.

Qizil Arslon shularni deyarkan, ma'yus bo'lib, yana bir martaba yuzini Madoyin xarobalariga o'girib qarab qoldi. Nizomiy Qizil Arslonni ruhiy tushkunlikda ko'rib, Xoqoniyga sekingina dedi:

— She'ringni o'qi! Hukmdorni g'am-anduh panjasidan qutqar. Xoqoniy she'rini o'qiy boshladi:

Xohi dili ibrat bin, az dida nazar kun xon,
Ayvoni Madoyinro oyinayi ibrat don.
Yak rah zi rahi Dajla manzili ba madoyin kun,
Az dida duvum Dajla bar xoki Madoyin ron.
Dandonayi har qasri pande dehadat nav-nav
Pandi sari dandona bishnav zi buni dandon.
Go'yod ki zi xoki tu, mo xoki tuyem aknun,
Gomi du-se bar moneh, ashki du-se ham befishon.

Qizil Arslon hayajonlanib, shoirning qo'lini qisdi. Nizomiy esa:

— Bu asar Afzaliddinning shoh asarlaridan biri. Kelajakda bu she'rga yuzlarcha naziralar bog'lanadi, lekin ularning birortasi ham bu darajaga ko'tarilishga muvaffaq bo'lolmaydi, — dedi.

Qizil Arslon xayolchan bir tarzda shoirlarga qarab dedi:

— Men shuning uchun ham Shirvon shohligining dushmanimanki, ular Xoqoniy va Abulilla kabi shoirlarning o'z tillarida ijod qilishlariga yo'l qo'ymadilar! Ozarbayjon xalqining madaniyatini yag'mo etdilar!

* * *

Qizil Arslon xalifadan olgan qimmatbaho toshlar, tilla-kumushlar bilan To'g'rulning xazinasini to'ldirdi. Mamlakat ichidagi ajnabiy xufiyalarni surgun qildi va Hamadonga qaytib kelib, To'g'rulga shu maktubni yozdi:

"Hozirgi kunlarda mamlakatning chegaralarini ishonchli qo'shinlar himoya qilib turibdurlar. Dushmanlar bizga hujum qilolmaydilar, ularni chegaralardan va mamlakat ichidan quvib chiqardik. Hukumatni xalifaning va xalifa bayrog'i ostida ish ko'rayotganlarning ta'siridan qutqarib oldik. Hozirgi vaqtlarda mamlakatimizda yangi hayot boshlash uchun katta imkoniyatlar mavjud. Hukmdor bu imkoniyatlardan foydalanib qolishi kerak. Xazinani tilla va boshqa boyliklar bilan to'ldirganman. Ularning hammasi bizning mamlakatlarimizdan oqib isrofgar xalifalarning xazinasini to'ldirgan edi. Endi hukmdor bularning ketib qolmasligiga harakat qilishi kerak. Qozi va ruhoniylarning qo'lidan tortib olingan huquqlar yana ularga qaytarilmasin. Hukmdor bundan keyin atrofiga ajnabiy josuslarning to'planib olishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Bir qadar ehtiyotkor, hushyor bo'lish lozim. Mamlakat ishlarini shaxsiy ishlardan ajratish va aholining g'amini yeyish hamda o'lkaning obodonchiligi birinchi o'rinda turgan vazifamizdir. Xalqparvar bo'lmoq, mamlakat obodonchiligi to'g'risida g'amxo'r bo'lmoq lozim. Maktab, madrasalar ochmoq, muallimlarning xalqqa nimalar o'rgatayotganlarini bilib turmoq lozim.

Masjidlarimiz juda ko'p. Ruhoniylarni ovora qilish uchun masjidlarga ba'zi qishloqlardagi mulklarni vaqf qilib bermoq lozim.

Ularning boshi dehqonchilik bilan band bo'lsin. Shunday bo'lsa, ular hukumat ishlariga aralashish uchun vaqt topolmaydilar.

Mamlakatda ziyoli kuchlarni ko'paytirishga harakat qilmoq zarur, chunki ruhoniylar o'ylab chiqargan urf-odat va bid'atlarni faqat ziyolilar va olimlar vositasi bilan bekor qilish mumkin bo'ladi.

Mamlakat va xalqlarning ahvolini bevosita o'rganish kerak. Hukumatning g'alla omborlarini ko'z qorachig'idek saqlash lozim. Mamlakatda ocharchilik vujudga keltirib, xalq isyonlariga sababchi bo'lganlar bilan kurashish uchun har bir shaharda g'alla omborlari qurishlozim. Shaharda tartib saqlovchi soqchilarni nazoratqilib turish kerak. Xalq bizga ishonib kechalari tinch uxlar ekan, biz uxlamasligimiz kerak. Xalqni zo'ravonlardan, qullikdan saqlovchi qonunlar nashr etilsin. Hukmdorlarning eng muhim xislati xalqni o'ziga do'st va ittifoqdosh qilib olishdir.

Xalqingga nisbatan shu qadar odil va mehribon bo'lishing kerakki, atrofingda josus, ayg'oqchi va chaqimchilar saqlashga ehtiyoj qolmasin. Xalqning milliy g'ururiga to'qinadigan har qanday shaxslarga qarshi ayovsiz kurash ochishing kerak. Shuning uchun ham Ozarbayjon xalqini yagona bir tilda taraqqiy qilishi uchun ular orasiga qabilachilik nizolarini soluvchilarga bir dushmandek qara.

Milliy tilni rivojlantirishga harakat qil, chunki milliy boylik yagona til vositasi bilan mustahkamlana oladi. Mamlakatda yashayotgan boshqa millatlar ozarbayjonlar bilan teng huquqli bo'lsin, mamlakatning o'gay va tug'ishgan o'g'illari bo'lmaydi.

Isrofgarchilikdan qoch. Mamlakat ishlarida vazirlaringdan maslahat olish bilan qanoatlanma, ularga maslahat berishga va ishlarini tekshirib turishga harakat qil. Din ishlari bilan shug'ullangan vaqtingda dunyo ishlarini yodingdan chiqarma, chunki dunyoda yashash uchun hayot sharoitini yaxshilashing kerak. Faxriddin bilan Alouddinni qo'shin bilan birga Hamadonda qoldirib ketyapman. Ular mamlakatning do'stidirlar. Ularga ishonish menga ishonish demakdir".

Qizil Arslon bu nomani To'g'rulga berganidan so'ng, Xoqoniy va Nizomiy bilan birgalikda Tabrizga tomon yo'l oldi. Lekin Qi-

zil Arslonning Hamadondan qaytgan g'olib qo'shinini yo'lda xursandchilik bilan qarshi oluvchilar bo'lmadi, chunki muharram oyi kirgan edi. Shuning uchun ham yo'llarda ta'ziya va motam sadolari eshitilar edi. Qizil Arslon Qazvni xalqining "Vo Husayn" deb qichqirayotganlarini eshitarkan, sekingina Nizomiyga murojaat qilib dedi:

— Ozarbayjon xalqining Husayn emas, Bobak o'ldirilgan kuni motam qilinishini ko'rsam edi, unda o'zimni haqiqiy ozarbayjonlik ekanligimdan faxrlanardim. Bag'dod ustiga qilgan so'nggi yurish shuni ko'rsatdiki, ozarbayjonliklar Midiya davridagi qahramonligini yo'qotmagan. Ular buni musayiba bilan Bag'dod darvozalari oldidagi qonli janglarda isbot qildilar. Ozarbayjonliklar Midiya davrida bo'lgandek, yana bir martaba osuriylar va kaldoniylar vatanida qilich o'ynatdilar. Sizni ishontirib aytamanki, men shu xalqning yordami bilan Ozarbayjonning Midiya davridagi chegaralarini olib bo'lmaydigan bir qal'aga aylantira olaman. Lekin mamlakat dushmanlari Ozarbayjon xalqini o'ziga mute qilish uchun uning orasiga shunday bir kasallik tarqatganki, u ham bo'lsa, mavhumot va diniy taassubdur. Bu mavhumotning eng kattasi mana shu "Husayn ta'ziyasi"dir. Ozarbayjon ziyolilari shunga qarshi kurash olib borishlari kerak.

Qizil Arslon Hamadondan Tabrizga yetib kelguncha o'zining boshlagan islohoti haqida Nizomiy bilan so'zlashib keldi. Nizomiyning bergan maslahatlari shulardan iborat edi:

— Hukmdor shoshilmasligi lozim, katta ishlar zo'r tayyorgarlik talab qiladi. Mavhumot va bid'atlar qaysi yo'l bilan kelgan bo'lsa, o'sha yo'l bilan yo'qoladi. Hech bir shaxsga "Diningdan voz kech!" deb bo'lmaydi. Kishilarni din va bid'atlardan qutqarish uchun ularga boshqa bir mashg'ulot topib berish kerak. Din o'rnini ilm-ma'rifat va san'at ishg'ol etishi kerak. Hozirga qadar arablar bilan iroqliklar bunga to'siq bo'lib keldilar, lekin endi biz uchun hech qanday monelik yo'q. Xususan, a'lo hazratning xalifa bilan tuzgan so'nggi shartnomasi har qanday mavhumotga qarshi kurash uchun katta imkoniyatlar tug'diradi.

Ozarbayjonliklarning qahramonligiga ishonaman, lekin bu qahramonlikka ilm va ma'rifat tojini kiygizish lozim.

Qizil Arslon Nizomiyga javoban:
— Hikmatli so'zlar, — dedi.

* * *

Tabriz xalqi Bag'dod safaridan zafar bilan qaytgan hukmdorni tantana bilan kutib oldi. Abubakir ibn Muhammad buyuk shoirlar uchun "Surxob mahallasi"da katta bir ziyofat tayyorlagan edi.

Tabrizning shoir va adiblari Nizomiy bilan Xoqoniyning Tabrizga kelishini katta bir milliy bayramdek qarshi oldilar. Shimoliy Ozarbayjon qo'shinlarining so'nggi qismlari Ganjaga qaytmoqchi bo'lganida, Xoqoniy bilan Nizomiy ham Qizil Arslonga murojaat qilib, Oronga qaytishga ijozat so'radilar. Qizil Arslon bu taklifga rozi bo'lmasdan dedi:

— Afsuski, muxlisi bo'lganim ikki ulug' zot meni tashlab ketishni istaydilar. Tabrizda qolib, mamlakatni idora qilish ishlarida menga yordam beringlar, sizlarning maslahatlaringiz men uchun juda qimmatli. Mening adiblar, shoirlar va olimlarga qanday baho berishim sizlarga ayon. Ko'rib turibsizki, Surxob[1] mahallasini shoir, adib, olimlar va faylasuflar mahallasiga aylantirganman. Sizlar uchun nimanki zarur bo'lsa muhayyo qilaman, oilangizni Tabrizga ko'chirib olib kelib osoyishta yashashingizni ta'min etaman. Xususan, Xoqoniy janoblarining Shirvon shohligiga qaytishi yaxshi emas, Tabrizda qolishini maslahat ko'raman.

Xoqoniy Tabrizda qolishga rozilik berdi, lekin Nizomiy:

— Hukmdor hazratlarining o'zi biladiki, men Ganjani sevaman,— dedi.— Men yoshligimni o'sha yerda o'tkazganman hamda o'sha yerda qartayishni istayman. Men o'sha yerning mahsuliman, shuning uchun ham oronliklar bilan birgalikda yashashni istayman. Ganjada faqatgina mening oilam emas, minglarcha do'stlarim va muxlislarim bor. Ulardan ayrilmoq, hamma narsadan ayrilmoq demakdir. Men u yerdagi hayotni va o'sha yerdagi kulbamni sevaman. O'sha yerda tug'ilganman, o'sha yerda asarlarimni

[1] Qizil Arslon undan keyin Abubakir hukmronligi vaqtida Sharqning butun olimlari, shoir va adiblari Tabrizga yig'ilgan edi. Hozir ham Tabrizning "Surxob" mahallasining qabristonida yuzlarcha shoir va olimlarning maqbarasi bor.

yozaman. Vatanimning o'liklaridan ham, tiriklaridan ham ajrala olmayman. Men Mahsatiy xonim bilan yonma-yon yotishni xohlayman, hukmdor menga javob bersalar, borib Ganjada o'z podshohligimni so'ray.

Qizil Arslon o'rnidan turib Nizomiyning qo'li va peshonasidan o'pib:

— Sen tirikligingda ham, o'lganingdan keyin ham podshohsan, podshohlar bitta o'lkaning tojdori bo'lsa, sen butun o'lkalarni o'z asarlaring bilan zabt etib tojdor bo'lding, — dedi va o'zining taxtini ko'rsatib: — Minglarcha bunday taxtlar, buyuk shoirning bir misrasiga arzimaydi. Mayli, ketishga taassuf bilan rozilik beraman, — dedi va Shamsiddinni chaqirib amr berdi: — Buyuk Nizomiyga safar anjomini hozirlang, nimanki kerak bo'lsa muhayyo qiling. Shimolga qaytadigan qo'shin qismlari bilan shoir ham yo'lga chiqishi kerak.

Uch kundan so'ng tepasida zafar bayroqlari hilpirab turgan bitta taxtiravon ketmoqda edi. Tabrizning olimlari, shoirlari bilan birgalikda Xoqoniy ham Nizomiyni kuzatib qo'yish uchun Achchiq soygacha piyoda yurib borib, o'sha yerda vidolashdilar. Xoqoniy Nizomiyning qo'lidan ushlab taxtiravonga chiqarib qo'ydi. O'pishdilar, yig'lashdilar. Qo'shin ko'prikning shimolidan sharqqa tomon to'g'ri burilib, Qoratog' yo'liga ko'tarilganiga qadar Xoqoniy turgan joyida Nizomiyning orqasidan qarab qoldi va:

— Ajabo, seni yana bir martaba ko'ra olarmikinman? — deb shivirladi.

O'JARLIK

Alouddin bilan Faxriddin Qizil Arslonga yuborgan maktublarida, To'g'rul sizning bergan ko'rsatmalaringizga xilof tarzda ish olib borayotir, deb yozgan edilar.

"A'lo hazratning buyruqlariga binoan Husomiddin Hamadonga chaqirtirilib tezlik bilan Rey shahriga jo'natildi. Zahir Balxiy bilan Kamoliddin esa, bir hafta bo'ldi, Hamadonga kelib, Saljuq saroyiga o'rnashdilar. Sulton Tekeshning odamlari a'lo hazrat

To'g'rul tomonidan ikki martaba qabul qilingan. Hamadon qozisi bilan xatibining Bag'doddan Hamadonga qaytishi kutilmoqda. Surgun qilingan odamlarning bir qanchasi, a'lo hazrat To'g'rul tomonidan berilgan ruxsatga binoan, Hamadonga ko'chirib kelindi. Shaharda aholini behalovat qiluvchi kishilar ko'paymoqda.

Hazratlariga ma'lum bo'lsinki, a'lo hazrat To'g'rul Ozarbayjon qo'shinlarining ta'minoti masalasiga nihoyatda e'tiborsizlik bilan qaramoqdalar. Shu hafta ichi formonlarini kutamiz.

A'lo hazrat To'g'rulning buyruqlari bilan yangi qo'shin qismlari tuzilmoqda. Qo'shin boshliqlari o'tmishda janobingiz tomonidan qurolsizlantirilgan kishilardir.

Ba'zi gaplarga qaraganda Hamadondagi Ozarbayjon qo'shinlarini mamlakatning boshqa tomonlariga jo'natilishi mo'ljallanmoqda. Olingan xabarlarga ko'ra Qatiba xotunni Hamandonga olib kelinishi munosabati bilan Otabek saroyini yangilamoqdalar. Bugun To'g'rulning Rey mamlakatiga yuborgan lashkarlarining bir qismi Hamadonga qaytib keldi. Qo'shin nima maqsadda qaytib kelganligi ma'lum emas, hozircha a'lo hazrat To'g'rul bu qo'shinning qanday vazifani bajarajagi haqida biror farmon bermagan. Bu haqda siz janobning amrlariga muntazirmiz.

Ikki kun bundan muqaddam Hamadonga Bag'doddan o'n kishidan iborat bir guruh vakillar keldi. Ular bu yerda bir kun qo'nganidan so'ng Ozarbayjonga ketdilar. Har holda a'lo hazrat To'g'rulning xatti-harakatlari shubhali. Poytaxtda noma'lum kishilar juda ko'paygan.

A'lo hazratning saroyiga qorovul qilib tayinlangan ozarbayjonliklar yana mening ixtiyorimga qaytarib yuborildi. Ularning o'rniga Iroq qo'shinlaridan qo'yildi. Ishdan haydalgan vazirlar a'lo hazrat tomonidan qaytadan ishga olingan.

A'lo hazrat To'g'rulga yuborilgan talabnomaning birortasiga ham javob olganimiz yo'q, shaharning muhofazasi va qal'a bekligi vazifasi mening ixtiyorimda bo'lishiga qaramasdan siz janoblari tomonidan dorga ostirilgan shahar mudofaasi raisining qardoshi shu lavozimga tayin qilingan. Shuning uchun ham bu masalalar aniqlanishi lozim".

Qizil Arslon Faxriddin bilan Alouddinning maktubini olishi bilan, To'g'rul va Qatiba qaysarlik qilib, yana eski siyosatni davom ettirayotganliklarini aniqladi va Qatiba xotunga bunday bir maktub yozdi:

"Muhtarama malika!

Janobi haqning inoyati va marhamati soyasida salomat yashab turganligingizni eshitib haddan ziyod xursand bo'ldim. Bag'dod safarimiz haqida sizga batafsil yozgan edim. Shu haqda yana yozishni istayman. Biroq, shu kunlarda poytaxtdan kelayotgan xabarlar meni juda ham tashvishga solmoqda. A'lo hazrat yana mamlakatimizning dushmani bo'lgan bir qancha shaxslarni davlat ishlariga tayinlash bilan, Ozarbayjon xalqining qoni bilan qo'lga kiritilgan g'alabalarimizni boy berib qo'yishga harakat qilmoqda. Hamadonda bo'lgan Ozarbayjon qo'shinlarini chetlashtirmoqda, xoin vazirlarni ish boshiga qo'ymoqda, hatto, mamlakatning dushmanlari bo'lgan qo'shni davlatlar bilan aloqa bog'lamoqda.

Tabrizga kelgan xabarlarga esa malikaning ham Hamadondan ketish xayoli bor emish. Malika hazratlarining Reydan yana Hamadonga qaytib kelishiga maslahat bermayman. A'lo hazrat To'g'rulning xatti-harakatlari yana Hamadonni ishg'ol etishimga sabab bo'ladiganga o'xshaydi.

Rey mamlakatining idora etilishi haqida kutilmagan xabarlarni eshitmoqdaman. Men hech qachon mamlakatning muhim bir qismini ajnabiylar himoyasi ostiga o'tishiga yo'l qo'ymayman. Qizil Arslon qayot ekan, Otabek mamlakatiga ajnabiylarning oyog'i tegmaydi. Men o'lsam ham ozarbayjonliklar mening maqsadim yo'lidan boradilar. Men akamning o'g'li bo'lgan Qutlug' Inonjning mardligiga ishonaman. Agar unga xoinlar o'z ta'sirini o'tkazayotgan bo'lsa, uni mudofaa qiladigan qilichlar ham topiladi. Men a'lo hazrat To'g'rulning Rey mamlakatida bo'layotgan hodisalar haqidagi fikrini bilmayman, malikaga o'z fikrimni ochiq aytaman. Men hech qachon na malikaning o'g'li va na a'lo hazrat To'g'rulning Rey to'g'risida boshqa bir davlat bilan tuzgan shartnomalarini tan olmayman".

* * *

Husomiddin Xorazmdan Hamadonga qaytishi bilanoq sulton To'g'rul tomonidan qabul qilindi, oradan bir necha soat o'tgach, Qatibaga yozilgan maktubni olib Reyga jo'nadi.

Qutlug' Inonj qadrdon do'stini juda hurmat bilan qabul qildi. Uning sharafiga ziyofat berilib sarpolar tortilgandan so'ng, Qatiba oldiga — Shirvon yayloviga kuzatib qo'yildi.

Qatiba yolg'iz qolib juda zerikkan edi. Rey shahriga jo'natilganidan keyin tamomila o'zgarib ketgan, asablari qaqshagan, bekorchilikdan xasta bo'layozgan edi. Qizligidan boshlab fisq-u fasod, ig'voga odatlangan bu xotin siyosatga aralashmasdan yashay olmas edi. U Qizil Arslon tomonidan Rey shahriga surgun qilingan dastlabki kunlarda Sabo xonim ikkovi joriyalar bilan navkarlar o'rtasida urish-janjal chiqarib tomosha qilardi. Nihoyat, bu mashg'ulot ham uni zeriktirdi. Ikki joriya o'zini suvga tashlab o'ldi, biri o'zini zaharladi va bir navkar esa Saboning so'ziga kirib joriyalar bilan aloqada bo'lgani uchun qattiq kaltaklandi, bu hodisalardan yana ham battarroq asabiylashgan Qatiba Saboni o'z huzuridan haydab yubordi.

Kech kirib qolgan edi. U xasta odamday imillab o'rnidan turib oyna oldiga keldi. Oyna qarshisida uzoq turib butun hayotini xayolidan kechirdi. U batamom o'zgarib ketganligini sezmadi, chunki u har kuni ko'zguga qaraganida "hali ham kechagidekman, ko'zimda ham, andomimda ham hech qanday o'zgarish yo'q" deyishni odat qilgan edi. Bugun yana o'sha so'zlarni takrorladi.

Rostdan ham u kechagiday edi, lekin "kechagi" so'zini takror qila-qila yigirma yil o'tkazgan edi. Nizomiyning bir she'rini yodlaganiga haqiqatan ham yigirma yil o'tgan edi. U doimo oynaga qarab o'z go'zalligini tahsinlagan paytlarida Nizomiyning quyidagi she'rini o'qir edi:

"U go'zal nozik sevgilardan shan,
Bir chechakki, tug'ildi shabnamdan".

Qatiba oyna oldida turib bu she'rni yana takrorladida o'z-o'ziga dedi: "U toshyurakli shoir bu she'rni menga bag'ishlamagan bo'lsa ham, men doim bu she'rni o'qiganda o'zimni o'ylayman. Men hech

qarimas edim, chunki men seva olardim, go'zalligim so'lmaydigan bir go'zallik edi. Lekin o'sha shoir go'zalligimning barbod bo'lishiga sabab bo'ldi. U mening dushmanlarim bilan do'stlashdi. Otamning qotillari ham uning do'stlari edi. Lekin men husnimni yo'qotganim yo'q. Go'zalligim tufayli ko'p odamlar senga dushman bo'lib qoladilar. Yuksak martaba uchun bittasiga erga chiqdim, o'g'limning istiqboli uchun yana biriga tegishim kerak. Kim bilsin, balki yana uchinchisiga ham tegarman. Lekin bularning birortasi ham menga er, men ularga xotin bo'lmayman. Bu dunyoda aldanganlar va aldovchilarning soni sanog'i yo'q. Men ham shularning bittasiman. Oxirida kim g'olib chiqar ekan? Yolg'on muhabbatga ishonganlar mag'lub, alday bilganlar esa g'olibdirlar".

Qatiba so'zlab bo'lib yana bir bor oynaga qaradi va sekingina dedi: "Bilmadim, men so'na boshlagan go'zalligim bilan biror qalbni asir qilishning uddasidan chiqa olarmikinman? Oh, qani endi Qizil Arslonni maftun eta bilsam! U o'zining mag'rur boshini tizzamga qo'yarmikan? Men o'shanda uni ham mahv etaman, uning do'stligi bilan faxrlanuvchi, unga o'git qiluvchi shoirni ham".

Eshik ochilib joriya kirdi:

— Bir musofir kelib malika hazratlarini ko'rishni istaydi,— dedi.

Qatiba oynadan uzoqlashib:

— Marhamat qilsin! — dedi va o'z-o'ziga: "Ey mening manfur toleyim, sen bir marta bo'lsa ham menga yor bo'lsang eding! Lekin mening istak, orzularim bilan hisoblashmay yuzingni teskari o'girmoqdasan, Ajab, baxtsiz bir xotinning siniq qalbini shod qilish senga shuncha qiyinmi? Sen menga na Husomiddindan bir xabar va na To'g'ruldan biror maktub yo'llading! Nahotki meni tamomila mahv etishni istasang?"

Shu payt Husomiddin ichkari kirib salom berdi va malikaning oyoqlaridan o'pish uchun tiz cho'kdi. Qatiba uning qo'lidan ushlab turg'izdi va dedi:

— Tur o'rningdan, jonginam, tur! Tur do'stim, tur, seni bu yerga yetkazgan mening toleyim! Taqdir menga kelajakdagi g'olibiyatlar haqida xabar berdi.

U lablarini Husomiddinning lablariga tegizganidan so'ng, yana odatdagidek:

— Qolgani keyin... shartlarim amalga oshganidan so'ng, — dedi. Husomiddinning qo'lidan ushlab oldidagi ko'rpachaga o'tqazdi, savol berdi: — Jonginam, seni hibsxonadan kim qutqardi?

— Malikaning buyrug'i va Sabo xonimning yordami.

— Hamadonda nima gaplar bor? Ayt, qanday xabarlar bor? Do'stlarim o'z malikalarini unutdimi?

— Yo'q, malika hazratlari, do'stlaringiz hammasi Hamadonga kelgan. Ular o'zlarining muhtaram malikalarining yo'liga ko'z tutmoqdalar.

— Rostdan ham yo'limga ko'z tutganlarmi?

— Ha. Otabek qasri qaytadan ta'mir etildi.

Qatiba bu so'zlarga lablarini yana bir marta Husomiddinga tutdi.

— Rostdan aytyapsanmi? Kishi ishongisi kelmaydi.

— Otangizning arvohi haqqi, qasam ichaman. A'lo hazratning maktubini olib keldim.

Husomiddin shuni deb, To'g'rulning maktubini Qatibaga uzatdi. Qatiba xursandligidan o'qiyolmas edi, uning ko'ziga harflar jimirlashib ko'rinardi. Nihoyat, qo'li titray-titray maktubni Husomiddinga uzatdi:

— Ol, o'qi, jonginam, o'qi,— deganidan so'ng Husomiddin maktubni olib o'qiy boshladi:

"Muhtarama malika!

Zamonaning charxi tinmay aylanib, umrimizni qisqartirmoqda. Qardoshimning aqlga muvofiq bo'lmagan harakatlari faqatgina dushmanlarni g'azablantirib, do'stlarimizga ham yomon ta'sir qilmoqda. U o'z islohoti bilan yangi dunyo yaratmoqchi bo'lib, eski dunyoni barbod qildi. Layoqatli kishilarni surgun qildi, qamoqqa soldi va dorga ostirdi.

Malikaning Hamadondan ketishi men uchun juda og'ir bo'ldi Lekin menga taskin bergan narsa shuki, malika Hamadonda esgan bo'ronlarni ko'rmadi. Lekin u kunlar o'tib ketdi. Men yana ishni o'z egalarining qo'liga topshira boshladim. Zahir Balxiy bilan Kamoliddin janoblari poytaxtda. Ozarbayjondan Hamadonga kel-

tirilgan qo'shinlarning quloqlari burab qo'yilmoqda. Iroqliklardan kuchli qo'shin tuzganmiz. Hamma ishlar o'z joyida. Faqat malika hazratlarining Hamadonda yo'qligi yetishmay turibdi xolos. Shuning uchun ham Husomiddinni Xorazmdan chaqirib olib sizni olib kelish uchun jo'natdim. Yana ixtiyor malikaning o'zlarida. Otabek qasri malikaning tashrif buyurishini kutmoqda".

Qatiba maktubni ko'zlariga surtdi va hayajonidan o'rnidan turib ketib uyning ichida yura boshladi. Husomiddin esa o'tirgan yerida bu ishlarning oqibatini o'ylardi. U malikaning poytaxtga borishiga sevinsa ham, uning To'g'rul bilan yarashib ketishiga hech ham rozi bo'lolmas edi. Qatiba Hamadonda o'z hukmini yurgizishni istaganini bilardi, bunga esa faqat malika To'g'rulga tegish bilan erisha olardi.

Husomiddin shularni o'ylar ekan, xona ichida yurib turgan Qatiba ham quyidagilarni xayolidan kechirardi! "Eng avval menga To'g'rul kerak. Uni istagan vaqtimda o'rtadan olib tashlay olaman. U qo'rqoq hamda tez aldanadigan odam, Husomiddin esa botir bo'lishiga qaramay ahmoqdir, muhabbati boshiga yetdi. U hozir ham menga boqarkan, Ganjadagi Qatibani ko'radi. Holbuki mening yigirma yashar o'g'lim bir mamlakatning hukmdori. Husomiddin esa oddiy bir qo'shin boshlig'i. Lekin hozircha u mening qo'limda bir o'yinchoq. Orzu qiladiki, bir mamlakatning malikasi va bir hukmdorning mo'tabar onasi unga yerga chiqsin va u bilan yechinib bir ko'rpaga kirsin!"

Qatiba shularni o'ylar ekan, ixtiyorsiz qah-qah urib kulib yubordi. Husomiddin ham xuddi shu daqiqada o'ylar edi: "Endi men nimaman? Qo'limda qo'shin ham yo'q, vazifam ham yo'q, biror mamlakatning hokimi ham emasman. Qatiba qaysi martabamga uchib menga erga chiqadi? Bugun uning eshigi oldida yuzlarcha men singari navkarlari bor, o'g'lining farmonini kutib turgan yuzlab Husomiddinlar bor. Hozir birovning baxtli bo'lishi uchun qurol bo'lib xizmat etyapman. Qatiba ichidan menga kuladi".

Husomiddin shunday o'y-xayollarning chuqur girdobida ekan, katta oynaga ko'zi tushib qoldi, o'zining bo'yi bastini ko'rib, uyalganidan hamma yog'ini ter bosib ketdi, o'zidan o'zi nafratlanib dedi: "Qara, men nima edim... endi nima bo'ldim! Mening sevgim,

ahmoqona sevgim qayerga olib keldi meni... Hozir Qatiba kim? Erini o'ldirgan bir xotin! Nima uchun uni sevdim? Otabek Muhammaddek bir hukmdorga sodiq bo'lolmagan bir xotindan nima kutsa bo'ladi? Jinoyat, boshqalarga uyushtirilgan suiqasdlar, hukmdorlarni o'ldirish! Mukofotim nima bo'ladi? Xalqning la'nati, vijdon azobi. Men bu xotin uchun To'g'rulni ham, Qizil Arslonni ham o'ldirishim kerak... Nima uchun? Sadoqatsiz, nonko'r, shafqatsiz bir xotin uchun. "Qolgani keyin..." emish, bu nima demak? Aldash, yangi jinoyatlarni qilish, yanada tubanlikka tushish!..

Yo'q! Menga endi bundan ortiq tubanlashish mumkin emas, men unchalik ham qobiliyatsiz odam emasman, uning sirlari mening qo'limda, istagan vaqtimda uni mahv eta olaman". Husomiddin shularni o'ylar ekan, ko'zi ro'parada turgan Qatibada edi. Uning bo'yi bastiga, go'zal andomiga tikilgan sari dunyodagi hamma narsani unutar edi. Husomiddin butun qusurlarni muhabbatdan ko'rib va unga la'natlar o'qib der edi: "Senga la'natlar bo'lsin. Sen qahramonlarni ham zanjirlab bir vijdonsiz yolg'onchining oyoqlari ostiga tashlaysan. Jinoyatlarni tug'dirgan, odamlarni dorga ostirgan ham sensan. Dinga, payg'ambarga, hatto, Xudoga bosh egmaganlar ham faqat sening qarshingda tiz cho'kadilar. Insonlarning tinch hayotini zaharlagan, intiqomlar, intihorlarga sabab bo'lgan ham sensan. Insonlarning yurak qonidan tug'ilasan. Shuning uchun ham qon to'kishni, odam o'ldirishni, adovat va nafratni sevasan. Sen eng ulug' olimlarning boshini eng oddiy bir xotinning oyoqlari ostida toptatasan. Seni iblis ijod etgan, deganlar yolg'on aytmaganlar, sen buyuk bir mamlakatni idora etuvchi hukmdorlarning irodasini oddiy bir xotinga bo'ysundirasan, bir xalqning taqdiri bir xotinning injiqligiga bog'liq. Sen quruq va murdor shahvatdan boshqa hech narsa emassan. Bir-biriga zid bo'lganlarni kelishtiradigan ham sensan, urishtirib qo'yib ajratadigan ham sensan. Besh daqiqalik nash'a natijasida insonlarni abadiy falokatlarga duchor qiluvchi, umrining oxirigacha ingratuvchi ham sensan. Senga qilich, din va vijdon ham g'olib kelolmaydi. Sen faqatgina o'lim bilan, o'shanda ham sharafsiz o'lim bilan kishilarning yoqasini qo'yib yuborasan..."

Qatiba birdan o'girilib Husomiddinga qarab, unda qandaydir bir o'zgarish paydo bo'lganligini sezdi. Unga yaqinlashib:

— Jonginam! Charchaganingni sezib turibman. Menimcha, uzoq yo'llar, ovqatsizlik, horg'inlik, tog'-u toshlarni kezish insonni toldira olmaydi, lekin ruhiy tushkunlik, o'ylar, umidsizlik insonni holdan toydiradi. Men sendan ajralib Rey shahriga kelgan kunimdan beri ruhiy azob ichida qoldim. Lekin men umidsizlikka tushmaslikka urinardim. Umidsizlik g'olib kelganda faqat senigina o'ylar va yengil tortar edim. Shu umid mening jonimga oro kirdi, bo'lmasa meni ro'parangda ko'rmas eding.

Qatiba shu so'zlar bilan qo'llarini Husomiddinning bo'yniga tashladi va lablaridan o'pib turib dedi:

— Faqat shu lablar vositasi bilan sening ishqing qonimga singga oladi. Yolg'iz shu lablarning birlashishi natijasida ikki sevgi bir-biriga qo'shila oladi. Bir jon ikki badanda joylashgandagina sevgilarimiz kutilmagan natijalarni bera boshlaydi. Jonginam! Qo'limni ushlab ko'r. Tomirlarim urishi yuragimning urishi bilan bir xil.

Husomiddin Qatibaning oppoq-nozik bilaklaridan ushlagan zamon hamma narsani unutib yubordi. O'n daqiqa bundan avval aqliga kelgan fikrlardan, hatto, asar ham qolmagan edi. Endi u butunlay boshqa orzular og'ushida shirin xayollar surar edi: "Dunyoda mendan baxtli bir inson bormi? Katta bir mamlakatning malikasi qo'llarini mening ixtiyorimga topshirgan. Muhabbat shunday bir narsa. Sevgi faqat sevgini axtaradi. Sevgi qarshisida martaba, darajaning, mansab va rutbaning hatto, toj-u taxtning ham ahamiyati yo'q. Ajabo, Qatiba yoshligida bir kambag'al shoirni sevmaganmidi? Shoir uchun iqbolidan kechishga ham tayyor edi-ku? Mening avvalgi fikrlarim to'g'ri emas. U meni sevgan bo'lsa buning taajjublanadigan joyi yo'q. Sevgining xosiyati shu. Podshoh bir podachining qizini ham seva oladi, podshohning qizi esa bir kal gadoga ma'shuq ham bo'la oladi. Mening nomim esa Husomiddin, qilichimning shu'lasi hozirgacha oronliklarning ko'zlarini qamashtirmoqda. Ajabo, Qatiba qahramonliklarimni bilmaydimi?"

Qatiba qo'llarini Husomiddining qo'lidan olib dedi:

— Bor, damingni ol, men ham biroz istirohat qilay, kechki ovqat mahalida suhbatlashamiz.

"MALIKA"

Malikaning taxtiravoni Hamadonning Tabriz darvozasiga yetganida Qatiba shoyi pardani ko'tarib darvozaning tepasiga qaradi va ipak matoga bitilgan shu so'zlarni o'qidi.

"To'g'rul poytaxti sevgili malikasini kutmoqda".

Shahar charog'on edi. To'g'rul tomonidan qo'yilgan Iroq askarlari malikaning taxtiravoni o'tadigan ko'chalarning ikki tomonida saf tortgan edi. Zahir Balxiy bilan Kamoliddinning o'tirgan taxtiravonlari malikaning ketidan kelmoqda. Husomiddin boshliq bir guruh Rey otliqlari malikaning taxtiravonini Hamadonga qadar kuzatib kelgan edilar.

Otabek qasrining atrofiga to'plangan minglarcha To'g'rulning muxlislari bir og'izdan: "Yashasin malika!" deb qichqirar edilar.

Oradan bir hafta o'tgach, sulton To'g'rul malikani ko'rish uchun Otabek saroyiga keldi. To'g'rul malikaning istagan narsasini bilar edi, shu sababdan u istagan mavzudan gap ochdi:

— Malikani poytaxtdan uzoqlashtirilgani hammadan ko'proq menga qattiq ta'sir qilgan edi. Ayriliqlarning ta'siri ostida yozgan ruboiylarimdan birini malika uchun o'qib beraman:

Diro'z chunin visoli jonafro'ziy,
Imro'z chunin firoqi olamso'ziy,
Afsus ki bar daftari umram ayyom
On ro'z chunni navjad, ijro ro'ziy[1].

Qatiba ruboiyni eshitganidan so'ng To'g'rulga juda diqqat bilan qaradi va boshini chayqab dedi:

— Ma'lum bir maqsadni ifoda etolmagan she'r she'r emas. Sevgi tuyg'ularini badiiy shaklda ifoda etishni istagan shoirlar ham yanglishadilar, chunki sevgining o'zida she'riyatdan yana ham yuksakroq badiiylik bor. Shuning uchun ham shoirlar "sevgiga badiiylik beraman" deydilar-u, lekin uni buzib tasvirlaydilar. A'lo hazrat meni kechirsinlar, ruboiylariga diqqat bilan quloq soldim.

[1] Dunyoni ruhlantiruvchi visol bugun olamni yondiradigan firoqqa aylandi. Afsuslar bo'lsinki, ro'zg'or umrim daftariga bugun bunisini yozsa, ertaga unisini nasib etadi.

Ostida chuqur bir ma'ni yotmagan she'r soxta va yasama bo'ladi, bu holda shoir mavzuning kambag'alligini o'rinsiz istioralar va qofiyalar bilan yashirishga urinadi. A'lo hazratga ravshan bo'lg'ayki, bu yo'l san'atkorlik yo'li emas. A'lo hazrat, mening muhabbatimni inkor etyapti, deb o'ylamasinlar. Mening asosiy maqsadim, u kishining ruboiysidagi maqsadsizlikni ko'rsatishdir. Bizning hozirgi kunlarimizda maqsadni qisqa bir she'r bilan ifoda qilib bo'lmaydi, chunki bizning maqsad va vazifalarimiz shu qadar buyukki, uni a'lohazratning birgina ruboiysida ifoda etish g'ayri imkondur. Modomiki, a'lo hazrat bilan o'rtamizda bo'lgan muhabbat mamlakatning taqdiri bilan bog'liq ekan, a'lo hazrat sevgisini so'zda emas, kalimalar yig'indisidan iborat bo'lgan she'rda emas ishda va amalda ko'rsatishi lozim.

To'g'rul Qatibaning bu so'zlarini eshitganidan so'ng, ruboiylarning qolganini o'qimadi, qog'ozni buklab cho'ntagiga soldi va kulimsirab dedi:

— Mening fikrimcha, hashamatli malika biroz yanglishadi, chunki qisqa bir she'r buyuk bir mazmunning xulosasidir. Men to'rt misralik she'rimda uzoq vaqtlar malikani o'ylab, boshimdan kechirgan iztiroblarni ifoda eta olganman. Ajabo, men bu misralarimda hijron kunlarining dahshatli manzarasini chiza olmaganmanmi? Malika bu she'rda sevgi va hijron bilan to'lgan bir qalbning hayajonini o'qiy olmadimi?

Qatiba bu so'zlarga yana e'tiroz qilib dedi:

— Bizning masalamizni na hijron kalimasi va na kechirilgan iztiroblarning dahshatli bir qiyofada tasvir etish bilan hal qilib bo'lmaydi. Mamlakat va sevgi masalalari muhokama, sabr, sovuqqonlikni talab etadi, hissiyotga berilish zarar yetkazadi. She'r esa ovqatdan keyin tanovul qilinadigan bir mevadek gap. Maqsad bir bo'lgandan keyin muhabbat she'rsiz ham tantana qilishi mumkin. Modomiki, necha yillardan beri sudralib kelayotgan ziddiyatlarni hal qilish mumkin bo'lmagan ekan, a'lo hazratning she'rida ifoda etilgan muhabbat so'zlarida ham samimiyat bor deb aytish mumkinmi? Chunki sevgi buyuk maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradigan zo'r vositadir. She'r esa soxtalikni yashirish, vaqtni cho'zish va boshni aylantirish uchun yaraydigan bir niqob-

dur. Men a'lo hazratdan o'tinib so'raymanki, u she'rni faqat tabiatni tasvirlash, hayotni badiiy shakllarda ko'rsatish va tabiatning yaratgan jonsiz narsalarini tashbeh yo'li bilan jonlantirish vositasi sifatida ishlatsin. Sevgi masalalarini she'rga yuklab bo'lmaydi, chunki sevgining talabi shu qadar zo'rki, uni she'rdagina emas, faqat amalda, fidokorlik bilan ko'rsatish mumkin.

To'g'rul yana malikaning gapini og'zidan olib:

— Muhim masalalarni hal qilishda sabr-matonat va ehtiyotkorlik darkor, — deganida Qatiba unga:

— Lekin ishni paysalga solib, taraddudlanib yurganda yolg'iz sevgidagina emas, hamma ishlarda ham yutuqlarni boy berib qo'yish mumkin, — dedi.

To'g'rul javob bermasdan o'ylay boshladi. Qatiba esa sukutni buzib dedi:

— Sevgi — yoshlikning mahsuli. Taraddudlanish va ehtiyotkorlik qarigan yurakka xos narsadir. Lekin sevgi buning aksi, chunki u qarib qolgan qalbda yashashni xohlamaydi. U istiqomat o'rnini o'zgartiradi, qiyofasini boshqa bir ko'zguda ko'rishni istab qoladi. Boshqasining baxtiga sherik bo'lmoqni istaydi. Shuning uchun ham a'lo hazrat she'rda taraddudlanishni bir tomonga olib qo'yishi kerak. Men ochig'ini aytyapman. Men hodisalarning tegirmonida tortilib un bo'lganman. Mening uchun hayotning tushunib bo'lmaydigan biror tomoni yo'q. Shuning uchun ham men a'lo hazratni sarfaroz qiladigan sevgimni boshqa bir kishiga baxsh etishim mumkin. Shunday obro' va taxti tojga ega bo'lgan a'lo hazrat mendan minnatdor bo'lishni bir karra unutmasligi kerak. Men ham o'z maqsadimga erishmaguncha a'lo hazratning Alouddin Tekesh bilan tuzgan bitimini tan olmayman va uni amalga oshirilishiga yo'l qo'ymayman. Mening o'g'limning istiqboli Alouddin Tekesh bilan tuzilgan bitimga emas, a'lo hazrat bilan tuzmoqchi bo'lganimiz ahd-u paymonga bog'liqdir. O'g'limning kelajagini ta'minlashni istamasangiz Qizil Arslonga murojaat qilishga majburman. A'lo hazrat o'zlariga nisbatan menda bo'lgan sevgi hissiga uncha ham ishonmasligi kerak. Chunki muhabbatning o'zi mustahkam bir narsa emas, unga kuch baxsh etadigan sabablar bor. Bu sabablar ichida turmush sharoiti, istiqbolni ta'minlash, martaba va

ishonch singari masalalar ham bor. A'lo hazrat hozir ham o'zining haqiqiy muhabbati borligiga meni ishontira olsa ham, bari bir, bu masala hal qilindi degan gap emas, chunki masalani bir xotin bilan bir erkakning sevgisi emas, balki bir mamlakatning va bir toj-u taxtning taqdiri hal qiladi.

Sulton To'g'rul Qatibaga nima javob berishini bilmay qiynalardi. Chunki u Qatibaning shartlaridan birortasini ham qabul qilolmas edi. U o'z o'g'li Malikshohni toj-u taxtdan mahrum qilib, Qatibaning o'g'li Qutlug'ni valiahd deb e'lon qilishni istamas edi. U o'z xotinini mamlakatdan chiqarib yuborib, Qatibani malika deb e'lon ham qilolmas edi. Qatiba esa faqat shuning uchun kurash olib bormoqda edi. Shunga ko'ra ham To'g'rul Qatibani qo'lga olish choralarini izlar, ruboiylar o'qir, sevgi hislarini izhor qilar va yalinib-yolvorib der edi:

— Go'zal, vafodor malika! Men sening o'g'lingni valiahd deb e'lon qila olaman. Bu xalq orasida hech qanday shubha tug'dirmaydi, chunki sening o'g'ling Qutlug', rahmatli akamning valiahdi edi.

Qatiba To'g'rulning "rahmatli akamning" degan so'ziga kuldi va:

— Qardoshingni Xudoning rahmatiga topshirganing uchun ham uning o'g'lini valiahd, xotinini esa malika deb e'lon qilishing kerak, — dedi. To'g'rul unga javoban:

— Butun qiyinchiliklar ham xuddi mana shu malikalik ustida — deb qo'ydi.

Qatiba jahl bilan so'radi:

— Bunda qanday qiyinchilik bor?

— Men bugun malikaga uylanadigan bo'lsam ertaga dushmanlarim hamma yerda, xotiniga uylanish uchun qardoshini o'ldirdi, deb aytadilar, butun Sharq mamlakatlarida obro'yimni tushiradilar. Unda Qizil Arslon nima deydi? Bizning uylanishimiz unga bizning aybimizni isbotlash uchun bir dastak bo'lmaydimi?

Qatiba kinoya bilan dedi:

— O'g'lini o'ldirish, otasi yoki og'asining ko'zlariga qo'rg'oshin quyish kabi hodisalar go'yo hukmdorlar orasida kam uchraydigandek. Sen menga yaxshiroq qara, o'zing ham yaxshiroq o'ylab ko'r. Hozir menga tikilayotgan shubhali ko'zlaring

mendan minnatdor bo'lishi kerak emasmi? Men bo'lmaganimda, bu ko'zlarga qo'rg'oshin quyulmasmidi? Sizning sulolangiz qonli dog'lardan xolimi? Xalq nima desa deyaversin. Lekin a'lo hazrat o'z malikasining maslahatini quloqqa olishi kerak. Bu shon-shavkatni hukmdor a'lo hazratga men berganman. Shuning uchun ham mening aytganim bo'lishi kerak. Men taxtga chiqargan zotni yana taxtdan ham tushira olaman. A'lo hazrat ertaga o'z oilasini Sova shahridagi mulkiga ko'chirishi shart. Undan so'ng, menga uylanib, o'g'limni valiahd qilib e'lon qilasiz.

To'g'rul Qatibaning so'zini kesib dedi:

— Malikaning taxti tojni egallashda menga yordam berganini inkor qilmayman. Lekin malika mening mustaqil ishlashim uchun ham imkon berishi kerak. Ajabo, men o'z vazifamni tushunmaymanmi? Malikaning o'zi Qizil Arslonning va Ozarbayjon xalqining menga dushmanligidan bexabarmi? Malikaning o'zi ko'rib turibdiki, hozirgi vaziyatda orzularimizni amalga oshirish befahmlik bo'lardi. Bu ishimiz dushmanning xurujini yana ham kuchaytirib yuborishi mumkin. Agar Qizil Arslon bilan ozarbayjonliklarning tazyiqidan qutula olsam, biz ertagayoq bu masalani hal qila olardik, menimcha, oilani ham bu yerdan Sova shahriga ko'chirishning hojati yo'q. Baxtsiz oilamning bu ishlarga qarshilik ko'rsatishga holi ham yo'q. Bu masalani malikaning o'z vijdoniga havola qilaman. Qizil Arslon bizning nikohimizga sovuqqonlik bilan haray olarmikan?

Qatiba yana To'g'rulga e'tiroz qildi:

— Bu hodisa yuz bergandan keyin Qizil Arslon hech narsa qilolmaydi, — dedi.

— Ishona olmayman, — dedi To'g'rul o'ychan bir holda. — Usiz ham mening mavqeyim mustahkam emas.

— Kuchli bir qo'shini bo'lmagan bir mamlakatni aqlli va tadbirkor bir hukmdor idora qila oladi. Hozir Qizil Arslonni ham, Ozarbayjon mamlakatini ham iskanjaga olish uchun qulay payt keldi.

— Malikaning fikrlariga qo'shilolmayman, Otabek mamlakatida hech qachon bugungidek erkin va osoyishtalik bo'lgan emas, na mamlakat ichida isyon kutiladi va na xorijiydan tahdid. Chunki

tashqi davlatlar bilan do'stlik munosabatlari o'rnatilgan. Har jihatdan Qizil Arslonning vaziyati yaxshilangan.

Qatiba kuldi:

— Sulh va do'stona shartnomalar qonli muhoribalar boshlashga fursat poylash uchun kerak. Ba'zi davlatlar sulh shartnomasiga qaramay, birinchi ishoramdayoq, Qizil Arslonning tuprog'iga bostirib kiradi. Men shu kunning o'zidayoq chegaralarni ochib berib Xorazm qo'shinlarini mamlakatga kirita olaman. Men istasam, ikki hafta mobaynida Bag'dod qo'shini yana Hamadon darvozasidan kira oladi. Men shirvonliklar bilan gurjilarni Oronga qarshi oyoqqa turg'iza olaman. Men istagan vaqtimda Qizil Arslon butun Shimoliy Ozarbayjon, Rey, Iroq va Eronni boy berib qo'yadi. Bahromshoh Fors chegaralaridan kechib o'tish uchun qulay fursat kutib yotibdi. A'lo hazrat shuni bilib qo'ysinki, mening o'g'lim boshchiligida bo'lgan qo'shin besh kun ichida Reydan hujum boshlab, Qazvin shahrini ishg'ol qiladi va Tabriz bilan Hamadonning aloqasini ham uzib qo'ya oladi. Hozirgidan ham qulay fursat bormi?

— Shubhasiz, lekin malikaning bu rejalarini amalga oshirish kerak bo'ladi-da.

— Hammasini menga qo'yib bering. Husomiddinga Reyda qo'shin tuzishga buyruq berganman. U yerga yetib borishi bilan ish boshlaydi. Shirvon va Bag'dod bilan ham aloqa bog'langan. Endi ko'nglingiz tinchidimi?

To'g'rul bu suhbatdan keyin Qatibaga biror so'z deya olmadi.

— Men bularning hammasiga chin qalbimdan roziman, — dedi soxta bir jiddiylik bilan. — Bu rejalar hammasi amalga oshirilgandan so'ng, muhtarama malika nikohga rozilik beradigan bo'lsa, mening hech qanday e'tirozim yo'q. Bizning to'yimiz bilan Qizil Arslonning ta'ziyasi bir kunda boshlanishi kerak.

NASIHAT

To'g'rulning xiyonati Yaqin Sharqda ahvolni keskinlashtirib yubordi. Hukumat qo'shni davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarni buzib, ularni tan olmay qo'ygan edi.

Chegaralarda ro'y bergan xavfni bartaraf qilish uchun Shimoliy Ozarbayjon xalqining kayfiyatini o'rganish, ular To'g'rulning siyosatiga xayrixoh yoki xayrixoh emasliklarini bilish kerak edi. Shuning uchun Qizil Arslon akasining o'g'li Abubakirni Shimoliy Ozarbayjonga jo'natdi, chunki ozarbayjonliklar Qizil Arslon tomonidan valiahdlikka nomzod qilib ko'rsatilgan bu yosh yigitni nihoyatda sevar edilar. Uning birinchi valiahd qilinib ko'rsatilishini Ozarbayjon xalqi ma'qullagan edi.

Ozarbayjonliklar To'g'rul bilan Qatiba o'rtasidagi aloqani, ular davlat ishlarini ajnabiylarning yo'l-yo'rig'i bilan boshqarayotganlarini ko'rgandan so'ng Qizil Arslonni qo'llab-quvvatlashdi. Bu esa Qatibaning o'g'li Qutlug'ni valiahd etib tayinlash haqidagi xayolini puchga chiqarar edi.

Hukumatni boshqarish ishlarida muhim omil bo'lgan Ozarbayjon ziyolilari To'g'rulning do'stona maktublariga e'tibor bermasdan, mamlakatning najot yo'lini To'g'rulda emas, yana Qizil Arslonda ko'ra boshladilar. Shu sababli yosh valiahdning Shimoliy Ozarbayjonga kelishi to'g'risidagi xabar ko'p shaharlarda katta xursandchilik bilan qarshi olindi.

Ozarbayjonda shod-u xurramlikka sabab bo'lgan bu xabar Hamadonda katta bir tashvish tug'dirdi. Qatiba ozarbayjonliklarning bir so'zlik ekapliklarini yaxshi bilar, yangi valiahdni qilich kuchi bilan mudofaa qila olishlariga ko'zi yetar edi. U o'g'lini valiahd qilish to'g'risidagi orzulariga faqat mamlakatni sotish yo'li bilan erishish mumkinligini anglar edi.

Ayni zamonda To'g'rul ham Abubakirni valiahd deb e'lon qilinganligini eshitib, o'z valiahdi Malikshohning taqdiri haqida tashvishda qoldi. Hamadon bilan Bag'dod, Hamadon bilan Iroq, Xorazm, Rey va Fors o'rtasida jiddiy muzokaralar olib borilmoqda edi. To'g'rul Qutlug'ni valiahd qilish uchun Qatibaga so'z berganidek, Qatiba ham o'zini malika va o'g'lini valiahd qilib tayinlanishi evaziga qo'shni mamlakatlarga va'dalar berar va bitimlar tuzardi.

Qatibaning bir oyog'i Bag'dodda bo'lsa, bir oyog'i Hamadonda edi. Bag'dod xalifasi Qizil Arslon ko'targan valiahdni tan olmasligi haqida Qatibaga qat'iy so'z berdi. Qizil Arslon tuzgan shart-

nomalarni buzish uchun To‘g‘rul bilan Qatibaning boshlagan harakati xalifaning manfaatiga muvofiq bo‘lib tushgan edi. Xalifa yana Otabeklar mamlakatida ichki urushlar chiqarish to‘g‘risida o‘ylar edi.

Shunday besaranjom vaqtlarda Qizil Arslon o‘zini yo‘qotib qo‘ymasdan birinchi bo‘lib Ozarbayjon xalqini safarbar etishni ko‘zda tutardi. Chunki bunday mushkul vaziyatlardan qutulish uchun qurolli kuchlargina ish berar edi. Bu kuchlar esa, faqat Ozarbayjonda mavjud edi. Arab Iroqi, Rey qo‘shinlaridan tashkil topgan dushmanga qarshi faqat Ozarbayjonda mavjud bo‘lgan qo‘shinnigina qo‘yish mumkin edi. Yosh valiahd Oroz soyining qirg‘oqlarida yozgan xotiralarida shularni qayd qilgan edi: “Inson bu yerda, o‘zining Ona Vatanida yashayotganligini his eta oladi. Xalqi bir tilda so‘zlashadi va bir orzu bilan yashaydi. Qishloqlilaridan tortib ziyolilarigacha gaplari bitta: “Ozarbayjonning mustaqillik masalasi hayot masalasidir”. Tushunchasi zo‘r xalq. Dushmanga qarshi o‘jar, qasoskor, do‘stlariga nisbatan juda ham mehribon, sevimli. Xalqning aksariyati dehqonlar, mehnatsevar odamlar. Shimoliy Ozarbayjonning menga ta’sir qoldirgan xususiyati har ehtimolga qarshi xalqning muttasil tayyor turishidir. Dalalarda ekin-tikin bilan mashg‘ul bo‘lgan dehqonlarning oti ham egarlangan holda dalaning bir chekkasidagi daraxtga bog‘log‘liq turadi. Kechqurunlar dehqonlarning daladan qaytishlarini ko‘rganimda jangdan qaytayotgan otliq askarlarni tasavvur qilaman. O‘q, kamon, qilich, nayza ishlatishda mohir bo‘lgan bu xalq ziroat ishlarida ham zo‘r mirishkordirlar. Paykal va bog‘-bog‘chalari mamlakatning hamma manzaralari singari juda ham ko‘rkam va safobaxshdir.

Diqqatimni jalb etgan jihatlaridan biri mamlakatning yetuk ziyoli kishilaridir. Men Oroz daryosidan Ganja shahrigacha xayr-sadaqa so‘ragan bitta ham tilanchini ko‘rmadim, xalq ochko‘z emas, hammasining ko‘zlarida g‘urur va mardlik uchquni chaqnaydi. Shunday xalqning muhabbatiga sazovor bo‘lishimiz biz uchun katta baxtdir”.

Valiahd Ganjaga kelgandan so‘ng ikki kun o‘tgach, Qizil Arslonning bergan maktubini olib buyuk shoir Nizomiyning ziyoratiga bordi.

Yosh valiahd shoirning she'rlar va ilmlar xazinasidan iborat bo'lgan kesak devor kulbasiga kirganida bir zum o'ylanib xayol surdi va darhol shoirning "dafinlar xarobalarda!" degan so'zlarini xotirladi va boshini egib buyuk shoirning qo'lini o'parkan, shoir ham uning peshonasidan o'pib o'zining yoniga o'tqazdi. Valiahdni mehmon qilish uchun topgan tutganini o'rtaga qo'ydi. Valiahd shoir bilan bir dasturxon yonida o'tirib nonushta qildi. U o'z xotirotida shunday yozgan "di: "Bu dasturxonda valiahdni mehmon qilishga arzigudek hech narsa yo'q edi. Men shoirga xabar qilmasdan to'satdan keldim, chunki uni tashvishga qo'yishni istamagan edim.

Maqsadim uning turmushi va maishati bilan tanishmoq edi. Bu dasturxondan menga nasib bo'lgan muborak taom hech bir mamlakatning valiahdiga nasib bo'lmaydi. Buyuk shoir ikki valiahdni ovqatlantirdi. U meni o'g'li bilan tanishtirar ekan: "Dunyo shunday. Bu saodat faqat menga nasib bo'ldi, buyuk bir mamlakatning valiahdi, yo'qsil bir shoirning valiahdi bilan baravar faqirona bir dasturxon atrofida o'tirib nonushta qilmoqdalar", dedi.

Nonni arpa aralashgan bug'doy noni ekanligini sezdim, lekin juda ham lazzatli edi. Men haligacha shunday shirin non yeganimni xotirlay olmayman.

Pishirilgan tovuq keltirildi. Tovuqni o'zi burdalab bir oyog'ini mening oldimga, bir oyog'ini o'g'li Muhammadning oldiga qo'ydi. Biz rayhon urug'i solingan muzdek sharbat ichdik.

Nonushta qilinib bo'lingach, Nizomiy Qizil Arslon tomonidan yuborilgan maktubni ochib o'qiy boshladi:

"Muhtaram shoir!

Mamlakatning chegaralaridan kelgan xabarlarni eshitar ekanman, menga Tabrizda aytgan so'zlaringizni xotirlayman. "Sulh shartnomalari qilichlar charxlanguncha davom etadi". Bag'dod xalifasi va Xorazmshohlar bilan tuzilgan sulh shartnomalarimizning siyohi quriganicha yo'q. Ko'rinib turibdiki, muhtaram shoir aytganlaridek, ularning ikkisi ham qilichlarini charxlab bo'ptilar. Ular o'z baxtlarini yana bir martaba sinamoq uchun qilichlarini qinidan chiqarishni istaydilar.

Dushmanning bu surbetligi meni unchalik hayratda qoldirmaydi, chunki dushman dushmanligini qiladi. Ular shartnomalarga

amal qilmaslikka haqlidurlar, chunki bu shartnomalarga majburiyat ostida imzo chekkanlar. Bunga ajablanmaslik kerak. Meni asabiylashtirgan narsa To'g'rulning harakatlaridir.

To'g'rul o'z mustaqilligini ajnabiylar himoyasi ostida qurishni istaydi. U ajnabiylarning himoyasi bilan qo'lga kiritadigan mustaqillikning asoratdan iborat ekanligini hech tushunmaydi. Uning eng katta xatosi uni himoya qilayotgan xalqning kuchiga ishonmasligida. O'zi erishmoqchi bo'lgan mustaqillikning abadiy asirlikdan iborat ekanligini anglamaydi. Ont ichib aytaman, uning hiyla-yu nayrangi meni hech ham qo'rqita olmaydi.

Men qo'shinlarimiz bilan tuzgan sulh shartnomalarni qo'ynimga solib olsam ham, qilichimni qiniga solganim yo'q. Lekin muhoribalar mamlakatning iqtisodni ahvolini yomonlashtirib, xalqni qiynab qo'yishi mumkin. Meni qo'rqitayotgan narsa ham mana shu.

Shoir bilan Ozarbayjonda mavjud bo'lgan yuksak madaniyatni mustahkamlab rivojlantirish to'g'risida gaplashgan edik. Lekin To'g'rulning mamlakatimizga solayotgan yangi tahlikasi xalqning iqtisodiy ahvoliga, madaniyatning rivojiga ta'sir qilmasdan qo'ymaydi.

Yuqori madaniyat yuksak iqtisodga bog'liq. Mamlakatning bir necha bo'laklarga bo'linib ketish xavfi bor. Dehqonlarni yerdan, hunarmandlarni dastgohidan ajratib olishga to'g'ri keladi.

Lekin To'g'rul, uning hamfikri bo'lgan Qatiba boshlagan bu qonli o'yinlaridan hech qanday natija chiqara olmaydilar.

Men poytaxtni zararli unsurlardan tozalagan vaqtimda Qatibani ham o'g'lining yoniga, Rey shahriga jo'natgan edim. Husomiddin xoin qilichimning ostidan qochib Xorazmshohlarga sig'ingan edi. To'g'rul uni Hamadonga chaqirtirib olib, bir necha kishilar bilan birga Qatibani Hamadonga olib kelish uchun uni Rey shahriga jo'natgan edi. Hozir Qatiba Hamadonda. Husomiddin To'g'rulning topshirig'i bilan Rey tomonlarida Ozarbayjonga qarshi kuchli bir qo'shin tuzgan. Ularning asosiy maqsadi Ozarbayjonni Hamadondan ajratib, Qazvin shahrini ishg'ol etishdir.

To'g'rul xalifaning fikrini bilish maqsadida Qatibani ikki martaba xalifaning huzuriga yuborgan. Shubhasiz, xalifa ular-

ning fikrlarini quvvatlaydi, chunki Qatiba bilan To'g'rulning bu tashabbusi xalifa bilan bizning o'rtamizda tuzilgan Bag'dod shartnomasini bekor qiladi.

Muhtaram shoir, bizga qarshi tuzilgan ittifoq juda ham katta. Biz zo'r tayyorgarlik ko'rishimiz kerak. Valiahdni shuning uchun ham Ozarbayjonga jo'natdim, unga siz bilan ko'rishishni buyurdim. U hali yosh, lekin aql farosatli, insofli. Uning kelajagiga katta umid bog'layman. O'ylaymanki, u valiahdlik sharafiga loyiq. Hukumatni idora qilish borasida oqilona va yetuk fikrlar egasi.

Ozarbayjon xalqi o'rtasida bir yosh yigitning obro'sini ko'tarish kerak, chunki To'g'rulning o'g'li Malikshoh bilan Qatibaning o'g'li Qutlug'lar valiahdlik maqomiga loyiq emaslar.

O'ylaymanki, mening maqsadimni tushuna olgandirsiz. Mamlakatni tahlikadan qutqarish lozim. O'tinib so'rayman, yosh valiahddan muhabbat va marhamatingizni darig' tutmang. Xususan, u buyuk shoirning eng sodiq muxlislaridandir. Iltimos shuki, To'g'rulga qarshi boshlagan harakatning asosiy maqsadini Ozarbayjon aholisiga tushuntirsangiz. Ozarbayjon xalqi, Qizil Arslon To'g'rulning toj-u taxtini qo'lidan olishga harakat qilyapti deb o'ylamasin. Men mas'uliyatni o'z bo'ynimdan soqit qilish uchun Qatiba Reyda ekanligida unga bir maktub yuborib, nasihatlar qildim. Lekin maktubimga javob yubormadi, chunki ular o'zlari uchun g'alabani ta'min qilingan deb o'ylasalar kerak. Hozirning o'zidayoq To'g'rulga ham ogohlantiruvchi bir maktub yuboraman. Lekin bir natijaga erishishga ko'zim yetmaydi".

Nizomiy maktubni o'qib biroz o'ylanib qoldi. Valiahd ham indamay unga qarab turardi. U Nizomiyning maktubdan qanday taassurot olganligi va qanday javob berishiga qiziqar edi. Nihoyat, Nizomiy boshini qimirlatib:

— Shunday, vaziyat og'ir, — deb qo'ydi. — Men hukmdor bilan Tabrizda so'zlashgan vaqtimda mamlakatda yuz bergan hodisalar haqida fikrimni aytgan edim. Mamlakat har xil xalqlar va turli millatlardan tashkil topgan. Otabek mamlakatida yashovchi turk bo'lmagan bir qancha millatlar borki, ular yaqin kunlargacha o'zlarini mamlakatning hokimi deb hisoblar edilar. Hozir ular o'zlarini mahalliy turklar bilan teng bir huquqda deb hisoblash-

lari qiyin. Shuning uchun ham Otabeklar davlati ular bilan juda ehtiyotli munosabatda bo'lishi kerak, ularning milliy urf-odati va an'analarini hurmat qilib, erkinliklarini ta'min etish kerak, chunki mamlakat ichida yashayotgan norozi kishilar, chegaraning tashqarisidagi dushmanlarga xayrixoh bo'ladilar. Shu sababdan ularning ittifoqini buzish kerak. Oldimizda uch vazifa turadi. Birinchisi, tashqi dushmanlarni tormor qilish, ikkinchisi, ichkaridagilarning erkin yashashiga imkon berib, ular bilan inoqlashmoq, uchinchisi esa, o'jarlik qilganlarni jazolamoq va mamlakatdan surgun qilmoq. Biz ozarbayjonliklar birinchi masalada hukumatga ko'mak bera olamiz. Ozarbayjon xalqi qurol bilan kelgan tashqi dushmanga orqasini ko'rsatgan emas.

Kerak bo'lsa, qurol bilan tanish bo'lmagan kishilarimiz ham otga minib, qo'liga qurol oladi.

Nizomiy bu so'zlardan keyin bir she'rni o'qidi:

"Chu boshad navbati shamsherbozi
Xatibon ro dihad shamsher qozi"[1]

— Albatta, uxlash kerak emas. Modomiki, raiyatning g'amini yeyish vazifasi zimmangga tushgan ekan, uni o'rniga qo'yishing kerak. Dushman pistirmada turgan mahalda sarxushlarga xos bo'lgan uyquni tashlash kerak.

Zimmasiga vazifa yuklatilgan kishilarning uxlashi xiyonat. O'zingni hech qachon kuchli deb hisoblama, chunki sen hozircha dushmanning quvvatini bilmaysan. Shon-u sharaf sening martabangda emas. Aqling bo'lmasa, kim seni hurmat qiladi? Bir necha hukmdorlar borki, ular mamlakat dushmanlari bilan muboraza olib bormoqdalar, lekin o'zlari aqlning dushmani bilan do'stdurlar. Aqlning dushmani sharobdir. To'g'ri, sharob bir muddat dunyoning dard-u g'amini unittira oladi. Ayni zamonda dunyoning o'zini ham insonning qo'lidan olib qo'ya biladi. Dunyoda erkak uchun haqiqiy libos rostgo'ylikdir. Inson yolg'iz so'zda emas, ishda ham halol va qalbi toza bo'lishi shart. Mamlakatning zararini o'ylagan boshlarni yanchish kerak. Qarigan daraxtni kallaklamasang, uning

[1] Agar navbat shamshir o'ynatishga yetsa, qozi xatiblarni ham qurollantira oladi.

soyasida qolgan yosh daraxtlar o'solmaydi. Chashmalarning oqar yo'llari tozalanmasa, tuproq tagidan muzdek suv chiqmaydi. Shuning uchun ham yurtning tozaligiga to'siq bo'lgan eski fikrlarni supurib tashlash lozim. Qiliching o'tkir bo'lishi kerak, lekin xayri ehson qilgan tangalarning yaltirashi qilichlarning yaltirashidan ham porloq bo'lishi kerak. Sheryurak podshoh dushmanni ojiz hisoblamaganidek, oshxona mushugidan qo'rqmaydi. Hukmdor dangasa va zaif bo'lmasligi lozim. Hukmdor o'zining emas, xalqining martabasi, shon-shavkatini ko'tarish uchun jon kuydirishi lozim. Shundagina fuqaro unga sodiq bo'ladi...

Nizomiyning so'zlarini valiahdning kotibi yozib borardi, nasihat tugaganidan so'ng yosh valiahd shoirning qo'lini o'pdi va dedi:

— Mening yana bir iltimosim bor. Muhtaram shoir maslahat ko'rsalar, men uchun Iskandarnoma dostonini yozsinlar, chunki Iskandarning tarixida Sharq xalqlarining qahramonligini ko'rsatish uchun juda ham katta imkoniyatlar bor. Bunda muhtaram shoir xalqlarni yana bir martaba tiriltirib hayot muborizasiga tashlay biladi. Biz Tabrizda muhtaram shoirning "Xisrav va Shirin" dostonini nazmga solganini eshitganimizda haddan ziyoda shodlandik. Hozir ham xalqimizni shunday adabiyotga bo'lgan ehtiyoji non va suv kabi zo'rdir. Xalqimizni mazhab va tariqat mubohisalaridan qutqarish uchun shu xil asarlarning katta ta'siri bor, odamlar bo'sh vaqtlarini mazhab, tariqat munozaralari bilan o'tkazadilar. Sizning yozadigan dostoningizdan esa xalqimiz badiiy zavq oladi hamda Sharq xalqlarining qahramonona tarixini o'rganadi.

Buyuk shoir Nizomiy valiahdning fikrlarini eshitganidan so'ng uni aqlli va chuqur tushunchalarga ega bir yosh yigit ekanligiga qanoat hosil qilgach:

— Fikring to'g'ri, — dedi valiahdning peshonasidan o'pib. — Xalqimizning boshini yolg'iz mazhab, tariqat mubohisalarigina emas, xalqlarning siyosiy ijtimoiy tarixini ertak va afsonalar shaklida bergan shoirlar ham aylantirganlar. Men To'sinning buyuk shoiri ustoz Abul Qosimga nihoyatda hurmat saqlayman. Lekin u o'zining katta asarida naqadar san'atkorlik namoyish qilgan bo'lsa ham, xalqlarning tarixini, voqealarni buzib ko'rsatgan va katta xatolarga yo'l qo'ygan. U tarixga aloqasi bo'lmagan har qanday afsonalarga

o‘z asarida o‘rin beravergan[1]. Lekin Tus shoiri Firdavsiydan keyin tarixiy doston yozuvchilar bu yo‘lni davom ettirmasligi kerak. Tarixiy asar yozmoqchi bo‘lgan shoirlar inson shuuriga hazm bo‘lmaydigan quruq afsonalar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Masalan, payg‘ambarning me’rojini[2] manzuma shaklida berishni istagan bir qancha shoirlar ham bu masalani dinchi xatib, voizlar singari tasvir etganlar, Ular xayoldagi va tafakkurdagi me’roj bilan xurofiy me’rojning farqiga bora olmadilar, shoir bo‘la turib oddiy bir mullavachchaning saviyasidan yuqori ko‘tarila olmadilar. Xalqlarning haqiqiy tarixlari afsona va ertaklarning quyuq tumanlari orasida yo‘qolib ketgan, hamma hodisalar shubha libosiga burkalgan. Iskandarning hayot chashmasini qidirib yurib zulmat ichiga kirib ketganligini hech bir shoir nafis bir shaklda bayon eta bilmagan. Iskandar zulmat ichida qolib ketgan, haqiqiy hayot yo‘lini izlab topa olmagan. Men esa yosh valiahdga yozadiganim dostonda Iskandarga abadiy tiriklik suvini ichiraman va hayotini boshqacha ibratomuz tarzda tasvir etaman.

Muhtaram amakingiz yozgan maktubning javobiga kelsak, unga shu bugun javob yozaman. Hozircha shuni aytmoqchimanki, Ozarbayjon xalqi o‘zining Ona Vatanini mudofaa qilish uchun har qanday fidokorlikka tayyordir. Qizil Arslon bunga amin bo‘lsinlar.

TO‘RT MAKTUB

Farivar tog‘ining etaklaridan esgan shabada tun qorong‘iligidan foydalanib chechaklar bilan o‘pishgan vaqtda haqqush ham chinor shoxlarida o‘tirib uyquga ketgan minglarcha qushlarga alla aytardi.

Tor daradan shovillab chiqib kelayotgan Moshon sayhonlikka chiqib oqishini sekinlashtirar, uning suvlarida yulduzlarning aksi jimirlardi.

[1] Nizomiyning sharhnomasi,

[2] **Me’roj** — ko‘kka ko‘tarilmoq demak. Diniy kitoblarda Muhammad (s.a.v.) ning jannatdan yuborilgan otda osmonga uchib chiqqanligini yozadilar. Nizomiy esa o‘zining dostonlarida bu masalaga tamomila boshqa bir ma’no berib, boshqa bir shaklda oydinlatgan. U Muhammad (s.a.v.)ning jisman emas, xayolan yuqori olamlarga sayohat qilganini yozadi.

Faxriddin janubga qaragan bir boloxonada o'tirib Abuddajjona minorasining tepasida yonib turgan fonusning miltillayotgan nurlariga tikilib o'yga cho'mgan.

Vaziyat haddan tashqari og'ir, bir tomondan Qizil Arslon "poytaxtni tashlab chiqmaysan. Qo'shinni To'g'rul tomon ta'minlamaydigan bo'lsa, xarajatini Tabrizdan yuboramiz. Vaqtincha bekor o'tirishni o'zingga or deb bilma — bu bekorchilik biz uchun zarur",— deb yozgan edi. Lekin Hamadonda o'tirish va To'g'rulning beandishaligiga chidash ham mumkin emas edi.

Qatiba xotun Hamadonga kelganidan so'ng To'g'rulning Faxriddin bilan munosabati tamoman o'zgargan edi. Qatiba esa Faxriddindan otasining xunini talab qilishga tayyorlanardi.

Faxriddining qulog'iga chalingan xabarlarga ko'ra To'g'rulning o'zi ham Qatiba xotunning bu talablarini quvvatlar edi. Lekin Qatiba Iroq qo'shinining poytaxtga kelishi va Ozarbayjon qo'shinlarini qurolsizlantirishini kutib turar edi. Faxriddin xavf-xatar yaqinlashayotganini his etib tahlikaga tushdi, chunki poytaxtning o'zida ham Iroq va eronliklardan tuzilgan qo'shinning miqdori Ozarbayjon qo'shinlaridan ko'p edi.

Faxriddin ustunga suyanib ahvolini o'ylar ekan, ko'nglidan shu fikrlar o'tar edi: "To'g'rul bilan Qatiba meni bir gapov sifatida bu yerda ushlab turmoqdalar. Ular meni muayyan bir maqsadda saqlanayotgan qurbondek tutmoqdalar. Men bir qahramon, bir jangchiman, dushmandan qo'rqmayman, lekin bekor yotib, bo'ynimga pichoq qachon kelarkan, deb kutib turgan qo'ydek ko'zlarimni pirpiratmoqdaman. Buyuk bir maqsad yo'lida o'lish unchalik ham qo'rqinchli emas, lekin men kutayotgan o'lim sharafsiz va haqoratli o'limdir. Ertadan boshlab Qizil Arslonga maktub yuborib, vazifamdan qo'l yuvaman. Men To'g'rul kabi sarxushlarning, Qatiba singari axloqsizlarning qo'lida o'lishni istamayman".

Xizmatchilar kelib kechki ovqat uchun dasturxon yozdilar. Faxriddinning ovqatga xushi yo'q edi. Lekin Sayid Alouddinning kelishi uning g'am-g'ussalarini tarqatib yubordi. Ular birga ovqat qilgani o'tirdilar. Xiyol o'tmasdan xizmatchi kelib darvoza oldida bir tilanchi ayol kelib turganidan xabar berdi.

Faxriddin:

— Istaganini berib rozi qilinglar, — degan edi, xizmatchi: hamma narsa berdik, lekin u sizning o'zingizni ko'rishni istaydi, — dedi.

Faxriddin taajjublanib so'radi:

— Ayol kishi deysanmi?

— Ha, hazrat.

Alouddin bosh chayqab:

"Bu tilanchi o'sha haromzoda Sabo xonim bo'lmasin tag'in?" — deb Faxriddinga qaradi.

— Sabo xonim bo'lganida qanday yaxshi bo'lar edi. Uni shu soatdayoq o'ldirardim, — deb xizmatchiga buyruq berdi Faxriddin:

— Boshlab kiring!

Tilanchi ichkariga kirib bosh egdi va yuzini ochib Faxriddinga tikildi. Uning rangpar, horg'in yuzi Faxriddinga tanishday tuyuldi, lekin uni qayerda ko'rganligini eslay olmas edi. Tilanchi choyshabini boshidan olib tashlab so'zlay boshladi:

— Mening muhtaram og'am, sening huzuringda turgan Afifadir. Nahotki o'zingning sobiq joriyangni tanimasang?

Faxriddin Afifaning tovushini eshitishi bilanoq, uning ko'z oldida Bag'dod gavdalandi. Durratul-Bag'dodning ayvonida berilgan nonushta ziyofatini xotirladi. Afifa oq shohi ko'ylagida Faxriddinning yonida turib uni yelpir edi. Go'yo tovus qanotidan yasalgan yelpig'ichning shabadasi yana uning yuzlariga kelib tegayotgandek bo'ldi.

— So'zla, Afifa bu qanday ahvol? Durraning boshiga biror falokat keldimi? — deb yubordi Faxriddin.

— Tinchlaning, og'a! — dedi Afifa sekingina, — xonimning boshiga hech qanday falokat kelgani yo'q. Xonimning yozgan muhim va maxfiy xatini sizga keltirish uchun men bu qiyofaga tushdim.

Afifa bu so'zlardan keyin maktubni chiqarib, Faxriddinga uzatdi. Faxriddin esa joriyalarni chaqirib:

— Tezda mehmonni hammomga olib boring, cho'milib istirohat etsin, — dedi va maktubni olib o'qiy boshladi:

"Mening jigarim, mening so'nggi umidim bo'lgan Faxriddin!

Bugun mahrum xalifa Mustarshidbillohning qizidan bir gap eshitib, haddan tashqari tashvishga tushdim. Bu xabarni senga yetkazish uchun Afifani jo'natishdan boshqa biror chora topolmadim.

Qatiba xotun necha kundan beri Bag'dodda o'z bobosi Mustarshidbilloh oilasida istiqomat qilib turibdi. Buvisi bilan birga ikki marta Nasiriliddinillohning huzurida bo'lganlar. Qatibaning senga dushmanligini bilardim. Men sening vataning bo'lgan Ozarbayjonga qarshi bo'ladigan har bir suiqasdni sening hayotingga bo'lgan suiqasd deb bilaman.

Qatibaning Bag'dodga nima uchun kelganligini bilishga harakat qildim. Xalifaning qizi Oliyayi Ulyo Qatibaning Bag'dodga nima uchun kelganini yashirincha menga aytib berdi va qanday yo'l bilan bo'lmasin, bu xabarni senga yetkazishni so'radi. U qiz juda ham mehribon va sening samimiy muxlislaringdan. U hech qachon seni mahv etilishingni istamaydi.

Seni o'ldirish uchun bu yerda tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Qatiba yana Sabo xonimni Bag'dodga chaqirtiribdi. Xiyonat uning vositasi bilan amalga oshiriladi. Faxriddin! O'tinib so'rayman, Hamadonda turma, Ozarbayjonga ket, onang yolg'iz, u haligacha Sadriddin uchun ko'z yoshi to'kmoqda. Uning ustiga sening g'aming qo'shilmasin. Menga ham rahming kelsin, sendan boshqa umidim yo'q. Boshingga biror falokat kelguday bo'lsa, men uchun ham, onang uchun ham og'ir musibat bo'ladi.

Sen bilasanki, hammani xursand qilgan Bag'dod meni qon yig'latmoqda. Aysh-u ishrat shahrida unutilmas bir xiyonatning azobini chekmoqdaman.

Sen bilasanki, sharbat to'la piyolalardan zahar ichmoqdaman. Jannat ichida jahannam azobini tortmoqdaman. Taqdir meni jazoladi. Mening boshimga falokat kelsa, azobim yana ortadi. Senga yolvoraman, Faxriddin, maktubni olishing bilan Ozarbayjonga jo'nab ket!

Bag'dod, Durra".

Maktubni o'qib bo'lganidan keyin biroz vaqt o'tgach, Afifa liboslarini alishtirib boloxonaga chiqdi. Faxriddin uni kechki ovqat-

ga taklif qildi, ovqatdan so'ng Durratul-Bag'dodning yozgan maktubini chopar orqali tezlik bilan Tabrizga Qizil Arslonga jo'natdi.

* * *

Afifa ikki haftadan beri Hamadonda yashamoqda edi. Faxriddin Qizil Arslonga jo'natgan choparning qaytishini va Qizil Arslonning javobini kutmoqda edi. Qizil Arslon yuborgan javobida bunday deb yozgan edi:

"To'g'rul bilan Qatibaning fitna va ig'volariga qarshi siz ham Bag'dod, Hamadon, Rey, Marv shaharlari ichida maxfiy guruhlar tuzib ularning ishlarini yo'lga solishingiz kerak. Bag'doddan To'g'rulga, To'g'ruldan Bag'dodga borib kelayotgan choparlarning hammasini yo'llarda ushlab olib borayotgan maktublarini qo'lga tushirish zarur.

Hamadon bilan Xorazmshohlar orasida bo'layotgan gaplarni bilish uchun xatlarini qo'lga tushirish kerak.

Qanchalik qimmatga tushmasin, Hamadon shahrini o'z odamlaringiz nazorati ostiga oling. Bo'lg'usi janglardagi zafar, dushmanni o'rganishga bog'liq".

Bag'dodga Alouddin bilan ketadigan odamlar ikki-uch kishidan bo'lib jo'nashlari kerak edi Faxriddin Alouddinni kuzatib qo'yar ekan, shunday dedi:

— Mening Qatibadan qo'rqadigan joyim yo'q. Lekin sizni Sabo xonim juda osonlik bilan qo'lga ola biladi. Shuning uchun ham birinchi navbatda qanday yo'l bilan bo'lmasin uni mahv etishingiz kerak. U bizga hammadan ko'p zarar yetkazadi. U juda go'zal va firibgar, makkor ayoldir. Bu haqda kishilaringni ogohlantir. Ular o'zlarini fosh qilib qo'yishlari mumkin. Mening xizmatchim Asadni o'zing bilan olib ket. U Sabo xonimni juda yaxshi taniydi. Sabo o'rtadan olib tashlanmaguncha Bag'dodda ish boshlashingiz juda xavfli.

* * *

... Bir haftadan beri Alouddinning odamlari Xalifa Mustarshidbillohning saroyi atrofida yurib, saroyga kirib chiquvchilarni kuzatmoqda edilar. Sakkizinchi kuni saroydan boshiga qora shohidan

chodra yopingan bir xotin ko‘chaga chiqdi. Xotin darvozadan chiqib joriyalar bilan xayrlashganidan Faxriddinning xizmatchisi Asad ayolni Sabo xonim ekanligini darhol sezdi va chetda turgan Afifaga tez ishora qildi:

— Xuddi o‘zi, Sabo xonim!

Afifa Sabo xonimni juda ehtiyotlik bilan ta’qib etdi va Dajla soyining qirg‘og‘iga borganida unga yetib oldi. Sabo xonim to‘xtab, qayiqning kelishini kutardi. Nihoyatda, qayiqlardan biri sohilga yaqinlashganda Sabo xonim qayiqchiga yaqinlashib:

— Meni ajnabiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar bozoriga olib borib qo‘ymaysanmi? — deb so‘radi.

Qayiqchi biroz o‘ylab turib:

— Bozorlar shaharning g‘arbiy tomonida. U bozorlarning hammasida ham ajnabiy savdogarlar savdo qiladilar. Bizning muhtarama xonim qaysi bozorga bormoqchilar? — deb so‘radi.

Sabo xonim hayron bo‘lib, yelkasini qisib qo‘ydi. Afifa darrov gapga aralashdi:

— Muhtarama xonimimiz nima xarid qilmoqchi ekanliklarini aytsalar, unda qaysi bozorga borish kerakligi aniqlanardi.

Sabo xonim shoshilib:

— Zeb-u ziynatlar sotiladigan bozorga, marvarid, marjonlar olib keladigan savdogarlarning bozoriga bormoqchi edim, — dedi.

— Demak, muhtarama xonimimiz Adan va Najd tomonlaridan kelgan savdogarlarning bozorlariga borishni istaydilar. Unday bo‘lsa men ham o‘sha tomonga ketyapman. Shaharning g‘arb tomoniga, to‘ppa-to‘g‘ri Kirx mahallasiga borish kerak.

Sabo xonim Afifaga minnatdorchilik izhor qildi va qo‘lidan ushlab qayiqqa chiqardi, ular shaharning g‘arb tomoniga suzib ketdilar.

Sabo xonim bu ayol bilan tanishganiga sevindi. Afifa arab, fors va turk tillarida so‘zlasha olardi. U Sabo xonimga savdo ishlarida katta yordam ko‘rsata olardi: chunki marvarid, marjon sotadigan savdogarlar bilan uzoq qiyishish kerak. Sabo xonim esa arabchani bilmas edi. Qayiqda ketayotgan vaqtlarida Sabo xonim: “Bu ayol menga yordam qilishga rozi bo‘larmikin, buni unga qanday

aytsam ekan", deb o'ylardi. Ayni zamonda molni qancha arzon olsa, shuncha ko'p foyda ko'rib, foydaning bir ulushini Afifa bilan baham ko'rmoqchi bo'lardi.

Qatiba xotun axir To'g'rulga kuyovga chiqishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Shu sababdan unga bir mamlakatning malikasiga loyiq javohirlar, marvaridlar va qimmatbaho taqinchoqlar kerak. U mayxo'r To'g'rulning yoniga birinchi marta kirgan vaqtida javohirlari bilan uning ko'zini qamashtirmog'i lozim. Shuning uchun Bag'dodga o'zi bilan birga ko'pgina tilla, kumush pullar olib kelgan edi.

Sabo xonim Qatibani injular, marjonlar va tillaqoshlar olmoqchi bo'lganini eshitib, unga o'z hurmatini taklif etdi. U ham Qatibadan, ham savdogarlardan dallollik ulushi olishni o'ylar edi. Buning uchun birinchi navbatda arab tilini yaxshi bilish lozim edi, o'zi esa bir necha so'zni bilardi, xolos.

Sabo xonim Afifaga:

— Muhtarama xonim qayerga qadam ranjida qilmoqchilar? — deb savol berdi.

— Kirx mahallasiga.

— Siz men bilan birga inju, marjonlar sotiladigan bozorga hamroh bo'lib borishni istamaysizmi?

— Siz ham o'sha yerga bormoqchimisiz?

— Ha, men o'sha bozorga borib narx-navoni bilishim kerak.

— Agar muhtarama xonim uchun shunday xizmat lozim bo'lsa, men bozorniyam, savdogarlarniyam ko'rsata olaman.

— Juda minnatdorman, xizmatingizni quruq qoldirmayman.

— Xizmat haqi bermasangiz ham bo'ladi. Modomiki, xonimning zarur ishlari bor ekan, unga ko'maklashish savob. Yanglishmasam shu yaqin kunlarda xonimning to'ylari bo'lsa kerak, shunday emasmi?

— Mening to'yim emas, bekamning to'yi bo'ladi. Bu tayyorgarliklar uning uchun. Bozorimiz o'ngidan kelsa, siz ham, o'zim ham bir nimalik bo'lib qolamiz, lekin savdogarlar bilan muomala qila bilish kerak.

Sabo xonimning maqsadi oydinlashdi. Afifa uning nima demoqchi ekanligini bildi:

— Men xonimning gapini tushundim, buni savdogarlarni o‘zlari ham bilishadi. Bag‘dodda shunday odat bor, savdogarning yoniga boy xaridorni olib borgan har bir shaxsga savdogar o‘z foydasidan ma’lum bir ulushini berishi kerak. Albatta, bu xususda savdogarlar bilan kelishish va ulushning miqdorini aniqlash kerak. Muhtarama xonimga ma’lum bo‘lsinki, ulushning miqdori ham savdo-sotiqning hajmiga bog‘liq. Bu to‘g‘rida mening tajribam bor.

Sabo xonim Afifaning gaplarini eshitib sevindi. U bundan yaxshi yordamchi topolmas edi. Qo‘lini Afifaning yelkasiga qo‘yib:

— Bu uchrashuv omadning kaliti bo‘ldi, mening savdogarlar yoniga olib boradigan xaridorim favqulodda boy xaridordir. Lekin men unga loyiq bo‘lgan narsalarni topolmayman deb qo‘rqaman, chunki har qanday jo‘n narsani ham u yoqtiravermaydi. Nodir narsalar qo‘lga tushgudek bo‘lsa, undan istaganingni ola bilasan.

Afifa kulib e’tiroz qildi.

— Ko‘rib turibmanki, siz Bag‘dodni yaxshi bilmaysiz, — dedi u. — Bu yer xalifalar poytaxti Bag‘dod. Vaqti bilan dunyoning eng boy va eng nodir narsalari oqib bu shaharga kelgan. O‘lgan xalifalardan vorislariga meros qolgan mol-dunyoning soni sanog‘i yo‘q. Bu yerda har bir tabaqaga loyiq bo‘lgan narsalar topilishi mumkin. Hozir biz borib savdogarlarni qo‘lida bo‘lgan narsalarni ko‘ramiz. Narxini, sifatini so‘raymiz.

Agar u narsalarning narxi to‘g‘ri kelsa, savdo-sotiq ishini menga qo‘yavering!

Sabo xonimning sevinchi ichiga sig‘mas edi, bu oldi-sotdidan qo‘lga tushiradigan mo‘may pul bilan Qosimobod qishlog‘idagi qurayotgan saroyini bitirib olish niyatida edi. Ular qayiqdan tushib, to‘ppa-to‘g‘ri Sug‘ulid bozoriga[1], u yerdan esa ajnabiy savdogarlarning taqinchoqlar sotadigan bozoriga chiqdilar.

Bir necha soat bozor aylandilar, lekin sulton To‘g‘rulga erga tegishga hozirlanayotgan va ikkinchi marotaba malika bo‘lishni istagan Qatibaga loyiq hech narsa topolmadilar.

Sabo xonim xafa bo‘ldi. Katta bir foydadan mahrum bo‘layotganini o‘ylab, jinni bo‘lish darajasiga yetdi, buning ustiga u

[1] Asirlar sotiladigan bozor.

juda charchagan, qorni och edi. Bozordan arzigudek biror narsa topolmay qaytayotganida:

— Toleyim qursin, sho'rpeshona ekanman, — dedi.

Afifa unga dalda berib:

— Xonim hech ham xafa bo'lmasinlar, yangi savdogarlarning keladigan kunlarini bilish kerak. Savdogarlar har kun kelmaydi, — dedi. — Lekin sizning xonimingizga loyiq bo'lgan mollarni shu yerlik savdogarlardan topish mumkin. Men bugun oqshom shunday savdogarlardan birinikiga boraman. Ertaga sizni ularning oldiga boshlab olib boraman. Ajnabiy savdogarlar kelishi bilanoq, yerli savdogarlar ularning mollarini sotib olib, keyin ularni qimmatga sotadilar. Ba'zan chetdan kelgan savdogarlarning o'zlari ham daf'ataniga molning yaxshisini xaridorlarga ko'rsatmaydilar. Shuning uchun ham biz istagan xonadonlardan topa olamiz. Unda xizmat haqimiz ham ko'proq bo'lishi mumkin. Lekin bilmadim, xonimingiz o'zi xarid qilingan molni olishga kelarmikinlar?

Sabo xonim kulib:

— Siz mening xonimimni kim deb o'ylaysiz? — dedi. — U hech qachon o'zini xor qilib savdogarlarning uyiga bormaydi. Ajabo, siz kibor xotinlarni odatini bilmaysizmi? Oldi-sotdida u qatnashadigan bo'lsa, bizga qanday manfaat bo'la olardi. Fikrimcha, u menga ishonadi. Oladigan foydamiz esa mollarni arzon narxda qo'lga kiritishimizga bog'liq. Shuni ham nazarda tutishingiz kerakki, kibor xotinlar sevgan narsalarining bahosi ustida qiyishmaydilar, chunki ular buni o'zlariga ep ko'rmaydilar.

Afifa unga quloq solib turib:

— Ko'nglingiz to'q bo'lsin, — dedi. — Bag'dodda savdogarlar, shahzodalar va marhum xalifalarning xotin, bola-chaqalari ko'p. Qimmatbaho narsalar o'shalarning uyida to'lib-toshib yotibdi. Biz bahosi to'g'ri keladigan nodir narsalarni o'shalardan topa olamiz. Xonadonlardan marvarid, marjon kabi taqinchoqlarni arzonroqqa sotib olish mumkin. Umid qilamanki, muhtarama xonim bu ishda juda katta foyda ko'radi.

Sabo xonim Afifaga minnatdorchilik bildirib duo qildi. So'ngra ertangi uchrashuv vaqtini belgilab xayrlashdilar. Sabo xonim Afifaga:

— O'tinib so'rayman, bu sir o'z oramizda qolsin. Uchinchi kishi bizning sirimizdan voqif bo'lmasligi kerak,— dedi.

Sabo xonimning yo'qolganligi, necha kundan beri saroyga qaytmaganligi Qatibani iztirobga soldi. O'ning yo'qolganligi to'g'risida mish-mish gaplar yupap edi. Birov Sabo xonim yuz ming dinor tilla olib qochipti desa, boshqalar o'g'rilarning qo'liga tushib talanipti yoki Dajla daryosiga bo'g'ib tashlanipti, der edilar.

Sabo xonim yo'qolganiga bir hafta bo'lganida, Qatiba xotunning To'g'rulga yozgan maktubi Faxriddinning qo'liga tushdi, maktubda shular yozilgan edi:

"A'lo hazrat! Bag'dodga kelishimning ikkinchi kuni xalifa Nasiruliddinilloh bilan ko'rishishga muvaffaq bo'ldim. Amiralmo'minin bizning bo'lajak nikohimizdan xabardor ekan, shuning uchun ham meni a'lo hazrat To'g'rulning malikasi sifatida e'zoz-ikrom bilan qabul qildi.

A'lo hazratning maktubini xalifaga berdim. Xalifa maktubni o'qib, haddan ziyoda mamnun bo'ldi. A'lo hazratni duo qilib, Alloh taolo madadkor bo'lsin, dedi. Amiralmo'minin a'lo hazratning takliflarini hech shartsiz qabul qildi. Xalifa hazratlari Otabek mamlakati bilan xalifa o'rtasidagi qadimgi do'stlikni tiklashga, xalifaning nufuzini oshirishni talab qilmoqda. O'ylaymanki, a'lo hazrat, amiralmo'mininning bu haqli talabiga e'tiroz qilmas, chunki xalifaga yozgan maktubingizning o'zida bunga ishora qilgan edingiz. Xalifa, Alouddin Tekeshning Otabek mamlakatlariga qo'shin yuborishiga e'tiroz qilmadi. O'g'lim Qutlug' Inonj valiahd deb e'lon qilingandan so'ng mamlakatimizning Xorazmshohlar mamlakatiga qo'shilishiga ham e'tiroz bildirmadi. Xalifa Qizil Arslonning mahv etilishi bilan Oron va Shimoliy Ozarbayjonning Shirvonga tobe bo'lishiga ham rozi. Janubiy Ozarbayjon, Fors, qisman Iroq mamlakatining, a'lo hazratning qo'l ostida qolishiga so'z berdi.

Xalifa o'g'lim Qutlug'ning yuqorida zikr etilgan mamlakatlarning vorisi bo'lib qolishini chin ko'ngildan tasdiq etdi. Xalifa hazratlari Qizil Arslon Hamadonga hujum qilib qolsa, Bag'dod qo'shinini yordamga yuborishni va'da etdi. Xalifa hazratlari Husomiddinni Reyda qo'shin to'plashini va biror hodisa ro'y

bergan taqdirda Qazvin shahrini ishg'ol etib, Hamadon bilan Ozarbayjonning aloqasini uzib qo'yish tashabbusini ma'qulladi.

Bu yon berishlarning evaziga amiralmo'minin Qizil Arslon bilan tuzilgan shartnomani bekor qilinishini talab etadi. O'ylaymanki, a'lo hazrat bunga e'tiroz bildirmas, chunki bunda har ikki mamlakat manfaati ko'zda tutilgan. Xalifa a'lo hazratning malikasiga qimmatbaho marvarid shoda sovg'a qildi. Bu bilan a'lo hazratni tabriklayman.

Nihoyat, a'lo hazratga ko'ngilsiz bir xabarni yetkazishga majburman.

Men Bag'dodda bo'lgan vaqtimda a'lo hazratning saroyiga loyiq bo'lgan ba'zi bir qimmatbaho buyumlar sotib olishni o'ylagan edim. A'lo hazratga taqdim qilish uchun kaniz va joriyalar hamda o'zim uchun inju va marjonlar, nodir toshlar xarid qilishni istagan edim.

Bu ishlarni mening sobiq joriyam Sabo xonimga topshirdim, chunki uning o'zi shunday narsalar xarid qilishga qiziqar edi. Men necha yillardan beri bu xotinni yaxshi bilmagan ekanman. Unga qizlik vaqtlarimdan beri o'rganib qolgan edim. U ta'magir bo'lsada, lekin o'g'ri emasdi.

Gapning qisqasi shuki, u taqinchoqlar, marvarid, marjonlar olish uchun berganim yuz ming dinor tillani olib qochdi. O'tinib so'rayman, uni qidirtirish uchun choralar ko'rsangiz. Shu bilan birga uch yuz ming dinor tilla yuborishingizni so'rayman. Bu yerda pulsiz qoldim. Pul olib keladigan odam bilan yuqorida zikr etilgan shartnomani ham yuboring.

Men xalifa bilan bo'ladigan masalalarni hal qilmasdan, Hamadonga qayta olmayman".

Maktub Faxriddinning qo'liga tushganidan so'ng u o'z odamlari bilan maslahatlashdi. Ba'zilari maktubni Qizil Arslonga, ko'chirilgan nusxasini esa To'g'rulga yuborish kerak dedilar.

— Yo'q, biz maktubning aslini To'g'rulga, nusxasini Qizil Arslonga yuboramiz, shunda To'g'rul Qatibaga javob yozadi. Balki shartnomani ham Bag'dod xalifasiga yuborar. Unda biz yana uning choparini yo'lda ushlab shartnoma bilan maktubni ham, hatto, jo'natgan pullarni ham qo'lga kirita olamiz, — dedi Faxriddin.

Bu fikrga hamma rozi bo'ldi. Ishonchli bir odamga choparning kiyimini kiygizib, To'g'rul saroyiga jo'natdilar, choparni mahbusxonada tutib turishga qaror qildilar.

* * *

To'g'rul o'zining og'ir ahvolda qolganini his etardi. Bir tomondan Sabo xonim Qatibaning yuz ming dinor tillasini olib yo'qolgan, ikkinchidan esa Qatibaga jo'natilgan uch yuz ming tilla maktub va shartnoma bilan choparning qo'lidan yo'lda tortib olingan edi.

Albatta, u o'g'irlangan pul haqida ko'p qayg'urmasdi, lekin shartnomaning asl nusxasini qo'lga kiritmasdan turib, xalifa Qizil Arslon bilan kurashda To'g'rulga yordam bermasdi.

To'g'rulni qo'rqitgan narsa o'g'irlangan shartnomaning Qizil Arslonning qo'liga tushib qolishi edi. To'g'rul tezlik bilan chopar yuborib Qatibani Bag'doddan Hamadonga chaqirib oldi. Ular Zahir Balxiy va Kamoliddin bilan bo'lgan uzoq suhbatdan keyin Qatibani ikkinchi marta xalifa yoniga jo'natishga qaror qildilar.

Zahir Balxiyning maslahatiga ko'ra To'g'rul Qizil Arslon bilan xalifa o'rtasida tuzilgan shartnomani bekor qilish va bu haqda berilgan farmonning bir nusxasini xalifaga yuborish kerak edi.

To'g'rul bu fikrni ma'qullab, kotibni chaqirtirdi. Kotib farmonni yozib tugatmasdanoq, Qizil Arslon tomonidan yuborilgan chopar ichkari kirib, Qizil Arslonning maktubini To'g'rulga berdi.

To'g'rul maktubni ochib, dokadek oqarib ketdi, chunki Qizil Arslon To'g'rulga "A'lo hazrat" deb murojaat qilmagan edi.

"To'g'rul!

Bu maktubga javob yozsang ham, yozmasang ham, buning men uchun hech qanday ahamiyati yo'q, chunki men sen bilan maktublashish fikrida emasman. Bu maktubni yozishdan maqsad, sen unutganing bir qancha masalalarni esingga solishdir, xolos.

Sen shuni bilginki, Ozarbayjon xalqi hukmdorligingni e'tirof qilish bilan senga mamlakatni istagan kishilarga sotish huquqini bergan emas. Sen mamlakatning chegaralarini qo'riqlashing va xalqning osoyshtaligini ta'min etishing kerak edi.

Lekin sen muqaddas burchingga xiyonat qilmoqdasan. Ozarbayjon xalqining qon to'kib va qurbonlar berib qo'lga kiritgan mustaqilligini ajnabiylarning oyoqlari ostiga tashlamoqchisan, arablarning ta'siri ostidan endigina qutulishni istagan xalqning bo'yniga arab asoratining bo'yinturug'ini kiygizmoqchisan. Sen Ozarbayjonda mustaqil bir podshodek emas, ajnabiylarning namoyandasi singari hukmdorlik etish xayolidasan. Ozarbayjon xalqiga senga o'xshash sotqin va razil podshoh kerak emas.

Men shu kundan e'tiboran Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon xalqi nomidin e'lon etamanki, mamlakat seni o'zining qonuniy hukmdori deb tanimaydi va tuzgan shartnomalaringni tan olmaydi. Xazinani xohlagan odamlaringga ulashib yuborma, har bir dinor uchun javob berasan".

To'g'rul bu maktubni o'qib bo'lib hushidan ketdi. Darhol bosh tabibni chaqirdilar. Hukmdor hushiga kelib ko'zini ochishi bilan Zahir Balxiyga qarab jahl bilan dedi:

— Xudoyi taolo sizlarning jazolaringizni bersin, meni yo'ldan ozdirdilaring. Ayting, endi qanday choralar ko'rish mumkin?

Zahir Balxiy hecham o'zini yo'qotmay xotirjam gapirdi:

— Bu yerda qo'rqadigan hech narsa yo'q. Xavfning oldini olish uchun hoziroq bu maktubning nusxasini xalifaga jo'natish lozim. Siz hukmdorsiz. Bu qadar katta hayajonga o'rin yo'q. Nima bo'pti? Qizil Arslonning sizga dushmanligi bu maktubdan ilgari ham ma'lum edi. Men shu soatning o'zida zudlik bilan chopar orqali Sulton Tekeshga xabar yuboraman. Rey tomonlariga ham xabar qilaman. Ular Rey qo'shnilari bilan Qazvinga hujum qilsinlar. Biz masalani juda tez fursatda hal qilishimiz mumkin. Bu bilan biz Qizil Arslonni o'z orzularini ro'yobga chiqarish imkoniyatlaridan mahrum qilamiz.

To'g'rul biroz tinchlandi. Rey va Xorazmga tezlik bilan choparlar yuborildi va maktubning nusxasini ko'chirish uchun kotibga buyruq berildi.

Qatiba vaziyatning xavfli ekanini darhol sezdi va churq etmay To'g'rulning yonidan turib, Otabek saroyiga ketdi. U endi To'g'rul bilan bo'ladigan o'yinning foydasi yo'qligini angladi. Otning

boshini to'ppa-to'g'ri Qizil Arslon tomonga burishga qaror qildi, chunki bundan boshqa chora ham qolmagan edi.

Darhol Qizil Arslon bilan aloqa bog'lash va unga maktub yozish kerakligini angladi. Kechasi tongga qadar uxlamadi, yozadigan maktubning mazmuni haqida uzoq o'tirib o'yladi. Maktubni u shu so'zlar bilan boshladi:

"Buyuk va qudratli hukmdor!

Eldaniz xonadonini tahlikadan qutqarish yolg'iz sizning qo'lingizda. Bugun To'g'rul hukumat ishlaridagi zaifligi va haddan tashqari bo'shangligini, irodasizligini ko'rsatdi.

Men uning taqdiri haqida o'ylayman. Meni tashvishga solgan narsa katta bir xonadonning zo'r halokat yoqasida turishidir.

Sizdan ruxsatsiz Reydan Hamadonga kelishimning ikkita muhim sababi bor edi.

Avvalo, To'g'rul mening Reydan Hamadonga kelishimni qat'iy talab qildi. Men hech qachon uning bunchalik layoqatsiz va hukumat ishlariga e'tiborsizlik bilan qarashini bilmas edim. Shuning uchun Reydan Hamadonga kelishdan bosh torta olmadim.

Hamadonga qaytishimni ikkinchi sababi, o'g'limning o'z boshimchaligi bo'ldi. Men uning ahmoqona harakatlariga sovuqqonlik bilan qarab turolmadim: chunki men xotin kishi bo'lsam ham, bugun ularni yashirib o'tirishim mamlakatga katta bir xiyonat bo'lishini bilaman. Men To'g'rulni endi bildim. U akasini o'ldirib, ayni zamonda meni nikohiga olmoqchi. Men ko'pdan beri bu majburiy nikohdan bosh tortish uchun kurashib kelmoqdaman. Lekin men uning asiriman: u menga tinchlik bermaydi. Uning bu o'rinsiz taklifidan bo'yin tovlay olmayman, chunki uning ixtiyoridaman.

Shuning uchun ham hukmdor, meni bu iskanjadan qutqarishi lozim. Menga Ozarbayjonning biror qishlog'ida yashashga imkoniyat berilsa, Hamadondagi Otabek saroyini tark etardim. Men faqat o'shandagina To'g'rulning o'rinsiz takliflarini rad eta olardim.

Hukmdor! Yaxshilab o'ylab ko'ring, uni ko'rarga ko'zim yo'q, chunki u mening o'g'limning otasini qotilidir.

To'g'ruldan qutulish uchun yagona bir yo'l borki, u ham bo'lsa, o'z-o'zimni o'ldirishdir.

Umid qilamanki, buyuk hukmdor Otabek Muhammadning hurmati uchun uning xotinini bu sharmandaliqdan qutqaradi va mening Ozarbayjonda yashashimga imkon beradi. Hozir mening Hamadondan biror yoqqa chiqib ketish uchun mablag'im yo'q: Sabo xonim nomli bir joriya qo'limda bo'lgan pullarimni o'g'irlab ketdi.

Poytaxtdagi vaziyat borgan sari og'irlashmoqda. Hukmdor tomonidan tayinlangan soqchilar guruhi hech ish qilmayapti".

FIKR-MULOHAZALAR

Abubakir ibn Muhammad Ganjada bir necha oy turdi. Shu muddat ichida Shirvon va Gurjiston davlatlari bilan do'stlik shartnomalari tuzildi. Shirvon shohi Abul Muzaffar va Gurjiston hukmdori yaqin Sharqda boshlanayotgan qonli hodisalarga aralashmaslikka va'da berdilar.

Shirvon hukumatining bunday oqilona siyosati janubdan hamda g'arbi-janubdan hujum qilgan dushmanlarga qarshi zarba berish uchun imkoniyat berdi.

Qizil Arslon chegaralardan tashvishnok xabarlar olmoqda edi. Dushmanlar Otabeklar davlatiga hujumga hozirlanmoqda edi. Shuning uchun ham Ganjaga yuborilgan farmonda Shimoliy Ozarbayjonda tuzilgan qo'shin tezlik bilan Janubga harakat qilsin, deyilgan edi.

Sulh va do'stlik shartnomasi tuzilganiga bir hafta to'lgach, Abubakir Ozarbayjon qo'shiniga yurishga buyruq berdi, ellik ming askar Ganjadan Oros soyi sohili bo'ylab harakat qildi. Shimoliy Ozarbayjondan Ganjaga kelgan ziyolilar Nizomiy boshliq Ozarbayjonning qilich tamg'ali bayrog'ini Abubakirga topshirgan vaqtlarida, tom-u toshlardan minglarcha guldastalar valiahdning ot tuyoqlari ostiga sochilar edi.

Abubakir Shimoliy Ozarbayjonning milliy bayrog'ini qo'lga olarkan, ont ichib dedi:

— Bu bayroqning shon-shavkatini yana ham yuqori ko'tarishga va bu bayroqni menga topshirgan xalqqa sodiq qolish-

ga, butun umrim bo'yi Ozarbayjon davlatining nomusini saqlashga ont ichaman. Ozarbayjon xalqining mustaqilligini mudofaa qilish uchun ko'krak kerib dushman ustiga tashlanishga ont ichaman.

Valiahd bu qasamni o'qigandan so'ng yana otidan tushib, ulamolarning qo'lini o'pdi. Nizomiy valiahdning peshonasidan o'pib dedi:

— Yosh valiahd bu safarida g'alabaga amin bo'lsin. Uning orqasidan borayotgan otliqlarning qilichlari g'alabani qo'lga kiritmay, qinga solinmaydi.

Qo'shin juda tez sur'atlar bilan olg'a harakat qilardi. Qo'shinning chodirlarini, asbob-anjomlari, ozuqalarini olib borayotgan minglarcha xachirlar va tuya karvonlari kecha-kunduz Tabriz shahri tomon yo'l olgan edi. Arusak va manjanaq[1] yuklangan aravalarni Qoratog'ning tik dovonlaridan yigitlar yelkalari bilan itarib olib chiqar edilar.

Ellik minglik qo'shinni ovqatlantirish uchun janubiy Ozarbayjonliklar qo'shin tushadigan har bir manzilga ovqat tayyorlab qo'ygan edilar. Qo'shinlar ovqatlanish va dam olish uchun manzillarga tushgan vaqtlarida minglarcha ozarbayjon yigit-qizlari qahramonlarning otlari jilovlaridan tutar, sovutib terlarini quritar va sug'orib yem-xashak berar edilar.

Janubliklar shimoldan kelganlarni musiqiy, ashula va sozlar bilan urushga kuzatar, ayollar esa yigitlarning otlari ustiga tashlangan xurjunlariga ovqat to'ldirar ekanlar, "bilagingga kuch va yuragingga g'ayrat bag'ishlasin" der edilar.

Oros soyidan Tabrizning Achchiq soyi qirg'og'igacha bo'lgan yo'l atrofidagi qishloqlarda tungi ot kishnashlari va zang sadolaridan quloqlar batang bo'lar edi.

Tabriz etagida qurilgan qo'shin qarorgohining sathi Tabriz shahridan bir necha martaba katta edi, chunki janubiy Ozarbayjon qo'shini ham o'z chodirlarini Achchiq soyning sohilida qurgan edi. Lekin dushmanning kuchi ham katta edi. Sulton Tekeshning ellik minglik qo'shini Xorazm chegarasidan o'tgan edi.

---

[1] **Arusak va Manjanaq** — tosh otadigan bir qurol.

Xalifaning o‘zi ham Bag‘doddan Hamadon ustiga yurmoqda edi.

Qatibaning o‘g‘li Qutlug‘ Inonj yigirma mingdan ortiq qo‘shini bilan Reydan Qazvinga hujum boshlab, Tabriz bilan Hamadon o‘rtasidagi yo‘lni kesib qo‘yishga harakat qilardi.

Otabek mamlakati tahlika ostida qoldi. Lekin Qizil Arslon o‘zini yo‘qotmadi. U Hamadonda bo‘lgan Ozarbayjon qo‘shinining sarkardasi Faxriddin bilan Alouddinga shitob bilan maxfiy buyruq yubordi:

“Bu maktubni olish bilan, Iroq va Eron qo‘shinlari joylashgan binolarni to‘satdan qurshab olib qurolsizlantiringiz. To‘g‘rulning hamma tarafdorlarini ilgari tuzganimiz rejaga binoan hibsga oldiring. Shu buyruqlarni bir kechaning ichida amalga oshirilishi kerak.

Poytaxtni tozalaganingizdan keyin qo‘lingizdagi bo‘lgan qurolli kuchlarni uch qismga ajratasiz, ulardan bir qismini Asadobod va Alvan tog‘ining dovonlariga joylashtirib, Hamadonga tomon harakat qilayotgan Bag‘dod qo‘shinini to‘xtatishingiz kerak.

Qo‘shinning ikkinchi qismini Abar atrofiga joylashtirib, Rey qo‘shinining Qazvindan chekinish yo‘llarini xavf ostida qoldirishingiz kerak.

Uchinchi qismini Hamadonda qoldirib, ichki g‘alayonlarga yo‘l qo‘ymasligingiz kerak”.

Qizil Arslon Xorazmshoh qo‘shinlarini mamlakatdan chiqarib yuborish uchun Bastom, Jachurm va Nishopur tomonlariga ellik mingdan iborat kuchli bir qo‘shin yuborganidan so‘ng valiahdni Tabrizda qoldirib kuchli bir qo‘shin bilan Hamadonga tomon yura boshladi. Qizil Arslon Qazvinga yetmasdan Hamadondan Faxriddin boshchiligi ostidagi besh minglik Ozarbayjon otliqlari Husomiddin bilan Qutlug‘ning yigirma minglik qo‘shinini tor-mor qilib, Qazvin shahrini ishg‘ol qilgan edi. To‘g‘rul Qazvinni ozarbayjonliklar tomonidan olinganligini eshitishi bilan Zahir Balxiy va bir qancha yaqin odamlari bilan birga Sova shahriga chekindi.

Qatiba taxtiravonga o‘tirib, Qizil Arslonni kutib olishga chiqdi. Qizil Arslon katta tantana bilan shaharga kirib, Otabek qasriga tushdi. To‘g‘rulning hamma davlati, mol-u mulklari musodara qilindi, davlatga tegishli xazina va mablag‘lar esa Tabrizga ko‘chirildi...

Qizil Arslon Hamadonga kelganining uchinchi kuni Xorazm qo'shinlarini Jachurm yaqinida yanchilib orqaga chekinganligi haqidagi xabarni oldi. Bag'dod qo'shinlari esa Horunobod bo'sag'alarida Ozarbayjon qo'shinlariga duch kelishi bilanoq Bag'dodga chekina boshlagan edi.

Qizil Arslon bu xabarlarni eshitib, ko'ngli tinchigandan keyin Faxriddin tomonidan hibsga olingan xoinlarni, xazina o'g'rilarini chaqirtirdi. Bir vaqtlar Qizil Arslon tomonidan surgun qilingan va so'ngra To'g'rulning da'vati bilan Hamadonga qaytib kelgan sotqinlar hukmdorning huzuriga keltirilganida, hukmdor darg'azab bo'lib dedi:

— Sizlar mening yana Hamadonga bostirib kelishimga sabab bo'ldingiz. Lekin bu safar sizlarni avvalgidek o'z holingizga qo'ymayman. Sizlarning xiyonatingiz natijasida Bag'dod, Qazvin va Jachurm bo'sag'alarida minglarcha insonlarning qoni to'kildi. O'sha qonlar sizning bo'yningizda. Oralaringizda ulamolar ham bor. Siz ulamolar Xorazmshohga noma yuborib, mamlakatni sotmoqchi bo'lgan edingiz. Sizlar islom sharafini oyoq ostiga olib toptamoqdasiz. Sizga podshohlar bilan muzokaralar olib borishga kim huquq bergan edi. Olchoq, uzun etak murdorlar, dunyoni sizlardan tozalagandan keyin, yangidan qurish kerak bo'ladi. Sizlarga marhamat qilish, insonlarga zulm qilish demakdir.

Qizil Arslon shu so'zlardan keyin mulozimlarga:

— Bular uchun qirq beshta dor yog'och qurilsin! — deb amr berdi.

Gunohkorlarni olib chiqib ketdilar.

Kech edi, gunohkorlar dor tagiga keltirilganida Hamadon shahrida to's-to'polon ko'tarildi. Gunohkorlarni qutqarish uchun qoplarda tilla va qimmatbaho narsalar olib kelganlar Otabek saroyi oldiga to'plandi. Lekin gunohkorlarni oltin baravariga qutqarishni o'ylaganlar gunohkorlardan oldinroq dorga tortildilar. Kechqurun jinoyatchilar dorga osildi.

Hamadon shahri o'rab olindi. Shahardan biror kishini ham tashqariga chiqishga yo'l qo'yilmas edi. Xalifa tomonidan To'g'rul saroyiga yuborilgan vakillar qabul qilinmadi, ularga darhol Bag'dodga qaytib ketish to'g'risida buyruq berildi.

Qizil Arslon Hamadonda ishlarini tugatganidan so‘ng yana Bag‘dod ustiga yurdi. Qo‘lida bo‘lgan hujjatlar bilan keyingi urushlarning mas’uliyatini xalifaning bo‘yniga qo‘ydi. Bag‘dod qo‘shinlari qurolsizlantirildi. Xalifa ko‘rilgan zararlarni to‘lagandan so‘ng, bundan keyin Otabek mamlakatiga xiyonat qilmayman, deb “Qur’on” ustida qasam ichdi.

Qizil Arslon Bag‘doddan Hamadonga qaytayotgan paytida yo‘lda tobi qochdi. U Hamadonda qolib besh kungacha hech kimni qabul qilmadi. Qatiba xotun esa bu fursatdan foydalanib, bemor Qizil Arslonni ko‘rmoq va o‘z gunohlarini qisman bo‘lsa-da, yengillashtirmoqni istar edi. U xonasida yolg‘iz qolgan paytlarida qilgan xiyonatlarini bir-bir eslar va qo‘rquvdan titrar edi. Zaharlangan Otabek Muhammadning ko‘karib ketgan murdasi, zaharning ta’siri bilan qoraygan yuzi uning ko‘z oldiga kelib turardi. Goh mamlakat dushmanlariga yozgan muhrlik maktublari ko‘z oldidan o‘tar edi. U qanchalik o‘ylasa ham Otabek Muhammadning davridan to shu kungacha yaxshiroq bir ish qilganligini eslay olmas edi. Shuning uchun ham ba’zan o‘ziga o‘zi der edi:

“Qizil Arslon qaysi bir ishing uchun seni kechira oladi? U meni dorga ostirsa ham, zindonlarda chiritsa ham haqqi bor. Men uning akasini o‘ldirdim, Eldaniz xonadonini mahv etmoqchi bo‘ldim, mamlakatning falokatlariga sababchi bo‘ldim. Yana nimalar qilmadim. Hozir butun Sharq o‘lkalarida mendan baxtsiz xotin bormi? U shoir menga nima yomonlik qilgan edi? Men uning boshiga qanday kulfatlar solmadim? Men uning olamga teng keladigan kutubxonasini nega yondirdim? Men avval kim edim-u endi kim bo‘ldim? Nega men Otabekni o‘ldirdim? Nega men uni bir qishloqi qizdan qizg‘andim? Holbuki men malika, o‘g‘lim esa Eldaniz xonadonining vorisi edi. Ahmoqligim tufayli shu mamlakatning dushmanlariga qo‘shildim. Gunohlarimning kechirilishi uchun qo‘limda qanday dalillar bor? Hech narsa. Jazodan qutulib qolish uchun go‘zallikdan boshqa hech narsaga ega emasman. Lekin ayollik nomusini, ayollik sharafini ham yo‘qotganman. Men bir hukmdorning malikasi bo‘lganim holda Husomiddin singarilarning menga nima keragi bor edi? Uni ham o‘zim boshlagan xiyonatga sherik qildim, yo‘ldan ozdirdim, u ham mamlakatning dushmani

bo‘lib qoldi. Otabekni qatl qilishda qatnashdi. Ularning evaziga nimaga ega bo‘ldi? Bir malikaning emas, qotil bir fohishaning lablaridan boshqa hech narsaga ega bo‘lmadi? To‘g‘rul kabi sarxush, zaif, irodasiz bir hukmdorni safil va razil qilgan men emasmi? Tug‘ishgan akasining qatlida ishtirok qildirgan men emasmi? Qizil Arslon nima uchun ham meni kechirsin? Nega endi u meni tirik qoldirsin...”

Qatiba bularni xayolidan kechirarkan, ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi, uning najot yo‘llari bekilgan edi. Ko‘p yig‘ladi, ko‘z yoshlari ko‘ksini ho‘l qilib, qalbidagi olovni ham biroz pasaytirdi, u o‘ziga kelib o‘ylay boshladi: “Men hali u qadar qariganim yo‘q, go‘zalligim hali so‘ngani yo‘q. Men go‘zalligim vositasi bilan baxtimni yana bir sinab ko‘raman. Qizil Arslon ham Husomiddin bilan To‘g‘rul singari bir erkak-ku. Balki sevgi tuzog‘iga ilinar? Balki ko‘zlarimga boqqan daqiqalarida ko‘nglidagilarni unutar, balki mening bo‘yi bastimni ko‘rganda men kabi tabiat mo‘jizasiga suiqasd etish fikridan qaytar. Balki u mening qora sochlarimni ko‘rganida bo‘g‘zimga solmoqchi bo‘lgan dor arqonini xayolidan chiqarar. Balki ko‘kraklarimni ko‘rganda gunohlarimni unutar. Balki mening dudoqlarim uning dudoqlari orasida: “Kechirdim” degan so‘zning chiqishiga sabab bo‘lar!

Qatiba Qizil Arslonning sog‘lig‘ini so‘rash bahonasi bilan uning xonasiga kirishga qaror qildi: “Erkaklar huzuriga zebu ziynatlar taqib ko‘zgu oldidan o‘tib kirish kerak. San’atkorlar bo‘yoqlarni bekorga o‘ylab chiqarmaganlar. Har bir narsani ham bo‘yoqlar tagiga yashirish mumkin. Men ham o‘z gunohlarimni zeb-u ziynatlar va bo‘yoqlar ostiga yashira olaman. Erkaklar tabiiy narsalarni u qadar ham sevmaydilar. Ular xotin kishining qalbidan emas, shaklidan zavqlanadilar, umuman olganda ular husnparastdirlar. Go‘zallikni, xususan, bo‘yalgan go‘zallikni sevadilar”.

Qatiba chapak chalib joriyalarni chaqirar ekan, bunday amr qildi:

— Mening zeb-u ziynatlarimni keltiring, upa-eliklarni tayyorlang!

Joriyalar darhol pardoz qutilarini olib keldilar. Eng avval Qatibaning sochlarini Haydaroboddan keltirilgan noyob atirlar bilan

yuvdilar. Yuziga Bag'dod va Xurosonning oq marmar rangli upalarini surtdilar. Isfaxonning qizil gulidan olingan rang bilan yonoqlarini bo'yadilar. Otabek Muhammad bilan ko'rishgan vaqtida taqqan zeb-u ziynatlarini taqdilar. Chin va Turkiston shaharlaridan tikib keltirilgan liboslarini kiydirdilar. Zumrad va olmos qadalgan oyoqbandni to'pig'iga bog'ladilar.

Qatiba tovus qushiga o'xshab oynaning oldiga keldi, yuzlarcha shamlar yorug'ida o'z siymosini, andomini va ziynatlarini ko'zdan kechirib, o'z-o'ziga dedi:

"Men xuddi yana o'sha noyob, ayni zamonda qadriga yetmaganim yoshligimga qaytdim". U shunday deb tashqariga chiqmoq uchun bir-ikki qadam tashladi. Lekin to'xtab yana o'yga toldi. Qizil Arslonning yoniga borishga jur'at qilolmadi. "Balki hukmdor meni qabul qilmas. Balki bu go'zallik uning g'azabini so'ndirolmas. Unda bu harakatlarim bilan o'zimni yerga urgan bo'laman!" deb to'xtadi. Lekin birozdan keyin yana: "Erkaklar uzoq umrini qisqa bir xursandchilikka sotishga o'rganganlar" deb o'zini qo'lga oldi-da, ichida dedi: "Hukmdor mustahkam, po'latdek irodaga ega bo'lsa ham, ko'pdan beri xotin zotining suhbatidan mahrumdir. Hozir u xotinlarga zor bo'lib qolgan bo'lishi kerak. Bu hisni hech qanday iroda va tafakkur kuchi bilan engib bo'lmaydi. Men ham go'zal bir ayolman, buning ustiga tun... Ayollarning aqli bo'lsa erkaklar bilan faqat tunlarda uchrashuvi kerak, chunki tunlarda xotinlarni pardozlari tabiiy ko'rinadi. Hamda erlarning xotin kishiga bo'lgan ishtiyoqi faqat tun kechalarda alangalanadi, chunki shamlarning yorug'i oftobni yorug'idek sirlarni ochib tashlamaydi. Upa-eliklar yashira olmaydigan burushiqlarni, qarilikning manfur alomati bo'lgan ajinlarni, eng a'lo upa-eliklar yashira olmasa ham, shamlarning yorug'i yashira oladi".

Qatiba yana bir martaba o'zini oynaga soldi, keyin titrab Qizil Arslonning yotog'iga kiraverishdagi dahlizga kirdi. Lekin pardani ko'tarib, yotoqqa kirishga jur'at qilolmadi. Parda oldida turib o'yladi: "Kim shu ishni eplay oladi? Shunday kechada bir erkakning xonayi xilvatiga kirish kimning qo'lidan keladi? Bir mamlakatning malikasi bo'lgan bir xotin shu ishni qila oladimi? Tun kechada qirq ikki yoshlarda bo'lgan bir xotinning yasan-tusan bilan er kishining

yotoqxonasiga kirishiga nima desa bo'ladi? U mening haqimda nimalar o'ylarkin? U mening jinoyatlarimni besh daqiqalik xursandchilik vaqtida unuta olarmikan? Ishonolmayman. U xotinlarga o'rganmagan. U xotinlarning husn-navozishiga odatlanmagan. Lekin eng qiyini birinchi qadamdir. Muayyan bir maqsad bilan erkaklarga yaqinlashgan ishvakor xotin har qanday qattiq irodali shaxslarga ham sevgining zahrini ichira oladi. Sevgi dog'i yuvilsa ham ketmaydi. Bunday zaharni ichgan odamlar haqoratlarga, nomussizlikka bardosh beradigan bo'lib qoladi. O'shandaylar ishvakor va go'zal xotinning birgina shubhali kechasiga kelajakning minglarcha yorug' kunlarini qurbon qila oladilar".

Qatiba shu so'zlarni xayolidan kechirib pardani ko'tardi-da, ohista qadamlar bilan Qizil Arslon yotgan joyga keldi. Qizil Arslon birovning kirganini sezib, qo'lidagi kitobni bir tomonga qo'ydi-yu, Qatibaga nazar tashladi. Qarshisida Sharqning butun zeb-u ziynatlarini va boyligini taqib olgan jonli bir ko'rgazmani ko'rdi va darhol Qatibaning maqsadini angladi. Qatiba muvaffaqiyat qozona olmas edi, chunki Qatiba xonaga kirganida Qizil Arslonning o'qiyotgan kitobi xotinlarning makridan hikoya etardi. U "Chor darvesh" qissasining Ravshan-Duxt hikoyasini o'qimoqda edi.

Qizil Arslon Qatibani ko'rgan vaqtida go'yo ko'ziga Meyman qal'asi hukmdorining qizi otasini o'ldirib, o'zini dushman sarkardasining quchog'iga tashlagan Ravshan-Duxtni ko'rgandek bo'ldi. Qizil Arslon bu dahshatli xayolot ta'sirida kitobni bir tomonga tashlab, o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lganida Qatiba qo'lini uning yelkasiga qo'yib dedi:

— Behuzur bo'lmang, hukmdor! Siz xastasiz. Sizni bezovta qilishni istamagan edim, lekin tinchiy olmadim, hukmdorning bunday vaqtda xastalanishi vaziyatdan xabardor kishini tashvishga solmay qo'yadimi!

Qizil Arslon jahli chiqqanligini yashirib:

— Malikadan juda minnatdorman,— dedi.

— Malikalik meni baxtiyor qilmadi. Lekin baxtsiz bo'lishimga qaramay hukmdorning xushvaqt hayot kechirishini va doim g'alaba qozonishini orzu qilaman.

— Malikani baxtli qilish bir shaxsning qo'lidan keladi, lekin mamlakatni baxtli qilish uchun uzoq muddat juda ko'p odamlarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi kerak, chunki mamlakatning dushmanlari haddan tashqari ko'p.

Qatiba bir oh tortib:

— Rost aytdingiz, hukmdor! — dedi. — Mening baxtli bo'lishim bir shaxsning qo'lida ekanligi inkor qilib bo'lmaydigan bir haqiqat. Lekin qalbning talablarini ta'min etilmasdan turib, baxtli bo'lish shubhalidir.

Qizil Arslon ko'zlarini yumib, Qatibani nima demoqchi ekanini o'ylar va unga loyiq javob qidirardi. Qatiba hukmdorning jim qolganiga o'zicha ma'no berib, lablarini hukmdorning lablariga yaqinlashtirishga jur'at etdi.

— Nazarimda hukmdor hazratlarini harorati juda ham baland! — dedi.

Lekin Qatiba bu ishidan kutgan natijaga erisholmadi. Hukmdor yuziga uning iliq nafasi kelib urilganini sezib Qatibaning nima qilmoqchi bo'lganini tushundi va qo'li bilan yuzini berkitib oldi. Qatiba hukmdorning lablari o'rniga qo'lidan o'pdi.

Qizil Arslon Qatibaning tahqirlanganligini sezib:

— Shunday, malika! Haroratim juda ham baland. Men ham xastaman, mamlakat ham xasta. Birinchi xastaga emas, ikkinchi xastaga ko'mak berish lozim, — dedi.

— Men ikkinchi xastani muolaja qilishda ishtirok etish uchun birinchi xasta bilan so'zlashishga kelgan edim.

Qizil Arslon uni ko'rib, sog'lig'ini so'rash uchun emas, balki To'g'rul bilan boshlagan o'yinlarini Qizil Arslon bilan davom ettirish uchun kelganini anglagan edi. Qatibaning masalasi busiz ham Qizil Arslonni o'ylatib qo'ygan edi. Uni qatl ettirish, yoki hibsga oldirish mumkin emas edi. Avvalo, uning o'g'li Rey hokimi, ikkinchidan u Otabek Muhammadning xotini edi. Qizil Arslon uni surgun qildirishni ham istamasdi, chunki surgunda bo'lganida mamlakat dushmanlari bilan yana erkinroq uchrashishi, yana yangi fitnalar uyushtirishi mumkin. Shuning uchun ham Qizil Arslon uni Tabrizga ko'chirib, ko'z oldida saqlashga haror qildi.

Qizil Arslon shular to‘g‘risida bosh qotirar ekan, Qatiba ham zo‘r berib o‘ylardi: “U meni o‘ldirtirmaydi. Qamattirmaydi ham, surgun qilishi mumkin emas. Lekin poytaxtda yashashimga rozi bo‘lmaydi. Yagona bir chora bor, bu ham bo‘lsa, meni Tabrizga ko‘chirishdan iborat. Agar shu fikrlarim to‘g‘ri chiqsa, unda hukmdorning yoqasi mening qo‘limdan qutula olmaydi. U bugun o‘zini tuta oldi, ertaga tutolmaydi. Erkaklar shunaqa bo‘ladi, ularning xotinga bo‘lgan hirsi uyg‘ongan paytini bila olish kerak. Ularning bu hislari qo‘zg‘algan vaqtlarda aqllari boshlaridan ketadi. Ana o‘sha daqiqalarda xotin kishining qariligini, xunukligini, hatto, axloqsizligini ham unutib qo‘yadilar”.

Qizil Arslon sukunatni buzib:

— Men muhtarama malika haqida tamomila boshqacha fikrdaman. Bir necha yillar mobaynida malikaning kechirgan hayoti to‘g‘risida olgan ma’lumotlarim menga shu haqiqatni ochib berdiki, hozirga qadar malikaning qanday yashab kelgani bilan na To‘g‘rul va na men qiziqmasdik. Malika bizning himoyamiz ostida yashamasdi. Yuz bergan barcha tushunmovchiliklar, hatto, ba’zi bir ixtiloflar ham shu himoyasizlik natijasida ro‘y bergan. Mamlakatning dushmanlari malikani o‘z holiga tashlab qo‘yilganligidan foydalanganlar. Hatto, To‘g‘rulning o‘zi ham malikaning g‘ayriixtiyoriy yo‘l qo‘ygan xatolaridan foydalanmoqchi bo‘lgan.

Muhtarama malika! Yo gapim noto‘g‘rimi?

Qatiba yana bir marta hukmdorni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Ko‘ziga yosh oldi:

— Shunday, a’lo hazrat! — deb turib o‘zini hukmdorning qo‘yniga tashladi va ko‘ksini ko‘ksiga bosdi, bo‘yniga qo‘l soldi.

Lekin Qizil Arslon sovuqqonlik bilan uning qo‘lini itarib o‘rnidan turdi:

— Malika o‘zini qo‘lga olsa yaxshi bo‘lardi. Sizni Tabrizga ko‘chirib olib boraman. O‘shanda ba’zi bir ishlar to‘g‘risida gaplashib olish mumkin bo‘ladi.

Qatiba mag‘lub bo‘lganlar singari ma’yus bir ohangda Qizil Arslondan so‘radi:

— Men hukmdorning bergan va’dasiga ishonsam bo‘ladimi?

— Ishonishingiz mumkin. Hamma narsa Tabrizda bo‘ladi.

Qatiba bu so‘zlarni eshitgandan keyin ham o‘rnidan turib ketmadi. U kelajagini ta’min etmoq uchun o‘z husn-latofatidan foydalanmoqchi bo‘lardi, lekin barcha urinishlari bekor ketdi. Nihoyat, o‘z fikrini ochiqdan ochiq bayon etdi. Qizil Arslon ham avvalgi so‘zini takrorlab:

— Hammasi to‘g‘risida Tabrizda gaplashamiz, — deb javob berdi.

Qatiba yana:

— Men hukmdor bilan birga mamlakatning baxt-saodati yo‘lida jonbozlik qilishni istayman, — dedi.

Qizil Arslon yana ensasi qotib:

— Bu haqda ham Tabrizda gaplashamiz, — dedi.

Qatiba saharga qadar Qizil Arslonni behuzur qildi shu bilan birga o‘zini ham ortiq darajada charchatdi. Yig‘lay-yig‘lay pardani ko‘tarib dahlizga chiqqanda joriyalar bilan xizmatchilar dahlizda turib Qatibaning hukmdor oldidan qachon va qanday vaziyatda chiqishini kutmoqda edilar. Qatiba ko‘z yoshi aralash ularga murojaat qilib:

— Hukmdorning sog‘lig‘i joyida emas, shuning uchun ham yonidan uzoqlasha olmadim, — deb o‘tib ketdi.

Bu hodisalardan uch kun o‘tgach, Qatibaning ko‘chlari Tabriz darvozasidan chiqib ketmoqda edi.

Qatibaning Tabrizga olib kelinishi Xorazmshohlar bilan bo‘lgan munosabatning o‘zgarishiga va Rey hukmdori Qutlug‘ hujumining to‘xtalishiga sabab bo‘ldi. Lekin Qatibaning Ozarbayjonga ko‘chirib olib kelib, Tabriz saroylarining biriga joylashtirilishi Ozarbayjonliklar orasida norozilik tug‘dirdi. Qizil Arslonni yaqindan biladiganlar uning Qatibaga uylanishi to‘g‘risida tarqalgan gaplarning birortasiga ham ishonmas edilar. Qatiba esa Tabrizga jo‘nash uchun tayyorgarlik ko‘rgan kunidan boshlab o‘zini Qizil Arslonning malikasidek tutar va tez fursatda to‘y bo‘lishiga ishonar edi. U o‘g‘li Qutlug‘ Inonjga yozgan maktubida o‘z rejalarini yashirmay bayon etgan edi:

“Bir mamlakatni muvaffaqiyat bilan idora etish, uning vaziyatini bilib olishga bog‘liq. Biz taqdirimizni To‘g‘rulning taqdiriga bog‘lash bilan hech qanday ijobiy natijani qo‘lga kirita olmadik.

Men o'ylaymanki, To'g'rulning taqdiri hal qilingan. Shu kunlarda baxt-saodat hamda mamlakat xalqlarining rag'bati Qizil Arslon tomonidadur. Shuning uchun ham amakingga qarshi qurol ko'tarib jangga chiqishning vaqti o'tgan.

Bizning toleyimiz Qizil Arslonning toleyi bilan payvand bo'lish arafasida turipti. Bu hodisa yuz bersa sening jahling chiqmasin, hayron ham qolma, chunki bu ikki kishininggina baxtini ta'min etmaydi, balki xonadonimizning davomi va mustahkamligini ham ta'min qiladi.

Qon to'kish ixtiloflarni yana ham chuqurlashtirishi mumkin. Maktubni olishing bilan harbiy tayyorgarlikni to'xtatib, Tabrizga kelishga hozirlik ko'rishing kerak.

Hukmdor sening ham va qahramon Husomiddinning ham gunohidan o'tgan. Sizning har ikkingiz uchun amniyatnoma yuboraman va yo'lingizga ko'z tutaman".

Bu maktub yuborilganidan o'n besh kun o'tgach, zudlik bilan choparlar kelib Qutlug' Inonjni Husomiddin bilan Tabrizga yaqinlashganlarini xabar qildi. Qizil Arslon ularni katta tantana bilan kutib olishga qaror qildi.

Husomiddin bilan Qutlug' Inonj Qizil Arslon huzuriga kirib kelganida Qatiba tilla poyalik bir kursi ustida hukmdor yonida o'tirar edi. Ularning har ikkisi avval Qatiba, so'ngra Qizil Arslonning qo'lidan o'pdilar.

Husomiddin Qatibaning qo'lini o'par ekan, o'tmishni eslab xayolan der edi: "Bir vaqtlar bu axloqsiz xotin mening nikohimga kirish orzusida yurib va men uchun hasrat chekkanini takror-takror aytib ont ichgan edi. U dudoqlaridan bir necha daf'a menga o'ptirgan edi, endi bo'lsa menga qo'lini tutmoqda. Hech uyalmaydi ham. Qarshimda turgan bu ilon kimlarni zaharlamadi? Erini qatl ettirdi, To'g'rulni taxtdan judo qilib surgun qildirdi. Endi esa Eldaniz xonadonini ko'r qilib qo'yish uchun Qizil Arslonga chang solmoqda. Lekin u mening qo'limdan yoqasini qutqarib ololmaydi. Uni o'ldiraman. U mening oldimda aybdor. Bu iblisning sevgisi mening yoshligimni mahv etdi. Yigirma yil azobini tortdim. Men bir qahramon bo'la turib kimga xizmat qilganligimni o'zim ham bilmayman".

Husomiddin rashk bilan ilondek to'lg'anar ekan, yana o'z-o'ziga derdi: "Shoirlar naqadar hassos shaxslar ekan. Nizomiy bu rashk ilonini birinchi ko'rishdayoq payqagan edi. U buning yuragidagilarni naqadar tez uqib oldi. Mayli, Qatiba Qizil Arslondan najot topganiga xursand bo'lsin. Men baribir To'g'rulni hukumat boshiga chiqaraman. Mayli, Qizil Arslon mag'rur boshini pastkash, vafosiz bir xotinning oldida egsin. Lekin shuni ham bilib qo'ysinki, bu xotin oldida egilgan bosh, bir kun emas bir kun yerdan ko'tarila olmaydi. Shuning uchun ham uni Qatiba deydilar. U bu xonadonni quritmasdan tinchimaydi. Buning o'zini esa men halok eta olaman".

Qatiba ham qarshisidagi sevgi asiri ahmoq qahramonga boqib o'ylar edi: "Jang-u jadal ishida san'atkor bo'lsang ham xotin qalbini bir maktab bolasi sin gari bilmas ekansan. Sen mening qo'limdan qutulolmaysan, falsafa, ilm va siyosat maydonida ot surgan Qizil Arslon mening muammolarimni hal qila olmagan ekan, sendek avom faqat birgina qilich va birgina hayvoniy kuchga ega bo'lgan odam nima qila olardi? Sen mening lablarimga ega bo'lish uchun bir hukmdorning o'ldirilishida ishtirok etding. Bu lablarni yana bir martaba senga cho'zadigan bo'lsam, yonimda o'tirgan ikkinchi hukmdorni ham o'ldirasan. Lekin shunda ham men seniki bo'lolmayman, chunki men faqat go'zallik bilan qahramonliknigina emas, maqsadni ham sevaman. U maqsad esa To'g'rul bilan Qizil Arslondir. Sen esang, bu maqsadni qo'lga kiritish uchun bir vositasan xolos".

Tantanali ziyofatda Tabrizning usta san'atkorlari, xonanda va sozandalari qatnashmoqda edilar. Lekin Husomiddinning ko'ngli qorong'i edi. Uni taqdir va rashkning og'ir yuki ezardi. U ham g'azablanar hamda qilgan ishlaridan pushaymon qilar edi. "Nega Otabek Muhammad singari bir kishini ikki zaharli ilon uchun mahv ettirdim, men bu fohishaga ham zahar ichirmasam hech qachon tinchiy olmayman".

Qatiba hozirgi ahvolidan norozi emas edi. U bunday muhokama yurgizar edi: "Men bir qotil bo'lsam ham, beg'am, layohatsiz kishilarning qotiliman. Mamlakatni, vatanni birgina xotinning lablariga qurbon qila oladiganlarni o'ldirishni mamlakat va xalqqa

xiyonat deb hisoblash mumkin emas. Mamlakatning baxtsizligi shundaki, uning idorasi har davrda bir irodasiz kishi yoxud bir shahvatparastning qo'lida. Yigirma ikki yildirki, katta xonadonni o'yinchoq qilib qo'limda o'ynataman. Qasos ustiga qasos olaman. Bundan keyin ham olajakman. Otabek Muhammad menga bergan qalbini yana boshqasiga berdi. U o'z Go'zali bilan aysh-ishrat qilgan kechalari men tizzamni quchoqlab yig'lar edim. Hozir yonimda o'tirgan hukmdor ham nikohni bugun-erta deb orqaga surmoqda. Lekin u bu o'yinni davom ettira olmaydi, chunki endi o'limi yaqindir".

Musiqalar chalinib raqqosalar o'ynamoqdalar. Ziyofatda hamma narsa muhayyo. Bu yerda faqat samimiyat bilan ozarbayjonliklar yo'q edi. Qatiba Tabrizga kelgan kundan e'tiboran valiahd Ozarbayjon sayohatini bahona qilib Tabrizdan chiqib ketgan edi. Qutlug' Inonjning kelishi munosabati bilan beriladigan ziyofatga da'vat etilganligiga qaramasdan ziyofatga kelmagan edi, chunki u Qatibani ko'rishni istamasdi. Otabek Muhammadning to'satdan o'lishi haqida tarqatilgan so'zlar valiahdni Qatibaga bo'lgan ixlosini so'ndirgan edi.

Qizil Arslon Qatiba to'g'risidagi fikrlarini valihadga izoh etgan bo'lsa ham, baribir, u Tabrizga kelishni xohlamadi.

Ziyofat to'rt kun davom etdi. Lekin Qatiba ig'vosiz kun kechirolmas edi. U Husomiddindan umidini uzmagan, zarur bo'lgan vaqtda Qizil Arslonga qarshi undan foydalanishga tayyorlanish kerak edi. Qizil Arslon Qutlug' Inonjni valiahd deb e'lon qilmasa va nikohga ko'nmasa, Qatiba uni Husomiddin vositasi bilan o'ldirtirishga ahd qilgan edi. Shunga ko'ra ham Husomiddinni Tabrizga kelgan kuniyoq o'z huzuriga chaqirtirdi.

Husomiddin Qatibaning huzuriga borar ekan, unga aytmoqchi bo'lgan so'zlarini takrorlar edi: "Nomi malika bo'lgan bir xotinda vafo va adolat hissi bo'lishi kerak. Sen nega mening hayotim bilan o'ynaysan? Sevgan o'g'ling haqqi, meni tinch qo'y. Nima uchun meni bunday tarixiy jinoyatlarga tortmoqdasan? Men butun umr senga va sening ajdodingga, ota va onangga qarshi biror martaba hurmatsizlik qilganim bormi? Meni qaysi bir gunohim uchun jazolamoqdasan?"

Husomiddin bu so'zlarni takrorlab, Qatibaning huzuriga kirib keldi. Qatiba esa Husomiddinning oldiga birinchi uchrashuvida, ya'ni qizlik davrida kiygan liboslarini kiyib chiqdi.

Husomiddin Qatibani ko'rishi bilan aytmoqchi bo'lgan so'zlarini butunlay unutdi va xayolida darhol o'tmish va yoshlik chog'lari jonlandi. Go'yo uning qarshisida qirq ikki yoshlik Qatiba emas, yigirma ikki yoshlardagi yosh va yetilgan bir qiz turardi.

Husomiddin bosh egib turdi, Qatiba esa mahzun ko'zlarini unga tikib:

— O'tir, jonginam! — dedi.

Husomiddin "jonginam" so'zini eshitib seskanib ketdi. U Qatiba bilan Hamadonda, Murodbek darasida Ko'shk bog'i Muazzamda va Eldaniz rabotida o'tkazgan nash'ali kechalarni yana bir marotaba esladi. U gapirmas edi, tik turib Qatibaning jamoliga boqar edi, go'yo Qatibaning yuzida uyatchanlik alomatini ko'rgandek bo'lar edi. Qatibaning chehrasi o'zining orzu-umidiga yetolmagan qizning chehrasiga o'xshar edi. Husomiddin o'ziga der edi: "Shubha bo'lishi mumkin emas, shu soatda Qatibada menga nisbatan qat'iy bir o'zgarish paydo bo'lgan. U uyalyapti, yuzlaridan hayo terlari oqmoqda. Go'zal xotinning uyalgan, terlagan chehrasini ko'rishning o'zi ham bir rohatbaxsh etadi. U bir so'zli, hiylakor, ishvakor, irodali xotin bo'lsa ham, baribir xotin kishi. Xotinlarda erlarga taslim bo'lish xususiyati bor".

Qatiba bu yangi rolni juda ustalik bilan o'ynamoqda edi. U uy ichida to'lqinlanib aylanarkan, yuragi to'lib-toshgan edi. Sekinasta ko'z qorachiqlaridan qizil guldan ham nozikroq bo'lgan yanoqlariga shabnam kabi ko'z yoshlari toma boshladi. U tomchilarning har biri Husomiddinning qalbida o't ola boshlagan intiqom olovini so'ndirmoqda edi. Endi Husomiddinning unga rahmi kelar va o'z-o'ziga der edi: "Baxtsiz, bechora xotin. Umrida biror xursandchilik ko'rmadi. Butun yoshligi haqoratlar, janjallar, g'am-u g'ussalar ichida o'tdi. Shoirni sevdi, u esa rad qildi, tahqirladi. O'zi xohlamagan bir kishiga erga berdilar, qizlik iffatini olgandan keyin boshqasiga uylandi. Endi nima qilsin? Kimga quloq solsin? Kimga ishonsin? Endilikda har bir kimsa bundan o'z

maqsadi yo‘lida foydalanishga harakat qiladi. Bechora xotinlar! Ixtiyorlari o‘z qo‘llarida emas. Kimning boyligi bo‘lsa, qudrati va shirin tili bo‘lsa bo‘ldi, bularni yo‘ldan ura oladi, o‘z irodalariga bo‘ysundira oladi, nihoyat, sevgisiga, erkiga o‘lim zarbasini beradi. Bechora ayol! Sening sharafing, erking, mustaqilliging yo‘q. Sen erkakning orzu-tilaklariga bo‘yin egishing kerak. Yig‘la, bechora xotin, yig‘la, chunki sen faqatgina shu huquqqa egasan! Bechora Qatiba! To‘g‘ruldan yoqangni qutqarish bilan Qizil Arslonning panjasiga tushding. Go‘zalsan, nima qila olarding? Ba’zan go‘zallik ham xotin kishining baxtini va ozodligini qo‘lidan oladi. Agar sen Qizil Arslonning panjasidan chiqishni orzu qilsang, senga yordam beraman: chunki bir zolimni mahv etish har qanday vijdonning muqaddas burchidir”.

Qatiba yaqin kelib qo‘lini Husomiddinning yelkasiga qo‘yarkan, hazin bir ovoz bilan dedi:

— Jonim! Bizni bir-birimizdan ayirdilar. Men ojiz bir ayol bo‘lganim uchun qo‘limdan nima kelardi? Lekin sen istasang bu judolik u qadar ham uzoqqa bormaydi. Jonginam! Qizil Arslon meni Hamadondan Tabrizga nima maqsadda olib kelganini bilaman. Uning qarshisida katta bir qo‘shin bosh egadi. Birgina Qatiba uning amriga bosh egmay qola olarmidi? Sening oldingda ont ichaman, amni bo‘l. O‘z nomusimni saqlab qolaman. Sen mening Qizil Arslon bilan Tabrizga kelganimni o‘z sha’ningga haqorat deb bilib, meni tashlab ketsang ham men baribir seni tashlamayman. Menga ishon, sening aytgan so‘zlaring esimdan chiqqani yo‘q “Sen meniki bo‘lmasang, boshqalarniki ham bo‘lmaysan!” Hayot shunday, mening jonim! Sen mening hayotimni boshidan oxirigacha bilasan. Mening baxtsizligim o‘sha shoirni sevgan kunimdan boshlanadi. O‘sha kundan beri meni tahqirladilar. Sen bilasanki, men Otabek Muhammadga o‘z qizlik javohirimni berdim. Lekin u meni tahqir etdi, mening ustimga xotin oldi. Uning ukasi To‘g‘rul esa menga ega bo‘lish maqsadida boshimga ne kunlarni solmadi? Yoqamni uning qo‘lidan qutqarmasdan turib Qizil Arslon menga chang solmoqda. Agar sen bularni mendan sodir bo‘lgan bir xiyonat deb hisoblar ekansan, men seni ayblamayman, chunki sen erkak kishisan hamda bir qahramonsan. Sen rashk qilishing kerak, albatta, sevgi bo‘lgan

yerda rashk ham bo'ladi. Men o'ylaymanki, menga sen kabi odamning yordami tegmasa bu falokatdan qutula olmayman.

Husomiddin biroz o'ylab:

— To'g'ri aytasan, malika! — dedi.

Qatiba esa yana Husomiddinning qalbidagi dog'larni ko'z yoshi bilan yuva boshladi.

Nihoyat, Husomiddin:

— Yig'lamang, malika! Husomiddin sizning har bir amringizni bajo qilishga tayyor, zarari yo'q, men toleyimni yana bir marta sinayman. Umid qilamanki, siz mening xizmatlarimni unutmansiz. Men ham sizdek bir baxtsizman, men ham yigirma besh yildan beri birgina orzuning asiriman. Kim bilsin, balki bizning qismatimiz shudir.

Qatiba unga yaqinlashdi va sekin dedi:

— Seni ishontirib aytamanki, Qizil Arslon menga qancha yaqin kelsa, u shuncha o'limga yaqinlashgan bo'ladi. Endi har bir ish qo'limizdan keladi. Faqat qulay fursatni kutish lozim xolos. Jonginam bu lablar seniki.

Qatiba shunday deb lablarini tutdi. Husomiddin esa quchog'ini ochib Qatibani tortar ekan shu so'zni eshitdi:

— Qolgani keyin...

KAXIRON QAL'ASI[1]

Qizil Arslon Qatibani Tabrizga ko'chirib olib kelganidan so'ng. Hamadonda bunday bir gap tarqaldi: "Qizil Arslonning Qatibani Tabrizga olib kelib saroyda saqlashi Hamadonda bo'lgan Ozarbayjon qo'shinini va uning sarkardalari Faxriddin bilan Said Alouddinning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular To'g'rulni Sova shahridan Hamadonga chaqirib o'z taxtiga o'tqizishni istadilar".

Bu gaplar Sova shahrida o'tirib Qizil Arslonga qarshi kuch to'playotan To'g'rulning ham qulog'iga yetgan edi. Bu xabarlarni u o'ziga Xudo tomonidan yuborilgan bir iltifot deb hisoblar edi. Nihoyat bu gaplar rost bo'lib chiqdi. U Faxriddin bilan Said Alouddindan shu mazmunda juda uzun bir maktub oldi.

[1] Kaxiron — Ozarbayjonda mashhur qal'a edi.

"A'lo hazrat!

Sizga ma'lumdirki, biz o'z martabamizni oshirish uchun harakat qilayotganimiz yo'q. Bizning hamma istak-orzumiz Hamadonning taxti tojini qo'riqlash va uning shon-u shuhratini ko'tarishdan iboratdir.

Biz yigirma yildan beri katta qo'shinlarning rahbarlari bo'lishimizga qaramay, doim o'zimizni mamlakatni oddiy askaridek his etar edik. Biz askar safida tarbiya ko'rdik. Shubha yo'qki, keyingi vaqtlarda bizning Qizil Arslon qo'shinida xizmat qilishimiz a'lo hazratning ko'ngillariga malol keltirgan edi.

Bizning ikkimiz shohona iltifotingizdan mahrum bo'lganimiz uchun vazifamizdan ham olib tashlangan edik. Bularga xafa bo'lmaymiz, chunki so'nggi hodisalar sodiq navkarlaringiz uchun ibrat darsi bo'ldi, hozir biz mamlakat va xonadonning yo'lida qilgan xizmatlarimiz tamomila bekor ketganini ko'rib turibmiz.

A'lo hazratning o'ziga ma'lumdirki, Qizil Arslonning Qatibaga uylanmoqchi degan gap-so'zlar haqiqatga o'xshaydi. Bu narsa faqatgina ikki nafar askarning emas, balki butun Ozarbayjon xalqining nafratiga sabab bo'lgan, chunki Qatibaning kim ekanligi hatto, hazratning o'ziga ma'lum bo'lganidek, butun mamlakat halqiga ham ma'lum.

Biz sodiq navkarlar a'lo hazratning taxti tojiga sadoqat bilan xizmat qilishga qasam ichamiz. Bizlarda hech qanday riyokorlik yo'q. Hamadonda bo'lgan Ozarbayjon qo'shinlari sizga sodiqdurlar. Qizil Arslon avvalgi yo'lida davom etganda edi, biz unga sodiq qolardik, lekin uning Qatiba bilan bo'lgan aloqasi haqiqiy yo'ldan adashganini ko'rsatadi. Bu ishi bilan u, mamlakatni tanazzulga sudray oladi.

Qizil Arslon bizning qilichlarimiz, qalqonimiz bilan qo'lga kiritilgan g'alabalarni ikki yuzli bir xotinga yutqizdi. Shu sababdan a'lo hazratning navkarlari bo'lgan bizlar ham o'z yo'limizni o'zgartirdik. Agar a'lo hazrat Hamadon shahriga qaytishni va o'z taxti tojiga ega bo'lishni istasa, biz jonimiz va qonimiz bilan unga yordam berishga tayyormiz. A'lo hazrat juda yaxshi biladiki, Ozarbayjonliklarning qilichlari kimning orqasida yaltirasa, g'alaba uning oldida bosh egadi.

Hozir ham poytaxt bizning qo'limizda, uning Tabriz shahri bilan hech qanday aloqasi yo'q. Qizil Arslon tomonidan tayinlangan oliy mansab kishilar va uning vaziri Shamsiddinni asir qilib hibsga oldik. Hamma narsa tayyor. A'lo hazratning tashrifiga muntazirmiz. Hozir Hamadon shahri o'z hukmdorini kutmoqda. A'lo hazrat tashrif etadigan kunni o'z vaqtida bildirishlari kerak. Tantana bilan kutib olish uchun kerak bo'lgan tayyorgarliklarni ko'rib bo'ldik.

Sizga Hamadonda bo'lgan minglarcha fidoqor navkarlaringizning salomini yuboramiz.

Faxriddin. Alouddin".

Bu maktub To'g'rulga jo'natilgandan keyin Hamadonda qamashlar boshlandi. Qizil Arslon bilan aloqada bo'lganlarning hammasi hibsga olindi, qo'shinning kattalari shahar kezib muayyan ro'yxatlarga binoan yuzlarcha odamlarni uylaridan chaqirib olib zindonga tiqdilar. Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin turgan uy atrofiga bir necha qo'riqchilar tayinlandi. Qizil Arslonning dushmanlari bazm-ziyofatlar o'tkaza boshladilar. Bog'lar-bog'chalardan, xonadonlardan musiqiy ovozlari ko'tarilmoqda edi. Ayni zamonda Qizil Arslon tomonidan dorga osilganlar uchun ham aza ochdilar. Musiqiy nag'malar bilan birga ko'chalarda "Qur'on" suralari va fotiha o'qiyotgan xatiblarning tovushini eshitish mumkin edi.

Aza tutganlar qo'llariga xina qo'yganlar, ular ko'chalarda bir-birlarini ko'rganlarida hol-ahvol so'rashar, o'pishar va bir-birlarini tabriklashar edilar. Bozor maydonlaridagi xalqning suhbati bir mavzu ustida borar edi:

— Xudovandi olamning barmog'i yo'qki, insonning ko'ziga suqsa. Bu bir mo'jizadir. Xudovandi olam o'z navkarlarini panohiga oldi.

— Qizil Arslon dorga ostirgan qirq besh odamning evaziga to'rt yuz odamni dorga ostiramiz. Hali shoshmang, a'lo hazrat tashrif buyursinlar. Bularga nima jazo berishini o'zi biladi.

— O'zim dor yog'ochlarni sanab chiqdim. Yuztacha bor.

— Hali bu ham oz, ko'rarsan, qanday qiyomat bo'larkin.

— Shunday. Menimcha, jazolanadigan odamlarning hisobi mingdan ortiq.

— Ofarin, Faxriddinga! Islom dinining keskin qilichi. U Hamadon xalqining qasosini olmoqda.

— Qizil Arslonni Qizil Arslon qilgan shular emasmi?

Poytaxtda bir haftadan beri shunday gaplar yurardi. Qizil Arslonning jazo berishidan qo'rqib qochganlar to'da-to'da bo'lishib shaharga qaytmoqda edilar. Shaharning chekka-chekkalarida yashiringanlar ham o'z uylariga kela boshladilar. To'g'rulning vaziri va a'yonlaridan sog' qolganlari shaharga kelib, o'z ishlarini boshlab yubordilar.

Faxriddin bilan Alouddinning imzosi bilan shaharga bunday bir bayonnoma tarqatilgan edi:

"Hamadon xalqi!

Xudovandi olamning, marhamati va xalifayi ro'yi zaminning ma'naviy ko'magi bilan mamlakat yana o'zining haqiqiy egasi qo'liga o'tdi. Shaharda osoyishtalik va tinchlikni buzish va xohlagan odamlaridan o'ch olishini istaganlar qattiq jazolanadilar. Gunohkorlarni jazolash a'lo hazratning farmoni bilan maxsus taftish hay'ati tomonidan amalga oshiriladi".

Masjid minbarlarida bu bayonnomalarni o'qib Qizil Arslon va uning tarafdorlariga la'natlar o'qir edilar. Jomelardan "Omin! Omin!" ovozlari hamma vaqt eshitilib turardi. Xatib va maddohlar minbarda To'g'rulning nomiga xutba o'qiganlarida "As-sultonul Odil va Fozil"[1], deb podshoni duo qilar edilar. Tilanchilar ham aholidan sadaqa so'raganlarida To'g'rulning haqiga duo qilardilar.

To'g'rulning saroyi bayramdagidek bezalgan edi.

Mulozimlar, kanizlar, joriyalarning hammasi hukmdorni kutib olishga hozirlangan. Raqqosalar, mutriblar va soqiylarni barchasi tayyor. Mutriblar yangi belbog'lar bog'lar, soqiylar piyolalarni to'ldirar, raqqosalar bezanar, Isfaxonning yashil shohisi bilan o'ralgan sharob shishalari ratillarga[2] quyilar, joriyalar esa Reydan

[1] Adolatli va saodatli podsho.

[2] **Ratil** — katta grafin. Katta ziyofatlarda ichiga sharob quyiladi, soqiylar esa undan piyolalarini to'ldirib majlis ahliga beradilar.

yuborilgan yosuman atirlarida sochlarini yuvardilar. Hukmdorning sevikli joriyasi Mussafo xonim badanini sut bilan cho'miltirdilar.

Masxarabozlar, qiziqchilar podshohning vaqtini chog' qilish taraddudida kulgili o'yinlar tayyorlar va mashq qilar edilar.

To'g'rulning maxsus sartaroshlarini topish ancha qiyin bo'ldi. To'g'rul qochib ketgan kun ular ham noma'lum tomonga qochib ketgan edi. Nihoyat, ularning shahar atrofidagi qishloq hammomining go'laxlarida yotib yurganlari ma'lum bo'ldi, ularni ham topib keltirdilar.

To'g'rulning hofizlari hukmdorning kayfini ko'tarib, hirsini qo'zg'aydigan yangi g'azal va ruboiylarni yod qilmoqda edilar. Saroy o'z hukmdorini qabul qilishga tayyor edi. Faqatgina fil suyagidan yasalgan, javohirlar bilan bezatilgan tilla poyali taxt o'rnida emasdi, chunki uni Qizil Arslon Tabrizga jo'natgan edi. Shuning uchun ham tezlik bilan a'lo hazratga yangi bir taxt tayyorlashga kirishdilar.

A'lo hazratning taxtiravonini Hamadondan sakkiz tosh narida bo'lgan Faxrobod chamanzorida kutib oldilar. Taxtiravon saf tortgan ikki qator Ozarbayjon otliqlarining o'rtasidan o'tib, salavot va salom ovozlari ostida olg'a borar edi. A'lo hazrat o'tirgan taxtiravonning atrofida minglarcha xatiblar, ruhoniylar, a'yonlar piyoda borardilar. Kechqurun qorong'ilik tushganida To'g'rul o'z o'g'li Malikshoh bilan birga bir necha oylardan beri sog'inib yurgan saroyiga kirib keldi. To'g'rul hammadan ilgari Faxriddin bilan Alouddinni qabul qildi. Faxriddin bosh egib poytaxt vaziyati haqida bunday ma'lumot berdi:

— A'lo hazratning dushmanlari ro'yxatga binoan hibsga olinganlar, Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin o'z uyida hibs etildi. Xalqning qasos tuyg'ulari jo'shgani sababli uni uyidan chiqarib hibsxonaga jo'natishga to'g'ri keldi. A'lo hazratning hamma tarafdorlari shaharga qaytdilar. Ularning hammasi eski vazifalariga tayinlandi. Shahar tamomila osoyishta va amniyat ichidadir. Ozarbayjon qo'shini a'lo hazratga sodiqligini ko'rsatish uchun qasam ichishga tayyor. Qurolli kuchlar a'lo hazratning farmoniga muntazirdirlar.

To‘g‘rul xuddi tush ko‘rayotgandek edi. Qizil Arslonga bir necha g‘alaba qozontirgan ikki mashhur qahramon uning huzurida turib o‘z sadoqatlarini izhor qilmoqda edilar. U xursandchiligidan yig‘lab yuboray dedi-yu, arang o‘zini tutib qoldi. U juda charchagan edi, shuning uchun ham qisqagina qilib ba’zi buyruqlarni berdi:

— Hibsga olinganlarni juda ehtiyotlik bilan qo‘riqlanglar. Men ularning ro‘yxatini ko‘rib chiqqandan keyin jazo tayin qilaman. Ertaga peshin paytida ko‘rik o‘tkaziladi. Qo‘shin bilan a’yonlarning qasamini qabul qilaman. Ko‘rik rasmi tugaganidan so‘ng Qizil Arslonning vaziri Shamsiddinni maydonga chiqarib xalqning ko‘z oldida dorga osdirasizlar. Endi ketishingiz mumkin, xizmatlaringizdan mamnun bo‘ldim.

Faxriddin bilan Alouddin bosh egib To‘g‘rulning devonxonasidan chiqdilar.

Kun chiqqanidan to soat o‘n ikkiga qadar Qorabog‘ va Oronning qashqa otlariga mingan ozarbayjonliklar, otlarining boshini Otabek maydoni tomon burdilar. Egnilariga po‘lat sovut kiygan sarkardalar o‘z qismlari boshida kelar edilar. Lekin Ozarbayjon qo‘shinlari yo‘llarni to‘sib, bitta kishini ham Otabek maydoniga yo‘latmasdylar. To‘g‘rulning tarafdorlari bo‘lgan a’yonlar, ziyolilar va ruhoniylar uchun maydonning bir tomonida maxsus joylar tayyorlangan edi. To‘g‘rulning saroyidan to Otabek maydonigacha kelgan uzun ko‘chalarning ikki tomonida Ozarbayjon qo‘shini saf tortib turardi.

To‘g‘rulning o‘g‘li valiahd Malikshoh bilan birga saroy eshigidan chiqib ko‘rik maydoniga kelishayotganini xabar qilish uchun karnaylar na’ra torta boshladilar. Bir lahzada yigirma mingdan ortiq Ozarbayjon qo‘shini qilichlarni yalang‘ochlab yelkalariga qo‘ydilar, To‘g‘rul o‘z o‘g‘li bilan birga ko‘rik maydoniga kirib kelar ekan, maydondan “Yashasin!” sadolari ko‘tarildi. Oldinda Faxriddin bilan Alouddin, orqalarida esa qo‘shin sarkardalari otlarini niqtab qilichlarini yalang‘ochlab, sadoqat qasamini ichishga tayyorlanib sultonga yaqinlashdilar. Otliqlar a’lo hazratni o‘rab olganlaridan keyin Faxriddin otini olg‘a surib To‘g‘rulning yelkasidan yaraladi va o‘g‘li Malikshoh bilan birga asir qilib oldi[1].

[1] Ravzatussafo, Z-jild.

Bu hodisadan bir necha daqiqa o'tgach, To'g'rulning tarafdorlari bo'lgan a'yon, ulamo va ruhoniylarning qo'llari bog'lanib Otabek saroyining zindoniga tashlandilar. Shahar aholisining Otabek maydonida nimalar bo'layotganidan xabarlari yo'q edi. Oqshom qorong'isi tushganida hibsxonalarning eshiklarini ochdilar, muayyan bir maqsadni amalga oshirish uchun hibsga olingan Qizil Arslonning tarafdorlari ozod qilindi. To'g'rul tarafdorlari esa poytaxtdan butkul tozalandi. Ilgari yashirinib qolganlarning bu safar birontasi ham qoldirilmay qo'lga tushirilib, hibsga olindi. Ayni zamonda To'g'rulning yarasini davolash uchun tabiblar chaqirildi. Bu hodisadan bir soat o'tgach, Qizil Arslonning vaziri Shamsiddin Tabrizga chopar orqali zudlik bilan bunday maktub yubordi:

"A'lo hazrat!

Rejalaringiz amalga oshirildi. Faxriddin bilan Alovidlin bu ishni zo'r mahorat bilan bajardilar. To'g'rulning yarasi u qadar ham og'ir emas, muolaja qilinyapti. To'g'rulni o'g'li Malikshoh bilan birga o'z saroyida hibs etildi. A'lo hazratning qahridan qochganlar bitta ham qoldirilmay qo'lga olindi. Hibsda bo'lganlarning soni besh yuz kishidan ortiq. Poytaxtda tinchlik. A'lo hazratning amriga muntazirmiz".

Qizil Arslon Shamsiddinning maktubini olgani hamon zudlik bilan Shimoliy Ozarbayjonga chopar yuborib valiahdni Tabrizga chaqirtirdi va bir hafta o'tgach, tayyorgarlik ko'rib ozgina qo'shin bilan Hamadon tomon yo'l oldi.

O'z vaqtida berilgan buyruqqa binoan mamlakatning har tomonidan Hamadonga namoyandalar taklif qilingan edi. Qizil Arslon Hamadonga kelgani kunining ertasiga mamlakatga yangi podshoh tayinlash uchun mushovira majlisi chaqirildi. Qizil Arslon so'zga chiqib bunday dedi:

— Men o'z poytaxtimni Tabrizdan Hamadonga ko'chirmoqchiman. Bu narsa mamlakatimizning kelajagi uchun juda ham zarur, chunki hukumatimiz Ozarbayjon hukumatidir. Lekin Hamadonning ham ahamiyatini nazarda tutish kerak, chunki bu yer Bag'dodning darvozasi. Shuning uchun ham men podshohlikka Sulaymon shohning o'g'li Sanjarni taklif hilaman.

Mushovira majlisining ishtirokchilari bu taklifga e'tiroz bildirdilar, ular bir ovozdan Qizil Arslonni podsho qilib ko'tarishga ahd hildilar.

Xalifa tarafidan kelgan vakillar ham Qizil Arslonning podshoh qilib ko'tarishni yoqladilar. Bu fikrni iroqliklar ham quvvatladi, chunki ular Qizil Arslonni, Tabrizda turar ekan, mahv eta olmas edilar. Uni doim ozarbayjonliklar muhofaza qilar edi va uning g'olib chiqishiga sabab bo'lar edilar. Shunga ko'ra ham xalifa uni Bag'dod darvozasiga yaqin olib kelishni va kerak bo'lgan vaqtda qatl ettirishni o'ylar edi.

Xalifa Qatibaning Qizil Arslonga qarshi boshlagan yangi fitnalaridan bexabar emasdi. Qizil Arslon ham buni juda yaxshi bilardi, lekin bunga qaramasdan ko'pchilikning qaroridan bosh torta olmadi va Ozarbayjon, Iroq, Fors va Rey taxti tojini qabul qildi.

Mamlakatning har tomoniga choparlar, jarchilar yuborilib Qizil Arslonning podshohlikni qabul qilganini xabar qildilar. Qizil Arslon ikki kundan so'ng To'g'rul bilan uchrashish uchun uning saroyiga bordi. Qizil Arslon To'g'rulning xonasiga kirganida u deraza yonida o'tirib o'g'li Malikshohga Nizomiy she'rlarining ma'nosini aytib, shunday der edi:

— Tur, bu kunlar bilan vidolash, dunyo bir to'r-tuzoqdir. U sening etaklaringga ilashib qolgan. Qo'lingdan kelguncha bu tuzoqdan o'zingni qutqarishga harakat qil. O'zing uchun shunday bir mamlakat topki, hozir yashab turgan mamlakatingdan yaxshi va osoyishta bo'lsin. Harakat qilib bir yaxshi hujra topib eshigini och... Ustingdan og'ir kiyimlaringni yechib tashla: yengil kiyim kiyganlar manzilga yana ham tezroq yetadilar. Modomiki, sen bu dunyoda yashar ekansan, quduqqa tushib ketmaslik uchun hushyor bo'lishing kerak. Qadam qo'ygan joyingni bilishing kerak. Bir ishni qilish xayolingda bo'lsa, qadamlaringni bilib bos! Menimcha, bu xonaga yana bir eshik ochmoq lozim. O'shandagina kerak bo'lgan paytlarda qochib chiqish oson bo'ladi. Inson tulkidan ibrat olishi kerak. U o'z hayvonligi bilan hech qachon bir teshikli inda yashamaydi. Uning inida ikki teshik bo'lishi kerak. U ko'ppakning ovozini eshitgandan beri hamma vaqt ikki teshikli inda yashaydi. Ish qilish sohib nazarlarga yarashadi. Dunyo hodisalaridan bexabar-

ning nima g'ami bor? Mast bo'lib yotma, chunki sening orqangda pusib yurganlar bor. Bu olam sening ashaddiy dushmaning. Uning do'stligiga ishonma! Manmanlikka berilgan har bir shaxs sening va mening yo'limni to'sadilar.

To'g'rul Qizil Arslonni ko'rishi bilan qo'lidagi qog'ozni yerga tushirib yubordi. Jahl bilan Qizil Arslonga qarab dedi:

— Endi qo'ngling joyiga tushdimi? Umr bo'yi menga tinchlik bermaganliging yetmasmidi? Endi navkarlaring meni qamoqqa olib tahqirladilar.

Qizil Arslon unga javoban:

— Qardoshim, xafa bo'lma, bittagina sening asir tushishing millionlarcha odamlarga ozodlik berdi, — dedi.

— Men-ku, faqat asir bo'ldim, lekin sen o'lasan, chunki sen ajal malikasiga uylanish uchun tayyorgarlik ko'rmoqdasan.

— Sen bu fikrlarni bir yo'la kallangdan chiqarib tashla. Men unga uylanmayman. Men bir sodda dilni fitnachidan ajratmoqchi bo'lganman, shu sababdan Qatibani Tabrizga olib ketganman. Endi ayt-chi, nimaga ehtiyojing bor?

— Mening ehtiyojimni ta'minlaydigan narsalarning hammasi sening o'zingga kerak.

— Jahling chiqmasin, podsholik senga harom, chunki sen xalqni va mamlakatni idora qilolmading. Yaxshi cho'pon emassan, qo'ylarni bo'rilarga ulasha boshlading, eshikni ochib o'g'rilarni ichkariga kiritding. O'zing yashab turgan uyni qo'shnilarga hadya qilmoqchi bo'lding. Sigiringni boshqalarga sog'dirding. Shuning uchun ham seni cho'ponlikdan, bog'bonlikdan va uy soqchiligidan qutqardilar.

— Bu gaplarni qo'y, menga ta'na qilma, bu egar ustida juda ko'p pahlavonlar o'tirganlar. Lekin hozir esa na otdan asar qoldi va na pahlavonlardan. Sen ham o'tib ketasan. Lekin sendan o'tinib so'rayman, mening oilamning tinchini buzma, ularning gunohi yo'q.

Qizil Arslon uni quchoqlab yuzidan o'pdi:

— Onamning o'g'li, bu to'g'rida hecham o'ylama. Sening oilang Eldaniz xonadonining a'zolari. Ularning tinchini sen o'zing buzarding. Sen bilan so'nggi marta ko'rishish uchun

keldim. O‘ylaymanki, men podshohlik talashib seni ranjitdim. Butun umrimda seni bu ahvolda ko‘rishdan ham og‘ir, achchiq daqiqalarni boshimdan kechirgan emasman. Lekin bunga majbur edim. Hozir ham seni va o‘g‘ling Malikshohni Kaxiron qal’asiga ko‘chirishga amr berdim. Sizlarning tinchingizni ta’min qilish uchun u yerda hamma tayyorgarlik ko‘rilgan. Endi ayt-chi, jarohating qanday?

To‘g‘rul g‘amg‘in, umidsiz bir holatda javob berdi:

— Yaralar tuzalar, lekin tuzalmaydigan yaralar bor.

— Bu fikrlarning hammasini bir tomonga yig‘ishtirib qo‘yib, o‘zingni o‘yla, sening va mening yagona bir vazifamiz borki, u shundan iborat — Ozarbayjon xalqi kelajakda bizlarni sotqinlikda ayblamasinlar. Xalq: Eldaniz xonadoni bizni taladi va boshqalarga ham talatdi deb aytmasin. Sen kelajak avlodning la’natiga sazovor bo‘lding. Sening bu sotqinliging meni g‘azablantirmadi deb o‘ylama. Men seni jazolab katta gunohni bo‘ynimga olmoqdaman, seni xalqning hukmiga topshirishim kerak edi. Sen o‘z gunohlaringni o‘ylab, ularni vijdon tarozusiga solsang, qo‘lingga arqon olib bo‘yningga solarding. Sen shuhrat va martaba asiri bo‘lgan bir axloqsiz xotin bilan birlashib o‘z akangni, Otabek Muhammad kabi sharqning mashhur bir siymosini o‘ldirding. Eldanizning yurtini sharmisor qilding, mening belimni bukding.

Shunda To‘g‘rul hech narsa demay, boshini quyi solib yig‘ladi. Qizil Arslon ham o‘rnidan turib avval To‘g‘rulning, so‘ngra esa Malikshohning yuzidan o‘pib xonadan chiqdi.

ISHQ DAFTARI

— Husomiddin rahmatli otamning sarkardasi, buni butun Ozarbayjon xalqi biladi. Husomiddinning nomi aytilishi bilan Oron isyonchilari taslim eshigini axtaradilar. U bir yilning ichida to‘qqizta isyonni bostirgan edi. Men Otabek saroyini muhofaza etishni faqatgina unga ishonib topshira olaman. Qatiba shu so‘zlarni har kun takrorlar edi, lekin Qizil Arslon bu gaplarga ahamiyat bermas edi. U hech qachon Husomiddinni Qatiba talab qilgan martabaga

ko‘tarishni istamas edi, chunki Husomiddinni na o‘zi sevardi va na Ozarbayjon xalqi.

Fuqaro Husomiddinga Otabek Muhammadning qotili deb qarar va uni hukumat ishlarida qatnashuviga e’tiroz bildirar edi. Chunki Husomiddin dushman qo‘shinlari bilan birga bir necha martaba Ozarbayjon ustiga hujum qilgan edi.

Shuning uchun ham Qatiba bu masalani o‘rtaga tashlaganida Qizil Arslon:

— Biz xalqning irodasi bilan kelishishimiz kerak, — der edi.

Qunlarning birida Qatiba bu talabni yana bir martaba o‘rtaga tashlaganida Qizil Arslon uni qat’iy suratda rad qilib dedi:

— Mamlakatning, xalqning saodati shuni talab etsa, buni amalga oshiraman. Hukumat qonuni nimani talab etsa, unga xalqni ham, o‘zimni ham, sizlarni ham itoat etishga majbur qilaman. Men hech qachon Faxriddindek bir qahramonni ishdan bo‘shatib, o‘rniga Husomiddinni tayinlay olmayman. Siz bilasizki, mamlakatni To‘g‘rul tug‘dirgan tahlikalardan qutqargan Faxriddindir. Siz bilasizki, Faxriddin bo‘lmaganda Husomiddin allaqachon bu mamlakatni sotib yuborgan bo‘lur edi. Bu taxti tojni hozirga qadar Eldaniz xonadoni qo‘lida saqlanib kelishiga sabab bo‘lgan kishi Faxriddindir. Biz ozarbayjonliklarning muhabbati va sadoqati soyasida Iroq, Rey va Fors mamlakatlarini idora qilmoqdamiz. Shuning uchun ham mening yonimda Faxriddinga qarshi gapirishga hech kimga ijozat bermayman.

Qizil Arslonning qat’iy e’tiroziga qaramasdan, Qatiba yana o‘z talabida davom etar ekan:

— Hech qachon otamning qotili bilan bir joyda, bir mamlakatda va bir shaharda yashay olmayman.

Qizil Arslon:

— Nima qilaylik? Bu hukumat ishi. Men ham akamning qotillari bilan yuzma-yuz o‘tirishga majburman, — deganida, Qatiba g‘ing deyolmay qoldi. U endi aldanganligini va Qizil Arslonning unga uylanmasligini aniq bildi, shu vajdan Qizil Arslon tomonidan tayinlangan valiahd Abubakirni va Qizil Arslonning o‘zini ham mahv etishga haror qildi: chunki bularning ikkisi ham yo‘q qilinmasa uning o‘g‘li Qutlug‘ Inonjning hukmdor bo‘la olishi mumkin

emasdi. Shu maqsadda u yosh valiahdga iltifot ko'rsata boshladi va o'zining kichik singlisi Taleadan shu maqsadda foydalanishni mo'ljalladi, sababi, u valiahdning go'zal Taleaga qiziqishini bilar edi.

Qatiba valiahd yashagan saroyda istiqomat qilgani uchun uning kichik singlisi valiahd bilan tez-tez uchrashib turar, bundan tashqari Qatiba yosh valiahdga tuqqan onadek mehribonlik ko'rsata boshlagan edi. U doim yosh valiahdning yuzidan o'pib:

— Ahlli, farosatli o'g'lim, kelajakda toju taxtimizning mustahkam bo'lishi, Eldaniz xonadonining sen tufayli davom etishi uchun onang butun kuchi bilan tirishadi, — der edi. — Mamlakatning chegaralarida ro'y bergan tahlikalarni bartaraf qilish uchun xonadonimizning butun a'zolari bir yoqadan bosh chiqarishi kerak. Mening Hamadondan Tabrizga kelishimning sababi ham shu. Baxtsiz onang endi o'zining shaxsiy manfaati uchun emas, xalqning va xonadonimizning sharafini ta'min etmoq uchun yashamoqda.

Qatiba Tabrizda yashaganida valiahdning osoyishtaligini ta'min etish uchun ko'p vaqt sarf qilar edi. Tez-tez uni sog'lig'ini so'rar, hol-ahvolidan xabar olib turar, ovqatlarning sifatini tekshirar: xullas, o'z o'g'lining g'amxo'ri bo'lgan bir onadek harakat qilar edi.

Shu yo'l bilan Qatiba valiahdning muhabbatini qozongan edi.

Talea esa doimo yosh Abubakirni ko'rganida qizarar, uyalar va ko'zining qiri bilan unga boqardi. Talea har daf'a duch kelganida Abubakirning o'ziga qanday qarayotganiga razm solar edi. Bu narsa Qatibani ham qiziqtirar edi. Ikki yoshning bir-biriga yana ham yaqinroq bo'lishlari Qatiba uchun ayni muddao edi. Shuning uchun Abubakir bilan Talea bir joyda bo'lganlarida Qatiba ham biror ishni bahona qilib uydan chiqib ketar va ularni yolg'iz qoldirishga shoshilar edi, Kunlarning birida ikki yosh yarim soat jim o'tirib qolishdi, bir-birlariga aytmoqchi bo'lgan so'zlarini yuzlarining rangidan, qoshlarining chimirilishidan, lablarining titrashidan va yuraklarining tipirchilashidan uqish mumkin edi.

Har ikkisi ham suhbat uchun mavzu axtarardi, chunki ular bu kunga qadar bir og'iz ham so'zlashmagan edilar. Bir-birlariga ayt-

moqchi bo'lgan so'zlarni anchadan beri yodlar edilar. Ular muhabbat kitobining qaysi varag'idan o'qish kerakligi to'g'risida o'ylar edilar. Talea bekor o'tirar, valiahd esa yaroqli bir kamon[1] tanlash uchun oldiga to'plangan kamonlarni titkilar edi. Ularni navbati bilan sinab ko'rar, lekin kamonlarning hech biri bilagining kuchiga bardosh berolmay egilib sinar edi. U juda baquvvat yigit edi. Kuch-quvvatni otasi jahon pahlavon va onasi Go'zaldan meros qilib olgan, yoshligiga qaramay pahlavon deb nom chiqargan edi. Shuning uchun ham o'nlarcha kamonni egib sindirib bir tomonga uloqtirar edi.

Talea bu manzarani ko'rib, suhbat uchun bahona topdi:

— Ayting-chi, siz har qanday kamonni ham sindira olasizmi?— deb so'radi.

Bu savol bir necha oydan beri boshlamoqchi bo'lgan suhbat uchun bahona bo'ldi. Valiahd xursand bo'lganidan Taleaning qizargan chehrasiga qarab javob berdi:

— Balli, men har qanday kamonni sindira olaman. Lekin hozirchalik men sindira olmagan bir kamon borki, ko'pdan beri shu to'g'rida bosh qotiraman.

— Siz uni sindira olmasligingizni aniq bilasizmi?

— Ha, bilaman, hatto, boshqalar ham biladi.

Talea biroz o'ylab:

— Ajabo, buni hamma bilgani holda men nima uchun bilmayman?— dedi.

Abubakir bunga javoban:

— Kichkina xonim o'zi shu kamonning egasi bo'lgan holda nima uchun bilmas ekan?— dedi.

Taleaning yuzi loladek qizardi. Bu gap unga juda qiziq tuyuldi, bu muammoning kalitini topish uchun miyasini ishlatib savol nazari bilan valiahdga qaradi:

— Qanday kamon to'g'risida gapiryapsiz? Buni ochiq ayta olasizmi?

— Qalbingizdagi sirni o'qiy olsam, uning qanday bir kamon ekanligini aytardim.

[1] O'q otadigan kamon.

— Agar men qalbimdagi bor narsalarni o'zim sizga aytib bersam, siz bu g'alati kamonning qanaqa kamon ekanligini menga gapirib bera olasizmi?

— Ha, gapirib bera olaman, lekin buni boshqa odamga aytib qo'ymaysizmi?

— Agar gap bir kishiga taalluqli bo'lsa, uni boshqa kishiga aytishning qanday ma'nosi bor?

— Opangizga aytmaysizmi?

— Aytmayman.

Talea shundan keyin boshini egib jim qoldi, valiahd esa sukutni buzib so'radi:

— Boshqa odamga aytmayman, deb qasam icha olasizmi?

— Men nimaning haqi, hurmati uchun ont ichsam valiahd ishonadi?

— Eng yaxshi ko'rgan narsangiz haqi, hurmati uchun ont iching!

— Yaxshi ko'radigan narsam ko'p, qaysi biriga ont ichay?

— Sevgan narsalaringizni qalbingizning tarozusida o'lchang. Qaysi biri og'ir va qimmatliroq bo'lsa, o'shanga ont iching!

— Insonning sevgan narsalari orzulari singari behisobdur. Xususan, yoshlikning orzulari ko'kdagi yulduzlardek adadsizdur. Masalan, sizning o'zingizni olsak, buni bajara olarmidingiz?

— Ha, bajara olaman, bir lahzada, chunki eng yaxshi ko'rgan narsalarim birinchi qatorda turibdi. Hozir ham Taleaxonim o'zining sevgan narsalarini birma-bir sanab chiqsa, men darrov qaysi birini chin yurakdan sevganligini aytib beraman.

— Juda yaxshi, quloq soling, sevgan narsalarimni sanab chiqaman: opamni juda sevaman, chunki men opamdan keyin tug'ilganman, go'dakligimda onam ham o'lib ketgan. Meni opam tarbiyalab katta qilgan. U ham opam, hamda onam. Undan so'ng Qizil Arslonni sevaman, u bizning valine'matimiz. Qutlug' Inonjni ham sevaman. U opamning yagona tayanchi. Yana...

Talea so'zini kesib qo'ydi, uyaldi, qo'llarini tizzasi ustiga qo'yib jimgina bosh egdi, har zamonda boshini ko'tarib, ko'z qiri bilan valiahdga nazar tashlardi. U valiahdni sevishini aytmoqchi bo'lgani

bilinib turardi. Lekin bunga jur'at qilolmasdi. Shuning uchun ham valiahd unga:

— O'sha haligi, "yana" degan so'z ostida yashiringan odam haqi, hurmati ont icha olasizmi? — deb so'radi.

— Ont icha olaman.

— Opamga aytmayman deb o'sha kishi haqiga ont ichsangiz, men ham siz bilmaganingiz va men ham sindira olmaydigan kamonning qanaqa kamon ekanini sizga ayta olaman.

— Sizning hayotingiz haqi-hurmati, ont ichib aytamanki, men opamga hech narsa demayman. Qani endi ayting-chi, u baquvvat qo'llarning kuchi yetmaydigan qaysi bir kamon ekan.

Valiahd biroz o'ylanib:

— Go'zal Talea, dunyoda bu qo'llarning kuchi yetmaydigan bir kamon borki, u ham bo'lsa, sizning kamonga o'xshagan qoshlaringiz,— dedi.

Valiahdning bu so'zlaridan Talea qoshlarini chimirib jahl bilan unga bir qarab qo'ydi, u valiahddan bunday so'zlarni birinchi marta eshitishi edi. Xususan, Qatibaning valiahdni "o'g'lim" degani uchun ham Talea valiahdning aytgan so'zini eshitib seskanmasligi mumkin emasdi, chunki Qatiba valiahdning onasi hisoblansa, Talea uning xolasi bo'lardi, undan eshitgan ishq-muhabbatga doir so'zlar yoshgina xolani hayratga solmasligi mumkin emasdi. Shuning uchun Talea uyalib o'rnidan turib xonadan chiqib ketmoqchi edi, lekin bunga jur'at etolmadi, u valiahdni yolg'iz tashlab namoyishkorona ketishi nazokatsizlik ekanini bilar edi. Turib ketaymi, o'tiraymi, deb taraddud ichida edi. Valiahdga kelganda, go'zal qizning uyalib ketganini ko'rib, hayajonga tushdi. Taleaga muhabbat izhor qilganidan pushaymon bo'ldi. Lekin bu hayajonini sezdirmasdan, kamonlarini yerdan olib o'z kuchini sinay boshladi, ora-sira ko'z qiri bilan Taleaga qarardi. Talea ham taraddud ichida bo'lishiga qaramay valiahdga ko'z tashlab qo'yardi. Endi Abubakir eng oddiy bir kamonni ham egib sindirolmas edi. U Taleaning kamon qoshlarini o'ylab, oddiy kamonlarni ham sindirolmay qo'llari titrar edi.

Talea qo'qqisdan o'rnidan turdi va chiqib ketmoqchi bo'lib turganida valiahd titroq va yolvoruvchi bir ovoz bilan uni chaqirdi:

— Kichik xonim, to‘xtang! Men bilan bir xonada bo‘lishni istamasangiz men chiqib ketay.

Valiahd shunday deb horg‘in bir harash bilan qo‘lidagi kamonni ko‘zdan kechirib yerga tashladi, papag‘ini olib xonadan chiqmoqchi bo‘lganida Talea uni chaqirdi:

— To‘xtang, valiahd, to‘xtang!

Valiahd unga yaqinlashib:

— Go‘zal qiz, sizning bu norozi qarashlaringiz mening bu yerdan chiqib ketishimni taqozo qiladi. Bizning ikkimizdan birimiz bu xonada qolishimiz kerak, — dedi. Talea uning qo‘lidan ushlab yalindi:

— Yo‘q, o‘tinaman, to‘xtang! Bu yerdan to‘satdan chiqib ketishingiz opamda shubha tug‘diradi.

— Hech kimga aytmaslikka ont ichganingizni unutmadingizmi?

— Siz qasamga ishonasizmi?

— Albatta, har qanday qasamga, har kimning qasamiga ishonib bo‘lmaydi, chunki ba’zan qasam yolg‘on so‘zni rost qilib ko‘rsatish, ba’zan esa haqiqatni pardalash maqsadiga xizmat qiladi.

— Siz o‘zingiz haqiqatni pardalash maqsadida ont ichuvchilarni sevasizmi?

— Yo‘q, go‘zal qiz, men haqiqatni pardalash uchun ont ichuvchilarni seva olmayman.

— Unda nima sababdan haqiqatni yashirish uchun bir qizni ont ichishga majbur qilasiz?

Suhbat juda uzoqqa cho‘zildi, valiahd qo‘lidagi kamonlarning bir qanchasini sindirdi. Talea: “Ketsammikan, o‘tirsammikan?” deb azoblanar, rangi tez-tez o‘zgarib turar, vujudi esa shamol turgan vaqtdagi sarv daraxti kabi titrar edi. U birinchi marta yosh bir yigit bilan yuzma-yuz o‘tirib, bunday mavzu ustida so‘zlashmoqda edi. Shuning uchun ham u hozirgi zamonni ham, o‘tmishni ham butkul unutgan edi. U faqat kelajakning poyonsiz sahrolarida javlon urar edi.

Qatiba to‘satdan xonaga kirib keldi. Talea o‘zini tutmoqchi edi, bo‘lmadi, qo‘rqqanidanmi, uyalganidanmi, hayajoni yana ortdi. Qatiba Taleani yuziga diqqat bilan tikilib, uning butun turish-tur-

mushida bir o'zgarish paydo bo'lganini payqadi. Valiahdning chehrasidan ham shu narsani sezish mumkin edi.

Abubakir chiqib ketishga bahona qidirib:

— Malikam, men mashq maydoniga ketishim kerak, — deb xonadan chiqib ketdi.

Talea Qatiba nima derkan, deb turgan joyida turib qolgan edi. Opasi uning yoniga kelib sochlarini siladi va dedi:

— Dunyoning ishlari shunaqa. Turmushning boshlanishida doim bir qiyinchilik bor. Ba'zan o'sha qiyinchiliklar uzoq muddatlarga cho'ziladi. Lekin yangi turmush qurmoqchi bo'lganlar qiyinchiliklarni juda tez va osonlik bilan bartaraf qilish uchun epchil bo'lishlari kerak. Qizlar ham, yigitlar ham turmush qurish ishida mohir bir san'atkor bo'lishlari kerak. Aqlli odamlar yutuqni hayotning oxirida emas, boshida qo'lga kiritadi. G'alabani ta'min etmay biror jangni boshlash yoki katta bir asarni yaratish aqlsizlik bo'ladi. Sevgi ham, yangi oila qurish ishi ham shunaqa. Sevgi va muhabbat binosining barqarorligi uning mustahkam bir poydevor ustiga qurilishiga bog'liq, chunki buni men o'z hayotimda tajribadan o'tkazdim. Bir qizning baxtini faqatgina uning go'zalligi ta'min etolmaydi. Erkaklarning ko'zlari shu hadar adashadiki, ular dunyoning nodir bir go'zalini eng chirkin bir xotinga almashtira oladilar. Ba'zan chirkin, tuban uddaburon xotin, laqma va lapashang go'zaldan baxtliroq yashaydi. Go'zal singlim! Erkaklar bilan turmush qurish uchun shatranj o'yinining ustasi bo'lish kerak. Turmush va oilaning san'atkori bo'lmagan bir qizning go'zalligi bir parcha qog'oz yoxud bir g'az surpga chizilgan rasmdan hech ham farqi yo'q. Erkaklar bahor kapalagiga o'xshaydi. Kapalak guldan gulga qo'ngandek, erkaklar ham bir xotinga, bir qizga sodiq qolishni xohlamaydilar, chunki tabiatlari shunday. Men bularni ham o'z tajribamdan o'tkazganman. Qizlar va xotinlarning birinchi vazifasi erkaklarni o'rganishdan iborat. Uning didi qanaqa, xotin kishidan nimalarni talab qiladi, nimani va qanday xususiyatlarni, qanday go'zallikni sevadi, bularni aniqlash lozim.

Ular erkak bo'lsalar ham, injiq qizlardan battarroqdirlar. Shuning uchun ularni uy parrandasidek o'rgatib olishni va yashashga o'rgata bilishimiz kerak. Asosni masala erkak kishining man-

manligini sindirishning uddasidan chiqishdadir, chunki hayotning to'g'ri yo'lga solishga to'sqinlik qiladigan asosiy narsa erkaklarning va xotinlarning qaysarligidur. Mening erim davlat ishlarida o'jar, menda ham o'jarlik bor edi. Xuddi shu o'jarlik bu kunga qadar mening hayotimni kemirmoqda. Erkak kishining xulqini, qarashini va tushunchalarini o'zgartirish kerak. Unga o'zining aytganini emas, sen o'zing istagan narsangni qildirishing kerak. Erkak kishini bilish uchun juda sergak bo'lish lozim. Ular sevgan paytlarda yosh bir go'dakdekka o'xshaydilar. Go'daklikda esa odamga har bir narsani o'rgatish mumkin. Sevgi inson fikrini, didini, xulqini o'zgartirishi mumkin. Afsuski, men buni yoshlik davrimning oxirida bilib qoldim. Oila qurish darsligini xotin kishining o'zi yozishi kerak. Men endi tushunyapman, xotinlar erlarini o'zlariga rom qilib, o'zlari istagandek tarbiyalagandagina baxtli hayot qura oladilar. Endi senga muhabbat haqida bir og'iz so'z aytay: qizlarda aql sevgidan ustun bo'lishi kerak. Muhabbatning o'zi mustaqil bir narsa emas. U muayyan bir maqsadga erishish uchun vositadir, bir erkak kishi bilan muhabbatsiz ham yashashi mumkin. Mening o'zim ham shu nuqtayi nazarda erga tekkanman. Lekin erkak kishini o'rganish ishida savodsiz bo'lganligim uchun na muhabbatdan va na maqsaddan foydalana oldim. Muhabbat kishilarni bir-biriga birlashtira oladigan qisqagina bir davr uchun kerak. U o'tadi ketadi. Muhabbatni abadiy degan iddaoda bo'lganlar odatda muhabbatning nima ekanligini bilmaydiganlardir, chunki muhabbat shunday bir badhazm narsaki, odam faqat yoshlikning sarxushlik davridagina uni hazm qila oladi. Yoshlikning sarxush kunlarini xotirlaganimda o'z-o'zimdan kulaman. Men endi bilyapmanki, maqsadsiz sevgi go'dak sevgisidir. Bunday sevgilardan qochish kerak.

Talea uchun bu gaplarning hammasi begona edi. Uning tushunchasi Qatiba aytgan faylasufona so'zlardan juda uzoqda edi, chunki yoshlikning o'ziga xos bir falsafasi borki, ular ham katta yoshdagilarning tasavvuriga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham Qatibaning fikrlari Taleaning hayratda qoldirolmas edi. Qatiba gapirar ekan Talea o'ychanlik bilan Qatibani yuziga boqib turardi. Qatiba buni darhol sezdi va o'z fikrini izoh eta boshladi:

— Biz taqdirimizni bularning taqdiri bilan bog'ladik. Xonadonning bir qo'lda bo'lgani yaxshi. Shuning uchun valiahdning sen bilan bo'lgan yaqinligiga ochiq-oydin bir shakl berish kerak. Hayotda yanglishmaslik uchun uning senga nisbatan bo'lgan munosabati o'rtangizda bo'lgan suhbatlar haqida meni xabardor qilishing kerak. Mendan uyalma. Seni go'daklikdan tarbiya qilganman. Shuning uchun ham oila egasi bo'lguningcha senga g'amxo'rlik qilish mening vazifam. Endi menga ayt-chi, valiahd bilan nimalar haqida so'zlashdingiz?

Talea bu savolga javob berolmadi. U qasamini buzmaslikka qaror qilgan edi. Lekin Qatibaning savolini javobsiz qo'ymaslik uchun:

— Valiahd bilan hech qanday narsa to'g'risida gaplashganimiz yo'q, — dedi.

Qatiba Talea sir saqlayotganini darhol sezdi va bu sirni boshqa birovga aytmaslik uchun valiahdga so'z berganligini fahmladi. Lekin bunga xafa bo'lmadi, chunki Taleaning valiahd bilan yaqinlashishi, uni o'rganishi Qatibaga juda ma'qul edi. Qatiba bu aloqaning boshlanishi o'z maqsadiga muvofiq deb bilardi. Qatiba ichida: "Bu suhbatlarning sevgi bilan tamom bo'lishi menga qo'l keladi", dedi.

Qatiba yana Taleaga qaradi:

— Sevish ayb emas, ixtiyorni vaqtidan ilgari qo'ldan boy berish aybdir. Men ko'rib turibman, u seni sevadi, senga maftun bo'lgan. U sening asiringdir. Sen o'z asiring bilan qanday muomala qilishni bilishing kerak. Senga qat'iy suratda buyuraman, uni bir necha oy shu zaylda qiynab yurish lozim. Shu muddat ichida olgan tajribalaring kelajakda senga asosiy bir yo'llanma bo'lib qoladi.

Qatiba bu so'zlarni singlisi qulog'iga quyar ekan, Talea qalbida valiahdning aytgan gaplarini o'ylab: "Go'zal Talea, dunyoda bu qo'llarning kuchi yetmaydigan bir kamon borki, u ham bo'lsa,- sizning kamonga o'xshash qayrilma qoshlaringizdir", degan gapini takrorlar va jimgina qarab turardi. U o'z-o'ziga savol berib: "Ajabo, bu jumlaning ichida bir sevgi ifodasi bormikan? Agar bor bo'lsa, bu men uchun kifoya. Lekin negadir u o'z sevgisini yashirishga

harakat qildi? Nega opangga aytma, deb meni ont ichishga majbur qildi?..

U qanday fikrda bo'lsa bo'laversin, lekin men opamning so'zlariga kirmayman. Uning fikrlari menga yoqmaydi. Uning nasihatlari sof qalbdan chiqqan nasihatlar emas. Agar valiahd meni sevganligini bila olsam, opamning nasihatlarini bir tomonga yig'ishtirib qo'yib, o'zim xohlaganimcha ish qilardim. Hatto, butun o'ylaganlarimning hammasini valiahdga aytib, u bilan maslahatlashardim. Men uni mamnun qilish uchun har qanday ishni qilardim, na qaysarlik va na injiqlik qilardim..."

— Ular bir-birlarini sevadilar. Bunga haqlari bor. Valiahdning ham, Taleaning ham turmush quradigi vaqtlari kelgan. Bularni qovushtirish yoki darhol bir-biridan uzoqlashtirish lozim. Agar hukmdor akasining o'g'li Inonj xonadonidan qiz olishga rozilik bersa, men ham bunga chin ko'ngildan rozi bo'lar edim, chunki bu ikki yoshning sevgilari juda ham sof va samimiydir. Men o'ylaymanki, hukmdorning o'zi ham bu sevgidan xabardor bo'lsa kerak, shuning uchun ham a'lo hazratning fikrini bilishni istardim. Agar bu ish ro'yobga chiqmaydigan bo'lsa, unda qizni Bag'dodga jo'natish lozim, chunki ikkisining bir yerda yashashi odatga to'g'ri kelmaydi.

Qizil Arslon Qatibaning bu so'zlarini eshitib o'ylab qoldi. U Qatibaning bu fikrlari zaminida bo'lgan xiyonatdan bexabar edi. Shuning uchun ham Qizil Arslon bu nikohning bo'lishini bir qancha sabablarga ko'ra yana ham qulay deb bilardi. Avvalo, valiahd Qatibaning singlisiga uylangan taqdirda Qatiba o'z o'g'li Qutlug'ni valiahd qilish orzusidan kecha olar edi. Ikkinchidan, yana ham muhimrog'i, Qatiba yangidan Eldaniz oilasiga kirgani uchun o'zining Qizil Arslonga erga chiqish orzularidan voz kechishi mumkin edi, chunki Qatiba hozirgacha bu ahmoqona fikridan qaytmagan edi, joyi kelganda yana o'z orzularini ilgari surardi.

Qizil Arslonga ma'qul tushgan uchinchi narsa Taleaning aqlli, odobli va nihoyatda go'zal bo'lishi edi. Qizil Arslon Taleani axloq jihatdan Qatibaga o'xshamasligi va nazokatli ekanidan ayniqsa mamnun edi. Shuning uchun ham Qatibaning taklifiga javoban shunday dedi:

— Men xotinlarning ahvoli ruhiyasini va ularning sevgi haqidagi tasavvurlarini yaxshi bilmayman. Rahmatli akam aytar ediki, "xotin kishining ruhini anglash uchun xotin kishining ruhiga kirish lozim". Shuning uchun malika, joyi kelganda, Taleaxonimni o'zi bilan gaplashishi kerak. U chindan sevadimi, yo'qmi, bilish kerak, men Abubakir bilan so'zlashaman.

Qatiba Taleaning fikrlarini bilib berishga so'z berdi. Qizil Arslon o'tirgan yerida shu masala haqida bosh qotirib valiahdni kutdi, chunki valiahd shimoliy Ozarbayjonning ahvoli to'g'risida ma'lumot bergani Qizil Arslonning huzuriga kelishi kerak edi. U Ozarbayjondan qaytib kelganidan beri mamlakatning ahvoli to'g'risida o'zining fikrlarini batafsil so'zlab bermagan edi.

Birozdan so'ng valiahd kelib, Qizil Arslonning qo'lidan o'pdi va orqaga tisarilib Qizil Arslonning farmonini kutdi.

— O'g'lim, kel, o'tir! — dedi.

Valiahd kelib o'ziga maxsus joyga o'tirdi. U hayajonda edi, chunki u birinchi martaba ma'ruza qilayotganidan yuragi o'ynar va uyalar edi, u so'zni qayerdan boshlab qayerda tugatishini bilmas edi. Nihoyat, Qizil Arslon valiahdga savol berdi:

— Shirvon shohligi bilan bo'lgan munosabatlar haqida ma'lumot bera olasanmi?

— Shirvon shohligi masalasi juda murakkab muammo. Shirvon shohligining Orondan ajralgan holda alohida hukumat bo'lib yashashi o'rtada mavjud bo'lgan ixtiloflarni chuqurlashtiradi. Shirvon Shimoliy Ozarbayjonning bir qismi. Lekin xalqining urf-odatlari Oron xalqining an'ana va odatlaridan farq qiladi, chunki u yerda qadimiy Eron va Arab hukmronligining qoldiqlari bor. Shirvon Ozarbayjondir. Unga boshqa nom berish xato. Masalani maqsadga muvofiq hal qilish uchun Shimoliy Ozarbayjonining markazini Shirvonga ko'chirib, u yerni Ozarbayjon poytaxti deb atash kerak.

Qizil Arslon valiahdning bergan javobidan mamnun bo'ldi, o'rnidan turib uning peshonasidan o'pdi va:

— Shunday o'g'lim! fikring to'g'ri, — dedi. — Shimoliy Ozarbayjon bilan Janubiy Ozarbayjonning aloqasi haqida nima deya olasan?

— Shubhasizki, bitta xalqni ikki hukumat idora qilishi xatodir, a'lo hazrat shimoliy Ozarbayjon madaniyatining janubiy Ozarbayjonga tarqalishi uchun keng yo'l ochishi kerak. Janubiy Ozarbayjonning madaniyati janubdan kelgan madaniyat emas, hukmdor juda yaxshi biladiki, bu fikrlar arab va fors ta'sirining mahsulidir. Shimoliy Ozarbayjon bilan janubiy Ozarbayjonni birlashtirish shimoliy Ozarbayjonning madaniyatini janubga yoyish uchun yo'l ochish demakdir.

— Eldaniz xonadoniga nisbatan munosabatlari qanday?

— Shimoliy Ozarbayjonda sizning hukumatingizga qarshi norozilik borligini sezmadim. Ammo bu Oronliklar hamma narsadan mamnun degan ma'noni bildirmaydi.

Qizil Arslon valiahdning nima demoqchi ekanligini angladi. Qatibaning Hamadondan Tabrizga ko'chirilishiga oid tarqalgan mish-mish gaplarning ta'sirsiz qolmaganligini u bilar edi. Shunga ko'ra valiahdga:

— Malikani qanday maqsad bilan Ozarbayjonga ko'chirilishi haqida Nizomiyga izoh bermadingmi? — deb savol berdi.

— Izoh berdim. Shubhasizki, Nizomiydek bir shaxsga bu haqda izoh berish ortiqcha tuyuldi. Men u bilan uchrashganimda uning o'zi ham mish-mish gaplarga ishonmaganini aytdi.

— Nizomiy bilan batafsil so'zlasha oldingmi?

— Ha, so'zlasha oldim. Ko'plarga nasib bo'lmagan bu baxt faqat menga nasib bo'ldi. Men shoirga xabar qilmasdan uyiga bordim. Hayoti va maishati bilan tanishmoq maqsadida uni ogohlantirmay nonushta paytida ziyoratiga borishga qaror qilgan edim. Shuning uchun ham ulug' shoir bilan bir dasturxonda ovqatlandim. Maktubingizni topshirdim. O'qidi va menga pand-nasihat qildi. Aytgan so'zlarini yozib olib, a'lo hazratga o'qib berish uchun olib keldim.

— Mening to'g'rimda fikrini ochiq aytmadimi?

— Maktubingizni o'qir ekan, kulimsirar, ba'zan esa qoshlarini chimirib o'yga botar edi.

— Mening fikrlarimni u yaxshi biladi.

— A'lo hazrat ruxsat bersalar, shoir bilan tez-tez ko'rishib turish uchun shimoliy Ozarbayjonga borib tursam. U bilan uchrashish va nasihatlarini eshitish mening uchun bir hayot maktabi bo'lar edi.

— Seni Ozarbayjonga borishing kerak emas, harakat qilib shoirni Tabrizga ko‘chirib keltirish lozim.

— Bu mumkin emas, men uning faqirona kulbasida bo‘lganimda u: “Mening Orondan chiqib ketishim vatandoshlarimni tahqir etish demakdir”, degan edi.

— Yer ishlari qanday ahvolda?

— Hukumat yerlarni boshqatdan bo‘lib berishi kerak, chunki mulkdorlar hukumat bayrog‘i ostida qishloqlarni talamoqdalar, holbuki, qishloqliklardan olingan soliqlardan bir dinori ham davlat xazinasiga tushmayapti.

— Sen bu fikrlaringni boshqa odamlarga gapirma, bu juda ham xavfli va murakkab masala, bu to‘g‘rida rahmatli otang bilan ham gaplashganman. Men ham shu fikrda edim. Lekin endi boshqacha o‘ylayman. Sen bilasan, yerga bo‘lgan mulkchilikning shakli davlat qurilishining qanday shaklda bo‘lishiga bog‘liqdir. Yer mulkchiligi shaklini o‘zgartirishni istar ekanmiz, davlat idora usullarini ham o‘zgartirishimiz kerak. Mamlakatda joriy qilingan qonunlarning hammasi zanjir halqalari singari bir-biriga bog‘liq. Shu zanjirning asosiy halqasi hukmdordan iborat. Zanjirni harakatga keltiruvchi biz. Bu masalani qo‘y. Qani ayt-chi, shimoliy Ozarbayjon xalqining gullashiga nima xalal beryapti?

— Diniy xurofotlar Ozarbayjon xalqi boshiga bitgan balo. Xurofot, mavhumot juda katta qadamlar bilan xalq ichiga kiryapti. Men shimoliy Ozarbayjonda bo‘lganimda shu masala bilan tanishishni istadim. Shayxlar va tariqat boshliqlari bilan yaqindan tanishdim. Maqsadlari menga ayon bo‘ldi. Tariqat va bud’atlar muayyan bir siyosiy vosita sifatida Ozarbayjonga chetdan kiritilganini aniqladim. Tariqat va mazhablar Iroq, Eron va O‘rta Osiyodan Ozarbayjonga keltirilganligi shubhasizdir, chunki bir qancha tariqatlar borki, hozirga qadar Ozarbayjon xalqi ichiga singib keta olmagan. Hukmdor bu xavfli hodisani oldini olishi kerak: chunki tariqat va muridbozlik xalq orasiga nifoq soladi. Bilmadim, balki bizdan avval mamlakatimizni idora qilganlar biror siyosiy maqsadni ko‘zda tutib tariqat va mazhab mubohisalarini kuchaytirganlar, lekin hozir bu juda xavfli narsadir, chunki bir-biriga ruhan va fikran dushman bo‘lgan xalqni umumiy bir g‘oya atrofida birlashtirmoq

juda qiyin. Men shunday bir qarorga keldimki, tariqatlar pardasi ostida oxirat ishlari emas, balki bu dunyoda ichki urushlar vujudga keltirish niyati yashiringandir.

Qizil Arslon hayrat bilan valiahdning og'ziga tikilib unga quloq solar va ko'nglidan, "men yanglishmadim. Valiahd mamlakatda bo'lgan kasalliklar qayerdan kelib chiqqanligini men kabi tushunadi. Qasali qayerdaligini biladi, lekin asosiy, masala kasallikni belgilashda emas, hamma qiyinchiliklar uning dorisini topa bilishdadir. Bu bobda qurolimiz o'tkir emas, dushmanlarimiz hamfikrlarimizdan bir necha martaba ortiqdir", deb o'yladi.

Qizil Arslon boshini qimirlatib:

— Sening tariqatlar, mazhablar haqidagi tushunchalaring meni xursand qildi, xalq o'z-o'ziga dushman bo'lmasa edi, men mavhumot va xurofotning ildiziga o'tkir bir bolta urardim. Rost aytasan, bizdan avvalgi hukmdorlar xalqni talash uchun mavhumot va tariqat muborizalarini vosita deb bilgan edilar. O'g'lim, sen qo'zg'olonlar tarixini yaxshi o'rgan. Ularning hammasida mavhumot va tariqatlarga qarshi unsurlar borligini ko'rasan. Bu kasallikni bizdan ilgariroq aniqlaganlar. Lekin ular ham bu zaharli jonivorga g'olib kelolmaganlar.

Qizil Arslon shu so'zlarni aytganidan so'ng hiyla g'amgin bo'lib, boshini quyi soldi, biroz o'ylab, so'ngra sekingina dedi:

— Hamma illatlar o'zimizda. Dunyoning la'nati biz hukmdorlar ustiga yog'iladi. Hukmdorlarning saroylarini yoritib turgan oftob, fuqarolar yashab turgan qorong'i dunyoga nur sochib turishi kerak. Biz nima uchun u dunyoni yorita olmaymiz. Chunki biz uni yoritgudek bo'lsak, saroylarimizga zulmat cho'kadi. Qani endi ayt-chi, menga, Gurjiston bilan bo'lgan aloqamiz qanday ahvolda?

— Gurjiston bilan do'stmiz. Bu do'stlikni tag'in ham mustahkamlash kerak. Gurjistonning mavqeyi ularga nisbatan hurmat saqlashni va do'stona munosabatda bo'lishimizni talab etadi. Nima uchundir o'tmishdagi hukmdorlar buni ko'zda tutmaganlar. Biz Gurjistonni qo'shin va qilich bilan emas, balki hurmat va muhabbatimiz bilan ho'lga kirita olamiz. Ular Ozarbayjon xalqining

eng qadimiy qo'shnilaridir. Bu ikki xalq bir-biriga nisbatan qalbida chuqur hurmat sezadi. Men o'ylaymanki, biror hodisa ro'y bergudek bo'lsa, Gurjiston xalqi ozarbayjonliklar orqasidan zarba berishni istamaydilar. Lekin o'tmishda bu ikki xalq o'rtasiga nifoq solganlar. Bu ittifoq biz uchun ham foydali.

Qizil Arslon kuldi:

— Shunday, dunyoning ishlari shunday, o'g'lim! — dedi,— hukmdor o'z xalqining saodatini o'ylashi kerak. Lekin bizdan avvalgi hukmdorlar ham, bizning o'zimiz ham buning aksini qilganmiz. Hukumatlar, xalq bizning manfaatimiz uchun yashaydi, deb o'ylar edilar. Buning teskarisini qilish kerak. Sen fuqaroning manfaatini o'ylashing kerak.

Aholining badavlat bo'lishiga harakat hil, chunki ochyalang'och aholidan hech narsa ololmaysan. Shunday emasmi?

Qizil Arslon valiahdning sukut qilganini ko'rib yana bir marta savol berdi:

— Aytganlarim to'g'ri emasmi?

— To'g'ri, lekin aholining boyishiga kim yo'l qo'yadi? Mulkdorlar tomonldan so'nggi ko'ylagigacha yechib olinayotgan qishloqilarni qanday yo'l bilan boyita olasan?

— Dehqonlar ixtiyorini mulkdorlar ixtiyorlariga topshirish mumkin, lekin hukmdor mulkdorning jilovini o'z qo'liga ola bilishi kerak. Shuni esda tut: aholini birinchi navbatda xorijdan kelgan talonchilardan qo'riqlash kerak. Ichki talonchilardan qo'riqlash unchalik ham qiyin emas.

Bu fikrlarning birortasidan ham valiahdning ko'ngli to'lmadi. Qizil Arslon esa suhbat mavzuyini o'zgartib dedi:

— Men valiahdni boshqa masala yuzasidan yonimga chaqirgan edim. Meni Taleani masalasi qiziqtirmoqda. O'rtangizda samimiy muhabbat bor bo'lsa, men qarshi emasman. Bu masala sening o'z shaxsiy masalangdir. Bizning vazifamiz esa hayotiy tajribalarimiz bilan seni tanishtirish.

Valiahd o'rnidan turib, Qizil Arslonga ta'zim qildi.

Qizil Arslon:

— O'g'lim, senga javob, — deganidan so'ng u yana ta'zim qilib, xonadan chiqib ketdi.

KUR SOYI BO'YLARIDA

Qizil Arslon Kur soyi bo'ylaridan Nizomiyga yozgan maktubida quyidagilarni qayd qilgan edi:

Muhtaram shoirning Tabrizga kelishini bir necha martaba iltimos qilgan edim. Valiahd Ganja sayohatiga borgan vaqtida ham unga shu to'g'rida topshiriq bergan edim, nima uchundir shoir takliflarimizga rad javobi berib, Ganjadan ayrilishni istamasligini bildirgan.

Nihoyat, men shoirning ziyoratiga borishga qaror qildim. Valiahd sizning ziyoratingizdan unutilmas xotiralar bilan Tabrizga qaytdi, umid qilamanki, mening bundan keyingi ishlarim va amalga oshiradigan islohotim muhtaram shoirda tavajjuh uyg'otadi. Shukrlar bo'lsinki, hozircha ixtiyor o'z qo'limizda. Lekin To'g'rul yo'l qo'ygan xatolarni tuzatish uchun juda uzoq muddat ishlashga to'g'ri keladi.

Davlat idoralari dushmanlardan tozalangan, siz bilan gaplashganimiz islohotni boshlash uchun hamma imkoniyatlar bor. Men sizning fikrlaringizni amalga oshirishga harakat qilaman. Bu safarimda siz orzu qilgan sulh shartnomasini Shirvon bilan tuzish umididaman.

Mamlakatni idora qilish, fuqaro ahvolini yaxshilash haqidagi fikrlaringizni qo'llab-quvvatlayman. Siz bilan ko'p masalalar yuzasidan maslahatlashib olishim kerak. Men o'ttiz kundan beri yo'l yuraman, fikr-u zikrim shoirning ziyoratiga tezroq yetib borish. Umid qilamanki, o'ttiz tosh yo'lni bosib mening huzurimga kelish muhtaram shoirga malol kelmas".

Nizomiy Qizil Arslondan maktub olgan paytda Xisrav Shirin asarining so'nggi baytlarini yozib bitirmoqda edi.

Zi har aqli muborakbodam omad
Tariqiy — aql vohid yodam omad
Shikoyat gunohi mekardam az baxt,
Ki darboz-u kamoni doshtam sahd
Basi tir-u kamon askanda budam

Nashud bar hech kog'az, oz budam
Shikoyat chunki nadorat xurushi[1].

Qizil Arslonning maktubi Nizomiyni qanoatlantirolmadi, chunki u Nizomiyga bergan va'dalarning va Nizomiydan olgan o'gitlarning bir foiziga ham amal qilmas edi. U taxtiravonga o'tirib Qizil Arslonning qarorgohiga ketayotganida o'ziga o'zi der edi: "Inson dunyoni o'rganadi, olim bo'lsa ham hech narsani bilmay o'ladi. Hukmdor gapirganda, haqiqatni emas, o'z shuhratini ko'zda tutadi. Podshohning vijdoniga ishonma. U sening ko'maging bilan qo'lga kiritgan qurolni sening boshingda sinab ko'radi. Podshohning tilidan tez-tez eshitganimiz vijdon va sadoqat kalimalari ham inson qalbini ovlash uchun Bir qopqon vazifasini o'taydi. Insonlarning baxtsizligi ham shundaki, ular bir-birlarini sinagan vaqtlarida qalblarida yashiringan xoinona maqsadlarni o'qiy olmaydilar. Ba'zi kishilar yolg'onni niqoblovchi balandparvoz so'zlarga aldanadilar. Millionlarcha odamlarni birgina podshohga bosh egishining sababi bitta bo'lsa edi, unga qarshi kurash olib borish shu qadar qiyin bo'lmas edi. Lekin podshohning mavqeyini mustahkamlagan sabablar miqdori undan sodir bo'lgan haqsizliklarning miqdoridan optiqroqdir. Podshoh ojizlarni asirlikda tutish uchun kuchlilardan o'ziga qo'shin tuzgan. Ruhoniylar podshohni ilohiylashtirib o'z manfaatlari uchun undan foydalanadilar".

Nizomiy shularni o'ylab charchar, har zamonda taxtiravonning pardasini ko'tarib Kur daryosining ajoyib go'zal qirg'oqlariga qarab rohatlanar va yana Qizil Arslon to'g'risida o'ylab der edi: "Ba'zan hayotni va dunyoni o'zgartirishni istagan dohiylarning fikrlari minglarcha firqa va tabaqalarga ajralgan xaloyiqning chalkash, turli-tuman fikrlari orasida yo'qolib ketadi. Podshoh! Senda nima bor? Oddiy hunarmand ustalar yasagan taxti toj bor. Lekin sen har bir taxtning soyasida turgan tobutni ko'rolmaysan!.. Keng

[1] Ko'pgina aqllar bu asarni boshlagan vaqtimda tabrik qiladi. Lekin faqat aqlning yo'lini davom ettirishni xotirladim. Iqboldan shikoyatlar qilaman. Qo'limda esa mustahkam va sinmas kamonim bor edi. Kamondan ko'pgina o'qlar otgan edim. Har bir qog'ozda sinagan bo'lsam ham mumkin bo'lardi Chunki shikoyat hayajonni so'ndirar Va javohirfurushlik qadrsiz qolmas.

saroylarning yorug‘ derazalaridan dunyoga qaragan vaqtingda shuhrat va xudbinlik pardasi ko‘zlaringni to‘sadi, sen yuzlarcha o‘zing kabi hukmronlar yotgan qabristonni ko‘rolmaysan! Sen bir to‘da laganbardorlar, riyokorlar qurshovida senga la’nat yog‘dirgan yuz minglarcha odamlarni ko‘rmaysan. Dunyoda podshoh taxtidan ham chirik va uzoqqa bormaydigan narsa bormi? Balki bir kun kelarki, xalq men tushunganimdek tushunar, balki bir kun sening yolg‘onchiliging, ahdingga amal qilmasliging oshkor bo‘lar. O‘shanda holing nima kechadi? Seni taxtdan tortib yerga tushiradilar. Bu juda oson. Dekin sen yaratgan xarobalaringni tiklash juda ham mushkul bo‘lar edi. Hozir qo‘ynimga solib sovg‘a qilib olib kelayotganim “Xisrav va Shirin” dostonida senga va sendan avvalgilarga aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarimning hammasini yozganman. Men bilan birga bu so‘zlarni xalqning o‘zi aytishini istardim”.

Shoirning taxtiravoni qarorgohdagi chodirlar orasidan o‘tib bormoqda edi. Nizomiyning kelganligini Qizil Arslonga xabar qildilar, u shu payt o‘z chodirida aysh-u ishrat bilan mashg‘ul edi. U darhol Shamsiddinga buyruq berdi:

— A’yonlar va qo‘shin sarkardalari buyuk shoirni tantanali suratda kutib olsinlar, — so‘ngra mulozimlarga o‘girilib, qo‘shimcha farmon berdi:

— Dasturxonni yig‘ishtiring. Soqiylar, mutriblar chiqib ketsin. Majlisda faqat sozandalar bilan xonandalar qolsin. Odamlarga hayot suvini ulashgan shoir uchun uzum suvining qimmati yo‘q. Uning suhbatlari musiqiy na’malardan ham dilnavoz va sevimlidir. Shoirga munosib bir majlis quring.

Nizomiy chodirga kirib Qizil Arslonga bosh egib salom berishga ulgurolmadi, chunki Qizil Arslon ilgariroq salom berib uni qarshi oldi va qo‘lidan ushlab o‘z yoniga o‘tqazdi.

Boshlab, davlat va hukumat ishlariga doir masalalar to‘g‘risida so‘zlashdilar. Undan so‘ng shoir yo‘lda kela turib o‘ylagan fikrlarini o‘rtaga soldi.

Qizil Arslon: “To‘g‘ri, haq gap, tasdiqlayman, amalga oshirish lozim, ofarin, xuddi shunday! Siz amin bo‘ling, boshqacha bo‘lishi mumkin emas, qo‘shnilar bilan do‘stona yashash to‘g‘risidagi fikringizga qo‘shilaman. Erli tabiblarning huquqini chegaralab

qo'yish kerak degan fikringiz to'g'ri" deb, uning gapini ma'qullar edi.

Qizil Arslon Qatibaning Tabrizga ko'chirilishi sabablari ustida to'xtalib dedi:

— Qatibani Ozarbayjonga ko'chirilishi mamlakatning katta bir qismini tahlikadan qutqarib qoldi. Yaqinda u yana Hamadonga ketadi, men u yerga poytaxtni ko'chiraman.

Nizomiy kulimsirab:

— Mamlakatning bir qismini tahlikadan qutqarish bilan hukmdor o'z hayotini tahlika ostiga qo'ydi, — dedi. Qizil Arslon bu so'zga kuldi va dedi:

— Kelajak hozirgi zamon hodisalariga bog'liq.

— Davlat bilan hukumatni falsafa yordami bilan idora qilish mumkin emas, bugungi hodisalar kelajakka o'z ta'sirini ko'rsatishini kutib o'tirmasdan, hukmdor hozirgi hodisalarga o'zlari o'ylagan qiyofani berishlari kerak. Falsafiy xulosalarni kitobda o'qiganimizda rohat qilamiz, lekin uni insonlar hayotiga tatbiq qilganimizda hayotga uyg'un bo'lmaganligini ko'ramiz, chunki hayotdan olinmagan falsafani hech qachon xalqning hayotiga tadbiq qilib bo'lmaydi.

— Hukmdorning bir soat mobaynida gapirgan gaplari qisman xalqning hayoti uchun zararli, qisman amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan masalalardan iborat. Halqning hayoti haqida mahalliy hukmdorlarning so'zlaridan tasavvur olib bo'lmaydi. Hukmdor bevosita xalqni o'rganishi kerak, chunki hukmdorni qurshaganlar aholining hayoti haqida to'g'ri xabar yetkazishga manfaatdor emaslar. Saroy ahlining asosiy vazifasi saroyga berkinib olgan hukmdorni aldashdan iborat. Podshoh saroyining qarshisiga kelib ochlikdan faryod qilgan xalqning ovozini eshitgan vaqtida ular: "Shukurlar bo'lsin, mamlakatda farovonlik, arzonchilik, xaloyiq saroy oldiga to'planib a'lo hazratning umr-davlatiga duo qilmoqdalar", deydilar.

Qizil Arslon Nizomiyning so'zlarini ma'qulladi. Lekin nasihatlari unchalik yoqmaganligi ko'rinib turardi. Qizil Arslon chegaralardagi vaqtinchalik osoyishtalikdan foydalanib, Ozarbayjon islohoti to'g'risida bergan va'dalarni amalga oshirishdan bo'yin

tovladi. Shuning uchun ham Nizomiy Otabek mamlakatining kelajakda yomon ahvolga tushib qolishidan darak berib dedi:

— Hukmdor idora qilib turgan mamlakat dushmanlarning qurshoviga tushib qolish xavfidadir. Eronliklarda ham, iroqliklarda ham vatanparvarlik hislari kuchli. Xalifalarning kuch-qudrati so'nmoqda. Buyuk arab saltanati yemirilmoqda. Mustaqilligi tortib olingan xalqlar oyoqqa turmoqdalar, mamlakatlarini kengaytirish uchun oshkor va maxfiy ish olib bormoqdalar. Shu qo'llardan bir qanchasi Ozarbayjon yoqasiga yopishgan. Mamlakat ichida bo'lgan ajnabiy xufiyalarning soni hukmdorning qo'shinidan bir necha martaba ortiqdir. Eronliklar bilan iroqliklar o'zlarining avvalgi mavqelarini tiklash uchun qurol kuchiga suyana olmaydilar, chunki ularda Ozarbayjon quroliga teng keladigan kuch yo'q edi. Hukmdor bularni nazarda tutib Ozarbayjon quroliga hurmat saqlashi kerak.

Qizil Arslon: "To'g'ri, rost gap, boshqacha bo'lishi ham mumkin emas", so'zlarini yana takrorladi. Suhbat oxirida Nizomiy olib kelgan asarini shohi ro'molchaning ichidan olib Qizil Arslonga taqdim qildi va dedi:

— Bu asarni Farhod va Shirin sarlavhasi ostida yozishim kerak edi, lekin Farhodning muhabbatiga doir yozadigan asarda jahongirlik va siyosatga oid fikrlarimni bayon eta olmas edim. Shuning uchun ham asarimga "Xisrav — Shirin" sarlavhasini qo'ydim. Maqsadim, ishqnoma yozish emas edi. Maqsadim shu bo'lganda Shirinni bundan ham ortiq bezab, dunyoning eng mashhur bir kelini darajasiga ko'tarar edim. Maqsadim ziynatlardan so'zlash bo'lsa edi, dunyoning minglarcha taroshlanmagan javohirlarini shu sahifalarga joylar edim. Asosiy maqsadim nasihat edi. Bilmadim, istaganimcha shy fikrni bayon etishga muvaffaq bo'la oldimmikan?

Qizil Arslon asarni diqqat bilan ko'zdan kechirgandan so'ng:

— Bu quruq bir ishqnoma emas, manzuma bir siyosatnomadir. Nizomulmulkning yozgan siyosatnomasi bir tarix bo'lsa, Nizomiyning nazmga olgan siyosatnomasi bir axloq darsidir, — dedi.

Qizil Arslon uzun va ma'noli jumlalar bilan buyuk shoirning yozgan asarini maqtadi, lekin buning evaziga shoirga in'om qilgani

Hamduniyon qishlog'i juda ham kambag'al arzimaydigan bir mukofot edi.

Nizomiy uchun mukofotga berilgan qishloqning nihoyat darajada qashshoq ekanligini kitobda yozilgan xotimadan anglash mumkin edi. Shubhasiz, kitob Qizil Arslonga taqdim qilinar ekan, bu xotimani kitobga ilova qilish yaxshi emas edi, chunki mukofot berilmasdan avval mukofotning qimmati haqida yozish o'rinsiz edi.

Shoir Qizil Arslonning huzuridan qaytganidan so'ng mukofot to'g'risida tarqalgan gap-so'zlarga qarshi shularni yozgan edi: "Menga hasad qiluvchilar Qizil Arslon Nizomiyga xaroba bir qishloqni beribdi deb aytadilar. Qishloq tor bir doiraga o'xshaydi, kengligi yarim tosh yerning to'rtdan biri ekan. Qishloqning daromadi buromadidan oz. Men esa hasad qiluvchilarga bunday javob beraman: berilgan mukofotni taqdirlamaslik yaxshi emas. Menga berilgan qishloq quruq yerlardan iborat bo'lsa, mening har bir misra she'rimdan yuzlarcha jannat bog'chalarini ko'ra olasiz. Agar podshohning menga bergan qishlog'i sunbullardan mahrum bo'lsa, men unga o'z she'rimda shoda-shoda javohir donalarini sochaman. Agar podshohning menga bergan qishlog'i Furot suvlaridan sug'oriladigan bo'lsa, mening so'zlarimda hayot suvi bor. Bir g'alvir sadafdan ko'ra bir dona dur qimmatli. Bir tomchi dur, to'fonlar yaratgan jo'shqin soylardan yana ham qimmatliroqdir. O'zim kecha-yu kunduz harakat qilib yaratgan davlatim podshohning bergan qishlog'idan bir qancha qimmatliroqdir.

* * *

Qatiba Hamadonga kelishnning birinchi kunidan boshlab ig'vo, fisq-fasodni kuchaytirib yubordi. Yoz faslining so'nggi kunlari, hali kech kirmagan, lekin oftob fitnalar, mojarolar va fisq-u fasodlar uyasi bo'lgan bu shaharni yog'dusidan mahrum etish uchun Alvand tog'ining orqasiga o'tib olgan.

Hamadon shahri har tomopdan suv quyayotgan qora bir chodir ostida qolgandek, kishini dahshatga soluvchi yashinlar Qullayn[1] qal'asining xaroba devorlarini o'tga tutar edi.

[1] **Qullayn** — midiyaliklar tomonidan qurilgan qadimiy qal'a.

Tabiatning qo'shinlari hujumga o'tdi. Do'l ko'kda portlagan minglarcha o'q parchalari kabi shahar ustiga yog'ila ketdi. Uzoqdan gulduragan ovoz eshitildi. Alvand tog'i daralaridan boshlangan sel Hamadon ustiga bostirib kelmoqda edi. Qishilar bola-chaqalarini olib shaharning markazidagi tepaliklarga qochmoqda edilar. Ko'shk bog'i Muazzamning go'zal bog'chalariga sel yopirilib keldi, hamadonlik Abul Ulonning maqbarasi loyqa sellarning ustida bir qayiqdek suzarkan, Moshoirud soyi ham Qatibaning qasoskor qalbi kabi to'lib-toshib ketdi va bir zumdayoq Farivar bog'larining ustiga balchiq-loy ko'rpasini yopdi. Qosimobodning gulzor dalalari ustida paydo bo'lgan daryoda qushlarning murdalari suzib yurar edi.

Sel to'xtagandan keyin ufq sekin-asta yorishib kela boshladi. Jonlarini saqlash uchun tepaliklarga qochgan xalq o'z uylariga qaytgan vaqtlarida Otabek saroyining oynavand ayvonidan bir qichqiriq eshitildi. Bir zumda yaqin mahallalardan kelgan xaloyiq saroy oldiga to'plandi. Lekin nima hodisa ro'y berganidan hech kimning xabari yo'q edi. Faqat qurolli navkarlar, saroy qorovullari har tomonga yugurar edilar.

Otabek saroyining noziri Husomiddin va saroy qorovulboshisi Abuttar darhol ayvonga chiqqanlarida Qatiba xonimning Safo xonim degan sevimli joriyasining yiqilib yotganini ko'rdilar. Qayerdandir ayvonga otilgan o'q Safoning o'ng biqinidan teshib, chap biqinidan chiqqan edi. Saroyda bo'lganlarning hammasi ayvonda edilar, murda ustida Qatibagina yo'q edi. Nihoyat, bir necha daqiqalardan so'ng Ruboba ismli joriya ayvonga chiqib qichqirdi:

— Yordam bering! Qatiba xotun hushidan ketdi.

Husomiddin darhol Qatibaning xonasiga yugurdi. Ichkaridan saroy tabibi chiqayotgan edi, u Husomiddinni ko'rishi bilan:

— Malika qo'rqqan. Bu voqea uning asabiga juda yomon ta'sir qilgan, unga osoyishtalik kerak. Kanizlarning, joriyalarning yig'i-sig'isiga, malikani behuzur qilishlariga yo'l qo'ymang! — deb chiqib ketdi.

Oradan yarim soat o'tgach, xizmatchilar kelib qotilning tutilganini xabar qildilar. Qotil Iroq qo'shinining otboqari ekan.

Uni murda yoniga keltirdilar. Husomiddin unga juda sovuqqonlik bilan savol berdi:

— Olchoq, rahmsiz, bu gunohsiz joriyani nima uchun o'ldirding? Qaysi bir gunohi uchun yosh joniga qasd qilding?

Qotil yerda yotgan joriyani murdasiga diqqat bilan tikilganidan so'ng hayron bo'lib dedi:

— Men joriyani o'ldirganim yo'q. Men og'amning buyrug'iga binoan malikani o'ldirmoqchi edim.

— Oting nima?

— Mansur.

— Nima ish qilasan?

— Iroq qo'shinida otboqarman.

Husomiddin taajjublanib:

— Hayosizlikni ko'ring, muhtasham bir malikaning hayotini bir otboqarga topshirganlar. Bunday olchoq rahmsiz odamlarga hayot haromdir. Bundan keyin kimga ishonamiz? Malika dasturxonining ushoqlari bilan kun ko'rganlar jur'at qilib malikani o'ldirmoqchi bo'lsa. Ular bugun malikani, ertaga esa a'lo hazratning o'zini o'ldirishdan toymaydilar. Xudovandi olamga shukurlar bo'lsinki, malika halokatdan xalos qolgan.

Husomiddin Zahiriddinga odam yubordi. Birozdan so'ng Zahiriddin, Qizil Arslonning odamlari va vazirlari Otabek saroyiga to'planib, gunohkorni so'roq qila boshladilar.

Zahiriddin gunohkorga savol berdi:

— Bu jinoyating uchun qancha mukofot olding?

— Yuz tilla dirham.

Gunohkor shuni deb, cho'ntagidan yuz tillani chiqarib yerga qo'ydi.

Husomiddin unga savol berdi:

— Sen bu tillalar bo'lmaganida shu xiyonatni qilarmiding?

— Ha, qilardim, chunki buni menga og'a buyurgan edi.

— Og'a kim?

— Ozarbayjon qo'shinining sarkadasi Faxriddin.

— Sen Faxriddinni ko'pdan beri bilasanmi?

— Ularning eshigida katta bo'lganman.

Zahir Balxiy bilan Husomiddin vazir va a'yonlarga murojaat qildi:

— Bizning fikrimizcha shuning o'zi kifoya, gunohkorning o'zi iqror bo'lgandan keyin masala ravshan. Bu xiyonat haqida o'z qarorimizni chiqarishimiz kerak.

Vazir va a'yonlardan bir qanchasi bu fikrga e'tiroz qilib dedilar:

— Qizil Arslon hazratlari safardan qaytgunlaricha gunohkor to'g'risida biror qaror chiqarib bo'lmaydi. Gunohkor Eldaniz oilasiga suiqasd qilgan, hukmni faqat podshohning o'zi chiqarishi kerak.

Qatiba, Husomiddin va Zahiriddinlar bu taklifga qo'shilmadilar. Xususan, Qatiba:

— Mening sevimli joriyam Safoning murdasi dafn etilmasdan burun gunohkor o'z jazosini tortishi kerak, — dedi.

Alouddin ham bu muhokamada bor edi. U bu ishda Faxriddinning qo'li yo'qligini juda yaxshi bilardi. Lekin o'zini ozarbayjonlik va Faxriddinga do'st ekanligini hamma bilardi, shunga ko'ra do'stini yoqlab bir og'iz ham so'z aytmadi. Ayni zamonda bu hodisaning yana Qatiba va Husomiddin tomonidan uyushtirganligiga shubha qilmas edi. U qanday tadbir bilan bu og'ir vaziyatdan qutulishini o'ylardi. U yolg'iz Faxriddingina emas, Qizil Arslon atrofida aylanib yurgan malika to'g'risida o'ylar edi. Bu ish ozarbayjonliklarni poytaxtdan uzoqlashtirish va Qizil Arslonni yakkalab qo'yish maqsadida qilingan.

Aloviddin voqeani o'z navkari orqali Faxriddinga bildirdi, chunki bir soat kechikish ham o'yinni yutqazish demak edi.

Qatiba o'z eri Otabek Muhammadni o'ldirganida ham shu nayrangni ishlatgan va Otabekka zaharli nashtar urgan sartaroshni darhol o'ldirtirgan va shu yo'l bilan hodisaning fosh qilinishiga imkon bermagan edi. Hozir Mansur qatl qilinsa, Faxriddin o'zini oqlay olmas edi.

Voqeadan ko'p fursat o'tmasdan Ozarbayjon qo'shinlari Otabek saroyini qurshab oldi. Zahiriddin bilan Husomiddin hibsga olindilar. Qatibaga suiqasd qilgan Mansur ham Qizil Arslon kelgunicha maxsus bir hibsxonada saqlandi.

Qatiba Zahiriddin bilan Husomiddinni hibsga olinganligini va gunohkorning qatl qilinmaganini eshitib vahimaga tushdi, bu vaziyatdan qutulib qolish uchun Hamadondan chiqib, Rey shahriga — o'g'li Qutlug' Inonjning yoniga ketishga qaror qildi. U "hayotimni saqlash uchun qochdim" deb Qizil Arslonni ishontirish mumkin deb o'yladi. Lekin Faxriddin unga bir xat yuborib: "Malikaning Hamadondan ketishiga ruxsat bermayman, chunki a'lo hazrat kelganidan so'ng boshlanadigan taftishda malikaning o'zi ham ishtirok etishi zarur, — deb yozdi. — Bu taftish menga nisbatan bo'lgan tuhmat va fitnalarga xotima berish uchun yagona bir vositadir. Bu taftishda faqat menga qarshi tuhmatlargina emas, Otabek Muhammadning qatl etilishi ham fosh qilinadi".

Butun Hamadon xalqi Qizil Arslonning qanday tadbirlar ko'rishiga qiziqar edilar. Nihoyat, hodisadan yigirma bir kun o'tgach, Qizil Arslon safardan qaytib keldi.

Qizil Arslonning Faxriddinga bergan birinchi savoli shu bo'ldi:

— Senga Zahir Balxiy bilan Husomiddinni hibsga olishga kim huquq bergan edi?

Faxriddin o'zini yo'qotmay dadillik bilan shaxdam javob berdi:

— Marhum Otabek Muhammadning qatl etishda ishlatilgan nayranglarning takrorlanmasligi uchun shunday qilish lozim edi. Ular bu xiyonatni muvaffaqiyat bilan bajarish niyatida o'z xiyonatlarining qurboni bo'lgan Mansurni siz poytaxtga yetib kelmasdan burun qatl qilishga uringan edilar. Men bunga yo'l qo'ymadim.

— Malikani nega hibsga oldirding? U bilan xushmuomalada bo'lishni senga topshirgan emasmidim?

— Malikaning hech kim hibsga olgani yo'q. Faqat uning Hamadondan chiqib ketishiga ruxsat berilmadi xolos, chunki u shunday qilsa, dushmanlar: poytaxtda isyon boshlangan va bu yerda yashash mumkin emas, deb gap tarqatishardi. Hozir esa a'lo hazrat tashrif buyurganlaridan so'ng, men gunohkorlarni taftish qilinishini talab etaman, chunki bu fitna ozarbayjonliklarga qarshi uyushtirilgandir.

Qizil Arslon yana jahl bilan so'radi:

— Gunohkor meni bu jinoyatga undagan Faxriddin deb aytyapti-ku? Sen bu aybni o'z ustingdan qanday dalillar bilan soqit eta olasan?

Faxriddin uning shiddatli so'zlaridan cho'chimay javob berdi:

— A'lo hazratning menga ishonmasligiga hech qanday asosi yo'q. Sizga ma'lumki, men doim mamlakat dushmanlariga qarshi kurash olib borganman. Hozirgi fitnani boshlagan dushmanlar faqat menigina emas, bu mamlakatning ham dushmanlaridir. Ular meni shu mamlakatni sevganligim uchun yomon ko'radilar. Bugun a'lo hazrat meni ishdan chetlatib Ozarbayjonga jo'natgudek bo'lsa, dushmanlar o'z maqsadlariga erishgan bo'ladilar. Jinoyatchi Mansur meni tanimaydi, men ham uni tanimayman. A'lo hazrat bu so'zlarimga ishonmasa, sarkardalardan bir nechtasini huzuriga chaqirtirsin. Agar jinoyatchi meni tanisa, dushmanlarning hamma aytganlari to'g'ri. O'shanda hukmdor meni jazolashga haqli.

Qizil Arslon bu so'zlardan keyin o'yga toldi, so'ngra sarkardalardan bir nechtasini chaqirishga amr qildi. Yarim soatdan keyin o'n besh sarkarda hozir bo'ldi. Husomiddin ham shularning orasida edi. Qizil Arslonning buyrug'iga binoan xiyonatchini zindondan chiqarib olib keldilar. Qizil Arslon jinoyatchiga diqqat bilan tikilganidan, so'ng mulozimlarga o'girilib:

— Gunohkorning bo'ynidan, qo'llaridan zanjirlarni oling! — dedi.

Gunohkorning zanjirlarini yechdilar. Qizil Arslon unga savol berdi:

— Bu jinoyatga seni majbur qilgan shu yerda o'tirganlardan qaysi biri?

Mansur majlisdagilarni diqqat bilan ko'zdan kechirdi-da, kelib Husomiddinni yonida turdi va qo'li bilan ko'rsatib:

— Men faqat shu odamni taniyman. Meni jinoyatga majbur qilgan shu odam, — dedi.

— Sen Faxriddinni tanimaysanmi? — deb so'radi Qizil Arslon.

— Nega tanimas ekanman. Tanimasam bu jinoyatni qilarmidim?

— Faxriddinni ko'rsata olasanmi?

— Faxriddin shuning o'zi emasmi?

— Bu Faxriddin emas, Husomiddin.

— Kim bo'lsa bo'lsin, faqat shu odam o'zini Faxriddin deb tanitdi.

— Bu jinoyat uchun qancha mukofot olgan eding?

— Yuz tilla.

— Sen o'z hayotingni yuz tillaga sotdingmi?

— Yo'q, bu janob, seni sog' qoldiramiz, deb so'z bergan edi.

— Sen kimni o'ldirmoqchi eding?

— Biror kimsani o'ldir deb aytgani yo'q. Ayvonda kimki bo'lsa, men o'q uzib uni o'ldirishim kerak edi.

— Sen Husomiddinni yoinki Faxriddinni bundan oldin ham tanirmiding?

— Men hech kimni tanimas edim.

— Sen o'zing bergan so'roqda Faxriddinning eshigida katta bo'lganingni aytmaganmiding?

— Aytganman.

— Demak, bu gaping yolg'on, shundaymi?

— Men hech qachon yolg'on so'z aytganim yo'q. Og'a qanday o'rgatgan bo'lsa, men ham shunday degan edim, buning evaziga yuz dinor olganman.

— Sen kimga o'q otganingni bilarmiding?

— Yo'q, bilmas edim, faqat og'a menga bir ayvonni ko'rsatib, o'sha yerga o'q otasan, kimga tegsa tegaversin degan edi.

— O'sha ayvon Ozarbayjon malikasining ayvoni ekanini bilmasmiding?

— Yo'q, bilmas edim. Bilganimda bunga jur'at qilolmas edim.

— Ajabo, qo'shinda shunday uzoq xizmat qila turib malika yashab turgan Otabek saroyini bilmasmiding?

Mansur bu savolga kulimsirab dedi:

— Men qo'shinda xizmat qilgan emasman. Hamadon shahrini birinchi marta ko'ryapman. Men yetti oydan beri qamoqda edim. Asadobod bilan Hamadon o'rtasida yo'lto'sarlarning boshlig'i edim, meni hibsga olib Hamadonga jo'natdilar. Meni qatl etishga hukm qilgan edilar. Bu og'a meni hibsdan bo'shatdi va shu vazifani topshirib, menga yuz tilla bermoqchi, o'limdan xalos qilmoqchi bo'ldi.

— U qayerda senga shu topshiriqni berdi?

— Bu og'a meni o'z uyiga olib borgan edi.

— Sen o'sha uyni ko'rsang taniy olasanmi?

— Ha, taniyman.

Qizil Arslon Husomiddinga qarab dedi:

— Bu gapga nima deysan?

— Jinoyatchining aytganlari butunlay yolg'on. Bu gaplarning hammasini unga hibsxonada o'rgatganlar. Shuning uchun ham oldingi bergan so'roqdagi gaplardan qaytyapti.

Qizil Arslon Husomiddinning bu javobidan so'ng Mansurga yuzlanib savol berdi:

— Sen buning uyida ko'rganlaringdan birontasini ayta olasanmi?

— Ha, ayta olaman. Buning bir qari xizmatkori bor, cho'tir, menimcha, bir ko'zi ko'r ham bo'lsa kerak. Dahlizdan ichkari kirganda o'ng va chap tomonda terisiga somon tiqilgan dahshatli bir sher turibdi. Derazaning oldiga osilgan qafas ichida kulrang bir to'ti qush bor. Men ichkari kirgan vaqtimda qush qichqirib: "Bifarmo, bifarmo"[1] der edi.

Qizil Arslon bu gaplardan so'ng Husomiddinga murojaat qildi:

— Mansur aytayotgan narsalar uyingda bormi?

— To'g'ri, bor. Lekin bu narsalarning Mansurni o'zi ko'rmagan. Uni dushmanlarim o'rgatganlar, chunki dushmanlarim mening uyimni yuz martalab ko'rganlar.

Qizil Arslon jinoyatchiga savol berdi:

— Bu so'zlarga nima deysan?

Mansur kulimsirab:

— Boya aytadiganimni aytdim, buning uyida tamakidon ham bor, uning sirtida la'l-javohirlardan yasalgan yalang'och bir xotinning surati ham bor.

Husomiddin shoshilib javob berdi:

— Yolg'on aytyapti, menda bunaqa narsa yo'q.

Mansur gapini bo'lib dedi:

— Og'a to'g'ri aytyapti, hozir haligi narsa og'aning uyida yo'q. Og'a menga pul olib chiqqani boshqa uyga kirib ketganda men o'sha tilla tamakidonni shartta ilib cho'ntakka urdim.

Qizil Arslon bu gapni eshitib jahlidan tushdi va qahqaha urib kuldi:

[1] "Marhamat qiling, marhamat qiling" degani.

— Hozir o'sha tamakidon qayerda?

— Hozir yonimda. A'lo hazratga taqdim qilishim mumkin.

— Ajabo, uni hibsxonada qanday qilib o'z yoningda saqlay olding?

— Meni hibsxona mudirining xonasiga so'roqqa olib kirganlarida darhol tamakidonni cho'ntagimdan olib tokchada turgan mudirning sallasi tagiga berkitdim, menga "Yechin!" deb buyurganida kiyimlarimni mudirning sallasi yoniga qo'ydim. Meni obdon tintidilar. Hech narsa topolmaganlaridan so'ng kiyinishimga buyruq berdilar, kiyimlarimni kiydim, tamakidonni yana mudirning sallasi tagidan olib cho'ntagimga urdim.

— Hozir o'sha tamakidon qayerda?

— Yonimda.

Mansur shularni aytib qo'yniga qo'lini soldi va tamakidonni olib Qizil Arslonning oldiga qo'ydi. Qizil Arslon tamakidonni qo'liga olib ko'rarkan, rangi oqarib ketdi, chunki tamakidon uning akasi Otabek Muhammadning tamakidoni edi. Uni bir vaqtlar xalifa Mustarshidbilloh Otabek Muhammadga sovg'a qilgan edi. Uning qanday yo'llar bilan Husomiddinning qo'liga tushganligi Qizil Arslonni o'ylatib qo'ydi. U Husomiddinga savol berdi:

— Otabek Muhammadga xos bu nodir asbob sening qo'lingga qanday tushgan edi?

Husomiddin javob berolmasdan uzoq o'ylanib qoldi, chunki u savolning javobi juda qiyin edi. U hech qachon bu antiqa narsani Qatiba xotun unga hadya qilganligini ayta olmas edi. Shuning uchun ham boshini ko'tarib javob qildi:

— Tamakidon bugun Mansurning qo'liga qanday yo'llar bilan tushgan bo'lsa, mening qo'limga ham shunday yo'l bilan tushgan edi.

Qizil Arslon Faxriddinga o'girilib:

— Sen chiqib ketishing mumkin, — dedi.

— Men jinoyatchilarni jazolashni talab qilaman, — dedi Faxriddin.

Qizil Arslonning jahli chiqdi:

— Gustoxlik qilma! Podshohga talab qo'yish uchun hech kim senga huquq bergani yo'q!

* * *

Husomiddin bilan Zahir Balhiyning hibsga olinganiga bir hafta bo'lgan edi. Hibsga olinganlar haqida Qizil Arslonning qanday qarorga kelganini hech kim bilmas edi. Ozarbayjonliklar hibsga olingan Husomiddin bilan Zahir Balxiylarga qattiq jazo berilishini talab qilganlari, Qatiba xotun ularning gunohlarini yengillashtirish uchun urinayotgani haqida mish-mishlar yurar edi.

Ozarbayjonning mo'tabar odamlari so'nggi hodisalar munosabati bilan Faxriddinni yoqlab, Qizil Arslonga bunday bir maktub yozgandilar:

"A'lo hazratning o'zlariga ma'lumdirki, hukumat Ozarbayjon hukumati deb hisoblansa ham ozarbayjonliklar o'zini yot bir mamlakatdagidek his qiladilar. Xususan, so'nggi hodisalar poytaxtda bo'lgan ozarbayjonliklarning mavqeyini yana ham pasaytirib yubordi. Ozarbayjonliklarga qarshi qilingan so'nggi xiyonat tashkilotchilarining jazosi qoldirilishi a'lo hazratning ozarbayjonliklarga bo'lgan xayrixohligining bo'shashganligini isbotlaydi. Bularning hammasi ozarbayjonliklarning poytaxtda yashashiga qiyinchilik tug'dirmoqda. A'lo hazratga ma'lumdirki, gunohkorlarning bugunga qadar jazolanmasligi xalq o'rtasida mish-mish tarqatmoqda, gunohkorlar qolib mas'uliyatni ozarbayjonliklar bo'yniga qo'ymoqda. Shuning uchun ham ozarbayjonliklar poytaxtni tashlab ketsalar, a'lo hazrat g'azablanmasinlar va bularning o'rniga boshqa odamlar tayinlasinlar".

Bu mazmundagi talablarni yolg'iz shimoliy ozarbayjoliklargina emas, janubiy ozarbayjonliklar ham qo'ymoqda edilar. Maktubda yuzlarcha sarkardalarning imzolari bor edi.

Ozarbayjonliklarning talabi bilan birga Qatibaxotun ham Qizil Arslonga o'z talablarini qo'ygan edi:

"A'lo hazrat! Mening otamning qotillariga nisbatan hurmat ko'rsatishingiz menga haqoratdek tuyulmoqda. Ozarbayjonliklar tomonidan uyushtirilgan so'nggi suiqasdlarning natijasiz qolishi menda shubha uyg'otdi. Bu hodisalarning a'lo hazrat bu yerda yo'qligida ro'y berishi ham buning aniq bir maqsadda qilinganligini ko'rsatadi. A'lo hazratning Faxriddin bilan Said Alouddinni

jazosiz qoldirishi malikaga qarshi bo'lgan suiqasdda ishtirok etganingizni ko'rsatadi. Men shuni sezganim uchun ham bir necha daf'a poytaxtdan chiqib ketishni istagan edim. Lekin so'nggi hodisalar yana ochiq ko'rsatdiki, mening poytaxtda qolishim o'z hayotim va singlim uchun xavflidir.

A'lo hazrat gunohkorlarni jazolashga bir necha marta va'da qilgan bo'lsa ham hech so'zining ustidan chiqmadi. Hozir ham gunohi bo'lmaganlarning hibsda saqlanishi mening shubhalarimni orttirmoqda.

Husomiddin mening otamning eng ishongan bir kishisi. Uning qilichi mag'rur Ozarbayjonni uzoq yillar bo'yi Otabeklarga bo'yni egishga majbur qilgan edi. Uning tahqir qilinib hibsga olinishi bizning oilamizni tahqirlash demakdir.

Shuningdek, Zahir Balxiy hazratlari ham o'z tadbir va maslahatlari bilan bizning hukumatimizga ozmuncha xizmat qilmadi. A'lo hazratga bu so'nggi siporishim. Bundan keyin hayotimning so'nggi damlarini Rey mamlakatida kechirishga qaror qildim. Otamning qotillari hukm surgan bir mamlakatda yashashdan ko'ra, g'urbatda, faqirona kun kechirishim afzalroqdir".

Qizil Arslon ikkilanib qoldi: u ozarbayjonliklarni yo'qotishni istamas, shu bilan birga Qatibaning poytaxtdan ko'chib, Rey tomonlariga ketishiga ham rozi bo'lmas edi, chunki uning yangi fitnalar chiqarishidan qo'rqar edi.

Iroq va Xuroson atroflarida jiddiy isyonlar boshlangan edi. Qizil Arslon naqadar urinsa ham Ozarbayjon qo'shinlarining poytaxtni tashlab ketishiga qarshi turolmadi.

Said Alouddin bilan Faxriddin boshchiligidagi Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon qo'shini shahardan chiqib ketdi.

Qizil Arslonning atrofida faqat uning dushmanlari qolgan edi. Husomiddin hibsdan ozod qilinmagan bo'lsa ham, Qizil Arslonga qarshi suiqasdga boshchilik qilib qolmoqda edi. Qatiba xohlagan vaqtida Husomiddinni Otabek saroyiga chaqirar, yana hibsxonaga qaytarar edi. Davlat to'ntarishi uchun ko'rilayotgan tayyorgarlik yashirin emas, oshkora olib borilmoqda edi. Gunohkorlarni jazolash va kutilgan hodisalarning oldini olish uchun Qizil Arslonning tayanchi yo'q edi.

Keksa vazir Shamsiddin ahvolning og‘irligini sezardi. Lekin Qizil Arslon uning fikri bilan hisoblashmas, xavf-xatar borgan sari kuchaymoqda edi. Ozarbayjonliklar ko‘chib ketmasdan burunroq Shamsiddin Qizil Arslonga vaziyat haqida ma’lumot berib shunday degan edi:

— Davlat to‘ntarishi qilishga Husomiddin bilan Qatiba xotun faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bir tomondan Bag‘dod bilan, ikkinchi tomondan esa Qaxiron qal’asida hibsda o‘tirgan To‘g‘rul bilan til biriktirmoqdalar. To‘g‘rulni yangidan saltanat tepasiga keltirish uchun xalifaning ham roziligi olingan. To‘g‘rul Qutlug‘ Inonjning valiahd deb e’lon qilishi bilan poytaxtga kelishga rozilik bergan. Bu hodisaning oldini olish uchun hozirdanoq ishga kirishish lozim.

Qizil Arslon vazirga savol berdi:

— Sening bu gaplaring rostligiga ishonsa bo‘ladimi?

Shamsiddin qo‘ynidan bir necha maktub chiqazib Qizil Arslonga uzatdi. Qizil Arslon Qatibaning To‘g‘rulga yozgan maktubini o‘qigandan so‘ng:

— Bilmadim, bu shayton naslining fitna-fasodlaridan mamlakatni qanday qilib qutqara olaman, — dedi.

Shamsiddin Qizil Arslonga o‘z fikrini ochiq aytdi:

— To‘g‘ri, men qariganman, lekin aqlim qarigan emas. Men a’lo hazratni falokatdan qutqarishni istayman. A’lo hazrat saltanat boshiga chiqqan davrlarida aytgan so‘zlarimni yana bir bor takrorlayman! Agar a’lo hazrat so‘zlarimni qabul qilmasa, unda falokat yaqinlashgan bo‘ladi.

Qizil Arslon ensasi qotib so‘radi:

— Ochiq gapir, Shamsiddin, men nima qilishim kerak?

— Hozir Reyga farmon yuborib, Qutlug‘ Inonjning Tabrizga kelishini talab qilasiz. O‘zingiz ham ertadan boshlab Tabrizga ko‘chib borasiz va Qatiba xotunni o‘zingiz bilan olib ketasiz, chunki yangi fitnalarga imkon bermaslik uchun uni nazorat ostida saqlash kerak. Bag‘dod va Xorazm chegaralariga kuchli mudofaa qismlari jo‘natish zarur. Qutlug‘ Inonj Qazvindan o‘tib Tabrizga kelgandan keyin Faxriddinni kuchli bir qo‘shin bilan Rey mamlakatiga yubormoq, hukumat ishlarini tasarrufiga olish uchun unga vakolat

bermoq lozim. Rey ishg'ol qilinganidan va chegaralar mustahkamlanganidan so'ng Qutlug' Inonj bilan Qatibani Tabrizda, Husomiddinni esa Hamadonda qatl ettirishingiz kerak. To'g'rul bilan uning o'g'li Malikshohga kelganda, ularning masalasi a'lo hazratning ixtiyorlariga bog'liq.

Qizil Arslon savol berdi:

— Ularni ham qatl etish kerakmi?

— Balli! Vaziyat shuni talab etadi. A'lo hazrat shuni bilishi kerakki, ozarbayjonliklarning ishonchini yo'qotish Otabek mamlakatini yo'qotish demak. A'lo hazrat, dushman shaxsan hukmdor masalasinigina emas, xonadon masalasini ham qo'ygan.

Qizil Arslon nasihatomuz bir yo'sinda:

— Vazir, men senga bir martaba aytgan edim, yana takrorlayman. Sen doimo insonlarni o'ldirish haqida emas, ularni to'g'ri yo'lga solish, ularni hayot bilan yarashtirish haqida o'yla! — dedi.

— Siz buyuk Nizomiyning tavsiyalarini unutmang. Mamlakatni falsafa bilan idora qilib bo'lmaydi. Adolat bilan jazoni o'z o'rnida ishlata bilish kerak. Saltanatni qo'lga olish dardiga mubtalo bo'lganlarga oliyjanoblik qilish kulgili. Toj-taxt talabida bo'lgan bir odam bilan kelishish saltanatni berish demakdir. Poytaxtning Ozarbayjonning bir chekkasiga ko'chirish bilan ozarbayjonliklarni dushman bo'lib qolishiga sabab bo'lyapsiz. Qo'shinlariga Ozarbayjonni berib qo'yasiz. Qo'limizda bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra dushmanlar tayyorgarlik ko'rib bo'lgan. Gap a'lo hazratning hayot-mamoti ustida boryapti.

Qizil Arslonning jahli chiqdi:

— Sen bugun mening sabr-toqatimni sinash va qo'rqitish uchun keldingmi? Sen meni tarixning la'nati ostida qoldirishni istaysanmi? Sen akamning xotini va o'g'lini qatl ettirish bilan meni baxtli qilishni istaysanmi? Sen olchoqlik, rahmsizlik va jallodlikni targ'ib etganing uchun men senga o'z nafratimni bildiraman. Tur mening yonimdan ket! Ba'daz menga bu xildagi nasihatlarni o'qima! O'zing qariganingdek, fikrlaring ham qarigan. Ertadan boshlab vazirlik ishlarini Muzaffar janoblariga topshirasan.

Ozarbayjon qo‘shinlarining so‘nggi qismlari Hamadonni tashlab chiqqan kuni Qizil Arslonning keksa vaziri Shamsiddin ibn Muhammad ham vazirlik ishlarini Muzaffarga topshirdi.

Qo‘shin Tabriz darvozasidan chiqib shimol tomon yo‘l olgan vaqtida Shamsiddinning taxtiravoni ham Bag‘dod darvozasidan chiqib to‘g‘ri janubga qarab ketdi. Qizil Arslonning amriga binoan u Otabek mamlakatidan tashqariga chiqishi, hayotining so‘nggi kunlarini Najaf shahrida Alining maqbarasi yonida o‘tkazishi kerak edi.

Shamsiddin taxtiravonining pardasini ko‘tarib zanjir halqasidek birin-ketin shimolga tomon borayotgan ozarbayjon otliqlarini ko‘rarkan, ho‘ng-ho‘ng yig‘lar va o‘g‘li Sulaymonga o‘girilib:

— Qizil Arslon o‘ldi. U endi yo‘q. Ozarbayjon xalqi ikki ming yildan ziyod hukm surgan poytaxtini yo‘qotdi, — der edi.

Husomiddin bilan Zahir Balxiy hibsxonadan ozod qilindi. Shu bilan Qizil Arslon ziddiyat va ixtiloflarni bartaraf qildim, fisq-u fasodga xotima berdim, deb o‘ylab xursand bo‘lardi. Qatiba ozarbayjonliklarni poytaxtdan chiqarilishi, vazir Shamsiddinning Najaf shahriga surgun qilinishi va Husomiddin bilan Zahir Balxiyning ozod qilinishiga qaramay talabini orttirdi. U bir kun Qizil Arslonning huzuriga kirib tavoze qilgandan so‘ng hukmdordan hol-ahvol so‘rab dedi:

— Xudoyi taologa shukurlar bo‘lsinki, mamlakatning boshiga falokatlar keltirgan fitna-fasodlar yo‘qoldi: ixtiloflar ham hal bo‘ldi, gap-so‘zlar to‘xtadi. Mamlakatni ko‘ngildagidek idora etishda a’lo hazrat uchun keng imkoniyatlar ochildi. Lekin hal bo‘lmagan bir muhim masala qoldi.

Qizil Arslon ko‘zlarini qisib turib so‘radi:

— Qaysi masalamiz hal qilinmay qolibdi?

— Mening o‘g‘lim masalasi.

— Ya’ni?

— Uning vorislik masalasi.

— Sizning o‘g‘lingiz mamlakatning eng katta qismini idora qilmoqda. Rey mamlakati ba’zi bir podshohlar so‘rab turgan o‘lka-

lardan bir necha martaba kattadir. Men o'ylanmanki, unga shuning o'zi kifoya. Malikaning bu masalani yana ko'tarishi o'rinsiz.

Qatiba e'tiroz qildi. U Qizil Arslonning yakka qolganligi tufayli har qanday og'ir shartlarga ham rozilik berishiga ishonar edi.

— O'ylaymanki, a'lo hazrat, mening o'g'lim valiahd bo'lishga haqlidir. Chunki u Otabek Muhammadning katta o'g'li. Najib oilaga mansub bir farzand. A'lo hazratning o'zi yaxshi biladiki, u Inonj xonadoniga mansubdir. Ona tomonidan esa Bag'dod xalifalarining avlodi. Uning haq huquqini Otabekning qishloqi xotinidan tug'ilgan o'g'liga berish adolatsizlikdir. Vaholanki, o'g'lim hozir ham hukumatni idora qilishda bir hukmdorchalik qudratga ega. Bu bilan men o'g'limni hukmdor qilib tayinlanishi masalasini o'rtaga qo'yayotganim yo'q, chunki a'lo hazrat Otabek Muhammad o'rniga qolganligi uchun mening o'g'limning otasi hisoblanadi. Shunga ko'ra siz a'lo hazratni hukmdor deb e'tirof etsam ham Abubakirni valiahd deb tanimayman. Buni butun xalq talab qilyapti.

Qizil Arslon qanday javob qilishni ham bilmay qoldi, chunki u Qatibaning og'zidan chiqqan bu gap ajnabiylar qozonida pishirilganligini bilar edi.

Qizil Arslon o'yga toldi. Vaziri Shamsiddin va Faxriddinning aytgan so'zlarini esladi va ularning haqli ekanliklariga tan berdi, lekin vaqt o'tgan edi. Endi hukmdor o'z suyanchiqlari, o'zining samimiy maslahatgo'ylaridan butkul mahrum bo'lgan edi. U dushmanlar tomonidan qurshab olinganligini sezar va o'zining yolg'izligiga yig'lar edi.

Qizil Arslon g'amgin ravishda boshini ko'tarib Qatibaning yuziga qaragan vaqtida Qatibaning unga tikilib turganini ko'rib dedi:

— Malika vaziyat bilan hisoblashishi kerak.

— Hukmdor ham vaziyat bilan hisoblashishi kerak, chunki bu talablarning amalga oshirilishi uchun juda qulay fursat keldi.

— Vaziyatni tushunmabsiz, malika juda yaxshi biladiki, u bilan Ozarbayjon xalqi o'rtasida kelishib bo'lmaydigan bir dushmanlik bor. Hozir Abubakirni valiahdlikdan chetlatib, o'rniga sizning o'g'lingizni tayinlash ikkinchi bir isyonga sabab bo'la oladi. Qatiba xotun buni unutmasligi kerak. Biz Ozarbayjonda hukmronlik

qilmoqdamiz. Ozarbayjonliklar bilan aloqani bundan ham ortiq keskinlashtirish xonadonimiz uchun xatarlidir.

Qatiba bunga e'tiroz bildirdi:

— Endi Ozarbayjon to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ozarbayjon askarlari chiqib ketdilar. Hukmdor endi ularga suyanmasa ham bo'ladi. Hamadonning to'rt tomoni ham bizning do'stlarimiz qo'lida. Iroqliklar reyliklar, xorazmliklar Hamadonni bir uzuk ko'zi singari o'rtaga olganlar. Ularning hammasi mening o'g'limni valiahd deb tanishni talab qiladilar. O'ylaymanki, hukmdor o'z kelajagini ta'minlash uchun mening o'g'limning vorisligini e'tirof etadi.

Qizil Arslonning g'azabi qo'zidi. Qatibaning tahdidlari uning hukmdorlik izzat-nafsiga qattiq tekkan edi.

— Meni qo'rqitishga qanday jasorat etdingiz? Sizning otangiz ham, o'g'lingiz ham, o'zingiz ham orqangizda ajnabiylar turgani uchun jasoratlisiz. Malika bundan buyon mamlakatni idora qilish ishlarida menga maslahat bermasin. Men mamlakatni o'zim bilganimcha idora qilaman. Bu xildagi maslahatlar malikani hurmat va izzatdan mahrum etadi. Malika o'z hurmat va martabasini suiiste'mol qilmasligi kerak. Har qanday ishning ham chegarasi bor. Mamlakat xalqining sizga nisbatan bo'lgan nafratini kuchaytirmang, busiz ham malikaning bo'ynida og'ir jinoyatning mas'uliyati bor. O'g'lingizni ajnabiy hukumatlar bilan aloqada bo'lib, mamlakatga qarshi suiqasd tayyorlaganini esingizdan chiqarmang. Men shu kundan boshlab siz malikani ham, o'g'lingizni ham vatandoshlik huquqidan mahrum qila olaman. Lekin xalq sizni Otabek Muhammadning xotini, o'g'lingizni uning o'g'li deb bilgani uchun ham men sizga daxl qilmadim. Yigirma yildan beri bu mamlakatda nizo chiqarib keldingiz. Lekin bir yo'la shuni bilib qo'yingki, ajnabiylar himoyasiga sig'inganlar hech qachon baxtli bo'lolmaydilar. Boring, hech qachon menga bunday talablarni qo'ymang. Mamlakatni bir xotinning orzulariga qurbon qilib bo'lmaydi. Mamlakat xalqlarining aqalli bir foizi sizlarga xoyrixoh bo'lganda edi, men hamma talablaringizni o'rniga qo'ygan bo'lar edim. Men nima qilayki siz o'z qilmishlaringiz bilan xalqning muhabbatini yo'qotgansiz.

Qatiba Qizil Arslondan eshitgan so‘zlarning qat’iyligini bilardi. Shuning uchun ham indamay Qizil Arslon huzuridan chiqib ketdi.

Husomiddin Qatibani xonasiga kirganida uni haddan tashqari g‘amgin holda ko‘rdi. Qatiba mas’um bir tabassum bilan:

— Kel, o‘tir, jonginam! — dedi.

— Ajabo, malikaning shu qadar qayg‘urishining sababi nima? — deb so‘radi u o‘tirarkan.

Qatiba qora ko‘zlarini Husomiddinga tikib:

— Bu qayg‘uning sababchisi sensan! — dedi.

Husomiddin kuldi:•

— Men?

— Balli, sen! Sen haliga qadar bizning baxtimiz yo‘lida ko‘karib chiqqan achchiq tikanni yulib tashlay olmading.

— Men gapingizga tushunmadim.

— Juda yaxshi tushunasan, lekin meni yalintirishni istaysan.

— Chindan ham malikaning fikri men uchun oydin emas.

— Men aytyapmanki, Qizil Arslon o‘rtadan ko‘tarilmasa biz baxtli bo‘lolmaymiz. Men harakat qilib uni u dunyoga jo‘natish uchun barcha choralarni ko‘rib qo‘ydim. Aqlli vazirni surgun qildirdim, uning suyanchig‘i va panohi bo‘lgan Faxriddin bilan Alouddinni poytaxtdan quvdirdim, uning taxtini suyab turgan Ozarbayjon qo‘shinini poytaxtni tashlab chiqib ketishga majbur qildim, xalifani va qo‘shni hukumatlarni bu ittifoqqa jalb etdim, shunday qilib, Qizil Arslonni yakkalab qo‘ydim. Endi masalani sening qiliching hal qiladi. Bunga nima deysan? Bizning baxtimizga to‘g‘anoq bo‘lgan sabablardan biri Qizil Arslonning hayoti. U bizning nikohimizga xalal bermoqda.

Husomiddin o‘ylab ketdi. Qatiba taklif qilayotgan bu jinoyat juda og‘ir jinoyat edi, chunki Qizil Arslon qatl etilganida mamlakat tamomila parchalanib ketishi ehtimoldan uzoq emas edi. Ayni zamonda u Qatibaga ega bo‘lish uchun shu ishni oxiriga yetkazishga majbur edi.

U boshini ko‘tarib:

— Malika, qo‘rqaman! — dedi.

— Sening qo‘rqoqligingni ilgariroq bilganimda, seni bunday mas’uliyatli ishlarga qatnashtirmagan bo‘lardim.

— Malika balki meni yanglish tushunayotgandir. Meni qo'rqitayotgan masala Qizil Arslonning o'limi emas, balki mamlakatning o'limidir. Biz Otabek Muhammadni o'ldirganimizda Qizil Arslonning mamlakatni idora qila olishligiga ishonar edik. Bugun Qizil Arslon o'ldirilgudek bo'lsa, unda mamlakatni kim idora qila oladi? Atrofi dushmanlar bilan qurshab olingan yosh, tajribasiz valiahd bu mamlakatni qanday boshqara oladi?

— Mamlakat egasi emas, bugun Qizil Arslon o'rtadan olib tashlansa, ertaga sen qo'shining bilan Kaxiron qal'asiga borib, hibsga olingan To'g'rulni ozod qilib Hamadonga keltirasan, biz uni bu yerda podshohlik taxtiga o'tqazamiz.

Husomiddin bosh chayqab qo'ydi.

— Shu qadar murakkab masalalar osonlik bilan hal qilinmaydi. Men malikaning To'g'rulga tegmoqchi bo'lganini bilardim. Lekin malika bu nikoh bilan o'z orzulariga ega bo'lolmas edi, chunki To'g'rul o'z o'g'li Malikshohni vorislikdan mahrum qilib, malikaning o'g'li Qutlug'ni valiahd qilib tayin qilmas edi. Qizil Arslonning Hamadonga qilgan hujumi va To'g'rulning hibsga olinishi bu masalani hal qildi qo'ydi. Malika To'g'ruldan kutgan orzularini Qizil Arslondan ham kutishini bilardim. Lekin malika bu orzularga ham erisholmadi, chunki Qizil Arslon malikaga uylanish uchun Ozarbayjon xalqining sevgan valiahdini orqaga surib, malikaning o'g'lini valiahdlikka tayinlay olmas edi. Hozir Qizil Arslon o'ldirilsa, baribir siz To'g'rul bilan avvalgi o'yiningizni o'ynayverasiz. Men esa ikki hukmdorning qotili bo'lib, mas'uliyatni o'z bo'ynimga olganimcha qolaveraman. Xalq va tarixning la'natlariga sazovor bo'laman. Malika meni tinch qo'ysa yaxshi bo'lardi. Endi bildimki, mening yoshligim amalga oshmaydigan orzularning qurboni bo'lgan ekan. Qirq besh yoshga kirdim, maqsadimga yetolmadim. Keng bir mamlakatda tug'ilishimga qaramay vatanimga sig'mayman. Endi men qayerga keta olaman? Qilichimni ko'tarib qaysi bir mamlakatga borsam, meni o'z vatanimga qarshi jinoyat qilishga majbur qiladilar, bunga men o'zim sababchiman, chunki men malikaning muhabbatiga ishondim, uning sevgisining bunchalik yolg'on, aldamchi ekanligini bilmas edim.

Qatiba Husomiddinning gapiga indamay quloq soldi, Husomiddin gapdan to'xtaganidan so'ng Qatiba dedi:

— Baxtning eshigini ochish uchun g'ayratli bo'lish bilan birga katta sabr va matonat kerak. Men shoshilganimda, sen aytgandek harakat qilganimda, allaqachon ikkimiz ham mahv bo'lar edik. Men ikki podshohning ko'z oldida o'z erimning qotiliga erga chiqsam, ular bu hodisaga qanday qarar edilar? Biz bunday nikoh tufayli rasvoyi jahon bo'lib, o'limdan boshqa biror natijaga erisha olmas edik. Men oddiy bir xotin bo'lsam, bu haqda o'ylab o'tirishga hojat holmas edi. Axir sen mening kim ekanligimni nazarda tutishing kerakmi, yo'qmi? Hozirgi ahvolni o'zgartmay turib baxtli bo'lishni o'ylash xayolparastlikdan boshqa narsa emas. Bularning birortasidan baxtni kutib bo'lmaydi. Muhabbatimni soxta, aldamchi deyapsan. Bir mamlakatning malikasi o'z lablarini senga tutib, ko'nglini bersa, uning muhabbatini aldoqchi va riyokor muhabbat deb atash nonko'rlik, xiyonat emasmi? Aqlli odamlar sevgi vositasi-la baxtli bo'lishga harakat qilishlari lozim. Lekin sen rasvogarchilik va halokatni istaysan. Yo men haq gapni aytmayapmanmi?

Husomiddin sekingina:

— Haq gapni aytyapsiz, malika! — dedi.

Husomiddin Qatibaning xonasidan chiqqanida tun yarmidan o'tgan edi. Qatiba xayrlashayotganda:

— Baxt yo'lining ko'p qismini bosib o'tganmiz. Charchama, qolgan yo'lni ham muvaffaqiyat bilan bosib o'tish kerak! — deganida Husomiddin yana bir martaba uni quchog'iga olib qisdi va lablaridan o'pib:

— Bu yo'lning oxiriga qadar boramiz. Malikam so'zlarimga ishonishi mumkin, — dedi va eshikni berkitib chiqib ketdi.

* * *

Qizil Arslonning bergan ziyofati Iroq va Reydan kelgan mehmonlarni hayratda qoldirgan edi. Ular hech qachon Qizil Arslonni bugungidek xursand ko'rmagan edilar. U piyolani har safar qo'liga olganida bir she'r o'qir edi, ora-sira pichirlab: "Ey ajal, tez kel, bu tiriklik meni halok etdi", der edi. Nihoyat, u qo'lini

cho'zib, oldiga qo'yilgan guldondan bir gulni oldi-da, unga qarab turib quyidagi ruboiyni o'qidi:

Ey guli su nishotiy — podshohon budi,
Oromi — dili — hazor doston budi
Bo in hama hubi-yu latofatki, tu rost,
Oxir nabi zeri — poyi — maston budi.[1]

Qizil Arslon bu ruboiyini o'qigandan so'ng ayvon ro'parasidagi bog'ga qarab dedi:

— Hech narsa meni shod etmaydi. Men endi bildimki, sharob ham, go'zallik ham, nafosat haqidagi gaplar ham, gul, chechaklarning tomoshasi ham insonga shodlik bag'ishlamaydi, inson baxtli bo'lgandagina bularni qalbi bilan seza olar ekan. Shodlik va bayramlar nash'asini sezgan bir qalbga motam kira olmaganidek, motamli qalbga ham bayram nash'asi yo'l topolmas ekan. Qizil gul ham bir otash bo'lib butun borlig'imni yondirishni istaydi. Binashfalar ham go'yo motam libosiga burkangandek. Yosumanlar tobut ustiga yopilgan bir ona sochlarining timsoli. Bulbulning ovozi ham go'dakligida onasini yo'qotgan bir bolaning ingrashidek g'amgin. Majnuntolning bir-biriga chirmashib boshini quyiga ekkan shoxlari Laylidan ajragan Majnunning sochlariga o'xshaydi. Nargis guli ham o'lim quchog'ida yotgan bemorni eslatadi. Kapalaklarning titroq qanotlari so'nayotgan hayotning so'nggi daqiqalarini xotirlatadi. Lola guli ham bamisoli hayotni yutish uchun og'zini ochgan bir ajdahodek. Shafaqlar oftobning so'nishidan xabar beradi. Oqshom shabadasi oldiga tushib uchib ketayotgan yaproqlar hayot bilan vidolashib yo'qlikka ketayotgan kishilarning arvohiga o'xshaydi. Havoga ko'tarilgan favvoralar boshi kesilgan bir tanadan otilib chiqqan qon singari dahshatli. Hovuzlarda suzib yurgan o'rdaklar ham "o'g'lim-o'g'lim" deb qichqirayotgandek. Erdagi alvon gullar qonli bir to'shakning manzarasini eslatadi.

Qizil Arslonning ishrat kechasi soat ikkigacha davom etdi. Mehmonlar ketgandan so'ng joriyalar hukmdorni o'z xonasiga olib

[1] Ey gul, sen podshohlarning shodligiga sabab bo'lding, Bulbullarning qalbiga tasalli berding, shu qadar go'zal va latofatga ega bo'lganing holda, Nihoyat, sarxushlarning oyoqlari ostiga tushmasliging kerak edi?

kirdilar, lekin kunduz soat o'n ikkidan kechasi soat ikkigacha davom etgan ishrat majlisi hukmdorning g'amlarini tarqata olmagan edi. U yotoqxonasiga kirar ekan, bir oh chekib:

— Bu kecha qanchalik qayg'uli va qo'rqinchli bir kechadir, — dedi.

U yotog'ida cho'zilib o'ylar va o'z xatolari natijasida mubtalo bo'lgan bu yolg'izlikdan shikoyat qilardi. Atrofida dushmanlardan boshqa biror kimsani ko'rmas edi, chegaralardan kelgan xabarlar ham uni tashvishga solardi, poytaxt esa fitna-fasod makoniga aylangan edi. U endi ko'zlarini yumib oh tortdi va: "Ey ajal, tez kel, bu hayot jonimga tegdi" deganida qulog'iga bir ovoz eshitildi:

— Hukmdor, ajal sizning huzuringizda, ijozat bering vazifasini bajarsin.

Qizil Arslon bu ovozni eshitar ekan, seskanib ko'zini ochdi, ro'parasida Husomiddinni ko'rdi va nima uchun kelganligini darhol sezdi, ko'zini yumib:

— Vazifangni bajar! — deganida, Husomiddri qilichini besh martaba ko'tarib uning gavdasiga urdi.

* * *

Otabek saroyi bilan Qizil Arslonning saroylari motam libosida edi. Qatiba Qizil Arslon tobuti ustida sochlarini yoyib yig'lar edi: ayni zamonda Otabek maydonida qirqta dor yog'ochlari ham qator qilib qurilgan edi.

Poytaxtdagi aholining orasida tarqalgan gaplarga ko'ra Faxriddin bilan Alouddinning topshirig'i bilan Hamadonda turgan ozarbayjonliklar Qizil Arslonni kechasi o'z saroyida o'ldirgan emishlar.

O'ttiz to'qqizta gunohsiz ozarbayjonlik, Qizil Arslon saroyidagi xizmatchilardan yana bir kishi dorga osilganidan so'ng Qatiba Husomiddinni yoniga chaqirib topshiriq berdi:

— Sen shu soatning o'zida yuzta otliqni olib Qaxiron qal'asiga jo'nashing kerak.

— Nima uchun? Qizil Arslonning o'limi to'g'risidagi xabarni To'g'rulga yetkazish uchunmi? — deb taajjub bilan so'radi Husomiddin.

— Bu hodisa haqida xabar berish bilan birga a'lo hazratni hibsxonadan chiqarib, tantana bilan poytaxtga olib kelish kerak.

— Demak, To'g'rul ikkingizning nikohingizga tayyorgarlik ko'rish kerak,— dedi Husomiddin istehzo bilan kulib.

— Ikki hukmdorni o'ldirishning uddasidan chiqqan bir zot uzoqni ko'ruvchi, tushunchalik bir shaxs bo'lishi kerak edi. Sen bilasanki, To'g'rulda davlatni idora qila oladigan qobiliyat yo'q. Lekin mamlakatni boshida qanday bo'lsa ham bir shaxs turishi lozim. Bu xalq sen yoki o'g'limning taxtga o'tirishiga yo'l qo'ymaydi. Lekin To'g'rul — bu mamlakatning qonuniy sultoni. Biz u orqali har qanday ishni qila olamiz, uning ko'z oldida aylanishimiz ham mumkin. Husomiddin senga ont ichaman! Men unga xotin bo'lmayman. U bilan mening oramizda bo'layotgan nikoh haqidagi gap-so'zlarning hammasi nayrangdan iborat. Men uni aldayapman. U ham fursat o'tkazish uchun meni aldab kelmoqda. Aqlli bo'l. To'g'rul taxtga o'tirmasdan turib tobutga kirishi mumkin emas. Avval uni podsho ko'tarish kerak, qolgan ishni o'zim qilaman. To'g'rulni bu yerda, Abubakirni esa Tabrizda o'ldirtiraman.

Qatiba shularni gapirar ekan, Husomiddin ham shu kungacha qilib kelgan jinoyatlarini ko'z oldiga keltirar va Qatibaning fitnalari natijasida halok bo'lgan gunohsizlarni o'z ichida sanar edi. Husomiddin ikki hukmdor va oltmishta gunohsiz kishining o'limini o'z bo'yniga olgan edi. Bularning evaziga faqatgina besh martaba Qatibaning lablaridan o'pa olgan edi. Endi u charchagan, umidsizlik uni qamrab olgan edi.

Qatiba uning ko'zlariga qarab qo'rquvdan titrab ketdi. Ichida: "Ikki hukmdorni o'ldira olgan odam Qatibani ham o'ldira oladi", deb o'yladi. "Men istasam hozirning o'zida Husomiddinni Qizil Arslonni o'ldirishda ayblab qatl ettira olaman. Lekin Husomiddin kelgusida yana kerak bo'ladi. U endi vijdonini yutqazgan odam. U o'zini qutqarish uchun jinoyat ustiga jinoyat qilaveradi. Men uni jinoyatga tortganman. Endi bunaqasini topa olmayman, chunki yoshlik o'tib ketdi, go'zalligim esa tog'ning orqasiga botgan oftobning so'nggi nurlariga o'xshaydi. Bundan so'ng hech bir ahmoq go'zalligi so'ngan bir xotin uchun qo'lini qonga botirmaydi".

Qatiba shularni o'ylab Husomiddinga yaqinlashdida, qo'lini uning yelkasiga qo'yib dedi:

— Aziz do'stim, sen mening niyatim nima ekanini bilib qo'yishing kerak: Avvalo, o'g'limni valiahd deb e'lon qilish, ikkinchidan esa sen bilan oila qurishdir. To'sqinliklarning eng dahshatlisi o'rtadan olib tashlandi. To'g'rulning hukmdorligi sovunning ko'pigicha ham mustahkam emas. Lekin u bizga kerak. Uni taxtga o'tqazish bilan ajnabiylarning hujumidan qutula olamiz. Ko'ryapsan-ku, Qizil Arslonni tobuti o'rtadan ko'tarilmasdan iroqliklar mamlakatni taqsimlash loyihasini tuzmoqdalar. Mamlakat boshqalarning qo'liga o'tsa, sen bilan mening qanday ahamiyatimiz qoladi? Ikkimizni ham bir xoin yoki bir qotil sifatida jazolaydilar. Biz o'z orzularimizni oddiy odamlar singari emas, ikki hukmdor singari ro'yobga chiqarishmiz kerak. Buning uchun To'g'rulni tezlik bilan Hamadonga chaqirish lozim, chunki bizning taqdirimiz uning taqdiriga bog'liq. Bu mamlakatni faqat uning yordami bilan o'z qo'limizga kirita olamiz. Senga shuni aytib qo'yayki, hozir shaxsiy masalalar haqida o'ylaydigan vaqt emas. Bu bilan ko'p narsalarni qo'ldan berib qo'yishimiz mumkin. Eng avval hokimyatni o'z qo'limizga olishimiz kerak. Nikoh masalasi keyin hal bo'ladi. Sen Husomiddin oddiy bir qahramonsan. Sendaqalar mamlakatimizda ko'p. Bir mamlakatning malikasiga uylanishing bilan obro'ying ko'tariladi.

Husomiddin ko'nglida Qatibaning haqli ekanini tan oldi. U bu masalalarni To'g'rul vositasida hal qilish mumkinligiga ishondi, "yo'lning yarmidan qochish ahmoqlik. Men qo'limni qonga botirganman, endi hech narsadan toymayman", deb o'yladi.

— Mayli, malika aytgandek bo'lsin. Lekin sabrning ham chegarasi bor. Malika bilib qo'ysinki, hamma narsa qo'limdan keladi, — dedi u.

— Sen nomingni bulg'agan dog'larni faqat mening roziligim va rejalarimni amalga oshirish yo'li bilan tozalay olasan.

— Men butun hayotimni janglarda o'tkazdim, malika. Ustimdagi dog'larni bir xotinning roziligi bilan emas, yangi qonlar bilan yuvish ham mumkin, — dedi.

Qatiba uning so'zlarida tahdid borligini sezib shunday dedi:

— Ikki podshohning masalasini hal qila olgan xotin, oddiy bir shaxsning masalasini ham hal qila oladi!

— Ba'zan oddiy odamlar ham favqulodda hodisalarni yarata oladi.

— E'tirof qilaman. Sening ustingdagi mas'uliyatning bir hissasi mening ham bo'ynimda. Tarozining bir pallasida sen, ikkinchi pallasida esa men turibman. Birimiz muvozanatni buzsak, ikkimiz ham halok bo'lamiz. O'z-o'zini o'ldirish, birovni o'ldirish noilojlikdan tug'iladi. Men senga tirik qolish yo'lini ko'rsatyapman, shuning uchun sening o'lish yo o'ldirish haqidagi gaplaring o'rinsizdir. Men o'ylaymanki, sening bu ishlaring shuursizlik va irodasizlik natijasi emas. Modomiki, bularni bir maqsad yo'lida qilgan ekansan, ishni nihoyasiga yetkazish, bema'ni fikrlarga o'rin qo'ymaslik kerak. Men seni hozirning o'zida qanoatlantira olaman. Bu bir necha daqiqalik ish. Lekin sening vijdon va obro'yingga dog' tushirmaslik uchun buni istamayman. Xohlardimki, men senga bir fohishadek emas, o'z yeriga sodiq obro'li, nomusli bir xotindek taslim bo'lishni istayman. Sening ba'zi bir mayda talablaringni bajarish bilan senga o'z muhabbatimni izhor qilganman. O'zing bilasanki, men Otabek Muhammadni sevmas edim, u bilan uzoq yillar yashab faqatgina bir bolaning onasi bo'ldim, chunki u meni muhabbatimdan mahrum etdi. U meni sendan judo qilib menga ega bo'ldi. Men shoirdan keyin seni tanlagan edim, lekin u bu orzularimga to'sqinlik qildi. Shuning uchun ham undan qasos oldim. Lekin birgina shaxsdan emas, butun bir xonadondan qasos olish kerak. Qani ayt-chi, sen oxirigacha menga yordamlasha olasanmi?

— Yordamlasha olaman!

Qatiba uning bo'ynidan quchoqlab lablaridan o'pdi va avvalgi so'zlarni takrorlab:

— Yana biroz sabr qil, mening jonim, qolgani keyin... — dedi.

* * *

To'g'rul Hamadonga kelishi bilan Qatiba Otabek saroyini ta'ziyaxonaga aylantirgan edi. U To'g'rul bilan ko'rishishga oshiqardi. Ta'ziya bunga bir bahona bo'lishi kerak edi. To'g'rul esa Hamadonga kelgan kunidan beri o'z huzuriga na Qatibani chaqirtir-

di va na o‘zi uning oldiga bordi, chunki Qatiba bilan yaqinlashish, Ozarbayjonliklardan uzoqlashish ekanligini To‘g‘rul juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ham u Qatibaga ko‘rinishni istamadi.

Lekin Qizil Arslonning ta’ziyasi uchrashishga majbur qildi. Qatibaning maqsadi To‘g‘rulga tegib olish, o‘g‘lini valiahd, o‘zini esa malika deb e’lon qildirish, singlisi Talea yordami bilan Abubakir ibn Muhammadni Tabrizda zaharlash, so‘ngra Husomiddinning qo‘li bilan To‘g‘rulni o‘ldirish va o‘g‘lini podshoh deb e’lon qilish edi.

Biroh bu tadbirlarning hammasini amalga oshirish juda ham mushkul edi. Avvalo To‘g‘rul unga uylanishni istamasdi. Ikkinchidan, Taleaning Abubakirni zaharlashi gumon edi, chunki Talea bilan Abubakir o‘rtasidagi maktublar ularning samimiy muhabbat kishilari ekanini ko‘rsatar edi. Uchinchidan, ozarbayjonliklar Abubakirdan boshqasini valiahd deb taniy olmasliklari aniq edi. To‘g‘rul Qatibaning Qizil Arslonga aza tutganini eshitib, joriyasi Jodu orqali kech soat sakkizda Otabek saroyiga fotihaga borajagini ma’lum qildi.

Kechqurun To‘g‘rul Qatiba huzuriga kirib kelganida uning motam libosiga burkanganini ko‘rdi. Qatiba uni qarshi olarkan, yig‘lab:

— A’lo hazrat! Marhum, baxtsiz akangizning arvohi sizga yor bo‘lsin. Boshingiz omon bo‘lg‘ay. Dushmanlar o‘z ishini qildi. Nima ham qila olardik? Xonadonimizning taqdiri shu ekan, — dedi.

To‘g‘rul Qatibaga tasalli berdi.

— Musibatimiz haddan tashqari og‘ir, ajabo, qotillar hibsga olinganmi?

— Balli, hibsga olingan. Ularni o‘sha kuniyoq qatl ettirdim.

To‘g‘rul masalani darhol tushundi, chunki Otabek Muhammad o‘ldirilganda ham sartaroshni darhol qatl ettirib, xiyonatning fosh bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan edilar.

To‘g‘rul Qatibaga savol berdi:

— Akamni o‘ldirganlar kimlar edi?

— Ozarbayjonliklar.

— Nima sababdan ular bu jinoyatni qilgan ekanlar?

— Faxriddin bilan Alouddin ularni bu jinoyatga majbur qilganlar. Ular hukumat boshiga Abubakirni qo'yishni istaganlar. Qotillar bularni hammasini bo'yinlariga oldilar.

To'g'rul bu fojianing mohiyatini juda yaxshi bilar edi. U Qatibadan o'z maqsadida foydalanmoqchi bo'ldi.

— Unday bo'lsa Abubakir haqida o'ylash kerak, yaxshisi uni poytaxtga chaqirib, shu yerda mahv etaylik.

Qatiba e'tiroz bildirib:

— Bu fikrga qo'shila olmayman, — dedi. — Avvalo, u bizga ishonib Hamadonga kelmaydi, bunga ozarbayjonliklar ham yo'l qo'ymaydilar. Buning chorasi bitta: To'g'rul hazratlari Abubakirning valiahdligini tasdiqlashi kerak.

To'g'rul taajjub bilan so'radi:

— Uning valiahdligini tasdiq qilish?

— Ha, tasdiqlash kerak, bu tadbirozarbayjonliklarning bizga qarshi fitnalariga xotima beradi. Xalq tinchib qoladi. Men bu farmonni olib Ozarbayjonga jo'nayman. U yerda Qizil Arslonning azasini ochganimda Ozarbayjon ziyolilari bilan ko'rishib, ularning fikrini bilib olaman. Ayni zamonda o'zim bilan birga Taleani Ozarbayjonga olib borib uning yordami bilan Abubakirga go'r qaziyman. Bu unchalik qiyni ish emas. Abubakirni u dunyoga jo'natgandan keyin saroy joriyalaridan bittasini o'ldirtirib, shaharga: "Valiahdni sevgan joriyasi Taleadan qizg'anib uni zaharlabdi", deb gap tarqattiraman. Mening rejalarimni ma'qullaysizmi?

— Ma'qullayman, malikaning bunday ishlarda tajriba va mahorati zo'rligidan xabardorman. Bu tadbirlar amalga oshgandan so'ng boshqa to'sqinliklarni o'rtadan olib tashlash unchalik qiyin emas. Abubakir o'rtadan olib tashlanganidan keyin ozarbayjonliklar umidsizlikka tushadilar, chunki ularning valiahdlikka undan boshqa odamlari yo'q. Shunda sening o'g'ling valiahdligini hamma tan oladi. Men ham bo'lib o'tgan hodisalardan charchadim, sog'lig'im yomon, malika bilan birga dam olishimiz kerak. Valiahdlikni Qutlug' Inonjga, hukmdorlikni esa o'g'lim Malikshohga topshiramiz.

— Mening o'z masalam nima bo'ladi? — deb Qatiba.

— Bu masala o'zimizning shaxsiy masalamiz. Qizil Arslonning ta'ziyasi tugagandan keyin yana poytaxtga qaytamiz. O'shanda

valiahd Abubakir ham oradan olib tashlangan bo'ladi. Bu yerda sizni malika, o'g'lingizni valiahd deb e'lon qilamiz.

To'g'rulning bu shirin so'zlarini eshitgach, Qatiba xursandligidan yig'lab yubordi.

— Men shu kunni intizorlik bilan kutmoqda edim, — dedi u hiqillab.— Men faqat a'lo hazratning soyasini ustimda ko'rgan vaqtimda o'zimni baxtiyor deb hisoblay olaman.

— Go'zal va muhtaram malika aytgan so'zlarimning samimiyligiga ishonishi kerak, — dedi To'g'rul u bilan xayrlashar ekan.

SEVGI VA ZAHAR

Otabek Muhammadning rafiqasi — malika Qatibaning Tabrizga kelishi to'g'risidagi xabar Ozarbayjon hukumat doiralarida unchalik xursandlik bilan qarshi olinmadi. Lekin Abubakir, malika uchun Qizil Arslon saroyini taxt qilib qo'yish to'g'risida farmon berdi. Lekin kutib olish marosimiga hozirlik ko'rilmadi. Bunday bo'lishini Qatiba aslo xayoliga keltirmagan edi. U o'zining Tabriz shahri bo'sag'alarida saroy a'yonlari va ruhoniylar tomonidan tantanavor kutib olinishiga ishonardi. U Vosminjga yetishi bilanoq tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Istiqboliga hech kimsa chiqmadi. Shu sababdan uning karvoni Vosminjda bir kun qolmoq va malikaning shaharga yaqinlashganini valiahd shahzodaga xabar qilmoqqa qaror qildilar. Vosminjda bir kun o'rniga ikki kun qolishsa-da, istiqbollariga chiquvchi bo'lmadi. Nihoyat, ular shaharga kechasi kirib bormoq uchun kechqurun yo'lga chiqdilar va kechasi allamahalda Tabrizga kirib bordilar.

Qatiba karvoni Qizil Arslon saroyi oldiga yetib borgunicha, uni tilanchilar va bozor qorovullari qurshab bordilar. Bu hol Ozarbayjon xalqining unga qarshi nafratining ifodasi edi.

Qatiba Qizil Arslon saroyiga yetgunicha boshini taxtiravon derazasidan chiqarib ko'chaga qaragisi kelmadi: chunki u ko'cha bolalarining qiy-chuvini eshitgan sari asabiylashardi. U Tabrizga kelganiga ming pushaymon edi. Jig'ibiyroni chiqib, o'zini o'zi so'kar, o'z qadrining naqadar yerga urilganini anglab, g'azablanardi.

Taxtiravon Qizil Arslon saroyi oldiga borganda uni valiahdning o'zi va bir guruh saroy xodimlari qarshi oldilar. Qatiba Qizil Arslon saroyiga motam libosida kirdi, valiahdni quchoqlab o'pib, o'krab-o'krab yig'ladi:

— Aziz o'g'lim! Dushmanlar amakingni o'ldirdilar, Xudo rahmat qilsin uni, boshing omon bo'lsin! Xonadonimiz qalbida ikkinchi jarohatni ochdilar. Bu jarohatlar bir umr bitmaydi. Xonadonimizni mahv etmoq uchun dushmanlarimiz har qanday razilliklardan toymaydilar. O'g'lim! Bundan buyon o'z hayotingni muhofaza qilmog'ing kerak.

Valiahd o'gay onasining bu so'zlaridan ko'ngli buzildi, lekin Qatibaning yonida singlisi Taleani ko'rishi bilan eski sevgisi yana jo'shib ketdi.

Qatiba Tabrizga kelgan kuni Qizil Arslonga ta'ziya e'lon qildi. Mahalla qozonlari osildi, yetti kecha-yu yetti kunduz Tabriz masjidlarida faqirlar va gadolarga ovqat berildi. Saidlarga, mullalarga va mujtahidlarga ehsonlar va hadyalar yuborildi. U Tabrizga kelganining o'ninchi kunida shaharning mo'tabar kishilari va ruhoniylaridan bir qismini hadya-yu ehsonlar bilan o'z atrofiga to'play oldi.

Valiahdning kotibi anjumanda To'g'rulbek tarafidan yuborilgan farmonni o'qidi:

"Ozarbayjon, Iroq, Rey va Eronning hukmdori malik To'g'rul Abubakir ibn Muhammad ibn Eldanizning valiahdligini tasdiq etadi va unga shohona xil'at (libos) yuboradi".

Kotib farmonni o'qigandan keyin qimmatbaho bir xil'atni keltirib valiahdga kiygizdilar.

Qatibaning bu sodda tadbirlari natijasida To'g'rulning mavqeyi ancha mustahkamlandi. Ozarbayjonliklar To'g'rulning Abubakirni valiahd qilib tasdiqlagani to'g'risidagi farmonini zo'r quvonch bilan kutib oldilar va To'g'rul taxtga o'tirgan kunni muborakbod qilmoq uchun vakillar yubordilar.

Qatiba bu muvaffaqiyatni qo'lga kiritgandan so'ng ikkinchi vazifasining ijrosiga kirishdi. U Talea bilan valiahd o'rtasidagi sevgidan o'z maqsadini amalga oshirish uchun foydalanmoqchi bo'ldi, lekin bu fikrini Taleaga birato'la ochib gapirishni istamadi.

Bir kuni Talea Qatibaning xonasiga kirganida Qatibaning ho'ng-ho'ng yig'lab o'tirganini ko'rib qayron bo'lib qoldi va opasining oldida otasi Amir Inonjning liboslari turganini ko'rdi.

Talea ham marhum otasining libosi yoniga o'tirib Qatiba bilan birga yig'ladi. Anchadan keyin ovindilar, nihoyat, Qatiba Taleaning sochlarini silab dedi:

— Bebaxt qiz, sen otangning naqadar mehribon kishi bo'lganini bilmaysan, chunki u o'ldirilgan mahalda sen hali tug'ilmagan eding. Otamizni osdilar, sho'rlik onamiz ham qayg'u-hasratga bardosh berolmay, betob bo'lib o'ldi.

Bu so'zlarni eshitgan Talea:

— Qo'lingiz baland bo'lgan mahalda otamning qotillaridan intiqom ola bilmadingizmi? — deb so'radi.

— Intiqom oldim, olyapman va yana olajakman. Lekin buning uchun hukumatni qo'lga olmoq lozim. Otamiz uchun intiqom olishdan tashqari jiyaning Qutlug'ning hukumat boshiga chiqishiga harakat qilishimiz kerak. Sen shunday intiqom olishga tarafdor emasmisan? Ajabo, sen otangning qotillaridan intiqom olishga tarafdor emasmisan? Opangning o'g'lini Ozarbayjon taxtiga o'tirishini istamaysanmi?

— Oh, opajon, men kimman? Mening qo'limdan nima ish kelardi? — deb javob berdi Talea.

— Qismatimiz ana shu imkoniyatni sening qo'lingga topshirgan.

Talea bu so'zni eshitgach, ajablanib yuzini Qatibaga o'girdi-da:

— Mening qo'limga topshirgan? — deb so'radi.

— Ha, yetimcha singlim, sening qo'lingga topshirgan. Otangning qasosini olishga qodirmisan yoki yo'qmi, bunisini bilmayman.

— Qo'limdan kelganini ayamayman.

— Valiahd bilan munosabating qanday?

Talea uning savoliga javob bermadi. Qatibadan uyalib boshini quyi solib, qo'llariga boqa boshladi. Qatiba savolini yana takrorladi:

— Valiahd bilan munosabating haqida so'rayapman.

— U meni jon-u dilidan sevadi.

— Sen ham uni sevasanmi?

— Opam menga ijozat bermasidan bu ishga jasorat eta olamanmi?

— Men hech mahal bunga ijozat bermayman. Ular sevgiga loyiq odamlar emas. Ularning sevgilari soxta sevgidir. Uni valiahd qilib tasdiqlaganlar otamizning qotillaridir. Valiahdning otasi avvalida mening oyog'imga bosh qo'yardi, boshimdan suv o'girib ichar va taxtning qadr-qimmatini men bilan ko'tarmoqchi bo'lardi.

Lekin uning muhabbati bir farzand ko'rgunimcha ham davom etmadi, mening ustimga valiahdning onasini oldi. Bularni yo'qotmay turib otamizning qotillaridan intiqom ola bilmaymiz. Valiahd opangning o'g'li qo'lidan tojini tortib olgan.

Talea xayolga cho'mib umidsiz bir vaziyatda:

— U o'z o'rnini jiyanimga bo'shatib bera oladimi? — deb so'radi.

— Hech kim o'rnini birovga bo'shatib bermaydi, yuksak mavqelar kuch bilan qo'lga kiritiladi. Men ana shu vazifani o'z tug'ishgan singlimning zimmasiga yuklamoqchiman.

- Men nima qilishim kerak?

— Valiahdningni kanizaklari orasida uni sevadigani bormi?

— Husniya degan bir kanizak valiahdni sevishini bilaman.

— Buni qayoqdan bilasan?

— Men qachon valiahdning xonasidan chiqsam, uning eshik oldida yig'lab turganini ko'raman.

— Avvalo, sen undan ehtiyot bo'lishing kerak. U valiahdni qizg'anib seni halok etishi mumkin.

— U menga hech qanday ziyon-zahmat yetkaza olmaydi, chunki men hech mahal valiahd bilan bir yerda ovqatlanmayman.

— Shu vaqtgacha birga ovqatlanmagan bo'lsang, bundan buyon birga ovqatlanishing lozim, chunki amalga oshirishimiz lozim bo'lgan maqsad shunday qilishingni talab etadi.

— Qanday maqsad?

— Valiahdni zaharlab, toj-u taxtni Amir Inonjning oilasiga topshirishdan ham muqaddasroq maqsad bormi?

Bu so'zni eshitgach, Taleani vahima bosib butun vujudi titrab ketdi. Qatiba esa, uning vahimasi kuchayib ketishiga imkon bermaslik uchun so'zini davom ettirdi:

— Sen valiahdni zaharlagan zahoting men ham uni sevgan Husniya degan kanizakni hibsga oldirib, valiahdni shu zaharladi deb qatl ettiraman. Ozarbayjonliklar orasiga kanizakni rashk qilib valiahdni zaharlabdi deb ovoza tarqataman. Qani endi ayt-chi, senga mening shu tadbirim ma'qul emasmi?

Talea ohista javob berdi:

— Nega ma'qul bo'lmasin, ma'qul,— dedi-da, chuqur xayolga toldi.

Qatiba yonidan kichkina shishacha olib:

— Demakki, ma'qul ekan, manavi zahami olib, ertaga ertalabdan boshlab ishga kirish,— deb shishachani singlisiga uzatdi va ilova qildi: — so'z berasanmi?

— Ha, so'z beraman.

* * *

— Mening sira ishongim kelmaydi, basharti aytganlaring to'g'ri bo'lsaydi, ikki narsadan biri bo'lishi lozim edi.

Abubakir Taleaning bu so'zlarini eshitganidan keyin:

— Aytgan ikki narsang nimalardan iborat? — deb so'radi.

— Siz ularni bilmaysizmi?

— Yo'q, bilmayman.

— Hamisha menga, Talea seni sira-sira unuta olmayman, deysiz. Mabodo, shu aytganingiz rost bo'lsa, yo men Tabrizda bo'lishim kerak edi yoki siz Hamadon shahrida men bilan birga yashashingiz kerak edi. Shunday emasmi?

— Men Tabrizda bo'lsam-da, sening ishqing doimo mening qalbimda.

— To men o'lgunimcha ham u sevgi qalbingizda yashaydimi?

— Sevgi o'lmaydigan narsa. U doimo navqiron.

— Unday emas, insonlar hayotlarining bir qismini sevgi, qolganini esa, ana o'sha sevgining xotiralari bilan kechiradilar. Menimcha, mangu yashaydigan narsa sevgi emas, balki uning unutilmas xotiralaridir. O'ylashimcha, valiahdning qalbidagi narsa sevgi emas, balki o'sha sevgining xotirasi bo'lsa kerak.

Valiahd kuldi va Taleaning yuziga diqqat bilan boqib dedi:

— Fikrimcha, bir yosh yigitning sevgisi kamolotga erishmay turib, xotiraga aylana olmaydi. Sevgi olamida yashamasdan, uning baland-pastini ko'rmasdan, achchiq-chuchugini tatimasdan turib undan xotiragina qoladi, degan fikr to'g'ri emas. Mening Tabrizda, sening Hamadonda yashashing masalasiga kelganda, shuni bilishing kerakki, muvaqqat hijron sevgini alangalatadi.

— Tabiat insonda qalblarni o'qish qobiliyatini yaratgan bo'lsaydi, dunyoda ishq-muhabbat so'zini bunchalik uzundan uzoq qilib ifodalashga zarurat qolmasdi.

— Men buni aksincha tushunaman. Tabiat insonlarda qalblarni o'qimoq imkoniyatini yaratsaydi, odamlar bir-birlari haqida yomon fikrlarda bo'lishdan uyalishar, ikkiyuzlamalik — munofiqlikka o'rganishmasdi. Xususan, go'zal Talea ham mening qalbimni o'qiy olardi va o'ziga ma'lum bo'lmagan haqiqatlar haqida tasavvurga ega bo'lardi,

— U qanday haqiqatlar ekan?

— Sen inongan sevgi haqiqatlari.

— Men sizda sevgi borligiga ishonaman, chunki dunyoda sevgisiz inson bo'lishi mumkin emas. Vatanini sevadiganlar, xalqini va qarindosh-urug'ini sevadiganlar, insoniylikni sevadiganlar, ilmni, fanni sevadiganlar, mazlumlarni, jabrdiydalarni va boshqalarni sevadiganlar bor. Bularning orasida go'zallikni, she'riyatni, adabiyotni sevadiganlar ham oz emas. Valiahdda men sanab o'tgan shu sevgilardan birortasi bo'lishi mumkin. Men bilmaydigan bir narsa bor, u ham bo'lsa, valiahdni ana shu aytib o'tganlarimdan qay birini sevishi masalasidir. She'rni sevishingizni bilaman, chunki mashhur shoirlarni o'qiganingizni ko'rganman.

— Demak, go'zal Talea mening go'zallikni taqdir etishimni bilarkan-da.

— Yo'q, men go'zallikni demadim, she'rni sevishingizni bilaman dedim.

— Ularning har ikkalasi ham bir narsa. She'r go'zallik, go'zallik esa she'rdir. She'rda ishlatiladigan chiroyli so'zlarga munosib ma'no berish mumkin bo'lsaydi, unga haqiqiy go'zallik deb nom qo'yish mumkin bo'lardi. Go'zal qizning suhbatidan olingan ba-

diiy nash'alarni badiiy she'rdan olinadigan nash'alardan sira farqi yo'q. Lekin men go'zal Taleani she'rni sevmasligini bilaman.

— Buni siz qayoqdan bildingiz? Bu fikringiz to'g'ri emas.

— Ikki go'zal bir-birini sevmaydi, chunki siz ham go'zalsiz, she'r ham go'zal.

— Valiahd menga ishoning, men she'rni ham sevaman, hatto, she'rni yaxshi o'qiganlarni ham yaxshi ko'raman.

Valiahd buni eshitgach, Taleaga savol berdi:

— Ajabo, men she'rni yaxshi o'qiy olmaymanmi?

— Juda yaxshi o'qiysiz. Men hamisha sizning she'r o'qishingizni sevaman.

— Yolg'iz she'r o'qishimninggina sevasanmi? Yoki o'zimni ham sevasanmi?

— Nega sevmayin, sevishim mumkin, lekin bir shart bilan.

— Qanday shart?

— Men sevadigan shoirlarning asarlarini o'qib, men sevmaydigan shoirlarning asarlarini o'qimasligingiz sharti bilan.

— O'zingga ma'lumki, men har doim Sharqning mashhur shoiri Nizomiyni o'qiyman. Ajabo, uning she'rlari senga yoqmaydimi?

— Yo'q, yoqmaydi, chunki nafis she'r yozgan shoir har jihatdan nafis bo'lmog'i lozim. Men hech mahal Nizomiyni sevolmayman.

— Nima uchun? Sening u muhtaram shoirga qarshi nafratingning boisi nima?

— Chunki u ozarbayjonlikdir. U otamning qotillari yashagan shaharning shoiridir.

— Naqadar yanglish fikr! Bilmaymanki, bu qadar yanglish fikrni go'zal qizga qaysi bir insofsiz odam talqin etdi. U muhtaram shoirni har kimsa sevmasa-da, lekin Talea, sen sevishing va izzat-ikrom qilishing kerak.

Talea qoshlarini chimirib:

— Nima sababdan? — deb so'radi.

— Chunki u sening hayotingni saqlab qolgan kishidir. U Ganja hodisasida seni yong'in ichidan olib chiqib, uyiga olib ketgandi. Bemor onangni o'z uyida saqlab, o'limdan qutqardi. Sen uning xotini Ra'no xonimni emib, bir oy uning uyida yashagansan! Keyin u

senga va onangga yordam berib, egaching yoniga yuborgan. Talea, sen bu bilan faxrlanishing lozim, chunki andak fursat bo'lsa-da, buyuk shoir she'rlar yaratadigan xazinada yashagansan.

— Bas, shunday ekan, nega o'sha shoirning nomi zikr etildi deguncha malika Qatiba achchiqlanadi?

— Go'zal qiz, uni tamomila boshqa bir sababi bor, vaqta kelganda undan ogoh bo'lasan.

Talea bu so'zdan so'ng valiahdni tinch qo'ymadi, malika Qatibaning Nizomiydan nega xafaligining sababini bilishga shoshildi. Yalindi, yolvordi, biroz noz-u istig'no qilib valiahdni ko'ndirdi.

Valiahd kelib Taleaning yoniga o'tirdi-da, Qatibaning Nizomiyga qarshi boshlagan adovati sababini gapirib berishga kirishdi:

— Go'zal qiz! Bir piyola zaharni ichish mumkin. Lekin ko'ngling sevmagan odamga sevgi izhor etish xorijul imkondir. Muhabbatni mol-dunyo, husn-jamol bilan ham qo'lga kiritib bo'lmaydi, chunki sevgi vijdon masalasidir. Shuning uchun ham seni sevmagan kishiga dushman deb qaramasliging kerak. Ayni zamonda seni maroqlantirmagan odam senga muhabbat izhor etsa, uni ham jazolashga haqqing yo'q. Olamda soxtalikin, munofiqlikin, riyoni va hiylani sevmagan pokiza va samimiy bir narsa bor bo'lsa, u ham muhabbatdir. Hozir senga gapirib berganim haqiqatlar, malika egaching muhtaram shoir Nizomiyga qarshi haqsiz o'laroq adovat saqlashi va uning nomnni eshitishni istamaganligining sababini ochib berardi.

Taleani bu suhbat juda qiziqtirib qo'ydi, chunki o'zini ilgaridan qiziqtirib yurgan bir muammoning kalitini topishga urinardi.

— Ajabo, shoir opamni sevarmidi? — deb so'radi u.

— Yo'q, opang shoirni sevardi.

Talea buni eshitgach, andisha qila-qila ohista dedi:

— Demak, shoir opamning sevgisini rad etgan ekanda. Shoir bunday qilishga haqli bo'lsa, opam ham undan nafratlanishga haqli, chunki bir qizning sevgisini rad etmak, uni bir umrga tahqirlamoq demakdir.

— Shoir opangning sevgisini rad etishga majbur edi, chunki opang unga sevgi izhor etmasidan ilgari shoir o'z qalbini boshqa bir qizga bergandi.

— U kimni sevardi?

— U seni emizgan xotinni sevardi. Endi o'zing bir tasavvur et, opang unga nisbatan adovat saqlashga haqlimi?

— Yo'q, haqli emas!

Talea yana xayolga toldi. Valiahdning aytgan gaplari haqiqatan ham uning qalbida bir o'zgarish yaratdi. Opasining valiahdni zaharlash haqida bergan topshiriqlari uni bezovta qila boshladi. Talea ichida o'ziga savol berar, yana o'zi o'ziga javob qaytarardi: "Ajabo, u meni qalbdan sevadimi? Shubhasiz, sevadi. U sevmasaydi, meni ko'rishi bilan butun vujudini titroq bosarmidi? Uning rangi tamoman o'zgarib ketishnni ko'rmayapmanmi, axir? Yuragining tepishini eshitmayapmanmi? Buning sababi nima? U mendan qo'rqqanidan emas, balki meni sevgani uchun hayajonga tushadi va yuragi tepa boshlaydi. Ajabo, seni shu qadar sevgan va o'zing ham sevadigan kishini qanday vijdon bilan halok eta olasan? Necha yillardan buyon undan sevgi va hurmatdan boshqa narsa ko'rganing yo'q-ku. Sen u muhabbat va hurmatga nima bilan javob qaytarishing kerak? Zahri qotil bilanmi? Yo'q! O'zi ham sevimli, qahramon, go'zal va yoshdir. Axir, men yuragimni bundan ortiq kimga bera olaman?"

Valiahd Taleaning hayajonlanganini ko'rib, dedi:

— Men go'zal qizning bu qadar chuqur xayolga botganining sababini bilsaydim, unga ko'mak bera olardim. Ko'p ham xayol suraverishning hojati yo'q. Umr degan narsa u qadar uzun emas. Uni xayollar, qayg'u-hasrat va befoyda fikrlarga sarf qilish o'rinsiz. Go'zal Talea, insonni bu qadar xayol daryosiga g'arq etadigan narsa bor, u ham bo'lsa, nochorlikdir. Ayni zamonda nochorlikning o'zi ham inson uchun buyuk bir tasallidir. Modomiki, bir orzu, bir maqsadni amalga oshirishning iloji yo'q ekan, u mahal xayolga asir bo'lishning nima keragi bor? Lekin shunday vaqtlar ham bo'ladiki, bir maqsadni amalga oshirish uchun sen chorasiz bo'lsang, buning chorasi boshqalarda bo'ladi. Bunday hollarda dilingdagi tashvishingni do'stlarga aytib, ularning maslahatidan foydalanmoq lozim. Shuning uchun sen ham ko'nglingdagi tashvishlarning sababini mendan yashirma. Men hech kimsaga dushman emasman. Men hammaning baxt-saodatli bo'lishini istayman.

Bu so'zlar Taleani shubha-taraddudlar panjasidan qutqara olmadi, chunki opasining topshiriqlari qalbiga bamisoli ilon singari chirmashib qisardi va hatto, opasining "sen uni sevmasliging kerak" degan so'zini eslab ichidan yig'lardi. U ko'zlarini katta-katta ochib valiahdga boqqanida, qarshisida kular yuzli, boqishlari ma'nodor, baland bo'yli va yuksak fikrli bir yigit turganini ko'rardi. Talea ichida o'z-o'ziga derdi: "Juda aqlli va juda sodda yigit. Ko'zlarida bir pahlavon nazarining ta'siri bor. O'zi bir mamlakatning valiahd shahzodasi. Aytaylikki, opam menga buni sevmaslikni buyurdi. Buning ustiga men shu haqda opamga so'z berdim. Til bilan dilda birlik bo'lsaydi, opam ham qalbini ochib menga so'zlagan bo'lardi. Opamga va'da bergan dilim emas, tilim edi. Dilim hech mahal bu ishga rozilik bergani yo'q".

Talea sukut saqlab o'tirardi, u valiahdning gaplariga javob bermasdi. Shuning uchun valiahd o'rindan turib dedi:

— Anglashimcha, go'zal qiz mening gaplarimdan charchadi, ketishga shoshilyatgani uchun so'zlarimni javobsiz qoldirmoqda. Unday bo'lsa, men chiqib ketaman. Sen shu yerda o'tir. Hozir malika ham kelib qoladi. Lekin kechki ovqatni birga tanovul qilishimiz kerak.

Talea "kechki ovqatni" degan so'zni eshitib titrab ketdi, chunki opasining topshirig'ini kechki ovqat vaqtida amalga oshirishi kerak edi.

* * *

Kechki ovqatdan keyin Qatiba qattiq achchiqlandi, chunki Talea uning topshirig'ini bajarmagan edi. Shu kuni hamma tayyorgarlik ko'rib qo'yilgan edi. Rashk qilib valiahdni zaharlashda ayblanadigan Husniyani qatl ettirmak uchun odamlar ham tayyor edi. Hatto, kanizakni so'roq qilishda ishtirok etadigan guvohlar ham Qatibaning saroyida o'tirib hodisaning yuz berishini kutishardi. Qatibaning topshirig'i bilan tayin etilgan tabib ham saroyga da'vat etilgandi. Biroq Talea topshiriqni bajarmadi.

Qatiba bilan Talea yotoqxonaga kirishlari bilan Qatiba unga g'azab bilan boqib:

— Erkaklarning suyaksiz tillari zahardan ham qo'rqinchliroqdir, — dedi. — Xususan, ular senga o'xshash qo'lidan ish kelmaydigan, noshud qizlarga duch kelsalar, tillari bir ajdahoga aylanib, ularga olov purkaydi. Ilon afsunchidan qo'rqqani singari, senga o'xshaganlar ham erkaklarni ko'rgan mahalda bilganlarini eslaridan chiqaradilar. Erkaklar orqangizdan ergashmasdan burun, sizlar erkaklarning orqasidan ergashasizlar! Ahmoq qizlar aldanganlaridan keyingina odam taniydigan bo'ladilar. Lekin oqila xotinlar erkaklar o'zlarini yo'ldan urishga ulgurmasidan avval ularni adabini berib qo'yadilar. Sen erkaklar osmondan tushgan farishtalar deb o'ylasang kerak. Sen ular mening go'zalligim va qalblari pok bo'lganlari uchun sevadilar deb o'ylarsan. Bu tamomila yanglish fikr. Erkaklarni sizlarga yaqinlashtiradigan narsa shahvatdir. Sen mening singlimsan. Boshimga tushgan kulfatlarni sening ham boshingga tushishini istamayman. Aqlingni boshingga yig'. Erkaklar sening qizlik nomusing barbod bo'lgunicha sevadilar. Valiahdning otasi menga uylangan mahalda: "Men olamda yolg'iz sen uchun yashayman. Osmonda Allohni-yu, yerda esa go'zal xotinimni tan olaman", der edi. Lekin men qizlik iffatimni unga bag'ishlaganimdan keyin, osmondagi Allohni ham, yerdagi xotinni ham tanishni istamadi. U mening qizlik nomusimni poymol qilganidan so'ng, yerda boshqa xotin izlashga boshladi va qalbini boshqalarga topshirish darajasigacha bordi. Men shu husn-u jamolim bilan uning oldida tiz cho'kib oylar bo'yi yig'ladim va uning xoinona fikridan qaytarmoqchi bo'ldim. Izzat-nafsimni, g'ururimni qurbon qildim. Meni yolvorishga, o'zimni yerga urishga majbur etdi. U meni olmoqchi bo'lib yurgan vaqtiarida toj-u taxtini oyog'im ostiga qo'ymoqchi edi, keyinchalik meni taxti oldida tiz cho'ktirdi. Shu sababdan men senga bir talay so'z aytgan edim, erkaklarning sevgi deb nom qo'ygan hiylalariga aldanmasligingni buyurgandim, chunki sevgilarining umri bir kechalik, bergan va'dalari esa, ming yilda ham ro'yobga chiqmaydi. Erkaklar ko'p xotinlarni yo'ldan urganlari bilan faxrlanadilar. Ular qancha xotin-qizni yo'ldan ursalar, o'zlarini shu qadar mohir va uddaburo bir kishi deb hisoblaydilar. Har daqiqada bir gulga qo'nib, shirasini so'rishni yaxshi

ko‘radilar. Ular yirtqich hayvonlarga o‘xshab kunda yuzlab yuvosh maxluqlarni bo‘g‘ib murdor qilishni sevadilar. Valiahdning otasi meni go‘zal hayotdan mahrum etish bilan birga, o‘g‘limni ham vorislikdan hamda valiahdlikdan mahrum etdi: chunki ustimga olgan xotini mendan yosh edi. Uning o‘g‘lini ham mening o‘g‘limdan ortiq sevardi.

Qatibaning gaplari Taleada erkaklarga qarshi chuqur bir nafrat uyg‘otdi. U o‘z-o‘ziga: “Har qanday qilib bo‘lsa ham bugun opamning amrini bajo keltiraman, opam mendan aqlli va tadbirlidir. Erkaklarni bilishda ham tajribasi ortiq. U mening sevikli opam, onam o‘rnida onam, hech vaqt meni yomon yo‘lga boshlamaydi. U meni baxtli bo‘lishimni tilaydi, valiahdning sevgisi esa, meni bebaxtlikka olib boradi. Opam baxtning qayerda bo‘lishini mendan ko‘ra yaxshiroq biladi”, dedi va zimmasiga yuklangan vazifani ado etishga qat’iy so‘z berdi.

Qatiba bo‘lsa Taleaga yana bir bor topshiriq berib dedi:

— Ertalab qanday bo‘lmasin, Tabrizda buyuk bir ish qilishing kerak. Ertalab Otabek saroyida ta’ziya marosimini ochaylik. Faqat ana shu ta’ziyadan so‘nggina xonadonimiz bayram qila oladi. Biz zudlik bilan Hamadonga qaytishimiz lozim, chunki To‘g‘rul o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘yish mumkin bo‘lgan odamlardan emas. Eshitdingmi?

Talea to‘shagida yarim bedor holatda:

— Ha, eshigdim! — dedi.

Ertalab soat to‘qqizda yana valiahdning kanizagi kelib Taleani valiahd huzuriga chorladi. Talea valiahd saroyiga borishga otlanarkan, bunday deb o‘ylardi: “Men u bilan uzoq gaplashmayman, chunki u gapirishi bilan men olamdagi hamma narsani unutaman. Uning suhbati shu qadar shirinki, nima qilmoqchi bo‘lganim tamoman esimdan chiqib ketadi. Lekin bilmayman, u bugun meni nonushtaga taklif etadimi, yo‘qmi? Modomiki, u meni sevar ekan, nega taklif etmasin?”

Qatiba Taleaga so‘nggi marta gopshiriq berdi:

— Ishingga pishiq bo‘l. Bizning baxt-saodatimiz sening yoningdagi kichkina shishachada bo‘lgan qatralarga bog‘liq. Sen bugun o‘sha shishacha og‘zini jasorat bilan ochishing lozim, bildingmi?

— Ha, bildim.

Talea shuni deb yo'lga tushdi. U valiahdning xonasiga kirganda Husniya ularni yolg'iz qoldirib chiqib ketdi.

Talea nima qilarini bilmay turgan joyida qaqqayib qotib qoldi. U hayajon bilan qo'rqa-qo'rqa valiahdning yuziga boqardi. Amalga oshirmoqchi bo'lgan jinoyatining dahshati uning butun borlig'ini qamrab olgan edi. Bu vahima uning vujudini tobora qamrab borar va qalbini ezar edi. Talea yana ko'nglida: "Yo'q, men bu jinoyatni amalga oshirishdan ojizman, chunki u begunoh. Hech bo'lmasa, meni bir martaba tahqir etib, qasos olishimga imkon bermadi. Xo'p, erkaklar aldamchi ham deylik. Axir, bu odam meni sira aldagan emas-ku. Erkaklar kapalakka o'xshasalar-da, bu boshqacha kapalak. Muhabbatli, maroqli, shirin suhbat yigit", deb o'yladi.

Talea bu borada uzoq bosh qotirdi va yana o'z-o'ziga dedi: "Yo'q, men buni sevib qolyapman. Opamning topshiriqlari xayolimdan ko'tarilyapti. Bilmayman, buning oqibati nima bo'larkin? Otasi opamni aldagani kabi o'zi ham meni aldasa, kelajagim nima bo'ladi? U vaqtda meni kimlar himoya qiladi? Opam ortiq meni yoniga yo'latmas, chunki men unga xiyonat qildim, uning so'ziga kirmadim".

Valiahd Taleaning turgan yerida qotib qolgani va g'ayritabiiy bir vaziyatda xayol daryosiga g'arq bo'lganini ko'rgach, unga savol berdi:

— Ko'ngling nima tilashini bilganimda, seni shu tashvishlardan xalos qila olardim. Yoshlikning birdan bir dushmani bor, u ham bo'lsa, xayol va tashvishdir.

Talea boshini ko'tarib bir xo'rsindi-da, dedi:

— Siz meni bu qayg'u-hasratlar panjasidan qutqara olmaysiz. Go'yo men shu tashvish va qayg'u-hasratlar ichida qovurilish uchun tug'ilganga o'xshayman. Men shu qadar baxti qaromanki, menga do'st bo'lgan, sevgan kishilar ham meni undan xalos eta olmaydilar. Yalinaman, valiahd, meni bu tashvishlar girdobidan xalos etishga urinmang, menga muhabbat qo'ymang. Sevgingiz naqadar kuchli bo'lsa-da, men unga loyiq emasman. Menimcha, barcha qizlarning istiqboli mening istiqbolim kabidir. Go'zalligi

qimmatbaho bo'lgan qizlarning qalbi g'oyatda arzondir. Valiahd, o'zingiz yaxshi bilasizki, shaxsning qadr-qimmatini oshiradigan narsa qalbidir.

Valiahd Taleaning gapidagi yangi mundarijani ko'rgach, u bilan yanada qiziqsinib qoldi va bu mavzuni davom ettirib qizning asosiy fikrini qalbidan chiqarib tashlamoqchi bo'ldi.

— Ha, shunday, — dedi valiahd, — tabiat insonlarga jon va tashqi qiyofa, muhit esa unga mundarija beradi. Tabiiyki, xotin kishining go'zalligi uning mundarijasi emas, u tabiat bergan oddiy bir rangdir. Mundarijasiz shaxs bo'lishi mumkin emas, chunki insonlar muhitga bog'liqdirlar. Ba'zan muhit va tarbiya insonning tabiatini o'zgartiradi. Har vaqt muhit insonga u istagan mundarijani bera olmasa, inson muhitini ham o'zgartira oladi.

Valiahdning bu so'zlarini eshitib, Taleaaing qalbi qisilib ketdi. U o'z muhiti unga salbiy mundarija bergani va qalbini buzganini darhol payqadi. Muhiti uni yovuzlik, qotillik darajasiga yetkazib qo'yganini his etib butun vujudi qaltirab ketdi. Valiahd esa so'zini davom ettirib dedi:

— Ba'zan muhit eng go'zal, eng shafqatli va sevimli qizni ham o'zgartirib, eng rasvo, olchoq jinoyatchiga aylantirishi mumkin.

Bu so'nggi so'zlar Taleani bezovta qildi va ichida o'z-o'ziga dedi: "Hech shubha yo'qki, valiahd mening nimalarni o'ylayotganimni va qanday jinoyatga hozirlanayotganimni biladi. Erkaklar xotin-qizlar qalbini o'qiy oladigan darajada san'atkordirlar. Shak-shubha yo'qki, valiahd opamning niyatlarini tamomila biladi. Inson naqadar nafratga sazovor maxluq-a? Men hozirgi kechirayotgan og'ir daqiqalarni qanday unuta bilaman? U shoir meni nega o'limdan qutqarib, hayotimni saqlab qoldi? Nega u meni bo'g'ib o'ldirmadi? U meni kelajakda bunday mushkul va achchiq daqiqalarni kechirishimni bilsaydi, meni o'limdan qutqarmagan bo'lardi. Balki shoir menga bu kunlarning achchig'ini totqizmoq uchun o'limdan qutqargandir".

Talea bularni o'ylab, o'zi ham bilmagani qolda:

— Oh, shoirlar, demak, sizlar kelajakni bilar ekansizlar-da, — dedi.

— Gaping to‘g‘ri, Talea! — dedi valiahd tasdiq etuvchi bir ohangda.— Biz his eta bilmagan ko‘p nozik nuqtalar borki, uni shoirlar his etadilar. To‘g‘ri, ular payg‘ambar emaslar, lekin ularning kitoblari bor. Madaniy yashash yo‘llarini, xotin-qizlarning ulug‘vorligini yolg‘iz buyuk bir shoirning asarlaridan o‘rganish mumkin. Senga yoqmaydigan Nizomiy hozir bashariyat uchun yangi bir hayot qonuni, tarbiya va axloq qonun-qoidalarini tuzmoqda. Sen faxrlansang bo‘ladi! O‘z buyukligi bilan olamga nomi ketgan bir shoir bir mahal seni o‘z bag‘rida o‘stirgan, uning quyoshdan ko‘ra yorqinroq siymosi oylar davomida senga soya solgan. Ajabo, shunday bo‘la turib o‘zingni baxtsiz sanashga haqing bormi? Hozir bir mamlakat boshida turib baxtli bo‘lishni istagan odam ana o‘sha xushbaxtlikni sen bilan birga baham ko‘rish orzusidadir. Olamning muhim bir hissasiga ega bo‘ladigan odam sening sochlaring ko‘lankasiga muhtojdir.

— Menimi? — deb so‘radi, qiz.

— Ha, go‘zal Talea! Men sen bilan baxtiyor bo‘lmoqchiman.

Talea taraddudlanib kuldi. U ko‘nglida: “Bechora insonlar, o‘lim quchog‘ida baxtiyor bo‘lmoqni orzu qiladiganlar ham bor ekan-da, men uni halok etish fikridaman-u, u bo‘lsa xushbaxtligini mening sochim ko‘lankalaridan axtarmoqda. Tabiat insonlarni naqadar zaif va nochor qilib yaratganingni ko‘r: chunki ular bir-birovlarining ko‘ngillaridagi fikrlarni bilishdan ojizlar”, derdi.

Valiahdning o‘zi ham Taleaning oq marmarday siynasiga boqqan mahalda boshqacha xayollarga borar va derdi: “U nihoyatda oqila va sog‘lom fikrli qizdir. Mening unga taklif etgan masalam, bir kunlik yoki bir oylik masala emas. Bu ikki yoshning umr savdosidir. Shuning uchun ham qiz bu taklifimni juda chuqur o‘ylab javob qilmog‘i lozim. Erga chiqish va uylanish masalasi g‘oyatda mas’uliyatli va og‘ir vazifadir. Inson buni o‘z vijdon tarozusida o‘lchamog‘i kerak, chunki bu og‘irlikni har kim ko‘tara olmaydi”.

— O‘ylab ko‘r, go‘zalim, o‘ylab ko‘r! — dedi valiahd. — Sen ikki yoshning hayoti masalasi ustida o‘ylayapsan. Sahv-u xatolarning hammasi chuqur o‘ylab ko‘rmaslik natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham sen bu masala ustida yana bir daf’a chuqur o‘ylab ko‘rmog‘ing lozim.

Valiahdning keyingi so‘zlarini eshitgach, Talea seskanib ketdi, vahimaga tushdi. Nozik dudoqlari dahshatdan titray boshladi: “Valiahd meni jinoiy ishga tayyorlanganimni payqagan, shuning uchun uning o‘zi “sahvu xatolarning hammasi chuqur o‘ylab ko‘rmaslik natijasida yuzaga keladi”, deb meni ogohlantiryapti, modomiki, shunday ekan, bu masala ustida bosh qotirmay ilojim qancha? Uning o‘zi: “Sen ikki yoshning hayoti masalasi ustida o‘ylayapsan”, deyapti. Ajabo, axir bu haqiqat emasmi? Men uni zaharlab o‘ldirajakman, opam ham gunohsiz Husniyani qatl ettirajakdir. Lekin men ham jazosiz qolmayman. Tirik qolsam-da, xalqning la’nat va nafrati ostida yashayajakman. Valiahd naqadar sodda dil va marhamatli odamki, katta bir jinoyatga hozirlanganimni bilgan holda yana meni to‘g‘ri yo‘lga qaytarmoqchi bo‘ladi: holbuki, u istagan vaqtida meni mahv etishi mumkin edi. Ajabo, bir mamlakatning valiahdi baxt-saodatini bir bechora qizning sochlari ko‘lankasidan axtarganida, yo‘qsil qiz bu oliyjanoblikka qarshi nima qilishi lozim? Uni zaharlashi, jonidan judo qilishi kerakmi? Yo‘q, yo‘q, men bu ishni eplay olmayman. Uning bu marhamati evaziga men o‘z samimiy sevgimni unga taqdim etaman. Kelajak saodat kafili bo‘lgan uning hayotini ko‘z qorachig‘imday asrayman. Ikki qalbning birga tepishi uchun nima zarur bo‘lsa, qilaman. Opamning menga va’da qilgan baxtiyorligi men uchun emas, balki o‘z o‘g‘li uchundir”.

Talea shularni xayoldan kechirar ekan, o‘zini valiahdning quchog‘ida ko‘rdi. Haqiqatan ham bir mamlakatni ushlab turgan qo‘llar Taleaning bo‘yniga chirmashgan, har ikkalasining ko‘zlari bir-birlariga ehtiros-la boqardi. Yuraklarning tepishlari bir-biroviga ulanib ketgan mahalda qulfi dillari eshiklari ham ochildi. Talea lablarini valiahdning lablaridan ajratganida valiahd quyidagi so‘zlarni eshitdi:

— Valiahdning aytganlari ayni haqiqat. Men xatoga yo‘l qo‘ymayman. Men ikki yoshning hayoti masalasida yanglish yo‘lni tanlamayman. Valiahd, senga ont ichaman!

Nonushta tugadi, dasturxondan turdilar. Qatiba kutgan hodisa amalga oshmadi.

Talea valiahd saroyidan chiqib, uyga kelishi bilan Qatiba uni ko'cha darvozasi oldida kutib olib, shoshib-pishib so'radi:

— Qani ayt, valiahdni o'ldirdingmi? Zahar darrov ta'sir qildimi?

— Yo'q, iloji bo'lmadi. U masaladan batamom xabardor ekan.

— Xabardor ekan, deysanmi?

— Uning gap-so'zlari va suhbat chog'ida qilgan imo-ishoralari ham shundan darak berardi.

— Qanaqangi imo-ishoralar? Sen buni qayoqdan bila qolding? Aqling joyidami, o'zi? U bu sirdan qanday qilib voqif bo'la olishi mumkin? Uni yolg'iz sen-u men bilaman, xolos. Masalani o'zing unga tushuntirmasang, u bu sirni qayoqdan bila oladi? Qani ayt-chi, eshitay, u nima dedi?

— Men uni qanday zaharlasam ekan, deb o'ylamoqda edim. U yuzimga boqib sal kulib turib dedi: "O'yla, o'yla, go'zal do'stim, o'yla. Barcha sahv-u xatolar o'ylamasdan ish qilish natijasida yuz beradi. Shuning uchun ham sen amalga oshirmoqchi bo'lgan masalang to'g'risida yana bir martaba chuqur o'ylab olishing lozim, chunki sen ikki yoshning hayoti masalasi ustida o'ylayapsan".

Qatiba achchig'landi va "qo'rqoq, ojiz qiz" deb xitob qildi:

— Sen erkaklarga qanday yondoshishni bilmaysan, o'lguday noshudsan. Senda ayb yo'q, erkaklarni o'rganmoq va tomirlarining urishlarini aniqlamoq uchun hoziq tabib bo'lmoq keraq. Bu sohada seni ortiq ayblashga o'rin yo'q. Erkaklar ruhini hatto, shu ish bilan maxsus shug'ullanadigan olimlar ham luzumi qadar o'rgana olmaganlar. Basharti, tiling va xatti-harakating bilan unga biror narsani sezdirib qo'ymagan bo'lsang, u sening qalbingga yo'l topa olmagan bo'lardi. Erkaklar xotin kishi qalbini ko'zidan va harakatidan o'rganadilar. Hamisha ehtiyot bo'lsang, hushyor tursanggina, o'zingni har bir falokatdan omonda his qilishing mumkin. Sen sira qo'rqma. Erkaklar xotin-qiz ruhini o'rganishga uringan vaqtlarida yanada ahmoq bo'lib qoladilar. Sen sira qo'rqma, taradludlanmay buyurgan ishimni amalga oshir! Bu yerda uzoq qolmaymiz. Tabrizga faqat shu ishni deb kelganmiz.

Talea yig'lab ont ichdi:

— Boshing uchun ont ichaman. Men unga hech narsa deganim yo‘q. Lekin maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lganimda ikkilanib xayolim parishon bo‘ladi.

Qatibaning yana achchig‘i chiqdi:

— Modomiki, bu vazifani onang o‘rnida bo‘lgan opang topshirgan ekan, u mahal sening taraddudlanishga haqqing yo‘q edi. O‘zingga topshirilgan bu sirni amalga oshirilishi va maxfiy qolishi uchun boshing bilan javobgarsan. Shu ishni bajarmasang, seni eng olchoq odamga erga beraman. Malika bo‘lish orzusida uni o‘ldirishdan bosh tortsang, yanglishasan, chunki, mabodo, uni sen o‘ldirmasang, men boshqa odam vositasida o‘ldirtiraman U mahal sen ham o‘z hayotingdan umidingni uz! Lablaring valiahdning lablari bilan qovushganini bilsam, seni shu bugunning o‘zidayoq qullarimning eng irkiti bo‘lgan Behzodga erga beraman. Men senga yuzlarcha martaba aytganman va yana takror aytamanki, dudoqlaringni uning dudoqlariga tegizishdan saqla, chunki sehrgarlarning bir nazar tashlashi ilonga qanday ta’sir etsa, erkaklarning dudoqlari ham qizlarga shunday ta’sir eta oladi. Sharobxo‘r erkaklar bilan erkaklar dudog‘iga o‘rgangan qizlar o‘rtasida farq yo‘q. Sharobxo‘r kishi ichkilik ichishdan o‘zini tiya olmagandek, erkaklar bilan o‘pishib o‘rgangan qizlar ham o‘zlarini tiya olmaydilar, chunki bo‘sa ham bamisoli taryokka o‘xshagan narsa. Erkaklarning dudoqlari qizlar qalbini asir qilib oladi. O‘z husnining qadriga yetadigan va undan ustalik bilan foydalana oladigan qiznigina go‘zal deb hisoblash mumkin. Zimmangga yuklangan vazifani amalga oshira olmasang, o‘z mavqeyingni bilmasang, faoliyat ko‘rsatishga qodir bo‘lmasang, inson degan nomga loyiq emassan. Rassomlar sendan ko‘ra go‘zalroq surat chiza oladilar Hozirgi sening go‘zalliging rassomlar chizgan ana o‘sha jonsiz go‘zallikdir. Sen tirik bo‘lsang edi, zimmangga yuklangan vazifani allaqachon amalga oshirgan bo‘larding. Lekin sen menga xiyonat qilding, uni sevganing uchun buyurgan ishimni bajara olmading! Ana shuning uchun men seni jazolayman.

Talea ho‘ng-ho‘ng yig‘lardi. Lekin uning to‘kkan ko‘z yoshlari Qatibaning g‘azab o‘tini so‘ndira olmasdi. Aksincha, Taleaning yig‘isi Qatibaning qahr-u g‘azabini yanada oshirardi. Qatiba

ichida: "Yaramas qiz, o'z sevgilisini o'ldirgisi kelmagani uchun bolasi o'lgan ona singari faryod urib yig'layapti. Qiz bolani o'z ixtiyoriga qo'ysang, masxarabozga erga chiqadi. Birovni sevishimga erk bermadilar. Men ham qo'limdan kelganicha olamda hech kimning sevgisiga erk bermaslikka qasamyod etganman. Men badbaxt bo'lgan ekanman, singlimning ham baxtiyor bo'lishiga rozi bo'la olmayman", derdi.

Qatibaning ko'z qorachiqlarida o't chaqnardi. Achchig'idan har ikki yuzi lovillab yonardi. U xona ichida tez-tez yurib gapirardi:

— Mening singlim, Amir Inonjning qizi, men bilan bir ota, bir onadan tug'ilgan singlim, kundoshimning o'g'li, ashaddiy dushmanim, o'g'limning raqibini sevarmish. Toj-u taxtning bir tagi past qishloqi xotindan tug'ilgan bolaga qoldirishga harakat qilyapti-ya!

Qatiba shuni deb, Taleaning tepasiga bordi-da, g'azab bilan dedi:

— Sendan so'rayapman, buyurgan vazifamni bajarasanmi, yo'qmi?

Talea qo'rqa-pisa Qatibaning yuziga boqdi: — Ha, bajaraman. Ertaga ertalab valiahdga zahar beraman.

* * *

Ertasiga ertalab Talea eshikni ochib valiahdning xonasiga kirgan chog'ida u deraza oldida o'tirib Nizomiyning "Iskandarnoma"sidan parchalar o'qirdi. Valiahd Taleani ko'rishi bilan quvonchi ichiga sig'may dedi:

— Kel, kel do'stim! Senga bir necha she'r o'qib beraman. Buyuk shoir menga bag'ishlab yozayotgani "Sharafnoma"[1] asaridan bir necha parcha yuboribdi Sen vatanimizda naqadar qahramon ayollar etishganidan xabardor bo'lasan. Afsuski, keyinchalik Nushoba singari bir qiz yetishmadi. O'shanga o'xshash qahramon bir ayolni kitob sahifalarida emas, balki hayotda ko'rish orzusidaman.

— Nushoba kim?

[1] Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining so'nggi dostoni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "Sharafnoma", ikkinchi qismi "Iqbolnoma" deb ataladi *(R. Komilov)*.

— Nushoba qadim zamonda Barda shahrida podsholik qilgan bir qiz.

— Qaysi Barda shahrida? O'sha xarobaga aylangan Barda shahridami?

— Ha, o'sha Barda. Iskandari Zulqarnayn bilan uchrashgan o'sha qahramon qiz haqida buyuk shoir ajoyib bir doston yaratibdi. Hozir shuni o'qiyotgan edim. Go'zal Talea, erkaklar Iskandari Zulqarnayndek bo'la olmasada, qizlar Nushoba singari bo'lishga harakat qilishlari kerak.

Shundan keyin valiahd "Sharafnoma"dan bir necha parcha o'qidi. Suhbat tushlikkacha cho'zildi. Yana Talea odati bo'yicha turib ketmoqchi bo'larkan, valiahd unga:

— Shu yerda tushlik qilishing kerak, — deb ketgani qo'ymadi.

Tushlik qilayotganlarida sharbat keltirdilar. Sharbatga hali qo'l urishgani yo'q edi. Talea qo'ynidan shisha chiqardi, undani zahardan sharbatga bir necha tomchi tomizib, valiahdning oldiga qo'ydi. Lekin bu ishni ehtiyotsizlik bilan qildi. Uning qo'llari titrar, aqli shoshar edi. Shuning uchun valiahd bir nima sodir bo'lganini payqab, sir boy bermadi. Sharbat piyolalari dasturxonda turardi. Talea esa, ko'zini valiahd oldidagi piyolaga tikib o'tirar, qaltqalt titrardi. U vijdon azobiga tushib, qilib qo'ygan ishidan yana pushaymon bo'la boshladi. U o'z sevgan kishisining bir necha daqiqadan keyin halok bo'lishini o'ylab aqldan ozish darajasiga yetdi. Talea o'z-o'zini koyib derdi: "Men naqadar olchoq va jinoyatchi qizman. Bu gunohsiz kishini nega o'ldiraman? Men nima uchun o'zim sevgan yigitimni hayotidan mahrum etaman?"

Valiahd bir qizga, bir dasturxondagi piyolaga boqardi. U shubhaga tushgan edi. Nihoyat, Taleaga murojaat qildi:

— Go'zal farishtam, men shu piyolani sening sog'lig'ingga ichishim lozim, — deb piyolaga qo'l uzatdi, shu zamon Talea piyolani uning oldidan tortib oldi.

— Yo'q, yo'q! Bu piyolani men o'zim ichishim kerak. Bu piyola men uchun qo'yilgan, — dedi va piyolaga labini tegizishi bilan valiahd uning qo'llarini tutib:

— To'xta, ma'suma qiz! — deb piyolani undan tortib oldi.

Lekin zahar Taleaning nozik lablarini yondirgan edi. Bir lahzada valinahd saroyida to‘s-to‘polon boshlandi. Mulozimlar u yoqdan-bu yoqqa yugurar edilar. Saroyda tabib bor edi. Qatiba valiahdning zaharlanganini tasdiq ettirish va kanizak Husniyani unga zahar berdi, deb qatl ettirish uchun ko‘pdan beri tabibni hozirlab qo‘ygandi.

Qatiba valiahd saroyida shovqin-suron ko‘tarilganini eshitib sevindi. Talea buyrug‘imni amalga oshirdi deb o‘yladi.

Tabib valiahdning xonasiga yugurib kirib Taleaga yordam berdi. Talea o‘ziga kelib valiahdni o‘z boshi ustida ko‘rib:

— Nega menga shafqat qilmadingiz? Nega mening mangu rohatimga mone bo‘ldingiz? Nima uchun mening ozodligimdan mahrum etdingiz? — deb yig‘lar ekan, valiahd uning sochlarini silab, ohista dedi:

— Yig‘lama, masala menga ravshan bo‘ldi. Esingdami, men senga bir necha bor inson ruhiga mazmun beradigan muhitdir, inson o‘zini jinoyat va xiyonatlarga sudraydigan muhigdan ajralmog‘i kerak, deb aytgan edim.

Talea yig‘lab dedi:

— Men bu muhitdan bir yo‘la qutulmoqchi edim, lekin siz xalal berdingiz. Men o‘zimni haqoratlardan va tahqir etuvchi muhitdan xalos etmoq uchun o‘limni tanlagan edim, chunki boshqa bir muhitda men uchun o‘rni yo‘q. Qayerga boray? Kimning himoyasida yashay? Tug‘ishgan opamki, meni shunday jinoyatga majbur etgandan keyin boshqalardan nima kutishim mumkin? Men jinoyatchi va xiyonatchi bo‘lishni istamadim. Lekin shusiz ham opam yashashimga yo‘l bermaydi. Eng vahimali va dahshatli narsalar bilan qo‘rqitadi. Opamning yuzini ko‘rmaslik va so‘zlarini eshitmaslik uchun o‘zimga o‘limni ravo ko‘rdim.

Valiahd uning sochlarini silab:

— Muhitdan qutilish uchun o‘limdan panoh izlash ojizlikdir, — dedi. — Sening rohatingni ta’min etishga ont ichaman. Men sening xohishingdan tashqari hech bir ish qilmayman. Butun borlig‘imni sening yosh va pokiza qalbing uchun fido qilsam ham kamlik qiladi.

Qatiba valiahd saroyi darvozasiga yaqinlashganda, tabib ishini bitirib saroydan chiqib ketmoqda edi. Qatiba tabibni ko'rib zo'r hayajon bilan so'radi:

— Gapir, tabib, gapir! Ayt-chi, o'g'limga nima bo'ldi?

Qatibaning bu savolini eshitgan tabib uning yuziga diqqat bilan boqib kulimsiradi.

— O'g'lingizga hech nima bo'lgani yo'q, — dedi, — falokatga sho'rlik singlingiz duchor bo'ldi.

Tabib ta'zim qilib jo'nab qoldi. Qatiba turgan yerida qotib qoldi. "Qaytib ketsinmi? Yo saroyga kirsinmi?" deb bosh qotirdi. Nihoyat, ichkari kirmoqchi bo'ldi.

Qatiba zo'r hayajon bilan xonaga kirdi-yu, yig'lab so'radi:

— O'g'lim, sen qanday falokatga yo'liqding? Sho'rlik Taleaga nima bo'ldi?

Taleaning yotganini ko'rib, Qatiba unga yaqinlashmoqchi bo'ldi, lekin singlisi uni qo'llari bilan rad etib:

— Menga yaqinlashma! — dedi. — Men seni ko'rishdan ko'ra o'limni afzal bilaman. Basharangni ko'rish men uchun og'ir azobdir. Jo'na, tag'in basharangni ko'rsatib, meni azoblama!

Qatiba unga g'azab bilan boqib o'shqirdi:

— Ovozingni o'chir, xiyonatkor, qilgan jinoyating kamlik qildimi? O'z opangni aybdor qilmoqchi bo'lasanmi?

Talea yana yig'lashga boshladi, valiahd unga tasalli berar ekan, Qatibaga:

— Malika, iltimos qilaman, meni va xastani tinch qo'ying! — dedi.

Qatiba boshini quyi solib xonadan chiqdi.

SO'NGGI JANG

Qatiba Tabrizda muvaffaqiyat qozona olmadi, Abubakirni zaharlashga urinishi uning sirini fosh etdi. Ayni zamonda, u Tabrizdan Hamadonga ham qayta olmadi, chunki Qizil Arslonning qatl etilgani to'g'risidagi xabar qo'shni mamlakatlarga yoyilgandan keyin Bag'dod va Iroq qo'shini eronliklar bilan birlashib Ozarbayjonga hujum boshlagandi.

Qatiba Tabrizda hech kimga bildirmay Rey tomonga qochdi, Ozarbayjonning vaziyati tahlikali edi. Otabeklarga qarashli bo'lgan joylarning hammasi xorazmliklar, iroqliklar va eronliklar tomonidan ishg'ol qilindi.

Bag'dod xalifasi bu mamlakatni Sharqning xaritasidan batamom yo'qotib yubormoqchi edi. Otabeklar yurtini bo'lishib olish ishida Qatibaning o'g'li Qutlug' Inonj ham ishtirok etdi.

To'g'rul poytaxtni tashlab qochdi. Iroq qo'shini Bag'dodni ishg'ol etganidan keyin, Ozarbayjon chegaralaridan o'tdi.

Qutlug' Inonjning Reydan keltirgan qo'shini Qazvinda ittifoqchilar qo'shini bilan birlashib, Ozarbayjon masalasini hal etmog'i lozim edi.

Shuning uchun ham Qatiba ozarbayjonliklar bilan endi hiyla va mojarolar vositasi-la emas, qurol kuchi bilan so'zlashmoqqa jazm qildi. U g'alaba bilan Tabrizga kirmoqchi, valiahdni ostirib, o'z o'g'li Qutlug' Inonjni Ozarbayjon taxtiga o'tqazmoqchi edi. Tabrizdan Ganjaga kelganlar Ozarbayjon tahlika ostida qoldi, degan xabarni xalq orasida tarqata boshlagan edilar. Lekin bu safar To'g'rul hukumatini qurol kuchi bilan mudofaa qilish Ganja kiborlari va ziyolilarining xayoliga ham kelmasdi. Bu xabarlar tarqalishi bilanoq ularda yangi bir fikr paydo bo'ldi: ular Shirvon bilan aloqa bog'lamoq va Shimoliy Ozarbayjonni janubdan kelgan dushmandan mudofaa qilmoqqa qaror qildilar.

Bu fikrga qarshi chiquvchilar nihoyatda oz edi. Lekin Shirvon bilan tuzilgan ittifoq Ozarbayjonni ikkiga bo'lib tashlash xavfini tug'dirgani uchun janubga yordam berish fikrining tarafdorlari tobora ortib borardi.

Bir kun Ganja hokimining jarchilari bozor va ko'chalarda yurib jar soldi:

— Ganja xalqi! Biling va ogoh bo'lingki, a'lo hazrat valiahddan farmon keldi. Farmon bugun peshin namozidan keyin Saljuq jomesida o'qiladi. Yigirma yoshdan qirq besh yoshgacha bo'lganlar Saljuq jomesiga kelmoqlari kerak, he-e-e-y!

Ganja hokimi jarchilar bilan kifoyalanmay, shaharning barcha mo'tabar odamlari, ziyolilariga maxsus xatlar yuborib, Saljuq jomesiga ularni da'vat etdi.

Tushki ovqatdan keyin Alouddin va Faxriddin o‘z xotinlari bilan birga Nizomiy bog‘ida berilayotgan ziyofatga keldilar. Nizomiy nima sababdan bu ziyofatni berayotganidan hech birlarining xabarlari yo‘q edi, ziyofatga taklif etilganlar juda oz bo‘lib, nima maqsadda chaqirilganliklarini bilmas edilar. Bu yerda bir mahallar Bag‘dodga yuborilgan va hozirda Alouddinning xotini bo‘lgan Susan, Faxriddinning xotini Dilshod va boshqalar bor edi.

Dilshod Faxriddinning qulog‘iga pichirlab:

— Ziyofatning nima maqsadda berilayotgani ma’lum emas, shoir yangi bir xabar eshittirmoqchi shekilli, — dedi. Ra’no xonim hozirlagan taomlar, gulob bilan omuxta qilingan sharbatlar va turli-tuman mevalarni dasturxonga keltirib qo‘ydi. Mehmonlar dasturxon atrofiga o‘ltirishgach, Nizomiy Faxriddinga o‘girilib:

— Insonlarda tabiiy bir xususiyat bor. Ular kelajak haqida juda kam o‘ylaydilar. Insonning asosiy xususiyati o‘tmishni xotirlashdan iboratdir, — dedi.

Ziyofatga kelganlarning hammasi buyuk shoirning og‘ziga boqar, uning bu bilan nima demoqchi ekanini bilishga qiziqardi. Xususan, Faxriddin kelganidan beri bu ziyofatning zamirida muhim bir masala borligi sezilib qolgandi. Lekin shoirning masalani tabiat qonunlaridan boshlashi Faxriddinni boshqacha bir tushuncha, o‘zgacha bir xayolga solib qo‘ydi.

Nizomiy so‘zini avvalgi boshlagan mavzuyi doirasida davom ettirdi. Uning odati shunday edi, u muhim bir masalani o‘rtaga qo‘ymoqchi bo‘lganida uzoqdan so‘z boshlab majlis ahlining fikrini ana shu masalaga jalb etardi.

Nizomiy so‘zini davom ettirib dedi:

— Insonning kelajakka emas, balki o‘tmishga bu qadar e’tibor berishida u qadar hayron qoladigan narsa yo‘q. Inson bolalik va yoshligi orqada qolib ketgani uchun u hamisha o‘tmishini xotirlashi lozim. O‘tmish naqadar yomon, naqadar mashaqqatli bo‘lmasin, baribir inson qalbi uni unutishga qodir emas. Men yoshligimni eslar ekanman, faqat uch narsadan tasalli topaman. Go‘yo men ular vositasi bilan olis yo‘llarni bir onda sayr qilgan va yoshligimni ziyorat etgan bo‘laman. Ularning birinchisi go‘zal she’rdir.

Men hamisha yuragimni to'lqinlatadigan she'rni eshitganimda o'zimni yoshlik gulzorida ko'raman, ruhan yuksalaman va mendan uzoqlashib bulutlar ortiga yashiringan yoshligim yoniga uchib chiqqanday bo'laman. Meni yoshligim quchog'iga qaytaradigan ikkinchi vosita musiqadir. Musiqani keksa san'atkor bastalagan bo'lib, uni o'rta yasharli bir sozanda ijro etsa-da, baribir unda yoshlik mavjuddir. Bu go'zal san'at hamisha navqirondir. Uni keksa san'atkor yaratsa ham, faqat yoshlik hislari bilan yaratishi mumkin. Meni yoshlik chog'larimga qaytaradigan uchinchi vosita so'lim tong chog'ida qizarib, yashnab ochilgan qalampirmunchoq gulidir. Hozirgi ziyofat mana shu bog'chada berilgan ikkinchi ziyofatdir. Birinchi ziyofa mangu barhayot va unutilmas shoiramiz Mahsatiy xonim surgundan qaytganda berilgandi. U vaqtda mening o'zim ham, bu yerda o'tirganlarning ko'pchiligi ham yosh edi. Esimda bor, Mahsatiy xonim hozir Dilshod xonim o'tirgan yerda o'tirgan edi, gilamcha ham o'sha gilamcha, ko'rpacha ham o'shaning o'zi. Shuning uchun ham Mahsatiy xonimni xotirlash va bizlarni bir lahzagina bo'lsa-da, yoshlik davriga qaytarmoq vazifasi Dilshod xonimga topshiriladi.

Faxriddin Aloviddinning qulog'iga:

— Asosiy masala bu emas, shoir tayyorgarlik ko'ryapti, — deb pichirladi va Dilshod xonimga qarab shoirning bu taklifiga rozi bo'lgan bo'lmaganini bilmoqchi bo'ldi, lekin uning chehrasida norozilik alomatini ko'rmadi. Dasturxon atrofida o'tirganlar ham. "iltimos qilamiz, iltimos qilamiz!" deb Dilshod xonimga yolvordilar. "Iltimos qilamiz!" degan so'z Dilshod xonimning sevikli eri Faxriddin og'zidan ham eshitildi. Shundan so'ng Dilshod xonim udni[1] keltirish uchun uyga odam yubordi.

Ziyofatdagilar bir-birlariga: "Bu zayofat faqat yeb-ichmoq, musnqin chalib xonish qilmoq uchun berilayotgani yo'q, bu yerda boshqa bir masala bor. Hozir bo'layotgan ishlar ana o'sha masalaning debochasidir", der edilar.

Udni keltirishdi. Dilshod xonim udni sozlarkan Nizomiy yana dedi:

[1] Cholg'u asbobi

— Faqat Mahsatiy xonimning ruboiylaridan o‘qing, chunki ruboiy yozishni Mahsatiy xonim anjomiga yetkazdi[1].

Dilshod Mahsatiy xonimning quyidagi ruboyilarini o‘qidi:

Har ob ki, az diydan g‘amnok chakad,
Xunist ki, az xanjari qassob chakad.
Xun mevaad az didi kabobam shab-u ro‘z
Shak nest, ki az kabob xunob chakad.
Bar sang zadam do‘sh saboyi koshki,
Sarmast budam ki kardam in avboshiy.
Bar man ba zaboni hol meguft sabo‘
Man chun tu budam, tu nizi man boshiy.
Gul bar sari sabza mekunad ra’noyi,
Bulbul zi bari gul shuda shaydoyi.
In ham ajab ast, har du hayron shudand,
Gul az payi umr, bulbul az tanhoyi[2].

Dilshod shu qadar zavq-shavq bilan o‘qidiki, ziyofatda o‘tirganlarga Mahsatiy xonim tirilib kelganday tuyuldi. Ziyofatda buyuk bir ruhiy ko‘tarinkilik bor edi. Nizomiy buni sezib asosiy masalaga ko‘chdi:

— Sizlarni ziyofatga da’vat etishdan maqsadim yedirib-ichirib yuborish emas. Bunday dasturxon hammalaringizning uylaringizda bor. Lekin she’r, musiqiy va qo‘shiq hamma yerda ham bo‘lavermaydi. Dilshod bilan Susanning ovozlari bizlarni yana o‘tmish davrlarga qaytaradi. Bu yerda o‘tirgan xonimlar o‘z hayotlarida og‘ir kunlarni boshlaridan kechirishdi. Biz vatandoshimizning qilichi va qahramonliklari soyasida bu yerda tinch o‘tirib,

---

[1] Mahsatiy xonimning tarjimayi holi, 900-yil hijriyda yozilgan qo‘lyozma.

[2] Yoshli ko‘zdan oqqan har tomchi, bamisoli qassob xanjaridan tomgan qonga o‘xshaydi, qalbimdan qon oqmoqda, o‘t ustiga qo‘yilgan kabob kabi kecha-yu kunduz yonaman, ha, bu odat, kabob qizara boshlagach undan sel tomadi. Kecha koshinli ko‘zani toshga urdim. Mast bo‘lmaganimda bunday bemaza ishni qilmagan bo‘lardim. Go‘yo ko‘za tilga kirib menga: “Men ham edim seningdek, sen ham bo‘lasan meningdek” deganday bo‘ldi. Gul yashil shoxlarda turgandagina go‘zaldir-bulbul gulning shaydosidir. Taajjublanadigan yeri shuki, ularning har ikkalasi ham hayrondirlar. Gul umrining qisqaligi, bulbul esa guldan judo bo‘lib, yolg‘iz qolishi haqida o‘ylaydi.

ularning tovushidan lazzatlanyapmiz. Men sizlarni bu ziyofatga ana shu qahramonlik tarixini eslatmoq uchun chaqirdim. Hozirgi vaziyat bizdan yana qo'lga qurol olishni talab etadi, chunki dushman Ozarbayjon xalqini asorat davriga qaytarishga hozirlik ko'rmoqda. Abubakir ibn Muhammad yuborgan maktubni sizlarga o'qib bermoqchiman.

Hamma bir og'izdan "so'raymiz, so'raymiz!" degach, Nizomiy cho'ntagidan bir maktubni olib o'qimoqqa boshladi:

"Bu maktub Abubakir ibn Muhammad Eldaniz tomonidan buyuk va muhtaram shoir Nizomiyga yozildi.

Muhtaram shoir!

Otam Otabek Muhammadning bir xatosi natijasida xalqimiz baxtsizlikka uchradi. Inonj xonadoniga yaqin bo'lmoq bizni o'z mehribon fuqarolarimizdan ayirdi, biz xalqning muhbbatini yo'qotdik. Xalq muhabbatidan mahrum bo'lish rahmatli amakim Qizil Arslonning ham o'limiga sabab bo'ldi. Otam ham, amakim ham o'z hokimiyatlarini Ozarbayjon xalqining qilichlari kuchi bilan bunyod etganlari holda bu xalqni xo'rlaganlari uchun halok bo'ldilar.

To'g'rul yurgizgan yanglish siyosat va uning ajnabiylar himoyasiga sig'inishiga urinishi Ozarbayjon otabekligining inqirozini yaqinlashtirdi. Ukam Qutlug' Inonj ham o'z onasining qutqusi va xom xayollariga uchib, ajnabiylarga sotildi.

Ukamning xiyonati ham xonadonimiz inqirozini tezlashtirdi. Hozirda Bag'dod qo'shini iroqliklar, eronliklar bilan birlashib poytaxtni ishg'ol etdi. To'g'rul Hamadonni tashlab qochdi.

Qutlug' Inonjning Reydan hujum boshlagan qo'shini Qazvin shahriga yaqinlashib kelmoqda. Ularning maqsadi Hamadondan hujum boshlagan ittifoqchilarning lashkarlari bilan birlashib Tabriz shahrini ishg'ol etishdir. Buyuk shoirning o'ziga ayonkim, Ozarbayjon xalqining jiddiy ko'magi bo'lmasa, biz bu mushkul ahvolni bartaraf etishdan ojizmiz.

Shu kunlarda Qatiba xotunning meni zaharlamoqchi bo'lishi ham dushmanning xonadonimizni tamomila mahv etish qaroriga kelganini ko'rsatadi. Hozirda qo'limizda bo'lgan ozgina askar bilan dushman lashkarlariga qarshi chiqa olmasligimiz ravshandir. Siz bizga ko'mak bermasangiz, dushmanlarimiz Tabrizga bosib

kirajaklar. Har holda buyuk shoir yuboradigan maktubida mening bu taklifimga aniq javob berar deb ishonaman".

Abubakrining yozgan maktubi uzundan uzoq edi. Nizomiy uning ayrim qismlarinigina o'qib berdi. Ziyofatda chuqur bir sukunat hukm surardi. Hech kim churq etib yug'iz ochmasdi. Maktub haqida na ijobiy va na salbiy bir fikr bayon etuvchi yo'q edi. Nizomiyning fikrini bilmoq uchun birinchi bo'lib Aloviddin tilga kirdi:

— Eldaniz xonadonining giribonidan tutgan falokat g'oyatda ulkan ekaniga hech qanday shak-shubha yo'q. Ular hozirgi vaziyatda bunday og'ir ahvoldan chiqishga qodir emaslar. Biz nima qilaylik endi? Boshlariga shunday falokat tushishiga ularning o'zlari aybdor. Biz ularni bir necha bor og'ir falokatlardan xalos etganmiz. Ozarbayjonliklar ularning hokimiyatini himoya qilmoq uchun Xorazm, Rey, Iroq yerlarida va Dajla daryosi sohillarida minglarcha o'g'lonlarini qurbon berdilar. Biz jahonni bo'yin egdirgan xalifalarni ularning oldida tiz cho'ktirdik. Bu qilgan xizmatlarimiz evaziga qanday mukofot oldik? Natijada ular bizni bir arab qizining orzusiga qurbon qildilar, poytaxtdan uzoqlashtirilishimizga sabab bo'ldilar. Bu kungi falokat ana o'sha xatolarning tuzatib bo'lmas oqibatidir. Ular bizga nisbatan xiyonat qildilar, endilikda Abubakirning maktubiga qanday javob berishimiz kerak bo'larkin?

Nizomiy Alouddinning aytgan gaplarini diqqat bilan tingladi. U faqat Faxriddinning nima deyishini kutardi, chunki ziyofatda bo'lganlar orasida Eldaniz xonadonining ashaddiy dushmani shu odam edi.

Xususan, keyingi vaqtlarda Qatibaning unga qarshi qo'zg'agan fitnalari, hatto, suiqasd hozirlashi va Qizil Arslonning bu ishlarga sovuqqonlik bilan qarashi Faxriddinning Eldaniz xonadoniga nisbatan adovatini yanada kuchaytirdi. Shu sababdan ham Nizomiy dastavval Faxriddinning fikrini bilmoqni istardi.

Faxriddin xayolchan boshini ko'tarib Nizomiyning yuziga qarab kulimsiradi. Nizomiy bu kulimsirashning ma'nosini darhol anglab, unga mayin bir tabassum bilan javob berdi. Shu bilan yoshlikdan o'rtoq bo'lgan ikki do'st bir-birovining fikrini angladi.

— Men bu ziyofatga taklif etilganimda bu yerda muhim bir masalaning hal bo'lajagini anglagan edim,— deb gap boshla-

di Faxriddin, — va o'z-o'zimga: "Ajabo, mening bolalikdagi do'stim nima maqsadda erlar va xotinlarni birga ziyofatga taklif etgan ekan?" dedim. Abubakir Muhammad Eldanizning maktubi o'qilganidan keyingina shoirning maqsadini angladim. Bu ziyofatda ishtirok etayotgan xotinlarning aksariyati Ozarbayjon jangovarlarining g'alabasi natijasida Bag'dod saroyi asoratidan qutulganlar. Hozirda miyasiz hukmdorlarning xatolari natijasida Bag'dod xalifalari yana Ozarbayjon qizlarini kanizak va cho'riga aylantirishni o'ylamoqdalar. Bu yerda o'tirganlar mening fikrimni boshqacha tushunmasinlar. Basharti, iroqliklar, xorazmliklar va eronliklar otabeklarnigina mahv etish niyatida bo'lsaydi, men, Faxriddin, yuz nafar otliq yigit bilan barcha Eldaniz xonadonini tutib ularga topshirardim, u vaqtda na qon to'kilardi va na o'liklar otlarning oyoqlari ostida payhon bo'lardi. Lekin ular Ozarbayjonning besh-olti nafar miyasi ayingan lapashang odamlarini qo'lga tushirish uchun kelmaydilar. Ular boy bir mamlakatni olmoq va qahramon bir xalqni qullikka solmoq uchun keladilar. Xususan, Qutlug' Inonjning bu mojaroga yaqindan ishtirok etishi ixtilofning mohiyatini bizga yaqqol ko'rsatib turibdi. Qutlug' Inonj hukmdorlikni qo'lga kiritish bilan birga bizlardan Ganjaning sobiq hokimi Amir Inonjning qasosini ham olish uchun kelmoqda. Bizlarni xotinlarimiz bilan birgalikda ziyofatga chaqirgan shoir muhim bir masalani nazarda tutgan. Unga ma'lumki, dovyurak va nomusli erlar o'z xotinlari ishtirok etgan yig'inda hech vaqt jang taklifidan bo'yin tovlamaydilar, chunki oqila xotinlar hech mahalda qo'rqoq kishilarni sevmaydilar. — Faxriddin shu so'zlaridan keyin yuzini Dilshodga o'girib dedi:

— Dilshod, senga va sening sevikli o'g'ling Sadriddinning nomini tilga olib qasamyod etaman! U bolaga mening bebaxt akamning nomi qo'yilgan, olamda meni undan ortiqroq sevadigan kishim yo'q edi. Uning boshi uchun qasamyod etamanki, qo'rquv nimaligini bilmayman. Do'stim Nizomiddin (Nizomiy) o'z fikrini ochiq aytsin. Qachon u istasa yana Ozarbayjon yigitlari qilichlarini qindan sug'uradilar, yana gurzilarimiz Bag'dod darvozalarini tilkapora qiladi, yana otlarimiz Dajla daryosidan kishnab-kishnab suv ichadilar.

Faxriddindan keyin hamma bir boshdan o‘z xotiniga boqib qasamyod etdi va jangga hozir ekanini bildirdi. Nizomiy so‘z boshlab:

— Men yanglishmadim, — dedi, — Ozarbayjon xalqi yo‘lboshchilarining qahramonlik va dovyurakliklariga e’timodim yana bir karra oshdi. Men aytmoqchi bo‘lgan gaplarni Faxriddin sizlarga so‘zlab berdi. Dushmanni Ozarbayjon yerida emas, balki Ozarbayjonning tashqarisida savalamoq kerak. Hamadon va Qazvin bizlarning qadimiy shaharlarimizdir. Ularni o‘z xalqimiz uchun, chegaraning naryog‘idagi yerlarni esa, Abubakir Nusratiddin[1] uchun saqlab qolmog‘imiz lozim, chunki Abubakir jiyanimizdir, uni ozarbayjonlik xotin tuqqan. Dushman chegaralarimizdan qanchalik olisda bo‘lsa, baxt-saodat va tinchlik-omonlik shunchalik ta’min etilgan bo‘ladi. Qayerda ózarbayjonliklar yashasalar, o‘sha yerlar bizning Ona Vatanimizdir. Uning nomusini mehribon onamiz nomusiday himoya qilmog‘imiz kerak.

Nizomiyning taklifi bir ovozdan qabul etildi. Ziyofat Dilshod va Susanlarning musiqiy va qo‘shiqlari bilan tugaldi.

* * *

Bugun Janubiy Ozarbayjonga ketayotgan qo‘shinni kuzatib qolish uchun oronlik erkak va ayollar Ganjadan uch farsang[2] masofada bo‘lgan Xonaqoh qishlog‘i atrofiga yig‘ilishgandi. Qiz-juvonlar qishloqning chetidagi yalanglikda musiqa chalib, o‘yin tushar, yosh-u qarilar kechadan beri qo‘shinga ovqat pishirib, xizmat qilar edilar. Minglarcha o‘choqlar qurilib, yuzlarcha qo‘y so‘yilardi, kabob sixlarining soni urushga ketayotgan askarlar nayzasi sonidan bir necha barobar ortiq edi.

Xonaqoh qishlog‘idan to‘rt farsang narida bo‘lgan Isfahon qishlog‘iga qadar qo‘shinning chodir-kapalaridan boshqa hech narsa ko‘zga chalinmasdi. Qo‘shin batamom kelib Xonaqoh va Isfahon qishlog‘i atroflariga to‘plangunicha oronliklar ham daraxtlar soyasida musiqa chalish, qo‘shiq aytish, o‘yin-kulgi va yeb-ichish bilan mashg‘ul bo‘lishdi.

[1] Abubakirning laqabi Nusratiddin edi.

[2] **Farsang** — farsax — uzunlik o‘lchovi, olti-yetti kilometrga teng.

Qo'shin to'rtinchi kuni nonushtadan keyin yo'lga chiqib, Bozorchuq qishlog'i bo'sag'asida tunamoqchi edi. Chodirlar va qo'shinga lozim bo'lgan kerakli yaroqlar yuklangan minglarcha tuya va xachirlarni Xonaqoh qishlog'idan Bozorchuqqa qarab yo'lga chiqdi.

Dala-toshlarda tuyalarning bo'yniga osilgan qo'ng'iroqlarning bo'g'iq va tartibsiz jaranglashidan bo'lak tovush eshitilmasdi.

Qo'shin yo'lga chiqishga hozir edi. Lekin hammaning ko'zi Ganja tarafga nigoron, go'yo aziz-u muhtaram bir kishiga intizor edi. Sal vaqtdan keyin uzoqdan qalin chang-to'zon va tumanlar orasini yorib bir guruh kishilar ko'rindi, darhol Faxriddin bilan Alouddin chodirlarini tark etib, kelayotganlarning istiqboliga chiqdilar. Nizomiy, uning xotini Ra'no, o'g'li Muhammad va Ganja ziyolilari yetib keldilar. Qo'shin yangi kelgan mo'tabar mehmonlarni izzat-ikrom bilan kutib olishga tayyorgarlik ko'rardi. Shoir va uning hamrohlari otliqlar orasidan o'tib, Faxriddinning chodiri oldiga etishi bilan chodirdan bir juft qilich surati solingan qizil bayroq olib chiqdilar. Shu on karnay sadolari yangradi, suvorilar qilichlarini yalang'ochladilar. Quyosh yog'dusida porlagan qilichlar Xonaqoh qishlog'i ustida yuksalgan tog'larda chaqmoq chaqnashini eslatdi. Qo'shin qasamyod etganidan so'ng Nizomiy ovozini baralla qo'yib dedi:

— Ozarbayjon xalqi! Azamatlar! Qahramonlar! Xalqimizning tarixi shijoat va qahramonliklar bilan to'la. Bir vaqtlarda arablar va forslar bizning bor budi-shudimizni qoqmalab oldilar. Lekin qon-qonimizga singib ketgan tarixiy milliy g'urur va tarixiy qahramonlikni bizning qo'limizdan tortib ololmadilar. Mavqeyi jihatdan ahamiyati buyuk bo'lgan mamlakatimiz va hosili mo'l dalalarimiz hamisha dushmanlarimiz ishtahalarini karnay qilib kelgan. Lekin shunga qaramay, sizlarning ota-bobolaringiz o'z vaqtida Osuriya Kaldon va Eron kabi buyuk davlatlarni tiz cho'ktirgan va dunyoda ozod va mustaqil yashash qobiliyatini namoyish etgan, chunki bizning mamlakatimiz qahramonlar yetishtirish ishida barcha o'lkalardan ustundir. Bir zamonlarda hozir siz yashab turgan yerlarda Farhod va Ustiyoq singari qahramonlar va yuksak madaniyatli kishilar yashaganlar. Hozir-

gi kunda Eron mamlakatida siz ko'rib turgan madaniyat sizlarni ajdodlaringiz tarafidan barpo etilgan madaniyatdir. Ozarbayjon hech mahal qilich va qo'shin kuchiga taslim bo'lgan emas. Sizlarning bobo va bobokalonlaringiz bu haqiqatni butun dunyoga namoyish qilganlar. Lekin dushman Ozarbayjon xalqi singari bo'ysunmas bir xalq orasiga nizo solib, ittifoqini buzish natijasida mag'lub etib, asoratga solgan. Shuning uchun ham sizlar bu tarixiy bayroq ostida xalqimizning ittifoqini buzmaslik va sarkardalaringizning amr-farmonlaridan bo'yin tovlamaslik haqida qasamyod etmog'ingiz kerak.

Nizomiyning bu so'zlaridan so'ng o'n minglarcha yalang'och qilich havoga ko'tarilib, yana pastga tushirildi. Nizomiy so'zini davom ettirdi:

— Dushman bobolaringiz bo'yniga solmoqchi bo'lgan kishanni sizlarning bo'yningizga solish uchun olib kelmoqda. Lekin bu safar sizlar ozarbayjon xalqining ular o'ylaganchalik zaif emasligini ko'rsatib qo'ymog'ingiz kerak. Bu kun sizlar ko'hna va tarixiy poytaxtingiz bo'lgan Hamadonni dushman qo'lidan qutqarmoq uchun ketyapsizlar. Biz na Ozarbayjon otabeklari va na ulardan keyin taxtga o'tiradigan shohlar yuz-xotiri uchun jang qilmaymiz. Biz bu jangga Ozarbayjon xalqining milliy g'ururi va milliy chegarasini himoya qilish uchun ketmoqdamiz. Ozarbayjon Arabniki ham, Iroqniki ham, Eronniki ham emas. U yerlar bizniki edi, hozir ham bizniki va kelajakda ham bizniki bo'lib qolajak. Mana bu bayroqni sizlarning sarkardalaringiz Faxriddinga topshiraman. Sizlar bu bayroqni dushman qo'liga bermaslik va bu bayroqni quyi tushirmaslik uchun o'z tarixiy sharafingizni hamisha xotirada saqlashingiz kerak. Bu bayroq xalqimizning o'z ozodligi yo'lida to'kkan qonlarini eslatib turishi uchun qizil rangga bo'yalgan.

Nizomiy bayroqni Faxriddinga topshirgan mahalda nog'ora va karnaylar sadosi eshitildi. Shoir Faxriddinni yana bir bor o'pdi, barcha otliqlar kelib bayroqni qutlab o'tdilar. Faxriddin ham so'nggi daf'a Dilshod bilan vidolashib yo'lga tushganda: "Birinchi maktubni Hamadon, ikkinchi maktubni esa Bag'doddan kutaman", degan kalimani eshitdi.

Bu so'zlarni aytgan Dilshod xonim edi.

* * *

Shimoliy Ozarbayjondan janub tomonga ketayotgan qo'shin ikki qismga bo'lingan edi. Birinchi qism Faxriddin boshchiligida Naxchivon yo'li bilan ketar, ikkinchi qism esa Qorabog' va Qoradog' yo'li bilan Tabrizga qarab ilgarilardi.

Valiahd Tabrizda Faxriddinning Naxchivonga yaqinlashgani xabarini eshitishi bilan qo'shinni kutib olmoq uchun Araks daryosi sohiliga keldi. Janubiy Ozarbayjon ziyolilari: olimlar, shoirlar hamda vatanparvarlarning hammasi valiahd bilan birga Ziyoulmulk ko'prigining janub tarafida turib Shimoliy Ozarbayjon qo'shinini kutar edilar.

Ko'prikning janub va shimol tomoni turli-tuman rangga bo'yalgan fonuslar bilan bezalgan, hamma yoq qimmatbaho gilamlar, turli-tuman gullar bilan yasatilgan edi. Ko'prikning tosh darvozalari va yuz metr balandlikdagi tepalar minglarcha qandillarning alvon rang shafaqlarida porlardi.

Araks daryosining janub tomonidagi baland tog'larni minglab mash'alalar yoritib yuborgan edi. Kechasi soat ikkilardan boshlab Shimoliy Ozarbayjon qo'shini selday oqib kelib, Araks daryosi sohiliga tusha boshladi. Toshlarga urilgan ot tuyoqlarining taraqlashi janubdagi chaqir toshli qoyalarda aksi sado bergan mahalda chaqmoq urib, qulab tushayotgan toshlar sadosini eslatardi. Hamma yoqni otlarning kishnashi, ot, arava, tuya va xachirlar qo'ng'iroqlarining darang-durungi larzaga keltirgan edi.

Chodirlar oldida yongan mash'alalarning shu'lalari Araks daryosining mavjlarida aks etar edi. Kunduzi soat o'n ikkiga yaqin Ozarbayjon qo'shini Ziyoulmulk ko'prigidan Janubiy Ozarbayjonga o'ta boshladi va janubdan: "Yashasin ozarbayjonliklar, yashasin qon-qardoshlik, yashasin qahramon Faxriddin!" degan xitoblar eshitilardi. Valiahd otlanib Ziyoulmulk ko'prigining janubiy darvozasida turib, shimoldan kelayotgan qo'shinni qutlardi. Ko'prik tor edi, undan faqat to'rt otliq yonma-yon o'ta olardi, xolos. Shuning uchun ham ko'prikdan o'tish uzoqqa cho'zilib ketmasin deb suvorilarga otlarni yo'rttirib o'tish buyurilgan edi. Dastavval Qorabog' otliqlari qilichlarini yalang'ochlab yelkalariga qo'ygan holda valiahdga salom berib o'tdilar. Qorabog'liklardan

keyin shamkirlik va shamsiddinliklar o'tdilar. Hammadan keyin Oron qo'shini yo'lga tushdi. Faxriddinning tepasida ikki qilich surati solingan bayroq hilpirar, bamisoli shimoldan janubga inson seli oqib kelayotganday edi.

Janub va shimoldan musiqa sadolari yangradi: "Yashasin qahramon Faxriddin!" degan xitoblar eshitildi. Faxriddin bayroq bilan valiahdning yoniga kelgach, otdan tushib unga ta'zim bajo keltirmoqchi va huzurida yer o'pmoqchi bo'lganida, valiahdning o'zi darhol otdan tushib, Faxriddinni yer o'pishga qo'ymadi va uning qo'lidan tutib dedi:

— Bugundan e'tiboran yergacha egilib ta'zim qilish odatini man qilaman. Bu odatni Eron shohlari va Saljuq sultonlari xalqning milliy g'ururini oyoq osti qilish uchun chiqarganlar. Xususan, qahramonlarning boshlari hech mahal egilmasligi kerak.

Qo'shnining ko'prikdan o'tishi davom etardi. Faxriddinning buyrug'iga binoan Ozarbayjon bayrog'ini valiahdning boshi uzra ko'tardilar. Bu — qo'shinga bosh qo'mondonlik qilish valiahdga havola qilindi degan so'z edi. Valiahd bunga rozi bo'lmadi va:

— Shimoliy Ozarbayjon qo'shiniga o'z qahramoni sarkardorlik qilsin, — dedi.

Qo'shin qosh qorayguncha ko'prikdan o'tdi, keyin qo'shinning kerak-yarog'lari xachirlarga, tuyalarga yuklanib ko'prikdan o'tkazila boshladi. Amudlar, gurzilar, cho'qmorlar, ehtiyot uchun olingan o'q va kamonlar, og'ir manjaniq va arusaklar[1], temir g'ishtlar[2], qorura[3], po'lat qubbali qalqonlar, dubulg'alar va zirhli kiyimlar ortilgan tuya va xachirlar karvoni chodiri oldidan o'tayotgan mahalda valiahd "men g'olib chiqajakman!" deb quvonardi.

Faxriddin bilan Tabriz bo'sag'asiga yetib borgan Ozarbayjon qo'shini Aji daryo sohilida chodir tikib, Alouddin qo'l ostida Qorabog' yo'li bilan kelayotgan qismni kutardi. Ertasi kuni Aloud-

---

[1] **Manjaniq va arusak** — dushman qal'alarini toshbo'ron qiladigan urush quroli. U besh pudgacha og'irlikka ega bo'lgan toshlarni ota olardi.

[2] Temir g'ishtlar yovga otish uchun xurjunda olib yurilardi.

[3] **Qorura** — ichini qora moyga to'ldirib dushman shahrini yondirish uchun ishlatiladigan ko'za.

din boshliq qo‘shin qismi ham Tabrizga yetib keldi. Qo‘shin ikki kun dam olgandan keyin Qazvinga yo‘l oldi.

Faxriddin Tabrizdan ellik ming otliq askar bilan yo‘lga chiqqanda Tabriz a’yon va ruhoniylari valiahd bilan birgalikda uni Vosminj shahariga qadar kuzatib bordilar Xalqning gapiga quloq solgan kishi quyidagilarni eshitishi mumkin edi.

— Ellik ming otliq qo‘shin bilan bu jangda g‘alaba qozonishga ishonish o‘ta soddalikdir!

— Bag‘dod qo‘shini yuz ming kishidan ortiq!

— Yo’quba, Shahribon, Qizil Rabot, Qasri Shirin, Horunobod, Kirmonshoh, Asadobod va Kangovar shaharlariga qo‘shin sig‘ishmaydi.

— Hamadon bilan Qazvin orasidagi qo‘shin sonig‘ini xudoyitaolodan boshqa hech kim bilmaydi.

— Faqat Iroq otliqlarining o‘zigina ellik ming nafar.

— Faxriddin juda ham o‘ziga bino qo‘ymasin. Bag‘dod qo‘shini orasida minglarcha Faxriddinlar bor. Bu jangda Faxriddin mag‘lubiyatga uchraydi.

— Uzoq kutishning hojati yo‘q, shu yaqin kunlarda ma’lum bo‘lib qoladi.

Ba’zilar ularga e’tiroz bildirib der edilar:

— Chumolilar soni fillar sonidan ming-ming marta ortiq. Lekin fil bir qadam qo‘yganida minglarcha chumolilar halok bo‘ladi.

— Uni Faxriddin deydilar. Bag‘dodliklar uni juda yaxshi tanishadi. Ozarbayjon qo‘shini tarixda sira mag‘yaubiyatga uchramagan.

Ozarbayjon qo‘shinining ilg‘orlari Imomzoda Husaynga yetib borganida Iroq va Bag‘dod qo‘shini Qazvinni ishg‘ol etgani ma’lum bo‘ldi. Qo‘shin shu yerda to‘xtadi. Vaziyatni Faxriddinga ma’lum qilish uchun shoshilinch ravishda chopar yubordilar. Dushman qo‘shini haqida olingan maxfiy xabarlar ularning ilgarilamoqchi ekanlaridan darak bermasdi. Qazvinni Bag‘dod qo‘shinigina ishg‘ol etgandi. Ular zo‘r umid bog‘lagan Rey qo‘shini hali Qazvinga yetib kelmagandi.

Qatibaning o‘zi bir oydan beri Sultoniya jomeyida chodirini qurib, Rey qo‘shinini muntazam shaklga solish bilan mashg‘ul edi. Olingan xabarlarga qaraganda, Rey qo‘shini ham Ozarbayjon

qo'shini singari ikki qismga bo'lingan edi. Ularning bir qismiga Qutlug' Inonj va ikkinchi qismiga esa Husomiddin boshchilik qilardi. Qatiba Bag'dod qo'shini sarkardasiga yuborgan maktubida quyidagilarni yozgandi:

"Rey qo'shini Qazvinga yaqinlashmasdan burun jang boshlanmasin. Ozarbayjonliklar hujumga o'tgan mahalda, mudofaa holatida turmog'ingiz kerak. Olgan xabarimga qaraganda, ozarbayjonliklarning kuchlari juda ham oz. Ustalik bilan jang qilinsa, ularni bir necha kun ichida tor-mor keltirish mumkin. G'olib chiqishingiz bilanoq, Said Alouddin va Faxriddinni tiriklayin qo'lga tushirmog'ingiz lozim. Ularni mening o'zim jazolayman.

Ularni tirik tutganlarning har qaysisi besh ming oltin diram oladi".

Qatiba maktubni orasi havol hassa ichiga joylab choparning qo'liga tutqizdi-da, ehtiyot bo'lishni ta'kidladi. Chopar Narja qishlog'i yonidan o'tar ekan, Faxriddin qo'shini tomonidan yuborilgan darakchi Damirga duch keldi. Damir choparni to'xtatib so'radi:

— Qayerdan kelyapsan?

— Sultoniyadan.

— Qayoqqa ketyapsan?

— Bu qanaqa savol? Ko'rib turibsan-ku, Qazvinga ketyapman.

— Nega ketyapsan?

— Ishim bor, oilam, o'sha yerda.

— Qani, beriroq kel-chi, yoningni axtaray.

— Yo'qol ko'zimdan nari, ey razil!

— Ortiqcha so'zga o'rin yo'q. Yechin deyapman senga.

— Men senga o'xshash qaroqchilarning ko'pini ko'rganman.

Bu so'zdan so'ng Damir choparning boshiga qilich solmoqchi bo'lgan edi, chopar hassa bilan boshini pana qildi. Hassa cho'rt uzilib, ichidagi maktub yerga tushdi. Damir esa, maktubni olib, choparning qo'llarini bog'lab Faxriddinning yoniga olib bordi.

Qutlug' Inonjning qo'shini hali jabhaga yetib kelganicha yo'q edi. Lekin Husomiddin tong yorishishi bilanoq Rey qo'shinining asosiy qismlari bilan birga jang bo'ladigan yerga jo'nab ketmoqchi bo'ldi. Qatibaning quli Husomiddinning chodiriga kelib, uni malika huzuriga taklif etdi. Husomiddin chodirga kirib Qatibani had-

dan ziyoda xushnud ko‘rdi. U o‘ziga yanada oro bergan va zeb-u ziynatlar taqib olgan edi. U oldinroq kelib qo‘lini Husomiddinga uzatdida:

— Mening sevikli do‘stim! — dedi. — Bu kunlar sen bilan men chekayotgan iztiroblarga xotima beradi. O‘z chekkan aziyatlaringni ko‘z oldingga keltirsang, mening ham naqadar iztirob chekkanimni tasavvur eta olasan. Nima ham qilaylik? Zimmamizga yuklangan vazifa aziyat chekishga majbur etar edi. Husomiddin, men o‘z qalbimni sening qalbingga payvand qilmoq uchun ikki buyuk hukmdorni mahv etdim. Uchinchisini esa, taxt-u tojini tashlab qochishga majbur qildim. Endi o‘z vazifamizin ado etib, chekkan azob-uqubatlarning totli mevalarini uzmoq vaqti yetdi. O‘zingga ham ma’lumki, bu urushda ishtirok etadigan kishilarning har biri bir maqsad bilan emas, buyruqni bajarish uchun jang qiladilar. Lekin sen ham farmonni bajarish uchun muqaddas bir maqsadga etish uchun jang qilasan. Senga men buyruq beraman. Sening menga bo‘lgan sevging jangga da’vat etadi. Sen bu jangda g‘olib chiqish bilan mening qalbimni zabt etgan bo‘lasan. Dushmanga bergan har bir zarbang, mening ko‘ksimga taqilgan gul kabidir. Do‘stim! Sen hali mening nazarimda yigirma yil ilgarigi yigitsan. Yoshligimning durdonasini sening qo‘lingga topshirishga muvaffaq bo‘la olmaganim uchun achinaman.

Husomiddinning hayvoniy tuyg‘ulari yana jo‘shga keldi, Qatibaning bu so‘zlarini eshitarkan, hozir qarshisida turgan Qatibani emas, yosh, go‘zal, dilrabo Qatibani ko‘ra boshladi. Xayol bilan shahvat yana uning ko‘zini qonga to‘ldirdi. U o‘z-o‘ziga dedi: “Yaxshi kunlar xotirasi ham bamisoli visol singari muqaddasdir. Qatiba endi yetilibdi. Endi u yengiltak qiz emas, balki erkakning qadr-qimmatini biladigan yoshda. Bulardan tashqari, u Sharqning mashhur ayolidir. Xalqning: “Husomiddin Eldaniz xonadonining buyuk malikasini ahdi nikohiga oldi”, deyishi men uchun sharafdir. Qatiba go‘zal va dilrabo xotindir”.

Husomiddin shularni o‘ylarkan, shahvat uni Qatibaning quchog‘iga otdi. U lablarini Qatibaning lablarida ko‘rgan mahalida quloqlari har doim eshitib yurgan so‘zni eshitdi:

— Husomiddin, qolgani keyin!..

Husomiddin tisarilib malikaga ta'zim qilib dedi:

— Shunday, malikam! Ikki narsa meni bu jangga otlantiradi. Biri askariy burchim, ikkinchisi esa, malikaga bo'lgan hurmat-ehtiromdir. Modomiki, malika men uchun yashar ekan, men ham uning uchun o'limga qarshi tik boraman. Ishonamanki, biz g'alaba qozonamiz. Faxriddin o'zini ozarbayjonlik bo'lgani uchun qahramon deb sanasa, uning raqibi men ham ozarbayjonlikman. Faxriddin va Alouddinning bo'yinlariga arqon bog'lab sudrab malika huzuriga olib kelaman.

Qatiba yana bir bor uning bo'ynidan quchoqlab o'pdi-da:

— Men ularni dorga ostiraman. Nikohimiz dor yog'ochlari ostida o'qiladi, — dedi va lablarini Husomiddinning lablaridan uzib ilova qildi:

— Daf'atan Tabrizga hujum qilib valiahdni o'ldirasan, keyin uning qaylig'i Taleani sochlaridan sudrab huzurimga olib kelasan. So'nggi topshirig'im shudir.

Lekin Qatiba o'zi aytayotgan gaplariga ishonmasdi, chunki u Faxriddinning qahramonligini va umuman, ozarbayjonliklarning harbiy salohiyatini juda yaxshi bilardi. Husomiddin vidolashib yo'lga tushgan kunining ertasiga Qatibaning o'g'li Qutlug' Inonj ham Sultoniyadagi besh ming otliq askar bilan Qazvin shahriga yo'lga chiqayotgan edi. Qatiba o'g'lining yuzidan o'parkan:

— Ehtiyot bo'l, seni jangga emas, balki jangga boshchilik qilish uchun yubormoqdaman, — dedi. — Sen o'limga ketayotganing yo'q, balki qo'shinga: "Vatan yo'lida jon fido qiling", deyish uchun ketyapsan. Sarkardalaringni o'rgan, qaysi biri nimani yaxshi ko'rsa, o'sha narsani va'da qil. Mayda ehsonlarni mayda odamlar, katta ehsonlarni katta odamlardan ayama. Aqlli odamlarni yoningda saqla. Ularni jangga kiritma, chunki aqlli odamlar, bu urushning ma'nosini anglaganlar biz uchun jon fido qilmaydilar. Sen qahramonsan, lekin akang Abubakir ham qahramon. Otang jasoratining katta bir hissasi unga nasib bo'lmishdir. Shuning uchun ham u bilan yuzma-yuz kela ko'rma. Bu urushning mohiyatini yashirmoq uchun arab va eronliklarning milliy hislarini jo'shga keltirishing kerak. Tabrizga kirishing bilan shahar a'yonlariga, shahar ruhoniylariga qo'lingdan kelganicha hadya va ehsonlar ber: chun-

ki ular uchun in'om-ehson har narsadan: vatandan ham, dindan ham qimmatlidir. Otang hamisha: "Tabrizni ehson va xil'at, Reyni aldov, Xurosonni va'dalar, Kurdistonni qilich, Ozarbayjonni tashqi ixtilof, fors mamlakatini esa din va mazhab nizolari yordamida o'zimga qaram qilganman", derdi. Shuning uchun ham, qaysi yurtga kirsang, otang tutgan yo'ldan yur. Xalqning asosiy bir xususiyati shuki, minglarcha kishilarni boshlab buyuk bir mamlakatni g'arot yetmak uchun kelganingni his etsa-da, o'n nafar kishiga ehson berganing uchun seni Hotami Toyi deb taniydi.

* * *

Tabriz bilan Qazvin o'rtasida muntazam aloqa o'rnatildi. Valiahd har kuni jabha (front)dagi vaziyatdan tanisha olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Valiahdning Faxriddindan olgan maktubi tasalli beradigan ohangda yozilgan bo'lsa-da, lekin unda dushman qo'shinining son jihatdan bir necha barobar ortiqligi ko'rsatilgandi. Bu jangda faqat arab va eronliklargina emas, Xorazmshohning qo'shinlari ham ishtirok etardi. Ozarbayjon otabekligini Sharq sahnasidan yo'qotib yuborish uchun buyuk bir ittifoq tuzilgan edi. Dushmanning hujumga o'tishi, Qazvin atrofini mustahkamlashi uning zo'r bir jangga hozirlik ko'rayotganidan darak berardi.

Qazvin bo'sag'asida bo'lajak bu jang Yaqin Sharq tarixida muhim bir hodisa edi. Shuni nazarda tutib, valiahd hodisaga yolg'iz oddiy bir jang deb emas, balki, sulola va hukumat taqdirini hal etuvchi masala deb boqardi.

Bir mahalda Qizil Arslon tomonidan surgun qilingan keksa vazir Shamsiddin Qizil Arslonning o'ldirilganligini va mamlakatga qarshi dushmanlar katta bir ittifoq tuzganini eshitib, Tabrizga kelgandi. Shamsiddin, Alouddin va Faxriddin ishtiroki bilan qurilgan kengashda Ozarbayjon qo'shini mudofaada turmay, hujumga o'tishi haqida qaror chiqarildi. Keksa vazir Faxriddinga shunday deb yozgandi:

"Jangda g'olib kelishning asosiy omillaridan biri ruhiy ko'tarinkilikdir. Ruhiy ko'tarinkilik esa doimo jangda tashabbuskor va hujumga o'tadigan tarafda bo'ladi. Shuning uchun ham sening qo'l ostingda bo'lgan qo'shin o'zini mudofaaga emas, balki hu-

jumga hozirlashi kerak, chunki Ozarbayjon qo'shinining hozirgi egallagan mavqeyi mudofaa uchun qulay emas.

Dushman qo'shinining hozirda Siyahdo'xun va Suna'on taraflarini qo'lga olishga urinishdan maqsadi Ozarbayjon qo'shinini Harrud va Abnarrud daryolari orasida siqishtirib mahv etishdan iborat. Shu sababdan nima qilib bo'lsa ham, Sharifobodni ishg'ol etib, dushman ortiga o'tish harakatini yengillashtirish lozim.

Dushman jabhaga olib kelgan qo'shinning soni qanchalik ortiq bo'lsa, u shunchalik tez mag'lubiyatga uchraydi: chunki Qazvindagi urush maydoni juda tor. Katta qo'shni bilan erkin harakat qilish uchun noqulay. Asosiy dasturilamalni valiahd hazratlarining o'zlari olib boradilar".

Shamsiddin bu maktubni Faxriddinga jo'natganidan keyin valiahdga nasihat qilib dedi:

— Hukmdor qo'shini ichida bo'lishi shart, chunki bu bilan qo'shinning ruhi ko'tariladi, qahramonligi ortadi. Ayni zamonda hukmdorning qilich yalang'ochlab jangga kirishi qo'shinning mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Eng kuchli qo'shin ham hukmdorni otdan qulaganini ko'rishi bilan ruhi tushib ketadi va ortiq jang qilishni istamaydi. Bu jang faqat sening boshing uchun olib borilyapti. Shuning uchun dushman birinchi navbatda seni nishonga olishni ko'zlaydi.

Talea valiahdning urushga ketishini bir necha kun avval eshitgan edi: hozir uni safariy kiyimda ko'rgach, kuyinib-kuyinib yig'ladi. Valiahd uni ovutmoq va ko'ngliga tasalli bermoq uchun sochlarini silarkan dedi:

— Nega yig'laysan! Saroyda qamalib o'tirib baxtimizni ta'min etolmayman, bu bebaho mamlakatni arzonga sotib yuborish biz uchun buyuk haqoratdir. Bizning baxtimiz eng yaqin kunlarda, zo'r g'alabadan keyin qo'lga kiradi: chunki barcha baxt-saodat nomus va sharaf bilan qo'lga kiritilsa poydor bo'ladi. Talea, bu jang men bilan opangning o'g'li o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Xalq urush maydonida men uchun jon fido qilib turgan bir mahalda men yuraksiz odamlar singari saroyning bir burchagida biqinib o'tirishim vijdonsizlik bo'ladi. Aytgin-chi, Talea, sen qo'rqoq, razil, vijdonsiz bir odamning basharasiga qanday boqa olasan.

Talea yig'isini to'xtatdi. U ko'z yoshlarini artar ekan dedi:

— Sen undaylardan emassan, men ham unaqangi odamni yomon ko'raman. Lekin sening hayotingni ham boshqalarga ishona olmayman.

— Ishon, Talea, men qaroqchilar orasida emas, balki o'z qardosh xalqim bilan birga ketyapman. Ular meni yaxshi ko'rishadi. Men ularning singillarining o'g'liman. Opang Qatiba ham ana shu masala yuzasidan kurash olib bormoqda: chunki mening onam bir qishloqi ayol bo'lgani uchun, meni valiahdlikka salohiyatsiz deb biladi. Lekin Ozarbayjon xalqi o'z jiyanining haqini himoya qilmoq uchun yigirma besh yoshdan boshlab ellik yoshgacha qo'liga qurol oldi. Ular meni jabhada kutmoqdalar. Talea, men yolg'iz ketmayman, onam ham Orondan kelibdi. U ham o'z aka-ukalari va qarindosh-urug'lari bilan birga jabhaga boradi.

Valiahd shunday deb turgan mahalda eshik ochilib, baland bo'yli qirq besh-ellik yoshlar orasida bo'lgan bir xotin ichkariga kirdi. Xotin aqlli ko'zlarini katta-katta ochib goh Abubakirga, goh Taleaga qaradi, valiahd sukutni buzib:

— Talea, bu mening onam, — dedi. — Kel, qo'lini o'p, onam bizning baxtli bo'lishimizga qarshi emas. Onam seni ham, meni ham chin qalbidan sevadi. Bu ham qahramon ayol, mehribon onadir.

Ayol ular yoniga kelib bir qo'li bilan Taleaning, ikkinchi qo'li bilan Abubakirning qo'lidan tutib:

— Amin bo'lingizki, jangda haqli tomon g'alaba qozonadi. Men o'zim malika bo'lishni orzu qilgan va o'g'limning podshohlik taxtiga o'tirishini istagan emasdim. Lekin Ozarbayjon o'z farzandining haqini himoya qildi va bundan keyin ham himoya qilajak. Shuning uchun ham men Otabek Muhammad o'ldirilganidan keyin o'g'limni o'zim bilan birga olib Ozarbayjonga qaytdim. Malikalik va toj-u taxtga vorislik janjallariga aralashmadim. Lekin Otabek Muhammad va Qizil Arslon o'ldirilganidan so'ng dushman mening o'g'limni ham mahv etishga urinmoqda. Hozir men o'z qarindosh-urug'larim va elim bilan birga jabhaga ketyapman.

Men yolg'iz o'g'limni emas, Ozarbayjonning mustaqilligini ham himoya qilaman. Sening o'g'limga bo'lgan sadoqating va mu-

habbatingga ishonaman. Sen buni amalda isbot qilding. Men opangni qanchalik yomon ko'rsam, seni shunchalik yaxshi ko'raman. Ozarbayjonliklarning do'stparvarligini shu kungi hodisalar isbot etadi. Shirvon chegarasidan boshlab Qazvin bo'sag'alarigacha yo'llar jabhaga kerak yarog' tashiyotgan karvonga to'la.

Xotin shu so'zlarni aytgandan keyin qimmatbaho bir uzuk olib Taleaning barmog'iga taqib turib dedi:

— Bu uzukni sening barmog'ingga ozarbayjon qizi Go'zal taqyapti. Bu sening nikoh uzuging. To'yni esa, g'alabadan keyin qilamiz.

Xotin shu gapni aytib chiqib ketganidan keyin Talea ortdan boqib sevinchidan yig'lab yubordi-da:

— Haqiqatan ham go'zal. Bu nom yolg'iz sening onanggagina munosib, — dedi. Shunda valiahd uning lablaridan o'pib:

— Sen ham go'zalsan, jonim! Ko'rishgunimizcha omon bo'l, — deb vidolashib ketdi.

Talea esa xonaning o'rtasida turib xayolga cho'mdi va o'z-o'ziga dedi:

— Bu jang aka-ukaning orasidagi, ayni zamonda ikki egachi-singilning orasidagi jangdir. Qani ko'raylik-chi, baxt kimga kulib boqarkin?

* * *

Valiahd tomonidan chaqirilgan harbiy kengash kechasi soat ikkida tugadi. Soat uchda Faxriddin shamsiddinlik otliqlariga amr berdi.

— Bugun kechasi tongdan burun shamsiddinlik otliqlar Sharifobodni ishg'ol etishi kerak. Qorabog' otliqlari esa, Qazvindan uch farsang berida bo'lgan Makul chashmasi atrofini egallashi lozim.

Kunduzi soat o'n ikkida Sharifobod bo'sag'asida qonli janglar bo'lgani va natijada shamsiddinlik otliq qism Sharifobodni ishg'ol etgani to'g'risida xabar keldi. Makul chashmasi atrofini egallash uchun hujumga o'tgan Qorabog' otliqlari dushmanning katta bir qismiga duch kelib qolgani ma'lum bo'lgach, Shamkir otliqlari ularga yordamga yuborildi. Nihoyat, qosh qoraya boshlagan mahalda

Makul chashmasi atrofiga joylashgan iroqliklar qurol-yarog‘ va oziq-ovqatlarini tashlab qochishga majbur bo‘ldilar.

Ikkinchi kun Bag‘dod qo‘shinlari katta-katta qismlarga bo‘linib Sunagondan yo‘lga chiqib, Sharifobodga hujum qildilar. Uch kun davom etgan bu jang Bag‘dod qo‘shinining mag‘lubiyati bilan tugadi. Makul chashmasi atrofini qaytarib olmoqqa uringan iroqliklar esa, to‘rt kunlik jangda kuchlarining muhim bir qismini yo‘qotib, orqaga chekinmakka majbur bo‘ldilar.

Ikki kun jang bo‘lmadi. Faxriddin qo‘lga tushirgan ma’lumotga ko‘ra dushman mudofaaga o‘tish uchun Qazvin atrofida istehkomlar qurishga kirishgan edi. Dushman istehkomlarini buzish uchun keltirilgan besh yuz manjaniqni Sharifobod atrofiga o‘rnatila boshladi. Uchinchi kuni tong oqarishi bilan o‘n botmonlik[1] toshlarni otadigan manjaniqlar Siyahduh, Shol va Sunagonni toshbo‘ron qilishga kirishdi. Bir kecha-yu bir kunduz davom etgan manjaniq jangi natijasida dushman istehkomlari tosh uyib qo‘yilgan tepaliklarga aylandi, minglarcha askarlar toshlar ostida majaqlandi.

Qutlug‘ Inonj vaziyatning og‘irlashganini ko‘rgach, otga minib Iroq otliqlariga hujumga o‘tishni buyurdi. Quyosh Sakzobod tepalari ortidan ko‘tarilgan mahalda o‘n minglarcha qilichlar qinlardan sug‘urildi. Po‘lat sovut kiygan ikki qo‘shin sur’at bilan bir-biri ustiga otildi. Manjaniqlar ovozi tindi. Faxriddinning: “Qorabog‘liqlar, olg‘a!” “Shamsiddinliklar, o‘ngga!”, “Ganjaliklar so‘lga!”, “Qoratog‘liklar, o‘rtaga!” deb hayqirganidan bo‘lak tovush eshitilmasdi. Faxriddin dushman qo‘shini ustiga ot soldirdi.

Qilichlar qalqonlarning qubbalariga tekkan mahalda minglarcha kishilarning boshlaridan uchqunlar sachray boshladi. Otlar insonlar murdasi ustidan sakrab o‘tardi. Egarlari qonga bo‘yalgan minglarcha otlar egasiz qolib urush maydonidan dalalarga qochardi. Qilichlarning sharaq-shuruqi, otlarning kishnashi, pahlavonlarning hayqiriqlaridan boshqa ovoz eshitilmasdi. Yerlar murdalar bilan to‘lib ketgandi. Ot o‘ynatishga imkon qolmagandi.

Choshgoh mahalida Qutlug‘ Inonj otini yo‘rtib oldinga chiqdi. U Faxriddinning ro‘parasiga kelib, uni chaqirdi:

[1] **Botmon** — yetti yarim qadoqdan iborat og‘irlik birligi.

— To‘xta, Faxriddin! Sen bilan jang qilmoqchi emasman, chunki yolg‘iz seni o‘ldirish bilan bu jang tugamaydi. Bu ikki aka-uka o‘rtasidagi jangdir. Ulardan biri halok bo‘lmay turib, bu urush tugamaydi.

Har ikki tomon jangni to‘xtatib Qutlug‘ Inonjning gapiga quloq soldi. Otlarning hansirashidan bo‘lak ovoz eshitilmasdi.

Qutlug‘ Inonj so‘zini davom ettirib dedi:

— Abubakir o‘zini himoya qilmoq uchun minglarcha kishilarni qurbon qilmasin. Uning o‘zi men bilan maydondorlik qilishga chiqsin. Ikkalamiz qilichbozliq qilaylik. Sharqning barcha pahlavonlari, sarkardalari, qahramonlari va azamatlari shu yerda. Ana shular bizning o‘rtamizda hakam bo‘lsinlar. Jahon Pahlavon Muhammadning pahlavonligi kimga nasib bo‘lgan bo‘lsa, mamlakat ham uning ixtiyoriga o‘tsin.

Qutlug‘ Inonj gapirayotganida oti o‘ynoqilardi. Har ikki tarafda turib uni tomosha qilayotganlar bir og‘izdan: “Otabek Muhammad qaytadan dunyoga kelibdi!” — der va Qutlug‘ Inonjning sumbatiga suqlanib boqardilar.

Faxriddin otini ilgari surib dedi:

— Bu urushning kim tomonidan va nima uchun boshlanganligini butun xalq biladi. Bu urushga o‘limlar, qon va bo‘htondan lazzat oladigan bir xotinning ro‘yobga chiqmaydigan orzulari sabab bo‘ldi. Bu ixtilofni Ozarbayjon xalqining qilichlari bartaraf qiladi.

Qutlug‘ Inonj otining jilovini tortib to‘xtadi va beparvolik bilan Faxriddinga nasihatomuz dedi:

— Faxriddin! Sening buyuk pahlavon ekaningni bilaman. Lekin umrimda birinchi marta sen bilan yuzma-yuz kelganim. Sendan bir jangchi sifatida iltimos qilaman, onamning nomini tilingga olma. Basharti, men ham sening onang nomini tilimga olsam, urush cho‘zilib ketadi. Bizning oilaga ashaddiy dushman ekaningni bilaman. Buning jazosini keyinroq beraman. Hozir orqangga qayt. Senlarni bu urush maydoniga yuborganni mening oldimga yubor. Butun Ozarbayjon xalqidan iltimos qilaman. Aka-uka orasida bo‘ladigan jangga begonalar aralashmasin.

Qutlug‘ Inonjning bu so‘zlarini yolg‘iz o‘z qo‘shinigina emas, balki Ozarbayjon qo‘shini ham quvvatlab: “To‘g‘ri! To‘g‘ri!” der-

di. Lekin valiahdning yonida bo'lgan kishilar uning Qutlug' Inonj bilan jang qilgani chiqishiga qarshi chiqdilar. Ular valiahdning Qutlug' Inonj da'vatini qabul etishini man qildilar.

Valiahdning onasi Go'zal chodir pardasini ko'tarib ichkari kirdi-da, valiahddan achchiqlanib dedi:

— Nimani kutyapsan? Qutlug' Inonj seni jangga chaqiryapti. Nima uchun javob bermayapsan? Qo'rqoq va ojiz o'g'ilni men o'zim o'ldiraman. Tur, otlan! Hamma seni kutyapti. Bor, jang maydoniga chiq, Otabek Muhammadning qahramonligini arab qizining o'g'li emas, balki Ozarbayjon qishloqi qizining o'g'li meros qilib olganini butun Sharq olami bilib qo'ysin. Qutlug' Inonj maydonda ot o'ynatmoqda. Sen ham o'zingni ko'rsatishing lozim. Seni yaxshi bilaman, shuning uchun ham senga buyuraman, uni o'ldirma, chunki men ukasining qotili bo'lgan farzandni yomon ko'raman.

Valiahd onasining so'zidan xursand bo'ldi, chodirdagilarga yuzlanib:

— Xizmatchilardan bo'lak hamma tashqariga chiqib tursin,— dedi.

Chodir bo'shadi. Pahlavon kiyinishga boshladi. U yarim soatlardan keyin temir sovut kiyib chodirdan chiqdi. Chodir oldida hozirlab turilgan otlar orasidan Faxriddin tuhfa qilgan bir arabiy otni tanladi.

Valiahd chodiridan boshlab to urush maydonigacha bo'lgan yo'lning har ikki tarafida faqat Qorabog' va Ganja otliqlari saf tortib turardilar. Valiahd otga minish bilan yuzlarcha nog'ora va karnaylar chalindi. Bu ovozni har ikki qo'shinda eshitganlar valiahdni jang maydoniga kelayotganidan xabar topib mamnun bo'ldilar. Har bir otliq oldinga o'tib uni ko'rishga oshiqardi.

Qutlug' Inonj bilan valiahdning o'zi ham bir-birlarini ko'rmoqqa oshiqardilar. Ular ham ikki dushman, hamda bir otaning farzandi sifatida bir-birlarini ko'rishga qiziqardilar, chunki ularning har ikkalasi ham bir-birlarining qahramon ekanlarini eshitgandilar. Shoirlar ularning dovyurak, azamatliklari haqida dostonlar yozgan edilar, shu vajdan ular bir-birlaridan maroqlanmay qololmasdilar. Askarlar yakkama-yakka jangni kutib bir-birlari bilan gapla-

shishar, iroqliklar bilan eroniylar Qutlug‘ Inonjni, ozarbayjonliklar Abubakirni ko‘klarga ko‘tarishardi.

— Qutlug‘ Inonj sher ovlashni yaxshi ko‘radi.

— Valiahd qo‘lini yotgan tuyaning beliga qo‘ysa, tuya o‘rnidan turolmay qoladi.

— Qutlug‘ Inonj qilich bilan bir urib filning bo‘ynini sapchaday uzib tashlagan.

— Valiahd chaqir toshni kaftida ezib kukun qilib yuboradi.

— Qumush tangani barmog‘i bilan ishqasa tanga siyqa bo‘lib qoladi.

— Qo‘llari temir zanjirni pora-pora qiladigan darajada baquvvat.

Valiahd jang maydoniga yetib borgunicha shu xildagi gaplar davom etdi. Valiahd jang maydoniga kirgach, uni kuzatib borayotgan ikki yuz nafar Ganja otliqlari orqalariga qaytdilar. Shu mahal jang maydoni yangi bir manzara kasb etdi. Bir vaqtlar Otabek Muhammadni ko‘rganlar jang maydonida ikki nafar Otabek Muhammadni yuzma-yuz turganini ko‘rib hayron qoldilar.

Qutlug‘ Inonj bilan valiahd orasidagi masofa yigirma qadamdan ziyod emasdi. Ikki aka-uka uzoq vaqt turib bir-birlariga qarab qoldilar, chunki umrilarida ko‘rishmagan edilar. Shubhasizki, ularning bir-birlariga boqib o‘ylab qolishlarining sababi o‘zlarining birinchi martaba jang maydonida uchrashganlari edi.

Sharq tarixida aka-ukalar bir-birini o‘ldirishi, ko‘zlariga mil tortib ko‘r qilishi u qadar hayron qolarli hodisa emasdi. Lekin aka-ukaning maydonda yuzma-yuz turib jang qilishi birinchi hodisa edi. Hukmron bo‘lish havasi bilan qon-qardoshlik muhabbati yuzma-yuz turib jang qilishi kerak edi. Shuning uchun har ikkala qahramon ham yig‘lardi. Bunday tahlikali fursatda ko‘rishuv ularning har ikkalasi uchun ham juda og‘ir edi. Lekin ularning bir-birovlari bilan kelishuvlari mumkin emasdi, har mahal bo‘lgani kabi bunda ham hukmron bo‘lishi havasi aka-ukalik muhabbatidan g‘olib keldi.

Ikki birodar bir-biriga boqayotgan mahalda ikki ona ham o‘g‘illariga ko‘z tikkan edilar. Bir tarafda Go‘zal, ikkinchi tarafda Qatiba baland tepa ustida turib ko‘zlarini jang maydonidan uzolmas-

dilar. Birdaniga jang maydonini chang-to'zon qoplab oldi. Har ikki pahlavon o'rnidan qo'zg'algan edi. Qutlug' Inonj otiga qamchi berib, bamisoli yashinday jang maydonini aylandi va kamandini halqalab akasi ustiga tashladi.

Shunda iroqliklar va eroniylar "Ofarin! Tahsin! Marhabo!" deb qichqirib yubordilar. Chunki iroqliklar Qutlug'ning kamandidan xalos bo'la oladigan birorta bosh yo'qligini bilardilar. Kamandning halqasi havoda ilondek to'lg'onib valiahdning bo'yniga tushay deganida valiahd kamand halqasini havoda tutdi-da, otini qamchiladi. Qutlug' Inonj egardan qulab tushmaslik uchun kamandni qo'yib yubordi. Valiahd jadallik bilan kamandni yig'ishtirib egarning qoshiga osdi.

Qutlug' Inonj achchig'landi va qilichni sug'urib valiahdning ustiga otildi. Qutlug' Inonjning oti yaqinlashguncha valiahd xurjundan temir g'isht olib, u bilan Qutlug' Inonjning elday uchib kelayotgan otining peshonasiga tushirdi. Qutlug' Inonj ot bilan birga yerga yiqildi. U o'rnidan turib, o'zini o'nglab olguncha valiahdning kamandi uning qo'llarini badaniga qapishtirib qo'ydi.

Valiahd otini qamchilab Qutlug'ni Ozarbayjon qo'shini tomon sudrab ketayotganda iroqliklar Qutlug'ni xalos etmoq uchun yopirilib hujumga o'tdilar. Bu hujumga Faxriddin Oron otliqlari bilan javob berdi. Qonli jang kechasi allamahalgacha davom etdi.

Yarim kechada Ozarbayjon buyuk bir g'alaba bilan Qazvin shahrini ishg'ol etdi. Iroq va Bag'dod qo'shini barcha qarorgohlari oziq-ovqatlari, qurol-aslahalari va ot-ulovlarini tashlab tartibsiz ravishda qochib ketdilar.

YANGI VOQEALAR

Sharqning g'olib va hormas-tolmas hukmdori, Misr sultoni Salohiddin Ayyubiyning o'lim xabari Sharqda katta o'zgarishlar vujudga keltirgan edi. Chegaralar va xaritalar tez-tez o'z shakllarini o'zgartirardi, xalifa bayrog'i ostida hukmronlik qilayotgan talaygina amirlar o'zlarini mustaqil deb e'lon etdilar.

Mo'sul otabegi Mas'ud Misr sultonining o'limidan foydalanib, bir tomondan Suriyaga, ikkinchi tomondan esa Iroq va Eron tomon-

larga qo'shin yubora boshladi va mamlakatini To'g'rulning mamlakati hisobiga kengaytirmoqqa qaror qildi.

Sulton Mas'ud daf'atan Harron shahrida vafot etganidan keyin, o'rniga o'tirgan o'g'li Arslon Suriyaga yurishdan voz kechib, Iroq va Ozarbayjonni mo'ljalga oldi.

To'g'rulning tasarrufida bo'lgan mamlakatlarni taqsimlab olish, xususan, Ozarbayjon mamlakatini Arslonshohga tobe qilmoq uchun xalifa bilan Arslonshohning tadbirli vaziri Mujohididdin o'rtasida bir shartnoma tuzildi. Bu shartnomaga ko'ra, Arslonshoh Salohiddin Ayyubiyning o'rnini egallagan Malik Odil bilan sulh tuzishi va Arslonshoh Suriya tarafiga yuborgan qo'shinini qaytarib Hamadon va Ozarbayjon ustiga yuborishi kerak edi.

Bu shartnoma zo'r muvaffahiyat bilan amalga oshirildi. Arslonshoh qizini Malik Odilning o'g'liga berish bilan oralaridagi chegara janjalini batamom hal qildi.

Shaxsan xalifaning o'zi Suriya bilan Mo'sul o'rtasidagi ixtiloflarni hal qilishda jiddiy ishtirok etdi, chunki u Bag'dodga juda ham yaqin yerda boshlangan bu ixitloflarni o'zi uchun eng qo'rqinchli bir hodisa deb hisoblardi. To'g'rulning mamlakati chegarasida boshlangan bu mojaro Faxriddinni bezovta qila boshladi. Hamadon yana ajnabiy josuslar uyasiga aylangan edi. To'g'rul hali poytaxtga qaytmagandi. U o'zining qaytadan poytaxtga kiritilishiga ishonmasdi, chunki ozarbayjonliklar hukumatni o'zgartirish hamda valiahdni hukmron deb e'lon etishga tayyorgarlik ko'rardilar. Shu vaziyatni nazarga olib, Faxriddin Nizomiyga yuborgan maktubida quyidagilarni yozdi:

"Muhtaram do'stim! Biz ozarbayjonliklar qo'lga kiritgan so'nggi g'alaba natijasida Bag'dod va Rey masalasini hal bo'lgan deb hisoblay olmaymiz.

Xalifa bilan Arslonshoh orasida tuzilgan shartnomaning nusxasini qo'lga tushirganim uchun uni xat bilan qo'shib sizga yuboraman.

Xalifa hozirda To'g'rulni bir siyosiy arbob sifatida davlatni boshqarishga qobil emasligini payqagani sababli Arslonshohni iqtidorli bir hukmdor sifatida siyosat sahnasiga chiqarishga urinmoqda. Xalifa Hamadondan boshlab Shirvon, Armaniston va Gur-

jiston chegaralariga va u yerdan Iroq va Kirmonga qadar cho'zilgan buyuk bir mamlakatni Arslonshohning mamlakatiga tobe etishga jazm qilgan. Shularni nazarga olib, men Ozarbayjonda hukumatni o'zgartirishni bemavrid deb hisoblayman. Biz buni sal keyinga surishimiz lozim, chunki To'g'rulning biz tomonimizdan hukumat boshidan quvilganini ro'kach qilib bundan foydalanadiganlar haddan ziyod ko'pdir. Hozirda poytaxtning podshohsiz qolgani xalifaga bahona bo'lyapti. U Hamadonga yuborgan vakili orqali bizga "poytaxtning podshohsiz qolishi bizni tashvishga solmay qololmaydi", deydi. Shunga ko'ra men hozircha To'g'rulni poytaxtga keltirilishini maslahat ko'raman.

Lekin Shamsiddin poytaxtni Hamadondan Tabrizga ko'chirilishini maslahat ko'radi. Menimcha, bu fikr juda zararli fikrdir. Menimcha, Hamadonni qo'ldan bermoq janubiy Ozarbayjondan mahrum bo'lmoq demakdir.

Araks daryosining o'rtada to'siq bo'lishiga qaramay, Tabriz shahrini Janubiy Ozarbayjon hisoblash mumkin emas, chunki Tabriz tom ma'nosi bilan Shimoliy Ozarbayjondir. Shunday ekan, biz Hamadon shahrini Janubiy Ozarbayjonning poytaxti sifatida mudofaa qilishimiz zarur. Poytaxtni Hamadondan Tabrizga ko'chirmoq Hamadonni xalifaga bag'ishlanganday gap.

Ayyubiylarning Arslonshoh bilan sulh tuzishi Mo'sul otabeklarining mavqelarini mustahkamladi. Ular yaqin orada otlarini Mashanrud[1] daryosida sug'armoqchi bo'ladilar.

Mo'sul otabeklari Kurdiston va Janubiy Ozarbayjonga kirmoq uchun hamma narsani muhayyo qilib qo'yganlar. Ular Kurdistonda jiddiy ish olib bormoqdalar. Muhtaram shoir masalani valiahdga tushuntirib berishi kerak. To'g'rulning vaqtincha taxtga o'tqazilishi valiahdni toj-u taxtidan mahrum qilish demak emas. Hozirda mamlakatda yurgan mish-mish gaplarga barham bermoq uchun To'g'rulni poytaxtga olib kelishdan boshqa chora yo'qdir.

Bag'dod bizga tarafdor bo'lsa ham, uning nufuz va himoyasi bizni bu tahlikadan qutqara olmaydi. Xalifaning o'zi ham davlatlarni bir-biriga qarshi oyoqlantirish bilan jon saqlamoqda. Hozirda xalifaning taqdiri davlatlar o'rtasida bamisoli tijorat

[1] Hamadondagi mashhur soy.

moli singari qo'ldan qo'lga o'tmoqda. Biz avval yaxshilab o'ylab, keyin mamlakatdagi vaziyatni o'zgartirmasak, kelajakda duchor bo'ladigan falokatlarning oldini olish juda qiyin bo'lib qoladi.

Hamma narsadan avval Rey masalasini anjomiga yetkazishimiz kerak, chunki Ozarbayjonga qarshi uyushtirilgan suiqasdning markazi Rey mamlakatidadir. Shuning uchun ham To'g'rulni poytaxtga keltirgandan keyin, Qatibani Hamadonga chaqirishga uni majbur etmog'imiz lozim. Qatiba Hamadonga kelganidan so'ng esa, Rey masalasini hal etmoq uchun To'g'rulning Qatibaga uylanishiga va Qutlug' Inonjga amirul-umaro unvoni berilishiga monelik qilmasligimiz zarur, chunki hozirgi vaziyat shuni talab qiladi".

Nizomiy Faxriddinning maktubini olganidan bir kun keyin chopar orqali yuborgan javob maktubida shunday deb yozdi:

"Maktubingizni oldim. Shamsiddinning fikriga qo'shilmayman. Poytaxtni Tabrizga ko'chirmoqning luzumi yo'q, chunki dushmanlarning ham istagi shu. To'g'rulni taxtga o'tqazish bilan izdan chiqqan siyosiy vaziyatni tuzatib bo'lmaydi, chunki hozirgi to'sto'polonga sabab bo'layotgan eng asosiy sabab To'g'rulning ish boshida turganidir.

Menimcha, To'g'rulning Qatibaga uylanishiga umid bog'langandan ko'ra qurolli kuchga ishonsangiz yanada yaxshiroq bo'lardi. Siz To'g'rulni majbur etmasangiz-da, uning o'zi Qatibani poytaxtga chaqirajak, chunki To'g'rul bilan Zahir Balxiy bo'lgan bir shaharda Qatiba singari bir fitnachi ayolning bo'lmasligi mumkin emas. Sening fikringga ham, Shamsiddinning fikriga ham qo'shilmayman. Mamlakatni To'g'rul kabi bir ahmoqqa va Qatiba kabi bir jinoyatchiga ishonib topshirmoq yaramaydi. Xalqni birlashtiring. Mamlakatni qurol kuchi va tadbir bilan mudofaa qiling. Ozarbayjonliklarni Hamadondan chiqib ketishi ham o'rinsizdir. Chiqib ketmaslikning sira iloji bo'lmay qolgan taqdirda vaziyatga qarab ish ko'ra bilasiz".

* * *

To'g'rul poytaxtga qaytgandan keyin Zahir Balxiy ham Bag'doddan Hamadonga qaytib keldi. To'g'rulning eng yaqin kishilari Bistunda istiqboliga chiqib poytaxtga olib kirdilar.

Zahir Balxiy bu gal ham avvalgi safari singari Qatiba bilan To'g'rulni kelishtirish masalasini qo'ydi.

— Modomiki, ozarbayjonliklar Abubakirni hukmron bo'lishini talab qilar ekanlar, u holda siz o'z o'g'lingiz Malikshohni valiahdlikka tayinlash umididan voz kechishingiz kerak bo'ladi! Qatibaga uylaning! Uning o'g'li Qutlug' Inonjni valiahd deb e'lon qiling. Shu aytganimning aksini qilsangiz mamlakatni batamom qo'ldan boy bergan bo'lasiz. Dajla daryosi sohillarida Ozarbayjon va Iroq hukumatiga qarshi katta kuch hozirlanmoqda.

To'g'rul o'g'li Malikshohning valiahdlikdan mahrum bo'lishiga rozi bo'la olmasdi. Biroq vaziyat uni shunday qilishga majbur etardi, chunki Rey mamlakatining jug'rofiy mavqeyi va uning Ozarbayjondan Hamadonga boriladigan yo'lni hamisha xavf ostida tutib turishi To'g'rulni o'ylatib qo'ydi. Shuning uchun To'g'rul Zahir Balxiyning maslahatiga kirib, Qatibaga yuborgan do'stona maktubida quyidagilarni yozgan edi:

"Samimiy va oliymaqom malika!

Hayot yangidan yangi voqealarni vujudga keltirmoqda. Insonlar sokin, tinch hayotni faqat tushlaridagina ko'radigan bo'lib qoldilar. Go'yo insonlar bir-birlarini bo'g'moq va bir-birlarini qirg'in qilmoq, talamoq va g'arot etmoq uchun tug'ilganga o'xshaydilar. Fuqaromiz Xudoni tanimagani singari, podshohni ham tanishni istamaydi. Menimcha, shuncha urushlar, qon to'kishlar va sarson-sargardonliklar falakning bir g'azabi natijasidir. Lekin xudovandi olam bizni mag'lubiyatdan keyin g'olib etdi. Ozarbayjonliklar poytaxtni tashlab ketdilar. Ular dehqondirlar. Dala ishlari bilan shug'ullanishlari kerak. Valiahdning hukmdorlik masalasini ham aro yo'lda qoldirib ketdilar. Muqaddas navro'z bayrami yaqinlashmoqda. Akbatan oq chechaklardan to'kilgan nafis gulchambarlarini Ozarbayjon malikasining xushbaxt bo'yniga taqmoqqa muntazirdir. Hodisalarning og'irligi ostida ezilgan yuragimga yolg'iz buyuk malikaning navro'z dasturxoniga ishtirok etishigina orom berishi mumkin. Malikaning qonuniy talablarini amalga oshirish uchun hozirgi sharoit nihoyatda qulaydir.

Go'zal Qatibaning shohona bayramini navro'z bayrami bilan birga e'lon etmak fikridaman.

Malikaning huzuriga yuborilgan kishilarga keng vakolat berilgan. Shahzoda Qutlug' Inonjning valiahd deb e'lon qilish to'g'risidagi farmonni malika bilan birgalikda imzolashimiz lozim. To'g'rul".

Qatiba To'g'rulning maktubini ochib o'qimasdanoq uning mazmunini bilardi, chunki Zahir Balxiy xususiy choparlar vositasida masalani Qatibaga To'g'ruldan ko'ra ertaroq ma'lum qilib qo'ygan edi. Mamlakatning kelajakdagi chegaralari ham Qatiba bilan Zahir Balxiy o'rtasida belgilanib qo'yilgandi. Sulton Alouddin Tekesh bilan Qatiba orasida tuzilgan bitimga ko'ra, Pey mamlakati tamomila sulton Tekeshning ixtiyoriga o'tajak, uning evaziga esa, sulton Tekesh Qutlug' Inonjning To'g'rul toj-u taxtining vorisi bo'lishi haqidagi qarorni tasdiqlashi kerak edi.

Qatiba Hamadonga ko'chishga ulgurmay turib Qatiba bilan Zahir Balxiy orasida boshlangan muzokaraning mazmuni mamlakatning hamma yog'iga yoyildi.

Bu xabarlar valiahdni hammadan ko'proq bezovta qilardi. Qatibaning malika deb e'lon qilinishi bilan Qutlug' Inonjning valiahd qilib tasdiqlanishi Abubakirni qutulib bo'lmaydigan mushkul vaziyatga solib qo'ygandi. Shu sababdan bo'lsa kerak, hali bahor kirmay turib valiahd yosh Taleani olib, onasi Go'zal bilan birga Ozarbayjonga ko'chdi.

Bahor bayramiga o'n besh kun qolganda To'g'rul butun viloyatlarga da'vatnomalar yozib, Tabrizga vakillar yuborishlarini buyurgan edi. To'g'rul mamlakat vakillari bilan birgalikda Qatibani malika deb e'lon qilmoqchi, ayni zamonda Qutlug' Inonjning valiahdlikka tayinlanishi to'g'risidagi farmonini tasdiqlatib olmoqchi edi.

Qatiba va To'g'rul o'z do'stlari bilan birga Tabrizda edilar. Buyuk bayramga tayyorgarlik ko'rish boshlandi. Valiahdning saroyini bezatib, viloyatlardan kelgan vakillar o'zlari uchun hozirlangan binolarga joylashtirildi.

Shimoliy Ozarbayjonning vakillari hali kelishmagan edi. Bu hol To'g'ruldan ko'ra ko'proq Qatibani tashvishlantirdi. Shu sababdan Qatiba Shimoliy Ozarbayjonga shoshilinch ravishda choparlar yuborib, qanday qilib bo'lmasin ularni olib kelishni talab etdi.

Faxriddin Shimoliy Ozarbayjondan vakillar yuborishga tarafdor emasdi. Lekin Ganjada chaqirilgan kengash bu fikrni tasdiqlamadi, chunki Tabriz bilan aloqani uzish Janubiy Ozarbayjon bilan Shimoliy Ozarbayjonning bir-biridan butunlay ajralib qolishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Lekin Rey va Hamadondan Tabrizga ba'zi qo'shin dastalarining keltirilishi shimoliy ozarbayjonliklarning juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilishini talab etardi. Shuning uchun ham kengash Tabrizga yo'lga chiqqan vakillarni kichik otliq dastalar kuzatib borishi lozim, degan qaror qabul qildi.

To'g'rul Ganjaga yuborgan xususiy maktubida Nizomiy bilan Faxriddinning Tabrizga vakil sifatida kelishnni so'ragan edi. Orada mavjud bo'lgan shubhalarni tarqatmoq lozim bo'lgani uchun na Nizomiy va na Faxriddin Tabrizga borishdan bo'yin tovlay olmasdilar. Ular bir dasta qo'shin bilan Tabrizga yo'lga chiqdilar.

Nizomiy bilan Faxriddinning Tabrizga vakil sifatida kelayotgani to'g'risidagi xabar Janubiy Ozarbayjonda buyuk tantanaga sabab bo'ldi. Bozor yopildi, shahar xalqi kattadan kichikka qadar Ozarbayjon qahramonini va ulug' shoirni qarshi olmoq uchun Aji soy bo'yiga chiqdilar. Nizomiy va Faxriddinga ko'rsatilgan bu samimiy hurmat Qatibaning g'ashiga tegsa-da, u o'zini tutib, Ozarbayjon vakillarini yaxshilab mehmon qilish uchun har narsani muhayyo qildirdi.

Tabriz xalqining ziyoli va a'yonidan tortib to yo'qsullariga qadar shoir o'tirgan taxtiravonni qurshab borardi. Taxtiravonning oldida va orqasida Ozarbayjon qo'shini Faxriddin bilan Nizomiyni kuzatib borardi. Shoirning taxtiravonini ko'tarib borayotganlar uning buyrug'iga amal qilib, eng avval Surxob mahallasidagi shoirlar qabristoniga yo'naldilar. Xalq va qo'shin dastalari ham bu buyruqqa bo'ysunib dastavval buyuk ozarbayjon shoiri Hoqoniyning maqbarasiga bordilar. Ozarbayjon qo'shini dastalari qabriston atrofiga tizilishi bilanoq bayroqlarni engashtirib shoir qabriga ta'zim etdi, shunda Tabriz xalqi Surxob mahallasidagi qabristonda unutilib ketgan bir maqbarada qanday buyuk zot yotganini angladi.

Nizomiy maqbara toshi ustiga kaftini qo'yib: "Afzaliddin, meni eshityapsanmi?" deb Hoqoniyni chaqirdi, ko'zidan bir qatra yosh

dumalab qabr toshi ortiga yoqib qo'yilgan sandalga[1] tomdi. Shoirning ko'z yoshi olovning ustiga tomgan zahoti hasratli bir yurakdan chiqqan bir oh yanglig' sado chiqdi, go'yo bu bilan g'arib mozorda yotgan shoir samimiy do'stini salomlab yig'lagandek bo'ldi. Shundan so'ng Nizomiy ko'zlari yoshli holda turib Hoqoniyning o'limiga bag'ishlagan uzun bir qasidasini o'qidi.

Nizomiy Hoqoniyning maqbarasidan chiqib, shu yerga dafn etilgan olimlar, faylasuflar va shoirlarning qabrlarini ham ziyorat qildi, keyin turkum-turkum odamlar qurshovida vakillar uchun hozirlangan binoga jo'nadi.

* * *

Oqshom chog'i. Qatiba mamlakatning ahvoli haqida ma'lumot olish uchun Husomiddinni o'z huzuriga chaqirgan edi. Husomiddin yarim soatdan beri qasr yo'lagida turib kirishga ijozat kutardi, Qatibaga navro'z bayramida kiyintirish uchun chaqirilgan xotinlar hali ishlarini bitirmagan edilar.

Xotinlar chiqib ketganidan so'ng Husomiddin ham ijozat olib Qatibaning xonasiga kirdi. U kirganida Qatiba yangi liboslar kiyib yasanib-tusangan holda ko'zgu oldida turardi.

Qatiba malikalik tojini kiygandi, toj ustidagi jilg'aga o'rnatilgan parranda tuxumiday olmos qirq shamli qandillarning shu'lalarida porlarkan, Husomiddinning xayoliga yana bir daf'a bu fitnachi xotinning yoshlik davrlari keldi. Qatiba ham unga yaqinlashib:

— Beriroq kel, do'stim! — dedi. — Ikkalamiz ham charchadik. Iqbol har ikkalamizni ham jazoladi. Lekin bizlarning sabot-matonatimiz barcha qiyinchiliklarni bartaraf qila oldi. Hozir biz g'olibiyat arafasidamiz. Men o'z ahdimda mustahkam turaman. Tez kun, yaqin soatlarda ahdimga vafo qilaman. Sen ham ahdingda sobit qolish uchun bu dudoqlarim uchun ont ich!..

Shu so'zlarni aytgach, Qatiba quchoq yozib Husomiddinni bag'riga bosdi va lablarini unga tutdi. Husomiddin odati bo'yicha yana Qatibaning eng so'nggi so'zlarini eshitmoqchi bo'lardi. Qatiba esa lablarini Husomiddinning lablaridan olib:

[1] Xushbo'y daraxt.

— Mening sevikli sarkardam, qolgani ertaga oqshomga! — dedi.

Qatibaning bu so‘zi Husomiddinning asabini qitiqladi, uning qulog‘i doimo Qatibadan: "Jonim qolgani keyin" degan so‘zlarni eshitardi.

Qatiba hamisha visol soatini noaniq fursatga qoldirishni sevardi, hozir: "Mening sevimli sarkardam, qolgani ertaga oqshomga!" degani Husomiddinning qalbiga tasalli berdi. Ayni zamonda Husomiddin bu yaqin va’daning tagida bir xiyonat yashiringanini sezardi. Husomiddin bu so‘z bilan Qatiba barcha xiyonatlarga yakun yasamoqchi ekanini anglardi.

Nihoyat, Qatiba uning qo‘llarini qo‘yib yuborib:

— O‘tir, — dedi, — taraddudlar, qo‘rquvlar va iztiroblarni unut, endi o‘tirib baxt-saodat haqida o‘yla, chunki u quchog‘ini ochib bizlarni chorlamoqda. Hozir biz eng so‘nggi va eng buyuk maqsad oldida turibmiz, maqsadimizga yetmoq uchun bizdan kichik bir faoliyat talab qilinadi. Biz shu kungacha maqsadimiz yo‘lida ko‘p qiyinchiliklar chekdik, endi unga yetkazadigan so‘nggi soatlarni orqaga surmaylik. Sen gapimni yaxshilab tushunib ol, so‘nggi ishni amalga oshirish bir necha daqiqalik ishdir.

Husomiddin darhol Qatibaning nima demoqchi bo‘lganini angladi va sekingina:

— To‘g‘ri, so‘nggi ishni amalga oshirish bir necha daqiqalik ishdir, chunki ikki bayram bir vaqtda bo‘ladi.

Birinchisi navro‘z bayrami, ikkinchisi esa, sizning To‘g‘rul bilan nikoh to‘yingiz. Mullalar nikoh surasini o‘qiydilar, siz kechaning ma’lum soatida To‘g‘rulning yotog‘iga kirasiz. Bu esa, xuddi siz aytganingizday, haqiqatan ham, bir necha daqiqalik ishdir, — deb istehzo bilan kuldi.

Qatiba ham Husomiddinning bu gapiga qah-qah urib kulib javob berdi:

— Men sening so‘zlaringga amal qilsam edi, sen allaqachonlar mahv bo‘larding. Men xatolaringni kechirish bilan birga seni boshqalarning hujumlaridan ham xalos etdim. Sen bugun ham yanglishyapsan. Ertaga To‘g‘rul er quchog‘iga kiradi, sen bo‘lsang, mening quchog‘imga.

Husomiddin bu so‘zlardan sevindi-yu, lekin qattiq qo‘rqib ketdi. U Qatibaning so‘nggi jinoyati naqadar og‘ir ekanini his etdi.

Husomiddin o‘zini to‘xtatib, fikrlarini yig‘ishtirib olishga urinarkan, Qatiba uning yonidagi bir kursiga o‘tirib dedi:

— Qulim Marjon ham bu ishdan xabardor.

— Qaysi ishdan?

— To‘g‘rul masalasidan, sen bilan mening baxtimni hal etadigan masaladan. Sen shu ishni bajarishing kerak.

— Men yaxshi tushunmadim, To‘g‘rulning qaysi masalasini?

— Ertaga navro‘z bayrami. To‘g‘rul katta ziyofat beradi. Unda Ozarbayjon vakillaridan Nizomiy bilan Faxriddin ham ishtirok etadilar. Bu haqda qulim Marjonga buyurganman, u sening har bir amringni bajo keltirishga tayyor. Manavi zaharni olib, yoningda saqla, To‘g‘rul, Nizomiy va Faxriddin ichadigan sharbatlar zaharlanishi kerak.

Qatiba shunday deb qo‘lidagi zaharli shishani Husomiddinga uzatdi. Husomiddin titragan qo‘li bilan zaharli shishani oldi, lekin uning yuragini bu jinoyatning dahshati larzaga keltirdi. Husomiddin Qatibani boshdan-oyoq ko‘zdan kechirib, bu xotinning naqadar o‘jar va toshyurak ekanini ko‘rib hayratlanardi.

U o‘z-o‘ziga derdi: “Men katta-katta jinoyatlarning mas’uliyatini o‘z zimmamga oldim. Ajalning ro‘parasida, uchirimlarning yoqasida turdim, qo‘zg‘olonlarni qonga botirdim. Minglarcha yaradorlarning oh-u zorlarini eshitib yuragim achimadi. Meni urushlar va qonli jang maydonlari ham qo‘rqita olmadi. Lekin bu xotinning qilgan va bundan keyin qilmoqchi bo‘lgan jinoyatlarining dahshati meni titratib yubordi. Nima qilay? Nima deb javob beray? Uch hukmdorni o‘ldirish kifoya emasmidi? Faxriddin singari bir qahramonni mahv etaymi? U mening dushmanim. Lekin uni o‘ldirmoq Ozarbayjonni kuch-quvvatdan mahrum etish degan gap. Nizomiyni zaharlashmi? Oh, bu naqadar yaramas fikr. Muhabbat va samimiyat manbai bo‘lgan qalbni zahar bilan parchalaymi? Nima uchun? Nimaning evaziga.? Mening yoshligimni quruq va’dalar bilan dafn etgan xotin uchunmi?

Husomiddin fikrlar daryosida g‘arq ekan, Qatiba o‘tirib ko‘kragiga taqqan yirik injularni o‘ynab javobini kutardi.

Husomiddinning ko‘nglida tug‘yon urgan dahshat va hayajonni uning chehrasidan o‘qigan Qatiba savol berdi:

— Qatibaga muhabbating so‘ndimi? Baxt-saodat yo‘lida olib borgan kurashingdan pushaymon bo‘ldingmi? O‘z vazifangni bajarishga kuching qolmadimi? Qahramon bilishi kerakki, ishni boshlab yuborish unchalik qiyin emas, uni muvaffaqiyat bilan tugallash qiyin. Dushman bilan jang qilmaslik qo‘rqoqlik emas, lekin jangni boshlab qo‘yib, ishni yarim yo‘lda qoldirish qo‘rqoqlikdir. Qahramonlikka isnod keltiradigan ishning eng yomoni quroldosh do‘stini maydonda yolg‘iz qoldirib chekinmoqdir. Shuni unutmasliging kerakki, sening bo‘yningda ikki hukmdorni o‘ldirish kabi mudhish jinoyat bor. Basharti, bu ishda sen menga yordam bermasang edi, balki men xotin boshim bilan bu qadar katta mas’uliyatni zimmamga olishga qo‘rqqan bo‘lar dim. Men bu jinoyatlarni amalga oshirganimda sira qo‘rqmasdim, chunki bu jinoyatlarni doimiy bir saodatning mujdasi deb bilardim. Men Ozarbayjonning birinchi qahramoni deb Faxriddinni emas, balki seni tanitishni istardim. Men seni bir qahramon, bir malikaning eri deb olamga tanitishni istardim. Men minglarcha Faxriddinlar sening huzuringga tiz cho‘kib amringga muntazir bo‘lishlarini istardim. Ajabo, sen nimaning xayolini suryapsan?

Husomiddin bu so‘zlarni zo‘r e’tibor bilan tingladi, chunki Qatiba uni dahshatli tahlikaga ro‘para qilib, shu bilan birga shirin va’dalar bilan arshi a’loga ko‘tarardi. Shuning uchun ham qalbini qamrab olgan vahima biroz tarqalgandek bo‘ldi. Qatiba bergan har bir va’da go‘zal va dilrabo manzara kabi uni jalb etardi. Haqiqatan ham Husomiddin bir necha kundan so‘ng hayotining tamomila o‘zgarajagini his qilayotganday bo‘lardi.

Husomiddin ana shu fikrlarning ta’siri ostida javob berdi:

— Meni hech qanday tahlika qo‘rqita olmaydi. Meni dahshatga soladigan bir narsa bor, u ham seni To‘g‘rul kabi bir razilning quchog‘ida ko‘rmoqdir. Men bu dudoqlarni bir olchoqning dudoqlari orasida ko‘rishga toqat qilolmayman. Bu men uchun bamisoli bir jahannam azobidir. Bunga inon, malika! Men Sharqning eng qimmatbaho bir gulini hidlamoq uchun Sharqning ikki buyuk hukmdorini hayot sahnasidan supurib tashladim. Lekin endi...

Qatiba uning so'zini shartta kesib:

— Ikki buyuk hukmdorni mahv etgan odam, uchinchnsini ham mahv eta oladi, — deganida, Husomiddin ham.

— Ha, mahv eta olaman, — dedi qat'iy qilib.

Qatiba yana bir marta uning lablaridan o'pib:

— To'g'rulni o'z baxting uchun mahv etasan, Nizomiy bilan Faxriddinni esa, men uchun o'ldirasan, — dedi.

* * *

Quyosh Hamal burjiga yaqinlashgan daqiqada sulton To'g'rulning saroyi darvozasi yonida karnaylar navro'z bayrami boshlanganidan xabar berdi. Tong shamoli guliston uzra esgani zamon Hamal burjida quyoshning qizil bayrog'i ko'tarilardi.

Shodlik kelini sochlarini taramoqda, bulbul esa gullar minbariga qo'nib bahor go'zalligiga bag'ishlab to'qigan g'azallarini o'qirdi. Bahor shamoli bog'ga kirishi bilan oq ipakka burkangan kelinlardek yasangan daraxt novdalarini o'pardi.

Bahorning ilk sultoni qizil taxt minishi bilan gunafshalar bo'yinlarini kiftlariga qo'yib ta'zim qilib turardilar. Guli savsar og'zini ochib bahor sultoni madhida yozgan she'rlarini o'qishga boshladi. Sunbullar esa tong shamolining xonishlari ostida sochlarini orqasiga tashlab raqs etmoq taraddudida edi. Sarv daraxti yoz libosini kiydi va qo'l qovushtirib bahor sultoni qarshisida odob bilan turdi, shunda g'unchalar ham guliston bazmining soqiylari singari piyolalarni to'ldirmoqqa boshladi.

Bolalar og'zidan: "Iching! Alyor bo'lsin!" degan sado eshitilgach, nargis guli ham o'zini o'ta maxmur his etib boshini "susanbar"ning yelkasiga qo'ydi.

Saroyda navro'z bayramiga bag'ishlangan marosim tugab, duolar o'qib bo'lingach, qutlov marosimi boshlandi. Shaharning a'yon va zodagonlari, sarkarda va yuqori martabali zotlar dasta-dasta bo'lib kelib sulton To'g'rulni qutladilar. Keyin terib-terib aytilgan kishilar navro'z bayrami ziyofatida ishtirok etmoq uchun mehmonxonaga da'vat etildilar. Mehmonxonaga kirganlar bir-birlarini qo'llarini siqib, keyin ikki barmoqlarini peshonalari

va ko‘zlariga qo‘yib: “Ayyomakum saida!” deb o‘zlari uchun belgilangan joylariga o‘tirardilar.

Sulton To‘g‘rulning o‘ng tarafidan Qutlug‘ Inonj, so‘l tarafidan esa Zahir Balxiy o‘rin olgan edi. To‘g‘rulning ishorasi bilan Hamadon qozisi o‘rnidan turib sulton To‘g‘rul bilan Qatibani nikohlanajagini e’lon etdi:

— Mamlakat va davlatning ma’murgarchiligi va baxt-saodati oy bilan quyoshning birlashmog‘ini talab qilardi. Shuning uchun bugun a’lo hazrat sulton To‘g‘rul bilan hazrati oliy Qatiba xotunning nikoh to‘ylari bo‘lishini e’lon etaman, — deb yig‘ilganlarga murojaat qildi.

Qatiba tarafidan vakil qilingan Zahir Balxiy va Kamoliddin Qatibaning bu nikohga rozilik berganini bildirgandan so‘ng qozi nikoh o‘qidi. Mehmonxonadagilarning hammasi o‘rnidan turib bosh egib turib sulton To‘g‘rulni muborakbod etdi.

Masalaning eng asosiy qismi Qutlug‘ Inonjni valiahd deb e’lon qilish edi. Lekin Ozarbayjon vakillari yetib kelmagani uchun bu ish sal kechiktirilgandi. Nihoyat, Ozarbayjon vakillari Nizomiy boshchiligida yetib keldilar: ular o‘zlari uchun hozirlangan maxsus kursilarga o‘tirganlaridan keyin Zahir Balxiy o‘rnidan turib To‘g‘rulning Qutlug‘ Inonjni valiahd etib tayinlagani haqidagi farmonini o‘qidi:

“Allohi taolo va taborak hazrati Odamning loyini salsabil[1] *suvida yo‘g‘irdi va uning vujudi oynasini ruh shu’lasi bilan bezab yerga tushirgan zamon unga shunday farmon berdi: “Sen o‘z valiahdingni tanlashing kerak! U o‘zingdan keyin keladiganlarga vasiy bo‘lishi lozim. Ularga hech bir xiyonat va jinoyat bilan mashg‘ul bo‘lmaslikni buyurishing lozim. Ularga osmondan keladigan samoviy kitoblarni va Allohning farmonlarini bandalar orasida yoyishni buyurishing kerak. Shuning uchun ham Odam Shisni, Shis Idrisni, Idris Musoni, Muso Yusha’ni, Yusha’ Ilyosni o‘zlariga valiahd qilib tayinladilar.*

Ana shu qoida asosida payg‘ambarlik vazifasi so‘nggi payg‘ambar qo‘liga yetdi va u ham Odam alayhissalom kabi o‘ziga

[1] Afsonalarga ko‘ra jannatdagi bir chashmaning nomi.

valiahd tayin etdi. Shundan keyin Allohi taoloning amrini insonlar orasida yoymoq vazifasi xalifalarga, xalifalardan keyin esa hukmdorlarga, sultonlarga topshirildi. Podshohlar valiahdlikka loyiq bo'lgan kishilarni o'z farzandlari va qarindoshlari orasidan tayni etmakka boshladilar.

Hozirda bu vazifa oliymaqom va iqtidorli sultonimiz a'lo hazrat To'g'rulning qo'lidadir. Tojdor hazratlari tinchlik va farovonlikni ta'min etib, mamlakatga saodat baxsh etmoq uchun Eldaniz xonadonining eng shuurli va faoliyatlisi bo'lgan bir zotni valiahdlikka tayin etmoq qaroriga keldilar. U zot sizlarning huzuringizda o'tirgan Qutlug' Inonj hazratlaridir.

Jahon Pahlavon Otabek Muhammadning to'ng'ich o'g'li bo'lgan bu zot harbiy salohiyatga va sultonlik qobiliyatiga molik ekanini bir necha yildan beri olamga namoyish etgandir".

Zahir Balxiy tomonidan o'qilgan valiahdlik farmoniga hech kimdan e'tiroz eshitilmadi, chunki namoyandalarning ko'plari, hatto, Ozarbayjondan kelgan vakillar ham bu masalani avvaldan bilardilar.

Qutlug' Inonj o'rnidan turib sulton To'g'rulning taxti qarshisida yer o'pdi. To'g'rul esa, uning yelkasiga zarbof to'n yopishlarini buyurdi.

Majlisning rasmiy qismi tugagach, sharbat keltirildi. Soqiylar sharbat kosalarini ulasha boshlagan mahalda, Husomiddin bir daqiqadan keyin yuz berajak fojia haqida o'ylardi: "Xo'p, To'g'rul o'ldi, Nizomiy boshliq Ozarbayjon vakillari ham zaharlandi, deb faraz qilaylik. Xo'sh, bundan menga nima naf? Hech mahal u makkora xotin menga tegmaydi. Basharti, tegsa ham nima maqsadda tegarkin? Bir vaqtlar yosh edi, men uni sevardim, lekin u meni sevmasdi, holbuki otasi menga so'z bergandi. U badavlat va shon-shavkatli er topdi, lekin men o'ndan o'ch olish o'rniga, boshqalardan o'ch olmoq uchun unga yordam berdim. O'ttiz yildan beri o'zimni o'zim aldab kelaman. U ellik yoshga kirdi. Men undan baxt kutmasligim kerak, chunki shu baxt uning o'zida ham yo'q. Uning boshlagan urushi hali bu bilan bitmaydi. Hozir bir necha kishining o'ligini ko'rgandan ko'ra, bir kishining o'ligini ko'rgan yaxshiroq. Balki mening bu yerda o'tirgan Faxriddin bilan buyuk Nizomiyni

o‘limdan qutqarishim, gunohlarimni qisman kamaytirar, balki ozarbayjonliklar menim gunohlarimdan kecharlar. Balki men bu qadar jinoyatdan keyin Ozarbayjonda yana bir bor vatandoshlik huquqiga ega bo‘larman”.

Husomiddin shu xayollarni fikridan kechirayotgan mahalda soqiylar sharbat kosalarini ulashar edilar. Avvalgi kosani To‘g‘rulga, ikkinchisini valiahdga, uchinchisini Zahir Balxiyga va qolganini navbat bilan boshqalarga ulashdilar. Nizomiy bilan Faxriddin sharbatlarini ko‘targan holda To‘g‘rulning ichishini kutardilar. Husomiddin bu holatni ko‘rganida jinoyat uning ko‘zi o‘ngida yana bir bor o‘zining butun dahshati bilan namoyon bo‘ldi. U telbalarcha o‘rnidan irg‘ib turib, g‘ayritabiiy bir tovush bilan qichqirib dedi:

— Ozarbayjonliklar! Vatandoshlar! Qo‘lingizdagi kosalarni ichmang, u o‘lim sharbati! Aziz vatandoshlar! Sharbatni har qayerda topish mumkin. Lekin hayot va nomusni har qayerda va har kimsadan topib bo‘lmaydi. Bu yerda meni tanimaydigan kishi yo‘q, lekin taassufki, meni yaxshi tomondan taniydiganlar juda oz, chunki men yo‘ldan ozgan odamman. Men Faxriddin bilan birga bir safda turib Ozarbayjonning ozodligi yo‘lida ozmuncha qilich chopgan emasman. Mening barcha janglarda ilg‘or safda borganimni Faxriddin yaxshi biladi.

Bir vaqtlar Nizomiy ham, Faxriddin ham meni bir fidokor sifatida tanirdilar. Lekin men Ozarbayjonra qarshi ham ozmuncha ishlar qilmadim. Men vatan xoini sifatida dushman qo‘shinlarining oldingi safida kelib o‘z quroldoshlarimning boshiga qilich solganman. Lekin men o‘z xiyonatlarimga xiyonat bilan emas, balki tavba va pushaymonlik bilan xotima bermoqchiman. Bu kungi jinoyat bir kishiga qarshi emas, buyuk bir xalqqa qarshi qaratilgandir. Faxriddin meni xushomadgo‘ylik qilyapti deb o‘ylamasin. Men uning dushmaniman, vaqti kelganda yana qilich bilan o‘z ixtilofimizni bartaraf etajakmiz. Lekin men Faxriddin singari bir qahramonni bir kosa sharbat bilan mahv etilishiga sovuqqonlik bilan qarab tura olmayman. Buyuk shoirning qo‘lidagi va a’lo hazrat To‘g‘rulning qo‘lidagi kosalar ham zaharlangan. Men iltimos qilardimki, valiahdning qo‘lidagi kosani hukmdor va hukmdorning qo‘lidagi kosani valiahd hazratlari ichsalar.

Ziyofatxonada hayajon boshlandi. Qutlug‘ Inonj qo‘lidagi kosani yerga uloqtirdi va shartta o‘rnidan turib qilichini yalanchog‘lab Husomiddinga hamla qildi. Husomiddin ham uni qilich bilan qarshi oldi. Faxriddin darhol qilichini sug‘urib oraga kirdi-da:

— Tinchlaning! Hammaning ham belida qilich bor. Qilichlarni ishga solishdan avval masalani hal etishimiz kerak, — dedi.

Qutlug‘ Inonj va Husomiddin tinchlandilar, chunki ularning ikkalasi ham Faxriddinning fe’lini yaxshi bilardilar.

To‘g‘rul kosani tutgani holda o‘rnidan turdi:

— Men hech kimga qilich yalang‘ochlashga izn bergan emasman. Ziyofatda ishtirok etayotganlar huzurida masalani aniqlab olaylik. Husomiddinning aytganlari to‘g‘ri bo‘lsa, men uning butun gunohlaridan kechaman, aytganlari to‘g‘ri chiqmasa, uni shu yerdayoq qatl ettiraman.

Shuni deb Husomiddinga o‘girildi.

— So‘zingni davom ettir! Lekin to‘g‘risini ayt!

Husomiddin dadil javob qildi:

— To‘g‘risini aytaman, qatl etilishdan ham qo‘rqmayman. Men har qanday jazoga loyiqman. Haqiqatni bilmoq uchun Qatiba xotunning qora quli Marjonni chaqirtiring.

Marjonni chaqirdilar. U ichkariga kirishi bilanoq masalani anglab terakning bargiday qaltiray boshladi.

To‘g‘rul undan:

— Bu sharbatlarni kim tayyorlagan? — deb so‘radi.

— Men tayyorlaganman.

— Shu kosadagi sharbatni icha olasanmi?

— Hukmdor farmon bersalar, o‘lishga hozirman.

— Kosalarga zaharni kim soldi?

— Malika hazratlari, Husomiddin hazratlari nima desa, xo‘p degin deb aytgan edilar.

— Qaysi kosalar zaharlangan?

— Bulbul suratli kosalarning hammasi!

Marjonning bu so‘zidan keyin majlisdagilar kosalarni tekshirdilar, bulbul suratli kosalar To‘g‘rul va Ozarbayjondan kelgan vakillarning qo‘lida ekani aniqlandi.

To‘g‘rul Husomiddindan:

— Bu jinoyatning tashkilotchisi kim? — deb so'radi.

— Malika, uning o'g'li Qutlug' Inonj va sizning so'l tarafingizda o'tirgan Zahir Balxiy janoblari.

To'g'rul xizmatkorlariga buyruq berdi:

— Malikani chaqiring, uning o'zi ham bu muhtasham ziyofatda ishtirok etsin.

Zahir Balxiy jinoyatning izini yo'qotish uchun o'rnidan turib To'g'rulga bosh egib dedi:

— Hukmdor hazratlari! Bu ishni ozarbayjonliklar qilganlar. Ular hukmdorning do'stlariga tuhmat qilib o'z xoinona maqsadlariga etmoqchilar. Tekshirib ko'rmoq lozim. Men hozir malika hazratlarining huzurlariga borib, u zotni xiyonatdan xabardor qilaman. Husomiddin esa, hech shubha yo'qki, ozarbayjonliklarga sotilgan.

Bu so'zdan keyin Qutlug' Inonj achchig'lanib:

— Men endi bildimki, hukmdor meni tahqir etmoq va hibsga oldirmoq uchun Ozarbayjonga chaqirtirgan ekan, — deganida, To'g'rul unga javoban:

— O'zingni bos, men tahqir etish va hibsga oldirishni istasaydim, bu yerga chaqirmasdanoq seni mahv eta bilardim, — dedi so'ngra Zahir Balxiyga yuzlandi:

— O'tiring! Malikaning yoniga borishning hojati yo'q, birozdan keyin malikaning o'zi keladi.

Qatiba xotun bir necha kanizaklar va joriyalar bilan ziyofatxonaga kirib keldi. To'g'rul o'rnidan turib uni xonaning o'rtasida qarshi oldi-da, qo'lidagi kosani uzatib dedi:

— Ol bu kosani, mening shavkatli malikam! Ol, bundan bir soat avval etishgan baxtiyorligimiz sharafiga ich!

Qatiba kosani oldi va ziyofatdagilarni ko'zdan kechirib so'zlay boshladi:

— Basharti men bilan birga qanchadan qancha jinoyatlarda ishtirok etgan Husomiddin qo'rqoq chiqqan bo'lsa, basharti so'nggi vazifasini ado etishga yuragi dov bermagan bo'lsa, bu mening ojizligimni ko'rsatmaydi.

Qatiba shunday deb yuzini To'g'rulga o'girib so'zini davom ettirdi:

— Seni mahv eta olmaganim parvoyimga ham kelmaydi, chunki sening ojizliging, noshudliging bugun bo'lmasa, ertaga halokatga olib boradi. Lekin meni afsuslantiradigan masala boshqadir. Men hozirda bu majlisda ishtirok etayotgan Nizomiyni mahv etib, umrim bo'yi uning qabri ustida yig'lashni istardim. Lekin bu narsa menga nasib bo'lmadi. Taassufki, aksincha o'laroq, u mening o'lganimni ko'radigan bo'ldi. Faxriddin esa, otamning qotili edi. Men bu qasosni ham undan ola bilmadim. Lekin shuni ham aytib o'tmoqchimanki, o'g'limda ayb yo'q. Uni xiyonatlarga ishtirok ettirgan men o'zim edim.

Qatiba shunday degach, zaharli sharbatni ichdi va piyolani To'g'rulning tojiga qarab otib so'nggi so'zini aytdi:

— Sen ham tojingni boshingda saqlay olmaysan![1]

HAMDUNYAN

To'g'rulning Ganjaga kelishi to'g'risidagi xabar Ganja xalqini xursand qilmadi, chunki uning oronliklarga bo'lgan salbiy munosabati kattadan kichikkacha hammaga ma'lum edi.

Gurjiston va Shirvon hukumatlari bilan Oron xalqi orasida do'stona aloqalar mustahkamlangan bir vaqtda To'g'rulning katta bir qo'shin bilan Oron va Shirvon chegaralariga yaqinlashib kelishi Oron ziyolilari va siyosiy arboblarini bezovta qildi.

To'g'rulning bu harakati Shirvon va Gurjiston davlatlarining ham osoyishtaligining buzilishiga sabab bo'lgandi. Ular ham har ehtimolga qarshi chegaralarini mustahkamlashga boshladilar.

Shularni nazarga olib oronliklar Ganjadan vakillar hay'ati yuborib To'g'rulga vaziyatni anglatmoq qaroriga keldilar. Shundan bir necha kun muqaddam To'g'rulning Ganja hokimiga yuborgan maktubida: "Bir necha kun Pisaron qishlog'ida, birodarim Muhammadning oilasida mehmon bo'laman" deyilgan edi. Shuning uchun Ganjadan yuborilgan vakillar hay'ati to'g'ri Pisaron qishlog'iga jo'nadi. Vakillar hay'ati Faxriddin bilan Nizomiy boshchi bo'lgan holda o'n ikki kishidan iborat edi. To'g'rulning

[1] Mirxond, "Ravzatussafo", 3-jild.

dastalari hali yetib kelmagandi. Vakillar To'g'rulning kechikkaniga quvondilar, chunki to To'g'rul yetib kelgunicha valiahd bilan ba'zi bir masalalarni hal etib olish lozim edi.

Uyda Go'zalning keksa otasi Jonpo'lod va uning kampiridan bo'lak hech kim yo'q edi. Nizomiy va hay'atning boshqa a'zolari bu holni ko'rib hayron bo'lib qoldilar. Lekin Faxriddin Pisaron qishlog'ining odati bilan tanish bo'lgani uchun buning sababini tushuntirdi:

— Bu qishloqning odati shunaqa. Qo'lidan ish keladiganlarning hammasi ertalab barvaqt ishga chiqib ketishlari lozim, — dedi.

Nizomiy kampirdan:

— Valiahd bilan shahzoda O'zbak qayerda? — deb so'radi. Kampir kulimsirab javob berdi:

— Bu qishloqda valiahd va shahzoda degan so'zlar ishlatilmaydi. Bu yerda har kimsa oddiy dehqondir. Hamma odam dehqonchilik qilishi kerak. Nevaralarimning har ikkalasi: O'zbak ham, Abubakir ham hormas-tolmas dehqondirlar.

— Xo'sh, Talea xonim qayerda?

— Talea ham, qizim Go'zal ham ishda.

— Demak, uyning butun og'irligi sizning zimmangizda ekan-da?

— Yo'q, undan emas, oltmish yoshga kirgan dehqonning dam olishdan boshqa mashg'uloti bo'lmaydi. Ovqatlar umumiy oshxonada pishiriladi, kiyim-kechak esa bitta tikuvchilik ustaxonasida tiqiladi, hamma narsa jamoaga qarashli.

Kampirning gapi Nizomiyni hayratga soldi. U Ozarbayjonda bunday baxtli hayotga duch kelganidan sevindi. U ko'p xalqlar hayotini yaxshi bilishiga qaramay, Pisaron qishlog'i aholisining hayoti singari bir hayotni hech bir yerda uchratmagandi.

Jonpo'lod Nizomiyning xayolga tolganini ko'rib sukutni buzdi:

— Bizning hayotimiz shunaqa, buyuk shoir! Lekin afsuski, bunday yashashga qo'ymayaptilar. Hukumat ma'murlari qishlog'imizning hayot sharoiti va qoidalarini buzadi, chunki hukumat uchun xalqning tinchligi va birligi foydali emas. Hukumat fuqaroning betinch bo'lishini yaxshi ko'radi, chunki ular jarimani betinch odamlardangina undira oladilar. Bizning qishloq esa tinch. Musht-

lashish, odam o'ldirish, boshqalarning moli va yer-suviga ko'z olaytirish yo'q, chunki mol-mulk ham, yer-suv ham, uylar ham, uydagi asbob-anjomlar ham umumniki. Hukumat tirikchiligimizni izdan chiqarmoq uchun bizga og'ir soliqlar soladi. Soliqlarni to'laymiz. Lom-mim demay to'laymiz, chunki biz yerdan istaganimizcha hosil ko'tarishga qodirmiz. Oramizda yalqovlar yo'q, har kimsa zimmasiga yuklangan vazifani ado etishga qodir. Daromadimiz o'z ehtiyojimizni qoplaydi. Lekin hukumat bizning ehtiyojimiz bilan hisoblashmaydi. Daromadimizning katta qismini har turli bo'lar-bo'lmas bahonalar bilan oladi, xalqimiz ehtiyoji uchun kerak bo'lgan daromadga ham qo'l cho'zadi. Necha yillardan beri bir to'da bekorchilarni boqishga majburmiz. Shariat mahkamasi ma'murlari, soliq yig'uvchi ma'murlar va boshqalar xalqning mehnati hisobiga yashaydilar. Holubki, o'zimiz o'sha soliqlarni olib borib hukumat ko'rsatgan joyga topshirishimiz mumkin. Bizda shariat mahkamasiga ishi tushadiganlar yo'q, chunki xalqimizda bunga hojat yo'q. Mahkamalarga borishga majbur etmoq uchun dehqonlarni jinoiy ishga undaydilar. Bu jinoyat emasmi, axir? Men sizning asarlaringizni nevaralarimga o'qitib eshitaman. Qadimiy tarix va tarixiy shaxslar bilan tanishaman. Asarlaringiz nihoyatda qimmatli. Biz unda o'tmishni ko'ramiz, lekin kelajakni ko'rsatishga juda kam e'tibor berasiz. Iltimos qilaman, bu yerda bir necha kun qoling. Bizning hayotimiz bilan yaqindan tanishing, keyin bizning hayotimizni Ozarbayjon xalqiga so'zlab bering, bilmaymanki, buyuk shoir bizning rahbarimiz Axiy Farrux bilan tanishganmi, yo'qmi?

Nizomiy Axiy Farruxning nomini eshitgach, o'rnidan turib qaytib o'tirdi-da:

— Men u kishining o'zlari bilan ham, u muhtaram zotning fikrlari bilan ham tanishman, — dedi.

— Bas shunday ekan, nima uchun dehqonlar va kasb-u kor egalarining birlashmog'i to'g'risida yozmaysiz? O'zingizga ayonki, qon to'kishlarni to'xtatmoq uchun xalqlarni birodarlashtirmoqdan bo'lak chora yo'q. O'zingiz yaxshi bilasizki, insonlarni baxtiyor hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularning bir oila shakliga solmoq lozim.

Nizomiy bir nafas o'ylab olgandan keyin xo'rsinib dedi:

— Shunday erkin va xushbaxt hayotni sevmagan va xalqlarning qardoshlarcha ahil yashashlarini orzu qilmagan odam shoir bo'la olmaydi! Men bu aqidani dastavvaldan sevganlardanman. Men Axiy Farruxning g'oyalari asosida katta-katta asarlar yozganman. Lekin ularni sizning kuyovingiz Otabek Muhammad mahv ettirdi. Ularning kulini ko'kka sovurdi. Lekin yana men o'sha aqidalarni targ'ib etish uchun qo'lga qalam olish fikridaman.

Suhbat shu yerda uzilib qoldi, chunki tushlik vaqti bo'lgani uchun qishloq xalqi ishdan qaytardi. Qiz va yigitlarning ashulalari eshitilishi bilan chol-u kampir tashqari chiqdilar. Daladan qo'shiq sadolari eshitilardi:

Chaman qushlarining sasi kelganda,
Qishloqqa navosoz bulbul kirganda,
Bulutlar gulzorga atir sepganda
Chiqar gul sayriga dilrabo qizlar.
Oydin kechalarda salqin saharda,
Gullar yonog'iga tutganda parda,
Bulbullarning qalbi tepganda dard-la,
Gul sayriga chiqar dilrabo qizlar,
Bog'larni qoplagach qizil, ko'k chechak,
O'rmonlar kiyganda gullardan ko'ylak.
Soyda cho'milarkan yashil bosh o'rdak
Gul sayriga chiqar dilrabo qizlar.

Bir necha daqiqadan keyin valiahd birodari O'zbak va onasi Go'zal bilan kirib keldi. Go'zal shoirga ta'zim etgach, akasi Faxriddinni o'pdi. Valiahd bilan O'zbak esa Nizomiyning qo'lini o'pib, qarshisida qo'l qovushtirib turdilar. Keksa Jonpo'lod o'tirishlariga ijozat berganidan so'ng ular hammadan quyida o'tirdilar. Saldan keyin Talea uyga kirib salom berdi va qo'lidagi dasturxonni yerga yozdi. Jonpo'lod yana so'zga kirishib dedi:

— Muhtaram shoir shu soatda ming uylik Pisaron qishlog'ining qaysi bir uyiga kirsa, xuddi ana shu rangda bir dasturxon yozilganini ko'rishi mumkin. Besh ming jondan iborat bo'lgan bu oilada ayni shu damda dasturxonga qo'l uzatadilar.

Talea dasturxon yozib qaytdi. Birozdan keyin u bilan birga oq shohi ko'ylak kiygan bir to'da qizlar ichkari kirib turli-tuman taomlar, xushbo'y va muzdek sharbatlarni tizib qo'ydilar. Ovqatlar keltirib qo'yilgandan keyin Jonpo'lod so'zini davom ettirib:

— Turmushimiz bir xil, biroq ovqatlarning turi har xil, — deganida, Nizomiy:

— Ajabo, umumiy oshxonadan har kimsaga beriladigan taom boshqa boshqami, bir-biridan farq qiladimi? — deb so'radi.

— Har bir oila qanday ovqatni ko'ngli tusasa, kechqurun o'z ko'chasidagi umumiy oshxonaga xabar beradi. Ana o'sha talabga ko'ra ovqat tayyorlanadi. Xiyonat qo'li tegmagani uchun noz-ne'matlarimiz oshib-toshib yotadi, o'zimizga ham, keladigan mehmonlarga ham kifoya qiladi. Bu qishloq qurilganidan to shu kunga qadar o'g'rilik nimaligini bilmaydi, chunki, xalqning ortiqcha narsaga ehtiyoji yo'q. Lekin bu hayotning dushmanlari haddan ziyoda ko'p. Bu xildagi hayotni kengayishiga imkon berishni istamaydilar, chunki bu sharoitda tarbiya topgan xalqni aldash, bekorga ishlatish qiyin.

Tushlikdan keyin Nizomiy vakillar hay'atining nima maqsadda kelgani haqida gap boshlab dedi:

— To'g'rulning Ganjaga sayohati zamirida boshqa bir xiyonat yashiringan. Uni bu yerga tushib mehmon bo'lmoq fikri bir xiyonatning mahsulidir, shuning uchun ham To'g'rul o'z qo'shini bilan bu yerga yetib kelmasidan burun valiahd o'z birodari va rafiqasi Taleani olib Ganjaga ko'chib ketishi lozim. To'g'rul o'zining qora niyatini Ganjada amalga oshira olmaydi, chunki Ganja xalqining hammasi valiahdning tarafdoridir.

Nizomiyning bu fikrini Faxriddin ham tasdiqladi. Valiahdning onasi Go'zal ham bu fikrga qo'shildi. Keksa Jonpo'lod ham maslahati uchun shoirga tashakkur izhor etdi.

Jonpo'lodning buyrug'i bilan darhol qishloqning uchta oqsoqoli chaqirildi, valiahdning birodari va oilasi bilan Ganjaga ketishi uchun ulardan ijozat olindi.

Valiahd va Talea Ganjaga ko'chib ketganidan bir kun keyin To'g'rulning Pisaron qishlog'iga yaqinlashganidan darak berildi. Bu xabar qishloq aholisiga tushlikdan keyin yetib keldi. Xalq ish-

dan qaytgani uchun hamma qishloqda edi. Faxriddin bilan Nizomiy To‘g‘rulni kutib olish uchun emas, uni istiqboliga chiqqan xalqni tomosha qilmoq uchun uydan chiqib qishloq ostidagi kichik bir maydonga tushdilar.

Oldingi safda uch oqsoqol, ularning orqasida hammasi bir xil libos kiygan, bir-biriga o‘xshash ketgan qariyalar saf tortib turardilar. Yo‘lning u yuzida keksa xotinlar va ularning orqalarida kelinlar va qizlar yoshlar bilan birga turardilar. Yosh qiz-yigitlar oq, keksalar esa moviy libos kiygandilar.

Nizomiy bu holatni ko‘rib Faxriddinning qulog‘iga sekin dedi:

— Olamda hamma odamlar ana shu qishloqdagi qonun-qoida asosida yashaganda edi, sening qilichingga ehtiyoj qolmasdi. Biz ota-bobolarimizning: “Bir zamon keladiki, qo‘y bilan bo‘ri bir qo‘rada yashayajak” degan gaplariga bekorga kulgan ekanmiz. Hozir o‘sha fikrning to‘g‘ri ekanini angladim. Hamma narsa hayot sharoiti va tarbiyaga bog‘liq ekan. Yaxshilab qara, besh ming jondan iborat bo‘lgan bu qishloq, bir xil libos kiyib, bir qonunga bo‘ysunib, bir xilda hayot kechiradi, bir xilda fikr yuritadi, axir buni butun bir xalq, butun bir mamlakatning hayotiga tatbiq etish mumkin emasmikin?

Men yana buyuk ustozim Firdavsiyni tanqid qilaman. Ana bu xalqni ko‘r! Shularning hammasi bir tarbiyaning mahsuli emasmi? Bo‘ri tug‘ilgan mahalida bo‘rilik xususiyati bilan emas, balki bo‘ri shaklida tug‘iladi. Men aminmanki, tarbiyat natijasida bo‘ri bolalari qo‘yning siynasini emib tarbiya topishi mumkin. Tovus vujudining qobig‘i bilan tuxumdan chiqqan va tovus tarbiyasini ko‘rgan qarg‘a jo‘jasi shaklan qarg‘a bo‘lsa-da, odob va tarbiya jihatidan tovusga ergashadi. Firdavsiy bir fohishaning qizini najib oilada tarbiya qilsang ham u katta bo‘lgach, yana onasining yo‘lini tutadi deydi. Bu fikrning to‘g‘ri emasligini sinab ko‘rmoq uchun shuning aksini qilib ko‘rmoq kerak. Masalan, eng najib oilada tug‘ilgan bir qizni olib bir fohishaning tarbiyasiga bersang, hech shubha yo‘qki, u qiz katta bo‘lgach, tug‘ilgan najib oilasining yo‘lidan emas, balki tarbiya bergan xotinning yo‘lidan ketadi. Odamning xulq-atvorini belgilaydigan narsa yashash sharoiti va tarbiyadir. Baxtsizligimiz shundaki, hukumatlar qonun nashr etgan mahallarida xalqning tar-

biya va saodati nazarga olinmagan. Bu qonunlar faqat bir guruh hokim tabaqaning saodatini ko'zlab chiqarilgandir. Sen bu xalqqa diqqat bilan boq, bularning hozirgi hayotini boshqa qishloqlar xalqiga ko'chirish mumkin. Lekin bunga yo'l bermaydilar. Bunday hayot va bunday tuzum hokim tabaqa uchun foydali emas.

Suhbat shu yerda tugadi. To'g'rulning taxtiravoni oldida keltirilayotgan tug' ko'rinishi bilan Nizomiy bilan Faxriddin qishloqqa qaytdilar.

To'g'rul Jonpo'lodning uyiga qo'ndi. Otabek Muhammadning rafiqasi Go'zal uni zo'r izzat-ikrom bilan kutib oldi. To'g'rul valiahdni va birodari O'zbakni Ganjaga ko'chib ketganini eshitganda, rangi bo'zarib ketdi va norozi bir ohangda:

— Demak, ular o'z amakilarining istiqboliga chiqishni istamabdilar-da, — deganida, Go'zal:

— A'lo hazratni Ganjada tantanavor kutib olish uchun ketdilar,— deb javob berdi.

To'g'rul istirohat qilganidan keyin Ganjadan vakillar hay'ati kelganini unga xabar berdilar, To'g'rul kechki ovqatdan keyin vakillarni qabul qilishga vaqt belgiladi. Lekin u Ganjadan kelgan vakillar kimlardan iborat ekanini bilmasdi. Shubhasiz, vakillar hay'atiga Nizomiy bilan Faxriddin boshchilik qilishlarini bilganda ularni qabul qilmagan bo'lardi.

Nihoyat, hay'at a'zolari ichkari kirgan mahallarida To'g'rul darhol masalani angladi va valiahdning Ganjaga ko'chish sababini fahmladi. Shuning uchun ham vakillarni juda sovuq qarshi oldi. Hatto, darrov o'tirishga ham ijozat bermadi.

Vakillar nihoyat o'tirdilar. To'g'rul yonidagi odamlar bilan biroz suhbatlashgandan keyin, Faxriddin va Nizomiyga murojaat qilib:

— Muhtaram zotlar nima ish bilan tashrif buyurdilar? — dedi.

Nizomiy To'g'rulning savoliga javob berdi:

— A'lo hazratga Oron xalqining salom va yaxshi istaklarini izhor etmak uchun keldik.

— Ularning yaxshi istaklari nimadan iborat ekanini bilmayman. Salomlari esa, samimiy emas, chunki kutib oluvchilar orasida vakillar hay'atining birortga a'zosini ham ko'rganim yo'q.

— A'lo hazrat Ganjada tantana bilan kutib olinadi. Biz boshqa bir masala yuzasidan yuborilganmiz.

— Qanday masala yuzasidan?

— A'lo hazratimning o'zlariga ma'lumdirki, keyingi vaqtlarda Shirvon shohligi bilan Oron xalqi o'rtasida samimiy bir qardoshlik aloqasi o'rnatilgan. Ayni zamonda qo'shnimiz Gurjiston bilan ham aloqamiz do'stonadir. Janoblari juda yaxshi biladilarki, u uch mamlakat har jihatdan bir-biriga bog'liqdir. Lekin a'lo hazratning katta qo'shin bilan Shimoliy Ozarbayjonga kelishi, qo'shnilarimizni bezovta qilib qo'ydi. Ularning bunga haqlari ham bor. Hech qanday urush tahlikasini his etmagan yoxud qo'zg'olon va isyon ko'tarmagan bir mamlakat ustiga bu qadar qo'shin olib kelmoq, yashirin bir maqsadning natijasi bo'lishi mumkin. Shu sababdan Oron xalqi o'z qo'shnilari bilan do'stona munosabatni buzmaslik uchun olib kelgan qo'shiningizni poytaxtga qaytarib yuborishingizni so'raydi, chunki a'lo hazratning xizmatlarini ado etmoq uchun Ganjada va Oronning boshqa shaharlarida yetarli darajada qo'shin bor.

To'g'rul kulimsirab javob berdi:

— Hozirda To'g'rul Oron xalqi tomonidan qurolsizlantirilishi mumkin bo'lgan darajada zaif emas.

Mening o'ylashimcha, bu Oron xalqining fikri emas, balki shu yerda turgan uch-to'rt kishining fikridir. Bunga ham qo'limda asosim bor. Nizomiy singari oddiy bir shoirning fikri bilan buyuk bir davlatni idora qilib bo'lmaydi. Mamlakat tepasida turgan zot mamlakatini qanday idora qilishni yaxshi biladi. Shoir birodarim Qizil Arslonga bergan maslahatlarini menga bermasligini iltimos qilardim. Qizil Arslon sening maslahating natijasida halok bo'ldi. Sening Qizil Arslonga va Qizil Arslonning senga yozgan maktublarining hammasi mening qo'limda. Qizil Arslonning barcha xatolari shundaki, u bir shoirga butun mamlakat nomidan gapirish ixtiyorini berib qo'ydi. Sen ana shu maktublarda unga qabr qaziding, mamlakat xalqini hukumatdan, hukumatni esa mamlakat xalqidan norizo qilding. Mening haqimda yozgan tanqidlaringga mukofot tariqasida akam senga Hamdunyan qishlog'ini bag'ishladi. Lekin men uni sendan tortib olib shoir Kamoliddinga bag'ish-

ladim, chunki sen unday mukofotga loyiq emassan. Menga atab yozgan "Xisrav va Shirin" dostoningni nima uchun Qizil Arslonga bag'ishlading? Sen To'g'rul o'ladi-yu, hayot sahnasidan yo'qoladi deb o'ylasang kerak-da? Nizomiy, sen maktublaring bilan va manavi Faxriddin qilichi bilan mening boshimga ne savdolarni solmadilaring! Endi borib Oron xalqiga va uning qo'shiniga xabar bering va aytingki, To'g'rul bu qo'shinni Oron qo'shnin bilan jang qilish uchun emas, balki ikki kishiga qarshi keltirgan.

To'g'rul jim bo'ldi. Nizomiy so'zlashga ijozat so'radi, To'g'rul achchiq bilan:

— Gapir, lekin menga maslahat berma, — deb ijozat berdi.

Nizomiy juda sovuqqonlik bilan so'zga kirishdi:

— Bu yerda juda ko'p narsalarga ishora qilindi.

Ularga javob berib o'tirish ortiqcha. Lekin mening aytmoqchi bo'lgan gapim shuki, bu yerda o'rtaga tashlagan fikrimiz, yolg'iz bu yerda o'tirganlarning fikri emas, balki barcha shimoliy Ozarbayjon xalqining fikridir. Basharti a'lo hazrat bizning savolimizga javob berishni istamasalar, ertaga Shimoliy Ozarbayjon xalqiga javob berishlari kerak. A'lo hazrat "oddiy bir shoirning fikri bilan buyuk bir davlatni idora qilib bo'lmaydi", deb mening Qizil Arslon bilan yozishmalarimni tilga oldilar. Bunga javoban, a'lo hazratning ijozatlari bilan, shuni aytmoqchimanki, Qizil Arslonning halokatiga sabab bo'lgan sabablarni uni halok etgan kishilar bizdan ko'ra yaxshiroq biladilar. A'lo hazrat yana Qizil Arslon bir oddiy shoirga butun boshliq mamlakat nomidan gapirish ixtiyorini berib xato qildi, dedilar. Lekin bu xato emas. Bu xalqqa o'z taqdiri haqida gapirishga qonuniy ixtiyor bermak demaqdir. Faqat oddiy shoir emas, oddiy dehqon ham o'zi yashab turgan mamlakati nomidan gapirishga haqli. A'lo hazrat Qizil Arslonning menga mukofot tariqasida bergani Hamdunyan qishlog'ini tilga olib o'tdilar. Men u qishloq haqidagi fikrimni "Xisrav va Shirin" asarining oxirida batafsil bayon etganman. Bu yerda muxtasar ravishda uni takrorlayman. Men Hamdunyan qishlog'ini olmaganman va u yerga qadam ham bosmaganman. U qishloq janoblarining izm-u ixtiyorlarida. Podshoh o'z mulkiga xo'jayin, lekin shuni ham aytayki, olamda podshohlardan ko'ra qashshoqroq odam yo'q.

Ular o‘z mehnatlari bilan hech narsa topmaydilar. Ularning qo‘lidagi mol-mulk xalqning molidir. Shuning uchun men u qishloqqa ega bo‘lishni istamadim. “Xisrav va Shirin” dostonini Qizil Arslonga bag‘ishlaganim uchun a’lo hazrat meni tanqid qilmasin, chunki o‘zingiz meni oddiy bir shoir deb atadingiz. Menday bir oddiy shoirning yozgan asari sizday buyuk hukmdorga munosib emas. Faxriddinning qilichi va Nizomiyning maktublari haqida: “Sen, Nizomiy, maktublaring bilan, manavi Faxriddin esa, qilichi bilan mening boshimga ne savdolarni solmadinglar!” dedingiz. To‘g‘ri, bu maktublarni yozgan qalam bilan qilich a’lo hazratning barcha tashabbuslarini barbod qildi, mamlakatda ajnabiylar ta’sirining kuchayishiga va chegaralarimiz dushmanlar oyog‘i ostida payhon bo‘lishiga monelik qildi: chunki Nizomiy bilan Faxriddin mamlakatning mojarochi bir xotin hamda ajnabiy yurt namoyandasi bo‘lgan Zahir Balxiy va ayni zamonda bularning amrlarini bajaradigan hukmdorlarning qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishiga rozi bo‘la olmasdi. So‘ngra a’lo hazrat Oron xalqiga topshiriq berib: “Borib Oron xalqiga va uning qo‘shiniga xabar bering va aytingki, To‘g‘rul bu qo‘shinni Oron qo‘shini bilan jang qilish uchun emas, balki ikki kishiga qarshi keltirdi”, deb ayting dedingiz. Bu qo‘shinni hukmdor ikki kishiga qarshi keltirganiga ishonamiz. Lekin u ikki kishi faqat Nizomiy va Faxriddindan iborat emas. A’lo hazrat o‘z o‘g‘li Malikshohni vorisligini mustahkamlamoq uchun Abubakir bilan O‘zbakni oradan ko‘tarmoqqa harakat qilyapti. Lekin Shimoliy Ozarbayjon xalqi Abubakirning valiahdligini tasdiqlagan va uni butun borlig‘i bilan himoya qiladi.

To‘g‘rul javob bermadi, yolg‘iz ikki kalima bilan: “Sizlarga javob”, dedi.

* * *

To‘g‘rulning taxtiravoni Xonaqoh qishlog‘ida turib Ganjadan istiqboliga chiqadigan odamlarni kutardi. Umumiy qoidaga xilof ravishda na bozor, na do‘konlar yopildi va na maktab hamda madrasalarda talabalar ozod qilindi.

Sulton To‘g‘rulning Ganjaga kelishi to‘g‘risidagi xabar juda sovuq qarshi olnidi. Ganja hokimi mas’uliyatdan o‘zini xalos etmoq

uchun shahar idorasining maxsus xodimlari va bir necha a'yonlar bilan birga sulton To'g'rulni kutib oldi.

Sulton To'g'rul Ganjaga kelganining ikkinchi kuni Ganja xalqini o'ziga bay'at[1] ettirmak va o'g'li Malikshohning valiahdligini tasdiqlatib olmoq uchun aholini sulton Sanjar jomenga chaqirtirdi. Lekin bunga muvaffaq bo'la olmadi. Masjidga hech kim kelmadi. Nihoyat, u Nizomiy va Faxriddinni tahqirlaganidan pushaymon bo'ldi va bunday katta xato natijasida Oron xalqining nafratiga duchor bo'lganini angladi. U o'z xatosini tuzatish uchun boshqa bir chora o'ylab topdi. U boshqa hukmdorlarga taqlid etib, buyuk shoirni ziyorat qilmoqchi bo'ldi, chunki Qizil Arslon va boshqalar Ganjaga kelganlarida hammadan avval buyuk Nizomiyni ziyorat etishlarini bilardi. Shuning uchun bir kun o'z kotibini shunday bir maktub bilan Nizomiyning uyiga yubordi.

"Buyuk va muhtaram shoir!

Men Ganjaga kelgan kunim sizni ziyorat qilgani borishim kerak edi. Birodarim Qizil Arslon shunday qilar edi. Lekin sog'lig'imning mazasi yo'qligi va xalqdan ko'rgan hurmatsizligim vazifamni o'z vaqtida ado eta olmasligimga sabab bo'ldi. Shuning uchun buyuk shoir kutubxonasini ko'rishimga ijozat bersa, men o'zimni buyuk bir baxtga musharraf bo'lgan deb hisoblardim.

Samimiy do'stingiz To'g'rul".

Shu maktubdan bir kun keyin To'g'rul shoirni ziyorat qilgani keldi, To'g'rulni darvozada Faxriddin, Alouddin, Ozarbayjonning ziyolilari, shoirlari va mo'tabar kishilari kutib oldilar. To'g'rul bu jamoatni ko'rib xursand bo'lib ketdi, chunki ko'rmoqchi bo'lgan va ko'ra olmagan kishilarining hammasi shu yerda edi. To'g'rul, shu yerda ular bilan gaplashib o'z maqsadiga etaman deb o'yladi.

To'g'rul Nizomiy yashaydigan xonaga kirgan zahoti Abubakir buyuk shoirning o'ng yonida Talea esa chap yonida o'tirganini ko'rdi. To'g'rul kelib shoirning qo'lini o'parkan, shoir valiahd va Taleaga murojaat etib:

— Amakingizning qo'lini o'ping! — deb buyurdi.

Valiahd bilan Talea darhol o'rinlaridan turib To'rg'ulning qo'lini o'pdilar. To'g'rulning valiahdga ko'zi tushgan zamon o'z

[1] **Bay'at etmoq** — itoat etamiz deb ahd-u paymon qilmoq.

qarshisida akasi Otabek Muhammadni ko‘rganday bo‘ldi. U o‘z jinoyatini — Otabek Muhammadning qatlida ishtirok etganini eslab uyaldi, valiahdni quchoqlab o‘parkan, ho‘ngrab yig‘ladi, keyin Taleaning sochlarini silab turib:

— Sizlarni ko‘rib xushnud bo‘ldim, xushbaxt bo‘lishingizni tilayman! — dedi.

To‘g‘rul o‘zi uchun maxsus hozirlangan kursiga o‘tirdi. Shoir qo‘lidagi daftarni yerga qo‘ygach:

— Valiahd uchun yozgan dostonimdan, Iskandarning Bardga safarini o‘qiyotgan edim, chunki vatanni faqat sevishning o‘zi kifoya qilmaydi, avvalo uni yaxshi tanimoq kerak, — dedi.

To‘g‘rul esa, Nizomiyning “valiahd uchun yozgan dostonim” degan gapini ichida bir necha bor takror etib, o‘ziga o‘zi: “Bu so‘z bir xalq shoiri og‘zidan chiqmoqda, uning o‘zi ham Pisaron qishlog‘ida, men butun Ozarbayjon xalqi nomidan gapiraman, degan edi”, dedi.

To‘g‘rul jim o‘tirardi. U ortiq o‘g‘lining valiahdlik masalasini emas, o‘zining Shimoliy Ozarbayjon xalqi tarafidan podshoh deb tasdiq etilish-etilmasligi haqida o‘ylar va shubhalanardi. Shu sababdan o‘z xatolari to‘g‘risida gapirib dedi:

— Ganja xalqining menga mensimaslik bilan qarashi o‘z xatolarim natijasidir. Men hech vaqt xonadonimiz ozarbayjonliklarga suyanmaganda g‘olib chiqmaganligini unutmasligim lozim edi.

Nizomiy To‘g‘rulning nima demoqchi ekanini darhol angladi va dedi:

— A’lo hazrat juda yaxshi biladilarki, xatoni tushunishning o‘zi kifoya qilmaydi, uni takrorlamaslik kerak. Afsuslar bo‘lsinkim, a’lo hazrat to hozirga qadar Ozarbayjon xalqining buyuk qudratiga ishonganlari yo‘q. Sizning ajnabiy hukumatlar namoyandalari bilan yaqin do‘stligingiz va ular vujudga keltirgan falokatlar, Ozarbayjon xalqining noroziligiga sabab bo‘ldi. Siz yana uning muhabbatini qozonishingiz mumkin, chunki Ozarbayjon xalqi sizni hali ham hukmdor sifatida taniydi. Siz Ozarbayjon xalqining do‘sti ekaningizni ko‘rsatganingizdan so‘ng, bu xalqning ko‘magiga umid bog‘lay olasiz. Hozircha bu xalq qilichini qiniga solgani

yo‘q. Xalqning vatanparvarligi hali ham jo‘sh urmoqda. Lekin siz ajnabiylarning tazyiqi natijasida mamlakatning, xususan, Ganja xalqining ashaddiy dushmani bo‘lgan Qutlug‘ Inonjni hibsdan ozod qilib, unga Rey hokimligini berish bilan ozarbayjonliklarning ko‘magidan mahrum bo‘ldingiz. Yaqin orada Qutlug‘ Inonj o‘zingizga qarshi bosh ko‘taradi. O‘shanda siz ozarbayjonliklarni o‘z safingizda ko‘rmayajaksiz.

Suhbat juda uzoqqa cho‘zildi, lekin To‘g‘rulning soxta ko‘z yoshlari va o‘z xatolariga iqror qilish foyda bermadi. U o‘z sharafiga berilgan ziyofatda nima yeb, nima ichganini bilmasdi, vahima va umidsizlik uning butun vujudini qamrab olgandi.

Qosh qorayganda, To‘g‘rul o‘zining istiqboli qorong‘i ekanini sezib, Nizomiy bilan vidolashdi.

NAXCHIVON

To‘g‘rul Ganjadan qaytgandan keyin Tabrizda bir oy turdi. U bir muddat ichida Tabrizning a’yon va ruhoniylariga in’om-ehsonlar berib, ularni o‘z tomoniga og‘dirdi va Shimoliy Ozarbayjonga qarshi fisq-fasod boshladi.

Janubiy Ozarbayjonning har tarafida shimoliy ozarbayjonliklarning siyosatini tanqid qilishga kirishdilar. Otabek Muhammadning qishloqi xotinidan tug‘ilgan o‘g‘li Abubakirning Eldaniz xonadoni vorisligiga layoqtsiz ekani haqidagi gaplar u yoqda tursin, umuman, Eldaniz xonadonining hukmdorlik qilishga salohiyatsizligi to‘g‘risida gapira boshladilar.

Xalqning bu targ‘ibot ta’siriga tushmasligi mumkin emasdi. Saljuqiylarning so‘nggi hukmdori bo‘lgan To‘g‘rul o‘z zaifligi sababli toj-u taxtini Saljuqiylarning xizmatkori bo‘lgan Eldanizga yutqizgandi, chunki To‘g‘rulning otasi Arslonshoh o‘lgach, janub va janubiy-sharqdagi qo‘shni davlatlar mamlakatni taqsimlash masalasini Bag‘dod xalifasi Mustarshidbillohning oldiga qo‘ygan edilar. U vaqtda To‘g‘rul yosh bola edi. Uning onasi Turkon xotun toj-u taxtning inqirozga yuz tutganini sezib, sarkardalaridan Eldanizni o‘z huzuriga chaqirib shunday degan edi:

— O‘zingga ayonki, men hozir yer qilish haqida emas,balki mamlakatni saqlab qolish haqida o‘ylayman. Erimning o‘lganiga hali bir yil ham bo‘lgani yo‘q. Faqat Turkon xotun emas, eng oddiy ayol ham shunchalik qisqa muddat ichida erining arvohini chirqiratib, erga chiqishni istamagan bo‘lardi. Shunga ko‘ra men ham taklifingni rad etmay senga xotin bo‘lishga rozilik beraman. Sen ham toj-u taxtni o‘g‘lim To‘g‘rul uchun himoya qilmoqqa so‘z va yozma ravishda kafolat ber.

To‘g‘rul Ganjadan Tabrizga qaytganidan so‘ng onasi Turkon xotun bilan Otabek Eldaniz orasida tuzilgan shartnomadan nusxa ko‘chirtirib, shaharlardagi hokimlarga, ruhoniylarga, voizlarga, hamda xatiblarga yubordi.

Shu shartnomaning bir nusxasi Ganja hokimi va Ganja xatibiga ham yuborilgandi. To‘g‘rul bu bilan faqat janubiy ozarbayjonliklarni, ayni zamonda shimoliy ozarbayjonliklarni ham Otabek Muhammadning o‘g‘li Abubakirdan sovutishga urinardi.

Ganja ko‘chalarida aylanib yurgan jarchilar: “Hokim shahar aholisining sulton Sanjar jomeiga yig‘ilishini buyurdilar, hey!” deb qichqirishdi. Ko‘chalarda jar solinganiga qaramay, Ganja hokimi ayni zamonda shaharning nufuzli va mashhur odamlariga maktub yuborib, masjidga da’vat etgandi.

Namozi juma kuni masjidga odam sig‘may ketdi. Xatib jamoat bilan birga namoz o‘qigandan keyin minbarga chiqdi. U xalifa Nasiruliddinillohning va sulton To‘g‘rulning nomiga xutba o‘qiganidan so‘ng jamoatga murojaat qilib gap boshladi.

— Xudovandi olam o‘z bandalarining g‘amini yeb ularni odil bir podshohning qo‘liga topshiradi. Hukmdor Allohning bandalariga marhamat va adolat qilmagan vaqtida xudovandi olam ham hukmdorlikni uning qo‘lidan olib boshqasiga topshiradi. Ko‘pdan beri mamlakatimiz odil podshohlar qo‘lida emasdi. Eldaniz xonadoni o‘z va’dasini buzib, hech qanday salohiyatga ega bo‘lmagani holda toj-u taxtni a’lo hazrat sulton To‘g‘rulning qo‘lidan olgan edi. Holbuki, a’lo hazratning onasi Turkon xotun Shamsiddin Eldanizga erga chiqqan mahalda, Eldaniz bu saltanatni To‘g‘rul va uning avlodi uchun muhofaza qilishga so‘z bergandi.

Xatib shularni aytgandan keyin qo'ynidan Eldanizning Turkon xotunga bergan kafolatnomasini o'qiy boshladi:

"Men, Shamsiddin Eldaniz, shimolda Shirvon bilan, janubdan Fors va Iroq bilan, g'arbdan Mo'sul bilan chegaradosh bo'lgan saltanatni a'lo hazrat To'g'rulning o'zi va avlodi uchun muhofaza qilishga va bir otabek sifatida samimiy xizmat ko'rsatishga va'da beraman. Menim avlodim a'lo hazrat To'g'rulning o'ziga va uning nasliga xizmat qilmoqqa va otabeklik vazifasini ado etmoqqa majburdir".

Xatib shularni o'qigandan keyin ilova qilib dedi:

— Kafolatnoma Shamsiddin Eldaniz va Turkon xotunning o'z qo'llari bilan imzolangan hamda xalifayi ro'yi zamin Mustarshidbilloh tomonidan tasdiqlangan. Xudovandi olamga hazor bor shukurlar bo'lsinki, Alloh bandalarining qalbida zarracha shaku shubha qolmadi. Bu muhim vasiqa vositasi bilan Eldaniz xonadonini bosqinchi xonadon bo'lgani va toj-u taxtni boshqalardan o'g'irlagani musulmonlarga ayon bo'ldi. Shu sababdan dini islomning shon-sharafini yuksak ko'tarmak uchun Alloh tomonidan yuborilgan, xalifayi ro'yi zamin va amiralmo'minin tomonidan tasdiqlangan bayroq atrofiga, ya'ni a'lo hazrat To'g'rul va o'g'li Malikshoh atrofiga jipslashmoq lozim.

Xatib so'zini tugatdi, xaloyiq orasidan bir necha kishining: "To'g'ri! To'g'ri! Yolg'on emas..." kabi sadolari eshitildi.

Nizomiy, Faxriddin va Alouddin bilan bir tarafda yonma-yon o'tirib xatibning gapiga quloq solardi. U Faxriddinga qarab sekin:

— Xatibga javob bermaslik, uning fikriga qo'shilmoq demakdir, — deb o'rnidan turdi-da, so'z boshladi:

— To'g'rul bundan sal ilgari Oronda bo'lgan mahalida hozir xatibning vositasi-la aytmoqchi bo'lgan gaplarini aytishdan qo'rqqan yoki aytishga uyalgan edi. Xatib hazratlarining bizga o'qigan kafolatnomalari oddiy bir qogozdan ortiq hech bir ahamiyatga ega emas. Eldanizning shunday bir kafolat bergani hammaga ayon. Eldaniz avlodi bu kafolatni hech buzgani yo'q. Ular hech mahal o'zlarini podshoh deb e'lon qilmadilar. Lekin ular amalda o'zlarining hukmdor sifatida To'g'ruldan ko'ra odilroq va iqtidor-

lik ekanlarini ko'rsatdilar. Xatib hazratlari o'z so'zlarida Eldaniz xonadonini toj-u taxt o'g'risi deb atadilar. Aslini olganda, toj-u taxt degan narsaning o'zi o'g'irlik mol, chunki uni hech kim sotmagan va hech kimsa pul to'lab olgan ham emas. Toj-u taxt bunyod bo'lgan kundan buyon, uni bir hukmdor ikkinchi bir hukmdor boshidan yulqib oladi. Xatib hazratlari shuni bilishlari kerakki, toj-u taxtning o'zi hech qanday qimmatga ega emas, gap unga ega bo'lgan hukmdorning layoqatida. Hozir To'g'rulning boshida bo'lgan toj uchinchi martaba uning boshidan tushmoqda, o'ylaymanki, yana tushadi. To'g'rul tojning og'irligiga bardosh beradigan va uning talablariga javob bera oladigan boshga ega emas va ega bo'lishi ham mumkin emas, chunki biz To'g'rulni juda yaxshi taniymiz. Hukmdorlar xalq istagini ifoda etgan vaqtdagina xalq tomonidan tasdiq etiladilar. To'g'rul esa, bir necha bor taxtga minib, taxtdan ag'darilgan, lekin bu muddatda o'zi xalqning koriga yaraydigan bir hukmdor ekanini ko'rsata olmadi. Hukmdor toj-u taxt bilan emas, ish va adolati bilan o'zini tanitsin.

Nizomiyning so'zidan so'ng xalq orasidan "To'g'ri aytadilar! To'g'ri aytadilar!" degan sadolar eshitildi.

* * *

Go'zal valiahdning qayg'usini tarqatmoq uchun tasalli berib derdi:

— Otang va amakingdan ortiq bo'la olmaysan. Ularning har ikkalasi ham qahramon va layoqatli hukmdorlar edilar. Lekin ular nogahoniy o'limning panjasidan yoqalarini xalos eta olmadilar. Ularning hayoti urushlar, qo'zg'olonlar va isyonlar ichida talaf bo'ldi. Ular dunyoda oddiy bir dehqonchalik ham rohat ko'rmadilar. O'zing ko'rib turibsan-ku, o'zi hech qanday qimmatga molik bo'lmagan taxt-u toj arzonga tushmadi. Otang bilan amaking shu taxt-u toj uchun jonlarini berdilar.

Valiahd g'amgin boshini ko'tarib, oh chekdi-da, onasini o'pib:

— Bularning hammasi to'g'ri, — dedi. — Meni qayg'uga solgan narsa otam va amakimning bu mamlakat yo'lida jon berganlari va natijada toj-u taxt o'g'risi deb atalganlaridir.

— Sen To‘g‘ruldan maosh oladigan besh-o‘n kishining emas, xalqning va ulug‘ bir shoirning aytganlarini e’tiborga olishing kerak.

Shu mahal Talea ichkari kirdi. Go‘zal uni xafa qilmaslik uchun suhbat mavzuyini o‘zgartirdi, lekin shusiz ham Talea g‘amgin edi. U xatibning Sanjar jomeida aytgan gaplarini eshitgandi. Go‘zal Taleaning dudoqlaridan o‘pib dedi:

— Ganja isib ketdi, sizlarni qishloqqa ko‘chirib ketgani keldim. Bir-ikki hafta Cho‘bonqoyada yashaysizlar. Sen bizning el yaylovini ko‘rmagansan. U yerda o‘ziga xos hayot bor. Shuningdek, o‘zi tarixiy bir joy. U yer bizning bobomiz topilgan tog‘.

Go‘zal Cho‘bonqoya tog‘i tarixini batafsil gapirib berdi. Talea yozni Cho‘bonqoya tog‘ida kechirmoqchi bo‘ldi lekin valiahd lom-mim demasdi. Yakkash o‘ylab xonada u yoq-bu yoqqa yurardi.

Go‘zal Nizomiyning oilasi bilan ko‘rishmoq uchun ikkinchi xonaga chiqdi. Valiahd bilan Talea indamay bir-birlarining yuzlariga boqardilar. Nihoyat, valiahd Taleaning yoniga kelib undan so‘radi:

— Talea, sen oddiy bir dehqon bolasini sevib, u bilan birga yashay olasanmi?

Talea hayron qolib qora ko‘zlari bilan valiahdga boqdi.

— U oddyy dehqon o‘g‘li kim o‘zi? — deb so‘radi.

— Hozirda men eng oddiy bir dehqon o‘g‘liman. Mendan ko‘ra faqirroq va yo‘qsulroq odam yo‘q. Men hozirda onamning himoyasi va bir shoirning uyida yashamoqdaman.

— Sen hukmdor bo‘lmasayding, seni yanada ortiqroq sevgan bo‘lardim. Basharti shu vaqtga qadar onangizning himoyasida yashagan bo‘lsak, bundan so‘ng ham yashay olamiz. Ajabo, biz ishlamadikmi? Boshqalar bilan birga Pisaron qishlog‘ida o‘z vazifamizni ado etmadikmi? Xudoga shukur, har ikkalamiz ham yosh va sog‘lom odamlarmiz. Bizlarga hech narsaning keragi yo‘q. Men yolg‘iz seni sevaman, shuning uchun ham meni na yo‘qsullik va na og‘ir mehnat qo‘rqitadi. Bo‘lar-bo‘lmas fikrlarni xayolingdan chiqarib tashla, kel, shu mashmashali mamlakat To‘g‘rulning o‘ziga va uning o‘g‘liga qolsin.

Hovlida Nizomiyning tovushi eshitildi, Talea ikkinchi xonaga o‘tdi. Nizomiy bilan birga Go‘zal kirib keldi. Nizomiy undan qishloqning ahvoli va keksa Jonpo‘lodning sihat-salomatligini so‘radi. Go‘zal savollarga javob berganidan keyin nima uchun kelganini izohlashga kirishdi:

— Havo isib ketgani uchun bolalarni va sizning oilangizni Cho‘bonqoyaga ko‘chirib ketgani keldim. Iloji bo‘lsa, o‘zingiz ham o‘sha joylarda bir necha oy turib kelsangiz. U yerga hamma yoqdan shoirlar va olimlar kelishadi. Siz ham biroz vaqt o‘sha yerga borib turing.

Nizomiy bir nafas o‘ylagach:

— Havo isib ketdi, lekin bolalar bora olmaydilar. Ularni katta va uzoq safar kutadi, — dedi.

Go‘zal ham, valiahd ham hayrat bilan shoirga boqdilar va safarning qanday safar ekani haqida so‘rashga jur’at etolmadilar. Nihoyat, Nizomiyning o‘zi sukutni buzib dedi:

— Mamlakatimizda hukumatni boshqarishra qodir va xalqning ishonchiga sazovor bo‘la oladigan nufuzli kishi yo‘q. Toj-taxtni meros qilib olgan iste’dodsiz odamlar mamlakatni idora etolmaydilar, xalqning ishonch va muhabbatini qozona olmaydilar. Yangi bir xonadon namoyandasining taxtga minishiga tarafdor emasman. Ozarbayjonning qo‘shni chegaralaridagi siyosiy vaziyatning bunga imkon bermasligini bilaman. Ichki g‘alayonlar va To‘g‘rulning mayxo‘rligi natijasida yuzaga kelgan vaziyat Ozarbayjon otabekligini Sharqda ikkinchi darajali hukumatlar qatoriga tushirib qo‘ydi. Holbuki, xalifalik inqirozga yuz tutgan mahalda biz yanada yuksalmog‘imiz lozim edi. Lekin hukmdorning zaifligi va uning bir xotin qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishi shu qadar qulay bir fursatdan foydalanishimizga yo‘l bermadi. Siyosiy vaziyatimiz yomonlashgach, bir vaqtlarda butun Sharq mamlakatlarini hayratga solgan madaniyatimiz ham so‘nmoqda. Vaziyatning og‘irligi ostida keksalarning qomati bukilib olamdan ko‘z yumdilar. Mujiruddinlar, Falakinlar, Abulullolar va Hoqoniylar olamdan o‘tdilar. Ular bizning bu janjal-suronli muhitimiz bilan vidolashib ketdilar. Davlatning ilgarigi qudratini tiklamoq uchun xalq bilan birgalikda ishlaydigan baquvvat qo‘llar kerak. Abubakir, basharti qo‘ling shunday

baquvvat ekanligiga imoning komil bo‘lsa, Ozarbayjon xalqi senga ko‘mak berishga tayyor. Seni himoya qiladigan qilichlar Sharq olamiga tanilgan g‘olib sarkardalarning qo‘lidadir. Sening shijoat va qahramonligingni bilaman. Sen Qizil Arslonning tarbiyasida ulg‘ayding, shuning uchun xalq xohishi bilan ish olib borishingga ishonaman.

— Hozirda hamma To‘g‘rulning atrofida, — dedi valiahd. — Xalq o‘z zarariga bo‘lsa-da, yangilikni yaxshi ko‘radi. Malikshohning Tabrizda Qizil Arslonning o‘rnini bosishi janubiy ozarbayjonliklar uchun bir yangilik. Bizning xonadonimiz umri bir asrga ham yetmadi, baxtli davrimiz inqirozga yuz tutdi. Mening fikrimcha, To‘g‘rulning atrofiga to‘plangan jamiyatni hech qanday ohangrabo o‘ziga torta olmaydi.

Nizomiy kulimsirab valiahdning yoniga kelib:

— Shoshilma, hukmdorlar sabr-matonatli bo‘lishi kerak, — dedi.— To‘g‘rulning baxtsizligi shundaki, uning atrofini bir hovuch sotqin amaldorlar, mullalar o‘rab olgan, xalq bizning tomonimizda. Faxriddinlarning qilichlari shu'lasi Yazdgurd[1] qal'asi minorasida va Araks daryosining to‘lqinlarida aks etgan vaqtda valiahd To‘g‘rulning atrofidagi sotqinlarni o‘z oyog‘i ostida ko‘rajak. Hozir seni tabrik etaman. Bugun To‘g‘rulga qarshi Oron xalqi seni hukmron deb e'lon qildi. Tayyorgarligingni ko‘r, yaqin kunlarda Naxchivonga tomon yo‘lga chiqasan. Naxchivonliklar biz bilan hamfikrdir. Ular Eldaniz xonadonining do‘stlaridirlar. Bobong Eldanizning[2] nufuzi yana Naxchivonda baland. Bu safarda bibing Mo‘mina[3] xotunning ham qabrini ziyorat etasan.

Nonushta vaqti edi, Go‘zalning kelishi munosabati bilan Nizomiy kichikroq bir ziyofat berdi. Ziyofatda Go‘zalning akasi Faxriddin, Dilshod, Alouddin va uning xotini Susan hozir edilar.

Talea yemakxonaga kirganida Nizomiy uning sochlarini silab:

---

[1] **Yazdgurd qal'asi** — Naxchivonning janubi sharqida paxsadan yasalgan bir qo‘rg‘ondir. Uni Sosoniylar sulolasining hukmdorlaridan Yazdgurd III (632–651) qurdirgan.

[2] Eldaniz xonadoni dastlab hukumatni Naxchivonda qo‘lga olganlar. Otabek Eldanizning maqbarasi Naxchivonning g‘arb tarafida.

[3] Eldaniz va Mo‘mina xotunning qabri ham Naxchivonda.

— Ozarbayjon toj-u taxtining yosh malikasini qutlayman, — deganda ziyofatdagilar Abubakirni va uning xotini Taleani tabrikladilar.

* * *

Namozi peshindan keyin valiahd birinchi daf'a Ganja masjidiga keldi. U Nizomiy va Faxriddinlar bilab birga minbarning o'ng tomoniga yozilgan joynamozga o'tirdi.

Masjidning ichida yangi odamlar, tashqarisida esa bir qancha qurollangan kishilar ko'zga tashlanardi. Avvalgi hokim o'rnida boshqa odam o'tirardi. Xatib ham o'zgargan edi.

Xalq To'g'rul tarafdan tayin qilingan hokim bilan birga xatibni ham shahardan badarg'a qilinganini va ularning o'rniga boshqalar tayinlanganini bilmasdi.

Nihoyat, xatib minbarga chiqib xutba o'qidi va To'g'rul emas, Jahon Pahlavon Otabek Muhammad o'g'li Abubakir Nusratiddinning nomiga xutba o'qidi. Masjidda shovqin-suron ko'tarildi. Bunga rozi bo'lganlar bilan norizo bo'lganlarning ovozlari bir-biriga qo'shilib ketdi. Ba'zilar o'tirgan joylarida, ba'zilar esa, o'rinlaridan turib xatibga o'shqirardilar. Bu ahvolni ko'rib valiahdning yuragi bezovtalanib tepardi. U bu masalani xalqqa tayyorgarliksiz taqdim etilganini sezar va buning yomon natijalanishidan qo'rqardi.

Shov-shuv davom etayotgan vaqtda Nizomiy Faxriddinning qulog'iga bir nima deb pichirladi. Shunda Faxriddin minbar yoniga chiqdi. Bir necha daqiqa tik oyoqda turib qichqiriqlar eshitilayotgan tomonga qaradi. Kimlar qichqirayotganini aniqladi-da, so'ngra qo'lini ko'tarib jim bo'linglar deb ishora qildi.

Bir nafasdan keyin shovqin-suron bosildi. Faxriddin so'zlashga boshladi:

— Har bir odam o'z taqdiri kimning qo'lida ekanini tekshirib bilmoqqa haqlidir. Bugun masjidda shovqin-suron qilayotganlarni qoralashga hech kimning haqqi yo'q. Rozilar ham, norozilar ham bir xilda haqlidir. Haqiqat munozara suzgichidan o'tgandan keyingina ravshanlashadi. Hozir ayrim odamlarning masalasi emas, balki buyuk bir mamlakatning taqdiri hal qilinmoqda. Shuning

uchun hech kimsani sukut etishga majbur qilish mumkin emas. Dastavval, men xatib hazratlarining Abubakir Nusratiddin nomiga o'qigan xutbalari haqida gapirmoqchiman. Hozirda hukmdorlikdan tushirishga qaror qilganimiz To'g'rulning hayoti va qilgan ishlari bu yerda o'tirganlarning hech biridan maxfiy emas. To'g'rul davlatni idora etish qobiliyatiga ega bo'lgan odam emas. Uni doimo Eldaniz xonadonining a'zolari idora qilardilar. Lekin ayni zamonda boshqalar ham uning jilovidan ushlagan edilar. Otabek Muhammad davridan beri u Xorazmshohning xufiyasi Zahir Balxiyni va Eron shoiri Kamoliddinni o'z yonida saqlab, bizning taqdirimizni ularning maslahati bilan hal etardi. Mamlakatimizga qarshi boshlangan hujumlarning sababini tekshirgan mahalda To'g'rulning xoinligi yana bir karra isbot etiladi. To'g'rul o'z xiyonati bilan biz ozarbayjonliklarni bir necha bor qonli janglar olib borishga majbur etdi. Biz barcha janglarda g'olib chiqdik. Lekin uning dushmanlarimiz bilan yashirincha aloqa bog'lashi bizlarni mag'lubiyatga uchratdi va to'kilgan qonlarimizning zoye ketishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda ulug' bir mamlakat parchalanib ketish oldida turibdi. Rey mamlakati Xorazm shohi sulton Tekeshning qo'lida. Hamadonda iroqliklar hukmronlik qilmoqdalar. Fors o'lkalari Eron qo'liga o'tish oldida. To'g'rulning o'zi esa Tabrizda o'tirib o'z mamlakatiga qarshi, bizga qarshi ig'vo qilish bilan mashg'ul. Ana shu vaziyatda qo'limizni qo'ltiqqa urib o'tirish mamlakatimiz oldida tarixiy bir xiyonatdir. Shuning uchun men iqtidorli, faol, davlatni idora qila oladigan, ham bu borada ish ko'rsatgan Eldaniz xonadonidan bir kishini hukmdor qilib tayinlashni taklif etaman. U kishi Otabek Muhammadning o'g'li Abubakir Nusratiddindir. Bir mahalda valiahdligini tasdiqlagan yigitimizdir.

Faxriddin shunday degach, Abubakirning qo'lidan tutib o'rnidan turg'azdi. Faxriddin bilan Abubakir bir necha minut oyoq ustida tik turdilar. Hech kimdan churq etgan sado chiqmadi. Nihoyat, Nizomiy vaziyatni o'zgartirmoq uchun o'rnidan turib, Abubakirning yoniga bordida, uning qo'lidan tutib masjiddagilarga murojaat qildi:

— Birinchi bo'lib yangi hukmdorga men bay'at etaman! Nizomiydan keyin Faxriddin, Alouddin va boshqalar kelib bay'at etdilar. Bay'at etish marosimi qorong'i tushguncha davom etdi.

Kechasi butun shahar bezatilgan edi. Ko'chalarda, tomlarda minglarcha mashalalar yonardi. Shahar hoqimi qasri yonidagi maydondan yuzlarcha mushaklar ko'kka uchib, yangi hukmdorning taxtga minganini Oron xalqiga e'lon qilardi.

Hukumat qasrida hukmdor sharafiga katta ziyofat berildi. Ziyofatda Nizomiy ham ishtirok etdi. Kechasi allamahal bo'lganda bir dasta lashkar hukmdorni buyuk shoirning somonli loy bilan suvalgan uyiga kuzatib qo'ydi.

* * *

Bir oydan beri Shimoliy Ozarbayjonning har tarafidan Naxchivonga kelgan qo'shin dastalari Yazdgurd qal'asi atrofida qurilgan chodirlarga joylashar edi.

Araks daryosining shimol tarafidagi o'tloqlarga boqqanda, har tarafda oq qanotli kapalaklarni xotirga soladigan oq chodirlarni ko'rish mumkin edi.

Otabek saroyi ustiga tikilgan qilich va qalam nishonli bayroq hilpiragan mahalda "Eldaniz" maydonida yig'ilgan minglarcha Naxchivon xalqi ham "Yashasin sulton Nusratiddin!" deb qichqirardilar.

Eldaniz saroyi devorining tashqi tomoni qimmatbaho gilamlar, ipakli buyumlar va alvonlar bilan bezatilgandi. Eldaniz xonadoni hukmdorlarining odati bo'yicha erta tongda, choshgohda va kechqurunlari darvoza tepasida karnay chalinardi. Sultonning vazirlari uchun maxsus binolar qurilar va ta'mirlanar edi.

To'g'rul Abubakirning sulton deb e'lon qilinganini va Naxchivonda katta qo'shin to'plaganini eshitib vahimaga tushdi. U o'z xatosini angladi, lekin vaqt o'tgan, g'isht qolipdan ko'chgan edi. Bu tuzatish mumkin bo'lmagan xato emasdi. Nihoyat, u bir qancha vaqt taraddudlardan so'ng Tabrizdan Naxchivonga vakillar yubordi. Vakillar Ziyoulmulk ko'prigidan shimol tarafga o'tkazilmadi.

Faxriddin vakillar boshlig'ining maktubiga javoban shunday deb yozdi:

"Vakillar qabul qilish va har xil masalalar yuzasidan muzokaralar olib borishga vakolatim yo'q".

Bu maktubga javoban vakillar tarafidan yuborilgan ikkinchi maktub quyidagicha yozilgandi:

"Basharti hashamatli Faxriddinning muzokara olib borishga vakolati bo'lmasa, u holda bizlarning Ganjaga borishimizga yo'l bersin. Biz a'lo hazrat sulton Nusratiddinning o'zi bilan ba'zi masalalarni hal qilib olamiz".

Lekin vakillar bu maktublariga ham ijobiy javob olmadilar. Faxridlni bu maktubga shunday javob yozib yubordi.

"Ganjaga borishning hojati yo'q, a'lo hazrat yaqin kunlarda Naxchivonga keladilar. Vakillar kelganini ma'lum qilamiz, bordi-yu, a'lo hazrat ijozat etsalar, vakillar Naxchivonga kelishlari mumkin".

Vakillar bu javobni olganlaridan keyin yana Alamdorga qaytib keldilar. Lekin Araks daryosining janubi va janubi-sharq sohillarida qurilgan chodirlar soni tobora ortardi. To'g'rul har ehtimolga qarshi hozirlik ko'rar va qurolli kuch yig'ardi. Sulton Nusratiddin Naxchivonga kelganidan ikki kun keyin To'g'rul tarafidan kelgan vakillar hay'atining Ziyoulumulk ko'prigidan o'tib Naxchivonga kelishiga ijozat berildi.

Vakillar hay'ati keltirgan maktub ustiga Faxriddinning nomi yozilgandi. Shuning uchun Nusratiddin Faxriddinni chaqirtirib maktubni unga topshirdi. Lekin Faxriddin maktubni o'qib xijolat bo'ldi, chunki u o'lkan bir qo'shinning sarkardasiga emas, bir yo'lto'sar va qaroqchiga yozilishi lozim bo'lgan maktub edi:

"Faxriddin!

Men Sharqning taqdiri bir shoir bilan bir Faxriddinning qo'lida o'yinchoq bo'lajagini bilganimda edi, allaqachon ikkingizni u dunyoga yuborar edim. Saltanatni To'g'rul singlimning o'g'li Abubakirga topshiradi, deb o'ylaganmiding? Mabodo, sen va sening rahnamoying bo'lgan shoir shunday fikrda bo'lsangizlar, xato qilasizlar, chunki Sharqning taqdirini Orondagi sulton Sanjar jomeiga yig'ilgan besh-o'nta xayolparastlar emas, balki Bag'dod saroyida o'tirib, butun islom olamiga hukmronlik qilayotgan amiralmo'minin Nasiruliddinilloh hal etmog'i lozim. Shunga ko'ra, islom olamida qon to'qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun sen

ham sening rahnamoying bo'lgan Shayx Nizomiy ham bu masalani xalifaning huzurida hal etishingiz kerak edi.

Siz bo'lsangiz islom qonuniga, odat va an'anaga rioya qilmasdan vorislik qonun-qoidasining qarshisiga o'laroq To'g'rulning boshidagi tojni yulqib olib, bir qishloqi ayoldan tug'ilgan yigitning boshiga kiygizmoqchi bo'ldingiz. Lekin toj hamma boshda ham turavermaydi. O'g'irlik toj bir kuni o'z ostidagi boshni ham o'zi bilan birga olib ketishi mumkin. Sen aqlingni boshingga yig'! Oddiy bir bolani dunyoga o'zining najibligi va aslligini tanitgan Saljuq avlodi bilan teng qo'yishdan uyal. Sen qahramonliging bilan tanilgansan. Keksaygan chog'ingda bu shuhratni arzongarovga sotma, chunki qaytadan shuhrat qozonmoq uchun umring kifoya qilmaydi. Shuhrat bilan olamdan o'tmoq uchun mamlakatlarimdan birini idora qil! Sen shoirdan yuz o'gir, uning bir dasta qog'ozdan bo'lak hech vaqosi yo'q. Yaqin fursatda siyohga bo'yalgan qog'ozlari bilan birgalikda uning o'zini ham o'tda kuydiraman. Men boshlab kelgan qo'shinlaringni uylariga qaytarishni buyuraman. Hech mahal sizlar tayin etgan hukmdorni tan olmayman. Basharti, bu talablar ado etilmasa, men o'z huquqimni qo'shni kuchi bilan himoya qilajakman".

To'g'rul yuborgan vakillar lom-mim demay turishib maktubning javobini kutishardi. Lekin Faxriddin bu safar ham:

— Javobni a'lo hazratning o'zi berishi kerak, — dedi.

Vakillar boshlig'i hukmdorga murojaat etib:

— Biz janoblarining huzurlaridan chiqqach, a'lo hazrat To'g'rulning huzurlariga qanday javob bilan boramiz, — deganda, Nusratiddin ham:

— Ozarbayjon xalqi har turli masalalar yuzasidan muzokaralar olib borish uchun menga vakolat bergan emas, — dedi.

Vakillarning Tabrizga qaytganiariga o'n kun bo'ldi. To'g'rul tarafidan yuborilgan ikkinchi vakillar hay'ati ham Naxchivonga keldi. Vakillarning bu daf'a keltirgan maktublarining mundarijasi avvalgi safardagiga nisbatan yumshoq va ancha vazminlik bilan yozilgandi:

"Aziz birodarimning o'g'li!

Rahmatli akam Otabek Muhammadning bu mamlakatda katta haqi bor edi. O'zing bilasanki, men uning haq-huquqini hech mahal inkor etmayman. Sen Eldaniz xonadonining tarixini juda yaxshi bilasan. Eldanizning o'g'illaridan hech biri podshoh bo'lgan emas. Ular umrlarining oxirigacha men va xalifa tomondan tasdiqlangan otabeklik vazifasini ado etganlar. Men bu vazifani Eldaniz xonadoni a'zolari qo'lidan olinishiga tarafdor emasman. Basharti birodarim o'g'li biror narsadan norozi bo'lsa, u mahal oilamizning barcha a'zolarini bir yerga to'plab, noroziligi haqli yoxud haqsiz ekanini muzokara etishimiz mumkin. Bunlay ixtiloflar birodarimning ko'zi tirik vaqtda ham bir necha bor yuz bergandi. Bizlar yig'ilishib, oramizdagi ixtiloflarni bartaraf qilgandik. Barcha ixtiloflarni rahmatli onamiz Turkon xotun hal qilardi. Mening ikki taklifim bor: birinchisi shuki, masalani hal etishni Amiralmo'minin va xalifayi ro'yi zaminga topshiraylik. Ikkinchisi shuki, men va o'g'lim Malikshoh bilan birga mamlakatni idora qilishda ishtirok et! Agarda taklifimga rozi bo'lsang, u mahalda sen Shimoliy Ozarbayjonni, o'g'lim Malikshoh esa Janubiy Ozarbayjonni idora etishi kerak. Bu qarorga sodiq qolmoq uchun har uchalamiz xalifa huzurida qasamyod qilamiz".

Nusratiddin bu maktubni o'qigandan keyin To'g'rulga quyidagi mazmunda bir maktub yubordi.

"Muhtaram amaki!

Mamlakat nomidan gapirishga salohiyati bo'lmagan kishilar bilan muzokara olib bora olmayman, Ozarbayjon xalqi bu haqda menga vakolat bermagan".

To'g'rul bu javobni olgandan so'ng masalani jiddiy ekanini angladi. Nusratiddinga yuborgan uchinchi maktubida yanada yon bosdi.

"Araks daryosini chegara belgilab, Shimoliy Ozarbayjonga hukmdor bo'lganingni tasdiqlayman".

Lekin To'g'rulning bu maktubiga ham Nusratiddin: *"Bu haqda muzokara olib borishga vakolat olmaganman"*, degan javobni berdi. Bu maktub va muzokaralar natijasiz qolgandan keyin har ikki tomon ham qurollanishga boshladi.

To‘g‘rulning Shimoliy Ozarbayjon chegarasiga yig‘gan qo‘shini son jihatdan Faxriddin qo‘shinidan bir necha barobar ortiq edi. Shuning uchun ham To‘g‘rul Araks daryosini kechib o‘tib shimoliy Ozarbayjonga kirishini u qadar qiyin bir masala hisoblamasdi.

To‘g‘rulning qo‘shini uch qismga ajratilgandi. Ulardan bir qismi Julfa qishlog‘i qarshisidan Araks daryosini kechib o‘tib, Naxchivonga hujum qilishga, ikkinchi qismi esa, Naxchivonning g‘arb tarafidan quruqlikka chiqishga harakat etdi. To‘g‘rul qo‘shinining uchinchi qismi “Xudofarin” ko‘prigidan o‘tib Qorabog‘ga hujum qilardi. To‘g‘rul qo‘shinlariga muvaffaqiyat bilan daryodan kechib o‘tib Naxchivonni qamal qilish va Nusratiddinni tutib o‘z huzuriga olib borish buyrug‘i berilgan edi. Qorabog‘ tarafidan Naxchivonga hujum qilayotgan qism muvaffaqiyat qozongan mahalda Naxchivonni qamal qilish tugagan hisoblanardi. Aloviddin rahbarligi ostida Qorabog‘ga yuborilgan qo‘shin bir soatlik jangdan so‘ng To‘g‘rul qo‘shinini ko‘prikdan janub tomonga uloqtirib tashladi.

Janubdan o‘tgan Iroq qo‘shini Naxchivon bo‘sag‘alariga qadar ilgarilab borib Qizil Vank ibodatxonasi yaqinidan Nusratiddinning shaxsan o‘zi boshchilik qilayotgan qo‘shin bilan jang boshladi.

To‘rt kecha-yu to‘rt kunduz davom etgan jang natija bermagach, Husomiddin maydonga ot surib kirib, Nusratiddinni maydondorlikka chaqirdi. Nusratiddin qo‘shindan ajralib chiqib, Husomiddinga ro‘baro‘ bo‘ldi.

Jang yarim soatdan ortiq davom etdi. Husomiddin qilich bilan Nusratiddinning qo‘lini yaraladi. Lekin Nusratiddin o‘zini yo‘qotmay, Husomiddinning yelkasiga gurzi bilan urib qo‘lini sindirdi va qochmoqchi bo‘lganida kamand tashlab egardan ag‘dardi. Iroqliklar qanchalik urinmasinlar, Husomiddinni Nusratiddin kamandidan xalos eta olmadilar. Sarkardalari asir tushganini ko‘rgan zamon Iroq qo‘shini orqaga chekina boshladi. Oronliklar ularni Araks daryosigacha ta’qib etib bordilar.

Faxriddin g‘arb tarafdan Naxchivonga qadar ilgarilab kelgan dushman qo‘shinining bir qismini qirib, bir qismini asir oldi. To‘g‘rulning qo‘shini yengilib, janubga chekinganidan so‘ng jang to‘xtadi. Nusratiddin esa, o‘z qo‘shinini janubga hujum qilish uchun tayyorlashga amr berdi.

* * *

Husomiddinni qatl etish uchun Ganjadan rizolik maktubi kelgan kuni Tabrizdan To'g'rul yuborgan elchi Nusratiddinga maktub olib keldi. To'g'rul o'z maktubida quyidagilarni yozgan edi:

"Mamlakat hamda vatan xoinlarining hiylasiga aldanib o'z valine'matingga qarshi qilich ko'tarding va minglarcha kishilarning qoni to'kilishiga sabab bo'lding.

Eshitishimga ko'ra, Husomiddin shifo topgandan keyin hayotiga suiqasd qilish niyatida emishsan. Men to'kkan qonlaringni kechiraman. Husomiddinning hayotini besh yuz ming oltin dirhamga menga sot. U aybdor emas, o'z burchini ado etgan bir askardir".

Nusratiddin xat yoza olmasdi, chunki qo'lidan yaralangan edi. U tog'asi Faxriddinni chaqirib, To'g'rulning maktubiga javob yozishni unga topshirdi.

Maktubda shunday deyilgandi:

"Hech mahal bizga valine'mat bo'lgan emassan. Aksincha, xonadonimizning qilichi soyasida buyuk ne'matlarga ega bo'lgansan, chunki sening o'zing hech narsani eplay olmaysan. Mamlakat hamda vatanini ajnabiylarga sotish bilan o'z hayotini saqlab qolmoqchi bo'lgan bir kishnning boshqalarni vatan xoini deyishga hech qanday haqi yo'q. Husomiddinni besh yuz ming oltin dirhamga sizga bera olmayman, chunki u vatan xoinidir. Ozarbayjon xalqi, u qatl etilsin, deb bir og'izdan qaror chiqargan. Uning qatl etish muddati malikaning Naxchivonga kelish kuniga qadar kechiktirilgan".

* * *

Talea va Go'zal taxtiravonlari shahar markazidan o'tib borgan mahalida, Otabek qasri qarshisida minglarcha qurolli va qurolsiz xalqni ko'rdilar. Ular taxtiravonning shohi pardasini ko'tarib tashqariga boqqanlarida Husomiddinni dorga osilganini ko'rib, uning ko'ksidagi lavhada yirik harflar bilan yozilgan quyidagi so'zlarni o'qidilar:

"Husomiddin Otabek Muhammad bilan Qizil Arslonni o'ldirishda ishtirok etgani va mamlakatga ajnabiylarning bostirib kirishiga

imkon yaratib bergani uchun Ozarbayjon xalqi tomonidan o'limga hukm etildi".

Nusratiddin kasal edi. U kasaldan yangi turgani uchun Talea bilan onasi Go'zalni Otabek Eldaniz saroyi darvozasida qarshi ola bildi. Talea Nusratiddinni kasal va yarador holda ko'rgan mahalda yig'lamoqchi bo'lganda Go'zal uning lablaridan o'pib:

— O'zingni bos, mehribon qizim! Hukmdorning qo'lidagi qilich yarasi nomus va qahramonlikning o'chmas muhridir. Xalq o'z hukmdori uchun qon to'kkan va hayotini fido qilgan vaqtda hukmdor saroyda o'tirib o'z jonini qo'riqlasa benomuslik bo'lardi, — dedi.

Bu kecha Naxchivon yosh malika va hukmdorning onasi kelishi munosabati bilan to shu kungacha misli ko'rilmagan darajada charog'on edi. Nusratiddin bilan yosh malika Eldaniz saroyining bir burchagida o'tirib, qasrning janubidan oqib o'tadigan Araks suvining oy yog'dusida kumushdek tovlanishini tomosha qilardilar. Go'yo o'n to'rt kechalik oy yuzidagi dog'larni yuvish uchun Edilog'o ko'lining[1] sohiliga tushib, oq bulutlardan libos kiyib cho'milishga hozirlanayotganga o'xshardi.

Moki tog'laridan esgan shamol, Shohbuz qoyalaridan qo'zg'algan mayin shabadalar Eldaniz saroyi ustida aylanib yosh malikaning qora sochlarini o'ynardi.

Yosh Nusratiddin Taleaning lablaridan bo'sa olmoqchi bo'lgan vaqtda, shamol ham yulduzlarning rashkini qo'zg'atmaslik uchun Taleaning uzun sochlarini to'zg'itib Nusratiddinning kaftlariga tashlardi.

Talea lablarini yosh hukmdorning lablaridan ajratgan mahalda: "Malika hazratlari, oqshom dasturxoniga marhamat qiling!" degan tovushni eshitdilar. Ular o'rinlaridan turib pastga tushmoqchi bo'lganlarida tag'in hukmdor Taleaning dudoqlaridan, shamol esa qora sochlaridan bo'sa oldi.

Talea va Go'zal Naxchivonga kelganlarining ikkinchi kuni hukmdorning amriga ko'ra bobosi Eldaniz va buvisi Mo'mina xotun-

---

[1] **Edilog'o** — Naxchivonning janubi g'arb tarafida mashhur bir ko'ldir. Qishda Naxchivon soyining suvi shu ko'lga to'planadi, yozda Bo'lga va Qorochug' qishloqlari ana o'sha suvdan sug'oriladi.

ning qabrlarini ziyorat etdilar. Hukmdor bobosining qabri toshi ustiga bir dasta gul qo'yib dedi:

— Bir necha oydan beri Naxchivonda turib ziyoratingizga kelmaganimni hurmatsizlik deb hisoblamang. G'oliblarning ziyoratiga katta bir g'alaba mujdasi bilan kelmoqchi edim. Bu kun Naxchivon yana siz bilan faxrlanmoqda, sizning rahnamoligingiz vatanni dushmanlardan xalos etmoqda. Sizning o'g'lonlaringiz intiqomini oldim, ularning qotillarini dorga osdim. Araks daryosining janub sohiliga o'taman. Eldanizning muqaddas tug'ini Bag'dod darvozalarigacha olib boraman.

Go'zal Talea bilan Eldaniz va Mo'mina xotun qabrlariga gul qo'yib qaytganlarida yo'l yoqasida turgan yo'qsullarga oltin va kumush dirham va dinorlar ehson etdilar.

* * *

Kecha zim-ziyo qorong'i edi, tosh orqasida o'tirib Araks daryosiga boqqan soqchi daryoda qora bir narsani suzib berigi sohilga o'tganini payqab qoldi. Soqchi o'rnidan qo'zg'almay ko'zini o'sha qora nuqtaga tikdi.

Bir necha daqiqadan so'ng soqchi daryo bo'yidagi tosh ortidan bir kishi turib shaharga tomon ketmoqchi bo'lganini ko'rdi-da, dik etib o'rnidan turib:

— Kimsan? To'xta! — deb qichqirdi.

Noma'lum odam to'xtadi va hech qarshilik ko'rsatmadi, faqat soqchining "Kimsan?", "Qanaqa odamsan?" degan savoliga javob o'laroq:

— Bir daqiqa kechikmoq ham a'lo hazrat Nusratiddinga qarshi xiyonatdir, meni u zotning huzurlariga olib bor, — dedi.

— Men seni faqat noib huzuriga olib bora olamag'.

— Kimning huzuriga olib borsang ham mayli, lekin vaqt o'tmasin.

Soqchi uni noibning oldiga olib bordi. Noib uning kim ekani va nima uchun kelgani haqida savol berishga boshladi.

Noma'lum odam savol-javobning uzoq davom etishini payqadi, noibdan keyin yuzboshiga, undan so'ng mingboshi, amirlashkar oldida shunga o'xshash savollarga javob berishga majbur bo'lishini

va buning hech bo'lmaganda ikki kun davom etajagini angladi, shuning uchun noibga murojaat qilib dedi:

— Savol-javobni to'xtating, bir savolga javob berish uchun ketgan fursatda o'nlarcha kishining o'lib ketishi mumkin, vaziyat juda jiddiy. Meni a'lo hazratning huzurlariga eltinglar.

Noib choparning so'ziga qah-qah urib kulib yuborib dedi:

— Qanday aziz mehmon... Shu yarim kechada a'lo hazratning o'z saroyida o'tirib Araks daryosidan o'g'rincha kechib o'tgan janobga ko'zi uchib o'tiribdi. Aybi yo'q, olis yo'ldan kelgansan, charchagansan, bugun kechasi bizning qorovulxonada qolib istirohat qilasan. Esonchilik bo'lsa, ertaga ertalab farmoningni bajo keltiramiz.

Chopar yalinib-yolvorishga boshladi, lekin so'zi inobatga olinmadi, uni bir necha askar sudrab qorovulxonaning bir hujrasiga olib kirishga urindi. Lekin u:

— Bu sizlar tomoningizdan hukumatga qarshi bir xiyonatdir. Men muhim bir ish bilan Naxchivonga yuborilganman, — dedi.

Bu so'zlarga quloq soladigan topilmadi. Uni sudray-sudray hujraga olib kirayotganlarida qorovulxonalarni tekshirib yurgan Faxriddin to'rtta yordamchisi bilan kirdi va noma'lum odamning xonaga sudrayotganlarini ko'rib:

— Bu nima degan gap o'zi? Inson bilan insonlarcha muomala qilishni unutdingizmi? — deb so'radi.

Noib bu savolga javoban dedi:

— Araks daryosidan yashirincha kechib o'tibdi. O'zi ham podshohning o'zidan boshqa kishi bilan gaplashmoqchi emas. Aqli unchalik butun emasligi sezilib turibdi. Meni hozirning o'zida podshohning yoniga olib boringlar deb talab qilyapti.

Faxriddin noibning yuziga zarda bilan boqib:

— Qo'yib yuboringlar, qo'yib yuboringlar, mening yonimga kelsin — dedi.

Noma'lum odamni bo'shatdilar. U Faxriddinga savol berdi:

— Siz kimsiz?

— Men podishoh qo'shinining qo'mondoniman.

— Bu tasodif men uchun ajoyib bir xushbaxtlidir! Yordamchilaringiz savol-javoblar bilan vaqtimni olsalar, ish chatoq bo'lar-

di. Tabrizda vaziyat xavfli. Meni Shamsiddin yubordi! A'lo hazratning huzurlariga borishim lozim.

Faxriddin ortiq hech nima demadi. Chopar bilan birga kechasi soat ikkilarda Eldaniz saroyiga yetdilar. Posbon kirib Nusratiddinga Faxriddin bir noma'lum odam bilan kelganini xabar berdi. Birozdan so'ng qaytib:

— A'lo hazrat sizga muntazirdirlar — dedi.

Ichkari kirdilar. Nusratiddin hali yotmagandi. U Taleaga Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostonidan parchalar o'qib bermoqda edi.

Faxriddin choparni a'lo hazratga taqdim etib:

— Bu chopar marhum Qizil Arslonning keksa vaziri Shamsiddin tomonidan yuborilibdi, — dedi.

Nusratiddin kitobni yerga qo'yib:

— Muhtaram ustozimning ahvollari qalay? — deb so'raganida, chopar:

— U zot ham juda keksayib qoldilar, ham betoblar, — deb javob berdi.

— Maktub berdilarmi?

— Ha, berdilar.

— Unday bo'lsa maktub qani?

Chopar uyalib javob berdi:

— Maktub ko'ylagimga yozilgan.

— Bor, ko'ylagingni yechib kel.

Chopar parda orqasiga o'tib ko'ylagini yechib olib keldi, lekin ko'ylagida hech narsa yo'q edi. Faxriddin ko'ylakda yozuv ko'rmagach, noibning "aqli ham unchalik butun emas" degani yodiga tushdi va noma'lum odamga ishonib podshoh huzuriga boshlab kelganidan uyaldi va unga savol berdi:

— Irkit ko'ylagingni podshohga ko'rsatish uchun Araks daryosidan o'tib kelibmiding?

Chopar bu savolga miyig'ida kulib dedi:

— Buyuring, lang'illab turgan manqal keltirsinlar.

Faxriddin kulib yubordi.

Podshoh ham qah-qah urib kulib savol berdi:

— Ko'ylagingni quritib olmoqchimisan?

— Yalinaman, vaqtni bekorga o'tkazmang. Manqal keltirishni buyuring.

Manqal keltirdilar. Chopar ko'ylagini o'tga tutdi. Birozdan keyin ko'ylagida sariq yozuvlar ko'rina boshladi! Faxriddin va podshoh hayrat bilan:

— Bu nima o'zi? — deb so'radilar.

— Tabrizdan tashqariga chiqadigan odamlarning hammasi To'g'rul qo'ygan qorovullar tomonidan tekshiriladi. Shahardan bir parcha qog'ozni ham olib chiqib bo'lmaydi, yo'llarda eshak to'qimlarini ham titkilaydilar. Shuning uchun Shamsiddinning amriga ko'ra, maktubni piyoz suvi bilan ko'ylagimga yozdilar. Ko'ylakni o'tga tutgandan keyingina yozuvlarni o'qish mumkin bo'ladi.

Faxriddin ko'ylakni qo'liga olib maktubni o'qishga boshladi:

"A'lo hazrat!

To'g'rulning Naxchivon yonidagi mag'lubiyati do'stlarni behad quvontirdi! Lekin To'g'rul endi o'chini janubiy ozarbayjonliklardan olishga kirishdi. Yashash nihoyatda og'irlashib ketdi. To'g'rulning bundan maqsadi ozarbayjonliklarni ko'chirib, ularning o'rniga iroqlik va eronliklarni keltirishdir! To'g'rul janubiy Ozarbayjonni eronlashtirish bilan Shimoliy Ozarbayjonni bir g'ov bilan to'smoqchi. Hozir Tabrizda va Tabriz atrofida erlashgan yigirma ming iroq va fors qo'shinlariga o'z oilalarini Ozarbayjonga ko'chirib keltirish buyurilgan.

Tabrizning g'arbiy qismida yashagan aholiga bir oy muddat ichida Iroq va Fors mamlakatiga ko'chib ketish to'g'risida amr berilgan. Lekin ular To'g'rulning bu amriga itoat etmadilar. Ular To'g'rul tomonidan yuborilgan jazo dastalarini mahallalardan quvib chiqardilar. Hozirgi kunda bu norozilik katta bir qo'zg'olon tusini oldi. Qora Malik degan bir deqqon bu qo'zg'olonga boshchilik qilmoqda[1]*. Janubiy Ozarbayjonning har tarafidan vatanparvar mardlar Qora Malikka yordamga kelayotirlar.*

Ammo ular qanchalik qahramon bo'lmasinlar, jangni uzoq vaqt davom ettira olmaydilar, chunki rahbarlari yo'q. To'g'rul Naxchivonga yurish boshlashdan avval xalqning rahbarlari va tadbirkor kishilarini hibs ettirgan.

[1] Hozir ham Tabrizda Qora Malik nomida katta bir mahalla bor.

Mening o'zim ham bemor bo'lganim uchun uyimda hibs qilinganman. Tabrizga shoshilinch ravishda yordam berishingiz lozim.

Qishloqdagi qo'zg'olonni bostirmoq uchun Hamadondan katta-katta manjaniqlar keltirilgan.

A'lo hazratni ishontirib aytamanki, Shimoliy Ozarbayjon otliqlari Marand shahri bo'sag'asida ko'rinishlari bilanoq tabrizliklar qo'zg'olon ko'tarib, o'z dushmanlarini quvajaklar. Mening fikrimcha, ozarbayjonliklarning To'g'rul bilan qiladigan bu janglari so'nggi jang bo'ladi.

A'lo hazratga yana bir narsani yetkazmakchiman: Iroq va Reydan olgan xabarlarim nihoyatda vahimali. Sharqning hozirgi vaziyati To'g'rulga o'xshashning taxt-u tojlarini saqlashlariga yo'l bermaydi.

Hozirgi kunda xalifalikning bir otabekchalik ham nufuzi qolmagan. Uni saqlab qolmoq uchun kuchli qo'l lozim. To'g'rul zaif bo'lgani uchun unga suyana olmaydi, xalifaning butun umidi xorazmshoh Tekeshda. To'g'rul jar yoqasida. Hushyor bo'lib turish kerak, u mamlakatni ham o'zi bilan birga halokat jariga qulatishi mumkin. Tabrizliklar sizni sabrsizlik bilan kutmoqdalar.

Tabriz, Shamsiddin".

Podshoh choparga dam olishni buyurdi, xonada Faxriddin bilan podshohdan bo'lak hech kim qolmadi. Podshoh Faxriddindan:

— Shu vazifani bajara olamizmi? — deb so'radi.

— Qanday bo'lmasin, bajarishimiz lozim.

— Qo'shiningiz tayyormi?

— Tayyor, har ehtimolga qarshi tayyorlab qo'yilgan.

— Ertaga kechasi Araks daryosidan o'tish kerak. Lekin hujum boshlashimizni hech kimsa bilmasligi kerak.

Faxriddin:

— Bosh ustiga! — deb podshoh bilan xayrlashib chiqib ketdi.

* * *

Tun qop-qorong'i. Moki tog'i ustida suzib yurgan qora bulutlar pardasi ostida Qizil Vank darasidan Araks daryosiga tomon kelayotgan otliqlar ko'zga chalinmas edi. Kishnamasligi uchun otlarning og'zilari bog'langan edi. Lekin ketma-ket chaqnab atrof-

ni yoritayotgan chaqmoqlar Araks daryosi sohilidan boshlangan bu harakatdan To‘g‘rul qo‘shinining qorovullarini ogoh qilib qo‘ydi.

Julfa burnidan Arablar qishlog‘iga qadar o‘ttiz farsang masofada joylashgan To‘g‘rul qo‘shinidan karnay sadolari va “Dushman kelayotir!” degan hayqiriqlar eshitila boshladi. To‘g‘rul qo‘shini oyoqqa turdi. Araks daryosi bo‘yndagi tepalar ustida gulxanlar yona boshladi. Daryoning kechiklari bamisoli kunduzidek yorishib ketdi. Daryo bo‘yiga xirmon qilib qo‘yilgan yantoqlarga o‘t qo‘yib yuborildi.

Daryo yorishgach minglarcha Qorabog‘ va Oron suvorilarining burniga suv kirib pishqirgan otlarining janubiy sohilga suzib kelayotgani ko‘rindi.

Bir lahzada to‘s-to‘polon boshlandi. Tun qorong‘isidan foydalanib Faxriddin daryoning shimolidagi tepaliklarga katta-katta toshlar ota oladigan to‘rt yuzga yaqin manjaniq o‘rnatishga farmon berdi.

Dushman janubdagi qoyalarning orqasiga o‘rnashib olib daryodan kechib o‘tayotganlar ustiga yomg‘irday o‘q yog‘dirardi. Lekin to‘rt yuz manjaniqdan otilgan ulkan toshlar ularni majaqlar edi. Quyosh chiqqan mahalda Faxriddinning o‘n ming kishidan iborat bo‘lgan birinchi dastasi Araks daryosini kechib o‘tib Julfa dalalariga o‘rnashib olgandi. To‘g‘rulning qo‘shini qurol-yarog‘ va chodirlarini tashlab parokandalik bilan Xon va Tabrizga tomon chekinardi.

Kech soat to‘rtlar chamasida Nusratiddin katta qo‘shin bilan Araks daryosidan o‘tib qarorgohiga keldi va darhol qo‘shinini kichik-kichik qismlarga bo‘lib Tabrizga hujum qilishni buyurdi.

Julfa yalangligi katta bayram tusini olgandi. Ozarbayjon qo‘shini daryoni kechib o‘tganini va Tabrizga yordamga kelganini eshitgan va bilganlar gullar, chechaklar va xilma-xil hadyalar bilan Julfa yalangligiga yig‘ildilar.

Qishloq aholisi yaradorlarni davolamoq uchun o‘z uylariga olib ketishar va ularning o‘rniga o‘z farzandlarini qo‘shni safiga uzatishardi. Qishloq aholilari To‘g‘rul qo‘shinining parokanda bo‘lib ketgan dastalarini tog‘lardan va daralardan bamisoli qo‘y suruvi yanglig‘ gala-gala qilib, podshohga topshirmoq uchun Julfa

yalangligiga haydab kelardilar. Podshoh esa asirlarni Naxchivon va boshqa shaharlarga jo'natishga farmon berardi.

Ertasiga ertalab qo'shni Tabriz ustiga yurish qilish to'g'risida buyruq oldi. Qo'shin tabrizliklarni qutqarmoq uchun dam olmay tinimsiz ot surardi. Oqshomda Julfa yalangligidan yo'lga chiqqan qo'shin ertasiga ertalab kun chiqqan mahalda Marand shahrini qamal qilishga boshladi. Lekin shaharni qamal qilishga zarurat qolmadi, chunki Ozarbayjon qo'shinining Tabrizga yaqinlashib borayotganini eshitgan marandliklar darhol qo'zg'olon ko'tarib, To'g'rul qo'shinini qirgan va hokim hamda bir qancha kishilarni hibsga olgandi. Shahar xalqi musiqa va quvnoq ashulalar bilan ozarbayjon qo'shinini qarshi olib, hibs yetilgan hokim va boshqa asirlarni ularga topshirdilar. Faxriddin shahar xalqiga minnatdorlik izhor etib, hokim va asirlarni qarorgohga yuborishni buyurdi.

Bir necha soat dam olgandan so'ng qo'shin to'g'ri Tabrizga yo'l oldi. Qo'shin So'fiyon qishlog'iga yetishi bilan Tabrizdan qochgan odamlar Faxriddinning huzuriga kelib shaharda dahshatli qirg'inlar davom etayotganini xabar qildilar. Qochqinlarning aytishlariga ko'ra, Qora Malik qo'l ostidagi qo'zg'olonchilar taslim bo'lish haqidagi taklifni rad etganlari va Tabriz xalqining bu qo'zg'olonga qo'shilganidan darg'azab bo'lgan To'g'rul shahar xalqini qatliom qilib, mol-u mulklarini talontoroj qilishga buyruq bergan edi. To'rt kundan beri To'g'rulning qo'shini bilan Tabriz xalqi o'rtasida qonli janglar borayotgan ekan.

Faxriddin qo'shinini ikki soat dam oldirdi. Julfadan yo'lga chiqqan ikkinchi va uchinchi dastalar ham So'fiyon qishlog'iga yetib keldi. Qosh qorayganda Tabrizdan So'fiyon tarafiga kuchli qo'shin dastalari yo'lga chiqqani haqida xabar keldi. Oradan yarim soatcha fursat o'tmasdan Olvar hamda So'fiyon taraflaridan Iroq otliqlari ko'rina boshladilar.

Ikki qalin chang-to'zon bir-biriga yaqinlashib kelardi. Lekin Qorabog' va Oron otlarining quyruqlarigina ko'zga chalinardi. Otliqlar esa o'qlardan saqlanish uchun qushday uchib kelayotgan otlarning yoliga bosh qo'ygan edilar. Otlar ro'parama-ro'para kelganda qilichlar yalang'ochlandi.

To‘rt soat davom etgan qonli jangda Ozarbayjon qo‘shini iroqliklarning qarshiligini sindirdi.

Faxriddin lashkarga bergan buyrug‘ida: “Birinchi navbatda Tabrizdan Kurdiston va Qazvinga boradigan yo‘llarni ishg‘ol etmoq lozim”, dedi.

Iroqliklar jang qila, jang qila chekinib Tabrizga kirdilar. Kechasi allamahal bo‘lishiga qaramay, shahar ichida shiddatli jang ketardi.

Quyosh tog‘ ortidan bosh ko‘tarib Tabriz shahri ko‘chalarida begunoh halok bo‘lgan qurbonlarga boqqan mahalida o‘n kundan beri To‘g‘rul qo‘shini bilan jang qilgan xalq yengil nafas olar, shimoldan kelgan qon-qardoshlari bilan salomlashar, o‘pishib quchoqlashar edi.

To‘g‘rulni va uning o‘g‘li Malikshohni tutib bo‘lmadi, chunki So‘fiyon oldidagi jangda mag‘lub bo‘lganidan keyin To‘g‘rul o‘g‘li Malikshoh bilan Qazvin tarafiga qochgandi. Tabriz olingandan ikki kun keyin Abubakir qaytib keldi. U birinchi navbatda Tabriz qo‘zg‘olonini boshlagan Qora Malikni o‘z yoniga chaqirib, unga bashang libos berdi va:

— Yashagan mahallangning nomini sening nomingga qo‘yaman,— dedi.

TO‘G‘RULNING QATL ETILISHI

Saljuqiylarning sa’y-harakati va ularning otabeklari bo‘lgan Eldaniz xonadonining tadbir va qahramonliklari soyasida barpo bo‘lgan buyuk mamlakat Saljuqiylarning so‘nggi hukmdori To‘g‘rul uchinchi (III)ning sahv-u xatolari natijasida yemirila boshladi. Mamlakat parchalanib ketdi. To‘g‘rulning ozarbayjonliklar bilan qilgan so‘nggi janggi uning hukmdorligiga xotima berdi.

Ozarbayjon ajralib chiqqanidan keyin, Rey va Iroqda To‘g‘rulga qarshi uzoq vaqtga qadar cho‘zilgan janglar boshlandi. Bir daf’a Qazvin bo‘sag‘asida mag‘lub bo‘lib Xorazm shohi sulton Tekesh yoniga qochgan Qutlug‘ Inonj u yerda zo‘r izzat-hurmat bilan qar-

shi olindi. Qutlug‘ Inonj biroz fursat Xorazmda turganidan so‘ng Xorazm qo‘shini bilan birga Iroqqa hujum boshladi.

Qutlug‘ Inonjning qo‘shinlari Hamadon bo‘sag‘asida yig‘ilgach, Ozarbayjon qo‘shini ham podshohi boshchiligida Qazvin atrofida joylashib oldi, chunki Xorazm qo‘shini To‘g‘rul III bilan ishni bir yoqlik qilganidan keyin Ozarbayjonga suqilishi mumkin edi.

Xorazmshoh bilan tuzilgan shartnomada Xorazmshoh Qutlug‘ Inonjning Ozarbayjon taxt-u tojiga o‘tirg‘izishni o‘z zimmasiga olgandi

To‘g‘rul bilan Ozarbayjon orasidagi ixtiloflarga qaramasdan ozarbayjonliklar qadimiy milliy chegaralarini himoya qilmoq va ajnabiylar hujumini to‘xtatmoq uchun To‘g‘rulga yordam bermoqchi bo‘ldilar. Lekin To‘g‘rul ozarbayjonliklar hiyla qilyapti deb o‘ylab bu taklifni tamomila rad etdi.

Bu taklifdan so‘ng To‘g‘rul dushmanga qarshi qo‘yishi mumkin bo‘lgan kuchining muhim bir qismini Iroq jabhasidan olib, Ozarbayjon chegarasiga tashladi.

Faxriddin Ozarbayjonning xavf ostida qolganini sezib To‘g‘rulning qo‘lida bo‘lgan mamlakatlarni saqlab qolmoq uchun qo‘lidan kelganicha harakat qildi. Lekin To‘g‘rul shunda ham o‘jarligini qo‘ymadi.

Nihoyat, Xorazm va Rey qo‘shinlari chegarani buzib kirgan mahalida Faxriddin To‘g‘rulga quyidagi mazmunda maktub yubordi: “Mamlakat tahlika ostida. Xorazmdan va Reydan bostirib kelayotgan qo‘shinlarning hujumini daf eta olmayajaksan, chunki qo‘shining safida e’timod qilishing mumkin bo‘lgan birorta ham sodiq do‘sting yo‘q. Dushmaning ana shunga amin bo‘lgani uchun senga qarshi yurish boshladi. Qo‘lingdagi mamlakatning dushman tasarrufiga o‘tishi uchun bir necha kungina vaqt kerak, xolos. Bizning qo‘limizdagi ma’lumotlarga qaraganda xalifa Nasiruliddinilloh sulton Tekeshning Iroq uzra hukmronligini tasdiq etgan, g‘isht qolipdan ko‘chgan. O‘jarligingni qo‘y! Ozarbayjon xalqining to‘kilgan qonlari va bergan qurbonlari bahosiga olingan mamlakatlarni dushman qo‘liga o‘tib ketishiga yo‘l berma. Sen bu to‘fon qarshisida turish bera olmaysan. Bizga ishon, chegarani

och. Ozarbayjon qo'shini borib dushmanni mamlakatdan quvib chiqarsin. Biz qo'lingda bo'lgan joylarni sening o'zing uchun himoya qilishga qasamyod etamiz".

To'g'rul Faxriddinning maktubini olgandan so'ng o'z vaziri shoir Kamoliddin bilan maslahatlashdi. Kamoliddin Faxriddinning maktubini o'qib kuldida:

— Ozarbayjonliklar buyuk bir mamlakatni quruq bir maktub bilan ishg'ol qilmoqchilar,— dedi.

To'g'rul Faxriddinga yuborgan javob maktubida: "Mening uchun shimoldan keladigan do'stlar Sharqdan va Shimol-g'arbdan keladigan dushmanlardan ko'ra xavfliroqdir", deb yozdi.

Nasihatlar foyda bermadi. Urush boshlandi. Shaharlar birin-ketin dushman qo'liga o'ta boshladi. Lekin To'g'rul o'z ayshi-ishratini davom ettirar va mamlakat mudofaasi bilan shug'ullanmasdi. Dushman uni o'tirgan poytaxti darvozalariga yetib keldi. Urushning o'n birinchi kuni nonushtadan so'ng To'g'rul haddan ziyoda mast edi. Par yostiqlarga yonboshlab sharob ichar va nozanin raqqosalarning o'yinini tomosha qilardi.

Sarkarda ichkari kirib, bosh egib ta'zim qilib:

— Dushman Rey darvozasidan shaharga bostirib kirdi! Otabek maydonining atrofida jang bo'lmoqda,— dedi.

Musiqa sadolari tindi, sharob kosalar yerga qo'yildi, raqqosalar turgan joylarida qotib qoldilar. Taxtning oyog'idagi baxmal o'rindiqlarda o'tirgan kanizaklarning ko'zlari qinidan chiqib ketay deb qoldi. Hamma hukmdorning og'ziga tikilgan edi.

Nihoyat, hukmdordan sado chiqdi:

— Otimni va qurol-aslahalarimni keltiring!

Hamma chiqib ketdi, xona bo'shab qoldi. Yarim soatlardan so'ng podshoning maxsus lashkari uni tantana bilan jang maydoniga olib bordi.

Qutlug' Inonj ot surib To'g'rulning qarshisiga keldi. To'g'rul otiga qamchi bosib maydonni aylanib Qutlug' Inonjga tomon bordi. Egar ustidan og'ir gurzini olib Qutlug' Inonj boshiga solmoqchi bo'lganda Qutlug' otini orqaga tislatdi. Gurzi To'g'rulning o'z otining boshiga tushib, uni majaqlab yubordi, To'g'rul oti bilan yerga quladi. Qo'shinidan hech kimsa chiqib Qutlug Inonj qo'lidan

uni xalos etishga urnimadi. Qutlug‘ Inonj otdan tushib qilichini yalang‘ochladi.

To‘g‘rul bu vaziyatni ko‘rib kayfi tarqab ketib, Qutluqqa yolvorib dedi:

— Ey jahon Pahlavonning o‘g‘li, men zamona sultoniman. Shafqat qil, menga omon ber.

Qutlug‘ qo‘lida yalang‘och qilich bilan uning tepasida turarkan:

— Ajaling yetgan mahalda podsholik da’vosini qilma! Shu urushlarning sababchisi sensan, — dedi va To‘g‘rulga qilich soldi. Bir qilich zarbasi bilan buyuk bir saltanat intihosiga yetdi. Qutlug‘ning amriga ko‘ra To‘g‘rulning murdasini bir tuyaga ortib sulton Tekesh huzuriga yubordilar. Sulton Tekesh To‘g‘rulning jasadini tuya ustida ko‘rib o‘z ko‘zlariga ishonmadi, keyin xursand bo‘lib Xudoga hamd-u sanolar o‘qidi, nihoyat, To‘g‘rulning boshini kestirib Bag‘dod xalifasi Nasiruliddinillohga yubordi. Boshsiz jasadni esa, bozor maydonida dorga osdilar.

Bu holni ko‘rgan mashhur shoir Foziliy To‘g‘rulning o‘limi haqida shunday bir ruboiy yozdi:

Imro‘z, shaho, zamonayi diltang ast
Firuzai dahr har zamon digar rang ast,
Den az sori tu toba falak yak gaz bud,
Imro‘z zi sar to badanat farsang ast[1].

Jangda sulton To‘g‘rulning vaziri va nodimi shoir Kamoliddin ham asir tushgandi. Uni Xorazm sultonining vaziri Nizomulmulk Mas’udning yoniga keltirganlarida Nizomulmulk unga shunday dedi:

— Sen madh etgan, azamat va qudrati haqida katta kitoblar yozganing To‘g‘rul shumi? U sulton qo‘shini qarshisida bir soat ham turish bera olmadi[2].

---

[1] Podshohim, bugun diltanglik va g‘am-g‘ussa kunidir. Zamona firuzasi har kuni boshqa-boshqa rangdadir. Kecha osmon bilan sening boshing oralig‘idagi masofa bir gazgina edi. Ammo bugun boshing bilan badaning orasidagi masofa bir necha (yuz) farsangdir.

[2] “Ravzatussafo”. Uchinchi jild.

Nusratiddin o'zining xavfsizligi ta'min etilgan deb hisoblardi. Mamlakat chegaralarida tom ma'noda tinchlik hukm surmoqqa boshladi!

Qutlug' Inonj Xorazm shohining harbiy kuchi bilan To'g'rulni oradan ko'targandan keyin to'rt marta Ozarbayjonga hujum qilgan bo'lsa-da, har safar Qazvin va Zanjon bo'sag'alarida tor-mor keltirilib, nihoyat, Xorazmshoh mamlakatiga qochib ketgandi.

Xorazm shohi sulton Tekesh keyingi vaqtlarda Qutlug' Inonj bilan tuzgan shartnomaga amal qilmasligi mumkin edi[1], chunki Chingizxonning istilosi to'g'risidagi xabar O'rta va Yaqin Sharqni bir-biriga yaqinlashtirgandi. Endi Sharq hukmdorlari mamlakatlari chegaralarini kengaytirish bilan emas, balki mustahkamlash bilan mashg'ul edilar. Endilikda mamlakatlarning chegaralari oy sari o'zgarib turmasdi.

Shuning uchun ham Ozarbayjon va uning qo'shnilari mamlakatlarini obod etmoq, xarobaliklarni tuzatmoqqa va tanazzulga yuz tutgan madaniyatni qaytadan rivojlantirishga boshlagandilar.

Hozir Nusratiddin o'zini eng baxtiyor bir hukmdor deb hisoblardi. U o'z xalqini sevar, xalq ham uni sevardi. Ozarbayjonliklar, hukmdorimiz ajnabiy emas, o'z singlimizning o'g'lidir, deb faxrlanardilar. Nusratiddinni ikkinchi bir baxt ham kutardi. Uning yosh malikasi go'zal Talea homilador bo'lib, yaqin orada ko'z yorishi kutilardi. Tabriz isib ketgani sababli hukmdor o'z oilasi bilan birga Ujon yaylovnga ko'chgandi.

Oqshom edi, hukmdor o'z yosh malikasi bilan Eldaniz qasrining baland shiyponida o'tirib Sahand tog'idan tushib yashil bog'-rog'lar og'ushiga kirayotgan sho'x suvning shaldiroq ovozini tinglardi. Talea bu ko'rkam manzarani bir necha daqiqa ko'zdan kechirgach:

---

[1] Xalifa Nasiruliddinillohning maslahati bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha Xorazmshoh Iroq va Rey mamlakatini Xorazmga qo'shib olib, evaziga esa Ozarbayjonni zabt etib Qutlug' Inonjga berishi kerak edi.

— Tabiat naqadar go‘zal-a, — dedi. — Dunyoda baxtiyor yashab, tabiatning go‘zal manzaralariga to‘yib tomosha qilishdan katta baxt bormikin!

Hukmdor go‘zal rafiqasiga javob berib dedi:

— Tabiatga go‘zallik baxsh etadigan bir necha narsa bor. Ularning birinchisi esa, sensan, menim rafiqam! Sening ko‘zlaringga boqqan daqiqalarimda o‘zimni eng baxtiyor odam deb his etaman. Yaqin kunlarda sen mening saroyimga bir dasta gul keltirasan.

Hukmdorning bu so‘zlarini eshitib Talea dudoqlarini hukmdorning dudoqlariga yaqinlashtirmoqchi bo‘lganda sapchib ketdi, yiqilayotganida hukmdor uni ushlab quchog‘iga oldi.

Taleaning bo‘g‘iziga qadalgan o‘qni old tomondan chiqarishning iloji yo‘q edi, orqasidan tortib oldilar. U gapira olmadi, bir marta ko‘zlarini ochib hukmdorning yuziga boqdi-yu, yig‘lab ko‘zlarini manguga yumdi. Hukmdor bir oh tortib:

— Olamda mendan ko‘ra ham baxtsizroq odam bormikin? — dedi.

Hukmdor Ujon yaylovini qurshab olib, hech bir zotning tashqariga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikni buyurdi.

Saroy to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi. Hukmdor Taleaning boshini bag‘riga bosib yig‘lar va yakkash:

— Talea, yana bir marta ko‘zingni ochib menga boq! — derdi.

Qo‘shin dastalari Ujon yaylovini ostin-ustun qilib axtardilar. Lekin hech kimni qo‘lga tushira olmadilar.

Odamlar bu o‘qni dushman otgan deb o‘ylardilar. Bu tasodifni bir o‘q deganlar ham bor edi. Taleaning bu fojiali o‘limi hukmdorni qattiq qayg‘uga soldi. U faqat juma oqshomlaridagina emas, har kuni Taleani eslab “Surxob” mozoriga borar, bir necha soat sevikli xotini qabri yonida o‘tirib yig‘lar va dardini qabr toshiga so‘zlab saroyga qaytardi.

Kuzgi izg‘irin sovuqlar boshlandi. Qor aralash yomg‘ir yog‘ardi. Hukmdor saroy derazasi oldida o‘tirib bog‘chaga boqardi. Tabrizning ufqlari hukmdorning qalbi yanglig‘ qora bulut bilan qoplangandi. Daraxt tepasidan tushgan har bir tomchi yomg‘ir

xazon bo‘lgan yaproqlarni o‘zi bilan birga yerga olib tushardi. Qanotlari ho‘l bo‘lib uvushib qolgan qushlar sal bo‘lsa-da, isinish uchun shoxdan shoxga uchib qo‘nardilar. Deraza oldidagi uzilmay qolib ketgan behilar hijronzada bemorning chehrasi singari sarg‘ayib, qaragan kishining ko‘nglini allanechuk qilib yuborardi.

Hukmdorga hamisha kuz havosi yoqmasdi. U ovunish maqsadida o‘zi uchun bir mashg‘ulot axtarardi. U birdaniga hech nimadan hech nima yo‘q ovoznni barala qo‘yib:

— Talea, borib “Sharafnoma”ni olib kelgin-da, menga hind qizi dostonini o‘qib ber! — deb yubordi va Taleaning o‘lganini esladi-yu, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Xizmatkorlar qurollanib hukmdor bilan birga qabristonga jo‘nadilar. Qosh qoraymoqda edi. Ko‘chalarda hech zog‘ yo‘q. Tolzordan o‘tib “Surxob” qabristoniga yetdilar. Qabristonning oliymaqom xonadonlar dafn etiladigan tomoniga bordilar. Xizmatchilar doimiy odatlari bo‘yicha bir chekkada turdilar, hukmdor esa Taleaning maqbarasiga kirib unga salom berdi, keyin kundalik odati bo‘yicha, marhumaning kayfiyatini so‘radi va “mening farzandi dilbandim qalay?” deb o‘kirib yig‘lab yubordi. Keyin Talea yaxshi ko‘radigan xitoy kanizagi haqidagi dostonni o‘qishga boshladi.

U yig‘lab, o‘z-o‘zicha gapirib, yarim soat chamasi termilib o‘tirdi, chunki doimo Talea yotgach, hukmdor yotog‘i yonida unga qarab o‘tirishni yaxshi ko‘rardi.

Hukmdor ko‘zlarini yumganicha sukut qilib qabrga qarab o‘tirardi. Birdan uning qulog‘iga bir ovoz eshitildi. Ro‘paradagi maqbara yonida bir kishi yig‘lar va qabr bilan so‘zlashardi:

— Sen meni baxtiyor etmoq uchun o‘z hayotingni qurbon qilding. Lekin men hozir olamdagi eng baxti qaro odamman. Bir mahallar men butun boshli bir mamlakatga sig‘masdim, endi bo‘lsa tunash uchun issiq bir burchak ham topa olmayman. Mehribon ona, quchog‘ingni ochib meni og‘ushingga ol! Ortiq hayot menim uchun o‘limdan ham beshbattardir.

Hukmdor boshini ko‘tarib qaradi. Ovoz eshitilayotgan maqbaraning eshigida quyidagi so‘zlarni o‘qidi:

"Hozo qabri Qatiba binti Amir Inonj"[1].

Hukmdor hayron bo'lib qoldi, u o'z-o'ziga savol berdi: "Ajabo Qatibaning qabri ustida bunday so'zlarni kim gapirishi mumkin?"

Hukmdor shunday deb Qatibaning maqbarasiga kirdi. Qabr ustida zaif, engil-boshi juldur bo'lib ketgan, sochi o'sib qosh-u ko'zini qoplagan irkit kishini ko'rdi. U kishi ham yig'lar, ham sovuqdan qaltirardi. U boshini ko'tarib hukmdorni ko'rgan zaqoti irg'ib o'rnidan turdi-yu, titroq tovushi bilan:

— Meni o'ldirgani keldingmi?— dedi o'zini tetik tutishga urinib. — Bir vaqtlar men o'z boshimni omon saqlash uchun juda ko'p odamlarning boshlarini olgandim, hozir esa o'lim talabman, o'ldir meni!

Hukmdor birodarini tanidi va boshini quyi solib ohista dedi:

— Birodarimsan, biz birinchi safar jang maydonida, ikkinchi safar esa qabristonda ko'rishdik.

Hukmdor shunday deb maqbaradan chiqdi va xizmatchilarini chaqirib:

— Anavi maqbaradagi odamni saroyga olib boringlar!— deb buyurdi-da, o'zi saroyga qaytdi.

Kechasi soat o'n ikkilarda xizmatchilardan biriga qabristondan keltirilgan odamni o'z huzuriga boshlab kirishni buyurdi. Bir necha yillardan beri hukmdorlik qilish orzusida butun mamlakatni betinch qilgan, minglarcha kishilarning qoni to'kilishiga sabab bo'lgan, hatto,o'zining sevimli Taleasini ham o'ldirgan Qutlug' Inonj uning qo'liga tushgandi. Hukmdor o'ylar, u bilan qanday muomalada bo'lish haqida bosh qotirardi.

Qutlug' Inonjni olib kirdilar. Hukmdor uning boshidan oyog'igacha diqqat bilan razm soldi va xayolchan bir ohangda:

— O'tir, o'tir pahlavon[2], oyoq ustida turma!— dedi. Qutlug' Inonj o'tirdi, ko'zlarini hukmdorning og'ziga tikib, uning aytadigan gapini kutdi. Nihoyat, hukmdor unga savol berdi:

— Nega Tabrizga kelding?

---

[1] Bu Qatiba Amir Inonj qizining qabridir *(arabcha)*.

[2] Eldaniz xonadoniga mansub bo'lgan kishilarni pahlavon deb atash odat tusiga kirgandi.

— O‘tinaman sendan, tergov cho‘zilmasin. Buyur mening jazoyimni bersinlar, boshimga tushgan voqealarni gapirib berishga toqatim yo‘q, kasalman va...

Hukmdor uning och ekanini payqab undan:

— Ochmisan? — deb so‘radi.

— Ochman, bir necha kundan buyon og‘zimga suvdan boshqa narsa olganim yo‘q.

— Nega ovqat yemading?

— Yeyishga hech vaqom yo‘q edi, tilanishni esa sha’nimga munosib ko‘rmadim. Tarixda jahon pahlavonning o‘g‘li bir burda non uchun eshikma-eshik yurib tilanchilik qilgan edi demasinlar.

Bu gapni eshitgach, hukmdor ho‘ngrab yig‘lab yubordi va xizmatkorga buyurdi:

— Ovqat keltiringlar. Kechki ovqatni bu kishi bilan birga yemoqchiman.

Hukmdor Qutlug‘ Inonjni gapga solmasdi. Uning betoqat bo‘layotganini sezardi.

Dasturxon tuzadilar, kanizaklar kirib xizmatda bo‘ldilar. Hukmdor dastlab o‘zi dasturxon boshiga kelib Qutlug‘ Inonjni chaqirdi.

— Qani, dasturxonga kel. Har nima bo‘lganda ham sen Eldaniz xonadonining a’zolaridansan. Bu dasturxon sen uchun begonalar dasturxoni emas, bu merosda sening ham haqqing bor.

Qutlug‘ Inonj dasturxon boshiga kelib bir-ikki luqma ovqat egach, darhol o‘zini chetga tortdi. Hukmdor ham dasturxondan qo‘lini tortib Qutlug‘ Inonjga murojaat qildi:

— Qani endi gapir, eshitay!

Qutlug‘ Inonj so‘zga kirishib o‘z sarguzashtlarini hikoya qilib berdi:

— Xorazmshoh Alouddin Tekesh Rey va Iroq mamlakatlarini qo‘lga kiritgandan keyin, o‘zi tuzgan shartnomaga amal qilmadi. So‘nggi daf’a Qazvin yonida mag‘lubiyatga uchrab chekinganimdan keyin achchig‘lanib menga dedi: “Mening Ozarbayjon chegaralarida qirilib ketsin deb yuboradigan ortiqcha odamim yo‘q”. U meni saroyda qolib qulayroq bir fursat kelishini kutishimni taklif etdi. Yolg‘iz menigina emas, balki umuman sulton Tekesh saroyida

yashaganlarni hurmat qilishmasdi, chunki bizga o'xshash odamlarni muayyan bir ishda foydalanish uchun edirib-ichirib saroyda saqlardilar. Lekin Chingizxonning O'rta Osiyoga tomon yurishi sultonning yangi-yangi mamlakatlarni bosib olish fikridan qaytardi. Menimcha, xuddi ana shunga ko'ra sulton Tekesh o'nqovi kelganda foydalanish uchun saqlab yurgan ko'plab kishilarni saroydan chiqarib xususiy binolar va karvon saroylarning hujralariga joylashtirdi. Bunday kishilarning yashashi uchun beriladigan mablag' juda oz edi. Boshqalarga nisbatan mening vaziyatim juda ham og'ir edi, chunki qo'l ostimda talaygina odamlarim bor edi. Ularni ham boqib turishim lozim edi. Keyingi vaqtlarda sulton tomondan bizga berilib turgan mablag'ni yanada qisqartirdilar. Yashaydigan binolarimizga to'lanadigan haqni hukumat bizlarning o'z zimmamizga yukladi. Nihoyat, biz o'z mol-ashyolarimizni sotib kun kechirishga majbur bo'lib qoldik. Men bir necha oy ichida qashshoqlashib qoldim. Himoyamda bo'lgan kishilar ham birin-sirin har tarafga tarqalib ketdi. Mening o'zim ham shaharma-shahar ko'chib yurdim. Marvda, Nishopurda, Jojurmda va Bastamda uzoq muddat sarson-sargardon kezdim. Axiri, yana bir marta o'z baxtimni sinab ko'rmoq uchun Ozarbayjonga qaytdim. Katta-katta qo'shinlar va minglarcha manjaniqlar kuchi bilan ololmagan mamlakatimga yolg'iz o'zim kelmoqqa jazm qildim. Qurol-aslahadan bir kamon-u bir donagina o'qim qolgandi, xolos. So'nggi umidimni shu kamonga bog'lagandim. Kamonni sotmadim, chunki uni rahmatli otam o'z qo'li bilan kiftimga taqib qo'ygandi. Ana shu kamon bilan o'qni ko'tarib Tabrizga keldim. Mazkur o'qni senga otaman deb ont ichgan edim. Seni Tabrizda topmadim. Ujon yayloviga keldim, sen yashayotgan qasr oldidagi xarobada tunadim. Seni har kuni kechqurun ko'shkda o'tirib Sahand tog'larini tomosha qilishingni bilib oldim. Kamonni shaylab o'zim bilan olib keldim-da, seni nishonga olib o'q uzdim. Lekin, baxtga qarshi, o'zimning sho'rlik xolamni o'ldirdim.

Hukmdor uning so'zini kesib:

— Xolangni o'ldirding, ayni zamonda meni ham o'ldirding! — deganida, Qutlug' ham:

— Sen ham meni o'ldir. Yalinaman, yolvoraman, meni shu razil hayotning panjasidan xalos et. Men juda ko'p odamlarni o'ldirdim, o'limni oson bir narsa deb bilardim. Lekin o'zimni o'ldirishga yuragim dov bermaydi.

Hukmdor biroz fikrga ketgach:

— Seni ikki sababga ko'ra o'ldirmayajakman, — dedi. — Avvalo, seni hozir o'ldirmoq senga yaxshilik qilmoq demakdir. Sen bunday yaxshilik qilishimga loyiq odam emassan. Ikkinchidan esa, hukmdorlik tarixida nomimni o'z birodarining qotili deb yozishlarini istamayman. Qani endi aytgin-chi, Tabrizda seni kim o'z uyida saqlab turipti?

— Men hech kimnikida yashayotganim yo'q, kechalari maqbarada, onamning bag'rida tunardim.

— Kamonni kimga topshirding? Sotdingmi?

— Yo'q, sotganim yo'q. Maqbaraning bir burchagiga ko'mib qo'yganman.

Hukmdor xizmatchilarini chaqirib:

— Hozir borib Qatiba xonimning maqbarsi burchagiga ko'mib qo'yilgan kamonni topib kelinglar! — deb buyurdi.

Xizmatkorlar chiqib ketdilar. Hukmdor Qutlug' Inonjga dedi:

— Seni Alanjiq qal'asiga jo'nataman. U yerning sulton Tekesh saroyidan o'lsa o'ligi ortiq, chunki u yer zindon bo'lsa-da, o'z vataningdadir. Vatan zindoni esa, begonalar saroyidan afzal.

Qutlug' Inonj ortiq gapirmadi. U boshini quyi solib qo'llarini ko'zdan kechira boshladi.

Kamonni olib keldilar. Hukmdor yoy ustidagi yozuvni o'qidi:

"Jahon Pahlavonning o'g'li Qutlug' Inonjga yodgor. O'q va kamonning quvvati yurakning quvvatiga bog'liqdir. Aziz farzandim, bu kamonni do'stingga qarshi emas, dushmaningga qarshi ishlatmog'ing kerak".

Hukmdor kamonning ustidagi yozuvni o'qigandan keyin Qutlug' Inonjga savol berdi:

— Sen otangning ana shu vasiyatiga sodiq qoldingmi?

— Yo'q, otamning vasiyatiga xilof ish qildim. Ortiq bu kamonni taqib yurishga haqim yo'q.

1140–1225[1]

Nusratiddin Abubakir sevikli rafiqasi Taleaning o'limidan keyin davlatni idora qilish ishlarini vazirlariga tashlab, o'zi sharobxo'rlikka berilib ketdi. U butun vaqtini sharob kosasi va xotinining qabri ustida kechirardi. Shuning uchun ham Ozarbayjon mamlakatining chegaralari tobora torayib borar va dushmanlar har kuni bir shaharni ishg'ol qilardilar.

Nusratiddinning shuhrati va pahlavonligi, sharobxo'rligi va mastlik qabristonida chirigach, Ozarbayjon mamlakatiga qarshi Sharqda yangi bir ittifoq vujudga kela boshladi.

Marog'a hokimi Qorasunqar va Arbil hokimi Muvaffariddin ittifoq tuzishib Ozarbayjonni bosib olmoqchi bo'ldilar. Endilikda Nusratiddinni na qilich-u va na qalam himoya qilolmas edi.

Faxriddin va Alouddinning qilichlari qonda zang bosib qolganidek, buyuk Nizomiy ham ko'zlarini manguga yumgan edi.

Oron va Qorabog' otlarining kishnashlari eshitilmasdi. Bag'dod va Xorazmni titratgan kishilar Ganja qabristoni tuprog'i ostida yotar edilar[2].

Qorasunqar bilan Arbil hokimi Muzaffariddinning qo'shinlari hujumga o'tgan mahalda Nusratiddin Hamadon hokimi Oytug'mushning nomiga bir maktub yuborib, undan yordam so'radi. Lekin bir mahalda Eldanizning quli bo'lgan bu zot Ozarbayjonga ko'mak berishni istamadi. Nihoyat, Nusratiddin unga ikkinchi bir maktub yozib yolvordi:

"Hozirgi kunda ajnabiylar mening mamlakatimni g'orat qilmoqdalar. Shunday bir kunda mendan yordamni darig' tutish, Ozarbayjonni halokat yoqasiga sudrash demakdir. Otamning sizga qilgan yaxshiliklarini unutmasangiz durust bo'lardi".

Nusratiddinning bu maktubidan keyin Oytug'mush Marog'a hoqimi Qorasunqar va Arbil hokimi Muzaffariddinga tahdidomuz maktublar yubordi.

---

[1] Otabek Eldanizlarning hukmronlik qilgan yillari.

[2] Nizomiy 1203-yilda vafot etgandi.

Arbil hokimi Muzaffariddin bu maktubni olgach, qo‘shinlarini orqaga qaytardi. Qorasunqar esa, Oytug‘mushning maktubini nazarga ilmay, hujumni davom ettiraverdi.

Shuning uchun Oytug‘mush Abubakir Nusratiddin bilan birgalashib Qorasunqarni Marog‘a yonidan uloqtirib tashladilar. Lekin Nusratiddin Ozarbayjonning eski chegaralarini tiklay olmadi. Qorasunqar o‘lganidan keyingina Nusratiddin Marog‘a va Ravshanduzdan tashqari barcha qal’alarni qaytarib oldi. Lekin u yana sharobxo‘rlikka berildi. U Gruziya qirolining go‘zal qiziga uylangandan keyin ham qadahni qo‘liga olarkan: “Talea, Talea” deb yig‘lardi. Nihoyat, u savdoyi bo‘lib o‘ldi va o‘rnini ukasi O‘zbakka topshirib ketdi.

O‘zbak hukmronlik qilgan yillar Ozarbayjonning eng notinch va eng tahlikali davri edi: chunki O‘zbak siyosat sahnasiga chiqqan zamonlarda Sharqda Jaloliddin Xorazmshoh singari bir jahongir hukmdor paydo bo‘lgan edi. Jaloliddin o‘z mamlakatini O‘rta Sharq hisobiga kengaytira olmasdi, chunki Chingizxon O‘rta Sharq o‘lkalarini birin-ketin ishg‘ol qilmoqda edi. Shuning uchun Jaloliddin Gruziya va Ozarbayjonga ko‘z tikdi. Tabriz qo‘ldan ketganidan keyin O‘zbak ozgina qo‘shin bilan Ganjaga chekildi. U oronliklarni o‘z atrofiga to‘plamoq uchun Faxriddinning qabriga bir dasta gul qo‘yib:

— Aziz tog‘ajon, qudrat va buyukliging sen bilan birga tuproqqa ko‘mildi. Oronliklarga amr et, o‘z singillarining o‘g‘lini mudofaa qilsinlar, — dedi.

Lekin O‘zbakning davlatni himoya qilmoqqa quvvati yo‘q edi, chunki Jaloliddinning qo‘shinlari Tiflisni g‘arot etgandan keyin Oron tarafga hujum qilishga tayyorlana boshladilar.

Jaloliddin O‘zbakning matonatini bukmak va ruhini tushirmoq uchun yozgan maktubida shunday degan edi:

“Sen uchun ikki yo‘l bor: birinchisi taslim bo‘lmoq, ikkinchisi esa, o‘z-o‘zingni o‘ldirmoqdir. Taslim bo‘lmasang, o‘z-o‘zingni o‘ldirishga majbur bo‘lajaksan, chunki men sening sevikli xotining Mehrijahon xonimga uylanganman. Yaqin kunlar orasida u bilan birga Ganjaga borib to‘yni sening ishtirokingda o‘tkazaman”.

Shu maktubdan bir necha kun keyin Jaloliddin Ganjani ishg'ol etib, O'zbakni asir qilib oldi. Jaloliddin Ganjaga kirganining ikkinchi kuni tantanali bir ziyofat tashkil etdi va O'zbakni o'z huzuriga keltirishlarini buyurdi. Ziyofat dasturxonining to'rida ikki taxt qurilgandi. Taxtning birida Jaloliddin va ikkinchisida uning rafiqasi Mehrijahon xonim o'tirardi. O'zbak o'z xotiniga qaramaslik uchun boshini quyi solgandi. Uni taxtning ro'parasida tikka turg'izib qo'yishgandi. Jaloliddin unga yuzlanib dedi:

— Men seni ota-bobolaringning gunohlari uchun jazolamayman, yolg'iz o'z ayblaring uchun jazolayman. Sen otamning ko'zi tirik chog'ida uning himoyasini qabul qilganding. Qani aytgin-chi, nima sababdan men hukmdorlik qila boshlaganimda menga qarshi isyon boshlading? Shuning uchun shu soatdan e'tiboran Eldaniz xonadoni saltanatini tugataman. Xonadoningizda bo'lgan chaqaloqlargacha dami tig'dan o'tkazaman.

Jaloliddin shu so'zlardan so'ng jallodni chaqirib O'zbakning boshini kesishni buyurdi. Lekin O'zbakning sobiq xotini Mehrijahon xonim yig'lab Jaloliddinga yolvordi, uni o'ldirmasligini so'radi.

Jaloliddin Mehrijahon xonimning iltimosini qabul qilib vaziriga:

— O'zbakni umrbod Alanjiq qal'asiga hibs qiling! — deb farmon berdi.

* * *

Alanjiq qal'asida ikki bandi chol bir-biriga achchiq sarguzashtlarini hikoya qilib bergandan so'ng chollardan biri ho'ngir-ho'ngir yig'lab:

— Sening qarshingda o'tirgan o'sha badbaxt O'zbakdir, — deganida, ikkinchi chol ham qarshisidagi cholning bo'ynidan quchoqlab o'parkan dedi:

— Bechora ukam! Sening ro'parangda o'tirgan odam ham akang Qutlug' Inonjdir. O'ttiz yildan beri bamisoli vahshiy hayvon kabi tosh sag'anada sochlarim oqardi.

O'zbak bilan Qutlug' yana bir bor quchoqlashib o'pishdilar. Ularning bir necha haftadan beri bir-birlariga aytib bergan g'amqayg'u dostonlari shu yerda tugadi.

MUNDARIJA

Tarixning tiniq tasviri, turmushning teran tahlili *(Abdulla Ulug‘ov)* 3

QILICH VA QALAM

BIRINCHI QISM

Xarobot 28
Bahor 46
Husomiddin 67
Faxriddin 71
Dilshod 76
Muhr 82
To‘xtamish 92
“Tovus” mehmonxonasi 98
“Nomus” 100
“Bog‘i Eram” 104
Kengash 109
Ra’no 113
Sabo xonim 121
Xalifaning maktubi 126
Xalifaning chopari 131
Faxriddin va Sabo 136
Sevgi falsafasi o‘rniga hayot falsafasi 141
Rashk 152
Hayajon 159
Istiqbol 163
“Farmoni Humoyun” 175
Shoirning so‘nggi so‘zi 186
Qizil Arslon 195
Sulaymoniy 204
Oron 212

Sharafli oila 220
Yagona Ozarbayjon 226
Otabek Muhammad *(R. Komilov tarjimasi)* 231
Iydi Ramazon 235
"Layli va Majnun" dostoni 248
Hiyla 261
Tasodif 264
Qabul marosimi 269
Mug'on 274
So'nggi chora 281
Otabek bilan birinchi uchrashuv 288
To'y 292
Sevgi maktublari 301
Qutlug' Inonj 309
Eldaniz qo'rg'oni 317
"Layli va Majnun" 322
Qatiba va Qizil Arslon 328
Qo'zg'olon 332
Motam 340
Suiqasd 344
Hujum 351
G'alaba 356
Shaxmat 362
Go'zal 365
Ont 390

IKKINCHI QISM

Otabek Muhammad va Sabo xonim 394
Bag'dod 403
Durratul-Bag'dod 409
Tilanchi xalifalar 419
Soxta Dilshod 427
Nizomiyga suiqasd 444
Xalifaning qizlari 448
Xotinlar va qizlar dunyosi 452

Taxtga o'tirish kuni 459
To'p va chavgon o'yini 464
Qilich va qalam 471
Ko'shki bog'i Muazzam 473
XII asrning yarmisida Ozarbayjon 491
O'lim hukmi 498
Otabek Muhammadning o'ldirilishi 501
Aldanish 511
Qaytish 520
Xavf 525
Erkaklar 530
Ziyofat 543
Bag'dod va Hamadonga yurish 549
Qatibaning surgun qilinishi 561
Husomiddinning hibsxonadan qochishi 565
Islohot va uning natijalari 577
Dajla sohilida 588
Madoyin xarobalarida 594
O'jarlik 601
"Malika" 610
Nasihat 615
To'rt maktub 623
Fikr-mulohazalar 637
Kaxiron qal'asi 653
Ishq daftari 662
Kur soyi bo'ylarida 678
O'lim 696
Sevgi va zahar 709
So'nggi jang 730
Yangi voqealar 755
Hamdunyan 772
Naxchivon 784
To'g'rulning qatl etilishi 807
Kamon 811
1140–1225 818

M 23 Muhammad Said O‘rdubodiy [Matn]: nasr/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Abdulla Ulug‘ov. — Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 824 b.
ISBN 978-9943-8725-7-8

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MUHAMMAD SAID O‘RDUBODIY

60-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 51,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 48,34.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 127-1/22 Buyurtma raqami № 22-343

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUHAMMAD SAID O‘RDUBODIY